

Rasputin in his Jordanian

V.G. Rasputin



OMON  
BO'LSANG,  
UNUTMA

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilмаган holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

--	--

42-68

Eln V.

P.

P5

4239590

cn



821  
R25

15.0.

Rus adabiyoti durdonalari

# VALENTIN GRIGORYEVICH RASPUTIN



## OMON BO‘LSANG, UNUTMA

197

*Hikoya va qissalar*

TOSHKENT  
«O’ZBEKISTON»  
2021

UO'K 821.161.1-32

KBK 84(2Ros-Rus)

R 25

Rus tilidan

Ibrohim G'afurov, Dilafruz Matyoqubova,  
Shohsanam tarjimalari

**Rasputin, Valentin**

T 97

R 25 Omon bo'lsang, unutma [Matn]: hikoya va qissalar /  
V. Rasputin. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 632 b.

ISBN 978-9943-7333-7-4

Valentin Rasputin XX asr rus prozasining peshqadam vakillaridan biridir.  
Adibning barcha asarlari keng kitobxonlar tomonidan qizg'in kutib olingan.


«Omon bo'lsang, unutma» qissasida yozuvchi oddiy qishloq ayolining  
qochoq turmush o'rtog'i tufayli fojiaviy yakun topgan qismatidan so'zlasa,  
«So'nggi muhlat»da u chin insoniy tuyg'ular, oqibat, sadoqat va farzandlarning  
onaga hamda o'zaro munosabatlarini mohirona yoritib beradi.

Shuningdek, ushbu to'plamdan joy olgan «Yong'in», «Mariyaga pul ke-  
rak» qissalari hamda «Fransuz tili saboqlari» hikoyasida ham qishloq hayoti,  
undagi odamlar, ularning his-tuyg'ulari, kechinmalari nozik tasvirlanar ekan,  
voqealar dilga yaqinligi va rivoji bilan kitobxonda zo'r qiziqish uyg'otadi.

UO'K 821.161.1-32

KBK 84(2Ros-Rus)

ISBN 978-9943-7333-7-4



© I. G'afurov va boshq. (tarj.), 2021  
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



## OMON BO'LSANG, UNUTMA

*Qissa*

### 1

Qirq beshinchi yilning qishi, urushning so‘nggi yilining qahratoni bu yerlarda yumshoqroq kelsa ham, ammo baribir, chilla sovug‘i, odatdagidek, o‘z aytganini qildi, qirq darajadan oshib ketdi. Daraxt shoxlarida bir haftadan beri yopishib yotgan bulduruq eridi-yu, o‘rmon batamom karaxt bo‘lib qoldi, yerdagi qor g‘ozini yo‘qotib, salga g‘archillar, uqalanib ketar, ertalablari chirsillab turgan sovuq havoda nafas olish qiyin bo‘ldi. Keyin havo biroz shashtidan qaytdi, shundan so‘ng yana bir marta yumshadi, natijada sayhonliklarda gi qor beti yupqa muz boylab, erta qotib qoldi.

Shu sovuq kunlarda Guskovlarning Angara yoqasiga tutash tomorqasi etagidagi mo‘rchadan buyum yo‘qoldi: Mixeichning qo‘ling o‘rgilsin qadimiy, duradgorlikka ishlataidan boltasi g‘oyib bo‘ldi. Odatda biron narsani begona ko‘zdan yashirib qo‘yish lozim bo‘lsa, mo‘rcha toshi yonidagi qoqilmagan pol taxtasi tagiga tiqib qo‘yishardi, keksa Guskov kuni kecha tamaki tuyu turib, boltani o‘sha yerga tiqib qo‘yananini aniq eslardi. Ertasiga borib qarasaki, bolta yo‘q, qidirmagan joyi qolmadi – yerga kirdimi, osmonga uchdimi, xullas, bolta g‘oyib bo‘lgandi. Shu bahonada Mixeich mo‘rchan ostin-ustin qilib, boltadan boshqa narsalar ham yo‘qolganini payqadi: kimdir bu yerni bilganicha titib, tokchaga bosib qo‘ylgan qo‘lbola tamakining yarmini, dahlizdagi eski chang‘ini ham ola ketibdi. Shundan keyin keksa Guskov o‘g‘ri bu yerlik emasligini, boltasini qaytib ko‘rmasligini tushunib yetdi. Chunki o‘g‘ri o‘z qishlog‘idan bo‘lganda, hech qachon chang‘ini olib ketmasdi.

Nastena mo‘rchadan buyum yo‘qolganini kechqurun, ishdan qaytib kelganidan keyingina bildi. Mixeich kun bo‘yi o‘zini qo‘yarga joy topolmay yurdi: urush payti bunaqa boltani topib bo‘larkanmi? Yo‘q, sirayam topolmaydi endi. Attang, o‘ziyam yengilgina, o‘tkir, xuddi

o‘yinchoqdek bolta edi-da, shundoqqina qo‘lga tushardi-qo‘yardi. Nastena qaynotasining oh-vohini eshitarkan, horg‘inlik bilan alla-qanday bir parcha temir deb shunchalik kuyib-pishishning nima hojati bor, axir busiz ham dunyo anchadan beri alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib yotibdi-ku, deb o‘yladi. Faqatgina Nastena o‘rinda a’zoi badani xiyol sirqirab yotarkan, miyasiga lop etib bir fikr keldi-yu, yuragi hapriqib ketdi: ha-ya, pol ostiga qarash begona odamning esiga qayoqdan ke-lib qoldiykin? Nogahon miyasiga kelgan bu fikrdan Nastenaning na-fasi bo‘g‘ilib, uyqusi o‘chib ketdi va qorong‘ilikda uzoq vaqt mijja qoqmay yotdi. U dahshatli gumanini bitta-yarimta sezib qolishidan hadiksiraganday, qimirlashga ham qo‘rqrar va bu fikrni goh o‘zidan nari haydar, goh unga mahkam yopishib olar edi.

Shu kecha Nastena tunni bedor o‘tkazdi, ertalab esa, tong yori-shar-yorishmas o‘rnidan turdi-da, o‘zi borib mo‘rchanli ko‘rmuoqchi bo‘ldi. U qori toptalgan buzoqxona orqali emas, balki hamma yuradigan yo‘ldan Angara yoqasiga tushdi-da, o‘ngga burildi. Bu yerdan baland tik jar labidagi to‘sinq ortidan mo‘rcha tomi ko‘rinib turardi. Nastena pastda biroz to‘xtab qoldi, keyin zinaning muzlagan pillapoyalaridan asta yuqoriga ko‘tarildi-da, eshikni g‘ijirlatmaslik maqsadida to‘sinqi oshib o‘tdi, ichkari kirishga yuragi betlamay, mo‘rcha yonida picha taraddudlanib turdi, so‘ng pastakkina eshikcha tutqichini ohista tortdi. Ammo eshikcha nam tortib, muzlab qolganmi, ochilmadi, shuning uchun Nastena uni bor kuchi bilan siltab tortdi. Yo‘q, demak, ichkarida hech kim yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Mo‘rcha ichi qop-qorong‘i edi. Angaraga, g‘arbgaga qaragan darchadan endigina bo‘zarib kelayotgan tongning g‘ira-shira yorug‘i tushib turardi. Nastena darcha ostidagi o‘rindiqqa o‘tirdi va yangi, g‘ayritabiyy, lekin bir vaqtłari o‘ziga tanish bo‘lgan hidni sezishga urinib, mo‘rcha ichini diqqat bilan iskay boshladи. Biroq dimog‘iga muzlagan chirindining o‘tkir, achimsiq sassig‘idan boshqa hid urilmadi. «Men tentak, qanday xayollarga borib yuribman-a», deya Nastena o‘ziga o‘zi ta’na qildi va bu yerga nima maqsadda kelgанини ham, bu yerda nima topmoqchi bo‘lganini ham tushuna olmay o‘rnidan turdi.

Kunduzi Nastena xirmondan kolxoz saroyiga poxol tashidi va har safar tepalikdan tushayotganda, xuddi sehrlanganday, mo‘rchaga qarab-qarab qo‘yardi. U o‘zini koyir, xunobi oshar edi-yu, lekin ba-

ribir qorayib ko‘rinib turgan o‘sha beso‘naqay mo‘rchaga qayta-qayta nigoh tashlardi. Poxolni qor tagidan temir panshaxa bilan kavlab olib, chanaga tutam-tutam qilib tashlashga to‘g‘ri keldi va shu boisdan har qanday og‘ir ishni ko‘rdim demaydigan Nastena uch marta qatnaganidayoq shu qadar holdan toydiki, puf desa yiqilguday bo‘lib qoldi. Buning ustiga kechasi uxlamagani ta‘sir qildi shekilli, kechqurun Nastena nari-beri tamaddi qildi-yu, o‘zini tappa o‘ringa tashladi. U uxbab qolib, kechasi tushiga kirib chiqqanidanmi yoki uxbab miyasi tiniqqanidanmi, qay birilagini aytolmaydi, har qalay ertalab uyg‘onganida bundan bu yog‘iga nima ish qilishini aniq bilardi. U qaznoqdan katta bir dumaloq nonni olib, toza bo‘zga o‘radi-da, hech kimga sezdirmay, mo‘rchaning berigi burchagidagi o‘rindiqqa eltilib qo‘ydi. U biroz o‘ylanib turdi-da, afsun o‘qiyotganday qandaydir sirli xo‘rsinib, eshikchani yopib, chiqib ketdi.

Shundan keyin Nastena ikki kungacha ertalab borib mo‘rchaning tekshirdi, ammo nonga hech kim tegmadi. So‘ngra u nonni yangi yopilgan non bilan almashtirib, buni ham yana o‘sha avvalgi, ko‘rinarli joyga qo‘yib qo‘ydi. Endi u hech nimadan umid qilmay qo‘ygandi, ammo yuragini bosgan qandaydir vahm sira tinchlik bermay, bolta o‘g‘irlanishining oqibati nima bilan tugashini bilishga uni majbur etardi. Axir, g‘o‘la ostida qaznoq borligini begona odam bilmaydi-ku – mana o‘sha g‘o‘la, boshqa g‘o‘lalar bilan bir qatorda zilday bo‘lib yotibdi, ustida o‘yin tushsang ham qimir etmaydi. Yoki bitta-yarimta sezganmikin? Faqat non, ha, nongina o‘sha kimsa kimgilagini aniqlab berishi mumkin. Inson zoti nonni ko‘rsa chidab turolmaydi.

Yana ikki kundan keyin non g‘oyib bo‘ldi. Nonning joyida yo‘qligini ko‘rib, Nastena qo‘rqib ketdi. U holsizlanib, ingraganicha o‘rindiqqa o‘tirib qoldi va boshini chayqadi: yo‘q, bo‘lishi mumkin emas. Bunday bo‘lishi mumkin emas! Ehtimol, qaynotasimi yoki qaynonasimi kirgan-u bu yerda nonni ko‘rib, uyg‘a olib ketgandir. Ha, shunaqa. Nastena cho‘kkaladi, polda non ushoqlari yotardi. Yo‘q, bu yerga qaynotasi ham, qaynonasi ham emas, boshqa birov kirgan. Nastena mo‘rcha pechidagi sovuq kulni titkilab, papiros qoldig‘ini topdi.

Shu daqiqadan e‘tiboran Nastena go‘yo o‘zini boshqacha bir olamda ko‘rayotganday edi: endi bu yog‘i nima bo‘larkin? U ro‘zg‘or yumushlarini bajarar, kolxoz ishiga chiqar, odamlar ichi-

da o‘zini avval qanday tutgan bo‘lsa, shunday tutardi-yu, tiq etgan tovushdan cho‘chib tushib, chor atrofga alang-jalang qarar edi. Bir-on nimani kutsang-u, ammo nimani kutayotganiningi o‘zing ham aniq bilmasang, yuraging siqilib, toqating toq bo‘lib ketadi. Shuning uchun Nastena shanba kuni mo‘rchan ni yoqdi. Semyonovna havo sovuq-ku, nima qilasan, deb uni ra’yidan qaytarmoqchi bo‘ldi, lekin Nastena o‘zim suv tashiyman, o‘zim isitaman, sizlar faqat cho‘milasizlar, xolos, deb gapida turib oldi.

Nastena mo‘rchan birpasda isitishi mumkin edi, bu qiyin emas, lekin u ataylab shoshilmadi. U qarag‘ay, sekin yonadigan qayin o‘tinlarini yordi, mo‘rcha toshiga odatdagidan kechroq olov yoqdi. Qish endigina shashtidan tusha boshlagan bo‘lsa ham, hali kun sovuq, ammo havo ochiq va osoyishta edi. Nastena Angaradan suv olib, tepaga ko‘tarilar ekan, har safar mo‘ridan chiqayotgan tutunga beixtiyor nigoh tashlardi: qayinning qop-qora tutuni epkinsiz havo-da xuddi adl simyog‘ochday osmonga tik ko‘tarilar va olis-olislardan ham ko‘zga tashlanib turar edi. Nastena keragidan ortiqcha bir tog‘ora suv isitib, pol va tokchalarni yuvib-artdi, quvurni berkitdi va qosh qorayganda chol bilan kampirni aytgani bordi, ularga chiroqqa kerosin ola kelinglar deb tayinlashni ham unutmadi.

Nastena go‘yo uyqusida yurgan odamday paypaslab yurar, kuni bilan qyinalganini, charchaganini sezmasdi, ammo hamma ishni o‘zi o‘ylab qo‘yanidek puxta bajarardi. Nastena chol-kampirning yuvinib kelishini kutdi, ular kelgach, kiyim-kechagini yig‘di va Semyonovna yuvinishga kim bilan borasan, deb so‘raganida, Nadka bilan boraman deb yolg‘on javob berdi. Odatda Nastena mo‘rchaga tushadigan bo‘lsa, qo‘shni ayollardan bitta-yarimtasini chaqirardi: u o‘zining so‘lib borayotgan badaniga qarab turib ezilardi, o‘kinardi, ko‘zlariga yosh olardi. Lekin u bugun bir o‘zi yuvinmoqchi edi. Nastena mo‘rchaga qorong‘i tushib qolganda, zim-ziyo tun qora chodirini yoyib ko‘roydin boshlanmagan paytda bordi, darchani ichidan latta bilan to‘sdi va tezgina yuvinib olmoqchi bo‘lib, apil-tapil yechindi, chunki uning o‘ylagan narsasiga, nazdida, hali vaqt bor edi.

Nastena yuvinib bo‘lgach, uyg‘a qaytib keldi, chiroq yorug‘ida oynaga qarab, sochini taradi va keyin, chol-kampirga mo‘rchaga birga tushgan Nadkanikiga borib, birpas o‘tirib kelaman dedi. Chindan ham Nastena Nadkanikiga bordi, lekin u yerga yo‘liga,

uning ko'ziga ko'riniq qo'yish uchun bordi. Shuning uchun bir-pas o'tirgan bo'ldi-yu, so'ng mo'rchaga yugurgiladi. U kechik-magan bo'lsam go'rgaydi, degan xavotirda o'g'rinchada qadam tashlab, asta eshik tagiga keldi-da, hech kim yo'qmikin, deya sekin ichkariga qulqoq soldi, keyin ehtiyyotkorlik bilan mo'rchaga kirdi. Mo'rcha hali iliq edi. Nastena terlab ketmaslik uchun ostona yoniga o'tirdi. Bordi-yu, bitta-yarimta kelib qolgan taqdirda ham u dik etib o'rnidan turib, o'zini bir chetga olishga ulguradi, hozircha esa, kutishi kerak, xolos.

Qishloqdan turli ovozlar, itlarning akillashi elas-elas eshitilib turardi, nihoyat bular ham tinib, hammayoq jumjut bo'lib qoldi. Har zamonda Angaradan muzning bo'g'iq chirsillashi qulqoqqa chalinardi, mo'rcha ham bug'lana-bug'lana soviy boshladi. Nastena zimistonda o'tirarkan, mo'rcha darchasini arang ko'rardи, u o'zini shu ahvolda esankirab qolgan nochor ohudek his etardi. U o'zini ovutish uchun biron nimani o'ylashga yoki biron nimani xotirlashga urinib ko'rdi, lekin bo'lindi; odamlar orasida yurganda hammasi jo'ngina tuyulib, o'zini bemalol tutgan bo'lsa, bu yerda kallasiga hech nima kelmayapti.

Oradan xiyla vaqt o'tdi, eshikdan g'o'rillab sovuq kira boshlagandan keyin u o'rindiqqa o'tib o'tirdi.

Nastenaning ko'zi ilindi, qadam tovushlarini eshitmay qoldi. Nogahon eshik ochildi-yu, uni bir nima turtib o'tib, mo'rchaga kirdi. Nastena sakrab o'rnidan turdi.

– Voy xudo! Bu kim, kim bu?! – qo'rquvdan tosh qotib qichqirdi u.

Qop-qora, bahaybat jussa eshik oldida bir lahma turib qoldi-da, keyin Nastenaga tashlandi:

– Ovozingni chiqarma, Nastena. Bu men, jim!

Qishloqda itlar xam akillay-akillay tinchib qoldi.

## 2

Angaraning o'ng sohiliga joylashgan Atamanovka bor-yo'g'i o'ttiz hovlidan iborat bo'lib, uni qishloq emas, ovul desa bo'lardi. Qishloq o'zining jarangdor nomiga qaramay, bu atrofda bir o'zi mung'ayib yotar edi, ustiga ustak, urushdan oldinroq sekin-asta, kishi bilmas fayzi keta boshlagandi: birvarakayiga besh uy – unaqa-

bunaqa emas, dang‘illama uylardan beshtasining huvillab qolganiga, derazalariga taxta qoqib tashlanganiga ham ancha vaqt bo‘lib qolgan. Urush vaqtida-ku, qishloqlarda odamlarning siyraklashib qolganini izohlab o‘tirmasa ham bo‘ladi, bu èndi ma’lum, ammo Atamanovka-dan odamlar, ayniqsa, ro‘zg‘or tashvishi boshiga tushmagan yoshlар ancha oldinroq keta boshlagandi. Ularni gavjum, sershovqin, kela-jakda obod bo‘lib ketadigan joylar qiziqtirardi, Atamanovkaning esa istiqboli bunaqa emasdi. Qishloq qachonlardir bir chekkada bunyod-ga kelgandi: Atamanovka bilan qishloq soveti joylashgan eng yaqin Karda qishlog‘i orasidagi masofa yigirma chaqirimdan ortiq edi. To‘g‘ri, Angaraning narigi betidagi Ribnaya qishlog‘i unga ancha yaqin edi, lekin Ribnayadagilar bordi-keldini quyi oqimdagи qo‘snilari bilan qilishardi, chunki qishloq soveti ham, magazinlar ham, boshliqlar ham, boringki rayon markazi ham o‘sha yoqda edi. Har qanday zarurat bo‘lsa, o‘sha yoqqa borishardi. Atamanovka-ga esa daryoni kesib, ahyon-ahyondagina qadam ranjida qilishardi. Atamanovka yonidan suvni shaloplatib paroxodlar qatnar, axborotlar tashir edi, ammo sohilda noxush so‘ppayib turgan qishloq bu axborotlardan bexabar qolaverardi. Hatto urush boshlangani to‘g‘risidagi xabar ham bu yerga ertasiga yetib kelgandi.

Ammo shuni ham aytish kerakki, qishloq hamisha ham shu xilda ahamiyatsiz, nazardan qolib kelgan emas. Qishloq Atamanovka deb atalguniga qadar bundan ham dahshatliroq Razboynikovo (Qaroq-chi qishloq) nomi bilan dovrug‘i ketgan. Eski zamonlarda bu yerdagi erkaklar mashaqqatsiz foydali hunardan – Lenadan oltin olib kela-yotgan tilla qidiruvchilarni tunashdan or qilmaganlar. Tog‘ tizmasi Angara daryosiga deyarli taqalib kelganidan va qishloqni chetlab o‘tishning sira iloji yo‘qligidan qishloq yo‘lto‘sarlik qilish uchun juda qulay edi, istasang-istamasang shu yerdan o‘tishing kerak edi. Daryo biqinida qishloq shovvozlari poylab turishardi-da, duch kelgan Lena oltin izlovchilarini tunashardi. Bora-bora qishloq shu nom bilan shuhrat qozondi. Og‘izda yurgan «Razboynikovo» nomi qog‘ozga ham ko‘chdi, ammo sovet hokimiyati o‘rnatalmasidan oldinroq bo‘lisdagilardan qaysi birining nazarida bu nom xunukday tuyuladi, shuning uchun ma’nosи ham deyarli o‘shanday eshitilar, eshitgan qulorra ham yaxshi, deya uni Atamanovka deb o‘zgartirishdi. Darvoqe, mahalliy xalq o‘zgartirilgan nomga negadir ko‘ngli bo‘lmadi,

oradan shuncha yillar o'tgan bo'lishiga qaramay, kardalik, ribnayalik va boshqa qishloqlardagi qariyalar, xuddi til biriktirganday nuqul bir gapni takrorlagani-takrorlagan:

– Butun qishloq qaroqchilik bilan shug'ullanardi-yu, bular bo'lsa hamma aybni qandaydir bir atamanning bo'yniga ag'darmoqchi bo'lishyapti, e, yo'q, bunaqa g'irromlik ketmaydi.

Nastena taqdir taqozosi bilan Atamanovkaga yuqori Angara-dan kelib qolgandi. O'n olti yashar Nastena o'ttiz uchinchi yilda-gi ocharchilikda validai ne'matini Irkutsk yaqinidagi kindik qoni to'kilgan qishlog'iga dafn etib, o'limdan omon qolish uchun sak-kiz yashar singilchasi Katkani yetakladi-da, daryoning quyi oqimi tomon bosh olib ketdi. Gap-so'zlarga qaraganda, u yoqlarda odam-lar unchalik kambag'al yashashmas ekan. Nastenaning otasini ilga-ri, kolxozlar endi tuzilayotgan yili o'ldirib ketishgan, aytishlaricha, dushman boshqa kishini nishonga olib, tasodifan uning otasini otib qo'ygan ekan, ammo qotilni topishholmabdi. Shunday qilib, qizlar kimsasiz yetim bo'lib qolishadi. Butun yoz bo'yi Nastena bilan Kat-ka qishloqma-qishloq daydib, goh dastyorchilik qilib, ba'zi joylarda esa jajji va shiringina Katkaga berilgan xayr-sadaqalar bilan kunlari-ni o'tkazib yurishadi. Agar Katka bo'limganda Nastenaning holiga maymunlar yig'lagan bo'larmidi. Uning o'zi novcha, ozg'in, qo'llari, oyoqlari o'qlog'day uzun-uzun, boshi cho'zinchoq, yuzi chillashir-day bujmaygan, ta'bir joiz bo'lsa, xuddi och arvohning o'zginasi edi. U Katkaga ona o'rniда ona bo'lib qolgandi. Faqat Katka tufayligina Nastena qimirlashga, birovlarining eshidigiga borib, eho'rilikka oling, deb yalinishga, bir burda non so'rab gadoychilik qilishga majbur bo'lardi.

Kuzga borib opa-singillar bir amallab Nastena es-es biladigan ammalarining qishlog'i Ryutinaga yetib kelishdi. Ammasi vaysab-vaysab bo'lsa ham qizlarni bag'riga oldi. Nastena sal o'ziga kelgan-dan keyin kolxozga ishga chiqdi. Katkani esa mакtabga berdi. Bu paytga kelib ahvol ancha yaxshilangan, polizlarning hosili yetilgan, bug'doylar ham pishib qolgandi. Yegulik bo'lган joyda ochlik ham chekinarkan, qishga borib Nastena ancha o'ziga kelib oldi. Kelgu-si yili ham hosil shunday bitdiki, endi ochlik haqida og'iz ochish-ning o'zi uyat bo'lib qoldi. Sekin-asta Nastenaning chehrasiga erta tushgan ajinlar yo'qola bordi, badani to'lishdi, yonoqlariq naqsh

olmaday qizarib, ko'zlarida shodlik o'ynay boshladi. Yaqinginada cho'pday bo'lib yurgan Nastena endi lobar qiz bo'lib qolgandi. Ikki yil o'tgandan keyin Nastenani xuddi mana shu Ryutinada, qishloqdan sal naridagi sisternadan yonilg'i olib, solda tashib yuradigan bir begona, ammo epchil, chaqqon va tanti yigit Andrey Guskov uchratib qoladi. Ular darrov til topishadi, ammasinikida cho'ri bo'lib ishlab, qaddini dol qilib yurish ham Nastenaning rosa joniga tekkandi. Andrey yonilg'i solingen bochkalarni MTSga olib keldi-da, imillab o'tirmasdan, paroxodda orqasiga qaytdi va Nastenani o'z qishlog'i Atamanovkaga olib ketdi.

Nastenaning turmushga chiqishi xuddi tomdan tararasha tushganday bo'ldi, hech nimani ortiqcha mulohaza qilib o'tirmadi: baribir erga tegish kerak, kamdan kam odam bu dunyodan yolg'iz o'tadi, shunday bo'lidan keyin cho'zib nima qiladi? Shuning uchun u yangi oilada, begona qishloqda holi nima kechishini yaxshi tasavvur qila olmasdi. Oqibatda shunday bo'lib chiqdiki, yomg'irdan qutulib, qorga tutildi, ya'ni cho'rilikdan cho'rilikka bordi. Farqi shuki, ro'zg'ori katta, talabi ham qattiqroq boshqa xonadonga o'tdi. Guskovlarning ikki sigiri, qo'y, cho'chqalari, tovuqlari bor edi, katta bir uyda uch kishi istiqomat qilardi, Nastena to'rtinch bo'lib keldi. Shuning uchun barcha ro'zg'or yumushi Nastenaning gardaniga tushdi. Semyonovna ko'pdan beri kelin kelsa-yu, zora yukim yengillashsa, deb orzu qilib yurardi, mana kelin ham keldi, ammo o'zining tobi qochdi-yu, oyoqlari shishib, yurganda xuddi o'rdakka o'xshab lapanglab, u yonidan bu yoniga tashlab yuradigan bo'lib qoldi. Baribir u ro'zg'orda bosh-qosh edi. Semyonovna umr bo'yi ro'zg'orni tebratib keldi, mana endi uning o'rniga ro'zg'orni boshqa qo'llar tebratyapti-yu, lekin o'ziniki bo'lmagani uchun bu qo'llar nazarida noshudday, erinchoqday tuyulardi. Semyonovna tabiatan injiq xotin edi: goho birov ra'yini qaytarsa yoki o'zini oqlashga tushsa, fig'oni falakka chiqardi-da, chakagi tinmay vaysardi, goho jahli chiqib, tumshayib olardi-da, birovga bir og'iz ham gapirmsadi, u bilan janjallashmaslik, urishib ketmaslik uchun Nastena kabi sabr-toqatli va tog'day vazmin odam bo'lish kerak edi. Nastena qaynonasining injiqliklariga odatda churq etmasdi, u bunga Katka bilan Angara qishloqlarida tilanchilik qilib yurgan, erinmagan bandalar uni bekordan-bekor urishib so'kkan yoz faslida

o'rganib qolgan edi. Albatta, u tubdan atamanovkalik bo'lib, bu yerda biron gap bo'lguday bo'lsa, darrov Nastenaning yonini oladigan, uni xafa qildirib qo'ymaydigan qarindosh-urug'lari bo'lsa-ku, unda Nastenaga nisbatan munosabat ham boshqacha bo'lardi-ya. Lekin Nastena kimsasiz yetim, qayoqdan kelib qolgani ham noma'lum, bor-yo'q sepi egnidagi bittagina bo'z ko'ylak edi. Hatto songa kiritish uchun kiyim-kechakni shu yerda tiktirib, egniga ilishga to'g'ri kelgach – indab ko'rsin-chi, Semyonovnaning miyasiga o'mashib qolgan fikrlar ana shunday edi, bu fikrlar, ayniqsa, havo aynigan paytlarda uning oloviga moy quyardi.

Darvoqe, yillar o'tishi bilan Semyonovna Nastenaga ko'nikib qoldi, u endi borgan sari kamroq vaysar, royish, qo'l-oyoqli kelinga yo'liqdim, deb ko'nglidan o'tkazib qo'ya boshladi. Nastena kolxozi shiga ham borib-kelar, ro'zg'or yumushlarini ham deyarli bir o'zi bajarar edi. Erkaklar qishga o'tin, pichan g'amlashni bilishardi, xolos. Ha, aytganday, bordi-yu, uyning tomi tushib ketsa, uni ham erkaklar ko'tarishardi, ammo Angaradan suv tashib kelish yoki og'ilni tozalash erkakka yarashmaydigan, uyat ish hisoblanardi. Semyononna shishib ketgan dardchil oyoqlari bilan uzoqqa borib-kelolmasdi, hamma yerda Nastena girdikapalak edi. U bo'lmasa, kampirning holiga voy edi, bu esa noiloj qaynonaning popugini pasaytirib, yon berishga majbur qilardi. Kampir bir narsani – Nastenaning bolasi yo'qligini aslo kechira olmasdi. Kampir ta'na qilishga-ku qilmasdi-ya, u bu har qanday xotinning ham izzat-nafsiга tegishini yaxshi bilardi, lekin ko'nglining bir chekkasi xira edi. Buning ustiga Andrey chol-kampirning uch bola o'rniga qolgan yolg'iz farzandi edi, chunki Andreydan oldin dunyoga kelgan ikki qizi turmagandi.

Bolasizlik Nastenani hamma xo'rliklarga chidashga majbur etardi. U bolalik chog'idayoq farzandsiz xotin xotin emas, quruq jasad, deb eshitgandi. Shuning uchun Nastena o'zida shunday nuqson borligini xayoliga ham keltirmadi va ayol qismatini oldindan bilgani uchun indamay erga tegib ketaverdi, hatto o'z hayotida katta o'zgarish bo'layotganidan quvondi, lekin keyinroq, odatda bo'ladigandek, esizgina, qizligimda yana picha o'ynab-kulib olmadim-da, deb sal achinib qo'ydi. Andrey bo'lsa uni erkalatar, ardoqlar, jonimning malhami der edi, Ular dastlabki paytlarda bola to'g'risida o'ylashmadi ham, shunchaki baxtdan sarmast bo'lib, bir-birining atrofida parvo-

na bo‘lib yuraverishdi. Bola go‘yo ularning bu baxtiga hatto zavol bo‘lishi mumkindek tuyulardi. Ammo keyin, turmushda odat bo‘lib qolgan azaliy tartib-qoidalarga putur yetishi, oila buzilishi xavfi paydo bo‘la boshlashi bilan qandaydir sekin-asta zimdan tashvish ham tug‘ildi; ilgari cho‘chib, saqlanishga harakat qilib yurgan narsalarini endi bo‘larmikin, bo‘lmasmikin, deb bo‘ri qulog‘i ovda deganday poylashga tushishdi. Oylar o‘tib borardi, lekin hech qanday o‘zgarishdan darak bo‘lmadi, shundan keyin ilhaqlik o‘rnini sabrsizlik, keyin esa vahima egalladi. Bir yil ichida Andreyning Nastenaga nisbatan munosabati butunlay o‘zgarib ketdi, injiqlik qilar, jekar, hech narsadan hech narsa yo‘q so‘ka boshlardi, keyin esa tutib olib do‘pposlaydigan odat chiqardi. Nastena hammasiga chidadi: rus ayollarining taomiliga ko‘ra, turmush bir marta quriladi, shuning uchun boshga tushganini ko‘z ko‘rar, degan aqidaga amal qilardi. Undan tashqari Nastena bu ko‘rgilikka o‘zini aybdor deb hisoblardi. Faqat bir marta, Andrey ta’na qilib, uning hamiyatiga tegadigan qandaydir og‘ir bir gap aytganida, Nastena alam qilganidan ayb qaysi birimizda – sendami yoki mendami, bu ma’lum emas, chunki men boshqa erkaklarni hali sinab ko‘rganimcha yo‘q, deb javob qaytardiyu, baloga qoldi. Andrey uni o‘lasi qilib savaladi.

To‘g‘ri, urushdan oldingi yil ular ancha totuv yashashdi, go‘yo bir-biriga boshqatdan ko‘nikayotganday, bir-birining fe’l-atvorini tushunayotganday bo‘lishdi. Endi ular qars ikki qo‘ldan chiqishi ni yaxshi bilishar, qo‘sghaning bilan qo‘sha qari, degan eski naqlga amal qilishardi. Andrey Nastenani ilgarigidek ortiq ardoqlamasdi, lekin o‘zi ancha tiyilib qolgandi. Nastena hali yoshmiz, bora-bora hech narsa ko‘rmaganday bo‘lib ketarmiz, deb shunisiga ham shukur qilardi. Ha, agar urush boshlanmaganda-ku, balki hech nima ko‘rmaganday bo‘lib ketisharmidi, ammo urush boshlandi-yu, ne-ne orzu-umidlar chil-chil sinmadi.

Andreyni urushning dastlabki kunlaridayoq olib ketishdi. Nastena uvvos tortib yig‘ladi, xo‘p kuyib-pishdi, oxiri taqdirga tan berdi. Axir, bir u emas, norasida go‘daklari bilan qolgan xotinlarning holi bunikidan besh battar edi; chamasi, u erga tekkanidan beri bolasi yo‘qligiga birinchi marta suyunib, shukur qildi. U bekorga qismati dan xafa bo‘lib yuribdi, qaytanga tolei baland ekan, hozir odamlar boshiga tushgan kulfatni ancha uzoqdan ko‘rib-bilib turgan xudo bu-

ning boshiga ham shunday kun tushganida dovdirab qolmasin, deb qo'llab yurgan ekan-ku. Keyin, tinchlik-omonlik bo'lsa, bola ham ko'rар, hali kech emas, ishqilib, Andrey qaytib kelsa bas. Urush keta-yotganda u ana shu orzu-umid bilan yashadi, ertaga nima bo'lishini hech kim bilmaydigan dahshatli kunlarda ana shu orzu-umid bilan nafas oldi.

Andrey uzoq vaqtgacha binoyidek jang qilib yurdi, lekin qirq to'rtinchi yil yozida to'satdan dom-daraksiz bo'lib ketdi. Faqat ikki oydan so'ng Novosibirskdan, gospitaldan yarador bo'ldim, tuzalganimdan keyin uyga borishga bir necha kunga javob berishadi, deb xat keldi. Nastena avvaliga erining oldiga bormoqchi ham bo'ldi, lekin Andreyning va'dasi uni Novosibirskka borish fikridan qaytaridi. Agar javob berishsa, uyda diyordi ko'rishgani ma'qul – ular shuni mo'ljallashgandi. Lekin Andrey yanglishdi, kech kuzda u xafa bo'lib qisqagina xat yozdi, xatida: yo'q, bo'lmadi, gospitaldan javob berishyapti-yu, lekin uyga emas, qayta frontga jo'natishyapti, deb yozgandi.

Andrey yana dom-daraksiz bo'lib ketdi.

Rojdestvordan oldin Atamanovkaga Karda qishloq sovetining rasi Konovalov bilan cho'tir, orqavarotdan odamlar Bardak<sup>1</sup> deb atashadigan uchastka militsioneri Burdak kirib keldi. Ular Angaradan o'tishgandan keyin otning boshini to'ppa-to'g'ri Guskovlarning uyiga qarab burishdi. Nastena uyda yo'q edi.

– O'g'lingizdan qanaqa xat-xabar bor? – deb so'radi Burdak Mixeichdan xuddi so'roq qilayotganday jiddiy ohangda.

Unga Andreyning oxirgi xatlarini ko'rsatishdi. Burdak xatlarini o'qidi-da, Konovalovga uzatdi, u ham o'qib chiqqach, xatni cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Bundan boshqa hech narsa ma'lum qilmadimi?

– Yo'q, – gangib qolgan Mixeich, nihoyat, o'ziga keldi. – Unga biron gap bo'libdimi? Qayerda ekan?

– Biz ham uning qayerda ekanligini aniqlamoqchi bo'lib yuribmiz-da. O'g'lingiz Andrey Guskov g'oyib bo'libdi. Xat-xabar kelsa, bizga bildiring. Tushundingizmi?

– Tushundim.

<sup>1</sup> *Bardak* – bu yerda: buzg'unchi ma'nosida.

Mixeich hech nimaga tushunmadi. Nima gap bo'lganiga na o'zining, na Semyonovnaning, na Nastenaning aqli bovar qilardi.

Qahraton qish kunlarining birida esa, Guskovlarning mo'rchasi poli ostidan bolta g'oyib bo'lgandi...

### 3

– Ovozingni chiqarma, Nastena. Bu men. Jim.

Baquvvat, chayir qo'llar uni yelkasidan ushlab, o'rindiqqa bosdi. Og'riq va qo'rquvdan Nastena ingrab yubordi. Ovoz xirqiroq, bo'g'iq bo'lsa ham, ammo ravishi boyagiday edi, shuning uchun Nastena uni darrov tanidi.

– Andrey, senmisan? Voy xudoyim! Qayoqdan kelib qolding?!

– Anavi yoqdan. Jim bo'l. Mening bu yerdaligimni birovga aytganing yo'qmi?

– Yo'q. O'zim ham bilmasdim-da.

Nastena qorong'ilikda uning yuzini tuzukroq ko'ra olmadi, darcha pardasining bir cheti sal ko'tarib qo'yilgani uchun undan tushib turgan g'ira-shira yorug'likda qandaydir haybatli pahmoq bir sharpa ko'z oldida qorayib turardi. U xuddi qattiq yugurib kelgan odamday ko'kragini kerib pishillar va tez-tez nafas olar edi. Nastena ham nafasi qisayotgani ni sezdi, u qanchalik gumonsirab yurgan bo'lmasin, bu uchrashuv, xuddi tomdan tarasha tushgandek, dastlabki daqiqqa va so'zdan boshlaboq o'g'rincha va vahimali bo'lib, o'takani yorib yubordi.

Nihoyat, Andrey qo'lini olib, sal orqasiga tisarildi. U hamon enti-karkan, titrigan ovozda so'radi:

– Meni qidirishdimi?

– Yaqinda militsioner kelgan ekan, u bilan Kardadan Konovalov ham kelibdi. Otam bilan gaplashishibdi.

– Otam bilan oyim meni payqashgani yo'qmi?

– Yo'q. Otam boltani boshqa birov olgan, deb yuribdi.

– Xo'sh, sen-chi, sen payqabsan-da, a?

Nastena javob berishga ulgurmadi.

– Nonni sen qo'yuvdingmi?

– Ha.

Andrey jim bo'lib qoldi.

– Mana, diydor ham ko'rishdik, Nastena. Ko'rishdik, deyapman senga, – dedi u yana jahl bilan, go'yo Andrey Nastenaning biron

nima deyishini kutgan-u, ammo undan sado chiqmaganday. – O‘z xotinim bilan yonma-yon turganimga sira ishongim kelmayapti. Bu yerlarda birovning ko‘ziga ko‘rinmasam yaxshi bo‘lardi, ammo bir o‘zim qishdan chiqishim qiyin. Sen non qo‘yib, meni gallading. – U yana Nastenani yelkasini qattiq qisdi. – Nima qilib bu yoqqa kelganimni loaqal sen tushunarsan, axir? Tushunasamni yoki yo‘qmi?

- Tushunaman.
- Xo‘sh, nima?
- Bilmasam, – Nastena holsiz boshini chayqadi. – Bilmayman, Andrey, so‘rama.

– So‘rama emish... – U yana entikib, nafas olishi tezlasha boshla-di. – Senga gapning po‘skallasini aytib qo‘ya qolay, Nastena. Mening bu yerdaligimni it ham, bit ham bilmasligi kerak. Birovga churq et-sang, o‘ldiraman. O‘ldiraman – vassalom, endi menga baribir. Shuni bilib qo‘y. Yerning tagidan bo‘lsa ham topaman. Diydam qotib ket-gan, qo‘lim qaltiramaydi.

– Voy xudoym! Nimalar deyapsan?!  
– Men seni qo‘rqiymoqchi emasman, ammo nima degan bo‘lsam, esingda tut. Gapimni ikki qilmayman. Endi biron bir boshimni tiqadigan yerim yo‘q, shu yerda, sening atrofingda o‘ralashib yuraman. Men seni deb kelganman. Men otamni ham, onamni ham deb emas, seni deb keldim. Shuning uchun, otam ham, onam ham kelganimni bilmasligi lozim... Men yo‘qman. Dom-daraksiz ketganman. Qayer-dadir yo‘lda o‘ldiribmi, yondiribmi ketishgan, ular farzandimiz itday o‘lib ketgan deb yuraverishsin. Men endi birovlarining emas, sening qo‘lingdaman, ha. Ammo agar bu ishdan isnodga qolishni istama-sang ochig‘ini aytaver.

– Namuncha meni qiyaysan-a?! – deb ingradi u. – Nima, men senga begonamidim? Yo xotining emasmanmi?

Nastena zo‘r-bazo‘r o‘zini qo‘lga oldi. U shu topda nimani ga-pirgan, nimani ko‘rgan va nimani eshitgan bo‘lsa, buning bari qandaydir qattiq esankirash, dovdirab qolish asnosida voqe bo‘lgan edi. Bunday holda inson bolasining butun tuyg‘ulari karaxt bo‘lib, muzlab qoladi, u o‘zligidan chiqib, bir ko‘lankaga aylanadi. Bunday hollarda kishida qo‘rquv, og‘riq, taajjub, tabassum ham keyinroq paydo bo‘ladi, kishi to o‘ziga kelguniga qadar uning vujudida qandaydir hushyor, mustahkam, lekin deyarli hissiz bir g‘ayritabiyy shu-

ur, kuch hokimlik qiladi. Esi chiqib ketib, hech nimaga aqli yetmay qolgan Nastena uning gapiga javob qaytararkan, hech nimani ifoda etmaydigan qandaydir tasodifiy, tuzsiz, siyqa so‘zlarni aytayotgani-ga o‘zi ham tushunmasdi. Axir eri istalgan kuni ajali yetib o‘lib ketishi mumkin bo‘lgan uch yarim yillik ayriliqdan so‘ng o‘sha ajalga chap berib kelib, nogahon diydor ko‘rishib qolishganda bu osonmi?! Erim bilan qachon diydor ko‘rishar ekanman, deb deyarli har kuni tunni tongga ulagan Nastena biron bir ish qilishi – loaqlal erini que-hoqlashi va ochilib-sochilib kutib olishi lozim bo‘lgan bir paytda qimirlamay o‘tirib qolganiga o‘zi ham hayron edi. Undan shu narsa lozim ediki... Lekin u xuddi tush ko‘rayotgandek o‘tiraverdi, murday qotib qolganingdan keyin o‘zingga o‘zing uni qil, buni qil, deya olmaysan-ku, bu yog‘i nima bo‘larkin, deb qarab o‘tiraverasan-da! Innaykeyin, bu uchrashuv uchrashuv bo‘ptimi: yarim kechasi hech kimga isini chiqarmay, pinhona ko‘rishsang, bir-biringning yuzingni tuzukkina ko‘ra olmay ko‘rga o‘xshab bir-biringni tusmol qilsang, g‘am-alam va deyarli behudlik bilan shivirlashsang, sergaklanib, yuragingni hovuchlab tursang. Bu shunchalik g‘ayritabiyy, yomon tush ko‘rib alahsirashday edi go‘yo, tong otishi bilan hammasi barham yeb ketadiganga o‘xshardi. Bu uchrashuvning og‘ir asorati erta ham, indin ham, boringki, bir umrga ta’sir etib, mana shu xildagi azob-uqubatli, yurakni qon-zardobga to‘ldiruvchi uchrashuvlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Andrey titroq, zalvorli qo‘li bilan Nastenaning boshini siladi. Bu uning erkalatmoqchi bo‘lib birinchi marta qo‘l tegizishi edi. Nastena cho‘chib tushdi va hamon nima qilishini, nima deyishini bilmay g‘ujanak bo‘lib oldi. Andrey qo‘lini tortib olib so‘radi:

- Jilla qursa qanday kun kechirganlariningdan gapirsang-chi!
- Seni kutdik... – dedi Nastena.

– Mana, kutganlaring ham keldi. Keldi. Qahramon urushdan qaytib keldi, kutib ol, xotin, maqtanaver, ziyofat chaqir.

Bu gapni cho‘zib o‘tirishning hojati yo‘q edi. Ularning boshiga dabdurustdan shunday katta chigal ish tushgan ediki, biron nimani aniqlab, uni yechib olish amrimahol edi, bu ish chuvalashib, oldilarida tog‘day bo‘lib turganidan uning qaysi tomonidan yaqinlashsang ham, juda dahshatli ko‘rinar edi. Ular uzoq vaqt indamay qolishdi, keyin Nastena esiga tushib dedi:

- Balki yuvinib olarsan?
  - Yuvinish kerak, – dedi Andrey shosha-pisha, hatto xur-sand bo‘lganday. – Bilaman, axir sen mo‘rchanı men uchun isitib qo‘yding-ku. Ayt, mengami?
  - Senga.
  - Qachon yuvinganim ham esimdan chiqib ketgan.
- U mo‘rcha toshi oldiga borib, katta tog‘oradagi suvni shaloplatib ko‘rdi.
- Sovib qolmabdimi? – deb so‘radi Nastena.
  - Bo‘laveradi.

Nastena erining eshik yonida yog‘och qoziq borligini eslab, uni paypaslab topganini va unga katta po‘stinini ilganini, ostonada piy-masini, kiyimlarini yechayotganini eshitib o‘tirardi. Elas-elas ko‘zga tashlanib turgan beso‘naqay gavda Nastenaga yaqinlashdi.

- Qani, Nastena, bir o‘zim yuvinolmayman. O‘rningdan turib bir orqamni ishqabal yubor-chi.

Shu payt u Nastenani polga tappa bosdi. Nastena yuziga bota-yotgan erining soqolidan negadir qo‘y yungining hidi kelayotga-nini tuydi, shuning uchun u beixtiyor yuzini undan olib qochardi. Bu ish shunchalik tez bo‘ldiki, sochlari to‘zigan, esankirab qolgan Nastena pardasi tushirilgan darcha tagidagi o‘rindiqqa qanday bo‘rib o‘tirganini o‘zi ham bilmay qoldi, boshqa o‘rindiqda esa, yana eri o‘rnida qabul qilgani – haligi tanishdek tuyulgan kishi asta-sekin pishqirib, suvni shaloplatardi. Nastena na tasalli, na alam-hech nima his etmadı – u shunchaki, bir vaqtlardagidek, xiyol ajablandi, keyin nima uchunligini o‘zi ham yaxshi bilmay, sal-pal uyaldi.



Andrey yuvinib bo‘lib kiyina boshladı.

- Senga ko‘ylak-ishton olib kelsam bo‘larkan, – dedi Nastena yotsiramaslik uchun gapirishga o‘zini majbur qilib.

– Ko‘ylak-ishtonni qo‘yaver, – dedi eri. – Menga birinchi nav-batda nima kerakligini senga hozir aytaman. Ertaga damingni ol, mi-riqib uxla, indinga «tulka»<sup>1</sup>mni olib kel, tag‘in meni bo‘ri-mo‘ri yeb ketmasin. Haliyam turibdimi?

- Ha.

<sup>1</sup> Tulka – ovchilar orasida mashhur Tula o‘s miliq‘i (Tajr. izohi).



– Uni, albatta, olib kel. Gugurt, tuz, pishirish-kuydirishga bironta idish ham. Nima kerakligini o‘zing o‘ylab ko‘rsan. O‘qni otamning dorisidan bir amalla, lekin sezilmaydigan bo‘lsin.

– Miltiq to‘g‘risida unga nima dèyin?

– Bilmayman, nima desang, deyaver. Bir yo‘lini qilarsan... Yana aytaman, bu yerdaligimni biror kishi ham bilmisin. Hech kim. Tuya ko‘rdingmi yo‘q. Sen bilsang bo‘ldi... Hozircha u-bu keltirib, biroz boqib turmasang bo‘lmaydi. Miltiqni olib kelsang, go‘shtni o‘zim topaman, ammo nonni otib olib bo‘lmaydi. Indinga kechroq, shu mahalda kelaman. Vaqtli kelma, ko‘zingga qara, yana bitta-yarimta poylab kelmasin. Endi har bir qadamingni yon-veringga qarab bos-gin.

U xotirjam, bir maromda gapisardi, ovozi ham issiqda ancha mu-loyim tortib qolgandi, shunday bo‘lsa-da, har qalay gap ohangidan paytavasiga qurt tushib qolgani, zimdan tashvishlanayotgani sezilib turardi.

– Mana, isinib, yuvinib ham oldim, xotinimning vasliga qondim. Endi esa ketish kerak.

– Qayoqqa borasan? – so‘radi Nastena.

Andrey istehzoli kulib qo‘ydi:

– Qayoqqa emish... Tug‘ishgan akam, bo‘ri yoniga boraman-da. Demak, indinga, esingdan chiqmaydi, a?

– Chiqmaydi.

– Meni shu yerda kut, qolgan gapni o‘shanda kelishib olamiz. Xo‘p, bo‘pti, men ketdim. Sen birpas tura tur, darrov ketimdan chiqma.

U kalta po‘stинни shitirlatib jim bo‘ldi.

– Eson-omon kelganimga qitday bo‘lsa ham xursandmisan ishqilib? – deb so‘radi u ostonaga yetganda dabdurustdan.

– Bo‘lmasa-chi.

– Demak, kiming ekanimni unutmabsan-da, a?

– Ha.

– Kimman?

– Erim.

U pisanda bilan:

– Ha, barakalla, eringman, – dedi-da, tashqariga chiqdi.

Nastena nima gapligiga aqli yetmay, birdan ko‘ngliga qo‘rquv aralash shubha oraladi-yu, rostdan ham shu mening erimmi, deb

o'ylab qoldi. Tag'in u sehrgar bo'lmasin? Qorong'ida bilib bo'ladimi? Aytishlaricha, sehrgarlar birovning qiyofasiga kirdguday bo'lsa, uni o'sha odamdan hatto kupper-kunduzi ham ajratib bo'lmasmish. U qo'lini to'g'ri olib borolmay, chalakam-chatti cho'qindi va bolaligida o'rghanib, endilikda unutilib ketgan duoning esida qolgan so'zlarini pichirlab aytib, kalima keltirdi. Nogahon, chindan ham bu sehrgar bo'lsa, qaytangga yaxshi emasmi, degan fikr xayoliga keldi-yu, tur-gan yerida qotib qoldi.

#### 4

Andrey Guskov taqdir uni boshi berk ko'chaga olib kirganini, endi bu ko'chadan chiqib ketishning sira iloji yo'qligini yaxshi bilar-di. Qarshisida yana qandaydir bir yo'l bor, bu yo'l shunchalik qisqa-ki, sal yugursang, boshing do'q etib devorga tegadi, orqaga qaytish esa, endi aslo mumkin emas... Endi foydasi yo'q. Orqaga qaytishning iloji yo'qligi uni ortiqcha o'y-xayollardan xalos etgandi. Endi nima bo'lsa bo'lar, tavakkal deb yashashdan o'zga chorasi qolmagandi.

O'z yurtiga kelib yashay boshlagan dastlabki kunlarda bundan uch yarim yil burun xuddi shu yerdan frontga jo'nagani esiga tusha-verib, uni jonidan bezor qilib yubordi. Urush haqida dastlabki xabar kelganidan boshlab to diviziya tuzilayotgan Irkutskka yetib borgu-niga qadar o'tgan deyarli ikki hafta ichida yuz bergen barcha voqe-alar go'yo xuddi kuni kecha bo'lib o'tganday ko'z o'ngida yaqqol gavdalanim turganidan allanechuk bo'lib ketardi. Hatto kechirgan his-tuyg'ulari ham esida saqlanib qolgandi, chamasj, u bu tuyg'ularni yana boshidan kechirayotgandek edi: yo'lga chiqishdan oldin qan-day ahvolda bo'lsa, hozir ham shunday garang, bundan buyog'i nima bo'lishini o'ylab ko'rishga qodir emas, o'shanda qanday umid-sizlikka tushgan bo'lsa, hozir ham o'shanday alamzada, yolg'iz, g'azabnok edi, yuragini o'sha-o'shasov uq, mudhish, bir daqqa ham tark etmaydigan qo'rquv qamrab olgan, hamma narsa, hatto o'tkinchi kayfiyatlar ham hamon o'shanday; faqat katta bir farqi bor edi: go'yo bularning bari avval ichida bo'lgan-u endilikda sirtiga tepib, ko'z o'ngida yuz berayotganga o'xshardi, buni hozirgi sharoiti ham tas-diqlardi. Mana u yana yashagan va safarga jo'nagan yerida, ammo endi Angaraning o'ng sohilida emas, chap sohilida turibdi, o'sha paytda yoz edi, endi bo'lsa qahraton qish. O'sha vaqtida u urushga

ketayotgandi, endi bo'lsa qaytib keldi, o'shanda bir talay odam bilan birga jo'nagandi, endi esa bir o'zi alohida yo'l bilan orqaga qaytdi. Taqdir uni yuz ko'yga solib, yana o'zining eski joyiga boshlab keldi, ammo o'lim hamon avvalgidek, o'sha vaqt dagidek bor bo'yi bilan unga soya solib turar va bu safar o'lim, chap berib ketmasin, ishonchliroq bo'lsin, deb tag'in uning orqasidan kelgandi. Umuman, hozir u qadamini qayoqqa bosishini bilmay, arosatda qolgan bo'lib, omonat hayot kechirardi. Shu alpozda yashagach, xotira qoladi deysizmi.

Birinchi chaqiruvda atamanovkalik yigitlardan yetti kishini armiyaga olishdi, Guskov ham shular ichida edi. Qishloqdan beshta aravachada ketishdi, frontchilar qancha bo'lsa, kuzatuvchilar ham deyarli shuncha yig'ilgan edi. Lekin Andrey ota-onasi, xotini bilan uyda xayrashib qo'ya qoldi: ularning ko'z yoshlari ni oqizdirib, yig'latib-siqtatishning nima hojati bor? Buning ustiga o'zining ham yuragi bekorga ezilib ketadi. Bir ishni qilish kerak bo'lsa, uni shartta qilish lozim-da. Andrey hatto ajali yetib o'ladigan bo'lsa, (bu ham endi yaqinlashib qoldi shekilli) xuddi shu ko'yi xomxayollarga berilmasdan omonatini topshirib qo'ya qolishiga umid bog'lagandi. U darvoza oldida onasi, otasi va Nastena bilan quchoqlashib xayrashdi, sakrab aravachaga o'tirdi-da, otni chuhladi, yo'lga tushgandan keyin orqasiga qaramaslikka harakat qildi, Atamanovka yaylov ortida ko'rinxay qolgach, u jilovini tortdi va bir karvon bo'lib ketish uchun boshqalarni kutdi.

Kardaga borgach, ular mo'ljallangan vaqt dagi paroxodga tushib tuman markaziga borishdi, bir kundan keyin esa, shu paroxod orqaga qaytishida tumanda to'plangan barcha askarlarni olib, Irkutskka jo'nadi. Paroxod ertalab barvaqt Atamanovka yonidan o'tdi. Atamanovkaga intiq bo'lib uxlamagan yigitlar ancha olisdanoq biri olib, biri qo'yib baqira boshlashdi. Lekin ular nima deb baqirayotganlarini ham, eng muhimi, nimaga baqirayotganlarini o'zlarini ham tu-shunmasdilar, Andrey esa g'amgin holda, indamay qishloqqa tikilar va negadir qishloqni tashlab ketishga majbur bo'lgani uchun aybni urushga emas, balki qishloqqa qo'yigisi kelardi. Baribir yigitlarning ko'nglidagi bo'ldi: sohilga bir to'da odamlar yugurib chiqdi va bularga javoban ular ham bir nimalar deb qichqirishib, ro'mollarini, furojkalarini silkita boshlashdi, ammo paroxod qirg'oqdan ancha nari ketayotganidan ulardan bitta-yarimtasini tanib yoki nima deganini

anglab ham bo‘lmadi. Andrey odamlar orasida Nastenani ko‘rganday bo‘ldi: u o‘sha ayol Nastena ekaniga aniq ishonch hosil qilmadi, lekin jahli chiqdi: axir bunaqa maynavozchilikning nima hojati bor? Xayr-xo‘splashgandan keyin tamom, bir-biringga aytadigan gapingni aytding, bo‘ldi-da, bunday qilgan bilan urushni qaytarib bo‘larmidi endi. Agar xotinim deb gumon qilgan o‘sha ayol chindan ham Nastena ekanligini bilganida edi, ancha yengil tortgan bo‘lardi. Uning g‘azabi xuruj qilib kelayotganligining sababi ham Nastena ekanligini aniq bilmaganida edi, albatta. Andrey ortda qolayotgan barcha narsalardan, nimalardan ajralib qolayotganidan va nimalarni deb endi jang qilishga majbur bo‘layotganidan beixtiyor ranjidi-yu, bu alam uzoq vaqt ko‘nglidan ketmadi, ana shu ranj, ana shu alam shuncha yillar mobaynida unutmagan va endilikda beg‘arazlik bilan ustidan chiqqan o‘sha va’dasini esiga tushirdi. U faqat o‘sha va‘da debgina qaytib kelgani yo‘q, aslo, lekin avvalboshdanoq muqarrar bo‘lib tuyulgan, hozir esa ushalgan o‘sha orzu zamirida Guskov qismatini belgilashga yordam beruvchi qandaydir jozibali, ishonchli kuch bordek edi.

Paroxod oqimga qarshi uch kun suzdi, yigitlar to‘planishib kayfsafo qilishar, o‘lganlarining kunidan tirjayib, hazil-huzul qilishardi, chunki bu kunlar so‘nggi erkin, xavf-xatarsiz kunlar ekanini ular yaxshi tushunishardi. Andrey aroq ichishga odatlanmaganidan ularga qo‘shilmadi. U bortda qoqqan qoziqday uzoq-uzoq qaqqayib turar va olislardan ko‘z uzmasdi. Avji yoz edi, osmonda quyosh charaqlardi, sho‘x Angaraning shovillagan ovozi havoni to‘ldirgan, tanish sohillar, qishloqlar, orollar Andreyning oldidan suzib o‘tar va ortda qolib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lar edi. Guskov bularni balki oxirgi marta ko‘rishimdir, deb o‘ylaganida yuragi orqasiga tortib ketardi. Pastga tushib, sheriklariga qo‘shilib olsa – axir yuragi ezilayotgan bir bu emas-ku – yoki qopini boshi ostiga qo‘yib, to buyruq berib uyg‘otgunlaricha tosh qotib uxlasa, barini unutsa, yaxshi bo‘lardi-ya, lekin u bortdan nari ketmasdi, ruhi ezilar, ich-etini yer va o‘ziga o‘zi achinib ketardi, yana shu azoblar ichra xayol surib, oldinga qarab turaverardi. U qanchalik ko‘p tikilsa, Angara unga zarracha e‘tibor bermay, shunchalik bermalol oqayotganini, o‘z umrini o‘tkazgan mana shu qalbga tutash sohillar unga sira ham nazar-pisand qilmaganday, sirg‘anib o‘tib borayotganini ko‘rib, yuz o‘kinsa ham muddaosi ho-

sil bo‘lmasligini yaqqol his etardi. Ha, sohillar endi boshqa hayotga, uning o‘rniga qoladigan boshqa kimsalar tomon sirg‘anib boryapti. Uning dili ranjidi: namuncha tez? ·Hali jo‘nashga ulgurmasdan, o‘z yeridan oyog‘i uzilmasdan bari – uning borlig‘i ham, orzu-umidlari ham – unutilsa, qora yerga ko‘milsa: demak, endi ketaver, o‘lsang o‘laver, biz uchun tamom bo‘lgan odamsan, deyish ekan-da. Nahotki, chindan ham endi bari tugagan bo‘lsa? U butun vujudidan jo‘sh urib kelgan bir yovuz qaysarlik bilan hayqirib yubordi:

– Yolg‘on, men o‘lmayman. Meni erta ko‘myapsizlar. Mana ko‘rasizlar: o‘lmayman. Sizlarga bo‘lsa-ku, jin ham urmaydi – o‘shanda salom beraman.

Frontda u bu umidlarini nari surib qo‘ydi. Dastlabki janglardayoq u yaralandi, ammo baxtiga, yengil yaralandi, o‘q chap oyog‘ining boldirini teshib o‘tib ketdi, u bir oydan keyin oqsoqlanib, yana qismga qaytib keldi. O‘sha vaqtarda tirik qolishni o‘ylashning o‘zi bir bema‘nilikday tuyulardi. Bunday xayol odamlarning esidan butunlay chiqib ketgan, hamma o‘limni bo‘yniga olib qo‘yan edi va jonini hovuchlab turardi. Andrey ham xuddi shunday – u yon-verida tutday to‘kilayotgan odamlarni ko‘raverib, diydasi qotib ketdi. Bugun bo‘lmasa – ertaga, ertaga bo‘lmasa – indinga menga ham navbat keladi, holim shu-da, deya taqdiriga tan berib qo‘yan edi.

Bu yerda, urushda tinchgina kun kechirish kimning chekiga tushgan bo‘lsa, bu narsa, uning nazarida, abadiydek tuyulardi, buning daraxtlar yoki toshlarniki singari yil ketidan yil kelib, bir necha o‘n yillarga cho‘zilib ketishini o‘ylash g‘alati ko‘rinardi: vaqtning bu yerda o‘zgacha o‘lchovi bor edi.

Andrey Guskov peshonasi yaraqlagan yigit ekan, anchagacha bir tuki ham bejo bo‘lmay yurdi, faqat bir marta, frontdan jo‘nashdan oldin u ehtiyyotsizlik qilib bombardimonda qoldi va qattiq kontuziyaga uchradi. Portlash sadosi uning qulog‘ini chippa bitirib ko‘ydi, deyarli bir haftagacha hech nimani eshitmadni, keyin qulog‘i sekinsta eshita boshladi. Kontuziyadan u ham kulgili, ham alamli holga tushib qoldi: lazaretta, qulog‘i eshitmay yurgan kezlarda, ishtahasi och bo‘rinikiday xakalak otib ketdi, ovqat yegan bilan to‘ymasdi. U har daqiqada ovqat yegisi kelardi, ovqat qidirib, turli ko‘ngilsiz voqealarga ham duchor bo‘ldi. U o‘zi eshitmagani uchun boshqalarni ham kar deb o‘ylardi, shuning uchun biron yegulik qidirib, oshxona-

ga biqinib kirganida qo‘lga tushib qolardi. U bergeniga qanoat qilmay yana ovqat so‘raganida, oshpazlar tuzalib kelayotgan bemorlar ga ermak bo‘lsin uchun og‘izlariga kelganini qaytarmasdilar. Andrey bo‘lsa, ularga ko‘zi jovdirab qarab turaverardi.

Guskov uch yil ichida chang‘ichilar batalonida ham, razvedkachilar rotasida ham, gaubitsa to‘plari batareyasida ham jang qilishga ulgurdi. Bu davrda uning boshidan nimalar kechmadi deysiz. Tanklar hujumini ham ko‘rdi, nemis pulemyotlariga ham tashlandi, kechalari chang‘ida reydga ham chiqdi, uzoq vaqt sillasi qurib «til» tutish payida yurdi. Guskov urushga ko‘nika olmadi, ko‘nika olmasdi ham, uning xuddi ishga ketayotgandek, xotirjam, bemalol jangga kirib ketayotgan odamlarga havasi kelardi, lekin u ham qo‘lidan kelganicha urushning hadisini oldi, chunki boshqa chorasi ham yo‘q edi-da. U boshqalardan o‘zib ketmadi, ammo birovning panasiga ham bekinmadi – askar sheringing ko‘rib qoladi-yu, darrov adabingni beradi. Besh-olti kishidan iborat «til» tutuvchi guruh nemislarning handaqlariga tashlanganlarida, umuman, mug‘ambirlikka o‘rin qolmaydi – yo dong‘ing chiqadi, yo changing, bordi-yu, imillasang, yo joniningni ayasang, o‘zing ham halok bo‘lasan, boshqalarni ham halok qilasan. Razvedkachilar ichida Guskov ancha ishonchli hisoblanardi, juda azamat yigitlar ham o‘zlarini ehtiyoj kilish uchun uni birga sherk qilib olib ketishardi. U ko‘p qatori jang qildi – juda yaxshi ham emas, juda yomon ham emas. Askarlar uning kuchiga tan berishardi, u kaltabaqay, chayir, baquvvat edi, hushidan ketgan yoki gapirishni istamagan «til»ni dast yelkasiga o‘ngarardi-da, ðam ham olmay o‘z okoplariga ko‘tarib kelardi.

Guskov Moskva ostonalariada chang‘ichilar batalonida xizmat qildi, ko‘klamda Smolensk tuprog‘ida razvedkachilar rotasiga tushib qoldi, batareyaga esa, uni Stalingradda, kontuziya bo‘lgandan keyin yuborishdi. Bu yerda uzoqqa otadigan artilleriyada xizmat qila boshladi. Endi hujumga o‘tgan paytlarda unga ancha yengil bo‘ldi.

Qirq uchinchi yil qishida urushning oxiri aniq-ravshan ko‘rina boshladi. Urushning keti yaqinlashgani sari unda tirik qolish umidi ham shunchalik kuchayaverdi – bu endi qadimgiday pinhona umid bo‘lmay, balki oshkora va bezovta qiladigan bir umid edi. Urushning dastlabki kunidan boshlab jangga kirgan kishilar shuncha mashaqqatlarga, azob-uqubatlarga bardosh berib, shu

yergacha yetib kelibdimi, demak, qismat ham ularni nima bilandir taqdirlashi kerak-da. Shuncha zamonlar o'limga chap berib kelishgan ekan, nihoyat o'lim ham ulardan chekinishi lozim-da, axir, deging kelardi. Shu boisdan bu yerda, urushda ham qandaydir tirik qolish muddati borday tuyulardi: omon qoldingmi, qandingni ur, yashayver. Ba'zan sal tinchib, ko'ngli joyiga tushgan daqiqalarda Guskov endi menga jin ham urmaydi, xuddi hozirgi-dek shoshilmasdan, xovliqmasdan, o'zini o'tga-cho'qqa urmasdan azob-uqubat bilan o'tkazilgan, o'n barobar hissasi chiqarib olingen fursatlar tamom bo'lib, g'alaba qozonilganini e'lon qilishgach, uyga qaytiladigan o'sha kunga yetib boraman, degan ishonchdan ko'ngli yorishib ketardi. Lekin mana shu quvonchli daqiqalar bir lahza-da o'tib ketardi-yu, asta-sekin yuragini yana vahima bosa boshlardi: axir xuddi mana shu umid bilan nafas olib kelayotgan ming-minglab kishilar ko'zi oldida har kuni halok bo'lyapti, ha, urushning so'nggi daqiqalarigacha ham shunday bo'lishini u juda yaxshi tushunadi. Agar tiriklarni – uni va unga o'xshaganlarni jangga solishmasa, odamni qayoqdan olishadi? Shunday bo'lgach, nimadan ham umid qilasan? Shu boisdan vahimaga tushib qolgan Guskov bundan buyog'iga ishi o'ngidan kelishiga ko'zi yetmay, zimdan yarador bo'lish payiga tushib qoldi – albatta, kor joyidan emas, yengilgina jarohatlansa yetarli – vaqt o'tsa bo'ldi-da.

Ammo qirq to'rtinchi yil yozida, batareya boshqa joyga ko'chishga shaylanib, to'plar g'iloflanib qo'yilgan bir paytda naq burunlari ostidan nemis tanklari chiqib qoldi-yu, Guskov yaxshigina yarador bo'ldi. U deyarli bir kecha-kunduz o'ziga kelmadi. U ko'zini ochib, tirik qolishiga ishongach, ko'ngli joyiga tushdi: mana, jang ham qilib bo'ldi. Endi boshqalar jang qilsin. Uniki yetarli, u o'ziga tegishlisini do'ndirib qo'ydi. U hali-beri tuzalmaydi, oyoqqa turgandan keyin esa, uyiga javob berishlari kerak. Tamom – yaxshimi, yomonmi, ishqilib, joni omon qoldi.

Andrey Guskov roppa-rosa uch oy Novosibirsk gospitalida yotdi. Uning ko'kragidan ikki marta snaryad parchalari olishdi, lekin jarohati anchagacha tuzalib, bitib ketmadi. Uydan dalda bo'lsin deb ikki marta posilka yuborishdi. Nastena boraymi deb so'raganida, Andrey shundan-shunga sarson bo'lib, buning ustiga bekorga xarj qilib nima qiladi, hademay o'zim borib qolaman-ku, deb o'yladi-da, kelishiga

unamadi. Palatada yotgan sheriklari ham uning gapini ma'qullashdi. Gospitalga avvalroq tushganlar qanday yaradorning uyiga butunlay ketishini, kimning bir borib kelishini, kim frontga qaytishi kerakligini yaxshi bilar edilar. «Kamida o'n kunga javob berishadi», dedi ular Guskovga. Ana, endi kutinglar. Kutgil, Nastena! U endi arzimagan mayda-chuydalarini bahona qilib bir vaqtłari Nastenani xafa qilgalariga sira ishongisi kelmasdi: bu yorug‘ olamda uning uchun Nastenadan yaxshi xotin yo‘q-ku, axir. Qaytib borsin, ular shunday yashashdiki, u yog‘ini asti qo‘yaverasiz! Urushdan keyin dunyo boshqacha bo‘ladi. Hammaning, ha, hammaning hayoti butunlay o‘zgacha kechadi, bularniki esa, ayniqsa. Ular urushgacha hech nimani tushunishmas ekan, bir-birlarining qadrlariga yetmay, bir-birlarini sevmay yashashgan ekan – shunaqayam yasharkanmi kishi?!

Ammo noyabrdan, gospitaldan javob beradigan kun yetib kelgani-da, u shu kunni deb o‘z jarohatini yalab-yulqashiga sal qolgan, sabr-sizlik bilan kutib yurgan fursat yetganida boshiga bir tushirganday bo‘lishdi: qismga borasan, deyishdi. Uya emas, qismga. U uyiga ketishiga shunchalik qattiq ishonganidan qandaydir anglashilmovchilik bo‘lgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladi-da, anchagacha hech nimaga aqli yetmay turdi, keyin vrachlarga chopdi, isbotlashga tushdi, qizishdi, dag‘dag‘a qildi. Uning gapiga hech kimning quloq solgisi kelma-di. Jang qilishga yaroqlisan – tamom, vassalom. Uning kiyimlarini kiydirishdi, qo‘liga soldatlik daftarchasi va oziq-ovqat varaqasini tutqazishdi-da, gospitaldan chiqarib yuborishdi. Qani, tuyog‘ingni shiqillat, Andrey Guskov, o‘z batareyangga yetib ol, urush hali tugagi yo‘q. Hali tugagini yo‘q.

U frontga borishdan qo‘rqardi, ammo qo‘rqishdan ko‘ra ko‘proq uyiga borib kelishga qo‘ymay, uni orqasiga, urushga qaytarayotgan barcha narsalardan xafa bo‘lardi, jahli chiqardi. U butun vujudi bilan, bor o‘y-xayoli bilan o‘z jigargo‘shalari – otasi, onasi, Nastenani ko‘rishga oshiqqandi, shu o‘y-xayol bilan yashagan, shu o‘y-xayol bilan sog‘aygandi, nafas olgandi, u faqat shunigina bilardi. Axir jon boricha yugurib ketayotib, birdaniga orqaga burilolmaysan-ku, chun-ki bir yeringga shikast yetishi mumkin-da. Axir o‘z ustingdan o‘zing sakrab o‘tolmaysan-ku. O‘z yurtingda, Sibirda, uying shundoq qo‘l cho‘zsa yetgulik joyda turib, qanday qilib orqaga qaytib, yana o‘zingni o‘qqa, o‘limga urasan? Axir shu to‘g‘rimi, shu adolatdan-

mi? Jilla qursa bir kungina uyiga borib, ko'ngli taskin topsa mayliydi, keyin, nima desa hammasiga tayyor edi-ku.

Ahmoq bo'lmasa, Nastena tayyor o'zi borib ko'raman deganda yo'q deydimi? Shunday bo'lishini ilgariroq bilganida-ku, jo'naydigan kunlari chaqirardi, ko'rardи, yengil tortardi. Nastena uni kuzatib ham qo'yardi, birov kuzatib qo'ysa, kishi xotirjamroq bo'ladi: odamning qismatida ko'zning o'rni bo'lakcha – safar oldidan sening qaytib kelishingga muntazir bo'lib qoluvchi kishingni u juda yaxshi eslab qoladi. Hammasi, jo'rttaga qilganday, chappasiga ketdi. Agar bundan bu yog'i ham shunday davom etaversa, bu olamda joningdan umiding qolmaydi-ku, birinchi jangdayoq yer tishlatishadi.

U gospital boshliqlari to'g'risida bu bir xudoning balosi ekan, yashinni qaytarib yoki do'lni to'xtatib bo'limgani kabi buni ham bandasi yo'lga solo maydi, deb o'ylardi. Bittasi, o'sha eng kattasi, hech nimani surishtirmay, masalani bir o'zi hal qildi-qo'ydi, boshqalari uning gapiga qo'shilishdi. Lekin u tirik inson-ku, nega u bilan hisoblashishmadi? To'g'ri, hech kim unga hech nima va'da qilgani yo'q, u o'zini o'zi aldadi. Ammo boshqalarga uylariga borib-kelgani javob berishdi-ku, javob berishdi. Javob berishganini o'z ko'zi bilan ko'rdi, biladi – shunday bo'lgach, bu ham umidvor bo'ladi-da!

Nahotki, chindan ham frontga qaytib ketsa? Axir qishlog'i shundeq yonida, qo'lini cho'za yetadi-ya. Hammasinga qo'l siltab, shartta jo'nayverish kerak. O'zing uchun – o'l yetim. Ha, o'zboshimchalik qilganlarni ham eshitgani bor, lekin bari to'g'ri bo'lib ketgan. Nega endi bunga qolganda to'g'ri kelmas ekan? To'g'ri kelmasa, undan nariga, shartta jo'nab qoladi. Axir u temir emas-ku. Uch yildan ortiq jang qildi, urushda yurish ham shunchalik bo'lar-da!

U stansiyaga kelib bir sostavni, keyin ikkinchi sostavni o'tkazib yubordi... Guskovning o'y-xayollari aralash-quralash bo'lib ketgandi, nima qilishini bilmasdi. U biror qarorga kelolmasdan behuda vaqt o'tkazayotganiga battar jahli chiqardi. U oziq-ovqat varaqasiga payogini olayotib, navbatda turgan bir pakana, xushchaqchaq, qo'litiqtayoqli tankchi bilan gaplashib qoldi, tankchining boshida shlem bo'lib, egilgan o'ng oyog'i qalin qilib o'ralgandi. Tankchi sharqqa, Chitaga ketayotgandi.

- Sen qayoqqa ketyapsan? – deb so'rab qoldi u Guskovdan.
- Irkutskka, – deb javob berdi Guskov dabdurustdan.

– Birga ketarkanmiz, – deb suyundi tankchi.

Shunday qilib, Guskov so'nggi daqiqalarda yangi o'rtog'ini sharqqa ketayotgan poyezdga chiqardi-da, ketidan o'zi ham sakrab chiqib oldi. Bo'lganicha bo'lar. Bordi-yu, ushlab olishsa, Krasnoyarskka, keyin Irkutskka ikki-uch kunga borib kelmoqchiman, deb aytadi, qo'rqinchli yeri yo'q, bir yo'lini qilib qutulib ketadi. Ba'zan Guskov o'z qilmishini o'ylar ekan, tutib olib qaytarib yuborishsa ham mayli edi, deb ko'nglidan kechirardi. Ammo bunday paytlarda kishining ishi o'ngidan keladi: uni hech kim to'xtatmadni, savolga tutmadni. Poyezdlar ilgarigidek tirband ediki, yo'lovchilarning aksariyati hech nimadan tap tortmaydigan harbiylar bo'lib, ularga yaqin yo'lash oson emasdi.

Ammo Guskov uch kundan ortiqroq yo'l bosib, Irkutskka yetib keldi-yu, kapalagi uchib ketdi. U yog'iga boradigan bo'lsa, bir kunda ham yetolmaydi, ikki kun ham kamlik qiladi – qish, axir. Yarim yo'ldan qaytib ketsinmikin, unda manavi nojo'ya ishga qadam qo'yishning, xunob bo'lib, tavakkaliga ish tutib, yuzsizlik qilib, birov larga isbotlashga urinib yurishining nima keragi bor edi? Innay-keyin, qaytib borishga ham vaqt o'tmadimikan? Guskov razvedka rotasiga endigma kelgan qirq ikkinchi yil bahorida askarlar ibrat olishi uchun amalga oshirilgan jazoni ko'rgan edi, u shuni esladi. O'shanda o'rmon ichidagi keng maydonga o'xshagan yalanglikda polkni saf qilishdi-da, ikki kishini oldinga olib chiqishdi: biri qirq yoshlar cha-masidagi bog'langan qo'lini bo'yniga osgan erkak bo'lib, u o'zini o'zi otgan ekan, ikkinchisi bo'lsa – yosh bola. Bu bola, aytishlaricha, ellik chaqirimcha naridagi qishlog'iga, uyiga birrov borib kelmoqchi bo'lган ekan. Bor-yo'g'i ellik chaqirim-a. Bu bo'lsa, eh-hye, qayoq-dan qochib kelyapti-yu. Yo'q, kechirishmaydi, hatto uni jazo batalo-niga ham jo'natishmaydi. U yosh bola emas, qanday ishga qo'l urganini tushunishi kerak.

U o'shanda askarlar o'zini o'zi otgan kishiga qanchalik jirkanib, nafrat bilan qarab turganlarini ham esladi. Bolaga achinishdi-yu, erkakka achinishmadni. «Ablah! – deyishgandi o'shanda odamlar. – Voy maraz-ey! Hammamizni laqillatmoqchi bo'libsan-da».

Xo'sh, u, Guskov-chi, boshqalardan ortiq yeri bormi? Odamlar, nega boshqalar jang qilishi kerak ekan-u, bu u yoqdan-bu yoqqa borib-kelib yuraverar ekan, deb o'ylaydi, unga ana shunaqa ayb

qo'yishadi. Urushda kishining inon-ixtiyori o'zida emas, u bo'lsa, o'ziga o'zi xo'jayinlik qildi, endi, turgan gapki, bu ishi uchun uning boshini silashmaydi.

U Irkutskda, vokzalda xayoli qochib aylanib yurarkan, ko'zlar ola, uchar ayolga duch kelib qoldi, ayol tunashiga rozilik berib, uni shahardan ancha olisdagi uyiga olib keldi. Askar o'zini qayoqqa urishini bilmayotganini shundoq ham fahmlagan ayol ertalab uni Tanya degan o'rtta yoshlardagi pokizagina, silliqqina gung xotinnikiga boshlab bordi. U Tanyanikida shartta o'rnimdan turib, biron yoqqa jo'nab qolsammikin, deb kechgacha esankirab, yuragi po'killab o'tirdi, ertasiga xam shu o'y-xayol bilan o'tiraverdi, keyin esa uydagilar ham, frontdagilar ham to butunlay umidlarini uzgunlaricha kutish kerak, degan andisha bilan qolib ketdi.

Gung xotinning qishloq chetida o'z uyi bor edi. Tanya gospitalda farrosh bo'lib ishlardi, kuniga ikki marta – tongda va kechqurun borardi, u yerdan lattaga o'rab qoldiq non, shisha bankada esa, sarqit bo'tqa yoki sho'rva olib kelardi. Yaxshiyamki, unga biron nimani tushuntirishning hojati yo'q edi, umuman, gaplashmasa bo'laverardi. Uni qarangki, xuddi buyurib qo'yilganday, unga xudo tildan judo qilgan ayol osongina yo'liqib qolsa-ya. Ba'zan Guskov xayolga botib o'tirarkan, bu yerga qanday kelib qolganini, uni bu yerga nima boshlab kelganini o'zi ham tushuna olmasdi, keyin birdan poyezd tomonga tashlangan har bir qadami, poyezdda o'tgan har bir soati shundoqqina ko'z oldiga kelib, ravshan ko'rinish ketardi, ichidan qirindi o'ta boshlardi. U ro'y bergan voqeadan hali ham o'ziga kelolmagandi, shuning uchun goho anchagacha qimirlamay bir nuqtaga ma'nosiz tikilib o'tirar, goho dik etib o'rnidan turarda, dard-alamini bosish uchun odimlashga tushardi; uning vazmin odimlaridan yog'och uy titrab ketardi, u esa uyning u burchagidan bu burchagiga mokiday borib-kelardi-yu, lekin zarracha taskin topmasdi. Endi o'zi tushib qolgan shu ahvolda tashvishlardan qutula olmasligiga ko'zi yetib birdaniga xunobi oshib, o'zidan nafratlanib ketardi.

Bu tuyg'udan, to'g'rirog'i, kayfiyatdan, o'zining yaramasligidan, noshudligidan uzoq vaqtgacha ezilib yurdi.

Tanya juda mehribon, jonkuyar ayol edi. U o'zining gunligidan zarracha iztirob chekmasdi, jahli chiqmasdi, odamlardan o'zini

olib qochmasdi: Guskov qancha turgan bo‘lsa, shu vaqt ichida biron marta uning qovog‘i solingenanini yoki biron nimadan xafa bo‘lganini ko‘rmadi. Uning chehrasi quvnoq bo‘lmasa ham, ammo xotirjam, muloyim bo‘lib, har bir daqiqada jilmayishga moyil edi. Go‘yo gunglikni unga xudo jazo tariqasida emas, balki gunohlardan forig‘ yashashi uchun ato qilgan edi. Avval boshdanoq Guskov Tanya meni mirimdan-sirimgacha biladi, biladi-yu, ammo menga achinadi, degan tuyg‘udan xalos bo‘la olmadi. Shuningdek, u nazarida, go‘yo Tanya-nikiga o‘z ixtiyori bilan kelmagan-u, balki kimdir rahnamolik qilib, shu yoqni ko‘rsatgan va boshlab kelganday edi. Ammo nimaga – yordam berishgami yoki ohista, sekin-asta jonini olishgami?

Tanya ishdan qaytib kelgach, bankachasi va tugunchasidagi narsalarni olib, Guskovning oldiga qo‘yardi-da, ro‘parasiga o‘tirib, uning qanday ovqatlanishini harislik, sinchkovlik va mammunlik bilan kuzatardi. Ovqatlanib bo‘lgach, Guskov xuddi birodarining yelkasiga qoqqanday, minnatdorona ohista uning yelkasiga urib qo‘yardi. Uning shu qo‘polroq suyishidan sevinib, iyib ketgan Tanya Guskovning qo‘lini ushlab olib yuziga bosardi, keyin qandaydir imo-ishoralar qilardi, ammo Andrey tushunmasdi. Tanya qizishib, barmoqlarini tez-tez, shosha-pisha bukib yozar, ko‘rsatar edi. Guskov esa boshini chayqab, teskari qarardi. Shundan keyin Tanya uni tinchlantrish uchun imo-ishoralarini yig‘ishtirib qo‘yardi-da, gunohkorlarcha unga qo‘lini uzatardi.

Vaqt o‘tishi bilan Tanya o‘zining ko‘pgina imo-ishoralarini har qalay Guskovga uqdira oldi. Bolani qay tarqiqa mehf, sabr-toqat bilan gapga o‘rgatilsa, Tanya ham o‘z imo-ishoralarini unga ana shu yo‘sinda uqdirardi. Ammo bu imo-ishoralardan Guskovning ko‘ngli ketardi, shuning uchun u iloji boricha o‘zini undan olib qochardi. Guskovning bu yerda uzoq qolish niyati yo‘q edi. Kechalari Tanya unga suykanganida Guskov uning zaif, kishi hirsini qo‘zg‘atuvchi pichirlashini – bunday paytda barcha xotinlar og‘zidan chiqadigan o‘sha so‘zlarni eshitganday bo‘lardi-da, kapalagi uchib ketardi. U qimir etmay yotar, Tanya o‘zini birovga o‘xshatyapti degan xayolga borar va u aslo anavinaqa ayollardan emas, deya o‘zini ishontirmoq-chi bo‘lardi.

Ammo sirasini aytganda o‘zining ham endi kimligi noma’lum edi. Uning butun o‘ylaganlari aralash-quralash bo‘ldi-yu, chappasiga

ketib muallaq osildi qoldi. Uch-to'rt kunga keldi-yu, butunlay qolib ketdi. Nastenani o'yADI-yU, Tanyanikiga kelib qoldi. Boshqa ishlar to'g'risida fikr yuritishning o'zi dahshatli edi. O'zing pishirgan osh – aylanib ham ich, o'rgilib ham, endi yuz pushaymon qilganing bilan foydasi yo'q.

Bir oydan keyin Andreyning toqati toq bo'ldi. O'lsa ham biron yoqqa ketishi kerak. Allamahalda, Tanya gospitalni supurib-sidi-rib yurganda, u uydan chiqib, jo'nab qoldi. Orqaga qaytish uchun endi unga yo'l yo'q edi, faqat birgina yo'l – uyga qaytish qol-gandi.

U Irkutskdan iloji boricha ehtiyot bo'lib yo'lga tushdi. Kunduzi qishloqlarda qorasini ko'rsatmaslikka harakat qildi: bitta-yarimta ko'rib qolsa nima bo'ladi? U xarobalarda, qishloqlarda, pichan g'aramlarida berkinib yotar, atrofga alanglar, har bir sharpadan bir cho'chib tushib, sekingina so'kinar,sovqotib, o'zini la'natlardi, kechasi, hammayoq tinchigandan keyin oyog'ini qo'liga olib yugurardi. Xayriyatki, kunlar qisqa, bir tutam edi.

Nihoyat, u sovuq qirchillatib turgan tunlarning birida Atamanov-kaga yetib keldi, qishloqning yuqori chetida to'xtadi va ikki tarafga cho'zilib ketgan uylarning oppoq tomlariga qor toliqtirgan ko'zлari bilan nazar tashladi. U o'z qishlog'ini ko'rganda yuragi loaqla hapiqmadni, bunga holi ham yo'q edi. U birpas qarab turdi-da, keyin Angaraga tushdi va muzdan yurib, jarlikdan qishloqni ham ko'rmay, sudralib o'z mo'rchasiga ketdi. U yerda, mo'rchaga kirib, arang eshikni yopdi-yu, yerga yuztuban cho'zildi va anchagacha xuddi o'likday qimir etmay yotdi.

Tongga yaqin u zo'rg'a oyog'ini sudrab, Angaraning narigi tomoniga jo'nadi. U yelkasiga chang'ini tashlab olgan, beliga qistirig'liq bolta esa likillardи.

Andrey Guskov Andreyevskdan, daryo yonidagi eski qishlovidan boshpana topdi. U ko'pdan beri qo'l tekkizilmagan pechkani yoqdi, manerkasida choy qaynatdi va it kunini ko'rib yurgan shuncha vaqt-dan beri birinchi marta ichiga issiq kirdi. Yarim soatdan keyin u yo ko'pdan beri issiq nimaligini bilmagan vujudiga iliqlik yugurganidanmi, yo bo'lmasa asablari taranglashib, har lahza ko'zini yirib-yirib qaramasdan, qulog'ini ding qilmasdan, nihoyat, yayrab dam ola-digan shu onlarni talay vaqt orziqib kutganidanmi, dag'-dag' titray

boshladi, qo‘l va oyoqlariga qarab turib, nari borib-beri kelayotgani-ni sezdi.

U Irkutskda yurganidayoq Atamanovka atrofida qayerga bosh su-qishini chamalab, xuddi mana shu qishlovni tanlagan edi. Bu yer ayni muddao edi, qishlov tog‘ ortiga burilib ketgan chuqur jarlikda bo‘lib, kechasi-yu kunduzi o‘t yoqqaning bilan tutun sira ko‘tarilmaydi. Bundan tashqari, ikki qadam narida soy bor, yer muzlagan paytlarda ham iz qoldirmay bu uyga yetib olsa bo‘ladi.

Nima ham qilarding, endi hammasidan oldin shuni o‘ylashga to‘g‘ri keladi. Bu yerning Angara ortidaligi juda qulay, ilgari ham bu yerlarga ahyon-ahyonda bitta-yarimta kelardi, hozir bo‘lsa hech kim qadam bosmaydi. Hatto orolcha naryog‘idagi bakenchi<sup>1</sup>ning ham bu yerda ishi yo‘q: paroxodlar daryoning keng o‘ng tarmog‘i-dan qatnardi.

Atamanovka yerlari, o‘tlog‘-u o‘rmonlari azaldan o‘sha tomonda bo‘lib, bunaqa joylar u yerda ham ko‘p edi. Shundoqqina yonlariida ov qilishardi, baliq tutishardi, boshqa ishlar uchun ham uzoqqa borishmasdi. Lenaga tutashgan yerlarda ovlanadigan hayvonlar ham, yong‘oq ham, meva-cheva ham serob edi, shuning uchun daryoning bu tomoniga kamdan kam suzib o‘tishardi. To‘g‘ri, qishloq ro‘parasidagi orolchaning o‘t-pichanlarini o‘rib, meva-chevalarini terib olishardi, shuning uchun ham orolchani Pichanzor deb atashardi.

Ammo Yapon urushidan oldin Atamanovkaga Raseyadan Andrey Siviy degan kishi ikki o‘g‘li bilan ko‘chib kelgan edi. U u yoq-bu yoqni xo‘p yaxshilab ko‘rdi, chamaladi-da, dehqonlarni taajjublan-tirib, o‘z xo‘jaligi uchun Angaraning shu yog‘idan joy tanladi. U boshqa odamlar qatori qishloqda uy qurdi, ekin ekishga esa, yerni bu yerdan ajratdi. U o‘lib-tirilib kundakov qilgani ham yo‘q, ekinbop yalanglik, tekis yerlar yetarli edi.

U ikkita qishlov qurdi: biri daryo bo‘yida, pichanzorga yaqin yerda, ikkinchisi yuqoriroqda, birinchisidan ikki kilometrcha na-ridagi tik tepalikda edi. U xo‘jaligini shunday yo‘lga qo‘ydiki, asti qo‘yaversiz!

<sup>1</sup> *Bakenchi* – suv yo‘llarida xavfli joylarni va kemalar yo‘lini ko‘rsatuvchi suzg‘ichlarni o‘rnatuvchi va ularga qarab turuvchi odam.

Shundan beri bu tomonlarni Andrey Sivin nomi bilan atab, Andreyevsk deyishadi.

Andrey kolxozi tuzilmasidan ancha oldin olamdan o'tib ketdi, bir o'g'li German urushidan qaytib kelmadi, ikkinchisini esa, o'ttizinch yilda quloq qilishib, oilasi bilan qayoqqadir badarg'a etishdi. Shunday qilib, muhojir Andrey Siviy yangi yerda ildiz otib, palak yozolmadi.

Uning yerlarini, tabiiy, kolxozi o'z holiga tashlab qo'ydi. Tupkanning tubidagi bir necha gektar yerni deb bahorda, yozda, kuzda odam olib kelib, olib ketishga arzirmikin? Angaradan seyalka-yu, o'roq mashinalarni olib o'tish-chi? Shuni deb parom ham yasash kerakdir? Darhaqiqat, arzirmikin?

Mana endi Andrey Guskov har tomonlama qulay, ishonchli boshpana qoldirib ketgan muhojir Andrey Siviydan minnatdor bo'lib, uning haqqiga duo qilishi kerak.

Bordi-yu, u bu yerda ko'proq turadigan bo'lsa, pastdag'i qishlov faqat yozgacha ish beradi. Keyin, agar bu yerga biron ta baliqchimi yoki tinib-tinchimaydigan odammi hafsal qilib kelib qolguday bo'lsa, yo yuqoriroqqa, yo biron bir boshqa joyga ko'chishga to'g'ri keladi.

Shuning uchun u ertagayoq borib, yuqoridagi qishlovnинг ahvoli qandayligini ko'rib kelish kerak, deb ko'ngliga tugib qo'ydi. Chang'i bo'lsa – bor. Daryo yoqalab yuqoriga ko'tariladi, keyin chang'ida aylanib boshqa tomondan kirib boradi. Agar yashashni istasang, bir amallab saranjom topishing, nimang bor-u nimang yo'q, nima bilan yangi hayotingni boshlappingni bir sidra ko'zdan kechirib qo'yishing kerak. Qani, endi bitta miltiq bo'lsa, boshqa birovga emas, faqat Nastenaga kelganini bildirib qo'yish lozim. O'z kuning o'zingga qolishidan yomoni yo'q.

U shular haqida bo'shashib xayol surib o'tirarkan, titrog'i andak bosilganday bo'ldi, pechkaga yana o'tin tashladi-da, so'riga chiqib cho'zildi va bir kecha-yu bir kunduz, to indiniga ertalabgacha dong qotib uxladi.

loqda faqat Innakentiy Ivanovich shu raqamga yetib bordi, ammo Innakentiy Ivanovichning puli achib yotganini hamma bilardi, shuning uchun odamlar uni Innakentiy Karmonovich deb atardi, lekin Nastena nimasiga, qaysi davlatiga ishonib shunaqa qilganini o'zi ham tasavvur eta olmasdi. Mixeichning chindan ham tobi yo'qmidi yoki shunchaki bahona qildimi, har qalay majlisga Nastena bordi, majlis nima haqda qaysi masala yuzasidan bo'lishini oldinroq aytishmagandi. Mana oqibati – Nastena o'rnidan turdi-yu, shartta aytdi-ko'ydi. Vakil uni maqtadi, odamlar esa, yoqa ushladi, Nastena bo'lsa, dadil gapirib yuborganidan o'zi qo'rqiб ketdi, ammo aytilgan so'z – otilgan o'q, uni qaytarib bo'lmaydi. Endi chekinishga kechikkandi. Qandaydir ichki bir nido to'g'ri qilyapsan, deb Nastenaga tasalli berardi. Modomiki, aytdimi, demak, nimadir uni, shunday deyishga undagan, bekorga og'zidan chiqib ketmagandir. Balki erining gunohini obli-gatsiya bilan yuvmoqchi bo'lgandir... chamasi, Nastena shu paytda erini o'ylamagandi shekilli, ammo Nastena o'ylamasa, o'rniga boshqa birov o'ylashi mumkin edi-ku, axir.

Nastena kelib, zayom to'g'risida og'iz ochishi bilan, Mixeich darrov so'radi:

- Xo'sh, qanchaga yozilding?
- Ikki mingga.

O'rindiqda yamoqchilik qilib o'tirgan Mixeich boshini shartta ko'tardi-da, ishonmay so'radi:

- Nima deding, oyim qizim, hazillashyapsanmi?
  - Hazilmas...
  - Aqldan ozganing yo'qmi, ishqilib? Yo shuncha puling bormi?
- Balki tugib qo'ygandirsan?

- Yo'q.
- Unday bo'lsa, nega bunaqa xomxayolga boarding? Bu pulni qayordan topib bermoqchisan? Mendenmi yo undan, – u pechka ustida yotgan Semyonovnaga ishora qildi, – yo bizni bozorga solmoqchimsan? Axir, bizni birov tekinga ham olmaydi-ku.

- G'alaba uchun oxirgi marta deyishdi.
- G'alaba uchun...

Pechka ustida Semyonovna g'imirlab, pardal ortidan boshini chiqardi:

- Nima, nima deyapti?

– Juda boyib ketdik, deyapti. Pulimiz juda ko‘payib ketganmish. Shunchalik ko‘p emishki, qo‘ygani joy topolmayotgan ekanmiz.

Nastena ilgari Andrey bilan yoqtib yurgan karavoti turgan chit parda orqasiga o‘tdi. Nastena Mixeichning vaysab-vaysab hovuridan tushishini, qaynonasi esa, gapning past-balandini bilgandan keyin telba to‘nini teskari kiyib, ikki-uch oylab tumshayib yurishini bilardi. «Menga desa, o‘lib ketmaydimi ular», deb dilidan o‘tkazdi Nastena. Bir amallab shu pulni to‘laydi, keyin bir yo‘lini o‘ylab topadi. Majlis ham oxirgisi emas-ku, axir... Ammo ana shu zayomga yozilish bahonasida u Kardaga borib-kelishga ruxsat oldi, ana shu ikki ming unga dastak bo‘ldi, agar shu bo‘lmasa, hech ish chiqmasdi, albatta.

U hammasini to‘g‘ri xomcho‘t qildi. Majlisdan keyin belgilangan raqamning pasaymasdan ko‘tarilganini ko‘rgan kolxozi raisi Nestorning zayomga yozilishidan xursand bo‘lganini sezgan Nastena mana ko‘rdingmi, men mana shunaqaman, deganday jilmayib, pildirab uning oldiga keldi.

– Nestor Ilich, – dedi u raisni sal iydirish maqsadida xiyol balandparvozlik bilan murojaat qilib, – ertaga o‘rtoq vakilni kim eltib qo‘yadi?

Nestor quvlik bilan ko‘zini qisdi-da:

– O‘rtoq vakil, hoy o‘rtoq vakil! – deb chaqirdi. – Manavi bizning bugungi zarbdorimiz ertaga sen bilan Kardaga birga bormoqchi. Sen nima deysan, qarshi emasmisan?

Hammayog‘i shalayim, boshida bir tutamgina sochi qolgan, qillillab turgan vakil ularning oldiga keldi va Nastenaning ko‘ziga tiki-lib turib to‘ng‘illadi:

– Qaysi erkak yo‘q der ekan? Men hatto shunday nozanin kuzatib borishini xayolimga ham keltirmagandim.

Nestor o‘ziga yaqin olib uning yelkasiga qoqib qo‘ydi-da:

– Borgandan keyin yana qaytarib yubor, – dedi va Nastenaga ko‘z qisib qo‘ydi. – Uzoq ushlab turma, shusiz ham bu yerda ishlaydigan odamimiz barmoq bilan sanarli.

Ertaga Nastena Kardaga boradi. Bu yangilikni hali Mixeichga ham aytish kerak, yaxshisi ertalab ayta qoladi, bugungi ikki ming mashmashasi ham unga kifoya qiladi. E xudoym, endi bu yog‘iga u qanday kun ko‘radi-ya? Ular nima bo‘ladi?! Nima bo‘ladi?!

...Nastena birinchi uchrashuv vaqtida kelishib qo'yaniga muvo-fiq o'sha kecha Andreyga miltiq eltid berdi. Qidirib o'q ham topdi, ammo unga kerakli dori Mixeichda yo'q ekan, shu boisdan u yo'qni yo'ndirib ikki-uchta o'qqa yetarli dorini arang epladi. Bu kam, al-batta. Andrey shunday dedi, ammo qishloqdan yig'ishga Nastena qo'rqardi: darrov qaynotasiga yetkazishadi, keyin u to'polon qiladi. Qishloq kichik, kecha kim kimnikiga tuz so'rab kirganini ham, to non pishguncha kim kimdan bir dumaloq bo'lka non olganini ham hamma biladi. Tag'in deng, Nastena Mixeichga bildirmay ombor devoridan ustiga kiyim-kechak tashlab qo'yilgan miltiqni oldi, chol sezib qolsa – nima bo'lishi ma'lum emas. Hozircha bu haqda hatto o'ylagisi ham kelmasdi.

Andrey bu safar mo'rchada o'zini butunlay boshqacha tutdi. Unga po'pisa ham qilmadi, tiq etgan tovushdan cho'chib ham tushmadi, u gangib, yer bilan yakson bo'lgan odamga o'xshab indamay o'tirardi, o'tirardi-yu, biron nima deya olmasdi. Nastenaning unga shunchalik rahmi keldiki, o'krab yig'lashiga sal qoldi. Andrey keta-yotib dilini yordi:

– Ilojini topolsang, Andreyevskga, quyi qishlovga bor. Men o'sha yerdaman. – Keyin titroq ovoz bilan iltimos qildi. – Albatta bor, Nastena, men kutman. Ammo ehtiyot bo'l, biron ta it isingni olmasin.

Vakilga Nestorning o'zi minib yuradigan yaxshi ot – Karkani berishdi. Nastena uni raisning chetan aravasiga qo'shdi, aravaga pichan tashlab, Karkani vakil tunab qolgan raisning uyiga haydadi. Raisnidagilar esa endi nonushtaga o'tirishgan ekan, shu sababdan Nastena qaytib kelib yurmaslik uchun birato'la yig'ishtirinish uchun uyiga jo'nadi.

Ertalab, uyqudan turishgach, Mixeich Nastenaning shaharga borishidan hatto xursand ham bo'ldi chog'i. Uyda kerosin tugagandi, Mixeich oxtonadan ikki marta shishaga quyib, yashirinchha olib ham kelgan edi, Nastena ham bir marta lampani ko'tarib Nadkankiiga borgandi. Ha, gugurt ham, tuz ham topish kerak. Sovun topilib qolarmikin, deb umidvor bo'lishardi-yu, ammo topilishi amri-mahol edi, ko'pdan berisovun yo'qligidan kirni ishqorda yuvishardi. Yigirmanchi yilda Atamanovkada do'konibor baqqol xotin Simani partizan Afanasevich muz ustidagi o'yiq – xukkidan cho'ktirib

yuborgach, mix sotib oladigan joy ham qolmagandi, har safar mayda-chuyda lozim bo‘lsa, Kardaga borishga to‘g‘ri kelardi.

Lekin hammasidan Mixeichning iltimosi qo‘l keldi.

– Menga qara, oyim qizim, bir hafsala qilib ovchilar do‘konidan o‘q-dori bilan sochmaniyam qara. Otishga-ku, ko‘pdan beri otganim ham yo‘g‘-a, ammo qo‘r bo‘lib tursa, chakki bo‘lmaydi. Bahorda ki-yik-ilik polizga kelib qolsa ham ajab emas.

U qaznoqdagi kerosin solib yuradigan tunuka bankani olib chiqdi-da, o‘zining it terisidan tikilgan po‘stini Nastenaning oyog‘i ostiga tashladi.

– Bugun qaytib kelasanmi, yo‘qmi?

– Bilmayman, do‘konlar ochiqmikin, aylanib chiga olarmikin-man...

– Ha, mayli, bugun bo‘lmasa, ertaga qaytarsan. – Keyin o‘zini tutolmay kechagi gapni yuziga soldi. – Kecha kallai saharlab ketgancha daf bo‘lsang koshkiydi. Shunda bo‘ynimga anavi ikki ming tushmas-midi. Hazil gapmi? A? Nega indamaysan, oyim qizim? Kecha jimgina o‘tirsang yoki tilingni sal kaltaroq qilsang o‘larmidung, mana, bugun gaplasha berardik. Hay, mayli, bora qol endi, bora qol. Innaykeyin, qishloq sovetiga ham kirgin, bilgin-chi Andrey to‘g‘risida biron yangi xat-xabar bormikin. Pochtaga ham kirib o‘t. Balki xatmi yoki biror qog‘ozmi yotgandir.

Qachondan beri o‘zining gapini ma’qullab pechka ustida yotgan Semyonovna to‘ng‘illab dedi:

– Be, bizlay begona eykak bilan biyga ayavaga tushaymidik. Hecham-da! Yana shunday zamonda-ya. Ey xudoymey! Kimga osilishniyam bilishmaydi. Odamlar qutuyib ketyapti. – Semyonov-na so‘zlarning yarmini yamlab yuborardi. – Axiy bu boyaboyguncha ayava ketidan yuguyib yuymaydi-ku, axiy u yonma-yon o‘tiyadi-ku.

– Bo‘pti, bo‘pti, kampir, bichib to‘qiyyerma, – deb uning og‘ziga urdi Mixeich. – Yotganidan keyin indamay yotavermaysanmi, og‘zingga kelganini gapiraverasanmi? Zap qo‘rqadigan odamingni topibsanda – Nastenadan-a!

Mixeich bag‘rikeng odam-da. Agar Mixeich bo‘limganda shu yillarda Nastenaning holiga maymunlar yig‘lardi. Semyonovnaga qolsa-ku uni o‘z erkiga qo‘yib qo‘ymasdi-ya, ishdan, ro‘zg‘or yu-mushidan bir qadam nari jildirmasdi. Xo‘s, bu yerda kimga ham

ko'z suzarding. Qishloqda bor-yo'g'i bitta erkak, u ham bo'lsa o'sha Nestor, shu dardining orqasidan-ku uni urushga ham olishmadi, buning ustiga xotini uni yer-ko'kka ishonmaydi. Mixeichning o'zi Nastenani jon-holiga qo'y may, bor, bora qol, oyim qizim, xotin-xalajlarning oldiga borib, birpas o'tirib kel, gaplashgin, o'ynab-kulgin, sen yoshsan, biz qariyalar bilan bo'g'ilib o'tirasamni, deb tashqariga chiqarib yuborardi.

Mixeich xo'p xushfe'l odam-da, ammo hademay chol bilan ham oralarida gap qochib qoladiganga o'xshaydi. U avval miltiq g'oyib bo'lganini biladi, so'ng boshqa yo'qolgan narsalardan ham xabar topadi. Nastena esa g'iq etolmay turaveradi. Buni o'g'rilarga ag'darib bo'lmaydi; hammayoq to's-to' polon bo'ladi, so'rab-surishtirishadi, tagiga yetishadi, keyin birdan bitta-yarimtaning xayoliga «Nega fagaqt Guskovlarning narsasini o'g'irlashadi? Shu atrofda yurgan o'g'ri o'zlaridan chiqmaganmikin, qayerda qanaqa narsa turganini bilib, o'z narsasini olib ketmayaptimikin?» degan fikr kelib qolishi mumkin. Andrey zinhor-bazinhor otamga sezdira ko'rma, deb tayinlagan. Ana unda qutulib bo'psan, Semyonovna yaqinda bir yumaloq nonni yo'qotib qo'ydi. Nastena uni ikkinchi uchrashuvida Andreyga eltib bergandi, shuning uchun u nonni Nadka qarzga olib ketdi, deb bahona qildi. Xo'sh, buyog'i nima bo'ladi?

Nastenaning Kardaga borib-kelishi juda ham zarur edi. U alohida tugunchada to'qima jun koftasini, har ehtimolga qarshi, bordiyu, xech kim koftamga qayrilib qaramasa, deb qimmatbaho, chiroyli, kulrang Orenburg sholro'molini ham olib olgandi, bu ro'molni Andrey turmush qurbanlarining dastlabki yili olib bergandi. Nastena bularni unga almashtirishga olib ketayotgandi. Andreyga-ku amallab bir chelak kartoshka eltib berdi, ammo un olishga qo'rqi, yashikda bor-yo'g'i ikki qorimli un qolibdi. Uni bo'lsa, har qalay eri qiynalmaydi: non-pon pishirib yeb yuradi. Birontasi surishtirib qolsa, u unni ko'chib kelgan Marusya uchun almashtiryapman deb qo'ya qoladi. Karda katta qishloq, u yerda har qanday ishning hidini chiqarmay, gum qilib yuborsa bo'ladi. Haqiqatan ham u o'tgan qishda Marusyaga yegulik narsa berib, mana shu koftani olgandi, shuning uchun rosti qaysi-yu, yolg'oni qaysi, ajratish qiyin edi. Marusya urush boshlangandan beri latta-puttasini sotib bolalarini boqib kela-yotganini butun Karda bilardi.

Ular quyosh ko'tarilib, charaqlab turgan paytda yo'lga chiqishdi. Chilladagi zabitidan keyin sovuq shashtidan ancha tushib qolgandi, ertalab havo ayozli bo'lsa-da, tiniq, iliydigan avzoyi bor edi, tushga borib esa yanada yumshashi sezilib turardi. Karka qishloqdan chiqishi bilan ildam yo'rtib ketdi, chetan chana, xuddi muz ustida ketayotganday qatqaloq yo'lda qattiq gijirlab sirpanib borardi. Qor bosgan dalalardan ko'kish bug' ko'tarilardi, ufqda esa, oqish nur ustunlari muallaq osilib turganday tuyulardi. Yalang'och qayinlarda tizilgan ola qarg'alar tovuqlarga o'xshab qanotlarini ikki tomonga yozib, jimgina tozalashardi. Borliq ilib, to'yib-to'yib, erkin nafas olardi. Hali ancha erta bo'lishiga qaramay, ko'klam nafasi sezilib turardi.

Nastena po'stinni vakilning oyog'iga tashladi-da, oldinga o'tib cho'kkaladi. Ot tuyoqlaridan sachragan qor yuziga urilardi: Nastena ko'zlarini qisardi-yu, ammo teskari qaramasdi. Chetan chanada shamolday tez yelib borish ham, go'yo bahor gij-gijlab, muddatidan oldin ataylab uning uchun ochilib ketgan kun ham Nastenani haya-jonlantirib, o'jarligini qo'zitib qo'ygandi, u hammaga, hatto o'ziga ham o'chakishib, biron nima qilgisi kelardi. yetar kurk tovuqday, uyda o'tirgani, endi olg'a, Nastena! Qo'rhma, Nastena – olg'a! Sening quvonching endi boshqacha quvonch bo'lishi, sening qayg'uug'amlaring odamlarning tushiga ham kirmasligi kerak. Sen esa qo'rhma, hayda, chuh de, orqangga qarama.

Vakil uni gapga solardi, Nastena esa istar-istamas javob berardi. Axir shunaqa erkaklar ham bor-ku: go'yo hammayog'i joyida-yu, ammo erkak bo'lib qayoqqa borardi deysiz, og'izda, xolos. Manavi ham o'shandaqalardan – qo'lidan xotin-qizlarni zayomga yozdirishdan boshqa ish kelmaydi. Gap qayoqda, nuqul hiqillaydi, yuzi ham chala yuvilgan churuk matoga o'xshaydi – umrida necha marta yuvingan bo'lsa, hammasi shu matoga o'tirishib qolgan-u, bu mato teshilay-teshilay deb turibdi.

Dalalar tugadi, anhordan o'tishlari bilan ikki tomondan asriy ar-chazor boshlanib ketdi. Bu yer suv sepgandek jimjit edi – na shabada g'ir etadi, na o'zları churq etishadi, faqat Karka tuyoqlarini tap-tup urib boradi. Ahyon-ahyondagina shoxlardan qor to'zib tushib, yo'l ustida ko'kka bo'y cho'zib turgan daraxtlarning bir-biriga tutashib ketgan o'tkir uchlari bilinar-bilinmas titrab qo'yadi – bu yerdagi hayot mana shu edi.

Lekin vakil shu yerga yetganda to'satdan dadil bo'lib qoldi. O'tirdi-o'tirdi-da, nogahon Nastenaning orqasidan oyog'ini ushlab o'ziga tortdi va cho'chqaday hur-hur qila boshladi. Nastena chaqqonlik bilan – shunchalik jur'atim bor deb o'zi ham o'ylamagandi – uning qo'lidan chiqdi-da, ko'z ochib-yumguncha vakilni chanadan qorga ag'darib yubordi; Karka hurkib, olib qochdi, Nastena esa, uning jilovini tortmadi ham: o'rtoq vakil bir piyoda yurib, qo'l-oyog'ini yozsin, qizib olsin. Uch yarim yildan beri yakrang, yaxnasak tizzasini qo'ltilqlab yotdi, o'shanda ham manavinga o'xshagan xezlarga o'lsa ham qiyo boqib qaramagan bo'lardi. Endi esa, eri bor, buning tengi emas, bir amallab tinchitadi.

Vakil harsillab yugurib keldi va hech nimaga tushunmay, Nastenaning qarshilagini hazilga yo'ydi-da, yana unga yopishdi. Uning boplاب adabini berishga to'g'ri keldi. U ko'zini pirpiratib, jim bo'lib qoldi, yarim soatdan keyin esa, go'yo hech nima bo'limgandek, xotinini maqtashga tushdi, bolalari haqida gapirdi. Nastena xotirjam tortdi – mana bu boshqa gap – shundan keyin u Karkani jadallatdi.

Kardaga qosh qoraymasdan yetib kelishdi. Nastenaning baxtiga do'konlar hali ochiq ekan. Bu yerda ham uning omadi keldi: kerosin ham, o'q-dori ham bor ekan, eng muhim, shular bilan Mixeich oldida boshqa ishlarini xaspo'shlab ketishi mumkin edi. Shu ondayoq qaynotasiga qiladigan bahona ham topila qoldi: birinchi kuni kerosin yo'q ekan, olib kelishlarini kutdim, deydi. Bunday sababga e'tiroz bildirib bo'lmaydi. Nastenasovun topolmadi, ammo gugurt bilan tuz sotib oldi. Nastena u yoq-bu yoqni qarab, sham ko'rib qoldi-da, undan besh dona oldi – bular qayyoqdan, qaysi cherkovdan kelib qolgani bir xudoga ayon. Nastena esini taniganidan beri qishloq do'konida sham sotilganini bilmasdi, bu yerda esa, xuddi buyurib qo'yilgandek eski, qorayib, egilib qolgan shamlar xor bo'lib yotibdi. Uchtasini uyga olib boradi, ikkitasini Andreyga olib qo'yadi, kerak bo'lib qolganda eri yoqadi, ko'ngli ko'tariladi.

Ishing bir yurishib ketsa, yurishaveradi, degan gap haq rost. Nastena kechqurun koftasini yarim pud unga osongina almashtirdi, shol ro'molni ko'rsatishga hojat ham qolmadi. Bu uni shunchalik quvontirib yubordiki, kechasi bo'lsa ham uyiga qaytib ketmoqchi

bo'ldi, ammo yaxshiyamki niyatidan qaytdi. U eri urushga ketgan bir tanishinikida tunab qoldi. Nastena kechasi goh ko'zi ilinib, goq uyqusi o'chib yotarkan, devor ortida Karkaning pichanni kursillata-yotganini, sovuqdan silkinib,depsinayotganini eshitib yotdi. Nastena to'lg'anib yotdi-yotdi-da, ohista o'rnidan turdi, bekaga bildirmay otni qo'shdi, chanaga bir kunga yetarli qilib pichan tashladi va yo'lga tushdi. Uning ketidan na biron it hurdi, na qattik uyqudag'i qishloq-dan biron ovoz eshitildi.

Nastena so'nggi uylardan o'tgach, otni o'ngga, Angaraga burdi. Karka tushunmaganday to'xtadi: axir uyg'a eltadigan yo'l to'g'ri ketadi-ku. Nastena jahli chiqib, tizgin bilan otni qarsillatib urdi. Xuddi kechagiga o'xshab, yana uning joni ichiga sig'may qoldi, shu bo-isdan bezgak tutayotgandek a'zoyi badani qaltirab, qani endi chana-dan tap etib o'zimni tashlasam-u, Karkaning oldiga tushib yugurib ketaversam, derdi. Tezroq, tezroq! Nastena otni Angaradan yeldirib o'tib bo'lmasligini bilardi: biron chuqurga tushib ketadi-yu, oyoqsiz qoladi, shunga qaramay u otni qistadi. U bitta-yarimta ko'rib qolmasin, tong otmasdan Ribnayadan o'tib olay, deb shoshilardi. Yuragi qinidan chiqqudek bo'lib gurs-gurs urardi. Nastena ostiga to'shalgan po'stin ustida sakrab tushar, o'zini har maqomga solar, jilovni siltab, qandaydir tushunib bo'lmaydigan, vahimali so'zlarni aytib baqirardi. Tezroq, tezroq...

Hammasi, hozirgi ishlar ham, keyin bo'ladiganlari ham – hammasi tezroq bo'la qolsin!

Ribnaya orqada qolib ketgandan keyingina Nastena Karkaning boshini tortib, jilovni bo'sh qo'ydi. Bu yog'i endi yaqin. Hovliqishi o'zidan o'zi bosilib, ko'ngli huvillab qoldi. Xuddi ichi tutunga to'lib ketganday, ko'ksining qayeridir jizillab achishardi, ammo nimadanligini Nastena bilmasdi.

Nastena tunning xiralashib qolganidan hademay tong ota boshlashini tushundi.

U yo'lda borarkan, «Mana sen, Nastena, yolg'on gapirishni ham, o'g'irlik qilishni ham o'rganib olding, – deb o'ylardi. – Ammo bu faqat boshlanishi, xolos – bundan bu yog'iga holing nima kechadi, Nastena?» Lekin u har qalay gunohi borligini his etmasdi, bo'yniga olmasdi, u kelajakka shunchaki ko'z qirini tashlab qo'yishni, bu ishlar nima bilan tugashini ko'rishni istardi.

Nastena Karkani to'xtatganda tong otgan edi, u otni jilovidan ushladi-da, muzlamadan yetaklab, sohildan ko'rinish turgan ayrilishga qarab yurdi.

## 6

– Salom, xo'sh, horma endi, – dedi Nastena jilmayib.

Nastena erini g'aflatda qoldirdi. U Nastenaning qanday kelgанини, отни qантариди, дарё уонидаги qoldirganini va qishlovga ohista yaqinlashganini sezmay qoldi. U boshiga kalta po'stinini tortib uxlab yotgandi. Nastena eshikchani ocha boshlaganida u xuddi portlash to'lqini so'ridan itqitib yuborganday, oyog'ida zo'rg'a turardi. Mana, endi u sochlari to'zib, gangib, uning oldida turarkan, kelgan odam Nastena ekaniga hamon aqli bovar qilmay, shunchalik qo'rqib ketgанидан xijolat chekib, mulzam bo'layotgandi.

Nihoyat, Nastena unga tuzukroq razm soldi: bukilib, beso'naqay jussasining o'ng tomonga sal chiqib turishi ham o'sha-o'sha, osiyo-cha yassi yuzi ham, puchuq burni ham o'sha-o'sha, mushtlashib qolgan qora soqoli o'sib ketibdi. Ichiga botgan ko'zлари yeb yuborgudek tikilardi, uchli kekirdagi jonsaraklik bilan xuddi mokiday chiqib-tushib turardi. Oriqlab, yuzlari so'libdi, cho'kib qolibdi, ammo qaddi bukilmabdi, ko'rinish turibdi, hali ham baquvvat, chayir, sal qo'l tegizsang bo'ldi, a'zoyi badani tortishib, tosh bo'lib ketadi. U, Nastena tanigan, bilgan, jondan aziz kishisi bo'lsa-da, ayni damda go'yo begonadek edi. Ha, u Nastena bundan uch yarim yil oldin kuzatib qo'ygan suyukli eri emasdi.

– Mana, – u aybdorlardek jilmayib yana gap boshladi, – holingdan xabar olgani keldim. Tashvishlanma, hech kim ko'rgani yo'q. Men bugun to'g'ri Kardadan keldim, kelsam uxlab yotgan ekansan. Biron qora kuningga yarab qolar, deb u-bu olib keldim.

– Endi kunlarimning hammasi ham qora, – dedi eri nihoyat tilga kirib.

Andrey paxtali shim va jun paypoqda edi. Uning bir yuzini sovuq olib, yonog'i qorayib qolganini Nastena endi payqadi. Andrey sekin-asta o'ziga kela boshladi: oyog'ini piymasiga tiqib, pechkachani yoqishga kirishdi. Nastena eshik tomonga qadam tashlagan edi, uni to'xtatdi:

– Qayoqqa ketyapsan?

- Axir, borib narsalarimni olib kelay, sovuqda qolmasin.
- Shoshmay tur, birga boramiz.

Ular chanada faqat kerosin solingan bankani qoldirishdi-da, boshqa hamma narsani issiq qishlovga olib kirishdi. Keyin Karkani daryoning yuqorisiga, muyulish orqasiga haydab borishdi-da, chana dan bo'shatib, oldiga pichan tashlab qo'yishdi. Ularning hamon xudi begonalarga o'xshab gaplari qovushmasdi, juda zarur bo'lib qol gandagina bir-biriga «ol» yo «ber» deb qo'yishardi. Nastena uning ko'nglini qanday ovlashni, unga nima deyishini bilolmay qiyinalardi. Andrey esa, yoki hamon es-hushini yig'ishtirib ololmayotganidan jahli chiqayotgandi, yoki shuncha yildan beri ularni bog'lab turgan rishtani o'ylab – kim biladi, bu munosabat saqlanib qolganmi-yo'qmi – avvalgidek oqibat qilishga birdaniga jur'at eta olmayotgandi.

To otni tinchitib kelishguncha qishlov ancha isib qolgandi, shuning uchun Nastenaning yechinishiga to'g'ri keldi. U oq qarag'ay shoxi to'shalgan katga o'tirdi-yu, yana darrov o'rnidan turdi – yo'q, biron ish qilish kerak, biron nima bilan o'zini ham, uni ham ovutishi kerak, arzimagan biron yumush bo'lsa ham topishi kerak. U ashqoldashqollar uyulib yotgan eshik oldiga keldi-da, po'stin ichidan un so lingan yostiq jildini oldi va maqtanib dedi:

– Mana, Kardadan senga un topib keldim. Non qilib yeysan.

Andrey unga javoban shunchaki bosh irg'ab qo'ydi.

– Bu qanaqa qiliq? – Nastena xafa bo'ldi. – Meni nega bunaqa kutib olyapsan-a? Bir og'iz gapirmaysan. Men bo'lsam yarim kechada yo'lga chiqib, uchib-qo'nib oldingga kelibman, xursand bo'ladi, deb o'ylabman. Yo qaytib keta qolganim ma'qulmikin?

– Ketib bo'psan!

Andreyning jahl bilan cho'rt kesib, qat'iyat bilan aytgan gapidan Nastena eri jo'natmasligini, o'la qolsa ham javob bermasligini tu shundi. Nastena unga yaqinlashdi va ko'rlarga o'xshab timirskilanib, nozik qo'lini oldinga cho'zdi va uning boshiga tegizdi.

Andrey bo'zdek oqarib ketgan yuzini unga burib, dedi:

– Nahotki sen meni kelganimga suyunmayapti, deb o'ylasang? Xursandman, Nastena, xursand bo'lganda qandoq! Endi mening xur sandligim qayoqqa borardi: endi u kerakmi, yo'qmi, endi uni aytib o'tirish lozimmi, lozim emasmi...

Nastena boshini uning ko'ksiga qo'ydi.

– E, xudoyim! Nimalar deyapsan-a? Axir men senga begona emasman-ku. Axir biz to‘rt yil birga yashadik-ku yo bu senga kammi?

U Nastenani qo‘lidan biroz ushlab turdi-da, javob bermay, qo‘yib yubordi. Lekin u Andreyning bo‘sashib, xovuridan tushayotganini ko‘rib turardi – mana, boshi likilladi-da, bir yoniga og‘ib, yelkaga tushdi – bu uning eriyotganidan dalolat beruvchi alomat, bu faqat Nastenagagina ma’lum edi. U ilgari shunga qarab, erining avzoyini bilib olardi: agar boshini yoniga og‘dirsa, og‘zingga kelganini qaytarma, xohlaganingcha kul, sho‘xlik qil – hammasini kechiradi, o‘zi ham qo‘shiladi, o‘yin-kulgiga berilib ketadi-yu, keyin qani hadegan-da tinchisa, o‘shanda ham istar-istamas bas qilardi. Yo‘q, avvalgi Andreydan nimadir qolibdi. Nastena, sen-chi, sen kulmaysanmi, degandek sipolik bilan miyig‘ida jilmaydi-da, dedi:

– Men axir seni shu bugun endi tuzukkina ko‘ryapman-u, manavi soqolinq bilan juda g‘alati ko‘rinarkansan.

– Nega g‘alati?

– Bilmasam, qandaydir... – deb kului va shu zahoti tilini tishlab, kulgidan to‘xtadi. – Alvastiga o‘xshaysan. Men mo‘rchada kim bilan bo‘lganimni – sen bilanmi yo alvasti bilan, o‘zim ham tushunmay qoluvdim. Erimga asrab yurib-yurib, alvasti bilan yotdimmi, deb o‘yladim.

– Xo‘sh, xo‘sh, alvasti qanaqa ekan?

– Chakki emas. Lekin o‘z ering yaxshi-da.

– Juda ayyorsan-da. Ikkovining ham ko‘nglini olgansan. Keyingi safar menga ustara olib kel, manavi patakni yo‘q qilay.

– Nimaga?

– Alvastiga o‘xshamaslik uchun. – U shunday dedi-yu, darrov fikridan qaytdi. – Kerakmas, olmayman. Meni tanib qolmasliklari uchun selkillab yuraversin. Alvastiga o‘xhab yurganim tuzuk.

– Voy xudoyim! Nega erimning qornini o‘ylamabman-a, – Nastena birdan eslab qoldi. – Nima balo, gap sotgani keldimmi. – U azbaroyi shoshib qolganidan hali er-xotin ikki og‘iz gaplashishmaganini ham unutib qo‘ydi. – Xotin xalqi shu ekan-da! Birov do‘pposlav turmasa, o‘zidan ketib qolarkan.

Andrey «hm» deb Nastenaga diqqat bilan razm soldi-da, dedi:

– Birov do‘pposlav turmasa deyapsanmi?

- Bo‘lmasa-chi.
  - Sog‘inib qoldingmi?
  - Bo‘lmasa-chi, aqlimni kiritadigan odamning o‘zi yo‘q edi-da.
- Xo‘p, bo‘pti, o‘tir, men hozir.
- Loaqal choy qo‘yilsa bo‘larmidi, – deb eslab qoldi Andrey.
  - Nega yog‘ochday qaqqayib turibsan, qo‘ygin-da. Nima balo, suving ham yo‘qmi deyman?

Unga loaqal ozgina bo‘lsa ham o‘zini bekaday his etish va u-bu ishni buyurib turish yoqardi, axir ilgari bunday qilishga kamdan kam haddi sig‘ardi, bundan buyon bunaqa imkoniyat bo‘ladimi-yo‘qmi, noma‘lum edi. U Andreyni pechkaga o‘tin tashlashga va g‘izillab borib daryodan suv olib kelishga majbur qildi, keyin uning ko‘zi oldida tugunini yechib, bir dumaloq javdari non va katta bir bo‘lak cho‘chqa yog‘ini olib qo‘ydi. Cho‘chqa yog‘ini Semyonovna kuzdayoq Andreyga atab, ana kelib qoladi, mana kelib qoladi, deb kutib yurishgan paytidayoq yashirib olib qo‘ygan edi. Andrey kelmadi, ammo unga atab tayyorlab qo‘yilgan narsalarga qandaydir eski bid’atlarga ko‘ra tegishmagandi: atalgan narsaga tegsang yomon bo‘ladi. Bir oycha burun Nastena tasodifan omborda lattaga o‘ralib, tokchaning bir burchagiga tiqib qo‘yilgan yog‘ga ko‘zi tushib qoluvdi, mana, kecha shu yog‘ning yarmini kesib oldi. Kimga asrab qo‘yilgan bo‘lsa, o‘sha odamga nasib qildi. Chang bosgan chirpitdagи samogon ham qayerdadir turgan bo‘lsa kerak. Andrey otasining ostonasidan hatlashini, uning uchun, aziz kimsa uchun qadahlar ko‘tariladigan soat kelishini kutib turibdi.

Nastena urushdan oldin bir marta kinoda (u bu mo‘jizani boryo‘g‘i uch marta ko‘rgan edi) shaharlik bir xotin jondan ortiq sevgan kishisining ko‘nglini qanday olishini bilmay, unga xuddi yosh boladek ovqatni yedirib qo‘yganini ko‘rgandi. Nastena hozir ilgari o‘zi o‘rganmagan tantiqlik bilan nogahon bir bo‘lak yog‘ni Andreyning og‘ziga tutishga jazm etdi, ammo eri unamadi. U o‘z qilig‘idan ham noqulay ahvolga tushib qoldi, ham xuddi qandaydir yupqa muz ustidan o‘tib olib, undan u yog‘iga bemalol ketaversa bo‘ladigan odamday yengil tortib quvonib ketdi. Ammo choyni bir idishdan – askarlar manerkasi qopqog‘idan ichishga to‘g‘ri keldi. Ular qopqoqni birbiriga uzatib choy ho‘plar edilar. Nastena qopqoqni Andreydan olib, uni yana qayta uzatayotganda ham negadir hayajonlanib ketar edi.

Ha, bu yerdagi hamma narsa – o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, odamni yutib yuboray deb turgan qishlov ham, ikkiga bo‘linib, pol o‘rniga yerga palapartish tashlab qo‘yilgan g‘o‘lalar ham, shift-dagi egilib qolgan taxtalar ham, bir tekisda yo‘nilmagan yog‘och devordagi qop-qora, quruq to‘r ham, tashqarida tog‘dan etakka tomon ulkan o‘rkach kabi cho‘zilib tushib, oftobda yaraqlab turgan, iz tushmagan qor ham, endi kunduzi yorug‘da tanib, yonida ko‘rib turgani, ammo bu bilan hali yaxshi tushunib yetolmayotgani Andrey ham, kim bilsin, qanday qilib, nima uchun bu olisdagi tashlandiq qishlovga kelib qolgan o‘zining xatti-harakati ham Nastenani hayajonlantirar, ayni choqda qo‘rqitar ham edi. U xayoli chalg‘idi deguncha har safar qarshisida Andreyni ko‘rib turganidan hayratlanardi, shundan keyin zo‘r berib uning nima uchun bu yerda yurganini eslashga urinardi. Faqat shundan keyingina barcha ko‘rgan-kechirganlari qanday bo‘lsa, o‘shandayicha ko‘z oldiga birma-bir kelardi-yu, shunchaki lip-lip qilib turardi, bular shunchalik haqiqatdan uzoq, xayoliy, tushda ko‘ringandek ediki, vujudga kelgan vaziyat chigallashib, rasvo bo‘lmasligi uchun doimo uni yaxshilashga harakat qilish kerak edi.

Nastena xuddi o‘zi bilan o‘zi bekinmachoq o‘ynayotgan edi: goh vaqt o‘tishi bilan hammasi, albatta, oxiri baxayr bo‘ladi, deb ishonardi, faqat kutib turish, chidash kerak, derdi, goh yuz bergan bu voqeя to‘satdan ko‘ziga yutib yuboradigan o‘pqonga o‘xshab ko‘rinardi-da, dahshatdan nafasi ichiga tushib ketardi. Lekin u qo‘rquvini sezdirmasdi, o‘zini xursand qilib ko‘rsatardi. Ertaga nima bo‘lishi hali noma’lum, bugun esa, üning aytgani aytgan, bugun bir necha yilning hissasini chiqarishi, butun borlig‘iga erkinlik, dam berishi mumkin.

Nastena choy mahali Andreyning rizqini qiymaslik uchun nomi-gagina tamaddi qilgan bo‘ldi, issiq elitib, esnab qo‘ydi.

– Uydagilar meni Kardada deb o‘ylashadi, men bo‘lsam sening oldingda o‘tiribman, – dedi Nastena o‘zi ham anglamagan holda. – Bilishsa bormi.

Andrey javob bermadi.

U katga kalta po‘stinini yozdi, oyog‘idagi piymasini yechib tashladi-da, qo‘llarini har ikki tomonga yoyib cho‘zildi. Andrey stol ortidan xotiniga ko‘z qirini tashladi – Nastena uning havasini kelti-

rish uchun go‘yo uyquga ketayotganday ko‘zini yumdi-da, jim bo‘lib qoldi. Lekin Andrey yaqinlashishi bilan u sapchib turib, cho‘kkalab oldi, oldinga engashib, xuddi qizchalardek bidirlay ketdi:

- Qoch, boshimni aylantirma, men seni tanimayman.
- Nima-nima?!
- Qoch, boshimni aylantirma, men seni tanimayman.
- Buni qara-ya!

U sho‘xligi tutib ketib, bir sakrab Nastenaning yoniga chiqdi, Nastena chap berdi, bir vaqlardagi, birga tura boshlagan dastlabki yildagi singari to‘polon boshlandi. O‘zlari ham rosa o‘ynashishar edi-da, chang burqsib ketardi. Nastena nozikoyimlardan emasdi, shuning uchun darrov unay qolmasdi, shunday kunlar ham bo‘lardiki, to u bo‘ldi-bo‘ldi, tan berdim, degunicha Andrey qora terga botib ketardi. Ammo Nastena hozir negadir uning kuchini sinab ko‘rishni istamay, qo‘lini tushirdi. Andrey esa buni o‘zicha tushunib, xuddi yosh boladek shoshilib, hovliqib qoldi – shunda Nastena uni xafa kilib qo‘ymaslik uchun bosiqlik bilan:

– Sekinroq, Andrey, shoshilma, keragi yo‘q. Axir, mehr-muhabbatim qarovsizlikdan so‘ligan gulga o‘xshab qolgan. Unga shikast yetkazma, uni urintirma.

Andrey uning gapiga kirdi va ilgari sira bunaqa qilmagan odam birinchi marta xotinining ra‘yiga qarab, istagini bajo keltirib, sidqidildan ardoqladi.

Nastena erining bag‘rida orom olib yotar ekan, xijolat tortib, g‘alati bir ahvolga tushdi, nazarida, go‘yo Andrey bilan emas, qandaydir boshqa bir erkak bilan yotganday edi. Ammo bu tuyg‘u tez o‘tib ketdi. Uning ko‘zi ilina boshladi, shu on u yaqin o‘tmishdagi o‘z uyida eri bilan o‘tkazgan baxtli kunlarini tasavvur etdi.

Nastena Andreyga biron nima deyishni, biron bir yaxshi, yuragining tubidan chiqqan gapni aytishni istardi-yu, ammo durstroq jumla topolmay, nimadan boshlashini bilmay, undan iltimos qildi:

- Qayeringdan jarohatlanding, ko‘rsat-chi...

U ko‘ylagining tugmasini yechib, ko‘kragidagi qizil chandiqni ko‘rsatdi. Nastena chandiqni ohista silab qo‘ydi.

– Sho‘rlik... o‘ldirmoqchi bo‘lishibdi-da... bitib ketdimi, og‘rimaydimi? – dedi astoydil achinib Nastena.

– Hozir yaxshi, faqat sirqiraydi. Ayniqsa, havo aynisa, bo‘lmasa yo‘q, shunchaki doim xalaqit berib turadi, bir nima qadalib turganga o‘xshaydi, hali ko‘nikkanimcha yo‘q.

Bundan bir soatgina burun Nastena bu yerga qanday qilib, nima uchun kelganini tushunolmay garang edi, hozir esa, nazarida go‘yo boshqa hech nimani ko‘rmaganday, bilmaganday, butun umri shu chordevor ichida o‘tganday tuyulardi. Qandaydir o‘zgacha bir hayotdan eslashi mumkin bo‘lgan barcha narsalar lip etib o‘tib ketuvchi tushning tartibsiz, uzuq-yuluq parchalari singari ortda g‘ira-shira ko‘rinardi. Nahotki qayerdadir, anavi yoqda hali ham odamlar, urush, o‘lim va falokat bo‘lsa? Qachon shunaqa bo‘luvdi, umuman, shunaqa voqeal yuz bergenmi o‘zi? Ichkarining havosi tutundan achib ketdi, allalovchi, suv quygandek jimjilik har qanday g‘am-g‘ussa va tashvishni xaspo‘shlardi. Nastena erkinligidan, tanholigidan mast bo‘lib yetardi. Orom olgan Nastena huzur qilib, o‘zining shu yerdaligini bitor harakati bilan sezdirmay, churq etmay faromushxotir yetardi.

– Agar uxlasmam, jahling chiqmaydimi? – zaif, lekin mamnun ovoz bilan so‘radi u.

– Uxlayver, uxlayver.

Andrey Nastenani yaxshiroq ko‘rish uchun tirsagiga tayanib sal ko‘tarildi. Nastena uxbab qolgandi. Uning sovuqdan qizarib ketgan kulcha yuzi muloyimlashib, uyquda ham mayin tabassumidan yori shib turardi. Bu yillar ichida uning yuzi sal qotib, dag‘allahib qolibdi, uning yuzidan hamisha ko‘zga tashlanib turadigan «Voy, juda qiziq ekan-a, buyog‘i nima bo‘ladi?» deganday qizlargacha xos sabrsizlik, taajjub alomatlari butunlay g‘oyib bo‘libdi. Aslini olganda bu alomat Andrey hali urushga ketmasidan burun g‘oyib bo‘la boshlagandi. Ko‘p o‘tmay cho‘pchak ham nihoyasiga yetdi, barcha sir-asror oshkora bo‘ldi, bordi-yu, ba’zan yana biron bir ajoyibroq ish e‘tibordan chetda qolgan bo‘lsa, go‘yo o‘tmishda, yo‘lda ketayotganlarida shoshilib eslaridan chiqib qolgandek, naridan-beri bajo keltirilardi.

Nastena qo‘lini ko‘kragiga, koftasining tugmasi yechilgan joyga qo‘yib yetardi, barmoqlari sal qimirlar, ko‘kragi bilan birga ko‘tarilib tushardi. Andrey uning qo‘llari ham dag‘allahib, yo‘g‘on tortganini payqadi – bu og‘ir mehnat tufayli edi. Nastenaning bir tekisda chuqur-chuqur olayotgan nafasidan yangi sog‘ilgan sutga o‘xhash iliq, yoqimli hid taralardi.

Andrey Nastenaning yonginasiga surildi-da, uni ohista quchoqladi va uning yuragi qanday tepishiga qulqoq soldi. Yurak shundaygina qulog'i ostida dukillab, har dukillaganida uning noaniq, alamli tashvishlarini orttirardi. Bu tashvish borgan sari ortib borayotgandan, u esa, bu tashvish nimaga aloqadorligini bilmaganidan va oqibati nima bilan tugashidan bexabarligidan battar bezovta bo'lar edi. U ortiq yota olmadi, o'rnidan turib, ohista katdan tushdi va xuddi o'g'riga o'xshab, u xlab yotgan Nastenaga yelkasi osha o'girilib qaradi. «Uxla, uxlayver», dedi u pichirlab, ammo u aslida Nastenaning uyg'onishini istardi. U bilan birga bo'lsa-yu, uning dilidagini sezmasa, u aytmoqchi bo'lgan gaplarni, qilmoqchi bo'lgan ishlarni bilmasa, bunga toqat qilib bo'ladimi axir. Ko'ngli muzlab, birpasda huvilladi-qoldi, biror nima qilishini, ilitadigan narsani qo'msab, g'ash tortdi.

U tashqariga chiqdi-yu, birdan kelib urilgan ravshan nurga tob berolmay beixtiyor ko'zlarini qisib oldi. Nazarida, naq tog' ustida turgan quyosh bor nurini shu yerga sochayotgandek edi. Yilt-yilt qilayotgan qordan hovur ko'tarilardi, ola-chalpoq soyalarda esa qor ko'kish tusda tovlanib ko'rinaridi. Kun bahordagiday iliq bo'lib, ajib bir hid anqirdi. Qishlov tomining burchaklaridagi sumalaklar erirdi, qordan mog'or bosgan parcha-parcha yerlarda esa qora mevali butalar qaddini rostlayotgan edi.

Andrey, go'yo ochiq havoda bo'g'ilib ketayotgandek, entikib-entikib nafas oldi. U otni sug'organi ketdi, keyin biror begona odam bor-yo'qligini tekshirgani Angaraga tushdi, ammo tashvishi arimadi. Unga, nazarida, go'yo hozir, xuddi shu lahzada o'zining bema'niliqi tufayli juda bir muhim narsadan, qaytarib bo'lmaydigan, o'ziga juda zarur, keyin sira topib bo'lmaydigan narsadan judo bo'layotgandek tuyuldi.

U qishlovga qaytib keldi. Nastena hamon uxlab yotardi. Andrey o'zini qo'yarga joy topolmay, yana Nastenaning pinjiga tiqildi va boshini ko'kragiga qo'ydi, ammo bu yaqinlashishdan negadir bo'g'ilib ketib, nari surildi. Nastena uyqu aralash qo'lini cho'zdi-da, erining boshini paypaslab topib, uning sochini siladi. Nastenaning qo'li tegishi bilan Andrey to'satdan yengil tortdi. Andrey ko'zini yumdi va yelkasida Nastenaning najotkor qo'li turganini sezib, ohista aylanib, qandaydir yumshoq va keng bo'shliqqa uchib ketayotganini

tasavvur qildi-da – bu uning uxlab qolishiga hamisha yordam berardi – ko‘p o‘tmay uxladi-qoldi.

Ular bir vaqtda uyg‘onishdi. Nastena ko‘zini ochib eriga tikildi, Andrey ham bir cho‘chib tushib uyg‘ondi. Nastena unga qarab jilmaydi.

Derazadan tushib turgan quyosh nuri eshikning oldiga borib qolibdi: xa, kun ancha og‘ibdi.

– Judayam maza qilib uxladim-da, – dedi Nastena. – Bu yaqin orada shunaqa uxlaganimni eslolmayman ham – tosh qotibman. Sen yonimda bo‘lganining uchun-da hammasi. Senga qarayotgandim-u, bu sen ekanligingga sira ishonolmayotgandim. Mana, uyquda esa ishondim, eridim-ketdim. Shundoq jonim kirdi-ya...

Uxlab turganlaridan keyin ular, go‘yo qaytadan uchrashayotgan-dek, bir-birlariga taajjublanib qarashar va bir-biridan nimanidir umid kilishar edi. Nastena o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi, ammo eri ushlab qoldi, erining bu harakatidan suyungan Nastena kulib yubordi.

Ular garchi bo‘lishi lozim gaplardan qochib qutula olmasliklari-ni yaxshi tushunishsa ham, bu suhbatni ataylab paysalga solayotgan edilar.

## 7

– Agar qaytib borganimda, o‘sha yerda qolib ketardim, bu turgan gap edi. Shunchasiga chidadim, tuzalib ketib jang qildim, urushdim, bekinib yurmadi, mug‘ambirlik qilmadi, nima bo‘ldi-yu, o‘zimga o‘zim qilib, mana shu ko‘yga tushib o‘tiribman. Odamning boshi aylangsana, shunaqa bo‘ladi o‘zi. Behuda bo‘lmaydi bu. Hudami-behudami – bo‘lar ish bo‘ldi, vaqt o‘tdi, endi bu ishni tuzatib bo‘lmaydi.

Andrey ko‘zini yumib yotardi – shunda gapirish oson edi – odatta odam kimga zahrini sochishni bilmasa, shu holga tushadi.

– Ammo qanday, qanday jur‘at etding? – degan gap Nastenaning og‘zidan chiqib ketdi. – Axir bu hazilakam gap emas-ku. Qanday qilib yuraging dov berdi-a?

– Bilmayman, – Andrey darrov javob bermagani uchun Nastena eri o‘zini go‘llikka solmayotganini, yolg‘on gapirmayotganini payqadi. – Sira toqatim qolmadi. Bo‘g‘ilib ketaverdim – sizlarni juda ko‘rgim keldi. Frontda bo‘lganimda qochib kelmasdim, albatta. Bu yer esa, bir qadam joydek tuyuldi. Qayoqda yaqin deysan? Poyezdda

kelyapman, kelyapman, qaytanga kismimga tezroq yetib borardim. Axir ataylab qochmadim men. Keyin qarasam, endi qaytganimda qayoqqa ham borardim? Baribir otishadi. Yaxshisi shu yerda o'lay dedim. Endi nimasini ham gapirardim! Cho'chqa baribir o'zini bal-chiqqa uradi.

— Urush tugasa, balki kechirishar, — dedi Nastena gapiga o'zi ham ishonmay.

— Yo'q, bu ish uchun kechirishmaydi. Bu ish uchun agar qayta-qayta tiriltirib otishning iloji bo'lsa, boshqalarga ibrat bo'lsin, deb o'lgan joyingdan turg'azib qo'yib, uch martalab otishadi. Mening qismatim tayin, endi uni o'ylab, jon kuydirib yurmasam ham bo'ladi. Kelayotib, boraman-u, Nastenani ko'raman, yosh umringni xazon qildim, tinchgina yashash mumkin bo'lgan bir paytda bo'larbo'imasga zug'um qildim, deb uzr so'rashni o'yladim. Rost-da, nega yashay olmasdik? Yosh, sog'lom, xuddi ataylab bir-birimizga yaratilganday, birimiz uzuk bo'lsak, birimiz ko'z edik. Xohlagancha o'ynab-kulsak bo'lardi. Yo'q, noz qilibman, hukmimni o'tkazaman debman. Ahmoqlik ham shunchalik bo'lar-da. Ahmoqlik qilganimni o'zim ham tushunardim, axir men ham juda ovsar emasman-ku, u-bu narsaga aqlim yetadi, ammo o'zimni to'xtata olmasdim. Men hali yoshmiz, songa ham kiramiz, bir-birimizga to'yamiz, eh-hye, hali vaqt ko'p, deb o'ylabman. Mana, hammasiga ulgurib ham bo'ldik. Boraman-u Nastenaga ko'rinish beraman, xotirasida yomonotliq bo'lib qolmaslik uchun tavba qilaman, otam bilan onamni olisdan bir ko'raman-u o'zimni o'ldiraman, deb o'ylovdim. Keyin vahshiy hayvonlar etimni yeb, suyagimni tozalab qo'yishardi, albatta. Ammo sen bilan manavindaqa birga bo'lishni xayolimga ham keltirmagandim, yuragim dov bermagandi. Bu qaysi yaxshiligidan evaziga berilgan mukofot bo'ldi ekan? Birgina mana shuning o'zi uchun, agar kalta o'ylilik qilmaganimda, seni kaftimda ko'tarib yurishim kerak edi!

— Voy seni, gapingni qara-yu... — deya Nastena gap boshlamoqchi bo'lgandi, ammo Andrey uning so'zini bo'ldi:

— Shoshmay tur. Boshladimmi, endi gapimni tugatay, keyin balki iloji bo'lmash. Endi ichimdagilarni saqlab yurishimning hojati yo'q, yaramaydi. Nima bo'lsa, hammasini aytishim kerak. Mana, uchto'rt kunga, deb keldim, uzr so'rayman, xayrlashib ketaman, deb o'ylovdim, hozir bo'lsa, loaqal yozgacha qolay degan niyatim bor.

Yozning qanaqaligini oxirgi marta ko‘rmoqchiman. Keyin, mayli o‘lsam ham armonim yo‘q. Bugun bo‘lsa, sen ko‘nglimni ilitding, xursandlikdan dod desang arziyi. – U yutinayotib qalqib ketdi-da, jim bo‘ldi. – Men sendan ko‘p narsa talab qilmayman, Nastena. Shundoq ham menga ko‘p yaxshilik qilding. Yana bir necha oygina sabr qil, birovga churq etma, keyin vaqt keladi, ko‘zingdan g‘oyib bo‘laman. Ammo sabr qil. Zug‘umlarimga xo‘p chidaganding, endi bunisiga ham chida.

Nastena shartta o‘rnidan turib, uni tuzlamoqchi ham bo‘ldi-yu, negadir qimirlolmadi, bu vaziyatda tiliga kalima kelmadi, shuning uchun u indamadi. Andrey shoshilmay, birpas kutib turgach, gapida davom etdi:

– Endi biz odamlar ichida bir kun ham yashay olmaymiz. Qachon xohlasang, qachon menga iching achisa, kelaver. Men esa seni kelsin deb iltijo qilaman. Endi odamlarga ko‘rinishim mumkin emas, hatto jonim uzilayotgan paytda ham mumkin emas. Boshqasi bo‘lganicha bo‘lar, ammo buni oxiriga yetkazishga harakat kilaman. Men keyin odamlar senga, otamga, onamga barmoqlarini bigiz qilishlarini, qanday yashiringanimni fol ochishlarini, izimga tushishlarini istamayman. Buning ustiga har xil gaplarni bichib-to‘qib, g‘iybat qilishlariga toqatim yo‘q. Xohlamatayman. – U qo‘zg‘olib, katda turib o‘tirdi, uning yuzi cho‘zilib, dokaday oqarib ketgandi. – Sen ham, eshitapsanmi Nastena, mening kelganimni birovlarga zinhor ayta ko‘rma. Ikki qulog‘ingga quyib ol. Yo‘qsa, o‘lsam ham tilingni sug‘urib ola-man.

– Nima bo‘ldi senga, Andrey?! Nimalar deyapsan?! – qo‘rqib ketgan Nastena ham turib o‘tirdi.

Endi ikkovining tirsagi bir-biriga tegib, yonma-yon o‘tirardi, shunda u Andreyning xuddi quduq ichidan quldirab chiqayotganga o‘xshagan ovozda og‘ir nafas olayotganini eshitdi.

– Men seni qo‘rqtayotganim yo‘q. Seni qo‘rqitib nima qilaman, Nastena?! Sen mening yorug‘ jahonimsan-ku. Ammo esingda bo‘lsin, men tirikmanmi, o‘likmanmi, baribir, sirimni avayla. Menga qayer issig‘-u, qayer sovuq ekanligi doimo yodingda tursin. Keyin, bu ishlar tugab ketgandan keyin sen yana turmushingni yaxshilab olarsan. Yaxshilab olishing kerak, sening vaqting bor. Bir kunmas-bir kun shunday payt kelib, o‘zingni yaxshi his etganingda, azbaroyi

xursandligingdan ko'nglingni butunlay bo'shatging, ichingda nima bo'lsa, hammasini aytging kelib qoladi. Ammo o'shanda ham bu ish-dan og'iz ocha ko'rma. Sen men haqimdag'i haqiqatni bilgan birdan-bir kishisan, boshqalar nima deb o'ylasa, o'ylayversin. Sen ularga hisob berishga majbur emassan.

– Men senga, Andrey, biron nima dedimmi, nega men bilan buna-qaga gaplashyapsan? – so'radi Nastena. U o'zini yo'qotib qo'yib, nima deyishini ham bilmasdi. Odatda xotinlarninggina tili uchida turadi-gan bu savolda xafa bo'lishdan ko'ra ko'proq iltijo ohangi bor edi, o'z-o'zidan otilib chiqqan bu savol ayanchli yangradi, ammo Andrey, chamasi, bu savoldan xursand bo'ldi, uning itoatgo'ylik bilan aytil-ganidan ko'ngli joyiga tushdi.

– Yo'q, hech nima deganing yo'q. Xafa bo'lma, qo'y. Bilaman, sen tushunasan, qanday bo'lsa, hammasini shunday tushunasan. Agar boshqa vaqt bo'lganida, ehtimol, bu gaplarni senga aytmasdim, endi esa, aytishga to'g'ri keladi. Nima qilayotganimga, shu ishni nimaga qilayotganimga endi o'zimning ham aqlim yetmay qoldi. Mening suratim odam, go'yo birov ichimga kirib olib, meni u yoqdan-bu yoqqa tentiratib yuribdi. Men o'ngga burilay desam, u qo'ymaydi – chapga sudrab ketadi! Hay, mayli, bu yog'i oz qoldi...

– Sen negadir nuqul vahimali gaplarni gapiryapsan...

– Qo'rhma. Men seni emas, o'zimni qo'rqiyyapman. E, endi o'zimni ham qo'rqtib nima qilaman: bundan dahshatlisi bo'lmaydi. E, sening oldingda bir erib ketdim-da. Ammo nima lozim bo'lsa, hammasini aytdim, hammasidan ogohlantirib qo'ydim. Ko'nglim ancha bo'shab, taskin topdi. Endi sen gapirgin.

– Men nimaniyam gapirardim...

– Oyim qalay, qimirlab yuribdimi?

– Keyingi paytlarda pechkadan deyarli tushmay qo'ydi. Faqat qozon osgani tushadi. Xamirga meni yaqin yo'latmaydi, o'zi qiladi. Bunaqada ikki dunyoda ham non yopishni o'rganolmayman-ku.

– Otam haliyam otboqarlik qilyaptimi?

– Ha. Agar otam bo'Imaganda, allaqachon otlarning hammasi qirilib ketardi. Faqat otam qarab yuribdi-da. Ancha cho'kib qoldi. Inqillab yuribdi, darrov charchab qoladi. Buning ustiga o'tgan kuni men ham uni kuydirdim.

– Nima, qanday qilib?

— Zayomga yozishuvdi. Men ahmoqliq qilib, ikki mingga yozilaman, deb yuboribman. Nimasi qiyin, o‘zi yo‘q narsani tejab nima qildim, deb o‘yladim chog‘i. Zayomga yozadigan ham xudo deb turgan ekanmi, juda xursand bo‘lib ketdi, meni maqtadi, albatta. — Nastena aybdorlarcha xaxolab kului-da, Andreyga qaradi.

— Hozircha qariyalarni o‘z holiga tashlab qo‘yma, — dedi Andrey va yana tundlashib, xayolga cho‘mdi. — Onam ko‘pga bormasa kerak. Ulardan ko‘z-qulqoq bo‘lib, qarab turish kerak.

— Menga qara, Andrey, keyin nima qilamiz? — cho‘chinqirab, o‘z savolidan yuragi uvishib so‘radi Nastena. — Axir, ular kutishyapti, qayerdaligini aytar, yozar, deb umid qilib yurishibdi. Urush ham tugaydi, keyin ular nima o‘ylashadi? Axir, ularning hamma umidi sendan-ku!

— Umid... umid... — u sakrab turdi-da, u yoqdan-bu yoqqa borib-kela boshladi. — Endi ular umidlarini butunlay uzaverishsin. Tamom, uzishsin. Men hozirgina shu haqda gapirdim-ku. Xo‘s, mening qayerda yurganim xususidagi gappa kelsak senga shuni aytishim mumkin. Gospitalimizda bir kapitan yotgan edi. Uni davolab tuzatishdi, hujjatlarini qo‘liga berib, yana qismga jo‘natishdi. Ertasiga o‘sha hujjatlar pochta qutisiga tashlanganligi ma’lum bo‘ldi. Kapitandan esa dom-darak yo‘q. U qayerda? Uning qayerdaligini xudo biladi. Yoki uning kiyim-kechagi, puli, payogiga ko‘z olaytirib, o‘ldirib yuborishgan yoki o‘zi izini yo‘qotib g‘oyib bo‘lgan. Bor edi — yo‘q bo‘ldi. Kimdan so‘raysan? Kapitan nima bo‘pti, minglab odamlarni topolmay yurishibdi. Birov osmonda, birov yerda, biröv yorug‘ olamda azob tortyapti, birisi bekinib yuribdi, boshqasi esa, kim ekanini o‘zi bilmaydi, hammasi aralash-quralash bo‘lib ketgan, bosh-ketini topib bo‘lmaydi. Mana, men o‘zim ham, bor bo‘lib bor emasman, yo‘q bo‘lib yo‘q emasman. Nima deb o‘ylasang, o‘ylayver. Oz qoldi, otam bilan onam ham kutaverib ko‘zi teshilib yurmeydi. Narigi dunyoda uchrasharmiz, gaplasharmiz. Balki u yoqda urush yo‘qdir. Bu dunyoda esa, zaif bo‘lsang ham, kuchli bo‘lsang ham, faqat o‘zingga, o‘z joningga umid bog‘laysan.

Nastena e’tiroz bildirishga jur’at etmadi. Andrey esa, biroz jim turgach ancha xotirjam tortib so‘zida davom etdi.

— Qay biri yaxshi: o‘g‘ling yoki ering o‘lib ketganini bilganining ma‘qulmi yoki hech narsa bilmaganining. Xotinlar qayta o‘z baxtlarini

topib ketishlari uchun bilganlari ma'qul bo'lsa kerak. Buni tushunsa bo'ladi: o'zing o'lganidan keyin, qo'y, xotining kun ko'rsin-da. Uning yo'lini to'sma, baxtiga to'g'anoq bo'lma. Xo'sh, onalar-chi? Ularning qanchadan-qanchasi farzandi o'likmi, tirikmi, buni bilmay, umidini uzmay xuddi ko'zları bog'lab qo'yilgandek yashashga rozi bo'lmaydi, deysan. Ona qoraxat olsa hamki, ishongisi kelmaydi. Unga o'g'li ko'milgan joyni xam ko'rsatishlari, go'r qazigan oshnasi buni tasdiqlashi mumkin, baribir bu – kam. Mayli, otamga ham, onamga ham ko'rishish nasib etmasa-da, umid chirog'i o'chmasa bas. Ahvolim shu bo'lgandan keyin nima ham qilishardi. – U Nastenaga o'girildi-da, shartta kesib dedi: – Xo'p, bo'pti, bu gaplarni bas qilaylik. Tush, choy ichamiz. Hademay ketishing kerak. Ketasanmi, yoki... balki qolarsan?

– Qanday qilib qolaman?

– Yana kelasanmi?

– Kelaman, Andrey, kelaman, uchib kelaman. Yo'lni endi bilib oldim.

– Oyog'ing tortmasa, mayli kelma, o'zingni majburlama. Men esa, chidayman, mana shu kunning gashti anchagacha yetadi.

Nastena esiga tushib dedi:

– Voy, men senga o'q-dori olib keluvdim-a, sal bo'lmasa esimdan chiqib qaytarib olib ketarkanman. – U katdan chaqqon sakrab tushidda, burchakda uyulib yotgan narsalar ichidan porox bilan sochma solingan ikkita bo'z xaltachani qidirib topdi. – Yarmini ol, yarmini esa otamga olib boraman, otam tayinlagan edi.

– Menga buning yarmi ham o'lgunimcha yetadi, – deb Andrey su-yunganidan xaltachalar tepasida shoshib qoldi. – Ha, endi jon saqlayman. Endi azroildan ham qo'rqlayman. Sen menga katta yaxshilik qilding. Katta yaxshilik qilding. Sen, Nastena, bebahot xotinsan-da!

– Andrey Nastenani mahkam quchoqlab yerdan dast ko'tardi, Nastena esa, chinqirib oyoqlarini silkitardi. Negadir Andrey shu ondayoq xotinini ohista tushirdi va birdan qovog'ini uyib, o'ziga o'zi dedi: – Bunaqa xotin bilan erkin o'ynab-kulib yashasang-da, manavindaqa kavaklarda berkinib yurmasang.

– E, qo'ysang-chi! – dedi Nastena hayajonlanib, erining gapini eshitmasdan. – Naq o'takamni yoray deding-a! Bunaqa quchoqlashishlar ham esimdan chiqib ketibdi.

- Tez-tez kelib tursang, o'rgatib qo'yaman.
- Menga qolsa-ku, har kun jon-jon deb kelardim-a.
- Xo'sh, kelolmasligingga sabab nima?

Uzoq, kun bo'yi cho'zilib ketgan o'g'rincha bu uchrashuvga chek qo'yish vaqtı yetgandi. Qosh qorayib uy burchaklaridan chirindi hidi kuchlirok anqiy boshladi, shiftdagı salqi taxtalar naq bosib qoladiganday vahimali osilib turardi, hammayoq huvillab, kishini tashvishlantirar, yuragini shuvillatar edi. Suhbat ham sovidi.

Ular choyni naridan-beri ichishdi: Andrey xotinini qorningni to'qlab ol, deb qistadi, shuning uchun Nastena noiloj non bilan cho'chqa yog'ini chaynay boshladi. Andrey indamay Nastenaga qandaydir dumaloq, yaltiroq, nuqtalari yonib turgan narsani uzatganida xotini kiyinib bo'lgan edi. Nastena sekingina:

– Voy, bu nima balo ekan? – deb qo'ydi.

– Olaver, Nastena, bu soat. Nemis ofitseridan yechib olgandim. Tirigidan, o'ligidan emas. Endi menga keragi yo'q, sening esa, bir kuningga yarab qoladi. Agar sotsang, arzon-garov berib qo'yma: yaxshi soat, Shveytsariyada ishlangan. Ikki mingdan kamiga sota ko'rma.

– Voy, xudoyim-ey, olishgayam qo'rqaman.

– Olaver. Senga beradigan boshqa narsam yo'q.

Andrey Nastenani Angaradan o'tadigan yo'lgacha kuzatib bordida, chanada quchoqlab, bir lahza qotib turdi, keyin Karkaga qamchi bosib, qorga sakrab tushdi. So'ng uzoqlashib ketayotgan chana ketidan to ko'zdan yo'qolguncha qarab turdi. U qimjx etmay, yuzi tosh qotib qarab turarkan, xayollari to'zg'ib ketib «Mana shu ekan-da», deya xo'rsindi...

...Nastena yo'lda ketar ekan, ho'ng-ho'ng yig'lardi – u shunchalik bo'g'ilib, siqilayotgan ediki, nega bunchalik qattiq siqilayotganini o'zi ham tagiga yeta olmasdi. Nastenaning dilidagi yaralardan biron-tasi pishib yetilmagandi, chunonchi ularga qanday malham qo'yishga ham hayron edi, a'zoyi badanini qandaydir g'am kemirib, jonini so'rib olayotgandek edi. Agar choyga shakar bilan tuz solib, aralash-tirib shartta ichib yuborsangiz, ichingizni shunday muzlatib, qotirib yuboradiki, asti qo'yaversaz, shirinlikning yo'rig'i boshqa, achchiqlikning ham. Ozgina shirinlikni sezasiz-u, keyin bu ta'mni sho'r bosib, a'zoyi badaningizni, hatto suyaklariningzacha achishtiradi.

Nastenaning shuncha yildan beri qishloqqa, uyiga, ishga mehr rishtalari bog‘langandi, o‘z o‘rnini topgandi, o‘zini asrardi, chunki uning ham nimagadir mehnati singgan, o‘zi ham singishib ketgandi. Lekin endi uni bog‘lab turgan ana shu rishtalar birdan salqilanib qoldi, uzilishga uzilmadi, ammo salqilanib qoldi. Endi hadding siq-qanicha, kuching yetganicha nima qilsang qilaver, qayoqqa borsang boraver degan fikr miyasiga o‘rnashib qoldi. Xo‘sh, qayoqqa boradi? Nima qiladi? U bo‘ynidagi bo‘yinturuqka o‘rganib, ko‘nikib qoldi, bordi-yu, hatto ketishga jazm etganda ham, uzoqqa bora olmaydi, boradigan yeri ham yo‘q. Shunday bo‘lgach, nega ham gangimasin kishi? Yo‘q, ko‘rinib turibdi, ko‘ngil uzib, chiqib ketolmaydi, yax-shisi sabr qilib, bu yog‘i nima bo‘lishini poylash kerak. Peshonasiga yozilganidan qochib qutula olmaydi. Endi aylanganda ham o‘sha do-irada, ammo salgina narirog‘idan behuda aylanaverishga to‘g‘ri kela-di. Boshqalarning qanday yashayotganini ko‘rasan-u o‘zing boshqa-cha, pinhona yashaysan. Ko‘zingga qarab qadam bosasan, gapirgan-da tilingga ehtiyoj bo‘lasan. Ikki hissa ishlaysan-u, ozgina mizg‘ib olasan. Quvliving, chap berishing, yolg‘on gapirishing kerak. Hamma balo eri podadan oldin chang ko‘tarib, elburutdan o‘z jonini saq-lab qolishini o‘ylaganidan bo‘lyapti.

Xom sut emgan banda – ozmi-ko‘pmi gunohi bo‘ldi. Ammo shunchalik gunoh qilishi kerakmi? Andrey bu gunohga chidolmasli-gi, bardosh berolmasligi, yasholmasligi kunday ravshan, u bu xatosi-ni hech qachon tuzata olmaydi. Bu gunoh unga og‘irlik qiladi. Xo‘sh, nima qilsin endi – Nastena Andreydan qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga ura qolsinmi? Erika tupursinmi? Balki erining bu yerga kelib qolishiga Nastena ham sabab bo‘lgendir. U hammadan ko‘ra ko‘proq xotini-ning ilinjida uyga qarab jo‘nab qolmaganmikin? Nastenani qay-tib sira ko‘rolmayman, oxirgi gapimni aytolmay qolamanmi, deb qo‘rqmaganmikin? U otasiga ham, onasiga ham dardini yormadi, xotiniga esa ochiq-oydin aytdi. Balki xotini yonida uch-to‘rt kun bo‘lish niyatida o‘limni galga solgandir. Xo‘sh, shunday bo‘lsa, endi Nastena undan qanaqasiga yuz o‘girsin? Bunday qilishga odamda yurak bo‘lmasligi kerak, yurak o‘rnida nima foydali-yu, nima zararligi-ni toshsiz tortadigan tarozi bo‘lishi kerak. Bunday paytda hatto bego-na odamdan, o‘taketgan g‘alamisdan ham qo‘l siltab ketolmaysan-u, Andrey esa, o‘ziniki, qadrdoni bo‘lsa... Ularni qanday hodisa yuz

bermasin, qanday falokat boshlariga tushmasin, birga bo‘lishlari uchun xudo bo‘lmasa ham, hayotning o‘zi qovushtirgan.

Tiriklar u yoqda, Andrey esa, bu yerda. Ey xudo, nima qilish kerak, aytsang-chi.

Nastenaning yuragiga qil sig‘mas, g‘ash edi, ammo ayni paytda xuddi o‘g‘ri urgan uy singari bo‘m-bo‘sh, huvillab qolgandi. Endi undoq ham, bundoq ham ish tutsa bo‘laverardi. U qayoqqa qaramas-in, hamma yerda uning o‘y-xayolini o‘g‘irlovchi, vahimaga soluvchi, yutib yuboruvchi bir xil bo‘shliqni ko‘rar, miyasiga kelgan har bir fikr tushdagiday mavhum tuyulardi.

Andrey Guskov kunduz kunlari qishlovdal qolmaslikka harakat qilardi. Birovning bu yerga kelishi gumon edi, ammo u nima bo‘lsa ham oldi-ketini o‘ylardi. U har safar biron yoqqa chiqadigan bo‘lsa, o‘zining ozgina taqir-tuqrurini so‘ri ostiga tigar, kat ustidagi shox-shabbalarni yig‘ib, yaxshilab izini yo‘qotar va yelkasiga miltig‘ini tashlab, daryo yoqalab qatqaloqdan chang‘i bilan yuqoriga qarab ketar edi. U odatda daryoning o‘ng tarafiga, Ribnayaga yaqin to-monga bormasdi-da, chapga, rosa o‘ttiz chaqirimcha nari joygacha cho‘zilgan kimsasiz yerlarga burilib ketardi.

O‘rmonda tez yugurib bo‘lmasdi, qor yumshoqligidan kishi botib ketardi, ammo yalanglikka chiqqach, Guskov yerdan sal ko‘tarilgan qorda tez va bermalol harakat qilganida suyunib, xuddi muz ustidagi-dek yelib borardi, uning bu harakati qandaydir yoqimli va quvonchli tuyulsa ham, o‘z-o‘zini aldash edi: olg‘a, kenglik va erkinlik sari olg‘a, qo‘rmasdan, yashirinmasdan yuradigan, o‘z qiyofasiga ega bo‘lgan, shu qiyofasi bilan bermalol yashaydigan olis yerlarga qarab yur.

Taygada – daraxtlar ustida ham, yerda ham qor bor edi, shoxlardan to‘kilgan ninabarglar sochilib, qorlar to‘p-to‘p bo‘lib turardi. Tayga hali uyg‘onmagandi, og‘ir o‘yga cho‘mib turardi, ammo qaraq‘ayning shoxlari yuqoriga intilib qolgandi, qip-yalang‘och qayin-larga aftidan suv yugurgandi, tomirlarning taxir hidi gupillab dimoq-qa urilardi. Archalar ham, tog‘teraklar ham bunda bir xilda qorayib ko‘rinadi – qish paytidagi go‘yo yagona bo‘lgan, yaqqol ko‘zga tash-lanadigan oq va qora ranglar havo yaxshilanishi bilan bir hafta ichida oq oqqa, qorasi qoraga ajraldi, har bir o‘nqir-cho‘nqir aniq-taniq mana man deb turardi. G‘uvillab esgan shamol endi na do‘nglikdagi,

na chuqurlikdagi qorni to'zitardi, qor endi erib yo'q bo'lib ketadigan yeriga mahkam qapishib qolgandi. Hali bir emas, ikki emas, bir necha marta qor yog'adi, albatta, ammo nomigagina, shunda ham yangi yoqqani shu zahoti eskisiga mahkam yopishib oladi. Atrofi ochiq to'nkalarining yon-veri eriy boshlagandi.

Guskov serdaraxt nishablikdan to keyingi ayrilishga yetguncha ancha yurdi va o'sha yerdan Angaraga tushdi. Daryo bu yerda o'ngga qayrilgandi, sohil har yili yuvilaverganidan juda kengayib ketgandi. Bu sohilda meva-cheva ham, o't-o'lan ham, qo'ziqorin ham ko'p edi: bir zamonlarda, uzunquloq gaplarga qaraganda, bu yerda tatarlar ning qishlog'i bo'lgan ekan, ammo o'zga yurt daryosi bo'yidagi yerni yoqtirib qolgan tatarlar nima uchun uy-joylariga o't qo'yib, ketib qolishgani ma'lum emas. Aslida shunday bo'lganmi-bo'lmanmi, noma'lum, ammo qachonlardir insoniyat bu yerda zahmat chekkani hozir ham sezilardi: kertiklar, dalalar, pichanzorlar ko'rini turardi.

Guskov sohil bo'ylab yana yurdi, Angaraning yuqorisiga qarab qatqaloqda g'izillab ketdi.

Bu yerda berkinib yursang yuraver-u, ammo ko'p ham yuragingni hovuchlayverma, bu yerlar oraliq joy. Bir viloyat tugadi, ikkinchisi hali boshlagani yo'q. Ma'muriy jihatdai boshqa-boshqa bo'lib ketgan viloyat odamlari ham bir-birlarini yaxshi bilmaydilar. Otilgan o'q ovozi eshitilsa, har ikkala tomondagilar ikki xil o'ylar edi: yuqori oqimdagisi kishilar quyi oqimdagilar otdi desa, quyi oqimdagilar yuqori oqimdagilar otdi derdi. Guskov shu yerda, faqat shu yerda ov qilishga jazm etdi.

U sohilda turib ikki kungacha kiyiklarni diqqat bilan kuzatdi, ikki kungacha ularning Kamenniy oroli orqali Angarani qanday kesib o'tganini ko'rди. Andrey uchinchi marta borganida orolga o'tdi va kiyiklar kesib o'tadigan burunning quyi nishabligida poylab yotdi, bu yerdan narigi sohil ham, bu sohil ham yaxshi ko'rini turardi: chap sohil yaqinroq, o'ng sohil uzoqroq edi. Shu ma'noda bu yer juda qulay bo'lib, chor atrof kaftdek namoyon edi, ammo yer bag'irlab esuvchi achchiq shamol uchun haddan tashqari ochiq edi. Guskov shamoldan yashirinib, orol o'rtasida, bahaybat eski qabristonga o'xshab qalashib yotgan toshlar yoniga bordi va nogahon dara ortida g'orni eslatuvchi chuqur, yon tomonga qarab cho'zilib ketgan kemtikka duch kelib qoldi, kemtik ichida esa gulxan izlari

bor edi. Guskov u yoq-bu yoqni ko‘zdan kechirdi-da, taajjublanib «hm» deb qo‘ydi, keyin xursand bo‘lib kulib yubordi: bunaqa joy yetti uxbab tushiga ham kirmagandi. U bu yer qanaqaligini, nimaga kerakligini hali o‘zi ham bilmasdan bir kuniga yarab qolishiga aniq ishondi.

U olov yoqib isindi. Isinib olgach, agar bugun ovi baroridan kelmasa, qishlovga qaytmasdan shu yerda tunab qolmoqchi bo‘ldi. Shuncha olis yerga oyog‘ini qabartirib behuda borib yuradimi! Endi orolda ham boshpanasi bor, bo‘lgandayam quling o‘rgilsin boshpana! Kechasi sovuq bo‘ladi, albatta, ammo olov yoqsa bilinmaydi. Qachonlardir kimdir ham shu yerda yashirinibdi – yo havo yomonligidan yo odamlardan. Aniqrog‘i, odamlardan bekingan bo‘lsa kerak, uni nima, qanday zarurat bu yerga boshlab kelganiykin? Uni qarang, shuncha kul-a, allaqachon qorayib, toshday qotib qolibdi, o‘sha odam bu yerda ancha turganga o‘kshaydi. Ammo bunga ham ancha bo‘lgan. O‘sha odam ko‘p qora, xatarli kunlarni boshidan kechirgan ko‘rinadi.

Uni qarang-a, Andrey nega ilgari Kamenniyga kelmagan ekan-a? Shundoq yonginasida-yu, nazardan chetda qolibdi. Necha marta qayiqda yonginasidan u yoq-bu yoqqa o‘tgan, ko‘zlarini yirib-yirtib qoyalarga tikilgan, ammo bu yerga suzib kelmagan ekan. Notanish, qirg‘oqlari tik kesib tushgan bu shumshuk orol tosh-u tilog‘ochdan iborat edi. Bu orol boshqalarning e‘tiboridan chetda qolgan bo‘lsa kerak.

Andrey shu yerda tunagani qoldi, qoldi-yu g‘orf o‘rtasida toshlar orasida yotganidan, hech kim uni bezovta qila olmasligidan go‘yo, ajab bo‘pti degandek, o‘z holidan kulib yotdi. Kech kirishi bilan u quruq o‘tinlarni yoqib, yotar yerini isitdi, odatdagidek hadiksiramasdan, doimo jonini hovuchlab yurishdan – jon qayg‘usi endi uni uyqusida ham tinch qo‘ymasdi – qutulib, issiq, tinch uxladi.

U ertalab burunga ancha kech chiqdi: to choy qaynatib, og‘zini kuydirib manerkadan ichgunicha, to o‘rnidan qo‘zg‘olib tashqariga, sovuqqa chiqqunicha ancha vaqt o‘tdi... Quyi tomon jimjit edi, ammo shimol tarafdan sekin, bir me‘yorda achchiq izg‘irin esardi. Ertalab havoning qovog‘i solingan, xira edi, bunday paytda hayvon ham, odam ham o‘zini ehtiyyot qiladi. Bunday tuturuqsiz havoda ohularning shuncha olis yerga kelishi gumon. Tizma tog‘ yoqalab sekin-

gina orqasiga qaytgani ma'qulmikin, balki biron yerda loaqal olma-xon uchrab qolar.

U nima qilsam ekan, deb borishi lozim bo'lgan chap qirg'oqqa o'girilib, xayol surib turganida nogahon tik jarlikdan uchta kiyik oldingi oyoqlarini bukib pastga tushib kelayotganini ko'rib qoldi. Voy jonivorlar-ey, bormisizlar! Andrey tisarilib, tilog'och orqasiga o'tdi-da, yelkasidan miltig'ini oldi. Kiyiklar asta-asta sakrab, tuyoqlari qattiq qorda botib-botib yurib kelishardi. So'ng suvning sayoz yeridan o'tishdi-da, to'g'ri unga qarab kelaverishdi. Qiziq, ular nega bu yoqqa yo'l oldiykin? Yo bir lahzagina bo'lsa ham daraxtzorga kirib, hamma tomoni ochiq, xavfli yalanglikka chiqishdan oldin o'zlariga kelib olmoqchi bo'ldimikin?

Ular izma-iz yurib yaqinlashib kelishardi. Guskov kiyiklarning qorin quldirashiga o'xshash o'qtin-o'qtin hansirab nafas olishlarini eshitib turardi. Burungacha ko'pi bilan yuz metrlar qolgandi, shunda nimadir ularni sergaklantirib qo'ydi, so'ng ularning yo'l boshlab ke-layotgani to'satdan oroldan pastga qarab burildi. Andrey kiyiklarning orqasidan qo'shog'izining har ikkisini gumburlatib otti, eng oxirida yugurib ketayotgan kiyik qoqilib ketdi-da, jon achchig'ida osmon-ga, ammo bu safar oldinga emas, bir yoniga sapchidi-da, ag'darilib tushdi.

Guskov yugurib yetib kelganda kiyik hali tirik edi. Jonivor xiril-lab, tepinib, ostidagi qorni titayotgandi; ko'ziga qon quyilgan, boshini dast ko'tarardi-da, tashlab yuborardi. Andrey uni tezroq o'ldirishi kerak edi, ammo unday qilmadi, aksincha, tepasida uning biror harakatini ko'zdan qochirmaslikka harakat qilib jon berayotgan hayvonning qanday azob chekishiga, jimb qolib, yana tirishishiga, kallasini qorda u yoq-bu yoqqa tashlashiga qarab turdi. Keyin u kiyikning boshini ko'tarib, ko'zlariga tikildi – ohuning ko'zları kengaydi, shunda Andrey so'nib borayotgan qorachiqlarda ikkita o'ziga o'xshagan sochlari to'zigan, qo'rqinchli iblis basharasini ko'rди.

Andrey jon talvasasi kiyik ko'zlarida qanday aks etishini eslab qolish uchun uning so'nggi harakatini kutdi-yu, ammo sezmay qoldi. Uning nazarida kiyik nigohi shu lahzada o'ziga qaratilgandek tuyuldi.

Ba'zan Andrey yuqori oqimdagagi qishlovga borardi. Bu qishlov quyi oqimdagiga qaraganda shinamroq, kengroq edi: tilog'ochdan

qurilgan va tepaliklarda qad rostlagan qishlov abadiydek tuyulardi. Uning atrofidagi yerlar tashlandiq bo‘lib, turli-tuman o‘t-o‘lanlar bosib yotardi, ammo siyrak tog‘teraklar qatori yonida keng-mo‘lgina maydon oqarib turardi. Bir kuni Guskov xayolga cho‘mib, qazosи yetsa shu yerga, tog‘teraklar bilan maydon o‘rtasidagi yerga ko‘mishlarini istab qoldi. Bu yer quruq, shinam, daraxtlarning yaproqlari tushib turadi, gullarni ko‘rib qushlar uchib keladi, xonish qiladi, imorat esa, vahshiy hayvonlarning yo‘lini to‘sadi.

Qishlovda pechka yo‘q edi (qachondir kimdir uni erinmay suv yoniga sudrab borib, olib ketgandi), qolaversa, bo‘limgani ham ma’qulga o‘xshaydi, o‘zingni tiya olmasdan olov yoqdingmi, bo‘ldi, tog‘ ortidan buralib tutun chiqib Atamanovkaga ko‘rinardi. Havo isib, bu yoqqa ko‘chib o‘tishga to‘g‘ri kelsa, pechkaning hojati yo‘q, hozircha esa, faqat kunduz kunlarigina bu yerga kelardi va sovuq tushishi bilan ko‘proq harakat qilib, olovsiz isinib olardi. Boz ustiga havo yumshab kunduzlari shunday qizdirardiki, hatto kalta po‘stini ham xalaqit bera boshlardi.

Hademay eruvgarchilik boshlanib, hammayoq shilt-shilt bo‘lib ketadi, unda esa, na etik, na fufayka bor.

Andrey negadir bu yerda aqldan ozayotganini, pastdagiga nisbatan o‘zini butunlay boshqacha his etayotganini payqardi. U yer tinch-roq, sinashtaroq edi, bo‘lar-bo‘lmasga kuyib-pishmasdi, nima qilaman, ertaga qayerga boraman, uni-buni qayerdan topaman, nima bilan chanqog‘imni bosaman, deb bosh qotirardi-yu, topgan-tutganiga qanoat qilib yashayverardi. U uzoq o‘ylamasdi, o‘tmishini eslamaslikka harakat qilardi, goho shu yerda boshlangan kunlarigina yilt etib xayolidan o‘tib qolardi, u mana shunday it yotish mirza turish bilan yashab yurganiga ham shukr qilardi. Bu yerda esa, taltayib, erkalanib ketdi, miyasiga behuda o‘y-xayollar keladigan bo‘lib qoldi, bu o‘y-xayollarni na chuvatib, na yig‘ishtirib bo‘lardi, boshini yuz marta u yoqdan-bu yoqqa urgani bilan dardi ichida qolaverardi, ahmoqona qilmishlaridan pushaymon bo‘lardi.

Endi bunday xayollar bilan ich-etini yeyishning nima keragi bor? Tirsaging yaqin bo‘lgani bilan uni tishlab ololmaysan-ku.

Bir kuni u shu maqolni eslab, boshqa qo‘li bilan tirsagini ushladi, kuchi boricha bo‘ynini cho‘zib tishlamoqchi bo‘ldi – birdan tishlab olsa-ya – ammo bo‘yni og‘riguncha qiyshayib engashdi-yu, ba-

ribir og'zi yetmadi, keyin to'g'ri aytishgan ekan, deb xursand bo'lib kulib yubordi. Demak, odamlar undan oldin ham urinib ko'rishganu, ammo uddasidan chiqisholmagan.

Bu yerda u o'zidan ham nafratlanardi, ham qo'rqardi, qanday qilsa o'ziga battarroq alam o'tkazadi, hoziridan besh battarroq kunga tushadi – shuning uddasidan chiqolmay o'zini o'zi qiynar, ich etini yer, ha, shoshmay tur, hali vaqt-soati keladi! – deb o'ziga po'pisa qilar edi. Keyin birdan hushyor tortib, kapalagi uchib ketardi: chindan ham vaqt-soati keladi, kuningni ko'rasan! Ko'rganda qandoq! Ag'darilib tushasan-u, qaytib o'zingga kelmaysan.

Bu tentakligiga sabab nimaligini u bilmasdi. Uzoq vaqt ni mo'ljallab qurilgan qishlovdanmi yo atrofida yastanib yotgan, daraxtlar ortidan muzlari qalashib ketgan Angara, narigi sohildagi olis Atamanovkaning bir cheti ko'rinish turadigan bu xushmanzara yangi yerlardanmi, yo yana biron boshqa sababdanmi – ma'lum emasdi. Ammo kishini andarmon qilib qo'yadigan jihatlari bor edi.

Xuddi bu yerda lazzatli, tekin bir nima bordek, uni bu yoqqa boshlab kelgan narsa ham ana shu edi.

Birinchi ovdan keyin bir hafta o'tgach, u xuddi o'sha Kamenniyda ikkinchi kiyikni ham otdi-da, chang'ida sudrab, quyi qishlovga olib keldi va qorong'i tushganida terisini shilib, go'shtini nimtaladi. Va ularni to tong otgunga qadar yuqoriga, tomga tashlab qo'ydi.

Guskov erta tongda eshikni ochib tashqariga chiqdi-yu, taxta bo'lib qotib qoldi: bir katta ko'k it eshik oldidan bir sakrab nariroqqa bordi-da, tishlarini g'ijirlatib unga tikildi. Guskov bu bo'ri ekanini darrov fahmlamadi. Xuddi tullayotgan paytdagidek ozg'in, uzun, hurpaygan yunglari tutam-tutam osilib turgan bo'ri shunday unga shunday xunuk qaradiki, Andrey yuragi orqasiga tortib, miltig'iga yopishdi. Ammo otmadni. Bo'ri qari, ham pixini yorgan ekan: o'qtalgan miltiqqa chap berib, toqqa qochmoqchi bo'ldi, ammo o'q ovozini eshitmagach, yana to'xtab irilladi.

Shu-shu bo'ri kechalari qishlovga keladigan bo'lib qoldi. U Guskovni uvillashga o'rgatdi.

Bo'ri qishlov orqasiga o'tib, o'tirib olardi-da, bir nafas olgani-cha shiddat bilan uzundan-uzoq vahimali uvillardı. Olamdagı bar-cha ovoz buning oldida ip esholmasdi – bu ovoz qorong'i kechada shunaqangi silliq, razon, mungli yangrardiki, kishi o'pkasi to'lib

ketardi. Guskov bo‘rini hech nima bilan qo‘rqita olmasligidan iztirob chekib, bir kechasi eshikni qiya ochdi va jahl bilan uning jig‘iga tegib, o‘zicha uvillab javob qaytardi. Javob qaytardi-yu, hang-mang bo‘lib qoldi: ovozi bo‘rining ovoziga juda o‘xshab ketgandi. Xo‘s, nima qilibdi, mana sizga yana bir haqiqat: bo‘ri bilan yashasang bo‘ri bo‘lib uvlaysan. «Sofdil odamlarni qo‘rqtishga yarab qoladi», deb o‘yladi Guskov xudbinlik va alamzada bir g‘urur bilan.

Guskov bo‘riga qulq solib turardi-da, o‘zi ham qandaydir mammunlik, ehtiros va sabrsizlik bilan uvillay boshlardi. Keyin esa yirtqichning ovoziga qarab, o‘z kamchiligini to‘g‘irlab olardi. Sekinasta, tundan-tunga Guskov tomog‘ini qisib, boshini orqaga tashlab, ovozidagi ortiqcha xirillashni yo‘qotdi va osmonga qarab baland, tiniq, burab-burab sado chiqarishni o‘rgandi.

Axiyri bo‘ri toqat kilolmasdan qishlovnii tashlab ketdi. Ammo Andrey endi usiz ham juda do‘ndirib yuborardi. U yuragi juda siqilib ketgan paytlarda eshikni ochardi-da, sho‘xligi qo‘ziganday, ermak uchun Taygani boshiga ko‘tarib, hafsalan bilan ayanchli uvlardi. Keyin u o‘z ovozidan olis-olis yerlargacha hamma yoqning suv sepgandek jimxit bo‘lib qolishiga qulq solardi.

## 9

Mart oyining o‘rtalarida frontga ketganlardan birinchi bo‘lib Maksim Vologjin Atamanovkaga qaytib keldi. Agar Pyotr Lukovnikov hisobga olinadigan bo‘lsa, birinchi emas: Pyotrga urushning ikkinchi yilidayoq uyiga javob berib yuborishgandi, ammo jon taslim qilish uchun javob berishgan ekan. U to‘shakda ikki oy o‘tday yonib, azob chekib yotdi, deyarli ko‘chaga ham chiqolmadni, dala va polizlarda-gi ekin-tikinlar yig‘ishtirib olingandan keyinoq imi-jimida jon berdi. Shunisiga ham shukur, axir go‘ri yet o‘lkalarda emas, o‘z yurtida.

Maksim esa, garchi yarador bo‘lsa ham hayot kechirgani keldi, kelganda ham butunlay, pok-pokiza bo‘lib keldi. Atamanovka shoshib, hovliqib qoldi. Modomiki yaradorlarga o‘y-uylariga javob berishibdimi, demak, yaqin qolibdi, demak hademay uning ketidan boshqalar ham kela boshlaydi. Bu ishda muhimi, yo‘l ochib borish kerak, keyin boshqalar shu izdan kelaveradi. Ammo shunisi ham borki, bu izdan yuradigan odam oz qoldi. Har bir ishda aniq hisob-kitobni yaxshi ko‘radigan Innakentiy Ivanovich Atamanovka yigitlarining

barakasi qanday uchib ketayotganini raqamlarda ko'rsatdi: ikki kishi Fin urushida qolib ketdi, o'n sakkiz kishi urush davrida frontga jo'nadi. Bugunga kelib aniq tirigi bir kishi (Maksim Vologjin) bit-tasi (Pyotr Lukovnikov) go'rida yotgani ham rost, xotin-xalajlardan o'ntasining qo'lida qoraxat bor, qolganlari jang qilyapti. Qishloq kichkina, odamlarini barmoq bilan sanab chiqsa bo'ladi.

O'sha kuni Nastena, Nadka va Liza Vologjina omborda shamol mashinada urug'lik arpani tozalashayotgan edi. Tushdan keyin Nestor Karkasini choptirib keldi-da, jilovni tortib, otni keyingi ikki oyog'ida tikka qilib qichqirdi:

— Qani, sakra, Lizaveta, tezroq otga mingash, tezroq, kimga ayt-yapman! Maksim keldi!

Liza undan o'zini chetga oldi, dokadek oqarib ketdi-yu, ho'ngrab yubordi va shu ho'nraganicha qishloqqa qarab yugurdi. Bu vaqtida Atamanovkadagilar tipirchilab qolishgandi. Omborlar turgan tepalik-dan qishloqning yuqori chekkasiga, Vologjinlarning uyiga qarab bolalar va itlarning chopib ketayotganlari, qariyalarning ham hovliqib, gaplashib, o'sha yoqqa borayotganlari ko'rinish turardi! Nestor esa, yo'l-yo'lakay miltiq otib to's-to' polonni kuchaytirib, yana qayoq-qadir ot qo'yib ketdi. Odamlar undan o'zlarini chetga olardi, Karka esa o'q ovozidan hurkib pishqirardi, ammo endi Nestorni to'xtatib bo'lmasdi, u qishloqning goh narigi boshiga, goh bu boshiga otini yeldirarkan, o'q uzgani-uzgan edi.

— Hech bo'lmasa shunaqa urushib xumoridan chiqsin, — dedi Nadka jahl bilan. — Ana, kerak bo'lsa general.

U don solingen qopga o'tirdi va sekin-sekin jahlidan tushib, qayg'u-hasrat bilan dedi:

— Landavur erim jonini asrab qololmadi-ya... Namuncha menga tikilib qolding? Nima, noto'g'rimi? — dedi u taajjublanib qarab turgan Nastenaga dag'dag'a qilib. — Bolalarmi qatorlashtirib qo'yib... mardlarcha o'libdi. Xo'sh, uning mardlarcha halok bo'lganidan menga nima foyda, endi men nima qilaman? Anavilarni o'shang boqamanmi? — Nadka uchta bolasi qolgan uy tomonga ishora qildi va chang bosgan yuziga ko'z yoshlарini surkab yig'ladi. — Bir etak bola bilan endi meni kim ham olardi? Endi yigirma yettiga kirdim. Yigirma yetti yoshimda adoyi tamom bo'ldim. E, qurib ketsin-e, hammasiyam.

Shu kuni boshqa ishlashmadi. Tozalangan arpani yig'ishtirib olishdi-da, uy-uylariga tarqalishdi, yo'l-yo'lakay omborchi xotinga omborlarni berkitib qo'yishni tayinlashdi.

Uyda hatto Semyonovna ham pechkasidan tushibdi, ihrab-sihrab, har qadam qo'yganda ikki bukilib, qotib qolgan oyoqlarini yozardi. Hovliqib, gangib qolgan Mixeich uning yonida g'imirlardi. U xur-sand bo'lib Nastenaga dedi:

– Eshitdingmi, Maksim Vologjin kelibdi?

– Eshitdim.

– O'sha tomonga o'tmadingmi?

– Yo'q.

– Borish kerak edi... balki u Andrey to'g'risida zora bir nima bilar.

– O'zing boysang bo'laymidi, chol, – deb ihradi Semyonovna. – U-buni bilib kelayding. Nastena yolchitib so'yolmaydi ham.

– Nimaniyam so'rash mumkin? Biron gap bo'lsa, o'zi aytar.

– Voy-yey, bilganlayingni qilinglay.

Keyingi vaqtarda, Andrey dom-daraksiz bo'lib ketgandan keyin, Mixeich o'zini odamlardan olib qochayotganini Nastena pay-qagan edi. Otxonada, albatta, odamlardan qochib qutulolmasdi, ammo uyga kelgach, ivirsib yurardi, ilgarigidek qariyalar oldiga chiqib, chekishmasdi, gaplashmasdi. Hatto, bordi-yu, uning oldiga bitta-yarimta kirganida ham, u ko'proq jim o'tirardi. U gaplashib o'tirganda kim nima desa, seniki ma'qul degandek bosh qimirlatish odatini chiqardi, aniqrog'i, o'zi kam gapirish uchun shunday qilar-di. Goho u bir o'zi xayolga cho'mib, xira ko'zları bilan bir nuqtaga tikilib o'tirganida ham boshini irg'ab qo'yishi mumkin edi. Bunday paytda uning boshini nima qotirayotganini, u yolg'iz o'tirib, nima-ni ma'qullayotganini o'zi ham bilmasdi, ammo u qandaydir hali noma'lum, yaqin orada ro'y beradigan bir ko'ngilsizlikni his etib, nimadir komil ishonch bilan kutardi.

Bu yil u roppa-rosa oltmishe beshga kirdi. Uning urushdan olin yigitlarga o'xshab yuqoriga burab qo'yilgan mo'ylovi endi osilib, sarg'ish tusga kirgandi. Boz ustiga Mixeichning yuzi ham juda horg'in, nochor ko'rinardi, bunday paytda na uyqu, na dam olish foyda berardi. U yurganida boshini orqasiga tashlab, qaddini g'oz tutib yurardi, keyingi yillarda u birinchi German urushida yarador

bo‘lgan oyog‘ini haddan tashqari sudrab bosadigan bo‘lib qolgandi, qolaversa Mixeich o‘tirdi deguncha darrov boshini quyi solardi-da, ko‘zini yumardi, keyin ichini qurtum bosgan katta qornini shishirib, qattiq-qattiq yo‘talardi. Pechka ustida yotgan Semyonovna sabri tugab, bas qilsang-chi, deb baqirardi. Mixeich esa, indamay yo‘talganiyo‘talgan edi, u shu yo‘talganicha hovliga chiqib ketardi-da, biron ishga urinib, sekin-asta tinchib qolardi, lekin anchagina kuchanib, o‘pkasi g‘ijillab nafas olardi. Ko‘pincha u yo‘talini yana shu tamaki bilan bosardi – bu abadiy xumorbostiga bir umr pona urib, pona chiqarishga o‘xshardi, vaqt o‘tgan sari bu hol battar avjiga chiqardi, shunday qilmasa, chidab turolmasdi. Uning ovozi bo‘g‘ilib, xasta bo‘lib qolgandi, ko‘zları, go‘yo og‘irlikdan cho‘kib ketganday qisilgandi, ozg‘in yuzining suyaklari yanada turtib chiqqandi. Mixeich bir yil ichida o‘zini shunchalik oldirib qo‘ygandi-ki, Nastena shularni o‘ylab, buyog‘i nima bo‘larkin, deb yuragi orqaga tortib ketardi.

– Bora qol, oyim qizim, bora qol, – deb u Nastenani jo‘natdi. – Men hali otxonaga ham borishim kerak.

Vologjinlarnikiga bir o‘zim bormayman, deb Nastena g‘izillab Nadkanikiga kirdi. Nadka, odatdagidek, bolalari bilan olishib yotgandi. Otasi urushga ketgandan keyin tug‘ilgan eng kichkina Lidka, chamasi hozirgina shapaloq yegan bo‘lsa kerak, polda o‘tirib, bor ozozi bilan chirillab yig‘lardi; karavot yonida Petka hiqillab turardi: eng kattasi Rodka derazaga qarab o‘girilib olgandi. Nadka tor kut‘da daranglatib idish-tovoqlarni irg‘itar, ahyon-ahyonda tomog‘ini yirtib, jim bo‘linglar, deb bolalarga o‘shqirardi.

– Nonni bir amallab ikki kunga yetkazay devdim, kelib qarasam, allaqachon yeb yutishibdi, – deb shikoyat qilishga tushdi u Nastenaga. – Qani, o‘zing ayt, axir bular yuho emasmi, yuho emasmi?! Bu tekintomoqlarning topib olganini qara-ya. Yeyishga yebdi, tiqilib ham o‘lmabdi. Endi sizlarga ovqat berib bo‘pman, endi uch kungacha uvoq ham bermayman senlarga. Bas qilasanmi yo‘qmi? – deb baqirdi u yana Ladkaga. – Jonimni bo‘g‘zimga keltirding, bir adabingni berib qo‘ymasam, qarab tur hali. Nonni qorniga urgan bu bo‘lsa-yu, chiril-laganiga o‘laymi, tag‘in aybdor men ekanman-da. Voy xudoyim-ey! Nega senlarni yer yuta qolmaydi-ya! Endi men senlarni nima bilan

<sup>1</sup> Kut – xonaning oshxonasi vazifasini o‘tovchi burchagi.

boqaman, nima bilan? Bor-yo‘g‘i bir xamirlik unim qolgan, keyin hammamizni bir qopga tiqib, Angaraga tashlab yuborsa ham bo‘ladi. Men shu savil qolgur unni yig‘lab-siqtab, ikki marta yozdirib oluvdim. Endi menga kim ham un berardi. Qani endi bu zumrashalar sal tushunsa. Axir anavi lapashang, kichik emas-ku, – Nadka qo‘li bilan Rodka tomonga ishora qildi, – sal o‘ylab ko‘rsa bo‘lmaydimi – yo‘q, hoziri-yu huzuri, yuta qolsa, faqat onani aldash payida. Nima, men uni o‘zimga yashirib qo‘yibmanmi, o‘zimga asrab qo‘yibmanmi?! Senlarga asrab yuruvdim, tekinxo‘rlar, ochko‘zlar, ertaga amal bo‘lar deb. Ochlikdan o‘lib qolmanglar debman. Endi esa o‘lsalaring o‘laveryinglar, sirayam achinmayman.

– Hademay Angarada muz eriydi, baliq tutaman, – dedi Rodka to‘ng‘illab deraza oldidan.

– Sen uningni chiqarmay tur: baliq tutar emish-a. O‘tgan yili tutgan baliqlaringni yeb ulgurmovidik, mana, hali ham yeb yotibmiz. Qiltanoqlarini qayerga qo‘ysak ekan deb bosh qotirib yotibman. Tek tur, ovozingni eshitmay. Hey, sendaqa baliq tutuvchidan o‘rgildim-e. Sen Angarada emas, qaznoqda baliq tutasan.

Nastena uning gapini bo‘ldi.

– Yur, Nadka, Maksimni ko‘rib kelamiz. Qanaqa bo‘lib ketibdi... ko‘ramiz-u qaytamiz.

– E, e, nimasini ko‘raman? Bekorga yarangni yangilaysan. Birovning baxtidan menga nima, zangi yuqarmidi?

– Nima, bormaysanmi?

– E, shoshmay tur, boraman. Sal u yoq-bu yoqni yig‘ishtirib olay, manavilardan ko‘nglim to‘q bo‘ladi. Qoqqan qoziqday turaverma u yerda, – deb qichqirdi u Rodkaga. – O‘tin olib kelib pechkani yoq. Ko‘zimni shamg‘alat qilib qochishni xayolingga ham keltirma. Voy-bo‘y, qovog‘ini osilganini-ya, biron yoqqa juftagini rostlab qolmoqchi-da. Bilib qo‘y, uydan bir qarich ham qimirlamaysan. Birontang ham orqamdan dum bo‘lma.

Lidka onasi ketayotganini fahmladi-da, yalinishga tushdi:

– Men ham boraman. Meni ham olib boring, olib boring.

Onasi unga burchakdag tovani ko‘rsatgandi, shundan keyin Lidka tushunganday jim bo‘lib qoldi.

– Ko‘rdingmi? Ana shunaqa. Damingni chiqarmay, o‘tirgan yeringda o‘tiraver. Men bilan borarmish-a. Bir kami birovlarining

oldida senlar bilan big‘illashishim qoluvdi o‘zi. Boshqalarning bolalari binoyidek, bu rasvolar, bilmadim, xudoning balosi. Bular kim bo‘lisharkin-a, kim bo‘lisharkin-a, bironta odam aytsaydi menga

Nastena Lidkani poldan ko‘tardi-da, olib borib karavotga yotqizdi. Lidka karavotda shu zahoti g‘ujanak bo‘lib oldi-da, hiqillab, mushtdekkina vujudi titrab, bugun o‘yin-kulgi degan narsa suvgaga urib ketganini va eng so‘nggi chora ertalabgacha tosh qotib uqlash ekanini tushunib, noiloj ko‘zini yumdi. Nastena qizchaning boshini siladi, lekin bu erkakashdan Lidkaning battar xo‘rligi keldi, shuning uchun Nastena qizchaning yonidan nari ketdi.

Nadkaning shang‘iligin yoqlab bo‘lmaganidek, uni qoralash ham qiyin edi. U urushdan oldin ham lafzi tez ayol edi, ayniqsa uning injiq fe‘lini yoqtirmay qo‘ygan qaynonasi u bilan sira murosaga qila olmadi, shuning uchun Nadka bilan Vitya oradan ko‘p o‘tmay ro‘zg‘orlarini alohida qilib olishlariga to‘g‘ri keldi. Nadkaning qarindosh-urug‘lari qayerdadir Lenada turishardi, Nadka bu yerda kelgindi, begona hisoblanardi. U peshonasi yaraqlab Vityaga yo‘liqib qoldi: Vitya mehnatkash, vazmin, xushfe‘l yigit edi, Nadka yuz jig‘ibiyron bo‘lib gapirsa ham, u och sariq sochini peshonasida osiltirganicha kulimsirab turaverardi. Juda joniga tegaversa, Nadkani mahkam quchoqlab olardi-da, hazillashib, belkurakdek keng kafti bilan nozik bir yeriga urib qo‘yardi, shunda Nadka gul-gul ochilib ketardi. Ummat u o‘zi janjalkash ayol emasdi, shunchaki, sho‘x, to‘polonchi edi: Nadka qayerda bo‘lsa, albatta, o‘sha yerda shovqin-suron, o‘yinkulgi, hazil-mutoyiba avjga chiqardi. Agar urush bo‘lmaganda-ku, u tezroq hovuridan tushib, bolalari bilan Vityaning oldida ipakday bo‘lib qolardi-ya, keyingi vaqtarda o‘zi ham ancha quyilib qoluvdi, ammo urush boshlanib qolib, qishdayoq Vityaning halok bo‘lishi Nadkani gangitib, serzarda qilib qo‘ydi. Nadka Vityaga shunchalik kuyib-pishdiki, uning dod-voyidan yurak qinidan chiqib ketay derdi. U o‘shanda endigina ko‘zi yorigan edi. Nadka goh o‘rmonga, goh sohilga ketib qolaverGANIDAN Atamanovkadagilar Nadka o‘zini bir balo qilib qo‘ymasa edi, deb qo‘rqib, yurak hovuchlab turishardi. Ammo hammasi o‘tib ketdi: kuya-kuya taqdirga tan bergen Nadka yana ishga chiqqa boshladi, bolalarni boqish uchun o‘zini o‘tga, cho‘qqa urdi. Suyanadigan odami yo‘q edi: qaynonasi Nadkani yomon ko‘rganiday nabiralariga ham ro‘yxush bermasdi. Nadka qanchalik yelib-yugur-

masin, topgan-tutgani doim uchma-uch edi. Halok bo'lgan frontovik oilasiga ajratilgan qo'shimcha don-dunni Nadka qishdayoq olib bo'lardi-da, keyin o'zini ming yoqqa urardi-yu, baribir na ovqatga, na kiyim-kechakka yolchirdi. Bolalarning hammasi Vityaga tortgandi: sochlari och sariq, kamgap, urush va asabiylashib qolgan Nadkaning fe'l-atvori esa bolalarni qo'rroq, yuvosh qilib qo'ygandi. Chamasi, bolalarning o'zlarini ham omon qolishlariga ko'zlarini yetmasdi. Uchalovi ham ko'cha eshik oldiga chiqardi-da, onalarining yo'lini poylab, ko'zlarini to'rt bo'lardi, ular shunchalik g'arib, g'amzada edilarki, kishi yuragi achishib ketardi. Rahmdil odamlar Rodkani chaqirib, ergashtirib borishardi-da, qo'liga biron nima tutqazishardi. Rodka esa olmayman ham deb qo'yardi. Nastena ham qo'lidan kelganicha Nadkaning bolalarini ardoqlardi, ayniqsa, qizchasini, ammo keyingi kunlarda o'z tashvishi bilan bo'lib bolalarni deyarli unutib yuborgandi, hozir esa, yig'layotgan Lidkani ko'tarib, karavotga yotqizar ekan, qizcha oldida o'zini gunohkor his etdi.

U Nadkani kutib turarkan, qosh ham qorayib qoldi, kunduzi issiqdan g'ovaklashgan qor qotib, oyoq ostida yoqimli g'ichirlardi. Qishloqning butun quyi chekkasi go'yo biyobon edi – na biror ovoz, na tiq etgan tovush eshitilardi, faqat uch-to'rt kampirning uyidagina chiroq xira miltillab turardi. Hatto itlar ham Vologjinlarnikiga yugurib ketgandi, o'sha yerdan ularning erkalanib akillashlari qulqoqqa chalinardi. Bolalarning to'poloni, baqiriq-chaqirlari ham o'sha yerdan eshitilardi. Nastena bilan Nadka indamay qadamlarini rostlab, sipolik bilan borar ekan, umumiy shodlik hayajoni ularga ham ta'sir qilgandi. Bir odam va nihoyat o'z uyiga anavi yoqdan, urushdan, jahannam otashidan qaytdi – barcha erkaklar nomidan chopar, xabarchi bo'lib keldi: yana ozgina sabr qilinglar, bu yog'i oz qoldi. Hademay hammasi uzil-kesil ma'lum bo'ladi: birovlar so'nggi umidini ham uzib, zor-zor yig'laydi, birovlar esa, suyunadi, shundan so'ng hamma yangi hayot boshlaydi.

Vologjinlarnikida odam ko'p, g'ala-g'ovur edi: shiftga osilgan ikkita o'nlik lampa katta mehmonxonani charog'on qilib yuborgandi. Stol boshida ozib, qorayib ketgan, sochi xuddi mahbuslarga o'xshatib kalta qirqilgan, ko'zlarini katta-katta Maksim xursandligidan bo'shashibgina o'tirardi. Bint o'ralib, doka bilan tortib qo'yilgan o'ng qo'li bo'ynini og'ritib osilib turardi. Uning chap tizzasida ota-

sining gimnastyorkasidagi medallarni jiringlatib o'ynab, ikkinchi – kichik qizi, olti yashar Verka o'tirardi. Oldin Nadka keldi, qo'l berib Maksim bilan so'rashdi:

– Eson-omon qaytganing bilan tabriklayman!

Undan keyin Nastena ham:

– Eson-omon qaytganing bilan tabriklayman, – deb takrorladi.

Jipslab qo'yilgan ikki stol atrofidagi o'rindiqlarda chollar, xotin-xalajlar o'tirgandi; Maksimning yonida, o'ng tomonida uning otasi Yefim buvani o'g'lidan surib, allaqachon kayfi taroq bo'lgan ham do'st, ham og'a Nestor yalpayib o'tirardi, chap tomonda esa Lizaga joy qoldirishgandi, lekin u o'choqboshidan mehmonxonaga, mehmonxonadan o'choqboshiga yugurib arang ulgurardi. Odatda qonsiz, ma'yus yuzli Lizani tanib bo'lmasdi, u gul-gul ochilib ketgandi, xursandlikdan entikar, ko'zлari chaqnardi, moviy koftochkasi ostidagi cho'kik ko'ksi qayta tepchib, yayragan edi. Liza butun borlig'i bilan kular, yayrar, porlar edi. U Nastena bilan Nadkani o'tirg'izdi-da, chidab turolmay, ularni quchoqladi, bag'riga bosib, shivirladi:

– Ertalab hech gapdan xabarim yo'q edi. Axir birga arpa tozaladik-ku. Arpa... – u entikib qo'ydi-da, kulib yubordi va qochib ketdi.

Maksim kulimsirab, ularga – Nastena bilan Nadkaga qaradi. Ikkala juvon stolning boshqa tomonida, narigi boshida shundoq ro'parasida o'tirgandi. Nastena yerga qaradi va Maksimning:

– Xo'sh, Nastena, sen endi eringni qachon kutib olasan? – deb so'raganini eshitdi.

Nastena qisilib, qizarib ketdi; u sekin boshini ko'tarib, iloji boricha xotirjam javob berdi:

– U bilan diydor ko'rishishga ham aqlim bovar qilmay qoldi. Erim negadir dom-daraksiz...

– Kim, Andrey dom-daraksizmi?

– Ha, gospitalda yotuvdi... u ham yarador edi. Gospitaldan keyin yana frontga jo'nativshgandi, – Nastena gapirar ekan, hammadan ham Innakentiy Ivanovichning sinchkovlik bilan tikilib turganini payqadi.– Shundan beri dom-daraksiz. Bilmayman... Hech nimadan xabarim yo'q.

– G'am yema, topilib qoladi.

– Axir u... chindan ham nom-nishonsiz, – deb tushuntira boshladi Innakentiy Ivanovich Nastenaga qarab qo‘yib. – Surishtirib kelishdi, so‘rashdi. Hujjatlarga qaraganda, hech qayerda yo‘q shekilli.

– Ketayotganda yo‘lda boshqa qismga o‘tkazib yuborishgan bo‘lsa kerak. Bunaqa hodisalar juda ko‘p bo‘ladi. Xatlarning hammasi xam joy-joyiga yetib boravermaydi, – dedi Maksim komil ishonch bilan.

Nastena ishonch bilan aytilgan bu gapdan shu zahoti yengil tortdi, go‘yo u chindan ham Andreyga nima bo‘lganini bilmaydiganday edi.

Qiziq, na umid qilgan, na kutgan Liza buncha narsalarni qayoq-dan topa qoldi – stolning ustida ming xil noz-ne’mat. Turgan gapki, tovuqni bugun so‘yishgan, ammo tuzlangan to‘s h hoynahoy yozdan beri saqlanib kelayotgandir, bu to‘s ham bir emas, ikki emas, bir necha yildan beri chirpitda intizor bo‘lib turgan samogon singari ataylab mana shunaqa kunga asrab qo‘yilgandi. Biroq kiminidir – bior yaqinini kutayotgan boshqa xotinlar ham shunday edi: o‘zi och qoladi, bolalarini tuzukkina to‘ydirmaydi-yu, ammo visol chog‘iga g‘amlab qo‘yishardi. Bu ayollardan qanchadan-qanchasi ko‘z yoshi to‘kib, yashirib qo‘yanlarini dasturxonga tortmadi deysiz! O‘tgan yili kuzda Agafya Somova o‘g‘lidan qoraxat oldi, dastlabki kuni-  
lari dod-faryod qilib yurdi-da, keyin xotin-xalajlarni yig‘di, asrab qo‘yilgan spiritni olib stol ustiga qo‘ydi, quymoq, kisel bilan birga yana har xil mayda-chuydalar ham tayyorladi, o‘sha spirit o‘g‘lining ma’rakasida ichildi. Ha, bunday kulfat birgina Agafyaning boshiga tushgani yo‘q, bundaylarni sanab, sanog‘iga yetolmaysan, yana kimning qismatida bunday kulfat borligi hali ma’lum emas. Hozircha fagaqt Lizaning orzusi ushalib turibdi.

Liza mehmonlarga aroq quygach, dasturxon atrofidagilarning g‘ala-g‘ovuri avjga chiqdi. Nestor ashula aytishga tushdi, ammo hech kim unga jo‘r bo‘lmadi, unga, umuman, negadir hech kim e‘tibor bermasdi. Chollardan ba‘zi birlari stoldan turdi-da, devor yoniga borib cho‘nqaydi va tamaki o‘rab cheka boshladi; qariyalar o‘sha yerda o‘rinlaridan turmay, Liza uzatgan qadahlarni olar va cho‘qishtirar edilar. Innakentiy Ivanovich turib, Maksimning yoniga o‘tirdi va bilag‘onlik qilib Amerika to‘g‘risida, uning qanday urushayotgani va u yerda qachon inqilob bo‘lishi haqida jiddiy

gap boshladi. Maksim istar-istamas javob qaytararkan, Verka otasining tizzasida mudray boshladi; Liza uni olib borib o'rniga yotqizmoqchi edi, ammo Vera otasiga yopishib olib, chirilladi – uni o'z holiga qo'yishga to'g'ri keldi. Kimsidir Maksimdan qo'li xususida so'rab qoldi, keyin Maksim – birinchi marta bo'lmasa kerak, gospitalda qo'lini kesmoqchi bo'lishganini, lekin u unamaganini – chap qo'li bo'lsayam mayliydi, axir o'ng qo'li-ya, u bo'lmasa butunlay nogiron bo'lib qoladi-ku – ammo hali bu ham ko'p ovora qilishini gapirib bera boshladi. Bir stakan samogonni otib olgan Nadka qizi-qib so'radi:

- Uni... bir chetga surib qo'ysa bo'ladimi?
- Bir chetga? Nimaga endi?
- Axir kechasi xalaqit bermaydimi?

Maksim kulib yubordi:

- Xalaqit bersa, Liza kesib tashlaydi.
- Men seni, Nadka, bu gaping uchun kolxozdan haydayman, – dedi Nestor ishshayib.

– Ovozingni o'chir. Haydarmish-a! Mendan oldin o'zingni dumingni tugib qo'yishmasin tag'in, – dedi Nadka balanddan kelib, ammo zarda qilmay, faqat uzib oldi. – Yigitlar kelishsa, qo'ltig'ingga suv purkab qo'yishadi. Xo'p zug'umingni o'tkazding, shunisi ham yetar. Odamlarni oyog'ingning uchi bilan ko'rsatding. Pichog'ing hamisha ham moy ustida bo'lavermaydi.

- Men sizlarni oyog'imning uchi bilan ko'rsatdimmi? – dedi xafa bo'lib Nestor. – A, xotinlar? Kekkaydimmi?

Ayollardan birontasi miq etmadi.

– Uni qo'yaver, gaplariga e'tibor berma, – dedi yo'g'on, do'rillagan ovozda Vasilisa Rogova Nestorning yonini olib. Semiz, qo'pol, urush davrida zarracha ozmagan bu ayolni kishloqdagilar Dono Vasilisa deyishardi.

- Nimasini qo'yadi? Nimani?! Nima, noto'g'rimi?
- Og'zingga kelgan gaplarning hammasini ham Nadejda, ko'pchilik oldida aytib bo'lmaydi, – gerdayib nasihat qildi Dono Vasilisa. – Frontchi hali ostonasidan hatlab o'tmasidan burun sen unga piching otyapsan.
- Qanaqa piching ekan? U, avvalambor tun bo'yi faqat sen bilan mening valaqlaganimizga quloq solib, Liza esiga ham kelmaydi deb

o‘ylaysanmi? Aslini olganda, unish faqat qo‘ligina shikastlangan, xolos, boshqa yoqlari binoyidek.

Maksim yana kulib yubordi, uning ketidan chollar yo‘tal aralash xaxolashib kulishdi.

– Bilaman, – dedi Nadka unga yopishib, – sen Vasilisa, mendan qo‘rqasan. Qo‘rqmasang ham bo‘lmaydi-da: Gavrilang kelsa hash-pash deguncha boshini aylantirib, o‘zimga qaratib olaman. Men sendan ancha yoshman, menga teng kelolmaysan.

– Gavriladan ko‘nglim to‘q, – deb javob berdi Vasilisa istehzo bilan.

– Qiziq, nima sababdan undan ko‘ngling to‘q-a? Nima, u avliyo ekanmi?

– Avliyolikka-ku avliyo emas-a, ammo sen bilan ovora bo‘lib yurmaydi. Shunday yaxshi qushini hakkaga alishtirib nima qiladi? Sen bir hakka bo‘lsang, shaqa-shaqa qilishdan boshqasini bilmasang.

– Voy, anavining o‘xshatishini qaranglar-a! – dedi Nadka negadir xursand bo‘lib. – Mayli, men hakka bo‘laqolay, ammo sen qanaqa yaxshi qush ekansan-a? Anavi, qag‘illashdan boshqani bilmaydigan qora qarg‘a sen emasmisan-a?

– Yo‘q, Nadejda, – qizg‘ish soqolini selkillatib, ayyorlik bilan jilmaygancha gapga aralashdi Innakentiy Ivanovich. – Sen Vasilisaning tagiga suv quyolmaysan, uning ildizi mustahkam. Axir Gavrila frontdan posilkalarни senga emas, unga yuboryapti-ku. Bu yil, chamasi, beshta posilka olding shekilli, a? – u Vasilisaga yuzlandi. – Yoki ko‘proqmi?

– Sanaganim yo‘q, – dedi Vasilisa tutilib.

– Vasilisa hatto ularni ochgani ham yo‘q, – kesatdi Nadka. – Kursi o‘rnida ishlatib yuribdi.

– Nima qilsam qilaveraman, bu sening ishing emas.

Ammo Nadka qizishib ketgandi, endi uni to‘xtatish oson emasdi.

– Sen, Liza, qizil askaringdan nechta posilka olganding? – deb so‘radi Nadka.

– Bittayam olganim yo‘q.

– Agar men bo‘lsam, shunaqa qilsa uni ostonaga yaqin yo‘latmasdim. Nima balo, o‘zing ham o‘lguday lapashang, hech nimaga tushunmaydigan ovsarmisan deyman? Yana og‘zing qulog‘ingda-ya.

– Menga posilka-mosilkasi kerak emas, – xursand bo‘lib kilib yubordi Liza. – Masalan, men bugun sigirni so‘yaylik dedim. Yolg‘on gapirsam, mana, dadam guvoh: ziyofat ziyofatday bo‘lsinda, kelinglar, sigirni so‘yaylik dedim! Ular meni avrab qo‘yishmadid. Unday bo‘lsa, tovuqlarni bitta qo‘ymay so‘yinglar, qaytib turqini ko‘rmayin dedim. Ular tovuqlarga ham qayishishdi. Xudo xohlasa, hammasini topamiz, ishqilib birga bo‘lsak bo‘ldi. Bir o‘zim adoyi tamom bo‘lardim, qayg‘u-hasratdan ikki bukilib qolardim yo bo‘lmasa o‘zimni bir balo qilib qo‘yardim.

– Demak, ikki bukilib qolardim degin? – dedi istehzo bilan Nadka.

– Ha, ikki bukilib qolardim.

– Yo bo‘lmasa o‘zingni bir balo qilarmiding? – dedi yana o‘sha ohangda.

– Bo‘lmasam-chi.

– Namuncha olib qochmasang-a, Liza? – deya Nadka yumshoqlik bilan gap boshladi-yu, ammo chidab turolmadi, alamidan ovozi titrab, yuragidagini to‘kib soldi: – Bu nima deganing, demak, men ham, manavi Katerina, Vera, Kapitolinalar ham o‘zimizni bir balo qilishimiz kerak ekan-da, a? Shunaqami? Nima, sen eringni hammadan ko‘ra ko‘proq sevardim, hammadan ko‘ra ko‘proq kutgan edim, demoqchimisan? Demak, seningcha, biznikilar ularni senchalik sevolmaganimiz uchun urushdan qaytishmabdi-da. Sen, Liza, biz ko‘rgan kunni ko‘rganing yo‘q, shuning uchun bunaqa dema. Men ham o‘zimni bir balo qilib qo‘yishim mumkin edi, xo‘s, unda bolalarimning holi ne kechardi, ular nima bo‘lardi? Bu yorug‘ olamda undan qolgan nusxayi nishona ana shu bolalar-ku, qanaqasiga, ularni nobud qilib bo‘ladi? Sen qayoqdan bilasan, chaladay tutab tamom bo‘ldim, endi kuyadigan joyim ham qolmadi, kul bo‘lgan narsa esa, sekinsta uchib, to‘zib ketadi. Mana, endi sen poshsho oyim bo‘lib yashayverasan, quchoqlashasan, erkalanib, tantiqlanasan, xo‘s, men-chi, cho‘riman, nima ish bo‘lsa, balogardonman, boquvchiman, endi men o‘zimni deb yashamayman, Agar shunday kunlarga qolishimni bilganimda oldinroq maza qilib yashagan bo‘lardim, keyin lo-aqal ko‘rgan kunlarimni eslab yurardim, men bo‘lsam, keyin bo‘lar, keyin bo‘lar, deb yuraveribman, bekami-ko‘st yashayin deb umrimni o‘tkazib yuboribman, mana, oqibati. Endi yotganda ham, turganda

ham ko'z oldimga urush keladi, buni hech nima bilan esdan chiqarib bo'lmaydi, qolganlari unutilib, o'chib ketdi – yo'q endi.

Liza darrov gunohini bo'yniga ola qoldi.

– Voy, meni yozg'irmanglar, aylanaylar, og'zimdan chiqib ketibdi.

Seni nima deb ham yozg'irardik. Modomiki, toleing bor ekanmi, biz uchun ham maza qilib yashayver. Ammo ko'zingni och: agar yomon yashasang, o'zingdan ko'r. Ayab o'tirmaymiz – gapning po'skallasi ana shu senga. Birinchi bo'lib o'zim senga choh qazaman. Erkaklarimizning u yerda halok bo'lib ketishiga biz aybdor emasmiz. To'g'rimi, Maksimushka, aybdor emasmiz-a? Ochig'ini ayt bizga.

– Aybdor emassizlar.

– Ana, gap bunday bo'pti. Peshonamiz sho'rligidan biz xafa bo'lsak arziydi. Endi bu alam o'la-o'lgunimizcha ko'ksimizni kuydradi. Sening esa, Liza, armoning yo'q. Endi sizlar faqat o'ynab-kulib, xursandchilikda yashashlaring kerak, bu yog'i hammasi o'zlaringga bog'liq. Agar biror gap bo'lsa, avvalo meni, uni, anavini – hammanizning boshimizga tushgan savdoni esla, bizning yonimizda senikidek Baxt yo'qligini unutma. Agar peshonamizda bo'lganda edi, bizning ham baxtimiz kulib boqarmidi. Na ilojki, bundan benasib bo'ldik. Bo'ldi, ortiqcha gapga toqatimiz yo'q – tushunarlimi?

Taraqlab eshik ochildi-da, xonaga bolalar kirib keldi. Liza ularni haydar chiqarishga shoshildi, lekin ular bir ovozdan chug'irlashardi:

– Manavinga berishmadi – manavinga.

– Bu hozir keldi.

– Maksim amaki, bunga berishmadi.

Bolalar Rodkani stol oldiga itarib chiqardi. Nadka uni ko'rib, ba-qirib berdi:

– Sen qayoqdan kelib qolding bu yerga? Men senga nima degan edim-a? Nima degandim? Qani, darrov tuyog'ingni shiqillat-chi!

Rodka qimir etmay Maksimga mo'ltirab turaverdi. Maksim uning iltijoli nigohiga dosh berolmay, qizchasini sekin tizzasidan tushirdida, o'rnidan turdi va:

– Bu semmisan, Rodion? – dedi bo'g'iq ovozda.

Rodka shosha-pisha bosh irg'adi.

– Qani, bir so'rashib qo'yaylik bo'lmasa, – dedi Maksim bolaga yaqinlashdi va sog' qo'lini uzatdi. – Qara-ya, bo'ying cho'zilib, kap-

katta yigit bo‘lib qolibsan. Qandingni ur. Nega buncha kech kelding? – Maksim tokchadan boshqa bolalarga ham bergen guldor dumaloq pryanikdan oldi-da, uni Rodkaga uzatdi. Rodka pryanikni oldi. – Bor sovg‘a-salomim shu, boshqa hech nimam yo‘q. Bir maza qilib yegin, uka. Ertaga kunduzi vaqting bo‘lsa, kel, gaplashamiz. Bugun, o‘zing ko‘rib turibsan, odam ko‘p. Ertaga kelasanmi?

Rodka yana bosh irg‘adi va eshik tomonga tisarildi. Bolalar ham uning ketidan chug‘urlashgancha tashqariga chiqishdi.

– Qara-ya, kap-katta bo‘lib qolibdi, – dedi Maksim negadir ma'yus tortib, qaytib joyiga o‘tirar ekan.

– Ha, katta bo‘lishyapti, – dedi Nestor dadil, u odati bo‘yicha suhbat jilovini o‘z qo‘liga olishga shoshilayotgandi. – Ularga urush ham pisand emas.

– O‘sha urush yaqin-orada tugay deydimi o‘zi? – to‘satdan so‘rab qoldi Liza. – Sen, Maksimushka, o‘sha yoqdan kelding, qani, ayt-chi, hali yana ko‘p kutamizmi?

– Sen uchun urush tugadi, – dedi Nadka sekingina.

Ammo buni Liza eshitib qolib, xafa bo‘ldi:

– Nega endi men uchun tugar ekan? Nima, sen eri keldi, endi uning boshqa narsa bilan ishi yo‘k, deb o‘ylayapsanmi meni? Gapingni qara-yu. Hammaga yomon bo‘lsa ham, menga yaxshi-ku, deb yuradigan bag‘ritoshlardan emasman. Bir ovloq yerda yashab, burnining ostidan narini ko‘rmaydiganlardan ham emasman, el ichidaman.

– Hademay tugaydi, oz qoldi, – deb javob berdi Maksim. – O‘zlarizingiz bilasizlar, biznikilar naq Germaniyaning o‘ziga kirib bor-gan. Endi kolgan-qutganlarini yanchyapti.

– Quvib chiqarishmaydimi, ishqilib? Axir, nemis ham Moskva ostonalariga keluvdi, biz esa quvib solgandik.

– Quvib chiqarishmaydimi deysanmi? – Maksim ko‘zini qisdi va faqat o‘ziga ma‘lum bo‘lgan olis yerga tikilib qaramoqchi bo‘lgandek oldinga engashdi. Uning yuzi xiyol burishib ketdi. – Yo‘q, endi quvisholmaydi, Liza. Men bir qo‘l bilan bo‘lsa ham qaytib boraman, bir oyog‘i yo‘qlar, mayib-majruhlar ham boradi lozim bo‘lsa, ammo chekinishmaydi. Bas, yetar, ortga shuncha chekinganlarimiz. Endi bunga yo‘l qo‘ymaymiz. Kim bilan o‘ynashishganini ko‘rsatib qo‘yamiz.

– To‘rt yil-a, tag‘in kami bor ekanmi? – deb bosh irg‘ab qo‘ydi Dono Vasilisa. – Bu yerda biz ham adoyi tamom bo‘ldik.

Nadka darrov yana uning og‘ziga urdi:

– Adoyi tamom bo‘lganing sezilmayapti-ku.

– Uh, Nadejda... Kim sening tilingni tiyib qo‘yarkin-a? Jiddiy gap ketyapti-yu, u bo‘lsa piching qilgani-qilgan.

– Biz ham ko‘radiganimizni ko‘rdik, – deb ilib ketdi Liza. – To‘g‘rimi? Eslasang yuraging orqaga tortib ketadi. Kolxozdag'i ish mayli-ya, o‘z ishimiz. G‘allani yig‘ishtirib olding deguncha qor yog‘adi, so‘ng yog‘och-taxta tayyorlash boshlanadi. Bu yog‘och-taxta tayyorlashni o‘lsam ham esimdan chiqarmayman. Yo‘l yo‘q, ot-larning bo‘lsa, tinka-madori qurigan, tortolmaydi. Ishdan bo‘yin tovlab bo‘lmaydi: mehnat fronti, jangdagi yigitlarimizga yordam. Dastlabki yillarda yosh bolalilarni ishga haydashmadni. Kim bolasiz yoki bolasi kattaroq bo‘lsa, ularga yopishib olishdi. Ana, Nastena bir qish ham ishdan qolmadi. Hatto men ham ikki marta bordim, bolalarni dadamga tashlab ketdim. Yog‘ochni kesasan, kubometr qilasan, keyin chanaga tashiysan. Boylovsiz bir qadam ham jilolmaysan. Goh qor uyumiga kirib ketasan, goh yana biron yerga: qiyalmagan, jon chekmagan xotin yo‘q. Ba’zi yerdan osongina chiqib ketasan, ba’zi yerda botasan-qolasan. Mana, yolg‘on gapiroyotgan bo‘lsam, Nastena guvoh: burnog‘i yili qishda baytalim jarlikka dumalab ketdi, uyalab qolib, turolmadi – chana yonboshlab qorga kirib ketdi, baytalni majaqlashiga sal qoldi. Shu urindim, shu urindim, bo‘lmadi – epolmadim. Ha deyishga holim yo‘q. Yo‘lga o‘tirib yig‘ladim. Orqadan Nastena yetib keldi. Men bo‘lsam ko‘z yoshimni shashqator qilib, boladay yig‘layman. – Lizaning ko‘zlariga yosh· keldi. – Nastena ko‘maklashdi. Keyin birga ketdik, men bo‘lsam sira o‘pkamni bosib ololmayman, yig‘laganim-yig‘lagan. – Liza xotiralarga berilib ketib hiqillab yig‘lay boshladi. – Shu yig‘layman-yey, qani endi o‘zimnn tutib ololsam. Tutib ololmayman.

– Liza, Liza! – deb to‘xtatdi uni Maksim.

– Bo‘ldi, Maksimushka, bo‘ldi, yig‘lamayman. Esim yo‘qligidan yig‘ladim-da. Sizlar gaplashib o‘tiringlar, boshqa yig‘lamayman, – u kutga ketdi va shu ondayoq qaytib, yana avvalgi joyiga, stol chekkasiga kelib turdi. – Obligatsiya-chi? – deb esladi Liza, u qattiq hayajonlanganidan o‘zini bosib ololmayotgandi. – Oxirgi kartoshkani ko‘klamda Kardaga, lespromxozdagilarga sotgani olib bordik. Qanchaga yozilgan bo‘lsak to‘laylik, ishqilib frontga yordam be-

raylik, dedik. Hammamiz ham frontdagilarga sal yengil bo'lsin deb o'yladik-da. Nima bo'lgandayam biz bu yerdamiz, bizni hech kim otayotgani, o'ldirayotgani yo'q. Anavi oting o'chgur frits narigi dun-yodayam azobginasini tortsin-a. Boshimizga shuncha kulfat solgani uchun ilon, chayonlarga yem bo'lsin-a.

– Tushunmay qoldim, qaysi birimiz – menmi yoki senmi erini kutib olayotgan? – deb so'radi Nadka Lizaga o'girilib.

– Men, Nadka, men. Bo'ldi, endi hasrat qilmayman.

– Hamma ishimiz telba-teskari, – dedi ko'zlar suzila boshlagan Nestor ovozini guldiratib. – Qanaqa odamlar o'zi! Erkaklarini urushga jo'natishayotganda ashula aytishgandi, kutib olishga kelganda xuddi azadagiday. Nadkaning gapiga quloq solganimiz ham yetar endi, kelinglar, ashula aytamiz.

Nadka bir qo'zg'alib qo'ydi-yu, ammo javob berishga ulgurmadidi. Nastenaning orqasida turgan Liza hayajon va yig'idan sal titravotgan ovozini baralla qo'yib, «Katyusha»ni boshladi. Boshqalar unga jo'r bo'lishdi, qo'shilganlar orasida Innakentiy Ivanovich ham bor edi. Faqat devor yonidagi chollargina o'zaro sekin gaplashib o'tirishardi. Dono Vasilisa ham, Maksim ham ashula aytayotgandi, Nestor qo'llarini silkitardi. Birpas turib Nadka ham qo'shildi-yu, lekin birdan to'xtab, boshini stolga qo'ydi-da, vujudi titrab, o'ksib-o'ksib yig'ladi. Orqasida turgan Liza uni yelkasidan quchoqlab oldi, «Katyusha»ni yana ham balandroq ayta boshladi, ashula hatto Nadkaning ketidan Vera Orlova qattiq o'krab yig'lab yuborganidan keyin ham bo'linib qolmadi. Nadka stoldan boshini ko'tardida, Nastenaning oldida turgan samogon quyilgan stakanni olib bir ko'tarishda ichib yubordi va ko'z yoshlarini ham artmay yana ashula ayta boshladi.

Nastena jimgina o'tirardi. U ilgarigidek birov bilan gaplasholmasdi, yig'lolmasdi, boshqalar bilan birga icholmasdi, bunga haqi yo'qligini hozir, shu yerda aniq tushundi. U nima qilmasin, hammasi soxta bo'lib chiqadi, riyokorlik bo'ladi. Uning ichidagini birovga sezdirmay, boshqalar diqqatini ham o'ziga jalb etmay, odamlar nima qilayotganini zimdan kuzatishdan, nima deyayotganiga quloq solishdan o'zga chorasi qolmagandi. U bu yerga kelganiga pushaymon bo'ldi, ammo endi ketish ham o'ng'aysiz edi. Bularning hammasi mana man deb o'tiribdi: baxtiyor, gul-gul ochilgan Liza; o'z uyida-

ligidan gangib qolgan, mehribonlari chehrasini ko'rishdan ko'zlaritengan Maksim; o'zini yo'qotib qo'ygan, bir kundayoq rangi ketib qolgan Nestor; kolxoz hisobchisi, ayyor savodxon-hisobdon, hamma narsani boshqalardan oldinroq bilishga intiluvchi Innakentiy Ivavich; o'ziga ishongan, hayotda dadil, vazmin qadam qo'yib kelayotgan Dono Vasilisa; sodda-bayov, sho'x Nadka – hammasi qisinmay-qimtinmay, bemalol o'tiribdi, bordiyu, biror nimani ichida saqlayotgan bo'lsa ham – busiz odam bo'lmaydi-ku – faqat o'zlarigagina tegishli bo'lgan narsaning ozginasini, keraklisini bekityapti. Nastena yashirayotgan narsa esa, har biri bugun qanday niyatda bu yerga kelgan bo'lmasin, shularning hammasiga taalluqli bo'lib, hammasiga – Nadkaga qarshi, Dono Vasilisaga qarshi, hatto Lizaga ham qarshi edi. Ana shu sir-asror ularni birlashtirib, bir-biriga bog'lab turardi. Nastenani esa, ulardan ajratib qo'ygandi, odamlar o'rganib qolganlaridan uni hozir ham o'z odamimiz deb o'ylar edilar. Nastena esa allaqachon begonalashib, chetlashib qolgandi, ularning ko'z yoshlariga ham, shodliklariga ham sherik bo'lolmasdi, gapga ham, ashulaga xam qo'shila olmasdi.

Vityani men gumdon qilganim yo'q, u o'zi dushman o'qidan halok bo'ldi, deb Nadka quvlik qilyapti. O'z aybini sezib turgani uchun ham u gapiryapti, bu haqda so'rab-surishtiryapti; holbuki, o'sha gunoh nimadan iboratligini o'zi bilmaydi. O'shanda Vityaga qanday yordam berishi mumkin ekanligini tushunmaydi, ammo sezib, azob chekyapti. Yo keragidan kamroq ibodat qildimikin yoki kamroq iztirob chekib, kamroq uni o'yladimikin? Nega Liza niyatiga yetdi-yu, bu yetolmadi? Nega Dono Vasilisa hali urush tugamasdan turib, Gavrillasining sog'-salomat kelishiga zarracha shubha qilmaydi? Keladi ham – Dono Vasilisa bilan Gavrilaga o'xshaganlarga jin ham urmaydi – hamma abjag'i chiqib, o'lib ketadi-yu, ammo bu ikkalovi sog'-salomat qolib, tinchgina kun ko'rib yuraveradi. Nega bu-naqa bo'larkin-a? Yo'q, bu yerda bir gap bor, bir tomoni xotinlarga ham bog'liq bo'lsa kerak. Azaldan xotinlar bu jumboqdan qiynalib, uni yechishga uringan bo'lsalar kerak, yechishga ko'zları yetmasa ham, har qalay bir harakat qilishgan: asrlardan asrlarga har bir xotin o'zining ko'r-ko'rona, ehtirosli sezgisi, shubhali afsunlari bilan yashab keldi, bordi-yu unda ana shunday ishonch, umid bo'lmasa, yana o'sha gunohdan azob cheka boshlardi.

Nastena ham Andrey uydan chiqib ketgan o'sha vaqtdan boshlab uning boshiga tushgan savdolarga qittakkina bo'lsa ham daxli borligiga ishonardi. Ishonardi-yu, ammo faqat o'zimni deb yashadim, faqat o'zimni o'yladim, faqat menga kerak, deb kutib yurdim, deya qo'rqib ketardi. Mana, oqibati; ma, ol, Nastena, hech kimga ko'rsata ko'rma. Tanho, odamlar ichida bir o'zi-ya: hech kimga dardini yorolmaydi, yig'lolmaydi, hammasini ichida saqlashi kerak. Xo'sh, keyin-chi, u yog'i nima bo'ladi? Uni bu falokatdan qanday qutqarsa bo'larkin, endi qanday yashashi kerakki, eriga yanglishmasdan, adashmasdan yordam berolsin? Endi unga biror kor-hol bo'lsa, u ham javobgar.

Nastena sekingina stoldan turdi-da, kishi bilmas ko'chaga chiqdi. Ancha kech bo'lib qolgandi, bolalar ham, itlar ham uy-uyiga tarqab ketgandi. Qishloqning quyi chekkasi qop-qorong'i, jimjit edi. Nastena Vologjinlarning ashula eshitilib turgan yorug' derazasi ostida birpas turdi-da, keyin Angaraga qarab ketgan tor ko'chaga burildi. U odamlar yo'qligidan yengil tortdi va o'zidan gina qilib, boshini chayqadi: shu kunlarga qoldimi – ilgari taskin topish uchun o'zini odamlar orasiga urardi, endi bo'lsa, aksincha, ulardan qochib yuribdi. Ichidagi dard sal bosilganday bo'lди, ammo negadir xo'rsinib-xo'rsinib qo'yardi. Nastena ko'kragini to'ldirib, chuqur nafas oldida, beixtiyor paydo bo'lgan alamini bosdi va qirg'oq yoqalab, yo'lida uchragan o'yiqlarni aylanib o'tib, muzdan pastga qarab ketdi. Nastena yurib borarkan, nariqi sohilda, orolning orqasidan arang ko'zga chalinayotgan, Andrey berkinib yotgan kimsasiz burchakdan ko'zini uzmashdi. U Andrey shundoqqina yonida ekaniga goh ishonar, goh ishonmasdi; bir necha qaqiqa xayol uni olib qochdi, shunda, nazarida, bir daqqaq oldin hammasini – Maksimning to'g'rilikcha, Andreyning esa qochib kelganini xayolida o'zi to'qib chichargandek bo'ldi, hatto buning qanday ro'y berishi mumkinligini ko'z oldiga keltirib, ishondi ham. Go'yo Nastena hozir Andreyevskka borsa, u yerdan hech kimni topolmaydigandek tuyuldi. Ammo shayton vasvasasi yuragida g'am, alam qoldirib o'tib ketdi, haqiqat esa shafqatsizlik bilan uning ko'zi oldida yana ham yaqqolroq namoyon bo'ldi: hech nima boshqacha bo'lmaydi, hammasi aslida qanday bo'lsa, xuddi shunday.

Nastena o'zi ketayotgan sohildan jarlik tepasiga ko'tarildi va Andreyevsk tomonga so'nggi marta nigoh tashladi-da, og'ir-og'ir qadam bosib, uyiga ravona bo'ldi – Maksim Andrey to'g'risida hech

nima bilmas ekan, deb hali Mixeichga aytishi ham kerak. O‘zidan boshqa hech kim hech nima bilmaydi, ammo bu haqda hatto esidan ayrilganda ham birovga churq etmasligi kerak.

## 10

Nastena ertalab ham biron yoqqa bormoqchi emasdi, ammo tushga kelib havoning avzoyi o‘zgardi-da, bo‘ralab qor yog‘adiganga o‘xshab qoldi: Nastena yog‘och bochkadagi suv tagginasida qolganini esladi-yu, havo butunlay aynimasidan turib suv keltirgani Angaraga yugurdi. Angarada shamol hayqirardi, chirpirak bo‘lib, shiddat bilan pastga – daryoning yuqori oqimiga urilayotgan ho‘l, yopishqoq qordan havo xiralashib ketgan edi. Nastena odati bo‘yicha hozir to‘s-to‘polon ichida qolgan narigi tomondagi sohilga qaradi-da, mana, o‘sha yoqqa borishga ayni fursat, hech kim ko‘rmaydi, deb o‘yladi. Nastena buni shunchaki, birrov xayoliga keltirgandi, ammo bu fikr dan ichi yonib, yuragi hapriqib ketdi: agar chindan ham g‘izillab borsa nima bo‘ladi? Hammasiga qo‘l siltasa-yu, g‘izillab boraversachi? Bunday qulay fursat yana qachon keladi? U suvni olib, shoshapisha orqasiga qaytdi-da, yugurib ketayotganini sezib, o‘zini qo‘lga oldi. Ko‘z ochib-yumguncha shunday qarorga kelganidan u o‘zini qo‘yarga joy topolmay, sher bo‘lib ketdi; agar hozir kim uni yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘lsa ham chap berib, qochib qolardi.

Ammo uni yo‘ldan qaytaradigan odam yo‘q edi: Mixeich otxonada, qaynonasi esa, odatdagidek, pechka ustida mudrab yotardi. Nastena g‘izillab yerto‘ladan bir chelak kartoshka olib chiqdi, kechqurun qariyalar qaynatmoqchi bo‘lsa, qidirib-turtinib yurmasin, deb picha kartoshkani cho‘yan dekchaga soldi, qolganini brezent sumkaga ag‘dardi. Yugurib qaznoqqa borib, ilgari no‘xat solib yashirib qo‘yilgan xaltani olib keldi, yarim buxanka non kesib oldi. Non sap-sariq, no‘xatdan qilingandi – qishloqda hozir no‘xat juda rasm bo‘lgandi, kimni ko‘rsang qorni quldiraydi: kolxoz saxiyligi tutib, yaqinda kolxozchilarga qariyb o‘n sentner no‘xat bergandi, shundan beri bo‘tqani ham no‘xatli non bilan yeishardi, hammaning yemishi no‘xat bo‘lib qolgan edi.

Nastena kiyimlarini tezgina almashtirib, ertalab ilib olgan boshmog‘i o‘rniga piymasini, fufayka o‘rniga baxmal nimchasini kiyib oldi va o‘tib ketayotib, uyalibgina oynaga qaradi. Fufaykada

Angaradan o'tish ancha qulay edi-yu, lekin u erining ko'ziga sal yasanib ko'rinoqchi bo'ldi. U-ku, balki hech nimani payqamas ham. Nastenani solishtirib ko'radigan boshqa ayolning o'zi yo'q, ammo uning o'zi ohorli kiyimda yozilib, o'zini yengil his etardi, kiyimi bilan birga yelkasidan og'ir yuk tushganday, aravadan chiqarilib, abzali yechib olingen otday bo'lardi, axir ishda o'zingning kimligingni ham – xotinmisan, qizmisan, yoshmisan, qarimisan – ko'nglingda nima bor-u nima yo'q, unutib qo'yasan, faqat «bo'l, ha bo'l-bo'l, ha bo'l» bilan umring o'tadi. Shuning uchun Nastena kechqurunlari hamma ishini sarajom-sarishta qilib bo'lgandan keyin birpas bo'lsa ham toza va fason kiyimlarini kiyib olishni yaxshi ko'rardi, shunda beba ho boylik – yoshlik va go'zallik gashtini surish tuyg'usi paydo bo'lardi, bu boylikni qanchalik uzoq yashirsang, shunchalik kam eslaysan, shunchalik tez so'lib, xazon bo'ladi. Nastena kiyinib bo'lgach, go'yo nimasigadir ziyon yetadiganday cho'chib, ohista qadam bosardi, yana qandaydir o'zining, faqat o'zigagina tegishli sirni avaylayotganday, mehr bilan iliq jilmayib qo'yardi, bu sirni oshkora etish vaqt hali yetmagandi. Ana shunday daqiqalarda Nastena urushni ham, muhtojlikni ham, yolg'izlikni ham pisand qilmay, o'zini ehtiyojlab, kelajakdag'i baxtiyor hayotga tayyorlanardi. Nastena yillar o'tishi bilan sekin-as ta qarib borishini bilardi, ammo ko'ngil bemahal sovib, cho'kib kolishi mumkin – hammasidan ko'ra ko'proq ana shundan qo'rqardi. Parvardigor tomonidan ato etilgan o'z his-tuyg'ularini boshqalar, ko'pchilik his-tuyg'usidan farq qilmaydigan sog'lom, baquvvat kishilar ozmunchami. Bunday odamlar go'shangaga kirganlarida ham faqat qornini to'qlash maqsadida dasturxonga o'tiruvchi kishilarga xos ishtiyooq bilan yotadilar. Ular kuladilar ham, yig'laydilar ham, ammo yig'layotganimiz, kulayotganimizni boshqalar ko'ryaptimi, eshityaptimi, tag'in behuda ko'z yoshi qilib o'tirmaylik, deb atrofga alanglar edi. Bular tamom bo'lgan odamlar: bular boshqacha muomala qilsang, tushunmaydi, aks sado bermaydi, ko'ngil torlarining birortasi ham sezgirlik bilan titramaydi: vaqt o'tgan – so'nib, toshdek qotib qolgan, endi bu torlar boshqa birovning ham mehrini tovlolmaydi. Buning sababi aniq: bundaylar payti bilan o'zlariga o'zları hisob berishning uddasidan chiqa olmaganlar, hisob berishdan qochganlar, bil'aks, mutlaqo esga tushmaydigan, unut bo'lib ketish darajasida o'zlarini sondan chiqarib qo'yganlar.

Yig‘ishtirinishga Nastenaning o‘n daqiqacha vaqtı ketdi, ammo azbaroyi oshiqqanidan bu o‘n daqqa unga bir soatdek tuyuldi. Nastena nihoyat, sumkani oldi-da, g‘izillab ko‘chaga chiqib, to‘xtadi, shosha-pisha atrofga alanglab, shamolning hadisini olgan bo‘ldi. Ortiqcha ehtiyyotkorlik xalaqit bermaydi, shuning uchun u buzoqxona orqali o‘tdi: bordi-yu, bitta-yarimta favqulodda ko‘rib qolsa ham, shunday kuchli bo‘ronda mo‘rchada biron ishi bordir-da, deb o‘ylashi mumkin. Bu yerda – mo‘rcha atrofida qor shunday bo‘ralab urayotgan ediki, hatto yaqin o‘rtadagi uylar ham g‘ira-shira ko‘rinardi; Nastena endi qo‘rqmasdan muzda sirpanib pastga tushdi-da, o‘ngga, yo‘l daryoga burilib ketadigan tomonga qarab yurdi. Shundan keyingina u yo‘lni qor bosib qolgan bo‘lishi mumkinligini esladi, bunday holda faqat tavakkaliga ish ko‘rish kerak bo‘ladi, bu esa juda xatarli: bunday bo‘ronda adashib ketishi, qirg‘oqni yo‘qotib qo‘yishi, xudo ko‘rsatmasin, shamol biron yoqqa olib ketishi ham hech gap emas, shamol shunaqangi quturib, odamni surib ketardiki, qayoqqa ketayotganining bilolmasding. Ammo yo‘l, xayriyatki, hali ko‘rinib turardi, uyulib yotgan muzlar oldini qor bosgandi, umuman, shamol qorni yo‘ldan uchirib ketgandi.

Chaparasta urayotgan nam qorda nafasi qaytib ketmasligi uchun Nastena yuzini berkitib, bukilibroq yurishiga to‘g‘ri keldi. Shamol kuchli bo‘lib, to‘xtovsiz, bir zaylda quturib esardi, xuddi quvurdan eshitilayotgandek, to‘xtovsiz guvillardi, ammo shu guvillash ichidan ham uchib kelib urayotgan qorning shitir-shitiri aniq eshitilib turardi. Garchi tevarak-atrof yorug‘day tuyulsa ham, xich qadam naridagi narsani ko‘rib bo‘lmasdi, ammo bu yorug‘lik xuddi tumandagiga o‘xshash oqish bo‘lib, suzib, lipillab o‘tib ketardi-yu, hech nimani ko‘rib bo‘lmasdi. Qaqqayib chiqib turgan muzlar chirsillardi, qor ularga urilib, atrofga sachrardi, shamol esa ularni ilashtirib, olislarga uchirib ketardi.

Bu bo‘ron qayooqdan keldi-a? Nastena yaqin yillarda, bunaqa paytda shunday bo‘ron bo‘lganini eslolmaydi. Mana senga bahor – ha-ya, mart eshik qoqib turibdi-ku.

Nastena yo‘lni yo‘qota boshladи, ammo butunlay emas, yo‘l hadeb chap tomondan chiqib qolardi: Nastena qanchalik urinmasin, shamolga qarab o‘zini o‘nglab olmasin, uni surib, pastga og‘dirib ketayotgandi. Agar yo‘l bo‘lmasa, bo‘ron uni qayoqqa adashtirib yubo-

rishini tasavvur qilish mumkin. Ammo chana yurib silliqlab qo‘ygan eski yo‘lni topib olish borgan sari qiyinlashayotgan edi. Qor uyumlari kattalashib, bir-biriga qo‘shilib ketayotgandi. Nastena pichanzorda pichan tashigan vaqtida tushib, yo‘l chetida muzlab yotgan xashak-larga qo‘ziqorinday do‘mpayib, qorayib ko‘rinadigan ot go‘ngiga qarab-qarab borardi. U charchab qoldi, avvaliga bo‘ri quvganday jonholatda oshiqdi va birdan sillasi quridi, og‘ir sumka qo‘lini uzib yuboray der, shamoldan nafasi qaytardi, dam-badam qorga botib, piymasi og‘irlashib ketgandi, shol ro‘moli bilan nimchasi jiqqa ho‘l bo‘lgandi. To‘g‘ri, shamol izg‘irinli emasdi, iliq, janub shamoli edi, ammo sovuq bo‘limgani uchun ham hammayoq ho‘l, shilta edi.

Nastena chap tomonga tikila-tikila orolni qidirdi; ishqilib, o‘sha yerga yetib olsa bo‘lgani – u yog‘i oson, u yerda irmoq tor, to‘ppa-to‘g‘ri kesib o‘tsa bo‘ladi. Nastena yetib borolmayman, deb qo‘rmasdi – yetib bormay nima, ammo qirg‘oqqa yetib olgandan keyin orol qayerdaykin, deb sarson bo‘lmaslik uchun iloji boricha ayrilishga yaqinroq yerdan chiqishni istardi. U shu bo‘ronda ovora bo‘lib kelayotganiga zarracha achinmasdi: uning kelishi uchun bundan qulay fursat bormi, balki uni o‘zgalar ko‘zidan yashirish uchun ham bugun atay bo‘ron turgandir. Hozir u negadir issiq qishlovga yetib olishga, piymasini yechib tashlab, sirqirayotgan oyog‘ini uza-tadigan, ko‘zlarini huzur qilib yumib yotadigan daqiqalar kelishiga ishonmayotgandi – bu unga negadir juda olisdek, sal bo‘lmasa ertak-dagidek tuyulardi.

Baribir u yo‘lini yo‘qotib qo‘ydi, uni qaytib topolmadi ham – oyog‘i ostidagi hamma narsa bir-biriga qo‘shilib, jimirlab turardi. Shundan keyin Nastena qachon bo‘lsa ham baribir sohilga chiqaman-ku, irmoq shu atrofda, o‘ngroqda bo‘lishi kerak, deya shamolga qar-shi yurishga jazm etdi. Shunday bo‘lsa ham Nastena yo‘lni yo‘qotib qo‘yanidan xafa bo‘ldi: u qo‘rqanidan emas, xafa bo‘lganidan, tinkasi quriganidan piqillab yig‘ladi va negadir qichqirib, Andreyni chaqirdi. Ovozimni bitta-yarimta eshitadi, deb umid qilish tentaklik edi, albatta, shamol shu ondayoq ovozni yumaloq-yassi qilib pastga uchirib ketayotgandi.

Nastena qayoqqa ketayotganini arang eslاب, yana ko‘p yurdi, ammo bir mahal boshini ko‘tardi-yu, nogahon shamolning dami ancha qaytganini payqadi. U to‘xtab, atrofga alangladi: orqa tomonda

shamol hamon boyagidek kuchli esayotgandi, ammo bu yerda nimadir unga xalaqit berardi, ro'parasidan esayotgan shamol yo'lda nimadir urilib, dami kesilayotgan edi. Nastena yana pitcha oldingga yurdi-da, qirg'oqni ko'rdi. Bu orol emasdi, u orolni payqamasdan o'tib ketib qolibdi – bu katta yer edi. Xudoga shukur, Angaradan o'tibdi, endi Andreyevskni qidirish kerak. Nastena qirg'oqning burilib ketganiga qarab, orol ortidagi o'zi bilgan o'rmonli baland burun chap tomonda qolganini tushundi, chamasi, shamolni to'sib turgan shu burun edi. Demak, u o'zi chamalagenidek, qirg'oq yoqalab quyi tomon yurishi kerak. Endi yetib oldim desa ham bo'ladi, bu yog'i oz qoldi. Tepalikdag'i qarag'ayzor bo'g'iq shovillardi, tik ketgan qirg'oq labidagi ensiz o'tloqda yalong'och qayin va tog'teraklar shamolda chayqalardi. Nastena iloji boricha o'ng tomonga burilmaslikka harakat qilardi, u yoqda hamon bo'ron quturar edi. Ortdan urayotgan shamol Nastenani surib yuborar, shuning uchun ham u qadam bosishga ulgurolmay qoqilib ketardi, bir marta yiqilib ham tushdi, sumkasidan ikki dona kartoshka qorga dumalab ketdi, ammo u beixtiyor xo'rligi kelib, qolsa qolaversin, degandek kartoshkalarni olgisi kelmadi.

Nastena yurib borarkan, irmoqdan o'tib ketishiga sal qoldi, ammo biqinidan qor gupillatib urib turganini o'z vaqtida payqadi-yu, shartta to'xtadi. Yo'qsa, Ribnayaga borib qolish hech gap emasdi. Nastena bugun ishi o'ngidan keladimi-yo'qmi, bila olmasdi: Angaradan, chamasi, ko'ngildagidek o'tib oldi, adashmadi, biron yerda qolib ketmadi, hech nimani ko'rib bo'lmaydigan shunday havoda ortiqcha yo'l yurmadi – agar uning o'mida boshqa odam bo'lganida hamma ishi o'ngidan kelayotganiga xursand bo'lardi, uning nimadir nazarida esa hammasi aksincha bo'lyapti, hamma ishi chappasiga ketyapti, ko'ngildagiday bo'lmayapti. U faqat charchagani uchungina avval-boshdayoq adashib, ruhi tushib ketmagan edi, yana bir nima ham bor ediki, ana shu «bir nima» noxush gapligini oldindan sezib bu haqda o'ylashdan qo'rqardi.

Ko'p o'tmay Nastena qishlovga chiqib bordi.

Andrey shu yerda ekan: tomdagi mo'ridan tutun chiqib turardi. Bir kami shuncha azob chekib, eski hammom-u eski tos deganlariday, huvillab yotgan qishlovga kelishi qoluvdimi endi. Nastena o'tgan safar erining kapalagini uchirib yuborganini esladi-da, tuyqus

eshikni ochib kirmadi. U nafasini rostladi, kafti bilan ho'l yuzini artdi va faqat shundan keyingina derazachani ohista tiqillatib chaqirdi:

– Andrey, bu men! Andrey!

Andrey otolib chiqdi, uni yelkasidan quchoqlagancha, bir nimalar deb ichkariga boshladi. Nastena hech narsani anglamasdi, nogahon bir lahzadayoq uni shunday dahshatli horg'inlik bosdiki, qimirlashga ham majoli yo'q edi. U ostonadan o'tarkan, qoqilib, yiqilib tushishiga sal qoldi – bu esa shundoq ham ko'z yoshi g'iltillab turgan juvonni o'rtab yubordi: u ortiq o'zini tutib turolmay ho'ngrab yubordi. Andrey nima qilishni, uni qanday ovutishni bilmay, oyog'i kuygan tovuqday pitirlardi.

– Yo'limga chiqsang bo'lmaydimi, – dedi Nastena yig'i aralash tersligi qo'zib, jahl bilan. – yetib kelolmasam, biron yerda yiqilib muzlab qolsam nima bo'lardi? Bu esa o'tiribdi, o'lsang ham ishi yo'q.

– Bugun kelishingni men qayoqdan bilay, axir?!

– Qayoqdanmish-a! Bilish kerak edi! Qayoqdanmish!

Nihoyat, Andrey uning ro'moli bilan nimchasini yechib olish kerakligini fahmlab qoldi. Bo'kib, bir pud bo'lib qolgan piymasini Nastenaning o'zi oyog'ini siltab, jirkanib otib yubordi. Andrey piyma poylarini olib, qo'llarida og'irligini salmoqlab ko'rdi-da, taaj-jublanib boshini chayqadi va quritish uchun pechka yoniga qo'ydi. Pechka bozillab yonib turar, ichkari issiq, osuda edi. Yonayotgan o'tinlar chirsillab, uchqun sochardi. Faqat darcha oynasi zirillardি – tashqarida nima hodisa ro'y berayotganini eslatib turuvchi birdan-bir narsa shu darcha edi.

Andrey katga, Nastenaning yoniga o'tirdi-da, ohista so'radi:

– Nimaga kelding? Biron hodisa yuz berdimi? ‘

– Nimaga kelding?! – dedi Nastena yana o'dag'aylab. – Sening oldingga keldim, bildingmi! Yana so'raydi-ya! – keyin negadir birdan hovuridan tushib, muloyim tortdi: – Hech gap bo'lgani yo'q.

– Yuragingga balli-ye. Seni bunaqa dovyurakligingni bilmovdim. Bunday havoda eng yirtqich hayvonni urib ham inidan chiqarolmaysan, sen bo'lsang, yurak betlab kelibsang. Qoyil!

– Sen, umuman, hech baloni bilmaysan. Ko'rsichqonga o'xshab qorong'i yerga kirib olib yotibsan. Xotiningga ham tuzukkina qaramaysan.

– Ko‘rsichqonga o‘xshab deganing to‘g‘ri, – deb kului Andrey uning fikriga qo‘shilib. – Och qolgan bo‘lsang kerak, a? Tushlik qilamizmi? Yo kechki ovqat mahali bo‘lib qoldimi, men hammasini adashtirib yubordim.

– Qiziq, meni nima bilan mehmon qilmoqchisan o‘zi? – Andrey shu haqda gap ochishi bilan Nastena chindan ham ovqat yegisi kelayotganini sezdi. U ertalabdan beri tuz totmagandi, hozir bo‘lsa, kun kechga yaqinlashib borayotgandi. Innaykeyin eri uning ko‘nglini olishga harakat qilayotganini, biron nima bilan ajablantirmoqchi bo‘layotganini ko‘rib Nastena yo‘q deya olmadi.

– Baliq sho‘rva qilsak ham bo‘ladi. Men ancha-muncha baliq tutib qo‘yanman.

– Ammo men endi o‘ldirsang ham tashqariga chiqmayman.

– O‘tiraver, o‘zim qilaman.

U eshikni qiya ochdi-da, ostonadan hatlamay, cho‘zilib, tepadan yaxlab qolgan, uch kilogrammcha keladigan yaxshigina o‘lja – yelimbaliqni oldi-da, do‘qillatib stolga qo‘ydi.

– Qarab tursam, bu yerda bizdan yaxshiroq yashayotganga o‘xshaysan, – dedi Nastena taajjublanib.

– E, kecha omad bir kelib qoldi-da. Ataylab sen uchun ilingan shekilli o‘ziyam. Buni qara, omadli ekansan.

– Bo‘lmasa-chi, omadim kelmay ham ko‘rsin-chi, – dedi Nastena quvlik bilan.

Andrey qanday qilib baliq tutayotgani to‘g‘risida og‘iz ochmadi. U buni Nastenaga ayta olmasdi. U yaqin kunlargacha ham birovning narsasiga ko‘z olaytirishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan edi, mana, endi bo‘lsa, shu darajaga yetib bordi. Ribnayadan birov qishloqdan olis orolcha yonidan jimgina oqadigan irmoqning loyqa sohiliga qarmoqlar qo‘yib qo‘yan ekan, u bir kuni kechasi qarmoqlarni ko‘rib qoldi-yu, chidab turolmadi. U bu yerga hech kim har kuni ovora bo‘lib misrang olib kelib, olib ketmasligini bilardi, shuning uchun qidirib, uni butalar orasidan topdi, yonida sopi kalta belkuragi ham bor edi – ovchi, aftidan, hamma narsaning shay bo‘lishini yaxshi ko‘radigan odam ekan. Qarmoqlar odatda ertalab tekshirilardi, Guskov esa, to ertalabgacha o‘yiqchalar yana muzlab ulgursin, deb qorong‘i tushgandan keyin qarmoqlarni ko‘zdan kechirib chiqardi. U shu yo‘l bilan to‘rtta yelimbaliq oldi. U juda ustalik bilan ishlar-

di, o‘zidan hech qanday iz qoldirmasdi; baliqchi ham biron nimadan shubhalanishi gumon edi, buning ustiga u kechasi, ehtimol, eng ko‘p tushgan baliqni olishi mumkin edi..

«Ishlardi» o‘rinli aytilgan so‘z-da, ilgari bunaqa ishdan Andreyning o‘zi hazar qilardi.

Muhtojlik, xippa tomoqdan bo‘g‘ib oladigan muhtojlikkina uni shunday tuban ishga qo‘l urishga majbur qilmayotgandi. Unda hali go‘sht bor edi. Nastena ham doimo u-bu keltirib tashlab ketardi. Ma’lumki, ortiqcha davlat bosh yormaydi, ammo bu yerda o‘zidan o‘kinib, dilida saqlab yurgan qattiq kek Guskovni zimdan yo‘lga solib gijgijjardi, hafsala bilan yashirilib, har tomonlama niqoblab qo‘yilgan bu istak o‘ziga o‘xshamagan, ochiq-oydin yashayotgan, bekinmasdan, qo‘rmasdan yurgan kishilarning yo‘lini kesib o‘tib, ularni pushaymon qildirishga va shu bilan go‘yo o‘zini ularning taqdiriga aralashib qolgandek his etishga undardi. Nazdida, o‘zi aralashmasa boshqacha-yu, aralashsa boshqacha bo‘lardi. Uni ko‘rishmasa ham, uning to‘g‘risida eshitishmasa ham, uni bor deb o‘ylashmasa ham mayli, ammo u tirik, uning borligi yo u, yo bu xilda boshqalaraga ta’sir qilishi kerak, yo‘qsa u murda, bir soya, ahamiyatsiz odam. Bu unga huzur-halovat baxsh etmasdi, roxatlanish uchun biron nima qilayotganining bilishing kerak, ammo negadir unga ana shu kichik, arzimas ish ham xush yoqardi, qandaydir ko‘nglini ko‘tarardi. Ammo u aynan nimadan yengil tortishini, nima qilsa oson bo‘lishini ijikilab surishtirib o‘tmasdi, qaytanga buni bilmagani ma’qulroq.

Issiq pechkadagi baliq sho‘rva birpasda bilqilladi, shundan keyin ular ovqatlanishdi, darvoqe Nastena uchun mana shunday shodiyona kunga Andrey ataylab yasagan alohida yog‘och qoshiq ham topildi. Andrey sekin-asta ro‘zg‘orining kam-ko‘stini but qilayotgan edi, ular sho‘rvani manerkada emas, uch litrli dekhada pishirishdi, bu dekhani o‘tgan hafta Nastena fufayka bilan birga mo‘rchaga keltirib bergandi.

Ular o‘shanda bir-birini ko‘rishgan, ammo mo‘rchada bir-birini paypaslab ko‘rishgandi. Ana shu uchrashuvlardan so‘ng Nastena hech nimaning farqiga yetolmaganidan, rasvo sharoitda birga bo‘lganidan ijirg‘anib, dili siyoh bo‘lib qolardi; garchi u birov bilan sira ham don olishmagan bo‘lsa ham, ammo nazarida boshqa bilan yotganday, aldaganday bo‘laverardi-yu, bunaqa ishga har qa-

lay ko'nika olmasdi, ko'ngli joyiga tushmasdi: u Andreyning ovoziga yaxshilab qulq solardi – bu ovoz o'shanikimikin? Andreyning fe'l-atvordinagi o'zgarishni izlardi – izlaganiningdan keyin topasan-da, albatte – va uning xatti-harakatidan ilgari sira payqamagan qiliqlarni topardi-yu, miyasi g'ovlab, shubhalar ortib yuragi orqasiga tortib ketardi. Ayniqsa muzdek, surilib ketaveradigan, achimsiq kuyindi hidi anqib turgan xazon to'shalgan baland so'rida yotish juda noxush edi, bu so'riga ham emaklab chiqishga to'g'ri kelardi: Nastenaning naza-rida, bir zumda a'zoyi badanidan yung o'sib chiqqanday, agar istasa, xuddi hayvonga o'xshab bo'kirishi mumkinday tuyular edi.

Bu yer esa – boshqa gap. Ular bu yerda bir-birining ko'ziga qarashi mumkin edi, u Andreyning yuziga qarab, nimani o'ylayotganini payqardi, visol onlari ham g'ayritabiiy, ham kuchli hayajon bilan kechardi. Er-xotin bo'la turib ahyon-ahyonda yashirinchcha uchrashib yurgan shu ayanchli ahvol tufayli tug'ilgan ranj, alam uchun Nastena ana shu uchrashuvlarning o'zidan tovon olmoqchi bo'lardi; Nastena bu uchrashuvlarning har biri bir necha yillarga tatishini, alohida mazmun, alohida bir kuch-qudrat va mehr-muhabbatga to'liq bo'lishini istardi. Ammo unga qanday erishishni, turgan gapki, Nastena tasavvur qila olmasdi; u ertangi kunni o'ylab qo'rqrar, qiyalar, azob chekar ekan, o'zi erishishi mumkin bo'lgan qandaydir katta bir narsani orzu qilardi va har qalay, bordi-yu, o'sha orzusi ushalguday bo'lsa, barmog'ini tishlab qolmasligiga sal-pal ishonardi.

Bir kuni orzusi ro'yobga chiqqanday tuyuldi, ammo qachon, qaysi uchrashuvda shunday bo'lganini o'zi ham bilmasdi: u qanday qilib buni sezmay qoldi, a? Nima balo, yog'ochga o'xshab hech nimani sezmaydigan bo'lib qolganmi? To'g'ri, Nastena shunday hodisa chindan ham yuz bergeniga unchalik ishonmasdi, lekin ko'p narsalar unga, shundan darak berib turardi – shuning uchun ham u bugun g'oyat hayajonlanib, gangib qolgan edi. Nastena stol yonidan turdi-da, sirqirayotgan, zil-zambil bo'lib qolgan oyoqlari oqsoqlanib, katga chiqdi-yu, yotib oldi. Mana endi nima vajdan kelganini Andreyga aytsa bo'laveradi.

- Bilasanmi, Andrey, nima gap?
- Nima?
- Ammo Nastena fikridan qaytdi:
- Ha, mayli, keyin.

Nastena Andreyning yoniga kelishini kutdi. U hamon stol yonida o'tirardi. Nastena Andrey imillab ovqatlanayotganini payqadi – aftidan, keyingi paytlarda hech qayoqqa shoshilmaslik odatining aksi urganga o'xshardi. Nihoyat, u o'rnidan turdi, terlab ketgani uchun sal sovib olgani eshikni ochdi. Nastenaga muzdek sovuq shamol gup etib urildi-yu:

- Eshikni yop! – deb baqirdi.
- Yopdim, yopdim. Shamol sal pasayganga o'xshaydi.
- Ha, shunaqa shekilli.

Andrey kelib, uning yoniga cho'nqaydi.

- Nima balo, hali ham isimadingmi?

– Isishga-ku isib oldim-a, ammo hademay qaytib ketishimni o'ylasam, a'zoyi badanim jimirlab ketyapti. Bu yerga kelguncha ona sutim og'zimga keldi.

– Picha tura tur, dampingni ol. Bir o'zing ketmaysan, men kuzatib qo'yaman.

– Qandoq qilib qolaman, Andrey? Shipillab jo'nab qolgan bo'lsam, hech kimga indamagan bo'lsam. Meni yo'qotib qo'yib, hayron bo'lib o'tirishgandir. Yarim kechada borsam, kimning ko'ziga yaxshi ko'rinaman? O'zi shundoq ham kechalari sanqib yuradigan bo'lib qoldim. Mana kelinimizning ahvoli... deb o'ylashmaydimi.

– Nastena berk eshikni qanday taqillatishini tasavvur qildi-da, ko'zlarini yumdi.

- Otam hech nima demayaptimi?

– Hozircha jim. Shu choqqacha miltiqning g'oyib bo'lganini pay-qamaganiga hayronman. Hademay bilib qoladi.

- Sezib qolsa, nima deyishingni o'ylab qo'ydingmi, axir?

– O'ylashga-ku o'ylab qo'ydim-a... – Nastena aftini bujmaytirdi.

- Xo'sh, nima demoqchisan?

– Yolg'on-yashiq gaplarimni senga aytib nim qilaman? Aytmayman. O'zim bir yo'lini qilarman.

Andrey uquvsizlik bilan uning boshini siladi.

- Qiynalyapsanmi, Nastena?

– E yo'q, – Nastena ko'zlarini ochib jilmaydi. Uning shamolda qotib qolgan yuzi isib, anor donasiday qip-qizarib turardi, chehrasida kezgan tabassum beholgina edi. – Ammo senga ichim achiydi. – U o'zi sevgan narsalarni unga gapirib o'tirmadi, gapirishni istamadi. –

Menga jin urarmidi? Shukur, otdayman, chidayveraman. Nima, sen men yo‘g‘imda yallo qilib yurgan deb o‘ylaysanmi? Xudoning ber-  
gan kuni nima bo‘ldiykin, o‘likmikin-tirikmikin, deb yuragingni ho-  
vuchlab yurasan. Bu yerda loaqlal tirikligingni bilaman-ku.

– Yo sen picha dam olguningcha besh-olti kun ko‘rishmay turay-  
likmikin, a? Hamma narsa bor, bir kunim bo‘lsa o‘tadi.

– Sen nega bunaqa deysan? Dam ol, deydi-ya. Sen avval so‘ragin-  
chi, men dam olishni istarmikinman! Hademay Angaraning muzi  
eriydi, to eruvgarchilik tugab, yo‘l ochilguncha dam olaveramiz, ul-  
guramiz. Boz ustiga loaqlal seni ko‘rib turmasam, bu yorug‘ olam-  
da nima qilib yuribman o‘zi. Hech nimani, hech nimani bilmaysan.  
– Nastena xiyol jim bo‘ldi, chuqur xo‘rsindi va aytishga jazm etib,  
shoshilmay, ohista, cho‘zib, o‘z so‘zlariga e‘tibor bermayotganday  
dedi: – Bo‘ymda bo‘lib qolganga o‘xshaydi, Andrey.

– Nima?! – uning og‘zidan faqat «nima» emas, «oh» ham  
qo‘shilib chiqди. – Nimo-oh! – U sakrab o‘rnidan turib ketdi. – Shu  
gaping rostmi, rost aftyapsanmi?

– Hali o‘zim ham aniq bilmayman. Ammo sira bunaqa bo‘l-  
masdim. Aniqqa o‘xshaydi. – U avvalgidek shoshilmasdan, go‘yo  
erining bu gapiga qanday munosabatda bo‘lishi fursatini ataylab  
cho‘zayotganday ohista javob berdi.

– Nega shu choqqacha indamading? – deb ikkilanib gap boshladи  
u. Og‘ziga kelgan shu so‘zlarни aytar ekan, erib ketdi, ro‘y bergan  
hodisaning butun ma’nosи Andreyning ongiga yetib, a’zoyi badanini  
qizdirib yubordi. – Nas-te-na! – u sekin, ammo sidqitdildan iltijo qildi  
va bo‘shashib, turib o‘tirdi-da, Nastenaning qo‘lini ushladi. – Mana  
bu ajoyib ish bo‘libdi! Qoyil! Endi buning nimaligini bilasanmi?!  
Tushunyapsanmi? Tushunyapsanmi, Nastena? Ha, mana, mana... Bi-  
llaman, endi bilib turibman. Nastena: men bu yerga bekorga, behu-  
da kelmagan ekanman. Taqdir deganlari mana shu bo‘ladi... Taqdir  
meni shu yo‘lga boshlabdi, peshonamda bor ekan. O‘zim ham bil-  
gandim, tushunyapsanmi, bilgandim. Ko‘nglim sezuvdi. Men ahmoq  
bo‘lsam, qo‘rqib yuribman. Axir shuni deb... – U baqirmadi, ayni  
paytda yo‘talib, kular ekan, bu so‘zlar ichidan tinkasi quriganday  
qovjirnb chiqardi, ko‘zlar yonib, go‘yo devorni teshib yubormoqchi  
bo‘layotganday olis-olislarga boqardi: garchi u Nastenaga gapirayot-  
gan bo‘lsa ham, aftidan uni ko‘rmayotgandi, payqamayotgandi. U

o'ziga gapirib, o'zini ishontirayotgandek edi go'yo. – Orzu-umidim shu edi – endi hech qanaqa vaj-karson kerak emas. Har qanday vaj-karson buning oldidan o'taversin. Agar shu to'g'ri ekan, rost u men-dan keyin qoladigan ekan, endi nima bo'lsa bo'laversin, ertaga de-sang ham qora yer qo'yniga kirishga roziman... Demak, endi mening zurriyotim bor. Demak, urug'im tugamabdi, qiron kelmabdi, qurtlab ketmabdi. Men oxirgisi edim, o'lsam, naslimiz tugaydi, deb o'yab yuruvdim. Shunaqa deb o'yabman-a. Zurriyotim esa yashaydi, hayot rishtasini davom ettiradi. Ana shunday, bildingmi! Ana shunday, Nastena! Sen mening Bibi Maryamimsan! – U katga otildi-da, Nas-tenaga yopishib, uni quchoqladi va sochi to'zib ketgan katta boshini chayqab, bir nimalar deb shivirladi.

Avvaliga uning xursand bo'lganidan suyungan Nastena quloq so-lib yotarkan so'ng, «Nega u nuql o'zini o'ylaydi, men-chi, hayotda mening o'rni bormi-yo'qmi o'zi, bor bo'lsa, qayerda?» deb xafa bo'ldi-da, tashvishga tushib qoldi.

Uning g'am-tashvishlari o'zi bilan birga edi. Nastena bir hafta oldin, ilk bor vujudida yangi bir hayot nish ura boshlaganini sezgani-da bir vaqtłari rad etilgan, tahqirlangan, kesak bo'lib yotgan sez-gilari endi uyg'onib, o'zini oqlaganini payqaganida xursandligidan bo'g'ilib qolayozdi: yo rahmatingdan, nahotki?! Nahotki, u ham el qatori ona bo'la oladi? Nahotki parvardigorning rahmi kelib, unga shunday baxtni ato etgan bo'lsa? Nahotki, shuncha yil er-xotin bo'lib yurib, shunchalik behuda xohish, harakat va toat-ibodatlardan keyin, endi, hamma orzu-umidlari puchga chiqay deb turganda qandaydir bir mo'jiza bilan himmati tutib, tirnoq ato qilibdimi, a? Nima bo'ldi, a? U kechasi yotmoqchi bo'lib lampani o'chirdi, xuddi shu payt ana shu «nahotki» uni hang-mang qilib qo'ydi, u shosha-pisha o'rnidan turdi-da, keyin yog'och karavotning chetiga o'tirdi, sal nafasini rostladi, so'ng eshik pardasini zichroq qilib tortib qo'ydi, onasidan qanday tug'ilgan bo'lsa, ana shunday qip yalang'och bo'lib yechindi va deraza oldiga borib, o'zini ataylab past suzayotganday, tiniq to'lin oy yog'dusiga soldi, jonsaraklik bilan o'zida biror o'zgarish bo'lgan-bo'limganini ko'rishga urinib, sinchiklab u yoq-bu yog'ini qaradi. Uning kuchli, quyib qo'yilganday niq, sog'lom, to'la badani issiq bo'lib, xuddi yangi sog'ilgan sutdek tovlanar, hayajondan titrardi, ammo unga hech nimadan darak bermasdi, shunda Nastena

ko'kragiga deraza panjarasining katta, vahimali xochga o'xhash soyasi tushib turganini ko'rib, bir cho'chib tushdi va nari ketdi. U o'rniga yaqinlashib ikki qo'lini ikki yoniga tashlab adyolning ustida yotdi va xiyol ko'zini yumdi, zarracha ham xalal bermasin, deb nafasini ichiga yutdi, shundan keyin u ichining qaysi bir olis yeriga yashiringan nuqtaga butun vujudi bilan qulqoq soldi va o'sha nuqtani topdi – topdi-yu, o'sha yerini siladi, nuqta xam unga javoban zaifgina, bilinar-bilinmas javob berdi: bor. Nastenaga shunday tuyldi, xayolida homiladorga o'xshadi, keyin shu lahzadan e'tiboran intizorlik torta boshladi: bo'lgani rostmikin, aldanib qolmadimikin? Bordi-yu rost bo'lsa, o'zini qanday tutishi, bundan buyon nima qiliши kerak? Chindan ham o'zini qanday tutishi, nima qiliши kerak? Baxtlikka baxt-a – baxt bundan ortiq bo'ladimi! – ammo bu baxt shunday noqulay vaqtda boqqan bo'lsa, undan nima foyda? Axir, kuta-kuta ko'zlar teshilgan bu baxt ilgari qayerda edi, nega endi kelib-kelib hozir kulib boqdi? Axir u tul xotin emas, ammo erim bor deb ham aytolmaydi, bugun o'zining kimligi ma'lum emas, ertaga qanaqa xotin bo'lib qolish ham noma'lum. Nastenaning nazarida hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketdi, hamma narsa izidan chiqib, oyog'i osmonda bo'lib qoldi. Axir, u umrida o'z eridan boshqa inson bilan sira bo'limganini bilmaydi deysizmi, biladi, ammo qishloqqa boshqa narsa ma'lum – u eri bilan to'rt yildan beri diydor ko'rismaganini butun qishloqdagilar biladi. Xo'sh, bu baxtni u kulga ag'anab topibdimi? Kulga ag'anab topdim, deb qutuladigan bo'lsa, nur ustiga a'lo nur, ammo bunaqa vaj ketmaydi-da, tirik odamni topishi kerak. Ammo kim o'sha odam, axir butun aybni boshqa birovga ag'darib bo'ladimi, qolaversa bunday odam, umuman, bo'limgan-ku? Asli bor odam to'g'risida esa, churq etib og'iz ocholmaysan.

Hammasi, hammasi ayqash-uyqash bo'lib, chalkashib ketdi, keyin bundan battar chigallashadi.

Balki hech gap yo'qdir, extimol, bekordan-bekorga o'z yog'iga o'zi qovrilayotgandir, behuda ich-etini yeyayotgandir. E, bu xotin-larni bilib bo'larmidi, turgan gapki, hamisha ham bir martada ushlab qo'ya qolmaydi. Shuning uchun Nastena ikki o't orasida qoldi – balki bu tashvishi o'rinsizdir? Ilgari bo'lmovdi, hozir ham yo'q. Keyin ham bo'lmaydi.

Qaysi biri yaxshi – hozir bo‘lganimi yoki umuman bo‘lmanimi? Agar tanlashga to‘g‘ri kelsa, chindan ham qaysi biri ma’qul? Homilador bo‘lganimi yoki shundoq o‘tganimi?

Nastena ana shu chigallarni ozgina bo‘lsa ham yechib olish, bি-  
rор qarorga kelish, sal bo‘lsa ham ko‘ngli joyiga tushishi uchun Andreyning oldiga yugurgan edi. U eng oxirgi damgacha bu haqda og‘iz ochishini ham, yoki Andreyning yonida isinib, erkalanib, o‘zini bosib, nafasini rostlab o‘zi aniq ishonmaguncha kutib turishini ham bilmasdi. Unga ko‘p narsa kerak emas – u taqdiri qo‘shilgan kishining yonida bo‘lishni istardi, xolos. Bu odam esa, uni eldan ajratib, tobora o‘ziga bog‘lab qo‘yayotgandi. Boz ustiga Nastena uning oldiga bormasa, kimning oldiga boradi-yu, kim uni yupatadi?

Ammo u yuragidagini yordi, erining pala-partish, azbaroyi xursandligidan pichirlashga tushib qolgan gaplarini eshitib, bekor aytibman, deb achindi. Andrey shunday mahobat qildiki, Nastena bunaqa gaplarni xayoliga ham keltirmagandi.

– Men-chi? – deb so‘radi Nastena katdan sal ko‘tarilib. – Men nima qilaman? Axir, men odamlar orasida yashayman-ku, yo buni unuttingmi? Qiziq, men ularga nima deyman? Onangga, otangga nima deyman? Axir, ular baribir so‘rab-surishtirishadi-ku.

Bu savol shundoqqina til uchida aylanib turardi, ammo Andrey negadir buni kutmagandi. U o‘rnidan turdi-da, yana o‘tirdi, shoshganidan ajablanib, unga tikildi.

– Bilmayman, – dedi u yelkasini uchirib. – Qo‘yaver, hammasi bir pul.

– Senga aytishga oson, bu yerda bir o‘zingsan.

– Nimalar deyapsan-a, Nastena? Nima, o‘zing xursand emasmissan?

– Nega xursand bo‘lmas ekanman, endi bu yog‘i nima bo‘ladi deyapman? Qanday qilib sezdirmay yuraman? Axir hademay ko‘zga ko‘rinib, ma’lum bo‘ladi-ku.

– Esingdami, kanchalik kutgandik, qanchalik umid qilgandik? – Andreyning ovozida ranjish ohangi bor edi, u hech nimani tushunishni istamasdi.

– Esimda... nega esimdan chiqarkan. Sen nega bunaqasan-a, Andrey? Nega meni avrayapsan? Bizning ham bolamiz bo‘larmikan, deya kechalari ibodat qilib chiqqan men emasmidim. Menga hech nima ke-

rak emasdi, faqat senga tug‘ib bersam-u foydam tegsa derdim. Hammasidan ham bepusht degan nom olishdan o‘lguday qo‘rqib yurgan men emasmidim? Hamma aybni birovga emas, menga qo‘yishardi. Sen ham aybni menga qo‘yarding. Senga qaraganda menga ancha og‘ir edi. Men hamma tomondan ham aldoqchi, o‘g‘riga o‘xshab qolgandim! Men ham otam bilan onamning tilab olgan farzandlari bo‘lganman, mendan ham orzu-havas ko‘rishni niyat qilganlar, sen ham umid bilan menga uylanding, men bo‘lsam chirqillab yurib, sharmanda bo‘lib qolaverdim. Nazarimda, birovning o‘rnini egallab olganday, birovning baxtiga ko‘z olaytirayotganday bo‘lardim. Men dunyoga kelganimdan ming-ming pushaymon bo‘lganimni bilmaysan. Agar ilojini topsam, allaqachon imi-jimida biron ovloqqa bo-shimni olib ketardim yo bo‘lmasa mendan qutulishing uchun o‘zimni Angaraga tashlardim. Sen o‘zing qo‘ymagansan. Keyin, manavi la’nati urush. Sen bo‘lsang, esingdami deysan-a. Men eslamasam, kim eslasin tag‘in? Hozir kim suyunishi, xursandligidan kim o‘yinga tushib, kim ashula aytishi kerak? Men, ehtimol, onadan boshqatdan tug‘ilgandekdirman. E, xudoym! Ammo sen yo‘qsan-ku, axir! Sen yo‘qsan, Andrey, yo‘q! – deb ingradi Nastena va go‘yo ro‘parasida sochlari to‘zigan, beso‘naqay arvojni haydayotganday qo‘lini siltadi. – Mening bu yerdaligimni birovga aytta ko‘rma, deb tayinlab qo‘yan bo‘lsang. Demak, yo‘qmisan – yo‘q-da, indamay yuribman, keyin ham og‘iz ochmayman. Buni tushunaman. Lekin bordi-yu, bola bo‘lsa ham, odamlar nazdida u seniki bo‘lmaydi-da. Bitta-ya-rimtasidan, deyishadi-yu, ammo sendan ·deyishmaydi. Chunki sen yo‘qsan, o‘lik-tiriging ham ma’lum emas. Yo sen bo‘lmasang ham bolani etagimga solib, ko‘tarib borsam, ota-onang menga rahmat deyisharmikin? Yo odamlarning rahmi kelarmikan? Ha-ha. Agar ular seni o‘lganga chiqargandaydi, unda bir navi edi, loaqal bitta-yarimtasi tushunardi, bilmay netmay ayblamasdi. Lekin hozir, odamlar seni ana keladi-mana keladi deb yurishibdi. Xo‘s, men-chi, ularning nazarida men nimalar qilib yuribman seni kutib? Unda it ham, bit ham gapiradi meni – gapirmay nima qiladi? To‘g‘ri-da, ko‘zingni ochib yur! Bu yukim bilan odamlar ichida bir o‘zim yurishim qiyin – eplolmaymanmi deb qo‘rqaman, Andrey.

Andrey indamay, bir burchakka so‘mrayib tikilib o‘tirardi. U anchagacha miq etmadi, shuning uchun Nastena avvaliga o‘ng‘aysizlana

boshladi, keyin esa, o‘z gaplaridan qo‘rqib ketdi. O‘ylab ko‘rsa, gaplaridan tug‘masammi, degan ma’no chiqib qolarkan. Balki hozir ayni bir yoqli bo‘ladigan paytdir – yo nasl qoladi-yu, davom etadi, yo butunlay bo‘g‘ilib o‘ladi. Yo‘q desang – hech nima bo‘lmaydi. Endi hammasi o‘ziga bog‘liq. Bo‘lsa ham bir balo, bo‘lmasa ham bir balo. Ammo u gumonasidan voz kechishni istamasdi – yo‘q, bu dahshat-ku, nazarida bunday gunohni o‘ziga olish o‘z orzu-umididan voz kechish degan gap edi; u qani endi biron ish ham menga bog‘liq bo‘lmay qo‘ya qolsa, derdi, anavi qornidagini-ku endi hech nima qilib bo‘lmaydi.

– Bilolmay qoldim, Andrey, – Nastena najot istab unga gapirarkan, gunohkorlardek qo‘shib qo‘ydi. – Nima qilishni bilmayapman. Boshim qotib qoldi.

– Peshonada borini ko‘rasan, Nastena, – dedi nihoyat Andrey. – O‘zingni ming u yoq-bu yoqqa urma, baribir peshonada bori bo‘ladi. – U go‘yo bu haqda boshqalardan ko‘proq biladiganday ma‘qullab, ma‘yus kulimsiradi, soqolini o‘ynab, birpas jim o‘tirdi, keyin jahl bilan dadilroq gapirdi: – Meni urushdan olib, bu yoqqa boshlab kelgan ham ana shu taqdir, ha, taqdir. O‘lishidan oldin xotini bilan diydor ko‘rishsin, deb ra‘yimga qaramasdan boshlab kelgan bo‘lsa ham ajab emas. Nima, seningcha, o‘rmonda vahsiy hayvonga o‘xshab yashirinib yotish menga oson ekanmi? A? Osonmi? Ular u yoqda urushayotgan, men ham bu yerda emas, o‘sha yoqlarda yurishim shart bo‘lgan bir paytda-a? Men bu yerda bo‘riday uli tortishni o‘rgandim. Ko‘rsataymi? – Andrey uning roziligini kutib o‘tirmay, o‘rnidan turdi, vazmin qadam tashlab, eshik oldiga keldi, uni lang ochib, engashib boshini chiqardi-da, darrov boshlamasdan, go‘yo kerakli ovozga tushib olmoqchi bo‘lganday, tomog‘ini qirib hiqillay boshladi, keyin ovozini moslab, ingichka, uzundan-uzoq, tirik jonne titratadigan, ayanchli, vahimali uli tortdi. Nastena dahshatdan ko‘kragini ushlab cho‘kkalab oldi. Nogahon Andrey uli tortishdan to‘xtab, eshikni yopdi va yo‘tala-yo‘tala qaytib keldi.

– O‘xshaydimi? – deb so‘radi u va o‘ziga o‘zi javob berdi: – O‘xshaydi. Eshitgan zamonig bilginki, bu men. Bo‘rilarni esa, bu yerlardan allaqachon qo‘rqitib qochirib yuborganman, hammasi sizlarning qirg‘oqlaringizga o‘tib ketgan bo‘lsa kerak. Ko‘rdingmi, qanday ermak topganimni. Bekorchilikdan deyapsanmi? Yo‘q,

Nastena, bekorchilikdan emas, boshqa vajdan. Bahuzur yashayotganimdan. Nima, sen oxirgi orzu-umidimni ham puchga chiqarmoq-chimisan, nima, men shunchaki ko'ngilxushlik uchun bu yerga kelib-manmi? Nima, bekordan-bekorga sharmanda bo'lay deb kelib-manmi? Ko'rsatib, yuragimga o't yoqib, endi meni hammasidan benasib etmoqchisan. Endi men undan battar bo'laman. Agar tug'ib bersang, men o'zimni oqlayman, bu mening oxirgi umidim. Men demoqchi-manki, bu yagona orzum, hayotda ko'rgan-boqqanim, orttirganim shu. Odamlar bilmasa ham mayli, ammo surriyotim meniki ekanligini biladi. Sen bilan meni keyinchalik faqat surriyotimiz eslaydi.

– Balki o'sha gumona hali yo'qdir, – Nastena bo'shashib e'tiroz bildirdi. – Men senga aytdim-ku, hali aniq emas deb. Kutish kerak.

– Yo'qqa tovon ham yo'q. Agar bo'lsa, qo'y, nobud qilma, menga rahming kelsin. Agar istasang, ertagayoq g'oyib bo'laman-u qaytib seni tashvishga qo'ymayman, keyin o'z bilganingcha ish tutaver...

– Men senga g'oyib bo'l deyapmanmi, kerak emas! Nimalar deyapsan o'zi?!

– To'rt yil birga yashadik. Yaxshimi-yomonmi, ishqilib, birga bo'ldik. Ustiga yana to'rt yil urush. Ming chaqirim olisda bo'lsak ham, ko'ngil rishtasi bir-biriga bog'langan edi. Nahotki, shu umrimiz bekordan-bekorga, behuda o'tib ketaversa-yu, birgalikda kechgan hayotimizdan biron nima yodgorlik bo'lib qolmasa! Sen mendan keyin ham yashayverasan, hali yoshsan, chiroylisan, ammo shu o'tgan umring baribir qaytib kelmaydi. O'tgani o'tib ketdi. Menden keyin turmushing qanday bo'lmasin, baribir, hayotningda men ham bor edim. Axir, menden ko'z yuma olmaysan-ku? Qanchadan-qancha xotinlar urush tufayli gala-gala bola bilan qoldi, sen bo'lsang, bittasi-gayam yo'q deyapsan. Agar shu bola urushdan oldin bo'lganida nima qilarding?

– Nima, men bola ko'rishni istamas ekanmanmi, Andrey! Istamaymanmi?! Ko'nglim tilaydi. Nega hadeb meni belangi qilavera-san? Nega bunaqasan?

– Sen urushdan qochib kelganimni ko'rib ham mendan yuz o'girmading. Haydar yubormading, birovga sotmading, omon qolishimga sharoit yaratding, agar sen bo'lmasang, ehtimol men tamom bo'larmidim. Sen o'z zimmanga qanday og'irlikni olayotganining bilarding, shunga qaramay, shu yukni olding, qo'rqmading. Endi

oila barbod bo‘lgan bir paytda... Qanaqa oila bo‘ldi endi?.. Shunaqa bo‘ladi, deb kim o‘ylabdi deysan... Sen unda zor, men bunda zor, kelib-kelib shunaqa paytda bir marta erkakligimni ko‘rsatibman umrimda. Erkakman deb bekorga bosh ko‘tarib yurmagan ekanman. Nima ham derdim? Ilgari faqat u yoqdagi, Angaraning o‘ng tomonidagi odamlarni o‘ylarding, hozir bo‘lsa ikki tomonni: odamlar bilan meni o‘ylaysan. Ularni birlashtirib bo‘lmaydi: buning uchun Angara qurib qolishi kerak. Albatta, menga gapisish oson, chunki men qornimni qappaytirib yurmayman, ta’na-yu dashnom eshitmayman. Men bu yerda vaqt-soatim yetguncha yashirinib yuraman.

– Bas qil, Andrey! Bo‘ldi, unaqa dema.

Andrey shashtidan tushdi-da, katga o‘tirdi va nafasini rostlab, chalqancha cho‘zildi. Ammo u ichidagi gapini aytib tugatmagan-di, shuning uchun birpas jim yotdi-da, qolgan-qutgan alami gij-gijlaganidan yana gap boshladi, ammo bu safar eng muhimi aytilgani bilib, ancha xotirjam, oson gapirdi.

– Sen odamlarning gap-so‘zidan qo‘rqtyapsan... Ular bilan nima ishing bor? Odamlar itday gap: bitta-yarimta sal mundoq qadam qo‘ysa, bo‘ldi, darrov akillaydi. Akillab-akillab qolaveradi – bitta-yarimtasi biron ish qaytararmikan, deb yana poyleydi. Turgan gap, seni chaynashadi – chaynamay ilojlari yo‘q. Gapirib-gapirib xumordan chiqadilar. Ovqat yeishmasa ham, sening qorningni g‘iybat qiladilar. Qo‘yaver, g‘iybat qilsa qilaversinlar, tillarining qichig‘ini bosishadi, til qichig‘i ham odamlarga tekkan dard, albatta, bitta-yarimtani g‘iybat qilmay turolmaydilar. Sen esa, indama, bilib ishingni qilaver, ularning jig‘iga tegma – shunda tezroq tiyilib qolishadi. Keyin yana bitta-yarimtasiga yopishshadi, shundan keyin sen yana odamlarga aralashib ketasan. Nima, birinchi marta shunaqa bo‘lishimi? O‘sha o‘zları g‘iybat kilgan narsalari uchun keyin seni maqtay boshlaydilar. Odamlar... Agar shunday ko‘rgulik o‘zlarining boshiga tushsa, kim biladi, o‘zlarini qanday tutisharkin. Odamlarga emas, vijdoningga quloq sol. Nima bo‘lganini o‘zing bilasan. Sen hech kimning oldida gunohkor emassan. Bolani allakimdan orttirganing yo‘q, shu bilan o‘zingni himoya qil, shu bilan o‘zingni qutqar, shu bilan ovut. Albatta, senga oson bo‘lmaydi. Hozir ham osonmas senga.

– Noliyotganim yo‘q-ku.

– Nolimasang ham ko‘rinib turibdi.

Ular darcha oynasining tisir-tisir qilishi tinib qolganini, ichkari avval bir yorishib, keyin sekin-asta qorong‘ilik bosib kelayotganini payqamay qolishdi. Shamol o‘tib ketgandi, ammo ahyon-ahyonda qayerdadir bir guvillab, hammayoqni to‘zitardi-da, goh u, goh bu devorga urilib, tinib qolardi. O‘tini yonib bo‘lgan pechka ham qoraya boshlagandi.

Andrey o‘rnidan turdi, issiq chiqib ketmasin, deb qopqog‘i bilan pechkani berkitib qo‘ydi-da, darchadan tashqariga qaradi. Tog‘ tomongan ham ancha-muncha qor uyulib, darchaga yetay deb qolgan, nam qor daraxtlarning tanalariga yopishgan edi, shamol xiralashib borayotgan pastgina osmonda tarqalgan qora bulut parchalarini hamon haydab yurardi.

Nastena jimgina Andreyni kuzatardi. Andrey qaytib kelib, yana uning yoniga yotdi. Hech nima o‘zgargani yo‘q, ammo uning zaruratsiz o‘rnidan turishi har ikkisiga ham mana, oradan shuncha gap o‘tdi, endi yana cho‘zishning hojati yo‘q, degan ma’noni bildirar edi. Darhaqiqat, kutib turish kerak. Tag‘in: qani endi mening ham bolam bo‘lsa, qani endi tobi qochmasa edi... deb sannab yig‘layotgan xotinga o‘xshab qolishmasin. Kerakli gaplarning barini Andrey aytdi, Nastena eshitdi – shu kifoya. Sabr qilib turish kerak – yaqinda hammasi uzil-kesil ma’lum bo‘ladi.

Nastena yengil tortib nafas oldi va uvishgan badanini yozish uchun ohista kerishib qo‘ydi. U hamisha o‘zi shunaqa: sal hayajonlansa, ko‘ngli g‘ash bo‘lsa, nazarida, salginaga zo‘riqib ketadigan dardi sirtiga tepadi-yu, izti-robdan a’zoyi badan sirqiray boshlaydi va hadeganda tarqab ketavermaydi.

Nastena hamon erim bilmay, esidan ko‘tarilib, bir-birimizga indamay, o‘zimizcha qilgan, shu boisdan ham omonat ahdu paymonimizni bir pul qilib qo‘ymasmikin, deb cho‘chib, uning og‘zini poylardi.

Andrey sal qimirlab qo‘ygach yana gap boshladi.

– Bundan ikki yilcha oldin, esimda, seni tush ko‘ruvdim... – dedi-yu xayollarini jamlamoqchi bo‘lgandek bir pas jim qoldi. Nastena sergak tortib uning og‘ziga tikildi. – Hammasi qandoq bo‘lsa, shundoqqina ko‘z o‘ngimda turibdi – qayerda turganimiz ham, men bilan birga jang qilgan odamlar ham, shundoqqina yonimda yotganlari ham – shularni tush ko‘ribman. Men yotgan emishman, nariroqdagi qayinlar orasidan bir qiz menga qarab kelayotganmish. Butunlay

notanish emish. Ko‘ylagi to‘zigan, o‘zi cho‘pday ozg‘in, oyoq ylang – sirayam senga o‘xshamaydi, men bo‘lsam, negadir buni sen dermishman.

– O‘sha men edim-da, axir, – dedi Nastena taajjublanib. – Senga tegmasimdan oldin, unda sen meni tanimasding ham. Sochlari ham o‘g‘il bolalarnikiga o‘xshab olingenmidi?

– Sochlari ham olingandi.

– Men bo‘lganman.

– Nega sen bo‘larkansan? Men seni bu ahvolda sira ko‘rmagan bo‘lsam, qanaqasiga menga shunaqa ko‘ringan?

– Unisini bilmayman. Balki o‘zim gapirib bergandirman. Ammo o‘sha men bo‘lganman, men.

– Men ham aptyapman-ku axir, bu negadir sen eding deb. O‘sha qiz oldimga keldi-da: «Nega bu yerda ivirsib qolding? Men u yoqda bolalar bilan qiynalib ketyapman, sening bo‘lsa parvoyinggayam kelmaydi», dedi. Men undan: «Qanaqa bolalar, ular qayerdan keldi? Nimalar deyapsan o‘zi?» dedim. Qiz ketdi.

– Ketdimi?

– Ketdi-yu, ammo yana paydo bo‘ldi. Yana xuddi birinchi martadagiday soddalik bilan: bolalar bilan qiynalib ketdim, dermish... Men unga po‘pisa qilib: «Jo‘na, menga hadeb osilaverma, seni hech qanaqa bolalaring yo‘q», dermishman. Qiz bo‘lsa bir narsani tushunganday xayol surib turdi-da, yana g‘oyib bo‘ldi. Tush ham g‘alati bo‘ladi-da: go‘yo tushimda ham uxlamoqchi emishman-u, uxlolmasmishman. Ko‘zimni yumdim deguncha o‘sha qayinlar ortidan haligi qiz chiqib kelayotganini ko‘rarmishman... bu holat juda ko‘p takrorlandi. O‘sha kech qiz rosa tinkamni quritdi-da.

Nogahon Nastenaning bir nima lop etib esiga keldi, esiga keldi-yu, tez, shosha-pisha so‘radi:

– Oxiri nima bo‘ldi? Oxirida sen unga nima deding? Oxirgi marta?

– Esimda yo‘q. O‘sha gaplarni aytgan bo‘lsam kerak-da. Men nimayam deyishim mumkin edi?

– Rahm qilsang, yo‘q demasang bo‘lardi, – deb javob berdi Nastena shu ondayoq nafasi ichiga tushib.

– Nega endi?

– Nega bo‘lardi? Shuncha iltijo qilibdi-ku. – Nastena bir nuqtaga tikilgancha, go‘yo aytayotganlari ko‘z o‘ngidan kechayotgandek davom etdi: – O‘sanda oldilaringda to‘plar ham turgandi. Men chiqib borgan pastlikda esa, mashinalar bor edi. Katta-katta, ko‘m-ko‘k. Sen terlik ustida uqlab yotgan eding, shineling ustidan brezent yopib olgan eding. Sen chetda yotganding, yoningda esa, uchtami-to‘rttami quroldoshing yotuvdi. Men o‘sha sen yotgan tomonidan boruvdim...

Andrey tirsagiga tayanib ko‘tarildi-da, unga tikilib so‘radi:

– Buni sen qayoqdan bilasan?

– Men ham shunaqa tush ko‘ruvdim. Ammo men o‘zimcha tush ko‘rganman. Tavba, uni qara-ya?! – Nastena taajjublanib jimb qoldi va ko‘nglim buni ochiq aytaver yo aytma, deydimi-yo‘qmi deb qulq soldi. Ikkovining tushi bir xil, Nastena shu yoshga kirib, bunaqasini eshitmagandi. Ikkovining tushi – bir xil, bu behuda emas, bunda bir xikmat bor. Uning ta’biri nima deb bosh qotirmasa ham bo‘ladi, hammasi shundoqqina mana man deb turibdi. Birgina imodan na-fasi ichiga tushgudek bo‘lib turgan Nastena ehtiyotkorlik bilan gap boshladi: – Menga bir kampir aql o‘rgatgandi. Kimligini esa eslolmayapan. O‘sha kampir eringning oldiga borib, bolalarni gapirgin, dedi. Bordi-yu, bo‘yniga olsa, rozi bo‘lsa, niyatlaringga yetasanlar, agar yo‘q desa, tirnoqqa zor bo‘lib o‘tasanlar, dedi. Bordim. Sen sira unamading. Men ketib, qayta-qayta oldingga bordim. Sen bo‘lsang xech nimaga tushunmasdan nuqul yo‘q deysan. Men shama qilay deyman-u, gapirolmayman. Sen bo‘lsang jahling chiqib meni haydaganing-haydagan. Ammo oxirgi marta borganim nima bilan tamom bo‘lganini eslolmayman. Esimda, bu safar avvalgidek qizligimcha emas, senga ta’sir qilish uchun xotining bo‘lib borgandim. Yoding-dami?

– Yodimda.

– Xo‘sh, keyin menga nima deganding?

– Bilmayman. Bunisi esimda yo‘q.

– Axir bir nima deyishing kerak edi-ku?

– Shunaqa shekilli.

– Mana, ko‘rdingmi! Eng muhimini bilolmayapmiz. – Nastena o‘zini tiyib turolmay gina qildi. – Nima, xo‘p desang yoki juda bo‘lmasa indamay qo‘ya qolsang, bir nima bo‘larmiding? Hozir hammasi boshqacha bo‘lardi.

– Bir kami har qanaqa tushga ishonish qoluvdi o‘zi, – ikkilanib e’tiroz bildirdi Andrey.

– Ko‘rib turibsan-ku, xosityali tush bu. Axir ikki yoqda bo‘lsak. Tag‘in bir kechada ikkovimiz ham tush ko‘rsak-a, buning ustiga bir xil, tavba. Ko‘nglim senga ketgan bo‘lsa kerak-da. Tushimizning ayanligi ham shundan. – Nastena hamon nimadandir umidvor bo‘lib, so‘rab-surishtiraverdi: – O‘shandan keyin bir marta ham meni bola bilan ko‘rmadingmi? Yaxshilab eslab ko‘r.

– Yo‘q, bir marta ham.

– Balki esingdan chiqqandir? Manavi kasofat urush... ko‘p narsani xotiradan ko‘taradi. Urush hammasini barbod qildi.

– Yo‘q, bunaqa narsani esdan chiqarmasdim-ov. Mana, sening borganing esimda turibdi-ku, axir. Ikki yildan beri yodimda.

– Baribir oxirini unutibsan-ku? Endi qayoqdan eslaysan uni?

– Hech qanaqa oxiri yo‘q edi, shekilli. Parvardigor peshonasi-dagini ko‘rsin degan-da. Tushda emas, o‘ngimizda ko‘rsatmoqchi bo‘lgan-da. Mana, ko‘rsatdi, ko‘rsatganiga shukur qilasanmi-yo‘qmi, ixtiyorung.

– Nimagadir sen taqdirni ko‘p gapiradigan bo‘lib qolding. Ilgari biron marta bo‘lsayam tilga olganiningi bilmayman.

– Boshingga tushsa gapirkansan... – Andrey istehzoli kulib, o‘z fikrini ma’qullayotganday boshini qimirlatib qo‘ydi. – Sen ham kelib-kelib shuni ta’na qilyapsanmi? Ko‘rgilik shunday oldinda, oyog‘ing ostida turganida gapirasan-a! Endi bu ko‘rgilik soyaday ergashib yuradi. Endi qochib ham, tonib ham qutulib bo‘psan. Nima ko‘yga solsa, haq deb turaverasan.

– Ta’na qilish xayolimga ham kelgani yo‘q. Og‘zimdan chiqib ketdi...

Nastena Andrey bosh irg‘ab ko‘rsatgan oyoqlariga qaradi.

– Endi shu ko‘rgilik seni menga qo‘l-oyoqlaringni yanada kuchli-roq bog‘lab berdi. – Andreyning cho‘chiganini ham, achinganini ham bilib bo‘lmasdi. – Mundoq qarab tursam, sen bir balo qilib undan qutulmoqchiga o‘xshaysan.

– Qutulib nima qilaman? Men sen bilanman. Endi nima bo‘lsak, birga bo‘lamiz.

Harqalay Nastena ancha yengil tortdi. Ko'ngli ancha taskin topganday bo'ldi. Yelkasidagi og'irlik tushmadi – yo'q, bu og'irlik uni battaroq ezayotgandi, bu yukdan qutulishni o'ylashning hojati ham yo'q edi, ammo ba'zi narsalar ravshanlashgandi. U ilgari o'zini adashib, tinkasi qurib mo'ljalidan ancha olislab, undan ham nariga, to'pkonning tagiga borib qolgandek his etardi, hozir esa u qayerga borib qolganini, bu yerdan qanday yo'l topib, qutulib ketishini bila-digandek edi. Ammo peshonasidagini boshdan kechirib, qutulib ketishga kuchi yetadimi-yo'qmi, bu boshqa gap, lekin qayoqqa borishi, qaysi yo'ldan yurishi endi unga ma'lum edi.

Bu narsa Nastena uchun tipirchilamaslik, boriga shukur qilib, taqdirga tan berish kerak, degan gap edi. E, endi nima bo'lsa bo'lar. U hali uzil-kesil shunday qarorga kelmagandi, ammo u endi undan qochib qutulib bo'lmasligini aniq tushunardi. Ko'rinish turibdi, boshiga tushgan musibatlarga oxirigacha chidashga to'g'ri keladi. Bahridan o'tolmaydi, kechikdi. Uning o'zi ham bahridan o'tmoqchi emasdi, bu esa Nastena uchun o'zidan ham kechish degan gap edi, u Andreyga ham gaplari yaramga malham bo'larmikin, degan umidda e'tiroz bildira boshlagandi. Bu malhamni ko'proq qayerdan qidirsin? U Andreyni umidvor qilib qo'ydi, endi shu umidning ilinjida yuradi, bu endi Andreyga xuddi suv bilan havoday bir gap edi. Andreyning nima deyishini oldindan bilib olish qiyin emasdi.

Modomiki, jilov qo'ldan chiqdimi, qo'yavering, ot charchab, o'zi to'xtaguncha chopib ketaversin. To'g'ri-da, endi u qanaqa ham karomat ko'rsatardi. Axir, ot aylanib qozig'ini topadi degan gap bor-ku.

Ha, darhaqiqat, keyin, vaqt kelganida ot aylanib qozig'ini topadi.

Har holda biroz tashvishi arib, ko'ngli yorishdi-ku. Tavakkal, bo'lganicha bo'lar. Nastena ko'p ishlar qilib qo'ygan ekan, ko'p narsadan qo'rqib-pisib yurishi kerak ekan, shuning uchun, yaxshisi, hech nimadan tap tortmay, ro'yi rost yuraverishi kerak. Peshonasida borligi uchunmi yoki xudoning shunaqa suygan bandasi ekanmi, Nastena o'zini go'yo tangrining nazari tushganday, odamlar ichida ajralib turganday his qilar edi. Bo'lmasa birdaniga boshiga shuncha kulfat qayoqdan qarab turuvdi. Buning uchun ko'rinish turish kerak ekan. Albatta, hozir unga qiyin, ammo ho'l o'tinday tutab, umrini

bekor o'tkazgani, qisqa, hech qayerga olib bormaydigan, hech qanday murodi hosil bo'lmaydigan yo'ldan borib-kelavergani yaxshimi? Unga rahm-shafqat qilishsa kerak, lozim bo'lganda yordam ham berishar, keyin, nariroqqa borib, qarabsizki chekkan mashaqqatlari evaziga bardor-bardor qilishsa ham ajab emas – jon chekkandan keyin mukofotini ham olasan-da. Bordi-yu, ro'shnolik ko'rish peshonasiga yozilgan bo'lsa, tosh kelsa kemiradi, suv kelsa simiradi, ammo umrini behuda o'tkazib, hech nimaning uddasidan chiqolmaydigan xotin bo'lib yurishga sira toqati yo'q – undan ko'ra o'lgani yaxshi.

Nastena mushtdayligidanoq boshqa odamlar qatori baxtli bo'lishni orzu qilar, yil sayin bu baxt haqidagi tasavvuri o'zgarib boyib borardi. Nastenaning qizlik vaqtida baxt qushi ham yengil, erkin qanot qoqib, tepasida aylanib yurardi, istagan vaqtida qaysi tomondan bo'lsa ham uchib kelardi, baxt qushi uchun to'rt tomoni ochiq edi. U shirin xayollarga berilardi: go'yo o'zi o'rtada turibdiyu, baxt qushi o'ynab, goh chapdan, goh o'ngdan uchib keladi, havasini keltirib, qanotlari bilan bir teginib, qitiqlab o'tadi, ketidan yurishga chorlaydi, yana kelishga va'da berib, uchib ketadi. Bu baxt shunchalik mo'l-ko'l bo'lib, unda shunchalik joziba, nash'asi tatib ko'rilmagan shodlik, ishq-muhabbat, huzur-halovat jilva qilib turardiki, u shu ondayoq o'zini bu ummonga otib, cho'milavergisi, o'z baxtiga o'zi zomin bo'lmasligi uchun oqbatini o'ylamay, har kuni, har soatda o'ynab-kulavergisi kelardi. Ayni paytda qandaydir yoqimli, yurakni orziqtiruvchi bir orzu tufayli visol onini paysalga solishni istardi, chunki bu uchrashuv baribir muqarrardek tuyulardi unga. Nastena erga tegayotganida ham nari-berisini o'ylab o'tirmadi, baxtli bo'lish uchun barcha yo'llar ichidan faqat bittasini tanlab oldi-da, shu yo'lga qadam bosdi, ammo u hozircha juda olis, bepoyon yo'lni tanlagan bo'lib, bu yo'lda yaxshilik bilan yomonlikka to'qnashmay o'tib ketadigan joylari ham bor edi. Turmush unga saranjom-sarishta, mustahkam, ammo sertashvish, ish kunlari tez o'tib, bayramlar ham gashtli bo'ladiganday, eri bilan zavq-shavqqa to'lib, yayrab yuradi-ganday tuyulardi. Albatta, ba'zan u biron nimadan ko'ngli to'lmay, ta'bi tirriq bo'lishi ham mumkin, axir hamma vaqt yo'l birday ravn bo'lmaydi-ku, ammo keyin hammasini, albatta, uddalab ketadi va eri bilan apoq-chapoq bo'lib yashayveradi. Eri uni qanchalik suyishi, mehribonlik qilishidan qat'i nazar, Nastena avvalboshdanoq

erini qattiqroq sevishni, uning atrofida parvona bo‘lishini orzu qilar-di – shuning uchun ham u xotin-da, birgalikda kechadigan hayotda umr yo‘ldoshining og‘irini yengil qilishi, joniga malham bo‘lishi kerak, shuning uchun ham unga bir ajoyib kuch-g‘ayrat ato etilganki, uning bu kuch-g‘ayratidan qanchalik ko‘p foydalanilsa, u shunchalik g‘aroyib, nazokatli, go‘zal bo‘ladi. Nastena ana shunday xotin bo‘lishiga ishonardi, va shu xususda u chamasi, yanglishmadi. Baxt esa... dastlabki paytlarda uzoqdan imlab, umidvor qilib ko‘rinib turgan baxt keyin tirnoqqa zor qilib, sarob singari qayoqqadir chekindi, u baxtini o‘sha yoqlardan topishi kerak edi, ammo ular topishib olishi mumkin bo‘lgan yo‘l endi avvalgisiga qaraganda ikki barobar tor bo‘lib, garchi hali ham ravshan ko‘rinib turgan bo‘lsa-da, so‘qmoqqa aylanib qolgan edi.

Nastena sira orqasiga qayrilib boqmas, o‘tgan ishga achinmas, qachonlardir, qayerdadir bu yoqqa emas, u yoqqa burilish kerak, deb o‘ylamas edi. Turmush kiyim emaski, uni o‘n martalab kiyib ko‘raversang. Nimaiki bo‘lsa – hammasi seniki, uning nimasidan tonasan, eng yomoni bo‘lsa ham mayli, tonish yaramaydi. Andrey bilan Nastenaning boshiga og‘ir kunlar tushdi, ammo u shu kunlarga noshukurchilik qilishni hatto xayoliga ham keltirmadi; bundan bu yog‘ini eplab-seplab yuraverdi-yu, ammo hoziri-yu huzuri deb boshqa bir erkak bilan birga bo‘lish tushiga ham kirmadi. Mayli, boshqalar bilganini qilaversin, ammo u bitta yo‘lni tutdimi – tamom, shu yo‘ldan ketaveradi, o‘zini to‘g‘ri kelgan yoqqa uravermaydi. U o‘z baxti kulib boqishini istaydi, boshqalar baxtiga ko‘z olaytirmaydi.

Aytishlaricha, hamma ham toleli bo‘lavermasmish, u kimgadir kulib boqarmish-u kimgadir yo‘qmish. Ammo bu yorug‘ olamda Nastena o‘zini tanho deb bilganidan o‘rnimni bosa oladigan hech kim yo‘q deb o‘ylardi. Modomiki, shunday ekan, nega unga tole ku-lib qaramasligi kerak?

Baxtni shunday qilib ulashadigan kim ekan? U baxtli bo‘lib yashash uchun tug‘ilgan bo‘lsa-yu, bu baxt unga nasib etmaydigan bo‘lsa, unda nega unga jon ato etishdi? Uning butun hayoti o‘ziga bog‘liq, uning yuragi, g‘ayrat-sadoqati, vujudiga bog‘liq, boshqa ikir-chikirlar, garchi shundoqqina yonida turgan bo‘lsa ham, ammo sal narida, bir chetda, bu ikir-chikirlar u borligi uchun xam mavjud, modomiki shunday ekan, unga atalgan baxt qushi nega uni

ataylab chetlab o'tarkan-u, boshqa bir odam boshiga qo'narkan? Yo'q, insonga bunday muomala qilish yaramaydi. Qani endi inson ko'rmaganini ko'rish uchun ikkinchi, uchinchi marta tug'ilib, yasha-sa, zo'r bo'lardi-ya, ammo qayta tug'ilib ham, ko'rmaganni ko'rib ham bo'lmaydi-da. Ko'radiganingni tirikligingda ko'rib qol, keyin ko'raman, deb paysalga solma – armonda qolasan.

Urush Nastenaning baxtiga uzoq vaqt g'ov bo'lib turdi, ammo u urush yillarda ham bir kunmas-bir kun baxti kulib qolishiga ishonardi. Urush ham tugaydi. Andrey ham keladi va shu yillar ichida o'lda-jo'lda bo'lib qolgan barcha narsa o'rnidan qo'zg'alib, yurishib ketadi. Nastena o'z hayotini boshqacha tasavvur eta olmasdi ham. Ammo Andrey bemavrid, g'alabadan oldinroq kelib qoldi-yu, hammasini chalkashtirib, chigallashtirib, izidan chiqarib yubordi – Nastena bunaqa bo'lishini xayoligayam keltirmagandi. Endi baxtni emas, boshqa narsani o'ylash kerak edi. Baxt esa, cho'chib, qayoqqadir uchib ketdi, kelar yo'li ham ko'rinxmay, hech qanday umid qolmagan-ga o'xshardi.

Kundan kun battar.

Nahotki umrining oxirigacha baxtsiz o'tsa? Nastena hech qachon bunday dahshatli ahvolga tushmagan edi. Bundan buyog'i qop-qorong'i zimiston, hech qanday ro'shnolik yo'q. Darhaqiqat, kun o'tgan sayin battaroq bo'laveradi, ahvoli bugun yomon bo'lsa, ertaga yaxshi bo'lib qolmaydi. Ammo hozir uning butun o'y-xayolida batтароq deb yurgани – bola-ku, axir, shunga zor bo'lib armonda edi-ku. Nastena orzu qilgan baxt, nazarida, shu bola edi. Axir Nastena shundoqina baxtining yonida turibdi, degan gap emasmi? Faqat bu baxt unga orqa o'girib turibdi, xolos. Yo u baxtga orqa o'girib turibdi. Nima farqi bor? Ishqilib, o'shangang yetishsa, behuda chopib qolmasa bo'lgani.

Ammo hozir unga bu baxtdan qanday naf bor?

Yo'q, nimadir yuz berishi va uning hayotini izga solib yuborishi kerak, yo'qsa jinni bo'lib qolish ham hech gap emas. Shunday voqeа yuz berdi ham: uning bo'yida bo'ldi. Demak, taqdirda bor ekan – kun ko'radi. Bolasi bo'lgandan keyin unga yana nima kerak? Bola esa ochib ketmaydi, tug'iladi, u qimirlayapti, oy-kuni yaqinlashyapti.

Endi Nastena nima qilishini va nima qilmasligini yaxshi bilardi. O'z holiga qo'yib berish, vassalom. Yetisholmagan, erisholmagan-i-

dan azob-uqubat chekkan Nastenaning o‘z qonuniy baxti uni qayer-dadir – yaqindami, olisdami kutib turishi kerak-ku, axir.

Mana, o‘zi cho‘zilib yotibdi, bu vaqtida esa jilovdan chiqqan ot chopib borgan sari olislab ketardi.

Ular aytilgan eng muhim, nozik va mo‘rt narsani arzimas muloyim gaplar bilan o‘rab-chirmashayotganday, og‘izlariiga kelgani-ni qaytarmay gaplashib yotishardi. Yotganingda shunaqa gaplardan gaplashish oson: ko‘zingni yumib olasan-da, yuziga aytishga botina olmagan gapingni aytaverasan, uyalmay-netmay jimgina yotsang ham, o‘zingni tiysang ham, o‘z o‘y-xayollaringga berilsang ham bo‘laveradi, keyin yana gaping ulanib ketaveradi.

Qosh qoraygan bo‘lsa-da, chiroq yoqishmadi, garchi oy ko‘rinmasa ham, yoqqan qorning sokin, sovuq yorug‘ligi darchadan tushib turardi. Andrey bilan Nastenaning yuzi bu yorug‘likda oqarib ko‘rinardi, gavdalari lattaday bo‘shashib, jonsizday, boshqa bir kuch tufayli qimirlab qo‘yayotganday tuyulardi. Ovozları ham olis-dan birovlanikiga o‘xshab eshitilardi. Hatto Andrey ham, Nastena ham ushbu dilgir va xilvat soatda jism-u jonlari o‘zlariniki emasday, begonaday his qilmoqda edi – shu qadar yurakni bezillatadigan jim-jitlik hukmron ediki, atrofda hech nima qilt etmay turgan, xayrlashuv oldidan hamma narsani kechirish mumkin bo‘lgan tafsilotga boy bu kun nihoyasiga yetayotgandi. Ular ana shu jimjitlik ta’siriga berilib, ohista, deyarli shivirlashib gaplashar edilar. Suhbat ham biror xusus-da bormay, erkin, yengil-yelpi bo‘lib, bir mavzuda ko‘proq, batatsil so‘zlansa, boshqasida kalta-ko‘toh, lo‘nda-lo‘nda gapirilar, bamisolı xohlagan yerida turib qoladigan va yana u yoq-bu yoqqa borib kela-digan soat kapgiriga o‘xshar edi. Bir mahal Andrey tomdan tarasha tushganday:

– Mana sen, Nastena, mendan nima istagan bo‘larding? – deb so‘rab goldi.

– Voy, bu nima deganing? – dedi u tushunmay.

– Mana men, sendan nima istayotganimni bilaman. Buni o‘zing ham bilasan. Bugun biz miriqib gaplashdik, shuning uchun hammasini boshidan qaytarib o‘tirmoqchi emasman. Ammo hali anavindan tashqari meni deb yana ko‘p ish qilishing kerak. Menga non ham, kiyim-kechak ham keltirib beryapsan. Bu yerdagi narsalarning ham-masi sening qo‘lingdan o‘tgan. Men seni zuludek so‘raversam-u,

so‘raversam-u evaziga hech nima qaytarmasam, uyat-da axir. Sal bo‘lsayam vijdonim bor mening. Men butunlay seni qaramog‘ing-daman, nonxo‘r bo‘lgandayam o‘ntaning o‘rnini bosadigan nonxo‘rman. O‘nta nima degan gap, undan ham ko‘p! Sen ana shu nonxo‘r tufayli odamlardan qo‘rqib yurishing kerak. Men qo‘rqsam arziydi. Negaki, buning sababi bor, ammo sen-chi? Xo‘sh, sen nima uchun bu yorug‘ olamdan ikki qo‘ling tepangda ketishing kerak? Bilaman, sen menga achinding. Mana, bugun ham shuncha gaplarni gaplashdik, shunga ham achinasan. Sen o‘zi asli shunaqasan. Mana ko‘rasan, hali hech ish qilmaysan. Men senga hech nima demayman–yo‘q, men seni bilaman. Bordi-yu, o‘zing istaganingda ham, shunday qilolmaysan. Qo‘lingdan kelmaydi, Nastena, shu gaplarim esingda bo‘lsin. Men hamma ishni sening gardaningga ag‘daryapman-u, ammo o‘zim, nima bo‘lgandayam, bir chetga chiqib tomosha qilib turibman, bir o‘zing og‘ir yuk ostida ezilib yotishingga to‘g‘ri kel-yapti. Boya sen to‘g‘ri gapirding. Xo‘sh, qo‘limdan nima kelardi? Nima kelardi, Nastena? O‘zing o‘ylab ko‘r. Jon-jon deb senga yordam berardim-u, ammo ilojim qancha? Yordam bergim keladi, men tayyoriga ayyor bo‘lishga o‘rganmaganman, jon-tanim bilai biron ish qilay deyman-u, ammo ilojim yo‘q. Xo‘sh, shunday bo‘lgach, nima qilishim kerak?

– Nima qilishim kerak?! Hech nima kerak emas.

– Mana, ko‘rdingmi, hech nima kerak emas deyapsan, – deb ilib ketdi u, go‘yo ayni javobni kutgandek. – Mana, ko‘rdingmi, menga kerag-u, senga kerak emas. Mana shu ahvolga tushib qoldim: mendan biror nafi tegar, deb kutishning hojati yo‘q. Buni o‘zim ham bilardim, ammo ba’zi bir narsalardan umid qiluvdim. Har holda biron nimani iltimos qilib qolar, deb ham o‘yladim. Yo‘q, bunday bo‘lmadi. Loaqal biron-bir arzimagan narsani so‘rar-ku, dedim, uni ham so‘ramading. Demak, endi faqat ziyonim tegar ekan, men bilan umring azobda o‘tarkan-da. Turgan gap, endi men tamom bo‘lgan odamman, hamma uchun ham tamom bo‘lganman. Men buni bilib shu yo‘lga qadam qo‘ydim. To‘satdan, balki sen uchun hali tamom bo‘limgandirman, deya o‘ylab qoldim. Shunda zora rahm-shafqat qilar, ko‘nglida men uchun loaqal zarradek joy topilar deb keldim.

– Andrey qalbi qa‘ridan otilib chiqib, a‘zoyi badanini o‘rtayotgan dard-alamga qaramay, shoshilmasdan, xotirjam gapirayotgan edi, na-

zarida, u o‘zini tahqirlasa, bu alamga chidasasi, lazzatlanayotganday edi. – Bundan chiqdi, sen menga faqat achinar ekansasi. Albatta, bu ham joniimga ora kiradi, lekin faqat achinish bilan uzoq jon saqlab bo‘lmaydi – bu rishta juda ham nozik, salga chirt etib uzilib ketishi mumkin.

– Nimalar deyapsan, Andrey?! Nima bo‘ldi senga?! – Nastena qo‘rqib ketib, uning gapini bo‘ldi. – Men seni shunchaki so‘radi-qo‘ydi-da, debman, shuning uchun men ham shunchaki ayt-dim, tavba, olib qochishingni qara-ya. Shunaqayam bo‘larkanmi odam? Nega bunaqasan-a? Hech gapdan hech gap yo‘q, rosa olib qochding-da, mening ham miyamni g‘ovlatib yubording. Qotmagan boshimni qotirib nima qilasan, keragi yo‘q. Hali bir kuningga yarab qolarman. Agar istasang, men senga xozir ham ming xil ish topib beraman.

– Masalan, qanaqa?

– Avvaliga loaqal sal tilingni tiysang. Aytsang-aytmasang hademay azobimni tortib qolaman, buning ustiga yana sen ham ishonmasang, unda holim nima kechadi?

– Turgan gapki, agar men bo‘lmasam, senga ancha yaxshi bo‘lardi.

– Bo‘lmasa-chi! Albatta yaxshi bo‘lardi, – dedi Nastena kesatib. – Agar o‘zim bo‘lmasam, undan ham yaxshi bo‘lardi. Hech niman ni bilmasdim, ko‘rmasdim, eshitmasdim; hech nimaga kuymasdim, azob ham chekmasdim – oh-oh, shundoq yaxshi, tinch bo‘lardiki! G‘alatisan-a, agar men manavinaqa – qornim do‘mpayib tursa, nima ham qilaman? Nega tag‘in sen men bo‘lmasam, senga yaxshi bo‘lardi deysan? Bunaqa gapni eshitishni ham istamayman, bildingmi? Sen meni o‘zingdan ajratmay qo‘ya qol, keragi yo‘q. – Nastena nafasini rostlab olib, davom etdi: – Endi nima bo‘lsa, bиргамиз. Sen u yoqda gunoh qilib kelibsizmi, endi men ham sen bilan birga gunohkorman. Birga javob beramiz. Bordi-yu, men bo‘lmasam balki bu gaplar bo‘lmasmidi. Shuning uchun sen bor aybni faqat o‘zingga olaverma. Men sen bilan birga bo‘ldim, nahotki shuni ko‘rmagan bo‘lsang? Sen qayerda bo‘lsang, men ham o‘sha yerdaman. Sen esa bu yerda men bilan birga bo‘lding. Ikkovimiz ham bir xil tush ko‘ribmiz, bu bejiz ekanmi? Oh, Andrey, bu bejiz emas. Sen istaysanmi istamaysanmi, biz qayerda bo‘lsak ham birga bo‘lganmiz, yarmimiz bu yerda, yar-

mimiz u yoqda. Nima, sen qahramon bo‘lib qaytib kelsang, buning menga aloqasi yo‘qmidi, seningcha shundaymidi? Nima, sen bilan birga xursand bo‘lishga haqqim yo‘qmidi? E, qo‘ysang-chi? Mening erim deb boshim osmonga yetardi. Mana, qaranglar, xotinlar, havaslarining kelsin, men mana shunaqaman, mana, kimligimni ko‘rsatib qo‘ydim, deb qishloqda kerilib yurardim!

– E, sen buni eslamasding ham, farqiga ham bormasding...

– Nega endi? Nega farqiga bormas ekanman? Boshingga shunday kun tushibdimi, demak, men seni yaxshi ehtiyot qilolmabman. Modomiki chidolmabsanmi, demak, yo sen menga ishonmagansan, yo shuncha girdikapalak bo‘lganim senga kamlik qilibdi, yo yana biron nima yetishmagan. Sen meni oppoq dema, baribir o‘z aybimni o‘zim ko‘rib turibman. Masalan, deylik, bordi-yu, men seni kutmasdan bitta-yarimtaga tegsam-u hammasini tashlab, o‘sha bilan biron yoqlarga hayyo-huy deb ketvorsam, unda bir meni aybdor deb hisoblarmiding?

– Bo‘lmasa kimni ayblardim?

– Yo‘q, o‘shanda ham sen bu ishga aralashgan bo‘lasan. Nega endi sen bir chekkada turaverarkansan? Shunday qilishimga sen yordamlashgan bo‘lasan. Bu ish ancha oldin pishib qolgan bo‘lishi mumkin, qachon pishirib qo‘yanimizni o‘zimiz unutib yuborgandirmiz ham, ammo birga pishirgan bo‘lamiz, bir o‘zim bunaqa ishga botina olmasdim. Ey xudoym-yey, nimalar deyapman-a. Men zinhor-bazinhor bunaqa qilolmasdim, shuning uchun bu ayb senga, bu ayb menga, deb bo‘lib o‘tirishning hojati yo‘q, demoqchiman. Sen bilan men birga yashaymiz, deb bir yostiqqa bosh qo‘yanmiz. To‘rt muchang sog‘ bo‘lsa, birga turish oson, bu xuddi tushga o‘xshaydi, o‘yin-kulgingni qilib o‘taverasan. Boshga yomon kun tushganda birga bo‘lish kerak, ana shu maqsadda odamlar bir yostiqqa bosh qo‘yishadi. Men senga tug‘ib bermadim, ammo sen meni haydab yubormading-ku. Borimga ko‘nib yurding-ku, yaxshirog‘ini qidirib qolmading-ku. Xo‘s, qani ayt-chi, sendan ajrab ketishimga kim qo‘yib qo‘yarkan meni? Qaytanga adoyi tamom bo‘lardim, o‘zimni o‘zim yeb bitirardim.

– Yomon bilan yomonning farqi bor, Nastena. Men jinoyatchiman, qonunning o‘zi menga qarshi. Nima, sen ham menga qo‘shilib, jinoyatchi bo‘lishing kerakmi?

– Endi so‘rashning hojati yo‘q. Shu ishga qadam qo‘ymasingdan oldin o‘ylab ko‘rish kerak edi. Shu yo‘lga yurdingmi, demak, meni ham o‘zing bilan sudrab ketding. Men boshqacha yo‘l tutolmayman. Axir o‘zing kemaga chiqqaning joni bir, deb aytganding-ku. Bu to‘ppa-to‘g‘ri, Ammo menga ishon, ishon, yo‘qsa ikkovimizga ham yomon bo‘ladi, o‘zimizni o‘zimiz qiynaymiz. – Nastena Andrey nima deb javob berishini kutib jim bo‘ldi, ammo eri hadeganda javob beravermadi, shuning uchun Nastena o‘ylab turdi-da, qo‘shib qo‘ydi: – Men, ehtimol, taqdirim boshqacha bo‘lishini xohlagandirman, ammo boshqacha taqdir boshqalarning o‘ziga buyursin, mening qismatimga yozilgani shu. Uni hech kimga bermayman. – Nastena yana jim bo‘lib qoldi, keyin yana qo‘shimcha qildi: – Hammasi yaxshi bo‘lib ketadi, Andrey. Yaxshi bo‘lmay iloji yo‘q. Mana ko‘rasan hali.

Andrey baribir javob bermadi.

– Menga hozir ham yaxshi. Axir o‘zing bilasan-ku, menga ko‘p narsa kerak emas. Sen bilan birga ekanligimning o‘zi menga katta davlat, boshqasi buning oldida bir pul. Nima bo‘lgani esimda yo‘q, keyin nima bo‘lishi bilan ham ishim yo‘q. Yana biron gap bo‘lishiga hatto ishongim ham kelmaydi. Bir umr shundoq qoladi shekilli: sen-u men, ikkovimiz. Faqt shu soqolingni qirib tashlasang bo‘larmidi, bu soqoling bilan birovlarga o‘xshab qolgansan. Nima qilsang ham mana shu soqolingga sira ko‘nika olmayapman-da.

Nastena xiyol ko‘tarilib, unga o‘girildi, Andrey uni ko‘rmayotgan bo‘lsa ham nafas olishining o‘zgarishidan xotininifng jilmayotganchi sezdi. Shungacha ular go‘yo bir-biriga e‘tibor bermayotganday, go‘yo ikkovi ham o‘ziga o‘zi gapi rayotganday yuqoriga, shiftga qarab qimir etmay chalqancha yotardi. Andrey avvalboshdanoq ko‘zlarini yumib yotib gapi rayardi – chindan ham shu qulay ekan. Ammo hozir u Nastenaning tabassumiga javoban ko‘zini ochdi, uning mehribonlik bilan muloyim boqib turgan nigohini ko‘rdi-yu bunga tob berolmay ko‘zlarini olib qochdi.

– Nega ilgari biron marta ham mana shunday – yurakdan gaplashmabmiz-a? – dedi u va o‘z gapini isbotlash uchun ichidan zil ketib, xotirjam boshini chayqadi. – Axir, hammasi boshqacha – aksi ham bo‘lishi mumkin edi-ku. E, kim bilibdi deysan! Ko‘p gaplashganmiz-u, har kuni qayoqdagi ikir-chikirlarni, kimning ar-

zimas dardi bo'lsa, shuni gaplashganmiz. Axir, shu to'rt yil ichida bir-birimizning ko'nglimizga qo'l solib, kim nimani o'layotganini so'rashga, gaplashishga vaqt bor edi-ku. Bundan chiqdi, men seni yaxshi bilmash ekanman. Yuzingga qarab yuraveribman. Bormi bor, bo'ldi debman, sening ko'nglingda nima bor, o'zimning dilimda nima borligini bilmabman. Qara-ya, senga qo'l ham ko'taribman-a.

– Menga qo'l ko'targaning yo'q!

– Ko'targaning yo'q?!

– Yo'q.

– Demak, yomonlikni eslaging yo'q ekan-da. Hay mayli, eslamsang eslama. Agar eslasang, menga sal yengil bo'larmidi devdim-da. Menga senday xotinni kim qo'yibdi? Sendan juda katta qarzdorman, ammo qarzimni uzishga, o'zing ko'rib turibsan, hech nimam yo'q. Eh, Nastena-Nastena! Sen meni emas, boshqa birovning etagidan tutsang bo'larkan. Sen shunchaki aytdi-qo'ydi dema, jiddiy gapir-yapman. Axir, sen farishtasan-ku! Nima qilib menga uchrab qolding o'zi? Sira aqlim yetmaydi.

– Menga esa, sen yaxshisan, boshqaning keragi yo'q. Hali ham aytuvdim, Shuning uchun bu yog'i bilan ishing bo'lmasin.

– Yaxshi bo'limganda nima qilarding endi...

– Hech nimani tushunmaysan-ye, Andrey. – Nastena ranjib, alam bilan xo'rsinib shivirladi va boshini yana yostiq o'miga dumaloqlab qo'yilgan nimchasiga qo'ydi. – Gaplaring qiziq-a, menga nima yaxshi-yomonligi hammadan ham ko'ra senga ayon-ku! – Andrey javob bermagach, Nastena gapida davom etdi. – Sen meni bu yerga olib kelganingda, men bu yerdagilardan bittasiniyam bilmasdim, hamma-hammasi begona edi. Aslini so'rasang, men ko'zlarimni chirt yumib, senga ergashib kelaverganman. Qayoqqa olib borsang ham baribir edi. Men hatto o'zingni ham tuzuk-quruq bilmasdim. Nomigagina ikki-uch marta uchrashgandik, yana nomigagina hazil tariqasida oila to'g'risida kelishib oldik. Men oxirgi daqiqagacha ham bunga ishonmagandim. Nima, meni qo'rquamgandi, deb o'laysanmi? Butun hayotingni boshqatdan boshlaysan, ilgarigi hayotingdan nom-nishon qolmaydi, buning ustiga hech kimi yo'q yolg'izman. Hu esingdami: paroxoddan birga tushdik, u yoq-bu yoqqa qarashga qo'rqaman, te-kis yerda ham qoqilib ketaman. Esingdami? Shunday voqeal yuz bergandi: jardan chiqayotganimizda oyoqlarim chalishib, yiqilib

tushuvdim. Odamlar kulgandi, shunday izza bo‘lgandimki, oyog‘im ostidagi yerni ham ko‘rmasdim. Yuragim yorilganini sezganding-u, qo‘limdan ushlab, yetaklab ketganding. Uyga kelgach, sen, mana, xotinim mana shu, deding. Otang isming nima, deb so‘radi. Nastyu, dedim. Otang erkalatib, Nastena dedi. O‘sha-o‘sha ismim Nastena bo‘lib ketdi. Onang bo‘lsa churq etmay qarab turardi. Onangga uncha yoqmagandim shekilli, balki onang boshqacharoq kelin kelishini kutgandir. Sen buni sezding. Sezding-u, mening to‘g‘rimda gapirib, bir o‘zi, qovurg‘asi qayishadigan odami yo‘q, qo‘yinglar, xafa qilmaylik, deding. Kulib, hazil qilganday bo‘lding, aslini olganda, hazilning o‘rnimidi? Ana o‘shanda senga tegib, pand yeb qolmasligimga ishongandim, taqdir meni qayoqqa uloqtirsayam, baribir sen bilan yaxshi yashashimga amin edim.

O‘sha kuni kechqurun sen meni qo‘ni-qo‘shnilarnikiga yetaklab bording. Esingdami? Vitya Berezkinnikiga, Maksim Vologjinnikiga va boshqalarnikiga kirdik. Darvoqe, aytaman deb unutibman: yaqinda Maksim qaytib keldi. Qo‘lim qattiq shikastlandi, deydi. Hozirgacha bog‘lab yuribdi. – Andrey bu yangilikka ham hech qanday munosabat bildirmadi, nafasini ichiga yutib, churq etmadni, shuning uchun Nastena davom etdi: – Sen meni odamlarga ko‘rsatib, maqtanish uchun olib yurmading, yo‘q, meni tezroq ularni tanib olsin, bularning ichida begonasirab yurmasin, deb olib yurding. Rostdan ham ertalab Vityaning Nadkasini uchratib qoldim, ko‘rdim-u, ko‘zlarim kosasidan chiqib ketayozdi: mening tanishim bu yerga qayoqdan keilib qoldi, deb o‘yladim. Axir men uni bilaman-ku<sup>1</sup>, bilaman-ku axir, ammo qayerdanligini, kimligini topolmayman. Keyin esa, yo tavba, axir kuni kecha tanishgandim-ku, deb o‘ylab qoldim, ularnikiga o‘zing olib boruvding, men aqlsizning bo‘lsa miyam achib ketgandi. O‘shani ko‘rdim-u, xuddi tug‘ishganimni ko‘rganday xursand bo‘lib ketdim. O‘shanda biz, esimda, omborda tunagan edik. Sen, shu yerdan yotamiz, deb turib olding, keyin o‘sha yerga o‘rin qilib berishdi. Avvaliga menga juda g‘alati tuyuldi, ammo ombor ozoda, saranjom-sarishta edi – huv o‘sha, hovli tomondagi kichigi. Ammo derazasiz, qop-qorong‘i edi. Mana shunaqa kati bor edi, keyin o‘sha kat nima bo‘ldi, kim uni buzib oldi? Ha, aytganday, o‘zing buzuvding. To‘g‘ri, o‘zing buzuvding: kanduk qilish kerak bo‘lib qoluvdi. E, attang, juda shinam kat edi-da. Xuddi zindonday qorong‘i edi-yu, ammo yogoch-

taxta, qirindi hidi anqib turardi, otang o'shangacha duradgorlik qilgan ekanmi? Hozirgiday esimda, o'shanda sendan ham qirindi hidi kelardi. Sen mendan qo'rqmaysanmi, deb so'rading men esa, yo'q, sen bo'lsang qo'rqlayman, dedim.

Shunda devor orqasidagi qo'ndoqdan xo'roz xuddi gapimizni eshitib, sinab ko'rmoqchi bo'lganday jazavasi tutib qichqirgandi. Mening jon-ponim chiqib ketuvdi. – Nastena ohista, mayingina kuldida, so'ng jimib qoldi. U yengil xo'rsinib qo'ydi. – Ertalab eshikni zo'rg'a qidirib topgandim. Qaysi tomondaligini sira qidirib topolmayman. Sen bo'lsang, tushgacha dong qotib yotding, yosh xotiningni xam esingdan chiqarib yubording. Men Angaraga borib, polzlarni ko'rdim – unisini ham, bunisini xam. Sensiz nonushtaga o'tirmadim, seni kutdim. Oying chidab turolmasdan seni uyg'otdi. Esimda, ham-mamiz birga – otang, oying, sen, men choy ichdik. Sen bo'lsang, go'yo kechasi men allaqayoqlarda yurganday, kishi bilmas shilqimlik qilarding, tegisharding. Choydan keyin sen, qani bo'l, deding. Men qayoqqa, desam, sen qayoqqa bo'lardi, adirga-da, deding. Keyin chindan xam meni adirga, sayxonlikka olib ketding, ekin yerlarini, bekor yotgan yerlarni ko'rsatding, hammayoqni ko'rsatding, gapi-rib berding, kechgacha aylanib yurdik. Qaytib kelsak, og'aynilaring o'tirgan ekan. Og'aynilaring, modomiki, uylangan bo'lsang, qani tarasun'ni keltir deyishdi. O'shanda Vitya ham, Maksim Vologjin ham bor edi. Vitya halok bo'ldi, bilsang kerak? Bilasan, yozgandim-ku. Eri yo'qligida Nadkaning qiz ko'rganini yozgan-yozmaganim esimda yo'q. Nadkaning bolasi uchta, sho'ring qurg'ur qiynalyapti, juda qiynalyapti. Iloji qancha?

Nastena chapga, Andrey yotgan tomonga ko'z qirini tashlab qo'ydi. U, hatto nafas olayotgani ham sezilmay, kesak bo'lib yotardi, shuning uchun Nastena Vityani behuda tilga olganini payqab qolib, afsuslandi. Andrey Vitya bilan yaqin edi. Nastena boshqa mavzu aralashib, gapini yo'qotib qo'yishni istamasdi. Ammo xavotirga hojat yo'q edi. Shodlik va tashvish bilan to'la bu xotiralar butun borlig'i bilan ravshan gavdalanim, meni tashlab ketma, buyog'ini ham gapi-raver, deb iltijo qilayotganday ko'zi oldida lipillab turardi. Nastena qayerda to'xtab qolsa, o'sha voqeа qalqib, shundoqqina ko'z oldi-

<sup>1</sup> Tarasun – tozalangan qimiz yoki sutdan tayyorlangan aroq (*Tarj. izohi*).

ga kelardi-da, go'yo biz ham bormiz derdi-yu, uni qo'lidan tutib, ergashtirib ketardi. Chindan ham o'sha paytlar juda maza edi-da, kunlari xush-xursandlik, o'yin-kulgi bilan o'tardi, kelajakda bundan ham yaxshi bo'ladiganga o'xshardi! Shunday bo'lsa ham Nastena har qalay xotiralarga berilishni bas qildi: shunisi ham yetarli. Nastena keyingi paytlarda ko'rghan kunlarini o'ylab, avzoyi o'zgardi va kulimsirab so'radi:

– Sen huv anavi kursda o'qib yurginga oldingga, rayonga borganim esingdami?

Ular turmush qurbanlarining ikkinchi yili qishda kolxozi Andreyni hisobchilar kursiga yubordi. Har qalay uning olti sinf hajmida ma'lumoti bor edi-da, shuning uchun garchi u traktorchilar kursiga borishni mo'ljallab turgan bo'lsa-da, aynitishib, hisobchilar kursiga yuborishdi. Garchi traktorchilikka yetmasa-da, bu ham har qalay tuzukkina, ko'zga tashlanadigan ish, ammo doimo uyda, bir yerda bo'lsan, bordi-yu MTSga o'ralashadigan bo'lsang, oylab begona yerlarda, begona odamlar ichida yurasan, kasb tanlashda xuddi mana shu jihatni Andreyni to'xtatib qoldi.

Andrey yangi yilda uyiga kelib, to rojdestvogacha turdi, fevralda esa, Nastena uning oldiga borishga otlandi. Rayon markazigacha yetmish chaqirim kelardi, yo'lida bir kecha tunab borilardi. Bir chanani qo'shib, Innakentiy Ivanovich, nima ish bilandir kasalxonaga borishi zarur bo'lgan Dono Vasilisa va Nastena jo'nashdi. Innakentiy Ivanovich bilan Nastena vaqt o'tkazish maqsadida u yoq-bu yoqdan gaplashib borardi. Innakentiy Ivanovich gapirishni yaxshi ko'rardi. Dono Vasilisaning esa, har bir so'zi tilla edi, behuda gapirmasdi. Ular ertasi kuni kechqurun rayonga yetib borishdi. Ishlarni bir kunda bitirib olishga kelishishdi-da, har qayoqqa tarqab ketishdi. Nastenaning esa Andreyni ko'rishdan bo'lak ishi yo'q edi, bunaqa ishga esa necha kun bo'lsa ham kamlik qiladi, albatta.

Andrey soy sohilida, Angaraga quyiladigan joydan sal naridagi ko'rimsizgina uyda turardi. Nastena borganiga uy egasi – kampirning ta'bi tirriq bo'lib ketdi. Andreyning hamxonasi – yoshi qaytgan, bad-qovoq, cho'tir, ko'zoynak taqib yuradigan kishining esa, undan battar diqqati oshdi, ko'zoynagining shishalari ham har xil – biri ochroq, biri to'q qora bo'lib, xuddi otning ko'zpanasiga o'xshardi. U karavotda qo'lida kitobi bilan yotganicha yotaverdi, o'rnidan ham turmadi,

loaqal ko‘ngil uchun «keling» ham demadi. Andrey hovliqib, shoshib qoldi va tunash uchun Nastenani Kolxozchilar uyiga olib bordi.

Nastena ilgari, hali erining oldiga borishni o‘ylab yurgan kezla-ri bir nimadan sal-pal umidvor bo‘lardi, biroq bu ilinjini cho‘chitib yuborishdan o‘zi ham qo‘rqib, uni sir saqlardi. Andreyga-ku bu ilin-jini o‘lsa ham aytmasdi, albatta. U uyimizda ikkiyat bo‘lolmadim, balki bu yerda bo‘larman degan andishada edi. Uyda ular bir-biriga o‘rganib, sinashta bo‘lib qolgan, bu yerda esa, boshqacha muhit, bu ham ta’sir etishi mumkin.

Odatda xarom-harish yursang, darrov bola bo‘lib qolishi mumkin, keyin bir mahal qarabsanki, otamdan salom deb chiqib turibdi-da! Nastena esa halol-u pok, ishtiyoq bilan bo‘lishini istaydi, faqat shuni-si borki, uyidan olisda-da, shunda ham noilojlikdan. U bu xomxayol-dan biron nima chiqishiga ishonmasdi, ammo qanchalik ishonmasa, o‘zini sinab ko‘rishga shunchalik qiziqib, shunchalik oshiqardi.

– Esingdami, o‘sha kuni ertalab sen o‘qishingga bormading, meni olib ketgani kelding, keyin ikkovimiz yaqinginadagi, yo‘lning narigi betidagi choyxonaga bordik. U yerda, stol ustida kattakon samovar turgan ekan, men umrim bino bo‘lib bunaqa samovar-ni ko‘rmagandim. Jo‘mragi buzuq ekan, suv oqib turardi, sharillab oqardi, tagiga ataylab chuqur likopcha qo‘yishibdi. Nega uni tuza-tib qo‘yishmagan ekan, bilmayman. O‘sha choy damlab berayot-gan xola, shartta likopchanı oldi-da, o‘shandan senga stakanga choy quydi, sen sezib qolding. Sen, yo‘q, samovardan quying, deding. U bo‘lsa bahslashib, axir bu samovardan oqqan-ku, dedi. Sen bo‘lsang, yo‘q, tomgan, bu choy emas, chayindi, deding. Xola bo‘lsa, sirayam chayindi emas, deydi, sen esa, chayindi, deysan. Har qalay xola tan oldi, samovardan quyib berdi. Esimda, sen menga qog‘ozli konfet ham olib beruvding, men o‘shani oqqand o‘rnida kumir-kumir qilib tishlab, choy ichuvdim. Konfetlar asalli ekanmi, juda hidli, yesang cho‘zilardi, mazasi anchagacha og‘zingizda qoladi, ketmay-di. – Nastena go‘yo o‘sha unutilmas xushbo‘y shirinlik ta’mi hamon og‘zidan ketmaganday, tilini taqillatib, labini yalab qo‘ydi. – Keyin choyni ichib, qorinni to‘qlab, yana sen turgan uyga bordik. Shishalari har xil ko‘zoynak taqqan anavi meshqorin yo‘q ekan, kampir uyda ekan. Unga hisobchilikka o‘qishning hojati yo‘q edi – bizlar nima ish qilsak, shunga qarab o‘tiraverdi. Yomon kampir ekan: biz qachon ke-

tarkin, deb kutib turganimizni bilib tursa ham jo‘rttaga tanda qo‘yib oldi. Shundan keyin sen uni jo‘natishning yo‘lini topding: do‘konga borib, choraktalik aroq olib keling, deb pul berding. U bo‘lsa, keyin o‘zing aytib beruvding, pulni birovga ishonmas ekan. Kampirimiz g‘imirlab qoldi, choraktalikka desang, mayli, chopqillab borib kelaman, ammo boshqa ishni buyursang, o‘lsam ham o‘rnimdan qo‘zg‘almasdik, dedi. Sen unga chopqillab nima qilasan, sekin borib kelsang ham bo‘ladi, ulgurasan, deding. Kampir bo‘lsa, men-ku ulguraman-a, ammo sen, qarog‘im, eshikning ilgagini harqalay ilib qo‘y, uyimga odamga o‘xshab kelay, dedi.

Nastena go‘yo suv yuzida kichikkina halqacha g‘ildirab, so‘ng asta g‘oyib bo‘lgandek muloyim kului.

– Keyin ikkovimiz kuni bilan yuraverdik, yuraverdik – bormagan joyimiz qolmadı, – u yana ovozini pastlatib, so‘zlarni cho‘zib, shivirlab gapirardi. – Sen mendan bir qadam ham nari jilmading, birga ekanligimizdan hatto xursand eding, shodligingni shundoqqina ko‘rib turardim. Men bo‘lsam, eh, qanchalik baxtiyor bo‘lganimni qo‘yaverasan endi! Qish sovuq bo‘lsayam, xursandligimdan qizib ketuvdim. Yoningda borardim-u, yuzim lovillab, qo‘llarim titratotganini sezib turardim. Axir, men avvaliga nimaga kelding, deb so‘raysanmi, deb qo‘rqqandim-da. Rost-da, nimaga, axir? Gap bilan tushuntirib bo‘larkanmi buni? Aslini olganda, senda hech qanaqa ishim ham yo‘q edi-da, o‘zi. Bordim, xolos. Holingdan bir xabar olay dedim! Bir o‘ynab kelay degandim. Ammo seni o‘qishdan qoldirdim. Kino ko‘rdik! – deya to‘satdan xitob qildi Nastena, deyarli baqirib. – Esingdami? Kino ko‘ruvdik! Qara-ya, sal bo‘lmasa yodimdan chiqay debdi. Xotiram ham o‘lguday siyqalanib ketibdi: eng muhimlar esimdan chiqib qoladi. Ertasiga qaytib ketayotganimizda ko‘rgan kinomizni aytib berdim, shunda Dono Vasilisining ham tili chiqib qoldi. Sen bilan men eng oxirgi qatorda, kino ko‘rsatadigan darcha tagida o‘tirgandik. Nihoyat, sen menga engashib, ertaga ketmasang, yana biron kun qolsang bo‘larmidi, deb shivirlading. Men bosh chay-qadim. Ko‘zimdan esa duv-duv yosh oqyapti. Axir, o‘zing qol deyatotgan eding-da. Yuragim qinidan chiqib ketay derdi...

Xo‘sh, keyin, keyin nima bo‘lgani esingda bormi, Andrey? U yog‘i juda qiziq bo‘luvdi. Meni Kolxozhilar uyiga eltilib qo‘yishingdan oldin, yana senikiga kirdik. Kampir choraktalik-

dan so‘ng ancha yumshab qolgandi. Bordik, borsak, kampir qani qarog‘im, yana choraktalikka cho‘zib qo‘ygin-u, shu yerda, oshxonamda qolaver, men esa, o‘rtog‘imnikiga borib yotaman, o‘rtog‘im bilan otamlashib o‘tiramiz, dedi. Sen pul berding – kampirning iltimosini rad etib bo‘larkanmi? Kampir chiqib ketdi, oradan ko‘p o‘tmay, biz hali yotishni o‘ylab ulgurmasimizdanoq qaytib keldi: do‘kon berk ekan, aroq bo‘lmasa, o‘rtog‘imnikiga borib nima qilaman, deb qoldi. Shundan keyin o‘zing chopib chiqib ketding, qa-yoqdandir topib kelding, kampirni jo‘natding. Keyin baxtimizga, anovi qovog‘i soliq meshqorin ham kelmadi, biron joyda tunab qoldi, shekilli. Butun boshli uyga o‘zimiz bek, o‘zimiz xon bo‘lib qolaverdik. Ex, Andrey! Sen bo‘lsang, mendan xafa emasmisan, deb so‘rab yuribsan-a. Nimalar deyapsan o‘zi?! Ey xudoyim! O‘zing o‘ylab ko‘r. Menga yana nima kerak, axir?

Ammo Andrey endi uning gaplarini eshitmas, to‘g‘rirog‘i anglamas edi. U avvaliga Nastenaning gaplariga qulq solib yotarkan, a’zoyi badani yoqimli jivirlayotganini, bu jivirlash bora-bora kuchayib, yuragini orziqtirib yuborganini his etdi, bu shirin xotiralar uning ham esida bor edi, ammo u bularning qandaydir yuzaki, g‘ira-shira, e‘tibor bermay, shosha-pisha eslardi, go‘yo bu voqealar uning boshidan emas, ungacha boshqa birovning boshidan o‘tganday, o‘sha kishi o‘z sarguzashtini bunga berib qo‘yganday edi. Hozir esa bu xotirallardan gangib qolgandi. Bu ishlar endi xuddi kechagiday ko‘z oldiga kelib, a’zoyi badanini o‘rtab yuborardi: o‘tgan kuni bilan hozirgi kuni sira bir-biriga o‘xshamasdi. Bu xotiralar bir-biriga mutlaqo zid edi, ular bir idish ichida butunlay boshqa-boshqa joyni egallab, bir-biriga qo‘shilib ketolmasdi, belgilangan chegaradan o‘ta olmasdi. Ammo Andreyning o‘z xotirasi dahshatliroq, kuchliroq edi, u istagan paytida boshqasini bosib tushishi mumkin edi.

Bu safar ham shunday bo‘ldi. Nastena sal hayajonlanib gapirardi. Andrey esa, javob bermasdan eshitardi, ba‘zisini ilg‘ab qolardi, ba‘zisini ilg‘ab ololmasdi, o‘z sarguzashtining mayda-chuydasi-gacha o‘ylab qolardi: garchi u Nastenaga ergashib, u ochib bergen tekis yo‘ldan ketayotgan bo‘lsa-da, baribir qiynalib, tez-tez qoqilib ketardi, u meni qayoqqa boshlab ketyaptiykin, deb ko‘rqib, atrofiga alanglardi. Nihoyat o‘z sarguzashtlari esiga tushganida u ajablanmadidi – shunday bo‘lishi kerak edi, u go‘yo sarguzashtlariga intiq bo‘lib

turganday, tortadigan azobini tortib, boshiga tushganini ko'rib, yana tezroq Nastenaning yoniga qaytishni umid qilardi.

Bu, shu xotiralar o'z-o'zidan, allaqanday bir o'rgimchak to'ridan boshlandi shekilli, u ehtiyotsizlik qilib, shu to'rni o'z yo'liga yozib yubordi, Andreyning yo'lini to'sishga shuning o'zi kifoya bo'ldi-qo'ydi, keyin esa, boshqa manzara paydo bo'ldi. Bu manzara bugungi kuniga juda o'xshab ketardi, uyadan voz kechishga Andreyning kuchi yetmasdi. Keyingi, urushga doir voqealar hamisha to'satdan esiga tushardi-da, anchagacha ko'z oldidan ketmay, xar bir ikir-chikirgacha aniq, ravshan ko'rinardi-yu, uni shafqatsizlik bilan ezib, titratib yuborardi, Andrey Guskov bir necha marta aynan bir narsani boshidan qayta-qayta kechirishga majbur bo'lardi. Aslida esa, o'shanda yuz bergen voqealari chappasiga ketdi: u avval gospitalga tushdi, keyin bu yoqqa jo'nab qoldi.

...Iliq yoz oqshomi artilleriya tayyorgarligi vaqtida yashirin o't ochish pozitsiyasidan otisha-otisha yangi joyga ko'chib o'tmoqchi bo'lishdi. Kuzatuvchilar bilan allaqachon aloqani to'xtatishgandi, o'ng tomondagi batareya ham ko'chgan edi, chap tomondagi esa, hali ivirsib yurgandi. Unchalik shoshiltirishmadi ham. Andrey jang qilayotgan gaubitsa<sup>1</sup> jamoasi har qalay pritsel<sup>2</sup>ni olishga, stanokni chiqarib, berkitishga ulgurishgandi, endi g'ilofi bilan ovora bo'lib yotishgandi. Daraxtlari siyrak, o'rkachsimon do'nglik orqasida birincketin kelayotgan shatakchi mashinalarning motorlari guvillardi, shaloq bo'lib ketgan kuzovlari chayqalayotgan ikki mashina to'plarning oldiga o'rmalab kelib qolgandi.

Shatakchilarning motori, chamasi tanklarning guvillagan ovozini bosib ketgandi. Yig'ishtirish va ko'chib o'tishga odamlar shunchalik beparvo qarashardiki, ularning xavf-xatarga nisbatan tuyg'ulari shunchalik o'tmaslashib qolgan ediki, ular begona, quyuq guvillagan ovozni eshitib, bilib ham unga e'tibor berishmadi. Nemis tanklari ro'paradagi do'nglik ustiga chiqib, bir lahma esankirab turib qoldi, so'ng g'izillab pastga tusha boshladи, ana shunda hangmang bo'lishini ko'ring ularning! «Qayoqdan kelib qoldi? Oldinda o'zimiznikilar bor-ku! Qayoqdan kelib qoldi?» Bir-ikki batareyada

<sup>1</sup> Gaubitsa – to'p, zambarak.

<sup>2</sup> Pritsel – mo'ljal asbobi, to'pchilar uni ehtiyotlab qutichada olib yurishadi. Jangovar holat chog'ida to'pdan mo'ljalga olish uchun ishlataladi (Tarj. izohi).

qichqiriqlar eshitildi, to‘pchilar tipirchilab, g‘iloflarni yechishdi, stanoklarni ochishdi, to‘plarning stvollarini tushirib, burishdi. Andrey (u o‘qlovchi edi) snaryadlar yashigiga qarab yugurdi, to‘satdan snaryad portlab u garang bo‘lib yerga ag‘darilib tushayotganida go‘yo yumuq ko‘zları bilan ham qo‘shni gaubitsa g‘ildiragining ohista suzib, aylanib, goh yuqoriga ko‘tarilayotganini, goh yana pastga tushayotganini ko‘rayotganday bo‘ldi. Andrey tirik ekanini sezgach, oldinga sakradi va yashikni ko‘tarib keldi.

Tanklar beshta edi. Ammo chapdagি birinchi batareya urishga ulgurgandi, bir tank yonayotgandi. Andrey turgan tomondagi ikkinchi batareya esa hali biron ta ham o‘q uzolmagandi. Komandir bir nimalar deb kuchanib, bo‘g‘ilib baqirardi, ammo nima qilish kerakligi buyruqsiz ham ravshan edi. Tanklar do‘nglikdan o‘rmalab tushib, bo‘lindi: ikkitasi birinchi batareyaga, ikkitasi esa, ikkinchi batareyaga qarab yurdi, ammo ular o‘qchilar bir-birini o‘qqa tutsin deb ataylab batareyalar o‘rtasidagi chiziqqacha chiqqandi. Ammo buni o‘ylab o‘tirishga vaqt yo‘q edi.

Andrey Guskov o‘qlab bergen asosiy gaubitsa bittagina to‘p uzishga ulgurdi.

Keyin yonida bir nima qasirladi, bir lahma jarang-jurung qildi, shundan keyin u, nazarida o‘mbaloq oshib, bir chetga borib tushdi.

Qayerdandir olis-olisdan Nastenaning ovozi qulog‘iga chalinardi. Mehribonlik bilan to‘xtovsiz chorlayotgan bu ovoz sehrli ohang bilan Andreyning badanini jimirlatib yubordi. So‘zlarni u ajratolmadi: cho‘yanlarning cho‘yan bilan qisqa, dahshatli to‘qnashuvidan hosil bo‘lgan gumburlash uning qulog‘ini qomatga keltirib turardi, hozir bu yerda odamlarning zarurati ham yo‘qdek edi, uning ko‘zları oл-didan jang manzarasi lip-lip o‘tardi, achchiq tutun buruqsardi, jang avjiga chiqqan joyda qichqiriqlar eshitilardi, mustahkamlanmagan to‘p tirkaklari o‘ydim-chuqur qilib tashlagan yer qop-qorayib yotardi, shatakchi mashinalar shosha-pisha o‘zlarini panaga olayotgandi, to‘p nishonga oluvchisi Korotko boshini ko‘tarib, snaryad parchasidan dabdala bo‘lgan qorniga qarardi: snaryad portlab, stvol g‘ilofini osmonga uchirib yuborgan – bu sharaq-shuruq qilayotgan gusenitsalar vahima solib, yurakni yorayotgan vaqtida sodir bo‘ldi...

Nogahon Nastenaning ovozi eshitilmay qoldi. Andrey hali o‘ziga kelmay, so‘nggi jang xotiralaridan qutulmay turib, ohista o‘girildi

va Nastenaning ko‘zlarida butunlay boshqa narsani ko‘rdi – uning ko‘zları o‘z sarguzashtlaridan iliq boqib turardi. Andrey ortiq chidab turolmay, boshini uning ko‘ksiga qo‘ydi-da, ingrab yubordi.

– Andrey, nima bo‘ldi?! Nima bo‘ldi?! Nima bo‘ldi senga?! – Nastena qo‘rqib ketdi. Andrey sal bo‘lmasa yig‘lab yuboray dedi-yu, ammo o‘zini tutib qoldi.

– Hech nima, hech nima bo‘lgani yo‘q, Nastena. Sen shu yerda, yonimdasan.

Lekin u hozirgina ko‘ziga ko‘ringan jang shu lahzada ham davom etayotgandek hamon qo‘rqib, atrofiga alanglar edi.

– Nimalarni o‘ylayapsan-a? – Nastena erkalab uning boshini siladi. – Voy tentakvoyim-yey. Nimalarni o‘ylab yurasan-a. Balki men bilan bo‘lganing uchun ham shu ko‘yga tushgandirsan, ammo meni qo‘yaver. Men esa, hamisha sendan minnatdorman, hamisha – shuni unutma. Sen bo‘lmasang, bu yorug‘ olamni boshimga uramanmi? Sensiz yashay olarmidim? Shuncha yildan beri, axir, seni kutdim, boshqa birovni emas, seni kutdim. Uyquga yotishdan oldin ham sen bildan xayolan gaplashardim, ertalab uyg‘organidayam xuddi sen yonimda yotgandek tasavvur qilardim. Men chindan ham seni ko‘rib turganday bo‘lardim, avvaliga hech kim ko‘rinmasdi, xuddi shamolga o‘xshab guvillagan ovoz eshitilardi, keyin sekin-asta pasayib, tinchib qolardi – demak, shu yaqin o‘rtadasan, keyin o‘zing paydo bo‘larding. Negadir doimo bir o‘zing ko‘rinarding. Askarcha engil-boshingda namoyon bo‘larding, shunday xomush, qayg‘uli, yoningda hech kim bo‘lmasdi. Men sog‘-salomatligingni ko‘rardim-u, orqamga qaytardim: to‘xtab turish yo gaplashish mumkin emasdi. Mana shunday chidab, kun o‘tkazdim. Men, ehtimol, haddan tashqari kutgandirman, seni o‘z holingga qo‘ymay, jang qilishingga xalaqit bergandirman. Nimani qilish mumkin-u nimani qilish mumkin emasligini men qayoqdan bilay, qo‘limdan kelganini qildim, tamom, hech kim o‘rgatmadi, aytmadi. Sen ham indamading. Eh, Andrey, Andrey...

Andrey boshini changalladi-da, xuddi og‘ir yukni olib tashlamoqchi bo‘lganday, sarak-sarak qilib ingradi:

– Ey, xudo, men nima qilib qo‘ydim-a?! Nimalar qilib qo‘ydim-a, Nastena?! – keyin qo‘llarini tushirib, Nastenaga yuzlandi. – Endi menning oldimga kelma, kelma – eshitdingmi? Men ham ketaman. Bu-

yerda unga nima kerak edi? Axir bir vaqlari unga nimadir kerak edi-ku, ammo nimaligi esidan chiqib qolgandi.

O'zi tug'ilib o'sgan, bu yorug' olamda eng aziz kishilari yashayotgan uy shundoqqina ro'parasida, pastga qarab ketgan ko'chadagi uylar qatorida edi. Nihoyat, Guskov shaylanib butun diqqat-e'tiborini to'plab, uyg'a nigoh tashladi: tepalikka, unga qaragan o'sha uchta devara, uyning old tomondagi chap burchagi (otasi, uy ham egasiga o'xshab maymoq, derdi) qiyshayib turibdi, unga taqab yog'ochdan qurilgan yaxshigina, keng-mo'l dahliz ham o'shandog'icha, nishabi bir tomonlama tomi ashqol-dashqollarga to'lib yotibdi. Uy mustahkam edi, hali ko'pga chidardi, lekin o'z vaqtida qaralmagani uchun burchagi cho'kdi, xuddi o'sha yozda, urush boshlanadigan yili o'rim-yig'imdan so'ng dehqonlarni hasharga chaqirib, qazib yurmay shartta burchakni ko'tarib, tuzatib qo'yishmoqchi edi. «Xo'b chaqirishdi, xo'b tuzatishdi!» Endi bo'lsa chol buni o'ylamaydi ham, albatta. Yo butunlay qulab tushmaguncha, yo biror durustroq xo'jayinga uchramaguncha mana shundoq qiyshayib turaveradi. Turmay nima qildi? Otasi bilan onasining to'ridan go'ri yaqin, Nastena esa... Nastenaning bu yerda qolishi gumon, qolganda ham bir o'zi qolmaydi.

Guskov go'yo uy ichida nimalar bo'layotganini ko'rmoqchi bo'lganday, zo'r berib derazaga tikilardi. O'ng tomondagi eng chetki deraza – oshxonaniki, deraza yonida tovuqxona bor, ro'parada keyingi paytlarda onasi kechasi-yu kunduzi tushmaydigan pech bor. Pechni hali yoqishmabdi shekilli – tutun chiqmayapti. Ha, mana, hozir uyg'onishadi, onasi Nastenani chaqiradi, u tutantiriqqa yopishadi. Nastenaning derazasi chapdan oxirgisi, og'gan burchakda. Hozir u uxbab yotibdi, hademay turadi, hozir u oyoqlarini uza-tib, qornini ushlab chalqancha yotibdi – odati shunaqa, agar Nastenaning bo'yida bo'lgani rost bo'lsa, bu odati endi juda yarashadi. Uni qarangki, kishi shu kunlarni o'ylab, ancha avval, bir necha yil oldindan tayyorgarlik ko'rib kelarkan-a. Nastena urushdan oldin ham, xuddi tantiqlik qilayotganday, bo'lar-bo'lmasga qornini ushlab yotish odatini chiqardi – xudodan farzand tilab, iltijo qilgan edi bu. Orzu-umidlari chippakka chiqish-chiqmasligini Andrey bugun aniq bilib oladi. Nastena bugun ma'lum qiladi. Agar biror o'zgarish bo'lmasa, u kechqurun mo'rchan'i isitadi. Ammo Nastena uning shu yaqin-o'rtada yurganini bilmaydi, shuning uchun u Andreyni

mo‘rchada kutmay ketib qoladi. Andrey unga Angaraga chiqaman, deb aytgandi, xolos.

U hozir Nastenaning o‘rinda yotganini ko‘z oldiga keltirdi: qimirlamay, bermalol cho‘zilib, issiqliqna bo‘lib yotibdi, ichko‘ylagini qorni ustidan surib qo‘ygan, yuzi kechasi sal ko‘pchib, oqarinqiran-  
gan, nimanidir eslashga urinayotganday sal titrab turibdi, sochlarini yozib yuborgan. Andrey hozir Nastenani ertalabki uyquda tasavvur qilib, ichki bir xo‘rlikdan tomog‘iga yosh tiqildi. U og‘ir xo‘rsinib qo‘ydi-da, chap tomonda bir qator bo‘lib turgan omborlarga nigoh tashladi. Nastena birinchi kecha tunaganini eslab, tilga olgan hovli chetida ombor bu yerdan ko‘rinmasdi. Nastenani qo‘rqitib yuborgan xo‘roz yomonlik alomati bo‘lib tuyulganini yashirdi, u ancha vaqt-gacha shu gapiga mahkam yopishib oldi. «Yomon, yomon», derdi u hadeb, Andrey esa, uni tinchlantirishga urinib: «Xo‘rozlarning qich-qirig‘iga ko‘proq qulq sol, ularga ko‘proq ishon, ular har daqiqada qichqiradi», degandi.

Nihoyat, tong otib, hammayoq yop-yorug‘ bo‘lib ketdi, qishloq ham bor bo‘yicha aniq-ravshan ko‘rindi. Mo‘rkonlardan tutun chiqib, uyqusiragan, zaif, noaniq tovushlar eshitila boshladi. Nastena ham uyg‘ondi: pechka ro‘parasidagi deraza ahyon-ahyonda qizarib ko‘rinardi. Eshik ochilayotib, bir burchagi ko‘rinib qoldi, kimdir chiqdi, ammo kim, Nastenami yoki otasi? Ko‘rishga devor xalaqit berardi. Nastenaning sigir sog‘ishga boradigan vaqt bo‘ldi, u sigir soqquncha otasi molga yem-xashak bersa kerak, balki bu ish ham endi Nastenaga qolgandir. Bordi-yu, birdan onasi ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushib, ihrab-sihrab ko‘chaga chiqib, go‘yo uni birov bu yoqqa cha-qirganday, endi nima qilishini, qayoqa borishini bilolmay kutib turgan bo‘lsa-ya? Nahotki, onasi uning shu yerda, yonginasida yurgani ni sira, loaql zarrachalik sezmasa-ya?

U ikki ko‘zini uzmay qarab turar, o‘tmishni ko‘z oldiga kelti-rardi, ammo sira ta’sirlanmas, hayajonlanmas, yuragi jiz etmasdi – yo uning his-tuyg‘ulari hali uyg‘onmagan, qo‘zg‘olmagan yoki u hammasini so‘ndirib yuborgan edi. U to‘rt yildan beri jonajon qishlog‘i bilan birinchi marta yuzma-yuz bo‘lganini, bundan buyon boshini u toshdan-bu toshga ursa-da, ehtimol, mana shunday qarab turish nasib etmasligini tushunib tursa ham, o‘zining xotirjamligiga hatto o‘zi ham hayron qolardi. U yoqda uning ichidan qirindi o‘tdi,

tortadiganini tortdi, loaqal oxirgi marta, hech bo‘lmasa o‘z Atamanovkasiga birrov ko‘z tashlash uchun hamma narsaga tayyor edi, ochig‘ini aytganda, shuni deb bu·yoqqa keldi – mana, keldi ham, ammo ko‘ngli huvillab turardi. Nahotki, hammasi yonib bitgani rost bo‘lsa?

U o‘zini sinab ko‘rish uchun Moskva ostonalarida halok bo‘lgan oshnasi, tengquri Vitya Berezkinning uyiga nazar soldi. Tanish uy – u yerdan ham tutun chiqyapti, hozir o‘sha uyda Nadka bolalari bilan turibdi, Vitya ro‘zg‘orini onasidan boshqa qilgandan keyin Andrey uning narsalarini qishloqning narigi chekkasidan bu yoqqa tashishda yordamlashgandi. Nimani ham tashishardi? Otni qo‘sishdi, arava-ga ikki-uchta tugun, karavot-u yog‘och katni ortishdi – bor ro‘zg‘or shu edi. Skameyka va stolni shu yerda yasashdi, asboblarni Andrey uyidan olib keldi. O‘sanda ular yasagan nimadir Nadkaga yoqmay koldi va u shang‘illayverib ikkalasining miyasini qoqib qo‘liga berdi. Keyin chirillashiga, yulib-yulqinishiga ham qaramasdan ikkovlashib Nadkani tomga chiqarib qo‘yishdi. O‘sha yerdan turib uning butun qishloqni boshiga ko‘tarib ho‘ng-ho‘ng yig‘lashini tomosha qilib, rosa kulishdi. Agar yarimta olib bersang, tushirib qo‘yamiz deyishdi. Nadka xo‘p dedi. Nadkaning boshqa iloji qolmagandi – tomdan sakrashga qo‘rqardi, narvon esa yo‘q edi.

Ayniqsa bu voqeа osongina esiga keldi, oson va aniq-taniq esla-di – chunki barcha xotiralari ichida shunisi tez yuzaga qalqib chiq-di. Ammo Vityaning hozir juda yaqindan aniq ko‘rinib turishi uni sergaklantirib qo‘ydi: yuzi ham, ovozi xam, yurishlari ham, imo-ishoralari ham – hammasi. Go‘yo hozirgina yonida edi-yu, bir daqi-qaga nariga ketganday edi. «Qiziq, – deb o‘yladi Guskov, – u yo‘q, men bo‘lsam uni xuddi tirikday ko‘rib, eshitib turibman. Shunday bo‘lishiga Vityaning o‘zi harakat qildimikin yoki xotiramda yaxshi saqlanib qolganmikin? Bitta-yarimta ham meni xuddi mana shunaqa yaxshi ko‘ra olarmikin? Men borman, men odamlarga yaxshi ko‘rinishim kerak, tiriklarga tirikday! Yo‘q, bu yerda gap boshqa narsada shekilli, – deb o‘zini o‘zi to‘xtatdi u. – Vityaning paymonasi to‘ldi, yoshini yashab bo‘ldi, unga nima bo‘lganini hamma biladi. Senga nima bo‘lgani esa, hech kimga ma’lum emas. Odamlar hozirdanoq seni eslomaslikka harakat qilyapti, seni eslab yurishlari uchun bahona bo‘lgulik qarorgohing yo‘q, sen odamlar nazarida, garchi ti-

rik bo'lsang ham, bulturgi qorday erib, yo'q bo'lib ketgansan. Innay-keyin, inson to'g'risida odamlarda qoladigan xotiraning ham qadr-qimmati bo'lsa kerak, shuning uchun hozir o'zing qanday yashirinib yurgan bo'lsang, odamlar ham seni eslashdan bir umr uyalib, yerga karab yuradi. Umid qilma, tamagir bo'lma – bu yerda ham hech nima joningga ora kirmaydi».

U biron nimani o'yłasa ham kuyib-pishmasdan xotirjam o'ylardi. Bo'lmasa bo'lmas-da. O'lgandan keyin unga baribir, odamlar nima desa deyishaversin. U yoqda bu gaplardan suyaging sirqiramaydi, hamma bir xilda bo'ladi. Guskovning diqqat-e'tibori hamon o'z uyi bilan band bo'lib, undan ko'z uzmaslikka harakat qilardi. Shuning uchun ham u darrov otasini ko'rdi. Nazarida, hat-to eshikning g'iyyqillaganini ham eshitganday bo'ldi. Otasi eshikni yopib, birpas turdi, go'yo Andreyning bu yerda turganini sezganday, u turgan tepalikka sinchiklab tikildi, keyin odatdagidek, oqsab-oqsab ko'chadan o'ng tomonga qarab ketdi, og'zidan hovurmi yo tamaki tutunimi chiqardi – olisdan nimaligini bilib bo'lmasdi. «Ana mening otam, – deb o'yladi u hafsalasi pir bo'lib, bo'shashib. – Bu o'sha». U otasining yelkalariga qaradi, otasi qarilikni bo'yniga olmay, hamon qaddini g'oz tutib borarkan, esankirash, hafsalasizlik his-tuyg'usi borgan sari Andreyni ko'proq qurshab ola boshladi. Otasi yarim yo'lga yetganda to'xtab, ikki bukhayib qoldi-da, boshini siltadi – uni yo'tal tutdi shekilli. Andrey, nazarida, bu yo'talni eshitayotganday, vahimali qattiq ovoz qulog'iga yetib kelayotganday bo'ldi. Otasi sal o'ziga kelgach, oqsab yo'lida davom etdi va biror daqiqalardan keyin qiroatxona muyulishiga yetib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Andrey yana birpas yerga shuursiz tikilib turdi-da, nogahon esiga tushib, xuddi yugurguday bo'lib shosha-pisha toqqa qarab jo'nadi, qishloq ko'zdan yo'qolgandan keyin o'ngga burildi va hamon shosha-pisha, tez-tez odim otib, to oldindan yo'l chiqmagunicha o'rmon ichidan ketdi. U yo'l bilan yana pastga, yosh qalin archazor yoniga tushdi, shu yerga kelganda yo'l archazorni aylanib o'tardi. Andrey yo'lni kesib o'tdi-da, to'g'ri ketaverdi. U archazor etagiga yetib, imoratlar ko'rina boshlagach, to'xtadi – u yuqori tomondagi qo'rasi o'rmonga taqalgan otxona oldidan chiqib qolgan edi. U otasini shu yerda yaqindan ko'rmoqchi edi.

Ota-bolaning bir-biriga munosabati o'rtamiyona – na yomon, na yaxshi edi, ikkovi ham o'z bilganicha yashardi, desa bo'ladi. To'g'ri, Andrey bolaligida otasi unga ko'z-qulok bo'lib yurdi, ammo faqat ko'z-qulok bo'lib yurdi xolos, uning ishlari, tashvishlariga deyarli aralashmadi. Qorni to'q, usti but – hech nimadan kamchiligi yo'q, bir otaning qilgani shunchalikdir-da, axir, tirikchilik yo'lini o'zi bilib olsin, o'z kallasi, qo'l-oyog'i bor. U o'g'liga aql o'rgatmadni, uni tarbiyalamadi, qolaversa tarbiya nimaligini, uni qanday singdirish kerakligini o'zi ham bilmasdi; u hayotning o'zi har qanday odamni o'rgatadi, tarbiyalaydi, fe'l-xo'yiga yarasha qilib qo'yadi, deb o'ylardi. Lozim bo'lganda jilovini tortdi, lozim bo'lmaganda o'z holiga qo'yib qo'ydi. Bordi-yu, Andrey biron nimani so'rab qolguday bo'lsa, u o'g'lim qiziqib qolibdi, deb suyunib, tushuntirib berardi, tushuntirganda ham, atroficha, bama'ni qilib hafsla bilan tushuntirardi: ko'rsatish, aytib berish uning qo'lidan kelardi. Agar u o'g'lining biron foydali ishga uringanini ko'rsa, rag'batlantirardi, qo'lidan kelganicha ko'rsatardi, ammo biron ta ishni zo'r lab qildirmasdi, bu-naqa odati yo'q edi. O'zi, hammasini o'zi bilib olsin, ana o'shanda o'z ishiga pishiq-puxta bo'ladi. Andreyning esida bor, otasi faqat bir marta yaxshi bilan yomonni ajratib olishda unga yordam bergandi: Andrey bir kuni bema'ni ish qilib qo'yib, aybni qo'shnisi Mishkaga ag'darganida, otasi ilgakdan charm jilovni olib, indamay rosa savalgandi – ota bo'lib urgani shu.

Shuning uchun otasining yo'rig'i boshqa edi. Otasi erkatalib qo'ymasdi ham, onasiga o'xshab fig'oni falakka chiqmasdi, onasi bahor havosiday tez-tez o'zgarib qolardi: bugun bir xil bo'lsa, ertaga butunlay boshqacha bo'lardi. Andrey xohlagan paytda otasining oldiga borib, dilidagini dadil aytaverardi: ammo onasiga ro'para bo'ladigan bo'lsa, avval uning avzoyi qanaqaligiga qarardi. Onasi asli so'zlarni «y»lab, «sh»lab gapiradigan Bratsk atrofidan edi. Angarada atigi bir necha qishloq shu talaffuzda gapirardi, odamlari ham xuddi saralab qo'yganday chiroyli, baland bo'yli, mehnatkash bo'ladi – ayniqsa, xotin-qizlarini qo'yaversasiz – bu toifa el bu yerda qayyoqdan paydo bo'lib qolganini hech kim bilmaydi. Shu qishloqlarning yuqorisida ham, quyi tomonlarida ham binoyidek gapirishadi, bu yerdagilar esa negadir boshqacha gaplasholmaydilar, go'yo bu til ularga alohida, maxsus ilashtirib qo'yilganday edi. Bu til boshqa

qulqoqqa qandaydir g‘alati, tushunib bo‘lmaydiganday eshitilardi, al-batta, bu tilga ko‘nikish kerak edi. Atamanovkada uning onasini to qariguncha ham mazaxlab kulishardi, onasining esa jahli chiqardi, jahli chiqqanini yashira olmasdi ham, shuning uchun u o‘zini odamlardan olib qochib yurardi, tanho qolishga harakat qilardi. Ammo onasining ko‘yib-pishishiga bundan boshqa sabablar ham bor edi: fuqarolar urushi vaqtida uning urug‘-aymoqlari tuxumigacha qurib ketgandi – otasi, onasi, aka-ukasi – hammasi. Bir vaqtłari Kolchakda xizmat qilgan ukasi partizanlardan jon saqlab qolish uchun Atamanovkaga, opasinikiga qochib keluvdi, ammo bu yerda xam uni topib olishdi. Andrey endi beshga qadam qo‘yanida dastlabki, birinchi marta g‘ira-shira, uzuq-yuluq esida qolgan narsasi shu edi. O‘sanda begona, sersoqol odamlar tog‘asini yashirinib yotgan joyidan sudrab chiqib olib ketishgandi. Keyin onasi ukamni saqlab qololmading, deb otasiga bir umr ta’na qilib yurdi. Otasi g‘iq etmasdi: o‘zi german urushidan mayib bo‘lib kelgani uchun qaytib qo‘liga quroq olishni xayoliga ham keltirmasdi. U kolxozga kirgan kunidan boshlab otboqarlik qildi.

Otasi otlarni yaxshi ko‘rardi. Andrey boshqa biror kishi otasi kabi otlarga achinishini, ularning qadriga yetishini bilmasdi. U o‘z og‘ilidan, agar toy ham hisobga olinadigan bo‘lsa, uchta otni jamoat oxonasiga eltib topshirgani uchun boshqa birovning yolchitib qarashiga ishonmaganidan otboqar bo‘lishni o‘zi iltimos qilgan bo‘lsa ajab emas. Agar gap otlarga borib taqaladigan bo‘lsa, odatda vazmin, bo‘shtob bo‘lgan otasi hech kimni yuz-xotir qilmasdi. Bir kuni, kolxoz tuzilgan dastlabki vaqtarda dehqonlarning ko‘zi oldida, o‘sha paytdagi tirkishchi, hozirgi kolxoz raisi Nestorni rosa tuzladi-da. O‘sanda Nestor Chaqmoq laqabli ayg‘irni o‘lguday sillasini quritib, hammayog‘ini ko‘piklatib, lablarini qonatib, allaqayoqdan yeldirib kelgan edi, u Nestorni shunday bopladi, Mixeichni to‘xtatishga hech kimning yuragi dov bermadi. Aslini olganda ayg‘ir to kolxoz tuzilguniga qadar Nestorning akasi Ulyanniki edi (akasi keyinchalik fin urushida qalok bo‘lgandi), shuning uchun Nestor ayg‘irni o‘ziniki hisoblab, shunchalik choptirgan bo‘lsa kerak, ammo otasi hech nima ni yuz-xotir qilmadi. U ot go‘shtini yeyishdan hazar qilgan odamlardan jahli chiqardi, barcha hayvonlar go‘shtidan eng yaxshisi va tozasi deb isbotlardi, ammo o‘zi ot go‘shtini yemasdi, yeya olmasdi. Otlarni

yaxshi ko'rganidan, hatto o'lik bo'lsa ham ularga achinganidan yeya olmasdi. U: «O'lsam o'laman, ammo ot go'shti bilan odam go'shtini og'zimga olmayman», derdi. Andrey Stalingrad ostonalarida ochlikdan qutulish uchun ot go'shti yer ekan, otasining shu gapini tez-tez eslardi va men ko'rayotgan kunlarni otam ko'rgani yo'q, bo'lmasa bunaqa gapni aytishdan tilini tiyardi, degan xulosaga kelgan edi. Bir kuni o'sha yerda xarom o'lgan otni maydalab, pishirishga to'g'ri kelgandi – ular shunga ham xursand edilar, shuni ham o'qlar do'lday yog'ib turganda olib chiqishgandi.

Andrey archazorda bekinib, otam bo'yinchalar turadigan xonadan qachon chiqarkin, deb kutib turardi. Hovli o'rtasida, eski joyida butun yog'ochdan yo'nilgan ikkita uzun oxur turardi, ular taglik ustiga qo'yilgandi, uning yonida suv tashiydigan arava bor edi, uning shotisi xuddi Angarani nishonga olayotgan to'p singari baland ko'tarilgandi. Chap tomondagi qo'ra bo'ylab yengil va pichan tashiydigan aravachalarning shotilari ko'tarib yo bog'lab qo'yilgandi, ot va arava ashylari uchun hozirlab qo'yilgan qayin og'ochlari va to'g'alar qalashib yotardi, o'ngda, otxonalar orqasida otlar haydab qo'yiladigan joy boshlanib ketardi, u yerdan otlarning yelkallari qimirlab ko'rindi. Shuncha yildan beri bu yerda hech nima o'zgarmabdi, faqat eskirgan bo'lishi mumkin. Hovli pichan chirindilari va go'ngdan ifloslanib sarg'ayib, yumshoq bo'lib ketgandi, er-talabdanoq sovuq zahrini kesib go'ng va chirindining quyuq badbo'y hidi gupillab dimoqqa urilardi; Andrey nafas oldi-yu, esidan chiqarib yuborgani uchun dami qaytib ketdi, ammo dami qaytsa ham huzur qildi, quvonib shu hiddan mast bo'lisisi keldi.

Hovlida qornining ikki yoni qizg'ish timqora chiroyli qulun yolg'iz aylanib yurardi, qulun bo'liqqina, yaxshi parvarish qilangan, ingichka oyoqlari baquvvat edi, timqora sag'risi yiltirardi, yoli va peshonasidagi kokili kesilgandi. Andrey qulunni tomosha qilar ekan, buni hayf qilishmas, ayg'irlikka olib qolishsa kerak, deb ko'nglidan kechirdi. Qulun chindan ham juda chiroyli edi. Ammo juda sezgir ekan: u Andreyning shu yerdaligini sezdi va ro'parasidagi qo'ra oldiga kelib, yog'ochlar orasidan boshini suqidda, tanib olmoqchi bo'lganday, uzoq tikildi. Andrey uni cho'chitdi, qulun orqasiga bir sakradi-da, shu yerdamikin deganday, otxona ga qayrilib qarab qo'ydi va yana begona, shubhali odamga qaradi.

Shu-shu qulun nishxo‘rdlarni titarkan, har titgandan keyin qarab-qarab qo‘yaverdi.

Andreyning xayoli parishon bo‘lib, poyon-poyoniga ham yetolmay, gangib qolgan edi, xotirasi susayib ketgandi. Goho u nega o‘rmonda yashirinib yurganini tushunolmasdi, axir bir necha qadam bossa, shu qo‘radan oshib o‘tsa, yorug‘likka chiqadi-ku, nega shartta chiqavermaydi – nimani kutyapti o‘zi? Goho u chiqish zinhor-bazinhor mumkin emasligini, chiqqa olmasligini eslab qolardi-da, ilgari o‘ziga tanish bo‘lgan, boshidan kechirgan, islanib, qorayib yotgan hayot burchagi qanday qilib uning oldidan chiqib qolganiga sira aqli yetmasdi, axir u, Andrey ko‘pdan beri boshqa olamda yuribdi-ku. Qayoqdan kelib qoldi? Xayolida ko‘rindimi, sehrlab qo‘ydimi? Nima? Buning kimga keragi bor? Buning unga qanday aloqasi bor? U qanday qilib bu yerga kelib qoldi?

Andrey otasining bo‘yinchalar saqlanadigan xonadan chiqqanini payqamay qoldi, bir mahal qarasa otasi biyani jilovidan tutib, uni otxonadan olib chiqyapti. Biya bo‘g‘oz bo‘lib, oy-kuni yaqinlashib qolgandi, biqinlari chiqib ketib, qorni osilib turardi, u og‘ir, sekinsta oyoq bosardi. Andrey avval ana shu biyaga e‘tibor berdi, uni hammadan ko‘ra ana shu biya hayratga solgan edi. Nimagaligini uning o‘zi ham: yo ko‘pdan beri bo‘g‘oz biyani ko‘rmagani, ularning qanaqa bo‘lishini, hatto bu yorug‘ olamda ularning borligini ham esidan chiqarib qo‘ygani uchunmi, yo darrov ko‘zini yirib-yirtib otasiga qaramaslik, ko‘nikish va uchrashuvga yaxshi hozirlanish uchun ko‘z qirini tashlab turishga qulay bahona topilganiga suyunib ketganidanmi, buni tushuntirib berolmas-di. Otasi biyani olib chiqib to‘xtadi, sayr qildirish kerakmikin, deganday uni aylanib o‘tdi, keyin yana no‘xtasidan ushlab, yetaklab ketdi. Otasi pastki qo‘ra bo‘ylab bur-chakkacha bordi-da, keyin tepalikka, Andrey turgan tomonga qarab yurdi... Andrey shoshib, tipirchilab qoldi, u o‘rnida qolishini ham, archazor ichkarisiga yashirinishni ham bilmasdi, ammo oxiri shoxlar uni yaxshi pana qilishiga ishonib, o‘rnida qoldi-yu, lekin har ehti-molga qarshi cho‘nqaydi.

Otasi uni frontga jo‘natayotganda so‘nggi marta xayrlashayotib, titrab ketdi. O‘zini tutolmay, beixtiyor: «Yana diydor ko‘rishish nasib etarmikin, nasib etarmikin?» deb yuborgandi. O‘shanda otasining nazarida ikki yo‘l bor edi xolos: yo qachon bo‘lmasin bir-biri bilan

diyordi ko'rishadi, yo abadiy ko'rishmaydi. Ammo shulardan biri ikkinchisini ko'rishini-yu, ikkinchisi esa, birinchisini ko'ra olmasligini xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak. Sodda odamning kallasiga bu gap qayoqdan ham kelardi, deysiz. Hozir esa, xuddi ana shu hodisa ro'y berib turibdi. Otasi yaqinlashib kelardi; egnida fufayka, belini kamar bilan qisib tang'ib olibdi, boshidagi qo'l bola paxtalik quloqchinining quloqlari yuqoriga qaytarib qo'yilgan, oyog'ida choriq. U sekin, horg'in kelardi; uning horg'inligi shalvirab osilib turgan qo'llaridan, oyog'ini sudrab arang qadam tashlashidan, oqsab yurganida gavdasining qattiq lapanglashidan sezilib turardi – u hozir ko'proq ta'qibga bardosh berolmay beixtiyor harakat qilayotgan yarador qushga o'xshardi. Andrey endi undan ko'zini uzmasdi. Otasi yaqinlashib kelardi, u yaqinlashib kelgani sari Andrey ham ehtiyotkorlikni unutib, o'midan turdi, qaddini rostladi, u o'rnidan turarkan, go'yo taxta bo'lib botin-botinigacha qotib qolganga o'xshardi, ko'z oldini qorong'ilik bosib, yaxshi fikr yurita olmasdi. Qo'raga ozgina qolganida otasi yo'talib, to'xtadi. Orqasidan kelayotgan ziyrak biya uni tushunganday qarab turardi. U qo'llari bilan ko'kragini ushlab olgancha, yuzini bir chetga burib, xirillab, o'pkasi uzilgudek bo'lib uzoq yo'taldi, tinchlangandan keyin esa boshini ko'tarib, to'g'ri ro'parasiga, Andreyga qaradi. Ularning orasi yigirma qadamcha kelardi. Andryoyning yuragi orqasiga tortib ketdi. Agar otasi yana birpas shunday qarab tursa, Andrey chidab turolmasdan uning oldiga chiqqan bo'lardi, ammo otasi yerga qarab, otni yetakladi. Andrey otasi tashlagan nigohdan ko'zlar qamashib, qiyofasini yaxshilab ko'rolmadi, uning qanchalik o'zgarganini payqay olmadidi, u faqat yuzni, otasining oppoq mo'ylovi osilib turgan yuzini ko'ra oldi xolos: keyin, uzoqlashib ketayotgan otasiga tikilar ekan, nazarida, vujudida har qanday ikir-chikirni ham ilg'ab olishga qodir allaqanday bir tuyg'u uyg'onganday bo'ldi. Lekin bu tuyg'u kechikib uyg'ongan edi. Otasi yon darvozadan biyani otxonaga olib kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi, besh daqiqalardan keyin Andrey otasi panshaxada bir talay pichan ko'tarib chiqqanini birrov ko'rib qoldi. Keyin otasini kimdir chaqirdi. Andrey ketadigan vaqt bo'lganini payqadi.

U yo‘lga chiqib oldi-da, yashirinmasdan, shoshilmasdan yuqoriga qarab ketaverdi. Lekin qayoqqa ketayotganini o‘zi ham bilmasdi, shunchaki odamlardan uzoqroqda, hozir ko‘rib-boqqanlaridan olis-roqda bo‘lish uchun qadam bosib borardi. Ammo u qo‘ra oldiga borganiga achingani yo‘q, u otamni ko‘ray deb halloslab bordi-yu, lekin otasi ro‘parasiga kelib turishini xayoliga ham keltirmagandi. Kim biladi, balki u hozirgidek bir sabab bilan kutilmaganda bexosdan uchrashib qolsak-a, degan umidda bugun bu yoqqa yugurib kelmadimikin? Turgan gapki, u tavakkal qildi, ammo buning evaziga uning tamom bo‘lay deb qolgan yuragi ezilmadi, aksincha, endi yanada ko‘proq toblandi – bu unga asqotadi hali.

E, nimasini aytasiz! U otasini, o‘z otasini ko‘rdi, bir vaqt kelganda bu ham hisobga olinadi. Bundan buyog‘iga bexijil yashaydi: bitta qarzidan qutuldi. U otasini ko‘rishi shart edi: o‘lim oldidan farzand otaga bir nima deb ketadigan udum bor shekilli. U bugun ertalab rozi-rizolik so‘rab, uning ro‘parasida turdi-ku, shunaqa qoida bo‘lishi kerak. Otasi ham rozi bo‘ladi. Otasi nega uni payqamadiykin-a? Axir naq ko‘zlariga qarab turdi-ku. Balki ko‘rgandir ham, ammo tan olgisi kelmagandir, o‘zini bo‘sliqqa qarab turgandek kilib ko‘rsatgandir. Yo‘q, payqamadi. Bo‘lmasa so‘rardi. «U-ku so‘rardi-ya, ammo sen nima derding? Shundan keyin sen nima qilarding-u qayerga borarding? O‘z yuelingga, yaxshisi, birovni sherik qilmay qo‘yaqol, bir o‘zing ko‘taraver. Mana, Nastena yordamlashyapti, shuning uchun ham yuki ikki hissa og‘ir. Chamasi, endi sekin-ästa Nastenani ham bu yukdan xalos qilish kerak bo‘lar. O‘zi, faqat o‘zi ko‘tarishi kerak. Nastenasiz-a? Yolg‘on, Nastena bo‘lmasa o‘lasan. Nastena senga hayot baxsh etyapti, balki bu hayot bundan keyin ham uzoq vaqt, hatto sen o‘lgandan keyin ham davom etishi mumkin».

U quyoshning chiqqanini ham sezmay qoldi, balandlikda, atrofidagi daraxtlari kesilib, yo‘l ochilgan o‘rmonda quyosh naq ko‘ziga tushdi, Guskov esa ko‘zini qisdi, shu zahoti butun atrof to‘satdan harakatga keldi – hozircha zaif, ohista, ammo tez yoyilib ketadiganga o‘xshaydi. Kun yaxshi bo‘lib, jaranglaydi chamasi, osmon ochiq, tiniq edi, havo quyosh taftidan yumshab, yo‘ldagi muz eriy boshladi. O‘rmonda hali qor bor edi, ammo endi u yupqa-

lashib, ayrim joylarda bulturgi butalar qaqqayib chiqib turardi, yer olachalpoq bo‘lib qolgandi. Hali butunlay uyg‘onmagan daraxtlar badanlariga suv yugurib, o‘zlarini rostlab, isib, sekin-asta g‘imirlab qolishgandi. Kechagi eruvgarchilikdan paydo bo‘lgan hid ko‘tarilib ketmaganidan havo taxir edi. Quyosh nuri go‘yo yerga yetmasa-da, yer betiga uzunasiga yoyilganga o‘xshardi, ammo borgan sari pastga qiya bo‘lib borardi.

Guskov qishloqdan tezroq ketish uchun shoshilishi kerak edi, lekin shoshilishni istamasdi. Shu sababdan u lattaday bo‘shashib, kaloqlanib qadam bosardi. Otasi bilan uchrashuv unga ta’sir qilmay qolmadi: Andreyni loqaydlik tuyg‘usi chulg‘ab oldi. Qayerga, nimaga boryapti, bu yerdan nima qidiryapti? O‘z inida jimgina o‘tiravergani, bu yoqlarda tentib yurmay, issiq o‘rninisovutmagani yaxshi emasmdi, axir. U o‘sha inida ancha ko‘nikib qolgandi, tinchlanib qolgandi, bu tomonlarga kelib, faqat yarasiga tuz sepishini oldindan bilar edi-ku. E, yo‘q, shunday qilishi kerak edi, shart edi – keyinchalik o‘ziga oson bo‘ladi. Uy hayvonlari borligini ko‘rmasdan turib, o‘zingni chinakamiga yirtqich hayvon his etolmaysan, eski kindigingni kesib tashlamasdan turib, yangi hayotni boshlolmaysan, o‘sha eski kindik esa, Andrey uni yashirishga qanchalik urinmasin, likillab xalaqit berib yuribdi. U yaqindan o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, jonajon uyiga endi sira qaytib kelolmasligiga, otasi, onasi bilan gaplasholmasligiga, anavi yerlarni haydolmasligiga ishonch hosil qilish uchun bu yerga kelishi kerak edi. Shuning uchun u achchiqni achchiq kesadi, degan qadimiy aqidaga amal qilib, bu yerga keldi. Endi u bu tomonlarga kelish uchun unga yo‘l yo‘qligini uzil-kesil tushunadi. U ertami-kechmi boshiga shunday kulfat tushishini sezardi, sezardi-yu, oldindan olib orqasiga tashlardi, endi esa azobini tortib yuraveradi.

Otasi bilan uchrashuv, uning nazarida, ichida yashirinib, qulay payt kelishini kutib yotgan dard-alamini yangilab, a’zoyi badanini boshqatdan shiddat bilan sirqiratib yuboradigandek edi. U ortiqcha o‘rtanib yurmaganini payqardi. Endi bu uchrashuv xuddi lip etib esga keladigan tush singari uning ko‘zi oldida turardi, turganida ham har daqiqada qaqqayib mana man deb, yurishga, o‘ylashga xalaqit berardi. U dam-badam shu uchrashuvni eslardi, eslardi-yu, otasini shunchalik yaqindan ko‘rganiga taajjublanib qotib qolar, goh otam meni ko‘rib qolishi mumkin edi-ku, degan vahimadan titrab ketardi, lekin

u bu uchrashuvni eslasa, battar iztirob chekishidan cho‘chib, o‘ziga avaylab, chalg‘itib, ohista, ehtiyot bo‘lib qayta xotirlardi. Bugun iztiroblarning o‘rni emas: u begona joyda. Begona joyda? Guskov ishshayib, o‘z fikriga qo‘sildi: ha, begona joyda – bu yerlarda qulqoni ding qilish kerak, hissiyotga berilsang qimmatga tushadi.

Negadir uning esiga hu anavinda, Irkutskda uyida berkinib turgan gung xotin Tanya tushib ketdi, biron-bir turtki sabab bo‘lmasa ham shundoq eslab qoldi. Tanyaning yuzi, bir nimani so‘ramoqchi bo‘layotganday qimirlab turgan lablari shunchaki ko‘z oldidan birrov o‘tdi, shundan keyin nogoh Guskovning yana o‘sha yerga borgisi kelib qoldi. O‘sha yerga borsa-yu, Tanyani olib, dunyoning bir chekkasiga, odamlar yo‘q joyga juftakni rostlab qolsa, gaplashishni unutsa, Tanyani tahqirlab, o‘ch olsa-yu, xumordan chiqsa, keyin unga achinsa-yu, yana uni xo‘rlasa – Tanya hammasiga chidaydi, uni baxtiyor qilish uchun ko‘p narsaning keragi yo‘q. Gunqlarning yuzi juda g‘alati bo‘ladi-da: jilmaysa, ko‘zlar sovuq, loqayd boqib turaveradi; lablaridan boshqa hech yeri qilt etmaydi, bez bo‘lib turaveradi. U, albatta, Tanya ham munosib emas, lekin u shunday gunoh qilishdan tap tortmasdi. Tanya shundoq ham alamzada, shuning uchun uni bundan buyog‘iga ham ranjitsa bo‘laveradi. Aytaylik, uchrashib qolding, xo‘sh, uni nimaga xafa qilishing kerak ekan, deb so‘radi Andrey o‘zidan. Shuning uchunki, gunoh qilgan kishining yana gunoh qilgisi keladi, ya’ni yalang‘och suvdan toymaydi. U, ehtimol, bundan boshqacha yo‘l tuta olmasa ham kerak, uning o‘zining shu ko‘yga tushib qolganini tasdiqlovchi dalil doimo kerak. Afia shunda u o‘zini ancha dadil his etardi.

Guskov dalaga chiqib, o‘ngga, olisdagi sayxonlikka tomon bуrildi, u kunni shu yerda o‘tkazmoqchi edi. Bunaqa paytlarda u yerda odamlarning qiladigan ishlari yo‘q edi: omonlik yillarida ham odamlar u yerga go‘ng tashimasdi, hozir bo‘lsa, buning ustiga shunday pilchiramada sira ham kelmaydi. Birorta tinchimagan odamning ham kelishi gumon: o‘rmonдан biron nima kerak bo‘lsa, o‘sha qishloq yonidagidan olishi mumkin. Bordi-yu, bitta-yarimta adashib kelib qolsa, kelaversin, qo‘rqinchli yeri yo‘q, odamlar endi undan qo‘rsin, u bugun qo‘rqib-pisib yurmoqchi emas. Unday odamni tanib oladigan darajada yaqin yo‘latmaydi ham, uzoqdan esa, xohlagancha qarayversin, kim ekan deb bosh qotiraversin, Andreyning parvoyiga

kelmaydi. Uning bu yerlarda xo‘jayindek aylanib yurishga haqi bor, u mana shu dalalarda el qatori ishlagan, ularning qanchadan yeri borligini, urushdan oldin qayerga nimä ekilganini, qanchadan hosil olin-ganini yoddan biladi. Bu yerlarning to‘qay bo‘lib ketmay, hali ham bug‘doy berishida uning ham hissasi bor – hozir emas, ilgari mehnat qilib qo‘ygan, albatta. U bu yerda begona emas, yo‘q. Yerlar ham uni tanib, yastanib, qotib yotibdi, endi u faqat ana shunday xotiraga ishonardi. Odamlar bir-birlarini eslay olmaydi, oqim ularni juda tez olib ketadi; odamlar o‘zлari yashagan yerlarni eslashi kerak. Yer esa, odamga nima bo‘lganiny bilolmaydi, yer uchun odam pokiza mavju-dotdir.

Quyosh borgan sari baland ko‘tarilib, qizdirardi, shuning uchun yo‘lda tomchilar yiltirab, qo‘shilib, qisqa-qisqa sizib oqa boshlagandi. Atrofda ko‘kish tovlanayotgan qor bo‘kib, og‘irlashib borayotgandi, havo ham sekin-asta nam tortib, og‘irlashayotgandi. Guskov piymada borayotgandi (uning boshqa poyabzali yo‘q edi, Nastena oxirgi marta uchrashganida unga eski chorig‘ini keltirib berishga va’da qilgandi), hammasidan ham hozir shu piyma Guskovning joniga tegayotgandi. Piymalar uni sezdirib qo‘yayotgandi, o‘z odami bo‘lib ko‘rinishiga qo‘ymayotgandi: piymaning bemavrid kiyilishi, beo‘xshovligi, yaroqsizligi go‘yo yurib borayotgan yerdan uni ajratib turardi. Hozirdanoq piymada yurish qiyin bo‘lib qolgandi, u uch-to‘rt soatdan keyin kun obdon qizisa, qanday harakat qilishini tasavvur etolmasdi. Chamasi, biron yerda pisib o‘tirishga to‘g‘ri keladi, shekilli; oxirgi sayxonlikdagi jilg‘a bo‘yida qishlov bor, o‘sha yerda o‘tirsa bo‘ladi. Yo‘q, u bugun qishlovda pisib o‘tirishni sira xohlamayapti, joniga tegib ketdi, bu yoqqa bekinaman, deb kelmagan-ku, axir. Zo‘r kelsa piymasini yechib olib, oyoq yalang shalop-shulup qilib ketaveradi, atrofga qancha ko‘p nafasi tegsa shuncha yaxshi, qaytib shunaqa kunlarni ko‘rmasligi ham mumkin.

Andreyning esiga ko‘rgan-kechirganlari – dalalar, uvatlar, ekin yeri o‘rtasida qaqqayib turgan qari, g‘adir-budir tilog‘och, ensiz o‘rmondagi archa ostidan chiqib turgan buloqcha, hatto o‘rmon ortidan shu yerning qiyosda tengi yo‘q osmoni birin-sirin kela boshla-di, ammo Guskov sarguzashlardan qo‘rqib, ulardan tonardi, o‘ziga yuqtirmaslikka harakat qilardi, shuning uchun ular boshlanardi-yu, shu zahoti uzilib, qayoqqadir pastga qarab to‘zib ketardi. Xotiralar-

ga aslo berila ko'rma, berildingmi, tamom, keyin qutula olmaysan. Hozir hech nimani o'zgartirib bo'limgandan keyin bu xotiralar, bu qyinoqning nima hojati bor? Afsus, xotira bunaqa narsani tushunmaydi-da. Uni qarangki, bir-biriga yetti yot begona bo'lgan ikki odamning xotirasi bir xil, qani endi shu xotirani ikkiga taqsimlab bo'lsa – bo'lmaydi. Qani endi u ilgari ko'rgan-boqqanlarini yo'q qilib tashlasa, butunlay unutib yubora olsa, ancha yengil bo'lardi-ya, ammo iloji yo'q-da: o'sha ilgarigi odam hali bor, ezilib, erksiz bo'lib yuraveradi, uzoq yashaydi – undan qochib qutulib bo'lmaydi. Shuning uchun u, Guskov, tinchlik nimaligini bilmaydi, ozodlik yuzini ko'rmaydi, umrining oxirigacha sarson-sargardon bo'lib yuraveradi.

U shu fikrga ko'nib, o'zini shunga ishontirib ketayotganini payqab qoldi-yu, birdan hammasiga o'chakishib, yana nimadandir umid qila boshladi: jimitday umid indamay qalbining chuqur bir yerida shunday yashirinib yotardiki, goho uning o'zi ham bu umidi payqolmay qolardi, ammo bu umid bor edi, nafas olayotgandi, ahyon-ahyonda uning hadiksirab ohista qimirlab qo'yanini eshitardi. Ammo umid qiladigan narsa yo'q, hech nimadan umid qilib bo'lmaydi, hech qanday mo'jiza yuz bermaydi, chamasi, Guskovning haqiqiy aybi birinchi marta qanday bo'lsa, shundoqqina ko'zi oldida shafqatsizlik bilan ochiq-oydin namoyon bo'ldi. Nazarida u haqiqatni jisman his etayotgandi, go'yo, u yoq-bu yog'idan o'tib ketganday edi: u bu haqiqat sovug'idan titrab ketdi. U nega bunday ahvolga tushganini o'zi ham bilmasdi. Oldin ham, keyin ham sira bunaqa bo'limgandi; faqat shu tobda, qadrdon, diliga jo bo'lib qolgan yerlarga ko'tarilayotgan paytda shunday bo'ldi, to'xta-to'xta, uni o'limga mahkum etgan aynan shu yerlar emasmikin? Guskov atrofga ko'z qirini tashladi va o'zini qattiq koyib, zaharxandalik bilan kulib qo'ydi. Sabr qil, mana hozir bir qushcha uchib keladi-yu, odamdek gapirib, ha, to'g'ri topding – seni mahkum etgan o'shalar deydi. Guskov o'zini tetik tutishga harakat qilar, lekin ichida nimadir paydo bo'layotgandi, tushunib bo'lmaydigan yoqimsiz bir nima o'sib-ulg'ayayotgandi, garchi u shoshilsa ham, katta-katta qadam tashlashga urinsa ham, oyoqlari chalishib, nafas olishi tezlashib, hansiray boshladi. «Qushcha, – degan fikr nogahon miyasiga keldi. – Men o'zim bu yerlarda erkin qushday yashagandim. Yana nima kerak edi menga? Nima?».

Shundan keyin qulf, tamba, qatag 'on bo'lib, qo'l-oyoqlarini boy-lab turgan barcha tuyg'ular chilparchin bo'ldi. Endi u o'zini bosisha, tinchitishga qodir emasdi.

«Agar shu urush bo'l maganda, shu la'nati urush bo'l maganda, – deb o'zini o'zi oqladi u, – ilgarigiday yashayverardim, ilgarigidek ishlayverardim. Nechaga kiribman o'zi, bor-yo'g'i o'ttizga, loaql umrimning yarmi ham emas. Hali umrimning yarmini ham yashamabman-u, allaqachon hammasi tugadi, tamom. Nega fagaqt men shunaqaman? Bu yorug' olamda ozmuncha odam bormi... Men xudoga nima yomonlik qilibman, nega u meni shu ko'yga solib qo'ydi, gunohim nima? – u ingrab, qayerga o'tirsam bo'lakin, deb joy qidira boshladi, oyoqlari qimirlamay qoldi. Oldinda, yo'l yonida iflos, ho'l g'o'la dumalab yotardi, u shu g'o'laga o'tirdi. – Axir men ham el qatori yashashim mumkin edi-ku, – u miyasiga kelgan shu fikrga yopishib oldi, – ishlardim, axir men yaxshi ishchi edim-ku, hamma bilardi-ku. Hozir biron ish bilan bu yerga kelardim... Mana, hozirgidek kelardim, mana shunday o'tirardim-u maza qilib chekardim, keyin ishlarni bitirib, qishloqqa qaytib ketardim... – Bu imkoniyat shunchalik yaqin, shunchalik amalga oshadigandek tuyuldi, u esankirab, o'zini yo'qotib, shundaymikin deb o'yladi va chinga yo'yib, nima ish bilan bu yerga kelgan bo'lsam, tezroq shu ishni tugatay-da, keyin qishloqqa qaytay, deb atrofiga cho'zilib qaradi. Yo'q, olam teskari bo'l mabdi, hammasi joy-joyida turibdi. Bu shirin uyqudan uyg'onish emasdi, bu har kuni uning mavjudligini, kim bo'lib qolganligini ta'kidlovchi talay-talay hodisalardan biri edi, xolos: bu haqiqat, ayniqsa, hozir juda achchiq va dahshatli bo'lib tuyulayottandi, shuncha vaqtdan beri arang tiklagan mudofaa istehkomi bir zumda qayoqqadir g'oyib bo'ldi, endi u himoyasiz qoldi; bir muloyim, yoqimsiz lohaslik uning a'zoyi badanini qamrab oldi, hatto o'ziga po'pisa qilib qo'yishga ham uning holi kelmasdi, u negadir bu lohaslikdan xursand ham edi, chunki u bu lohaslikni yengishga qodir emasdi. – Hammasiga urush aybdor, hammasi urush tufayli, – u yana o'zini o'zi oqlashga, avrashga tushdi. – Unga shuncha o'lib ketganlar, mayib-majruh bo'l ganlar kamlik qilibdi shekilli, yana menga o'xshaganlar ham kerak bo'lib qolibdi. Bu urush qayoqdan chiqdi o'zi? Birdan hammaning boshiga tushdi-ya! Dahshatli, g'oyat dahshatli jazo. Meni ham, meni ham o'sha yoqqa, jahannam oloviga

yuborishdi, bir oyga emas, ikki oyga emas, bir necha yilga-ya. Bu-yog'iga ham chidash uchun sabr-toqatni qayooqdan olasan? Kuchim yetganicha chidadim, axir darrov juftakni rostlab qolmadim-ku, foy-dam tegdi. Nega meni boshqalarga, yomonlik qilishdan boshqa narsani bilmagan ashaddiylargacha tenglashtirishadi? Nega hammamizga bir xilda jazo berilar ekan? Hatto ularga osonroq, loaqal ularning joni azob chekmaydi-ku, mening jonim qachon endi hech nimani his qilmay qo'yadi, tinchiydi... Mana, qishloq yoniga keldim deguncha yurak bo'lganicha bo'ldi, shalvilladim-qoldim. Axir, men o'z odamlarimizga qarshi borgan biron-bir vlasovchi emasdum-ku, men o'limdan chekindim. Nahotki, hisobga olinmasa? O'limdan chekindim, – deb takrorladi o'rinali so'z topganidan quvonib va birdan o'ziga qoyil qoldi: – Qara-ya, shunday dahshatli urush-a! Men esa boplab juftakni rostlab qoldim. Buni ham eplash kerak-da, qoyil-e!»

U boshini ko'tarib, o'zi o'tib kelgan dalalar ustidan qayoqqadir qaradi-da, o'chakishgandek qattiq-qattiq qah-qah urib kului.

U shu alpozda o'zicha allanimalarni uzoq pichirlab o'tirdi, it kuniga tushganidan ingragisi kelgan paytlarda lattaday bo'shashib ketardi-da, jonini sug'urib olayotgan og'riqdan taxta bo'lib qolardi, azob chekib, o'ziga kelgach, to qayg'u-hasrat uni yana o'z girdobi-ga tortgunicha kandaydir umidsizlikka tushib, g'araz va istehzo bilan o'zidan o'zi kulardi.

Keyin u bu azob-uqubatlar hammasi harakat qilmaslikdan, hech ish bilan shug'ullanmaslikdan kelib chiqyapti, deb o'yladi-da, o'rnidan turdi, o'zi o'tirgan g'o'lani esa, bitta-yarimta chetga olib qo'ysin, deb dumalatib yo'lga chiqardi. Atrofga bir sidra ko'z yugurtirib, yo'lida davom etdi. Ko'ngli muzday, g'ash edi, ammo u tez-tez odim otib ketayotgani uchun chindan ham o'y-xayollarga berila olmadi, o'y-xayollari ortda qolib ketdi.

Ertalabki quyosh ham astoydil qizdira boshladidi, erigan qor suvlari unsizgina, zo'r-bazo'r bir-biriga qo'shilib, oqa boshladidi: tog' etagidagi dalalar tepasida havo to'lqinlanib, jimirlardi, uning ortidagi o'rmon esa, oftobda oqarib, aylantirib-aylantirib tortilgan uzun chiziqla o'xshardi. Qishloqdan esa, xo'rozlarning mastona, tantanavor qichqiriqlari eshitilardi: uchib ketayotgan qarg'alar jonga tegib, qattiq-qattiq qag'illardi, mayin shabada yer yuzida aylanib esardi, Guskovning yuzi shabadadan emas, oftobdan achishayotgandi, sha-

bada esa faqatgina quvlashmachoq o'ynayotgandek goh yugurib ketar, goh to'xtab qolardi. Qishlov oldidagi xirmonda iflos, hurpaygan chumchuqlar chirqillashib, ikkita yovvoyi kaptar g'uvillashib to'ponni titishardi, Guskov yaqinlashib kelgach, parrandalar gur etib ko'tarildi-da, shuvillab uning yonidan uchib o'tib ketdi.

Guskov xirmon yonida to'xtab, chumchuqlarni kuzata boshladi. Andreyevskda, odamlardan olis yerda chumchuqlar yo'q edi. U o'zidan chumchuqlar necha yil umr ko'rarkan, deb so'radi va shu on, jonsarak qushlar galasi ichida men shu yerdaligimda uchib yurgan chumchuqlardan ham bormikin, deb ko'nglidan kechirdi. Lekin u chumchuqlarning qancha umr ko'rishi bilmasdi, ilgari bunaqa behuda narsalar uni qiziqtirmasdi, shuning uchun unga yana alam qilib ketdi. U chumchuqlarni cho'chitib yuborib, qishlovga keldi va qor-suvdan shishib qolgan eshikni arang ochdi. Ichkari sovuq, huvillagan edi; Guskov tirikchilikka yaraydigan biron nima bormikin, deb u yoq-bu yoqni qaradi, lekin hech nima topolmay, qaytib chiqdidi. Uni nimadir toliqtirayotgandi, ovqatlangisi kelyaptimi yoki uyqusi kelyaptimi, buni o'zi ham bilmasdi. U o'zi bilan ozgina ovqat olib olgandi, ammo uni keyinroq yeyishga asrab qo'yish kerak edi. U nimagadir shu yerdan, garchi bu yerdan topishning sira iloji bo'lmasa ham, biron yegulik toparman, deb umid qilgan edi: axir, u tilanib qishloqqa bormaydi-ku, qishloqdan boshqa joyda esa, bu paytda hech nima o'smaydi, saqlanmaydi.

U nima qilishini bilmay, anchagacha kalovlanib turdi, keyin, qayerga joylashishini chamalab, sinab ko'rmoqchi bo'lganday, tog' tomondan oftob tushib turgan qishlov orqasiga o'tdi va u yerdagi g'o'лага o'tirib, devorga suyandi. U bir vaqtлari, o'ttiz uchinchi yildagi ocharchilikdan so'ng shu sayxonlikdan yer ochgandi, uning ro'parasida o'zi haydagan ikki yarim gektarlik dala yastanib yotardi. Guskov keraksiz xotiralarga berilishdan qo'rqib, hadiksirab, pastki tomondan qoraya boshlagan, cho'girtaklari qaqqayib qolgan ang'izga qaradi, ammo ro'parasida dala uni ochiq chehra bilan kutib olib, tasalli berayotganday tuyuldi: Guskov oftobda isinib, bo'shashib, chindan ham mudradi. Goho-goho og'ir qovoqlari ochilardi; faqat uning ko'zlarigina hech nimadan tashvishlanmay, biron yerda begona sharpa paydo bo'lmadimikin, deb odattdagidek kuzatardi. Hammayoq tinch edi.

Guskovning ko‘zi ilinib qisqa, uzuq-yuluq, bir-biriga bog‘-lanmagan, poyintar-soyintar tush ko‘rdi. Tushiga razvedkachilar rotasining komandiri kapitan Lebedev kirdi. U vzvodni qidirishga jo‘natayotib, negadir unga, Guskovga, agar nemislар tomoniga qo‘chib o‘tsang, seni generalga almashtiraman, ammo otib tashlamayman, yo‘q, bu sen uchun juda katta sharaf, lekin uch kechayu uch kunduz jazolayman. Shunday jazolaymanki, asti qo‘yaver, deb pi-sanda qilarmish. Yana tushiga Smolenskdagi betaraf mintaqasi kiribdiyu, nogahon Atamanovkaning tegirmonini ko‘ribdi, u shu tegirmon-ga ishga tayinlanganmish. Ikkala tomondan ham unga ayovsiz o‘q yog‘dirarmishlar, faqat u tufayli urush davom etayotganmish, qay-si tomon uni otib qulatsa, o‘sha tomon yengarmish. Keyin u o‘zini Novosibirsk gospitalida ko‘rdi. Shopmo‘ylov xirurg, tibbiyat pod-polkovnigi uni o‘z kabinetiga chaqirib, spirit ichishni taklif qilib-di, u spirit ichayotganida podpolkovnik unga hozirgina qazo qilgan polkovnik o‘rnida ishlashni taklif etganmish. U yana frontga borib qolganmish, endi gaubitsa batareyasida xizmat qilarmish: u pritsel solingen yashikchani yo‘qotib qo‘yganmish-u, uni tribunalga berish-ganmish. Projektorlarning ravshan nuridan yop-yorug‘ bo‘lib turgan uzundan-uzun, torgina dala bor emish: u shu daladan ketayotganmish, issiqdan nafasi qaytarmish, nur esa borgan sari qizdirarmish, sekin-asta ko‘kish tusga kirib, lovillab yonarmish.

U uyg‘ondi, lekin anchagacha bu betayin, yomon tushlardan ezi-lib, o‘z yog‘iga o‘zi qovirilib, qimirlamay o‘tirdi. Bu tushlarning bi-rontasi haqiqatga to‘g‘ri kelmasdi, hech qachon uni Birov yomon deb o‘ylamagandi. Ammo uning so‘nggi qadami butun umrini xazon qildi: hatto tushlari ham aloq-chaloq bo‘lib ketdi, ko‘rayotgan tushlari uning o‘ziga qarshi chiqayotgan edi. Shunday bo‘lgach, boshqalar-dan nima gina?

Tushiga kirgan tegirmon unda o‘sha yoqqa borish fikrini tug‘dirdi. Tegirmon olis edi, ammo Guskov uchun ham kun endi boshlangandi. Bo‘lsa-bo‘lmasa tegirmonda hozir hech kim yo‘q, tegirmon tortadigan vaqt emas. U negadir chumchuqlarni yomon ko‘rib qoldi-yu, yana ularni to‘pondan uchirib yubordi va dala che-tidan pastga o‘rlay boshladi, so‘ngra, dala tamom bo‘lgach, shartta soyga qarab burildi. O‘rmondagi qor deyarli erimagandi, bu yerda va ochiq joylarda oftobning tafti sayxonlikdagiga qaraganda kuchsiz

edi, o'rmon yalangligidagi daraxtlarning yerga tushib turgan soyalari go'yo siqib chiqarilgan, ochilib qolgandek aniq-tiniq edi. Guskov bu yerda piymasi botib ketavermaganidan yana dadillanib qoldi. U avvaligi yillardagidek yana hayajonlana boshladi – u bir vaqtlar tegirmonga kelishni yaxshi ko'rardi. Kim yomon ko'rardi deysiz? Axir, tegirmon tortish, bu – bir bayram, xursandlik, mehnat samarasi-ku. Yig'im-terimdan keyin odamlar bu yerga kelardilar, navbat kutardilar, jon-jon deb tunagani qolardilar, lekin uxlamasdilar, chollar chekib, gurunglashib o'tirardilar, bo'ydoqlar va yoshlар esa, o'yin-kulgi qilardilar, butalar orasidan qizlarning qiyqiriqlari eshitilardi, har xil ermak o'ylab topardilar, gurillab turgan gulxanda ketma-ket choy qaynatildi, tegirmon toshi esa, guv-guv etib aylangani-aylangan, og'zi ochib qo'yilgan qoplarga esa issiqliqina, yangi tortilgan un tushgani-tushgan edi.

Bu xotiralar Guskovning chehrasini ochdi, u jilmayib qo'ydi, nazarida, ko'ngli ham ancha ilib, yorishganday bo'ldi. Ammo uning bu kayfiyati uzoqqa cho'zilmadi: u tegirmonga yaqinlashib kelarkan, sergaklanib, qulog'ini ding qildi va oldinga engashib to'xtadi-da, o'ziga o'zi hushyor bo'l deb, ohista lablarini qimtidi. Odam zotining arvohi ham yo'qqa o'xshardi: yuqoridagi eshik ham, pastdagи eshik ham qulflog'liq. G'alla olib chiqiladigan zinada esa, qor bor edi. Guskov shoshilmaslik uchun yana birpas o'zini tiyib turdi, keyin yaqinidagi sambittol butalari oldidan eshikka qarab yurdi. Eshikdagi qulf ilgarigidek nomigagina osib qo'yilgandi: Guskov bir tortgan edi, qulf ochilib ketdi. Shunisi ma'qul, yo'qsa Andrey zulfini bilan sug'irib olardi, yo bo'lmasa, romni ko'chirardi, ammo shashtidan qaytmasdi.

Ichkari sovuq, chang bosgan edi, polda piymalarning oq izlari qolgandi. Guskov avval tegirmonchining hujrasiga qaradi, u yerdagи tokchadan katta, sirlangan krujka, ikki bosh sarimsoqpiyoz, yarim quti tuz topdi, devorda dastarra osig'liq turardi. U bularning hammasini o'rindiq ostida yotgan chipta qopga tiqdi, keyin tegirmonning hammayog'ini birma-bir ko'zdan kechirishga tushdi. U yuqoriga ikki marta chiqdi, barcha teshik-tuynuklarni qaradi, lekin yana bir qopu muqovasi yirtilgan kitobdan bo'lak foydali narsa topolmadi. Andrey ularni ham oldi: yarab qolar.

U tashqariga chiqib, yana eshikka qulfni ilib qo'ydi-da, atrofga ko'z yogurtirdi, nogahon uni tegirmonga o't qo'yib yuborsammikan,

degan tiyiqsiz, dahshatli istak qamrab oldi. Nima, qiyin ekanmi, ana, anavi yerda qayin po'stlog'i yotibdi, gugurt bo'lsa bor, qurilganiga ancha bo'lgan, jangillab turibdi, birpasda lov etib yonib ketadi. Biroq o'z holi o'ziga ma'lum edi, yondirib yuborish mumkin emas edi va pirovardida o't qo'yishga qodir emasligini tushundi, ammo o'zidan bir mudhish xotira qoldirish istagi shunchalik kuchli ediki, u o'z irodasiga ortiqcha ishonmay, aqli bovar qilmay, qopini ko'tarib, gunohdan uzoqroq yurish uchun tezroq tegirmondan jo'nab qolishga shoshildi. U hovuz oldiga yetgandagina toza, ko'kish muzning oynaday yaraqlab turganini ko'rib, bir lahza to'xtadi, muz ostida kishi ko'zini o'ynatib, havasini keltirib suv jimirlab turardi. Guskov cho'g'-chalalarning uchib kelib muzga tushishi, uni iflos qilishi va pisillab tutashini ko'z oldiga keltirdi, uning dilida bir shunaqa qilmaysanmi, deb yana nimadir tiqilinch kila boshladi, shundan keyin u yana toqqa, dalalar tomonga qarab ketdi.

U kun bo'yi goh ochiq yerga chiqib, goh o'rmonga berkinib sayxonliklarda daydib yurdi, ba'zan shunday bir ishtiyoq bilan yonar, shunday jazavasi tutar ediki, u odamlarni ko'rsam, odamlar ham meni ko'rsin, ko'rsin-u, bu kim ekan, deb tashvishlansin derdi, keyin hech nimadan hech nima yo'q vahimaga tushardi-da, qimirlashga ham yuragi betlamay bir yerda uzoq turib qolardi. Suvlar jildirab oqardi, oftob tushib turgan yerlardan bug' ko'tarilardi, mast qiluvchi o'tkir hidlar boshni aylantirardi. Shundanmi yoki yana boshqa narsadanmi, Guskov jinni bo'layozdi: tushdan keyin kunning ikki-uch soatlak katta bir qismi bekordan-bekorga o'tib ketdi, keyinroq u ana shu vaqtida qayerlarga borgani, nimalar qilganini eslab ko'rishga urindi-yu, ammo esiga hech nima kelmadi, ana shu behush bo'lib yurgan damlardan esida faqat kishloqda qichqirgan xo'rozlarning uning yuragini timdalovchi tovushi-yu, jildiragan suvlar qolibdi. Uning piymasi shunchalik shulta bo'lib ketgan ediki, siqib tashlasa ham bo'lardi, oyoqlari pilch-pilch qilib zirqirardi, u esa yo'l tanlamay, qayer qattig'-u qayer quruqligiga e'tibor qilmay hamon tayinsiz ketib borardi.

Kechqurun u vaqtga ham qaramadi, qosh qorayib qolganda qishloqqa tushib keldi. Tevarakdag'i narsalarni, binolarni hali ko'rsa bo'lardi; u sinchiklab qarab, o'z mo'rchasini qidirib topdi, ammo tutunni ko'rmadi. Guskovning a'zoyi badani muzlab ketdi: u kuni bi-

lan negadir tutunni ko'raman deb sira shubha qilmagandi, hatto mana hozir Nastena suv tashiyapti, hozir u mo'rcha pechini yoqdi, deb juda ishonch bilan taxmin ham qilgandi.. Nahotki, umidi chippakka chiq-qan bo'lsa? Chamasi, Guskov sarsonlik-sargardonlikka tushgandan beri birinchi marta: «E, parvardigor, benasib etma. Ey, xudoyo xudovando, shunday qilki, mo'rcha isigan bo'lsin, qo'lingdan keladi, hali ham kech emas. Faqat bir safar marhamatingni darig' tutma, keyin meni nima qilsang qilaver, hammasiga roziman», deb xudoga iltijo qildi. To'satdan uning a'zoyi badani dag'-dag' titray boshladi, go'yo unga mudhish narsadan daraka berayotgandek obdon abjag'ini chiqarib, yana kutilmaganda titrog'i bosildi; shundan keyin uning hammayog'i sirqirab, lattaday bo'shashib ketdi. Guskov duch kelgan to'nkaga o'tirib, tunni kuta boshladi.

Itlar ham akillab-akillab tinchib qoldi, odamlarning yumush bilan u yoq-bu yoqqa yurgandagi qadam tovushlari, goh-goh ularning ovozları quloqqa chalinardi, lekin bularning hammasi Guskovga negadir elas-elas, uzuq-yuluq, zaif yetib kelayotgandi. U yana xuddi azondagiday muz-muz bo'lib qoldi, uni shu tobda Nastenaga nima bo'ldi, degan o'y qiyayotgandi. Shu bilan birga derazalardan tushib turgan yorug'lik ham uni har qalay hayajonlantirardi: u stol ustida turgan samovarni, yonib turgan kaminni, olovning devorga tushib turgan shu'lasini, karavotdagi shishirib qo'yilgan yostiqlarni, yalang oyoqlar ostidagi poyandozni ko'z oldiga keltirdi – hammasidan tanish hid kelib turardi, bundan Guskovning yuragi orziqib, nochor similladi, sirqiradi, yana similladi va bir narsadan taskin topganday yana bosildi. Guskov chiroqlardan yuzini burib, ko'zlarini yumdi, u quyuqlashayotgan qorong'ilikda to'ngakka o'xshardi.

Qishloq jimjit bo'lib qolgandan keyin u mo'ljallab qo'ygan lahzasida shartta o'midan turdi-da, qo'lini qimirlatmasdan boshini qisqa-qisqa chayqab, cho'qinib oldi va pastga, Angaraga qarab tushib ketdi. U muz ustidan yurib, mo'rcha oldigacha keldi, tirmashib jar dan yuqoriga chiqdi, u ehtiyyotkorlikdan emas, qadamining muhimligini o'ylab, panjara oldida to'xtadi, keyin sinch ostidan o'tdi. U eshik oldidaligidayoq ichkari issiqligini sezdi.

U mo'rchaga kirdi-da, ketidan eshikni yopib, shoshilmasdan og'ir, jiqqa ho'l, kuni bilan jonidan bezor qilgan piymalarni yechdi va shundan keyingina o'zini o'nglab, jahl bilan g'olibona tomoq qi-

rib, kului. U hammayoqni to's-to' polonga solmaslik uchun shovqin-suron ko'tarishdan, baqirishdan, ashula aytib yuborishdan – quvonchi ichiga sig'mayotganini oshkora etishdan o'zini arang tiyib turardi.

Bu yerda u Nastena bilan o'zini yonma-yon his qilganidanmi, xotini esiga kelgani ham yo'q, mo'rchaning issiq bo'lishi unga kifoya edi.

## 14

... Tamom, boshlandi endi. Nastena qanchalik ehtiyotkorlik qilib, qanchalik tayyorgarlik ko'rib yurmasin, to'satdan boshlanib qoldi.

Aprelda, yerdan qor ketishi bilan Mixeich Nastenani yoniga olib, ikkovi o'tin tayyorlashga kirishdi. Ular bo'sh vaqtvari bir paytga to'g'ri kelgan kezlarda g'izillab borib, bir soatmi, ikki soatmi arra tortishib, baholi qudrat o'tin tayyorlab qaytib kelish uchun qishloqqa yaqin yerdan o'tin kesishayotgandi. O'tin yorishga ko'pincha Mixeichning bir o'zi borardi. Keyin Nastena bir borganida yorilgan o'tinlarni taxlab kelardi. Ammo endi o'tin arralash ancha og'ir ko'chayotgandi, Mixeich har qachongidan ham tez charchab qolardi va har bir g'o'ladan keyin dam olardi. Ilgarilari ham kundalarsiz ish bitmasdi, endi esa, chamasi, kelgusi qishda hamma umid shu kundalaridan edi.

Mixeich miltiqni o'zi bilan olib ketmasdi, miltiqning bu yerdagi qishloqdan bir chaqirim narida sira keragi yo'q edi. Ammo o'rmondagi ish har qalay ovga ishqiboz Mixeichning ko'ngliga g'ulg'ula solib qo'ydi shekilli, o'q tayyorlashga tushdi, miltig'ini tozaladi, keyin bir kuni o'rmonga chiqish oldidan ombor ichida ancha g'ivrladi, so'ng eshigini berkita turib, nogahon so'rab qoldi:

– Menga qara, oyim qizim, mabodo Andreyning «Tulka»siga ko'zing tushmadimi? Hammayoqni qidirdim, xuddi yer yutganday, yo'q.

Ketishga shay bo'lib, qaynotasini kutib turgan Nastena qo'lda arra bilan qo'r o'rtasida qotib qoldi. U mudom shu savoldan qo'rqardi, unga qanday javob berishni o'ylab qo'ygandi, shunday bo'lsa ham u shoshib qoldi. Afsuski, hozir qaynotasi bilan gapni ochdi qilib oladigan fursat emasdi-da, eh attang, boshqa safar bo'lsa ham mayliyi, hozir juda noqulay payt.

– Hech qayerda ko‘rmadingmi? – qayta so‘radi Mixeich undan nari ketishga chog‘lanib.

– Ko‘rdim, – deb tan oldi Nastena gangib, bema’nilik bilan jilmayar ekan, u qattiq gapirmaslik uchun Mixeichga yaqin keldi. – Men uni sotganman, dada. – Ayrim paytlarda u Andrey singari Mixeichni dada derdi.

– Sotdim? Qachon sotding, nimaga, kimga?

– Ancha bo‘ldi. Sizga aytishga qo‘rqib yuruvdim, urishib berasiz deb qo‘rquvdim. Vakilni Kardaga olib borganimda... O‘sanda obligatsiya tufayli mendan jahlingiz chiqqandi, keyin rosti, shuncha pulni qayoqdan olaman, deb o‘ylab qoldim. Axir esim yo‘qlik qilib laqillab qo‘yibman, shuncha pulni qayoqdan olaman? O‘sha odam miltiqni ko‘rdi, unga juda yoqib qoldi. Keyin sot-chi deb yopishib oldi. Keyin sotdim-da... bir amallab ko‘ndirdi.

– Sen, oyim qizim, nimalar deyapsan o‘zi? Kim ko‘rdi? Kim ko‘ndirdi? Hech nimaga aqlim yetmayapti.

– Kardadagi bir odam-da. Men uni tanimayman. Faqat harbiy shinelDALIGI esimda bor. Ammo Katya Xlistova, Afanasiy Xlistovning kelini uni biladi, ular o‘zlaricha bir nimalarni gaplashishdi. Uning kimligini surishtirishga uyaldim. Kelishdik – bo‘ldi-da.

– Nima, sen uni, miltiqni, o‘zing bilan olib ketganmiding?

– Ha. Bordi-yu, qaytishda qorong‘ida qolsam, kerak bo‘lar, deb o‘yladim-da... kishi qo‘rqadi-da.

– Keyin sotdim degin?

– Sotdim.

Bu yangilikni ombor oldidagi supada turib eshitgan Mixeichning azbaroyi tang bo‘lganidan yuzi tirishib, bedavo bo‘lib ketgandi, og‘zi ochilib, boshi oldinga, Nastena tomonga cho‘zilgandi, hech nimaga tushunmay, ko‘zları pirpirardi.

– Sen, Nastena, menga hazillashayotganing yo‘qmi? Rost aytyapsanmi? – hamon uning ishongisi kelmasdi.

– Rost aytyapman. Darrov aytishim kerak edi-yu... Qo‘rqib pay-salga soldim.

– Xo‘sh, sen, nima, Andrey kelsa, miltiqni sotganining uchun bizga rahmat aytadi, deb o‘ylayapsanmi? Yo indamaydi deyapsanmi?

– Kelsa, topib berarmiz. Bir amallab qutulay, debman-da. O‘zim uchun qilmadim-ku, axir.

– Topib beramiz emish-a, – deb kesatdi Mixeich miyasiga kelgan qandaydir noxush fikrdan boshini liqillatdi. U bu fikrini puxta o‘ylab, tagiga yetib olguniga qadar indamay turdi, keyin esiga tushib, xiyol yuzini burdi, yaxshi eshitish uchun qulog‘ini tutdi-da, so‘radi:  
– Xo‘sh, haligi... qanchaga sotding?

Endi bu voqeanning eng diqqatta sazovor, eng qaltis joyi boshlangandi.

– Hozir, – dedi Nastena va uyga qarab yurdi, tokchadan lattaga o‘ralgan, qishlovdagi uchrashuvda Andrey unga bergen soatni oldi. Nastena qaytib kelganida Mixeich supadan tushib, zinada o‘tirardi. – Mana, – dedi Nastena soatni unga uzatib.

Qaynota o‘rnidan turib ketdi.

– Bu... nima o‘zi? – so‘radi u shosha-pisha, astoydil tikilganidan uning yuzi battar tirishib ketdi.

– Soat. Bu soat, – shosha-pisha tushuntirdi Nastena. – Men uni, miltiqni pulga sotmagandim, mana shunga sotganman, almashtirdim hisobi. Soatni esa, sotish oson, o‘sha odamning gapiga qaraganda, bu boshqacha, chet elniki emish, bozori chaqqon, qimmatbaho emish. Qarang avval, uchta mili bor. – Nastena chamasi, soatni obdan teks-hirib chiqqan bo‘lsa kerak, darrov dam beradigan murvatini buradi-da, Mixeichning qo‘liga tutqazdi. – Qarang, anavi uzun, ingichkasi ko‘z oldingizda yugurib ketyapti, shunday dik-dik sakraydiki, asti qo‘yaversiz. Umrim bino bo‘lib bunaqasini ko‘rmaganman. Voy tavba, shunaqa narsalarni ham o‘ylab topishibdi-ya, biram chiroy-likli... hamisha to‘g‘ri ko‘rsatadi, aldamaydi. – Mixeich xuddi bombadan qo‘rqanday kapalagi uchib, bir kafti bilan ikkinchi kaftini ushlab, soatni qo‘lida aylantirdi-da, so‘ng qaytib berdi. – Qorong‘ida manavi nuqtachalari xuddi olovga o‘xshab yonib turadi, hammasi ko‘rinadi, – deb qo‘shib qo‘ydi Nastena bu tasodifdan taraddudlanib va jim bo‘lib qoldi.

– Miltiqni soatga, o‘yinchoqqa degin, – dedi qaynota o‘ziga kelib. – Hay at-tang...

– Soatni sotish oson... Bu yerda hammada miltiq bor, soat esa... yana bunaqasi... ko‘rsatsang bas, qo‘lingdan yulqib oladi.

– Shuning uchun, oyim qizim, buning evaziga biron durustroq narsa olsang bo‘lardi. Bilmay har narsaga yopishishdan ko‘ra, ozgina o‘ylashing kerak edi. Uni kimga sotasan, kim olardi uni?! «Qorong‘i-

da yonib turadi» emish. Ana, quyosh bor, – dedi u jahl bilan Nastena soatning shu jihatini pesh qilganini eslab va yerga tupurdi. – Uning yoritishini boshimga uramanmi? Nima, yorug‘ida bit boqarmidim?

– Innakentiy Ivanovich oladi, – dedi Nastena bo‘s sh kelmasdan. – Bilaman, soat unga yoqadi, u bunaqa narsani yaxshi ko‘radi, ko‘rsatsang, bas. Haligi men eltid qo‘yan vakil shu soatga ikki ming beraman, deb yalingandi, – deb qo‘ydi u ishonchli bo‘lishi uchun. – Shunday yalindi-ki...

– Qancha, qancha?

– Ikki ming.

– Shunday ahmoq topilganda nega bera qolmading?

– Balki undan ham qimmatroq turar.

– Ko‘p beradiganini topib bo‘psan. Ko‘raman, qanday toparkin-san. Ikki ming so‘m-a! O‘sha, sen aytgan vakil, seni bir laqillatmoq-chi bo‘lgan, sen bo‘lsang, ishonib yuribsan. Xo‘p, bo‘pti, – deb Mixeich gapni qisqa qildi, – ketdik. Sening soating deb shuncha vaqtimiz ketdi. Meni juda «xursand» qilding, shunisi ham kifoya. Ko‘zimdan nari qil, nari qil, xudo xayringni bergur.

Ular yo‘lga tushdilar. Lekin Nastena gap shu bilan tugamaganini, Mixeich chidab turolmay yana shu mavzuga qaytishini oldindan sezib turardi – endi ular anchagacha ikkovi yolg‘iz qoladi, tutaaqqan odamning esa, shundan keyin boshqa xususda gapirishi amrimahol. Nastena garchi bugun eng dahshatlisi o‘tib ketdi, deb umid qilayotgan bo‘lsa-da, baribir ko‘rqardi, endi eng muhimi aytgan gapida turish, adashib ketmaslik, o‘zini boyagiday kalta-fahm qilib ko‘rsatish edi. Ammo tinkani quritib, andarmon qilib, qiy nab yurgan narsa haqida gap ochildi, yo‘qolgan narsaga yaxshimi-yomonmi vaj topildi, agar bundan buyog‘iga ham sir ochilmay boraversa, ishlar yengil ko‘chaveradi, bu albatta, to o‘sha nozik payt – yo‘qolgan narsa uchun emas, balki orttirib olgani – gu-monasiqa vaj-karson topish lozim bo‘lgan paytgacha davom etadi. Ammo hozircha o‘sha kunga hali uzoq, endi bunga aslo shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Ular o‘tin kesadigan yerga yetib borgach, ikkilanib o‘tirmay, ilgari mo‘ljallab qo‘yilgan qarag‘ayni ag‘darishga kirishdilar. Mixeich qarag‘ay og‘ib turgan tomondan tagiga bolta urib chopdi, keyin nari-gi yog‘idan arra solishdi. Daraxt yo‘g‘on emasdi – osonrog‘i tan-

langandi, ammo arra negadir juda og‘ir borib-kelib, kuchni ko‘p olib qo‘yayotgandi: sal o‘tmay Mixeichning nafasi tiqilib, yo‘tala boshladi. Nastena Mixeichning tinchlanishini kutib, yerga cho‘nqaydi va nogahon bulturgi o‘tlar orasidan unib kelayotgan ko‘kish maysani ko‘rib qoldi, maysa bir ko‘rindi-yu, yana yo‘qolib qoldi, ammo Nastena engashib, uni yana topdi, uning yonida boshqalari ham ko‘rindi. U maysalardan birini uzib oldi-da, qo‘lida avaylab o‘ynab xayolga cho‘mdi, nazarida, bu maysa qandaydir muhim fikrga o‘xshab, keyin yuzaga chiqadigan ezgu umid sari boshlab ketganday edi, ammo bu fikr Nastenaning havasini keltirib, sira tutqich bermay, undan o‘zini olib qochardi. Obdan yo‘talib bo‘lgan Mixeich keldi, Nastena unga maysani ko‘rsatib dedi:

– Qarang-a, yangi o‘t chiqibdi. Bu yil birinchi ko‘rishim.

Mixeich javob bermay, arrani tortdi. Nastena gap boshlab qo‘yaniga pushaymon bo‘ldi: nazarida, qaynotasiga yaldoqlanib, shu maysa bilan o‘z gunohini shibalab ketmoqchi bo‘lganga o‘xshab qoldi.

Kun yorug‘ bo‘lsa ham, ammo charaqlagan emasdi, to‘niq, xuddi mudrayotganga o‘xhardi. Bo‘lmasa-ku osmonda quyosh bor; quyosh yona-yona kichrayib, yupqalashib qolganday, uning zaif nurlari yerga yetmay, havoda muallaq osilib turganday edi. Qayerdadir burundiq chiyilladi, olis tog‘da it huridi, keksa daraxt g‘ijirladi, biroq bu tovushlar jimjitlikni buzmasdi, uning og‘irligini kamaytirardi. Kun ham bugun maysalar qorong‘ilikdan qo‘rqmay chiqaversin, daraxtlar ham pindiq yoraversin degandek, ataylab mana shunaqa jimit, to‘nib turardi.

Nihoyat arralanayotgan qarag‘ay qisirladi, uchi bir silkindi, o‘zini tutib turishga nochor urinib, bir lahza qotib qoldi, ammo bo‘lmadi, bir tomonga og‘ib qolgan to‘qimalarini uzib, bukib ag‘darilib tushdi. Mixeich bilan Nastena o‘zlarini bir chetga olishdi. Tupsa to‘nkaga aylandi, tanasi esa, havoda aylanib, gumburlab tushdi, uzilgan shoxchalar osmonga qarab uchdi, butalar tebrandi, daryoning nari-gi yog‘idan aks sado eshitildi. Mixeich sarjin ustidagi boltani olib, shoxlarni kesa boshladi, Nastena, odatdagidek, ularni bir yerga tashib taxlardi.

Keyin, qarag‘ay tanasini butab, arralashga tayyor qilishgach, dam olgani o‘tirishdi, shunda Mixeich so‘radi:

– Sen, Nastena, chindan ham Andreyning qayerdaligini bilmaysanmi?

Nastena har narsani kutgan edi-yu, ammo bu savolni kutmagandi, ha, faqat shu savolni kutmagandi – qo‘rqishga arziyidigan savol edi bu.

– Andreynim? – dedi u boshini ko‘tarib, u shunday so‘radiki, Nastenaning qo‘rquvini taajjubga yo‘yish mumkin edi. – Men qayoqdan bilay? Nega mendan so‘rayapsiz?

– Demak, bilmas ekansan-da, a?

– Hech nimadan xabarim yo‘q. Siz nimani bilsangiz, men ham shuni bilaman. Men qayoqdan xam bilardim? Chamamda, hammaniz bir uyda turamiz shekilli.

Chol Nastenaga teshib yuborgudek tikildi, uning so‘zlariga ishonmaganday, Nastenaning yuzidan, o‘zini tutib o‘tirishidan biron gapdan xabari borligini bilib olmoqchi bo‘lib, sinchkovlik bilan tikildi.

– Men balki sen biron nimani bilarsan deb o‘ylagandim-da. Balki aytging kelmayotgandir. Sen o‘sha... ayt, Nastena. Bir o‘zimga ayt. Mendan yashirma.

– Nimani aytay, axir? – Nastena o‘ziga kelib, dadilroq javob bera boshladi. – Qiziq, men sizga nimani ham aytardim? Agar biron aytadigan gap bo‘lsa, aytmay o‘tirarmidim? Siz nimani bilsangiz, men ham shuni bilaman.

– Men shunchaki so‘radim-da... So‘raganimning boisi shuki, keyingi paytlarda senda qandaydir o‘zgarish borga o‘xshab qoldi.

– Qanaqa o‘zgarish ekan? – Nastena taajjublanib ohista, o‘smoqchilab so‘radi.

– O‘zingga o‘xshamay qolgandsasan. Ehtimol, menga shunday tuyulgandir... Ammo men miltiqni so‘roqsiz allaqanday bir soatga almashtirarsan, deb sira-sira o‘ylamovdim. Ilgari sen bunaqa emasding. Miltiqdan tashkariyam senga bir nima bo‘lyapti o‘zi, qizim. Doimo bir nimadan qo‘rqib turganga o‘xshaysan... doimo pitillab yurasan... Yo bizdan ketish niyating bormi?

– Yo‘-o‘q, qayoqqayam ketardim? To o‘zlarining haydamagunlariningcha yuraveraman, – dedi u ochiqko‘ngillik bilan silqidildan. – Axir urush hademay tugaydi, biron gap bo‘lar.

– U qayerda, axir?

- Bilmayman dedim-ku uning qayerdaligini.  
– Ha, endi buni sendan so‘rayotganim yo‘q, qizim.

Ular yana arralashga tushdilar. Nastena arrani u yoqdan-bu yoqqa itarib-tortarkan, yer ostidan Mixeichga ko‘z qirini tashlab, qaynotasi gapiga ishondimi-yo‘qmi, shuni bilib olishga urinardi. Bitta narsa, qaynota kelinining Andrey to‘g‘risida nimanidir bilishidan shubhala-nib qolgani yaxshilikdan darak bermasdi. Shu kundan boshlab Mixeich undan ko‘z-quloq bo‘lib yurishini ham payqab olish qiyin emasdi. Garchi chol hozir Nastenaning gapiga ishongandek bo‘lsa ham, uni beixtiyor kuzatib yuradi, chunki kishi shubhadan osonlik bilan qutula olmaydi: shubha paydo bo‘ldimi u mustaqil yashayveradi, keyin bora-bora kishi shubhasini jilovlash o‘rniga o‘zi uning ta’siriga berilib qoladi. Endi ikki baravar, uch baravar ehtiyyotkor bo‘lish, xar bir qadamni o‘ylab bosishga to‘g‘ri keladi. Xo‘s, ikki oylardan keyin qorning do‘ppayib tursa, qanaqasiga ehtiyyotkor bo‘lasan, qanaqasiga qadamingni hisoblab bosasan? Miltiqqa vaj topgan bo‘lsang ham, bunga vaj topolinaysan, bu soat to‘xtamasdan qattiq chiqillab turadi. Nastena qanday kunlarga qolishini ko‘z oldiga keltirolmasdi, o‘ylab o‘yiga yetolmasdi; uning boshiga tushadigan ishni hech nimaga qiyoslab bo‘lmasedi, unga nima bo‘lgani to elga oshkora bo‘limguncha, hech kim unga barmog‘ini bigiz qilmaguncha va su-rishtirmaguncha biron ish qilmay, taqdirga tan berib kutish kerak – oshkora bo‘lgandan keyin esa bu sharmandalik botqog‘idan faqat o‘z kuchi bilan, urina-urina chiqib olishi kerak, chunki hech kiin unga yordam bermaydi – ha, faqat o‘z kuchiga ishonishi kerak, chunki bir o‘zi uch kishini qutqarib qolishi lozim. Qurbi yetarmikin, buni hali uning o‘zi ham bilmasdi, oldindan bu haqda bosh qotirishni istamasdi ham. Har qalay u o‘zini zaiflardan emasman, deb o‘ylardi-yu, ayni paytda kuch va sabr-toqatdan boshqa yana biron narsa ham talab qilinár, ehtimol, o‘sha narsa menda yo‘qdir, deb cho‘chirdi. Har qanday sharmandalikka chidash mumkindir-u, ammo bor haqiqatni hech kim hech qachon bilmisin, deb barcha odamlarni, butun olamni birvarakayiga aldash mumkinmi? Shunday qilishi uchun bir odamga, garchi u juda quv, ustamon bo‘lib, hamma ishni do‘ndirib tashlasa ham kamlik qilmasmikin? U o‘z zimmasiga gunohi azimni olmayaptimikin? Bu gunoh uning o‘ziga ham, qolgan umri iltijo bilan o‘tadigan hayotga ham ko‘plik qiladi.

Bir qulay fursat kelganda Nastena homiladorligini qaynotasiga aytmoqchi, shu bilan kelgusida bundan, yuragini hovuchlab sharmundai-sharmisor bo'lishdan qo'rqib yurishdan ham birato'la qutulmoqchi bo'ldi. Bu ham bir tavakkal-da. To'g'ri, avvalboshda unga juda og'ir bo'ladi, ammo sekin-asta ko'niksin, oxir-oqibat bunga ko'nikadi ham, shunda Nastenaning ko'ngli ancha tinchirdi, boshqa barcha g'am-g'urbatlarga chidardi. Lekin Nastena Mixeichga rahmi keldi. U hali dilidagini aytmasdan burun qaynotasi cho'chib, qotib qolishini, og'ir, qayg'uli o'y-xayollarga botib, boshini quyi solishini, bunday paytlarda bilishi lozim bo'lgan narsani so'rashga jur'at etolmasligini ko'z oldiga keltirdi. Yo'q, buguncha unga shu miltiq mashmashasi ham yetarli, o'ziga esa, shu gaplarning o'zi ham kifoya. U homiladorligini bo'yniga olib, qaynotasini battar shubhaga solmasligi kerak, ehtimol Mixeich faqat gumon qilib yurgan bo'lishi mumkin, Nastena shu gumonni rostga chiqarib, uni ishontirib qo'ymasligi lozim. U qaynotam meni hammadan ko'ra yaxshiroq biladi, har qanaqa bema'ni bahonalarimga ishonavermaydi, deb qo'rqardi. Unda hamma gap bir-biriga bog'lanadi-yu, to'ppa-to'g'ri borib, Andreyga taqaladi – Nastenaning bunday qilishga haqqi yo'q: har qanday shama, har qanday ehtiyyotsizlik uning uchun taqilangan.

Ular qarag'ayni arralab bo'lib, qaytish taraddudiga tushdilar: kun qaytib qolgandi. Quyosh yotog'iga bosh qo'ya boshlagandi; osmonning ikki burchagida quyosh bilan oy ko'rinish turardi, ingichka oy o'rog'i quyoshning xira yorug'ida o'jarlik bilan miltirardi. Nastena har safar ularni birga ko'rganida nimagadir qo'rqardi va nima uchun ularning o'rin almashmay, yonma-yon turishiga tushuna olmasdi. Shuning uchun u hozir ham allanechuk bo'lib ketdi. U ko'zlarini qismay, katta-katta ochib quyoshga qaradi va nazarida oyning tikandek qadaluvchi sovuq nurlari unga tushayotganini sezgandy bo'ldi.

Ketish oldidan Mixeich g'o'лага o'tirdi, shuning uchun Nastena qaynotasi yana Andrey haqida gap ochishidan hadiksirab, sergaklandi. Ammo bir o'zi ketishga yuragi dov bermadi; Nastena qaynotasi mendan o'zini olib qochyapti, deb o'ylashini istamadi. Chol chekib, bir-ikki daqqa tutatib o'tirdi-da, so'ng o'rnidan turdi; Nastena qaynotasi yo'l yurib chekishni yoqtirmasligini esladi. Ular ikkovi ham ichidagi yoqimsiz dardini yormay, indamasdan qishloqqa qaytib keldilar.

Kechqurun ro‘zg‘or yumushlari bilan g‘imirlab yurgan Nastena bugun Mixeichni aldamoqchi bo‘lgan bir odam uni aldashdan ko‘ra ko‘proq sergaklantirib qo‘yganini payqadi-yu, cho‘chib, shoshib qoldi – o‘ylasang yuraging orqaga tortib ketadigan, kelajagi shu yaqin oylar ichida butunlay barbod bo‘ladigan o‘sha odam nima bo‘lishini biladi-yu, o‘zini halok etish uchun, xuddi ataylab qilgandek ketma-ket bema‘nilik qiladi, o‘sha odam ayni Nastenaning o‘zi edi. Uni vahima bosdi, bu uni o‘tga ham, suvga ham tashlaydigan, go‘yo uzoq muddatga cho‘ziladigan va beqaror vahima edi: istalgan paytda bu vahima hali kutilgan daqiqalarimga bor degandek bosilib qolardi, keyin yana boshqatdan qo‘zib, vijdanni qiyndardi-yu, dilini siyoh qilib, yana tiyilardi. Nastenaning tashvishi ortib, borgan sari shu bilan o‘ralishib qolayotgandi. U hayotida yuz berishi lozim bo‘lgan narsa borasida bugun keskin o‘zgarish bo‘lganini ko‘rib turardi; faqat o‘zingga bilishi lozim bo‘lgan sir boshqalar ko‘zi oldida yilt etib qo‘yganga o‘xshaydi. Endi xotirjam yurib bo‘lmaydi. Buning uchun Nastena o‘zidan gina qila boshladidi: demak, durustgina bahona topolmabdi, boshqacharoq gapirib qo‘yibdi, juda avaylab, ehtiyot qilib saqlashi lozim bo‘lgan narsani yaxshilab berkitolmabdi, o‘zining hamon o‘sha ochiqko‘ngil, itoatkor kelin ekanligiga Mixeichni ishontira olmabdi...

O‘zini qo‘yishga joy topolmay qolgan Nastena qaynotasining ishdan qaytishini sabrsizlik bilan kuta boshladidi, qani ko‘rsin-chi, Mixeich unga nisbatan o‘zini qanday tutadi-yu, nima deydi. Nastena uning yonida bo‘lishi zarur: biron dilsiyohlik bo‘lsa ham mayli, shunda ham u yengil tortadi, tushunib oladi, miyasi achib, bekordanbekorga hadiksirab yurmeydi. U agar Mixeichning ko‘nglida biron gapi bo‘lsa, chidab turolmasdan aytadi, bordi-yu, aytmasa ham biron nima bilan sezdirib qo‘yadi, deb ishonardi. U ichimdan top deydigan odamlardan emas, quvlikni bilmaydi, bor gapni to‘kib solishni xush ko‘radi.

Lekin Nastena Mixeichning otxonadan kech, qorong‘i tushgandan keyin kelishini bilardi – shuning uchun u behuda tentirab yurmaslik, o‘zini biron nima bilan band qilish uchun ro‘zg‘or yumushlarini saranjom-sarishta qilib bo‘lgach, Nadkanikiga jo‘nadi.

Nadkalar ovqatlanishayotgandi, to‘g‘rirog‘i, endi ovqatlanishga o‘tirishayotgandi. Stolda bolalarning har biri oldida yoshiga qarab

taqsimlangan kartoshka turardi: eng kichigi Lidka oldida to'rt dona, Petka oldida beshta, Rodka bilan onasi oldida oltitadan kartoshka, bir burdadan non bor edi. Nastenani ham dasturxonga taklif etishdi, u ovqat yemayman, dedi-yu, ammo o'ziga choy quyib olib, Lidkaning yoniga o'tirdi. Lidkani ko'rgan kishining yuragi achishib ketardi, u hash-pash deguncha o'z nonini yutib bo'ldi-da, kartoshkaga yopishdi, kartoshka yer ekan, akalarining noniga ochko'zlik bilan tez-tez qarardi. Nadka tag'in tiqilib o'lma, deb unga o'shqirdi. Nastena Lidkani kuzatib o'tirarkan, odatdag'i og'ir o'y-xayoldan tinkasi qu-riyotganini his etdi: bu hol qachon tugarkan? Qachon birovlarining qandaydir zug'umidan, qandaydir jahannam otashidan qutulib, kishi ixtiyori o'zida bo'ladigan yaxshi kunlarga yetisharkin-a? Loaqal bolalar to'yib-to'yib ovqat yeydigan kunlar ham kelarmikin? Bu bolar-larning gunohi nima?

Lidka shosha-pisha kartoshkani ham paqqos tushirib bo'ldi-da, oldida yeydigan boshqa narsa topolmay, qo'lini ko'targanicha hayron bo'lib to'xtab qoldi va atrofga suqlik bilan ko'zini jovidiratdi.

Hech kim uning gangib qolganiga e'tibor bermadi: chunki ona ham faqat o'z ulushingni bil, boshqalarnikidan tama qilma, deb taqsimlab bergen-da.

– Choyingni ichgin-u borib yotgin, – deb turtib qo'ydi onasi, qizaloq esa itoatkorlik bilan stakanni oldi.

Nastena chidab turolmay, o'rnidan turdi-da, ertaga olib qo'yilgan bir dumaloq non sochiq ostida do'ppayib turganini sezib, kutga bordi, garchi u Nadkaning shovqin solishini bilsa ham, tavakkal qilib nonning bir chetidan ozgina kesib oldi-da, keltirib Lidkaga berdi. Qizaloq shu non bilan to'ymasa ham ichini tatalayotgan ochlikni har qalay aldardi. Nadka indamadi. Ammo keyinroq, Nastena Lidkani tizzasiga olib, uning titrab turgan ozg'in gavdasini bag'riga bosganda Nadka qitmirlilik bilan dedi:

– Shuni asrab olmaysanmi?

– Sening bolangni olib nima qilaman? Ehtimol, hademay o'zim ham tug'ib qolarman, kim biladi deysan.

U shunday dedi-yu, pushaymon yedi: nega og'zidan gullab o'tiribdi? Keyinchalik Nadka biron ishkalni sezib qolsa, darrov bu so'zlarni eslaydi, bu so'zlar shu ishkalni hammadan oldin yaxshilab bilib olishiga juda qo'l keladi-da. Ha, hozir ham ovozidan, oriyat qi-

lib, komil ishonch bilan bergen javobidan bu shunchaki bir bahona emasligini, unda bir gap borligini payqab qolmadimikin?

– Bo‘lmasa nega ilgari tug‘mading? – tagdor qilib so‘radi Nadka.

– Xohlamagandim.

– Seni qara-yu, xohlamagan emish. Urushning tugashini kutgandirsan-da, shundaymi? Mundoq qarasam, hammanglar ham o‘lgudek ayyor ekansizlar. Agar urush bo‘lishini menga ham shipshitiq qo‘yanlariningda, men ham qarabsanki, har safar qornimni kajavaday qilib yurmasdim, o‘zimni tiyardim.

Nastena Nadkani urushdan oldin besh yil, urush boshlanganidan beri bu yog‘i to‘rt yil hech kimni – na Vityani, na boshqa birovni yaqiniga yo‘latmay yurishini ko‘z oldiga keltirdi-da, kulib yubordi. Buni Nadkaga aytgan edi, u ham xaxolab kului.

– Voy gapingni qara-ya, – dedi u Nastenaning fikriga qo‘shilib.  
– Buyog‘ini o‘ylamabman-ku. Agar o‘zimga qo‘yib berishsa, har yili tug‘sam deyman. Keyingisiga yana uch oy vaqt qolardi. Pushtim juda zo‘r-da, bir martadayoq shappa ushlaydi. Bizniki doim tayyor, ba’zi birovlarnikiga o‘xshamaydi, – u chidab tirolmasdan Nastenani bir uzib oldi. – Agar o‘zimni ehtiyot qilmasam hali bir etak bola tug‘ib tashlardim – faqat boqib olsa bo‘ldi. Menga hech qanaqa haram ham bas kelolmasdi. Haram deganini eshitganmisan? Menga Vitya haram to‘g‘risida qaysi bir kitobdan o‘qib aytib bergandi. Qanaqa xotinlar ekan, bilib bo‘lmaydi, bir erkakka shuncha xotinning nima keragi bor? O‘sha odam xo‘rozga o‘xshab xotinlar oldida aylanib yurarmish-da, istasam senga chopaman, istamasam, zor bo‘lib yuraverasan dermish. Qani endi o‘sha xo‘roz yonimga kelib, qanotini qoqsa, men uning surobini to‘g‘irlab qo‘yardim, men uni, o‘sha xotinboz kapitalistning adabini berardim. To‘g‘rida, nima endi, bola ko‘paytiraman deb xotinlarni galalashtirib yuradimi? Men bir o‘zim hammasini yo‘lda qoldirib ketardim. – Nadka o‘zini malomat qilib, o‘zidan o‘zi kuldi, ammo o‘zini tahqirlardi, faxrlanardi: u xotinlik burchini ado etdi, bu jihatdan unga hech nima deya olmaysan. Ilgari balki, Nadkaning maqtanchoqligi Nastenaning izzat-nafsiга tegishi mumkin edi, ammo hozir bu gaplar hatto unga xush yoqardi.

Lidka Nastenaning bag‘rida erkalanib uxbab qoldi: u quchog‘ida uxbab yotgan qizaloqni ko‘tarib o‘tirib huzur qilayotgandi, na-

zarida homilasi rashk qilib, o‘zining borligidan dalolat berib, shu lahzada har vaqtdagidan ham tez-tez qimirlab qo‘yayotganday edi.

Nastena uyg'a qaytib keldi-yu, hang-mang bo‘lib qoldi: Mixeich Semyonovnani qo‘ltiqtayoqda yurishga o‘rgatayotgan ekan: u buni sira kutmagandi. Mixeich qo‘ltiqtayoqni allaqachon tayyorlab qo‘ygan edi-yu, ammo Semyonovna o‘laman sattor qo‘ltiqtayoqda yurmayman degandi, lekin Mixeich qandaydir bir mo‘jiza bilan bugun kampiriga gapini o‘tkazgandi. Semyonovna qiynalayotgandi: u qo‘ltiqtayoqni qo‘ltig‘iga qisib olib, xuddi kishanlanganday odimlar va yiqilib ketmaslik uchun og‘irligini dardchil, uzilib ketay deb turgan oyoqlariga solardi, solardi-yu, qo‘llari bilan duch kelgan narsani ushlardi va oh-voh qilib sannashga tushardi.

– Sen oyoqlaringni galma-gal qimirlat, – deb o‘rgatardi Mixeich. – Namuncha noshud bo‘lmasang-a? Sakrama, obdan sakrab bo‘lgansan, shu ham yetarli. Odamlar oyoqsiz ham yuribdi, sening bo‘lsa, oyoqlaring bor, ozgina mashq qilsang bo‘ladi. Sen avval bitta-bittalab qadam bosishni o‘rganib ol, keyin tez-tez bosasan.

– E, xudoym-ey! – deb ingradi Semyonovna. – Qayigan chog‘imda namuncha meni qiyinarsan-a? Loaql sheni yahming keshin Bibi Mayyam. Manavi miyashi aynigan cholga tushuntiy, go‘yimga buni qo‘ltiqtayoqlayishiz ham boyaman. Loaql shen bu zoy qolguylayni tobutimga sholma, – deb kampir Mixeichga yopishdi, – meni shaymanda qilma. Topgan ishingni qaya-ya: pechkadan tushiyib yuy deydi-ya, qayoqqa yuyay? Qayoqqa yuyay?

– Bo‘pti, o‘tir, o‘tir, – Mixeich uni katga o‘tirg‘izdi. – Damingni ol, charchagan bo‘lsang. Oyoqlaring og‘rimayaptimi?

– Nega og‘yimashkan? Nega og‘yimashkan? Lovillab yonyapti. Ey xudoym-ey... og‘yimayaptimi, deydi-ya.

Nastena samovarni pechka yoniga qo‘ydi, karnay tirsagini mo‘rkonga to‘g‘irladi va lampani yoqmoqchi bo‘ldi, lekin Mixeich kerosin tugayapti, ehtiyot qilish kerak, deb uni chiroq yoqqani qo‘ymadi. Mixeich kaminni yoqdi. Nastenaning dili ranjidi, nazarida, agar u chiroq yoqmaganida qaynotasi birpasdan keyin uni o‘zi yoqqan bo‘lardi, hozir bo‘lsa, Nastenaga o‘chakishib, ataylab shunday qilayotganday tuyuldi. Kamin esa, mana, bir oy bo‘ldi, yoqilgani yo‘q, qaynonasi bo‘lsa, bugun kaminni eslab qoldi, mum olib kelgani

bordi, tixirlik qilmayaptimi o'zi, miq etmaydi – nima balo, shunchalik ichikib qolganmikin?

Samovar shig‘illadi, kamin guvillardı, olovning uzun-uzun fuskor shu’lasi devorlarga, derazalarga tushib turardi, xona ichi isib, jon kirib qoldi. Semyonovna yuzini bir chetga burib, ichimdan top deb o‘tirar, enkayib, zaif qo‘llari bilan oyoqlarini uqalar edi.

– Xo‘sh, kampir, yana yuramizmi? – dedi unga Mixeich.

– Nima, meni o‘ldiyomoqchimishan? – zarda qilib, yig‘lamsirab dedi u.

– Ha.

– O‘ldiyshang o‘ldiya qol. Shiya achinma.

U jahl bilan o‘zini zo‘rlab o‘rnidan turishga harakat qildi. U avval katdan xiyol ko‘tarildi, uning oyoqlari o‘tirganida qanday bo‘lsa, shunday buklanib turardi, keyin qo‘llarini tizzalariga tirab, ohista qaddini rostlay boshladi. Mixeich yana uning qo‘ltig‘iga qo‘ltiqtayoqni tiqdi. Nastena qaynonasini suyash uchun uning boshqa tomonidan yoniga kirdi. Ammo taajjubki, hash-pash deguncha Semyonovna bu safar o‘zi uchun yangicha bo‘lgan bu yurishda qanday qadam bosishni bilib oldi: u bitta qo‘ltiqtayoqqa suyanib, ikkinchi oyog‘ini beo‘xshov oldinga tashlardi-da, og‘irligini o‘sha oyog‘iga solardi. Kampir endigina yo‘lga kirgan bolaga o‘xshab g‘ururlanib, sabrsizlik bilan injiqlanib dedi:

– Qani, qochinglay-chi, ushlaganglay, o‘jim.

Semyonovna mehmonxonaning u burchagidän bu burchagiga bordi, ancha ovora bo‘lib, inqillab-sinqillab burildi, orqasiga qaytib, katga keldi va xursand bo‘lganidan ux tortib o‘tirdi. Mixeich uni kuzatar ekan, ovozini chiqarmasdan kulardi, uning yelkalari silkinib, mo‘ylovi qimirlardi. Semyonovna unga qaramasdan horg‘inlik bilan dedi:

– Chakki emash, oyoqlayim yuyishga yayaydi. Yuyganda bosh-sham bo‘ladi endi.

– Mana ko‘rdingmi, – dedi Mixeich xursand bo‘lib. – Yo‘qsa ikkovimizga bitta mening oyog‘im nima bo‘lardi, bu oyoq bilan ikkovimiz qayoqqa ham borardik? Endi ishimiz chakki bo‘lmaydi: uchta sog‘ oyoq, mundoq qarasam, ikkitasini tuzatsa bo‘ladi, bittasi kerak bo‘lganda ishlataladi.

– Eh, qani endi qo‘ltiqtayoqda yuyishimni Andyushka biy ko‘ysha edi, yosha kulaydi-da... Eh yosht-da, biyov kuladi, biyov yig‘laydi.

– Endi, kampir, sen bilan menga pechkaga chiqib olib yotish aslo to‘g‘ri kelmaydi, – dedi Mixeich mehri tovlanib, shu bilan birga qandaydir komil ishonch bilan, bu gap Nastenaga tasodifiy emasdek tuyuldi. – Qo‘ltiqtayoqda bo‘lsa ham mayli, ammo qimirlab turish kerak.

Nastena bu gap zamirida bir ma’no borligini payqadi-yu uni bugun bo‘lib o‘tgan gapga taqadi. Yo‘q, bugungi gap qaynotasining u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketavermagan ekan, qaynotasi nimanidir payqabdi, qandaydir qarorga kelibdi, modomiki, paysalga solmay Semyonovnaga qo‘ltiqtayoq berib, uni yurishga majbur etyaptimi, demak, bir gap bor. Chol yaqin orada Nastena ning qosh-qovog‘idan qutulib qo‘ya qolish uchun kampirni yurishga o‘rgatmayaptimikin? Xo‘s, nega? Nega?

– Mana ko‘rasan, yoz kelsa, oyoqlaring binoyidek bo‘lib, yo‘rg‘alab qolasan hali, – deb dalda berdi u kampiriga.

Kampir ham cholining fikriga qo‘shilib dedi:

– Koshkiydi, eh, umyimning oxiyida yaxshi bo‘laydi.

– Ho‘, esingdami, ilgari hammadan oldin sayxonlikka yugurib chiqarding?

– Eshimda... nega eshimda bo‘lmashkan... Shen, Fedoy, eshimga sholmashang, yayamga tuz shepmashang bo‘laydi.

Nastena titrab ketdi, qariyalar ko‘pdan beri bir-birining ismini aytib gapirishmasdi, shuning uchun u qaynotasining ismi Fedorligini ham unutib qo‘ygandi. Bu ism o‘tib ketgan quvnoq yoshliklarining tasodifiy aks sadosidek eshitildi. Nastena qariyalarga razm soldi, ular o‘z xotiralariga berilib, indamay o‘trishardi.

Nogahon Nastenaning dili beixtiyor, sababini o‘zi ham bilmay g‘ash bo‘ldi-yu, o‘zini shunchalik yolg‘iz, shunchalik battol, baxtsiz, behuda nobud qilingan, aldangan, begona his etdiki, shu zahoti tomog‘iga bir nima tiqilib, bo‘g‘a boshladi va hammayoqni boshiga ko‘tarib, achchiq-achchiq o‘krab yig‘lagisi keldi. Ammo u o‘zini bosdi: yig‘lashi mumkin emas, uning uchun hatto ko‘nglini bo‘shatib olish ham taqiqlangan edi. U qulay fursat kelishini kutib turdi, Mixeich kutga kirishi bilan Nastena ketidan g‘izillab bordi-da, shosha-pisha shivirlab so‘radi:

– Dada, miltiq uchun mendan jahlingiz chiqmayaptimi ishqilib? Jahlingiz chiqayotgani yo‘qmi, a?

– Miltiqqami? – u hali ham xayolan boshqa olamda edi, shuning uchun Nastenaning nima haqda gapi rayotganini ham tezda tushunmadi. – E, yo‘q, qizim, jahlim chiqqani yo‘q. E, gap miltiqda ekanmi...

Tagdor, oxirigacha aytilmagan bu gap ham Nastenaning adashgan qalbini battar tashvishga solib qo‘ydi.

## 15

Guskov mo‘rchaga oxirgi marta aprelning o‘rtalarida omonat, liqillab turgan muz ustidan o‘tib borgandi. U polka ostidan paypaslab kattagina qopni topib oldi-da, orqalab qishlovgaga olib ketdi. Qopda kartoshka, bir necha bosh piyoz ikki dona turp bor edi, yostiq jildiga esa, avvalgidek ozgina no‘xat uni solingandi, un ichida esa o‘ntacha tuxum, bo‘zga o‘ralgan dumaloq non, paytavaga mo‘ljallangan boshqa dag‘al bo‘z xaltada esa eski choriq bor edi, choriq ichiga bir parcha charm, mumlangan ip, juvoldiz solingandi; bundan tashqari qopda kirchil ko‘ylak, zanglagan yung qaychi, kaltagina sapsar qalam, ozgina tuz, picha tamaki bargi, qora olqindi, yana Andreyni hayratta solgan chorakta samogon ham bor edi. Andrey mana shu narsalar bilan necha kun yashashi noma'lum edi, ammo to muzlar erib, Nastena qayiqda suzib kelmagunicha hali bir oy yashashi kerak edi. Andrey qopni bo‘shatayotganida narsalar ko‘ziga ancha ko‘p, yetib ortadiganday ko‘ringandi, ammo uch kundan keyin esa har bir dona kartoshka, har bir chimdim unni hisobga olishga to‘g‘ri kelib qoldi. Tamakini yo‘sint bilan tengma-teng qilib aralashtirib oldi, ammo shu yaramas narsani ham tejab kuniga uch marta, keyinroq esa, kuniga ikki marta – ertalab va kechqurun o‘rab chekishga ahd qilib qo‘ydi.

Qishki Angaradan butunlay fayz ketgandi, muzlar xunuk ko‘karib turardi, faqat qirg‘oqlarni emas, boshqa joylarni ham ko‘lmaklar bosib ketgandi. Angara orqali o‘tgan yo‘lning ikki tomoni erib, yo‘l qorayib, ko‘zga yaqqol tashlanib turardi, qarg‘alar domangirlik bilan qag‘illab yo‘lda ivirsib yurardi. Orolchadagi qing‘ir-qiyshiq tilog‘ochlar musaffo bahor havosida go‘yo birov ataylab g‘arazdan shunaqa qilib qo‘yganday hazin, xunuk ko‘rinardi, holbuki doimo shamol guvillab turadigan bu yerda daraxtlar silliq, bejirim o‘sishi

Shovush boshlanishidan oldin Guskov o‘ziga o‘zi shu kunni – ko‘chib o‘tadigan kunni zinhor-bazinhor o‘ylamayman deb qo‘ygan edi, xuddi shu kuni, daryoda shovush boshlangan va butun atrofda hayot qaynagan paytda u o‘zining so‘nggi boshpanasiga kiradi, vasvasaga tushgan ko‘ngliga bir mushtlaydi-da, bu yerlarga qochib kelib, yashab yurgan kezlaridagi so‘nggi armoni – toshqin suvlarni yuqoridai turib ko‘radi. Bu niyati qanchalik olisday tuyulgan edi-ya, mana hash-pash deguncha shu kunlar ham yetib keldi! Guskovning boshqa niyati yo‘q edi. Uning nazarida to yoz kelguncha vaqt hali juda ko‘pdek edi, mana, o‘sha vaqt g‘ir etib o‘tdi-ketdi, yoz ham kelib qoldi, xo‘s, endi nima qiladi? U Nastena qopga solib qo‘ygan choraktalik samogonni oladi va orzusi ushalganiga guvoh sifatida muzlari ketib, hayqirib oqayotgan Angaraga qaraydi-da, ichadi. Ichadi-yu, bir o‘zi kayf qiladi, qizishib, alam va sharmandalikni, huzur-halovat va orzu-umid-larni, g‘am-g‘urbat va qo‘rquvlarini aralash-quralash qilib yuboradi, aralashtiradi-yu, omixta his-tuyg‘ulari bilan yuragini jizg‘anak qiladi, keyin unda: men borman, ertaga nima bo‘lishidan qat‘i nazar, bugun men borman, degan birdan-bir oddiygina, salgina ravshan etuvchi bir tuyg‘u paydo bo‘ladi. U shunday bo‘lishini oldindan bilardi, shuning uchun shu kundan bir qo‘rqib, bir xursand bo‘lib, albatta shunday kun keladi, deb nomigagina ajablani kutardi.

Endi u onda-sonda uxlardi. Sutday oydin kechalar uni bezovta qilardi, u bekordan-bekorga qattiq tashvishga tushib uyg‘onardida, qishlovdan chiqib ketardi. Ana shunday paytlarda jarohatlangan ko‘kragi odatdagidan qattiqroq og‘riy boshlardi. Oy qanchalik charaqlab tursa, shunchalik bezovtalanib, bo‘g‘ilib ketaverardi. U narigi dunyoda nima bo‘lishini ko‘z oldiga keltirardi, nazarida u pastgina, xuddi shiftga o‘xshash yassi osmonda hech ado bo‘lmaydigan, chiqmaydigan ham, botmaydigan, negadir qo‘tanlagan, qimirlamaydigan to‘lin oyni ko‘rayotganday bo‘lardi.

U odatda Angara sohiliga borardi-da, o‘tirib, behuda o‘jarlik qilayotgan muzga havas va zavq bilan uzoq tikilardi. Hatto kechasi suv yaxlaganda ham endi muz dosh berolmasdi: ostidan suv yalab o‘tib, muzni surardi, surardi, ustma-ust mingashib yotgan muzlar parchalanib to‘kilardi, charsillab, qisirlab darz ketardi, muz ustidagi ko‘lmaklar betini qoplagan yupqa shovush chayqalib, qisir-qisir qilardi. Guskov xuddi yirtqich hayvon singari xar bir ovozga, hayot-

fasi tiqilib qolardi, Guskov haddan tashqari kuchanib nafas olarkan, bor kuchi ham tugayotganini his etardi.

May arafasida u Angaraning yuqori qismiga chiqib, ov qilish mumkin bo‘lgan joylarni aylanib kelishga otlandi. U kerakli narsalarning barini: miltiqdan tashqari boltani, har ehtimolga qarshi qopni oldi, tunab qoladigan bo‘lsa, unisi ham, bunisi ham kerak bo‘ladi. Aylanib kelishga bir kun yetmasligini chamalab ko‘rdi, uning qishloqqa yaqin biron yerda daydib yurgisi, odamlarni ko‘rgisi kelardi, qishloqqacha esa, o‘ttiz chaqirimcha yurish kerak edi. U qishloqqa yaqinlashishga ikkilansa-da, ammo borishga yuragi to‘kilib turardi, qandaydir tiyib bo‘lmaydigan gijgijlovchi muddat yaqinlashib, odamlarning jig‘iga tegishga, agar ilojini topsa, ularni tashvishga solishga qistardi. Balki ularni bezovta qilishning hojati ham yo‘qdir, shunchaki bir chetda turib ularni ko‘rish, odamlarning ovozini eshitish, nimalar haqida gaplashayotganlarini, tirikchiliklari qandayligini bilish yetarlidir, shu bilan huvillab tatalanayotgan, bezovta bo‘layotgan ko‘ngli ham to‘lib, qaytib ketar. Ribnayaga borishga yuragi dov bermadi, borsa, u yerdagilar ko‘rib, tanib qolishlari mumkin, uning uchun eng yaxshisi biron ta begona qishloqqa borgani ma’qul. Hech gap bo‘lmaydi, deb bo‘ladimi, axir?!

U ertalab barvaqt, tong yorisha boshlashi bilan yo‘lga tushdi va tushga qolmay Kamenniy oroli ro‘parasidagi qирг‘оqqa, qishda kiyik ovlagan yeriga yetib bordi. Oftobdan va suv yalashidan yupqalanib, ko‘kish tovlanib turgan kuz o‘rtasidagi orol hozir juda yalang‘och, xunuk ko‘rinardi, ammo Guskovning imillamay, shu ondayoq orolga borgisi keldi, u ov qilib yurgan paytida tunagan, ovi baroridan keli shiga sabab bo‘lgan o‘sha g‘orni deb borgisi keldi. Agar u shu g‘orda qolmaganida ishi o‘ngidan kelarmidi yoki kelmasmidi, noma’lum edi. Unga o‘xhab o‘z siri o‘zi bilan bo‘lgan g‘or uni qandaydir boshqacha, zimdan imlab chorladi, imlaganda ham sirlashgani imlardi, bu sirni shu yerda oshkora etish ham, shu yerga yashirish ham mumkin edi. Guskov to hanuz bu g‘or ko‘zimga bejiz uchragani yo‘q, deb ishonib yurardi, men xudoning irodasi bilan bu g‘orga duch keldim derdi. Umuman, keyingi vaqlarda o‘rmonda uchragan barcha xilvat joylar, hatto eng kichik, befoyda joylar ham uning diqqatini torta boshlagandi. Masalan, u to‘satdan sichqon ini oldida to‘xtardida, uning nimaga yarab qolishini mo‘ljallab, tayog‘i bilan titkilardi,

agar choqqina chuqurcha ko'rinib qolsa, ichiga tushib, cho'nqayib o'tirardi-da, yashirinish mumkinmi-yo'qmi, tekshirardi: agar ichidagi suv betida qor suzib yurgan haqiqiy chuqurlikni ko'rib qolsa, anchagacha yonidan ketolmay, uning tik tushgan chetini tomosha qilardi, chuqurligini chandalab ko'rardi; u bo'sh turgan ayiq uyasini topish orzusida ag'darilgan daraxtlarning ildizlari ostiga sinchiklab qarardi; u jarliklarda yurishni, tinchgina yurib ketayotib birdan o'zini daraxt panasiga olishni, atrofga alanglashni, xilvat chakalakzorga urib kirib ketishni xush ko'rardi – go'yo u ko'zga ko'rinmaydigan odam bo'lish niyatida o'zini qismlarga bo'lib-bo'lib, u yoq-bu yoqqa yashirinayotgandek edi. Shuning uchun kimsasiz, tashlandiq oroldagi g'or unga ma'qul kelib qolgandi, u qidirib, qittak-qittak topayotgan imkoniyatlarning hammasi bu yerda xuddi ko'ngildagidek muhayyo edi.

Orol ro'parasidagi sohil keng, yaydoq bo'lib, namchilligi ketgan yerdan yangi, harir och-yashil rangdagi barra maysalar chiqib turardi. Angaradan muzlarning bo'g'iq tors-tors qilib yorilayotgani eshitildi. Tez kunda, hademay, shu yaqin kunlarda muzlar ko'chadi-da, bir-birini turtib-surib, pastga oqib ketadi – qasir-qusur qiladigan ana shu fursatning yaqin qolgani chor atrofdan sezilib turardi. Hamma narsa ana shu fursatni sabrsizlik bilan kutayotgandi: go'yo Angara shovillab, hayqirib oqa boshlashi bilan yoz ham birdan, imillamay, bir zumda boshlanadi-yu, hamma yoq charaqlab, lovillab ketadigan-day edi – buni hech nima bilan to'xtatish, tutib turish mumkin emas. Shundan keyinoq qandaydir yangi, boshqacha kunlar boshlanadi. Guskov ham to'satdan o'zining jonsarak bo'lib qolganini his etdi: biron ish qilishi, qayoqqadir oshiqishi, biron nima bilan shug'ullanishi kerak edi. U naridan-beri tamaddi qilib oldi-da, muz ustida qilqillab turgan halqobdan hovuchlab suv olib ichdi va yo'liga qarab ketdi.

U yo'l-yo'lakay bulduruq otib oldi. Unga o'q sarflash xayf edi, albatta, ammo Guskov kechga borib tinka-madori qurishini, ertaga esa, yana ancha yo'l yurishi, shuning uchun tuzukroq ovqatlanib olishi kerakligini bilardi.

U kunduzi Angara qayrilishidagi qishloqni ko'rib qo'ygan edi-yu, ammo unga yaqin kelmadi, aksincha, orqasiga qaytib, tepalik to-monga ketdi, u qanchalik charchagan, qiynalgan bo'lmasin, nariroq ketishga o'zini majbur qilardi. U ko'pdan beri yirtqich hayvonlardan

qo'rqmay qo'ygandi, ammo odamlarga o'z qorasini ko'rsatishni istamasdi. Shuning uchun u ertalab uylar bo'ylab borarkan, tepaliklarda ancha naridan yurib, qishloqni yuqori tomonidan aylanib o'tdi.

U yana xo'rozlarning qichqirishini, har bir qishloqdan keladigan noaniq, tushunib, ajratib bo'lmaydigan, mujmal, o'qtin-o'qtin shang'illab, guvullaydigan o'sha ovozni eshitdi. Qiziq, bu yerdagi xo'rozlar Atamanovkadagi xo'rozlarga qaraganda boshqacha, ajoyib qichqirar ekan, o'z qishlog'idagi xo'rozlar esa zo'r berib kekirdaklarini yirtardi. Boshqa rayon shunaqa bo'larkan-da. U g'arbda, front yo'llarida xo'rozlarning qichqiriqlarini eshitganida, har safar bu yerdagi xo'rozlar Angaradagi xo'rozlarga qaraganda zaifroq, pishiqliq-roq, ayyorroq ekan, deb ko'nglidan o'tkazardi, ammo endi bilsaki, Angarada ham xo'rozlar har-xil qichqirarkan.

Guskov tog'dan tushgach, yaylovga duch keldi, yaylovning yuqori tomonidagi g'ov past-baland, qing'ir-qiyshiq bo'lib, qayinzor oralab ketgandi. Bu g'ovni xotin-xalajlar qilganga o'xshaydi. Urush davrida qilingan shekilli, yog'ochlar pala-partish to'silgandi: ba'zi yerida ustuni bo'lsa, ba'zi yerida yo'q, shundoq yerga qoqilgan yoki daraxtga bog'lab qo'yilgan, shuning uchun qiyshayib, osilib yotardi, uni tuzatishga hali qo'l tegmagan chog'i. Bug'doyni ekib bo'lgandan keyin tuzatishga to'g'ri keladi. Guskov bo'ynini cho'zib, chapga, bir chaqirimmi yoki undan ko'proqmi narida turgan chekka uy tomonga qaradi va qanday qilib qishloqqa yaqinroq borish va u yerda nimalar bo'layotganini ko'rish to'g'risida xayol surib qoldi. U ham qo'rqardi, ham o'zini xavf-xatarga qo'yib tavakkal qilishga, biron karomat ko'rsatishga, o'zining ham, boshqalarning ham kapalagini uchirishga ko'ngli jiqillab turardi. Uning badanida yig'ilib qolgan harom qoni qizib, noaniq, telba-teskari istaklari xuruj qila boshladi. U nima sababdan o'ttiz chaqirim yo'l bosib bu yerga kelganini o'zi ham bilmasdi – g'ov oldida mana shundoq qaqqayib turib-turib, keyin qaytib ketgani kelmagandir, axir. Yo'q, u nima maqsadda shuncha yo'ldan ovora bo'lib kelgan bo'lsa, o'sha narsani topishi kerak.

Nariroqda shox qisirladi, Guskov seskanib ketdi. Shundagina u yaylovda, shumurt butasi ortidagi katta-katta qora xolli yoki aksinchacha, katta-katta oq xolli ola sigirni ko'rib qoldi. Ola-bula qayin orqasida turgan Guskov sigir ham qayinga o'xshab ola-bula bo'lgani uchun uni payqamagan edi. Sigirning yonida onasi singari ola, hali

yoshiga yetmagan, uch yoki to'rt oylik buzoq o'tlab yurardi. Ish to-pilganidan xursand bo'lgan Guskov hayvonlarni kuzata boshladи. Sigir bo'ynini cho'zib, yerdan nimanidir kidirardi, holbuki maysalar hali tuzukkina chiqmagan bunday paytda o'tga emas, shudringga qorin to'ydiradi, xolos. Buzoq buni onasidan ko'ra yaxshiroq tushunardi shekilli, onasining yeliniga yopishib, tumshug'ini nuqib-nuqib qo'yardi, biroq sigir emgani qo'ymasdan sekin yurib, nari ketardi. Buzoq yana yopishardi, shunda onasi o'girilib, shoxsiz boshi bilan buzoqni turtib tashlardi.

Guskov bundan bir oy ilgari otasini poylab turganida otxona qo'rasidagi qulunni qanday kuzatgan bo'lsa, bularni ham ana shunday diqqat bilan kuzatdi, endi uning ko'zi yana ham o'tkirlashgan, qulog'i ding bo'lgan edi, chamasi, bu behuda emasdi; u go'yo bundan buyon inson uchun foydali bo'lgan uy hayvoniga ishi tushmasligini sezayotgandi, shuning uchun ham uy hayvonlarini sog'inib qolgan Guskov ularga qanchalik uzoq qarab tursa, yuragi shunchalik qattiq orziqayotgan edi. Boshqa judoliklarga qaraganda bu muhim bo'lmasa ham, ammo negadir g'alati tuyulib, nash'a qilayotganidan, u bunga qandaydir ko'nika olmayotgandi.

Sigir bir balo bo'lgan-u bolasini hovlidan ergashtirib kelgan, albatta: hech qaysi beka emadigan buzoqni bunday mahalda dalaga chiqarib yubormaydi. Sigir bolasini xar qancha suzmasin, shartalamasin, bugun u uyga sutsiz qaytadi. Guskov xursand bo'lib kulimsradi, nazarida boshqa birov emas, aynan o'zi buzoqni uydan qochirib yuborganday edi. Agar u kelmaganida buzoq ham uyda qolaverishi mumkin edi. Endi, modomiki qochib kelibsizmi, bo'sh kelma buzoqcha, uni emaver, emaver, so'nggi tomchisigacha so'rib ol – kechqurun bekangga gap topiladi.

Lekin sekingina qishloqqa boradigan payt ham bo'lib qolgandi, qishloqda unga hozircha o'ziga ham ma'lum bo'lman, ammo shuni deb kelgan qandaydir ish mahtal bo'lib turgan edi. Biroq uni yo'qlamagan yerga kun botgandan keyin kirib borsa yaxshi bo'larmidi, ammo u kutishni istamasdi, avvalgidek yuragi orziqib, sabri chidamayotgandi, bu ishtiyoq borgan sari bezovta qilib, ichetini yeyayotgandi. Guskov o'zini o'tga urmasligini, ahmoqona ishlar ham qilmasligini bilardi, agar ish chappasiga ketguday bo'lsa, qochib bekinishga ko'zi yetardi. Quruq qo'l bilan uni tutib bo'psan.

U qo‘ra yoqalab ehtiyotkorlik bilan borarkan, tez-tez to‘xtab, atrofga alanglardi. Ko‘p o‘tmay qishloq chetiga kelib qoldi, shu payt garmon ovozi eshitildi. Guskov shosha-pisha bugun oddiy kun emas, balki bayram – Birinchi May ekanini esladi. Uni qarang-a: demak, bayram qilishyapti ekan. Urush ketayotgan bo‘lsa ham bayram qilishyapti, o‘ynab-kulishyapti, hu ana, kizil bayroq osib qo‘yishibdi, asrab qo‘ygan garmonni topishibdi, kechqurun to‘da-to‘da bo‘lishib, uyma-uy yurishadi, ashula aytishadi, o‘yin tushishadi, ko‘ngillarida borini chiqarib, yozilishadi, yo‘q, ko‘rinib turibdi, xalq ruhini qyech nima bilan so‘ndirib bo‘lmas ekan. Hozir Atamanovkada ham o‘yinkulgi qilishyapti. Guskov g‘am ham yemadi, xafa ham bo‘lmadi – endi nimagayam xafa bo‘ldi! U qaytanga shubhalanib, ajablandi: bayram kilishyapti-ya. Xuddi urushdan oldingiday, xuddi urush bo‘limganday. Ular Guskovning shu yaqin-o‘rtada tentirab yurgani bilan ishlari ham yo‘q, ular uchun bu yerda u yo‘q.

Buzoqning qanday qilib qo‘radan chiqib ketgani endi ma’lum bo‘ldi. Hamma o‘yin-kulgi bilan band. Bugun mayda-chuyda ishlarga hech kim qaramaydi: odamlar bayram qilyapti. Guskov qayrilib orqasiga qaradi: o‘tblab, sekin-asta qayinzorga qarab ketayotgan sigir boyaga Guskov turgan yerdan sal narida edi. U nariroqqa yurdi, nogahon miyasiga dahshatli bir fikr keldi-da, yana orqasiga o‘girilib, buzoqqa tikildi. Buzoq, xuddi bir nima chaqqandek yoki turtgandek, tepindi-da, shataloq otib, o‘zini bir tomonga oldi va ko‘p o‘tmay tinchib, erinchoqlik bilan dumini silkitdi. Guskov o‘girilib endi qishloqqa karadi – yaylovga olib keladigan yo‘l kimsasiz edi, shuning uchun u shartta orqasiga qaytdi.

Quyosh baland ko‘tarilgan edi, jazirama musaffo havoda quyosh-dan taralib, borliqni to‘ldirayotgan yengil, shodiyona navo yangrardi. Qishloq ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan garmon ovozi ham tindi-da, barcha tovushlar bir-biriga qo‘silib, keng, bepoyon, cheksiz oqimga aylanib ketdi. Guskov o‘zini tiyishga urinib, oshib o‘tmoqchi bo‘lgan g‘ov oldida birpas turib qoldi, yana biroz quloq solib, atrofiga ko‘z yogurtirdi va shosha-pisha, ayni paytda es-hushini yig‘ishtirib olishdan qo‘rqib, past g‘ovdan oshib o‘tdi. Guskov yo‘l-yo‘lakay quruq xipchin topib oldi-da, pastlikdan yurib, sigirning orqa tomonidan bordi, sigir uni payqab, boshini burdi va katta-katta shilpiq ko‘zlarini unga tikdi, sigirning ko‘zlarini shunchalik ma’sum ediki, hatto

Guskovning ko‘zlariga yosh keldi. U sigirni xipchin bilan urib, g‘ovning tog‘ tomonga qaragan teshigiga haydadi, sigir itoat qilib yo‘lga tushdi. Buzoq – kalta-kalta to‘mtoq shoxli novvoscha onasining pinjiga tiqildi. Ammo sigir qo‘radan chiqqach, to‘satdan o‘zini chapga, qishloqqa qarab urdi, yaxshiyamki sigir qayinzorda tez chopolmadi, Guskov uni qaytarishga ulgurdi. Sigir to‘xtab, jon-jahdi bilan ma’radi, buzoq o‘zini u yoqdan-bu yoqqa ura boshladi, shundan keyin Guskov tashvishlanib, battar shoshildi.

Guskov sigir bilan buzoqni ertalab o‘zi tushib kelgan soy tomon ga haydadi. Andrey u yerda, xilvat joyda bugun hech kimni uchrat masligini bilardi. Ammo sigir bu tomonga qarab yurishni sira istamasdi, u odamdan qutulib, orqaga qaytish uchun o‘zini goh o‘ngga, goh chapga urardi: buzoq ham ish chatoqligini sezib, onasidan qolmasdi. Sigit og‘ir-og‘ir nafas olarkan, ikki biqini chiqib ketar, lablari dan so‘lak oqar edi. Guskov ham hansirab qoldi, yelkasidagi miltig‘i xalaqit beraverganidan uni qo‘liga oldi. Bu uch tirik jon o‘rmonda yarim soatdan beri u yoqdan-bu yoqqa yugurardi-yu, ammo soy hali olis edi.

Bir-birini aldashga urinib, har to‘xtaganida sigir bilan inson birbiriga nafrat bilan qarardi: sigir horg‘in ma’rardi, uning oq xollaridan ter siza boshlagani ko‘rindi.

Obdan tinkasi qurigan Guskov boshqacha yo‘l tutishi kerakligini tushunib qoldi. U belidan kamarini yechib oldi-da, sigirni o‘z holiga qo‘yib, buzoqning ketidan pisib kela boshladi. Bu ishni qishloqdan olisroqda qilsa yaxshi bo‘lardi, albatta, ammo uning boshqa iloji yo‘q edi. Lekin novvoscha ham tutqich bermadi, oxirgi daqiqa shataloq otib qochib qoldi. Guskov kamar halqani buzoqqa tashlab, ketidan sakradi, lekin ulgurmadi. Uning joni hiqildog‘iga keldi, u cho‘zilib ketgan bu ahmoqona ovni birato‘la tugatib qo‘ya qolish uchun miltiq tepkisini bosishga ham tayyor edi-yu, ammo o‘zini sezdirib qo‘yishdan qo‘rqib, bu shashtidan qaytdi.

Har qalay omadi keldi: nihoyat, u buzoqni chakalakzorga haydab kirdi, jonivor butalar orasida tiqilib qolganida Guskov kamari ni uning bo‘yniga tashladi. Buzoq cho‘kkalab qoldi, so‘ng irg‘ib o‘rnidan turdi-da, sakradi, bo‘yinturuqdan chiqib ketish uchun o‘zini u yoq-buyoqqa urdi, ammo Andrey ikkinchi qo‘li bilan buzoqning dumidan ushlab, butalar orasidan surgab chiqdi. Jonivor azbaroyi

qo‘rqanidan bo‘kirib yubordi. Guskov uni o‘ziga kelishga qo‘ymay, yogurtirib soy tomonga sudrab ketdi. Sigir ma’rab, bolasining ketidan yugurdi. Buzoq endi ayanchli ma’rardi, mahkam qisilgan to-mog‘idan miyovlashga o‘xhash xirillagan, bo‘g‘iq ovoz chiqardi.

Guskov nafasini rostlash uchun soy oldida to‘xtadi, u juda hansirab qolgandi. Buzoqni tog‘terak niholiga bog‘ladi-da, sigirni hay-dab yuborishga urindi, ammo sigir ketmadi, u sal nariga qochardi-da, to‘xtardi. Andrey bir necha qadam nari ketishi bilan sigir yana bolasi oldiga kelib uni hidlar, yalar va vaqt g‘animat, kamarni uzib qochib qolish kerak, deb uni yo‘lga solayotganday boshi bilan turtardi. Buzoq esa dildirab turardi: urinaverib holdan toygan, rosa tinkasi quri-gandi.

Guskov nafasini rostlab olgach, buzoqni yechib, yana sudrab ketdi. U muz sigirni to‘xtatib qolar degan umidda soydan kesib o‘tmoqchi bo‘ldi, ammo kutgani bo‘lmadi: sigir zarracha ikkilan-may, ular ketidan muzga tushdi, oyoqlari sirpandi – uning oldingi oyoqlari ikki tomonga uquvsizlik bilan yirilib ketib yiqilib tushdi, turishga ko‘p urindi-yu, turolmadi, shundan keyin tizzalari bilan narigi qirg‘oqqacha surilib-sirg‘anib bordi. Guskov yaqin yo‘latmay unga qo‘ndoq bilan o‘qtaldi, sigir jon-jahdi bilan oldinga tashlanib, qirg‘oqqa chiqib oldi.

Endi Andrey qishloqdan kam deganda uch chaqirimcha olisda edi. Guskov har ehtimolga qarshi buzoqni yana picha toqqa qarab sudradi, quruqroq, ammo panaroq joy topdi-da, daraxtga bog‘ladi. Sigir sal narida turib, Andreyning har bir harakatifi kuzatar edi. Nogahon Guskov tutaqib, belidan boltani sug‘urib oldi-da, sigirga qarab yugurib qoldi. Sigir pishillab oqsab, oyoqlari chalishib, daraxt shoxlarini sindirib qochdi, ammo Guskov to‘xtashi bilan u ham to‘xtadi. Sigirdan qutulishning sira iloji yo‘q edi. Andrey qaytib kelganida buzoq yotib olgandi, u shunchalik holdan toygan ediki, hatto oyog‘ida tura olmasdi. U qo‘rqib, yaqinlashib kelayotgan odamga boshini burdi. Andrey bolta muhrasi bilan uning peshonasiga shunday tez va aniq tushirdiki, buzoq xiyol «him»ladi-yu, kallasi shilq etib tushib, tasmada osilib qoldi. Xuddi shu lahzada orqadan sigir bo‘kirdi. Butunlay quturib ketgan Guskov sigirni ham tinchitish maqsadida unga qarab yurdi, ammo sigirning qochayotganini ko‘rib, to‘xtadi. Bugun bittasini o‘ldirgani ham yetar, yo‘qsa tiqilib o‘lishi mumkin.

U buzoq terisini shilayotgan paytda sigir turgan yerida Guskov-dan ko'zini uzmas va ahyon-ahyonda zaif, ayanchli ma'rardi. Bug'i chiqib turgan, uchib-uchib qo'yayotgan go'shtdan Guskovning ko'ngli behuzur bo'ldi. U buzoqning ikki sonini, yana bir parcha lahm joyidan kesib oldi-da, hammasini qopga tiqdi, qolganini esa, ayiqqa o'xshab, bulturgi xazon ichiga ko'mdi va ustidan eski-tus-kilarni tashlab qo'ydi. Guskov ketish oldidan sigirga so'nggi marta qaradi. Sigir boshini sal engashtirib, boyagiday qimirlamay tikilib turardi, u sigirning ko'zlari dahshat bilan boqib turganini ko'rdi, bu sigirning do'q-po'pisasi bo'lmay, qandaydir boshqacha, shu yaqin orada yuz beradigan falokatdan bashorat edi go'yo. Guskov jo'nashga shoshildi.

Guskov qaytib kelayotib, Kamenniy oroli ro'parasidagi o'rmonda tunadi. Bu joy negadir Guskovning yuragini jig'illatib, shu tomonga tortib turardi; kechga borib Guskov ramaqijon bo'lib qoldi-da, bir amallab sudralib, o'rmonga yetib oldi. U yarim kechada Angara tomon dan eshitilayotgan muttasil guvillashdan uyg'onib ketdi: muzlar yorilayotgandi. Guskov hayron ham bo'lindi, xursand ham: qopda yotgan losh go'yo uning jonini sug'urib olgandek edi. U hozir ham faqat go'sht deb buzoqni o'ldirdimi yoki bu yerkarga kelganidan beri ko'ngliga mahkam tugib qo'ygan biron-bir maqsadda shunday qildi-mi, o'zi ham bilmassi.

Yuqori oqimdagagi qishloqqa ko'chib o'tgan Guskov bir haftadan keyin bir kuni tush paytida Atamanovka tomon dan ketma-ket uzilayotgan pala-partish o'q ovozlarini eshitdi. U urush tugaganini anglatdi.

## 16

Urush tugadi.

Kardadan chopar keldi-yu, shu so'zlarni qichqirib aytib, uzoq kutilgan xushxabarni butun qishloqqa yetkazdi. Keyin qishloq to's-to' polon bo'lib ketdi.

Birinchi bo'lib, odatdagidek, Nestor miltig'iga yopishdi, unga boshqalar ham qo'shildi – qasir-qusir boshlandi. Atamanovka bino bo'lib bunaqasini ko'rmagandi; xotin-xalajlar bir-birlariga yopishib, shang'llar, uv tortib yig'lashar, bir lahzadayoq sabr-toqatlari tugab, yuraklaridagi quvonchlari, dard-alamlarini atrofdagilarga to'kib so-

lardilar, bolalar shu paytgacha boshlaridan kechirganlariga qaraganda ancha muhim bo‘lgan bu yangilikni ichlariga sig‘dira olmay gangib qolib, u yoqdan-bu yoqqa yugurar, birining ketidan biri chopar, bu xushxabarga javoban nima qilishni, uni qayoqqa yetkazishni bilmas edilar. Shu paytgacha uncha-muncha narsaga parvo qilmaydigan kattalar ham bu safar o‘zlarini tutolmay, gangib qolgan edilar. Dastlabki daqiqalarda yig‘lab-siqtashgan, quchoqlashgan, bir-birlarini silkitgan odamlar, go‘yo baxtga bardosh berolmayotgandek, es-hushlaridan ayilib, bekordan-bekorga u yoqdan-bu yoqqa yurishardi, tarqalib ketishardi, yana to‘planishardi, nimagadir, qandaydir buyruq berilishini kutishardi. Qayoqdandir Nestor yetib kelib, bayroqlar osishni buyurdi. Garchi Nestor bir oy burun o‘zining raislik o‘rnini Maksim Vologjinga bo‘shatib bergen, endi hech qanday amal bo‘lmasa ham, ammo odamlar unga bo‘ysunib, qizil mato qidirishga tushib qoldilar. Birov topdi, birov yo‘q, ammo qishloq baholi qudrat yasatildi, odamlar yillar bo‘yi asrab kelgan yaxshi kiyimlarini topib kiydilar, bolalar u yer-bu yerga – darvozalar, uyalar ustiga o‘zları yasagan bayroqchallarni osib qo‘ydilar. Agafya Somova o‘tgan yili kuzda halok bo‘lgan o‘g‘lidan qolgan, ammo hali yaxshi, o‘ngmagan qizil ko‘ylakni xodaga bog‘lab qo‘ydi; otini yeldirib kelgan Nestor unga yechib ol, deb baqirdi, ammo Agafya eshitishni ham istamadi, o‘zi yo‘qligida yechib olmasliklari uchun eshik oldida poylab turdi.

Ertalab xo‘mrayib turgan havo ham ochilib ketdi: osmondagи bulutlar tarqadi, quyosh charaqlab, yerdagi barcha narsani orombaxsh, xurram nuri bilan munavvar etib qizdira boshladi.

Qishloqdan varanglab o‘q ovozlari eshitilganda Nastena Dono Vasilisa bilan birga yaqindagi sayxonlikda oldinma-ketin qo‘sh solib, no‘xatlik yerni haydayotgandi. Dono Vasilisa birinchi bo‘lib nima gapligini payqadi-da, shosha-pisha otlarni qo‘shdan chiqara boshladi, uning ketidan Nastena ham otlarni bo‘shatdi. Ular Atamanovka ayni qozonday qaynab turgan bir paytda otlarini yeldirib kelib qolishdi. Bo‘g‘riqib, harsillayotgan Nastena otlarni darvoza oldida qo‘yib yubordi, yugurib kelib uyga o‘qday otilib kirdi-da, qariyalarning kapalagini uchirib yubordi: o‘rindiqda o‘tirgan Semyonovna qo‘rqib, unga peshvoz turdi, deraza oldida turgan Mixeich keskin o‘girildi – bu xushxabardan hayajonga tushgan qariyalar, boshqa xabarni kutishayotgandi. Ostona oldidayoq Nastenaning

nafasi ichiga tushib ketdi: u qayoqqa yuguryapti, ularga nima demoqchi o‘zi?

– O‘q uzishayotganlarini eshitib qoldik, – deb tushuntira boshladi u shundoq ham ma’lum bo‘lgan narsani. Keyin zo‘rg‘a, tavakkaliga, go‘yo birov gapini bo‘lib qo‘ygandek tugatdi: – Fahmlab qoldik.

– Ey xudoyim, – deb iltijo qildi Semyonovna va butga qarab cho‘qinib qo‘ydi. – Nahotki, shunday kunyaayga ham yetgan bo‘lshak-a? Endi Andyushkamiz kaeydaligini aytishay, axiy?

– Aytishadi, kampir, aytishadi, – dedi Mixeich sekingga Nastenaga qarab qo‘yib.

– Endi hammashini uy-uyiga... onalayi, xotinlayi oldiga javob beyib yuboishadi...

– Birdan hammaga javob berib bo‘lmaydi.

– Nega bo‘lmaydi?

– Nega emish... Hali kim biladi nima bo‘lishini. Qo‘sinsiz qolib bo‘lmaydi.

– Anavi uyushda hech kim omonlik-somonlik deb e’lon qilmagandi, – dedi Semyonovna biroz jim turgach, eslab. – Tugagan-tugamaganligini hech kim bilmovdi... Geymanlayni tashlab o‘zayo bo‘g‘ishishganda, e, undan ham battay edi. Mundoq tinchlik kunning o‘zi yo‘q edi. Kommuna deb uyushishdi, kolxoz deb uyushishdi. Biyon kun tinchlik yo‘q edi o‘zi.

Nastena yon tomondan xonasiga o‘tdi-da, kiyimini almashtirdi. Uning daladayoq tog‘day ko‘tarilgan, shodlikka to‘lgan ko‘ngli hovli-qib, odamlar yoniga chiqishga undardi, ammo nimadir uni shashtidan qaytarib, bu sening kuning emas, bu sening g‘alabang emas, g‘alabaga sening hech qanday aloqang yo‘q, deb pisanda qilib turardi. Hamma-hammaning aloqasi bor-u, bitta Nastenaning aloqasi yo‘q. Nastena o‘zini qayoqqa urishini bilmay, karavoti chetiga yonboshladi va odatdagidek qornini siypaladi, ammo mehri tovlanib emas, balki dovdirab, xayoli qochib siypaladi – qo‘li shunchaki o‘z o‘rnini topdi-da, jim bo‘lib qoldi. Ko‘chadan shovqin-suron eshitilardi, kimir tasira-tusir ot choptirib o‘tdi, bir notanish erkak ovozi dona-dona qilib xirgoysi qildi:

*Po ‘lat otlarda biz*

*Butun dalani kezamiz –*

*Ham haydab, ham ekib, yig ‘amiz – qolmas xoru xas.*

Nastena sakrab turib, derazadan qaradi: nahotki, bitta-yarimta bugun urushdan qaytib kelgan bo‘lsa? Ko‘cha o‘rtasida, bolalar qurshovida Nastenaga notanish bir novcha, qotma, fufaykasining oldi ochiq, bosh yalang erkak oyoqlari chalishib ketib borardi. Nastena mehmonxonada Mixeichning Semyonovnaga shunday deb tushuntirayotganini eshitib qoldi:

– Kardadan... xabar olib kelgan shu-da. Odamlar suyunib, naq burnidan chiqquncha ichiribdi. O‘zi ham nafsi ni tiymabdi, yo‘q... ko‘rar kun bor ekan-ku...

– O-o-dam-lar! – haligi kishi o‘zini tutib turish uchun qo‘llarini ikki tomonga yozib to‘xtarkan, to‘satdan qichqirdi. – Hammanglar namoyishga chiqinglar! Gitler kaput! – u oxirgi so‘ziga monand boloxonador qilib so‘kindi va go‘yo baqirishdan qutulganday, boshini chayqab, gandirakladi-da ashulasini davom ettirdi:

*Qadamimiz musta-ahkam,  
Hech qachon dush-shman ham  
Respublikamizda sayr etolmas.*

Bu kishining baqirishi ham, bugungi kunga yarashmaydigan, davri o‘tgan ashulasi ham Nastenaning yuragini battar tilka-pora qildi; uning yonib, zirqirayotgan, iztirobga to‘la yuragi o‘z xatosini to‘satdan payqab, qayoqqadir talpinardi, qafasdagi qushday pitirlardi. Nastena devor oldiga bordi va boshini to‘siq orasidan chiqarib, ko‘chaning yuqori chekkasida birov yurganini payqadi, ammo yurgan odam kim ekan, deb qarab o‘tirmadi-da, orqasiga, uyga qaytdi. U Andreyni esladi-yu, birdan jahli chiqib ketdi: ha, o‘shaning kasoftidan Nastena el qatori g‘alaba nash’asini surishga haqi yo‘q. Keyin Nastena agar u urush tugaganini eshitsa, yuragi battar siqilishini – o‘zini o‘ylab yuragi siqilishini ko‘nglidan o‘tkazdi va darhol hushini yig‘ib oldi, shahdidan tushdi va afsuslanib, eriga achindi, keyin birdan uning oldiga borgisi kelib qoldi. Ular bugun birga bo‘lishi kerak, albatta: barcha odamlardan, ularning olamshumul bayramlari dan ikkovigina bir chetda qolibdi. «Hech ham chetda emasman-da, – dedi u o‘zini ovutmoqchi bo‘lib va o‘zini odamlar ichida tasavvur qilib. – Nima, men urush yillarida ishlamabmanmi, harakat qilmabmanmi? Shunday kun kelishi uchun boshqalarga qaraganda kam ter

to‘kibmanmi? Mana, hozir shartta boraveraman-da. Boraveraman». U o‘rnidan jilmay turarkan, o‘zini o‘zi shunga undardi. Go‘yo u birovning kelib, o‘rnidan turg‘azib, odamlar oldiga sudrab olib chiqishini kutayotganday edi.

Chindan ham uning kutgani bo‘ldi. Otning do‘pir-do‘piri, derazaning taqillagan ovozi eshitildi, hamon avvalgidek tinib-tinchimaydigan, guldur Nestor egardan osilib, oynani qattiq-qattiq taqillatdi-da, jon-jahdi bilan baqirdi:

– Hoy, tirikmisanlar, o‘likmisanlar? Hamma qiroatxonaga, majlisga! Yig‘ilish-majlis-nishonlashga! Mixeich! Qayoqdasan? Nastena!

– Hov, sal sekinroq, – dedi Mixeich, shoshilmasdan deraza oldiga kelar ekan. – Namuncha baqirasan?

– Yig‘ilish-majlis-nishonlashga. G‘alaba munosabati bilan. Shoshilinch buyruq bor. Nimang bor-u nimang yo‘q – hammasini o‘zlarin bilan qiroatxonaga olib boringlar. To‘kmaga. Tarasundan olib bor, Mixeich, ayama. Tarasundan olib bor deyapman senga, tu-shundingmi?

– Tushundim, tushundim, – deb to‘ng‘illadi Mixeich. – Senga tarasun bo‘lsa bas. Boshqa hech nima kerak emasmi? Nuql ichkilik bo‘lsa senga.

Ammo Nestor endi uning gapini eshitmadi, u allaqachon otini yeldirib ketgandi.

– Voy, yayamash-yey, – Semyonovna cho‘chib, tomog‘ini taqillatar ekan, boshini chayqab qo‘ydi. – Ulay, Agapovlayning ham-mashiyam jay sholishni yaxshi ko‘yadi, ammo manavinisi g‘iyt tentak.

– Boraqol, Nastena, – dedi Mixeich, osilib tushgan mo‘ylovini qimirlatib g‘amgin, xayol surib jilmayarkan. – Tarasun ham olvol. Bora qol, – dedi u yana boshini ko‘tarib dadilroq. – Men ham keyinroq boraman. Bugun uyda o‘tirish gunoh. Tarasun bo‘lsa, yerto‘lada, o‘ng qo‘ldagi taxta orqasida, ola qol. Bir bayram qilishsin. Sen ham bayram qil. Boraqol.

– Tayashunni-ku beyib yuboyyapshan, Andyushka kelsha, nima qilashan? – deb gapga aralashdi Semyonovna.

– Andryushka kelsa – topamiz. U hali qachon keladi-yu... Bunaqa kun esa boshqa qaytib kelmaydi. Bor, Nastena, bora qol!

Bu urushdan oldin bug'doy yaxshi bo'lgan yillarda tayyorlangan oddiy samogon edi, ammo uni bu yerlarda qadimdan buryatcha so'z bilan «tarasun» deb atashardi. Nastena samogonning qayerda turi shini bilardi: u erta bahorda kartoshka olayotib, yerdan xuddi pilikka o'xshab chiqib turgan tiqinni ko'rib qolib, paypaslab chirpit ko'mib qo'yilganini payqagan edi. Chirpitni undan, Nastenadan ham, boshqa birovdan ham yashirib qo'yishmagandi albatta, shunchaki to vaqtsoati kelguncha ko'zga tashlanib, bekorga kishi nafsi ni qitiqlamasin deb yashirib qo'yishgandi. Keyinchalik Nastena chirpitdan chorak-talik shishaga quyib olib, Andreyning qopiga tiqishtirgan edi: narisi bilan bir-ikki soat erini ovutadi, dalda beradi, ko'zini jimirlashtiradi. Axir u bu g'am-g'urbat, kulfatlardan boshini qayoqqa ursin-u, qanday qilib o'zini chalg'itsin? Uzzukun yolg'iz. Haftalar, oylar mobaynida yakka o'zi. Nastena esa, mana, hozir el ichiga boradi. Nima, borishga haqqi yo'qmi? Axir qo'l qovushtirib turgani yo'q-ku, buning ham mehnati singgan!

Semyonovna har qalay aytganini qildirdi; to'la bo'limgan chirpitdan yarmini bankaga quyib, yashirib qo'yishdi, qolgan yarmini esa, chirpitda ko'tarib borib, uyalib qolmaslik uchun Nastena uni bidonchaga ag'dardi. Nastena bidonchani ko'tarib ko'chaga chiqdi-da, to'xtadi, sal dadillanib, xuddi kampirlar singari sekingina ko'chaning u tomoniga ham, bu tomoniga ham qaradi.

Ko'cha ko'pdan beri bunchalik g'ala-g'ovur bo'limgandi. Qi-roatxona qishloq o'rtasida, Guskovlarning uyidan uch hovli narida edi, o'sha yerdan qattiq-qattiq hovliqqan ovozlar eshitilib turar, tutun ko'tarilar edi. Odamlarning to's-to-polonga tushib qolganini ko'rgan itlar ham hovliqib, u yoqdan-bu yoqqa yugurib akillar edi, xo'rozlar qanotini qoqib qichqirardi, tovuqlar qoqog'lardi, cho'chqa bolalari chiyillardi, eshiklar taraqlab ochilib-yopilardi, ko'cha eshiklar g'ichirlardi, to'da-to'da bo'lib yugurib yurgan bolalar dupur-dupur qilardi. Ammo bu behuda to'polon, qiy-chuvlardan tashqari yana qandaydir bir o'zgacha yoqimli, tiniq, shodiyona, Nastena ga yaxshi tanish bo'lgan, ammo unutilganmi yoki hech kim e'tibor bermay qo'yanmi, bir ovoz jaranglab, turlanib yoyilayotgan edi. Nastena bu ovoz qayoqdan kelayotganini qidirib, boshini ko'tardi – saroy tomida uchta qaldirg'och qator bo'lib o'tirar va vijir-vijir qilib, sho'x-sho'x sayrar edi. Bular ham vaqtida uchib kelibdi. Bilganini

qarang; kecha ham emas, ertaga ham emas, aynan bugun-a. Jonivorlar uchib kelibdi, yozni o'tkazish, in qurib, tuxum bosish, bola ochish uchun o'z vatanlariga qaytib kelibdi. Mana, tinchligiga raxna solingan jonajon yerlarda osoyishta hayot ham boshlanyapti, bu dabdala qilingan, alg'ov-dalg'ov bo'lgan, alamdiyda hayot bo'lsa-da, chindan ham omonlik-somonlikdir endi. Kishining ishongisi kelmaydi: yuraklarni qon-zardob, vahima bosib qolganidan bunday osoyish xayot odamlarning esidan chiqib ketgan ekan. Qaldirg'ochlar vijirvijir qilyapti, dorilomon kunlarni va'da qilib, nimadandir minnatdor bo'lib, o'zlarining nozik billur jomlarini chalyapti, ammo anavi xabarni, urush tugaganini esa, bilmasa ham kerak. Ehtimol, bilar ham, ehtimol, odamlar ovozimizni eshitib, boshlarini ko'tarib qarasin-u, tamom, bugun barcha qayg'u-hasrat bitganligini tushunsin, deb ataylab shoshilib uchib kelgandir.

Shu paytdan boshlab, Nastena yuragi suv bo'lib, erib ketayotgandek his etdi o'zini. Uni qandaydir quvonchli, bema'ni horg'inlik, qandaydir huzur-halovat, ko'ringan narsadan taajjublanish, hatto shu qaldirg'ochlardan ham hayratlanish tuyg'usi, hammasidan ham ko'proq – o'zini boshqalardan kam emasligini va hech nimadan qo'rmasligini ko'rsatib qo'yish istagi vujudini qamrab oldi.

Innakentiy Ivanovichning besh qanotli, tomi tik, baland, ko'rkam uyi shundoqqina qiroatxona yonida edi, uyning yarmida qariyalari – Innakentiy Ivanovich bilan kampiri Domna, ikkinchi yarmida esa asrandilari Vaska (ularning o'z bolalari yo'q edi) turardi, uyning Vaska turgan qismi u ulg'ayib frontga olib ketilgandan buyon, ikki bahordan beri bo'sh edi. Uy bo'sh tursa ham, ko'rinishi avvalgidek bo'lib, vaqtida olov yoqilib, qarab turilardi, deraza tokchalarida gul o'stirilgan tuvaklar turardi, derazalarning ikki yonida esa, pardalar ko'zga tashlanardi. Hozir qariyalari uyning qaysi qismida turishini ham bilish qiyin edi: Innakentiy Ivanovich o'ziga to'q bo'lsa ham, yeypish-ichishdan kam bo'limasa ham, besh-o'nta odamni kutishga qurbi yetsa ham, mehmon kutishga hushi yo'q edi, shuning uchun bo'lsa kerak, odamlar unikiga kamdan kam kirdi-chiqdi qilardi. U hamisha o'ziga to'q bo'lgan. U mana shunaqa farovon hayot uchun tug'ilgandi: xuddi baland bo'yli, norg'ul kishiga yosh bolaning kiyimi to'g'ri kelmagani singari, unga ham boshqacha – faqirona hayot to'g'ri kelmasdi.

Nastena o'tib ketayotganida lo'kidon sharaqladi-yu, darvoza keng ochilib, Innakentiy Ivanovich ko'rindi. U ancha yashargan, yasanib olgan edi, to'q ko'k frenchining katta-katta metall tugmalari yaltirardi, frenchi ostidan bo'ynida yon yoqasi ko'rinish turardi, shimi ham xuddi shunaqa to'q ko'k bo'lib, sal uringan, ammo hali pishiq, pochasi yaxshi, yosh sigir terisidan tikilgan, qatron bilan qalin moylanganidan xushbo'y hid kelib turgan etigi qo'njiga tiqilgan edi. Nastena Innakentiy Ivanovichni xuddi o'z qarindoshiday ko'rib sevinib ketdi-da, uning bashangligiga havasi kelib jilmayib, unga tomon bir necha qadam bosdi.

— Innakentiy Ivanovich, shu kunlarga ham yetib keldik-a! — deb qichqirdi u.

— Ha, yetib keldik, — deb sipolik bilan javob berdi qariya. — Senikidan hech qanday xat-xabar yo'qmi?

— Yo'q, — Nastena xaxolab uning ko'ziga tik qarab javob berdi. — Yo'q, Innakentiy Ivanovich. Hech qanaqa xat-xabar yo'q.

Nastena o'ylab turdi-da, keyin qo'shib qo'ydi:

— Uning qayerdaligini balki sen bilarsan, aytal qol!

Innakentiy Ivanovich o'zini orqaga tashladi.

— Men qayoqdan bilay? — deya taajjublandi u. — Sen, xotin, qayodagi kurakda turmaydigan gaplarni gapisasan-a.

— Biron nimani bilsang — aytaver, Innakentiy Ivanovich, yashirma, — deb yana qo'shib qo'ydi u hamon o'shandayicha shubhalı xaxolab. — Agar biron nimani bilsam — senga albatta aytaman. Bundan xotiring jam bo'lsin, Innakentiy Ivanovich.

Qiroatxona joylashgan hovlida olovlar yoqilib, ikki katta qozonda sho'rva qaynab turardi. Artelning yangi raisi Maksim Vologjin g'alaba munosabati bilan kolxzoz qo'yidan so'ydirtirgan ekan. G'o'lalar ustiga joylashib olgan xotin-xalajlar kartoshka archirdi. Hovlida odam tiqilib ketgandi: butun qishloq shu yerda edi. Bino ichiga qator stollar qo'yilib, usti kim nima olib kelgan bo'lsa, shu bilan yasatilgandi. Oz-ozdan bo'lsa ham talay narsa yig'ilgandi: chuqur tovoqlarda karam, bodring, xurmachalarda qatiq, suzma, yangi tutilgan baliq, qirilgan turp, kalach nonlar, bulka nonlar, tuxum, shumurt solingen yarimta pirog — hech kim hech nimasini ayamay, topgan-tutganini ko'tarib kelgan edi. Bordi-yu, olib kelingan ichimlik yetmay qolsa, quyib o'tirishga yarab qoladi, deb maydarоq bolalardan bir

guruhi qayin sharbatidan olib kelishga jo‘natilgandi; ulardan tikroq bir guruhi bolalar Angara labida baliq tutib o‘tirardi. Tutilgan har bir yelimbaliq, tosh-bosh, hammadan ham xarius degani shu zahoti tirikligicha keltirib stolga qo‘yilardi, baliqchalar sakrab-sakrab goh idishlar ichiga, goh polga tushardi. Derazalar lang ochib qo‘ylgandi, de-raza tokchasidagi patefon ovozi boricha baqirib ashula aytardi, uning yonida Nadkaning Lidkasi patefon zehiga ko‘ksini bosib tik turardi. Nadka ham kartoshka tozalayotgandi. Nastena uning oldiga keldi-da, cho‘nqayib o‘tirdi va Nadkaning qo‘lidan ushladi.

– Shu kunlarga yetganimiz rostmikin-a, Nadka? – dedi Nastena ko‘zlarida yosh aylanib.

Nadka javob bermay ko‘zlarini olib qochdi. Nastena Liza Vologjinani topib, uni quchoqladi.

– Qalaysan, Nastena, qalaysan, – dedi qozon oldida olovdan yuzlari qizargan Liza Nastenaga o‘girilar ekan, xotirjamlik bilan. – Xursandmisan ishqilib?

– Xursandman.

– Andreyingni kutyapsanmi?

– Kutyapman.

Nastena odamlar oldida Maksimning bo‘ynidan mahkam quchoqladi-da, o‘pib oldi.

Gangib qolgan, lekin mammun bo‘lgan Maksim:

– Yana kim? Liza iyib turganida kelib qolinglar, – deb sho‘x qichqirdi.

– Iyishimni ko‘rsatib qo‘yaman senga! – dedi Liza yarim hazil, yarim chin qilib. – Men faqat Nastenaga indamadim-da. Shunda ham hali Andrey kelmagani uchun, ammo boshqalarni xayolingga ham keltira ko‘rma.

Nastena ovozi titrab, yaldoqlanib odamlar orasiga suqilib kirar, sal xijolat chekib, gunohkorlarday jilmayar yoki xuddi yosh boladek ko‘zlarini pirpiratib: «Shunday kunga yetdikmi, a?» deb shivirlar edi. U bundan ortiq hech nima deya olmas edi. Lekin bugun hammasi ayni muddao edi. U birovni qo‘ltiqlar, boshqalar esa, uni quchoqlar edi, u ko‘z yoshi qilardi, unga javoban boshqalar ham ko‘z yoshi to‘kar edi; agar kulgudek bo‘lsa, boshqalar unga qo‘shilardi. Nastena ahyon-ah-yondagina yuz beradigan ruhiy xastalikdan lol bo‘lib, esi kirdi-chiqdi bo‘lib qolgan edi. Uning his-tuyg‘ulari o‘ziga bo‘ysunmay qo‘ygan

edi. Shuning uchun odatda vazmin, keyingi vaqtarda juda ehtiyyotkor bo‘lib qolgan, faqat javob berishni bilib, savol berishdan o‘zini olib qochib yuradigan Nastena dil amriga qulq solib, u boshlagan yerga keldi. Birozdan keyin u xotin-qizlarga yordam berishni unutib, tayyoriga ayyor bo‘lib qolganidan o‘zini o‘ng‘aysiz sezal boshladidi. Uning nazarida, bugungi kun odamlar bilan birga bo‘ladigan oxirgi kun edi, ertaga esa, bir o‘zi, kishini yutib yuboradigan jimjit zulmat ichida tanho qoladi.

Hamma stolga o‘tirdi. Maksim Vologjin frontchi sifatida ham, rais sifatida ham to‘rga chiqdi. Uning bir tomoniga Nestor joylashdi, albatta, boshqa tomoniga esa, Kardadan kelgan chopar – ahyon-ahyonda ko‘zlarini yumib, qalqib ketayotgan, ammo yana silkib-silkib boshini ko‘tarayotgan kishi joylashdi. Maksim medallarini jiring-latib, o‘rnidan turdi.

– Qadrdonlar! – deb u ingichka, hirildoq ovozda gap boshladidi, hamma suv sepgandek jim bo‘lib qoldi. – Qadrdonlar! Men gapga chechan emasman, hozir boshqa birovning gapini eshitsak bo‘lardi. Qolaversa, nimani ham gapiroman? G‘alaba qozongandan keyin nimani ham gapirodi kishi? Bunday kunda aytiladigan gap hali o‘ylab topilganicha yo‘q. Bardosh berdik, yopirilib bordik, yirtqich hayvonning, la’nati Gitlerning umurtqasini sindirdik. Men u yerda bo‘lganman, nimalar bo‘lganini bilaman. Yuraging toshib ketadi... – Maksim ko‘kragini to‘ldirib nafas oldi va titrab nafasini chiqardi. – Hammangiz bilasiz. Hozir mening barcha o‘rtoqlarim, omon qolgan jangchilarining hammasi bundan buyongi. Hayotimizni izga solish uchun uyiga oshiqyapti. Ko‘rgan talafotimiz ko‘p. Urush bo‘lgan joylarda yerlar qabrlardan do‘mpayib ketgan. yer ko‘paydi-yu, ammo ishlaydigan odam kam. Nimasini ham gapiroay?! Agar sizlar, bu yerda qolganlar bo‘lmaganlaringizda, biz sira-sira bardosh berolmagan bo‘lardik. Chunki erkak jang qiladi, ayol esa, uni yedirib-kiydiradi, erkak qahr-u g‘azab bilan dushmanha tashlanadi, ayol esa, uning yuragi tosh bo‘lib ketmasligi uchun ming chaqirim beridan turib, o‘zi va oilasi qalb qo‘ri bilan yuragini ilitib, yumshatib turadi. Agar sizlar bo‘lmaganlaringda, bizlar hech nimaning uddasidan chiqsa olmasdik, unda hozir manavi kun ham bo‘lmashdi. Mamlakatimiz ulug‘, bepon yon mamlakat, ammo bizning Atamanovka ham qarab turgani yo‘q. Bizlar u yerda jang qilgan bo‘lsak, sizlar bu yerda yordam berib tur-

dinglar. O'rirlaringdan turinglar, qadrdonlar, shu bugungi kunimizga yaxshilab qaraylig-u bir umrga eslab qolaylik. Bunaqa urush shu choqqacha bo'lgan emas, demak, bunaqa g'alaba xam bo'lgan emas. Shuni nishonlaylik, xaloyiq.

Stol atrofidagilar o'rirlaridan turdilar, stakanlar jiringladi, hamma oh tortib, xo'rsinib, indamay joyiga o'tirdi. Nastena stakan ni cho'qishtirish uchun yonida o'tirgan Nadkaga cho'zilgan edi, ammo Nadka hammadan oldin ichib bo'libdi. Hayron qolarlisi shu ediki, bu safar u churq etmay o'tirardi, gap-so'zlarga aralashmasdi va go'yo azob-uqubatli, ammo ko'nikib ketilgan hayot tartibi nega buzildiykin, deb bo'layotgan voqeani tushunmayotganday, atrofiga diqqat bilan razm solardi. Boshqa har qanday hayot singari uning uchun ham tinchlik kerak edi, ammo shu tinchlik kuni yetib kelganida Nadka tashvishga tushib, birovlarining baxtli-yu, birovlarining baxtsizligi endi shundoqqina aniq-ravshan bo'lib qoladi, deb o'ylayotgan edi.

Kardalik chopar otib olgach, yana xirgoyi qilishga tushdi:

*Qadamimiz mustahkam,  
Hech qachon dushman ham  
Respublikamizda sayr etolmas.*

Kimdir hazil yo'sinida ta'na qilib dedi:

- Hoy, yaxshi odam! U uyiga qandoq ketarkin endi?
- U tag'in urush tugadi, degan gapni o'zi to'qigan bo'lmasin. Axir g'irt mast-ku. Kayfda xayoliga har nima kelishi mumkin.
- Men to'qibmanmi?! – dedi chopar bu gapni eshitib qolib va o'rnidan tura boshladidi, arang qaddini rostladi, keyin ko'zlarida yosh yiltiradi. – Men to'qibmanmi? – dedi u hammaga birma-bir ma'yus, iltijo va ayni paytda jahl bilan qarar ekan. – Nimalar deyapsizlar o'zi? Nimalar deyapsizlar?! – qattiqroq baqirdi u va nafasi tiqilib, hadeganda ovozi chiqavermadidi. – Bichib-to'qishga kimning haddi sig'arkan! Nimalar deyayotganlariningni o'ylab ko'ryapsizlarmi o'zi?! Men... bilib qo'yinglar deb otimni qora terga botirib keldim. O'z xalqim nomidan ot choptirib keldim. E, rahmat-e... Qaysi iflos shunaqa deydi, axir? Nimalar deyapsizlar-a?!

Odamlar uni tinchitishga tushdi.

– E, yo‘q, yo‘q, kim to‘qigan deyapti axir... Nima, o‘zimiz ko‘rmayapmizmi?

– To‘g‘ri-da, shunaqa deyishga kimning tili boradi?

– Axir, u kelganida hushyor edi. Keyin shu yerda bitta-yarintasi xursandligidan quyib bergandir-da.

– Bekorga odamni malomat qilaverasizlarmi?.. Yigirma chaqirim yerdan ot choptirib kelish hazilmi?

– Quyinglar unga, bir maza qilib ichsin, biz uyatsizlarni kechirsin. To‘g‘ri-da, sharm-hayo yo‘q o‘zi bizda...

Shundan keyin chopar bir stakanni sipqordi-da, odamlarning uzrini qabul qildi, so‘ng g‘alaba to‘g‘risidagi gapni qanday eshitgani va Atamanovkaga kelishga qanday rozi bo‘lganini aytib berdi.

– Odamlarimizning hammasi ham bu gapdan xabardormiyo‘qmi? – deb baland ovozda so‘radi Maksim, chunki, g‘ala-g‘ovur kuchayib ketgan edi.

– Ham-ma-si – hech kim qolgani yo‘q!

– Shundoq qasir-qusur qilib otishdiki, hatto o‘liklar ham eshitdi.

– Bobo-chi? – dedi nogahon esiga tushib qolgan Liza. – Stepan bobo-chi? U kechadan beri tegirmонning bir balosini tuzatyapti. Bononing xabari yo‘q-ku axir!

– O‘q ovozlarini eshitgandir?

– Eshitgandirmish-a! Butunlay kar-ku.

– Tezda unga odam yuborish kerak.

– Voy, bechora bobo, rost, u bexabar·hozirgacha «nemislar bilan urushib yotibdi».

Chopar eng oxirgi odam – bobogacha xabar qilib, o‘z burchini ado etish maqsadida tegirmonga borish uchun o‘rnidan qo‘zg‘aldi, ammo uni qaytib joyiga o‘tqazib qo‘yishdi. Nestor sakrab o‘rnidan turdi, uning kuni bilan u yoqdan-bu yoqqa choptirib yurgan oti hovlida hamon egarlangan turardi, uning ketidan ikki yigit ham otilib chiqди. Xotin-xalajlar boshlarini derazadan chiqarib, ularning ketidan qichqirdi:

– Unga hech nima demanglar. To‘g‘ri bu yoqqa olib kelinglar.

– Qo‘l-oyog‘ini bog‘lab olib kelaveringlar.

– Bog‘lab-netib yurmanglar, tag‘in o‘lib qolmasin.

Yana stolga o‘tirildi, yana aroqlar quyildi, ammo bu safar Innakentiy Ivanovichning uyidan olib kelingan suslo<sup>1</sup>dan quyildi. Hammaning ichida bitta u ichkilik olib kelmagandi, u qulay fursat kelishini kutib, suslosi borligini e’lon qildi: odamlar Innakentiy Ivanovichning suslosi ekanini bilib qo‘yishsin-da, axir. Ammo suslo chindan ham a’lo ekan: yutumi yaxshi, mazalikkina, kayfi o’tkir. Xotin-xalajlar oh-oh qilib, lablarini chapillatardi. Keyin urushdan oldin uni qanday tayyorlaganlarini, bayramlarning qanday to‘kin-sochin bo‘lganini, o‘yin-kulgi kimning uyidan boshlanishini eslashga tushib ketishdi.

– Hali ko‘p o‘ynab-kulamiz, suluvlar, o‘ynab-kulamiz, – deb qichqirdi xushchaqchaqlik bilan yuzlari qip-qizil Maksim, yarador qo‘lini ko‘tarib qo‘yib. – Odamlarimiz qayerlarda qolib ketmadi deysiz! Hammasi bo‘ladi. Hademay erkaklar qaytadi...

– Kimniki qaytarkin-a? – hammaga eshitiladigan qilib so‘radi bir o‘g‘ilchasi bilan beva qolgan yoshgina Vera Orlova.

– Axir... – Maksimning tili kurmaklanib qoldi, – bitta-yarimtasi qaytar-da...

– Mening bilishimcha, – dedi o‘rnidan turib Innakentiy Ivanovich, – olti kishi qaytishi kerak. – U ko‘z yogurtirib Nastenani qidirib topdi. – Dom-daraksiz ketgan Andrey Guskov bilan birga.

– Yana kimlar?

– Nima, o‘zimiz bilmas ekanmizmi? So‘rab nima qilasizlar?

Ammo Innakentiy Ivanovich sanashga tushdi.

– Menikini nega sanamading? – deb birdan jahl bilan so‘rab qoldi Nadka, Innakentiy Ivanovich sanab bo‘lgach. – Yoki u yog‘ini sanashni bilmaysanmi, hisobchi xodim?

– Chunki sen qoraxat olgansan, – Innakentiy Ivanovichni gangitib qo‘yish oson emasdi, u nima deb javob berishini bilardi.

– Xo‘sh, olgan bo‘lsam nima qipti? Sen esa, uni sanoqqa qo‘sh. U keladi. Men senga aytayapman: u keladi, – dedi Nadka iddao bilan hammaga qararkan, qizishib ketib. – Mana ko‘rasizlar. Kelmaydi deb o‘ylamay qo‘ya qolinglar. Bir kuni keladi-yu, hisobingni chippakka chiqaradi. Shuning uchun hozirdan hisobga kiritaver. Olti kishi emas, yetti kishi – mana shunday deb ayt.

<sup>1</sup> Suslo – bug‘doy yoki kartoshkadan tayyorlanadigan ichkilik (*Tarj. izohi*).

– Unda meniki ham keladi, – dedi sekin Vera Orlova hech kimga qaramay.

– Senikini bilmayman, ammo meniki keladi.

Xotin-xalajlar o'ng'aysizlanib, birin-sirin gapira boshladi:

– Ajab emas – shunaqasi ham bo'ladi. Kardadagi qudam Nastasyaning...

– Aytishlaricha, Bratskda bir xotinning eridan ikki marta qoraxat kelibdi, xatlar ikki joydan emish, birida unday o'ldi, deyilgan bo'lsa, birida bunday o'ldi deyilgan mish. Eri bo'lsa, xuddi osmondan tushganday kirib kelgan mish... Ana, endi ishonaver.

Shu payt tegirmonchi Stepan boboni olib kelib qolishdi. Nestor qo'li orqasiga bog'langan boboga miltiq o'qtagancha oldiga solib olib kirdi. Boya buni kimdir o'yamasdan gapirib yuborgan edi, u ham tentaklik qilib shunday yo'l tutibdi. Bobo ostonada qoqilib ketdi, quyuq qalin qoshlari ostidagi kichik ko'zlarini loqaydlik bilan stol atrofida o'tirganlarga yogurtirdi, uning ko'zlarida na taajjub, na qo'rquv bor edi, u go'yo bu yerdagi manzarani avvaldan bilgan kishiga o'xshardi.

Nestor boshini ko'tarib, yig'ilgan xaloyiqdan ko'ra ko'proq devordagi portretlarga qarab so'zladi:

– Xabarsiz unsur sizlarning buyruqlaringizga binoan olib kelindi. Tegirmonga berkinib olgan ekan.

– Senga sira aql kirmadi-da, Nestor, – dedi birinchi bo'lib es-hushini yig'ishtirib olgan Nadka, – tag'in ham shunaqa ahmoq bilan yonma-yon yashab yuribmizmi-a?

– Bobojon! – dedi bir necha kishi birvarakayiga.

Odamlar yugurib kelib, boboning bog'langan qo'llarini yechdi-da, ko'tarib olib borib stol yoniga o'tqazishdi. Ular bir-birlari gal bermay, og'izlarini qariyaning qulog'iga yaqin qilib qichqirardilar:

– Bobojon, urush tugadi!

– O'rgilay bobojonimizdan, qayerlarda yuribsiz?

– Biz sizsiz bu yerda o'yin-kulgi qilyapmiz, sizni esimizdan chi-qarib qo'yibmiz, tag'in jahlingiz chiqmasin. Hammamizning ham esimiz og'ib qolibdi.

– Shu desangiz, o'tiribmiz-u, qarasak, kimdir yo'q-da. Kim ekan deb qoldik-ku. Qarasak, bobojonimiz yetishmay turibdi-da. Ey xudo!

Qariya indamay, xotirjamlik bilan sochi hurpaygan boshini u yoq-bu yoqqa burib, tushunyapman, gunohlaringdan o'taman deganday, shoshilmay, ma 'nodor irg'ab qo'yardi. Ko'zlar ni namlanib turgan xotin-xalajlar unga qarar ekan, birdan o'zlarini tutolmay ho'ngrab yubordilar. Faqat, hozir, Atamanovkadagi oxirgi kishi ham ulardan nima bo'lganini bilgach, nihoyat o'zlarini ham urush tugaganiga ishon-dilar.

## 17

Hamma qayig'ini suvga tushirib, u yoq-bu yoqqa borib-kelib tuardi, ammo Mixeich, xuddi atay qilayotganday, sira shoshilmas edi. Uning qayig'i hatto moylanmasdan yolg'iz o'zi qirg'oqda to'nnkarilib yotardi. Nastena oyog'i kuygan tovuqday tipirchilab qolgan bo'lsa ham, qaynotasini qistashga yuragi dov bermas edi: qayiq unga nima uchundir zarur bo'lib qolganini cholga bildirishi mumkin emasdi. Ammo endi, erining oldiga borib kelishga yo'l ochilgan paytda, Andreyning holi nima kechayotganidan bexabar o'tiraverishga, indamay yuraverishga uning ortiq toqati qolmagan edi.

Nastenaning nazarida modomiki urush tugadimi, endi, shu yaqin orada erining taqdiri bir yoqli bo'ladiganday edi, demak, uning ham, Nastenaning ham taqdirida biron o'zgarish bo'ladi. Shuning uchun u zdilik bilan erini ko'rishi, uning avzoyini, o'zini qayoqqa urishi-ni bilishi kerak edi. Ana shu, eri bilan uchrashmay yurgan, har biri bir yilday tuyulgan uzoq haftalarda Nastena bir necha marta erini tinchitib, o'zi ham tinchishi uchun uning oldiga uchib borishga ham tayyor edi: Nastenaning xayolida endi, yoz o'zining butun ko'rkin ko'z-ko'z qilib turgan, yerdan o'tlar o'sib chiqib, o'rmonlar yashil libosga burkangan, Angara ham muzlari ketib, o'z harakati, moviyligi bilan maftun etib, o'ziga chorlayotgan paytda, inson qalbi har qachongiga qaraganda hozir, sal narsaga ham ta'sirlanib, iyib ketadigan paytda Andrey chidolmasdan o'zini o'zi bir balo qilib qo'yadiganday edi. Nastenaning tushlari ham aloq-chaloq, poyintar-soyintar, mujmal edi: goho noma'lum, ko'zga ko'rinmaydigan birov qitiqlarmish, u esa sharaqlab kulib, shox tashlab, oyog'ini qo'liga olib, ko'rpa ostiga kirib berkinish uchun o'miga qarab yugurarmish: goho Mayka degan sigir bilan so'zlasharmish, sigir unga bama'ni, puxta javob berarmish; goho u o'zini, Irkutsk yonida bolaligi kechgan dam-

larni tush ko'rardи, tushida u katta qiz emish-u turmushga chiqib, Angarada suzishni o'ziga o'zi o'rgatarmish; yana bir balolar. Nastena bu tushlardan yuragi duk-duk urib uyg'onib ketardi-da, qimirlashga qo'rqib, Andreyni o'ylaganicha anchagacha jim yotar, erini sevganidan goh g'am-alamga botar, goh uiga mehri tovlanar edi. Nastena rahmi kelganidan uni sevardi, sevganidan rahmi kelardi – bu ikki tuyg'u bir-biriga omixta bo'lib ketgandi. Shu boisdan Nastena o'zini hech nima kila olmasdi. U Andreyni, ayniqsa, hozir, urush tamom bo'lgandan keyin qoralay boshladi, uning nazarida, boshqa omon qolganlar qatorida Andrey ham ziyon-zahmatsiz qoladigandek tuyulgani uchun ham qoralardi, ammo u goho eridan jahli chiqib, nafratlanib, g'azablanib qoralardi-yu, yana axir men uning xotiniman-ku, deb hovuridan tushardi. Modomiki shunday ekan, yo men sen aytgan odam emasman, meni hech qanday gunohim yo'q, deb butunlay undan yuz o'girib, bir chetga chiqib turish kerak, yo oxirigacha, hatto o'limga ham birga borishi kerak. Ha, o'xshatmasdan uchratmas, deb bejiz aytishmagan. Unga ming chandon og'ir, uning tepasida ayanchli, sharmandali o'lim qanot qoqib aylanib yuribdi, buning ustiga o'zidan yomon nom qoldirmaslik uchun hech kimga, biron kishining ham ko'ziga ko'rinnmasdan yurganini aytmaysizmi. Gunohkor, kim aytadi uni gunohkor emas deb?! Asli holiga qaytish uchun u kuch, irodani qayoqdan oladi endi, axir u qosh qo'yaman deb ko'z chiqarib qo'ydi-ku. Shunaqa kuch, iroda uchun hech nimasini ayamasdi-yu, ammo uni qayoqdan olsin?

Yo'q, tezroq Andreyni ko'rish, nimalarni o'ylab yurganini bilish kerak.

Nastenaning qorni anchagina chiqib qolgandi, u kechasi uplash oldidan qornini ochib qaradi, binoyidek do'ppayib qolgani sezilib turardi. Nastena qornini sekin, ohista silab qotib qoldi, keyin shu ko'yi sal nafasini rostlab oldi-yu, battar qotib qoldi. Nastena xayolan jimgina qayoqqadir, arshi a'loga chiqib ketganday, qandaydir g'aroyib, sokin bo'shliqda tanho yurganday va bu yorug' olamdag'i barcha narsani unutib, o'zining har bir qatrasini ko'rib, his etayotganday bo'lar edi. Shuning uchun u sekin-asta bolaga aylanib bora-yotgan homilasini ham ko'rib turardi: homilasi bilan bog'liq bo'lgan tuyg'usi hammasini – homilaning qanday yotganini, qanday yalqovlik va muttasil talabchanlik bilan onalik sharbatini so'rayotganini

ochiq-oydin aytib turardi. Homilasi Andreyning ko'nglidagidek – o'g'il edi, shuning uchun Nastena biroz cho'chidi: agar qiz bo'lganida edi, aka-ukalar, opa-singillar tug'ilib, o'zidan ko'payib ketadi, deb umid qilsa bo'lardi, o'g'il yolg'iz o'zi qolishi mumkin. Ammo u bu to'g'rida sezgirlik bilan qorniga qulq solib, qotib qolgandan keyin, go'yo o'zini o'zi bir chetda turib kuzatgan, arshi a'lodan pastga tu-shib, qayerdaligini, o'ziga nima bo'layotganini g'ira-shira anglagan-dan keyin xayol surib qolardi. U ikkiyatligi sezilib qoladigan kun kelishidan ko'rqardi, qo'rqardi-yu, o'sha kunning tezroq kelishini istardi, o'shanda qornini tang'ib, qisinib-qimtinib yurmasdi, bir o'zi emasligini, qornida bolasi borligini bitta-yarimta kuzatib, ko'rib qol-madimikin, deb atrofga olazarak bo'lmasdi. Ha, o'sha kunning keli-shini kutish ham Nastenani qiynayotgan edi. Nastena hozir to'lishib ketgan, narisi bilan bir oy-bir yarim oy payqashmaydi, keyin hamma birdan yoqa ushlab qoladi. Nastena ko'pincha, nazarida, taqdir uni qandaydir tor kavakka zo'rlab tiqishtirayotganday, to nafas ololmay qolgunicha shu kavakka itarayotganday, keyin esa, ezilib, bo'g'ilib, chalajon bo'lib qolgan oxirgi daqiqada qayoqqadir olib chiqayotgan-day bo'lardi. Nastena ana shu yangi hayot qanday bo'lishini bilmashi, bu hayot uning uchun noma'lum, go'rday qop-qorong'i edi.

Angaraning u yog'iga o'tish uchun bir bahona topish kerak edi, shuning uchun Nastena bakenchi Matvey buva oldiga jo'nadi. Uning budkasi qishloqning yuqori chetidan yarim chaqirim narida-gi baland, tik jarlikda edi. Matvey buva Innakentiy Ivanovichning tug'ishgan akasi edi, ammo aka-ukalarning bordi-keldisi unchalik emasdi. Hammaga ma'lum, mashhur Innakentiy Ivanovichni hurmat qilishardi, uning savodi bor edi, siyosatni tushunardi, urushdan oldin u olis-olis yurtlarda ham bir necha bo'lib kelgan edi, ammo Matvey buvani ism-sharifini aytib chaqirishga esa hech kimning tili bormasdi, u shunchalik to'pori, sodda, oddiy edi. Matvey buva Atamanovkadan naridagi Kardadan boshqa yerni ko'rmagandi. U kolxozdan alohida, mustaqil yashardi, ammo dala ishlari qizib ketgan paytda hamisha kolxozchilarga yordamga kelardi, ayniqsa, dehqon-lar yoqtirmaydigan no'xatni o'rib-yig'ishni, pichan o'rab, g'aram bosishni yaxshi ko'rardi.

Nastena Matvey buvaning oldiga bordi, kecha chol Maksim Vologjindan bir kunginaga odam bergin, bakenlarni yozgi xizmatga

tayyorlab, suvgaga tushirib qo'yaylik, deb iltimos qilgani Nastenaning esiga tushib qolgandi.

— Endi butunlay kuchdan qolibman, — degandi u. — Bir o'zim eplolmayaman. So'ramasdan bitta-yarimtani olib ketsang yaxshi emas. Hozir ekin-tikin ishlari avjida. Men ham, xudo xohlasa, o'rim-yig'imga qarashib yuborardim. Menda ham qolib ketmasdi.

Nastena bu gapga e'tibor bermagandi, endi bo'lsa, birdan esiga kelib qoldi: Matvey buvaga men qarashib yuboray bo'lmasa, deyishi kerak edi, shunda bir yo'li topilib qolarmidi. Nega darrov esiga shu gap kelmadi-ya? To'g'ri, Nastena suvda suzishni bilmasdi, shuning uchun suvda ishslashdan qo'rqardi, ammo bir kunginaga amal-taql qilib chidaso bo'lardi-ku, axir. Hozir shundan qo'rqib o'tiradigan payt ekanmi?

U budkaga kechki payt, quyosh Angara ortiga, Andreyevsk qishlog'i joylashgan ufqdagi yalanglik nishabiga o'tib ketgandan keyin keldi. Daryoning yarmigacha yupqa, bilinar-bilinmas soya tushib turardi, ammo u yerda oqim daryoning quyosh nuri tushib turgan yarmiga qaraganda shiddatli, kuchliga o'xshardi. Quyosh nuri tushib turgan yerda esa, suv yaraqlab ko'zni qamashtirardi, yalt-yult qilib o'ynardi, go'yo suv chalg'ib aylanib, oshiqmayotganday edi. Bاليqlar — jon-jahdi bilan ketma-ket bir necha marta osmonga sakrab, ortlaridan suv betida doiralar hosil qilayotgan maydalaridan tortib, to qayerdadir olislarda suvni salobat bilan yorib, mamnun shalop-latayotgan kattalarigacha — qandaydir o'zlaricha zavqlanib, shuvillab suzib yurardi. Tik jarlik ostida hali muz bor edi, yeilib, chetlari o'tkir bo'lib qolgan, teshilgan, iflos muzlar erib, toshlar orasida jildirab oqardi. Sohilda jonsarak, yo'rg'a, abjir, ingichka dumi uzun qushchalar uchib yurardi, bu qushchalarni Nastena tug'ilib-o'sgan yerlarda sinchalak, bu yerda esa jiblajibon deyishardi. Shuningdek, qirg'oqqa yaqin yerlarda mayda baliqlar gala-gala bo'lib suzib yurardi, bularni u yerda malyok, bu yerda esa ularni Angarada uchraramaydigan mashhur Baykal omulining sharafiga omulcha atar edilar. Omulchalar Nastenaning qadam tovushlarini eshitib, suvni shapir-shupur qilganicha o'zlarini suv ostiga urdi, ular bir aylanib, piacha oqim bilan suzdi-da, odamni o'tkazib yuborgach, yana qirg'oqqa oshiqdi. Nastenaning tepasidan shuvillab uzunqanotlar uchib o'tdi, o'tkir rutubat nafasni bo'g'ardi; o'z-o'zidan paydo bo'lgan to'lqinlar

ohista cho'lpillardি, chunki havo tinch, sokin edi: olisdan, Pokosniy orolining yuqori burnidan suvning shovillashi eshitilardi. Soya uzayib kelardi, uning harakati ko'zga ham tashlanib turardi. Quyosh botishi bilan yorug'lik betiga niqob tortilganday bo'lди-yu, shabada ham tindi. Endi Angara u sohildan tortib bu sohilgacha tez oqa boshladi; Nastena bir qarichlik vaqtidan beri suv yorug' vaqtdagiga qara-ganda qorong'ida tez, kuchli oqadi, deb ishonib kelardi.

Matvey buva qayiqlar atrofida g'imirlab yurardi, uning bakenchi sifatida to'rtta qayig'i bor edi, ularning hammasini o'zi yasagan edi. Bakenlar sohil toshlog'ida suzishga tayyor qilib qo'yilgandi, hammasi – uchta qizil, ikkita oq baken yangi moylanganidan yaraqlab turardi. Nastena xuddi zinaga o'xshatib o'yilib, taxta qoqib qo'yilgan pog'onalardan pastga tushdi va Matvey buva bilan so'rashdi, bakenlarni astoydil qiziqib tomosha qildi.

– Xo'sh, buvajon, – dedi u, – Maksim sizga yordamlashgani kimni berdi?

– Kimni berdi emish-a?.. – Buva shoshilmay qo'lini suvda chayib oldi-da, ishtoniga artib, qayiqdan bu yoqqa chiqdi. – Maksim juda quv yigit, kimni ko'ndirsang, o'shani olib ketaver, mening esa, bunaqa ishga odam tayinlashga haqim yo'q deydi. – Buva inqillab engashdi-da, oyog'i tagidan bir nimani qidira boshladi. – Pilikni yo'qotib qo'yganga o'xshayman, – deb tushuntirdi u. – Qara-chi, sening ko'zing o'tkirroq. Enli piliklar yo'q endi, ularni hech yerdan topib bo'lmaydi. Hozirgina qo'limdan ushlab turuvdim-a, qayoqqa g'oyib bo'lidi bu sabil?

Pilik qayiqdan, o'rindiq ostidan topildi. Buva uni cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Menga ikkitasinigina tushirib olishga yordamlashishsa bo'lgani, qolganlarini o'zim ham eplayman. Sherik bo'lmasa, manavi ikkitasini tushirib bo'lmaydi. Bittasi orol yonida, u yerning suvi, xudo ko'rsatmasin, juda chatoq, eplab bo'lmaydi. Boshqa bittasi, u ham oq qishloqning narigi yog'idagi tepalik qarshisida, taqir burunda. O'tgan yili ularning qayerda turganini bilsang kerak, axir. Qizillarini esa, bir o'zim ham sekin eplayveraman. Borib, bitta-yarimtani avrab olib kelmasam bo'lmaydi, chog'i, yo'qsa bugun bo'lmasa ertaga kater keladi-yu, tekshirib qoladi. Boshqalarnikidan yomon bo'lishi yaxshi emas-da, axir.

— Meni ola keting, buvajon. Qo'limdan kelganicha qarashaman, — dedi Nastena va yana bakenlarga qarab qo'ydi, u endi yuragi orqaga tortib, eng og'ir oq bakenlarni ajratib olgan edi.

— Ammo, — dedi buva sekingina va Nastenaga ishonish-ishonmasligini bilolmay jim qoldi. — Agar hazillashmagan bo'lsang, nega olib ketmas ekanman. Boshqa kimni ham olib borardim. Sen rostdan ham bormoqchimisan?

— Rost, buvajon. Ammo kechqurun qayiqni berib turasiz-da. Oroldan picha tol kesmoqchiman. O'zimizning qayig'imiz hali ham moylanmasdan yotibdi.

— E, tol kerak bo'lsa, o'zim ham kesib beraveraman — shu ham ish bo'ptimi!

— Yo'q, yo'q, buvajon, — Nastenaning kapalagi uchib ketdi. — O'zim shoshmay kesaveraman. — U xavotirimni chol sezib qolmasin deb qo'shib qo'ydi: — Mayli, bir gap bo'lar...

— Ixtiyoring. Xo'p desang, kesib beraman, buning nimasi qiyin. Xudoning o'zi seni menga yetkazdi-ya, qizim... — qoshlari, kipriklari o'ngib, oqarib qolgan Matvey buva kutilmaganda ishi o'ngidan keilib qolganidan xira ko'zlarini qisib, xursand bo'lganicha pishilladi.

— Men bo'lsam, endi kimga borib yalinaman-a, deya boshim qotib turuvdi. Hech kim o'zidan ortmaydi. Ammo boradigan bo'lsak, vaqtliroq borganimiz ma'qul. Tag'in uxbab qolmagin. Rostdan kelasanmi, aldamaysanmi?

— Kelaman, buvajon, kelaman. Kun tig'i urishi bilan shu yerda bo'laman, undan ham barvaqtroq kelaman. Ammo siz tag'in Maksimga o'zi boraman dedi deb yurmang. Bir amallab ko'ndirdim deng. Ertaga yana anavi yer haydashga sira borgim yo'q, jonimgayam tegib ketdi, sal dam olay.

— E, ha, shunaqa de. Ha, turgan gap, albatta. Nima desang shu-da.

Nastena butun kunni daryoda o'tkazdi. Ular tong sal yorishishi bilan yo'lga otlandilar, havo muzday, salqin, jimjit, mudrayotgan edi, faqat olisdan yoyilib oqayotgan joydan suvning shovillashi-yu oqimning sezilar-sezilmas cho'lp-cho'lp eshitilardi, xolos. Angara qop-qora, quyuq ko'rindisti, sohil jimirlardi, ikki qirg'oq o'rtasida suv yoyilib, xuddi moyga o'xshab yaraqlab oqardi. Ular barkasga o'xshash katta, og'ir qayiqda ketishayotgandi, ammo qayiqni haydash, ketidan og'ir, beso'naqay bakenni sudrash ko'p kuch talab qilishi.

lardi. Avvaliga qayiqqa arqon bog‘lab yuqori oqimga qarab tortishdi, keyin Nastena parrakni boshqara boshladidi. Matvey buva esa, quyruqdagi eshkakni eshdi. Ular qirg‘oqdan burildilar, shundan keyin Nastena suvga qaramaslikka harakat qildi, u ko‘zlarini oyoqlari ostiga tikkanicha hali zamon o‘midan turishga, biron ish qilishga, Matvey buvaga qarashishga to‘g‘ri kelishini o‘ylashdan qo‘rqib o‘tirardi.

Birinchi baken bilan ular ancha ovora bo‘ldilar. Ular suzib borar ekan, ozgina yanglishdilar-u kerakli joyga yetib olish o‘rniga pastroqda qolishdi, daryo o‘rtasidan oqimga qarshi suzib, yuqoriroqqa chiqib olishga urinishlari hech qanday natija bermadi. Yuqoriga chiqishdan umidvor bo‘lish ham kulgili edi, albatta. Bu yerda oqim juda kuchli edi, shovillayotgan suv sachrab, qayiq chetidan oshib tu-shayotgandi. Matvey buva ahmoqlik qilgani uchun o‘zini koyib qat-tiq pushaymon bo‘ldi. Ular qayiqni endi yaqinroqdagi chap sohilga qarab haydadilar. Nastena hammasidan ham ana shu sohilga yetib olishga oshiqayotgandi, ammo baken bilan ham, bobo bilan ham birga bormoqchi emasdi, albatta. Shunday bo‘lsa ham ular sohilga yetib olgach, Nastena biron bahona topib qolishga, meni kechga yaqin kelib, olib ketarsiz, deb Matvey buvani ko‘ndirishga yuragi juda-juda orziqib ketdi, shunda manavi la’nati bakenni ham bemalol o‘rnatishardi. Lekin Nastena bunday qilish mumkin emasligini bilar-di. Ular nafaslarini rostlagach, yana yuqoriga qarab suzdilar, ammo bu safar ancha yuqoriga suzzilar-da, orqaga qaytdilar, yo‘l-yo‘lakay old tomonga tutib turadigan langar tosh tashlashdi, shu sababdan dam-badam uni oqizib ketishi uchun siltashga to‘g‘ri kelardi. Nastenaning qiladigan ishi eshkak eshish-u buvaning buyrug‘iga muvo-fiq qayiqni boshqarib borishdan iborat edi. Bakenni ko‘ngildagidek o‘rnatishgach, Matvey buva yengil nafas oldi va chekdi.

– Eng og‘iri mana shunisi edi, – deb tan oldi buva. – Buni yoqish va o‘chirish uchun hammasidan oldin suzib kelaman. Ko‘rdingmi, suv qanday quturib oqyapti. O‘ziyam bir ursa, sira tutib bo‘lmaydi.

Chindan ham ikkinchi bakenni osongina o‘rnatishdi. Nastena uchinchisini ham o‘rnatishga rozi edi, chunki hali vaqt bor edi, ammo buva unamasdan unga javob berdi.

– Bo‘ldi. Ikkitasiga kelishib oluvdik, – dedi ichida ikkita og‘ir baken o‘rnatilganidan xursand bo‘lgan qariya xushchaqchaqlik bilan. – Anavilaridan bo‘lsa-ku, tashvish tortmasam bo‘laveradi. Men

o'zim ularni ertaga sekin olib borib o'rnataveraman. Endi boradigan yeringga boraver, hali vaqt bor. Eltib qo'yaymi yo o'zing borasanmi?

– O'zim boraveraman, buvajon, o'zim...

– Unday bo'lsa, ixtiyorin.

Matvey buva unga yengil, chaqqon shitik<sup>1</sup>ni tayinladi, ammo Nastena o'sha qayiqda qoldi: u kun bo'yи shu qayiqqa o'rganib qolganidan endi kamroq qo'rqardi. Ixcham, yengil, sal to'lqin va shabada ham lopillayveradigan shitikda borish xavfliroq edi: nogahon yer bag'irlab esadigan shamol turib qolsa yoki biron boshqa falokat ro'y berib qolsa, tamom-da, gumdon bo'lasan. Tez borgan joyga sekin borsa ham bo'ladi. Inson yotgan o'rnida ham yurib ketayotganida ham tasodifan, quvib kelgan ajaldan o'lib qolishi mumkin, lekin albatta, yerda, oyog'ing ostida mustahkam zamin bo'lganida, o'pkang bilan nafas olib turganda jon berishing kerak. Nastena faqat bir marta, urushdan ancha oldin, suvga cho'kib o'lgan odamni ko'rgan edi. Shu-shu o'sha voqeа esiga tushsa, a'zoyi badani jimirlab ketardi.

Nastena boboni budka oldida tushirdi-da, choyga ham qaramasdan Angaradan o'tish harakatiga tushdi. U endi bir o'zi qolgach, deyarli ikki oy judolikda yashab turli gaplar, savollar yig'ilib qolib, Andrey bilan uzoq kutilgan diydor ko'rishish onlari yaqinlashgach, taraddudlanib qoldi, shu lahzani kishi bilmas cho'zish, hammasini avval qanday bo'lsa, shu holicha qoldirish istagi tug'ildi. Hozir u Andreyga nima deydi? Urush tugadi, qishloqqa yana bitta frontchi, sobiq partizan, kamgap, yoshi o'tib qolgan, oldiniga otliq askarlikka olingan va butun urush davomida ot yonidan jilmagan – aravakash bo'lib xizmat qilgan Luka Smolin keldi, deydi-da. Mixeich bundan uch kun avval Andreyning qismatini so'rab, qidiruv bo'limiga xat yozishga Nastenani majbur qilgan edi va Mixeichning o'zi u xatni pochtachiga bergandi. Semyonovna hozir ancha yaxshi, hatto qo'ltiqtayoqsiz yuradigan bo'lib qolgandi, kim bilsin, havolar isib ketgani yordam berdimikin? Kampirning o'zi yurishi yaxshi, albatta, ammo Nastena kampirning yurib ketishida qandaydir bir boshqacha, noxush alomat borligini sezayotganday edi. Tag'in nima? Qorni... Qornini Andreyning o'zi ham ko'radi. Ha, aytganday, yaqinda har qalay yurak betlab soatni Innakentiy Ivanovichga sotdi, turgan gap,

<sup>1</sup> *Shitik* – kichik daryo kemachasi (*Tarj. izohi*).

arzon-garovga sotdi, Innakentiy Ivanovich qancha bergen bo'lsa, Nastena hammasini obligatsiyaga to'ladi: to'lov muddati kelgan edi, undan qochib qutulib bo'larkanmi?

Xo'sh, Andrey bu gaplarga nima derkin-a? Unga o'zi nima deydi? Nastena uni ko'radi-yu, uchrashmay yurgan paytlarida Andreyning holi ne kechganini, ichida nimalarni o'ylab yurganini – hammasini gap-so'zsiz shundoq ham tushunib olaveradi. Endi bu ahvol uzoqqa cho'zilishi mumkin emas, nimanidir hal qilish, biron yerdan bosh suqadigan joy topish kerak. Xo'sh, qanday, qayerdan?.. Yaqin qoldi, odamlarmi, xudomi yoki o'zimi, bir yoqli qiladigan kun yaqin qoldi, shu kun juda yaqin. Bu yorug' olamda hech bir ish shundoq qolib ketmaydi.

Quyosh tikkada bo'lsa ham, ammo suv ancha salqin edi, shimoldan shabada esardi. Nastena doimo yozda shamol qanday qilib oqimga qarshi esarkan, deb hayron bo'lardi, xayolida, keng yoyilib oqayotgan suv qudratli harakati bilan havoni ham o'z ketidan ergash-tirishi kerak edi.

Nastena shoshilmay eshkak eshardi, og'ir kuraklar bu ishga odatlanmagan kishiga kor qildi: uning qo'llari lovillardi, bir xilda-gi uzluksiz harakatdan yelkalari qotib qolib, sirqirar, jimirlar edi. Qulog'iga suvning shovillashi yoqimli urilar, go'yo chalingan kichik qo'ng'iroqchalarining tinib borayotgan mayin, ohanrabo jingillashiga o'xshardi. Ikkinci ovoz og'ir edi, g'ijirlovchi bu kuchli ovoz ichdan suvni surayotgan kuraklardan chiqayotgan edi. Daryo o'rtasida esa, uzoq-uzoq yerkargacha hamma narsa xuddi kaftdagidek ko'rini turardi, uylar, o'rmon, osmon, adirlardagi ekinzorlar, sohil – hammasi chayqalib, suzib o'tib ketardi, ularning hammasi omonatga, hammasining osti o'pirilib, daryo qa'riga kirib keta-diganga o'xshardi. Angaraning baland moviy osmonida kichik bir nuqta singari qarchig'ay parvoz qilar va nimagadir tikilib, nimagadir jazm etardi. Shuning uchun Nastena umrida birinchi marta negadir bu yirtqich qushga achindi: qush ham osonlik bilan ovqat topib yemaydi, axir. Nastena, umuman, keyingi paytlarda biron niman – insonni ham, hayvonni ham, qushni ham qoralashga haqqi yo'qdek his etardi o'zini, axir har jonivor o'z kunini o'zi ko'radi, ko'radi-yu lekin zinhor-bazinhor o'z hayotini o'zgartirishga qodir emasdi.

Nastena orolning quyi sohilini yoqalab, boshqa tomondan, qishloqqa ko‘rinmaydigan tomondan yana yuqoriga suzib bordi-da, nihoyat qayiq tumshug‘ini qirg‘oqqa tiradi. Endi irmoqdan o‘tish qolgandi, xolos, bu esa, suzib kelgan yo‘liga qaraganda uch hissa kam edi. U to‘xtadi, ammo uning to‘xtashi horg‘inlikdan emasdi. Nastenaning vujudini ruhiy tushkunlik qamrab olayotgandi. Nastena o‘y-xayollari ham, his-tuyg‘ulari ham aralash-quralash bo‘lib ketganini sezardi, shu sababdan u hozir bir Andreyni ko‘rishdan quvonsa, bir bu uch-rashuvdan, zulmatday qorong‘i bo‘lgan kelajagiga nigoh tashlashdan qo‘rqardi. U sal o‘zini qo‘lga olib, epaqaga kelishi, shundan keyingina u yog‘iga borishi kerak edi. Nastena shuursizlik bilan suvgga tikilib o‘tirarkan, zo‘rma-zo‘raki jilmaydi, shu jilmayish bilan birga bezovta ko‘ngliga tasalli xuddi quyuq moyday quyilib kelishi kerak edi. Ammo u istagan tasalli quyilib kelmadi, paydo bo‘lmadi, shuning uchun uning bezovtaligi bosilmadi. Nastena endi jilmayib emas, balki afti bujmayib, Innakentiy Ivanovichga soatni qanday sotganini eslab o‘tirardi. Boshqa har qanday narsa unga taskin berishi mumkin edi-yu, ammo bu xotira uni sira ovuntira olmasdi.

Innakentiy Ivanovich soatni qo‘lida uzoq aylantirib ko‘rdi, qulog‘iga tutib, ko‘ziga yaqin olib kelib qaradi, so‘ng Nastenaga sinchkovlik bilan tikildi. Ko‘rinishidan soat unga yoqqanga o‘xshardi, ammo Innakentiy Ivanovichni soatni sotib olishdan ko‘ra ko‘proq uning sir-asrorini bilish, qanday qilib, kimlar orqali bu yerga kelib qolganini aniqlash istagi qiynayotgan edi. U biron nimani bildiradigan, ravshanlashtiradigan biron iz-yozuvmi yoki belgi qolganmikin, shuni yaxshiroq ko‘rish maqsadida ko‘ziga yaqin olib kelgan edi. Ammo yo‘q, hech qanday iz yo‘q edi. U hovliqib qolganini yashirish uchun birpas indamay turdi, o‘zi ham kutdi, Nastenani ham intizor qildi va nihoyat, go‘yo shunchaki, yo‘liga so‘radi:

– Bu senga qayoqdan kelib qoldi? Nima, Andrey yubordimi?

Javobini Nastena oldindan tayyorlab qo‘ygandi, shuning uchun ham u Innakentiy Ivanovich bilan bekinmachoq o‘ynayotganday dedi:

– Qayoqda? Andrey... Men unga, Andreyga deb o‘tgan yili Karda-da sotib olgandim. Mana endi sotishga to‘g‘ri kelyapti. Obligatsiyaga to‘laydigan hech vaqo yo‘q. Kelsa, o‘zi sotib olar. Olganimgayam yuz pushaymon bo‘ldim o‘zim ham.

- Hay, qanchaga oluvding?
- Ikki mingga.

Nastena unga, xuddi Mixeichga aytganidek, bu soatni miltiqqa almashtirdim deyishga qo‘rqrar edi: bunga ipning uchini ko‘rsatib qo‘ysang bas, hammasini chuvatib oladi.

– E, yo‘q, menda buncha pul nima qiladi, – deb boshini chayqadi Innakentiy Ivanovich. – Voy, seni qara-yu, tag‘in nuql o‘zlarining kambag‘allikka solasizlar. Ikki ming-a! Shuncha pulni topib, xuddi ikki rubl berganday beribsan-qo‘yibsan-a. Kardada buni senga kim sotdi?

– Men u odamni tanimayman. Bir harbiy odam edi shekilli, shi-nelda edi. Soat menga juda yoqib qoldi, mahkam yopishib oldim, koftamni, shol ro‘molimni sotdim, pul to‘pladim, – tavakkaliga yolg‘onladi Nastena va pinagini buzmay Innakentiy Ivanovichning yuziga qaradi. – Hozir bo‘lsa olarmidim buni?

– Menda ikki ming yo‘q. Senga o‘xshagan badavlat emasman. – Innakentiy Ivanovich chamalab o‘zini go‘llikka soldi va boyagiday diqqat bilan Nastenani kuzatdi. – Mingni, ehtimol, bir amallab toparman, ammo boshqasiga kuchim yetmaydi.

Nastena o‘ylanib, xo‘rsinib qo‘ydi:

– Xayr, mayli, ming bera qoling. Hozir buni kimgayam sotardim bu yerda? Kardaga borib-kelishga bir kun, bir kun ham gapmi: ikki kun ketadi. Hozir bunaqa ishga qo‘l tegarmidi?

Innakentiy Ivanovich ming rubl sanab berdi, lekin u Nastenaga ishonmadi, ishonmaganini Nastena ham sezdi. Uning oldiga bormaslik kerak edi, ammo bundan boshqa kimning ham oldiga borardi: Atamanovkada faqat shunda pul bor. Bundan tashqari nimadir izmi-ixtiyoriga bo‘ysunmay, Nastenani faqat o‘shaning oldiga borishga qistab turardi. Innakentiy Ivanovich o‘zgalar izini iskashni, duch kelgan narsa to‘g‘risida boshqalarga qaraganda ko‘proq, oldinroq bilishni juda yaxshi ko‘rardi: mana, kerak bo‘lsa, ol, iskayver, hidi anqib turgan bu luqmani o‘zim senga beryapman. O‘sha uzun burning bilan xohlaganingcha hidlayver, hademay, yana bir dalil topib beraman – endi qo‘rqmayman.

Ammo qo‘rqish kerak edi: Nastena farishta bo‘ptimi. Binobarin, uning qilayotgan har bir ishi ko‘ngildagidek chiqmayotgan edi.

Andreyning hozir yuqori qishlovda bo'lishi Nastenaning esidan chiqmagan edi, ammo u qayiqni nima qilishni bilmasdi: yo pastga tushib, uni anhorchaga yashirib qo'yishi, yo orol qarshisidagi qirg'oq ostida qoldirishi kerak edi. Narigi tomondan ko'rinxaydi, bu tomondan esa bordi-yu, bitta-yarimta kelib qolsa, baribir yashirib bo'lmaydi. Shuning uchun yashirmagani ham ma'qul. Angaraning bu tomoniga o'tishiga bahona kam deysizmi? To'qish uchun qaynotasi-ga xivich kesib boradi, vassalom. Tol xivichlari esa, bu yerda mo'lko'l. Bir kuni Mixeich ham orolga borib novda kesib kelinsa, yomon bo'imasdi, deb aytgandi. To'g'ri, u orolga degandi, sohilga emas, ammo har ikki joyning uzoq-yaqinligi deyarli bir xil edi. Mixeichga oroldan xivich kesdim deydi, u ajablanadi-yu, ammo bir nima deb e'tiroz bildira olmaydi: ha, to'g'ri-da, o'zi aytgandi, Nastena esa, shu ishni qilibdi. Agar Nastena ko'ngildagi ishni qilib borsa, u nima deb ham e'tiroz bildirardi – Nastenaga, nazarida, qayerga borsa, hatto ovloq yerlarda ham, odamlar unga ishonmayotganday, zimdan razm solayotganday tuyulardi.

Bu safar ham uni kuzatishayotgan ekan. Nastena suzib kelib, qayiq tumshug'ini quruqlikka tortib chiqargach, atrofga birrov ko'z yogurtirib, pastgina qirg'oqqa chiqqa boshlashi bilan o'ng tarafda suv ustiga g'uj bo'lib osilib turgan butalar orasidan bir kishi chiqib kel-di. Nastena uning qanday chiqib kelganini payqamadi, faqat orqa tomonda shag'alning g'ijirlaganini eshitib, cho'chib ortiga o'girildi-da, qayiq ustiga engashganicha kuchanib, uni toshloqqa siljitatayotgan kishini ko'rди. Nastena qichqirib yubordi.

– Qayiqni nega shunday qoldirasan? Axir, suv olib ketadi-ku, – dedi u va xiyol engashib Nastena tomon yurdi.

Bu Andrey edi. Qo'rquv va quvonchdan o'takasi yorilgan Nastena dag'-dag' titrab, oh-voh qilib unga otildi, ammo Andrey uni quchoqlagani qo'ymadi-da, tezroq butalar orqasiga olib o'tdi. Bu yer Angaradan ko'rinxaydi. Butalar ortiga o'tgach, uning o'zi Nastenani qattiq quchoqladi, og'ir-og'ir nafas olib, yuziga tikildi.

– Bugun kelishingni bilgandim, ertalab bilgandim, – u shunchalik yaqindan ko'rib turgani uchun ko'zlarini qisib qarar va hansirab g'o'ldirar edi. – Ertalab irmoqda odamlarning ovozini eshitdim, se-

ning ovozingni tanidim. Kelishingni payqadim. Shuning uchun kuni bilan poylab o'tirdim. Keyin qarasam suzib kelyapsan.

U Nastenani yana ham mahkamroq bag'riga bosdi.

– Sekinroq, ayiqpolvon, – deb Nastena undan o'zini tortdi va qornini oldinga chiqardi. – Ezib qo'yasan. Nima, ko'r mayapsanmi?

– Bormi? – qisqa qilib so'radi Andrey bu xushxabardan mast bo'lib.

– Nima, bo'tqa bilan shishib ketgan deb o'ylayapsanmi meni?

Kulishni ham unuta boshlagan Andrey ho'ho'lab uzuq-yuluq, beo'xshov kului va qorinning tarangligini tekshirib ko'rmoqchiday, uni kurakday keladigan keng kafti bilan ohista siypaladi. Uning siy-palashi Nastenaga xush yoqardi, u erkalanib, chuqur tin oldi.

– Hali hech nima ma'lum emas-ku, – dedi Andrey.

– Ma'lum emasmish-a...

U Andreyning kaftini bola nimasi bilandir tiralib, do'ppaya bosh-lagan joyga olib bordi.

– Endi ma'lummi?

– Bir nima borga o'xshaydi.

– O'xshaydi emish... O'zing o'xshaysan. Bor bo'lganda qandoq. Men aniq bilaman: bu o'g'il.

– Bilaman emish, – dedi Andrey hihilab. – Sen qayoqdan bilasan?

– Garov o'ynaymizmi, qiz emas, o'g'il bu!

– Avval buni tug'ib ol-chi.

– Tug'aman ham. Nega tug'mas ekanman? Hali hech kimning bolasi ichida qolib ketgan emas. – Bu gapi Nastenaning o'ziga ham qiziq tuyulib, kulib yubordi.

Ammo u Andreysa yaxshilab razm solar ekan, hovuridan tush-di-qoldi va kutilmaganda, tez, belgilangan muddatdan oldin diyordi ko'rishishdan quvonib, hayajonlanishi bosila boshladi. Andreyning yuzi juda cho'zilib, faqat burni qolibdi, yonoqlarining xalta bo'lib qolgani hatto soqollari orasida ham ko'rinish turardi. Ko'zlar kirtayib, kosasi ichidan dard-alam bilan tikilardi. Soqoli ham endi qora emas, balki irkit, mosh-guruch bo'lib, chiga!lashib ketganidan battar xunuk ko'rinishdi. U boshini ham sal engashib, xuddi doimo ro'parasiga qarab yoki bir nimaga qulop solib turgandek, oldinga cho'zib turardi. Ha, xuddi shunaqa edi. Sochini yaqinda olibdi, paypaslanib olganidan sochi tutam-tutam bo'lib, notejis osilib qolgandi. Ko'zlar...

hammasidan ham ko‘proq Nastenani qo‘rqiayotgani ana shu ko‘zlar edi: o‘sha oxirgi marta uchrasilganlardan beri bu ko‘zlar shunchalik o‘zgarib, g‘am-g‘ussadan qa‘riga tortib ketgan ediki, ulardan sergaklikdan boshqa hech qanday ma’noni uqib bo‘lmashdi... Andrey

Nastenaning azob-uqubat bilan qarab turganini payqadi-da, titrab ketdi:

– Nima, yoqmayapmanmi?

– Andrey... – Nastena javob bermaslik maqsadida boshini uning ko‘ksiga qo‘ydi va o‘zi eng muhim deb o‘ylagan gapini bo‘g‘ilib, pichirlab aytdi: – Andrey, hali xabaring yo‘q: urush tugadi.

– Bilaman, – dedi u xotirjamlik bilan.

Nastena o‘zini orqaga tashladi:

– Qayoqdan bilasan? Kim aytdi?

– Salyutlaringni eshitdim.

– Ha-a, o‘q otishgandi... to‘g‘ri.

– Endi ko‘zim bilan qulog‘im shunday bo‘lib qolgan... u-zoq-dan ko‘raman, u-zoq-dan eshitamar – U yo gapni chalg‘itmoqchi bo‘ldi, yo chindan ham maqtangisi keldi. – O‘zimga o‘zimning havasim keladi. Ertalab sizlar hali katta Angarada eshkak eshayotganlaring-dayoq suzib kelayotganlaringni bilganman. Tag‘in huv anavi yerdan, tog‘dan, qishlovdan eshitdim. Irmoqqa chiqqanlaringdan keyin seni tanidim.

– Men bo‘lsam, senga tishga bosgulik deyarli hech nima olib kelmadim ham, – dedi Nastena boshqa narsa to‘g‘risida o‘ylarkan, sekin, begonasirab, – ozgina non-u tuxum olib keıldim, xolos. Sezib qolishmasin deb qo‘rqdim.

– Menga hech nima kerak emas, endi ochdan o‘lmayman, tayga boqaveradi. Menga chivindan saqlaydigan to‘r bo‘lsa bas, Nastena. Hademay chivinlar g‘ujg‘on o‘ynaydi. To‘r bo‘lmasa, meni yeb qo‘yadi.

– To‘r... Rost-a, kelib-kelib to‘rni esimdan chiqarganimni ayt-maysanmi?

– Yanagi safar olib kelarsan.

– Olib kelaman...

Nastena endi to‘rni qayoqdan topsam bo‘larkin, deb o‘ylay boshladi. Uning, Andreyning ot dumidan qilingan eski to‘ri allaqachon tilib ketgandi, uyda ortiqchasi yo‘q edi. Qayerdan bo‘lsa ham topish

kerak: chivinlar yirtqich hayvonlardan ham battar, u esa bu yerda bir o‘zi, chivinlarning hammasi shunga yopiriladi.

Ular hamon bo‘ylari baravar·keladigan, barg yoza boshlagan yosh qayin nihollari yonida, bir-biri bilan baqamti tik oyoqda turi-shardi. Qayinlarning pindiq yorib chiqqan naychasimon barglari yozila boshlagandi, ammo ular hali kichik, burishiqlari chuqur bo‘lib, quyoshda oqish tovlانardi.

Qayin nihollari orasidan Angara ko‘rinardi. Qishloqni orol to‘sib turardi; quyosh og‘ib, u yerga qiya nur sochardi. Bu yerda sohil keng, chiroyli edi – odam ko‘zidan pana, kimsasiz, suv tomon xi-yol nishabligi bor jimjit. maysazorlarning u yer-bu yerida shumurtlar, qayinlar tarvaqaylab o‘sib yotardi. O‘tlar ichida yelkasi burunduqlarnikiga o‘xshagan yo‘l-yo‘l, bo‘yni uzun qandaydir mayda qush-chalar chug‘urlamasdan pir-pir etib, uchib-qo‘nib yurardi. Faqat olisda, ammo shu qирq‘oqning qayeridadir kakku anchadan beri bir zaylda «kuk-ku, kuk-ku» deb sayrardi. Nastena hali suvda suzib kelayotganidayoq kakkuning sayrashini sanamoqchi ham bo‘ldi, ammo qo‘rqdi, mana, endi uning sayrashi ikki yuztaga yetib qoldi, istasang, shuncha yil yashayver<sup>1</sup>.

– Xo‘sh, endi qishlovga boramizmi yo‘qmi? – deb so‘radi Andrey negadir atrofga alanglab.

– Ancha olis-da, – dedi Nastena tutilib. – Qayiqni qoldirib ket-sam, bitta-yarimta haydar ketib qoladimi...

– Bu yerda kim ham...

Nastena qayiqqa tushib, uning tumshug‘idan oziq-ovqat o‘ralgan tugunchasini oldi. Lekin ular har qalay qishlovga bormadilar; shu yerda o‘tirish uchun joy qidirdilar, ular o‘rmonning xilvat yalangligida yotgan g‘o‘laga duch keldilar, g‘o‘la suyak singari oppoq bo‘lib, taram-taram yorilgan, ammo qattiq edi. Ular shu g‘o‘laga o‘tirdilar. Nastena tugunchani Andreyga berdi; u qayergadir olisga qarab, tugunchani yechdi, ammo nonni ko‘rdi-yu, o‘zini tutib turolmay nonga yopishdi. Nastena uning ochko‘zlik bilan non yeishiga qaramaslikka harakat qilardi, shuning uchun u sirg‘anib, g‘o‘ladan yerga tushdi va qayiqda qottb qolgan oyoqlarini bemalol uzatdi, ammo u dam-

<sup>1</sup> Ruslarda kakku necha marta sayrasa odam shuncha yil umr ko‘radi degan aqida bor. Bu yerda shunga ishora qilinyapti.

badam boshini ko'tarib, zimdan Andreyga ko'z qirini tashlardi, u Andreydan ham, uning och qolganidan ham hayratlanib, hang-mang bo'layotgani yo'q edi, u hozir soqoliga ilashgan non ushoqlarini terib og'ziga solayotgan ana shu juldurvoqi, ozib-to'zib ketgan kimsani deb tunlarini bedor o'tkazganiga, kuchi boricha unga talpinganiga hayron bo'layotgan edi. Yo rabbiy, inson tuyg'usi ham shunchalik injiq, murosasiz bo'ladimi? Qarang, u naqadar talabchan, naqadar o'zgaruvchan! Hali Nastena mana shuni deb, shu odamni deb suzib keldimi, shuni deb iztirob chekdimi, gah desa qo'liga qo'ndiradigan qilib olgan odam shumi hali? Ishonib bo'lmaydi. Nastena xayollarini jilovladi. Andrey ham frontdan kelib, uni birinchi marta ko'rganda: men kimni deb qochib keldim, kimni deb shu noma'qulchilikni qildim, deb o'zidan so'ramaganmikin? Axir, Angaradan emas, undan dahshatliroq narsalardan kechib o'tishga to'g'ri keldi-ku. Nastena ning yuragi bedavo qayg'u-hasratdan siqilardi: inson o'zi to'g'risida hech nima bilmaydi. Shuning uchun u o'ziga o'zi ishonmaydi, o'zidan o'zi qo'rqadi.

Kakku esa, ovozini o'zgartirmay, daraxtlar, daryo, toshlar, siz-larga qancha umr kerak, deb bir zaylda sayragani-sayragan edi. Orolga bosh urib oqayotgan suv shovillardi: ancha pastlagan qu-yoshning yon tomondan tushayotgan nurida daraxtlarda erta bahordagi o'rgimchak inlari yiltirardi. Ko'kalamzorlar, yashil libosga o'rangan daraxtlar ko'zlarni xumor qilib suziltirardi, nam, o'tkir hidlar gupillab dimoqqa urilardi. Tepadan yalanglikka kapalak uchib tushdi va qalin butalarga urilib, anchagacha uchib chiqib ketolmadi. Ammo shoxlar orasidan Angara, hatto sohildagi qayiq quyrug'i ham yaqqol ko'rinish turardi, shuning uchun Nastena tez-tez o'sha yoqqa qarab-qarab qo'yardi, u qayiqdan xavotir olib emas, umuman nimadandir qo'rqib, qandaydir muqarrar bir nimani kutar edi!

Andrey ovqatlanib bo'ldi, shuning uchun Nastena gap chalg'ib ketmasin, deb darrov so'radi:

– Urush tugadi, endi nima qilamiz, a, Andrey?

– Bilmasam, – dedi u yelkasini qisib, bundan Nastenaniki juda tutib ketdi, uning nazarida, Andrey «bilmasam»ni juda xotirjamlik bilan aytdiki, u haqiqatan ham hech nimani istamayotganday, kela-jakni o'ylamayotganday tuyuldi.

– Xo’sh, biz bilmasak, kim biladi? Axir biron nima qilish kerak-ku, Andrey.

– Xo’sh, meni nima qilishimni.xohlaysan?

– Gap meni nimani xohlashimda emas. Tushunsangchi... Axir, nimadir qilishimiz kerak-ku! Endi buyog‘iga bunday yashab bo‘lmaydi. Shuni o‘ylagin-da, axir!

Andrey Nastenaga o‘girildi va birpas jim turgach, og‘ziga kelganini qaytarmay, dabdurustdan dedi:

– Nima qilish kerak deysanmi? Sen tug‘ishing kerak – sening qiladigan ishing ana shu. O‘lsang ham tug‘gin, bizning hayotimiz, bizdan qoladigani ana shu. Sening ixtiyoring o‘zingda, ammo bilib qo‘y, sen tug‘ishing kerak. Ana shuning g‘amida bo‘l. – U gapni dabdurustdan, hatto biroz keskin boshladi, lekin ovozi bo‘g‘ilib qoldi. Nastena, umuman, uning ovozi tez-tez o‘zgarib turishini yoki doimo bir o‘zi indamay yuravergandanmi, yoki boshqa bir sababdanmi, goh keragidan ortiq qahrli, goh shu ondayoq xuddi yig‘layotganga o‘xhash ayanchli bo‘lib qolishini payqadi. Andrey yo‘talib olgach, davom etdi: – Xo’sh, men-chi? Men nima qilardim? Bilsam-bilmasam, sen erim o‘sha yoqlarda yurganida jin ham urmasdi, deb xo‘p o‘ylagansan. Yo‘q dema, o‘ylagansan, bilaman. O‘zim ham shunday deb o‘ylayman. Mana endi, urush tugagandan keyin o‘ylab hayron qolasan, kishi. Rostdan ham hech balo urmasmidi, omon qolib qaytib kelarmidim. – U Nastenaga engashib, yuzini yaqin olib keldi, ko‘zlarini odatdagidan ko‘proq qisib, yashirib, vahimali, bo‘g‘iq ovozda xirillab pichirladi: – Bordi-yu, biron kor-hol bo‘lganida, sen bilan hozir mana shunaqa o‘tirarmidim? Hech kim aytolmaydi. Mana, hozir esa, yoningda o‘tiribman. Shuning uchun mendan hech nimani so‘rama, meni biron ishga undama. Qo‘limdan faqat bir ish keladi. – U qaddini rostlab, qo‘lini siltadi. – Shoshma, gapimni bo‘lma. Bilaman, senga ishonaman. Huv o‘shanda senga yozgacha degandim. Mana o‘sha yoz ham keldi. Hali yaqinginada edi, oldimga qor-chapqinda keluvding, bugun bo‘lsa, mana, suvdan kelding. O‘lim, Nastena, bu buyum emas, baribir peshonangda boridan qochib qutulolmaysan. Mana shu yerdagi to‘rt oy menga qirq yilday o‘tdi, ustiga yana o‘zimning o‘ttiz yoshim. Men senga aytyapman, o‘lim bu buyum emas, ammo men umrim behuda o‘tmaganini bilishim kerak. Men hali senga kerak bo‘lishimga, sening bu yerga meni deb emas,

o'zingni deb kelishingga juda-juda ishongim keladi. Ko'nglimning chigalini yozay deysan.

– Men hozir ham kimni deb kelganimni bilmayman, – deb tan oldi Nastena.

– Hech narsaga parvo qilma, hammasini oldingdan olib orqanga tashla-yu, turaver. Yagona najotimiz – bola. Bu ishimga sen ham ancha-muncha aralashib qolding. Ammo sen vijdonlisan, shuning uchun bezovta bo'lyapsan. Tug'sang – yengil tortasan. Bola seni muisibatdan saqlab qoladi. Bu yorug' olamda bolamiz yuvib keta olmaydigan gunoh bormikin o'zi? Bunaqa gunoh yo'q, Nastena. Shuni bilib qo'y. Hozirlik ko'r, deb aytish uchun seni kutdim, har soatda kutdim. Yuragingni tosh qil-u, hech narsa ko'rmaganday, bilmaganday yuraver, odamlar nima deyishsa deyaverishsin. Bilaman, bosh ko'tarib yurishing qiyin... ammo chida, Nastena. Ammo bolaga ziyon-zahmat yetkazma. Juda to'lib ketsang, g'izillab yonimga kel, kelaver. Hamisha ko'zlarim yo'lingda. Men faqat seni deb yashayman, bu yerda boshqa qiladigan ishim yo'q. Agar juda tinkangni quri-tadigan bo'lishsa – hammasini o'ldiraman, hammasiga o't qo'yaman, tuqqan onamni ham ayamayman...

U titrab-qaqshab, bejo ko'zlarini Angaraning narigi tomoniga tikar ekan, boshini ichiga tortdi.

– Andrey! Andrey! – Nastena qo'rqb ketdi.

U parishonlik bilan Nastenaga qaradi va simillab bo'g'uvchi g'azabidan tushib, sal o'ziga keldi-da, anchagacha miq etmay o'tirdi. Nastena ham nima deyishini bilmasdi. U o'zi emas-ú boshqa birovga o'xshab novda kesgani kelganini, ammo kesishga hech nimasi yo'qligini to'satdan zaharxandalik bilan esladi: na pichoq olibdi, na bolta. Yo'q, ularning har biri yelkasida qo'l-oyoqli odamlardan bittadan emas, bir nechtadan o'tiribdi, shuning uchun bu odamlar uni turli tomonga qarab tortishadi, to go'rga eltib tiqmaguncha burda-burda qilib yuborishadi. Bu bechora bo'lsa, go'yo o'z ko'nglini salgina bilganday, yana odamning olasi ichida deydi-ya.

Nastena tagidan sovuq o'ta boshladi, shuning uchun o'rnidan turib, g'o'laga o'tirdi. Andrey unga yaqinroq surildi, ammo Nastena kutganiday uni quchoqlamadi, balki oldinga xiyol egilib-egilib tebrana boshladi. Oftob yalanglikdan o'tib, daryoga yetib qolgandi. Qayiq quyrug'ida sinchalak dumini likillatib, sakrardi – u uchib ke-

tib ko'zdan g'oyib bo'ldi-yu, yana shu zahoti qaytib kelib, bo'ynini cho'zib, tez-tez suvgaga qaray boshladi. Sharqda, kunchiqar tomonda oppoq momiq bulutlar paydo bo'ldi, shuning uchun Nastena havo aynib qolmasaydi, deb tashvishga tushdi.

– Balki Lenaga borib kelarman, – dedi nogahon Andrey.

– Lenaga? – hayron bo'ldi Nastena. – Nega?

– O'sha yerda birga jang qilgan bir oshnam bor, Kolya Tixonov.

– U xuddi tomog'iga bir nima tiqilgandek qalqib ketdi-da, takrorladi: – Kolya Tixonov. To'g'ri, biz boshqa-boshqa vzvodda edik: men birinchida, u uchinchida. Vzvodlar esa, razvedkaga navbatma-navbat borardi. Ahyon-ahyon uchrashib qolardik. Fursat topildi deguncha, hammamiz birga bo'lardik. U paytda u hali bo'ydoq edi... Undan yaxshi dehqon chiqardi. Xushfe'l, sodda yigit edi. Uddaburro, qo'lidan kelmagan ish yo'q. Kiyib yurgan kiyimini ham, yeb turgan nonini ham ayamasdi. Yuzidagi chandig'i o'ziga yarashardi, kuldirgichga o'xshardi. Yoshligida mushtlashganda bittasi panshaxa sanchgan ekan.

Biz o'sha bilan bittamiz o'lsak, omon qolganimiz borib aytamiz, deb kelishib qo'ygandik. U Lenadan, men Angaradan – hamyurtmiz, oramiz olis emas. U sal g'alatiroq edi. Men unga ikkovimizni ham o'ldirishsa-chi, keyin nima bo'ladi, desam, u menga ikkovimizni o'ldirisholmaydi, bunday bo'lishi uchun Angara bilan Lenaning suvi qo'shilib ketishi kerak, degandi. – Andrey bir xixilab qo'ydi-yu, cho'zib, uzoq tin oldi. – Men bilag'onlik qilib, unga aystsang-aytsang dengizga quyilib qo'shilib ketadi dedim. U bo'lsa dengiz – bu o'lim, degandi. Daryolar o'z o'zanidan oqib turgandagina mavjud bo'ladi, dengizga quyildimi – tamom, o'ldi deyaver. O'lgandan keyin biz ham birlashib ketamiz degandi. Bir kuni tongga yaqin «qidiruv»dan qaytib kelsak, menga Kolyaning o'ligini olib kelishdi, deb aytishdi. Borib shuni uyidagilarga aystsammikin deyapmanda. Qayerga ko'milganini bilaman, esimda bor, o'zim ko'mganman. Va'daga vafo qilish kerak-da...

– Qanday qilib borasan? – ohista so'radi Nastena.

– O'zimni olisdan kelgan odam qilib ko'rsataman. Uning qishlog'i kichkinagina. Birpas o'tiraman-u qaytib kelaman. Ko'mganimizda yig'lamadim, u yerda bunaqa odat yo'q. Yaqinda esimga tushib qoldi, shunda ko'z yoshi qildim. Axir, yuragim tosh

emas-ku, Nastena. Agar tosh bo'lsa, yaxshiroq bo'lardi, hech ni-maning qayg'usini qilmasdim. O'ylayverib-o'ylayverib jinni bo'lib ketasan, miyangga kelgan fikrlar bir-biridan battar... Uzib oladi, ha, uzib oladi... Ba'zan borayin-u taslim bo'lay deb o'ylab qolaman, qilmishingga yarashasini olaver, qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Qilg'iliqni qildingmi – jazongni tort! O'zimga-o'zim qo'l ko'targandan ko'ra, tiqib qo'yishgani ham durust, kimga shu ish topshirilsa, o'sha unimni o'chiradi-qo'yadi. Ular ham tinch, men ham.

Nastena birorta ham so'zni eshitmay qolmaslikka harakat qilib, qotib turardi, ammo kutilmaganda Andrey shartta boshini ko'tardida, qattiq-qattiq chayqadi.

– Yo'q, bormayman. Men o'zimdan qo'rqayotganim yo'q, o'zimga qolsa-ku, ko'ksimni jon-jon deb o'qqa tutardim-a. U yerda loaqla ko'mishadi-ku, bu yerda esa, ko'madigan odamning o'zi yo'q. Sizlarni isnodga qo'yishni istamayman. Agar bolaning mendan bo'lganini bilishsa, seni tiriklayin yeyishadi. Meni qo'yaver, mening yo'rig'im boshqa, xo'sh, sening nima gunohing bor? Mana, tug'asan ham, ammo bola gapga qoladi, bir umr ta'nadan qutulmaydi. Yo'q, bormayman. Sen bo'lsang, nima qilay deysan. Nima, men ham o'zimni nima qilay deb qiynamayapmanmi? Sabr qilib turamiz – chora topilib qolar. Yoki chindan ham Lenaga borib ke-larman. Yoki qo'rqsam, bormay qo'ya qolarman. Sendan uzoqqa ketishni o'ylasam, yuragim orqaga tortib ketadi, men faqat sening yon-veringdagina tirikman. Ertalab uyg'onaman-ü hozir Nastena turdimikin-yo'qmikin, deb o'ylayman. Kunduz kunlari daydib yu-rib, hozir Nastena qayerdaykin, deb o'ylayman. Nastena meni yaxshi deb eslarmikin, yo yomon deb eslarmikin, deyman. Keyin o'zimcha sabr qil, Nastena, sabr qil. Birovga indama. Yana, xudo ko'rsatmasin, og'zingdan gullab qo'yma, deyman. Aslini olganda sen menga xotin ham emassan, kishi xotini bilan uyida yashaydi, sen mening yorug' jahonimsan, sen mening bor-u yo'g'imsan. Seni mendan judo qilib bo'lmaydi.

– Qo'ysang-chi, Andrey, nega bunday deysan? – u Andreyning pinjiga tiqildi va adashib ertalabmi yoki kechqurunligini ajratolmay qolgan odam singari yuragi xijil qiluvchi, tashvishli bir quvonch bilan tepa boshladи.

– Gapim ichimda yig‘ilib qolgan, bo‘shatib olmasam bo‘lmaydi. Esingdami, Ilin kuni<sup>1</sup> anhorning nariyi yonidagi do‘nglikdan pichan o‘rgani borgan edik? O‘z pichanzorimizda o‘t kamdek edi, shuning uchun o‘sha yoqqa boruvdik. Issiq edi, o‘rgimchak inlari tinkani qu ritardi, qulochkashlab chalg‘i tortib bo‘lmasdi, tekis yer yo‘q. Eng yomoni – o‘rishiham, o‘rmaslikni ham bilmasdik. Bayram edi, chog‘i. Odamlar o‘yin-kulgi qilmasdi, ammo ishlamasdi ham. Shu kuni chaqmoq chaqay-chaqay deb turardi. Esingdami?

– Esimda, nega esimdan chiqarkan? Urushdan oldingi yili yozda edi-da. Sen o‘sha yozda hisobchilikdan ketuvding, Innakentiy Ivanovich sening o‘rningga ishga kiruvdi.

– Ha-a, bir-birimizga o‘qrayib yurardik. Nima sababdan, qaysi vajdan o‘qrayishib yurishimizni o‘zimiz ham bilmasdik. O‘shanda senga qarab bir nima deyin-u dilingni siyoh qilib, bir yig‘latay deb o‘ylovdim. Agar yig‘lasang, yana bir nima deb ko‘ngildagi chigalimi ni yozardim. Qarasam, sen ham labingni qimitib, ko‘z qiringni tashlaysapsan. Bundan, kel, qo‘y, shu jin urgur ishni tashlaylig-u qishloqqa ketaylik, degan ma’noni uqib olsa bo‘lardi. Yo‘q, dilimizdagini sir timizga chiqarmadik, pishillab-pishillab qo‘ysak ham bir-birimizga indamadik. Shu payt nogahon, xuddi tomdan tarasha tushgandek, momaqaldiroq guldirash o‘rniga yomg‘ir yog‘di. Shunday yoqimli, iliqqina ediki, asti qo‘yaver. Qayoqdan yoqqanini bilib bo‘lmasdi, axir osmonda bironta ham bulut yo‘q edi-da. Osmonni keyin bulut bosdi, ungacha oynaday tiniq edi. Biz to‘xtab bir-birimizga qaradik. Esingdami? O‘shanda yomg‘ir yoqqani juda yaxshi, zo‘r bo‘ldi-da, ikkovginamiz bo‘lsak ham g‘ijillashib qolmadik. Go‘yo biz oldin kelganimizda boshqa edig-u hozir bir-birimizni endi ko‘rib turgandy edik. Bittamiz emas, ikkalamiz ham birdan o‘zgarib ketdik. Shuni nimaga yo‘yish, qanday izohlash mumkin? Hammasi shu yomg‘ir tufayli, ish tufayli bo‘luvdimi?

– So‘ng no‘xatga ketdik...

– No‘xatga keyinroq bordik. Chalg‘ini tashlab, bir-birimizga ilashib ketdik. Yomg‘ir ham qandaydir g‘alati edi, tushyapti-yu yo‘q bo‘lib ketyapti. Xuddi tuman yoki qandaydir obi rahmatga o‘xshardi. Yo o‘sha yomg‘ir bizni sehrlab qo‘ygandimi. No‘xatga esa sen yur

---

<sup>1</sup> 20-iyul (*Tarj. izohi*).

deding, o'shanda dunyoning narigi chekkasiga desang ham keting-dan ketaverardim. Mana shular esimga tushib ketdi-da, axir...

– Hozir o'tirgan shu o'zimizmi, Andrey? Yo anavilar, o't o'rgani borgan boshqalarimi?

U boshini yoniga tashladi-da, og'ir, chuqur xayolga cho'mdi.

– Bilmayman, ular ham, bular ham emas, yana boshqalari bo'lsa kerak. Urush bo'ldi... Hammasi bo'ldi. Yo'q, – dedi nogahon bir ses-kanib. – Bu o'zimiz, o'zimiz, Nastena. Hozir o'zimiz. Bo'lmasa, men eslamasdim. Bu o'zimiz. Bu butunlay yo'qolib ketgani yo'q. Axir, faqat yomonlik emas, yaxshiliklarni ham ko'rganmiz – to'g'rimi, ko'rgandikmi?

– Yomonlikni eslab nima qilasan?

– Hammasini eslash kerak, Nastena. Hammasini eslash kerak, ammo yomonlik uyatli joyday gap, uni bo'lar-bo'lmasga ko'rsatmaslik kerak.

– Eslaysanmi?..

Qalb torlarini g'amza bilan chertib o'tgan xotiralardan sehrlangan va ko'ngli tog'dek ko'tarilgan Nastena endi hech nimani: uning kiyimlari dabdala bo'lib o'zi ozib-to'zib ketganini ham, kir-yag'ir yurganini ham payqamasdi. Bu uning Andreyi, ko'z ochib ko'rgani, quvonchli hayot kechirgan o'zining mehribon kishisi edi. U shunchalik baxtiyor ekan-a! Nastena quyosh botish oldidan o'rmonning narigi yog'ida taram-taram nur sochib, havo quyuqlashib, qorayib, o't-o'lanlar sovib qolgan paytda o'ziga keldi. Nastenaning ko'zi oldida qayoqdandir paydo bo'lib qolgan tilog'och shoxi qimirlab turardi, so'galga o'xshagan g'adir-budir, xunuk kurtaklardan chiroyli nina-barg popugi yorib chiqayotgandi. Yonida Andrey horg'in pishillab o'tirardi. Nastena o'ziga keldi-yu qo'rqib ketdi:

– Voy xudoym, uyga novdasiz borolmayman-ku! Yoningda loa-qal pichog'ing bormi?

– Bor.

– Tezroq yur.

Andrey uni kuzatayotib:

– Menga ayt-chi, Nastena, men bu yerga kelganimdan keyin qish-loqdagilardan bitta-yarimtasi o'lmadimi? Qoraxat kelmadimi? – deb so'raganda Nastena avvaliga e'tibor bermadi, bu gapning fahmiga keyingina yetdi.

- Men kelganimdan keyin deysanmi?
  - Ha.
  - Chamamda yo‘q, yo‘q, hech·kim. Oxirgisi Volodya Somov edi. Kuzda qoraxat kelgandi.
  - Shunaqa de.
- U o‘z gunohini yengillatish yo‘lini qidira boshlagandi. Shundan keyin Nastena nega, nima uchun, deb o‘ylanib qoldi. Buni o‘zi uchun so‘rayaptimi yoki ko‘nglida boshqa bir gap bormi?

## 19

Bir necha kundan keyin Nastena yana keldi, ammo bu safar u, nihoyat, Mixeich suvgaga tushirgan o‘zlarining shitigida keldi. Ertalabdan ezib mayda, sovuq yomg‘ir yog‘a boshladgi, shuning uchun dala-da ish to‘xtab qoldi. U o‘z tomorqasida yer chopib, bodringga jo‘yak tortmoqchi bo‘ldi, ammo yomg‘ir bunga ham qo‘ymadi, u bekorga ivib, ta‘bi xira bo‘ldi. Shuning uchun kun bekor o‘tmasin deb arang topgan to‘rini, chivinga qarshi ishlatiladigan bir shisha qatronni eriga eltib berishga, yana bir tashvishdan qutulishga jazm etdi. U Mixeich uyda yo‘qligidan xursand bo‘ldi, endi unga bahona ham qidirib o‘tirmaydi, Semyonovnaga esa, baliq oviga boraman, deb qo‘ya qoldi – kampir anchadan beri, «мана, одамлай биноидаек, балиқ тутияпти, биж бо‘лсак, бу Ангаядаги омурлинг думини ham ko‘yganimij yo‘q», deb hiqillab yurgan edi. Nastena piyoda boradimi yoki qayiqda suzib boradimi, bunisini aytmay faqat boraman dedi, axir unisining ham, bunisining ham ma’nosiborishda. Semyonovna javob berishga ham, uni to‘xtatishga ham, ruxsat etishga ham ulgurolmadi. Nastena g‘izillab tashqariga chiqdi-da, tez-tez odim otib, Angaraga jo‘nadi. Eshkaklar mo‘rcha dahlizida saqlanardi, yog‘och qoziqlarga o‘ralgan baliq ovlaydigan eski peremyot<sup>1</sup>lar ham shu yerda yotardi. Nastena ularni oldi-da, shosha-pisha sohilga tushib, qayiqni itardi. U yuqoriga qarab suzish o‘rniga qattiq-qattiq eshkak eshib, shitikni pastga, oqimiga qarab haydab ketdi. Besh daqiqalardan keyin, shivalab yog‘ayotgan yomg‘ir xuddi parda singari qishloqni to‘sib qo‘ygach, u qayiqni daryo ko‘ndalangiga qarab burdi.

<sup>1</sup> Peremyot – tizma qarmoq (arxon, sim kabilarga tizib bog‘langan qarmoqlardan iborat baliq ovlash asbobi, odatda suv oqimiga ko‘ndalang qilib qoziqlarga bog‘lab qo‘yiladi).

Yomg‘ir suvgaga shovillab kelib urilardi; daryo surrang, xira edi. Orol yuvilganga, xiyol bo‘rtib chiqqanga o‘xshardi, shu turishi-da past bulutni, iflos dog‘ni eslatardi. Osmon ham yuvilgan edi, to‘g‘rirog‘i, osmon, umuman, yo‘q edi, xuddi quyosh botib ketganday u ham qayoqqadir g‘oyib bo‘lgandi, endi shu yer qorayib turardi. Nastena mart oyida, quturgan va seryomg‘ir bo‘ronda qayerdadir shu yerlarda muz ustida yugurib borgandi: vaqt o‘tib boryapti, uning hayotida esa, hech qanday o‘zgarish bo‘lmayapti, qishda ham, yozda ham o‘sha yerga, erining oldiga borish uchun havoning aynishini kutishga to‘g‘ri keladi. Nastena rezinali yomg‘irpo‘shda edi, koftasi ustidan tashlab olgandi, lekin allaqachon yomg‘irpo‘shning puturi ketgandi, shuning uchun yomg‘irdan saqlab qololmadi, suv yelkasida to‘planib, ilib, ichiga yoqimsiz sizib tushardi. Ho‘l koftasi kuraklari-ga yopishib, g‘ashini keltirardi; Nastena dam-badam yelkalarini qimirlatib, badaniga yopishgan koftasini ijirg‘anib ajratishga urinardida, eshkak eshish maromini buzardi.

U Angaradan o‘tdi-da, anhorni qidirib topib, shitikni o‘sha yerga haydab kirdi va yuqoriga qarab ancha yergacha itarib bordi, keyin bitta-yarimtaning ko‘zi tushmasin, yomg‘irda qolib ketmasin, deb qayiqni anhor ustiga engashib turgan, tarvaqaylagan qayin ostiga qo‘yib qo‘ydi. U peremyotdan bittasini olib, ikkinchisini qayiqda qoldirdi va qirg‘oqqa chiqib, horg‘inlik bilan nafas oldi: uydan qochib chiqib, mana, yetib ham keldi, go‘yo ko‘z ochib-yumguncha yetib kelganday edi. Ammo u qaytib ketishi kerakligini esdan chiqarmaslik uchun ham peremyotni o‘ib oldi. Hozir ularning hamma ishi telba-teskari edi: odatda odam oldinga qarab borishdan ko‘ra, o‘z izi bilan orqaga osonroq qaytib keladi, ularniki esa, aksincha. Qani endi Andrey o‘z oyog‘iga o‘zi bolta urgan yerga qaytib borsinch, borolmaydi! Qani endi Nastena ham bundan yarim yil oldingi Nastena bo‘lsin-chi, bo‘lolmaydi! Bugun yana qaytib ketish unga juda og‘ir, o‘sha Angara ko‘ziga besh baravar keng ko‘rinaidi, eshkaklar ham o‘sha bo‘lsa-da, juda og‘ir bo‘ladi, suv ham o‘sha, ammo dahshatli, chuqur. Qani endi qaytib ketmasa-yu, shu yerda, tegishli joyda, tegishli odam bilan qola qolsa, ayyorlik ham qilmasdi, yolg‘on ham gapirmasdi, boriga shukur qilib, bemalol yashayverardi.

Nastena qaytib Angaraga tushdi va suv tez, to‘g‘ri oqib ketayotgan toshloqqa peremyotni tortdi. Peremyot bilan shu kunlarda baliq tutsa

bo'ladi, bir-ikki haftadan keyin suv tinib, odatdagi me'yoriga tushganida, bu peremeyot yaramaydi. O'tgan yili Nastena muz ketgandan keyin bir necha marta o'z qirg'og'iga peremeyot tortib, zog'orabaliq va xariuslardan tutib kelgandi. Mixeich esa, keksalarga xos kamtarlik bilan faqat morda<sup>1</sup>ni tan olardi, baliq tutishning boshqa usullarini sira nazar-pisand qilmasdi. Unga, Nastenaga esa, xo'jako'rsinga bugun ochidan o'lgan eng mayda zog'orabaliqlar bo'lsa ham kifoya qilardi. Eng muhimi, gapdan qutulish uchun dalil kerak, boshqalar ishonadimi-ishonmaydimi, unga bir pul. Unday bo'lsa ham, bunday bo'lsa ham ish har qalay nihoyasiga yetyapti. Nastena qop-qorayib turgan jardan, ildizlaridan novdalar o'sib chiqqan to'nkalarmi, yumshoq yerni ag'darib chuvalchang terdi, ularni qarmoqqa tiqib, peremeyotning bir uchi bog'lab qo'yilgan toshni suvgaga tashladi. «Ilin, baliqjon, katta bo'lsang ham, kichik bo'lsang ham, ishqilib ilingin-da». Nastena ketar ekan, agar hech nima ilinmasa, loaqlar qarmoqda qolgan chuvalchangni olib tashlamaslik kerak, chindan ham qarmoqqa chuvalchang tiqqanim, rostdan ham baliq ovlaganim, boshqa ish bilan shug'ullanmaganim ko'rinish tursin-da, deb o'ylab bordi. Mixeich badgumon odam, ko'ngliga har xil gap kelishi mumkin.

Yomg'ir ezib yoqqani-yoqqan edi; Nastena, nazarida, cho'ziq, qattiq g'ijirlagan narsaning yerga tushganini eshitganday bo'ldi. O'sha narsa hali o'sib, yaxshi yetilmagan maysa ichiga shovqinsiz tushdi, daraxtlarning barglari sovuq yeganday titrab turardi, Angara ustini, xuddi kuzdagidek, yomg'ir aralash qalin tuman bosgan edi. Osmonda bilinar-bilinmas harakat boshlanganga o'xshardi, yo bu ham shunday tuyulib, bo'shliqni yoqtirmaydigan ko'zları oldidan suzib o'ta boshladimikin? Nastena yuqori qishlovga bormagan edi, shuning uchun tusmol bilan ketaverdi – u avvaliga qirg'oq bo'yidagi eski, tashlandiq so'qmoqdan yurdi, taqir so'qmoqning ikki yonida o'tlar o'sib yotardi, keyin toqqa burildi. Nazarida, u ilgari ishlov berilgan yerlarni darrov topib oladigandek edi, ammo nishablikda oqarib turgan parcha-parcha yerlar ko'p edi, bu yerlar o'zi azaldan shunaqami yoki tashlandiq ekin yerimi, bilib bo'lmasdi: u bir yerdan ikkinchisiga, ikkinchisidan uchinchisiga o'tib, borgan sari yuqoriga ko'tarilardi, ammo qishlovdan esa hamon darak yo'q edi.

<sup>1</sup> Morda – baliq tutadigan savat (*Tarj. izohi*).

Yomg‘irda uzoqni ko‘rib bo‘lmasdi, u to buloqqa duch kelgunicha yana ancha adashib-uloqib yurdi, buloqni ko‘rgach, pastga tushi-shi lozimligini fahmladi va qarshisidagi siyrak tog‘teraklar ichida qishloving vaqt ta’siri va qor-yomg‘irdan qorayib ketgan taram-taram yog‘och tomini ko‘rdi. Nastena bir vaqtlardagi singari yana derazachani tinqillatdi va shu ondayoq Andrey ovozimni tanisin, qo‘rqib ketmasin, deb chaqirdi. Andrey yana o‘shandagiday yugurib chiqdi-da, uni ichkariga olib kirdi va ho‘l kiyimlarini yechishda yordamlashdi. Ammo gap bu safar Nastena birinchi marta qayiqda suzib kelib, ular qirg‘oqda uchrashgan vaqtlaridagiga qaraganda boshqacha bo‘ldi.

Bunga Nastenaning o‘zi aybdor edi. U Andreyning gaplariga qulq solar ekan, uning ta’siriga tushib, u nima deyayotgan bo‘lsa, hammasi to‘g‘ri, uning bu yerda yashirinib yurishi-yu, mening esa, u yoqdan birovga og‘iz ochmay yurganim ma’qul, bundan bo‘lak choramiz ham yo‘q deb unga ishonardi. Ha, u tishini-tishiga qo‘yib chidashi, indamasligi kerak, xuddi uchi o‘tkir, qirrali toshlar orasidan o‘tayotgandek, har kunni yuz azobda o‘tkazishi kerak, qandaydir hali noma'lum, mavhum najot yo‘liga chiqib olmog‘i lozim. Ammo u yolg‘iz qoldi deguncha umidsizlikka, vahimaga tushib, azob-uqubatdan qon-zardob yutardi: axir ular nima ish qilyapti o‘zi? Nima qilyapti, nimaga ishonyapti? Haqiqat – u toshlar orasidan, Angaraning o‘rtasidan, suv juda tez oqadigan, chuqur joydan gapiruvchi daraxt bo‘lib o‘sib chiqadi. Hech qanday kuch uni yashira olmaydi. Har qalay Andrey bekinib yurgan yeridan chiqib; aybiga iqror bo‘lib borsa yaxshi bo‘lmasmikin? Axir, egilgan boshni qilich kesmas deyishadi-ku. Axir, odamlar ham shunday gunohi azim qilgan kishi qaytib biron gunoh qilishga qodir emasligini tushunishlari kerak-da. Shuning uchun u yana ko‘z oldida Andreyning soqoli patak bo‘lib, xaltaday osilgan yuzini, azob-uqubatdan qa‘riga tortgan tiyrak ko‘zlarini, yoy-dek bukilgan, kir-chir kiyimdagagi epchil gavdasini, yomg‘irdan so‘ng zax, qorong‘i, havosi taxir, diqqinafa qishlovn ni ko‘rib, his etib, alami yangilandi-da, titrab ketdi.

– Pechka yoqmaysan shekilli, a? – deb so‘radi u g‘azabini bosolmasdan.

– Bu yerda pechka yo‘q, – deb ohista javob berdi Andrey xotining avzoyini sezib.

Nastenani shunday qayg‘u-hasrat bosdiki, yuragi qonga to‘ldi, a’zoyi badani lattaday bo‘shashib, boshi lo‘q-lo‘q qila boshladi, u inqillab dedi:

– Andrey, balki keragi yo‘qdir, a? Bunaqa qilib yurmay, chiqqanimiz durustmidi? Men sen bilan qayoqqa bo‘lsa ham, dunyoning narigi chekkasiga desang ham ketaverardim, sen qayerda bo‘lsang, men ham o‘sha yerda bo‘lardim. Ammo bunday yurishga ortiq chidolmayman. Sen ham chidolmaysan, o‘zingga bir qara, qay ahvoldasan, o‘zingni o‘zing nima qilib qo‘yding? Otib tashlashadi, deb senga kim aytdi? Urush tugadi... axir, shunday ham o‘lib bo‘ldik-ku...

Nastena shosha-pisha gapirar ekan, Andreyning qiyofasi uzoqlashayotganini, ko‘zлari baqrayib, yuzi zaharxandalik bilan bujmayib ketayotganini ko‘rib turardi.

– Mendant qutulgинг kelib qoldimi? Xo‘sh, xo‘sh, mayli.

– Andrey! – Nastena qo‘rqib ketdi.

– Qutulasan, Nastena, qutulib qolasan, – u ovozini goh ko‘tarib, goh to‘xtab-to‘xtab, goh ovutuvchi bir ohangda pasaytirib davom etdi. – Gaping to‘g‘ri – tinkang qurib ketdi, qachongacha chidash mumkin, axir? Kishi o‘z izzat-hurmatini ham bilishi kerak. O‘zim tushunib olishim kerak edi. Qutulib qolarsan, Nastena, ammo sen o‘ylaganingdek emas. Sen bilan ketaveraman deyapsanmi? – u avvalgisidan ham battaroq yurakni siqib kuldida, ovozini balandlatdi: – Axir seni mening yonimga turg‘azib, otib tashlamasliklarini o‘zing ham bilasan-ku. Senga rahmlari keladi. Meni esa, otishadi. Senga hech bo‘lmasa qorningdagi bolang tufayli rahm qilishadi. Keyin, joningam, bir o‘zing ketaverasan, xohlagan yeringga, shu bilan vijdoning ham pok bo‘ladi. Ha, chakki emas.

– Bas qil, Andrey, bas qil deyapman senga. Shunday deyishga uyalmaysanmi, a?

– Men seni, Nastena, bu mashmashalardan o‘zim qutqaraman. Hademay, shu yaqin orada, ko‘p kuttirib qo‘ymayman. Men seni bir umr mana shunaqa sarson qilib qo‘ymoqchi emasman. Modomiki, gap shunda ekan, ertagayoq yoki istasang, hoziroq qutulasan. Angara yonginanda. Ko‘maman deb ovora bo‘lib ham yurmaysan. Arqoncham ham bor, ho‘muzlama paytida tegirmonga kiruvdim, o‘sha yerdan arqoncha topib oluvdim. Baquvvat – besh kishini ko‘taradi. Sening qayig‘ingdan sakrayman, sen esa, to cho‘kib ketgunimcha qarab turasan. Axir sen, baribir

Angaradan ketishing kerak-ku, meni esa yo'l-yo'lakay tashlab ketasan, yarim yo'lgacha senga qarashib, eshkagingni eshaman.

Nastena, go'yo o'zini himoya qilayotgandek qo'lini ko'ksiga bosib, eshitmaslik uchun boshini sarak-sarak qilib yalina boshladi:

— Meni nega buncha qiynaysan, nega? Men senga nima yomonlik qildim? Men shunisi ma'qulmikin deb o'ylagandim xolos... Axir, men seni yo'ldan urayotganim, gunohga boshlayotganim yo'q-ku, men o'zim ham bilmayman. Miyamga kelganini aytdim-qo'ydim-da. Sen bo'lsang, gapingni qara-ya? Nega unaqa deysan?

— Menga aql o'rgatmay qo'ya qol, o'zim bilaman. Men senga o'sha dastlabki kuniyoq dangal yo'q deb aytganman. Shuning uchun sen meni yo'limdan qaytarolmaysan, harakat qilmay qo'ya qol. Hech ish chiqmaydi! — Andrey baqirib, o'zini tutib turolmay, shunday qahr-g'azab bilan unga tashlandi-ki, Nastena esankirab qoldi. — Voy sendaqa mehribondan o'rgildim, yaxshilik qilmoqchi bo'libdilar-da. Bilaman, maqsading nima. Qanaqasiga gumdon qilish yo'lini topibs-san-da. Chamasi, kechasi bilan uxlamay, o'ylab chiqqanga o'xshaysan. Bundan durust yo'lini topolmabsan-da! Qo'l-oyog'imni bog'lashganida chivin chaqmasin, deb yana to'r ham topib kelibdi-ya. O'zim evini qilaman. To'ringsiz ham evini qilaman. Endi menga hech nima kerak emas, narsa tashiyverib juda qiynalib ketding. Bas, endi. Shuncha tashiganing ham yetar, dampingni ol. Endi bu yerda qorangi ko'rsatma, baribir meni ko'rolmaysan. Bu ham to'g'ri: xotingga boqim bo'lish — og'ir! Ammo senga yana eslatib qo'yay: mening shu yerdaligimni birovga aytsang, baribir topib olaman. O'lsam ham qo'lim yoqangda bo'ladi. Shuni unutma, Nastena!

Nastena erini gapdan to'xtatish, hovuridan tushirish maqsadida unga tomon qadam tashladi. Andrey jirkangandek, zumda afti buri-shib ketdi-da, boshini yelkasi ichiga tortdi.

— Menga qara, Andrey, — dedi u muloyimlik bilan iltijo qilib. — Menga qara. Yo'q, qaragin, yuzingni o'girma. Avval qaragin-u keyin o'sha sen aytgan odamga o'xshaymanmi-yo'qmi, aytgin. Tepangda xudo bor, Andrey, nimalarni valdirayapsan? Qani, ayt, o'xshaymanmi?

— Balki sendan uzr ham so'rashim kerakdir hali? Oyog'ingga bosh urib, seni bekorga ayblabman deyinmi? Yo boshqa muddaong bo'lsa, ayt, qilayin.

– Uzr so‘rashingning keragi yo‘q. Oyog‘ingga esa, o‘zim bosh uraman, faqat bunaqa dema. Aytgan gaplaringga ishonma, o‘zingni-o‘zing aldama. Mening ra'yimga qaramaydi, degan fikr miyangga qayoqdan kelib qoldi, o‘zi, a? Voy tavba, gapingni qara-yu, Andrey! Unday dema, qo‘y, keragi yo‘q... Sen yaxshilab qara, menga qara, men shunaqamanmiyo‘qmi? Nahotki ko‘rmayotgan bo‘lsang?

Keyin u ko‘zini Andreydan uzmay, yig‘lab yubormaslik uchun labini tishladi, o‘pkasi to‘lib, bostirib kelayotgan o‘krashdan o‘zini arang tutib, qalt-qalt titray boshladi.

– Demak, o‘zimga ishonmayin-u senga ishonay... Juda soz, – deb to‘ng‘illadi u gangib teskari qararkan. U hamma narsadan, atrofdagi barcha narsadan jahli chiqib, o‘rinsiz zarda qilardi.

Ular anchagacha churq etishmadi, nihoyat Nastena ketish uchun o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Andrey joyidan ham qimirlamadi, qanday turgan bo‘lsa, shunday turaverdi – kuzatgani chiqmadi.

Nastena bor-yo‘g‘i uch kungina chidab yurdi. Keyin imkoniyat tug‘ilishi bilan hech kimga hech nima demay, qayiqni suvga tushirdi-da, suzib ketdi, Andreyning shu yerdamiyo‘qligidan, tirik-o‘likligidan bexabar yurishga uning ortiq toqati qolmagandi. Shuning uchun kechasi qorong‘ida Nastena uning darchasini tiqillatganida Andrey chiqqach, quvonchdan o‘zini yo‘qotib bo‘yniga osilib oldi. Nastena Andreyning shu yerdaligini, tirikligini ko‘rib, butun dardalamini, qahr-g‘azabini unutgandi. Uchrashuvdan yig‘lab yuborishtiga sal qolgan Andrey uni erkalab o‘tirarkan, pushaymon qilardi, o‘zini ahmoq derdi, xafa bo‘lma, aytgan gaplarimga ishonma, agar sen kelmaganingda biron ta qayiq topardim-u seni poylab borardim, kechirim so‘rardim, dedi. Bu gaplardan battar iyib, erib ketgan Nastena shunday dedi:

– Agar sen o‘zingni biron nima qilsang, men ham o‘zimni bir balo qilaman, shuni bilib qo‘y.

## 20

Keyingi ishlarning hammasi xuddi tomdan tarasha tushganday ro‘y berdi-qo‘ydi.

Nastena shanba kuni mo‘rchani isitdi, eshiklarini yopdi, Semyonovnaning birinchi bo‘lib cho‘milmasligini bilgani uchun ulardan oldin mo‘rchaga ketdi. U endigina boshiga sovun surganida (Liza

Vologjina qayerdandir bir bo'lak qorasovun topib, o'shaning yarmini unga bergen edi) kimdir kelib, dahlizda yechina boshladi; Nastena tаниш ihrash-sihrashdan qaynonasi ekanini bilgach, turgan yerida qotib qoldi. Nastena Semyonovna kirishi bilan men yuvinib bo'ldim deb chiqib ketish uchun naridan-beri boshini chayib olishga shoshildi, ammo keyin o'ylab ko'rib, bu niyatidan qaytdi: modomiki qaynonasi bir o'zi kelibdimi, demak, uni baribir ketkazmaydi. Yo'q, endi boshga tushganini ko'z ko'rар. Bu kampiri tushmagur nega keldiykin-a, axir sira birga yuvinishmas edi-ku! Aksiga olib, xuddi bilganday-a, axir unga bu yerda hech kimning ko'zi uchib turmagandi-ku. Balki, chindan ham ataylab kelgandir, chindan ham bilgandir: ilgari zimdan kuzatib yurgan bo'lsa, poylab kelib tekshirib ko'rmoqchi bo'lgandir. Agar shunaqa bo'lsa, hozir zo'r tomosha bo'ladi-da. Nastena mo'rchaning burchagiga bordi-da, shayka<sup>1</sup> bilan o'zini to'sib, qornini ichiga tortishga urinib ko'rди – do'ppayib chiqib turgandan keyin uni qayoqqayam tortarding-u qanaqasiga ham yashirarding? Yuz qilsang ham ko'rинib turibdi, ko'rинib turibdi-ku, axir.

Ammo taajjublanadigan yeri shundaki, bu safar hamma ish sil-liqqina o'tib ketdi. Semyonovna yo hech nimani payqamadi, yo payqagan bo'lsa ham ishonmadi, uning sababini boshqa narsaga, kelinining qorin qo'yganiga yo'ydi, chog'i. Shunday bo'lsa ham cho'milishayotganda Nastena kampirning ikki-uch marta tikilib-tikilib qarab qo'yganini payqab qoldi, ana shunda u qornini ichiga shunchalik tortib, shunchalik qisinib-qimtindi-ki, kuchanishdan yonoqlari tortishib ketdi. Keyin, kiyinib tashqariga chiqqach, Nastena afsuslandi: yashirib nima qilardi? Juda qulay, ayni payti edi, aksincha, u o'zining bor go'zalligini ko'z-ko'z qilishi, agar so'rasa, bor deb aytishi kerak edi. Qolaversa, qaynonasi boshqa odamlardan emas, aynan undan, Nastenaning o'zidan eshitsa, qaytanga yaxshi bo'lardi. Har qalay qaynoq suv sepib yubormasdi-yu, ammo baqirib-chaqirardi, jig'ibiyron bo'lardi – mayli edi-da, ammo Nastena nihoyat uzzukun kutib yurishdan, tashvishdan qutulardi-ko'yardi, axir bu qancha cho'zilsa, shunchalik dahshatli, chidab bo'lmaydigan qo'rquvga aylanib boryapti-ku.

<sup>1</sup> Shayka – yog'och yoki metalldan ishlangan tog'oraga o'xshash idish (*Tarj. izohi*).

Ammo mo‘rchaga tushishning oqibati Nastena uchun har qalay yaxshi bo‘lmadi. Shundan keyin Semyonovna uni qandaydir ko‘zini qisib, zimdan zehn solib kuzatib yuradigan bo‘lib qoldi, uning bu qilig‘i yaxshilikdan darak bermasligini Nastena bilardi. Demak, kampir bir nimani payqabdi, bo‘lmasa bunaqa qilmasdi. Qaynona astoy-dil kelinining payiga tushgandi: kampir bir kunda yigirma martalab qaqqayib turib olardi-da, qayerga ko‘z tashlayotganini ham yashir-may,unga zehn solardi. Nastena esa, bekinardi yoki qisinib-qimtinib yoni bilan lip etib o‘tib ketardi, yo bo‘lmasa qo‘li bilan qornini pana qilardi, Andreyning keng-mo‘l kamzulini kiyib o‘ranib olardi, yoki sal oldinga engashib, ko‘kragini chiqarib yurardi. Qorni esa, keyingi paytlarda oshgan xamirday ko‘tarilayotgandi, endi uni hech qanday quvlik, ayyorlik bilan yashirib bo‘lmasdi.

Bir kuni kechki payt, Nastena bilan Semyonovna yolg‘iz o‘zlar qolishdi, ikkovi ham ro‘zg‘or yumushi bilan – Nastena hovlidagi, Semyonovna esa uydagi yumushlar bilan g‘imirlab yurishganda Semyonovna, go‘yo Nastenaning qorni do‘ppayib qolganini birinchi marta ko‘rayotgandek, shartta so‘radi:

– Shen, kijalog‘im, homiladoy emashmishan? Nega bunchalik tayvayib ketding?

Nastenaning yuragi shuv etib ketdi: mana senga kerak bo‘lsa! Dard ustiga bu chipqonni ko‘r endi. Bo‘sh kelma, Nastena. Endi tonal olmaysan, yashirib yurolmaysan. Shuning uchun ham Nastena cho‘rt kesib, o‘sha ohangda javob berib qo‘ya qoldi:

– Homiladorman.

– Voy o‘lay! – dedi cho‘zib Semyonovna, u hatto shubhasi bez jiz emasligidan quvongandek ko‘rindi va nogahon dardchil oyoqlari bilan g‘izillab uning oldiga keldi-da, joni chiqib ketayotgandek bo‘g‘ilib, nafasi tiqilib, baqirib yubordi, u anchagacha bir og‘iz ham gapirolmay faqat boshini silkitdi.

– Kanshig‘! – deb qichqirdi u keyin, shuning uchun Nastena bu «qanjiq» ekanini darrov tushuna olmadi. Ilgari qaynonasi sira koyimasdi. – Kanshig‘! Voy sho‘-o‘-yi-im! – u boshini changallab, uvvos solib yig‘lashga tushdi. – Ana shaymandalig-u mana shayandalik! Ey xudo! Mukaddash Bibi Mayyam! O‘jing – jashoshini bey, tuygan yeyida jashola. O‘ynashibdi. Kutib tuyolmapti! Tag‘in mik etmay yuyganini-ya bu kanshig‘ni!

Andyushkaning kelishiga bu manjalaki tug‘ib o‘tiyadi... shaym-hayong kani sheni? Oy-nomushing kani, nima kilding uni? Kani endi ichingdagi bola bo‘lmay, kuyt-kumushka bo‘lsha edi! Kani endi biy umy tug‘mashang edi! Kanday yaxshi bo‘laydi-ya, qanday yaxshi bo‘laydi-ya! – Semyonovna o‘z qarg‘ishlaridan o‘zi qo‘rqib ketdi-da, to‘xtadi, tomog‘iga bir nima tiqilgandek yo‘taldi va so‘nggi umid bilan so‘radi: – Balki yolg‘on gapiyayotgandiyan-a? Balki hech nima yo‘kdiy?

– Bor, – dedi Nastena yurak yutib nochor, u bundan boshqacha javob berish mumkin emasligini bilardi, shuning uchun beixtiyor qornini do‘ppaytirib oldinga chiqardi.

– Boy emish-a, – Semyonovna ixrab-sihradi. – Boy deydi-ya. Go‘yo shunaka bo‘lishi keyakdyay. Shaym-xayoshi kolmabdi – yo‘q. Mabodo mushuk emashmishan? Shaymanda, hayoshish mushuk emashmishan o‘shi? – U xuddi mushukka baqirgandek qo‘li bilan eshikni ko‘rsatib qichqirdi: – Pisht! Ket uydan, shaymarda! Naxsh boshgan tuykingni ko‘ymayin bu yeyda. Hojiyoq tuyog‘ingni shikilat! Kaeyda oyttiygan bo‘lshang, o‘sha yeyga jo‘na. Andyushka kelsa, bij unga nima deymij? Kimni olib yuyibmiz-a? Ishnodga kolib, kimni allada ajij qilib yuyibmij-a? Axiy, kishlokda hamma biladi-ku, kishloqdagilay, biladi-ku, ey xudoyim! Men, shen kijni, o‘sha kelgan kuningdayok yajm sholib, bilib oluvdim, kanakaligingni dayyov paykovdim. Mana, o‘ynashding-u oyttiyib kelding! Nimani kutib tuyibshan, otashkuyak bilan tushirib kolmashimdan jo‘nab kol. Bu yeydan koyangni o‘chiy!

Nastena egnidagi kiyim bilan tashqariga chiqdī. Zinada chelakni oldi, bu chelakda buzoqqa atala olib borib bergandi-yu, shoshilinchda esidan chiqarib zinada qoldirgandi, u chelakni eltilib o‘rindiqqa qo‘ydi. Uy ichidan kampirning shang‘illab qarg‘ashi eshitilib turardi; Nastena bu qarg‘ishlar o‘ziga tegishli ekanini, chindan ham uni uydan haydaganlariga go‘yo tushunolmay, ishonmay birpas turdi, keyin nimagadir imirsilab, nimanidir kutib, bo‘shashibgina darvoza eshigini ochdi. Nariroqdagι maydonda bolalar oshiq o‘ynashayotgandi, Rodka ham o‘shalar ichida edi. Nastena undan oying uydami deb so‘radi, u ham uyda bo‘lsa kerak, deb javob berdi. Boshqa boradigan joyi bo‘Imagani uchun Nastena Nadkanikiga ketdi.

U Semyonovnadan xafa bo‘lmadi, rost-da, undan nima uchun, nimasidan ham xafa bo‘lardi? Shunaqa bo‘lishi turgan gap edi. Ammo Nastena oxirgi daqiqagacha ham o‘zini gunohsiz deb ishonar va modomiki aybim bo‘lmasa, haq joyida qaror topadi-yu, meni bunday jazodan saqlab qoladi, deb yurar edi. Nastenaadolat ham qidirgani yo‘q – hozir nimaadolatli-yu, nimaadolatsizligini ham tushunib bo‘lmasdi, uning o‘zi ham ko‘pdan beri ikki jahon ovorasi bo‘lib yuribdi, ammo aslini olganda qaynonasi ozgina achinsa bo‘lardi, indamay yurib, bola bo‘lib qolganini fahmladi-yu, to‘polon ko‘tardi, axir bu bola unga begona emas-ku. Nahotki, o‘z qoni qulog‘iga pi-chir etib qo‘ymagan yoki yuragini bir jiz etkazmagan bo‘lsa. Unda odamlardan nima umid? Mana o‘sha chipqon, ko‘pdan beri yiring bog‘lab, uning sabr-toqatini bitirdi, sillasini quritdi-yu, nihoyat yorildi, endi bu yaraga qo‘yadigan hech qanday malham yo‘q. O‘zini o‘zi avrab yurgan bilan biron naf ko‘rarmidi, faqat chidash kerak, keyin hammasi ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, deb tasalli topishdan boshqa nima bor? Xo‘s, keyin qanday yaxshi kunlar keladi? Yo‘q, kutishdan foyda yo‘q.

Nastenaning ko‘ngli shu cho‘kkanicha cho‘kdi-yu, qaytib ko‘tarilmadi, yuragi noma‘lum bir joydan zaifgina tepib turardi. Yoki u ichidagi bolasining yuragi bilan yashayotganmikin? O‘zi bilan uning zarracha ishi yo‘q edi, faqat uni, bolani qutqarib qolsa, boshiga tushgan qayg‘u-kulfatdan nobud qilib qo‘ymasa, yorug‘ olam yuzini ko‘radigan vaqt-soati yetguncha eson-omon ko‘tarib yursa, bas edi. Ehtimol, odamlar bolani ko‘rgach, rahmlari kelar, uni hozir o‘z uydandan haydab chiqarishgandek quvib solishmas, malomat qilishmas, axir. Bu yerda sakkiz yil umri o‘tdi. Shunday bo‘lganiga xafa emas, yo‘q, xafa emas, faqat uyatli bo‘ldi; u o‘zidan sira uyalmaydi, o‘z yo‘lini biladi, bu yo‘lga ko‘nikib qolgan, faqat shunday voqeal yuz berdiki, bu yo‘l tunash uchun odamlardan boshpana so‘rash darajasi-ga olib keldi. Uning boshqa biron yerga ketishi mumkin emas, qo‘loyog‘i ikki qavat qilib bog‘lab qo‘yilgan, qolaversa boradigan yeri ham yo‘q. Yolg‘iz o‘zi, butunlay yolg‘iz.

U Nadkanikiga keldi-da, butun og‘irligi bilan, eshik kesakisiga suyandi, to uy egasi kir demagunicha ostona hatlashga yuragi dov bermadi. Kim bilsin, ehtimol, Nadka ham uyiga kiritmas. Endi har bir odamni boshqatdan bilib olish kerak; odamlar ko‘rishga odatlanib

qolgan yeringdan jilishing bilan darrov senga nisbatan o'zgarib qoladi, seni boshqacha nom bilan chaqirishdan toymaydi. Nadka bozillagan pechka oldida ivirsib yurarkan, so'radi:

– Nega serrayib turibsan?

– Uch-to'rt kun uyingda turishga yo'q demaysanmi? – cho'zib, chaynalib o'tirishga toqati qolmagan Nastena gapni shunday boshladi.

– Kimga, sengami?

– Menga.

Qo'l siltamoqchi bo'lgan Nadka diqqat bilan unga razm soldi.

– Nima gap o'zi?

– Haydab yuborishdi.

– Seni-ya?

Nastena qornini ko'rsatdi.

– Ko'ryapsanmi?

– Voy-voy-y-y, – dedi Nadka o'ziga xos bo'lman ovoz bilan va oh-voh qildi: – Rostdanmi? Uni qayoqdan orttirding? Shoshmay tur, shoshmay tur, – Nadka g'izillab uning oldiga keldi, uni yog'och karavotga o'tqazdi, o'zi esa engashib ro'parasiga turdi. – Bu yorug' olamda nimalar bo'lyapti o'zi? Ha, mana man deb turibdi. Hech kim, hech nima... Kimdan orttirding, a? Boplab qo'yibsan-ku? Alomat ish bo'pti-da o'ziyam! Boshing baloga opti! Sen ham o'zingga yetganchasan! Seni kim yo'ldan urdi?

– Arvoh, – dedi Nastena. U birov biron nimani so'rab-surishtirib, jonidan bezor qilmasligi, o'z holiga qo'yishlari uchun hech nimani ayamasdi. Me'daga tegib ketgandi.

– Arvoh bo'lsa bordir, – dedi Nadka uning yoniga kelib. – Odamning bilgisi keladi-da, axir. Agar sir bo'lsa, aytmay qo'ya qol. Bilişimcha, atrofingda bironta ham erkak aylanishmagan edi, shekilli. Yo'q, sen menga gapni aylantirmay, po'skallasini ayt. Bordi-yu, o'sha arvohni o'zim surishtirib tagiga yetsam-chi?

– Yetolmaysan, Nadka, – Nastena faqat shu Nadkaga aytsa bas, boshqa birovga tushuntirib yurishga hojat qolmasligiga aqli yetdi-yu, aytishga jazm etdi. Qanday jirkanchli-a, ammo na chora, bir nima deyish kerak-ku. Bu uning birinchi ham, oxirgi ham gunohi bo'lmasa kerak. – Hu anavi kelgan vakil esingdami? – so'radi u. – Kelib obligatsiyaga yozdirgan edi-ku...

– Xo‘sh?

– Mana senga xo‘sh! – Nastenaning jahli chiqdi. – Chanani qo‘sib ketdik, keyin... orttirib keldim. Epchil odamga gap ekanmi?

– Hech gapmas, hech gapmas, bilaman, – Nadka shosha-pisha uning gapiga qo‘sildi. – Birpaslik ish-u keyin jazoingni tortib yu-raverasan. Obbo Nastena-yey! O‘zingni shunday yuvosh, qobil qilib ko‘rsatarding-a, birov gapisra, qizarib ketarding-a. Mana senga yuvosh odam. Xo‘sh, endi nima qilmoqchisan? Bordi-yu, Andrey kelib qolsa-chi? U o‘ldiradi-ku, axir seni.

– O‘ldirsa-o‘ldirar. Nega hadeb nima qilasan deb so‘rayverasan? Men qayoqdan bilay?! Undan ko‘ra ayt, uyingda uch-to‘rt kun tur-sam bo‘ladimi-yo‘qmi? Qo‘yananmi-yo‘qmi?

– Ha, tursang-turaver, qayoqqayam borarding? Biron gap bo‘lsa, birlashib o‘zimizni ximoya qilamiz. Kampir senga achinmaydi, al-batta. Hozir uning ko‘ziga baloday ko‘rinasan. Haromi nabira tug‘ib berasan-u yaxshi ko‘rinarmiding, – Nadka chidab turolmay hihilab kului. – Erta-yu kech sendan ko‘z-qulqoq bo‘lib yurardi. E, xotin ki-shini poylab eplab bo‘larkanmi? Xotin kishi boshqalar u yoqda tursin, o‘zini-o‘zi aldaydi-yu. Mana, kim seni shunaqa deb o‘ylabdi? Obbo Nastena-yey! Juda qaltissan-da, qaltis, hali ko‘p azob chekasan. Hech-qisi yo‘q, birgalashib azob chekamiz. Men o‘rganib qolganman. Sen ikki qo‘lingni burningga tiqib kelavergan bo‘lsang kerak, a? Hech nima olmadingmi? Borib narsalarigni yig‘ishtirib kelaymi, a?

– Keragi yo‘q. Keyin o‘zim olib kelarman.

– O‘zim emish. O‘zim-o‘zim deb yetib kelgan yering shu bo‘ldi-ku. E, g‘am yema, g‘am yema, bir kuning bo‘lsa, o‘tadi. Bundan besh battarlari ham bo‘lgan. Qadimda it bo‘ri bilan yashagan ekan. Bir ku-nimizni ko‘rarmiz. Shuning uchun ham nomimiz xotin-da. Yo‘q, sen avval tug‘ib ol, tug‘ib ol, u yog‘ini o‘shanda ko‘ramiz. Uning ismi nima?

– Kimni?

– Kimni emish... Yana kimni bo‘lardi? Anaviningni, seni zayom-ga yozgan odamni? Juda uddaburro ekan! Hech bo‘lmasa ismini so‘raganmiding?

– Yo‘q.

– Ismini so‘ramovdingmi? Tentaksan, Nastena. Axir bola kim-ningdir nomiga o‘tishi kerak-ku. Tug‘ib ko‘rmagansan-da, bil-

maysan. Axir guvohnomaga otasining ismini yozish kerak, u yerda so'rashadi-ku. Ha, qo'yaver, topamiz. Ish shunga borib taqalsa, bolangga eng yaxshi ota topib beramiz.

Nadka yana anchagacha oh-voh qildi-yu, lip etib o'zini tashqa-riga urdi. Baribir qishloq xabar topadi – birinchi bo'lib gap tarqatish imkoniyatini qo'ldan chiqarib bo'larkanmi? Nastena esa yolg'iz qolgach, o'zini karavotga tashladi, ko'zlarini yumdi, nafasi tiqilib, tomog'i jizillab achishtirardi. U yig'lagisi keldi – cheksiz, bema'ni dard-alamlarga to'lib qolgan ichini bo'shatib olish uchun ho'ngrab yig'lagisi kelardi-yu, ammo ko'z yoshlari bolaga ziyon yetkazishidan qo'rqardi. U anchagacha a'zoyi badani tortishib ingrab, karavotda o'zini u yoqdan-bu yoqqa tashlab to'lg'anib yotdi – goh turib o'tirdi, goh yana yotib oldi, ammo zarrachalik yengil tortmadi, tinchimadi, azob chekkan ko'ngli orom topmadi.

Allamahalda Mixeich keldi. Rodka orqali Nastenani g'ov oldiga chaqirtirdi. U serko'z, bolta bilan o'ydim-chuqur qilingan to'nkaga o'tirdi. Nastena g'ov oldida turaverdi. U oyog'ida arang turardi-yu, ammo bir joyda tek o'tira olmasdi, tik turganda esa og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga solishi, qimirlashi mumkin edi, qimirlamaslik uni ezib yuborayotgandi. Mixeich g'adir-budir, titroq barmoqlari bilan trubkasiga tamaki bosdi, ancha ovora bo'lib, chaqmoqtosh bilan yondirib chekdi. U tutunni yutdi-yu, tiqilib, yo'taldi, teskari o'girilib, yerga engashdi, ichagi uzilgudek bo'lib uzoq yo'taldi, anchadan ke Yingina nafasini rostladi. Nastena kutib turardi. Mixeich nafasini rostlagach, tinchlanish uchun yana bir necha marta tortdi, yoshtagani ko'zlarini Nastenaga tikdi va horg'inlik bilan, xiyol po'pisa qilib gap boshladi:

– U shu yerda, Nastena. Yo'q, dema, bilaman. Hech kimga og'iz ochma, faqat o'zimga ayt. Ayta qol, Nastena, menga rahming kelsin. Axir men otasiman-ku.

Nastena boshini sarak-sarak qildi.

– Ayta qol, umrimning oxirida bir martagina ko'rib qolay. Xudo haqi, yolvoraman, Nastena, ayta qol. Agar mendan yashirsang, xudo ham kechirmaydi seni... Men undan nimadan umid qilayotganini so'rayman, xolos. Xo'sh, u senga aytmadimi? Ajdodimizda har xil odamlar o'tgan, ammo birontasi bunchalik... Ablahlik qilibdi-qilibdi, mayli. O'zini-o'zi rasvo qilibdi... Bizni yuzlashtir, Nastena, – deb

talab qildi u deyarli dag‘dag‘a bilan. – Xudo haqi, iltijo qilaman, yuzlashtir. Butunlay murdor bo‘lmasidan uni qaytarish kerak. O‘zing ko‘rib turibsan, bundan ortiq o‘y়ashib bo‘lmaydi. Shunisi ham yetar. Menga rahming kelsin, Nastena, yordam ber. O‘zing ham yengil tortasan.

Uning yalinib-yolborishlaridan iyib, xayolga cho‘mib qolgan Nastena yana boshini chayqadi:

– Nimalar deyapsiz, dada? Men sizga nimani aytay, axir. Aytadigan gapning o‘zi yo‘q. Hech kim yo‘q, o‘zingiz o‘ylab chiqargansiz. Yo‘q, axir.

– Yolg‘on gapirma, Nastena, – Mixeich o‘rnidan turdi va trubkasini oyog‘iga urib qo‘ydi. – Kimga yolg‘on gapiryapsan? Men sen bilan yaxshilikchasiga gaplashmoqchiydim. Anavi, qorningdagi o‘shandan-ku, axir! Yo‘qsa kimdan?! Xuddi men seni bilmaganday-a, sening qanaqaligingni men bilmas ekanmanmi?! Sen uydagi kampirga, boshqa ayollarga aytgin bu gapingni, ammo menga emas. Mil-tiqni ham o‘shanga eltib bergansan, boshqa ko‘p narsalarni ham o‘shanga tashiding. Mana, senga isboti, – u trubkasini Nastenaning qorniga tegizay dedi-yu, yana tortib oldi. – Buni qanaqasiga yashirasان? Qanaqasiga? Men sendan so‘rayapman!

Nastena garchi aytmasligi lozimligini tushunsa ham, ammo boshqa gap topolmay, ortiq nima deyishini bilmay, tezroq gapni bo‘lish, tugatishga, tezroq ketib, borib, yana o‘zini karavotga tashlashga harakat qilarkan, soxta, kurakda turmaydigan, jirkanch vaj ko‘rsatdi:

– Andreyingiz bilan to‘rt yil birga yashadim, hech nima bo‘lmadi. Siz esa, mana dalili deysiz.

Mixeich taxta bo‘lib qoldi, keliniga tikilarkan, qo‘rqib ko‘zlarini pirpiratdi va burilib, darvoza tomon og‘ir qadam tashladi. Shu payt, chamasi, kimdir ko‘chadan o‘tib qoldi; Mixeich darvozachani ochdi, ortiga bir siltandi-yu, ammo o‘zini majburlab chiqib ketdi.

## 21

Nastena to Nadka va bolalari tinchiguncha kutib, allamahalgacha o‘zini uxlaganga solib yotdi, bitta-yarimtasi uyg‘oq bo‘lsa-ya, degan andisha bilan yana picha tishini-tishiga qo‘yib chidadi, shundan keyingina u ohista o‘rnidan turdi, ko‘ylagi, fufaykasi va boshmog‘ini qo‘liga oldi-da, oyoq uchida yurib, uydan chiqdi. U yalangdevor

ostidagi pillapoyada kiyinib oldi. Kiyinib olgan, ammo bosh yalang Nastena yuqorigi zinada sal ikkilanib, shu o'ylagan ishimni qil-sammikin-qilmasammikin, yo hech qayoqqa jilmasdan, yana kirib o'rninga yotsam-u nihoyat barini taqdirlga tashlab qo'yib, oz bo'lsa ham bir uqlab olsam, yaxshi emasmikin, deb o'ylanib qoldi.

Tun vahimali edi – salqin, jimjit, haddan tashqari qop-qorong'i edi. O'tgan kuni kechasi yomg'ir yog'di, ertalab ham o'qtin-o'qtin yirik-yirik tomchilab turdi, bulutlar tashlagan so'nggi tomchilar xuddi shamol daraxtlarni silkitganda sachrab ketadigan tomchilarga o'xshardi, ammo qaytib yomg'ir yog'magan bo'lsa ham kun bo'yi havo qovog'ini solib, tundlashib turdi, hozir esa qorong'ilik battar quyuqlashib ketganga o'xshardi. Qop-qorong'i tunda imoratlar deyarli ko'rinnasdi, shu yaqin-o'rtadagi uylarni ko'rish, hatto ko'rish uchun ham emas, shunchaki qaysi uy qayerda turganini bilib qo'yish uchun ham astoydil tikilib, ko'zni yirib-yirtib qarashga to'g'ri kelardi. Og'irlashgan osmon shunchalik past osilgandiki, uning yerdagiga qaraganda boshqacharoq salqini, havoning qandaydir boshqacha, aylanib-buralib o'tayotgani sezilib turardi. Agar qorong'ilikning bunalik quyuq, vahimali ekanligidan Nastena qo'rqnaganida-ku, tun bekinish uchun ayni muddao edi-ya, u yerda, Angarada tun bundan battar qo'rqninchli bo'ladi.

Nastena pillapoyadan qo'zg'alganida Angaraga borishni o'ylab qo'ygandi, kechasi, ayniqsa havo aynigan paytlarda u odamlardan berkinib yurib, ko'pdan beri faqat bir yo'lni bilib olgandi. Nastena biron nimaga qoqilib ketmaslik, biron yerini mayib qilib olmaslik uchun mayda, tez-tez qadam bosib, buzoqxona orqali uch kun burun o'ziniki deb yurgan mo'rchaga o'tdi va paypaslanib, kurak bilan xodachani topdi. Nastena bir qo'l bilan ishlaydigan eshkakka tegmadi, uni qanday ishlatishni u hali tuzukkina o'rganib olmagandi. Nastena endi, Guskovlarnikidan ketganidan beri Mixeichning qayig'idan so'roqsiz foydalanish o'g'irlikka o'xshardi, ammo uning boshqa iloji yo'q edi. Butunlay begona odamlarnikini olib bo'ladimi, axir? Ular ayab o'tirishmaydi. Boshiga tushgan shu savdolar ham unga yetib-ortadi. Xuddi uning qo'rqqanini sezganday, qishloq o'rtasida nima sababdandir bir it to'satdan vovillab qoldi, unga boshqasi ham qo'shildi – Nastena qo'rqib ketdi-da, yuragi gup-gup urib, itlarning tinchishini kutib, g'ov yoniga cho'nqaydi. Bugun u hamma

narsadan: unga juda qo'l kelgan qorong'ilikdan ham, har qachongiga qaraganda jimjit, tiq etgan tovush eshitiladigan sokinlikdan ham, manavi bekordan-bekorga hurigan itning akillashidan ham – ammo tezgina ovozi o'chib qoldi – qo'rqardi, bularning hammasida unga qandaydir bir g'araz, hiyla-makr, yomonlik alomati bordek tuyulardi. Nastena ohista, naq emaklaguday bo'lib, har qadamda engashib, qulqoq solib, jarlik ostiga tushdi, ammo toshloqda oyog'i ostidagi shag'alning g'ijirlashi qulog'ini qomatga keltirayotganday bo'ldi, suvga itarilayotgan shitikning shiqir-shiqiri ham qattiq, kar qiladiganday eshitilardi. Nastena qayiqni suvga surib, ichiga oshib tushidda, engashib tek o'tirib qoldi, oqim shitikni qishloq orqasiga qarab olib ketdi.

Bu yerda, Angarada tun u qadar zim-ziyo emasdi; daryodan, suv ichidan xira yorug'lik miltirab ko'tarilib turardi, suv go'yo buralib, pastga tushib ketganday shu yorug'likda yiltirab g'oyib bo'lardi. Undan yuqoriroqdagi xira nur chizig'i ustida boshqa, undan ham xiraroq, qayoqdan paydo bo'layotgani ma'lum bo'lмаган заиф, taram-taram yorug'lik ko'rinardi; undan u yog'i esa zim-ziyo edi. Nastena ko'z yogurtirib, oq bakenning chirog'ini qidirib topdi, bu Nastena Matvey buvaga qarashib o'rnatgan bakenning ikkinchisi edi, shuning uchun Nastena bakenning shu yerdaligidan, g'oyib bo'lмаганидан, o'chib qolmaganidan, yo'qolib ketmaganidan sal yengil tortdi. Suvning shovqini sayoz yerda kechasi bo'g'iqroq, pastroqday edi, ammo sho'x, o'ynoqlab bir maromda shildirardi, suvning mayin shildirashi hozir juda yaxshi eshitilardi. Subhidam shabadasi o'qtin-o'qtin aylanib, gur-gur esardi-da, yana susayib qolardi...

Endi eshkaklarni ishlatsa bo'lardi, qanchalik zim-ziyo bo'lmasin, yoz tuni baribir qisqa. Nastena avvaliga tong otmasdan qayiqni joyiga eltid qo'yishni mo'ljallagandi, ammo endi ulgurmasligini tu-shundi. O'rnida uzoq cho'zilib yotdi, pillapoyada ancha o'tirdi, xiy-lagina eshkak eshmadi, suv oqizdirishini kutib tek o'tirdi, vaqt esa kutib turmad. Kun yorishganda ham qaytib borsa yomon bo'lmaydi, ammo o'shanda ham to odamlar o'rinalidan turib daryoga chiqqunlaricha borish kerak, hammaning ko'zi oldida borib qayiqdan tush-sang, ortiqcha gap-so'zga, g'iybatga bahona topib berasan. Ehtimol, bu oxirgi marta kelishidir, bundan keyin kerak bo'lmas ham. Bundan bu yog'iga tavakkal qilib bo'lmaydi – shunisi ham kifoya. Chamasi

u, Nastena, shusiz ham qayerdadir, qachonlardir bir yanglishganga o'xshaydi, biron nimani keragidan ortiqcha ko'rsatib qo'ygan shekilli – lekin qayerda, qachon, nimani? Endi surishtirib o'tirishning nima keragi bor? Bundan hech ish chiqmaydi. Ishqilib Andreyni ogohlantirishga, u bilan gapni bir yerga qo'yishga ulgursa bo'ldi, keyin nima bo'lsa bo'lar. U o'zini shunday qattiq charchagan, jonida jon qolmagan his etdiki, nariroqqacha kayiqni haydab borgach, eshkakni qo'yib, cho'zilishni, ko'zlarini yumishni istardi – mayli, qayoqqa oqizdirib ketsa ketaversin, bundan battari bo'lmaydi.

Semyonovna uydan haydab chiqargandan beri oradan uch kun o'tgan bo'lsa ham Nastena hamon qayerdadir odamlar orasida yashayotganiga, ilgarigidek o'z xonasiga o'tib, kiyimini almashtirishiga, yog'och karavotiga o'tirib, yotish oldidan iymanib qornini silashi mumkin emasligiga sira ishongisi kelmasdi. Endi, homiladorligini yashirib yurishning hojati qolmagandan keyin, uning siri oshkor bo'lib, erinmagan har qanday odam xuddi shirin narsani ichib, huzur qilgandek, ko'zini lo'q qilib turadigan bo'lgandan so'ng, uning borlig'ini to'ldirib, hayajonga solib, titratib turgan sezgir his-tuyg'usi ich-etini kemirishga tushgach, bolaga mehri ham osha boshladi. Unda qo'rquvdan bo'lak narsa qolmadni: nima bo'larkin? Uzzukun odamlarning aybsitib, teshib yuborgudek bo'lib tikilishlariga ham chidash oson emas-da, axir qarashganda ham sinchkovlik, shubha, nafrat bilan qaraydilar; Nastena boshiga tushgan bu ishlar haqiqat ekanini tushunishga qodir bo'lmanidek, boshqalar ham bu o'sha o'zları bilgan Nastena ekaniga ishona olmasdilar va har safar Andrey shu yerdamikin, qorni puchayib qolmadimikin, g'oyib bo'lmadimikin deb, mish-mishlarning dalilini qidirishardi. Hech kim, bironta odam ham, hatto tengquri Liza Vologjina ham loaqlal, qo'yaver, bardam bo'l, gap-so'zlarga qulqoq solma, tug'adigan bolang o'zingniki, birovnniki emas, shuning uchun avaylashing kerak, odamlar esa, vaqt ke-lib, tinchib qoladi, deb ko'nglini ko'tarib qo'ymadi. Agar sal oy-kuni to'g'ri kelganda-ku, Liza ham Maksim unikiga kirib-chiqib yurmagannikin, deb shubhalanib o'qrayib yurardi-ya. Balki endi o'ylanib qolgandir, hisoblab chiqqandir – kim biladi deysiz? Anavi Katerina, Nestorning xotini ozmuncha jahli chiqib, olayib, sasib yurdimi, axir uning oldiga borib, o'zingni bos, bunga sening Nestoringning hech qanday aloqasi yo'q, deb tushuntirolmaysan-ku. Har kim ham

Nastenaning vakil to‘g‘risidagi cho‘pchagiga ishonmasdi – shunaqa bo‘lishi turgan gap edi, ammo Nastena bu vaj-karsondan sira yengil tortmasdi. Xotin-xalajlar mayli, ularga-ku bir yo‘lini qilar, u xotin-xalajlar oldida gunohkor emasligini, loaqal ular bunga taqishgan aybni qilmaganligini bilar edi, shuning uchun Nastena ularga uyalmay-netmay qarardi: ammo haqiqatga yaqinroq gapga shama qilishganidan noqulay ahvolga tushib qolardi. Nastenaning gunohi ma‘lum bo‘lgan kuni birinchi uchrashuvdayoq Innakentiy Ivanovich ayyor, sulloh ko‘zlarini qisib, tushunaman deganday bosh chayqab, azmoyish olib dedi:

– Menga qara, hoy xotin, seni bunaqa medal bilan kim taqdirlaganini hali aniqlash kerak. To‘g‘rimi?

U shunday dedi-yu, butun vujudi ko‘z-qulloqa aylanib, biron yeri qilt etarmikin, sezdirib qo‘ymasmikin, tasodifan og‘zidan gullab qolmasmikin, deganday unga tikildi.

– Aniqlayvering, surishtiravering, Iinakentiy Ivanovich, – dedi keyingi paytlarda unga tap tortmay muomala qila boshlagan Nastena.

– Ammo men hozircha bola Innakentiy Ivanovichga o‘xshaydi deb turaman.

– Tuf-e, tuf-e, maraz! – deb tupurdi Innakentiy Ivanovich va ketayotib dag‘dag‘a qildi: – Hechqisi yo‘q, aniqlaymiz, u kimga o‘xsharkin.

Bu gap Nastenaning o‘takasini yorib yubordi, endi nima qilishini u hatto tasavvur ham eta olmasdi. U umuman nima qilishi kerakligini zarracha ko‘z oldiga keltirolmashdi, tuzukroq o‘ylab ko‘rib, biron qarorga kelishga qodir emasdi: birinchi kuni Semyonovna qichqirganida u qanday karaxt bo‘lib qolgan bo‘lsa, bu karaxtlik hamon yozilmagandi. Atrofdagi barcha narsa ko‘ziga xunuk ko‘rinardi, begonadek, unga qarshi qaratilgandek tuyulardi, uning har bir qadamini ku-zatishayotgandek, ko‘ngliga kelgan har bir gapni bilib turishgandek bo‘lardi. U taxta bo‘lib qolmaslik, hushidan ayrilmaslik uchun qimirlab yurardi, ishga chiqardi, biron nimani so‘rashsa, bir nimalar derdi, ammo nimani gapirganini, nima ish qilganini, qayerga borganini darrov esidan chiqarib qo‘yardi. Kechalari u biron najot yo‘lini topolmay qolgan kezlarida achchiq dard-alamdan to‘lg‘onib deyarli uxlamasdi, kunduzi esa, erta bilan kechni ajratolmasdi va adashib, boshi aylanib, butunlay o‘ralashib qolgandi. Nadka uni goh stolga, goh

o'ringa, goh dalaga turtib olib borardi, baqirib-chaqirardi. Nastena nima talab etilsa, shuni bajarardi va itoatkorlik bilan harakat qilardi, yana avvalgidek karaxt bo'lib, tinkasi qurib, ro'parasiga shuursizlik bilan tikilib o'tiraverardi. U negadir yuragi orziqib, bugun-erta boshlanadigan pichan o'rimini kutardi: negadir u xushchaqchaq, ilgari jon-dilidan yaxshi ko'radigan o'rim davrida bir o'zgarish bo'lishiga, azob-uqubatli, o'ralib chigallashib ketgan ishlaridan qandaydir natija chiqishiga ishonardi. Bas-da, yana qancha chidash mumkin?!

U bugun Andreyning oldiga bormoqchi emasdi, ammo kecha kechqurun Nadka qaysi bir o'tirishdan keldi-yu, shunday dedi:

– Menga qara, Nastena, odamlar sening to'g'ringda nimalar deyishayotganini bilasanmi o'zi? Odamlar seni birovdan emas, o'z eridan homilador bo'lgan deyapti.

Nastenaning a'zoyi badanidan olov chiqib ketgandek bo'ldi.

– O'z erimdan qanday homilador bo'lar ekanman, a? – u o'zini zo'r lab hihiladi. – Axir, to'rt yil – homila uchun bu ko'plik qilmasmikan?

– Menimcha, Innakentiy Ivanovich tusmol bilan shunaqa deyapti shekilli. Hamma gap o'shandan chiqyapti, chamamda, – deb tushuntirdi Nadka. – Bu aljigan chol sira tinch yurmadi-yurmadi-da. O'ziku xotinlarga asqotmaydi. Shuning uchun biron qiziqroq gap topib, odamlarning boshini aylantirib yuribdi-da.

– Erimdan bo'lsa, erimdandir-da, – dedi Nastena nima desanglar deyaveringlar, menga nima, demoqchi bo'lgandek uning fikriga qo'shibil.

Shunday dedi-yu, ammo Nastenaning yuragi orqasiga tortib ketdi: tagiga yetadi, bu iskovich, tagiga yetadi. Bu yorug' olamda Innakentiy Ivanovichga o'xshagan odam yo'q. Bir iziga tushdimi, bo'ldi, to tagiga yetmaguncha kavlashтирaveradi, qo'y maydi. Ha, rayonga boradi, vakilni qidirib topadi-da, unga hademay Atamanovkadagi o'ynashing tug'ib beradi, deb shama qiladi. U esa, turgan gap, tonadi, g'azablanadi, ana shundan keyin gap katta bo'ladi. Yo'q, Andrey ketishi kerak – qayoqqa bo'lsa ham, qaysi tomonga bo'lsa ham mayli, ammo ketishi kerak. Yoki kelib taslim bo'lishi kerak: o'z ixtiyori bilan bo'lsa, shafqat qilishlari mumkin. Ey xudoyim-yey, kala va qanchalik chiyralib, chalkashib ketgan bo'lmasin, bir kun uchi chiqadi-da. Juda chakki ish qildi-da, juda chakki ish qildi... Nima

keragi bor edi! Bordi-yu, u biron yoqqa ketib, go'yo umuman yo'qdek umrbod gumdon bo'lib ketgandayam – Nastenaning o'zi ham nima istayotganini bilmay qolgandi! – baribir bola shundan keyin badnom bo'lib qolaveradi. Andrey esa, hammasidan ham, ishqilib, bolaning otasi urushdan juftakni rostlab qolgan bir qochoq edi, degan gapso'zlarga qolmasin, derdi. Keyin bu dog'ni hech nima bilan ketkazib bo'lmaydi; inson tabiat o'zi shunaqa, agar unga falonchi shayton dan tug'ilgan desang, u ishonadimi-ishonmaydimi, ammo har qalay u shaytonni esidan chiqarmaydi, hatto o'shandan, shaytondan bo'lgan deb yuzlab dalil-isbot topadi. Demak, tug'ilgan bola ham isnodga qolar ekan, keyin umrbod bu isnoddan qutulolmay yurar ekan. Yo'q, bundan ham hech ish chiqmas ekan, ularning o'ylaganlaridek chiqmas ekan. Ota-onaning dahshatli, ayanchli kasofati bolaga ham urar ekan – bu gunoh bilan u qayoqqa ham qochib qutulardi? Bola ham kechirmaydi, ota-onasidan domangir bo'lib yuraveradi – qilmishlari ga yarasha-da.

Zulmat, atrof shunchalik qop-qorong'i, zim-ziyoy! Osmon bor og'irligi bilan yelkasidan bosib turibdi; qirg'oqlar ham ko'rinxmaydi – faqat suv, bu suv to'xtamasdan istalgan paytda yoyilib, yana yig'ilaveradi. Bakenning miltillab turgan chirog'i yana yonarmikin, o'chib qolmadimikin – sira tushunib bo'lmaydi, goh yilt etib qoladi, goh yo'qoladi. Kechasi suvda ketayotganingda atrof juda befayz, ruhsiyoy bo'ladi, xuddi suv bosib ketgan eski qabristonga o'xshaydi, tomog'ing xuddi bo'rsigan taxir narsadan chaqa bo'lganday achi shib-qichishib turadi, yuraging ham orqaga tortib, noaniq unlardan yashirinib, bir burchakda qapishib turaveradi; nazaringda, ichingdan qandaydir bir ovoz chiqadi-yu, qandaydir bir mudhish haqiqatni aytganday bo'ladi, shundan keyin u yog'iga suzib borging ham kelmay qoladi.

Nastena eshkaklarni ohista, shaloplatmasdan suvgaga tushirdi va ularni ehtiyyotkorlik bilan o'ziga tortib, shitikni oldingga surdi. Nazarida, u jimgina suzib borayotgandek edi, har bir ovozga – daryo shovqiniga ham, boshqa tovushlarga ham, daryoning narigi tomonidagi sadolarga ham – hammasiga sezgirlik bilan kuloq solib, har ishga shay bo'lib borayotgandi. Shuning uchun qirg'oqda xuddi yog'ochni taxlashgandek qisqa bir to'q etgan ovoz eshitilganda, Nastena shu zahoti bu ovozni ilg'adi-yu, qotib qoldi. U shu ondayoq qayiqni toshloq-

dan suvgaga itarib tushirilayotgan paytda chiqadigan tanish g'ijirlashni eshitdi. Suv shalopladi, keyin hammayoq jim bo'lib qoldi, ammo ko'p o'tmay Nastenaning qulog'iga bir maromda eshilayotgan bir qo'lli eshkakning cho'lp-cho'lpi chalindi.

Shubhalanmasa ham bo'lardi: kimdir ketidan suzib kelyapti. Kimdir poylab, to Nastena sal nariga ketguncha kutib turgan-da, keyin ketidan yo'lga tushgan. Kim – Mixeichmi yoki boshqami? Jarlik ostida bir-biriga yaqin yana ikkita – Innakentyi Ivanovich bilan Agafya Somovaning qayig'i turuvdi – xohlaganini olsa bo'laverardi, yakkoviyam qulflanmagandi. Nastena qimir etmadni: suv uning shitigini burib surib ketdi, ikki tomondagi eshkaklar suvni tilib borardi. Undan u yog'iga borishni o'ylashning hojati qolmagandi: u eshitdimi, demak, uni ham eshitishadi. Mana, suzib ham bordi, ogohlantirib ham bo'ldi! Orqaga qaytish kerak. Mixeich bo'lsa-ku, mayli-ya, qo'rqinchli yeri yo'q, bordi-yu, boshqa odam bo'lsa-chi? Kim bo'lsa ham Nastena unga o'zini bildirib qo'ydi.

Nastenani yo'qtob qo'ygach, anavi qayiq ham jim bo'lib qoldi, keyin yana quyruqdagi eshkakning eshilgani eshitildi. Nastena o'sha qayiq ovoziga qarab eshkak eshib, qirg'oqqa chiqish kerakligini anglab qoldi. Sohil ancha olis edi, ammo Angaraning ancha quyi oqimida suv ichiga suqilib kirgan tepalik bor edi, o'sha yerda suv toshlarga urilib shovillab oqardi. Ishqilib o'sha yerga yetib olsa, bas – qo'rmasdan eshkak eshaverasan, taqillatmasang bo'lgani. Naryoqdagagi eshkakning bir tekis bilinar-bilinmas shilpillashi Nastenaning to'g'risiga keldi-da, yonidan o'tib ketdi, nariroq borib jim bo'ldi; Nastena o'zini sezdirib qo'yarmikin deb kutib turishdi, keyin hech nima eshitmagach, yana yo'llariga qarab ketishdi.

Nastenaning nazarida tong yorishayotganga o'xshadi; havoda xira, qo'ng'ir tusdagi taram-taram yorug'lik paydo bo'ldi. Tongga yaqin sovuq tushib, shabada kuchaydi-da, orqadan esa boshladi, shitikning yon-berida suv aylanib jimirlardi. Nastena hamon biqinib, ni-hoyat tepalikka yetib keldi va yog'och bilan itarib, shitikni sohilga surdi. Mana, endi ehtiyyotkorlik qilmasa ham bo'ladi, aksincha, anavi ketidan poylab yurgan odamga men Angaranan o'tmoqchi emasdim, o'zim uyqusizlikdan shunchaki sohildan uzoqlashmay aylanmoqchi, g'am-g'ussamni yozmoqchi bo'luvdim, ha, shuni bilib qo'y, deganday taraq-turuq qilishi kerak edi. U charchagandi, bo'lib o'tgan ishlar

uni charchatgandi. Qattiq holdan toygan edi. Tezroq bir yoqli bo'la qolsaydi; axir bunaqa hayotdan yo u yoqlik, yo bu yoqlik bo'lgani yaxshi-da. Uning uyqusi kelardi, ammo ishi yurishmaganidan, Andreyevskka bora olmaganidan u uxlay olmasligini tushunardi. Faqat ishni rasvo qildi: Angarani boy berib qo'ydi.

U sohilga chiqib, nima sababdandir tirmashib jardan ko'tarildi. Chindan ham tong yorishib qolibdi: qorong'i osmonda tog' tomon dan tushayotgan xira yorug'lik ko'rindi. Tun chodirini yig'ishtirayotgandi, havo ham jo'nashib ketganga o'xshaydi, tushga borib, osmondagi xo'mraygan bulutlar xam tarqab ketsa ajab emas. Qo'rqinchli, mash'um tun, bunday kechada yuragi toza odamlar ham qiynalib ketadi, uning, Nastenaning esa, ezilgan, bebosh yuragi ado-yu tamom bo'lgandi, u sirqiragani-sirqiragan edi, nuqlu nola-yu far-yod qilib, hech narsaga umid bog'layolmas edi.

Nastena to'satdan o'zini orqaga tashlab, qiyshayib qolgan xoch-ni ushlagancha baqirib yubordi. E xudoyo xudovando, qayerga ke-lib qoldi? Qayerga kelib qoldi?! Axir, bu suvga cho'kib o'lganlar qabristoni-ku. Qo'rqqanidan a'zoyi badani muzlab, oyoqlari bo'-shashib, o'ziga bo'ysunmay qoldi. Nastena emaklab o'pirilgan qabrdan chiqdi va sirg'anib pastga, qayiq yoniga tushdi. Ey xudo, rahm qil. Qanday gap axir bu?! Nimaga, nima sababdan? O'zining jonini hovuchlab yurgani yetmasmidi? U bitta-yarimta eshitib qoladi deb o'ylab o'tirmasdan shartta yog'ochni oldi-da, bu rasvo, vahimali joydan kuchi boricha qayiqni yuqori oqimga qarab haydab ketdi. Bu qabriston yozda, Mishka batrak kelgandan keyin paydo bo'ldi, u urush boshlaridayoq bolalar uyidan Atamanovkaga kelgan bo'lib, hozir kattagina yigitcha bo'lib qolgandi.

Hozir suv g'arq bo'lganlarni har qachongidan ham ko'proq oqizib kelardi – sababi nimayikin? Urush-ku tugadi, umid ko'paydi yoki hayot keskin og'ib ketdi-yu, burilishda hamma ham tob berolmay, zaiflari Angaraga qulab tushyaptimikin? Kim biladi deysiz... Shu yerda ishlab, qo'l uchida kun ko'rib kelayotgani uchun batrak laqabini olgan Mishka murdalarni tutib olib ko'mishdan hazar qilmasdi, har bir qabr uchun qishloq sovetidan o'n so'mdan pul olardi. Pul topishi uning o'ziga yoqib qolgandi, Mishka batrak kun bo'yi daryoda yo'q bo'lib ketardi-da, qirg'iynikiga o'xshagan o'tkir ko'zlar bilan o'ljasini qidirardi, u hozir murdalardan to'rttasini pastdag'i o'tloqqa

ko‘mgan edi, ko‘mganda ham pala-partish, hafsalasizlik bilan ko‘mgandi. Ma’lumotnomani kolxozi tasdiqlab bersa bo‘ldi-da, shu qog‘oz bo‘yicha qishloq kengashi pul to‘layveradi.

Shuning uchun Nastena qayiqni haydab borarkan, bora-borguncha dag‘-dag‘ qaltirab ketdi. Axir, esida-ku, kunduzi bir chaqirim naridan aylanib o‘tardi, o‘sha tomonga qarashga yuragi betlamasdi, kechasi bo‘lsa kelib qolganini-ya. To‘ppa-to‘g‘ri qabr ichiga tushib ketibdi-ya – bu nima degan gap o‘zi?! U dahshat va vahimadan qalt-qalt titrarkan, endi o‘zidan qo‘rqa boshladi, rosa qovun tushirdi-da. Shundan keyin u qo‘lini qayta-qayta yuvdi, axir u shu qo‘llari bilan qabrning yopishqoq tuprog‘ini ushladi-ku, ammo baribir hamon qo‘lidan xamirturushga o‘xshagan bir nimaning hidi kelardi.

Ammo u tekshirib ko‘rishni ham unutmadi: ketidan suzib kela-yotgan kishi Agafya Somovaning qayig‘ini olgan ekai.

## 22

Ertalab Nastena ishga chiqmadi. Nadka xam ishga bormadi, buning biron yomon yeri yo‘q edi: ertaga o‘rimga ketishlari kerak, oxirgi kun esa kimga kerak bo‘lsa, odatda u yoq-bu yog‘ini yig‘ishtirishga ruxsat berilardi. Mana, nihoyat, Nastena pichan o‘rimiga chiqadigan kunga ham yetib keldi, garchi bu kunning unga qanday nafi tegishini aniq-ravshan bilmasa ham, ammo shu kundan qandaydir uning umidi katta edi. Ammo bu pichan o‘rish-ku, axir... U doimo mana shunaqa paytlarda o‘zini gul-gul ochilgan, shod-xurram his etardi, o‘rim-yig‘im paytidagi har .qanday išhga jon-jon deb yopishardi. Yana u quyosh tig‘ tortmasdan burun, shudringda dalaga chiqishni, chekiga tushgan pichanzor chetida chalg‘isini yerga tirab turishni va sinab ko‘rish uchun chalg‘isini ilk daf‘a qulochkashlab pichanga solib, dam olmay tortishni yaxshi ko‘rardi, keyin butun vujudi bilan o‘rilayotgan shirador o‘tlarning shirt-shirt etishini his etib, kulochkashlagani-qulochkashlagan edi. U yana tushdan keyin, issiqning tafti qaytmagan, qo‘llar bezillab tursa ham o‘jarlik bilan borib-kelayoutgan paytda o‘rilayotgan o‘tlarning nola chekayotgan-dek bir me‘yorda shirt-shirt qilishini yaxshi ko‘rardi, qo‘llar borib-kelar ekan, qizib ketardi, kishi mahliyo bo‘lib, qo‘llari ishlayotganini, ermak uchun borib-kelmayotganini bilardi; qalb xushchaqchaq, jo‘shqin ehtiros bilan yonadi, ana shunda o‘zingni ham unutasan,

hazil-huzil bilan ishga kirishib ketib, o't o'rarkansan, xuddi qandaydir esingdan chiqarib yashirib qo'yan qimmatli narsangga san-chayotgandek ketma-ket qulochkashlab chalg'i solaverasan. U hatto jaziramada yig'ishtirayotgan pichanlarning chirs-chirs qilishini, turli-tuman bo'liq o'tlarning mast qiluvchi o'tkir hidi gupillab turishi ni ham yaxshi ko'rardi; u kechgacha, to o'rilgan pichanlar g'aram bosilguncha bahslashganday osmonga qarab-qarab qo'yib ishlashni yoqtirardi; u har bir ishning boshlanishidan – boshidan to oxirigacha, dastlabki kundan so'nggi kungacha jon-jahdi bilan yugurib-yelishni sevardi.

Ammo bu boshqa Nastena edi. U boshqa Nastena edi, o'sha paytlarda u, go'yo butun taqdiri shu bilan hal bo'ladigandek, pichan o'rimini sabrsizlik, qandaydir bir orzu-umid, ko'r-ko'rona ishonch bilan orziqib kutardi. Bu ham to'g'ri: nazarida, pichan o'rim-yig'imi paytida uning qayerda bo'lishi, kim bilan yashashi, kimdan jahli chiqishi-yu, kimga yalinishi – hammasi aniq-ravshan bo'ladigandek tuyulardi. Shuning uchun u quyosh chiqmasdan burun bir o'zi dalada bo'lishni, belga uradigan o'tlar orasida-gi marzada turishni va to narigi boshiga yo'l ochib chiqqunicha to'xtamasdan, o'chakishib, o'jarlik bilan qulochkashlab chalg'i tortishni istardi. Ana shunda u orqasiga qayrilib qarardi-yu, erkin nafas olardi. Axir odamlar: ish odamni go'rga tiqadi, ammo u, shu ish uni to go'rgacha to'ydiradi, asraydi, deb bekorga aytishmagan. Eng muhimmi ham shu-da – asraydi.

Ammo bu gaplar kecha bo'lgan edi, bugun esa, tundan keyin, uni Andrey bilan ko'rishganiga qo'ymaganlardan so'ng u butunlay gangib qoldi; horg'inlik ayni muddaoga aylanib, kekini kuchaytirdi. Endi u hech nimani istamasdi, hech nimadan umid qilmasdi, ichi huvillab, ko'nglini noxush qorong'ilik bosdi. Kecha, nazarida, iloji bordek, umid qilsa bo'ladigandek tuyulgan barcha narsalar bugun qalin devor bilan o'ralib qoldi. U kechasi bilan mijja qoqmadni, ilgarilari og'riydigan boshi ham endi nafaqat og'riq berar, balki miyasi muttasil azob-uqubatdan otilib ketayotganday edi. Negadir ichi, bola turgan yeri tiqilib, sirqirardi, shuning uchun u aslida o'zi shunaqa bo'lishi kerakmi yoki unga ziyon yetkazib qo'ydimi, bilmasdi. «Ha, ne-ne niyatlarni qilib yuruvding, – deb o'zini koyidi u va xayoli qo'chib ketdi. – Endi azobingni tort».

U hech bir ishga qo'l urmadi, biron yumushga tutinmadi ham, u hamma narsadan hafsalasi pir bo'lib, go'yo bir nimani qidirayotganday, bir nimani kutayotganday, uyning u burchagidan bu burchagi-ga borib-kelar, uydan ko'chaga, ko'chadan uyga kirib-chiqar edi-yu, ammo izlagan narsasini topolmasdi, kutgani bo'lmasdi. U Lidkani tutib olib, bag'rige bosib, erkalataver ganidan Lidka bezor bo'ldi. Qi-zaloq endi uni ko'rsa bekinadigan bo'lib qoldi.

– Nima balo, jinni-pinni bo'lib qoldingmi? – deb o'shqirdi unga Nadka. – Kechasi qayoqlarda sanqib yurding o'zi?

Nastena taajjublanmadi ham, cho'chimadi ham, to'g'ri-da, sanqib yurdi, nega so'ramasin endi?

– Erimning oldiga bormoqchi edim, fikrimdan qaytdim, – deb javob berdi u. To'g'ri gapni aytang, osonlik bilan ishonishmaydi. Haqiqatni aytish esa, unga oson. Aldash ham joniga tegdi. Hammasi ham joniga tegdi.

– Aqldan ozibsan, – dedi Nadka. – Jin ursin seni, mundoq odamning gapini tushunmasang. Tezroq tug'ib olgin-u, hadeb o'zingni qiynama. Bola tug'asan-ku, kuchuk emas-ku axir.

Tag'in ham Nadkaga rahmat, axir quvlab yubormayapti-ku. Nastenaning boshqa suyanadigan odami ham yo'q-da. Nima, ke-lib-kelib odamlardan unga shikoyat qilsinmi? Axir, uning o'zi odamlarga qo'shilmay qo'ydi-ku. Shunday ochiq ko'ngil bilan muomala qilayotgan Nadkaga ham Nastena xuddi begonaga muomala qilgandek yolg'on gapiryapti-ya. Nadka sodda, ishonadi, ammo u ham bir kunmas-bir kun uni laqillatganlarini bilib qoladi, buning uchun esa undan minnatdor bo'lmaydi. Yo'ldan ozdi, boradigan yeri yo'q.

Tunga yaqin Mixeich xilvat yerlardan yurib keldi-da, Nastenani yana g'ov oldiga chaqirdi. U shoshib turganidan Nastenaga tik qaradi-da, yamlanib o'tirmay, sira yuz-xotir qilmasdan, achinmasdan shartta-shartta shunday dedi:

– Menga qara, hoy qiz. Agar u shu yerda bo'lsa, tezroq qorasini o'chirsin, bo'lmasa tutib olishadi. Qishloq erkaklari bir baloni o'ylab yuribdi. Ularga Innakentiy Ivanovich komissarlik qilyapti. Nestor bugun Kardaga ketdi. Bu bejiz emas...

Nastena churq etmadi. Mixeich ketmoqchi bo'lib teskari burilar ekan, boyagiday quruq zarda bilan qo'shib qo'ydi:

– Sen, qizni, o‘g‘lim bilan yuzlashtirmaganing uchun duoibad qillardim-u, ammo sen shundoq ham xudoning g‘azabiga uchraysan. Bunga sen gunohkorsan, bu gunohingdan qochib qutulolmaysan, – keyin ichidagi achchiq dard-alamini yashirolmay oshkora dedi. – U ham odam emas ekan o‘zi: otasi bilan gaplashgani qo‘rqidi-ya. E-e, senlarni...

Mixeich shunday dedi-yu, qaytib devordan oshib o‘tdi va maymoqlanib, oqsoq oyog‘ini g‘alati tarzda sudrab ketdi.

Nastena esa, qo‘ra o‘rtasida anchagacha qimir etmay qaqqayib turib qoldi, u biror yo‘lini topish, muhim, zarur qarorga kelishga urinar edi-yu, ammo mujmal fikrlardan miyasi g‘ovlab, bir to‘xtamga kelolmas edi. Hammasi tamom bo‘ldi, keyingi pushaymon o‘zingga dushman. Ha, endi nimayam qilarding? Kechikding.

Endi u hech nimaga – Mixeichning kelib-ketganiga ham, kechasi Angarada kimdir ketidan tushganiga ham ishonmasdi. Nazarida, u bularning hammasini miyasi aynib qolganda o‘zi to‘qiganday, to‘qiganini unutib qo‘yganday edi. U ilgari o‘zini boshiga qiziq voqealar tushgan kishi qilib tasavvur etishni yaxshi ko‘rardi, keyin u tasavvuridagi bu voqeaga shunday qiziqib, berilib ketardiki, ba’zan qaysi to‘g‘ri-yu, qaysi noto‘g‘riligini zo‘rg‘a ajrata olardi. Hozir ham shunaqa bo‘lyapti shekilli. Boshi chindan ham tars yorilay derdi. Nastena hozir o‘z terisini shilib olishga ham tayyor edi. U kamroq o‘ylashga, qimirlashga harakat qilardi – hech nimani o‘ylamaslik, hech qayoqqa qimirlamaslik kerak. yetar shu.

Kechqurun Nadka yangi xabar topib keldi; Burdak degan miliitsioner kelibdi. Nastena ichida shubhalandi: balki kelgandir, balki yo‘q. Hech kim aniq bilmaydi. Ularga ishonsang, valdirayverishadi. Xo‘p, keldi ham deylik, xo‘sh, nimasi qo‘rqinchli? Atamanovkada biron ishi bordirki, kelgandir-da? Masalan, baliq tutishgami yoki soliq to‘lamaganlarga amalini ko‘rsatib, po‘pisa qilib qo‘ygani kelgan bo‘lishi ham mumkin. Atamanovka o‘shaning uchastkasi, u har kuni shu yerda o‘ralashib yursa ham ixtiyori o‘zida. Kelgan bo‘lsa kelibdi-da, xo‘sh, nima bo‘pti?

Nastena Nadkaning bolalari g‘imirlab yurganiga ham qaramay barvaqt yotdi. U dard-dunyosi qorong‘i bo‘lib uxlab qoldi. Xuddi mo‘ljallagan vaqtida uni kimdir turtib uyg‘otganday bo‘ldi. U o‘zini ancha tiniqqan, tetik his qildi, boshi ham lo‘qillamasdi. Nastena tun-

ning qanchasi o'tganligini bilolmadi – devordagi toshi osilib turgan soat to'xtab qolgandi, ammo Nastena kechikib qolmaganiga, undan oldin hech kim jo'namaganiga ishonardi. U bemalol kiyindi, shuningdek, bemalol tashqariga chiqib, ketidan eshikni mahkam yopdi. Qaytanga yashirinmasang, qisinib-qimtinmasang, ishing baroridan keladi, bu safar esa ishining baroridan kelishiunga juda zarur edi.

Faqat hozirgina Nastena havoning sal-pal ochilganini, endi osmonning u yer-bu yerida yulduzlar miltillab turganini payqadi. Tun jimjit, qorong'i edi, ammo g'ira-shirada har qalay atrofdagi narsalar tuzukkina ko'rinish turardi, uzun, keng yo'lakni eslatuvchi Angarada esa, ahvol bundan ham yaxshi edi. Nastena sohildan qayiqni olib, uni suvga itarib tushirdi-da, shu zahoti eshkakni suvga urdi. Yetib borish kerak, erini ogohlantirishi zarur. Vidolashish kerak. Umrbodga vido-lashish kerak, qiyomatgacha bo'lsa ham ajab emas.

Nomus... nega Andreyning oldida ham, odamlarning oldida ham, o'z vijdoni oldida ham nomusdan o'lay-o'lay deydi? Uni shunchalik yerga qaratib qo'ygan gunohni u qayoqdan orttirdi ekan?

Baxtiyor kunlarda maza qilib yashash qanchalik oson-u, bo-shingga kulfat tushganda ko'rgan kuning qanchalik zahar-zaqqum, qora bo'ladi-ya! Nega insonga o'zgalarning og'irini yengil qilish uchun ezgulikdan ko'proq ato etmaganiykin? Nega yaxshilik bilan yomonlik o'rtasida doimo ziddiyat bor? Ey inson, sening qismating shu deb peshonangga yozayotganlarida sen qayerda eding, qaysi qo'g'irchoqlarni o'ynayotgan eding? Nega taqdirga tan berding? Nega sen, falokatdan emaklab emas, uchib qo'qhib ketish lozim bo'lgan paytda o'ylamasdan eng zarur bo'lgan qanotlaringni kesib tashlashlariga yo'l qo'yib qo'yding?

Nastena yuz berayotgan voqealarni o'ylarkan, peshonasiga biftiganiga tan berib, ko'nib, eshkak eshardi: ha, ko'rinish turibdi, shunaqa bo'lishi kerak, qilmishiga yarasha-da... Noshud odama ga ishonganing bilan baribir u – o'lib qayta tug'ilsa ham, ko'zi ochilmaydi, yashashni bilmaydi. Osmon shunchalik jimjit, sokin-a, tavba. Kecha kechasi juda vahimali edi: qorong'ida ko'zing hech nimani ajratolmagandan keyin yuraging orqaga tortib ketadi-da, nazaringda hozir bir balo bo'ladiganga o'xshayveradi. Yulduzlar turgan yerida pastda bo'ladigan ishlarni ancha oldindan ko'radi deyishadi, shu gap rostmikin? Uni, Nastenani kechasi ko'rib-bilib

turgan yulduzlar qayerdaykin, ular nimani sezishdiykin? Bugun yulduzlar zo'rg'a miltillab turibdi, qayoqdan ham bashorat qilardi? U mulzam bo'lib, g'ayritabiyy, og'ir, behuda o'y-xayollarga botib eshkak esharkan, ko'ngli shu o'y-xayollariga javob berishga urinayotganidan asablanardi.

Negadir uning ko'ngli ham xuddi qadimiy cho'ziq ashulani eshitib, bu ovoz kimniki – hozir yashab turgan odamnikimi yoki bundan yuz yil, ikki yuz yil oldin o'tgan odamning ovozimi, deb gangib qolganday edi. Xor Xor jimb qoladi, ikkinchisi boshlaydi... Keyin uchinchisi cho'zadi...

Yo'q, yashash ham lazzatli, ham dahshatli, ham isnod.

U shu o'y-xayollarga botib borarkan, nogahon ashuladagi ovozlardan boshqa, butunlay boshqa ovozlar qulog'iga chalindi. U ajablanib qayrilib qaradi-da, sohilda odamlarning qorasini ko'rdi.

– Ana u, ana! – deb qichqirdi Nestor. Suvda kim gapirgani ham, nima degani ham yaxshi eshitilardi. Nestor boloxonador qilib so'kindi, Nastena Nestor uni so'kayotganini fahmladi. – Voy yumshoq supurgi-yey, bizdan oldin jo'nab qolmoqchi ekan-da. Borib bo'psan, voy begunoh-yey, borib bo'psan. yetib olamiz.

– Ikkinci qayiqni tushir, – bu endi Innakentiy Ivanovichning ovozi edi. – Tezroq, nega imillaysan?

– Yetib ola-a-miz!

Nastena yuragi yorilganidan kuchi boricha eshkakni eshmoqchi bo'ldi-yu, ammo shu zahoti eshkaklarni tushirdi. Qayoqqa? Nimaga? U shusiz ham keraklicha suzib keldi, u yog'iga suzishning hojati yo'q edi.

U juda charchagandi. Qani endi biron kishi uning qanchalik charchaganini, qanchalik dam olgisi kelayotganini bilsa edi! Qo'rqmaslik, uyalmaslik kerak, ertangi kunni yuragingni hovuchlab kutmaslik kerak, bir umr o'zingni ham, o'zgalarni ham eslamasdan erkin bo'lishing kerak, boshingga tushganlarning zarrachasini ham eslamaslik kerak. Mana senga, sen kutgan, yuz azob-uqubat bilan erishgan baxt – nega u bunga ilgari ishonmagan edi-ya? U nimani izladi, nimaga erishdi? Behuda, hammasi behuda ekan.

Nomus... Agar sening o'mingda boshqa odam bo'lгanda, yaxshiroq yashashi mumkin bo'lgan paytda sening shunday yashashing sharmandalik ekanini hamma ham tushunarmikin? Shundan keyin ham odamlarning ko'zlariga qarab bo'larkanmi...

Ammo nomusdan ham nom-nishon qolmaydi, nomus unutiladi, undan qutuladi...

U o'rnidan turib, Andreyevsk tomonga qaradi. Ammo u yoq, Andreyevsk tomon qorong'i edi.

Qayiqlar yaqinlashib kelayotgandi. Mana, mana endi kech bo'ladi.

Nastena quyruq tomonga qadam tashladi-da, suvgan qaradi. Suvning qa'ridan xuddi vahimali, g'aroyib ertaklardagidek bir nima milt-milt etardi – osmon aksi tushib jimirlardi. Qanchadan-qancha odam suv qa'rige ketishga jazm etgan, hali yana qanchasi jazm etadi!

Angaraning ko'ndalangiga qarab keng soya suzib borardi: tun chodirini yig'ishtirayotgandi. Uning qulog'iga tiniq, erkalovchi, undovchi shovullash chalindi, bu ovoz o'nlab, yuzlab, minglab qo'ng'iroqchalarining jiringlashiga o'xshardi... O'sha qo'ng'iroqchalar kimnidir o'yin-kulgiga chorlardi. Nastenaning nazarida uyqu elitayotganday bo'ldi. U qayiq chetiga cho'kkalab, borgan sari pastroq engashdi, u bundan keyingi bir necha yillarni yaqqol ko'rib turgan ko'zlarini yirib-yirib, suv qa'rige tikildi va tubida gurtning chirt etib yonganini ko'rdi.

– Nastena, esingni yig', tentaklik qilma! Naste-ye-o-na! – u yana Maksim Vologjinning jonholatda shunday deb qichqirganini eshitdi. Bu u eshitgan so'nggi so'z edi, shundan keyin u ohista suvgan g'arq bo'ldi.

Angara shalopladi, shitik lopilladi, tunning xira yorug'ida suvda doiralar hosil bo'lib, har tomonga yoyilib ketdi. Ammo Angara tez oqib, bu doiralarni g'ijimpladi-da, yo'q qilib yubordi – u yerda hatto oqim uriladigan chuqurcha ham qolmadidi.

...Faqt to'rtinchchi kuni suv Nastenani Kardadan nariroqdagagi qirg'oqqa chiqarib tashladi. Atamanovkaga xabar qilishdi, ammo bu paytda Mixeich o'lar holatda yotgandi, shuning uchun Nastenaning jasadini olib kelishga Mishka batrakni yuborishdi. U Nastenani qayiqda olib keldi, olib kelgach, o'z bilganicha uni g'arq bo'lganlar mozoriga ko'mmoqchi bo'ldi. Ammo xotin-xalajlar unamadi. Shundan keyin Nastenaga qishloq mozorining chekkarog'ildan, qiyshayib qolgan panjara yonidan joy ajratib, o'sha yerga qo'yishdi.

Dafndan so'ng xotin-xalajlar Nadkanikiga ma'rakaga yig'ildilar va Nastena juvonmarg ketdi, deb ko'z yoshi qildilar.

## SO'NGGI MUHLAT

*Qissa*

### 1

Anna kampir go'yo vaqtি-soati yetganday rus pechkasi yonida-  
gi ensiz temir karavotda o'limini kutib yotardi: axir, kampir sakson-  
ga yaqinlashib qolgandi. U uzoq vaqt keksalikni bo'yniga olmay  
g'imirlab yuraverdi, ammo uch yil burun butunlay kuchdan qolgach,  
yotib qoldi. Yozda ham ancha bardam edi: hovliga chiqardi, oftobda  
isinardi, ba'zan dam olib-dam olib bo'lsa ham ko'chani kesib o'tib,  
Mironixa kampirnikiga chiqardi, ammo kech kuzga borib, dastlabki  
qordan oldinroq juda o'zini oldirib qo'ydi, hatto ertalablari nabirasi  
Ninkadan qolgan tuvakni tashqariga chiqarib qo'yishga ham yaramay  
qoldi. Ayniqsa, kampir pillapoyada ikki-uch marta yiqilib tushgandan  
keyin unga umuman qo'zg'alish mumkin emas deb tayinlashdi, endi  
uning umri karavotida turib o'tirib, oyog'ini osiltirish-u yana o'miga  
yotish bilan o'tardi.

Kampir hayoti davomida ko'p farzand ko'rди, ammo hozir shu-  
lardan faqat beshtasi qolgandi. Buning sababi shu ediki, avvalo ular-  
ning oilasidan o'lim xuddi tovuqxonadagi tovuqlarni tirqiratayotgan  
sassiqko'zanga kabi birin-ketin bolalarni olib ketdi, keyin esa urush  
boshlaniб qoldi. Shunday bo'lsa ham beshtasi omon qoldi: uch qiz-u  
ikki o'g'il. Bir qizi rayonda, ikkinchisi shaharda, uchinchisi bo'lsa  
juda olisda – Kievda yashardi. Armiyadan keyin shimolning qay bir  
puchmog'ida qolib ketgan katta o'g'li ham shaharga qaytdi, kampir  
esa qolgan umrini qishloqdan hech qayoqqa jilmagan kichik o'g'li  
Mixailnikida o'tkazayotgandi, u iloji boricha o'g'lining oilasida osh-  
ga tushgan pushshadek dardisar bo'lmaslikka harakat qilardi.

Xullas, bu safar kampirning qishdan eson-omon chiqishiga umid  
yo'qday edi. Yozdan boshlaboq uning mazasi qochib, tez-tez hushidan  
keta boshladi, bunday paytlarda Ninka chopqillab borib chaqirib kela-  
digan feldsher ayolning ukollarigina kampirni narigi dunyodan olib qo-

layotgan edi. U hushiga kelgach, o‘ziga yarashmagan ingichka ovozda ihrab-sihrardi, ko‘zlariga yosh to‘lib, yig‘lamsirab arzi hol qilardi:

– Axir sizlarga meni o‘z holimga, tinchgina o‘lishimga qo‘yinglar deb necha martalab aytdim. Agar anavi feldsherlaring bo‘lmaganda hozir men, eh-hye, qayerlarda yurgan bo‘lardim-a. – Shundan keyin kampir Ninkani imlardi: – Endi sen uni chaqirib kelishga bormagin, xo‘pmi. Agar onang senga aytib kel deb buyursa ham, mo‘rchaga krib bekingin-da, birpasdan keyin chiqib, uyida yo‘q ekan, degin. Eva-ziga men senga konfetning eng shirinidan beraman.

Sentyabrning boshlariga kelib, kampirga yana bir dard chang soldi: u uyqudan bosh ko‘tarolmay qoldi. U endi yemas, ichmas, faqat uxlardi. Agar uyg‘otishsa ham, xira ko‘zlarini zo‘rg‘a ochib, parishonlik bilan biroz tikilib turardi-yu, yana uyquga ketardi. Uning tirik yoki o‘likligini bilish uchun tez-tez qimirlatib ko‘rishardi. Kampir cho‘pday ozib ketdi, oy oxiriga kelib sarg‘ayib, murdaning o‘zi bo‘ldi-qoldi, faqat tanasidan jon chiqmagandi, xolos.

Kampirning bugun-erta ketib qolishi aniq bo‘lib qolgandan ke Yingina Mixail pochtaga borib, akasi va opa-singillariga, kelinglar, deb telegramma yubordi. Shundan keyin u kampirni qimirlatib, ogohlantirib qo‘ydi:

– Shoshmay tur, ona, jigarlarimni chaqirdim, kelishyapti. Diydor-lashib qolishsin.

Eng avval, ertasi tongdayoq kampirning to‘ng‘ich qizi Varvara keldi. Unga kelish qiyin emasdi, rayon yaqin, bor-yo‘g‘i ellik kilometr, yo‘lovchi mashinaga tushsa bas, kelaveradi. Varvara darvozani ochib, hovlida hech kimni uchratmagach, birdan uvvos solib yig‘lashga tushdi:

– Oh, onaginam meni-i-i!

Mixail pillapoyaga otolib chiqdi:

– E, ovozingni o‘chir-e! Tirik hali, uxlayapti. Shunaqayam baqiradimi odam, bundayda butun qishloqni to‘playsan-ku.

Varvara unga e‘tibor ham qilmasdan ichkariga kirdi, kampirning karavoti yoniga gurs etib cho‘kkaladi-da, boshini sarak-sarak qilib yana uv tortdi:

– Oh, onajonim-a!

Kampir uyg‘onmadi, uning yuzidan qon qochgandi. Mixail onasining ichiga botgan yuzlariga yengil urdi, shundan keyingina

yumuq qovoqlar ichidagi ko‘zlar harakatga kelib qimirladi-yu, ammo baribir ochilmadi.

– Ona, – dedi Mixail kampirni turtib. – Ko‘zingni och, qara, Varvara keldi.

– Onajon, – Varvara ham uni uyg‘otishga harakat qilib ko‘rdi. – Bu men, katta qizingman. Men seni ko‘rgani keldim, sen bo‘lsang hatto menga qaraging ham kelmaydi-ya. Ona-jo-on!

Kampirning qovoqlar xuddi tarozi pallalaridek lip-lip etdi-yu, to‘xtab qattiqroq qisildi. Varvara o‘rmidan turib yig‘lagani stol yoniga ketdi – shu yer qulayroq edi. U boshini stolga urib, o‘ksib, ko‘z yoshlari ko‘milib yum-yum yig‘ladi va anchagacha o‘zini bosib ololmadi. Uning yonida besh yashar Ninka pildirar va Varvaraning ko‘z yoshlari nega polga tommayapti deb engashib qarar edi. Ninkani haydab yuborishsa-da, ayyor qizcha ko‘zni shamg‘alat qilib yana stol yonida paydo bo‘lardi.

Kechqurun ularning taxmini to‘g‘ri chiqib, haftada faqat ikki marta qatnaydigan paroxodda shaharliklar – Ilya bilan Lyusa keldi. Mixail ularni pristanda kutib oldi va o‘zлari tug‘ilib-o‘sgan uyga boshlab keldi. Ular yo‘lda churq etishmadi: Lyusa bilan Ilya taxtadan qilingan ensiz, lopillab turgan yo‘lkadan, Mixail ularning yonida, loy g‘udda-g‘udda bo‘lib qurib qotib qolgan yerda yurib kelardi. Qishloqdagilar Lyusa va Ilya bilan salomlashishardi-yu, ammo ularni gapga tutishmas, o‘tib ketishganidan keyin qiziqsinib orqalariga qayrilib qarashar edi. Dera zalardan kampirlar va bolalar baqrayib turiшar, kampirlar cho‘qinib qo‘yishardi.

Varvara ukasi bilan singlisini ko‘rgach, o‘zini tutib turolmay yana diydiyosini boshladи:

– Oh, onajonimiz... Ona-jo-ni-miz!

– E, bas qilsang-chi, – deya Mixail uni yana to‘xtatdi. – Ulgurasan hali!

Hamma kampirning karavoti oldiga to‘plandi – Mixailning xotini Nadya ham, qizi Ninka ham shu yerda edi. Kampir qimir etmay yotarkan, badani sovib qolgandi – bu yo hayotining so‘nggi daqiqalari yoki o‘limning boshlanishi edi. Varvara dod solib yubordi:

– Joni chiqibdi-ku.

Hech kim unga jim bo‘l demadi, hamma qo‘rquvdan qotib qolgandi. Lyusya shosha-pisha kaftini kampirning ochiq og‘ziga tutdi, lekin uning nafas olayotgani sezilmadi.

– Oyna tutish kerak, – deb eslab qoldi u. – Oyna keltiringlar.

Nadya stolga qarab yugurdi, yo'l-yo'lakay oyna parchasini etagi-ga artib, uni Lyusyaga uzatdi: u shosha-pisha oyna parchasini kam-pirning qoni qochgan lablariga tutib bir daqiqacha ushlab turdi, oyna xiyoł terladi.

– Tirik, – yengil nafas oldi u, – onajonimiz tirik.

Varvara go'yo bu gapni eshitmaganday yana yig'lashga tushdi, Lyusya ham ko'z yoshi to'kib, nari ketdi. Oyna Ninkaning qo'liga tushib qoldi. U qani nima bo'larkin deb oynaga qarab puplayverdi, biroq qiziqarli hech narsa topolmagach, payt poylab turib, uni kam-pirning og'ziga tutdi. Mixail buni ko'rib qoldi-yu, hammaning ko'z oldida Ninkaga shapaloq tortib, xonadan haydab chiqardi. Ninkaning chinqirig'i Varvaraning yig'isini bosib ketdi, shuning uchun u jim bo'lishga majbur bo'ldi. Faqat xo'rsinib odatdagidek:

– Eh, onajonimiz, onajonimiz, – deb qo'ydi.

Nadya, shu yerga – stolgami yoki oshxonaga dasturxon yozib joy qilaymi, deb so'radi. Barcha onani bezovta qilmaslik uchun oshxonani ma'qul ko'rди. Mixail bir shisha aroq, bir shisha portveyn<sup>1</sup> olib keldi, aroqni o'zi bilan Ilyaga, portveynni opalari va xotiniga quydi.

– Tatyanamiz bugun kelmaydiganga o'xshaydi, – dedi u. – Uni kutib o'tirmaymiz.

– Ha, bugun ko'z tutmasak ham bo'ladi, to'g'ri, – deb uning ga-piga qo'shildi Ilya. – Agar kecha telegramma olgan bo'lsa, bugun samolyotga chiqadi, shaharda boshqasiga almashadi. Hozir rayonda o'tirgan bo'lsa ham ajab emas, kechasi esa bu yoqqa mashina bo'lmaydi, to'g'ri.

– Yoki shaharda.

– Ertaga keladi.

– Ertaga, albatta keladi.

– Agar ertaga kelsa, ulguradi...

Mixail uy egasi sifatida qadahni birinchi bo'lib ko'tardi.

– Qani, olinglar, diydor ko'rishganimiz uchun olaylik.

– Urişhtirib ichsa bo'ladimi? – Varvaraning kapalagi uchib ketdi.

– Bo'ladi, bo'ladi, biz pominki<sup>2</sup>da emasmiz-ku.

<sup>1</sup> Portveyn – uzumdan qilingan o'tkir vino.

<sup>2</sup> Pominki – marhumni xotirlash ziyofti. Bunday ma'rakada qadahlar cho'qishtirilmaydi.

– Unday demanglar.  
– Endi gapirsang ham, gapirmasang ham...  
– Anchadan beri mana shunday to‘planishib o‘tirmagandik, – dedi to‘satdan Lyusya ma’yuslanib. – Faqat Tatyana yo‘q-da. Agar Tatyana kelsa, bir paytlardagidek jamuljam bo‘larkanmiz, xuddi hech kim hech qayoqqa ketmagandek. Axir biz avvallari doimo mana shu stol atrofida to‘planib o‘tirardik-da, xonada esa faqat mehmonlarga dasturxon yozilardi. Men hatto ilgari o‘tiradigan yerimda o‘tiribman. Varvara esa o‘z joyida emas. Sen ham, Ilya.

– Qayoqda, hech kim hech qayoqqa ketmaganday emish-a! – dedi Mixail ensasi qotib. – Qoralaringni ko‘rsatmay qo‘ydilaring-ku. Yaxshiyam Varvara bor: kartoshkami yoki boshqa biron narsa kerak bo‘lganda ko‘rinib qoladi. Sizlar esa go‘yo bu yorug‘ olamda yo‘qday.

– Ha, endi Varvara yaqin-da.  
– Ha, sizlar naq Moskvadan kelasizlar, axir, – deya endi Varvara ham uzib oldi. – Paroxodda bir kundayoq yetib kelasizlar. Bizni ji-garchilikdan chiqarib qo‘yganlaringdan keyin loaqal jim o‘tirsanglar bo‘lardi. Shaharlik bo‘lib ketdinglar-da, endi qishloqdagilarni nazarlaring ilmaydi!

– Sen, Varvara, bunday deyishga sira haqing yo‘q, – dedi Lyusa qizishib. – Shaharlig-u qishloqlikning nima aloqasi bor bu gapga? Nima deyayotganiningni o‘ylab gapir.

– Ha, to‘g‘ri, bunday deyishga Varvaraning haqqi yo‘q. Varvara odam emas. U bilan gaplashib nima bahra toparding? Shunchaki yuribdi-da. Singillari-yu, ukalariga opalik ham qilmayapti. Qani, o‘zing insof bilan ayt-chi, uyg‘a oxirgi marta qachon keluvding o‘zi? Varvara odam emas, lekin kelib onasidan xabar olib turibdi, garchi Varvaraning ro‘zg‘ori senikidan katta bo‘lsa ham, yiliga bir necha marta kelib ko‘rib, xabar olib ketishga vaqt topadi. Yana kim aybdor, Varvara aybdor.

– To‘g‘ri-da, ko‘pdan beri kelganining yo‘q-ku, yana nimasini gapiras?! – dedi Mixail Lyusyaga Varvaraning yonini olib. – Oxirgi marta kelib-ketganingda hali Ninkamiz tug‘ilmagan ham edi. Ilya esa oxirgi marta shimoldan ko‘chib ketayotganida keluvdi. O‘shanda Nadya Ninkani endi ko‘krak sutidan ajratgan edi. Esingdami, o‘shanda ko‘kragiga xantal surgan edi, rosa kulgan eding?

Ilyaning esida ekan, bosh irg‘ab qo‘ydi.

– Iloji bo‘lmadi, shuning uchun kelolmadim, – dedi Lyusya xafa bo‘lgandek.

– Istasang, imkon toparding, – dedi Varvara hamon yon bermay.

– Iloji bo‘lmadi deganimdan keyin imkon toparding deganining nimasid? Sog‘lig‘imning mazasi yo‘q, agar ta’tilda davolanib olmasam, keyin yil-o‘n ikki oy kasalxonama-kasalxona yugurib yuraman.

– Ha, endi bahona hamisha tayyor.

– Bahonaning bunga nima daxli bor?

– Shunchaki aytdim-qo‘ydim-da. Sizlarga bir og‘iz gapirib ham bo‘lmaydi. Katta odam bo‘lib ketgansizlar.

– Bas qilinglar, – dedi Mixail. – Yana bittadan olaylik. Aynib qolmasin tag‘in, a?

– Balki yetar-a, – deb ogohlantirdi Varvara. – Siz, erkaklarga ichkilik bo‘lsa bas. Onamiz o‘lim to‘sagida yotibdi-yu, bular bo‘lsa kayf-safo qilib o‘tirishibdi. Ishqilib ashula boshlab qolmasanglar bo‘ldi.

– Hech kim ashula aytmoqchi ham emas. Ammo ichish mumkin. Qachon mumkin-u qachon mumkin emasligini o‘zimiz bilamiz – yosh bola emasmiz.

– Voy-bo‘, senlarga gapirish kerag-u, darhol qochish kerak.

Ular bundan elliq yilcha burun marhum otasi yasagan uzun yog‘och stol atrofida mana shu taxlit gaplashib o‘tirardilar. Baracha o‘z yo‘lini topib, hamma har yoqqa tarqab ketganidan keyin kechgan yillar ularga o‘z ta’sirini o‘tkazgan – jigarlarning tashqi ko‘rinishi o‘tgan davr mobaynida ancha o‘zgarib, bir-biriga unchaliq o‘xshamasdi. Masalan, Varvaraga qarasang, u bularning opasi emas, ko‘proq onasiga o‘xshab ketardi, bo‘lmasa-ku o‘tgan yili ellikdan oshdi, ammo yuzi juda qarimsiq ko‘rinardi, o‘zi ham kampirga o‘xshab qolgan, ularning urug‘ida hech kim bunchalik semiz, gavdali, temsa-tebranmas emasdi. U bir jihatdan onasiga tortgandi: u ham birin-ketin tug‘ib tashlayverdi, ammo Varvara tug‘a boshlagan vaqtga kelib bolalarini o‘limdan saqlab qolishni ancha o‘rganib olishgandi, qolaversa, urush-purush degan gaplar ham yo‘q edi. Shuning uchun ularning hammasi sog‘-salomat edi-yu, faqat bir o‘g‘li turmaga tushib qolgandi. Varvara bolalarining rohatini deyarli ko‘rmadi: ular o‘sib-ulg‘ayguncha uning ona suti og‘ziga keldi, bir kungina ham

tinchlik yo‘q edi. Voyaga yetgandan keyin ham ahvol o‘zgarmadi: hali-hamon o‘sha-o‘sha azob-uqubat, urush-janjal. Farzandlarining tashvishi uni erta qaritdi.

Kampir Varvaradan keyin Ilyani, Lyusyani, Mixailni, eng oxirida esa Kievdan kelishi kutilayotgan Tatyanani dunyoga keltirgan edi.

Ilyani bo‘yi pastligi uchun to harbiy xizmatga olishguncha Ilya pakana deyishardi, holbuki qishloqda baland bo‘yli boshqa Ilya yo‘q edi, shu-shu bu laqab unga tamg‘a bo‘lib qoldi. U shimolda o‘n yildan ortiqroq yashagani uchun sochi deyarli to‘kilib kal bo‘lib qolgandi, boshi havo ochiq bo‘lgan kunlari xuddi artilgan tuxumdek yaltirab turardi. U o‘sha yerda, shimolda uylandi, ammo xotindan omadi chopmadi. Avvaliga hammasi risoladagidek, xotini es-hushli, oddiygina, bo‘y-basti ham o‘ziga mos edi, ammo vaqt o‘tishi bilan u eridan bir yarim baravar keladigan bo‘lib semirib ketdi, kamiga tili ham chiqib qoldi, hatto qishloqqa xotini Ilyaga zug‘um qilarmish degan mish-mishlar ham yetib keldi.

Lyusya ham qirqdan oshib qolgandi, ammo hech kim uni qirqdan oshgan demasdi: u bu yerdagilarga qaraganda boshqacharoq – yuzi tiniq, toza, silliq, xuddi fotosuratdagagi qizlarga o‘xshardi, kiyimni ham pala-partish kiymasdi. Lyusya urush tugashi bilanoq qishloqdan ketgandi, oradan o‘tgan shuncha yil ichida shaharliklar singari o‘ziga qarab yurishni o‘rganib olgandi, albatta. Ha, shuni ham aytish kerakki, bolalari bo‘lmagandan keyin yana qanday tashvishi ham bo‘lishi mumkin? Xudo Lyusyaga farzand bermagandi.

Mixail esa Ilyaga sira o‘xshamasdi – sochlari lo‘lilarnikiga o‘xhash qalin, jingalak edi, soqoli ham gajak-gajak bo‘lib buralib turardi. Yuzi ham qoraygan, ammo bu qoralik oftobdan va sovuqdan edi – yozda daryoda yuk ortardi, qishda esa o‘rmonda daraxt kesardi – yil-o‘n ikki oy u ochiq havoda yurardi.

Xullas, shu tariqa ular uzun stol atrofida joni uzilayotgan onaga xalaqit bermaslik uchun gaplashib o‘tirishardi, ular shu kampirni deb kelgan va uzoq yillar badaliga qadrdon uyida birinchi marta yig‘ilishgan edi. Faqat Tatyana kamlik qilib turardi. Mixail bilan Ilyaning ichadigan narsasi bor edi, ayollar qadahlarini nari surib qo‘yishdi-da, ammo turishmadi – ular bu uchrashuv, gap-so‘zlardan, bugun ko‘rib turgan barcha narsalaridan ko‘ngillari bo‘shashib, ertaga boshlariga tushadigan hodisadan qo‘rqib o‘tirishardi.

– Birato‘la Volodkaga ham telegramma jo‘natsam bo‘larkan, – dedi Mixail. – Hozir yonimizda o‘tirgan bo‘lardi. O‘zgarib ham ketgandir, juda ko‘rgim kelyapti.

– U hozir qayerda? – so‘radi Ilya.

– Armiyada, ikkinchi yili ham tugay deb qoldi. Yozda ta’tilga boraman deb va’da beruvdi, ammo biron ayb ish qilib qo‘ydi shekilli, javob berishmadi. Bo‘linmamdan bittasi postni tashlab ketib qolibdi, komandir bo‘lganim uchun meni jazolashdi, deb yozibdi, balki o‘zi biron balo qilib qo‘yganmi, axir biron ayb ish qilish qiyin ekanmi u yerda. Nima deb o‘ylaysan, buvimning tobi yo‘q, ekan, desa, javob berisharmikin?

– Javob berishlari kerak.

– Kecha telegramma bersam bo‘larkan. Eh, ahmoqliq qilibmanda. Nima deb yozsam, qildan qiyiq qidirmasdan javob berisharkin deb o‘ylayapman. Axir, nabira-da, o‘g‘il emas.

– Buvningi ahvoli og‘ir, tez yetib kel, deb yozsang, bo‘laverardi, – deb maslahat berdi Varvara.

O‘g‘li ketib halovatini yo‘qotgan Nadya hozir uni shundoqqina yonida ko‘rib turgandek ko‘ngli buzildi.

– Men ham unga xuddi shunday degandim, ammo koshki u gapga quluoq soladigan bola bo‘lsa?

– Biroz sabr qilaylik-chi, – dedi Lyusya.

– Ha, kutgan ma’qulroq. Bo‘lmasa hamma ish rasvo bo‘lishi mumkin. Keyin darrov shunday gap, deb yoziladi. Ko‘mish marosimiga javob bersalar kerak.

– Voy-voy, voy-voy-ey, – deb xo‘rsindi Varvara. – Shuni o‘ylamabsizlar, aqlularingga kelmabdi. Axir hammamizning onamiz bittagina-ku.

– Senga yana nechta ona kerak? – dedi kestib Ilya.

Varvara xafa bo‘ldi.

– Tavba, xuddi o‘gayga o‘xshaysan-a! Gapingni turgan-bitgani piching-a! Meni ahmoq qilmoqchi bo‘lyapsan shekilli. Ammo men sen o‘ylaganchalik emasman. Kesatmasang ham bo‘lardi.

– Hech kim seni ahmoq deb o‘ylayotgani yo‘q. Namuncha sapchimasang?

– Ha, o‘ylamaysan-a!

Lyusya Nadyani sekingina turtdi:

- Tikuv mashinalaring bormi?
- Borlikka borku-ya, ammo tikadimi-yo‘qmi bilmayman. Ko‘p dan beri ishlatganim yo‘q.
- Bugun bor bisotimni ko‘tardim, aksiga olib bittayam qora ko‘ylagim yo‘q ekan, – deya tushuntira boshladi Lyusya. – G‘izillab do‘konga chopdim, gazlama oldim, tikishga. tabiiyki, sira vaqt yo‘q edi, shuning uchun faqat bichib keldim. Endi shu yerda tikishga to‘g‘ri keladi.
- Bugun tikib ulgurmasangiz kerak.
- Ulguraman, men tez tikaman. Keyinroq, hamma uxlagandan keyin, shu yerda – oshxonada tikaman.
- Xo‘p, mayli, olib kelay-chi, o‘zingiz ko‘rarsiz.

Ular uyquga yotishdan oldin yana onaning oldida to‘planishdi, ahvolini bilib qo‘yan yaxshi-da. Lyusya kampirning tomirini bir amallab topib, ushlab ko‘rdi – puls bilinar-bilinmas urar, jon lipillab turardi. Mixail chidab turolmay, onasini yelkasidan ushlab qimirlatdi, shu payt nogahon kampirning ichidan ingrash bo‘lib ingrashga, xurrak bo‘lib xurrakka o‘xshamagan, onasining ovoziga mutlaqo o‘xshamagan g‘ayritabiyy bir tovush chiqdi, atrofdagilarga bu go‘yo yaqinlashib kelayotgan o‘lim sasidek eshitildi. Barcha Mixailga qarab jim dedi-yu, ammo bu ovozdan naq o‘takalari yorilib dedi, hatto Ninka ham onasining pinjiga kirib ketdi.

– Loaql erta choshgohgacha yetsayam mayliydi, – dedi piqillab Varvara va jim bo‘lib qoldi.

Ular yotishga taraddud ko‘ra boshlashdi. Xona keng-mo‘l edi, ammo qishloq odatiga ko‘ra o‘rtasidan ikkiga ajratilgandi: bir tomonda kampir yotardi, ikkinchi yarmida Mixailning oilasi yashardi. Nadya o‘zi bilan Mixailga polga joy soldi, o‘zining karavotini Lyusyaga berdi. Varvaraga esa buklama karavot topildi, uni, onamizdan xabardor bo‘lib yotsin, deb kampirning‘ bo‘lmasiga qo‘yishdi. Ilyaga ham o‘sha yerga o‘rin solib berishmoqchi bo‘lishdi-yu, ammo u men mo‘rchada yotaman dedi. Mixailning mo‘rchasi ozoda edi, qurum bosgan, sassiq emasdi, o‘zi ham g‘ovning yonginasida edi. Ilyaga ostiga to‘sashga po‘stin, fufayka, ustiga esa ko‘rpa berishdi, u agar biron gap bo‘lsa darrov uyg‘otinglar, deb chiqib ketdi.

Kampirning bo‘lmasidagi elektr chiroqni o‘chirib, lampani yoqishdi. Lampa kechasi bilan yonishini nazarda tutib, piligini pa-saytirib qo‘yishdi.

Nadya tikuv mashinasini topib keldi-da, uni boyo o'zlar o'tirgan stol ustiga qo'ydi, shundan neyin Lyusya avval bir parcha latta qo'yib, igna yurishini tekshirib ko'rdi: mashina yaxshi tikardi.

– Endi yotaver, – dedi Lyusya Nadyaga. – Imkoni borida uxlab ol. Kim biladi, kechasi nimalar bo'ladi.

Nadya ketdi. Mixail pichirlab undan nimanidir so'radi, u ham pichirlab javob berdi.

Jimjit xonada mashinaning tigir-tiqiri juda qattiq, xuddi urushdag'i otishma ovozidek eshitilib, Lyusyaning o'zini ham cho'chitib yubordi. U qo'rqqanidan tutqichni qo'yib yubordi. Exxonasi chiqib ketgan Varvara oyoq yalang yugurib kirdi, ammo Lyusyani ko'rib, hovuridan tushdi.

– O'zingga shukur, ey xudonam! Nima ekan deb o'ylabman. A'zoyi badanim titrab ketdi. Nimalar qilyapsan?

Lyusya javob bermay tikishda davom etdi.

– Nima balo, azaga mo'ljallab qora tikyapsanmi?

– Ko'rib-bilib turib, yana so'raysan-a?

– Ha, nima dedim axir?

– Hech nima.

– Tikaver, seni chalg'itmeyman. Yoningda birpas o'tiray, keyin ketaman. Senga xalaqit bermayman.

Varvara kursini yaqinroq surib, singlisining yoniga cho'kdi. U hali yechinmagandi, faqat ipidan uzib qo'ygani uchun, oyoqlarini sibir turgan chulkisi tizzasidan pastda osilib yotardi.

Qayerdadir olis daryoda paroxod ketma-ket bir necha marta bo'g'iq signal berdi.

Varvara boshini ko'tarib diqqat bilan qulqoq solarkan, ahti bujmayib ketdi:

– Nega hadeb chinqiryapti?

– Bilmasam. Bitta-yarimtaga signal berayotgandir-da.

– Signal beradigan boshqa joy qurib qolibdimi. Hamma yoqni buzib yuboray deyapti-ku.

U yana biroz o'tirdi-da, istar-istamas o'rnidan turdi:

– Bora qolay endi. Sen hali ko'p o'tirasammi?

– Tikib bo'lib yotaman.

– Bugun uxlamasak ham bo'lardi, oh, uxlamasak bo'lardi, – dedi Varvara boshini chayqab. – Gaplashib o'tirsak bo'lardi, zerikmasdik. Ko'nglim sezyapti: bir balo bo'ladi shekilli.

Varvara ketdi, ammo ko'p o'tmay yana qaytib keldi-da, Lyusyanning o'takasini yorib devorga behol suyandi.

– Nima gap? – hovliqib so'radi Lyusya.

– Yo menga shunaqa tuyuldi, yoki rost. Bor, o'zing borib qara-chi.

Lyusya ishonmadi, ammo ishonmayman, deyishga tili bormadi va onasidan xabar olgani qo'zg'aldi. U onasining qo'lini ushlar ekan, ortidan Varvaraning hushtakka o'xshash og'ir nafas olayotganini eshitdi. Varvarani nari haydashga to'g'ri keldi, shundan keyingina, ming bir urinislardan so'ng u kampirning tomiri xuddi olislardan eshitilayotgandek juda sekin urayotganini arang payqadi. Nazarida boyagidan ko'ra bu safar puls yanada zaiflashib, shunda ham bir tekis emas, ahyon-ahyondagina urayotgandek edi.

– Sen borib yotaver, – dedi Lyusya opasiga achinib. – Men to tikishimni tugatguncha xabar olib turaman, keyin seni uyg'otaman.

– E, hozir ko'zga uyqu kelarkanmi? – dedi Varvara boladek zorlanib. – Ilyaning quvligini ko'rdingmi, bilganlaringni qilinglar dedi-yu ketvordi. E, endi uyquga balo bormi? Endi nima qilish kerak, nima qo'yish kerak deb o'ylayveraman. Yaxshisi, seni yoningda o'tira qolay.

– O'tirsang, o'tiraver.

– Miq etmay o'tiraman.

U yana Lyusyaning yoniga cho'kdi-da, xo'rsinib, gazmolni ushlab ko'rди, uning tikishini tomosha qildi.

– Keyin bu ko'ylakni o'zing olib ketasanmi? – deb so'radi u.

– Nima edi?

– Agar olib ketmasang, menga qoldir demoqchiydim.

– Boshingga urasanmi? Axir bu ko'ylak senga sig'maydi-ku.

– O'zimga emas. Qizimning bo'yi cho'zilib senga yetay deb qolgan. Unga juda loyiq keladi.

– Nima, qizingni kiyimi yo'qmi?

– Ha, to'g'risini aytam, yo'q hisobi. Hammasi eskirib, oho-ri to'kilgan. O'zing bilasan, qiz bola narsa, yasan-tusanni yaxshi ko'radi.

– Qora kiyim bilan yasan-tusan qilib bo'larkanmi?

– Qizim injiq emas. Yog'in-sochinda kiyib yurardi. Yomg'irda gulli ko'ylakda yurmaysan-ku axir.

Lyusya va'da berdi:

- Ketayotganimda, albatta beraman.
- Unga xolang berdi deb aytaman, – dedi xursand bo'lib Varvara.
- Nima desang, o'zing bilasan.

Ular jim qolib, Lyusya ham tikishni to'xtatgach, Mixailning bo'lmasidan birovning xurrak otayotgani eshitila boshladi. Varvara diqqat bilan qulqo sola boshladi.

– Kim bo'ldiykin? – xurrak kuchaygandan keyin jahli chiqdi uning. – Voy uyatsiz-ey. Zap vaqtini topibdi-da. Odamlarda na sharm-hayo, na insof qolgan. Yana o'g'il emish-a. – Varvara jim bo'ldi-yu, so'ng singlisiga yalinib-yalvordi: – Yur, yana bir xabar olaylik-chi. Bir o'zim qo'rqaman.

Kampir hamon boyagiday edi: na o'lig-u na tirik. Uning a'zoyi badani sovib qolgandi, faqat uzoq umr ko'rishga ahd qilgan yuragi zo'r-bazo'r urib turardi. Ammo uning uzoqqa bormasligi ham shundooqning ko'rinish turardi. Narisi bilan ertalabgacha yetishi mumkin edi. Lyusya to ko'ylagini tikib bo'limguncha Varvara ham yotmadi. Shundan keyin Lyusya o'z karavotini opasiga berishga majbur bo'ldi, o'zi esa buklama karavotda yotdi – shunday qilmasa Varvara baribir uni uxlagni qo'ymasligini bildi.

## 2

Navbat yetib tong ham otdi, atrof yorisha boshladi, ammo quyosh chiqmasdan burun daryo tomondan quyuq, qalin tuman bosib keldi-yu, atrofdagi barcha narsa g'onab bo'gandek, ko'rinxay qoldi. Qishloqda sigirlar ayanchli ma'rashardi, xo'rozlar kekirdaklarini yirtib qichqirishardi, odamlarning xuddi baliq suvni shaloplatayotganga o'xhash qisqa, bo'g'iq ovozlari eshitildi – hammayoq opopoq, quyuq tuman, bunday sharoitda o'zingdan ikki qadam narini ko'rolmaysan. Kun o'zi ancha kech yorishgandi, buning ustiga tuman tushdi-yu, rasvo qildi, paypaslanib yurishga majbur etdi.

Kampirning uyida hammadan oldin Nadya turdi. Yaqin-yaqin-gacha ham qaynonasi sigirning ma'raganini eshitib, uni uyg'otardi, shuning uchun Nadya garchi uyg'oq bo'lsa ham, qaynonasi yotgan xonada uni chaqirganidan keyingina o'midan turardi. Mana, hozir ham u darrov o'midan turgani yo'q, garchi u kampirning chaqirmsligini bilsa-da, uning ovozini kutdi. Hech qanday ovoz eshitilmadi-

yu, ammo sog‘ilmagan sigir cho‘zib ma’radi, shundan so‘ng Nadya turishga majbur bo‘ldi. Kampirni bir zum ham esidan chiqarmagan, ammo uning o‘lik-tirigini bilishdan qo‘rqan Nadya sekingina ki-yindi va sirg‘alib xonadan chiqdi-da, dahlizdagi ilgak-mixdan sut sog‘iladigan idishni oldi.

Uning ketidan barvaqt uyg‘onishga o‘rganib qolgan Varvara ham turdi. Qarasa Nadya yo‘q, boshqalar esa uqlab yotibdi, u polda tosh qotib yotgan Mixailni uyg‘otish uchun ketma-ket besh marta cha qattiq va og‘ir xo‘rsindi, u har xo‘rsinganda oxirini cho‘zib ingrab qo‘yardi. Ammo Mixail uyg‘onish tugul, hatto qimirlab ham qo‘ymadi. Shundan so‘ng Varvara tabiiy xo‘rsindi-yu, ammo xo‘rsinganini o‘zi ham payqamay qoldi. Uydagilarning go‘yo til biriktirganday dong qotib uqlab yotishi unga yomon bir alomatday tuyuldi-yu, yuragini vahima bosdi. U bitta-yarimtasiga o‘zini sezdirib qo‘ymaslikka harakat qilib, ohista, hadiksirab, kampir yotgan bo‘limga o‘tdi va eshik oldida to‘xtadi. Uyda kirish eshididan boshqa eshik yo‘q, faqat uning o‘rni bor edi. Varvara nim qorong‘i xo-naga cho‘chib tikilar kan, shu yerda turib qoldi. U kampirning yuzini ko‘ra olmadi, uni karavot suyanchig‘i to‘sib turardi, ammo adyol ostida o‘lik-tirikligi noma’lum kimdir bor edi, lekin borib qarashga Varvaraning yuragi dov bermadi, shu sababdan u bosh qashishga qo‘l tegmay qolgan paytda shoshib qolmaslik uchun avval hojatxonaga borib kelish kerak, deb o‘yladi-da, ortiga qaytdi. Varvara tashqaridan Nadya bilan birga qaytib kirdi. Nadya oshxonada sutni dokadan o‘tkazarkan, Varvara uning atrofida ivirsib yurardi. Stol ustidagi tikuval mashinasi Lyusya qanday qoldirgan bo‘lsa, shundayligicha turardi, shuning uchun Nadya shivirlab so‘radi:

— Kechasi tikdimi-yo‘qmi?

— Tikdi, — deb javob berdi Varvara ham shivirlab. — Ayrim mayda-chuydasi qoldi shekilli. — Shundan keyin u ortiq chidab turolmay yalindi: — Yur, birga borib uyg‘otaylik, o‘zimning yuragim dov bermayapti.

— Hozir, sutni eltib qo‘yay.

Varvara dahlizda Nadyaning ketidan xuddi soyadek ergashib yurardi. Nadya yana oshxonaga kirdi, chunki bir banka sut qolib ketib, uni olish Varvaraning xayoliga ham kelmagandi, u shunchaki u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi. Nihoyat Nadya ishini bitirib,

qo'llarini lattaga artdi-da, kampirning bo'lmasisiga birinchi bo'lib kirdi.

Lyusya uxbab yotardi, uyquda ekani shundoqqina ko'rinish turardi, ammo kampir xususida hech kim bunday deb aytolmasdi. Nadya qaynonasiga ko'z tashladi-yu, darrov nigohini bir chetga oldi. Varvara esa onasiga qarashga ham qo'rqb, Lyusyani turtkilay boshladi. Lyusya darrov ko'zini ochdi-yu, shu ondayoq sakrab o'rnidan turdi, uning sakrab turishidan buklama karavot bir tomonga surilib ketdi.

– Nima gap? – so'radi Lyusya. – Nima bo'ldi?

Varvaraning o'pkasi to'lib, hiqilladi:

– Bilmayman. Men bilolmayapman. Sen o'zing bir qara.

Lyusya o'ziga kelib, qo'llari bilan sochlarni tarab, tartibga soldi, yonidagi kursida yotgan xalatini kiyib oldi va onasining oldiga yaqinlashdi. Jon bor-yo'qligini aniqlashni o'rganib olgan Lyusya kampirning qo'lini ko'tardi-yu, shu ondayoq tushirdi va ortga tisarildi; kampir nogahon ayanchli ingradi-da, yana jim bo'lib qoldi. Varvara uvvos tortdi:

– Onajonim, jon onajonim! Ko'zlarining ochsang-chi!

Mixail ishtonchan yugurib kirdi. Uyqusirab nima gapligini anglamay so'radi:

– Uzildimi? Eh, onajon, onajon... Volodkaga telegramma berish kerak.

– Nimalar deyapsan?! – deb uni to'xtatdi Nadya. – Buncha hovliqasan?

Lyusya onasining tomirini ushlab ko'rdi-da, yengil tortib dedi:

– Tirik.

– Tirik?! – Mixail Varvaraga o'girildi-da, qizishib dedi: – Unday bo'lsa nega sen uv tortib, aza tutyapsan? Bor, ko'chaga chiq, Ninkani uyg'otib yuborasan! Zap nag'mani boshlapsan-da.

– Sekinroq! – dedi Lyusya. – Qani, hamma xonadan chiqsin.

Uning o'zi esa nonushtagacha, Nadya kartoshka qovurib kelgunchiha o'tirib, yangi ko'ylagining yoqasini chatib, tugmasini qadadi. Tugmalarni u shahardan o'zi bilan olib kelgandi.

Varvara ko'z yoshi qilgancha mo'rchaga borib Ilyani turtib uyg'otdi:

– Onajonimiz tirik, tirik.

- Tirik bo‘lsa, nega uyg‘otding? – dedi Ilya to‘ng‘illab.
- Seni xursand qilay dedim-da.
- Kalla pishgandan keyin ham aytsang bo‘lardi-ku. Sen bo‘lsang kallayi saharlab uyg‘otib yuribsan.
- Kallayi sahar qoldimi? Tuman-ku bu.

Tuman anchagacha, to soat o‘n birlargacha tarqamadi, keyin qandaydir bir kuch uni yuqoriga ko‘tarib daf qildi-yu, shu zahoti quyosh charaqlab ketdi. Atrof nurga g‘arq bo‘lib, borliq jilva qildi. Sentyabr boshlangan bo‘lsa ham, ammo hali kuz nafasi sezilmasdi, hatto polizlardagi kartoshka palaklari ham ko‘m-ko‘k edi, o‘rmonda esa undabundagina jazirama kuydirganga o‘xhash jigarrang dog‘lar ko‘zga tashlanardi.

Keyingi yillarda yoz bilan kuz xuddi o‘rin almashganga o‘xshardi: iyun, iyul oylarida yomg‘ir sharros quyib, keyin to Pokrov<sup>1</sup>gacha havo ochiq, kunlar yorug‘ bo‘lardi. Ob-havoning bunday kelishi bir jihatdan yaxshi: kun ochiq, yorug‘ bo‘ladi, ammo boshqa tarafdan yomon, sababi – hamma narsa o‘z vaqtida bo‘lgani durust. Mana endi xotin-xalajlarga yana bir muammo: kartoshkani qachon qazib olishni o‘zlarining bilib olaveringlar. Eski hisobga ko‘ra qazib olishning ayni vaqt, ammo boshqa jihatdan, hozircha havo yaxshi ekan, ko‘z qiymaydi, yaxshilab yetilsin deydi. Kartoshka ayni yoz chillasida, xuddi suvda suzgan baliqdek ko‘lmak ichida yotsa qayoqdan ham pishib yetilsin. Bordi-yu kutishsa-da, ammo birdan havo aynib, sharillatib yomg‘ir quyib qolsa, keyin bilch-bilch loyning ichidan kartoshkani qazib olib bo‘psiz. Bir qazib olgilar keladi, bir kutib turgilari, qaysi biri foyda-yu, qaysinisi ziyon – hech kim bilmaydi. Pichan o‘rimi ham shunday: ba‘zilar eski hisobga binoan pichanni o‘rib oldi-yu, ammo yomg‘irda hammasini chiritib yubordi, ayrimlar esa ana o‘raman, mana o‘raman, deb ichib olib mast-alast bo‘lib yurdi-yu, qaytanga o‘shalar foyda qildi. Ob-havo ham esini yegan kampirga o‘xshab aynib qolgandi. Odamlar bularning bariga dengizga aylanib borayotgan daryolar sababchi deyishardi.

Nonushtaga Nadya hozirgina kovlab kelingan yangi kartoshkadan qovurib keldi, uning yoniga chuqur tovoqchada tuzlangan rijik<sup>2</sup>-dan qo‘ydi, uni ko‘rib Lyusyaning ko‘zi o‘ynab ketdi-da:

<sup>1</sup> Pokrov – dastlabki qor.

<sup>2</sup> Rijik – qo‘ziqorinning bir turi.

– Voy, rijik! Asl rijiklar-a! Men bo‘lsam bu yorug‘ olamda shun-a narsa borligini ham esimdan chiqarib yuboribman, yemaganimga yuz yilcha bo‘ldi o‘ziyam. Hatto aql bovar qilmaydi, – dedi.

– Rijik – zo‘r narsa-da o‘zi, – dedi Ilya labini chipillatib. – Bu sizlarga anov-manov narsa emas. Agar shu rijiklarning yonida haligi qurg‘urdan ham bo‘lganida bormi, yanayam zo‘r bo‘lardi-da!

– Nega buni kecha bermading-a, – deb Mixail Nadyaga yozg‘irdi.  
– Ichkilik bilan juda ketardi-da. Ha, attang-a, attang!

Nadya qizarib, mehmonlarning ko‘nglini topganidan esa suyunib, o‘zini oqlay boshladи:

– Kecha qo‘ymoqchi bo‘ldim-u, ammo hali yaxshi tuz yemagan bo‘lsa kerak deb o‘yladim, axir o‘zi yaqinda tuzlovdim-da. Ertalab tatib ko‘rsam, binonaday. Keyin kel, dasturxonga tortay, bitta-yarimtaga ma’qul kelar, deb o‘yladim. Agar yoqqan bo‘lsa, olinglar, yeng-lar. Osh bo‘lsin.

– Tagi mo‘lmi ishqilib?

– Ozroq bor. Terishga vaqt yo‘q, innaykeyin kim ham terardi. Odamlar esa tashigani-tashigan, har kuni ko‘raman, meni bo‘lsa sira qo‘lim tegmaydi, goh u, goh bu ish chiqib qoladi. Shu yoz bor-yo‘g‘i ikki marta bordim, shunda ham shu yaqin atrofga chiqdim.

– Ilgari faqat Tatyanamiz rijik terishni yaxshi ko‘rardi, – deb esladi Lyusya. – Qayerda borligini yaxshi bilardi. Men bir marta u bilan birga boruvdim, unda hali kichkina qizcha edi, qarasam, hash-pash deguncha bir chelak terib qo‘yibdi. Men undan: «Bularni qayerdan terding?» deb so‘rasam, u: «Shu yerdan», deydi. Men unga: «Bular nega senga ko‘rinadi-yu menga ko‘rinmaydi», desam, u: «Bilmasam», deydi. Men unga: «Sen bularni oldinroq terib, yashirib qo‘ygansan-u endi menga ko‘rsatyapsan-a», dedim. O‘shanda Tatyna xafa bo‘lib yonimdan ketib qolgandi. Uyga ham alohida qaytib kelgandik, uning chelagi liq to‘la edi, meniki esa chelakning taggi-nasida.

– U duch kelganni terib ketavermasdi, – deb eslab qoldi Mixail.  
– Agar mayda bo‘lsa – qoldirardi, chunki bir-ikki kunda yaxshilab yetillardi-da. Ularning bari esida turardi. U meni ham bir marta hol-jonimga qo‘ymay olib boruvdi. Men ko‘ringanini tezroq tersam-u uyga jo‘nasam, dedim-da, terishga tushdim. Bir mahal u maydalari-ni ham terayotganimni ko‘rib qoldi-yu, rosa bobillab berdi. Bir kuni

o‘rmonda aytishib ham qolgandik. Men ko‘proq podosinovik<sup>1</sup> terishni yaxshi ko‘rardim – tez terasan, ular to‘p-to‘p bo‘lib o‘sadi-da.

– Hammamizdan ko‘ra oramizda Ilya qo‘ziqorinni yaxshi terardi, – deb kuldi Lyusya. – Chelakka bosib o‘t solardi-da, ustidan bir nechta qo‘ziqorin tashlab qo‘yardi, go‘yoki chelak to‘la qo‘ziqorinday.

– Ha, shunaqa bo‘luvdi, – deya tan oldi Ilya.

– Eslaringdami, onam hammamizni yuqori daryoning narigi tarafiga yovvona piyoz tergani yuborar edi. O‘sha yerda bir botqoqlik bor edi, piyoz esa botqoq do‘ngliklarida o‘sardi. To terib bo‘lgunimizcha shalabbo bo‘lib, rosa balchiqqa belanardik – ko‘rgan kishining kulgisi qistardi. Qoplarni quruq yerga qo‘yardik-da, do‘nglikdan do‘nglikka sakrardik. Tag‘in, kim ko‘p terishga musobaqalashganlarimiz, hatto bir-birimizdan o‘g‘irlaganlarimiz-chi. Sarimsoq piyoz terish uchun esa o‘sha yuqori daryo ro‘parasidagi orolga suzib o‘tardik...

– Qoraqarag‘ayzorga, – dedi eslab Mixail.

– Ha. Qoraqarag‘ayzorga. O‘sha yerda kolxozga pichan ham o‘rilardi, o‘rim paytida butun qishloq ko‘chib borardi o‘ziyam. Pichanni qanday to‘plaganim hali ham yodimda: jazirama edi, o‘rgimchaklar chaqardi, sochlarim, kiyimlarim orasiga xashak kirib qichitib bezor qilardi...

– O‘rgimchak emasdир-u, so‘na bo‘lsa kerak, – deb ming‘illadi Varvara. – O‘rgimchak burchak-burchaklarga in soladi, ammo chaqmaydi.

– So‘na bo‘lsa bordir. Baribir ularning nomi aslida boshqacha, faqat bu yerda shunday deyishadi. O‘zimiz uchun boshqa oroldan pichan o‘rardik... O‘sha orolning nima deyishardi-ya, hozir eslayman... nomi ham daraxt nomida edi.

– Tilog‘och.

– Ha, tilog‘och. Eh-hye, u yerda qorag‘at juda ko‘p bo‘lardi-da! Mevasining ko‘pligidan butalari yerga tegay-tegay derdi. Yeyaverasan, yeyaverasan, keyin hatto jag‘ing og‘rib, tishlaring qamashib ketardi, qorag‘atlar ham yirik-yirik, juda shirin edi-da o‘ziyam. Bir soatga qolmay bir chelakni liq to‘ldirish mumkin edi. Hozir ham u yerda qorag‘at ko‘p bo‘lsa kerak.

<sup>1</sup> Podosinovik – qo‘ziqorinning bir turi.

– E yo‘-o‘q, qayoqda deysiz! – Nadya qo‘l siltadi. – O‘sha butalar qolmadi hisobi. Lespromxoz tashkil qilingandan keyin hammasini olib ketishdi. Goho ko‘ngling tusaganda qidirib-qidirib arang topasan...

– Afsus, afsus!

– Tepalikdagi daraxtlar ozmuncha meva qilarmidi? Hozir ular ham yo‘q. Mollar, kamiga odamlar ham toptab tashladi, hech kimning parvoiga kelmaydi.

– Nega shunday qilasizlar, axir?

– Kim biladi deysiz?! Xuddi qaytib bormaydiganday sug‘urib olib ketishyapti. Butasi bilan bo‘lsa butasi bilan, bargi bilan bo‘lsa bargi bilan yulqib olishyapti.

– Hay, rijkik bormi, ishqilib?

– Bu yilcha bor, odamlar olib kelishyapti.

– Borib loaqal rijkik terib kelish kerak ekan.

– Rijkikka borish uchun telegrammasiz kelish kerak edi, – deb Varvara uzib oldi.

Bu gapdan Lyusyaning jahli chiqib ketdi.

– Sen bilan, Varvara, sira gaplashib bo‘lmaydigan bo‘lib qolibdi. Birov bir nima desa, darrov gapidan qiyiq topib, undoq emas, bundoq deysan, har narsadan illat izlaysan. Kattaman deb har gapimizda og‘zimizga uraverishing yaxshi emas-da, axir. Biz ham endi yosh bola emasmiz, shuni unutma, qolaversa, nima qilayotganimizni yaxshi anglaydigan yoshamiz. Nima degan gap axir bu?

– Senga hech kim hech nima deyayotgani yo‘q, bilmadim, nega mendan jahling chiqyapti?

– Hali men jahl qildimmi?

– Bo‘lmasa men qildimmi?!

– Qo‘yinglar endi, ovqatga qaranglar, – deya o‘rtaga tushib yolvordi Nadya. – Bo‘lmasa kartoshka sovib qoladi. Sovigandan keyin maza qoladimi unda. Rijkni rosa maqtovdinglar, lekin negadir yemadinglar, olinglar, tushlikkacha hali uzoq.

– Tatyana kelishi kerak. Yana bir to‘planamiz-da.

– Ha, tushgacha yetib kelishi kerak.

– Agar rayondan kelsa, vaqtliroq ham yetib kelishi mumkin.

– Mehmonxonadami yoki birovnikidami tunab qolgan-da, biznikiiga kirmagan, hazar qilgan, – eldan burun shikoyat qilishga tushdi Varvara.

– Yo‘q, Tatyana albatta kiradi, – dedi Mixail. – Tatyana siz juda sodda.

– Sodda edi, qani kelsin, ko‘raylik-chi, qanday bo‘lib ketibdi, – deb gapida turib oldi Varvara. – Necha vaqtidan beri uygaga kelgani yo‘q.

– U hammamizdan olisda yashaydi, u yoqdan kelishning o‘zi bo‘ladimi?

– O‘sha yoqqa bor deb birov aytibdimi unga? Agar unga harbiy er kerak bo‘lsa, shu yaqin o‘rtadan topsa ham bo‘lardi, hozir harbiylar hamma yerda ham bor. Xuddi erkak urug‘iga o‘t tushganday hech qayoqqa qaramay ketdi-qoldi.

Lyusya sekingina boshini sarak-sarak qildi.

– Yaxshisi Varvaramiz bilan bahslashmaylik. U, doimo haq.

– To‘g‘ri gap tuqqaningga yoqmas.

– Mana ko‘rdinglarmi, shu-da, – Lyusya stoldan turarkan, mezbonga minnatdorchilik bildirdi: – Rahmat, Nadya. Rijiklarni maza qilib yedim.

– Siz unga deyarli qo‘l ham urmadingiz-ku. Rahmat, aytishning hojati yo‘q.

– Menga shu ham ko‘p. Bunday taom esimdan chiqib ketgani uchun oshqozonimga to‘g‘ri kelmaydi, shu bois uni ko‘p yeishdan qo‘rqaman.

– Rijik ichketar qilmaydi, – dedi Varvara murosa ohangida. – U qoringa sira ziyon qilmaydi. O‘zimdan qiyoq, qolaversa, bolalarim ham rijik yeb hojatxonaga yugurganini ko‘rmaganman. – U Lyusyaning nega xo‘rsinib turib ketganini tushunolmadi, shuning uchun inilaridan so‘radi: – Nega unday qildi?

– Kim biladi.

– Bir og‘iz gapirib ham bo‘lmaydi-ya.

– Sen u bilan bunday emas, shaharlolgarga xos, madaniychasiga gaplash-da, – maslahat berdi Ilya kulib.

– Men shaharchasiga muomala qilishni bilmayman, umrim bino bo‘lib shaharga bor-yo‘g‘i bir marta borganman, xo‘sh, u-chi, o‘zi ham qishloqdan chiqqan-ku, men bilan qishloqchasiga gaplashsa ham bo‘ladi-ku.

– Balki esidan chiqarib yuborgandir.

– U esidan chiqargan bo‘lsa, men o‘rgana olmadim, xo‘sh, endi nima qilamiz, gaplashmay yuraveramizmi?

Nonushtadan keyin Mixail bilan Ilya chekkani pillapoyaga chiqib o'tirdi. Havo ochilib ketgandi, osmon tuman bilan birga chekinib, borgan sari yuqorilab borardi, uvada bulutlar orasidan ko'rinyotgan moviy ko'kni endi inson ko'zi ilg'amasdi, bu tubsiz go'zallikdan tinib ketgan nigohlar dam olish uchun yaqinroqdan niinanidir izlab qolardi. Quyosh taftida erkalanayotgan o'rmon ko'm-ko'k tovlanib, qishloqning uch tomoni va to'rtinchi – daryo tomonidan borgan sayin ochilib, kengayib borardi. Hovilarda tovuqlar o'zidan o'zi qaqqag'lab, qanotlarini qoqishar, jo'jalar chirqillashardi, poliz chetida ag'anab yotgan axta cho'chqa issiqdan huzur qilib chiyillardi.

Ninka hovliga chiqarkan, uyqudan yaqinda ochilgan ko'zlari of-tobda qamashib ketdi-yu, qo'lini ko'ziga soyabon qilib, aftini buj-maytirdi. Birozdan so'ng ko'zlari yorug'likka ko'nikkach, lip etib taxlab qo'yilgan sarjinlar orqasiga o'tib o'tirdi. Bir tovuq orqa tomonidan xiralik qilib kelavergach, Ninka tovuqni kish-kishlab quvib be-xos keti ochiq holda sarjinlar ortidan chiqib keldi. Mixail unga qarab baqirdi:

– Ninka, menga qara, men seni xuddi mushukchaday burningni yerga ishqab qo'yaman, tushundingmi. Sarjinlardan nariroq yur, deb senga necha marta aytish kerak o'zi!

Ninka panaga o'tarkan, arazlab ming'irladi:

– Tovuqlar yeb ketadi.

– Ko'rsatib qo'yaman senga tovuqlarni.

Ertalabki yumushlardan so'ng qishloq tinchib qoldi: ishga ketadiganlar – ketishdi, mol-hollarini saranjom-sarishta qilgan bekalar endi uylarida jimgina g'imirlashib, ishlarini qilishardi, bolalar hali ko'chaga yopirilib chiqishmagandi, hammayoq suv sepganday edi, faqat ahyon-ahyondagina mollardan birontasi ma'rab qo'yar yoki biron eski eshik g'ijirlardi, yoki biron yerdan tuyqus kimningdir ovozi eshitilib qolardi. Bular odatdag'i, kundalik ovozlar edi, ular qishloq huwillab qolmaganidan, tirik jon borligidan darak berardi. Erta bilan tush orasidagi bu vaqtida shovqin-suron va harakat ham tin olib, jim-jitlik hukm surar, tiniq, ochiq osmondan yog'ilayotgan harorat tundan keyingi qishloqni isitib, unga ohista, zimdan shukuh baxsh etardi.

– Har qalay onamiz chakki emaskan, – dedi Mixail ajib sukunat-dan iyib ketib. – Uning ko'ngliga boqib kun ham ajoyib bo'ldi-da. Har kimga ham bunday kun nasib etavermaydi.

- Ha, havo ochilib ketdi, – dedi unga javoban Ilya.
- Ammo biz bir ishni qilib qo'yishimiz kerak. Hozircha do'konda oqidan bor, o'shandan olib qo'yishimiz kerak. Ertaga pul kelib qolsa, hammasi qo'lma-qo'l bo'lib ketadi. Keyin yugurib yurasan.
- Nima, aroqmi?
- Ha-da, oqidan deyapman-ku. Anavi qizilini xush ko'rmayman. U men uchun na bor-u na yo'q. O'shandan, o'sha savil qotgurdan bosh ertalab og'riydi-da. – Mixail boshog'rinqi eslashi bilan a'zoyi badani jimirlab ketdi. – Kuni bilan o'lat tekkan odamday karaxt bo'lib yurasan.
- Baribir xotin-xalajlarga olishga to'g'ri keladi.
- Ozroq olamiz, o'sha yetadi. Ko'p olib nima qilasan? Hozir uni xotin-xalajlar ham ko'p ichmayapti, ko'proq oqidan olyapti.
- Har jihatdan tenglik ekan-da, a?
- Bo'lmasam-chi.
- Ular quvlik bilan jilmayishdi, hozir teng huquqlilik to'g'risidagi bu quvnoq suhbatni davom ettirish fursati emasdi, shuning uchun ha-zilni bir chetga yig'ishtirib qo'yishdi.
- Xo'sh, nechta aroq olamiz? – so'radi Ilya.
- Bilmasam, – dedi Mixail yelkasini qisib. – Kamida bir yashik kerak. Undan kami ozlik qiladi. Qishloqning yarmi keladi-ya. Sharmanda bo'lib qolmaylik, onamiz ham qo'li ochiq edi.
- Mayli, bir yashik olamiz.
- Yoningda pul-muling bormi?
- Ellik rubl bor.
- Unday bo'lsa Nadyadan ham olaman, yetib qolar.
- Opa-singillardan ham olamizmi?
- Varvaradan nimayam olarding. Lyusyadan so'rasak bo'ladi, uning puli ko'p bo'lsa kerak. Istasa, bersin. U ham o'z qizi-ku, o'gay emas. Yana meni ajratib qo'yibsizlar, deb xafa bo'lib yurmasin.
- Hozir borib kelamizmi?
- Ha-da, cho'zib nima qilamiz? Men Nadyani topay-chi, keyin boramiz. Bugundan qoldirib bo'lmaydi, ertaga oylik kelib qolsa, bitta ham qolmaydi, bu aniq. Men bilaman, bizda shunaqa. Sal angray-sang, bo'ldi, kuning suvg'a qoladi. Boshqa payt bo'lsa-ku, amallasa ham bo'ladi, ammo hozir, boshimizga bunday ish tushib turganda, sharmanda bo'lib qolish hech gap emas. Yo'q, onamizni izzat-hur-

matini o‘rniga qo‘yib kuzatamiz, undan noliydigan yerimiz yo‘q. – Mixail o‘rnidan turdi-da, so‘zlashda davom etdi: – Demak, bunday qilamiz: men xotinimdan ozroq bo‘lsa ham pul olay, axir o‘zimizga ham qolishi kerak-da, tirikchilik deganday. Sen esa opamning oldiga bor, mening mezbon sifatida undan pul so‘rashim noqulay. Keyin do‘konga chiqib kelamiz. Aqlimizga kelib qolganini qara-ya, olish kerak, olish kerak, endi kutib o‘tirishning hojati yo‘q.

Ko‘p o‘tmay ular hovliqib yo‘lga tushishdi, axir shuncha narsani bir kishi olib kelolmaydi-da. Do‘kon olis emasdi, oylik hali berilmagani uchun u yerda hech kim yo‘q edi. Shu bois ularning ishi tez bitdi, bir pasda shishalarni jiringlatib, yashikni ko‘tarib kelishdi-da, omborchaga tiqib qo‘yishdi.

– Mana bo‘ldi, – dedi Mixail, – olib qo‘yilsa, ko‘ngil to‘q-da. Anavi portveynni istagan paytda olsa bo‘laveradi, unga ishqibozlar yo‘q hisobi.

Nogahon ichkarida Ninka chinqirib qoldi. Mixail qiziga o‘shqirmoqchi bo‘lib eshikni ochdi, ammo uni uchala xotin o‘rtaga olib so‘roqqa tutayotganini ko‘rdi-da, qulq sola boshladи.

- U o‘zi, – dedi Ninka cho‘zib.
- Nima o‘zi? Nima? – derdi Lyusya qizchani hol-joniga qo‘ymay.
- Men e-mas, u o‘zi-i...
- Xo‘sh, nima u o‘zi? Ayta qolsang-chi? Tiling bormi?
- U ko‘zini ochib, meni ko‘rdi...
- Xo‘sh, nima bo‘pti?
- O‘zi buni ko‘rganmish-a, – dedi Nadya Ninqani kalaka qilib. – Men o‘zim ko‘rdim-ku seni, nega uning chamadoniga tegding? Seni birov o‘sha yerga borgin dedimi? U yerda nimang bor edi?
- O‘ o‘zi menga ko‘rsatdi-da, – dedi Ninka qichqirib. – Sen ko‘rganing yo‘q-ku, gapirma.
- Voy tavba, ona bilan ham shunaqa gaplasharkanmi? Voy, odatting qursin. Kimdan olyapti-ya bunday tarbiyani.

– Shoshmay tur, Nadya, – deb uni to‘xtatdi Lyusya va yana Ninkaga engashdi. – U senga qayoqni ko‘rsatdi?

- Qayoqni... qayoqni... Karavot tagini.
- Nadya tushuntira boshladi:
- Kampir karavot ostidagi chamadonida shu erkatoyiga deb konfet saqlab yurardi.

– U senga qanday qilib ko‘rsatdi? – dedi Lyusya o‘smoqchilab. – Bizga bir boshdan aytib ber-chi. Bu qanday bo‘ldi, xo‘sh?

– Men unga qaradim, u bo‘lsa menga qaramadi, keyin ko‘zlarini ochdi-da, menga qaray boshladi. Keyin ko‘rsatdi.

– U senga hech nima demadimi?

– Hech nima demadi.

– Voy tavba-ey, – deb Varvara og‘ir xo‘rsindi. – Oxiri nima bo‘larkin-a?

– Aslida qizimiz badaxloq emas, – deb Ninkaning yonini oldi Mixail. – Ilgari bunaqa qilganini sira ko‘rmaganmiz. Ehtimol, o‘limi oldidan onam hushiga kelib, ko‘zi ravshan tortgandir, shunda Ninka duch kelib qolganmi?

O‘limning esga olinishi ularni hushyor torttirib, hovurlaridan tushirib qo‘ydi, hatto ular go‘yo narigi dunyoning achchiq, qo‘lansa havosi bu yerga yetib kelgandek hadiksirab nafas ola boshlashdi. Keyin oyoq uchida yurib, kampirning karavotiga yaqinlashishdi, ular onada biron o‘zgarish topishga harakat qilishdi, lekin topisholmadi: faqat kun tongga nisbatan yorug‘ bo‘lgani uchun kampirning yuzlari battar oqarib naq murdadek ko‘rinardi. Ammo yuragi avvalgidek urib turar, uni yaqinlaridan judo bo‘lishga qo‘ymas edi.

Mixail tashqariga, Ilyaning oldiga chiqdi. U ermak uchun nonni uvoqlab tovuqlarga berib o‘tirgan ekan.

– Ninka buvim ko‘zini ochdi deyapti, – dedi Mixail.

– Uni qara-ya! – ajablandi Ilya xo‘rozni oyog‘i bilan haydab. – Nima demoqchi bo‘lganiykin?

– Bilmasam.

– Tirikmi axir?

– Tirik. Ko‘rdik.

Kunning bunchalik yaxshi bo‘lishi bejiz emasdi, go‘yoki buning kampirga daxli bordek edi. Kun muloyim, orombaxsh bo‘lib, oftob naq qishloq tepasida, qolaversa, kampirning uyi ustida jimirlab turardi. Vaqt tushga yaqinlashsa-da, biron hodisa yuz bermadi, kun jimgina o‘tmoqda edi, go‘yo u kimnidir falokatdan asrab, o‘z panohiga olganday edi. Ko‘k yuzini ertalab xiyol bulut qoplagan bo‘lsa-da, ammo hozir havo ochiq, avzoyi yaxshi, go‘yo nimanidir kutayotgandek edi. Bahordan beri ko‘p narsalarni ko‘raverib, odatda sentabrda kunlar ham qarib injiq bo‘lib qolgandek tuyuladi, ammo

bugungi kun esa yerdagi barcha hodisalarni ko'rib-bilib turganday, kampirga yordam bermoqchi bo'layotganday, uning ko'ziga dahshatli ko'rinnmaslikka, qiyomatni eslatmaslikka urinayotganday edi. U faqat osongina kampirni yo u yoqlik, yo bu yoqlik qilib arosatdan chiqarib qo'ysa bo'ldi edi.

Mixail bilan Ilya aroqni keltirib qo'yishgach endi nima qilishlarini bilmay hayron edi: boshqa ishlar bu ish oldida arzimasdek edi. Shuning uchun ular ahamiyatsiz narsalarni valaqlay boshladilar: ular Tatyana dan hamon darak yo'q, holbuki bu vaqt ichida o'n marta kelib-ketsa bo'lardi, deyishdi. Ilya Mixail dan qachon ishga borasan, deb so'radi, u uch-to'rt kunga javob oldim, dedi. Xullas, gap-so'zlar tuzsiz, keraksiz, bir-biriga qovushmas edi. Aka-uka hozir kutishdan boshqa chora yo'q ekanini yaxshi anglab turishardi, ammo kutish ham turlicha bo'ladi-da. Ularni tashvishga solayotgan narsa – bu kutishning oxiri bormi yoki vaqtlarini behuda o'tkazishyaptimi? Onasining o'lim to'shagida ekani ularni bir zum ham xayolidan ko'tarilmagan esa-da, ammo qalblarini ortiq darajada qiyamasdi ham. Farzandlar nimaiki qilish lozim bo'lsa, barini amalga oshirishdi – biri xabar qildi, boshqasi keldi, mana, aroqni ham birga olib kelishdi – endi buyog'i kampirga bog'liq edi, lekin o'lman odamga go'r qazilmaydi-da! Ular doimo ish bilan band edi, endi bo'lsa to'satdan bu yerda bekorchi bo'lib qolishdi. To'g'ri, ostonaga kelib tikilib turgan ajal oldida boshqa ishga qo'l urish yaxshi emasku-ya, ammo o'sha ajalning o'zi hali-hozircha faqat tikilishdan nariga o'tmayapti-da.

– Har qalay shuni ayt-chi, – deb yana gap boshladi Mixail. – Axir, abadiy yashamasligini, pishib qolganini bilardik-ku. Asta ko'nikib borishimiz kerak edi, biz bo'lsak, ich-etimizni yeb yotibmiz.

– Iye, bo'lmasam-chi, – deb uning gapini ma'qulladi Ilya. – Ona-da.

– Ona... bu to'g'ri. Otamiz yo'q, mana endi onamiz ham ketadi, keyin hammamiz ham chin yetim bo'lib qolamiz. Yosh emasmiz-u, ammo yolg'iz qolamiz. Aytaylik, ko'pdan beri onamizdan hech qanday naf yo'q edi, ammo avval navbat uniki, keyin bizniki deb yurardik. Xuddi bizni turli balo-yu qazolardan asrab turganday edi, qo'rqmay yashayverardik. Endi esa qadamingni o'ylab bosasan.

– E, bu haqda bosh qotirib nima qilasan? O'ylasang-o'y-lamasang...

– O‘ylashni-ku hojati yo‘q-a, ammo baribir. Xuddi yalanglikdasan-u, hamma seni ko‘rib turganday. – Mixail jingalak sochli boshini burib, jim bo‘lib qoldi. — Mana, o‘z bolalarimizni olaylik. Buvisi tirik paytida ular go‘dakday, o‘zing ham yoshtagsan, bordi-yu kampir oyog‘ini uzatvorsa, hammasi senga yopishib oladi, senga orqa qiladi. Bu kasofatlar kun sayin o‘sadi, ularni to‘xtatib bo‘larkanmi.

Mixail gapini tugatishga ulgurmadi – uydan Nadya otilib chiqdi-da, g‘ayritabiyy bir ovozda ularni chaqirdi:

— Hoy, yigitlar, tezroq kelngilari, tezroq.

— Nima gap?

— Onam...

Ular to kirib borgunlaricha kampir yana hushidan ketgan edi, ammo hushidan ketishdan oldin to‘satdan g‘o‘ldirab nimadir debdi, lekin nima deganini yaxshi eshitishholmabdi, chunki Lyusya bilan Varvara yugurib kelganida kampir ro‘parasiga qarab yotar, ammo ko‘zлari yumuq ekan. Garchi kampir endi qimir etmasa ham, unda qandaydir o‘zgarish yuz berayotgandi, tanasi go‘yo harakatga kelish-dan darak berib, hoziroq o‘rnidan turib ketadigandek edi. Hatto yuz-larida ham o‘zgarish bor edi: yuzlari yana ham ichiga tortib ketgan bo‘lsa-da, uning qa‘rida qolgan-qutgan kuch harakatga kelib, kam-pirning yumuq ko‘zlarini pirpiratardi.

Ular onasining atrofida nima qilishni bilmay qattiq tahlikada tiki-lib turishardi. Bu qo‘rquv kundalik turmushda boshdan kechiriladi-gan odatiy qo‘rquvgaga sira o‘xshamasdi, chunki undan o‘limning hidi kelib turardi. Eng dahshatlisi, bu o‘lim go‘yo ularning hammasini qiyofasidan birma-bir tanib olib, ularni endi sira unutmeydiganday edi. Uning qanday yuz berayotganini ko‘rish undan ham beshbattar dahshatli edi. Ular bir kun emas bir kun boshlariga tushadigan ajal shu taxlit tashrif buyurishini bilishar, shu sababli undan imkon qadar uzoqroq bo‘lish uchun qarashni istamas edilar-u, lekin baribir nari ketishga yoki teskari qarab olishga qurbi yetmasdi. Ular yana shu-ning uchun ham keta olmasdilarki, onaga chang solayotgan o‘lim ulardan ranjishi mumkin edi, uning e‘tiborini yana bir bor o‘ziga qa-ratishni esa hech kim istamasdi. Shu bois ular qimirlamay turishardi.

Nimadir lip-lip etib, kampirning ko‘zlarini qimirlatdi, shundan keyin ko‘zlar juda sekin, arang ochildi, yorug‘ olamni ko‘rishga harakat qildi, bo‘lmadi, yana yumildi. Ko‘zlar bir necha daqiqadan

so‘ng keyin yana qimirlab ochildi, bu safar ular dadilroq boqdi, xira nurlari bilan nimalarnidir ilg‘agandek bo‘ldi, ammo ko‘rganlari xira, chaplashib ketgani bois kampirning yuzida tushkunlik va dard-alam ifodalari paydo bo‘ldi. Kampir mudhish sharpalarni haydab yuborishga urinib ko‘zlarini pirpiratdi, ammo bu yordam bermadi chog‘i, yana ko‘zlarini yumdi, ehtimol o‘zi yumilgandir. Biroq ko‘ziga ko‘ringan narsalar endi kampirga tinchlik bermayotgandi, chamasi, tirikligi esiga tushib qolgandek edi, shuning uchun hozir o‘zining qayerdaligini, es-hushi joyidami-yo‘qmi, bilishni istardi. Kampir ohista ko‘zlarini ochdi, ochishga o‘zida kuch topa bildi va atrofiga nigoh tashladi, yo‘q, sharpalar g‘oyib bo‘lmabdi, kampir ularni yaqindan ko‘rib tanidi – endi jim yotishga uning sabri chidamadi, ichidan zaif, qurillaganga o‘xhash qaldiroq ovoz chiqa boshladi. Varvara, voy, deb yubordi-da, kaftlarini bir-biriga urdi va qichqirib yubormaslik uchun tomog‘ini ushlab oldi.

Kampir go‘yo lipillab turgan jonidan ham ajralgandek yana jim bo‘lib qoldi, sillasi qurib, ko‘zlarini istar-istamas yumildi. Avvaliga na-fas olishi yaxshi edi, birozdan so‘ng u ham susaydi, ammo butunlay to‘xtab qolmadi, chunki ko‘kragi ustida ko‘tarilib-tushayotgan adyol tiriklikdan darak berardi.

Farzandlar onasi tepasida kiprik qoqmay turisharkan, unga juda achinishardi, kampirdan ham ko‘proq o‘zlariga achinishardi, chunki u so‘nggi nafasini chiqaradigan bo‘lsa, bu yaqinlari uchun og‘ir judolik bo‘ladi va bu ayriliqdandan keladigan g‘am-qayg‘u tez orada arimaydi. Boz ustiga ularning har biri ilgari o‘zlarini sira tuymagan tuyg‘u – shu yerda, ona qoshida, farzand sifatida uning oxirgi soatlarida hozir-u nozir bo‘lib turganlardan mammun edilar, axir jon berayotgan ota-onaning boshida turish har bir o‘g‘il-qizga ham qarz, ham farz-da. Ularning har biri o‘zini shu bilan ovutadi, ammo bu kechin-maning jon berayotgan insonga – onaga mutlaqo foydasi yo‘q esa-da, lekin har qalay odat shuni taqozo etardi. Aslida esa bu – qo‘rquv va dard-alam edi. Onasining uzoq jon talashishini ilk va oxirgi marta ko‘rib turgani uchun ham ular juda qo‘rqib ketishgandi va buning tezroq tugashini kutishardi.

Kampir esa hamon nafas olardi.

Ilya ortiq chidab turolmay Mixailga bir nima deb pichirladi, kampir go‘yo bu pichirlashga javoban yana ko‘zini ochdi-da, mo‘ltirab

yotaverdi. U yig'lamoqchi bo'ldi, ammo yig'i kelmadi, ko'zlarida yosh qolmagandi. Varvara jonholatda unga yordamga shoshildi, darrov uvvos solib yig'ini boshladi, qadrdon ovoz dalda bo'ldi chog'i, har tugul kampir uzilmadi. U deyarli tildan qolgan bo'lsa-da, har qalay, xotirasida yod bo'lib ketgan ismlarni eslay oldi.

— Lyu-sya, — dedi kampir bazo'r — Ilka, Varvara.

— Biz shu yerdamiz, ona, shu yerdamiz, — dedi Lyusya uni tinchlantirib. — Qimirlama, yotaver, biz shu yerdamiz.

— Ona-jon! — dedi Varvara ho'ngrab.

Kampir farzandlarini ko'rib va ovozini eshitib quvонch va iztiroblar ichida jim qoldi. U bolalariga qarab yotardi-yu, lekin o'zini allaqanday chuqurga tushib ketayotganday his etdi. Keyin nogahon uni nimadir to'xtatib qoldi va yuzlari burishib, ko'zlari kimnidir qidira boshladi. Varvaraning yig'isi unga xalal berayotgandi, shuning uchun uni yig'idan to'xtatishdi.

— Tanchora, — dedi kampir iltijo bilan.

Ular bir-biriga qarashdi-da, onasi Tatyanani shunday atashini eslab, baravariga javob berishdi:

— Hali kelgani yo'q.

— Hademay keladi.

— Yo'lda bo'lsa kerak.

Kampir buni anglab, boshini xiyol qimirlatib qo'ydi. Uning yuzidagi tirishlar yozilib, ko'zlari yumildi. Uni yana g'aflat bosdi.

Bolalari ham nari ketishdi — endi dam olish kerak edi. Kampirning yonida yolg'iz Varvara qoldi, u sekingina yig'lab o'tirardi, endi uning yig'isi hech kimga xalaqtir bermasdi. Aksincha Varvara yig'idan to'xtasa, hamma allanechuk bo'lib qolardi.

### 3

Bu bir mo'jizamidi yoki boshqa sababmi, hech kim aytib bera olmasdi, ammo kampir farzandlarini ko'rishi bilan tirila boshladi. U yana ikki-uch marta hushidan ketib, go'yo zulmat qoplagan chohga tushib ketganday bo'ldi va har safar hushiga kelganida qo'rqa-pisa ingrar, bolalarim shu yerdamikin yoki menga shunday tuyuldimikin, deya ko'zlarini xiyol ochardi. Ulardan kimdir albatta yonida bo'lardi va boshqalarini chaqirardi — kampir ularni tanirdi-da, ko'ngli joyiga tushib, yig'lashga urinardi. Oxirgi marta u picha ko'z yoshi ham

qilib oldi va o'zining zaif, adoyi tamom bo'lgan ovozini eshitdi: bu ovoz aftidan tashqariga chiqishni istamadi shekilli, ming bir azobda chiqdi.

Kampirning a'zoyi badaniga asta-sekin jon kirib, uning qo'l-oyolari qimirlay boshladи. Kechga borib kampir ancha o'ziga kelib qoldi, hatto Nadyani chaqirib, undan:

– Sen menga bo'tqa pishirib bersang bo'larmidi... Xuddi Ninka-ga pishirganingdek. Yormadan. Suyuqqina qilib, – deb iltimos ham qildi.

– Yorma bo'tqasimi?

– Ha-ha, o'shandan. Tomog'imni ho'llay, suyuqqina bo'lsin.

Uydagilar oyoqlarini qo'llariga olib yugurib qolishdi. Xayriyatki, Nadyada yorma bor ekan, ammo tushlikdan keyin pechka butunlay sovib qolgan edi, shuning uchun bo'tqani elektrplitada pishirish-moqchi bo'lishdi, uni uzoq qidirib, zo'rg'a topishdi, lekin bundoq qarasalarki hali elektr yonmabdi. Mixailni hovlidagi o'choqqa o't yoqishga yuborishdi, bo'tqani nimada va qancha pishirish xususida Lyusya Varvara bilan g'ijillashib qoldi: Varvara birato'la katta qozonda pishirish kerak deb, Lyusya esa birdan ko'p berish mumkin emas, ziyon qiladi, yaxshisi, o'ziga yarasha tayyorlagan ma'qul deb turib oldi. Ilya esa Mixailning atrosida ivirsib nuqlu:

– Onamizni qara-ya? Qoyil-e! – derdi.

– Urug'imiz shunaqa-da, – derdi Mixail uning gapini quvvatlab.

– Bizning urug'imizni osonlikcha go'rga eltib tiqolmaysan.

– Ha, bo'tqa yegim kelyapti, dedi-ya, ko'rdingmi? Men bo'lsam, to'g'risini aytsam, ishonmagandim, hammasi tamom bo'ldi, deb o'ylovdim. U bo'lsa, bo'tqa yeyman, menga bo'tqa pishiringlar, dedi-ya. Demak, och qolibdi-da, ob-bo sen-ey!

– Umuman, kampirlar uzoq yashaydi o'zi. Ular keksaygani sari umri ham uzayib boraveradi – mana, onamiz bunga misol. Qartayib, bukchayib, qiltillab qolishsa ham g'imirlab yuraverishadi. Kuchg'ayratni qayoqdan olisharkin-a?

Ilya ajablanib nuqlu o'z gapini ma'qullardi:

– Ammo onamiz, onamiz ajoyib-da o'zi! Kim shunaqa bo'ladi deb o'ylabdi? Biz bo'lsak, ma'rakasiga deb aroq olib yuribmiz-a, u bo'lsa: «Hoy yaxshilar, shoshmanglar, hoy qizlarim, o'g'illarim, men hali bo'tqaga to'yaganim yo'q», deydi-ya. – Ilya o'z hazilidan nash'a

qilib kului: – «Bo‘tqaga, – deydi, – hali to‘yganim yo‘q, bo‘tqa bo‘lmasa hech narsani bilishni ham istamayman».

– Zaiflashib qolgan, – bosiqlik bilan javob berdi Mixail. – U shuncha kundan beri og‘ziga non uvog‘i ham olgani yo‘q-da axir. Ishonmasang, istagan odamingdan so‘rab ko‘r.

Bankacha-yu, shishachalar ko‘tarib ayollar halloslab kelishi-di, o‘choq atrofida kichik kastryulkada oddiy yorma bo‘tqasi emas, xudo bilsin, qandaydir antiqa ovqat pishirishmoqchi bo‘lgandek, olti qo‘l bir-biriga tegmasdi. Ninka ham shu yerda – oyoq ostida o‘ralashib yurardi. Nadya uni haydardi-yu sira nari ketkaza olmasdi. Ninka ham qandaydir muhim voqeа yuz bergenini tushunib, endi bu yog‘idan bexabar qolmayin derdi. Varvara o‘choq boshidan onasi oldiga, u yoqdan-bu yoqqa g‘izillab borib-kelaverib terlab ketgandi, u zuv qatnarkan xuddi homilador xotinlar singari qornini ushlab, onasi-ga dalda berib turardi:

– Onajon, ozgina sabr qil, sabr qil, hozir pishadi.

Bo‘tqani kampirga Lyusya yedirdi, ustiga to‘kib yubormasin deb tovoqchani o‘zi ushlab turdi. Kampir ovqatni oz-ozdan, ohista-ohista ichdi: ikki marta ichadi-yu dam oladi, yana ichib, nafasini rostlaydi. U bo‘tqadan ko‘p yemadi, xuddi emadigan boladay ichdi. Keyin o‘zini orqaga tashladi-yu, madori qurib, olib ketinglar, degandek to-voqchaga qarab qo‘l siltadi va anchagacha nafasini rostlolmadi.

– Voy-ey, hammayog‘im qaqshab ketyapti, ishlagandan battar-a. Ichim ham tugun-tugun bo‘lib ketganga o‘xshaydi. Endi nima qila-man?

– Hechqisi yo‘q, ona, hechqisi yo‘q, – dedi Lyusya. – Hozir shuni-siga ham shukur. Birdan ko‘p ovqat yeb bo‘lmaydi. Tag‘in biron kor-hol bo‘lmasin. Avval shu hazm bo‘lsin, keyin yana ichaverasan.

– Ichim shundoq tugun-tugun bo‘lib qolgan-da axir, – dedi kam-pir zaharxandalik bilan takrorlab. – E, Anna Stepanna, yangi fater-ringga<sup>1</sup> ketding dedimi. Ketdim-a, ketdim! – Kampir nafasini rostlab olgach, shiftga shuursizlik bilan tikildi. Shuning uchun u alahlayot-ganga o‘xhardi. – Men, imonsiz bo‘lsam uni aldadim, iziga qaytar-dim, mana endi bo‘lsa kalaka qilganday bo‘tqa yeypman. Bo‘tqani hazm qila olarmidim, qayoqda deysiz?

<sup>1</sup> Fatera – kvartira so‘zining buzib talaffuz etilishi (*Tarj. izohi*).

Havo yetishmaganidan kampir yo'taldi, Lyusya shoshib qoldi:

– Senga ko'p gapistirish mumkin emas, ona. Hali quvvating jundayam kam.

– Nima, indamay yotaveraymi bo'lmasa? – sal kerilib javob berdi kampir. – Necha yilda deganda bolalarimni bir ko'rsam-u, shunda ham miq etmay yotaveraymi? – Ularning hammasi shu yerda, kampirning atrofida edi. Kampir faxrlanib, ayni paytda ko'zlariga ishonmay ularga nigoh tashladi, keyin ko'ngli ancha joyiga tushib, xotirjam so'zida davom etti: – Kimsiz biqinimga turtib, bolalaring keldi, deganday bo'ldi. Men ham kel, avval bolalarimning diydoriga bir to'yay, keyin bemalol o'laversam ham bo'ladi, deb o'yladim.

Kampir hali gapirishga qiyalardi, shu bois u noiloj yana jim bo'ldi. Ammo bolalarini ko'rib turganidan juda xursand edi. Bu quvonch tuyg'usidan yuzi titrar, ko'llari qimirlar, ko'kragi ko'tarilib tushardi, tomog'iga nimadir tiqilardi. Farzandlar ham onaning atrofida edi, onamiz bizga javob qaytaraman deb qiyalib qolmasin, deya unga savol berishmas, jim turishardi. Kampir bir necha bor yig'lamoqchi bo'ldi, hovliqib, sabrsizlik bilan ularga qarardi, biridan ko'zni uzib, ikkinchisiga tikkanida mushtdekkina boshi qaltrardi, ammo jigargo'shalarini adashtirmasdi: bu Ilya, bu Varvara, bu Lyusya derdi, lekin ko'z yoshidanmi yoki ko'zlarining o'zi xiralashib qolganmidi, ishqilib kampir ularni yaxshilab ko'ra olmasdi, shuning uchun o'zidan jahli chiqar edi. Nogahon miyasiga yana atrofimda ko'rinishotganlarning barchasi tush, ro'yo yoki xayolot, o'tgan umrimning so'nggi xotiralari, shu sababdan ko'z oldimda tuman turibdi, degan fikr keldi.

Kampir o'zicha fol ochar ekan, yuragi shuv etib, jim bo'lib qoldi.

Xona ichini havo ochiq kunlari quyoshning botish oldidan taratadigan shaffof nurlari yoritib turardi. Kampirning boshi deraza tomonda edi, shuning uchun oftob uning oyog'iga tushib turardi, ro'paradagi devorda jilva qilayotgan nur go'yo devordan o'tib nariji yog'idan chiqib ketayotganday xiralashib borardi. Kampir quyoshni ko'rib quvonib ketdi: uzoq vaqtdan beri tashqariga chiqmay qo'ygani uchun oyoqlariga tushib uni isitayotgan quyosh nuri unga xush yoqdi, bu issiqlik butun badaniga yoyilib, qonini yurishtira boshladi. Ha, bu tush emasdi, chunki tushda quyosh isita olmaydi, ayoz esa sovqottirmaydi. Qulqlariga ham xuddi olisdan kelayot-

gandek mayin, yoqimli jaranglash eshitildi va bu jarang to'satdan qanday paydo bo'lgan bo'lsa, xuddi shunday tinchib qoldi. Kampir bu jarang qayoqdan qulog'imga chalindiykin deb eslay boshladiyu, eh, axir bu yoshligimda qulog'imga o'mashib qolgan jarangku, deya ko'nglidan o'tkazdi. O'sha paytlarda u bu ovozni tez-tez eshitib, bir umrga eslab qolgan edi. Bu ovoz uni aldamasdi, demak u tirik ekan.

– E xudo, – deb shivirladi kampir. – E xudo.

U o'zini zo'r lab ko'zini ochdi. Bolalari hamon shu yerda edi, ular avvalgi joylarida turishardi, ammo kampirning nazarida ular yaqinroq kelganday edi. Endi kampir ularni ravshanroq ko'rardi.

Eng chekkada, naq eshik yonida xuddi begonaga o'xshab Nadya, uning yonida esa Ilya turardi.

Kampir Ilyaning qiyofasiga o'tgan safardan beri, u shimoldan qaytayotib yo'l-yo'lakay uyga kirib o'tganidan buyon ko'nika olmasdi. Uning taqir boshi, yuzi sira o'ziga o'xshamas, go'yo Ilya o'z boshini sotgan yoki qarta o'yinida birovga yutqazib qo'ygandek edi. U juda o'zgargan edi, ancha shaldir-shuldir bo'lib qolibdi, aslini olganda yoshiga qaraganda quyilishi lozim edi. Aftidan Ilya yashab turgan joy diliga uncha o'tirishmaydi chog'i, shundan bo'lsa kerak. Endi uning avvalig holiga qaytishi qiyin.

Kampir Ilyaga uzoq, to ko'zlarini tinguncha tikildi, u undan o'zi tug'ib o'stirgan, xotirasida qolgan o'z Ilyasini qidirardi-yu, ammo endi juda olislarda, o'tmish yillar qa'rida qolib ketganini his etardi. Etiga et qo'shilibdi, yonida ham endi o'zi emas, boshqa odamlar, go'yo uning Ilyasini katta, chaqqon baliq mayda baliqni yutib yuborgandek yutib yuborgan-u, endi ular bir vujudda yashayotgandek edi. U goho shu rostdan ham o'zimning Ilyammikin deb ikkilanib qolardi. Hozir uni chaqirsang, ehtimol, darrov javob bermasligi ham mumkin, atrofga alanglab, meni chaqirishyaptimi yoki boshqanimi, deb o'ylashi ham mumkin. Kampir o'g'li makon tutgan yerda ahvoli yaxshi emasligini his etardi. Qishloqda yashayversa bo'lmasmidi axir... Lekin Lyusya to'g'risida bunday deb o'ylab ham bo'lmaydi, u shaharlikning o'zginasi, aslida uni qandaydir shaharlik ayol tug'ish kerak ediku-ya, ammo yanglishib shu kampir tuqqan, lekin baribir Lyusya shaharlik bo'lib ketdi. Ilya esa... Ilya na shaharlikka, na qishloqlikka, na begonaga-yu, na o'ziga o'xshaydi. O'g'lining chehrasi

xushnud, ammo kampir unga qarab yuragi achishar, nega achinayot-ganini esa o'zi ham bilməsdi.

Chindan ham Ilyanıng og'zi qulog'ida edi. U onasining tirikligi-dan ajablanib hamon o'ziga kela olmasdi, shuning uchun huzur qilib, o'zidan ham, Mixaildan ham, opa-singillaridan ham: «Onamiz bizni rosa laqillatdi-ya, obbo kampiri tushmagur-ey! Yashasin onam-e, qandini ursin-e!» deb kulardi. Tushlik oldidan ham ular onamiz jon talvasasida qiyalyapti deb ishonishgan edi, kampir esa tirik qolish uchun azob chekkan ekan. Ilya hammadan ko'ra ko'proq o'zidan kulardi: kecha u ishdan javob olayotib garajda onamni ko'mgani ket-yapman deb e'lon qilgan edi, bunga o'zi ham zarracha shubhalan-masdan, ha, xuddi shunga ketyapman, deb o'ylagandi. Xo'sh, endi hamkasblariga nima deydi? Mana shunisi bor-da. Ilyanıng ko'ngliga onamiz bizni laqillatibdi, hammamizni yoniga yig'ish uchun o'zini o'ladijan qilib ko'rsatibdi, degan gap kelgandi, ammo u bu gap be-ma'niligini, buni o'zi to'qiganini bilsa ham, har qalay u xuddi mu-shuk-sichqon bilan o'ynagandek ko'nglida shu gapni ermak qilib, miyasidan chiqarib tashlashga oshiqmas edi. Kampirning o'zi bo'tqa so'rashi, xuddi bolaga o'xshab ovqat yeyishni o'rganishi Ilyani qu-vontirib, iydirib, uncha-muncha g'ururlantirardi, shuning uchun u yana qanday karomat ko'rsatarkan deb onasiga sinchkovlik bilan qarab-qarab qo'yardi.

Kampir ko'zlarini dam oldirgandan keyin oyoq tomonida o'tirgan Varvaraga qaradi. Varvara onasining nigohini payqab shosha-pisha oldinga engashdi. «Onajon! Bu men, katta qizingman, men seni ko'rgani keluvdim, sen bo'lsang menga qaramaysan ham», deya ke-cha o'zini yo'qotib rosa uvvos solgandi. Mana, kampir katta qizini ham ko'rdi, Varvara niyatiga yetdi. Kampir uni ko'rgan zahoti yuzi uchdi, boshini bilinar-bilinmas irg'adi va xo'rsindi: bosh irg'ashi – qarigan chog'ingda tinch bo'l, degan duoga, Varvara erishishi mumkin bo'lgan yagona baxtga ishora edi, xo'rsinib qo'ygani esa qizining bu baxtga erisha olmasligini, bu to'g'rida o'ylashning foydasi yo'qligini bildirardi. Kampir Varvaraga qararkan, yig'lab yuborish-dan arang o'zini tutib turardi. Kampirning o'ziga-ku, endi hech narsa kerak emas, hammasi o'tdi-ketdi, bo'lari bo'ldi, qolari qoldi, Varvara esa hali yashashi kerak, koshki edi bundan bu yog'iga joni rohatda o'tsa.

Kampir garchi Mixailni o‘zidan ham yaxshi bilsa-da, uni ham ko‘zdan qochirmadi. U kichik o‘g‘lining boshqa farzandlari yonida qanday ko‘rinishini bilishni istardi. Kampir qariyalarning: birinchi o‘g‘il xudoga, ikkinchi o‘g‘il shohga, uchinchi o‘g‘il o‘zingni bo-qishga, degan matalini tez-tez eslab turardi. Xudo bilan shohga juda ko‘p berdi, endi ularni sanaysan-u, faqat ko‘z yoshi qilasan, xolos. Ammo tiriklari ham bo‘yi cho‘zilib, qo‘lidan ish kelishi bilan birin-ketin har qayoqqa tarqab ketdi, xuddi birov kuchukchalarni onasidan ayirib, boshqalarga berib yuborganday. Yolg‘iz Mixail qoldi, shuning uchun kampir uni qolgan umrimni ota-bobomdan qolgan eski uyda o‘tkazish niyatida o‘zim uchun tuqqanman, deb aytishga bemalol haqi bor edi. Chunki kampir boshqa joyda yashashni hatto tasavvur ham qila olmasdi. U Mixailni qolgan farzandlaridan afzal ko‘rmasdi – yo‘q, peshonasiga yozilgani shu ekan: Mixailnikida yashaydi-yu boshqalarini har yil yozda kutadi, kutadi, kutadi...

Agar Mixailning armiyada yurgan uch yili inobatga olinmasa, u onasining yonidan jilgani yo‘q. Shu yerda uylandi, er yigit bo‘ldi, boshqa erkaklar singari ota bo‘ldi, kuch-quvvatga to‘ldi, mana endi ko‘z oldida sekin-asta qarib boryapti. Kampir unga o‘rganib qoldi, ko‘nikdi, kam-ko‘stiga, past-balandiga chidadi, shu bois Mixailda yuz bergen barcha o‘zgarishlar kampirga bilinmay ketaverdi. Kecha ham Mixail edi, bugun ham o‘sha Mixail. Ilya endi boshqa masala: shimalga ketayotganda sochi bor edi, mana, keldi, soch degan narsadan asar ham qolmagan, buni hatto ko‘r odam ham biladi. Hatto deyarli har oyda kelib turadigan Varvarada ham o‘zgarishlarni payqardi: yanada semirib ketibdi, kampirlarga o‘xshab bo‘lar-bo‘lmasga ko‘z yoshi qiladigan bo‘lib qolibdi, sochiga oq oralabdi. Ilya, Lyusya, Varvara, Tanchoralar qanchalik o‘zgarib ketganimizni onamiz payqasin, deya uzoqlarga ketishganga o‘xshaydi shekilli, har kelganlarida onasiga qancha suvlar oqib ketganini beozorgina eslatib qo‘yar edilar, kampir unisining oxirgi marta kelganiga muncha bo‘ldi, bunisiga muncha, manovinisiga esa muncha der va ular har kelib-ketganidan keyin umridan yana bir necha yil o‘tganini payqab qolardi. Kampir o‘z umriga qarab emas, bolalarining kelib-ketishiga qarab qariyotgandek edi, agar o‘ziga qolsa-ku to vaqt-soati yetguncha bir yerda sekin-asta g‘imirlab, imirsilab yuraverardiku-ya. Ammo kampir bu haqda o‘ylay olardi deysizmi? U faqat bolalarini kutardi, ayniqsa,

yotib qolganidan keyin ularning yo‘liga ko‘zi to‘rt bo‘lib, bo‘g‘ilib ketardi, aksiga olib ular ham so‘nggi paytlarda juda kam keladigan bo‘lib qolishdi. Har birining o‘z oilasi, turmushi bor, ular ham endi yosh emas, yillar endi ularning boshini silab erkalamaydi. Ona buni tushunardi.

Kampir Lyusyaga birrov qaradi-yu, darrov ko‘zini olib qochdi, keyin unga ohista, yashirinch, xuddi zimdan qaraganday nazar soldi. Shunday qarib, zaiflashib, qoqsuyak bo‘lib qolgani uchun Lyusyaning oldida xijolat bo‘lardi, kampirning nazarida qizi ham undan uyalishi kerak edi – qarang, axir, qanday chiroyli, ilmli, hatto gapirganda ham bu yerdagilarga o‘xshab gapirmaydi: to‘g‘ri, so‘zлari tanish-u, ammo ularni tushunish uchun xayolni jamlab, qulqoni ding qilib turish kerak. Undan nimani so‘rama, hammasini biladi: xo‘p yurib, ko‘pni ko‘rgan-da. Xo‘sh, kampir o‘z umrida nimalarni ko‘ribdi? Kun va tun, ish-u uyquni-da. Xuddi juvoz-kashning otidek shu o‘rtada aylanib, g‘imirlab yuraverdi, u bilan yonma-yon yashaganlar ham undan afzal emas, hayot shu ekan, deb yuraverishdi. Lyusyaning hayoti qandaydir boshqacha, kampir tu-shunmaydigan, bilmaydigan hayot edi, bu hayotda ko‘pgina ishlar yangicha qilinadi, hatto o‘lsalar ham boshqacha o‘ladi – bu tomoni kampirga qorong‘i. Kampir uchun tarki odad – amri mahol edi – u xudo qanday ravo ko‘rgan bo‘lsa shunday o‘lib ham ketaveradi, kerak bo‘lsa yuragi to‘lganda yig‘lab ham olaveradi. Ammo shunga qaramay kampir har holda Lyusyaning oldida o‘zinи tutishga, uni jahlini chiqarmaslik uchun ortiqcha biron so‘z aytmiaslikka, noo‘rin ish qilmaslikka harakat qilardi.

Kampir yuragi to‘kilib, shosha-pisha, o‘ng‘aysizlanib bolalariga qaragani-qaragan edi-yu, ammo tikilib sira to‘ymasdi, qancha boqsa shuncha kam edi.

– O‘zingni bos, onajon, – dedi Lyusya. – O‘zingni bos, damingni ol.

– Keldinglarmi-a, – kampir qo‘llari bilan yuzini berkitib, yig‘lab yubordi.

– Keldik, onajon, keldik, – deb hammaning o‘rniga gulduros ovozda javob berdi Ilya. – Hammasi joyida.

Varvara cho‘chib ketdi, norozi pichirlab uning gapini bo‘ldi:

– Namuncha baqirmasang. Qo‘rqitvorasan-ku.

– Keldinglarmi-a, – deya xotirjam takrorladi kampir o‘ziga o‘zi. – Ko‘zlarim teshilib ketdi-ya, – kampir bu gapni bir necha yildan beri qadrdon bo‘lib qolgan ikki keksa kishi gaplashayotgandek qilib sodda, ko‘ngilni yengil torttiradigan tarzda aytdi va jim bo‘lib diqqat bilan qulq soldi, keyin har qalay ko‘zini ochmay, ovozini o‘zgartirmay davom edi: – Mana, men uyg‘ondim-u, ammo hech nimaga aqlim yetmayapti, shu o‘zimmanmi yo yo‘qmi – bilolmayman, na qo‘l-u na oyoq bor. Faqat jonio qillillab turibdi, u ham aro yo‘lda. Men, endi o‘ldim, shuning uchun hammayoq qop-qorong‘i, deb o‘yladim. Xudoyimga shukur, bu dunyoning azoblaridan qutulibman, deb bundoq qarasam, xuddi kunduzgiday hammayoq yop-yorug‘. Shunda ko‘zlarim o‘zidan o‘zi ochilib ketdi. O‘zim bo‘lsam hech nimani bilmayman. – Kampir ko‘zlarini ochdi, hech kimga qaramay to ko‘zlar oftobga ko‘nkkuncha indamay turdi. – Shunday yorug‘, yo‘q bundan ham yorug‘ edi. Kim hammayoqni shunchalik yoritdiykin deb o‘ylayman. Sizlarni ko‘rdim-u ko‘zlarimga ishonmadim, gumonim yana oshdi. Axir shunday baxtga erishishni o‘ylovmidim? Hamman-giz shu yerda, faqat Tanchora yo‘q... Yotibman-u: «Demak, odam o‘lgandan keyin ham oxirgi marta xursand bo‘lish peshonasida bor ekan-da. Kishi o‘zidan keyin nima qolayotganini, kimlar deb uzzukun joni halak bo‘lganini bir ko‘rar ekan-da», deb o‘ylayman.

– E, onajon, ajoyib onasan-da, o‘zi, – dedi Ilya sevinchini ichiga sig‘dirolmay boshini chayqab. – Ko‘pdan beri bir og‘iz ham gapirolmay yotuvding, endi esa, bulbuligo‘yo bo‘lding-qolding. Gaplaring juda burro.

– Lekin onajon, ko‘p gapirma, senga mumkin emas, – deb yana ogohlantirdi Lyusya, u nimadandir hadiksirardi.

– Ey, qo‘yaver, gapirolsa, gapiraversin. Men shunchaki darrrov, burro-burro gapirayotganiga hayron bo‘lyapman, xolos. Xuddi ertaklardagidek-a.

– Hammasi sizlar tufayli, – dedi jo‘ngina qilib kampir. – Sababi – sizlar. Axir men narigi dunyoga ham borib keldim. Ha, aniq o‘sha yoqda bo‘ldim. Ammo sizlar keldinglar-u, men ham qaytdim. O‘likmanmi-tirikmanmi, ortga, bu yoqqa, sizlarning oldilaringga qaytib kelaverdim. – Uning ovozi uzilay-uzilay deb turgan ingichka ipga o‘xshab cho‘zilib chiqar va goh yo‘qolib, goh paydo bo‘lardi. – Xudo yorlaqadi. Xudo menga sal odamga o‘xshasin

deb kuch ham ato etdi. Bolalarining kapalagi uchib ketmasin, dedi shekilli.

– Gaplaring ham ajoyib-da, ona.

– Qaysi onaning ko'ngli bolalari ichida tog'day ko'tarilmaydi? Buni nimasini gapirasan! Qolaversa, ularni anchadan beri ko'rмаган bo'lса. Axir men ham o'lar chog'imda sizlar bilan ikki og'izgina gaplashay, diydorlariga to'yay deyman-da. Men qo'lдан, oyoqdan qolsam ham mayli, faqat tildan qolmasam bo'lgани. Tilim o'zidan o'zi gapiraveradi. Bir boshlab olsam bo'ldи, sayrayveradi, faqat boshlab olishim qiyin. Xuddi avval baland tepalikka chiqib olishday gap-da. Keyin nafasim qisib turadi. Mana hozir ham... Sal shoshmay turing-lar.

Kampir nafasini rostlab olib, oftob tushib turgan devorga uzoq tikilib qoldi: kunduzgi yorug'dan devor aniq-tiniq ko'rinaldi, kampirning yuzida sekin-asta xotirjamlik ifodasi paydo bo'la boshladi, odatda keksalar kech bo'lganda shunday xotirjamlikni his etadilar. U o'zini ham, bolalarini ham unutganga o'xshardi, hech nimani, hatto o'zining nafas olishini ham sezmasdi, go'yo devordagi oftob nudidan bo'lak hech nimani ko'rmasdi. Devordagi bu dog' kengayib, uning ochiq ko'zlariga quyilib kelardi va o'z hukmini o'tkazib ularni yumilgani qo'ymasdi. Ko'zlar ham so'nmasdi, qamashmasdi, balki ravshanroq, tiyrakroq tikilardi, lekin ilgarigidek dunyoga to'ymay, ochko'zlik bilan yirilib-yirtilmasdi, faqat xotirjamlik bilan boqardi.

Farzandlar hamon kutib turishardi, ketish mumkin emasdi. Hatto o'zaro gaplashish ham noqulaydek edi – ular onasi buyurgandek uning og'zini poylab turishar, bir-birlariga qaramaslikka harakat qilishiardi.

– Hozir meni xuddi birov qo'lida ko'tarib turganday, – dedi kampir ularga qaramay. – Ostimda go'yo hech nima yo'qday. Sira cho'chiyotganim ham yo'q – xuddi shunday bo'lishi kerakday.

Kampir qimirlamasdan yana birpas jim yotdi, keyin xayolini yig'ib oldi. Ko'zları horg'inlik bilan pastga qaradi, yuzida keksalarga xos tabiiy bir sabr-toqat ifodasi ko'rindi, ammo u bolalarini ko'rishi bilan uning o'rmini muloyim, iliq quvонch egalladi. Keyin kampir yana ko'zlariga ishonmay Lyusyadan ohista so'radi:

– Sizlar qachon keldinglar?

– Biz Ilya bilan kecha kechqurun keldik.

Kampir muddaosini darrov aytmadı, kutib turdi-da, so'ng:

– Biror-bir shirinlik olib kelmadinglarmi? – dedi.

– Juda shoshib qoldik-da, ona, qo'limiz tegmadi, – dedi Lyusya o'ng'aysizlanib. – Arang ulgurdik o'zi. Pristanda oyog'imizni qo'limizga olib yugurdik.

– E, men o'zimga so'ramayapman, – dedi kampir. – Menga hech narsa kerak emas. Manavi shirintoyim Ninkaga deyapman. – U qo'lini Varvaraning yonida turgan Ninkaga cho'zdi, ammo qo'li yetmadi. Ninka cho'chib o'zini ortga tisarildi. Kampir Xafa bo'ljadi. – Men chamadonga solib yashirib qo'yaman, keyin bitta-bitta berib boraman. Men ham xursand, u ham. U bunga o'rganib qolgan. Oldimga kelib: «Qani, buvijon, qaraylikchi, sandiqchangda nimalar bor ekan-a», deydi. Men unga «Hech nima yo'q», deyman. U yana qistaydi. Men o'zimni hech nimani tushunmaganga solaman. Men ham xuddi yosh boladay shu bilan ovunaman. U meni erkatoyim, doimo buvijoni bilan. U bilan gaplashsam, g'uborlarim yoziladi. Nimasini aytay, keksayganda odam yosh boladek bo'lib qolarkan.

– Ertaga do'konga chiqib, biron nima olib kelarman, – va'da berdi Lyusya.

– E, ovora bo'lib nima qilasiz, – dedi Nadya xijolat tortib, – nima Ninka ochmidi yoki shirinlik ko'rmabdimi? O'zi shundoq tantiq-da, taltaytirib yuborishgan.

– Mayli, olib kela qol, – dedi kampir. – Ammo birdan hammasini berma. Qolganini menga keltirib ber, yashirib qo'yaman. So'ng o'zim oz-ozdan berib boraman. Umrimning oxirida siylab turay.

Shu payt Lyusyaning lop etib esiga bir narsa tushdi-yu:

– Men senga, ona, uzum jo'natgandim, o'shandan yeb ko'rdingmi? – deb so'radi.

– Anavi ko'm-ko'k mevalarnimi?

– Ha-da. Uzum deb o'shani aytishadi.

– Ordona qolsin. Yesam, ichida mayda urug'i bor ekan, uni ajratib o'tirishga tob-toqatim bor ekanmi. Ninkaga berdim. Qaqildog'im urug'-purug'i bilan kursillatib yedi. Yoqsa, yeyaversin, dedim. Men uni yeb shoxim chiqarmidi? Menga, Lyusya, hech narsa kerak emas. Tangrim meni shunday ham siylab, suyuntirib o'tiribdi. O'limim oldidan sizlarni yetkazdi. Xudoga shukur.

Kampir yana yig‘i boshladi, lekin ko‘zlaridan yosh chiqmadi, U xorijam, qisqagina yig‘lab, yengil tortdi va tinchib, ko‘zlarini artgan bo‘ldi.

– Hechqisi yo‘q, ona. Hechqisi yo‘q, – dedi Lyusya. – Sen avvalo tuzalib olgin, keyin hammasi joyiga tugshib ketadi. Hali hech nima ko‘rmaganday bo‘lib ketasan.

Kampir javob bermadi, u yana devordagi oftob aksiga qaradi. Oxirgi pashshalar o‘sha yerga yopishib turardi. U shu turishida xuddi sehrlab qo‘yilganga o‘xshar, go‘yo atrofidagi narsalarni ko‘rib, eslab qolishga urinayotganday edi. Uy ichi jimjit, tashqaridan ham hech qanday sas eshitilmasdi. Yaxshiyamki bu safar u uzoq jim qolmadi. Kampir devordan ko‘z uzmagان holda xasta, sirli va o‘zinikiga o‘xshamagan ovoz bilan asta gap boshladi:

– Men-chi, Varvara, kecha tepamda ho‘ngrab yig‘laganingni eshitdim. Bu sening ovozing edi, esimda bor. Men faqat demak men o‘lib qolibman-u shuning uchun yig‘layapti-da, deb o‘yladim. Men ilgari «Men o‘lsam, Varvara kelib, dod-voy qilib yig‘laydi, mayli, shunisiga ham shukur», deb o‘ylardim. Axir sen yig‘ini boplaysan, joyiga solasan. Bu borada umidim ham sendan.

Varvara qotib qolgancha faqat og‘zini ochib onasiga qarab boshini liqillatardi, u na gapirar, na yig‘lay olardi. Ilya Mixailga yaqinlashib taajjublanib shivirladi:

– Onamiz ajoyib-da. Senga ham shunaqa tuyulmayaptimi?

– Qani, kim aytadi, kishi o‘lgandan keyin yana qanchagacha eshitadi? – deb davom etdi kampir. – Kim aytadi? Hech kim aytolmaydi. Ko‘zlarini-ku, berkitishar, ammo qulog‘i ochiq bo‘ladi-da.

– Nimalarni gapiryapsan, ona? – tashvishlanib so‘radi Ilya. – Nima demoqchisan o‘zi?

– Nimalarni? – dedi kampir Ilya tomon boshini burib, ammo javob berolmadni, uyaldi, – men sizlarni ko‘rib xursand bo‘lganimdan, nima deyayotganimni ham bilmayman. Shunchaki laqillayapman-da, sizlar men qariyadan xafa bo‘lmanglar tag‘in. Men butkul esimni yeb qo‘yanman.

– Gapingni qara-yu, ona! Nima, sen tuzuk bo‘lsang, biz xafa bo‘lar ekanmizmi? Qo‘y bu gaplarni, endi tezroq tuzalgin, sen bilan mehmonga boramiz, ha. Uyda o‘tirib ham nima qildik? Hammamiz

yig‘ilishib mehmonga boramiz. Agar bormasang, qo‘limizda ko‘tarib ketamiz. Axir, qo‘lda ko‘tarib yuradiganlaring bor.

– Yana ozgina ich, – dedi Lyusya bo‘tqali tovoqchani onasiga uzatib. – Endi mumkin, oshqozoning ishlayapti.

Kampir boshini ko‘tarishga urindi, Lyusya unga ko‘maklashdi. Kampir bu safar bo‘tqadan ko‘proq ichdi va nafasini rostlagach, o‘zidan o‘zi ajablanib dedi:

– Qaranglar-a! Xuddi o‘pirilgan o‘raga tushganday ketdi-ya. Tan ozig‘i jonga malham, deb to‘g‘ri aytishadi.

– Ha, mana endi yaxshi bo‘ladi. Keyin yana ichasan.

– Yo‘q, yo‘q, endi ketmaydi. Boshqa sig‘maydi.

– Hechqisi yo‘q, hechqisi yo‘q, hali sig‘adi.

– Endi faqat Tanchora qoldi. O‘shani ko‘rsam bo‘ldi, so‘ng o‘lsam ham roziman, armonim yo‘q, – dedi kampir g‘amginlik bilan. – Nega u bunchalik hayallab qoldiykan-a? Yo biron nima bo‘ldimikin?

– Keladi, ona, xavotir olma. Yo‘l olis. Lekin albatta keladi.

Kampir iltijo qildi:

– Ishqilib o‘zlarining ketib qolmanglar, ikki-uch kun yonimda bo‘linglar. Tanchora kelgach, men sizlarni ushlab turmayman. O‘zim ham tushunaman, ko‘p qola olmaysizlar.

– Hozircha hech kim ketmoqchi ham emas.

– Mayli, picha turinglar. Men sizlarni bezovta qilmayman, tinchgina yotaman. Yotganim-yotgan. Uzoq vaqt ko‘rmaganimga ko‘p gapirib qo‘ydim-da hozir. Xursandligimdan bu. Endi churq etmay yotaman. Sizlar ko‘ngillaringga yoqqan ishlaringni qilaveringlar, sizlarni kunda bir marta ko‘rsam, menga shu kifoya.

– Ona, bu «bezovta qilmayman», «churq etmay yotaman», deganing nimasi? – dedi Lyusya kampirni koyigan bo‘lib, – Shu ham gap bo‘ldimi? Uyat. Nimalarni o‘ylab topasan-a o‘zi? Bizdan uzr so‘raydigan hech qanday gunohing yo‘q seni, bildingmi.

– Unday dema, onajon, – dedi Varvara gapni ilib ketib, – Unday dema, bo‘lmasa yig‘lab yuboraman.

Ilya ham chidab turolmadi:

– Eh, onam-a, eh, onaginam-a...

Kampir quvonib jim bo‘ldi, ammo xursandligini yashira olmadi:

– Ko‘zlarimni ochdim deguncha sizlarga tushadi, yonimdasizlar, hozir qani endi bir qush bo‘lsam-u yuksaklarga parvoz qilib, biron

yoqlarga uchib borsam, bu haqda odamlarga aytsam... Ming marta shukur...

Kun borgan sari og‘ib borar, ammo xona ichi yorug‘ edi: botayotgan quyosh nuri to‘g‘ri derazaga tushib turar, kampir esa shu deraza ostida yotardi. Oftob endi shiftga tushar, shiftdagи nur aksi atrofga yoyilardi. Bu yerdagi jihozlarning bari kampirning farzandlariga tanish edi, go‘yo shu jihozlar ham sezgirlik bilan onaning gaplarini takrorlayotganga o‘xshardi. Bari go‘yo kampir bilan baravar gapirar yoki jim bo‘lib qolar, ham mehr, ham faxr bilan ularga tikilar, kampirning o‘zi kabi mehribon va yuvosh boqar edi. Uy kampirdan keyin ham shunday turaverishi mumkinligiga kishining ishongisi kelmasdi, chamasi uy ham, kampir ham ko‘p yaxshi-yomon kunlarni boshidan kechirib, oxir-oqibat bir-biriga suyanib qolganga o‘xshardi. Onaga ozor bermaslik uchun polda ohista yurish kerak edi, kampirga aytilgan gaplar esa devorlarda, uy gunjaklarida – hamma yerda birdek aks-sado berardi.

Uy havosi ham ular bolaliklarida nafas olgan o‘sha havo edi, bu havo ularning xayolini huv o‘sha bolalik yillariga olib qochardi, chorlardi, ammo unda ham kampirga o‘xshab avvalgi g‘ayrat, kuch yo‘q edi.

Deraza cho‘kib, darchaga aylanib qolgandi. Eshikdan o‘tish uchun boshni xam qilishga to‘g‘ri kelardi. Suvalmagan, oqlangan yog‘ochlari do‘ppayib chiqib turgan devorlar xunuk ko‘rinardi. Xarida burungidek, ammo chang bosgan belanchak halqasi osilib turardi: ilgari belanchak deyarli bo‘sh qolmasdi: biri katta bo‘lsa, boshqasi tug‘ilardi.

Ostiga stol qo‘yilgan derazaning ikki tomonidagi devorda ikkitatramkaga suratlar zich solingandi. Ularda hamma bor edi: Ilya bilan Mixail armiyada – xizmat qilgan joylaridan salom yo‘llashgani, mana Ilya shimolda, mashina rulida, Varvara eri bilan, ikkovi toshday qotib, ko‘zlarini bir xilda chaqchaytirib turishibdi, ikkovi ham go‘yo yiqilib tushishdan qo‘rqandek stul suyanchig‘ini ushlab olgan, Lyusya qayerdadir kurortda, katta g‘aroyib daraxtlar orasida: hali qishloqiligi qolmagan Tatyananing yuzi cho‘zinchoq edi, cho‘chib qarab turardi, go‘yo u qattiq qo‘rquvda suratga tushganga o‘xshardi.

O‘ng burchakdagi but qo‘yiladigan joyga endi lampa qo‘yib qo‘yishgandi. Shu kecha lampa ish berib qoldi, bo‘lmasa uni turgan

menga bir necha marta aytgandi. Mening esa sira qimirlagim kelma-di, ha, qimirlagim kelmasdi, innaykeyin qo‘rqardim ham.

– Axir men unga hech nima deganim yo‘q-ku.

– Unga aytmagan bo‘lsang ham, baribir o‘shanga tegadi-da, yana kimga tegsin? Menga o‘sha qarayapti-ku, Mixail emas.

Varvara xo‘rsinib qo‘ydi-da:

– Ha, sho‘rim qursin! Nima deyishniyam bilmay qoldim, – dedi.

– Bilmasang – indama, – jerkib berdi Ilya. – Shuyam gap bo‘l-di-yu!

– Men senga hech nima deyayotganim yo‘q-ku.

– Men ham senga gapirganim yo‘q.

Bu ko‘ngilsiz suhbatga chek qo‘yish uchun kampir gapni boshqa yoqqa burdi:

– Hushsiz yotganimda meni ko‘rgani Mironixa kelmadimi mabodo?

– Kelmadi shekilli, – javob berdi Mixail mavzu o‘zgarganidan quvonib.

– Halizamon kelib qolar. Tuzalib qolganimni eshitsa, albatta g‘irillab keladi-da, qishloq yangiliklarini to‘kib-soladi. Agar o‘sha bo‘lmasa qanday kun o‘tkazardim, bilmayman. O‘sha bilan gaplashsam yayrayman. Keladi, albatta keladi, – dedi kampir ishonch bilan bosh irg‘ab. – Keladi-yu: «Hoy, qizi tushmagur, nega sen o‘lmaysan-a?» deydi. Yoshligida ham hazilkash edi, shundayligicha qoldi. Qara-chi, dahlizida hech kim ko‘rinadimi-yo‘qmi? Shu yerdan, derazadan qara.

Varvara o‘rnidan turib, deraza tokchasiga tayandi.

– Yo‘q. Eshikka qulf solingan shekilli.

– Biron yoqqa ketgandir. Sira bir yerda o‘tirolmaydi, yugurib yurgani-yurgan. Mayli, to oyoqdan qolguncha yurib olsin. Yotib qolishga ulguradi hali. Ha, joniga ham tegib ketar. Qani endi, iloji bo‘lsa, men ham hozir uning ortidan yugurardim, qayoqda... Tamom bo‘ldim.

– Ona, – deb kampirning gapini bo‘ldi Ilya va Mixailga ko‘z qisdi. – Ona, bordi-yu Mixail ikkovimiz sening sog‘ayib ketishing uchun ozgina ichsak yo‘q demaysanmi?

– Voy, erkaklar-ey, voy, erkaklar-ey, – dedi Varvara sannab. – Shusiz kunlaring o‘tmaydi sizlarni.

– Ha, o‘tmaydi, – deb uning gapiga qo‘shildi Ilya og‘zining tano-bi qochib.

– Ichgilaring kelayotgan bo‘lsa, mayli, ichaveringlar, – deb kam-pir ruxsat berdi, – ammo bu yerda, mening oldimda emas. Hidiga toqatim yo‘q.

– Xo‘p bo‘ladi, mayli biz ketdik. Axir, biz, ona, sen uchun, sog‘lig‘ing uchun ichamiz. Qaytib kasal bo‘Imagin deymiz-da, ha.

– E, menga desa, shayton uchun ichinglar. Bu ish o‘shanga xush keladi.

– Obbo, sen-ey, shayton uchun emish-a...

– Bo‘lmasa-chi, o‘shani deb-da. Shu ichkilikni nimasi yaxshi ekan, biron maza toparmidi kishi? Agar boshimdan zar to‘ksang ham uni og‘zimga olmasdim. Bular bo‘lsa tag‘in shu savilga pul sarflashadi-ya. Innaykeyin, xuddi men ichmanglar desam, sizlar quloq soladiganday-a... Qayoqda? Ichgilaring kelibdimi, ichinglar, ammo badmast bo‘lguncha emas. Sen ichganingda qanday bo‘lishingni bilmayman-u, ammo Mixailimiz chatoq, u mast bo‘lsa sho‘ring qurg‘ur Nadya qayoqqa qochishini bilmay qoladi.

Bu gapdan ishshaygan Mixail pinagini buzmay javob berdi:

– Endi, sen, ona, qanday ayb bo‘lsa, menga yopishtiraverasan shekilli.

– Men sira behuda gapirmayman.

– E, yo‘q, ona, qittakkina ichamiz. Shunchaki, ishtaha ochish uchun.

– Mening Nadyadan shikoyat qiladigan yerim yo‘q, – davom etdi kampir erkaklar ketgandan keyin. U go‘yo faqat Lyusyaga gapira-yotganday unga qaradi. – Mixail o‘z tuqqan o‘g‘lim, u bo‘lsa kelin, ammo men birovga kelinim yomon deb aytolmayman. Axir menga qarash uchun ham sabr-toqat kerak. Xudoga shukur, u hali menga biron marta ham qattiq gapirgani yo‘q. Agar yomonlik qilmagan bo‘lsa, men uni qanday qilib yomonlay. Ob-ovqatimni beradi, grelka-ga suv quyib keltiradi. Sovuq bo‘lsa, men shu grelka bilan tirikman. Bo‘lmasa, hammayog‘im muzlab, kesak bo‘lib qoladi, hech nimani sezmayman.

– Yaxshilab o‘ranib yotish kerak, – deb maslahat berdi Varvara bilag‘onlik qilib.

– Bundan ortiq o‘ranish bo‘ladimi? Nadya qo‘liga ilingani bilan shunday o‘rab-chirmab tashlaydiki, hatto qimirlab ham bo‘lmaydi. Ustim zilday bo‘lsa ham oyog‘im qaltiraydi. Shundan keyin Nadyani chaqiraman yo Ninkani uni aytib kelgani yuboraman. U erinmay kelib, suv isitadi – yengil tortganday bo‘laman. Agar Nadya bo‘limganda men allaqachon tamom bo‘lardim, e, nimasini gapiran? Mixail hushyorligida, ichmaganida – odam, ichdimi, bas, jinniga aylanadi-qoladi, hech kimga tinchlik yo‘q. Menga ham, Nadyaga ham osilaveradi. Uning dastidan dunyoning narigi burchagiga qochib ketging keladi.

– Qanaqasiga osiladi? – dedi Lyusya hayron bo‘lib.

– Qanaqasiga bo‘lardi? Shunaqasiga-da. O‘zi zo‘rg‘a oyoqda turadi-yu xotinini vino olib kel deb qistaydi. O‘lsang ham topib kelasan deb turib oladi. Bechora Nadya qayoqdan vino topsin, qaysi shi-mildirig‘iga oladi? «Sen o‘sha yerda ishlaysan, senga berishadi», deb do‘konga yogurtiradi, vassalom. Axir u do‘konda bor-yo‘g‘i supurib-sidiradi, xolos, o‘sha savil qolgur vinoga yaqin ham yo‘lamaydi. Sal o‘ylash kerak-da. Boshingni devorga urib yorsang ham, aytganini qildiradi. Men uni insofga chaqiray desam, menga qarab: «Sen, ona, yotibsanmi, indamay yotaver», deb o‘dag‘aylaydi. Keyin tilimni tishlayman-qolaman. Xudo ko‘rsatmasin, men undan mast bo‘lganida qo‘rqaman. Shuning uchun kayfi taraq bo‘lsa, Ninkani yonimda olib yotaman.

– E, gap bu yoqda degin, – dedi Lyusya vazminlik bilan.

– Unda na sharm-hayo bor, na vijdon, – g‘azablandi Varvara eshikka o‘girilib qararkan. – O‘z onasiga shunday muomala qilish uchun o‘taketgan surbet bo‘lish kerak!

– Ba’zan esa kayfda yonimga kelib o‘tiradi-yu: «Qani, ona, bir gaplashaylik», deydi. Men u bilan, mast odam bilan nimaniyam gaplashardim. Keyin: «Ha, men bilan gaplashging kelmayaptimi? Men seni yediryapman, ichiryapman-u sen esa men bilan gaplashishdan hazar qilyapsanmi?» deydi. Men unga nega hazar qilarkanman, es-hushing joyida paytida kel, gaplashaver, bunday mast kelma deyman. Yo‘q, bilganidan qolmaydi, eh!

– U bilan o‘zim gaplashib qo‘yaman, – deb va’da qildi Lyusya. – Popugini bir pasaytirib qo‘yamasammi. Rost-da, nima degan gap bu, axir?! «Yediryapman, ichiryapman...» emish. Bir kami shu edi o‘zi.

– Sen u bilan kayfi borligida gaplashib yurma tag‘in, keragi yo‘q. Qulog‘iga gap kirmaydi, qaytanga jahli chiqadi. Ichsa, rasvo bo‘ladi, g‘irt rasvo bo‘ladi. Kayfi tarqagandan keyin yana hech nima bo‘lmaganday yuraveradi. Agar mana shu qurib ketgur vinosi bo‘lmasa-ku, butunlay boshqacha odam bo‘lardi-ya. Mana shu ichkilik rasvo qilyapti uni.

– Ichmasligi kerak, – dedi Varvara.

Kampir uning gapini ma‘qullab bosh irg‘adi-yu, xo‘rsinib qo‘ydi:

– Ha, kim unga ichsin deyapti? Hozirgi zamonda ichib, es-hushini yo‘qotmagan odam tilla odamdir. Umuman ichmaydigan odamni-ku, boshingda ko‘tarib yursang arziydi. Bundaylarni manavi mo‘jizani ko‘rib qo‘yinglar deb odamlarga ko‘z-ko‘z qilsang arziydi. Bizning Mixailning esa og‘ziga ichkilik tegsa bas, keyin teshik bochkaga o‘xshab qancha quysang ham ko‘rdim demaydi.

– Bilmabman-da, Mixailimizning shu darajaga yetganini bilmabman-da, – derdi Lyusya afsuslanib.

– Rasvo bo‘lib qolgan, rasvo, – deb quvvatladi Barvara. – Ha, onamiz yolg‘on gapirmaydi.

– Nega endi yolg‘on gapirarkanman? – xafa bo‘ldi kampir qizining gapi og‘ir botib. – O‘z o‘g‘limni sizlarga behuda yomonlab o‘tirishdan menga nima naf?

– Shuning uchun onam yolg‘on gapirmaydi, deyapman-da, – o‘zini oqlamoqchi buldi Varvara.

– Ammo onam negadir hammasiga chidab kelyapti, – dedi Lyusya unga monand qilib. – Mixail bo‘lsa xohlaganicha onamizni xo‘rlayapti, tag‘in onamiz uning yonini ham olib qo‘yadi. «Kayfi tarqagandan keyin yana hech nima bo‘lmaganday yuraveradi» emish... – dedi u kampirga kesatib. – Mana endi o‘scha zormandani qachon ichib bo‘ladi-yu, so‘ng qachon kayfi tarqar ekan, deb joningni hovuchlab kutib o‘tiraversan. Kutib bo‘psan. Uydan haydab solsa kutilusninggayam hojat qolmaydi.

– Qachon meni haydab solibdi, bekorchi gaplarni gapirib nima qilasan?

– Bekorchi gap emas. Agar mana shunday bo‘sh kelaversang, haydab chiqaradiyam. Haydashiga oz qolibdi-ku o‘zi.

– Urug‘imizda hech kim onasini uydan quvib chiqargan emas.

– Urug‘ingda hech kim onasiga sening o‘g‘lingga o‘xshab muo-mala qilmagan bo‘lsa kerak axir.

– Hech kim, hech kim, – uning gapini ma’qulladi Varvara. – Men esimni tanibmanki, hech kim bunday qilgani yo‘q, faqat shu.

– Mana, sizlar ranjiyapsizlar, – sekin gap boshladi kampir bিroz jim turgandan keyin. – Xafa bo‘lyapsizlar, koshki men bilan birga tursanglar edi. Boshga bitgan bir balo bo‘ldim-da o‘zim ham. Nima buni bilmas ekanmanmi? Injiqlanib goh uni olib kel deyman, goh buni, ba’zan shunday yo‘tal tutadiki, yorug‘ olam ko‘zimga ko‘rinmay ketadi: tinimsiz quv-quvlab qolaman. Tashqariga o‘zim chiqolmayman. Bundan ham yomoni bormi? Allaqaqachon oyog‘imni uzatib ketishim kerak edi, o‘zimni ham, odamlarni ham qiyagananim yetar, ammo ajalingdan oldin o‘lib bo‘ladimi? Mixail hushyor yur-ganida hammasiga chidaydi, hech nima demaydi. Turgan gap, mast odamning ixtiyor o‘zida bo‘lmaydi. Avvaliga xafa bo‘laman, keyin ichimda o‘ylab nimaga xafa bo‘lasan, kimdan xafa bo‘lasan, o‘z bo-langdanmi, shuncha yil chidading, bu yog‘iga ham chida, oz qoldi deyman. Xudoning irodasi shu ekan-da. – Kampir endi qiyalmay gapirardi. Ayniqsa, xudoning esga olinishi unga tasalli berdi. U tin olib Lyusyadan iltimos qildi: – Yaxshisi, unga hech nima demay qo‘yaqol. Mayli, bilganini qilsin. Men ham tinchgina o‘lay, tobutim ketidan birov tosh otmasin. Shunda ajal ham yelday kelib, selday olib ketadi. Qolaversa, keyin mening orqamdan bir-birlaring bilan janjal-lashib yurmanglar. Men uchun eng yomoni mana shu. Men o‘lib ketaman, ammo sizlar hali ko‘p yashashlaring kerak. Bir-birlaring bilan ko‘rishib turasizlar, bordi-keldi qilasizlar. Axir o‘gay emassizlar-ku. Tez-tez ko‘rishib turinglar, aka-ukalar opa-singillarni, opa-singillar aka-ukalarni unutmanglar. Bu yerga ham kelib turinglar, jami urug‘-aymog‘imizning xoki shu qishloqda. Men ham shu yerda bo‘laman, hech qayoqqa ketmayman. Tepamga borib turinglar, o‘sha yerda ham sizlarga intiq bo‘laman.

Xonaga yana ohista Nadya kirdi va xalaqit berishdan qo‘rqib eshik oldida, kampirning karavoti orqasida to‘xtadi. Hamma Nadya-ga o‘girilib qaragach, asta kelib stol yoniga o‘tirdi, ishdan toliqqan qo‘llarini tizzalariga qo‘ydi. U juda o‘zgaruvchan edi: ish qilayotgan-da olov, charchoq nimaligini bilmaydi, tin olib o‘tirdi deguncha qu-log‘iga hech nima kirmaydi, go‘yo ko‘zi ochiqligicha uxbab qoladi.

– Ishlaringni saranjom-sarishta qilib bo‘ldingmi? – deb so‘radi kampir Nadyani gapga solish uchun.

– Ha, tugatdim. Sigirni keyinroq chiqarib yuboraman, shu.

– Erkaklarni ko‘rmadingmi?

– Ular mo‘rchada.

– Ishqilib ko‘p ichishmasin-da.

– Mehmonlar oldida o‘zini tiyar.

– To‘g‘ri, Mixail yolg‘iz emas, akasi, opalari bor...

Hamma bir zum jim qolgach, fursatdan foydalanib Nadya nima uchun kirganini bildirdi:

– Kechki ovqatni shu yerda yeymizmi yo oshxonadami? Hammasini tayyorlab qo‘ydim.

– Shu yerda o‘tira qolinglar, – deb javob berdi kampir. – Bir o‘zim qolmay. Hali ko‘p yolg‘iz yotaman.

– Bo‘lmasa chiroqni yoqay...

– Albatta, qorong‘ida ovqatlanib bo‘larkanmi?

– Erkaklarni chaqiramizmi-yo‘qmi?

– Nima, ularning o‘sha savil qolgur bilan qorni to‘yarmidi? – qizishib dedi kampir. – Hech nima yeganlari yo‘q-ku. Chaqirib ko‘r, kelish-kelmasliklarini o‘zлari aytishar.

– Men ularga keyinroq bersammi devdim.

– Ikki marta dasturxon tuzab ovora bo‘lib yurasanmi? Kuni bilan tinim bilmay, shundoq ham oyoqdan qolding.

– Yuraqol, Nadya, men senga qarashib yuboraman, – dedi Lyusya. Boya u choyshab xususida Nadyaning oldida xijolat тортгани учун бирон нима билан uning ko‘nglini olmoqchi bo‘layotgani sezilib turardi.

– O‘tiravering, o‘tiravering, o‘zim amallayman. Men hali ovqatni isitishim kerak, sovib qolgandir. Siz bemałol o‘tiravering, hozir bir-pasda isitib kelaman.

Lyusya qoldi.

Erkaklar xuddi bug‘xonadan chiqqanday qip-qizarib kelishdi, shu turishida ular bir-biriga juda o‘xshardi. Hozir ularni ko‘rgan har qanday begona odam ham bular aka-ukalar, deb bemałol ayta olardi: yonoqlarining bir xilda turtib chiqqani, quyuq qoshlarining hurpayib turishi bir-birini aynan takrorlardi. Unisining ham, bunisining ham bo‘yni qizarib ketgandi. Ilyaning qoni kal boshiga tepganidan boshi cho‘g‘ga o‘xshab ko‘rinardi.

Ular shovqin-suron bilan stol yoniga o‘tirishdi. Mixail baqirib so‘radi:

– Xo‘sh, ona, ishlaring qalay? .

– Qalay bo‘lardi?! – dedi Ilya onasining o‘rniga javob berib. – Ajoyib onamiz bor-da. Hatto, o‘limga chap berdi, mana, ko‘rib turibsan-ku.

– O‘limga chap berib bo‘lmaydi... – dedi kampir norozi ohangda, ammo dilidagini tiliga chiqarmadi, ichiga yutdi.

– Chap berding, ona, chap berding, yo‘q dema. Ammo to‘g‘ri qil ding. Nima, sendan boshqa o‘ladigan odam qurib qolibdimi? Topiladi, ha. Olamda yaxshi odamlar ko‘p.

– Bo‘lmasa-chi, – deb beo‘xshov xaxoladi Mixail.

– Sen, nomussiz, indamay o‘tirsang yaxshiroq bo‘lardi, – dedi Varvara to‘satdan, Mixailning og‘zini poylab turgani uchun.

– E, nima gap o‘zi?

– «Indamayin o‘tirsang, kuyov jilmas qoshingdan», – dedi Ilya bolaligidagi tez aytishni xirgoyi qilib. Zero hali o‘zi ham hech nimani tushunmayotgan bo‘lsa-da, har qalay Varvaraning vajohatidan yaxshilik alomatini sezmay, uning tahdidini hazilga aylantirishga urindi.

– Uyatsiz! – yana uzib oldi Varvara va yonimni ol deganday Lyusyaga o‘girildi. Gapga Lyusya aralashishga majbur bo‘ldi:

– Agar men sening o‘rningda bo‘lsam, Mixail, yaxshisi indamay qo‘ya qolardim. – U so‘zlarni dona-dona qilib, Mixailning ko‘zlariga tik qarab gapirardi. – Sening onamizga qilgan muomalang sira aqlga sig‘maydi. Shuni bilib qo‘y: biz onamizni xafa qildirib, senga xo‘rlatib qo‘ymaymiz.

– Nima balo, eslaringni yeb qo‘ydinglarmi?! Kim uni xo‘r layotgan ekan?

– Sen-da!

– Men-a?! Qiziq, men unga nima qilibman? Boshladingmi, gapi raver endi, gapiraver.

– Lyusya, Lyusya, – deb yalindi kampir. – Sen nega bundaysan-a? Xudoni shafe keltirib iltimos qildim-ku sendan. Janjallahsmanglar, menga rahmlaring kelsin.

– Yo‘q, mayli, gapirsin.

– Yaxshi, ona, hozir gapirmaymiz, – noiloj ko‘ndi Lyusya. – Ammo esingda bo‘lsin, Mixail. Sen bilan hali gapimiz tugagani yo‘q.

– Anavilarni qara-ya, – dedi Mixail Ilyaga arz qilib. – Talashlarini-chi. Yana tug‘ishgan opalar emish-a. Chakki emas.

– Aytdim-ku, bu to‘g‘rida sen bilan keyinroq gaplashamiz, – dedi yana Lyusya.

– Qo‘rqitaman deb o‘ylama, hech kim sendan qo‘rqlaydi.

– Sen, Mixail, onamizni xafa qilma, – dedi Ilya. – Onani xafa qilib bo‘lmaydi.

Mixail Ilya bilan bahslashib o‘tirmadi:

– Bu gaping to‘g‘ri. Onani xafa qilib bo‘lmaydi. Bu gunoh. Men onamni sira xafa qilgan emasman.

– Onamiz bizga hayot baxsh etgan.

– Bu gapni ham juda to‘g‘ri aytding! – Mixail kayfdan yoshlagan ko‘zlarini artdi. – Axir hammasini tushunaman-ku. Men ulardan ko‘proq tushunaman. – U opalariga qarab bosh irg‘adi. – Ular menga nima uchun tashlanayotganini o‘ylab ko‘rdingmi? Chunki alam qilyapti. Men ularga telegramma jo‘natib, ishdan qo‘ydim, issiq joyini sovitdim. Onam bo‘lsa, mana, o‘lmadi, endi men ularni behuda chiqirgan, bekorga aldagan bo‘lib qoldim. Men ham tu-shu-na-man.

– Nima deyayotganiningni o‘ylab ko‘ryapsanmi o‘zi? Yoki hech nimaga aqling yetmay qoldimi? – dedi Lyusya dag‘dag‘a qilib. – Qaysi yuz bilan shunday deyapsan-a?!

– Bunaqa deyish ham, Mixail, yaxshi emas, – dedi yana Ilya sil-liqlab.

– Yaxshi bo‘lmasa, aytmayman-qo‘yaman-da, – dedi Mixail ham akasiga yon berib. – Sen mendan kattasan, seni hurmat qilishim lozim.

– Gap bunda emas.

– Tushunaman, gap bunda emas.

Nadya keldi-da, sho‘rva suza boshladи. Baribir ikki marta stol tuzashga to‘g‘ri keldi: avval erkaklar ovqatlanishdi, shundan keyingina Varvara bilan Lyusya o‘tirdilar. Kampirga o‘sha tovoqchada ozgina sho‘rvasingning o‘zidan berishdi, Indamasdan ovqatlanishdi.

Erkaklar lampani olib ketishdi. Ularning ketidan kampir og‘ir xo‘rsinib qo‘ydi:

– Nima balo, anavindan yana bormi deyman? Bu qanday ko‘rgilik! E, xudo, o‘zing panohingda asra. Nimalar bo‘lyapti o‘zi, a?!

Kampirga hech narsa qilmadi. U navbatdagi tongni qarshi oldi.

Avvaliga kun oqarishini kutib, ko‘zlarini ochgancha ancha yotdi: chunki atrof yorisha boshlasa, o‘rnidan turib o‘tirmoqchi edi – yotaverib orqasi va eti ustixoniga yopishgan biqinlari sirqirab og‘riy boshlagandi. Aksiga olib kun ham hadeganda yorishmasdi, qorong‘ida qimirlashga esa hech nimani ko‘rmay yiqilib tushsam, «voy» deyishga ulgurmayman, deb qo‘rqardi. Nihoyat, tongga yaqin deraza bo‘zara boshladi, kampir tashqarini ko‘ra boshladi, keyin ikkinchi deraza ham bo‘zarib, yotgan yerini ilg‘ay boshladi, shundan keyin ikki tomondan xonaga tongotarning sovuq, g‘ira-shira yorug‘ligi tusha boshladi.

Kampir yanada yorug‘roq bo‘lishini kutdi, keyin, uxlayaptimiyo‘qmi deya Lyusyadan ko‘zini uzmay, bosh tomoniga cho‘zildi. Sal nafasini rostlagach qo‘llari bilan ohista oyog‘ini surib polga tushirdi. Kampirning boshi aylanib ketdi, shuning uchun u xudo ko‘rsatmasin, tag‘in o‘mbaloq oshib tushmay deb, karavotni mahkam changallaganca, o‘zini tutib qoldi. So‘ng o‘ziga o‘zi hayron qoldi, boshini chayqadi: uni qarang-a, kim o‘ylabdi deysiz – o‘tiradigan holi yo‘q, quruq suyak, ammo amallab o‘tirdi-ya. Kampir qoqsuyak oyoqlarimi ni birov ko‘rib qolmasin deya ustidan adyol tortib qo‘ydi.

Kampir o‘zini o‘zi eplab o‘tirganidan shu tobda benihoya xursand edi, uzoq yotaverganidan uvishib, deyarli qotib qolgan gardani, qo‘llari, oyoqlari yoqimli simillab jimirlay boshladi. Endi ko‘zlar ham atrofga qiynalmasdan boqardi, alang-jalang qilishga hojat yo‘q edi, bo‘lmasa kechagina ko‘zlar niqidan chiqib ketay degandi. Ko‘p o‘tmay kampir yalang oyoqlari polda sovqotayotgani sezdi, shuning uchun u oyoqlari ostiga adyoilning bir chetini to‘sadi – mana, oyoqlarida hali jon bor ekan, har qalay qon yurishib turibdi.

Ertalablari xonaga quyosh nuri tushmasdi, ammo oftob chiqqanini kampir derazasiz ham bilardi: bunday kezlarda atrofidagi havo xuddi birov bir tomonidan puflayotganday jimirlardi.

Kampir derazadan boqdi. Quyoshning hali yerga tushib ulgurmag an o‘ynoqi nurlari osmonning u chetidan bu chetiga ko‘prik solgandi. Ko‘rgan kishi undan oyoq yalang yugurgisi kelardi. Kampirning ko‘ngli zavqqa to‘lib shivirladi:

– E xudoyim...

Sigirning bo‘kirgani eshitildi, ammo kampir Nadyani chaqirma-di: o‘zi ham turishga odatlansin endi, kampir esa bu yorug‘ olamda uch-to‘rt kunlik mehmon. Qolaversa, ovoz bersa, Lyusyani ham uyg‘otib yuborishi mumkin. Lyusya o‘z uyida choshgohgacha yotish-ga o‘rganib qolgan, mayli yotaversin, turib ham nima qilardi. Kam-pir o‘tirgan ko‘yi Nadyaning kiyinishiga qulq soldi, keyin eshik g‘ijirlab ochilib-yopildi, yana hammayoq jumit bo‘lib qoldi, ammo kampir endi uy qozonday qaynashini bilardi.

Hayal o‘tmay kimningdir shipillagan qadam tovushi eshitildi – bu Ninka. U hozir tashqariga chiqmaydi, chunki tuvagi shu yerda, kampirning karavoti ostida. Kampir engashib, shivirlab Ninkani chaqirdi. U uyqusirab pildirab keldi-da, ko‘zlar yarim yumuq holda yozilib oldi va kampirning karavotiga chiqdi – bu odati edi. Ninka ertalablari yugurib buvisining yoniga kelishni yaxshi ko‘rardi, hozir kampir xudo uni o‘sha quvonchga yetkazganidan, marhamatini da-rig‘ tutmaganidan yig‘lab yuboray deb o‘tirardi. Ninka uyqu aralash g‘o‘ldiradi:

– Agar sen o‘lsang, men doim shu yerda yotaman.

– Yotaver, yotaver, – suyunib shivirladi kampir, uning ustidagi adyol chetlarini ostiga tiqib bostirib qo‘yarkan. – Bu yerda, pechka yonida issiqliqina yotasan, to‘g‘ri-da, hademay qish keladi. Bu yerda sen xuddi onangni qornida yotganday yotasan, sovuq yemaysan, qiy-nalmaysan. Voy mening shirin-shakarim! Xuddi kattalarday hamma narsani tushunadi-ya.

Uyga yana sokinlik cho‘kdi, ammo tashqaridan har xil ovozlar eshitila boshladi. Shuning uchun kampir qulq solib, kimning sigiri bo‘kirayotganini, bekalardan kim bugun uqlab qolganini bildi. U Mironixaning sigiri ma‘rashini kutdi, shundan keyin diqqat bilan qulq solib, Mironixaning ovozini ham eshitish mumkin edi, u sigir sog‘sа, doimo uni qarg‘ab, vaysardi. Agar tek turmasa, qanaqa sigir bo‘ldi u? Kursichasini ko‘tarib, sigir ketidan hovlida yurish-u baqirish Mi-ronixaga zarur keptimi? Sotib, boshqasini olish qiyin ekanmi? Yoki uning o‘zi sigirisiz turolmasmikin?

Yo‘q, na Mironxaning, na sigirning ovozi eshitilardi, xuddi ikko-vini ham yer yutganday. Bordi-yu rostdan ham shunaqa bo‘lsa-ya? Kecha u biron yerda qolib ketganmikin, kelmaganmikin? Bir o‘zi tu-

radi, hech kim uyiga bosh suqmaydi. Kampir Mironixanining eshiga qarash uchun bo‘ynini cho‘zdi, ammo ko‘zlari tomdan u yog‘iga o‘tmadi, karavotdan turib nariroq borishga esa yuragi betlamadi, shuning uchun uh tortib yana joyiga o‘tirdi.

Tashqariga mahliyo bo‘lib qolgan kampir Varvaranining kirganini payqamay goldi va uning:

– Turib o‘tiribsanmi? – degan ovozidan cho‘chib tushdi.

Varvara buni kutmagandi. Kampir maqtangisi keldi:

– Ko‘ryapsan-ku, o‘tiribman.

– O‘tirish mumkinmi senga, axir?

– Mumkin-yo‘qmi deb kimdan so‘rayin endi? O‘tiribmanmi, o‘tiribman. – Kampir shu o‘tirishi ham nechog‘lik katta gapligini Varvara tushunmayotganidan xafa bo‘ldi.

– Ehtiyyot bo‘l, tag‘in yiqilib tushmagin.

– Ko‘p kamsitaverma. Nega yiqilar kanman? Yiqilsam, sen yo‘g‘ingda ham yiqilaverardim. Mana, o‘tiribman-ku.

– Seni karavotdan Ninka surib chiqargandir-da?

– Meni hech kim surib chiqargani yo‘q, bekorchi gaplarni qo‘y. Men u kelmasdan oldin turib o‘tirgandim.

Uyqusirab turgan Varvaranining ko‘zlari xunuk boqar, sochlari ham bir-biriga yopishib ketgandi. U homuza tortib dedi:

– Tushimda nima balolarni ko‘ribman, lekin esimda yo‘q. Qandaydir yomon tush edi.

– Esingga bo‘lmasa yomonligini qayoqdan bilasan?

– Uyg‘onganidandan keyin ta‘bim xira bo‘ldi. Senga bir gap bo‘libdimi, deb naridan-beri kiyinib, bu yoqqa keldim.

– Hozircha hech nima bo‘lgani yo‘q, – kampir bezovtalaniq qoldi. – U yoq-bu yog‘ingni tuzatib, Mironixanikiga borib kel. Unga biron gap bo‘lgan bo‘lmasin tag‘in? Yolg‘iz o‘zi. O‘lsayam ko‘zlari chaqchayib yotaveradi-da.

– Nega o‘larkan u?

– Gapingni qara-yu! Nega deydi-ya! Odamlar nega o‘ladi? Nima, xursandligidanmi? U juda chaqqon, kuydi-pishdi, ammo kishi yuzgachayam chopqillab yurmaydi-ku. Bugun sigiri ham ma’ramadi. Boshqa kunlari bo‘kiraverib butun qishloqni buzib yuborardi, bugun xuddi yer yutganday jim. O‘zim yarasam-ku holidan xabar olib turardim-a...

- U yoq-bu yog‘imni tuzatib olay, borib kelaman.
  - Ha, bir borib kel. U menga begona emas, goh men borardim, goh u kelardi. O‘shani o‘ylasam yuragim tuzday achishadi.
- Lyusya, ehtimol, oldinroq, Varvara hali shu yerdaligida uyg‘ongan bo‘lsa kerak, ammo Varvara ketganidan keyingina qimirlab, ko‘zini ochdi.
- Shang‘illab seniyam uyg‘otib yubordik, – dedi kampir gunoh-kordek. – Bemalol uxlayerver, men endi gapirmayman. Ulargayam sekin yuringlar deb aytib qo‘yaman.
  - Uyquga to‘ydim. – Lyusyaning yuzi uyqudan keyin ham silliq, beajin, tarang edi. – Bugun juda yaxshi uxladim.
  - Tush-push ko‘rmadingmi?
  - Yo‘q.
  - Varvara yomon tush ko‘ribdi, ammo qandayligi esida yo‘qmish. Men unga Mironixanikiga borib kelgin, dedim. Tushining ta‘biri o‘sha bilan bog‘liq bo‘lmasin tag‘in, a? Buning ustiga Tanchoradan haliyam darak yo‘q.
  - Xavotir olma, keladi. Bugun albatta kelishi kerak.
  - Kechayam shunaqa devdinglar, qani kelgani? Kechasi bilan mijja qoqmay chiqdim. Hammamiz tosh qotib uxbab qolsak, Tanchora kelib eshikni taqillatib qolsa-ya, deb o‘yladim. Yotibman-u tiq etgan tovushga qulq solaman. Kechqurun odamlar u yoqdanbu yoqqa o‘tishdi. Keyin Mixailimiz kelib qoldi. Voy-bo‘y, to yotgunicha shunaqa ihrab-sihradi, shunaqa oh-voh qildiki, xuddi birov bo‘g‘ayotganday. U o‘zi emas uni g‘ingshitgan anavi vino, chamasi kechqurun yana ancha-muncha ichishganga o‘xshaydi. Xudoga shukur, keyin tinchib qoldi. Tag‘in bir o‘zim qoldim. Hech kim kirmaydi-chiqmaydi, gapirmaydi, yotibman, o‘zimga-o‘zim qulq solaman. Nazarimda, kecha juda uzun, xuddi bir yilday cho‘zildi o‘ziyam. E, nimalarni o‘ylamadim deysan? Onam bilan ham gaplashdim, hade-may yoningga boraman dedim. Xudodan Tanchorani iltijo qildim, qayerdan bo‘lsayam o‘zing yetkaz, ko‘rmaganimga ko‘p bo‘ldi, dedim. Ishqilib, bugun kelsin-da, yana ko‘rolmay armonda qolmayin. Ha, o‘zimdan o‘tganini o‘zim bilaman, pishib qolganman, go‘yo boshqa birovning umrini yashayotgandekman. Xudoyim taolo sizlarni deb umrimni cho‘zib turibdi, axir hadeb cho‘zavermaydi-ku, buni-yam oxiri bor-da.

Lyusya onasini gaplarini avvaliga o'rinda yotib eshitdi, kampir cho'zilgan umr haqida gap boshlashi bilan o'rnidan tura boshla-di. Kampir gaplashadigan odam topilganidan suyunib, jag'i-jag'iga tegmasdi, chunki kechasi bilan dardini birovga yorolmay rosa siql-gandi.

— Men tong otishidan ham umidimni uzib qo'yuvdim, — da-vom etdi kampir. — Tunning o'tishi biram qiyin bo'ldi-ki. Nima balo, endi tunlar ham tong otmay, bir-biriga ulanib ketaveradigan bo'lgan-u men bundan bexabar qolganman shekilli, deb o'yladim. E yo'q, qarasam, odamlar uqlab yotishibdi, uyg'onishmaydi. Men esa bo'larimcha bo'ldim. U yog'ini so'rasang, uyqu qayoqda, juda to'yanman, ammo ko'z, baribir yumilaveradi. Kechalari yumilish-ga o'rganib qolgan shekilli — bir nima deb bo'ladimi? Men bo'lsam yumilgani qo'ymayman, uqlab qolsam-u qaytib uyg'onmasam-a, deb qo'rqaman. Uyqu nima, uyam yarim o'lim-da. Keyin xo'rozlarning qichqirganini eshitdim, qarasam g'ira-shira tong otyapti. Ha, yetdim, dedim. Keyin kun yorisha boshladi, qani bir turib o'tiray-chi, dedim. Sira chidolmay ketdim, axir quruq suyakman-da, yotaverib, bada-nimga botib ketdi.

— Bugun turib o'tirding, ertaga yurasan, — dedi bosiqlik bilan Lyusya o'rnini yig'ishtirayotib. — Turib yurib ketasan. Keyin qaytib birovning umri bilan yashayapman demaysan.

— Birovniki bo'lgandan keyin shunday deyman-da, — deb kampir gapida turib oldi.

Lyusya bahslashib o'tirmadi, buklama karavotni yig'ishtirdi-da, o'zini tartibga solgan bo'lib, deraza oldiga yaqinlashdi. Kun juda yaxshi boshlandi, havo ochiq bo'lib, charaqlab turgan quyosh qish-loq ustiga zarrin nurlarini saxiylik bilan sochar, uni gunjak-gunjak-larigacha iliq taftini yog'dirardi. Daryo jivirlab tovlanardi, daryoning narigi tarafidagi, tog' yonbag'ridan yuqoriga qarab ko'tarilib ketgan o'rmon yanada yaqinroq ko'rinaridi, ammo uning mavsumga xos bo'limgan ko'm-ko'k rangi oftobda xiraroq tovlanardi. Hammayoq tinch bo'lib, bir me'yordagi nurda cho'millardı, faqat qishloqda soyalar bir xilda qorayib turardi, ammo ularni hatto itlar ham qoqilib ketishdan qo'rqqandek aylanib o'tishardi.

Kecha nima uchun tuman tushganini tushunib ham, fahmlab ham bo'lmazı, bugun esa shunchalik sokin ediki, tiq etgan tovush eshitil-

masdi. Lyusya rijik to‘g‘risidagi kechagi gapni esladi-yu, bugun ayni o‘rmonga boradigan vaqt deb o‘yladi. Faqat onasi yaxshi bo‘lsa bas.

Lyusya Varvaraning ostonadanoq qichqirishini eshitib, deraza oldidan qo‘zg‘aldi. Varvara go‘yo xushxabar olib kelgandek:

– Esladim, onajon, esladi, – dedi hovliqib.

– Nimani eslading?

– Tushimni! Men senga aytuvdim-ku, bexosiyat edi deb. Rostdan ham shunday ekan.

– Xo‘sh-xo‘sh? – dedi endi kampir ham hayajonlanib.

– Biz, xotinlar, davra olib o‘tirgan ekanmiz, lekin ular notanish emish, birontasini ham bilmasmishman, o‘tirib chuchvara tugayotgan ekanmiz. Bilasanmi, xamirga nima o‘rayotgan ekanmiz?

– Men qayoqdan bilay? Xo‘sh?

– Loy.

– Nima deysan?

– Loy, oyog‘imiz osti loy ekan, biz o‘scha loydan olib, go‘sht o‘rniga solarmishmiz. Yana loydan ham chuchvara qilsa bo‘lar ekan, deb shunday xursand emishmizki, asti qo‘yaverasan. Quvonganimizdan nuqul kularkanmiz, men yana: «Hoy, xotinlar, nega yomon loydan olyapsizlar, qanaqasiga bu chuchvara bo‘lsin? Mazasi chiqmaydi. Manavi meni loyim yog‘liroq, shundan olinglar», dermishman. Ular meni loyimdan ola boshlashibdi... Eslashim bilan a’zoyi badanim titrab ketyapti.

– Keyin nima bo‘ldi?

– U yog‘i esimda yo‘q. Lekin chuchvaralar hozir ham ko‘z oldimda turibdi: biram chiroyli, oppoq, yaxshilab terilgah, lekin bu yaxshilikdan darak emas. – Varvara xavotirlanib boshini chayqadi. – Buni ta’biri nimayikin-a? Tavba! Agar bilganimda, bunday tush ko‘rmaslik uchun uqlamay qo‘ya qolardim. Endi nima qilsam ekan-a?

– Tushingni aytmay qo‘ya qolsang ham bo‘lardi, – deb unga nasihat qildi Lyusya.

– Nima qipti, ko‘rgan narsamni aytdim-da axir?

– Chuchvaralaringni o‘zing yeyaversang bo‘lardi. Ayni paytda onamning ko‘zi o‘scha chuchvaralaringga juda uchib turuvdi-da. U shundoq ham birovning umrini yashayapman deb boshini qotirib o‘tiribdi, kamiga sen ham bema‘ni chuchvarangni tiqishtirding. Bop-lading. Rahmat senga!

Lyusya jahl qilib chiqib ketdi, uning ketidan eshik oxirigacha yopilmadi va yoqimsiz g‘ijirlay boshladi.

– Eshikni yopib qo‘y, – dedi kampir, ammo Varvara uning gapini eshitmay nolib, to‘ng‘illay boshladi:

– Tavba, birovga bir narsa deyolmaysan-a. E xudoym-ey, nima bo‘lsa Varvara aybdor, faqat Varvara, boshqa hech kim emas. Endi uni tush ko‘rishgayam haqqi yo‘q. O‘zim uxlab yotgan bo‘lsam qanday qilib tushima kirmagin deyman. Axir men ataylab shunday tush ko‘rmayman-ku. Nima, endi yomon tush ko‘rmayin deb uxlamasligim kerakmi?

– Sen kim nima desa, qulq solavermagin-da.

– Yuzimga qarab gapirib turgandan keyin qanaqasiga qulq solmayman? Kar emasman-ku, axir. Gapirgandan keyin qulq sola-man-da.

– Eh, Varvara, Varvara! Kimga o‘xshading-a, namuncha sodda bo‘lmasang, – dedi kampir unga achingan bo‘lib. – Men senga Mironixanikiga borib kel devdim, boardingmi?

– Hali borganim yo‘q.

– Nega?

– Endi boraman.

– Borib kel, Varvara, borib kelaqol. U ertalabdan beri sira xayo-limdan ketmayapti. Unga biron gap bo‘lmadimikin, ishqilib? Shundoqqina yo‘lni kesib o‘tsang bo‘ldi. Agar uyda bo‘lsa, ayt, onam yo‘qladi degin. Axir uni ko‘pdan beri ko‘rganim yo‘q.

Varvara shap-shup qilib eshik tomon yurdi, kampir ketidan qich-qirdi:

– Eshikni yopib ket, tashqaridan g‘urillab sovuq kiriyapti. Tag‘in oyog‘im shamollab qolmasin.

Kampir hali o‘tirishga odatlanmagani uchun charchab qoldi, ammo Ninka karavot o‘rtasida taltayib yotganidan, u sabr qilishga majbur bo‘ldi. Uni uyg‘otishga ko‘zi qiymadi. Kampir beli qaqsha-yotganiga qaramay engashdi va qo‘llari bilan qornini ushlab, ikki bukildi, og‘riq sal bosilganday bo‘ldi. Kampir picha nafasini rostladi, ammo uzoq vaqt ikki bukchayib o‘tirishni ham xavfli deb o‘yladi, munkib ketishi ham gap emasdi, shuning uchun u yana qaddini rostladi. O‘rnidan bir qo‘zg‘alib xo‘rsindi. Varvara tashqaridan dera-zani tiqillatib shang‘illadi:

- Onajon, eshityapsanmi, onajon, Mironixang uyida yo‘q. Nadyaning aytishicha, ertalab past mahallaga tushib ketgan mish.
- Ha-ha, — dedi kampir va birpas jim turgach, o‘ziga o‘zi gapirdi:
- Yana biron yoqqa jo‘nab qopti-da. Voy-voy-ey, bu yurimsak kimga o‘xshadi-ya?

— Haliyam o‘tiribsanmi? — so‘radi Varvara ichkariga kirgach.

— Ha, o‘tiribman.

Narigi xonada Mixail timirskilana boshladi, inqillab-sinqillab, qoqinib-surinib dahlizga sudralib chiqdi-da, yog‘log‘ini daranglatdi. So‘ng eshikni ham yopmay hovliga chiqdi. Kampir og‘ir xo‘rsindi, ammo Mixailni chaqirishga bo‘yni yor bermadi va ohista engashib, oyoqlarini adyolga o‘ray boshladi. Lekin sovuq baribir adyol-dan o‘tib oyoqlarini muzlataverdi. Ehtimol, bu boshqalarga sovuq bo‘lmasa ham kampirga sovuq edi.

Kampir qunishib, jim bo‘lib qoldi.

- Yerni tush ko‘rsang — har holda bu yomonlik alomati emas, — dedi u parishon, xuddi o‘ziga o‘zi gapirayotganday.

Kun odamlarga peshvoz chiqib, vaqt degani yeldek o‘ta boshladi.

## 5

Mixail bir ko‘tarishda bir yog‘log‘i suvni simirib, lablarini chil-pillatgancha nafasini rostladi. Suv tomog‘idan o‘tayotganida uning muzdekligi xush yoqib, jonini kiritayotgandi, ammo biroz o‘tib yana ko‘ngli ayniy boshladi. Mixail bir o‘qchib qo‘ydi, suv qornida qulqulladi, u endi suv emas, yuvindi edi. U yana ichsammikin deb o‘yladi-yu, ammo ichmadi — baribir foydasi yo‘q, faqat qorning shishib ketadi-yu ortiqcha dahmaza bo‘ladi, keyin u ikki qo‘li bilan qornini ushlab, pillapoyaga chiqdi. Hozir unga oftob ham, isiy boshlagan havo ham yoqmasdi — yomg‘ir yoki shamol bo‘lsa har qalay yaxshi bo‘lardi, hech bo‘lmasa chalg‘itardi, bunday iliq havoda o‘zingga kelishing qiyin, albatta. Mixailning egnida mayka, oyoq yalang edi, u hatto ichkari bilan tashqarini ajratolmas, ko‘ziga hamma narsa bir xilda chuchmal, g‘ira-shira ko‘rinardi.

Mixail qaqqayib turmaslik uchun bir pog‘ona tushdi-da, pillapoyaga cho‘kdi, ammo shu ondayoq dik etib o‘rnidan turib ketdi: u kechagi aroqlarni eslab qoldi, axir ular qaznoqda intizor bo‘lib kutilib turibdi-ku! Ajab, uni shu choqqacha bir martayam o‘ylamabdi-

ya, bu endi odati bo'yicha bo'lsa kerak, chunki unda hech qachon birdaniga shuncha ichkilik bo'limgandi, innaykeyin, ko'pdan beri ertalabki boshog'riqqa bir qultum ham qolmayotgandi-da. Mixail birpas ikkilanib turdi: u kecha Ilya bilan ikkovi bir yashik aroq olib kelganini esladi, bir o'tirishda hammasini ichib tugatishmagni ham aniq, ammo shunday bo'lsa ham u baribir ichkilik borligiga ishonol-mayotgandi: e, tushingni suvga ayt... U eshigi dahlizga qaragan qaz-noqqa kirib, burchakdagi eski-tuskilarni ohista ko'tardi-yu, quvon-ganidan ko'zlar charaqlab ketdi – nimqorong'i qaznoqda og'zi berk shishalar qandaydir boshqacha, odamning havasni keltirib yaltirab turardi. Yashikdag'i kataklardan faqat uchtasi bo'shabdi, qolganlari esa do'konda qanday tursa shundayicha turgandi. Qarang-a, kechasi bilan turibdi-yu, jin ham urmabdi-ya. Qoyil, yashasin! Mixail yana bir shishani olib, shimining cho'ntagiga tiqdi.

U boyta turib ketgan pillapoyaga, joyiga borib o'tirdi. Ko'ngli behuzurligi va boshog'rig'i hali bosilmagan bo'lsa-da, ammo cho'ntagidagi ichkilik tanish va ko'ngilga yoqadigan xumordan va'da berib, a'zoyi badaniga jon kirganday bo'ldi. Endi bemalol o'tirib butun vujudini g'ijimlayotgan dardisarni birpasga bo'lsa ham, aritish mumkin. Dunyoni ko'zingga shunchalar qorong'i qilib yuborgan la'nati xumorning jazosi bir qultumgina yutum, shu bilan manavi nomsiz azobdan qutulib, huzur qilasan. Inson tabiatan shunday. O'zingni o'lguday charchaganingni sezish juda yaxshi, ayniqsa uqlash oldidan. Bu ham quvlikka kiradi. Har hol-da quvlik.

U yana birpas o'tirishi mumkin edi-yu, ammo polizdan Nadya-ning ovozini eshitib qoldi va ko'ziga ko'rinxmay qo'ya qolay deya o'rnidan qo'zg'aldi. Hozir xotini unga nima deyishini yaxshi biladi. U uyga kirib poyabzalini kiymoqchi bo'ldi-yu, ammo cho'ntagida shisha bilan kiyinishing noqulayligini ko'z oldiga keltirdi, buning ustiga, keyin Nadyagami yoki opalaridan birontasi bilan to'qnash ke-lib qolishi ham mumkin, shu bois uyga kirmay shu turishicha, oyoq yalang mo'ljallagan joyi – mo'rchaga, Ilyaning oldiga jo'nadi.

Ilya hech nima bo'limgandek uqlab yotardi. U na tashvish, na g'am-g'urbatni bilardi, xuddi kechasi allamahalgacha bug'doy yanchgan odamday uyquni urardi. Mixail uning qarshisidagi kecha hovlidan olib kirgan pastgina g'o'laga o'tirdi va shishani tovuq ka-

tagi orqasiga tiqib qo'ydi. Qishda tovuq saqlaydigan katak ham shu yerda, mo'rchada turardi, o'rni kelganda undan stol sifatida foydalish mumkin edi. Kecha ham shuning ustida ichishdi, binoyiday. Bo'shagan ikkita shisha shundoqqina ko'rinish turardi, uchinchi shisha esa qandaydir bir mo'jiza bilan katakka tushib qolibdi, bo'lmasaku kataknинг eshigi berk. Bu shishani tezroq yo'qotish kerak – agar bitta-yarimta ko'rib qolguday bo'lsa, ko'ngliga har xil gap kelishi mumkin. Axir bu zormandani tovuqlar ichib bo'shatmagan-ku. Mixail shishani olmoqchi bo'ldi, ammo buning uchun o'rnidan turiishi, Ilyaning ustidan hatlab o'tishi kerak edi. Mixail qo'l siltab tupurdi: bo'shmi, bo'sh, mayli yotaversin, keyin bir gap bo'lar.

– Ilya! – deb ovoz berdi u. Bu uning bugun aytgan birinchi so'zi edi, shu bois ovozi g'ayritabiiy, xirillab chiqdi. Voy-bo'y, ichiniyam bo'lari-bo'libdi-da, hatto so'zni ham to'g'ri aytolmaydi-ya. Mixail tomog'ini qirib olib, ovozini to'g'irlagan bo'ldi: – Eshityapsanmi, Ilya?

Ilya uni eshitdi chog'i, nafas olishi o'zgardi.

– Turaqol, shuncha yotganing ham yetar.

– Hali erta-ku, – deb to'ng'illadi Ilya ko'zini ochmay. Agar Mixail qo'yib bersa Ilya yana uxlab qolishi mumkin edi, chunki u butunlay uyg'onmagandi va uyg'onishni ham istamasdi, u xuddi kech yotib, ertalab turishga qiynaladigan yosh bola singari boshini uyqudan ko'tarołmasdi.

– E, erta qoldimi?! Kun yoyilib ketdi-ku.

– Nega tinchgina uxmlamaysizlar-a? Kecha Varvara uyquning beliga tepuvdi, bugun sen. O'zi allamahalda yotgan bo'lsak, axir.

– Xo'sh, o'zingni qalay his qilyapsan? – so'radi Mixail uning gapiga e'tibor bermay.

– Hozircha bilmayman. Tirikka o'xshayman, – dedi Ilya ko'zini bazo'r ochib.

– Men esa a'zoyi badanim qiymalab tashlangandayman. Qo'lim qayoqda-yu oyog'im qayoqdaligini haliyam bilolmayapman. Bu yergayam bir amallab emaklab keldim.

– Ha, kecha ko'payib ketibdi.

– Ertalab hali ko'zimni ochmayoq abjag'im chiqib ketganini bildim. Yotib yotolmaysan, tursam yotgim keladi. Mana sen, maza qilib uxlab yotibsan, senga baloyan urmabdi. Men esa, yo'-o'q!

– Men ertalab uyquga to'yishim kerak. Ha. Men xuddi hech nima bo'limganday maza qilib uxmlayveraman. Ana shunaqa! Faqat bezovta qilishmasa bo'ldi.

– Shunaqa de! – Mixailning havasi keldi. – Zo'r-ku. Axir, tug'ishgan aka-ukamiz-ku – farqimiz bo'lmasligi kerak chamamda.

– Aka-ukami, begonami, ichkilik savil qolgurga baribir.

– Yo'g'-e! Ammo omadimiz bor ekan, faqat oqidan uribmiz-da. Agar qizili aralashsa bormi, rosa rasvo bo'lardik-da, bugun men o'rnimdan ham turolmasdim. Aniq turolmasdim. O'zimni bilaman-ku, axir.

– Qizili menga ham yoqmaydi.

– Jin ursin, kasalni o'zing sotib olasan-a!

– Nima?

– Kasalni sotib olamiz, deyman, – Mixail boshiga ishora qildi. – Buning ustiga, pulga.

– Ha, bu to'g'ri.

– Besh yilcha oldin baloyam urmasdi menga. Ichdim nima-yu, ichmadim nima, ertalab qilichday turib ketaverardim. Endi esa es-hushing joyidaligida yotsang ham ertalab qanday uyg'o-narkanman deb avvaldanoq yuraging taka-puka bo'lib turadi. Bu yaramasni stakanlab ichasan-u, ammo chiqishi tomchilab bo'ladi. To oxirgi tomchisi badaningdan chiqib ketmagunicha, odam bo'lmysan. Tupurasan-u kamroq qolgandir deb o'ylaysan, qayoqda, ming tupursang ham foydasi yo'q. Umr bo'yi mana shunday qynalib yuraverasan.

– Shunday bir latifa bor, – deb eslاب qoldi Ilya. – Ona qizini otasini qidirgani yuboradi. «Bor, – deydi onasi, – mayxonaga, hoyna-hoy otang o'sha yerda bo'lsa kerak». Turgan gapki, otasi o'sha yerda bo'ladi, boshqa qayergayam borardi? Qizi borib: «Dadajon, yur uyga, onam aytdi», deydi. Otasi qizini eshitib turib aroq quyilgan stakanni qiziga tutqazadi-da: «Ich!» deydi. Qizi «Yo'q, men ichmayman, istamayman», deydi. «Ich, – po'pisa qiladi otasi. – Men sen-ga aytyapman!» Qizi stakandan bir ho'playdi-yu qattiq yo'tal tutadi, yo'talaverib ko'karib ketadi-da: «Voy-bo'y, juda zahar ekan-ku!» deydi. Shunda otasi qiziga: «Xo'sh, kallavaramlar, nima, onang bilan ikkoving meni bu yerda asal ichadi deb o'ylovinglarmi?» degan ekan.

– Ana, – deb kului Mixail. – Ular bizni asal ichadi deb o'ylashadi shekilli. Jon-u dili shu ichkilik deb o'ylashsa kerak-da.

– Bu latifani eshitmovdingmi?

– Yo'q, eshitmovdim. Lekin juda to'g'ri latifa ekan. Hayotiy. – Mixail jim qoldi, latifadan ta'sirlanib boshini sarak-sarak qildi, keyin cho'zib o'tirishdan na hojat deya maqsadga ko'chdi. – Shuning uchun, Ilya, o'zimizga kelib olmasak bo'lmaydi. – U keyin esdan chiqib qolib ketmasin deya katak eshigini ochib bo'sh shishani ham olvoldi.

– Olib kelibsang-da, – Ilyaning ovozi g'alati titrab chiqdiki, uning tashvishlanganini ham, suyunganini ham bilib bo'lmazıdi.

– Yoningga kelayotib, ola keldim. Keyin borib yurmay dedim.

– Balki hozircha ichmaganimiz ma'quldir? Biroz sabr qilib turamizmi?

– Sen o'zing bilasan, men esa ichaman. Hozir ichmasam bo'lmaydi. Yo'qsa kechgacha ham yetib borolmayman. Boshog'riq qilsam, yozib yuborishi mumkin. Shundoq ham arang nafas ol-yapman. Agar hozir o'zimni tuzatmasam, onamning o'rniga meni ko'mishlaringga to'g'ri keladi.

– Xo'sh, onam qalay?

– Bilmayman, Ilya. Hech nima deya olmayman. Oldiga kirganim yo'q. Tuzuk shekilli, bo'lmasa ayollar yugurgilab kelishardi.

– Ha, to'g'ri, xabar berishardi.

– Xo'sh, quyayimi-yo'qmi? – dedi Mixail shisha og'zini ochib.

– Xayr, mayli, quya qol. Sherik bo'lib turay.

– Bu gaping to'g'ri.

– Ie, gazaging yo'qmi hali?

– Yo'q. Agar istasang, o'zing bor, men esa hozir bormayman. Qo'y o'shalarni! Ular bizni bu yerda «asal ichyapti» deb o'ylashadi.

– Borib gazak qidirib yurishim juda noqulay-da.

– Nima, sen begonamiding? Kerakli narsani ol-u kelaver.

– Bo'pti, shunday olaveramiz. Bo'laveradi.

– Bo'laveradi, albatta. Ichsang ham o'lasan, ichmasang ham. Shunday ekan, ichib o'lgan yaxshi, – dedi Mixail xuddi duo o'qiyotganday va ichib yubordi, keyin aroq to joyiga yetib borgunga diqqat bilan kutib turdi, shundan keyingina stakanni katak ustiga ohista qo'ydi, – ular bizni «asal ichyapti» deb o'ylashadi. – U nafa-

sini yuta-yuta to'xtab-to'xtab, qalbini ichkilik bilan isitayotgan o'sha so'zлarni yana takrorladi.

Ilya o'rnida aftini burishtirib o'tirarkan, Mixailni kuzatardi.

– Xo'sh, qalay ketdi? – deb so'radi u qiziqib.

– Ketdi, jin urgur. Qayoqqayam borardi? Ich, cho'zib o'tirma, bo'lmasa keyin tomog'ingga tiqiladi-yu o'tmay qoladi. Dastlabkisini shartta ko'tarib yuborish kerak.

Ilya ham ichdi. Ichdi-yu, xuddi xayrlashayotgan odamdek kafti bilan og'zini yelpidi. Uning odati shunaqa ekan o'zi. Kecha, uning bu qilib'i Mixailni qiziqtirib qolgandi, keyin o'zi ham akasiga taqlid qilib aroqning ketidan xayrlashganday kafti bilan ikki-uch marta og'zini yelpidi, mayli-da, lekin sira nafini ko'rmadi. Keyin o'z odatidan qolmadi – birinchi bo'lib ichaverdi, ichgandan keyin esa bunday xayr-xo'shlarni unutib qo'ydi, ehtimol, buni Ilya uchun boshqacha ahamiyati bordir. Mixail so'rab o'tirmadi, innaykeyin nimayam deb so'raysan?

Mo'rcha, u yoq-bu yog'iga qaralsa, ko'proq oshxonaga o'xshardi, bu tovuqxonasi borligi uchun emas albatta. Bu mo'rcha rostakam mo'rcha emasdi, polizdagi haqiqiyisi esa bundan uch yil burun yonib ketgandi. Shundan keyin Mixail chetdag'i qaznoqni vaqtincha mo'rcha qilib qo'ygandi. Bug'lanadigan supa avval yo'q edi, g'ishtin pechka o'rniga cho'yan pechka yoqishardi, shunda suv isitishardi, faqat nomi mo'rcha edi. Ammo chakki emas, amal-taqal qilib turishardi, parlangisi kelsa, Mixail qo'shnisi Ivannikiga bordi. Uning yangi mo'rcha qurish niyati ham yo'q edi. Innaykeyin yolg'iz odamning mo'rcha qurishi oson ekanmi? Lekin yonib ketgan mo'rcha o'rnida, mana uch yildirki, ketma-ketiga shunaqangi yirik-yirik kartoshka bo'lyaptiki, kishining ko'zi o'ynab ketadi. Butun qishloqda kartoshka endi no'xotday-no'xotday bo'lganda, Nadya ovqatga shu yerdan kartoshka qazib olardi. Har yomonlikda bir yaxshilik bor, har falokatda bir hikmat, deya odamlar juda topib aytishgan ekan...

Mixail darcha oldida o'tirgani uchun Varvaraning xuddi tankka o'xshab to'g'ri mo'rchaga qarab kelayotganini birinchi bo'lib ko'rduyu, so'kinib, shishani ko'zdan pana qildi. Varvara ostona hatlab o'tdgach, ko'zlarini qisdi – tashqaridan kirgan odamga hammom ichi qop-qorong'i ko'rindari.

- Hoy, senmisan? – dedi u birozdan so'ng Mixailga tikilib qararkan.
- Yo'q, men emasman, Iso payg'ambarman.
- E, qo'ysang-chi hazilingni! Seniyam shu yerdaligingni qayoq-dan bilibman. Men Ilyaning o'zimikan debman. Men unga onamiz turib o'tiradigan bo'lib qolganini aytgani keluvdim.
- Turib o'tiribdi?!
- O'tiribdi, o'tiribdi. Avvaliga men ham ko'zlarimga ishonma-dim. Qarasam, o'tiribdi, oyoqlarini pastga osiltiri-i-i-b...
- Boshini ko'tarib o'tiribdimi?
- Sen, Ilya, mazax qilma, nima keragi bor, – deya Ilyani koyi-di Varvara. – Onasi to'g'risidayam shunaqa deydimi, odam. Axir u onamiz-ku, begona emas-ku.
- Mazax qilyapsan degan gapni qayoqdan olding?
- Yuringlar, o'zlarining ko'rasizlar, o'tiribdi. Kim o'yabdi-ya? – Varvara hozir inilari onasini ko'rib, ularning ham xursand bo'lishlarini istardi, shuning uchun qo'shib qo'ydi: – Qani, ketdik. Bo'lmasa, bu gapni Varvara o'yab topgan deysizlar.
- Nimasini ko'ramiz, mayli o'tiraversin, – dedi Mixail. – Atro-fida hadeb kuymalanib, joniga tegaverish ham bo'lmaydi. Ishqilib, qarab turinglar, tag'in yiqlib tushmasin.
- Yo'q, yo'q, juda yaxshi o'tiribdi.
- Biz keyinroq, sal turib boramiz, – deb va'da berdi Ilya.
- Varvara atrofga sinchiklab qaradi, taxmin qilgan narsasini topol-may burilib ketmoqchi edi, Mixail uni to'xtatdi:
- Nadya uydami?
- Uyda. Hamma uyda. Lyusya ham, onamiz ham uyda.
- Onamiz ham uyda deysanmi?!
- He, senlarni-yu! – dedi Varvara kesatiqni tushunib qolib. – Sen-larga gapirgin-u qochavergin. Xo'p, men ketdim.
- Bora qol, bora qol. Onamizga qarab tur, tag'in biron yoqqa qochib ketmasin, keyin qidirib yurmaylik.
- Varvara ombor dahlizidan yuragini hovuchlab chiqdi, chunki om-bor baland bo'lib, ostonasi oldiga bironta g'o'la qo'yish hech kimning esiga kelmas edi, keyin esa endi qayoqqa borsam ekan deb, to'xtadi, o'ylanib qoldi. U ukalari bilan bo'lgan suhbatdan keyin hafsalasi pir bo'lgan edi. Agar inilari hozir onasini oldiga borishsa, boshqa gap

edi: u ham birga kirardi, erkaklar kampirni ko'rib qanchalik hayratda qolishlarini o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi edi, axir u kuni kecha o'lim to'shagida yotuvdi-da, bugun bo'lsha turib o'tiribdi – xuddi hech narsa ko'rmaganday. Ammo ukalari mo'rchada qolishdi, go'yo bu mo'rcha ularning mahriga tushgan-u onasidan azizroqday. Varvara endi nima qilishini bilmas edi. Shu tob yana chuchvarali tushini esladi-yu, yuragiga g'ulg'ula tushdi. Yaxshi tush emas, ha, ko'ngli sezib turibdi. Bu haqda yana kimdan so'rasa bo'larkin, ta'birini kim aytib berarkin? Lyusya bilan gaplashib bo'lmaydi – shunday bobillab beradiki, asti qo'yaverasiz. Nadyani-ku qo'li ishdan bo'shamaydi, vaqt yo'q. Varvara bir-ikki qadam yurdi-yu, yana to'xtadi, gangib atrofga alang-laganicha ivirsib turdi, so'ng darvozadan tashqariga chiqishga jazm etdi – u yoqda odamlar bor.

Varvara ostona hatlab tashqariga chiqishi bilan Mixail shoshapisha shishani katak orqasidan olib, yana boyagi joyiga do'q etib qo'ydi. U endi ancha o'ziga kelib qolgan, kayfiyati ko'tarinki, xushchaqchaq bo'lib, yuzlariga ham qon yugurgan, ko'zlar tiyraklashgan edi.

– Xo'sh, Ilya, – dedi u chaqqon, – ishlar yurishib ketganga o'xshaydi. Ayni qo'shimcha qiladigan payt. Orasi uzilmasin, keyin quvganining bilan yetolmaysan.

– Gazak bo'lmasa endi ololmayman, – rad etdi Ilya. – Hidlash uchun loaqal bir tishlam non ham yo'q – hech qursa o'sha bo'lsayam mayliyi. Bunaqada rasvo bo'lamiz. Bir-ikkita olasan-u tappa tayyorsan-da. Buning esa sira qizig'i yo'q.

– Bo'lmasa polizdan piyoz olib kelaymi?

– Faqat piyoz bilan ish bitmaydi. Bu aniq. Bu yerda hatto tuz ham yo'q.

– Gazak bo'lsa-ku zo'r bo'lardi, albatta, – uning fikriga qo'shildi Mixail va ma'yus tortib jim bo'lib qoldi. – Nachora, kutamiz! Uyga kirishga hozir sira oyog'im tortmayapti. Yana g'alva boshlanadi. Agar Nadya biron yoqqa chiqsqa, g'izillab borib kelaman.

– Agar ko'ngling tortsa, sen ichaver.

– Shoshib nima qilaman, biron ishim qolib ketyaptimi? Bir o'zim sira ichgim kelmaydi. Kasofat, har gal ko'payib ketadi. Yaxshisi, kishi yolg'iz ichmagani ma'qul, men ko'p marta sinab ko'rganman.

– Agar umuman ichmasa yana ham yaxshi deyishadi.

– Deyishadi, Ilya, deyishadi, men ham eshitganman. Odamlar og‘izlariga kelganini gapirishyapti, qaysi biriga qulq solasan, kimki ichmagan bo‘lsa ichmagani ma’qul, shunday o‘tib ketaveradi, kimki bunga aylanishgan bo‘lsa, demak havasi bor-da, tag‘in bilmadim... – Mixail anchagacha boshini chayqadi. – Bilmayman, Ilya, bilmayman. Baribir tortib turadi – men shunday deb o‘ylayman. Zo‘r narsada, jin urgur, qani endi qo‘lingdan kelsa olishib ko‘r. Baribir yengilasian. Men uni tashlamoqchi emasman. Yoshligimda bir necha bor tavba qildim, keyin o‘ylanib qoldim, o‘zimni ham, odamlarni ham aldab nima qilaman, dedim. Foydasi yo‘q. Endi bo‘lsa, shu ishim yaxshimi-yomonmi, baribir uni tashlolmayman deb o‘ylayman. Odamlarga kulgi bo‘lmaslik kerak. Lekin har qanday boshqa ish singari ichishni ham bilish kerak, albatta. Biz bo‘lsak xuddi suv ichgandek to burnimizdan chiqmaguncha ichaveramiz.

- Ichishni bilish kerak – bu gaping to‘g‘ri.
- O‘zing ham tez-tez otib turasanmi?

– Men mashinadaman, tez-tez ichish to‘g‘ri kelmaydi menga. Shaharda bu masalada qattiq turishadi – ha, innaykeyin xotinin ham sira yoqtirmaydi. Ammo agar xotin, mashina bo‘lmasa albatta otaman. To kekirdakka yetguncha.

Mixail yana shishaga ko‘z qirini tashlab qo‘yib, so‘radi:

- Ehtimol, icharsan? Keyin ustidan bostirib biron nima yersan.
- Yo‘q, icholmayman. Sen ichaver, menga qarama.

– Lekin men ham ozgina ichaman, yana tortib qoldi. – U chindan ham stakanga ozgina qo‘ydi-da, to‘xtamasdan, xuddi zahar yutganday shartta ko‘tarib yubordi. – Mana bo‘ldi, – dedi u pishillab. – Bاليqdan oldin ham, keyin ham aroq ichgin deyishadi. O‘ldirsa ham shu savil o‘ldirsin. Ichganing qoladi.

- Qani endi hozir qizartirib qovurilgan bir baliq bo‘lsa...
- Xo‘sish, aslida, nima uchun ichamiz? – dedi Mixail ovqatga chalg‘imaslik uchun o‘zicha boshini qimirlatib, so‘ng savolimga Ilya javob qaytararmikan deganday kutib turdi. Ilya indamadi. – Ba‘zilar alamdan, xursandchilikdan, undan-bundan ichiladi, deydi. Yo‘-o‘q. Bu bo‘limgan gap. Ayrimlar esa bu odat deydi, odatni esa tark etish qiyin, to‘g‘ri, xuddi nonga odatlangandek odatlanib qolganimiz, axir stolni nonsiz tuzashmaydi-ku. Ammo bu ham emas, chunki odatlanishning ham biron-bir sababi bo‘lishi kerak. Mening

fikrimcha, endilikda ichishga zarurat paydo bo'ldi, shuning uchun ichyapmiz. Ilgari birinchi navbatda nima kerak edi. Non, suv, tuz. Endi shularning yoniga bu kasofat ham qo'shildi. – Mixail shisha-ga qarab boshi bilan ishora qildi. – Turmush hozir butunlay boshqa-chá, tubdan o'zgarib ketgan deyaver, ana shu o'zgarishlar inson nasibasiga qo'shimchalarni talab qilmoqda. Biz qattiq toliqyapmiz men senga aytsam, ammo faqat ishdan emas, albatta, nimadanligini kim biladi deysan. Mana men, bir hafta ichmadim, lekin arang oyog'imni sudrab yurdim, qiynalib ketdim. Ichdim-u xuddi hammomda yuvinib chiqqanday yengil tortdim, yelkamdag'i yuz pud yukni tashlaganday bo'ldim. El-yurt oldida gunohkorligimni bilaman: uyda xotin bilan janjallahdim, oxirgi pulni sovurdim, ishgayam chiqmay qo'ydim, qishloqda eshikma-eshik tilanchilik qildim, uyat albatta, bosh ko'tarib yurolmaysan. Ammo boshqa jihatdan esa yaxshi bo'ldi. Bir tomondan yaxshi, ikkinchi tomondan yomon. Gunohingni yuvish uchun yana ishga borasan, bir kun, ikki kun, besh kun ishlaysan, uch kishining ishini qilasan, qayoqdandir kuch ham paydo bo'ladi. Xo'sh, keyin tinchiganday bo'lasan, yuzing sal yorug' bo'ladi, yashash mumkin. Faqat ichmasang bas. Lekin busiz bo'larkanmi? Endi bir yoqdan oson-u boshqa yoqdan qiyin, qiynalaverasan, xumor qiladi. – Mixail qo'lini siltadi. – Yana qo'zib qoladi. Chidolmaysan, Boshqatdan boshlanadi. Demak, charchabman. Vujudim dam olishni talab qilib qoladi. Buni men emas, vujudim ichyapti. Vujudimga non bilan birga shu kasofat ham kerak ekan, chunki vujudimda unga ehtiyoj paydo bo'lgan. Xo'sh, sen nima deysan?

– Ehtiyoj – buyam to'g'ri, – yana uning fikriga qo'shildi Ilya. – Ichgandayam uni qanchalik ko'tara olishimizga, ehtiyojimizga qarab ichishimiz kerak, siqqanicha-da.

– Qanaqasiga ichmaslik mumkin odam? – deb davom etdi Mixail. – Bir kun, ikki kun, borsin ana bir hafta – chidash mumkin. Bordi-yu butunlay, to o'lgunicha ichmasa-chi? O'zing o'ylab ko'r, axir, kunlaring bir xilda, bir-birini takrorlab, zerikarli o'taversa. Nuqlul ish-u uyga bog'lab qo'yilganidan keyin dod devormaysanmi, axir. Falon ishni qilmading, piston ishga ulgurmading deyishadi, hammasini qilishing kerak, kerak, kerak, borgan sari ko'proq qilishing kerak – e, yer yutsin shu ishlariniyam. Ichdingmi – ozodlikka chiqqanday bo'lasan, erkin bo'lasan, hech nima qilmaysan,

majburiyatdan qutulasan. Xullas, juda yayraysan, o‘z ko‘ngliga qaramagan odam axmoq emasmi axir? Agar me’yorini bilsang, ichkilik juda joningni kiritadi-da.

– Agar me’yorini bilsak, mana shunaqa rasvoyi jahon bo‘lib yurmasdik.

– Ha, bo‘lmasdik, albatta. Boshqa tomondan esa, agar sen hozir menga: bo‘ldi, bas qil, desang, men bas qilarmidim? Aslini olganda balki shu ham yetar, mana, ancha yengil tortdim, endi turgan gap, keyingilari boshqa biqinimga tushadi. Baribir ichaveraman, tabiatim o‘zi shunaqa. To nafsim qonmaguncha, birov meni shashtimni qaytarmasligi kerak. Tomog‘imni qisib, orttirib qolish mijozimga to‘g‘ri kelmaydi, to yiqilib qolguncha miriqqim keladi. Ishda ham, ichishda ham. O‘zing tushunasan-ku.

– Oyiga qancha olasan?

– Nimani oyiga? Vinonimi?

Ilya kulib yubordi:

– Vinoni-ku sen buxgalteriyasiz ichasan, buni bilaman. Men sendan oyliging qancha, oyiga qancha maosh olasan deb so‘rayapman?

– Oylik... goh undoq, goh bundoq, Ilya. Agar bilishni istasang, oylik endi ilgarigiday emas, hozircha bizda mexanizatorlarning ketmoni uchgan, pichog‘i moy ustida, bizga o‘xshaganlarni, o‘z oyog‘ida yurganlarni esa qisib qo‘yishdi. Menga oldingiga qaraganda, dastlabki yillarda to‘lashganini deyarli yarmini berishadi. Ilgari ikki-uch barjaga yuk ortsang, tinchgina qorningga chertib yotaverding. To‘g‘ri, ishni ham qotirardik-da. Eh-he, ana mehnat-u mana mehnat, hozirgi ish ish ekanmi. Yog‘ochlarni qo‘lda dumalatardik-a. Endi-chi, endi kran bor. Bog‘laysan – yechasan, bosib qolmasligi uchun ko‘zingga qarasang bo‘ldi. Hamma yerdgayam shu, qayoqqa qarasang odam o‘rnida mashina, texnika.

– O‘sha bilan, texnika bilan oson-da, axir.

– Oson albatta, kim yo‘q deyapti. Ancha oson. Jon chekib o‘tirmaymiz. – Mixail bir zum xayolga cho‘mdi-da, nogahon sal iyib dedi: – Avvallari har qalay qiziqarli edi, Masalan, o‘sha barjalarni olaylik. Men yuk ortishni yaxshi ko‘rardim, to‘g‘ri puli xam chakana emasdi, lekin eng avvalo ishiga qiziqardim. Ikki kunlab qirg‘oqdan ketmasdik. To ortib bo‘limguncha hammamiz o‘sha yerda bo‘lardik. Ovgatni bolalar kotelokda olib borishardi, yerdig-u yana ishga tu-

shardik. G‘ayrat ham bor edi-da, ol-ol, bo‘l-bo‘l. Shuncha kuch qa-yoqdan kelgan ekan-a! Ishni sevib, uni jonli narsaday deb bilardik, kun o‘tkazish uchun, qo‘l uchida ishlamasdik.

– Unda yosh, baquvvat eding.

– Ha, to‘g‘ri, yosh edim... Lekin gap bunda emas. Hu o‘sha, kol-xozda yashaganlarimizni bir esla. Men qancha pul oлganimizni aytayotganim yo‘q. Hatto chaqasiz qolib ketgan paytalarimiz bo‘lgan. Lekin o‘shanda qanchalik ahil yashardik demoqchiman: azobdayam, rohatdayam hammamiz bir jonu bir tan edik, o‘shanda kolxoз kolxoз edi. Endi har kim o‘zicha. Nimayam qilarding: o‘z odamlaring ketdi, o‘rniga boshqalar kelishdi. Endi tug‘ilgan qishlog‘imdagи odamlar-ning ko‘pini tanimayman, nazarimda o‘zim ham begonaga, notanish yerga ko‘chib borganga o‘xshayman.

Uy eshigi g‘ijirlab ochildi, Mixail boshini ko‘tarib qaradi. Nadya emas, Ninka ekan. U atrofga alangladi – hech kim yo‘q, sarjin yonida ivirsib turdi-da, keyin lip etib uning orqasiga o‘tdi. Mixail to Ninka ishini bitirib bo‘lguncha kutib turdi, keyin eshikdan boshini chiqarib:

– Ninka, bu yoqqa qara, – deb chaqirdi.

– Ni-ma-ga? – qo‘rqib ketdi qizcha. U meni bitta-yarimta mo‘rchadan kuzatib turibdi xayoligayam keltirmagandi.

– Kela qol, jonio qizim, kelsang bilib olasan.

– Endi sira bunday qil-may-man.

– Savalab qolmasimdan kel deyapman, senga!

Ninka ko‘zlarini javdiratib, pishillab yoni bilan hammomga kirdi.

– Hojatxonaga kirgin, deb senga necha marta aytish kerak o‘zi? Nima, o‘sha yoqqa borsang, oyog‘ing uzilib tushadimi?

– Endi qil-may-man.

– Topib olgan gaping shu: «endi qil-may-man». Senga hadeb aytaverish ham jonioqma tegdi. Bundan buyog‘iga esingdan chiqmasligi uchun hozir seni yaxhilab savalayman. Senga yoqadimi-yo‘qmi, Ilya amaking bir ko‘rib qo‘ysin. Bilaman, ko‘pdan beri yelkang qi-chib yuribdi o‘zi. Kel, yaxhilab bir qashlab qo‘yay-chi.

Ninka battar hurpaydi.

– Xo‘sh, nega indamaysan?

– Unda bu yerda vino ichib o‘tirganining oyimga aytib bera-man, – dedi Ninka bidirlab va qochib ketmoqchi bo‘lib eshikni mo‘ljalladi.

– Men senga aytishni ko‘rsatib qo‘yaman! – dedi Mixail tutoqib. – Shunday ko‘rsatib ko‘yamanki, tuqqan onang ham taniyolmay qoladi! Hali sen o‘z otangga gap qaytarishni o‘rgandingmi? Onasi ga aytarmish-a! Voy yaramas-ey! – so‘ng Ilyaga qarab arz qildi. – Mushtday bo‘lib turib aytayotgan gapini qara!

– Bo‘lmasa urishmagin-da.

– Sen bilan hech kim urishayotgani yo‘q – jim tursang-chi. Bunaqni qaysarligi uchun esdan chiqmaydigan qilib adabini berib qo‘yish kerak ediku-ya.

– Mayli, bu qizaloqni qo‘yib yubor, – dedi Ilya Ninkaga rahmi kelib. – Endi u bunday qilmaydi.

– Endi qilmaysanmi?

– Qilmayman, – darhol va‘da berdi Ninka va boshini ko‘tardi. Ko‘zлari o‘ynoqlab, kirganida payqashga ulgurmagan narsalarni ilg‘ash uchun atrofga alang-jalang bo‘la boshladи.

– Juda shumtakasan-da. «Qilmayman» deb qutulib ketasan. Xo‘roz ham tong otmasayam qichqiraverarkan, sen ham xuddi o‘shaning o‘zi. Shunaqami? To‘xta, shoshilma. Men seni ku rosa savalardim-a, ammo Ilya amaking qo‘ymayapti-da. Sen buning uchun Ilya amaking bilan ikkovimizga gazakka biron nima olib kelingish kerak. Tushundingmi?

– Tushundim.

– Hech baloni tushunmading.

– Men oyimga aytaman, oyim beradi.

– Yana o‘sha gap: onamga aytaman deydi. Nimа, onangsiz o‘zing qilib kelolmaysanmi? Onangni qo‘y. Sira og‘iz ochma, sen shundoq olib kelginki, onang bilmasin ham, sezmasin ham. Endi tushundingmi?

– Tushundim.

– Stolni yoki qaznoqni qaragin-da, sekingina olib kelgin. Keyin men senga shisha beraman. – Mixail kechagi bo‘sh shishalardan birini chetga olib qo‘ydi.

– Ha-a, – dedi Ninka hushyor tortib, – oldiniga berasan-u keyin yana qaytib olasan.

– Qaytib olmayman, qaytib olmayman. Qani, yugur.

– Hu, unda olding-ku.

– Ha, o‘shanda oluvdim, endi esa olmayman. Chunki o‘zimdayam bor. Mana, Ilya amaking guvoh, olmayman.

- Ha, men guvohman, – dedi Ilya ko'kragiga urib.
- Ninka jim turaverdi.
- Xo'sh, tag'in nima deysan? Yugur tezroq.
- Menga ikkita kerak, – dedi Ninka ikkinchi bo'sh shishaga ham ko'z tashlab.
- Bo'pti, ikkita beraman, faqat tezlashtir, xudo xayringni bergur,
- dedi Mixail birinchi shisha yoniga ikkinchisini ham qo'yib.

Ninka ko'ylagi ichiga yashirib faqat bulka non olib keldi, chunki u stol atrofida aylanishib turganida onasi haydab yubordi. Bulka olish esa oson edi, non dahlizda turgandi, Nadya uni nonushtagacha shu yerga qo'yib qo'ygandi. Hech narsa yo'g'idan ko'ra non ham yaxshi, albatta, ammo ichkilikka faqat nonning o'zi har holda kamlik qilardi. Shu payt Mixail mo'rchada, boshi tepasida ikki yoki uchta tovuq tuxum qo'yib yurishini eslab qoldi. Ninka chiqib etagida moyak bilan beshta tuxum olib tushdi. Moyak chamasi ko'klamdan beri o'sha yerda turgan edi, ammo barini betiga qaramay yutishga o'rganib qolgan Mixail aroqdan keyin o'ylab o'tirmay moyakni ichib yubordi. Shundan so'ng ko'zлari qinidan chiqayozib, ko'ngli behuzur bo'la boshladi, endi tomog'ini chayish uchun gazak ustidan yana aroq ichishga to'g'ri keldi. U tupurib so'kindi va tuxumga ham qaramay, nondan ushatib yedi.

Tuxum uchun Ninkaga tovuq katagida dumalab yotgan uchinchi shishani berishdi, tuz keltirgani uchun unga to'rtinchi, hali bo'shamagan shishani berishga va'da qilishdi. Qiz shishani poylab mo'rchadan ketmadi. Uyga borishning hozir unga qizig'i yo'q edi, buning ustiga Nadyaning nonni qidirayotgani shu yerdan ham eshitilib turardi, non xuddi sigir yamlab yutganday yo'q edi. Ninka beg'ubor, ma'sum ko'zлari bilan erkaklarga qarab jimgina o'tirardi, u o'zini bu yerda butunlay xotirjam sezardi. Qilmishi uni erkaklariga mahkam bog'lab qo'ygan edi, shuning uchun Mixail endi tashvish tortmasa ham bo'lardi: Ninka uni oyisiga chaqib berolmasdi. Ko'p o'tmay navbatdag'i shishani ham bo'shatib berishdi, Ninka uni olib borib, o'sha yerga, sarjin orqasiga yashirib qo'ydi. Keyin g'ov yonida g'imirlab yurib, odatdagidek aylanib-aylanib uyga yaqinlashdi, qorni ochdi shekilli.

Aroqdan keyin aka-uka suhbati yana ham qizidi. Ular faqat bir martagina – Ilya bemavrid ichib o'tirganlari uchun kimning-

dir oldida o‘zini oqlamoqchi bo‘lganday: «Xo‘sh, nima qilish kerak edi? Endi onamizning oldida o‘tirishimizning hojati yo‘q. Ha. O‘zing eshitding, turib o‘tirgan ekan. Hademay qarabsanki chopqillab ham ketadi», deganida o‘zlarini sal o‘ng‘aysiz, gunohkordek sezishdi.

– Ha, shunaqayam qiladi, – dedi Mixail akasining gapiga boshini liqillatib.

– Tavba, uni qara-ya! Sira-sira o‘ylamovdim. Tayyor bo‘lib yotuvdi, axir, hech qanday umid qolmagandi, bir nima unga ta’sir qildi-yov. Voy, onam-ey! Ona!

– Onamiz ko‘zboylog‘ichning o‘zginasi.

– To‘g‘ri, ajalgayam firib berdi.

– Men senga bir gapni aytaymi, Ilya: shu ishi chakki bo‘ldi. Hozir o‘lgani yaxshiroq edi. Bizga ham, o‘ziga ham yaxshi bo‘lardi. Bu gapni faqat senga aptyapman – bir-birimizdan yashirib nima qilamiz? Baribir o‘ladi-ku, axir. Hozir ayni payti edi: hammamiz yig‘ildik, tayyorgarlik ko‘rib qo‘ydik. Hammamiz yig‘ilgandan keyin cho‘zib nima qilardi, bizni laqillatib. Men unga ishonibman, sizlar esa men-ga. Mana endi oqibati.

– Bu gaplarni qo‘y, – e’tiroz bildirdi Ilya. – Ajali yetganda o‘laversin. Bu unga bog‘liq emas.

– Men hozir ayni payti edi, demoqchiydim-da. O‘lsang ham o‘l, o‘lmasang ham o‘l, qorangi o‘chir bu yerdan, ko‘rinma deb talab qilolmaysan, bu aniq. Bu shunday ishki... Mana, masalan sizlar ketasizlar, keyin uch-to‘rt kun yotadi-yu baribir bandalikni bajo keltiradi. Shu gapim esingda bo‘lsin. Bekorga u shunday kasal bo‘lmadi. Keyin men yana sizlarga telegramma yuborishim kerak, sizlarning kayfiyatlarining ham avvalgidek bo‘lmaydi. Kim keladi, kim kelmaydi... Hamma ish beshbattar rasvo bo‘ladi. O‘limi oldidan diydoriga ham to‘yolmay qolasan.

– Nega kelmas ekan?

– Har narsa bo‘lishi mumkin. Mana, Tatyana, haligacha daragi yo‘q.

– Tatyani – to‘g‘ri. Bilgan bo‘lsa kerakki, shoshilmayotgan-dir-da.

– Gap shunda-da, bilmaydi, shuning uchun shoshilmayapti. Agar bugun ham kelmasa, onam jinni bo‘lib qoladi. Onam Tanchoram deb

shundoq ham jonioimizdan bezor qilyapti: goh tush ko'radi, goh yana bir balolar. Sen bu yerda yashamaysan, bilmaysan-da.

– Keladi. Shunday telegramma olsa-yu kelmasa, bilmadim buni nima deb atash mumkin.

– Ha, agar kelsa, ichamiz, izzat-hurmatini joyiga qo'yib kutib olish kerak. Singlimiz axir.

– Ichamiz – ha, iloj qancha?

– Kelmasa ham, baribir ichamiz, – deb yo'lini topdi Mixail. – Baribir ichamiz, Ilya. Sen bilan bizga qiyin.

– Endi nimayam qillardik? – dedi xayol surib quvonarkan, uning gapini ma'qullab Ilya. – Endi uni to'kib tashlamaysan-ku.

– Uni to'kib tashlashga kim yo'l qo'yib berarkan? Bu davlat ishi. Bu shunday muhim ish.

– Endi istasang ham, istamasang ham ichish kerak.

– Gaplaring juda qiziq-da, istamasang ham emish. Masalani bu tarzda qo'yish ham mumkin emas. Ichamiz – nega istamas ekansan? Kerak bo'lgandan keyin ichamiz-da, – deb turib oldi Mixail. – Zimmamizga shunaqa majburiyat ololamizmi? Axir biz sen bilan har kuni ko'rishmayapmiz-ku.

– Ololamiz. Nega ololmas ekanmiz?

– Ha, bu boshqa gap.

Shundan keyin gap yana har ikkisiga yaqin, yoqimli, qiziqarli mavzuga ko'chgach, ularni battar jo'shtirib yubordi. Yana ichgilarri kelib qoldi, boz ustiga aroq shundoqqina yaqinlarida edi, nafa-qat ichish, buncha aroqqa cho'milsa ham bo'lardi, buning ustiga puli oldindan to'lab qo'yilgan bo'lsa. Mixail poyabzalini kiyish bahonasida qaznoqqa yana borib kelmoqchi bo'ldi. U shipillab jo'nab qoldi, bu vaqt ichida Ilya ertalabdan beri turmay cho'zilib yetgan o'rmini dumaloqlab o'rab qo'ydi, tashqariga chiqib yozilib keldi.

Bu safar ham etik kiyishga Mixailning qo'li tegmay qoldi. U avval qaznoqqa kirdi. Kirdi-yu ko'zları tinib ketdi: yashikning deyarli yarmi hayosizlik bilan talon-toroj qilingandi. Shunday bo'lgach, xayoliga etik kelarmidi? Mixail yengillashib qolgan yashikni ko'tarib g'izillab orqasiga qaytdi: saqlab qolish mumkin bo'lgan narsani saqlab qolish kerak edi, yo'qsa bir daqiqadan keyin shu ham qolmasligi mumkin.

U mo'rchada rosa so'kinib ichini bo'shatdi. Shishalarni uyda-gilar yashirib qo'yishgani kunday ravshan edi, endi ularni qaytarib olish oson emasdi. Hozir berasan, vassalom, deb tomog'iga pichoq tirab turadigan payt emasdi. Aroqni kecha boshqa sabab bilan va pul tashlashib olishgandi. Aroqqa ko'proq erkaklarning mehnati singgan, shu bois hushyor bo'lgan paytda haqini pesh qilsa bo'ladi, faqat mast holatda emas, kayfi taroq odam bunday huquqdan mosuvu bo'lishi aniq. Shuning uchun endi go'yo hech nima bo'limganday, hammasi joyida turganday qilib ko'rsatishga, faqat ko'z-qulqo bo'lib, kulay fursat kelishini kutishga to'g'ri keladi.

Ular endi navbatdagi shishani ochishgan ham ediki, yig'lab ko'zlar qizargan Ninka ostonada paydo bo'ldi:

– Oyim yomon.

– Oyingni ossa ham kam, – dedi unga javoban hali ham jahlidan tushmagan Mixail.

– Rostdanam, kel, dada, uni osib bir tomosha qilaylik.

– Meni-ku tukim ham g'am yemaydi-ya, ammo onangni hurmatini juda oshirib yuboradi-da.

– Onang senga nima qildi? – deb so'radi Ilya Ninkadan.

– E-e, nonni sen o'g'irlagansan, deydi. O'zi hech nimani ko'rgani yo'g'-u, ko'rdim deydi.

– Onang jo'rttaga senga shunday degan. Bo'yningga olma, – deb uni ogohlantirib qo'ydi Mixail.

– Men ham shunday qildim. Ishonmasang dadamdan yoki Ilya amakimdan so'ragin, dedim.

– Bu gaping chakki bo'libdi, bizni aytmasliging kerak edi. Bizni hozir ular uchun bir tiyinlik ham obro'imiz yo'q, tushunyapsanmi? Bekor aytibsan. Shunga aqling yetmabdi-da.

– Onam yomon, – boyagi gapini takrorladi Ninka to'msayib.

– Nima ham derdim. Undan ginam senikidan kam emas.

– Ular sizlarni, xudo berdi bu erkaklarga deyishdi. Innaykeyin-chi, endi hali-veri bas qilishmasa kerak, deyishdi, – bidirladi Ninka. – Seni-chi, dada, aroqxo'r, boshqa narsaga yaramaydi, deyishdi, hammasiga sen aybdor emishsan.

– Qizchaning oldida sayrashganini-chi, – dedi Mixail zaharxandalik bilan boshini chayqab. – Nima mumkin-u nima mumkin emas, sira tushunishmaydi. Sen ularga qulqo solma, – dedi u Ninkaga. –

Ular vaysayverishadi-da. Xo'sh, o'zing kimga ishonasan: bizgami, ularga?

– Sizlarga.

– Ha, gap bundoq bo'pti. Bizni etagimizdan ushlayver, armonda qolmaysan. Ularning esa, gaplariga qulq solma.

Erkaklar yana shishaga yopishishdi. Otasining gapidan ruhlangan Ninka o'zini endi dadil va erkin tuta boshladı: u otasining aroqli stakanini olib hidlab ko'rdi-yu afti burishib ketdi, keyin ularni aroqdan stakanlarga ko'proq quyishga qistab, ular shishani bo'shatishlarini ziyraklik bilan kuzatib turdi. Mixail odatdagidek uni quvib solmadi va haydab yubormay to'g'ri qilganini bildi.

Kutilmaganda Ninka so'rab qoldi:

– Dada, to'kib tashlanmagan shishalarni do'konda oladimiyo'qmi? – u savolini uch yoki to'rt qaytardi, Mixail Ilya bilan gapashayotgani uchun Ninkaning bu gapiga qulq solmagandi.

– Qaysi shishalar haqida gapiryapsan? – dedi u nihoyat qizining savolini anglagach hushyor tortib.

– Hu, anavi to'kilmaganlari-da. Men ularni ag'daruvdim, baribir to'kilmayapti.

– Qiziq, ularning nimasini to'kmoqchiyding? – dedi Mixail yana-da hushyorlanib.

– Vinoni.

– Qanaqa vino?!

– Bo'lmasa menga nonni sen o'g'irlagansan demasin, ko'r-magandan keyin gapirmsasin.

– Sen qanaqa vinoni to'kdining? – Mixail Ninkaning ustiga engashib, qo'rqtitib yubormaslik uchun bilagidan ohista ushladi.

– Qanaqa, qanaqa?! Shunaqa shishalar-da. Ammo ular sira ochilmaydi.

– Ularni sen qayoqdan olding? – deb so'radi Mixail va Ilya bilan ko'z urishtirib oldi.

Ninka yashirib o'tirmoqchi ham emasdi, bugun uning otasiga ixlosi juda baland edi.

– O'zing berding-ku, axir, – dedi u. – Onamdan esa o'zim oluvdim, yashiriqcha. Ikkinchı mendan ko'rmaydigan bo'ladi. Ko'rmagan bo'lsang, gapirmagin-da.

– Shunday de. Xo'sh, o'zing undan olgan o'sha shishalar hozir qayerda?

– Unda.

– Qayerda?!

– Unning ichida. Ularni qaznoqqa yashirib qo'yishuvdi. Onam yashirgan. Meni topolmaydi, deb o'ylagan-da, men esa baribir to-pib oldim. U yerda qafas bor, ular shu qafasda turuvdi. U yerda yana bor.

– Tushunarli, – dedi Mixail tomoq qirib. – Endi bari tushunarli. To'kilmayapti deysanmi? To'kib yuborganingda ham bormi, – deb ingradi u. – Sen ularni qayerga to'kmoqchiyding? Polgami? – shunday dedi-yu og'riqdan ko'zлari yumilib ketdi, u aroqning biron-bir atala singari chayqaltirib sepib yuborilishini, taxtalarga singib ketishini ko'zi oldiga keltirdi.

– Yo'q, men uni unning ichiga quymoqchi edim. Onam polning ho'l bo'lganini ko'rib kolmasin dedim-da.

Bekinmachok o'ynashga Mixailning ortiq toqati qolmagan edi. U titrab turgan barmog'i bilan Ninkaga po'pisa qilib, dedi:

– Bu shishalar haqida biron ta ham tirik jon bilmisin. Tushundingmi?

– Tushundim.

– Hech kim bilmisin, – dedi Mixail tutilib qolib. – Tushundingmi?

– Tushundim.

– Ha, esingda bo'lsin. Agar aytang yomon bo'fladi.

– Ular ichidagisi to'kilmagan shishalarni baribir qabul qilishmaydi, – dedi Ilya Mixailni g'azabini bosishga urinib.

– Ular to'kib tashlaganini ham qabul qilishmaydi. Ular faqat ichib bo'shatilganini olishadi. Tushundingmi?

– Tushundim.

– Qanday qilib barini bunchalik tez anglayapsan, a? Odamni havasi keladi-ya, juda hushyor qizsan-da. Endi esa bora qol. Jo'na-jon'a, – u Ninkani chiqarib yubordi. – Borib o'yna. Erkaklarni oldida nima qilasan. Lekin aytgan gaplarim qulog'ingda bo'lsin. Yoding-da tut: hech kim bilmisin! Voy shishafurush-ey! Qo'g'irchog'ingni o'ynayver, shisha bilan ishing bo'lmasin.

U Ninkaning ketidan eshikni yopdi-da, nafasini rostladi.

– Axir u kasofat, chindan ham eltib topshirishi mumkin-da. Bola farqiga borarmidi. To‘kilmagan emish-a! U yerda o‘sha o‘n ikki tiyinga bajonidil joningni ham sotib olishadi. Hali ochilmagan to‘la butilkani o‘n ikki tiyindan olaverishadi. Ularga nima, olib borsang bas. Voy kasofat-ey, kasofat-ey. Qidirib topishganini-chi. Kallasini sapchaday uzib tashlasang-da.

Bu orada Ninka u yoq-bu yoqqa alanglab hovli o‘rtasiga bordida, o‘sha yerdan, quvsayetolmaydigan masofadan turib, mo‘rcha to-monga qarab do‘q qilib qo‘ydi:

– Dadam yomon.

U shunday dedi-yu, onasining oldiga-ketdi.

## 6

Lyusya ertalab kampirning yonida bo‘ldi va u yoq-bu yoqdan gaplashgach, o‘rmonga borish harakatiga tushdi. Ninka turgandan keyin kampir o‘rniga cho‘zildi va uyquga ketdi, ammo u tiq etgan har bir tovushdan darrov ko‘zini ochardi. Bugun kampirning ahvoli ancha yaxshi ekanligi ko‘rinib turardi, shuning uchun undan xavotir olmay u yoq-bu yoqqa borsa bo‘lardi.

Lyusya qir-adirga unchalik ishtiyoqmand emasdi, ammo vaqtini bir amallab o‘tkazish kerak-ku. Axir kun bo‘yi uyda qo‘l qovushtirib o‘tirib bo‘lmasa. Lyusya avvaliga Nadyani birga borishga ko‘ndirdi-yu, ammo keyin uni yana o‘zi aynitdi. Chunki birinchidan, Nadya bilan suhbati qovushmaydi, uning bekorchi gaplari ko‘p, Lyusa esa safsatani jinidan battar yomon ko‘radi, qolaversa, onasini Varvaraning o‘ziga tashlab ketish xavfli – opasi biram landovurki, qo‘lidan hech ish kelmaydi. Erkaklarga-ku sira ishonib bo‘lmaydi, hozir ularning o‘zidan xabardor bo‘lib turish kerak, tag‘in bir baloni boshlab yurishmasin. Mastlarga kampirning toqati yo‘q edi, tag‘in shular tu-fayli battar bo‘lib qolmasin.

Lyusya uzoq tayyorlandi. Shunday kiyinish kerakki, ham o‘rmonda yurish qulay bo‘lsin, ham yaxshi ko‘rinsin, ro‘dapo xotinlarga o‘xshab qolmasin. Bu, albatta, odamlar uchun emas – u o‘rmonda hech kimni uchratmasligi ham mumkin – o‘zi uchun edi, u shinam kiyinishga odatlanib qolgandi. Kishining kayfiyati ham, hatto ishi ham kiyim-boshga bog‘liq. Lyusya omadsizlikning ko‘zi borligiga ishonardi, chunki birovga ro‘para bo‘lishdan oldin bu ko‘zlar

o'sha odam o'zini qanday tutishini, uning nimaga arzish-arzimasligini, hatto sirtdan qandayligini ko'radi. O'ziga puxta, bardam odamga jin ham urmaydi.

Lyusyabop to'qrang kofta Nadyadan topildi. U yana nima kiyishini o'ylab, boshi qotib qoldi. Nadya unga o'zining cholvari bilan etigini ham keltirib berdi, ammo Lyusya ularni bir chetga surib qo'ydi, bular unga munosib emas. Qani endi hozir shimi bilan shahar tash-qarisida kiyish uchun atay sotib olgan turistlarning botinkasi bo'lsa, rosa ish berardi-da, bu yerda qo'ziqorin terishga borishi mumkinligi kimning xayoliga kelibdi deysiz. U qishloqqa boshqa tashvish bilan kelgan edi. Dididagi kiyimi bo'lmasani uchun o'rmon sayohatidan voz kechmoqchi bo'lib turgandi, ammo shu payt ko'chadan kelayotgan Varvaraning shang'llagan ovozini eshitib qoldi. So'ng Varvara kun bo'yi yonida ivirsib yurishini, bo'lar-bo'lmas gaplarni vaysayverib, hiqillayverib jonini halqumiga keltirishini tasavvur qildi-da, Nadyadan iltimos qilib uning oyog'idagi kedini yechdirib oldi. Kedi bo'lsa ham mayli, ishqilib bu yerdan tezroq chiqib ketsa bo'lgani. U ayni paytda uyda qolishni sira istamasdi, birovni ko'rishni ham, birov bilan gaplashishni, birovga achinish, dalda berishni ham xohlamayotgandi. Jigarlari, tug'ishganlari, necha yil deganda diyordi ko'rishib, endi ularning yonida bo'lish, boshqalarga qaraganda ularga boshqacha muomala qilishi kerak bo'lgan Lyusya negadir ular bilan o'zining qoni bir ekanini aslo his qilmas edi, u faqat og'izdagina o'zini qarindosh bilar va shu boisdan ba'zan o'zini o'zi yomon ko'rib ketardi. Ular bilan sidqidildan muomala qila olmasligi ham, bu uchrashuvdan quvonib, ochilib-sochilib ularga qo'shilib keta olmasligi ham shundan edi. U qarindosh-urug'larini, hatto onasini ko'rganda ham g'ashi kelardi – axir, onasini deb bekorga ovora bo'lib keldi-ku, ha, ha, behuda keldi. U bu yerda yana qancha turadi, hech kim bilmaydi, bir kunmi, ikki kunmi, uch kunmi? Ehtimol, ko'proqdir?

Lyusya qishloqdagilar bilan uchrashib qolmaslik uchun ko'chani chetlab polizdan o'tgan so'qmoqdan qishloq bilan yonma-yon bo'lgan birinchi tepalikka ko'tarildi, u avvalboshdanoq shoshilmasslikka jazm etdi, uning uchun muhim o'rmonda aylanib, toza havodon nafas olish edi, shuni deb u dam olish kunlari ham shahardan bir necha kilometr olisdagi joylarga chiqib ketardi. Bu yerda esa o'rmon shundoq yonida. Beg'am-betashvish, shundoq tug'ilgan qu-

lay fursatdan foydalanmaslik ko'rnamaklik bo'lardi: mashina xususida birov bilan kelishib o'tirmaysan, o'zing bilan yeguliklar ham olmaysan, urinib yurmaysan – turasan-u ketaverasan. Qo'ziqorinlar-chi, qo'ziqorinlar ham gap bo'libdimi, ular bir ermak-da. O'rmonda bekorga sanqib yurish, shunchaki sayr qilish qishloqchilikka to'g'ri kelmaganidan keyin nima qilsin. Yo'lidan chiqsa, terib oladi, chiqmasa sadqai sar.

Lyusya qirga chiqib, dam olgani to'xtadi. Nazarida u bu yerdan ketganidan beri bu tepalik kichrayib, pasayib qolganday edi. Lyusya rostdan ham menga shunday tuyulayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi, chunki u shu yerda tug'ilib-o'sdi, balog'atga yetdi, endi uning ulug'vorlik to'g'risidagi tasavvurlari ham o'zgardi: ilgari ko'ziga katta, ahamiyatli bo'lib ko'ringan narsalar endi o'z asl hajmiga ega edi. Yo'q, qir chindan ham ancha cho'kibdi. Lyusya bir vaqtleri bolalar bilan to qishloq darvozasigacha osongina sirpanib tushganlarini yodga oldi. U orqasiga qayrilib, darvozaning qiyshayib qolgan ikki ustuniga qaradi, keyin chandalab ko'rdi: endi sirpanib tusholmaysan, yo'q. Darvozaga nima bo'lganiykin-a, nega darvoza yo'q? Ha-ya, ekin ekishmaydi, yer haydashmaydi, demak, moldan bekitishning hojati ham yo'q, to'rt tomon qibla. Yuqori va Quyi daryoning narigi yog'idagi darvozalar ham buzib tashlangan, qo'ra ham buzib tashlanibdi.

Shundan keyin Lyusya nima uchun tepalik kichrayib qolganini tushundi: uni surishibdi. U juda baland, katta emasdi-yu, ammo tik, mashinalar uchun xatarli edi, qatnovda xavf tug'dirardi. Shuning uchun bu yerda buldozerni ishga solishgan bo'lsa kerak. Mana, chap tomonda ko'milib ketgan zovur ko'zga tashlanadi. Bir paytlar ikki odam bo'yи keladigan zovur o'shanda xuddi jarga o'xshardi, baho paytlari bo'tana suv shovullab oqardi, shu oqqancha polizlarga yoyilib ketardi. O'pirilayotgan zovur yonlari shunaqa gumburlardiki, olislardan aks-sado berardi. Onalar bolalariga uydan javob berishar ekan, eng avvalo zovurga yaqin yo'lamaslikni, shundan keyingina bir-biring bilan yoqalashib it-mushuk bo'lma, deb tayinlashardi. Chindan ham zovurning bolalar uchun tashvishli, noma'lum, ko'zga ko'rinas xatarli sir-asrori bor edi. Qishloq atrofida taqiqlangan joylar ko'p, ammo bolalar enigayam, bo'yigayam timirskilanib chiqmagan yerlar kam edi, lekin ular zovur bilan, garchi unga tushib-chi-

qish uncha qiyin bo‘lmasa ham, hazillashmaslikka harakat qilishardi, kimdir, qachonlardir zovurning o‘zani umuman o‘zan emas, aldamchi bir narsa, uning osti naq jahannamga eltadigan bo‘shliq deb gap tarqatgan edi, ular shu mish-mishni eslashardi. Balki ishonishmaganadir, ammo eslarida turardi.

Mana, endi zovurni ham, shu zovur bilan bog‘liq bo‘lgan vahimali mish-mishlarni ham ko‘mib, tekislab tashlashibdi. Yana bir sirli joy kamayibdi, ilgari bu yerni odamlar qo‘rqqanlaridan hurmat qilishardi – bu yorug‘ olamda bunday joylar borgan sari kam qolyapti.

Ariqning narigi yog‘ida, sal chaproqda, qichitqi o‘t qorayib turgan yerda kolxoz bo‘lgan yillarda silos o‘rasi bor edi, daryo quturgan bahor paytlari kechqurunlari og‘zi ochiq o‘radan tarqalayotgan g‘ashga teguvchi ko‘yindi hidi qishloqni tutib ketardi.

Odatda silosni hashar qilib bosishardi. Ish gavjum, qizg‘in bo‘lardi: qichitqi va boshqa o‘tlarni o‘rib kelib, o‘raga tashlashardi. Keyin biron ta o‘smirni ot bilan o‘raga tushirishardi, yigitcha ot bilan o‘tlarni bosib, tepkilab borgan sari yuqoriga ko‘tarilaverardi, o‘ra atrofida esa yosh bolalar chuvillashib, ishga xalaqit berib, o‘ralashib yurishardi. Bolalarni haydab yuborishardi, ular bir zumga ketishardiyu yana qanday qilib o‘ra labiga kelib qolishganini bilib bo‘lmasdi. Shu kuni ozmuncha o‘yin-kulgi bo‘lmasdi-yu, ozmuncha ko‘z yoshi to‘kilmasmidi! Qizishib ketgan erkaklar bolalarga musht tushirib qolishardi, bolalar qo‘llariga qichitqi o‘t olib bir-birlarini quvlab o‘ynashardi, angrayib qolganlarni qichitqi qalin bo‘lib o‘sgan joylarga itarib yuborgandan so‘ng badanda qavariq paydö bo‘lardi. Lyusya esladi: qavariqqa tuproq sepib, ustidan tupurib, ishqashardi, shunda badanda oqish dog‘ paydo bo‘lib, achishtira boshlardi. U yana bir voqeani eslarkan o‘zi ham sezmagan holda jilmaydi: tengqurlaridan Kolka Komarovning tupugi zo‘r dori hisoblanardi. Kolka hatto tupuk haqi olardi, shuning uchun qishloqning yarim bolasi undan qazrdor bo‘lib yurardi. Aslida, Kolkaga murojaat qilishlarining sababi o‘z tupugidan ko‘ra uning tupugi chindan ham yordam bergani uchun emas, balki har qanday tabobat sirlari kabi begona qo‘lga bo‘lgan ixlos va ishonchdan bo‘lsa kerak, boz ustiga Kolkadan boshqa hech kim bu ishga sira jur‘at etolmasdi.

«Qiziq, Kolka Komarov hozir qayerlarda, nimalar qilib yurgan ekan-a?» deb o‘yladi Lyusya va uyga qaytsam, so‘rab-surishtiraman

deb diligiga tugib qo'ydi. Bir vaqtular Kolka uning ko'nglini ovlab yurardi, kim biladi, agar u bu yerdan ketmaganida, qishloqda qolganida balki taqdiri Kolka bilan bog'lanarmidi.

Shu zahoti uning yodiga boshqa bir narsa ham tushdi. U bu xotiraga aloqador bo'lgan joyga yaqinroq borish uchun oldinga qarab yurdi. Ilgari yo'ning o'ng tarafidagi adirda choqqina, bir gektardan kamroq yer bor edi, lekin Lyusya aqlini tanibdiki, bu yer haydalmasdi – ovoragarchiligi ko'p-u foydasi kam edi, shuning uchun kuzgi poxollarni keltirib shu yerga bosishardi. Bolalar qishgacha bu poxollarning tit-pitini chiqarib yuborishardi. Ular kun bo'yи shu yerda o'ynab, poxol ichidan yo'l ochishardi, maxfiy joylar, uychalar qili-shardi, qorong'i tushgandan keyin kattaroq bolalar tayyor uychalar-ga o'z sevganlarini olib kelishardi. Ammo qorong'ilik ham uncha yordam bermasdi, chunki poxollar ustida yuksalib turgan qayinlar-ga chiqib olgan bolalar kim kimni boshlab kelganini bilish uchun to xo'rozlar qichqirguncha poylab o'tirishardi. Bu ham yetmaganday bolalardan eng dovyuraklari yigit bilan qiz o'tirgan joyga yuqorida sakrashardi – hazilning sovuqligi-chi! Ammo buning uchun otning kallasiday yurag-u chaqqon oyoq kerak edi, agar bezovta qilingan yigit tutib olsa, ta'zirini berib qo'yardi.

Bu xotiralar Lyusyani hayajonlantirmadi, balki qiziqishini ort-tirdi: ular bir zamonalr o'z boshidan kechmagan, ko'z o'ngida ro'y bermagan-u, go'yo birovning boshidan o'tganday tuyulardi. Lyusya bu xotiralarni atayin eslagani yo'q, ular o'zлari so'ramasdan, ko'zлari tanish narsalarga tushganidan so'ng xayoliga yog'ilib kela boshladni.

Cho'zilib ketgan ikkinchi tepalik oldida mashina yo'li chapga burilib, aylanib o'tardi – uni surish oson emasdi. Lyusya eski, ikki chetida baland o't o'sib, so'qmoqqa aylangan yo'ldan to'g'ri ketdi. Lyusya o't-o'lanlarning boshqolariga qo'lini tekkizarkan, o'tlarning urug'lari kaftini qichishtirib, ohista shildirab yerga tushardi. Tepalikda o'rmon siyraklashib, ekin yerlarigacha borib taqalgandi, endi har qadamda to'nka-to'nkachalar uchrardi, yo'l yoqasida bemavrid tayyorlab qo'yilgan xodalar qorayib, darz ketib yotardi, shilib olin-gan tanalarni qoplab olgan o'tlar gurkirab o'sib bir-biriga chirmashhib ketgandi, ular orasidan xuddi skeletga o'xshab qurib qolgan shox-lar qaqqayib turardi – ilgari qishloqqa yaqin joylarda ularni o'tinga yig'ishtirib olishardi, hozir esa bular hech kimga kerak emas. Lyusya

kecha yuklab ketilganidan qolgan yog‘och-taxtalar daryo qirg‘og‘ida uyulib turganini, har bir uy oldida g‘o‘lalar yotganini ko‘ruvdi. Ha, endi ularni benzin bilan ishlaydigan arralarda ana-mana deguncha arralab tashlashadi, ilgarigidek emas, ilgari hashar qilib arralashardi. Hashar – hashar-da: bir oilaning kuchi yetmasa, ko‘pchilik bo‘lishardi, bolalarni ham olib borishardi, ularga o‘zlariga yarasha ish topib berishardi, Lyusya sarjin taxlashni yaxshi ko‘rishi esladi, u sariq qarag‘ay tarashalarini ko‘zni quvontiradigan qilib chiroyl taxlardi-da, huzur qilardi, qarag‘aylarning uchi tomonida po‘stlog‘i yupqa, mayin bo‘lardi. O‘tin tayyorlash mavsumi yilda bir marta – bahorda bo‘lardi, keyin yozi bilan bu tarashalar obdan qurirdi, endi bo‘lsa istagan vaqtingda har yerda pala-partish sochilib yotgan yog‘ochlardan tanlab, arralab olaver.

«Yo‘q, o‘sha hasharlarning har qalay fayzi bor edi, – ma’yuslanib xayolidan o‘tkazdi Lyusya. – Odamlar ham bajonu dil borishardi. Agar bitta-yarimtani aytishmasa, o‘sha odam xo‘jayinlar bizni ajratib qo‘yibdi-da, yoqtirishmaskan-da, ishonishmaskan-da, deb o‘ylardi».

Ishga hamma birdan yopishardi, jon-jahdi bilan ishlardi, arralarning zuv-zuvi, boltalarning gup-gupi, ag‘darilgan daraxtlarning qasir-qusurı hammayoqni tutib ketardi, odamlarning yuraklari hapriqib, bir-birlariga hazillashishardi, tegajoqlik qilishardi, ichlari tatalab, ovqat olib kelish uchun oldinroq uyga jo‘natilgan bekaning yo‘liga ko‘zları to‘rt bo‘lishardi. Qishdan keyin o‘rmonda qilinadigan dastlabki ish edi bu, buning ustiga mehnati ham og‘ir emasdi, shu bois bu ishni hamma sevardi. Quyosh ham, o‘rmon ham, jon kirib qolgan yerdan taralayotgan kishini mast etuvchi hidlar ham – hammasi yosh-u qarini bir xilda qo‘zg‘ab qo‘yardi, bu hayajon anchagacha, to ular sulayib qolmaguncha vujudlarini tark etmas edi. yerlar yangilanshi bilan tuyg‘ular ham o‘zgarganday bo‘lardi, ular qandaydir g‘alati yo‘llar bilan olis, kishi ancha tetik bo‘lgan, ko‘proq eshitib, ko‘proq ko‘rib, hamma narsaning farqiga yetib yurgan paytlaridagi tuyg‘ulari bilan birlashib ketardi. Qadimiylar tuyg‘ular tushunib bo‘lmaydigan bir qunt bilan yaxshilab qarashga, hidlab ko‘rishga, oyoq ostidan ham, havodan ham unutilgan, yo‘qotilgan, ammo butkul yo‘q bo‘lib ketmagan bir nimani qidirib topishga majbur etardi.

Suv o‘rniga qayin sharbatini ichishardi, vujudi ham uni xudi doriday avaylab, diqqat bilan, ko‘p o‘tmay shifobaxshligini

ko'rsatishiga ishonib singdirardi. Sharbatni bolalar yig'ib kelishardi, dastlabki saranalar<sup>1</sup>ni ham shu bolalar kavlab kelishardi, ularning sariq piyozi og'izda xuddi asaldek erib ketardi, odamlar yuzlarini bujmaytirib, chanqoqlarini bosish uchun emas, balki bir-birlaridan qolishmaslik uchun oq qarag'ay yaprog'ini shimar edilar. Pasxa bo'yalgan tuxumsiz o'tmaganiday bu kun ham tilog'och yelimisiz o'tmasdi, uni hatto erkaklar ham chaynashardi, keyin esa milklarini abgor qilgach, bo'ralatib so'kinardi-da, chekishga tushishardi.

Adir tikkaligi tugagan joydan dalalar boshlanib ketgandi. Lyusya ochiq yerga chiqdi-da, hayron bo'lib atrofga alangladi: nima balo, adashib qoldimi? Qishloqdan uch qadam narida qanaqasiga adashib qolish mumkin? Yo'q, albatta: ana Kasalovka – chap tomondagi dallalar, naq Quyi daryoga borib taqaladi. Kasalovka deganlari shu-da. Hu ro'parada Yaqin yalanglik, xirmonning bir tarafida qolgan g'ov ko'rinish turibdi, u yog'ida esa Minora, o'ng tomonda esa yo'l Uzoq yalanglikka olib boradi. Bu nomlar Lyusyaning esiga shunday oson keldiki, go'yo bu nomlarni har kun aytib yurganday edi, holbuki bundan oldinroq qishloq ro'parasidagi orol nomini eslay olmagandi, shuning uchun Lyusya o'ziga hayron qoldi: nega bunday bo'ldiykin? Unga qandaydir ovoz – o'tlarmi yoki shamolmi bu yerdagi so'zlarni aytib pichirlardi-yu, quloqlari buni ilg'ab olib, tili takrorlaganday tuyuldi.

Lyusya bilib-bilmay yo'ldan sekin oldinga qarab borardi. Agar yuqoridan turib qarasa, mana, Kasalovka, anavinisi Yaqin yalanglik, undan u yog'ida Minora. Pastda esa hammasi bir xil, qandaydir notanish, keng xarobazorga o'xshardi, bunga odamning ko'zlarini ishonmasdi. Tepalikka olib chiquvchi tor yo'l – so'qmoq bu yerga kelib yana mashina yo'liga qo'shilib kengayib ketgandi. Dalalarni o't bosib ketgandi, etaklarda esa bir-biriga tiqilib tog'teraklar o'sib yetardi, ulardan beriroqda, o'rtaroqda qarag'ay butalari alohida edi, unda-bunda qamishlar ko'zga tashlanardi. Dala bilan egatlarni ajratib bo'lmasdi, bir-biriga qo'shilib ketgandi, shunday paytlarda anqib turadigan bug'doy hididan allaqachon asar ham qolmagandi; hozir o'rmondagi qovjirab qolgan o'tlarning aralash hidi-yu, tashlandiq yerlarning chuchmal, quruq isi kelardi.

<sup>1</sup> Sarana – Sibirda o'sadigan qizil nilufar.

Lyusya o‘zini to‘xtatolmay chapga burildi va daladan yurib ketdi. yerlar hali qo‘riqqa aylanmagandi, serkesak, kulrang edi. Bug‘doy yetishtirishga odatlanib qolgan yer qandaydir bir mo‘jizaga ishonib, kuchi boricha go‘yo o‘zini ekin-tikin uchun asrab kelardi, ammo chumolilar yosh navnihol qarag‘ayzorning barglarini payqabmi uning atrofida uymalashardi – demak, ular bu yerda hech kim bezovta qilmasligiga ishongan.

Kolxozning ketganiga necha yil bo‘ldiykin? yetti yilmi, sakkiz yilmi, to‘qqiz yilmi? Lyusya aniq bilmasdi, har qalay shunga yaqin edi. Kolxozni ketmadi, desa ham bo‘ladi, shu yerda yo‘q bo‘lib ketdi xolos, faqat mashinalarni-yu (mashinalar ko‘p ham emasdi) yana ba’zi bir jihozzlarni olib ketishdi. Dalalarni olib ketolmaysan, mana o‘sha dalalar, odamlar ham qolishdi, o‘rganib qolgan, qarindosh-urug‘laring ko‘milgan joyni tashlab, noma’lum yerbosqalariga ketish jo‘ngina, oson emas. Ko‘chib ketganlar uch oila edi, ulardan biri keyin yana qaytib keldi.

Kolxozi «Chapayev xotirasi» deb nomlanardi. Lyusya o‘ylamasada ham endilikda hech kimga kerak bo‘limgan bu nom qayoqdandir lip etib esiga osongina kela qolganiga yana hayron bo‘ldi, bu nom yodiga tushdi-yu, mungli bir sasdek dalalarga taralib ketdi. Agar bu yerbosqalariga ketmasa, o‘tmish xotiralari bilan bog‘liq bo‘lgan yerbosqalarini ko‘rmasa, Lyusya bularni sira-sira eslolmagan bo‘lardi. Darvoqe, keyin, Lyusya ketganidan keyin kolxoz nomini bir necha marta o‘zgartirishdi, ammo u boshqa nomini bilmasdi.

Arang kun ko‘rib kelayotgan «Chapayev xotirasi» kolxozining omadi ikki tomonlama yurishmadi. Birinchidan, shundoq yonida, qishloqning o‘zginasida boy, serpul lespromxoz bor edi, lespromxoz pulni xuddi ertaklardagidek har o‘n besh kunda kanda qilmay to‘lab turardi, yoshlar turli yolg‘on-yashiq bahona bilan kolxozdan qochib qolardi. Buning uchun joyidan qo‘zg‘alish ham, o‘z hayotini o‘zgartirish ham shart emasdi, hammasi shu yerda edi. Lespromxozda kam deganda uch hissa pul ishlashini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgan yaxshi mexanizatorni kolxoz tutib tura olarmidi. To‘g‘ri, do‘q-po‘pisa, qonun bilan tutib turishi mumkin edi-yu, ammo oxiri baxayr bo‘limasdi.

Kolxoz bir muammoning oldini olishga urinib yotganida boshqasi chiqib qoldi – kolxozlarni birlashtirish boshlandi, shundan keyin

«Chapayev xotirasi»ni o‘ziga o‘xshagan nochor bir kolxoza tirkashdi, o‘sha kolxoza deyarli ellik kilometr taygadan o‘tib borish kerak edi. Endi nafaqat yoshlar, balki deyarli butun qishloq yopirilib lespromxozga kirdi. Ish shu darajaga borib yetdiki, mol-holga qaraydigan odam qolmadi, narigi kolxozi mollarni, qo‘ylarni haydab olib ketdi, dalalarga ham, garchi o‘zlarida ishchi kuchi yetishmay turgan bo‘lsa-da, odamlarini yordamga yuborib, ikki yilgacha qarab yurdi. Kolxozi azob torta-torta nihoyat qolgan-qutgan narsalarini yig‘ishtirib ketdi-qoldi. Dalalar esa mung‘ayib qolaverdi. Mana ular, o‘sha davrlardan qolgan yerlar.

Lyusya atrofga yana bir bor alangladi, keyin uni shu yerda nogahon tug‘ilgan bir tuyg‘u – go‘yo dalalarga biron jihatdan nafim tegishi mumkin edi-yu, ammo tegmadi, degan bir yoziq yuragini jizzillatib yubordi. «E, bema’nilik, – deb qo‘l siltadi u. – Bunga meni sira aloqam yo‘q. Men oldin, bu o‘zgarishlar bo‘lmasdan ancha avval ketganman, endi men bu yerda begonaman». U lespromxoz deb yerni tashlab qo‘ygan qishloq odamlarida bu tuyg‘u kuchli bo‘lsa kerak, agar ularda zarracha vijdon bo‘lsa, o‘zлari kuyib-pishsin, men esa bu yerga chindan ham tasodifan kelib qoldim, bu yerga yana qachok keshishni xudo biladi, deb o‘yladi. U o‘rmonga juda dadil bo‘lib bor gan edi, bu dadillikdan endi nom-nishon ham qolmadi, sayr qilib qayta kayfiyati buzildi, qanday, nima uchun buzilganini uning o‘zi ham tushuna olmasdi. U uyda qolmaganiga afsuslandi, endi bo‘lsa, o‘zi istagan taqdirda ham uyga qaytib keta olmasdi; uni istak-xohishidan tashqari boshqa bir mavhum narsa oldinga boshlab borayotgandi, u shu narsaga bo‘ysunib, itoatkorlik bilan qadam tashlayotgandi. U ancha olisdan ko‘rgan, eski egatda turgan, yomg‘ir va quyoshdan yaltirayotgan kundaga o‘tirmoqchi, dam olmoqchi, biroz o‘ziga kelmoqchi bo‘ldi-yu, ammo negadir yonidan o‘tib ketaverdi, u qanday o‘tib, nari ketganini ham eslolmasdi. So‘ng orqamga qaytsammikin deb o‘girilib qaradi, ammo qaytmasligini, qayta olmasligini bilardi, hozir ko‘ngliga yoqqan ishni qilolmasligini tushunardi.

Nogahon miyasiga kelgan fikr Lyusyani gangitib qo‘ydi. U hozir his etayotganimdan ham ko‘proq iztirob chekishim kerak, deb o‘yladi, chunki u uzoq yillardan buyon qarovsiz qolgan bu yerkarga endigina qadam bosishi edi. Ammo yuragida na alam, na achinish bor edi, shunchaki gangib qolgan edi, bu garangsirash sekin-asta tu-

shunib bo‘lmaydigan vahimali tashvishga aylanayotgandi, yer go‘yo unga: men seni eslayman, qani sen uzil-kesil bir fikringni ayt, axir, sen, Lyusya, ilgari bu joylarga necha martalab kelganding, hatto ishlagan ham eding, deb uni xavotirga solib qo‘ygan edi. U o‘zini oqlamoqchi bo‘lib: «Hatto ishlaganman», deb takrorladi-yu, bu so‘zlar zamirida boshqa ma’no ham borligini payqab qoldi.

Xotiralar uni to‘xtashga va yana bir bor atrofga yaxshilab razm solishga majbur etdi – u ko‘ringan barcha narsalarni, yuqorini – samoni shoshilmay ko‘zdan kechirdi, u nimani qidirayotganini bilib-bilmasdi, shundan keyin pastga, siyrak, daraxtlar orasidan yorug‘lik tushib turgan o‘rmonga qarab burildi. O‘rmon ortida kichik, Quyi daryoga qarab cho‘zilib ketgan dala ko‘zdan pana bo‘lib turardi, bu dala Lyusyaning hayajonl xotiralarida boshqa barcha narsalardan alohida ajralib turardi. Lyusya dala chakalakzor bo‘lib ketgandir, endi uni sira topolmasam kerak, der va go‘yo bu daqiqalar bir nimani hal qilib beradiganday shoshilar edi. Qayerdadir, pastda, o‘sha dala ga eltadigan yo‘l borligi Lyusyaning esida edi, ammo o‘sha yo‘lga tushib olish unga olisday tuyuldi, shuning uchun to‘g‘ri o‘rmondan keta qoldi. U avval dalaga bir chetda turib o‘g‘rincha qaramoqchi, bu o‘sha dalamikin, adashib qolmadimikin, shuni bilmoxchi bo‘ldi, yo‘ldan borsa eldan burun o‘zini sezdirib qo‘yardi. Hamon uning ko‘ngli g‘ash edi. Nazarida kimdir uni tahqib qilayotganday, har bir qadamini kuzatib yurganday edi, shuning uchun u yashirinishga, ochiq yerdan yurmaslikka harakat qildi.

Nihoyat old tomon yop-yorug‘ bo‘lib ketdi, keyin Lyusya o‘sha dalani ko‘rdi. U o‘rmondan chiqmay turib, daraxtlar orqasidan dala ga qaradi. Keng, eski marza saqlanib qolibdi, endi u so‘qmoqqa o‘xshab ko‘rinardi, zarang bo‘lib, o‘t bosib ketgan marza daraxtlarning urug‘i unib chiqishiga qo‘ymabdi, ammo marzaning shundoq yonidan, haydalgan yerdan tog‘teraklar o‘sib, tog‘ etagiga qarab ketibdi. Narigi yoqda, tog‘teraklar tugagan joyda, sal pastroqda xuddi mo‘jizaga o‘xshab poliz ko‘rinardi – kimgadir o‘sha yer yoqib qolib kartoshka ekibdi. Kartoshka palaklari oftobro‘yada qishloqdagidan ham battar qovjirab ketibdi, ammo yerga yotib qolmagandi. Palaklar odatda dalada bo‘ladigandek past o‘sib, qaddini ko‘tarib tursa ham, ostida hech nima yo‘qqa o‘xshardi. Aslida esa, bu yerda kartoshka ekilishi g‘ayritabiiy ko‘ringanidan shunday tuyulardi.

Lyusyani bu yerga boshlab kelgan xotira urushdan keyingi ocharchilik yillaridan qolgandi. Bu voqeа yo qirq oltinchi, yo qirq yettinchi yilda bo‘lgandi. Ko‘klamda, ekin ekish oldidan Lyusyani shu dalani molalashga yuborishdi. Undan oldinroq yomg‘ir yoqqandi, yer loy edi, sixmolaga yopishib qolaverib, Lyusyani adoyi tamom qildi. Yaxshisi to yer selgiguncha kutib turish kerak edi, ammo yo kutib turishga vaqt yo‘q edi, yo kutishni xohlashmasdi. Oldingi yili shudgor qilinib, dam berib qo‘yilganidan hammayoqni o‘t bosib ketgandi, o‘tgan yilgi o‘tlar sixmola tishiga tiqilib, tishlar yer betini arang tirnab o‘tardi. Shuning uchun dam-badam sixmolani ag‘darib, tishlarini tozalashga to‘g‘ri kelardi. Lyusyaga bir qari, qirchang‘i ot tegdi, o‘sha yili bahorda hamma otlar ham zo‘rg‘a oyog‘ini sudrab bosardi, bu otning esa faqat surati qolgandi.

Mana, yana, navbatdagi kerakli so‘z Lyusyaning qulog‘ida yangradi: Igrenka. Otning laqabi Igrenka edi, qulog‘ida yangrab turgan bu so‘z yodiga boshqa xotiralarni ham keltirdi. Lyusya shunday oriq, hatto tuyoplari ham qurib qolganga o‘xshagan, yoli kulrang, peshonasi qashqa jiyyronni ham, uning ketidan tizginni siltab, bir oyog‘ida sakrab, ikkinchi oyog‘i bilan sixmolani yerga bosishga harakat qilib ketayotgan nozikkina, yupungina kiyingan qizchani – o‘zini ko‘z oldiga keltirdi. Orqasida esa ilang-bilang, g‘alati izlar qolardi.

Igrenkaning kuragi oyog‘i bilan birga oldinga-orqaga barobar borib kelardi. Yuqoridan pastga tushayotganda ot bir amallab sixmolani tortib kelardi-yu, ammo orqaga burilib, to yuqoridagi marzaga yetib borguncha kamida o‘n marta to‘xtardi. Ot oldinga intilib oyoq bosarkan, hansirardi. Lyusya endi ot ni qiyin-qistovga olib haydamay, sixmola tishlarini tozalardi, keyin tizginni siltab biqiniga urib qo‘yardi. Igrenka joyidan qo‘zg‘alishidan oldin bir chayqalib olardi, birdaniga tortib ketolmasdi. Ot ko‘pincha izdan chiqib ketardi: chamasi yuqoridagi marzagacha qancha qolganini ko‘rmaslik uchun ko‘zlarini yumib sixmolani tortardi. O‘sanda qizaloq ot bilan birga chim bo‘lib ketgan o‘t-alafdan, loydan juda qiyinalib ketdi, uning ham xuddi ot kabi tinka-madori quridi. Lyusya hozir o‘sha paytdagi mashaqqatni yana o‘z tanasida his qilgandek bo‘ldi-yu, seskanib ketdi. U o‘zini shunchalik toliqqan, ojiz his etdiki, dalaga ham yetmay shundoqqina o‘tga o‘tirib qoldi.

...O'shanda oxiri Igrenka bir qoqildi-yu, ag'darilib tushdi: Lyusyaning jon-poni chiqib ketdi. U tizginni siltab otni turg'izishga urindi, nafi bo'limgach, no'xtasidan ushlab, otning boshini ko'tardi, ot esa boshini liqillatib, uning o'zini pastga torta boshladi. Lyusya otga qarab baqirdi, u jahli chiqqanidan emas, qo'rqib ketganidan ba-qirdi, kapalagi uchib, qo'rquv ichida otning ichiga tortib ketgan bi-qiniga tepe boshladi. Kaltak zarbidan jonivorning a'zoyi badani tit-rab, ucha boshladi, ammo o'rnidan turishga ham intilmadi. Lyusya u yoq-buyoqqa alanglab, otdan nari ketdi, keyin chopqillab kelib, uni ag'anagan tomonidan, biqinidan ushlab tortishga tushdi, ammo xalta bo'lib osilib qolgan terisidan behuda tortardi. Shundan keyin Lyusya oyog'ini qo'liga olib qishloqqa yugurdi.

Xudoga shukur, onasi uyda ekan. Ular yerparchin bo'lib yot-gan Igrenka yoniga yugurgilab kelishdi. Ot endi oyoqlarini yig'ib qorni bilan yotgandi, atrofi o'ydim-chuqur edi, chamasi ot Lyusya yo'qligida bir falokatni sezganday turishga harakat qilgan-u, ammo eplomagan, endi bo'lsa yerdan orom olib, taqdiriga tan berganday, tinchgina yotardi. Onasi otning oldiga cho'kkaladi-da, uning xuddi randalanganga o'xshash ingichka bo'ynini silay boshladi.

– Igrenya, – dedi u erkalab.– Nima xayolga bording-a, Igrenya? Voy jinnivoy-yey. Mana, o'tlar nish uringdi, sen bo'lsang o'limni ko'zlabsan. Ko'p emas, bir haftagina sabr qilsang, joning kiradi-qoladi, qayerdan bo'lsayam qorning to'yadi. Shoshilma, Igrenya, bo'sh kelma. Qishdanki o'lmay chiqdingmi, endi jin ham urmaydi, bu yog'iga chidashni xudoning o'zi buyurgan. Axir ozgina... ey xudoym... ozgina qoldi-ya axir. Qish nima emish, qirg'inbarot urush vaqtida o'lmovdik-ku. Sen, sho'rlik, urush paytida taxta-yog'och tashiyverib adoyi tamom bo'lding, e, o'sha ishlar oldida shu ham ish bo'ptimi? Tashigansan, kuchingni ko'rsatgansan. Bunday ishga oriyat uchun ham chidasa bo'ladi, mana, men ham or-nomus zo'ridan yuribman.

Ot qushnikiga o'xshab ingichka tortib ketgan tumshug'ini unga burib, og'zini uning qo'llariga tekkizdi.

– Hech vaqom yo'q, – dedi onasi xo'rsinib. – Hech vaqom yo'q, hech nima olib kelmovdim, Igrenya. Hah, esim qursin-a. Ot bo'lsa ham hammasini tushunadi. Kelib-kelib Igrenya tushunmas ekanmi, – u otning tumshug'ini silab-siypaladi, peshonasiga tushib turgan

yolini taradi. – Bu ba'zi odamlarga qaraganda o'n barobar ziyrak-da o'zi. Burnog'i yili yog'och tushib Igrenkaning oyog'i singanida uni go'shtga topshirishmoqchi bo'lishdi, shunda uch oyoqlab taygaga qochib ketgan ot mana shu Igrenka-da. To suyagi o'sib bitib ketma-guncha taygadan chiqmadi, o'sha yerda yotdi. Shundan keyin ham anchagacha oqsab yurdi. Men esa seni hech kimga bermadim, sen cho'loqda Molokankaga suv tashiganman, oyog'ingga tag'in ziyon qilmasin deb bochkani suvga to'ldirmasdim.

Ot boshini ko'tarib ingichka ovozda gunohkorlardek kishnab qo'ydi. Lyusyaning onasi otning bo'ynini silap-siypaladi, ot ham bu mehribonchilikka javoban ikkinchi marta kishnadi va ostida qolgan oyoqlarini qimirlata boshladi.

– Shoshmay tur, Igrenya, – Lyusyaning onasi shoshib qoldi va ot ni abzallaridan bo'shata boshladi. – Shoshma. Hozir men seni turg'azib qo'yaman. Ha, yotganing ham bo'lar endi, xo'p yotding. – Igrenka Lyusyaning onasi qayoqqa o'tsa, boshini o'sha yoqqa burar va zaifligi uchun nochor titrardi. Lyusyaning onasi yuganni tomog'i tagidan ushlagach, ot oldingi oyoqlarini shartta cho'zib yubordi, ammo uzoqqa, noqulay cho'zdi, shuning uchun u yana oyoqlarini yaqinroqqa tortdi, kuchanib, keyingi oyoqlariga tiranib intildi-yu, ammo uddalay olmadi, qaytib o'tirib qoldi. Ot ayoldan boshini burib yana kishnadi, uning ovozida turolmayman, ko'rib turibsizlar-ku, turolmayman, degan umidsizlik ohangi bor edi. Ayol uni yana tinchitdi: – Shoshilma, Igrenya. Shoshilmay damingni ol. Darrov emas-da, sen bo'lsang, darrov turmoqchi bo'lding. O'tirib qoldingmi, mayli, hechqisi yo'q. Hozir damingni olasan, keyin turasan. Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q. Voy sen Igrenya-ey, voy jonivor-ey.

U Lyusyaning ishiga ko'z yogurtirib chiqdi-da, unga ta'na qildi:

– Bo'yiga qarab yurish kerak edi, sen bo'lsang eniga yuribsan. Tepalikka tushib-chiqishga manaman degan ot ham dosh berolmaydi. Bunga-ku yo'l bo'lsin...

– Ha, o'zi eniga haydalgan ekan-da.

– Xo'sh, nima bo'pti? Sekin-asta borib-kelaverarding, hech kim seni qistalang qilgani yo'q-ku, yer bitta-ku, xohlasang uzunasiga, xohlasang ko'ndalangiga-da. Qancha bo'lsa, shu-da. Ko'paymaydiyam, ozaymaydiyam.

U tizginni Lyusyaga berdi-da, o'zi otning yoniga o'tib, sag'risiga shapatiladi va ostidan ushladi. Igrenka go'yo yiqilgan joyimdan tez-roq nari ketay degandek, oldingi oyoqlarini bosdi, keyingi oyoqlarini cho'zib, so'nggi bor jon-jahdi bilan tanasini rostladi-da, azod o'midan turdi. Ot chayqalib turardi, ona esa uni suyab, belidan ku-choqlab xursandlik bilan dedi:

– Mana bo'ldi. Bo'larkan-ku. Axir men senga aytuvdim-ku. Sen bo'lsang, o'limni ko'zlab yuribsan. Gunoh emasmi axir bu? Agar birovga aytsang, ichburug' deb ustingdan kuladi. Qanaqasiga sen ichburug' bo'larkansan, Igrenya? Ey xudoym, qanaqasiga ichburug'sansan? Agar hozir ustingga chivin qo'nsa ham ag'anab tushasan. Ana shunaqa ichburug'san-da. Hozir seni ishga tayinlab bo'larkanmi? Yur, ichburug', yura qol.

U yuganni ushlab, otni yetakladi. Ot chayqalib, o'midan qo'zg'aldi, qo'zg'aldi-yu, shu zahoti to'xtadi va go'yo yana ag'darilib tushishdan qo'rqqanday oyoqlarini sudrab bosa boshladı...

Lyusya o'midan turdi va u yoq-bu yog'ini qoqib, dalalar o'rtasidagi polizga yana bir bor qaradi, go'yo bu voqeа hozir emas, ancha oldin, bundan yigirma yil avval bo'lganiga ishonch hosil qilmochchi edi. U ko'z oldida turgan Igrenka xotirasidan qutulib, hali o'zi tushib kelgan tepalikka qarab sekin-asta ko'tarila boshladı, ammo o'sha manzara negadir xayolidan sira ketmasdi. Nazarida bu voqeanning nimasinidir tushunmasdi, bu voqeа aslida qanday og'ir, alamli bo'lganini ko'rsatish uchungina esiga tushgani yo'q, uning yana qandaydir o'ziga xos sirli, eski yarani yangilovchi jihatı ham bor edi va ana shu jihatini Lyusya tushunmasdi. Uning qandaydir notanish his-tuyg'uga berilgani nash'a qilib o'zidan ranjidi-da, bu tuyg'udan qutulish uchun tez-tez yurishga jazm etdi.

«Hatto ishlaganman ham», bundan yarim soat oldin shu dalani qidirib topishga majbur etgan fikr yana xayoliga keldi. Ha, el qatori ishlagan. Ha, pichan ham o'rgan, yig'ishtirgan ham, sixmola qilgan ham, o'toq ham qilgan, yig'ib-tergan ham – ayniqsa, ishchi kuchi taqchil yillarda kolxoza ish kam edi deysizmi? «Hatto yer haydagansan», deb unga ichki ovoz qo'shimcha qildi, darhaqiqat u yer ham haydagan edi, buni qanday qilib esidan chiqardiykin-a? Rost, faqat ikki kun haydadi, chunki u plugning orqasidan yurishga yurardi-yu, ammo uni bir egatdan ikkinchi egatga olib qo'yishga kuchi yetmasdi.

U nimjongina bo'lib o'sdi, ishga ham o'z tengqurlaridan keyinroq, faqat urushning so'nggi yillarida chiqdi. Ungacha onasi rahmi kelib uni uyda Tanka bilan – hozir Kiyevda yurgan Tanchora bilan qoldirib ketardi.

«Koshkiydi Tatyana bugun kela qolsaydi», deb ko'nglidan o'tkazdi Lyusya boshqa narsani o'ylash imkoniyati tug'ilganidan su-yunib. Bo'lmasa onasi Tanchora, Tanchora deb hech kimga tinchlik bermaydi. Agar u ham kelib oila safini to'ldirsa onasining dardi ayon bo'lardi. Hozir kampir faqat shu Tanchorasini kutib yotibdi.

O'rmon tugadi, Lyusya yana balandlab ketgan dalalarga chiqib qoldi. Bu yerdan, ochiq maydondan isib ketgan kunda yastanib yotgan atrof aniq-tiniq ko'rinardi; agar olisga nigoh tashlansa, havo qu-yoshda sezilar-sezilmas, mayin jingirlardi, yuqorida jingirlab turgan bu sas pastda, Lyusyaning oyoqlari ostida tinib, eshitilmay qolardi. Oyoqlar ostidagi yerdan sado chiqmasdi, toshday qotib jim turardi; kuz sharofati bilan iliqlik va to'yingarchilikdan tog'dagi o'rmon jilva qilib ohista qimirlab qo'yar, oqishsimon qayin hovuri bilan bilinarbilinmas nafas olardi. O'rmon ortidagi osmon sokin va bir tekisda ufqqa tomon tutashgan edi; osmon juda baland, shaffof, ammo undagi moviyilik xira tortib, qa'ridagi fusunkorlik susaygan, sinoatida horg'inlik paydo bo'lgandi.

Lyusya daladan ketayotib yana ham chaproqqa, daryo tomoniga burildi. U garchi hammayoqdan bo'y-basti bilan yaqqol ko'rinib turgan bo'lsa-da, o'g'rinchasiga juda ehtiyotkorona qadam bosardi. Qayerdadir o'sha yerda yo'l bor, Lyusya ancha aylansam ham mayli, yo'ldan ketganim ma'qul – xatarsiz, deb jazm etdi. U bu yerkarda qo'rqa digan hech nima yo'qligini juda yaxshi bilardi, ammo u qayqdandir paydo bo'lgan, kimdir meni poylab, kuzatib yuribdi, degan tuyg'udan negadir sira qutula olmasdi, bu endi qanday voqeа yuz berishidan dalolat beruvchi shunchaki bir tuyg'u bo'lmasdan, qandaydir g'alati tarzda o'tmis bilan, unutilib ketgan, endilikda hisob so'rayotgan xotira bilan bog'liq edi. Nazarida u o'rmonga kelayotgani da birovning hiyla-makriga yengiltaklik bilan uchganday, uni birov aldab bu yerkarda boshlab kelgan-u, endi ortga qaytish mumkin emasday va qandaydir ko'rgulik yuz berishi muqarrarday edi. Shuning uchun u cho'chib go'yo shu ko'rgulikning ro'y berishini cho'zardi, paysalga solardi, uni ergashtirib olislarga olib ketishga urinardi.

U yo‘lga chiqib olgan bo‘lsa-da, bu bilan ham yengil tortmadi. U yo‘ldan pastga qarab yugurish, to qishloqqa yetguncha oyog‘ini qo‘liga olib yugurish vasvasasiga qarshi kurashib, asta-sekin, go‘yo yo‘lni tekshirmoqchi, uning qattiqligini, xatarsizligini sianab ko‘rmoqchi bo‘lganday yuqoriga qarab ketdi. Yo‘q, yugurib yetib ololmaydi, yugurish esidan chiqib ketgan. Yo‘lni o‘t-o‘lanlar qoplagan, kesaklari toshdek qotib qolgandi, nazarida havo ham qurib bitgandi, shuning uchun Lyusya ko‘p o‘tmay nafasi qaytib keta boshladi. U bir ko‘ngli daladan o‘tib ketaqolay ham dedi-yu, ammo yo‘ldan chiqmadi, go‘yo allakimning irodasiga bo‘ysunib yo‘ldan bir qadam chetga oyoq bosolmasdi. Nihoyat, Lyusya aynan shu yo‘lga bekor chiqqanini, bu yo‘l endi unga bamisolik ikki tomoni o‘tib bo‘lmaydigan, chiqib keta olmaydigan baland shaffof devorli tuzoqday tuyula boshladi-yu, uni qandaydir kutilmagan, ehtimol dahshatlari bir hodisa kutayotgani his qila boshladi. Qirrali kesaklar kedili oyog‘iga qattiq botardi, ammo u og‘riqqa e‘tibor bermasdi, uning butun o‘y-xayoli xavf-xatarga yo‘liqib qolmaslik bilan band edi.

Lyusya ketaverdi-ketaverdi, nihoyat, to‘xtadi: yo‘l o‘rtasida xuddi tipratikanga o‘xshab chumoli uyasi yotardi, u anchagacha mana shu jonli, qimirlab turgan do‘msaga hayron bo‘lib qarab turaverdi. Bu uya nega bir chetda emas, o‘rtada yotibdi? Lyusya qanday o‘tib kettadi? Endi nima qilsin? Balki uyga qaytar? U ortga qayrildi, ammo hech nimani ko‘rmadi. Hamma narsa quyosh nuriga g‘arq bo‘lgandi, bu nur Lyusyaning ko‘zlarini qamashtirib yubordi. U devorga urilib ketmaslik uchun qo‘llarini yoniga yozib chumoli uyasi chetidan ochiq yo‘lga ohista o‘tdi va hech nima bo‘limganiga sevinib ketdi. U shunchalik suyundi-ki, hatto beixtiyor jilmayib ham qo‘ydi.

«Nima bo‘ldi o‘zi menga?! – o‘zidan gina qildi u. – Nimadan hadiksirayapman? Bu atrofni, bir necha kilometr naridagi har bir butani besh qo‘lday biladigan menday odamga biron gap bo‘larmidi axir? Bo‘limgan gap! Aylangani, toza havodan nafas olgani chiqdim, vas-salom, men bo‘lsam qandaydir vahimaga tushib, bolalarday qo‘rqib yuribman-a. Bularning hammasi asabdan, asabni davolatish kerak. Hozir hu anavi yerga boraman-da, qo‘ziqorin teraman, keyin uyga jo‘nayman. Bu yerlarning hammasi menga tanish, bularning nimasidan qo‘rqish kerak? O‘zim ham g‘irt ahmoqman-da!»

U ko'ngli yozilib, dadilroq odimlay boshladi, o'rmonga yetishiga ozgina qoldi.

Shu payt nogahon uning dadilligini ma'qullamaganday, havoda ingichka, cho'ziq, dahshatli chinqiriq yangradi:

– Minka-a-a-a!

Lyusya titrab ketib, turgan yerida qotib qoldi. U bu ovozni tanidi, bu o'zining ovozi edi, u go'yo ustidan yuk bosib turgan boshini sekin-asta chap tomonga burdi: shumurt butasi o'sha yerda, avvalgi joyida, dala o'rtasida turgandi, kimdir qachonlardir unga tegmay, plugni atrofidan aylantirib o'tgandi, bundan foydalangan shumurt o'sib, kapaday bo'lib ketgandi, atrof-tevaragiga yoyilib hosil bera boshlagandi. Lyusya beixtiyor uyg'ongan dastlabki tuyg'uga bo'ysunib, shumurtga tomon qadam tashladi va kutilmaganda yo'ldan chetga chiqdi, yo'l uni qo'yib yubordi. Lyusya ajablanmadi, u qayoqqa borishini bugun o'zi tanlamayotganini, balki shu atrofda yashaydigan, uning sir-asrоридан xabardor bir begona kuch boshlab yurganini angladi.

Kapa bo'lib ketgan shumurt atrofi haddan tashqari to'zigan edi. Kesilgan, qurib qolgan shoxlar yerda tartibsiz sochilib yotardi, omon qolgan shoxlarining bargi yakkam-dukkam bo'lib, o'rgimchak ini bosib ketgan, xunuk ko'rinardi. Eng yaxshi, baquvvat shoxlari kesib olingani bois faqat yon shoxlari, siyrak novdalar qolgan, shundoq qo'l cho'zsang yetardi, o'rtadagilarini esa olib ketib bo'lishgandi. Endi ularning o'mida odamning ko'kragigacha keladigan yalang'och to'nkalari qaqqayib turar, omon qolgan mayda shoxlari esa atrofga osilib qolgandi. Unda-bunda mevasi ko'rinardi. Lyusya mevalardan bir necha donasini uzib oldi: mevalari yumshoq, shirin, muzdek, yalpiz ta'mi bilan o'tmishini yodga soldi-yu, boyagi chinqiriq yana qu-loqlari ostida jaranglab Lyusyaning o'takasini yordi. U cho'chib atrofga alangladi – hech kim yo'q, shunday bo'lsa ham u, har ehtimolga qarshi, daryo tomondan hech kim ko'rmasin, deb buta ortiga o'tdi.

...Mana shu buta bilan bog'liq voqeа ham urush tugashi bilan yuz bergen edi – hayot o'sha mudhish to'rt yildan keyin hali iziga tushmagandi, hammayoq alg'ov-dalg'ov: ochlik, bosqinchilik, sud qilishlar, ko'z yoshlari behisob edi. Ikki yozdan beri shimolning qayeridandir qochgan vlasovchilar daryo bo'yidan o'ta turib qishloq odamlarining yuragini taka-puka qilib ketishardi. Falon yerda sigir-

ni so'yib ketishibdi, falon yerda bir xotinni zo'rlab, o'ldirishibdi, do'konlarni talashibdi, dori berib butun-butun oilalarni uxlatib qo'yib, qoqqan qozig'igacha o'marib ketishibdi, degan xabarlar tez-tez quloqqa chalinib turardi. Erkaklar hatto kechasi qorovullar ham qo'yishdi, lekin qochoqlar kutilmaganda bostirib kelib, bilganlarini qilishardi. To'g'ri, quyi oqimning qayeridandir ikkitasini tutib olishdi, ularni rayonga qanday olib kelishganini Lyusya ko'rgan edi. U shuni esladi. Qochoqlar aravada bir-biriga orqa o'girib o'tirishardi, qo'llari bog'liq edi, soqol-mo'ylovleri o'sib ketgan, kiyimlari juldur, yuzlari qahrli, odamlarga horg'inlik bilan qarashlarida hali sizlarga ko'rsatib qo'yamiz deganday pisanda bor edi.

Vlasovchilar odatda yoz boshlanishi bilan qochishardi, mavsum oxiriga kelib ular to'g'risidagi gap-so'zlar tinib qolardi, qishloqlar xam tinchirdi, xotin-xalaj cho'chimasdan yana o'rmonga borishardi, kolxoz ishimi yoki boshqa yumush bilanmi daryoning narigi tarafiga suzib o'tishardi. Xuddi kanalar kabi qochoqlarning ham ma'lum bir mavsumi bor edi, o'sha mavsumdan keyin odamlar qo'rqlmay qo'yardi.

Avgust oyining o'rtalarida onasi Mixail bilan Lyusyani shu butaga yuborgandi. Kampir bu butani ilgari, chaman-chaman bo'lib gulkanidayoq ko'z ostiga olib qo'ygan-u keyin ko'rib yoqasini ushlab qolgandir. Chunki shumurtlar hosil bermaydigan yili bu buta azbaroyi mevasi ko'pligidan shoxlari yerga tegib qolgandi. Yo'ldan turib, bug'doyzor orasidagi bu butani ko'rib bo'lmasdi, u hosili ko'pligidan yerga deyarli yotib qolgandi. Ko'zdan pana qolgani uchun bo'lsa kerak, hosili obdan pishib yetildi.

Mevasini teriboq kishi huzur qilardi. Hatto meva terishga sira tob-toqati yo'q, bir xil takrorlanadigan ishga sabri chidamaydigan Mixail ham mevalarni ko'rdi-yu, o'zini tutib turolmadi. Mevalar yirik-yirik, savog'i uzun-uzun bo'lib, toza, bargsiz edi, boshi katta-katta edi, fagaq uzib olsang bas. Lyusya qulay bo'lsin deb beliga etak bog'lab oldi, u to'lib og'irlashib ketganida bo'shatib olardi. Mixail opasining ketidan chelakni ko'tarib olib yurdi. Chelakka ag'darilganida birdaniga bir qarich, hatto undan yuqoriroq ko'tarilardi, ular barmoqlarga tegganida esa qo'llar xuddi muzdek suvga tutib turilgandek yayaradi. Mevalar hil-hil pishgan, vaqtı ancha o'tib qolgan bo'lsa-da, ezilmasdi, xuddi qo'l bilan terib qo'yilgandek bir-birining ustida turardi.

Bor-yo‘g‘i ikki soat ichida Mixail bilan Lyusya chelaklarini lim-lim qilib to‘ldirishdi, ammo butaning loaqal yarmi ham terib olinmaganidi.

Ular uyga borib chelaklarni bo‘shatib kelmoqchi bo‘lishdi. Marjondek osilib turgan mevalarni ertaga qoldirishni istashmadi. Chunki unga olib boradigan yo‘lni bilib olishgach, nazarlarida bosh-qalar ham bundan xabar topgandek, endi istagan odam xohlagan paytda borib terib oladigandek tuyula boshladi. Tushdan keyin havo qizib ketdi, Mixailning yalqovligi tutib, tepalikka zo‘rg‘a, sudralib chiqardi, u Lyusyadan ancha ortda qolib ketgandi. Lyusya esa uni kutishga sabri chidamay, bir o‘zi yaqin yo‘ldan yurib, bug‘doyzorlar panasidagi buta turgan marzaga chiqdi. Butaga yana yigirma qadamcha, balki undan sal ko‘proq masofa qolganida birdan silkinib ketdi-yu, undan qulochchinining quloplari ko‘tarib bog‘lab qo‘yilgan, badbashara, qiyofasi kishi o‘takasini yoradigan odam xuddi arvohdek sakrab tushdi. Bu kutilmaganda ro‘y bergani uchun Lyusya bo‘zdek oqarib, qochish o‘rniga turgan yerida qoqqan qoziqday qotib qoldi. Notanish erkak bir gezarib, bir kulib barmog‘i bilan imlab uni chaqirdi. Lyusya unga razm solishga ulgurdi: past bo‘yli, norg‘ul, yuzlari qora, soqol-mo‘ylovi olinmagan, yoshi nomalum, ko‘zlar telbamo yiltirardi.

U buta yonida etik kiygan oyoqlarini qulay kerib turar va qizning qochib keta olmasligiga shunchalik ishonardiki, hatto mu-shuk sichqon bilan o‘ynashgandek qiz bilan o‘ynashmoqchi, hirsini rosa qo‘zg‘ab u bilan ko‘ngil yozmoqchi edi... Shularni ko‘z oldidan o‘tkazar ekan Lyusya hozir xuddi o‘sha paytdagi uchra-shuvda yuz bergen dahshatni boshidan kechirgandek a’zoyi badani titrab ketdi. Shuning uchun u yoq-bu yoqqa qarab, butadan uzoqlashmoqchi bo‘ldi, ammo o‘sha xotiralar uni qo‘yib yubormasligini, ayni paytda ulardan osonlikcha qochib qutula olmasligini anglatdi...

Notanish kishi xunuk tirjayib, barmog‘i bilan uni beri kel deb imlagandan so‘ng Lyusya orqasiga tisarila boshladi. U bu nag‘mangga balo bormi deganday, aftini burishtirdi va qo‘llarini yozdi. Lyusya orqasiga tisarilaverdi. Nihoyat, badbashara chidab turolmadi-da, cho‘chitib yubormaslikka harakat qilganday, ohista Lyusya tomon yura boshladi, uning buzuq niyatdan burishgan yuzi uchib-uchib

qo'yardi. Shundan keyingina Lyusya nihoyat oyog'ini qo'liga oldi-yu, ura qochdi.

U o'qday otolib yo'lga chiqib olgach, pastga – qishloq tomonga chopib ketdi. Yumshoq shudgorda etigi botib, bug'doylarga o'ralashib qolganiga qaramay badbashara Lyusyani quvib yeta boshladi. Lyusya shundoqqina quloqlari ostida uning pishillab, hansirab nafas olishini eshitdi. U qo'rqqanidan esini yo'qotib, chelagini havoda o'ynatib jon holatda yugurib borardi. yelkasiga begona qo'l tirmasha boshladi-yu, lekin so'nggi daqiqada Lyusya bu qo'llardan chiqib ketishga ulgurdi va chelagini tushirib yubordi. Chelak ortida darang-durung qilgancha dumalab yo'lida qolib ketdi.

– Minka-a-a!

Lyusya ovozi boricha chinqirdi va shu zahoti ro'parasida ukasing jussasini ko'rdi. Ukasi shoshilmasdan, lapanglab kelayotgandi, u opasining chinqirig'ini eshitdi-yu, avvaliga taqa-taq to'xtab qoldi. So'ng opasi tomon otildi. Badbashara ham Mixailni ko'rdi-yu shartta to'xtadi, u bu yerda yana kimdir bo'lishi mumkinligini sira xayoliga keltirmagandi, shuning uchun avvaliga gangib qoldi. Lyusya Mixailning yonidan chopib o'tdi-yu xatarsizroq yerga yetgach to'xtadi, chunki ukasini tashlab ketolmasdi. Lyusya yana joni boricha yana chinqirdi. Notanish kishi ro'parasida bir mishiqi bola turganini ko'rib, endi unga tomon ehtiyyotkorlik bilan kela boshladi.

– Minka-a! Qoch! Qoch! Minka-a! – deb baqirdi Lyusya jonholatda.

Mixail yerdan tosh olib shaylanib turdi. Badbashara ham hamlaga chog'lanayotganday cho'nqaydi, qo'rqb ketgan Mixail dik etib ortga sakradi. Badbashara hihilab kului. U yana Mixailni qo'rqtimoqchi bo'ldi, ammo bu gal bolakay joyidan jilmadi, qo'lidagi toshni mahkam qisib kutib turaverdi. Shundan keyin badbashara unga qarab yugurdi, ammo besh-olti qadamdan so'ng chetga burildi va oqsoqlanganha dalani tikka kesib Quyi daryoga qarab chopib ketdi. Lyusya juda qattiq qichqirgandi, shuning uchun u vaqt g'animatligida yashirinmoqchi bo'ldi...

Lyusyaning quloqlari ostida o'sha qichqiriq to'satdan qanday yangragan bo'lган bo'lsa, yana shunday kutilmaganda tindi va quyosh nurida ko'milib yotgan atrof SUV sepganday jim bo'lib qoldi. Lyusya xotiralari tugaganini, endi yo'lida davom etaverishi mum-

kinligini fahmladi va bo'shashib, kalovlanib o'rnidan qo'zg'aldi-yu, rijk tergani jo'nadi. U rijk terishni mana shu vahimalardan qutulishning yagona yo'li deb o'yladi: agar bir dona, jimjiloqdekkinasini yulsa ham hammasi o'tib ketadi, deb umid qilayotgandi. Xo'sh, nima o'tib ketishi kerak o'zi? Bu ham ma'lum emas, mavhum bir xayolot edi. U asli bu yerda qo'rqlikerakmi yo'qmi, bilmasdi, bu haqda xayol surishga ham qo'rqlikerakmi, uning nazarida dilidagi gaplarni ham bitta-yarimta eshitib qolib, teskarisiga yo'yadiganday edi. U toliq-qandek oyoqlari chalishib ketaverdi, ammo bu yurganidan emasdi. Yurgan bo'lsa arzimagan yo'l bosdi, narisi bilan uch-to'rt kilometr. Uni xotiralar toliqtirgan edi, bu xotiralar juda yorqin, aniq bo'lib, miridan sirigacha ko'z oldidan o'tib go'yo uni ta'qib etayotganday edi. Nazarida o'sha kunlar yana qayta boshdan kechirganday bo'ldi. Mana o'sha xotiralar uni qurshab olib, qayoqqa borsa, ortidan izmaiz ketmoqda: o'ng tomonida ochlikdan sillasi qurigan qirchang'i Igrenka bahorgi loygarchilikda sixmolani arang sudramoqda, chap tomonida qulqchin kiyib olgan anavi badbashara oqsoqlanmoqda.

Lyusya to'xtadi. Yo'q. Bu yerda hech kim yo'q, hadiksiraydigan hech bir jonzot yo'q, u bir o'zi, yolg'iz. Jazirama yoz kuni anavi badbasharaning qulqchin kiyib yurishi qanchalik bema'nilik bo'lsa, uning vahimaga tushishi ham shunchalik aqilsizlik, bu tashvishlar behuda: onasi to'g'risida telegraphma olganidan keyin asablari shunchaki kulfatga, iztirobga ko'nika boshlagan-u endi bekorga hayajonlangani evaziga tovon olmoqchi bo'lyapti.

U atrofni qayta-qayta ko'zdan kechirdi. Ha, hech kim yo'q; quyosh charaqlab turibdi, hammayoq suv sepgandek jimjit, tinch. Quyosh shunchalik charog'on, atrof shunchalik sokin ediki, kishi o'zini bexavotir sezardi. Lekin u atrofi sinoatlarga to'la begona yerlarda tanho edi, go'yo butun mavjudotning diqqat-e'tibori unga qaratilgandi. U hech qayoqqa yashirina olmaydi, hamma uni xuddi kaftdagidek ko'rib turibdi. Yo'q, bu yerdan qochib qolish kerak. «Qochish kerak, qochish kerak», derdi u nuqul. Qishloqdan chiqib nima qilardi-ya? Kimdir uni bu yerga quvlab keldimi? Bu yerda u nimasini unutib qoldirgandi?

«Unutib?!» Lyusyaning o'y-xayoli shu so'z bilan o'ralashib qoldi-yu, o'tmish xotiralarini unga yanada yaqinlashtirdi. Unutib... Ha, mana o'sha deyarli avval boshdanoq sirligicha qolib, indamasdan

jonini sug‘urib olayotgan bir vaqtlardagi aybi endi oshkora bo‘lib, undan javob berishni talab etayotgandi. Lyusya hammasini – bahor fasli hashar qilib o‘tin tayyorlaganlarini ham, o‘zi ishlagan dalalarni ham, ag‘darilib tushgan Igrenkani ham, shumurt butasi yonidagi voqeani ham, boshqa, ilgari bo‘lib o‘tgan talay hodisalarini ham butunlay unutgandi, ulardan nom-nishon qolmagandi. U o‘tmishda sixmola qilgani, yer haydaganini unutgandi... Uni qarang-a, sixmola ham qilibdi, yer ham haydabdi-ya! Qiziq, o‘ylamay-netmay shuni ham unutvoribdi-ya, loaqlal shu ishi bilan kerilib yursa bo‘lardi-ku, axir shaharda orttirgan dugonalaridan qaysi biri plug ketidan yuribdi deysiz. U ko‘pdan beri qishloqni o‘ylamay qo‘ygandi, qishloq haqidagi xotiralari tosh bo‘lib qotib, xuddi is bosgan olis burchakka uloqtirilgan eski-tuskilar bo‘g‘chasi singari miyasining bir gunjagida dumaloqlanib yotardi.

Mana endi o‘scha xotiralar nogahon bugun lop etib esiga tushib ketdi.

## 7

Nihoyat kampir ko‘zi to‘rt bo‘lib kutgan Mironixa keldi.

Kampir karavotida pardekkina bo‘lib yotganidan ostidagi simto‘r deyarli cho‘kmagandi, uning faqat ko‘zlarini yiltirab turardi, cho‘zilib, qimir etmay yotgan gavdasi esa, na to‘lg‘anardi, na bezovta bo‘lardi – xuddi birovnikidek. Bu gavdani bezovta qilishning ham hojati yo‘q edi: kampir ko‘pdan beri bir o‘zi yotardi, u go‘yo o‘zini yo‘qotib qo‘yan-u endi qidirib sira topa olmasdi. Tushga yaqin uy ichiga of-toh mo‘raladi, kampir quyoshning jimirlab turgan orombaxsh nurida isinib huzur qildi, axir bir o‘zi yotaverib, yuragi qon-zardobga to‘lib dod devoray deyayotgandi-da.

Mehmonlar kelganini bilgan Mironixa uyning jimjitligiga hayron bo‘lib xonaga kirdi, to‘siq ortidan hayiqib qaradi, ammo kampirning bir o‘zi yotganini ko‘rgach, pildirab oldiga keldi-da, chapak chalib dedi:

– Ana xolos! Sen, kampirsho, haliyam tirikmisan?

Kampir Mironixaniga kelganiga shunchalik xursand bo‘ldiki, ko‘zlarida yosh g‘iltilladi, turishga urinib karavotida qimirladi, ammo turish uchun ancha ovora bo‘lishini esladi-yu, chillakday bo‘lib qolgan qo‘lini Mironixaga uzatdi.

– Ko‘rib turibsan-ku, tirikman. Bugun mana ikkinchi kun ancha tuzukman. Nahotki senga aytishmagan bo‘lishsa?

Mironixa kampirning qo‘lini oldi-yu, tushirib yubordi, ammo kampirning qo‘liga jon kirib, uni chap qo‘li ustiga olib bordi-da, siy-paladi.

– Seni ajal nega olib ketmayapti-a? – Mironixa shunday dedi-da, karavotga, kampirning yoniga o‘tirdi va engashib uning qulog‘iga shivirladi: – Men endi o‘rtoqjonimning janozasiga boryapman-da, xudo rahmat qilgur, narigi dunyoga yo‘rtib kolgandir, deb o‘ylovdim, sen bo‘lsang, haliyam shu yerda ekansan. Ilgariyam zararkunanda eding, shundayligingcha qolibsan. Jonimgayam tegib ketding o‘zi.

– Oyimqiz, seni kutib yotganimni bilmaysan shekilli-a, – dedi kampir ham uning haziliga javoban. – Bir o‘zim bo‘lsam zerikib qolaman, senga intiq edim. Ikkovimiz bir tobutta yotsak deyman-da.

– Men, sen kampirshoni bir tepib surobingni to‘g‘irlab qo‘yaman. Oyoqlarim baquvvat, butun umr yuraverib pay bo‘lib ketgan.

– Sen tepib yuborishdan ham toymaysan, bu qo‘lingdan keladi.

– Ha-a... Sen meni kutma, o‘zing ketaver. Hozircha chopqillab yuribman. O‘zim bilan olib ketaman deb xomtama bo‘lma. Sen bilan go‘rda yotgandan ko‘ra, yaxshisi biron ta cholni topib tegib olaman. Ana keyin, qarabsanki, farzandli ham bo‘lamiz.

– Sen, oyimqiz, tug‘gichingni quritish uchun mendan oldinroq dorga yoyib qo‘yganding shekilli.

– Menda boshqasi, avvalgisidan ham yaxshirog‘i bor. Men uni yozda shaharlik bir ayoldan mevaga alishtirib olganman. Shundoq kelishgan shaharlik bir juvon ekan, o‘shandan boshini aylantirib avrab olgandim. Sen, kampirsho, endi men bilan tenglasha olmaysan.

– Ko‘p aljiyverma. Yolg‘on-yashiq gaplarining bilan jonimga tegib ketding.

– O‘zing-ku jonimga tegib ketgan. Ko‘nglimga zig‘irmoydan battar urgansan. Tezroq o‘la qolsang nima qilarkin-a. Sendan qutulib qo‘ya qolardim.

– O‘lsam, hali ko‘z yoshi ham qilarsan, oyimqiz.

– Nima, yig‘lasam, senga achinganimdan yig‘larmidim?

– Bu gaping ham to‘g‘ri, – deb uning fikriga qo‘silar ekan kampir Mironixani to‘xtatdi, xudo ko‘rsatmasin, tag‘in bir shakkoklik qilib qo‘ymasin deb o‘yladi kampir. Mironixaga bas kelaman, de-

sang gunohga botishing ham hech gap emas, nima deganini o‘zi ham bilmaydi. Yoshligida ham hech kimga gap bermasdi, hozir ham tili to‘qmoqday, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqadi.

Mironixa keyingi yillardagina sal quyilib, bosilib qoldi, bo‘lmasa juda shaddod edi, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otardi. Garchi u oyog‘idan zorlanib yursa ham, hozir ham shunday yelib-yuguradiki, yoshlar ketidan yetib olishi mushkul. U ish degan joyni yetti chaqirim naridan aylanib o‘tardi, shu bois qora mehnat ostida ezilib, o‘zini oldirib qo‘ymagandi. Kampir bilan uni solishtirib bo‘lmasdi: Mironixa dum-dumaloq, epchil, chaqqon edi, eng muhimi oyoqdan qolgani yo‘q. Qayoqqa borgisi kelsa, o‘sha yoqqa pildirab ketaveradi. Kalta, qora qo‘llari hamisha oldida har ishga hozir-u nozir bo‘lib turardi, yuzlari ham qora, keng edi, ovozi bo‘g‘iq, ammo boshqa odam shunchalik gapirsa, allaqachon ovozidan ayrilardi. Mironixa ning esa ovozi faqat mana shunday sal bo‘g‘ilib qolgan. U kampirdan bor-yo‘g‘i to‘rt yosh kichik edi, ammo ancha yosh ko‘rinardi.

Mironixa kelgandan keyin kampir ancha jonlanib qoldi: ko‘zları ravshanlashib, so‘nib qolgan qorachiqlari yona boshladi, yuzida ham Mironixa bir gap topib kelgandir, nimani gapirib berarkin, degan qiziqish paydo bo‘ldi. Ko‘rismaganlariga ancha bo‘lgandi, hayot esa oldinga qarab to‘xtamasdan ketaveradi. O‘tgan yilgacha ham kampirning tumbochkasi ustida radio turardi. U radioning qop-qora, tugmaga o‘xshagan g‘ildirakchasini o‘zi aylantirardi; bir yerida ashula aytishsa, bir yerida yig‘lashardi, uchinchi yerida esa begona bir tilda g‘o‘ldirardi, to‘rtinchi yerida bo‘lsa, biznikiga hañm, begonanikiga ham o‘xshamagan g‘alati tilda gapirishardi, unga sira tushunib bo‘lmasdi, nuql vaysagani-vaysagan. Kampir qadimiy ashulalar ni yaxshi ko‘rardi, shuning uchun u birga eshitish niyatida tez aytib kel, deb Ninkani Mironixanikiga yuborardi, ammo eski ashulalar ni kamdan kam aytishardi, ko‘proq qandaydir musiqa asboblarini ting‘illatishardi. Qadimiy, cho‘zib aytildigan ashulalar ni eshitganda kampir qanot chiqarib havoga ko‘tarilganday, keng, ravon doira olib uchib yurganday bo‘lardi, o‘zining va hamon orom topolmagan odamlar taqdiridan tashvishlanib, ko‘z yoshi qilib olardi. Ana shundan keyin kampir endi o‘lsam ham mayli, deb qo‘yardi. Uning nazarida bu ashulalar marhumning janozasida aytيلاتogандай tuyulardi, shundan keyin kampir o‘zicha o‘shalarga qo‘shilib ashula aytar, ozod

bo‘lgan ruhni kuzatib qo‘yar edi, marhumni narigi dunyoda ham mana shunaqa eski ashulalar bilan kutib olishadi, deb astoydil ishonardi.

O‘tgan yili radio buzilib qoldi, endi kampirning‘ yagona ermagi Mironixa bilan gaplashish edi.

– Nega ko‘pdan beri daraging yo‘q-a? – deb gina qildi kampir unga. – Men, borib qarachi, qayerda ekan, deb ertalab Varvarani ham jo‘natgandim. Sen esa daydi shamoldek qayoqlardadir izg‘ib yuribsan. Uyingda qachon tinchgina o‘tirasan o‘zi, a? Qani endi xudo tezroq oyog‘ingdan qoldirsaydi.

– Men shundoq ham oyoqdan qolyapman, kampirsho, – Mironixa karavotni qimirlatib, naq kampirning yuziga engashib dedi. – Mana, hozir ham yoningda o‘tiribman-u oyoqlarim qaqshab ketyapti. Necha kundan beri oyog‘im tinim bilmaydi, sigirimni qidirib yuribman. Sigirim yo‘qolib qoldi, uyga qaytib kelmayapti.

– E, shunaqa de! Men ham ertalab shuncha quloq soldim-u, ammo ovozini eshitmadim. Xo‘s, sigiring qayerda ekan?

– Qayerdaligini bilganimda shunday xunob bo‘lib o‘tirarmidim, kampirsho, bilolmay garangman. Hammayoqni qarab chiqdim, harom o‘lgurdan darak yo‘q, endi boshim qotib turibdi. To‘g‘ri, adashib qolishi birinchi marta emas-u, ammo ko‘nglim juda bezovta. Ayiq Golubevning buzog‘ini g‘ajib ketibdi, eshitmadingmi?

– Hech nimani eshitganim yo‘q, – dedi kampir shosha-pisha va qimirlab, xasta ovozini balandlatdi. – Men qayoqdan eshitay, kim ham menga aytardi? Ayiq Golubevning buzog‘ini g‘ajibdi deysanmi?

Ana, Mironixa shunday-da: tovoninggacha muzlatib yuboradigan bunday vahimali xabarlarni undan boshqa kim ham olib keladi, axir? Kampir uning yo‘liga behuda ko‘z tutmaydi, albatta bir gap topib kelishini biladi. Kampir Mironixaga shunaqangi diqqat bilan tikilib qaradiki, go‘yo Mironixaning o‘zi ayiqni Golubevning buzog‘iga gjijlaganday va hozir u buni qanday qilganini aytib beradiganday edi.

– G‘ajib ketdi, g‘ajib ketdi, – deb tasdiqladi Mironixa. – Golubev g‘unajinini kelgusi yil sigir qilib olishni mo‘ljallab yuruvdi, sigiri qarib, sutdan qolgandi. Mana, ayiq bo‘g‘izladiketdi. O‘tgan kuni Genka o‘nboshi o‘rnondan kelayotib qarasa, o‘tlar qip-qizil emish, shundoq toptab tashlanganmish, u yoq-bu yoqni qarabdi, qarasa buzoq butalar ichida, shundoq Genkaga yaqin yerda yotganmish, us-

tiga xazon uyumi yig'ib qo'yilgan mish. Ayiq buzoq qonini so'rib ichgan-u o'zini sasigani qoldirib ketgan-da, irigan go'shtni jondildan yaxshi ko'radi. Genka ko'ribdi-yu, oyog'ini qo'liga olib bu yoqqa zing'illabdi. O'ziyam uyiga uchib kelibdi-da, – Mironixa yana kampirga engashib, ovozini pastlatdi. – Aytishlaricha, Genkaning xotini eri o'rmonga kiyib ketgan ishtonni kecha kuni bilan daryoda yuvgan mish, bugun xam chayib yotgan mish, daryo etagidagi xotinlar endi suv olgani bizning qirg'oqqa kelishayotgan mish.

– Sen kulma, – dedi kampir. – Agar hozir o'zingdan to'qib-bichmagan bo'lsang, uning ustidan kulib nima qilasan? Boshingga tushsa, ko'rardik o'zingni holing ne kechardi?

– Men bo'lsam, joyimdan bir qarich ham nari jilmasdim. To ayiq yana qaytib kelguncha, joyimda qimirlamay o'tiraverardim. U buzoqqa yopishardi, men esa unga o'shqirib, «Sen, go'rso'xta, muncha Golubevning moliga ko'z olaytirmasang», deb rosa ta'zirini berardim. Ayiq menga tashlanishni xayoliga ham keltirmasdi, meni ajal quvib kelibdi deb o'ylardi. Shunday yuragini yorardimki, hech qanaqa urg'ochi ayiq ham tozalab ololmasdi.

– Sening cho'pchaklarigni eshitaverib, qulqlarim allaqachon bitib ketgan. Nega sen odamlarga o'xshab to'g'ri gapirmaysan-a? Ayiq buzoqni qayerda, qaysi joyda g'ajibdi?

– Sen, kampirsho, gapirgani o'zing qo'ymayapsanku. Gapimni bo'lmasang, hozirgacha o'n marta qayta aytgan bo'lardim. Quyi daryodan tepalikka burilib ketadigan joy esingdami?

– Nega endi esimdan chiqar ekan? Men ҳали esimni yeb qo'yanimcha yo'q.

– Ayiq buzoqqa o'sha yerda, shundoq qishloq yonida duch kelib qolibdi. Shu ketishda yaqinda ayiqlar qishloqqa ham tushib keli-shadi. Hozir taygada yegulik qolgani yo'q, o'ldirsang ham uni iniga haydab yuborolmaysan. Ana shuning uchun qishloq atrofida izg'ib yuradi-da.

– Yuradi, yuradi, – dedi kampir bosh irg'ab. – Nimasini aytasan, yuradi.

– Men bu harom o'lgur sigirimni qayerdan qidirishimni ham bilmayman. Nima balo, bir oygacha oyoqdan qolib qidirsin deb o'ylayaptimi. Shundoq ham qidiraverib adoyi tamom bo'ldim. Tirikmi-o'likmi, bilmayman... Dehqonlar qirning naryog'ida birov-

ning ikkita sigiri yuribdi deyishyapti, tepalikning u yog‘iga o‘tishga oyoq bormi menda. Shu jussamga yarasha oyoqlarim ham epchil-chaqqon bo‘lganida edi, g‘izillab borib ko‘rib kelardim. Hozir bu savil qolgur oyoqlarga ishonolmayman, nari borsa, qir etagigacha boram, keyin yana qaytib kelaveraman-da.

– Sen, oyimqiz, tepalik ortiga o‘tma. O‘sha yerda qolib ketasan, keyin men sensiz nima qilaman?

– Ha, meni sendan boshqa tashvishim yo‘q, – dedi Mironixa bo‘sh kelmay.– Men unga sigirdan gapirsam, u nuqul o‘zini tiqish-tiradi.

– Sigiring endi nima qilsang ham baribir sut bermaydi.

– E, sutini o‘ylab qayg‘uryapmanmi, kampirsho. Men sigiriñni yana bir ko‘rsam bo‘ldi, armonim yo‘q, hech bo‘lmasa uni ayiq yeb ketmaganini bilardim. Keyin esa, istaganicha yuravermaydimi.

– Voy, oyimqiz-ey, oyimqiz-ey. Shu sigir ham boshingga bir balo bo‘ldi-da, men o‘rningda bo‘lsam o‘lsam ham bunday sigirni saqlamasdim, o‘zimni qiynamasdim, jonimni halak etmasdim. Sen undan tashvishdan bo‘lak nima ko‘rding? Pichan o‘rishga odam yollaysan, olib kelishga odam yollaysan, qishda xashak yetmaydi – sotib olish kerak. Xo‘s, bundan tashqari tashvishlari ham ozmi? Mana shuning ko‘yida ertadan qora kechgacha yugurganing-yugurgan. Nima, bir etak bolang bormidi, ovqat-ovqat deydigan. Ey xudoyim-ey, agar senga sut kerak bo‘lsa, Nadyamizning oldiga kelavermaysanmi, u senga har kuni bir banka quyib bermaydimi, axir undan or-tiq icholmaysan-ku. Anavi savil qolguringni sotib, oyog‘ingni uza-tib maza qilib yotmaysanmi, agar sotsang, pul ham bo‘lardi. Men o‘rningda bo‘lganimda allaqachon tekinga berib yuborardim-u, bunday azobdan qutulib qo‘ya qolardim.

– Vo-o-oy, – deya javrashni boshladni Mironixa. – Anavini qaranglar-a. Sigirni sotarmish-u pul olmasmish-a. O‘zing ham g‘alatisan-da, sen, kampirsho, esimni tanibmanki shu sigir bilan bir-gaman, undan ayrilish osonmi? Keyin meni o‘ldi deyaver. Menga uning suti ham kerak emas, faqat og‘ilxonada ma’rab tursa bo‘ldi. Menga nima jin uribdiki, bitta sigirni eplolmasam?

– E, o‘sha sigiring bilan qo‘shmozor bo‘l, menga nima.

Ular bu haqda birinchi marta so‘zlashmayotgan edilar, shuning uchun kampir ichida Mironixaning gapiga qo‘shildi: kimki sigirga

o'rgangan bo'lsa, uningsiz turolmaydi. Innaykeyin sigirsiz xotin xotinmi? Kampirning o'zi ham so'nggi paytlargacha, qiltillab yurgan kezlarida ham mol-holga qarardi, toki endi sog'mang demagunlaricha chelakka yopishardi, shuning uchun u Mironixa bilan ham azbaroyi rashk qilib hasadi kelayotgani uchungina bahslashardi: mana, Mironixa molga qaray oladi-yu, o'zi esa yo'q. Agar Mironixa sigiridan qutulsa, u ham istasa-istamasa shu ahvolga tushadi, shunda kampir ham yengil tortadi. Kampir o'zining notavonligiga tan berib qo'ygan, shu bois unga o'ziga o'xshagan sherik kerak, kerak bo'lgandayam unaqa-bunaqasi emas, aynan ana shu qadrdoni Mironixa kerak.

Kampir Mironixaga hech nima demay, turib o'tirishga urindi va ertalabkiga qaraganda qiyalmasdan turdi, bu safar u o'ziga ishongan edi. Mironixa joyidan qimirlamadi, hatto yordam berish uchun qo'lini ham uzatmadi. Mabodo yordam beraman desa, kampir uni jerkib tashlashdan toymasligini bilardi. Endi ular yonma-yon o'tirishardi, kampir avvalgidan battarroq munkillab qolganday edi: ikki bukilib o'tirganidan kuraklari chiqib turar, go'yo hozir ularni silkitib uchib ketadiganga o'xshardi. Mironixa yon tomondan unga ko'z qirini tashladi-yu, chidab turolmay dilidagini aytdi:

- Ado bo'lib qolibsan-ku, kampirsho.
- Ado bo'ldim, – dedi kampir ming'irlab, u adoyi tamom bo'lganini yaxshi bilardi.
- Bolalaring-ku kelishdi, nima deyishyapti?
- Nima deyishardi? Meni ko'rgani kelishdi...
- Ular, chamasi, seni ko'rgani emas, ko'mgan kelishdi chog'i, kampirsho.
- Ko'mishadi-da axir, onasi bo'lgandan keyin ko'mishmaydimi,
- kampir go'yo o'ziga o'zi gapirayotgandek ko'zlarini derazadan uzmay Mironixaning gapiga xotirjamlik bilan qo'shildi.
- Gapni aylantirma! Nima, ular xudo qachon seni joningni olarkan deb kutib o'tirisharkanmi?
- Meni kutib o'tirish shart emas, – dedi kampir qandaydir bosh-qacha, taqdiriga tan bergen ohangda va Mironixaga yuzlandi. Kampir hamon yiqilib tushishdan qo'rqib, qo'llari bilan karavot chetini mah-kam ushlab olgandi. – Men ularni tutib o'tirmayman. Ularning ham uyi, ro'zg'ori bor, ularning tashvishi yolg'iz menmi axir. Nima, men tushunmas ekanmanmi. Tanchorani bir ko'rsam deyman, Tanchora

kelishi bilan men ham yo'l tadorigini ko'raman. Men osongina jon beraman, o'zim sezyapman. Rozi-rizolik tilashamiz-u keyin shunday ko'zimni yumib jon beraveraman. Tirikmi-yo'qmi, deb oldimga Varvara keladi, karasaki jon taslim qilganman, tappa-tayyorman. Keyin Varvara ularga aytadi. Faqt Tanchorani diydorini ko'rsam bo'lgani. Negadir juda hayalladi, biron gap bo'l madimikin unga. Kecha bugun keladi deyishgandi – yo'q. Keyin ertaga keladi deyishdi, yana daragi yo'q. O'zimni qo'ygani joy topolmayapman, nima deb o'ylashimni ham bilmayman.

– Sen, kampirsho, ko'p ich-etingni yeaverma, hali vaqt bor, Tanchorang ham kelib qolar. Bekorga qayg'urib nima qilasan?! Balki u yoqda samolyot uchmayotgandir. Hozirgilar hammasi samolyotda yurishadi. O'zimizda-ku uchyapti, eshityapman, qizing yashayotgan yerda esa, balki, havo yomondir, balki unga samolyot yetmagandir. Bu sen bilan men – yo'lni kesib o'tamiz-u bir-birimiznikiga kirib-chiqaveramiz, birovniyam kutmaymiz, u yoqdan esa, o'zing bilasan, yo'l olis.

– Endi ular meni ortiq kutishmaydi, – dedi yana kampir boshini chayqab. – Yo'q, yo'q, kutishmaydi. Bu dunyoda yoshimni yashadim. Yaxshi emas. Men shundoq ham bir o'lib, go'r og'zidan qaytgan odamman. Bolalar kelishdi, xudoyam bildi-yu, kimningdir umridan menga jindek qo'shib berdi, bolalarini ko'rsin, sen bilan oxirgi marta gaplashib olsin dedi. Endi joyi rostonimga ketishim kerak. Yana bir amallab bir kungina chidayman, vassalom, hozirligimni ko'raman. Vaqt-soatim yetdi. Mayli, rasm-rusmini qilib bolalar eltilib qo'yishsin, onalari uchun yig'lashsin, bekorga kelib-ketishmasin-da axir. Nima bo'lgandayam ona-da – achinishadi. Esimda, onam o'lganda shundoq o'krab yig'lovdimki, asti qo'yaverasan, axir men ham yosh emasdim, yoshim anchaga borib qolgandi. To'g'ri-da, hech qaysimiz dunyoga ustun bo'l maymiz, hammamiz ham kun kelib o'lamiz, sen, Mironixa o'lganimdan keyin ko'mishda ularga qarashib yubor. Garchi meni yomon desang ham, sen aytganchalik emasman. Axir, umrim yomonlikni bilmay o'tdi.

– Senga bir gapni aytib ham bo'l maydi.

– Gapiraver, – dedi kampir iyib. – Sira xafa bo'layotganim yo'q. Nima, sen mendan jahli chiqli deb o'layapsanmi? Biz umrimizda bir-birimizga ozmuncha qattiq-qurum gap qildikmi. Endi bir kami

sendan xafa bo'lishim qoluvdi, oyimqiz. Sen bo'lmasang men nima qillardim? Men seni kechadan beri kutib yotibman. Sen ertaga ham kel, gaplashib o'tiramiz. Qara-ya, shuncha yil yashab ko'ngildagi gaplarimizni bir-birimizga aytib ado qilolmabmiz-a. U yoqda ham sensiz juda zerikaman-da.

– Kim biladi, kampirsho, ehtimol sendan oldin o'larman.

– Gapingni qara-yu. Mendan oldin o'larmish. Sen juda ko'p gapirasan-u gapingni tuturug'i yo'q-da. Nima balo, hozir senga aytgan gaplarimni eshitmadingmi? Axir men devorga gapirayotganim yo'q-ku, senga bor gapni aytdim. Sen meni chalg'itma.

– Chalg'itayotganim yo'q seni.

– Bo'lmasa jim o'tir, men bilan tortishaverma.

– Bo'lmasa, shoshmay tur, – Mironixa o'rnidan qo'zg'alib, kampirning ustidan cho'zilib derazaga qaradi. – Men g'izillab uyg'a qarab kelay, anavi harom o'lgor balki kelgandir. Boraman-u qaytaman, sen bilan yana birpas o'tiraman. Hozircha o'zing o'tira tur.

– Borsang bora qol, yo'lingni to'smayman.

– Tag'in ko'nglingga boshqa gap kelmasin, tezda qaytaman.

– Bora qol, oyimqiz, ko'p pisanda qilaverma.

Kampir yana bir o'zi qoldi-yu, negadir ko'ngli buzilib ko'zlariga yosh keldi, ammo yoshini oqizmay, go'yo gunohdan forig' etuvchi duo o'qiganday darrov o'zini bosib oldi. Polda, kampirning shundoqqina yonida quyosh nuri jilva qilardi. Kampir oyoqlarini o'sha yerga tutdi, nur oyoqlarning ozg'inligidan qo'rqlmay, ularni silabsiyapab, qoq suyaklarni isitgach, mehri tovlanib; yana yig'lagisi keldi, nazarida u oyog'idan erib, cho'kib borayotganday edi. U dadillashib, qo'llarini karavotdan oldi, ularni bo'shatdi va bordiyu yiqilsam, oftob nuriga yiqilaman-u, uning taftidan bahra olib yotaveraman, keyin Mironixa kelib turg'azadi, deb o'yADI. Ammo u yiqilmadi va yiqilib tushishini ham unutib, derazadan tashqari-ga qaradi. Tashqarida kun charaqlab, tushga yaqinlashib qolgandi, musaffo va baland osmon kamon singari egilib turardi. Quyosh uni maftun qilib qo'ygandi, lekin aynan osmonda charaqlab turgan olovli shar emas, balki undan yerga taralayotgan nur, uni isitayotgan taft sehrlab qo'ygandi. Mana, ikki kundirki, kampir zo'r berib issiqlik va yorug'likdan boshqa yana nimanidir istardi-yu, o'sha narsaning nimaligini bilolmayotgandi. Kampir bundan tashvishlan-

masdi: bo'lishi lozim bo'lgan ish, muqarrar bo'ladi, ehtimol hali mavridi emasdир. Kampir o'layotib faqatgina bu emas, balki ko'plab boshqa sirlarni – tiriklik chog'ida voqif bo'lish mumkin bo'lмаган sinoatlarni ham bilib olishiga ishonardi; bular oxir-oqibatda unga asriy sir-asrorni – unga nima bo'lganini, keyin nima bo'lishini aytib beradi-da, axir. U bu xususda fol ochishga qo'rqlasda, har qalay keyingi yillarda quyosh, yer, o't-o'lanlar, qushlar, daraxtlar, yomg'ir va qor – xullasi kalom inson bilan yonma-yon yashayotgan, unga shodlik bag'ishlab, uni oxiratga ham tayyorlaydigan, ovuntirib, unga yordam berishga va'da etgan hamma narsalar haqida tez-tez o'ylaydigan bo'lib qolgan edi. Bularning bari o'zidan keyin ham qolishi kampirni xotirjam qilardi: ularning takrorlanuvchi, chorlovchi ovozlarini eshitish uchun faqat bu dunyoda yashash shart emas, bu ovozlar go'zallikni va e'tiqodni yo'qotib qo'ymaslik uchun mudom takrorlanaverdi, hayot va o'limga bir xilda chorlab turadi.

Shosha-pisha Mironixa kirib keldi va karavotga, kampirning yoniga gurs etib cho'kdi, o'z xayollari bilan chuqur haya jonda qolgan kampir derazadan ko'zini uzib, es-hushini yig'di-da, Mironixa ga tikildi. Mironixa qo'l siltadi, kampir Mironixa sigirini, shu ketganicha hanuzgacha qaytib kelmagan sigirini nazarda tutayotganini angladi. Mironixaning sigiri qayerdaykin, qaysi ochiq mozorda qolib ketdiykin? Kampir yo'qotib qo'ygan gapini topib olish va suhbatga shaylanish uchun shu xaqda o'yladi, Mironixa o'sha gapni hozir davom ettiradi, demak unga biron nima deb javob berish kerak.

– Bu deyman, kampirsho, mo'rchang doim shunday lapanglab turadimi? – deya gap boshladi Mironixa.

– Mo'rcha? – Kampir xayolan mo'rchasini ko'z oldiga keltirdi, ammo nega endi u lapanglashi kerak.

– Shoshib kelayotuvdim, mundoq qarasam, mo'rcha goh undoq, goh bundoq lapanglayapti, goh u yoniga, goh bu yoniga aylanyapti, – dedi Mironixa quvlik bilan. – Nima, u yerda birov yashayaptimi, biron-bir ispiditsiya<sup>1</sup> kelganmi?

– Qanaqangi ispiditsiya bo'lsin, oyimqiz, nimalar deb aljirayapsan? U yerga bolalarim kirishgandir.

<sup>1</sup> Ekspeditsiya demoqchi (*Muharrir izohi*).

- Hammasi?
- Nega hammasi bo‘larkan? Lyusya ertalabdanoq o‘rmonga ketdi. Varvara bo‘lsa, qishloqni aylangani jo‘nab qoldi. U yerda erkaklar – Ilya bilan Mixail bor.
- Kunduzi yuvinishning nima zarurati bor ekan ularga? – dedi Mironixa gapni aylantirib.
- Yuvinish?! Sen, oyimqiz, yosh bolaga o‘xshaysan, o‘lay agar! – kampirning jahli chiqdi. – Yuvinib nima qiladi, kelishganiga endi ikki kun bo‘ldi-yu. Yuvinishga-ku yuvinishmaydi-ya, ammo ichib o‘tirishibdi. Tomoqlarini yuvishyapti, tomoqlari bitib qolibdi, non o‘tmayotganmish.
- Nima, vino ichishyaptimi?
- Yo‘q, Nadya ularga bir tog‘ora suv isitib bergen, o‘shani stakanlab, yana ko‘nglixushlik uchun urishtirib ichishyapti. Shunchalik shirinligidan xursandchiliklari ichlariga sig‘mayapti. Sen bilmaysam hali: xudoyi taolo bandsiga pul bergen, shayton esa teshik. Mana shuning uchun xudo bergen pul shayton bergen teshikka qarab ketaveradi.
- U yerda seni bolalaring bo‘lishi mumkin, kampirsho, ammo bir o‘zлari emas-da. Men Stepka Xarchevnikovning ovozini ham eshitganday bo‘ldim.
- Stepka Xarchevnikovni?
- Ha, o‘shaning ovozi edi shekilli.
- E, buni nimasiga ajablanasan, oyimqiz?! Stepka biron joydan quruq qolganmidi? U ham rosa otsa kerak?
- Ha, shunaqa, kampirsho. Hozir otmaydigani kamdan kam topiladi.
- Ha, kam, kam. Qachon qarama, hammasi ko‘chada gajak bo‘lib yuradi. Bu yorug‘ olamda nimalar bo‘lyapti o‘zi-a, oyimqiz? Nega shunchalik ichisharkin-a? Ularni nima majbur qilarink? Ular o‘zlarini halok qilishyapti xolos, boshqa gap yo‘q. Xotin-qizlarchi, xotin-qizlar xam erkaklarga ergashishyapti, xudoni bergen kuni ichishadi. Ilgarigi zamonlarda hech shunaqasini ko‘rganmiding yoki eshitganmiding?
- Qo‘ysang-chi, ilgarigi zamonni gapirib nima qilamiz?
- Esingdami, Danila tegirmonchi ichardi, shuning uchun uni odam qatoriga qo‘sishmasdi, aroqxo‘r edi. Danila – aroqxo‘r de-

yishardi. Axir o'shanda faqat u ichardi-da, boshqa hech kim. Hozir bo'lsa butun qishloqda faqat Golubev ichmaydi, qizig'i endi uni ichmaydi, deb hech kim odam hisoblamaydi, ustidan kulishadi.

— Ha, kampirsho, shunday. Agar bir-ikki marta qiyin-qistovga olishganida-ku, qarabsanki, uni qultillatishdan odamlarning ham hafsalasi pir bo'lardi-ya. Hozir ularni hech kim tergamaydi, jazolamaydi. Nimani istashsa, shuni qilishyapti. Ba'zilarining ha deyishga holi yo'g'-u, xuddi savdogarlarga o'xshab ichib, aysh-ishrat qilishadi-ya. Mana, shuning uchun qishloqda tentishgani-tentishgan, kekirdagiga qaytib kelmaguncha ichishadi. O'zi oyoqda turolmaydi-yu, olib kel deyaveradi, qancha bo'lsa ham ularga baribir kam.

— E, yo'q, oyimqiz, men radiudan eshitganimda, — deb kampir radio turgan tumbochkani ko'rsatdi, — aroqxo'rлarni allada aziz, to'rvada mayiz qilishmadi, ularni maqtashmadi, qaytanga urib chiqishdi.

— Ha, maqtashsa-maqtashmasa ularga nima. Ular bunday gapso'zlarga qo'l siltab ketaverishadi, qulq solib o'tirisharmidi? Ularga nasihatning ham foydasi yo'q, ulardan talab qilish kerak, ularni tergash kerak, shunda biron naf chiqishi mumkin. O'zingnikimi, birovnikimi, yaxshimi-yomonmi, hammasini baravar tergash kerak, shundagina bular taltayib ketishmaydi.

— Gaping to'g'ri, oyimqiz, to'g'ri. Bo'lmasa ming qilganing bilan ham hech ish chiqmaydi.

— Men ham shuni aytyapman-da.

— Ilgarilari gunoh degan narsani bilishardi, endi gunoh degan narsa eslaridan ham chiqib ketgan.

— Gunohni ham unutishgan, kampirsho, sharm-hayoni ham.

— To'g'ri, sharm-hayoni ham unutishgan... — Kampir afsuslanib xo'rsinib qo'ydi-da, biroz jim qoldi. — Mana, mening o'g'lim ham shunday ichadiki, qani endi, ko'zlarim shuni ko'rmasa. Ertalab turadi-yu, naridan-beri ulfatlarini yig'adi, keyin yana boshlashadi. Keyin go'yo hech nima bo'lmaganday xaxolashib kecha ichvolib nima ish qaytarganlarini og'iz ko'pirtirib maqtanishadi. Ularga bu-kulgi. Agar ularning o'mida men bo'lsam, uyatdan yerga kirib ketgan bo'lardim.

— Ular, kampirsho, uyatdan ko'ra vinodan yerga kirishni afzal bilishadi.

– Ha, men senga bir gapni aytaymi, oyimqiz. Sen esimga sharmhayoni solding. – Kampir uzoq o‘tmishdagi hayotida yuz bergen voqeanning tanish, bo‘g‘iq aks-sadosi bo‘lgan xotiralarini esiga tus-hirib olguncha biroz tin oldi. – Bu hu o‘sha ocharchilik yili bo‘lgan edi, – deya gap boshladi kampir. – Varvara o‘shanda voyaga yet-gandi, ishlarimda yordamlashardi, dastyorim edi. Ilya ham bo‘yi cho‘zilib qolgandi – u yer-bu yerdan qornini bir amallab to‘yg‘izib yurardi, mana, shukur, sog‘-salomat. Ammo kuning ko‘p bo‘lgur Lyusya dardchil bo‘lib o‘sdi: qo‘l-oyoqlari ingichka, xuddi chillak-day, rangida qoni yo‘q, qarab turib yuraging achishib ketardi, ustiga ustak cho‘p bo‘lib ozib ketayotgandi. Unga qarash, parvarish qiliш kerak edi, ammo nima bilan? O‘sha paytlarda Minka chopqillab yurardi, Tanchora esa hali emaklardi yo yo‘lga kirganmidi – har qalay esimda yo‘q, hammasi ovqat deydi, yig‘laydi, axir ularni to‘ydirish uchun ozmuncha narsa kerakmi? Yuragim laxta-laxta qon bo‘lardi. E, bu gaplarni senga aytishim shartmi, men aytmasam ham o‘zing bilasan, ikkitasini suyagini qotirding axir... – Kampir o‘z hikoyasini to‘xtatib gapni boshqa yoqqa burdi, keyin esdan chiqarib qo‘ymaslik uchun: – Senikilar boramiz deyishmayaptimi? – deb so‘radi.

– Hech nima yozishmayapti.

– Balki xat-xabar yubormasdan kelishar?

– Bilmayman, kampirsho. Balki o‘lsam kelishar.

– Mana shuning uchun senga bular bilan qynalib ketdim deyapman-da, ey xudoyim! O‘shanda otasi kolxozdan bazaga qandaydir yuk tashirdi, uyda ahyon-ahyondä bo‘lardi. Urushda halok bo‘lgan o‘g‘lim Vitya rayonda kursda o‘qirdi, undan ham hech qanday naf yo‘q edi. Bolalar bilan yolg‘iz o‘zim edim. Bittasini tinchitsang, ikkinchisi surnayini chaladi. Xuddi aksiga olganday o‘sha yili sigirimiz ham tug‘madi, sut yo‘q, so‘yay desang, odamni ichi achiydi, keyin qandoq tirikchilik qilamiz? Bir amallab sabr qilaylik, keyin og‘zimiz oqarib qolar, deb o‘yladim. Zorkamiz kolxozda edi. Zorkamiz esingda bormi – juda yaxshi sigir edi-da, to‘qol, hali-hali ichim achiydi. Kolxozga kirmoqchi bo‘lganimizda kolxozning qo‘rasiga otasi o‘zi eltib beruvdi, o‘shanda rosa yig‘lab-siqtagandim. Ha, Zorka hovlimizni esidan chiqarmagan ekan, nuqlu uyga kelardi, men ocharchilik vaqlarida ham unga goho yuvindi berib turardim, ba’zan bir burda nonga tuz sepib berardim. U yerda shunaqa par-

varish qilisharmidi, e, nimasini aytay. Shuning uchun ocharchilikda ham nuqul hovlimizga kelardi. Ozmuncha mol bormidi axir. Jonivorlarni u yerda kechqurun sog‘ib olishardi-yu, haydab yuborishardi, buning ustiga yana pashsha-chivin talardi, mol o‘zini u yoqdan-bu yoqqa urardi, bo‘kirardi-da, dumini xoda qilib qochardi. Zorka bo‘lsa eshigimizga kelardi-yu, ma‘ragani-ma‘ragan edi. Men rahmim kelib Zorkani kiritardim. Chivinlarni haydash uchun tutatqi tutatardim, yelinini yuvardim, jonivor yelini iflos yurishini yoqtirmasdi. Bir kuni yelinini iliq suv bilan yuvdim, keyin qani qaray-chi, suti bormikin-yo‘qmikin deb sog‘ib ko‘rdim. Keyin, oyimqiz, uni har kuni sog‘a boshladim. Kolxoz qo‘rasida chala sog‘ishar ekan. U yerda oqshom sog‘ilganidan keyin men ham yana bir bankacha sog‘ib olardim. Shu bir bankaga ham xursandman, bolalarga bir ho‘plam-bir ho‘plamdan quyib beraman-u xudoga shukur qilaman. Hadeb ber-ber degandan shukur qilgan yaxshi-da.

Shu desang, oyimqiz, bir kuni yana Zorkamizning, endi bizniki emas – kolxozniki, tagida o‘tirsam eshik taraqlab qoldi. Men sigirni qo‘rada sog‘ardim, shuning uchun eshikni yopib qo‘yardim. O‘girilib qarasam – Lyusya. Ko‘zlar yeb qo‘ygudek menga tikilib turibdi. Nigohi u yoq-bu yog‘imdan teshib o‘tib ketdi. Axir aqli kirib qolgan qiz edi-da, Zorka endi bizniki emasligini yaxshi bilardi. O‘tiribman-u turishga yurak qani endi – qotib qoldim. E xudoyo xudovando, nega meni vaqtida to‘xtatmading, bиринчи мarta shunaqa qilganimda nega jonimni ola qolmading, deb o‘yladim. Shunday o‘sال bo‘ldim, shunday o‘sال bo‘ldimki – qo‘llarim shalvirab osilib qoldi. Ana shunday qilib, oyimqiz, gunohkor bo‘ldim-qoldim, anchagacha Lyusyaning ko‘zlariga qarayolmay yurdim. Hozir ham esida bormikin-yo‘qmikin deb o‘ylayman. Nazarimda esidan chiqmagan, haliyam meni aybla-yotgandek tuyuladi. Qishloqdan ketib qolishiga ham bir tarafdan balki shu sababdir.

– Aljirama, kampirsho. Qayoqdanam esida turardi? U paytda bola edi.

– Bola bo‘lsa ham xotira bor-ku. O‘rnashib qolsa, tamom.

– Xo‘sh, esidan chiqmagan bo‘lsa nima bo‘pti? Nima sen Zorka-ning faqat yelinini yuvib yuboraversang-u qizing ochidan o‘lib ketsa yaxshi bo‘larmidi? O‘shanda ozmuncha bola juvonmarg bo‘ldimi? Sen esa bolalaringni asrab qolding.

– Ochidan o'lsa bo'lmasdi, albatta, ammo bu ishim ham chakki edi-da. Isnod! Uni yuvib bo'larkanmi, umrim bino bo'lib o'g'rilik ni-maligini bilmovdim, bu esa o'g'rilikdan ham battar bo'ldi.

– Betimning qattiqligi, kampirsho, jonimning huzuri. Bo'ldi endi. Hadeb shuni vaysayverma – zap gapni topibsan-da o'zing ham.

Kampir itoatkorlik bilan jim bo'ldi, hayajonini bosdi va horg'inlik bilan karavotga yonboshladi, boshini yostiqqa qo'ydi, yotib olgandan keyin oyog'ini yig'ishtirdi. Mironixa unga yaqinroq surilib, yana de-razadan qaradi.

– Ha, ko'rinxmayaptimi? – so'radi kampir.

– Ko'rinxmayapti. Agar kelsa, bu harom o'lurning suyak-larini mayda-mayda qilaman. Nima, u meni jonim toshdan deb o'ylayaptimi?

– Sen uni, oyimqiz, hali kelmay turib o'takasini yormagin-da. Balki sendan qo'rqqanidan ham kelmayotgandir.

– Men bu savil qolgurga qo'rqishni ko'rsatib qo'yaman. O'rmonda ayiqdan qo'rqlas ekan-u mendan qo'rqlarmishmi. Agar shu safar ham ayiq yeb ketmagan bo'lsa, xudoning qaytib bergani shu bo'ladi. O'shani deb adoyi tamom bo'ldim.

Kampir Mironixaning oxirgi so'zlarini ilib oldi:

– Xo'sh, nega adoyi tamom bo'larkansan? Mana, meni shunaqa desa bo'ladi, yotibman keraksiz matohday.

– Aljirama, kampirsho.

– Mana, sen ko'chalarni maza qilib aylanib kelding. Men bo'lsam qanchadan beri ko'cha betini ko'rganim yo'q. Bir joyda yotganim-yotgan. – Kampir Mironixaga qaramay gapida davom etdi: – Sen bilan biz uzoq yashadik, oyimqiz...

– Bu nima deganing?

– Bu shu deganimki, oyimqiz, shuncha yashashimizning nima keragi bor edi? Avvalroq o'lib ketganimizda juda yaxshi bo'lardi. Sen hozir sarson bo'lib sigiringni qidirib yurmasding, men esa manavi yerda eshik tiq etarmikan deya ko'zlarim to'rt bo'lib yotmasdim. Ishqilib Mironixa ketib qolmasin-da, yana zerikib o'laman deb qayg'urmasdim. Seni menga xudoning o'zi yetkazdi, Mironixa. Ha, ha. Sen bo'lmasang qanday kun ko'rardim-a?

Kampir ko'zlarini yumdi va o'z gapini ma'qullagandek bosh irg'ab qo'ydi. U ko'zlarini yumgancha olamdag'i barcha narsalarni

unutgandek bo'ldi, o'zi bilan o'zi bo'lib qoldi. Kampir pinakka ketgan, dardni daf etuvchi orom qo'ynida yo orom olib mudrayotgandi. Mironixa unga tikilib o'tirarkan, qani endi men ham kampir bilan birga o'laqolsam, orqasida qolmasam juda yaxshi bo'lardi-da, deb xayol qilardi. Mironixa anchaga dovur – to Varvara kelmagunicha kampirning yonidan jilmadi.

## 8

– Aytib ber, Stepan, qaynonangni qanday aldaganingni aytib ber, – deb qistalang qilardi Mixail baland bo'yli, oq-sariqdan kelgan Stepan Xarchevnikovni avrarkan. Stepan hammomda Mixail va Ilya bilan ichib, ulfatchilik qilib o'tirgan edi. – Ilyaga aytib ber, u eshitgani yo'q, – dedi Mixail yana kulgisini zo'rg'a bosib. – Qani, Stepan, boshla.

Stepan tufayli yangi shisha ochishdi. Gazak masalasi endi muammo emasdi. Mixail endi na xotini-yu na shaytondan qo'rqardi, u uya ikki marta borib keldi, hatto sho'rva ham keltirdi uni qoshiqsiz, kastryulka chetidan ho'plab icha boshlashdi. U Ninka un ichiga yashirib qo'yan shishalarni ham olib keldi va ularni o'tin taxlaganday pechka ichiga terib qo'ydi, aroqni pechka ichidan qidirish kimning ham xayoliga keladi deysiz, yashikni esa ostiga qo'yib o'tirib oldi. U hamon oyoq yalang edi, shuning uchun ham oyoqlarini kechasi Ilya yopgan ko'rpa ostiga tiqqan edi. Endi kosagulllik qilishni Ilya qo'liga olib, davraga bosh-qosh bo'lib o'tirardi.

– Bo'la qol, Stepan, aytib ber, – deb qistadi yana Mixail.

– Men Ilya kelibdi deyishganini eshitib qoldim, – dedi Stepan bu yerga kelishiga sabab bo'lgan vajni yana takrorlab, qolaversa u Ilya bilan ichishga ham ulgurgandi. – Ilyani bir ko'rib kelay dedim. Tengqurmiz axir, qishloq ko'chalarini changitib, to'polon qilib yurardik. – Stepan Ilyani ko'rmasam sira bo'lmasdi degandek qo'llarini yozib yubordi. Ovozi zo'rg'a chiqayotganidan u aytmoqchi bo'lgan gaplarini qo'l harakatlari bilan tushuntirishga urinardi. – Shuning uchun kelaverdim, ammo o'tib ketishimga sal qoldi. Men axir, to'g'ri uya o'tib ketayotuvdim-da, hammonga qaramovdim. Nodon odammiz-da, so'nggi daqiqada qani bir qaray-chi, bu yerda qanaqa yig'in bo'layotgan ekan, deb bosh suqqandim.

— Kelib juda to‘g‘ri qilibsan, — uning gapini ma’qulladi Ilya. — Bizni, o‘zing bilasan, onamiz kasal yotibdi, uni tashlab ketolmaymiz. Shuning uchun onamizga biron kor-hol bo‘lsa yonida bo‘laylik deb shu yerga joylashib oldik.

— Ha, Stepan, kelib juda to‘g‘ri ish qilgansan, — deya akasining gapini tasdiqladi Mixail. — Ichuvdik, yana ichamiz. Sen g‘am yema, ichadigan narsamiz bor, ana, pechka to‘la. Hammasi mana shunaqa zo‘r, oqidan.

— Menimcha senga shunisi ham yetarli, — dedi Stepan Mixailga qarab. — Kayfing oshib qolmasin tag‘in.

— Yo‘q, Stepan, nega unaqa deysan? Sen kelding, seni mehmon sifatida kutib oldim. Sen akam Ilyaning o‘rtog‘isan, menga ham o‘rtoqdaysan, bir qishloqda turamiz. Sen bilan sira san-manga bormaganmiz, sirayam, aksincha, hatto birga ichganmiz. Sen bo‘lsang, menga o‘rinsiz gap qilyapsan. Men mast bo‘lib qoldi deb o‘ylayapsan chog‘i. Yo‘q, Stepan, men hali ichaman, me‘yorimni esa yaxshi bilaman. Xohlasam, me‘yordan ham ortiq ichaveraman. Mana, sizlar uchrashdinglar, sizlar bilan o‘tirish, gurunglashish men uchun juda qiziq. Sen bo‘lsang, meni yotqizib, allalamoqchi bo‘lyapsan. Go‘yo men sizlar bilan o‘tira olmaydiganday.

— E, o‘tiraver, o‘tiraver. Bu yerda xo‘jayin — sen, men nima ham deya olardim?

— Sen, Stepan, yaxshisi qaynonangni qanday qilib boplaganingni aytib bersang, zo‘r bo‘lardi, — deb Mixail yana eslab qoldi. — Ya‘ni, qaynonang Lizaveta xolani qanday aldaganningni ayt.

— E, nimasini aytaman? Deyarli butun qishloq biladi-ku!

— Qishloq bilsa bilar, ammo akam Ilya bilmaydi. U shahardan keldi, unga aytib ber,

— AytSAM aytaveraman-da, tilimga tirsak chiqarmidi, — dedi Stepan go‘yo malol kelib, istar-istamas rozi bo‘lganday, so‘ng ku-tilmaganda Ilyaga qarab xushchaqchaqlik bilan ko‘z qisib qo‘ydi: — Bo‘lmasa, quloq sol, Ilya.

— Qulog‘im senda, bolayver.

— O‘zi-ku aytishga arziguyligap ham yo‘q. Bilmayman, odamlarga buning nimasi qiziq ekan. Oddiy bir voqeada, turmush bo‘lgandan keyin shunaqa gaplar bo‘lmaydi deysanmi. Xullas, bu voqeа yozda bo‘lgan edi. Bir kuni Genka Suslov bilan mana shunaqa ichdik,

ammo hammomda emas, yo‘q, uning polizida, xotini uni kartoshka-ni chopiq qilgani yuborgan ekan. Biz bo‘lsak, uvatga o‘tirib oldig-u «chopiq»ni boshladik. Ichkilikni men olib borgandim, qishda undan pichan oluvdim, qarzim bor edi. Pul bersam, baribir olmaydi, yaxshisi, ikkita yarimta elta qolay deb o‘yladim. Olib bordim, uyidagilar Genka polizda, deyishdi. Polizda bo‘lsa polizda-da, menga nima farqi bor. O‘sha yoqqa bordim. Genka yarimtani ko‘rdi-yu, chopqining sopini yerga sanchdi. Ularni nima maqsadda olib borganimni darrov tushundi. Albatta-da, kartoshka chopgan yaxshimi yo ichgan? – Stepan qo‘llarini kerib siltadi-da, endi huzur qilib so‘zlay boshladi. – Xo‘sh, so‘ng o‘tirdik. Qo‘shnining o‘g‘ilchasini stakanga yubordik. Genka pushtadan bodring tugunchaklaridan uzib cho‘ntagiga soldi, so‘ng yana uzildi, xullas, hamma narsa taxt. O‘tiribmiz-u stakan koptokday qo‘ldan-qo‘lga borib kelyapti. Nodon odamlarmiz-da. Nodon odamlarmiz-u, ammo mazza qilib o‘tiribmiz. Men-ku uydan astoydil ichaman deb chiqqanman, ammo Genka, kartoshka chopiqqa kelgan, uning maqsadi boshqa edi. Xayr, mayli, kartoshka degani qochib ketmaydi. Yana shishaga zo‘r berdik. Bir mahal Genka: «Bo‘lmasa men yana ozgina chopib qo‘yay, ertaga xotin yana qarg‘anib yurmasin, keyin qishloqqa ketamiz», deb qoldi. Xo‘p, bo‘pti, chopaver, men tomosha qilaman, dedim. U esa yana: «Sen bekor o‘tirgandan ko‘ra yaxshisi yantoqlarni uvatga tashib tur, ishimiz tez bitadi», dedi. O‘rnimdan turib qarasam, Genka tushmagur kayfda yantoqni kartoshkadan ajratolmay qolibdi. Hammasini yoppasiga chopib ketyapti. Men unga: «Bu ishing uchun xotining ertaga nafaqat qarg‘anadi, balki sochingni bittalab yuladi», dedim. Harqalay «Yur, qishloqqa ketamiz, kechroq, issiq pasaygandan keyin choparman», deya gapimga ko‘ndi. Keyin ketdik, cho‘ntagimda pul bor edi... – Stepan gapi ni yo‘qotib qo‘ygan odamdek biroz chaynaldi-da, so‘ng huzurlanib dedi: – Rosti, keyin nima qilganimiz esimda yo‘q.

– Shunaqasiyam bo‘ladi, – deya boshini silkitib tasdiqladi Mixail sho‘x kularkan. – Bu o‘zi shunaqa ish. Sen u yog‘ini, keyin nima bo‘lganini ayt. Sen esa, Ilya, bu yog‘ini eshit.

– Keyin nima bo‘lardi? Nima bo‘lgani ma’lum, xuddi atom bom-basi tushgandan keyin turgan odamday uyg‘ondim, hali ko‘zimni ochganim yo‘g‘-u miyamda bu qanaqa kun, biz Genka bilan kartoshka chopgan o‘sha kunmi yo boshqa kunmi, qayerda yotibman, uyda-

imi yo boshqa joydami deb o'layman. Hay, mayli. Sekin ko'zimni ochdim, xotinim yonimda yotibdi. Uni darrov tanidim. Boshqa karavotda bolalar – ular ham meniki. Narigi burchakdan qaynonam yeb qo'ygudek bo'lib tikilib turibdi-ku. U yoq-bu yoqqqa qaradim-u, turmasam bo'lmaydi, deb o'yladim. Sal qimirlashimni bilaman, qaynonam pechka ustidan xuddi mushukday sakrab tushdi. Men unga e'tibor bermay o'rnimdan tura boshladim, nima maqsadda u men dan oldin turganini keyin fahmlab qoldim. Bu zaharli ilon, menga bir yomonlik qilmasa kuni o'tmaydi, ikkovimiz o'rtamizda tanishganimizning ilk kunidanoq partizanlar urushi boshlangan. Agar qo'yib bersam allaqachon boshimni bolta bilan chopib tashlardi-yu, bir tuki ham qilt etmasdi. Juda johil-da.

O'rnimdan turdim-u qani, borib bilay-chi, kechadan beri holi nima kechdiykin, deb Genkaniga ketdim. Genkaning xotini meni darvoza oldida kutib oldi va hali og'iz ochmasimdan Genka yo'q, dedi. Sezib turibman, yolg'on gapiryapti, tezroq qaytib ketishimni kutib turibdi. Ha, o'sha Genkang bilan qo'shmozor bo'l, menga nima! O'ziga qiyin. U boshog'rig'iga seni yutarmidi, buni tushunish kerak-da, dedim.

– Sen unga judyam to'g'ri aytibsan, Stepan, – dedi Mixail hayratlanib. – Juda to'g'ri. Yashavor...

– Keyin Petka Sorokinning oldiga kirdim, u o'zini umrida ichmaganlikka soldi. «Yo'q, – dedi, – buning ustiga pul ham yo'q». Go'yo men unga bermaganday. So'ng uyga qaytishga to'g'ri keldi. Yerto'laning qayeridadir samogon borligini bilardim. Xotin ishda, uyda faqat qaynonam bo'lishi mumkin. Uyga keldim, qarasam, taxmin qilganimday qaynonam yo'lni to'sib eshik oldiga kursi qo'yib tanda quribdi: charxni qo'yib, bir qop bo'lib ip yigiryapti. Qaynonam maqsadimni oldinroq payqagan ekan. U faqat menga yomonlik qilish uchun bu dunyoda yuribdi-da, bundan boshqa qiladigan ishi yo'q uni. Xo'p, mayli, qachondir o'rningdan qo'zg'alasan-ku baribir, ishqilib yerto'laga tushib olsam bo'lgani, keyin meni u yer dan ko'tarma kran bilan ham olib chiqolmaysan, dedim ichimda. Sir boy bermadim, u quvlik qilsa, men ham quvlik qildim. Ko'chaga chiqib kuta boshladim. Qancha kutish mumkin, axir? Boshim bo'lsa tars yorilay deyapti. Qani, qachongacha jig'imga tegarkinsan, deb o'yladim. Sekin yoniga kirdim – qoqqan qoziqday o'tiribdi. Men

unga muloyimlik bilan: «Xo'sh, qaynonajon, axir bu yigirganingiz-yigirgan, charchab ham qolgandirsiz, biron yerga borib aylanib, dam olib kelsangiz-chi», dedim. U bo'lsa qo'pollik bilan: «Menga shu yer ham yaxshi», dedi. Ichimda, qani endi basharangga tortib yuborsam, bundan ham yaxshi bo'lardi-ya, dedim. Nimayam qila olarding endi? Shu yerda o'lsa o'ladiki, ketmaydi, bu aniq. Charx-parxi bilan ko'tarib, boshqa joyga olib borib qo'yay desam, shunday dod-voy qiladiki, xuddi men uni bo'g'izlayotganday, bordi-yu biron yeriga qattiqroq tegib ketsang, javobgar ham bo'lasan. Bo'pti, o'tirsang o'tiraver, qimirlamay o'tiraver, sen shunaqa o'laksasan, dedim ichimda, – Stepan zardasi qaynab olachipor barmog'ini polga niqtab po'pisa qildi. – Nochor ahvolda turar ekanman, kallamga yarq etib ajoyib fikr keldi. E, yo'q, men ham anoyi emasman dedim. Bir kami seni nog'orangga o'ynashim qoluvdimi dedim. Omborxonadan bel-kurakni oldim-da, Ivannikiga jo'nadim. Bizni uyimiz baraksimon, o'zing bilasan, yarmida men turaman, ikkinchi yarmida Ivan. Yerto'lamiz ham shunday, mening yerto'lamni orqasi uniki, o'rtadagi devori yupqa, omonat, sal mustahkamroq bo'lsin deb o'tgan yili taxta ham qoqib qo'yuvdim, bo'lmasa butunlay nurab ketuvdi. Xo'sh desang, Ivannikiga bordim, shu tomondan devorni ko'rib qo'yay deb bahona qildim-u yerto'lasiga tushdim. Devor yupqa emasmi – ikki marta bel uruvdim, ochildi-ko'ydi. O'sha yerdan o'zimizning yerto'lamizga o'tdim, xuddi shu yerdal turgandayman. U yoq-bu yog'imni qoqib, atrofga qaradim, qarasam, shishadagi «darmondorim» joyginasida turibdi. Buning ustiga gazak ham bor, men ga tag'in nima kerak? Yuqoriga qulqoq solsam, qaynonam pishillab o'tiribdi. Ichimda, o'tiraver, o'tiraver, hozir seni boplayman, dedim. Lekin shoshilmadim... – kayfi chog' Stepan nima deyisharkin degandek ko'zini qisdi. – Keyin shu yerto'lada o'tirib «Vodiylardan, adirlardan...» deb ashulani boshlaganimni bilaman, qaynonam aqlidan ozishiga sal qoldi. Shu degin, uchdi-ko'ndi, yo'q bo'ldi-qoldi. Faqat charxning taraqlaganini eshitib qoldim.

Ilya sinchkovlik bilan Stepanga tikilib qararkan, kulib yubordi, keyin u darrov Stepanning gapiga ishonmaganidan emas, balki o'zi ham, Stepan ham huzur qilishi, Stepanning yerto'laga o'tishidek ajib manzarani yanada yaxshiroq tasavvur qilish uchun so'radi:

– O'sha yerdal ichdingmi?

— O'sha yerda, o'sha yerda, — dedi Mixail mammunlik bilan Stepanning o'rniga, bu voqeal Ilyaga yoqib tushganidan suyunib. — Vaysaqi kampir yuqorida poylab o'tiravergan, bu esa pastda, mu-shukdek abjirlik bilan bir yerto'ladan ikkinchisiga o'tgan. Keyin rosa miriqsan. O'zi shunday bo'lishi kerak edi. Mana shuning uchun ham Stepanni juda hurmat qilaman-da.

— Unda nega ashula aytding?

— Shunday, o'zim, — dedi og'zi qulog'ida Stepan mug'ambirona kulib. — Nodon kampirni qo'rqtib bir maza qilay dedim-da. Shu yoshga yetib u hali yerto'lada aytilgan ashulani eshitmagan-da.

— Sizlarga gap yo'q, — hayratlanib, havasi kelib boshini chayqadi Ilya, so'ng kulib yubordi. — Ha, bo'sh kelmaysizlar.

— Axir, bir amallab yashash kerak-da. Mana shunday qilib yashab yuribmiz. Turmushimiz rang-barang bo'lsin deymiz-da.

— Keyin, yerto'ladan chiqqaningedan keyin qaynonang nima dedi? — deb so'radi Ilya.

— Keyin nima derdi? Keyin nima desa deyavermaydimi?!

— Xotining ham hech nima demadimi?

— Men-chi, Ilya, xotinimga qattiqxo'lman, uni o'z mayliga qo'yib qo'ymaganman. Xotinim bunga ko'nikib qolgan, u uyqusida ham o'zining xotin ekanini, men esa erkak ekanimni esidan chiqarmaydi. Erkak erkak-da, u bir pog'ona balandda yurishi kerak. — Stepan o'z gaplariga o'zi mahliyo bo'lib, ochilib-sochilib, uzundan-uzoq gapirdi. — Yolg'on gapirib nima qilaman, goho-goho u ham vaysaydi, albatta. Ha, ovozi chiqib qoladi, ayniqsa, o'zingdan qolar gap yo'q, mana shu ichkilik xususida. Ba'zan er-talabdan, hali uyg'onmasimdanoq boshlaydi, agar ko'zlarim yumuq bo'lsa, qulog'imga shang'illaydi, shunday shang'illaydi, shunday shang'illaydiki, xuddi «qo'lingni ko'tar!» deganday bo'ladi. Ha, endi men ham bu xususda erkakchasiga javob qaytaraman, albatta. Men unga adi-badi qilib o'tirmaslik uchun tushunarli ohangda aytaman, keyin yana hammasi iziga tushadi.

— Yo'q, Stepan, — dedi Mixail so'zlarni qiynalib talaffuz qilarkan, ulfatining gapiga qo'shilmasdan. — Xotin xotinligidan tashqari yana ayol-da. Uni urib bo'lmaydi. Sening xotiningmi, mening xotinimmi baribir u, bundan tashqari, seniki bo'lsa ham, meniki bo'lsa ham kamiga yana davlat a-yo-li. U sudga berishi mumkin.

– Nima, men senga urish kerak deyapmanmi? – dedi ensasi qotib Stepan. – Sen, Mixail, meni tushunmabsan. Urib nima qilasan? Urish – bu eng so‘nggi chora. Otishday gap. Agar xotin menga hurmatini bilib muomala qilsa, men ham unga shunday muomala qilaman. Har qalay, men ham davlat odami, qandaydir bir ibtidoiy emasman. Biz er-xotin davlatimizning odami hisoblanamiz.

– Sen bu gapni juda to‘g‘ri aytding. Sen shunday deganingdan keyin, men bu gapingga yuz foiz qo‘shilaman.

– Men, Mixail, sen bilan bizning xotinimiz davlat himoyasida ekanini, bular ayol ekanini tushunaman. Buni menga gapirib nima qilasan. Meni ham uncha-muncha savodim bor, gazeta olaman, o‘qiymen.

– Bilaman, sen o‘qiysan, Stepan, o‘qiysan.

– Men uchta gazeta olaman, – dedi Stepan Ilyaga qarab. Ilya esa zerikib bosh irg‘ab qo‘ydi. – Bitta kichik, rayonimizniki, ikkita katta – bittasi viloyatniki, bittasi markaziy gazeta – «Pravda». Hammasini o‘qib chiqaman. Qog‘oz o‘rnida, xo‘jalik ehtiyoji uchun gazetaga obuna bo‘lganlar ham bor, ammo men boshidan to oxirigacha o‘qib chiqmasam, uydagilardan birontasi hatto qo‘l ham tekkizolmaydi. Markaziy «Pravda»ni uzluksiz, har kuni chiqarishadi, men xalqaro va ichki ahvoldan xabardor bo‘lib turish uchun, erinmay o‘qib chiqaman. Qayerda qanday hokimiyat to‘ntarishi bo‘lganini yoki mehnatkashlar ish tashlashganini bilaman.

– Sen bu gapni juda to‘g‘ri gapirding, – tili zo‘rg‘a kalimaga keilib g‘o‘ldiradi Mixail. – To‘ntarishlar ham bo‘ladi, ish tashlashlar ham. Men ham bilaman. Bizning mamlakatimizda esa xotin, xotin bo‘lishidan tashqari, baribir ayol. Uni xotin deb atash ham uncha yaxshi emas. Bu uni, he onangni deb so‘kkanday eshitiladi, bu unga nisbatan hur-mat-siz-lik! – Mixail adashib ketmaslik uchun qiyin so‘zlarni bo‘lib-bo‘lib, to‘xtab-to‘xtab aytardi. – Shuning uchun sen, Stepan, anavi mamlakatlar bilan o‘zimizning mamlakatimizni chal-kashtirib yuborma. Sen bilan biz o‘z mamlakatimizda yashayapmiz.

– Men boshqa mamlakatdami deb o‘ylabman.

– Yo‘q, yo‘q, Stepan, chalkashtirma.

Stepan Ilyaga ko‘zi bilan Mixailni ko‘rsatib, yetib keldi, nima deyayotganini o‘zi ham bilmay g‘o‘ldirayapti, degan ma’noda imladi. Mixail g‘o‘ldiray-g‘o‘ldiray boshi borgan sari engashib tizza-

siga tegib qoldi. Stepan bilan Ilya uni indamay kuzatib o'tirishdi. Mixailning ovozi butkul o'chib, tinchib qolgachgina uni o'ringa qopday yotqizib qo'yishdi. So'ng Stepan engashib, shishada qolgan aroqqa tikildi. Uning vijdoni oxirigacha ichib tugatilmagan shisha oldida «qiyinala» boshladni, uning uchun bu go'yo chalajon hayvonning qiyinalishini tomosha qilib turishday bir gap edi, modomiki o'ldirishga jazm etdingmi, bir zarba bilan o'ldir, cho'zib o'tirma. Stepan sho'rlik shishani tahqirlamaylik deya shama qilish uchun Ilyanining nigohini tutishga urindi, ammo Ilya boshqa tomonga qarab o'tirardi.

Ilya ham aroqdan, ham suhbatdan ancha charchab, bo'shashib qolgan edi, ammo Mixailga nisbatan o'zini tetik tutardi. Ichishni to'xtatish lozim bo'lgan o'sha muhim, kerakli fursat allaqachon o'tib ketgandi, endi bu to'g'rida afsuslanishning hojati yo'q edi. Xo'sh, endi nima qilmoq kerak? Ilya Stepan kelmasidan oldin onasining oldiga kirgan edi, onasi mudrab yotardi, shuning uchun uning kirgani ni eshitmadi yoki o'zini eshitmaganlikka soldi, balki zimdan o'g'lini kuzatgandir. Ilya onasi bilan gaplashmaganiga xursand bo'ldi, chunki unga ayni paytda nima deyishni bilmasdi: u og'ziga kelganini valdiraydigan darajada mast emasdi. Go'yo aroq unga ta'sir qilmaganday edi, faqat ta'siri keyinroq – ertaga, indinga bo'ladigan lohaslikka yana lohaslik qo'shganda bilinadi. Stepan kelgandan keyin suyunib, ancha jonlangandi. Ammo dastlabki uchrashuv paytida so'raladigani so'ralib, javob beriladigani javob berilib, gap hali xotiralarga borib taqalmay turib, yana lattaday bo'shashdi-qoldi, o'zini majburlab, atrofida bo'layotgan ishlarni kuzatardi, u go'yo shu odamlar bilan, shu jumladan Stepan bilan ham ko'pdan beri o'tirganday, shunchalik ko'pki, bir-birining joniga tekkaniday edi. U hozir jon-jon deb uxlashga tayyor edi-yu, ammo Stepanning oldida ukasining ko'yiga tushib o'tirishni istamasdi, shuning uchun zo'r lab bo'lsa ham o'zini tutishga harakat qilardi.

Tushdan keyin quyosh yon tomonga o'tdi-da, mo'rchaning choq-qina derazasidan mo'ralay boshladni, shuning uchun ichkari birpasda isib, dim bo'lib ketdi. Hech nima – tovuq ham, it ham, odam ham kirmasin deb eshikni yopib qo'yishgandi, shu bois issiqqa chidashga to'g'ri kelardi. Stepan terlab ketdi, Ilyanining yaltiroq boshini ham mayda ter rezalari bosdi, faqat Mixailga hozir jazirama issiqmi yoki qahraton sovuqmi, baribir edi.

Stepan Mixail ikkovi o‘rtasida o‘tgan gapni eslab, ranjigandek to‘ng‘illay boshladi:

– Agar Mixailning aytganlari amalga oshadigan bo‘lsa, ayollar xotinlikdan chiqib ketadi. Axir u bilan faqat kinoga borish emas, u bilan yashash ham kerak. Masalan, men uchun hayotda ko‘proq xotin ma’qul. Qo‘lidan hamma ish keladi, erim qachon ishdan keladi-yu, menga bir chelak suv keltirib beradi, deb kutib o‘tirmaydi. Hammasini o‘zi bajaraveradi. Kam-ko‘stga chidaydi, har narsaga xarxa-sha qilavermaydi, turmushda nimalar bo‘lmaydi deysan, nega endi ro‘zg‘ordagi gap-so‘zni butun qishloq, shaharda bo‘lsa, butun shahar bilishi kerak? «Men – ayolman, men – ayolman», deb ayyuhan-nos solsinmi? – zaharxanda kuldilari u. – Ha, erkak emassan, ko‘rinib turibdi. Nima, buning uchun endi seni qo‘lda ko‘tarib yurish-u bo-shingni silab-siypalash kerakmi? Sen avval qo‘lda ko‘tarib yurishga arziyidigan ish qilib qo‘ygin-da, keyin haqingni talab qilgin. Sen ham oddiy odamsan-da, faqat jinsing boshqa, tanamizdagagi farqimiz hatto burgaga ham ma‘lum, buning uchun dod-voy solib yurishning sira hojati yo‘q. O‘shalarsiz kuminiz o‘tmaydi, albatta, bunga hech kim bahslashmaydi, hayot o‘zi shunday yaratilgan. Xo‘sh, xotinlar-chi, ular bizsiz yashay olisharmikan? Har holda bizga qaraganda ularga qiyinroq. Xo‘sh, Ilya, sen nima deysan bunga? Men bizsiz yashash ularga qiyinroq deyapman. Ikkinchidan, erkakning xotinidan tashqari bo‘sh qolgan vaqtida qiladigan boshqa ishi, ermagi ham bor, xotinda esa yo‘q deyaver.

– Ha, to‘g‘ri, – qisqa javob qildi Ilya. Lekin erkakning ayolga muhtoj bo‘lishidan ko‘ra ayolning erkakka ko‘proq muhtoj bo‘lishi to‘g‘risidagi fikr ko‘ngliga yoqib, uni ancha tetiklashtirdi, hali hech kim bilmagan ajoyib fikr miyasiga kelgan kishidek Ilyaning yuzida ayyorlik, quvlik ifodasi paydo bo‘ldi.

Stepan shishaga ko‘z qirini tashlab, erkakning bekor qolgan paytdagi eng muhim ishi, hali aytib o‘tganimdek, mana shu, degandek imo qilib gapini davom ettirdi.

– O‘tgan yili yozda shaharga bordim. O‘sha yerda ayollarni rosa miriqib tomosha qildim. Chindan ham qayoqqa qarasang ayol, keyin men prujina bilan emas, o‘z oyog‘i bilan yuradigan, ko‘rsang ko‘zing quvnaydigan haqiqiy xotin bormikan deb razm soldim. Xayriyatki bor ekan. Bo‘lmasa yaqinda biz ularni qadim zamonlardagi mamont-

lar izlarini qidirganday qidirishga tushardik. Qarasam, bittasi kel-yapti. O'shang aqarab, ha, buning onasi ham haqiqiy xotin bo'lgan, deb qo'ydym, chunki boshqa ayollar, ayniqsa yoshroqlari, hammasi orqasi burab qo'yiladigan qo'g'irchoqdek gap, bir-biriga shunchalik o'xshaydiki, qayeri qanaqaligini ham ajratib ololmaysan. Ularni onalar tug'ishmagan, fabrikada yasalgan...

– DAST bo'yicha, – deb gap qistirdi Ilya.

– Nima deding?

– DAST bo'yicha, davlat standarti bo'yicha deyapman.

– Ha, shunaqa, xuddi o'zi, faqat ba'zilari bejirim-u ba'zilari mundayroq, boshqa hech qanday farqi yo'q. Yurganda ham, mana men qanaqaman, bir ko'rib qo'yinglar, degandek sollana-sollana yurishadi. Mana, mening oyoqlarim, bunisi o'ng, bunisi chap, go'yo uniki oyog'-u boshqalarniki esa qo'litiqtayoq. Mana, mening quymichim, u yon-bu yon, u yon-bu yonga borib kelaveradi, ko'rdingmi qanday chiroqli, bu narsa nima uchun ato etilganini go'yo hech kim bilmaydigandek. Uning quymichini aslida berkitish kerak, u esa namoyish qilayotganiga xursand. Mana men boshimga qancha soch qo'ndirib oldim, ko'zimga qaranglar, chiroqli-a, ro'paramda turganlaring bilan men sizlarni ko'rmayman, sizlar esa menga qaranglar, tomosha qilib qolinglar deb turadi. Uning uchun yashashdan maqsad ham o'zini ko'z-ko'z qilishdan iborat. Odamlar ko'zidan pana bo'lgan paytda yurish-turishi qandayligini bilmayman, albatta. Sal narsagayam, voy, asabim, asablarim chatoq desa kerak hoynahoy, uning qo'llari ham asab, oyoqlari ham asab, o'sha oyoqlari o'sib. ehiqqan yeri ham, hammayog'i asab. Bundaylarga zinhor og'iz och'a ko'rma – baloga qolasan. Bojamnikida to'rt kun yotdim, uning ham xotini shunaqaroq ayol. Bojam xotinining ko'ngliga sal yoqmaydigan ish qilib qo'ysa bas, ayoli darrov kasalxonaga yotib oladi. Mening borimda har kuni ertalab kasalxonaga chopardi. Men qiziqib qayering og'riydi deb so'radim. «Asablarim charchagan», deydi. «Charchagani-ku aniq, xo'p qayering og'riydi?» deb so'radim. «Umumiy quvvatsizlik, siz buni tushunmaysiz», deydi. Men qayoqdan tushunay... Hech qanaqa quvvatsizlik emas, erkalanib ketgan xolos. Aytarli ishi yo'q, nozfiroq, eriga injiqlik qiladi. Ayollar mana shunaqa. Gap ularning ayol, ayol emasligida emas, gap shundaki, qo'llaridan hech ish kelmaydi. Mehnat qilishga o'rganishmagan. Bu ketishda hademay tug'ishni

ham eslaridan chiqarib qo'ysalar kerak. Hayronman... – Stepan tashvishlanib boshini chayqadi. – Bordi-yu urush bo'lib qolsa-chi? Unda bu ayollardan nimani kutasan? Ko'z.yoshi qilib o'lib ketaverishadimi? Anavi urushda g'alaba qozonishimizda xotin-qizlar juda katta yordam bergen. Endi bo'lsa, xotin ham qolmayapti. To'g'rimi, Ilya?

– Nimayam derdim? To'g'ri bo'lsa kerak.

– Manavi, – dedi u g'ujanak bo'lib yotgan Mixailga ishora qilib, – ularni xotin deb bo'lmaydi deydi, bu ularning sha'niga haqorat bo'larmish. Xo'sh, nega haqorat bo'larkan? Bu so'zning nimasi yomon ekan? Menga, hoy erkak, deyishsa, nega mening jahlim chiqishi kerak? Aksincha, agar birov meni yigitcha desa jahlim chiqadi, bu menga yarashmaydi, yaxshi emas, xafa bo'laman, xuddi men erkak bo'lolmaydiganday, ishga yoki ro'zg'orga yaramaydiganday tuyuladi. Erkakmanmi, erkakman, menga yana nima kerak? Xotin degani ham shunaqa-da. Qara-ya, xafa bo'lisharmish! Mana masalan, seni onang, Anna xola, butun umri xotin bo'lib o'tdi, hech kimdan xafa ham bo'lgani yo'q. Qani endi boshqalar ham unga o'xshagan xotin bo'lsin-chi. Anna xola to'g'risida biror kishi biron og'iz yomon so'z aytolmaydi, haqi yo'q. Tili aylanmaydi. – Stepan tomog'iga bir nima tiqilganday yo'talib, jim bo'lib qoldi, xayoliga yalt etib bir fikr keldi. – Kel, Ilya, onang uchun bir ichaylik, – dedi u xuddi mohirlik bilan miltiqdan o'q uzib, o'qi xato ketmaganini bilib qushning qulab tushishini kuzatayotgan ovchidek huzur qilib. – Kel, Ilya, Anna xola uchun ichsak arziydi.

– Mana bu gaping juda ham to'g'ri, – kutilmaganda Mixailning ovozi chiqib qoldi. U boshini ko'tardi-da, qachon xizmatingni o'taysan axir, degandek shishaga tikildi. – Onamiz uchun ichish juda arziydi. Quy, Ilya.

– Biz seni uxbab qoldi, deb o'ylovdik, – dedi Stepan unga ko'z qirini tashlab.

– Men uxbayotgan bo'lishim ham mumkin, ammo onamiz uchun uxbayotgan joyimda ham ichaveraman. Shunaqa, Stepan. Biz buni boshqa niyatda emas, onamiz uchun ichamiz deb olganmiz. Mana, Ilya aytsin. – Mixail chayqalib xirillab kului. – Esimizdan chiqarib qo'yganimizni qara-ya. Sen, Stepan, esimizga solib juda to'g'ri qilding. Bo'lmasa esimizdan chiqib qoluvdi. Unutuvdik, vassalom. Bizdan yana nima kutganding? Ichish uchun sabab qurib qolganday

shunchaki ichib yotibmiz. Ha, shu xususda sal yanglishibmiz: onamizning sog'ligi uchun ichish xayolimizga kelmabdi. Mana, Ilya ayt-sin.

– Bo'ldi, hadeb bir gapni chaynayverma! – deb uning gapini bo'ldi Ilya.

Mixail tilini tishladi-yu, kayfdan qisilgan ko'zlarini Ilyaga tikdi va shoshilmay dedi:

– Xayr, agar bo'ldi bo'lsa, bo'ldi-da. Demak, yoqmadni.

– Onangiz juda yaxshi, – dedi Stepan.

– O'ljadi, – dedi Mixail ma'yus tortib, uning qiyofasidan bundan xursand yoki xafaligini bilib bo'lmasdi. – Xullas, o'ljadi. Tirik. Agar menga ishonmasanglar, borib o'zlarining ko'ringlar.

U shunday deya stakanga cho'zildi. Stepan Mixail ag'darilib tu-shadi, deb qo'rqib, o'zinikini uzatdi va o'ziga kataknинг ustidan boshqa stakan oldi.

– Onamiz uchun oxirigacha olinglar! – deb qistadi Mixail va odattdagidek birinchi bo'lib ichib tugattdi. Keyin stakanni poldan Ilyaga tomonga dumalatib yubordi. Ilya stakanni oldi, keyin ular Stepan bilan indamay cho'qishtirishdi.

– Unutib yuborishing tabiiy, chunki yosh eding, – dedi keyin Stepan Mixailga qarab. Ammo Mixail eshitmadni, u yashigi ustida yana g'ujanak bo'lib olgandi, shuning uchun Stepan Ilyaga yuzlandi. – Esingdami, Ilya, onang bu uchun qanday o'ch olgani? Qanday unutishing mumkin, yodingda albatta. Denis Agapovskiy, narigi dunyoda qon qusgur, kolxoz no'xotzorida Minkalarining ko'rib qolib, tuz solingan o'q bilan otgandi, esingdami? Bu hayvon Denis o'shanda kolxoz no'xotini qo'riqlardi – o'rgildim sendaqa qahramondan! Minka ro'para bo'lib qolibdi-da. Orqasi butkul o'yilib ketuvdi, ko'rgan odam qo'rqib ketardi. Lekin onang ham qarab turmadi, u ham ikkita patronga tuzni joylab, Denisning oldiga bordi, ikkala o'qni ham dumbasiga joylab qo'ydi, shunday bopladiki, keyin Denis anchagacha na o'tiroldi, na yotoldi, emaklab yurdi. Esingdami?

– Esimda. Ha, – deb jilmaydi Ilya. – Onamizni sud qilishmoqchi ham bo'lishdi-yu, tag'in bosdi-bosdi qilib yuborishdi.

– Men ularga sudni ko'rsatib qo'yardim! Shu Denisni deb-a! Agar u odam bo'lsa ham boshqa gap edi.

– Hadeb nimani ming‘irlayapsizlar? – ularning gapini bo‘ldi Mixail. – Ashula. Qani endi ashula aytamiz.

– Juda joning qattiq-da Mishka, – dedi Stepan. – Qaysi ashulan ni aytaylik? Anavi ayiqlar ketini qoziqqa ishqalagani to‘g‘risidagi ashulanimi yoki boshqasini? Lekin o‘scha yaxshi ashula. Sen bilan bizga juda mos-da.

– Yo‘-o‘q, – dedi Mixail rad etib. – Boshqasini. Men yaxshi ko‘rganni. Rus xalq qo‘shig‘ini. – U boshini ko‘tarib, arang tutib turdi-da, o‘zi boshlab qoldi: – Gar bersalar bizga ham ichardik qona-qona... – shu payt boshi shilq etib tushdi-da, tizzasiga tiralib qoldi va ashulanı Mixail ho‘ngrab tugatdi: – Berishmadi, na chora, qoldik biz yona-yona.

– Ko‘rdingmi, nimaga shama qilyapti, – dedi Stepan miyig‘ida kulib.

Mixail xirgoyisini yana takrorladi, ashulaning boshqa so‘zlarini bilmasdi, keyin burilib, xuddi tirkovuchi olib qo‘yilgandek yashik ustidan osongina, shovqin-suronsiz o‘rin ustiga quladi. Ilya bilan Stepan unga havasi kelib qaradi. Keyin Stepan taklif qildi:

– Rostdan ham, balki qo‘shiq aytarmiz-a?

– Bo‘pti. Qo‘shiq bo‘lsa qo‘shiq-da. – So‘nggi qadah Ilyani sherkantirib yuborgan, uning ko‘zları telbalarcha yonardi.

– Faqat haligi, hozir radiolardan eshittiradigan ashulalardan aytmaymiz, – dedi Stepan. – Men ularni yoqtirmayman. Ular qandaydir... Avvaliga yoqqanday bo‘ladi-yu, yoqqanday ham emas, birov seni xuddi yosh bolani qitiqlaganday qitiqlaydi-ku, keyin g‘ashingni keltiradi. Esingdami, bolalarning «Kim tinglagan bo‘lsa, o‘scha odam ahmoq» degan ashulasi bo‘lardi. Bular ham o‘shaning o‘zginasi. Tinglaysan-u, o‘zingni ahmoqdek his qilasan, boshqa hech nima. Kel, yaxshisi, o‘zimizning yurakni o‘rtab yuboradigan qo‘shig‘imizni, haqiqiyisini aytamiz.

– Ehtimol, sen yaxshi ko‘rgan ashulanı aytarmiz?

– Qaysi u, men yaxshi ko‘radigan?

– Hu, sen yerto‘lada, qaynonangga aytganingni-da.

Stepan kulib yubordi:

– Mayli, shundan boshlasak boshlayveramiz-da.

Ular jo‘rovozda jangovar «Vodiylardan, adirlardan» degan ashulanı gumburlatib boshlashdi. Mixail ham g‘o‘ldirab ularga qo‘shildi.

Onadan boshqa barcha Tatyananing kelishidan umidini uzib qo'yishgandi. Kelsa shu choqqacha kelardi-da, Amerikada yashamaydi-ku, axir, uch kunda hatto o'sha yerdan ham yetib kelsa bo'lardi. Keyinroq xat kelsa kerak, xatda esa undoq edi, mundaq edi, borolmadim, uyda yo'q edim yoki shunga o'xhash bir vaj ko'rsatiladi. Qiziq, u onasi tirikmi-o'likmi, bilmay turib, bu to'g'rida nimani so'rashi mumkin? Undoq bo'lsa ham, bundoq bo'lsa ham xat yozishga, nimanidir so'rashga to'g'ri keladi, bunday paytda dampingni chiqarmay yurolmaysan, onani tilga olmay turib, qarindosh-urug'larga, tanish-bilishlarga salom deyish bilan qutublib keta olmaysan. Ammo bu uning ishi, modomiki kelishni lozim ko'rmadimi, keyin qanday bahona qilsa qilaversin. Yoki unga biron gap bo'lganmikan? Buni hech kim bilmaydi, basharti uni oqlab ham, qoralab ham bo'lmaydi. Ammo bir narsa aniq: u bu yerda yo'q, na nomi-yu, na nishoni bor.

Faqat kampirgina unga kechayu kunduz ilhaq edi. U tashqaridan eshitilgan har qanday tovushdan orziqardi, eshik oldida shitirlagan ovozlarga qulog'i ding bo'lardi, nazarida Tanchora uyg'a ohista bi-qinib kirib kelayotganday tuyulardi, shu sabab kampir qizi eshikdan mo'ralay boshlagandayoq tanib olish uchun doimo eshikka ko'z-qulqoq bo'lib yotardi. Kampirning ko'zlar yaxshi edi, shu yoshida ko'zdan shikoyat qilishi gunoh albatta, ammo bir yerga tikilaverib bu ko'zlar ham charchab qolgandi, ular xuddi og'if yukni ko'tarib turganday edi. Kampir endi bu ko'zlarini avaylab ham nima qiladi, nima uchun asraydi? Tanchorani ko'rishga hali yaraydi, unga boshqa narsaning keragi yo'q. Ko'zlar toliqib, og'riqdan yoshlana boshlagach, kampir ularni yumardi, ammo ko'rib turish uchun ko'zlaridan goh unisini, goh bunisini navbat bilan xiyol ochib yotardi va shu yo'l bilan dam berardi.

Mana shu og'ir, behuda intizorlik ortgani sari, qizining kelishiga bo'lga umid ham shunchalik so'nib borardi. Kampir Tanchora faqat bugun kelishi mumkinligini, bu ato etilgan so'nggi muhlat ekanini, ertadan boshlab vaqt izmidan chiqib, butunlay boshqa tomonga qarab ketishini tushunardi. Ertaga nima bo'lishini kampir bilmasdi, bilishga harakat ham qilmasdi: hozircha umid bor, umidini uzmas-

dan Tanchoraning yetib kelishiga, so‘nggi marta onasini ko‘rib qolishidan benasib bo‘lmasligiga ishonardi. Agar hozir kelmasa, sal keyinroq keladi. Hali vaqt bor, bekordan-bekorga ich-etini yemasligi kerak, keladi, albatta keladi. Tushdan so‘ng bir mahal kampirning yuragi qattiqroq ura boshladi, kampir buni Tanchoraga yo‘ydi, go‘yo u yaqinlashib, hozir kirib keladiganday tuyuldi. Kampir yosh boladay hovliqib, shoshib qoldi, u birinchi qarashdayoq notavon, ojiz bo‘lib ko‘rinmaslik uchun turib o‘tirgan holda qizini kutib olmoqchi bo‘ldi, kampir shoshganidan sal bo‘lmasa yiqilib tushay dedi. No‘noqligi uchun o‘zini ko‘yishga ham vaqt yo‘q edi, u hali o‘rniga o‘tirmasidan boshini eshik tomonga burib shaylanib turdi. Rostdan ham qadam tovushlari eshitildi. Parda qimirladi – Varvara kirdi. Vasvasaga tushgan kampir Varvara Tanchoraning kelganini xabar qilgani kirdi, deb o‘yladi, ammo u xuddi jo‘rttaga onasining jig‘iga tegayotganday o‘zining tushi to‘g‘risida qishloqdagilarning taxminlari haqida gap boshladi. Qiziga nima ham desin, Varvara o‘sha Varvara-da. Kampir uning gapiga quloq solmay, bo‘ynini eshik tomon cho‘zdi, mana hozir, hozir yana oyoq tovushlari, boshqa ovoz eshitiladi... Mana hozir, hozir. Ammo afsuski, ovoz eshitilmasdi, nom-nishon yo‘q edi.

Kampir o‘zini ham unutib, qulog‘ini ding qilib uzoq o‘tirdi, konfetdan og‘iz-burni bulg‘anib ketgan Ninka kirib-chiqib yurardi, Varvara esa pol taxtalarini g‘ijirlatib, uy ichida vazmin odimlab, bir nimalar deb g‘o‘ldirab yurardi, shuning uchun kampirning bular meni eshitishga qo‘yishmayapti, kerakli ovozni ilg‘ab olishga xalaqit berishyapti, deb ulardan jahli chiqdi. Keyin o‘rmondan Lyusya qaytib keldi va hech qayering og‘rimayaptimi deb onasidan hol-ahvol so‘radi. Kampir boshini sarak-sarak qildi, u shu tobda Lyusyani ham ko‘rgisi kelmayotgandi. Buni sezganday Lyusya ham tezda qo‘shni xonaga o‘tdi-da, u yerdan Mixailning karavotiga cho‘zildi, ko‘p yurishga odatlanmaganidan oyoqlari qaqshardi, shuning uchun u dam olmoqchi edi.

Axiri kampir toliqqanini, ortiq o‘tira olmasligini sezdi, zo‘r be-rib quloq solaverGANIDAN boshi g‘uvillay boshladi. U quvonch ham, qayg‘u ham xuddi tomdan tarasha tushganday, to‘satdan kelishini esladida, orziqib kutganim uchun Tanchoraning yo‘liga o‘zim g‘ov bo‘ldim, deb o‘zidan o‘pkaladi. Ahmoqqa xudoga iltijo qil desang, peshonasini urib yoradi, deganlari juda to‘g‘ri-da. Xo‘sh, Tanchora

xonaga kirishidan oldin biron yerdan sekin mo‘ralasa-yu, onasining yotganini ko‘rsa-chi? Bu bilan kampirning biror joyi kamayib qolarmidi. Shuning uchun shoshilma, shoshilib nima qilasan, baribir o‘rningdan sakrab turib, qo‘llaringni yozib kutib olgani istiqboliga chopqillab chiqolmaysan-ku. Qo‘lingdan boshqa hech ish kelmagan-dan keyin yotavermayсанми.

U chorasisz yana karavotiga cho‘zildi. Endi hech nimani o‘ylamasligi, xuddi og‘riqni bosganday hafsalasini sal sovutishi, a’zoyi badanini bo‘sish qo‘yishi, hademay yetib keladigan xursand-chilik uchun o‘zini asrab orom olishi, mizg‘ishi kerak. Kampir o‘z og‘irligini sezmaslik uchun yonboshiga ag‘darilib, qulayroq yotib oldi.

Derazadan botayotgan quyosh ko‘rinib turardi, uning zarrin nuri xira, iliq edi, shuning uchun kampir undan isidi, isib olgach, esi kir-di-chiqdi bo‘lib, bu sokin, ochiq kun so‘ngida o‘ziga nima keraklini bilib-bilmay sekin-asta tinchib qoldi. U bugun bir necha mar-ta pinakka ketdi, ammo juda hushyor yotdi, ayniqsa, hozir istalgan lahzada ko‘zini ochishga tayyor bo‘lib mudrayotganini yaxshi tu-shunardi, uning yuragi vujudni sergak tutib poyloqchilik qilardi. Shuning uchun uning har bir urishi kampirni qattiq uyquga ketish-ga qo‘ymasdi. Shu bois ham qarshisida Tanchora paydo bo‘lganida kampir ishonmadı: es-hushi unga, ko‘zlarin yumuq, Tanchora seni faqat tasavvuringda xolos deb turardi. Ammo bu tush emasdi, chunki u hali tosh qotib uxlamagandi, aksincha, u doimo uyqusirab yotardi – yo‘q, bu zaiflashib qolgan xayolot Tanchoraning şäkl-shamoyilini onaning tasavvurida namoyon etgandi xolos, behuda kutib hafsalasi pir bo‘lgach, toliqqan boshining g‘uvillashi ham bosildi-da, kampir tinchib qoldi. U shu yerda, tong g‘ira-shirasi singari mudrog‘i ichida yana Tanchorani o‘yladi va ravshan, yoqimli sado berib turgan bu fikrlar o‘z-o‘zidan tug‘ilib, uni azoblamasdan, tasalli berayotganini tushundi. U bu fikrlardan Tanchora nega ushlanib qoldiykin, degan savolga javob qidirdi va topdi. Tanchora bir o‘zi kelmayotgan bo‘lsa kerak, eri bilan shekilli, lekin erini olib kelmasligi lozim edi. Eri harbiy odam, xudo esa harbiy odamni yoqtirmaydi – xudoyi taolo ik-kovini birga ko‘rgan-u o‘sha yerda to‘xtagan-qo‘yan, harbiy odam begona emas, Tanchoraning eri ekanini ham, ular kampirning oldiga shoshilib kelishayotganini surishtirib ham o‘tirmagan. Keyin, buni

sezib qolgan-u ikkoviga yana javob berib yuborgan bo'lsa kerak, ammo negadir baribir ushlanib qolishdi, nimayam qila olarding. Bu ishda Tanchoraning sira aybi yo'q, hammasi o'sha eri tufayli. Lekin endi ular yaqinlashib qolishdi, hademay yetib kelishadi.

Kampir ancha yengil tortdi, uning ko'ksi erkin nafas ola boshladi, keyin tebrangan ko'yi g'aflat xayolini tag'in balandroq ko'tardi, endi unga yeti shuning yetishi mushkul edi.

U ko'pdan beri Tanchorani ko'rmagandi, ammo qachondan buyon ko'rishmaganini eslolmasdi. U vaqt hisobini yillarga qarab emas, o'z onalik his-tuyg'usi bilan olib borardi, uch yilmi, besh yilmi, o'n yilmi, uning uchun farqi yo'q – o'sha gap: uzoq vaqt dan buyon uyga kelmagani, hayallab ketgani shu Tanchora. Bu orada Lyusya kelib ketdi, shimol tarafdan Ilya ham qorasini ko'rsatdi. Varvarani gapirmasayam bo'ladi, har oy keladi, faqat Tanchora shu ketganicha ketdi, shu choqqacha biron marta ham kelmadi. To'g'ri, bir marta xat yozib, erimni yangi joyga xizmatga o'tkazishyapti, u joyga uyga yaqin yerdan o'tib ketamiz, yo'l-yo'lakay albatta kirib o'tamiz, degandi. U paytda kampir chopqillab yurardi, qizini yaxshilab kutib olish, hali biron marta ham bo'y-bastini ko'rmagan ku-yovi oldida yuzi shuvut bo'lib qolmaslik uchun tayyorgarlik ko'rib rosa yelib-yugurdi. U qizi bilan kuyovini kutar ekan, to'satdan ke-lib uyaltirib qo'yishmasin, deb har kuni pol yuvdi, har xil tansiq ovqatlar tayyorlardi, hatto Nadyani qistalang qilib, do'kondan ikki shisha vino ham oldirtirib keldi, ularni Mixaildan yashirib, ancha-gacha yostiqlari ostida saqlab yurdi. Keyin baribir bu shishalarni Mixailga berishga to'g'ri keldi, chunki Tanchora kelmadi. To'g'ri, kuyovini boshqa yoqqa yuborishdi, ammo ular o'ylagan yerga emas – Kievgaga jo'natishdi, ular hozir ham o'sha yerda turishadi. Keyin yana bir safar kuyovini endi Kievdan qayoqqadir chet elga yuborishmoqchi bo'lishdi. Tanchora yana chet elga jo'nashdan oldin kuyovingga ta'til berishadi, shunda borib xayrlashib kelamiz, deb xat yozdi, ammo bu safar ham kampirning kuyovini joyidan negadir qo'zg'atishmadi, ta'til ham berishmadi. Kampir qizimni yana ko'rolmadim-da deya bir jihatdan xafa ham bo'ldi, ikkinchi tomon dan, qizim undan ham nariga, odamlari biznikiga o'xshamagan boshqacha tilda gaplashadigan butunlay begona yurtga ketib qolmadi-ku deb quvondi, axir begona yurtda qizi juda qiynalib

qolardi-da. Xullas, o'sha gap-so'zlardan buyon qancha vaqt o'tdi, lekin qizidan hali-hanuz darak yo'q.

Tanchora ahyon-ahyonda xat yozardi, ammo boshqalarga qaraganda tez-tez yozib turardi, uning maktublari ham to'g'ri kampirning qo'liga kelib tegardi. Faqat Tanchoragina onasi nomiga xat jo'natardi, kampir chiroyli, qizil-ko'k hoshiyali konvertni qo'liga olarkan, g'urur va umiddan bir zum qotib qolardi: mana hozir u Tanchora unga nima deb yozganini bilib oladi. Ammo kampir shoshilmasdi, xatni anchagacha yorng'ga solib aylantirib ko'rardи, konvertdagи surat va shtampni tomosha qilardi va shundan keyingina uni juda avaylab ochardi-da, ichidan yozilgan varaqni olardi. U o'qishni bilmasdi, shu bois xatni ertadan kechgacha o'zi bilan olib yurib zavq bilan uning mazmuni o'zicha xayol qilardi, onalik qalbi bilan sezishga urinardi. Shundan so'ng uning o'qish payti kelardi. Maktubni o'qishga Nadyani ham, Mixailni ham, yana bitta-yarimta kirib qolsa, uni ham majbur etardi, u bir xatni turli odamlar turlicha o'qib berishidan xavfsirardi. Xatdagи so'zlarning hammasi boshdan-oyoq to'g'ri kelganidan keyingina kampirning ko'ngli tinchib, quvonib yurish va Tanchorani tushida ham ko'rish uchun uni yostig'i ostiga yashirib qo'yardi.

Lyusya va Ilyadan keladigan xatlarga esa kampir ko'pam xo'jayinchilik qilolmasdi: ularni bir martagina o'qib berishardi, ba'zan esa to'liq o'qib ham o'tirmasdan ularda nimalar yozilganini ikki-uch og'iz gap bilan qisqa qilib aytib qo'ya qolishardi, shu bilan tamom edi. Kampirning esa shu eshitganlari bilan kifoyalanishdan boshqa chorasi ham yo'q edi. Kampir hatto o'ziga hamma xatlar to'g'risida ham gapirmasliklarini payqab yurardi, ular aytishni istamaganliklari uchun emas, balki eslaridan chiqarib qo'yganliklari yoki bu xatlar shunchaki yozilgan bo'lib, ularda onaga alohida va ataylab yozilgan gaplar bo'limgani uchun bexabar qolardi. Lyusya odatda onamni ehtiyyot qilinglar deb pand-nasihat qilardi, Ilya bo'lsa naridan-beri, xuddi hazillashayotganday onam qalay yuribdi yoki onamning ishlari qalay, deb so'rardi, onaning hol-ahvolini so'rab-surishtirish ko'pincha shu bilan tugab qo'ya qolardi, shu bois bularni aynan aytib berish xatni o'quvchiga rostdan ham oson emasdi. Ba'zan Lyusyadan, agar u ko'pdan beri hech qanday xat-xabar qilmagan bo'lsa, uzun, batafsil yozilgan xatlar ham kelardi, bu xatlarda

onasiga ko‘p o‘rin berilardi va bordi-yu kampir xapdori ichgan bilan kishi yosharib qolarmidi, deya ichmay qo‘yganida «Onamga aytinlar, bu dori har qanday yoshdag‘i odamga yordam beradi» yoki onasi sovuqda yozdagiday yengil kiyinib yurish mumkin emasligini bilmaydiganday «Ko‘z-quloq bo‘lib turinglar, onam qishda issiq kiyinib yursin»ga o‘xshash gaplar yozilardi. Xudoga shukur, Ilya har qalay bunday be‘mani maslahat bermasdi. Sirasini aytganda kampirga ularning bunday gaplari kerak emasdi, u bolalarining o‘zlari qanday yashayotganlarini, qotib qolmaslik uchun sovuqda qanday kiyinayotganlarini, modomiki sigirlari, tovuqlari, cho‘chqalari bo‘lmagandan keyin nimalar yeayotganlarini bilishni istardi: kampir oxir-oqibat shahardagi odamlar och qolmasligiga o‘zini ishontirardi-yu, ammo u odamlarning mol-holsiz qanday yashashlarini, umuman shulsarsiz ro‘zg‘orni qanday yuritish mumkinligini sira tushuna olmasdi. Lyusya bilan Ilya o‘zlari to‘g‘risida shunchalik kam yozishardiki, kampir xatni o‘qib bergen Nadyaga yopishib, go‘yo kelini undan bir nima ni yashirayotganday yoki e‘tiborsizlik bilan o‘tkazib yuborganday har xil savollar bilan tinkasini quritib tashlardi. Nadya esa nima deb javob berishini bilmay gangib qolardi, maktubda bori shu bo‘lsa, u qayoqdan qo‘shib-chatishi mumkin? Ilyadan bir yilda bir marta qisqa, kaftdekkina xat kelsa, uning uchun Nadya bichib-to‘qimaydi-ku. Ilya bilan Lyusyadan kelgan xatni kampirga o‘qib berish azob edi, bu azobni esa Nadya tortardi. Mixail onasining nima deb yozishibdi degan gapiga, «Ha, hech gap yo‘q», deya qo‘l siltab ketaverishi mumkin edi. Baloga esa Nadya qolardi.

Tanchoradan keladigan xatlar ham kampirning orzumand ko‘ngliga butkul taskin bera olmasdi, ammo kampir ularni alohida ardoqlab, ko‘z qorachig‘idek asrardi. Bu xatlar kampirga maxsus yozilgan bo‘lardi, ularni Tanchora yozishga atay kirishar va yozardi ham. Xatlarni kampir uchun maxsus keltirib berishardi, yo‘qolib qolmasin deb Tan‘choraning qo‘li bilan onasining ismi yozilgan konvertga alomatli muhr bosilardi. Tanchora aytmoqchi bo‘lgan gapi ni birov orqali yetkazmasdan, «onamga aytinlar» deb yozmasdan, o‘zi, to‘g‘ridan to‘g‘ri xuddi onasi qarshisida turganday «mening onajonim» deb yozardi, erkalab-iydirib yuboradigan ana shu «mening onajonim»ning o‘ziyoq kampirni baxt va quvonchdan mast qilib qo‘yardi; badani ajib jimirlashib ketardi. Kampir Tanchora

uyda uni shunaqa so‘zlar bilan ardoqlaganini eslolmasdi – yo‘q, xotirasidan ko‘tarilgani uchun emas, shunchaki qizi avvallari bunday so‘zlarni aytmasdi: chunki bunday murojaatni eng parishonxotir ona ham unutmaydi. Demak, qizi bu so‘zlarni uning uchun o‘sha yodqa, musofir bo‘lib yurgan joylarida topibdi-da. Kampir pichirlab, lablarini qimirlatib, o‘ziga qaratilgan «mening onajonim»ni takrorlardi va undan mungli bir ingrash, dard-alamni ilg‘ardi-da, allanechuk bo‘lib ketardi, so‘ng o‘zi ham sezmagan holda ko‘ziga yosh olar va o‘ziga o‘zi bu sevinch ko‘z yoshlari der edi. Odatdagi yig‘i – asosan vahima va qo‘rquv bilan bog‘liq bo‘lib, bu shunisi bilan yomon ediki, unda najot va umid bo‘lmaydi. Bular esa xudodan keladi, deb o‘ylardi kampir, chunki najot va umid – tortinchoq, uyatchan, rahmdil. Qo‘rquvn ni esa ko‘ngliga shayton soladi, u xira, dag‘al bo‘ladi, shuning uchun unga berilishning nima keragi bor?

Nogahon kampirning ko‘ngli yorishib, yupqa lablari aynan o‘sha so‘zlarni pichirlardi va ulardan Tanchoraning muloyim, mehr to‘la ovozini eshitgandek bo‘lardi. Keyin bu so‘zlar kampsiz, uning lablarisiz takrorlanardi va go‘yo Tanchoraning yaqinginadan, xuddy ko‘z o‘ngidagiday aniq-tiniq jaranglab turgan ovozi eshitilganday bo‘lardi, ammo bu ovoz borgan sari pasayib, nihoyat butunlay tinib qolar, lekin kampir shundan keyin ham bu so‘zlarning jozibali sehri va kuchidan avvalgidek ko‘ngli yorishib, xursand bo‘lib yurardi. U bu so‘zlarning asl mohiyatini tushunmay, qulog‘iga boshqacha chalingani uchun o‘zini o‘taketgan gunohkor hisoblab, ancha vaqtgacha o‘zini koyib yurardi va qulog‘i og‘irligi uchun qizi oldtida g‘oyibona mulzam bo‘lardi.

Nima, kampir Tanchora boshqa opalariga qaraganda mehribonroq bo‘lib o‘sganini bilmas ekanmi? Kampir Lyusyadan ham, Varvaradan ham aslo shikoyat qilmasdi, albatta, shikoyat qilishga sabab ham yo‘q edi, shunchaki Tanchorasini boshqacha ko‘rardi. Har qalay u kenjasib edi, shuning uchun kampirning ko‘ziga boshqa bolalariga nisbatan u ko‘proq ko‘rinardi, qolaversa, yosh bolasiz yashashga o‘rganmaganidan uni o‘zidan yiroqqa jo‘natishni istamasdi. Hamisha shunday edi: hali bittasi oyoqqa turmasidan boshqasi paydo bo‘lardi, shuning uchun ona kichigi bilan ovora bo‘lib qolardi, kattasini esa bir chetga o‘tirg‘izib, xohlasang emaklab, xohlasang yurib, istagan tomoningga boraver, boshing toshdan bo‘lsin, urilsang-yiqilsang ba-

qirma, endi sendan boshqa tashvish ham bor, derdi. Tanchorani ketidan shoshiltiradigan hech kim yo'q edi, shuning uchun u onasining erkasi bo'lib o'sdi, onasiga soyadek ergashib, ortidan onajon, onajon deb yurgani-yurgan edi. «Onajon» – qiziq, u bu so'zni qayoqdan topdi ekan-a? Qishloqda hech kim bunday demasdi shekilli, u bu so'zni yo birovdan o'rganib olgan yoki bo'lmasa tushida eshtidimikan? Keyinchalik, katta bo'lganidan so'ng Tanchora uni boshqalar qatori ona deb chaqira boshladi-yu, ammo bolaligini tez-tez eslab, kulib «onajon»lab kampirni hol-joniga qo'ymasdi. Qizining bu hazil va sho'xliklari kampirga albatta xush yoqardi. Mana endi yangisi – «Mening onajonim» paydo bo'libdi. Xo'sh, bir paytlar «onajon» degan ekan, endi nima uchun kampir «mening onajonim»dan tashvishlanishi, o'zini bekorga qiynab, ich-etini yeishi kerak? Hadeb kuyib-pishguncha shukur qilsa bo'ladi-ku.

Ammo gap Tanchoraning kenjaligi yoki erka bo'lib o'sishida emasdi, albatta. Kenjadan ham har baloni kutish mumkin. O'shani deb ko'proq tashvishlanasan, bor mehringni berasan, u esa o'l ahmoq degandek, yaxshilikka yomonlik qaytaradi. Bunaqa voqealar ozmunchami? Yo'q, Tanchora tabiatan onasiga mehribon edi. Lekin agar fe'l-atvor to'g'risida gapiriladigan bo'lsa, tabiatan Lyusya ko'proq onasiga tortgan edi. U ham shaddod, mag'rur, unchamunchaga bo'sh kelmasdi, uning shaddodligi va mag'rurligi uydagilarning uchtasiga yetib-ortardi. U qizaloqligida bir tumshug'ini osiltirsa, uch kungacha hech kimga qaramasdi, hech nima bilan uni iydirib ham bo'lmasdi. Lyusyaning hozir qandayligini kampir bilmasdi, ehtimol, har xil odamlar orasida o'ziga kelgandir, qo'rsligi ham kamaygandir, past-balandni bilib olgandir. Tabiating og'ir bo'lsa yashash ham osonmas – u bo'lsa savodli, es-hushli, har holda yaxshi-yomonni ajrata oladigan qiz, yurish-turishiga qaraganda yomon yashayapti deb bo'lmaydi. Kampirning esa ijikilab so'ragisi kelmaydi, so'raganing bilan «yaxshi» yoki «bo'ladi»dan nariga o'tmaydi, qandoq tushunsang-tushunaver. Ularning hammasi ham shu savoldan, ortiqcha gap-so'zdan qutulish uchun shunday deyishadi, faqat Varvaragina go'shtni quymoqqa o'rab yeb yashaganda ham, hech qanday g'am-tashvishi bo'lmaganda ham, baribir, noligan bo'lardi. Bo'lmasa, tug'ishgan opa-singillar-u ammo birbirlariga sira o'xshamaydi-ya. Varvara qizligidayam Lyusyadan,

inilaridan gap eshitib, hatto arzimagan narsaga ham yig‘lab yurardi. Yoshligidan mijg‘ov bo‘lib o‘sdi, shundayligicha qoldi, qilmishni boshqalar qilardi-yu, gapni bu eshitardi, tag‘in har narsaga burnini suqib, oshga qatiq bo‘laverardi.

Tanchora opalaridan birortasiga ham o‘xshamasdi. U o‘zining qandaydir boshqacha – yumshoq, xushchaqchaq fe'l-atvori bilan opalaridan ajralib turardi, odamshavanda edi: jahli chiqsa yoki birov-dan xafa bo‘lsa, uzoq cho‘zilmasdi, agar yig‘laguday bo‘lsa ham bir ko‘zidan yosh chiqsa, ikkinchisi kulib turardi. U doim odamlar bilan birga, ular orasida bo‘lardi, na keksalar, na bolalardan tortinmasdi, o‘yin-kulgini yaxshi ko‘rardi, ammo faqat o‘zini xursand qilish uchun emas, o‘rnii kelganda, paytini topib hammani xursand qilardi. Yoshlarning barcha o‘yin-kulgisi deyarli Tanchorasiz o‘tmasdi, agar u uyda ushlanib qolsa, qizlar darrov izlab kelishardi, yo‘q, u qiz-larga bosh-qosh bo‘lib yurgani uchun emas, yo‘q, shunchaki u bor-magan yig‘in qizimasdi. Qolaversa, yigitlar tegajoqlik qilishganda Tanchora boplab javob qaytarardi. Yoki kechqurunlari yosh-yalang yig‘iladigan qishloq kengashi oldidagi maydonchada yotgan xaridan kishi bilmas jo‘nab qolgan sabrsiz yigit-qizni ko‘rganida Tanchora sekingina kulib qo‘ya qolardi. Kulganda ham yigit bilan qiz g‘oyib bo‘lgan tomonga boshini burib xuddi o‘zicha, shunchaki kulganday kulardi, ammo bu beozor kulgi shunchalar antiqa bo‘lardiki, bunga boshqalar ham qo‘shilib, butun qishloq larzaga kelardi. U boshlab bermasa hech kim ashula ham aytmasdi, uning kuchli ovozi bilan yangragan qo‘shiq xarilar ortidagi maysazorlardan o‘tib, o‘z shodligi va qayg‘usi bilan qishloqni u boshidan-bu boshigacha tutib ketardi. U onasi pakki bilan boshini qashlab qo‘yishlarini yoqtirishini bilganidan kampirga: «Kel, ona, boshingni tut», derdi-da, sochlari oppoq boshini qashlab qo‘yardi, hech kim, hatto kampirning o‘zi ham boshining qichigan joyini Tanchoradek topib qashiy olmasdi. Tanchora xuddi o‘sha qichib turgan joyni topib qashirdi, lekin bir tolasini ham to‘kmasdi. Hamma qizlar ichida faqat Tanchoragini mana shu xilda onasining ko‘nglini olardi. U pakkini tez-tez harakatlantirar ekan, unga: «Ona, juda ajoyibsan-da», derdi. Onasi esa ajablanib: «Nega endi?» derdi. «Chunki sen meni tuqqansan, mana endi men yashayapman, agar sen bo‘lmasang meni kim tug‘ardi, men ham yorug‘ olam yuzini ko‘rmay o‘tib ketaverardim». Tanchora ku-

lardi va kampirning sochini silab to‘g‘irlab qo‘yardi. «E, qo‘ysang-chi! – derdi kampir xuddi jahli chiqqandek. – Buncha ezmalanasan, ezmalanasan-u gapingning tushovi yo‘q, nima deganingni o‘zing ham bilmaysan». «Yo‘q, bilaman, sen bizning chindan ham ajoyib onamizsan, qanday ajoyibligingni o‘zing ham bilmaysan, sen hammadan yaxshisan. Qani, o‘zing ayt-chi, bizlar yaxshimi-yomonmi?» «Men biror marta yomon deganmidim?» «Demak, yaxshi ekanmiz. Mana, ko‘rdingmi, hammasi sen tufayli, har kim ham tug‘ib, bolalariqa yaxshi tarbiya berib o‘stira olmaydi, shuni bilib qo‘y. Biz juda baxtlimiz-da, bizning onamizga o‘xshagan ona yana kimda bor? Ha, ana shunaqa». Kampir bu gaplardan yuragi orziqib, gangib qolardi, chunki bunaqangi mehribonlik erish tuyuladigan qishloqda bu...gaplarni har kim ham aytavermasdi. Onaning yuragi hapriqib, boshini Tanchoraning etagiga yanada pastroq tushirardi. «Sen, ona, hali uzoq uzoq yashaysan, hammadan ko‘p yashaysan, chunki sen hammadan yaxshisan, shuning uchun seni hech kimga alishtirmaymiz, qarigani qo‘ymaymiz...». «Ko‘p aljima!» deb onasi uning gapini bo‘ldi. «Men aljiyotganim yo‘q, bir kun kelib sendan ajralib qolishimizni men hatto tasavvur ham qila olmayman». Mehr to‘la bu so‘zlardan kampirning ko‘zlariga yosh kelardi, shuning uchun shosha-pisha o‘midan turarkan: «Bugunga shu ham yetadi, xo‘p o‘tirdik, ishlar ham qolib ketdi», derdi.

Bunday gaplar kampirni cho‘chitardi, ammo ular ahyon-ahyon-da, bor-yo‘g‘i bir necha marta bo‘lgandi, xolos, shuning uchun bu qo‘rquv xuddi nikoh kechasi kelinning kuyov oldida cho‘chib turishiga o‘xhash yoqimli, yurakni orziqtiruvchi edi. Kampir keyinroq, bu so‘zlar nogahon esiga tushib qolganda ham anchagacha huzur qilib yurardi, aslida u istagan paytida ko‘nglini ko‘tarib, xursand bo‘lib yurish uchun bu so‘zlarni hafsalá bilan miyasiga jo qilib olardi. To‘g‘ri-da, bunday gaplardan qaysi ona erib ketmaydi?! Axir Tanchora unga doimo mehribonlik bilan iliq muomala qilsa, hamma onaga ham eshitish nasib etmaydigan gaplarini xuddi o‘z dugonasiga aytganday u bilan o‘rtoqlashib tursa, bundan quvonmay bo‘ladimi? U hatto tur mushga chiqayotganida ham xat yozib, ona roziligini so‘radi, fotiha tiladi, shuning uchun kampir yo‘q deya olmadı, garchi unga alam qilsa ham, qiziga kim uylanayotganini bilmasa ham yo‘q deyishga og‘zi bormadi.

Mana endi uning o'sha Tanchorasi shu ketganicha zim g'oyib bo'ldi-ketdi. Keyingi paytlarda kampir bu uchun qizini emas, o'zini ayplashga ham tayyor edi. Lekin nima deb ayplashni bilmasdi. Tanchoraning oldiga jo'nashga esa o'zining holi kelmasdi, qizi juda olisda, kampir u yerga yo'l bosish u yoqda tursin, xayolan ham yetib borolmasdi. Kampirni boshqa narsa iztirobga solardi: ona o'z qizini shuncha vaqt ko'rmay yurishi mumkin emas – ona uchun og'ir, odamlar oldida noqulay, qizi oldida esa uyat. Shunchalik ayriliqqa chiday olgan qanday ona bo'ldi u axir? Tanchora bilan diyordi ko'rishish uchun nima qildi? Kutishdan nariga o'tmadi. Loaqal pi-nagi ham buzilmadi-ku. Xo'sh, biron nafi tegishi uchun nima qilishi kerak edi? E, xudo, koshki buni birov tushuntirib berolsaydi. Kampir Lyusya uchun kuyib-pishmasdi, u o'zini xafa qildirib qo'ymaydi, Varvara esa aksincha, uni har kim xafa qilishi mumkin. Lekin Varvara yonida, deyarli ko'zi oldida, Ilya erkak, o'zini-o'zi himoya qila ola-di, faqat Tanchora tushmagurini taqdir shamoli uzoq-uzoqlarga eltidir tashlagani uchun kecha-yu kunduz kampir bu haqda o'ylar, o'ylagani sayin yuragi ezilardi. Qani endi uzoq yurtda, begona odamlar orasida onasiz qanday yashayotganini loaqal bironbir tirkishdan bir martagina ko'rsa-yu bilsa. Axir yuzidan, so'zsiz ham, ko'p narsalarni bilib olish mumkin, shunda kampir qizi uchun xudoga yo iltijo qilardi yoki shukrona aytgan bo'lardi. U yana qizini uzoq vaqt ko'rmay yurib ortirgan gunohidan soqit bo'lib, xudo oldiga pok borish, keyin, xotirjam, yorug' yuz bilan dargohida, mana men, bandang Anna, barcha g'ubordan musaffoman deyish uchun ham o'limi oldidan birrovgina bo'lsa ham Tanchorani ko'rishi shart edi.

Va bugun so'nggi muhlat edi: agar Tanchora kech tushguncha kelmasa, demak, ortiq umid qilmasa ham bo'ladi.

Kampir Tanchora albatta keladi, faqat sabr qilish kerak, borgan sari yaqin kelishi uchun xalaqit bermaslik kerakligiga o'zini ishontirib, yengil tortdi-da, ko'zi ilindi – u avvaliga tashqaridan eshitilayotgan har bir ovozga quloq solib, hushyor yotdi, keyin, odatda hamisha bo'ladiganidek behos izn-ixtiyorini qo'ldan berdi-yu, qattiq uyquga ketdi.

Bir mahal qattiq-qattiq ovozlardan uyg'onib ketdi. Lekin bu ovozlar xuddi olisdan eshitilayotgandek, ularni tushunib bo'lmasdi. Eng avval kampirning qulog'i ishlay boshladi, ammo juda sust ish-

laganidan juda noaniq, uzuq-yuluq, g‘o‘ldiragan, xuddi birov suvga tosh tashlayotgandagi qult-qultga o‘xhash ovozni ilg‘ab oldi. Kampir endi avvalgidek emasdi, ilgari tiq etgan tovushni eshitgan zahoti uyg‘onib ketaverardi, hozir bo‘lsa barcha a’zolarini – quloqni ham, ko‘zni ham, es-hushni ham yig‘ishtirib olish uchun vaqt, kuch kerak edi. Shuning uchun kampir ko‘zlarini ochgani bilan tezda o‘ziga kela olmadi: xona ichi g‘ira-shira edi, ammo bu g‘ira-shiralik borgan sain quyuqlashayotgandi. Deraza faqat tashqaridan, hovli tomondan oqarib turardi, ammo oynadan yorug‘lik kam tushardi. Lyusya qisti-bastiga olib, dona-dona qilib kimgadir javrardi:

– Uyalmaysizlarmi?! Ona o‘lay-o‘lay deb yotsa-yu, bular jinni bo‘lib o‘tirsa!

Kampir avvaliga stol ustiga boshini xam qilgan Mixailni ko‘rdi, uning qarshisida Ilya o‘tirardi. U Lyusyaga javob bermoqchi bo‘lganday bir qimirlab qo‘ydi, shundan keyin kampir bolalarning hali ham aroqxo‘rlik qilishayotganini tushundi. Kampirning oyoq tomonida Varvara chuqur uh tortib, xo‘rsinib qo‘ydi. Lyusya ko‘rinmasdi, uning ovozi o‘ng tomondan, but qo‘yiladigan tokcha ostidagi tumbochka tomondan kelardi.

Kutilmaganda kampirni vahima bosdi. U karavotda bukchayib, tirishib, jonholatda qichqirib yubordi:

– Tanchora!

Varvara onasining ovozini eshitib xabar qildi:

– Onajonimiz uyg‘ondi.

– Tanchora! – qichqirdi yana chaqirdi kampir, hatto nafas ham olmay, butun vujudi quloqqa aylanib.

– U hali kelgani yo‘q, ona, – viklyuchatel shiqilladi, xona ichi xuddi kunduzdagiday yop-yorug‘ bo‘lib ketdi. Viklyuchatel yonda Lyusya turardi. – Tanchora hali kelgani yo‘q, – deb takrorladi u, kampir gapini anglamaganini bilib.

Xonadagilar kaftlari bilan yorug‘likni to‘sib, ko‘zlarini qisishdi, kampirning nazarida ular bekinishayotganga o‘xshadi, chunki ular unga haqiqatni aytishni istashmasdi, shuning uchun kampir ularga ishonmadni: u boshini chayqab iltijo bilan mo‘ltillab ularga ko‘z yogurtirdi, xuddi tik toqqa ko‘tarilayotganday, ortiq bir qadam ham bosishga kuchi qolmaganday bo‘g‘ilib ketdi, bu nigohga faqat Lyusya dosh bera oldi. Tanchora yo‘q edi, kampir buni avvalboshdanoq, uy-

gongan zahotiyoy qushunishi kerak edi. Bir og'iz ham so'z aytishga holi qolmagan kampir o'ziga ham, ularga ham ishonmay, hamon bo-shini chayqar edi, uning boshi yostiqda xuddi bir burda non deb ya-linib-yolborib turgan tilanchilarniki singari qaltirar edi, nafasi bo'lsa hamon qisib turar, ko'zini xayol bo'lsa-da ochishga, Tanchorani ko'rishga qo'ymas edi. Sirtidan qora surilganga o'xshab turgan dera-zada xuddi ko'zgudagidek elektr nuridan charog'on bo'lgan xona aks etib turardi, tashqari zim-ziyo edi. Kampir tirsagiga tayanib, qaddini ko'tardi va karavotdan dumalab tushgudek bo'lib oldinga engashdi, toqatsizlik bilan g'amgin so'radi:

– Qani? Qani u?

Kampir kim javob berarkin deya ko'zlarini baqraytirib xonadagi-larga baravar tikilib turardi.

– Agar uning qayerdaligini bilsak, sendan yashirib nima qilar-dik, – xotirjamlik bilan dedi unga Lyusya. – Tushunsang-chi, ona, biz o'zimiz ham hech nimani bilmaymiz.

– Xudo haqqi, onajon, uni ko'rganimiz yo'q, – Varvara kampirni ishontirish uchun qo'llarini ko'ksiga bosdi. – Senga yolg'on gapirib nima qilamiz?

– Keladi, – dedi Ilya dadil va hatto quvonib. U hozir o'zi bilan Mixail to'g'risidagi gap boshqa mavzuga ko'chganidan xursand edi. – Bugun kelmadi, lekin ertaga albatta keladi, ha.

– Menga kecha ham shunday degandinglar, lekin qani u?

– Endi bunisini aytib berolmaymiz. Kelsa o'zi aytib berar.

– Menga kecha ham shunday degandinglar, lekin qani u? – kam-pir alahsirayotganday bir gapni takrorlardi va ovozini o'zi eshitmas-di, chunki bu so'zlar birinchi marta aytilgandayoq javobsiz qolgan-di, endi bo'lsa miyasiga o'mashib olib, aks-sado berardi. Endi buni so'rab nima qiladi? Nima keragi bor? Kampirning ishonchi komil: yo'q, endi kelmaydi. Unga ato etilgan vaqt tugadi. Endi kutishning foydasi yo'q. Tanchora kelmadi. Kelmadi, esiz kampir uni ko'rolmay ketyapti-ya.

Kampir boshini yostiqqa qo'yib yig'lab yubordi.

– Ha, mana, – dedi Ilya uh tortgandek qilib. – Boshlanyapti.

– Onajon! Onajon! – xitob qildi Varvara bezovtalanih.

Dabdurstdan kampirning ich-ichidan nimadir ojiz ingrash bilan uzilib ketganday bo'ldi va bu ingroq hali tinmay turib, kutilmaganda

o'zgardi-da, kechagi jarangga aylandi, u bu ovozni qizlik paytida-yoq eslab qolgandi, mayin jing-jinglagan bu ovozlar uzilib qolmasdi, aksincha bir-biriga qo'shilib kuchayib borardi. Nimadir kampirni shu ovoz sari shunchalik kuchli yetaklardiki, u hatto qarshilik ham ko'rsatolmasdi. Avvaliga ozgina yursa shundoqqina yonida eshitila-yotgan jarangga yetib oladigandek edi, ammo keyin bu ovoz uzoqlasha boshladi, kampirni ergashtirib, borgan sari olslarga olib ketdi, ammo kampir unga ishonchini yo'qotib qo'ymasligi va qayooqqa qarab yurishini bilishi uchun bu ovoz hamon tiniq, aniq-ravshan yang-rab turardi. Kampirning arang esida bor: bundan sal oldin go'yo qandaydir bir judolik suyak-suyagidan o'tib, yig'lab yuborgandi, endi bo'lsa og'riq bosildi, ovoz ortidan borish yengil, quvonchli edi, endi kampir barining yakuni baxayr bo'lishidan suyunib yig'lardi.

Kampir yuzini bekitmay, ikki yonida shalvirab yotgan qo'llarini qimirlatmay yig'lardi. Ko'zlaridan ahyon-ahyonda achchiq yoshlар chiqib, sekin yuzlariga oqib tushardi. U qimirlamay, ovoz chiqarmay unsiz yig'lardi. Uning yuzi deyarli xotirjam edi, shu bois kul-gili ko'rinaldi. Bu shunchalik bir-biriga qovushmagan, shunchalik g'ayritabiyy, g'alati ediki, onasi yonida o'tirgan Varvarani esankiratib qo'ydi: u es-hushini yig'ib olib, chinqirib yubordi, o'zini onasiga otib, kuchi boricha uni qimirlata boshladi. Ikki hatlab Lyusya keldi, Ilya ham kelib, opa-singillari yelkasidan kampirga mo'raladi. Mixail o'rnidan turdi-yu, yana joyiga o'tirib qoldi.

Kampir ihradi. Lyusya nihoyat Varvarani kampirdan ajratib oldi, shundan keyin kampir menga tegmanglar deb yalinganday boshini u yoq-bu yoqqa qimirlatdi. Es-hushini yo'qotgan Varvarani onasidan sal chetlatish uchun Lyusya kampirning yoniga o'tirdi, kampir o'zi qimirlab, o'zi harakat qilib qizlaridan sal nariga, devor tomonga surildi, ko'zlaridan jimgina oqib chiqayotgan yoshlarini kafti bilan artdi.

– Ona, namuncha bizning o'takamizni yormasang? – dedi Ilya stol yoniga qaytayotib. – Men senga aytypman-ku, bugun kelmasa ertaga keladi, deb. Ha. Kutish kerak-da.

– Biror ishi chiqib, ushlanib qolgandir-da, – deya gapni ilib ketdi Lyusya: u o'zi aytgan gapga o'zi ishonmayotgandi, ammo shunday bo'lsa ham so'zida davom etdi: – Nima bo'lsayam kutib turaylik, endi shoshilib qayooqqa ham borardik.

Kampir bu gaplarni eshitib-eshitmasdi: u dalda sifatida aytilar-yotgan so‘zlarni eshitar, kim so‘zlayotganini bilar, ammo bu so‘zlar zamirida nimalar borligi uning ongiga yetib bormasdi. Ular u qu-log‘idan kirib bu qulog‘idan chiqib ketaverardi. U ro‘parasiga qarab yotgan bo‘lsa ham hech nimani ko‘rmasdi, o‘z yog‘ida o‘zi qovurilib, o‘limgani uchungina shu yerda yotganini eslardi. Ammo endi uni bu yerda tutib turdigan hech nima, hech qanday ilinj yo‘q edi. Endi faqat shuncha vaqtan beri ilhaq, umidvor bo‘lib kelgan ko‘ngli yana ravshanlashib, judolikka ko‘nikkuncha, uni azob-uqubat, qayg‘u-g‘amdan xalos etguncha, jonidan bo‘lak hech nima qolmaguncha sabr qilish kerak. U birato‘la xalos bo‘lishni istamasdi, kampir hammasi peshonasiga qanday yozilgan bo‘lsa shunday bo‘lishini, umri shundoq ham chopqillab o‘tib, o‘z nuqtasiga, endi to‘xtashi lozim bo‘lgan joyga yetib kelganini bilardi.

Farzandlar bizning gaplarimiz onamizga tasallli berdi deb o‘ylab, tinmay bidirlashardi, kampir ularga javob bermasdi, ammo Tanchoranning tez-tez esga olinishi uni sergak torttirardi. Kampir elektr chiroqqa hayratlanib tikilarkan, endi Tanchorani hech qanaqa elektr bilan qaytarib yoki topib kelib ham bo‘lmaslididan a’zoyi-badanida yana og‘riq turdi. Zarracha toqat qilishga tobi qolmagan kampir tashvishlanib, seskanib ko‘zini ochdi va farzandlarini yonida ko‘rdi: mana Lyusya, mana Varvara, Ilya, Mixail... Tanchora yo‘q edi. Uning bu yerda bo‘lishi mumkin ham emas.

– Unga bir gap bo‘lgan, – dedi kampir qo‘rquv aralash shivirlab.  
– Unga nimadir bo‘lgan, – dedi so‘ng qattiqroq, qat‘iyroq, – lekin sizlar menga aytmayapsizlar. Sizlar meni aldayapsizlar, bilaman.

– Voy, nimalar deyapsan, ona?! – taajjublanib, xafa bo‘lib karavotdan turib ketdi Lyusya. – Nimalar deyapsan o‘zi?! Biz senga nimani aytmayotgan ekanmiz?! Biz seni nima deb aldayotgan ekanmiz?!

– Aldayapsizlar, aldayapsizlar, – kampir ham g‘imirlab turib o‘tira boshladi-yu, boshidan ro‘moli sirg‘alib tushib ketdi, kalta, siyrak, oppoq sochlari ochilib qol-di. – Bilaman, aldayapsizlar. Bilmasin, deb mendan yashiryapsizlar. Nuqlul ertaga, ertaga deysizlar, endi tamom. Endi ertaga degan gap yo‘q, hammangiz ham meni esdan og‘gan, hech nimani tushunmaydi, deb o‘layapsizlar. – Sochlari to‘zib, yuzlari titrab turgan kampir chindan ham savdoygiga o‘xshardi.

– Agar Tanchoraga biror gap bo‘lmanida edi, u hammangdan oldin qanot chiqarib uchib kelardi. Men bo‘lsam yosh bolaga o‘xshab kut-yapman, ko‘zlarim teshilib ketdi... .

– Qo‘ysang-chi shu gaplarni, ona! – o‘zini tutolmay baqirib yubordi Lyusya. – Nimalar deyayotganiningni o‘ylaysanmi sira? Hech kim seni aldayotgani yo‘q, shuni tushunasammi-yo‘qmi? Tanchorang qayerdaligini biz rostdan ham bilmaymiz.

Lyusyaning aytgan gapi, uning ovozi hammani itoat etishga, onani esa gapdan to‘xtashga majbur etdi: kampir hayiqib jim bo‘lib qoldi, faqat ochiq og‘zi titrardi, lablari yumilishga harakat qilardi-yu, yumila olmasdi.

– Agar unga bir gap bo‘lgan bo‘lsa, men go‘rimda ham tinch yotolmayman, – dedi u birozdan so‘ng ayanchli zorlanib.

– Biz unga biror gap bo‘lgan-bo‘lmanini bilmaymiz.

Kampir qo‘llarini ohista karavotga qo‘ydi. Uning yuzidan qon qocha boshladи va hammaning ko‘z o‘ngida borgan sari oqaraverdi. Jimjilikda Varvaraning pishillab nafas olishi eshitilardi.

– U yerda, u hozir yashab turgan joyda urush bo‘lganmi-yo‘qmi?

Kampir hayiqib Lyusyaga ko‘z qirini tashladi. Onasining savoliga Ilya javob berdi:

– Kievdami? Kievni nemislar oluvdi – ha. Bu aniq esimda.

– Ha, mana shu-da, – alam bilan boshini qimirlatdi kampir va sannab yig‘lay boshladi: – Voy, bolam-yey! Nega shunday qilding?! Nega odamlardan so‘rab-surishtirmading?! Men ortingdan u yoqlarga bora olarmidim? Bu sayoq kimga o‘xshadiykin?! Men bo‘lsam, unga ko‘zim to‘rt bo‘lib yotibman-a! Endi u yoqdan kelib bo‘larkanmi?! Voy, ko‘ra-bila turib, o‘zingni-o‘zing baloga giriftor qilbsan-ku!

– Shoshma, ona, shoshma, – deb to‘xtatdi Ilya. – Nima balo, oydan tushganmisan?! Axir urushning tamom bo‘lgani qachon edi?

– Baribir.

– Nima «baribir»?

– Xo‘sh, bo‘lmasa u qani, qayerda? Nega u bu yerda yo‘q?

– Yana «qayerda» deydi-ya. Kar eshitganini, ko‘r ko‘rganini qo‘ymas ekan-da, a.

– Xo‘p, bo‘pti, – deb Mixail kafti bilan shap etib stolga urdi-da, gandiraklab o‘rnidan turdi. – Tanchoralaring kelmaydi, kutishning hojati yo‘q. Men unga kelmagin, deb telegramma jo‘natganman.

Kampir titrab ketdi.

– Nima deyapti u? – kampir ishonmadi.

– Men kelmagin, deb unga telegramma yuborganman deyapman.

Bu yerga kelib nima ham qilardi.

– Voy, ishing qur-si-in! – dedi oh tortib Varvara.

– Unga telegramma berishga qachon ulgurding? – so‘radi

Lyusya.

– Onam sal tuzuk bo‘lgandan keyin bergandim.

– Unday bo‘lsa nega shu choqqacha bir og‘iz indamading?

– Aroqxo‘rlik qilaverib butunlay esimdan chiqib ketibdi. Unutib-man.

– Telegramma bergenning hozir esingda aniq bormi?

– Aniq esimda.

– Ehtimol, bu ham o‘zing aytgandek, aroqxo‘rlik qilganingda tu-shingga kirgandir?

– Yo‘q, tush emas. Pochtaga borib tekshirsanglar ham bo‘ladi. Hozir shu haqda gap ketganidan telegramma bergenim esimga tushib qoldi.

– Mana ko‘rdingmi, ona, Tanchorangga hech nima bo‘lmabdi, – dedi Ilya sevinib. – Sog‘-salomat, bizning ham sog‘-salomat bo‘lishimizni tilab yuribdi – ha. Sen bo‘lsang, o‘shani deb o‘zingni ham, bizni ham qiynab yubording. Men aytuvdim-ku, axir, shoshil-maslik kerak, hammasi ma’lum bo‘ladi deb. O‘zi hamisha shunday. Eng muhimi, shoshilmaslik kerak, kutish kerak.

Kampir uning gapiga quloq solmadi.

– Nega u bunday qildiykin-a? – deb shivirlarkan yuzida iltijo, umidsizlik ifodasi paydo bo‘ldi. – Nega bunday qildiykin-a? – deb so‘radi u va go‘yo hamon Mixailning gapiga ishonmaganday unga iltijoli tikilib, Tanchoraga hech qanaqa ikkinchi telegramma yuborganim yo‘q, hazillashdim degin, deb yolborayotganday boshini chayqa-di. – Nega bunday qilding-a, Mixail?

– Nega, nega... Ancha yaxshi bo‘lib qolding, uzoq joydan bekorga sarf-chiqim qilib, kelib yuradimi, deb o‘yladim-da.

– Axir men uni bir ko‘rmoqchi, diydoriga to‘ymoqchi edim. Nega bunday qilding-a? – kampir yo‘taldi, qayg‘u-alam uning to-mog‘ini bo‘g‘di. – Axir men uning tuqqan onasiman-ku, begona emasman-ku. Men u bilan rozi-rizolik tilashmoqchi edim, mana endi

uni qaytib ko'rmayman. Sen qanaqa odamsan o'zi?! Menga uning hech nimasi, sovg'a-salomi ham, boshqasi ham kerak emas, hech ni-masi, men faqat u bilan bir og'iz gaplashib, diydoriga to'yemoqchi edim. – Kampir endi yig'lamasdi, ammo ovozi ayanchli bo'lib, xuddi g'ingshiyotganga o'xshardi. – Sen nima qilib qo'yding-a? Sen meni oxirgi quvonchimdan mahrum etding, nuridiydamdan judo etding. Sen meni o'limim oldidan Tanchorasiz qoldirding. Rahming kelmabdi. O'shanga intiqligimni ko'ra-bila turib shunday qildingmi?! Kuta-verib adoyi tamom bo'lgandim-ku.

– Rostdan ham, Mixail, biz bilan maslahatlashmay turib, Tanchoraning kelish-kelmasligini bir o'zing hal qilishga qanday haqqing bor edi? – titrab-qaqshab so'radi Lyusya. – Sen, gapingga qaraganda, o'shanda hushyor bo'lgan ekansan, demak, nima ish qilayotganiningni tushunishing kerak edi.

– Bunda na uyat, na vijdon bor! – deb Lyusyaning gapini ma'qulladi Varvara.

Qizlari qo'llab-quvvatlagandan keyin kampirning ham jahli chiqdi.

– U jo'rttaga shunday qilgan, – dedi kampir shoshilmay, xuddi alamini olmoqchiday yana turib o'tirdi. Uning oppoq sochlari yana to'zib ketdi, ozg'in, qaltirab turgan qo'llari karavotga yopishdi. – Sen jo'rttaga qilgansan, bilaman. Ataylab meni kuydirmoqchi bo'lgan. Butun umrim davomida-ku kuydirib o'tding, endi o'layotganingda ham bir kuydiray degansan, meni kuyib o'lsin deb Tanchorani yo'ldan qaytargansan.

– Qayoqdagi bo'limgur gaplarni qo'y, ona. Nega men jo'rttaga qilarman, nimalar deyapsan o'zi?!

– Jo'rttaga, jo'rttaga qilgansan, – kampirning nafasi qisildi, shu bois ko'kragini ushlab, tinchlanish uchun ohista siypaladi. – Nima, sen meni indamaydi deyapsanmi? Yo'q, gapiraman – endi qo'rqafigan joyim yo'q. U ko'pdan beri meni o'limimni tilaydi, men kampir, uning joniga tegib ketdim. U menden hech qanday foyda ko'rmaydi. Menga esa aksincha, berish kerak – ana shuning uchun alamiga chidayolmay, tezroq qutulishni istaydi.

– Esingni yig', ona, nimalar deb aljirayapsan?! – Mixail kampirning karavoti tomon qadam tashladi.

Varvara qichqirib yubordi:

– Yaqinlashma! Onajonimizga yaqinlashma! Seni qarayu!  
Yaqinlashishga haqqing yo‘q.

– Aljirayapsan, deysanmi? – dedi kampir achchig‘i kelib va go‘yo Mixailni bahslashishga da’vat etayotganday jim bo‘lib qoldi. Mixail xona o‘rtasida chayqalib turardi. – Meni qanday qo‘rqtiganing esing-dan chiqdimi?

– Qachon qo‘rqtibman?

Kampir qizlaridan najot kutib ularga qarab gap boshladi:

– Bir kuni mana shunaqa mast keldi-da: «Yotibsanmi, ona?» dedi. «Yotibman, ajalimni kutyapman», dedim. U bo‘lsa: «Bilasanmi, bizza endilikda odamlar faqat yetmish yil yashaydi, ortig‘i mumkin emas!» deydi. Men unga: «Nega mumkin emas? Odamlar to kuni bit-guncha yashashgan-ku, hech kimni haydab yuborishgani yo‘q-ku», dedim. U bo‘lsa: «Ilgari shunaqa edi, endi mumkin emas, men o‘zim gazetada o‘qidim», deydi.

– Mamlakatimizda odamlarning o‘rtacha yoshi shunday, – dedi Lyusya gap nimadaligini fahmlab. – Mixail o‘shani gapirgan bo‘lsa kerak.

– Bu nima degani?

– Bu shu deganiki... Kim qancha yashasa, shuncha yashayveradi, birov ko‘proq, birov kamroq, lekin shu yoshlarni solishtirib hisoblab chiqib qarashsaki, mamlakatimizda odamlar o‘rtacha yetmish yil yashar ekan. Mana, masalan, sen to‘qsonga kirasan...

– Menga sening to‘qsoning kerak emas – boshimga uramanmi?

– Men misol uchun aytdim-da. Deylik, sen to‘qsonga kirasan, boshqa birov faqat ellik yil umr ko‘radi. Ikkovingizning yoshingizni qo‘shib taqsimlaganda yetmishga to‘g‘ri keladi, endi gapimni tu-shundingmi?

– Nega tushunmas ekanman? Axir u menga mana shunday tushuntirsa bo‘lardi-ku. Shuni deb Mironixaning ham miyasini achitib yubordim. Men unga shu gapni aytuvdim, u bo‘lsa: «Sen, kampirsho, aljirama», dedi. O‘zi bo‘lsa, mundoq qarasam, qo‘rqib ketdi. Qo‘rqib ketdi, jon-poni chiqib ketdi – nimasini aytasan, ikkovimiz o‘tiribmizu dag‘-dag‘ titravmiz. Men unga: «Seni oyog‘ing butun, Yegorkanining oldiga borib kel, u ham shu gazetalarni ko‘radi, balki eshitgandir», dedim. U borib keldi. E, shu yegorkadan biron bama’ni gap chiqarmidi? Yegorka unga: «Sen, Mironixa, do‘konda qora sovun yo‘qligini bilasanmi?»

debdı. «Ha, to‘g‘ri, yo‘q», debdi Mironixa. «Mana endi bo‘ladi. Endi hamma kampirlardan qorasovun uchun foydalansin, chunki bekalar kir yuvGANI sovun topolmayapti, degan.buyruq chiqdi», debdi. Mironixa unga: «Sen, Yegorka, ko‘p tilimni qichitma, men seni Natalyang emasman. Men qarab turmayman», debdi. Yegorka uni battar qo‘rqitibdi: «Ishonmasang, – debdi, – ishonma, hademay o‘zing ko‘rasan. Ana Klyuchada tunov kuni kampirlarning hammasini yog‘ini eritib olib, qora sovun ishlaymiz, deb bitta-bittalab bo‘g‘ib o‘ldirishibdi, yaqin o‘rtada bu yerga ham kelishadi». Ha. O‘sha so‘xtasi sovuqning gapini qara-ya. Mironixa ikkimiz – ikkita kampir, bu gapdan o‘lib bo‘ldik, u endi uyga ham kelmay qo‘ydi. Bo‘g‘ib o‘ldirishlarini kim ham istardi? Biz cho‘qintirilganmiz, bizni xudomiz bor.

– Voy, bu qanday gap, bu qanday bedodlik, – Varvara soniga shapatilab urib sannay boshladi: – Onamizni shunchalik ham xo‘rslashadimi – bu yorug‘ olamda nimalar bo‘lyapti o‘zi?!

– Ona, men senga qachon shunday dedim? – Mixail chayqalib kafti bilan yuzidagi terni artdi. U zo‘rg‘a oyoqda turardi, hatto chetdan qaragan odam ham uning ko‘ngli behuzur bo‘layotganini payqardi. Kechagi va bugungi aroqdan keyin yeganlari hammasi kekirdagiga kelib turardi, bo‘g‘zidagilarni sal pastga tushirish uchun esa zo‘r berib yutinardi. U bukchayib og‘irligini goh u, goh bu oyog‘iga solardi, u stoldan o‘zi turdimi yoki uni majburlab xona o‘rtasiga kelтирib qo‘yishdimi, eslolmasdi. Onasi uning ko‘zлari oldida goh arvohga o‘xshab qimirlab turardi: goh g‘oyib bo‘lib qolardi, u onasining sochlari yoyilib yotganini sira ko‘rmagan edi, shuning uchun ayni paytda ko‘ziga juda xunuk ko‘rinayotgandi. Goh-goh onasi ham, u o‘tirgan karavot ham, atrofidagi opalari, qo‘yingki butun xona chirpirak bo‘lib aylanardi-yu, birozdan so‘ng yana o‘z holiga qaytaridi. Lekin hozir kampirning gaplari uni lol qilib qo‘ygandi, shuning uchun u oldin Varvaraga qaradi, ammo bir zum tek qotdi, xonani girgir aylanishi to‘xtagach so‘radi.

– Qachon men senga shunday dedim, ona?

– Uni esida ham yo‘q. Hech nima esida yo‘q. Aytishga aytib, unutibdi. Ha, men esa, jinni bo‘layozdim.

– Rost, esimda yo‘q.

– Bu qanaqasi bo‘ldi, Mixail? – Lyusya avvaliga gapini muloyimgina boshladi-yu, keyin kutilmaganda, birdan ovozini ko‘tardi:

– Bu qanday bedodlik?! Men sendan so‘rayapman. Rosa hadding-dan oshibsan-ku! Onamning boshiga shuncha ko‘rgiliklarni solib yurgan sendek kimsani nima deb atashni ham bilmayman. Axir bu zo‘ravonlik-ku, zo‘ravonlikning o‘zginasi! Hatto undan ham battar. Uni tahqirlashga kim senga huquq berdi?! Kim? Nega, sen, ona, uning bu qiliqlariga chidayapsan? Nima, seni himoya qiladigan oda-ming yo‘qmi? Peshonangda faqat shu bittami? Men bo‘lsam, hech ni-madan bexabar, bular tinch-totuv, eson-omon yuribdi deb o‘ylabman.

– Eshit, onajon, eshit, – dedi Varvara onasiga, – Lyusyamiz to‘g‘ri aytyapti. O‘lguday surbet bo‘lib ketibdi buning! Nima, u jilovimni tortib qo‘yadigan odam yo‘q deb o‘ylayaptimi? Topiladi, azizim, topiladi. Sendan battarlariga ham topilgan.

– Axir uning bunday qiliqlariga, muomalasiga chidab o‘tirmasdan biror kishi orqali xabar qilish kerak edi-da. Kim-kim-u ammo sen qarigan chog‘ingda tinchgina yashashga arziysan, shuning uchun biz seni hech kimga xo‘rlatib qo‘ymaymiz, ayniqsa, o‘g‘lingga. Agar uyida turishing unga malol kelayotgan bo‘lsa, mayli, boshqa bir chorrasini toparmiz.

– Xo‘sh, – kutilmaganda Mixailniki ham tutib ketdi. – Xo‘sh, balki bitta-yarimtalaring olib ketarsizlar, a? Mayli, olib ketinglar. Kim olib ketsa, sigirimni beraman. Xo‘sh? – u qo‘lini cho‘zib kampirni ko‘rsatdi va zaharxandalik bilan kuldi. – Nega indamaysizlar? Sigirimni beraman deyapman-ku. Qani, ko‘ramiz qaysi bittangiz onamizni ko‘proq sevarkansiz? Kim xohlasa, olib ketsin. Qani ko‘raylikchi, qaysi biringning ko‘zing uchib turgan ekam? Nega xayol surib qoldinglar? Men yomonman, ablahman, sizlar esa oppoq, yaxshi. Xo‘sh, ichingizda qaysi bittangiz yaxshiroqsiz? – u Lyusyaga qarab yurdi.

– Balki sendir? Onamni sen olib ketasanmi? Sen unga qaraysan-mi? Sigirni sotsang – pul bo‘ladi. Onamga ko‘p narsa kerak emas – ko‘ryapsan-ku, deyarli ovqat yemaydi. Bitta sigir puli unga yetib-ortadi. Unga faqat sening odilliling kerak. Onamning otday bo‘lib yurishi uchun uni qanday parvarish qilishni yaxshi bilasan. Unga toza choyshab solib berasan, ma’ruza o‘qiysan. Tezroq olib ketaqol, tag‘in bitta-yarimta olib ketib qolmasin, nega qarab turibsan?!

– Esingni yeb qo‘yibsan! – dedi Lyusya bo‘g‘ilib. – G‘irt jinni ekansan-ku!

Qayqdandir Nadya paydo bo‘lib, Mixailga yopishdi:

– Bas qil, bas qil deyapman senga! Bizni sharmanda qilma. Chiq bu yerdan!

Mixail uni itarib yubordi:

– Yo‘qol, o‘zi sen yetishmay turuvding.

– Unga qulq solmanglar, qulq solmanglar! – deb baqirdi Nadya. – Gaplariga e‘tibor bermanglar. U kayfda, o‘lguday mast.

Mixail yana kului va boyadan beri ko‘nglini behuzur qilayotgan ichkilik endi badanini qizdirib, kayfiyatini ko‘tarib, qonini ko‘pirtirayotganini sezdi.

– To‘g‘ri, men jinniman. Onaning esa jinni bilan birga yashashi aslo mumkin emas. Unda, balki sen olib ketarsan? – xushchaqchaqlik bilan so‘radi endi u Varvaradan. – Senga sigirni sira ziyoni tegmaydi. Seni oilangda onam zerikmaydi. U yerga borsa ancha taskin topadi, qiz bilan hamisha birga, yaxshi bo‘ladi, qizi ichmaydi, xafa qilmaydi. Xo‘sh? Xo‘p deya qol, yo‘q dema iltimos. Nega indamaysan?

– Biznikida joy yo‘q-da, – dedi Varvara esankirab. – Olib ketardim-u, ammo Sonkamizning hademay ko‘zi yoriydigan.

– Turishga joy yo‘q deysanmi? Demak, sigir saqlaydigan joying ham yo‘q ekan-da?

– Yo‘g‘-e, sigirga joy bor. Qo‘rada turaveradi.

– Sigirga joy bor-u onaga joy yo‘q. Onani qo‘raga joylashtirib bo‘lmaydi – chunki anavi, – u Lyusyani ko‘rsatdi, – besh yildan keyinmi, o‘n yildan keyinmi keladi-yu, juda haddingdan oshibsan-ku, deydi. Men ham unga qo‘shilaman. Umuman men onamning qo‘rada yashashiga yo‘l qo‘ymayman. Men ham uning odamga o‘xshab yashashini istayman. – U Ilyaga yuzlandi. – Sen-chi, Ilya, bunga sen nima deysan? Onamizni, balki, o‘zing olib ketarsan, xotiningni ol-diga. Xotining unga qarab yurardi. Axir, sen erta-yu kech ishdasan, u yerda xotiningni ikki og‘iz shirin so‘zga zor. Bizning onamiz esa, o‘zing ko‘rib turibsan, kamgap, muloyim, xotiningga juda ma’qul tushadi. Menikidan ketgandan keyin sizlarnikida yayraydi.

– Ko‘p ichib qo‘yibsan, Mixail, – dedi Ilya asabiylashib. – Nimalar deyayotganiningni o‘zing ham bilmaysan, ha.

– Nahotki, sen onamizni hozir joyidan qo‘zg‘atib bo‘lmasligini tushunmasang? – deb qichqirdi Lyusya.

– Demak, hech kim xohlamas ekan-da? – Mixail turgan yerida o‘girilib, aloq-chaloq ko‘zlarini hammaga yana bir marta yogurtirib

chiqdi. – Hech kim. Tushunarli. – U chuqur nafas olib pishilladi: – Unday bo'lsa, hammalaring tuyoqlaringni shiqillatib qolinglar bu yerdan... Keyin menga undaysan, bundaysan ham demanglar. Ona, sen bemalol yotib dampingni olib, uyqungni uraver. Ular seni shu yerda yotgan paytingda ko'proq yaxshi ko'rishadi.

U shunday eshikka qarab yurdi.

O'rtaga cho'kkан og'ir, qaltis, kishi yuragini ezuvchi sukunatni kampirning ayanchli iltijosi buzdi:

– E xudoyo xudovando, ortiq sarson qilma, keta qolay. Jonimni ola qol. Men tayyorman.

Mixail mo'rchaga borib, titroq ko'llari bilan qorong'ida pechka ichidan shishani oldi, paypaslab katakning ustidan stakan topdi. U stakan labiga barmog'i bilan bosib, unga to'lib-toshib, chetidan oq-maguncha aroq quydi, keyin shishada qolganini yerga sepib yubordida, stakanni bir ko'tarishda bo'shatdi va Ilya yotib yurgan o'ringa o'zini tashladi.

## 10

Shu kech kampir paysalga solmay o'lishga jazm etdi. Uning bu yorug' olamda hech qanday ilinji qolmagandi, o'limni kechiktirishning ham hojati yo'q edi. Hozircha bolalari shu yerda, mayli, eltib ko'mishsin, ikkinchi marta yana shu tashvishni tortib o'tirmasdan, el qatori kuzatib qo'yishsin. Shunda, qarabsanki Tanchora ham keladi, Mixail unga kel, deb yana telegramma yuboradi, shunday qilmasa bo'lmaydi. Kampir endi Tanchorani o'ylarkan, baribir uni ko'ra olmasligiga aqli yetib, ortiq qayg'urmasdi, u bekorga umidvor bo'ldi, o'zini ham, boshqalarni ham qiyndadi. Mana hozir tinchgina go'rida yotgan bo'lardi-yu, o'zining bu yorug' olamda bo'lganini, yashaganini unutardi, hammasini unutardi. Agar u Tanchorani ko'rganida dili ravshan bo'lardi, bearmon ketardi – u ana shuning ilinjida edi. E, bo'lganicha bo'lar, endi jonni qiyashning nima keragi bor, uni qiy-namaslik kerak, tavba qilib topshirish lozim, uchib ketaversin. Vaqtsoati yetdi.

Kampir karavotda yotar ekan, xonaning tinchishini kutdi, chunki u ajalning hurkakligini, shovqin-suronda kelmasligini bilardi. Uydagilar ham shu kuni vaqtli yotishdi. Mixail ularni sharmanda qilganidan keyinoq yotishdi, ammo hech birining ko'ziga uyqu kelmadи,

u yonlaridan bu yonlariga ag‘darilishib, og‘ir xo‘rsinishardi. Mixailning tig‘dek botgan gaplarini miyadan osongina chiqarib tashlab bo‘lmasdi, unutish – bu elektrni. o‘chirib yoqadigan murvat emas: bossang yorug‘-u bosmasang qorong‘i, faqat Ninka uxbab qoldi shekilli, ammo u ham uyqusida lablarini chapillatib qo‘ydi – yo og‘zida konfeti bilan uxbab qolgan, yo kuni bilan shirinlik yeyaverib, tilini urintirib qo‘ygan.

Kampir o‘limni ko‘p o‘ylardi va uni xuddi o‘zini bilgandek biliardi. Keyingi yillarda ular juda inoqlashib qolishgandi, kampir tasavvurida u bilan tez-tez gaplashib turardi, o‘lim esa bir burchakka joylashib olib, uning shivir-shivirlariga qulooq solar va tushunganday xo‘rsinib qo‘yar edi. Ular kelishib olishdi: kampir kechasi olamdan o‘tadigan bo‘ldi. Kampir chaqchaygan ko‘zlar bilan ajalni qo‘rqtib yubormaslik uchun boshqa odamlar qatori avvaliga uyquga ketadi, keyin ajal sekingina keladi-da, bu dunyodagi qisqagina uyqusini abadiy uyquga almashtiradi.

Hamma odamning ajali bir xil – skeletga o‘xshagan qoqsuyak, yelkalari qing‘ir-qiyishiq yovuz kampir, deyishlari noto‘g‘ri. Bolalar va ahmoqlarni qo‘rqtish uchun kimdir shuni o‘ylab topgan. Kampir esa har kimning aynan o‘ziga o‘xhatib yaratilgan o‘z ajali borligiga ishonadi. Ular egizakka o‘xshaydi, odam necha yoshda bo‘lsa, u ham shuncha yoshda bo‘ladi, ular bir kunda bu dunyoga kelib, yana bir kunda narigi dunyoga qaytib ketishadi: ajal kishini kutib turib, uni qabul qilib oladi, keyin ular bir-birini sira birovgaga bermaydi. Inson bir marta yashash uchun tug‘ilganidek, u ham bir marta o‘lim chog‘i paydo bo‘ladi, munosib yashashni bilmaydigan inson ertangi kunden dan bexabar, palapartish kun kechirganidek, uning ajali ham o‘z ishidida tajribasi bo‘limgani uchun egizagini tez-tez yomon ahvolga solib qo‘yadi, bilmasdan azob beradi, qo‘rqtib xafa qiladi.

Ammo kampir o‘zining osongina jon berishini bilardi. Boshqalarning qanday yashagani va o‘limini ular xo‘p ko‘rishdi, endi esa va nihoyat, bir-birini qiyashning hojati yo‘q edi, bunga ularning holi ham qolmagan edi. Kampir qarshilik ko‘rsatmaydi, ajal esa kampirni qiynamaydi. Sirasini aytganda, kampir o‘limdan qo‘rqqan emas, yoshligida balki qo‘rqqan bo‘lsa bordir, boshqa payt esa doimo uni azob-uqubatlar, sharmandaliklardan xalos etuvchi deb hisoblab kelgan. Modomiki, u shu paytgacha ajalni yo‘qlamagan ekan, kelgan

chog‘ida uni haydab yuborgani ham, boshqalardan ko‘proq yasha-moqchi bo‘lgani ham yo‘q – boriga baraka qilib yashayverdi. Endi esa yo‘qlaydigan payt keldi. Tamom.

Kampir faqat yosh bolalar nima uchun o‘larkin, deb buni tu-shunmas, hayron bo‘lardi, u ota-onalarning o‘z bolalarini qabrga qo‘yishlarini gunoh deb bilardi, u bu gunohni xudoga to‘nkashga ham tayyor edi. Yosh bolaning o‘limi ham o‘ziga o‘xshagan ki-chik, aqlsiz bo‘ladi, u bola bilan o‘ynashib turib esidan chiqarib qo‘yadi-da, bexosdan unga tegib ketadi – keyin nima qilib qo‘yanini o‘zi ham bilmaydi. Xo‘s, u-chi, xudo-chi, u qayoqda qarayotgandi, ko‘zi qayoqda edi? Gunoh, endigina tug‘ilgan bola nima bo‘lganiga, nega ko‘zi yorug‘likni ko‘rayotganiga, nega qorni och qolayotganiga aqli yetmay, zarracha gunoh qilmay, bekordan-bekor olamdan o‘tib ketaverishi gunoh-da, axir. Bo‘lmasa uni nega aldashadi – tug‘ishadi? Nega unga go‘zal va betakror yorug‘ olamni ko‘rsatishadi?

Kampirning o‘zi farzandlaridan beshtasini qaro yerga qo‘ydi, alohida-alohida yotib bir-birini sog‘inib qolmasin deya ularni yonma-yon qo‘ydi. To‘rttasi-ku, uncha-muncha kasal bo‘ldi, ammo beshinchisi, o‘g‘ilchasi hech bir sababsiz, bekordan-bekorga o‘lib ketdi. Kechqurun ham soppa-sog‘, yaxshi edi; tinchgina uxladi, yarim kechga borib, biron nima kerak bo‘lib qolsa chinqiradigan bolalar singari chinqirdi va onasini uyg‘otdi. U o‘g‘ilchasini belanchakdan qo‘liga oldi, och qolib uyg‘ongandir deb ko‘krak tutdi, o‘zi ham tepasida mudradi. Keyin u bolaning boshi «skif» etib tushgанини sezdi-yu, ammo butkul uxbab qolsin, deya yana birpas bag‘riga bosib o‘tirdi, keyin o‘rnidan turmoqchi bo‘luvdi, miyasiga urib qoldi: nega badani issiq emas? Hammasi to‘satdan ro‘y berdi – go‘dak tishchalari girix bo‘lib qolgan og‘izchasini ochdi, u bolam emmoqchi shekilli, deb o‘ylabdi, bola esa bir o‘zi o‘lmay, onasi qo‘lida jon berish uchun unga talpingan ekan. Nima uchun, qaysi gunohi uchun o‘ldi? Hali yo‘lga kirmagan bo‘lsa, boshqalarning yurishini tomosha qilib o‘tirsa, hatto gapira olmasa, boshqalar unga yaxshi gapiryaptimi, yo‘qmi, shuni tushunishdan nariga o‘tmagan bo‘lsa, unda gunoh nima qiladi? Axir u bir parcha et-ku, faqat yeyish-u uxlashni bilsa, buni ham onasining qornida beixtiyor-u beduo o‘rgangan bo‘lsa. Shu ham insofdanmi?

Kampir o‘z hayotida bir necha marta farzand dog‘ida kuydi-yu, ammo xudoning o‘zi berdi, yana o‘zi oldi, deb o‘zini-o‘zi ovutdi. Aslida esa bu maqol farzand dog‘iga nisbatan sira to‘g‘ri kelmasdi. Agar mundoq yaxshilab surishtirib ko‘rilsa, hali o‘zini tanimaydigan, bilmaydigan go‘dakni, har bir narsani o‘rganish va bilish istagida uyqudan ko‘z ochadigan, tezroq ulg‘ayishni istaydigan murg‘ak bolani, hali ildiz otishga ulgurmagan niholni shafqatsizlarcha yulib olib, qanday qilib oyoq ostiga tashlash mumkin? Gunoh, gunoh.

Kampir yana uchta farzandidan judo bo‘ldi, ammo ularni hatto ko‘ma olmadi ham, ular urushda halok bo‘lishdi. Kampir ularning o‘ligini ko‘rolmagani, qabrining qayerdaligini bilolmagani uchun yana boshqa bir azobga chidashga majbur bo‘ldi: ehtiyyotsizlik qilib bu bolalarini o‘zi qo‘ldan boy berib qo‘yganday o‘zini ayblab yurardi. Ularni asrab qolish uchun nima qila olishi mumkinligini u hozir ham bilmasdi, ammo nimadir qilish kerak edi, qo‘l qovushtirib, behuda kutib o‘tirmaslik lozim edi. Mana, kutib oqibati nima bo‘ldi – har bittasiga bittadan uchta qoraxat keltirib berishdi. Ketishayotgani-da sog‘-salomat, baquvvat, bir-biridan qolishmaydigan edi, endi bola emas, yigit bo‘lib ulg‘ayishgandi, so‘ng ulardan uchta qog‘ozcha qoldi xołos.

Shuning uchun kampir bu dunyodan ko‘z yumsa, u dunyoda boradigan odamlari bor edi. Bolalaridan tashqari u yerda otasi, onasi, opa-singillari, aka-ukalari bor. Otasining shunday katta oilasidan bu yorug‘ olamda bir o‘zi qoldi, kenja ukasi burnog‘i yili qazo qildi. O‘zining cholli ham urushga ketdi, ammo o‘sha taloto‘p zamonda choliga o‘z ajali bilan o‘lish nasib etdi: uni mehnat armiyasi-ga olishgandi, o‘sha yerda kasalga chalinib, dardni yenga olmadi, ammo omadi bor ekan, uyigacha yetib kela oldi... O‘shanda yoz fasli edi.

Kampir cholining o‘limini xudoning yozmishi deb qo‘ya qoldi, xołos. Bu paytga kelib u ersiz ham ro‘zg‘orni tebratishga o‘rganib qolgan edi. Chol-kampirning turmushini yomon deb bo‘lmasdi, chunki ulardan beshbattar yomon yashayotganlar ham bor edi, ammo yaxshi ham deb bo‘lmasdi. Yo‘q, u ichmasdi, agar ichsa, ehtimol, yaxshi bo‘larmidi: inson yuragida xuddi qozon qasmog‘iga e‘xshab ko‘p bema‘ni narsalar to‘planib, qat-qat bo‘lib qoladi, uni ham nima bilandir ketkazish kerak, shuning uchun aroq, agar me’yоридан ош-

masa, ko‘p odamga doriday gap: ichasan, ashula aytasan, yozilasan, royish bo‘lib qolasan, so‘ng yana ishingga qarab ketaverasan. Ammo cholning jazavasi tutsa, bir oylab jahlidan tushmasdi, ana shunda kampirini ko‘z ochirmay qo‘yardi, o‘tirsa o‘poq, tursa so‘poq, derdi. U nima ish qilmasin, baribir cholga yoqmasdi. U erining kecha-yu kunduz yog‘ilib turgan ta’na-malomatlariga qanday chidab kelayot-ganiga o‘zi ham hayron bo‘lib yoqasini ushlardi. Keyin eri boshqa qiliq chiqarardi: miq etmay qo‘yardi, yarim yilgacha ham bir og‘iz gapirmay yuraverardi. Yaxshiyamki eri uyda ko‘p bo‘lmasdi: goh ovga ketardi, goh pul ishlagani biron yoqqa jo‘nab qolardi, goh qish-da shahardan qishloq matlubot jamiyatiga yuk tashuvchi bo‘lib ishga kirardi, o‘sha paytlarda, urushgacha, yuklarni otlarda tashishar, yo‘l olis, uzoq yurishardi.

Chol qazo qildi, ammo kampirga hammasidan ham ko‘proq erining urushning shundoqqina yonida yurib, o‘lim hammaga baravar chang solib turgan yerdan uyiga qaytib kelib, tinchgina, xotirjam-gina o‘z ajali bilan o‘lgani ajablanaarli edi. Cholimning shunday bo‘lishida bir ilohiy sinoat bor, deya darhol erining qilmishlarini dilidan chiqarib tashladi. «E xudo yo xudovando, gunohlarimizni o‘zing kechir...» deb ibodat qila boshladi u choli olamdan o‘tgach. U erimning gunohini demadi, bizning gunohlarimizni dedi. Shuning uchun kampirning ko‘z yoshlari ham, qayg‘u-hasratlari ham sidqi-dildan bo‘ldi. Nima bo‘lganda ham u bolalarining – o‘lganlarining, halok bo‘lganlarining, tiriklarining ham otasi edi-da, axir. Xullas, bularning oldidan ketsa, oldiga boradigan odamlarbor.

Kampirga tashqaridan nimaningdir jaranglagan tovushi eshitildi, uy ichida esa bolalarining bir maromda nafas olishi eshitilib turardi. Ular uqlashyaptimiyo‘qmi, bilib bo‘lmasdi. Yo‘q, hali erta, yaxshisi, shoshilmaslik kerak.

Kampir go‘yo bir necha bor o‘lib-tirilganday qanday o‘lishini juda yaxshi bilardi. Ammo gap shundaki, u o‘lib-tirilmagandi, lekin negadir u butun manzarani ko‘z oldiga keltirib, hammasini aniq, ravshan ko‘rib, bilib turardi. Ehtimol, bu o‘limi oldidan hali es-hushi joyidaligi paytida o‘tgan umrining boshidan oxirigacha yax-shiroq ko‘rib olishi uchun har bir kishiga shunday ato etilar. Inson tug‘ilganidan keyin, to u past-balандни bilib oladigan bo‘lgunicha bo‘lgan ishlarni boshqalar unga aytib berishadi, xo‘sh, shunday ekan,

Ammo kampir o‘z umridan shikoyat qilmasdi, yo‘q. Axir bu umr birovni emas, seniki bo‘lsa, birovga emas, senga munosib ko‘rilgan bo‘lsa, nima deb shikoyat qilasan? Qanday o‘tgan bo‘lsa, o‘tdi, yaxshimi-yomonmi shunisiga ham shukur, umr ikki marta berilmaydi. Kampir oddiygina yashadi: tug‘di, ishladi, yangi kun oldidan birpas o‘zini o‘ringa tashladi, yana irg‘ib turdi, qaridi – bular hammasi o‘sha yerda, tug‘ilgan yerida bo‘ldi, o‘rmonda ildiz otgan daraxt hech qayoqqa ketolmagani singari u ham tug‘ilib o‘sgan yeridan hech qayoqqa jilmadi, u ham xuddi onasidek faqat mehnat qildi. Boshqalar esa u yoq-bu yoqqa borishdi, ko‘rishdi, yangi narsalarni o‘rganishdi – payti kelib qolganida kampir ham o‘shalarning gaplarini eshitdi, ularning hikoyalaridan ajablandi, qolaversa, o‘zining bolalari o‘shalar qatori u yoq-bu yoqqa ketishyapti, lekin boshqalar singari dunyonи ko‘rish yoki o‘shalar kabi har bir ishni osonroq qilish uchun u o‘zini ularning o‘rniga qo‘yib ko‘rishni sira-sira xayoliga ham keltirmagan edi. Ilon emassanki, po‘stingni tashlab ketaversang. Shu bois kimdir qanchalik yaxshi yashamasin, qanchalik kelishgan, chiroyli bo‘lmasisin, u o‘sha odam o‘rnida bo‘lishni sira orzu-havas qilgan emas, axir bu onang turib boshqa birovni ona qilish yoki yetti yetti begona bolalarga ona bo‘lishni istaganday bir gap edi-da. Inchunin, har umrning o‘z gashti bor. Ha, u ham o‘ziga yarasha yaxshi-yomon kunlarni ko‘rdi, bu kunlar olislashib ketgani sayin unga qimmatli, aziz-u jonajon bo‘lib bordi, agar o‘sha kunlar bo‘lmasa, u shu yugur-yugur-u tashvishlaridan allaqachon o‘zini oldirib qo‘yardi: u har bir baxtsizlikdan keyin go‘yo murda bo‘lib qolardi, obihayot purkab yana tirilardi-yu, o‘ziga dalda berardi, bo‘la qol, tirikchililingdan qolma, sen bo‘lmasang, hech kim seni o‘rningni bosolmaydi, hech kim sen bo‘lolmaydi. To tanangdan joning chiqquncha g‘imirlayverasan, boshqa chora yo‘q. U kun kechirar ekan, bu kunlar unga goh shodlik, goh azob-uqubat keltirardi. Qay biri azob-u qay biri shodlik, ular qayerda bir-biriga qo‘shilgan, qachon ayrilib ketgan, ulardan qaysi biri o‘zi uchun foydali bo‘ldi, buni bilmaydi, o‘zining kelajagi deb ularning sirli ota-shidan dilini yoritish uchun hammasini birvarakay ichiga yutib bora-verdi.

Kampir jimgina cho‘zilib yotar ekan, yulduzlarning jimir-jimir fusunkor nurlaridan yorishgan xonaning tunda qanday nafas olishiga qulq solardi, u shu uy turgan mudroq yerning beixtiyor bo‘g‘iq

xo'rsinishinga, uy tepasidagi keng osmonning charx urishiga, atrofda-gi shitir-shitirlarga qulq solardi, bularning bari ruhini, jismini yen-gillatib va huvillatib, bepoyon tun quchog'iga abadiy chiqib ketayot-gan jonini his etishga yordam berardi.

Shundan keyin birdan o'z hayoti ko'ziga yaxshi, silliq, barori-dan kelganday ko'rini ketdi. Shunchalik baxtli ekanki, bu hamma-ga ham nasib etavermaydi. Agar inson olam odamlarsiz g'arib bo'lib qolmasligi, bolalarsiz qarib qolmasligi uchun bu dunyoga kelgan bo'lsa-yu, o'zida borini bolalariga bag'ishlasa, bundan shikoyat qilib bo'larmidi?

Kampir Mixail to'ng'ich o'g'li Volodka tug'ilganida aytgan gap-ni esladi. U vinodan mast emasdi, yo'q, u o'zi hali yosh bo'la turib ota bo'lidan, otalik baxtidan mast edi, axir u insoniyatning davom etishida ishtirok etdi-ya. Shunda u shunday degandi:

– Buni qara-ya, ona, men sendan, u esa mendan, undan esa yana kimdir tug'iladi. – Keyin pinhona bir alam bilan xuddi bashorat qi-layotgandek qo'shib qo'ygandi: – Hammasi mana shu zaylda davom etaveradi.

Ana shundagina u to yer yuzida hayot tugagunicha hammasi shu zaylda abadiy ketaverishini, shu paytgacha shunday bo'lib kelganini, bundan keyin ham shunday bo'lishini tushundi, bu oddiy, hech kimni chetlab o'tmaydigan haqiqat unda ham to'xtamay, o'zining tuganmas zanjiridan bir yangi halqani uning bo'yniga soldi. U ana shunda o'zi yolg'iz qolgach, kattalardek mulohaza yuritib, bu bebaho olamda yer va havodan tashqari barcha narsa o'tkinchi bo'lidanidek, o'zining boshida ham o'lim bor ekanligini tushundi. Shundan keyin onasi oldiga borib, kampir allaqachon anglab yetgan va u o'g'lim ham bilar deb o'ylagan gapni aytди.

Kampirning nazarida bir lahzagina derazalari kichik, ichidan berkitilgan eski, xarob bir uyda yurganday, kishini maftun etuvchi charaqlagan yulduzlarning nurlari esa devorlar, tomlardan o'tib ich-kariga tushayotganday bo'ldi. Derazachalarning har biri bolalaridan birortasini eslatardi: mana bunisi Lyusyadan, bunisi Varvaradan, bu-nisi Ilyadan, Mixail va Tanchoradan bir xotira. Yuqorida esa yana bir qator mixlab tashlangan juda kichik derazachalar bor, ularga tegi-nishning sira hojati yo'q – bu derazachalar allaqachon olamdan o'tib ketganlardan xotira. Kampir oyparastlar singari o'zidan iz qoldirmay,

u derazachadan bu derazachaga o'tib sarosar kezar va ulardan qaysi birini ochib, qayoqqa qarashini, kimni tanlashini bilmasdi.

Ha, butun hayoti shu yerda, derazachalarda. Xo'sh, kampir, shularni lang ochgin-u, qanday davlating borligini, saqlanib qolgan qaysi bir xotira sendan keyin daryo sohilidagi so'lim mevali butalarni, o'rmon chetidagi qayinlarning shoxlarini qimirlatishini, bitta-yarimtasining yuziga urilib, besababdan-besabab uning ko'ngliga g'ulg'ula solib qo'yishini ko'rib qo'ygin. Hozirgina daraxtning balanddag'i shoxidan mudroq bir qushcha nimadandir cho'chib ketdi, ammo bu hali seni joning emas, sening xotiralaring emas, noaniq shitir-shitir, shivir-shivirlarga aylanib, bu qushchaning uyqusini buzgan hayot seniki emas, boshqalarniki.

Kampir qotib qolgan qaddini rostlash uchun qo'zg'alib qo'ydi, kimdir narigi xonada unga javoban meni ham unutib qo'yma, deganday qimirlab qo'ydi. Negadir kampir qimirlagan kishini Ilya deb o'yladi – bugun u uyda yotgan edi.

Mana, Ilya... Uzoq umr ko'rgan ona o'g'lining nimasini eslasin-u uni ham, o'zini ham ranjitmaslik uchun nimaga nigoh tashlasin? Bugun xotiralar ham beozor, ravshan, hamohang bo'lishi kerak, ilgari bo'lib o'tgan zarracha g'am-alam, biron-bir o'rinsiz baqiriq-chaqiriq bu so'nggi vidolashuv tunida ortiqcha tashvish bo'lishi yaxshi emas. Hademay, hademay vaqt bo'ladi.

Xo'sh, Ilya... U dovdirroq bo'lib o'sdi: o'z polizida hamma narsa to'lib-toshib yotardi-yu, birov larning poliziga tushardi, o'zlarining yeydigan narsalari yo'g'-u u qo'lidagi bir burda nonini duch kelgan odamga berardi. Bir daqiqadan keyin uning yana qanday ish ko'rsatishini sira bilib bo'lmas edi. Bir kuni bolaligida un tortish uchun tegirmonga olib boriladigan bug'doy ortilgan aravaga qarab turgin deb qo'yishmadi, bir mahal odamlar paqa-paq o'q ovozlari ni eshitib qolishdi. Bu Ilya edi, u gavron bilan tovuqlarni haydab, arava ustida o'tirish o'mniga ombor tomiga chiqib olibdi-da, o'sha yerdan turib tovuqlarga qarab o'q uza boshlabdi, hech gapdan hech gap yo'q, bir cho'chqa bilan ikki bolasini otib qo'yibdi. Yana bir kuni, o'shanda kattagina yigit bo'lib qolgandi, undan battar hunar ko'rsatdi. Kolxzogga qayoqdandir tekshirgani bir komissiya keldi. Ilya bilan yana ikki yigit yuqori daryoning narigi yog'ida shudgor qilihayotgandi, komissiya ko'rinishi bilan Ilya qip-yalang'och bo'lib

yechindi-da, hushtagini chalib, plug qulog‘idan ushlab ketaverdi. Komissiya a’zolari orasida xotin-qizlar ham bor edi, ular uning yoniga yaqinlashgani qo‘rqishdi, ular yigitlar yerni yaxshi haydashyaptimiyo‘qmi, bilolmasdan ikki qo‘llarini burunlariga tiqib qaytishdi, keyin chamasi ular raisni rosa olib borib olib kelishibdi shekilli, chunki u qip-yalang‘och bo‘lib yer haydashni o‘g‘lingga sen o‘rgatgansan deb kampirga yopishdi.

Ammo kampir, hozir boshqa narsani esladi. Ilyani ham urushga olishdi, ammo oxirlab qolganda olishdi, shu bois u jang qilmadi: uni u yerda u-bu narsaga o‘rgatgunlaricha urush, xudoga shukur, tugadi. Ilyani frontga kuzatishayotganlarida bu haqda bilishmasdi, albatta.

Qish yaqinlashib qolgan bo‘lsa ham havo ochiq, shamol esib turar edi; tayyor arava g‘ov yonida mahtal edi, yuk xaltalari ortilgandi, darvoza lang ochiq – faqat xayrlashish qoluvdi. Ruhi tushgan, ayni paytda urushga ketayotganidan kerilayotgan, eng muhimi, so‘nggi daqiqada begonaday bo‘lib qolgan past bo‘yli Ilya onasining oldiga keldi. Onasi uni cho‘qintirdi. Ilya jimgina onasining duosiga qulq solib turdi, yo‘q demadi, kampir yaxshi eslaydi, o‘g‘li duoni onasiga achinganidan qabul qilmadi, yo‘q, u dil-dilidan rozi bo‘ldi, bu rozikni uning ko‘zlaridan bilib olsa bo‘lardi, ko‘zlar chaqnab, bir lazagina umid bilan yorishib ketgan edi. Shuning uchun kampir undan ancha xotirjam bo‘lgandi.

O‘g‘lining urushga jo‘nab ketishi to‘g‘risidagi xotira boshqa narsalarni ham esga tushirib yubordi – ular bir-biriga o‘xshamasdi, lekin, har qalay, kampirning xotirasida, aftidan, yonma-yon turardi.

Lyusya shaharga yozda, suv yo‘li bilan ketdi. Pristanga ancha barvaqt, paroxoddan ham oldin kelishdi-da, xuddi lo‘lilar singari sohilga tanda qo‘yishdi, o‘sha vaqlarda ko‘z ochgani qo‘ymaydigan chivin-chirkaylardan saqlanish uchun o‘t yoqib tutatib o‘tirishdi. Lyusyani o‘rtoqlari o‘rab olishgandi, unga goh havaslari kelardi, goh achinishhardi. Tanchora ham o‘shalar atrofida o‘ralashib yurardi, kampir esa qizlardan sal nariroqdagi pastakkina to‘nkada orol ustida qachon paroxod tutuni ko‘rinarkin, deya taqdirga tan berib, ma‘yus kutib o‘tirardi. Nihoyat tutun ko‘rindi, ko‘zi o‘tkir qizlar allaqachon bu tutunni ko‘rgan, g‘ala-g‘ovur qilishib, qiyqirishib, Lyusyani tort-qilashib, bir-birlariga gap bermay, bidirlashga tushgan edilar. Kampir indamay ezilib o‘tirardi.

Paroxod to‘xtadi, shundan keyin Lyusya shosha-pisha dugonalari bilan qo‘l berishib xayrlasha boshladi, eng oxirida qo‘lini onasiga uzatdi. Kampir uning titrayotgan issiq qo‘lini qisdi va endi boraqol degandek yelkasiga turtdi, so‘ng o‘zi ham yaxshi ko‘rinib turadigan yerga, olomondan nariroqqa ketdi. Bir zumda trapni olishdi, paroxod parraklari aylanib, qirg‘oqdan jildi. Lyusya bortda, oppoq temir panjara ortida turib, dugonalariga qarab qo‘l silkidi, garchi kampir unga qarab ikki-uch marta qichqirgan bo‘lsa ham negadir Lyusya onasini ko‘rmadi, keyin kampir qizining ko‘ziga ko‘rinish uchun telbalardek sakrab qo‘lini ko‘tarib tushiraverdi.

Paroxod bir tomonga qiyshayib, bortidan suv oshib o‘tay deb qolganda, yo‘lovchilarni boshqa tomonga haydashdi, jumladan, Lyusya ni ham... Kampir yig‘lavoray deb turgandi. Shu payt to‘satdan Lyusya oxirgi marta sohilga qaradi-yu, uni kampirning ko‘zidan to‘sib turgan matroscha maykali yigitni itarib yubordi va jon-jahdi bilan boshidan ro‘molini yulqib olib o‘pkasi to‘lib onasiga qarab silkiy boshladi. So‘ng yuzlari oppoq oqarib, ko‘zlaridan yosh chiqib ketdi. Kampir ham Lyusya tomon otildi, tizzasigacha suvga kirdi, ammo paroxod endi yurishini tezlatib, bor kuchi bilan suvni shaloplatib, olg‘a intilardi, uning ortidan esa ko‘zni qamashtirib, go‘yo paroxodni quvlayotgandek, yaltiroq o‘yinchoqdek aylantirib quyosh tushib turardi.

O‘shanda kampir endi qizim bilan qaytib diydor ko‘rishmasak kerak deb o‘ylagandi.

Nogahon uning bolalari to‘g‘risidagi xotiralarini to‘zitib, boshqa bir voqeа yalt etib ko‘z oldiga keldi, bu ham daryo bilan bog‘liq xotira edi.

Tiniq yoz osmonida qayoqdandir bir parchagina bulut paydo bo‘lib, sharillab qisqagina yomg‘ir yog‘ib o‘tgach, keyin yana darrov ketidan quyosh charaqladi, dalalardan bug‘ ko‘tarilardi, daraxtlar va butalardan og‘ir-og‘ir tomchilar chak-chak tomardi, u yer-bu yerdagi o‘t-o‘lanlardan qo‘ng‘izga o‘xshab tomchilar dumalab tushardi, daryoda ham pufakchalar suzardi, ko‘piklar oqardi – hammayoq toza, yaraqlardi, muattar hidlar anqirdi, qushlar nag‘masi yangrardi, suvlar shaldirardi. Yomg‘irdan joni kirgan yer bor go‘zalligini namoyon etib, charchog‘i chiqayotganday huzur qilib nafas olardi, baland osmon yanada tiniq moviy tusga kirgan edi.

O'shanda u kampir emasdi – yo'q, u paytlar hali yosh qiz edi, atrofidagi barcha narsa yashnab, yaraqlab, jilva qilib turar edi. U yomg'irdan keyin daryo qirg'og'idan iliq bug'lanib turgan suvni shaloplatib yurib borardi, ortida qolayotgan to'lqinlarda pufakchalar chayqalib yorilar edi. Sohildagi g'alvirak qum qorayib turardi, sohil pastda joylashgan, ro'parasida orol bor, qayerdadir, burunda suv shovillardi. Irmoq uzun, tezoqar, tiniq edi, undan yoyilib oqayotgan suv yaxshi ko'rinish turardi.

U qayoqqa, nima uchun ketayotganini o'zi ham bilmay hamon sanqirdi, keyin, qirg'oqqa chiqdi, chayir, yalang oyoqlarini qattiq qumga bosib, chuqur iz qoldirdi, keyin o'z izlariga uzoq tikildi. Uzun yubkasi ho'l bo'lib badaniga yopishib qolgandi, shunda u yubkasing etagini ko'tarib beliga qistirdi-da, yana suvga tushgandi. O'zi esa, e, attang, meni hozir hech kim ko'rmayapti-da, deb ohista kul-gandi. O'sha lahzada bu yorug' olamda yashash, uning ko'rkamligini o'z ko'zları bilan ko'rish, bu jo'shqin, hushchaqchaq, butun harakatlari mutanosib bu betakror hayot gashtini surish uning uchun naqadar quvonch, baxt edi, bundan uning boshi aylanib, hayajonlanib, yuragi orziqardi.

O'sha kunni eslasa, hozir ham kampirning yuragi bir hapriqardi: o'shanda shunday bo'luvdi, rost, xudo guvoh.

Kampir nahotki o'sha go'zallik hozir ham odamlarga o'shandayicha ko'rinsa, u shuncha yil yashagan bo'lsa-yu, shu vaqt ichida bu go'zallik sira ham xazon bo'Imagan, so'Imagan bo'lsa, deb o'ylardi. Uni shu tobda ham o'shanday beg'ubor, shəd-xurram ko'rib bo'larmikin? yer yuzida ozmuncha o'zgarishlar bo'ldimi, nahotki o'sha go'zallik hamon avvalgiday, o'zgarmay qolgan bo'lsa?

Kampir ma'yuslanib xafa bo'ldi, lekin shu zahoti u agar sen bu yorug' olamdag'i barcha narsa o'zing kabi qarib, sen bilan birga yo'q bo'lib ketishini istayotgan bo'lsang, juda ham xudbin ekansan-da, deb o'zini-o'zi koyidi.

Bir zamonalr, Varvara hali qizaloqlik paylarida, kampir bir kuni uni bir tor ko'chada cho'kkalab olib cho'p bilan yerni kovlayotganini ko'rib qoldi.

- Bu yerda nima qilib o'tiribsan? – deb so'radi undan onasi.
- Qaziyapman.
- Nega?

– Bu yerni tovuq titayotgan ekan, it kelib uni quvib soldi. Men bo‘lsam ko‘rib qoldim. Sen meni haydab yubormaysanmi?

– Yo‘q, haydamayman.

– Unday bo‘lsa, yana birpas o‘tirib kovlayman.

Onasi ichida kulib yo‘liga ravona bo‘ldi. Varvara uyga qaytib kelgandan keyin onasi qiziqib so‘radi:

– O‘sha kovlab o‘tirgan yeringdan biron nima topdingmi?

– Men hech nima qidirganim yo‘q, shundoq o‘zim kovladim. Ammo meni bir daydi ho‘kiz quvladi. Sen borib o‘sha ho‘kizni haydargin-u qazib ko‘rgin.

– Nimaga?

– Shunchaki, qazisang bas, ko‘rasan.

– Nimani ko‘raman?

– Bilmasam. Biron nimani-da.

Qiziq, mana endi oradan ko‘p yillar o‘tib, kampirda ham nogahon dalaning biron yerida cho‘nqayib o‘tirib olib, xuddi Varvara singari yerni kovlash, uning qandayligiga diqqat va hayajon bilan tikilish, hali hech kim bilmaydigan narsani qidirib topish istagi tug‘ildi. Odamlar kishi qarisa yosh bolaga o‘xshab qoladi deb kullahardi, bunda ular keksaning esi kirdi-chiqdi bo‘lib qolganini-yu, bolaning esa hali esi kirmaganini nazarda tutishsa kerak. Darhaqiqat, keksa bilan yosh bolaning qo‘lidan faqat shular: mavjudligini his etish-u har bir qadamda atrofni o‘rab olgan muhitdan hayratlanish keladi xolos.

Vaqt yarim tundan o‘tgach, havo salqinlashdi, tunning musaffo, sovuq yog‘dusi derazadan tushib, devorda o‘ynardi. Bunday paytlarda mayin shabada yelib, yulduzlarning dillarga zavq bag‘ishlab ajib jimirlashimi, yangi oyning qop-qorong‘i osmonda viqor bilan suzishi kampirning yodida edi. Yerda esa hech nima qilt etmaydi, hammayoq suv sepgandek jimjit, uyquda, fusunkor sehr og‘ushida.

Shundan keyin kampir bir titrab, vaqt bo‘ldi, deb qo‘ydi. Hozir ayni payti, tun yarimdan og‘gan, endi ortiq kutish mumkin emas. Hozir hamma qattiq uyquda, hech kim eshitmaydi, halaqt bermaydi. Tun sutdek oydin, bu ham yaxshi, ana shu tun uni so‘nggi manzilga kuzatib qo‘yadi.

Kampir hayajonlanmay, qo‘rqmay, xotirjamlik bilan hozirlik ko‘ra boshladi. Kampir ishni nimadan boshlashni o‘ylab adyolni

ohista ko'kragi ustidan nari surdi, shovqin chiqarmaslik uchun karavot ustida sekingina silkinib ko'rdi va tanasida ortiqcha hech nima qolmaganini, ortiqcha vazn tark etganini sezdi. U o'zining pardek yengilligiga, gavdasi xuddi havoda uchib yurgandek, juda yengil harakat qilayotganiga xiyol ajablandi-yu, lekin shu ondayoq bu hayratdan nom-nishon qolmadi. Bu vujud hali shu yerda, u bilan birga edi, shuning uchun kampir yuragi hanuz vujudiga quvvat berib turganini eshitayotgandi. U oyog'ini uzatib, qulayroq joylashtirdi, mana, hademay oyoqlari ham a'zoyi badani bilan xilda bo'ladi-yu, xizmat qilishdan hammasidan oldin men bosh tortganman, deb iztirob chekib yurmaydi. Axir kampir shu oyoqlariga bir necha marta sizlar aybdor emassizlar, men o'zim yugur-yugur qilaverib sizlarni qiyinab qo'ydim deb aytgandi-yu, ammo oyoqlari tushunishmadi-da. Endi tushunishadi, tushunmay qayoqqa borishardi.

Kampirning ko'zlar hamon ochiq edi, uning ko'zlarida bo'zarib turgan tun oydini aks etardi – u ko'rayotgan so'nggi narsa shu edi. Mayli, ana shu bo'zarish quyuqlashsin-u ilgari ko'ringan narsalar ning barini to'sib qo'ya qolsin, ana shunda, yuqorida tushadigan qorong'ilikni osongina qabul qiladi. Kampir shu tobda deyarli sakkson yil yashab, vaqt hamisha oshib-toshib yurib, endilikda joni qil ustida turganini fahmlab qoldi-yu, allanechuk bo'lib vujudi muzlab ketdi. Shu lahzada kelajakdan zarracha ham umidi qolmagandi, uning butun umri bir bo'lib, o'tmishga aylangandi, birozdan keyin esa na o'tmish-u, na kelajak bo'ladi. Undan keyin bu yorug' olamda bolalari qoladi, kampirning o'zida esa hech kim, hech nima, hatto o'zi ham qolmaydi. Qiziq, uning hayoti qayoqqa g'oyib bo'larkin? Axir u yashadi-ku, endi uning hayoti kimga qolarkin? Axir u umrini xuddi ish singari yaxshimi-yomonmi oxiriga yetkazdi-ku. E, axir endi undan yengcha tikolmaysan-ku – bu ayni haqiqat. Nomini tilga olishadi, tepasida bosh egishadi, vassalom. Shunday odam yashab o'tgan edi deyishadi-yu, keyinchalik unuta boshlashadi, bora-bora eslariga ham keltirmaydigan bo'lishadi. Bu ham rost. Xo'sh, unga yana nima kerak? Nima uchun, nimani deb yashaganini-yu, duch kelgan har qanday yukni tortgani va yelib-yugurganlarini loaqla bilib qo'yish uchunmi? Nimaga? Faqat o'zi uchunmi yoki yana bironbir foyda uchunmi? U o'zidan surriyod qoldirdi – bu yaxshimi yo yomonmi? Kim aytadi? Kim tushuntiradi? Uning hayotidan, chanqoq

dalaga yog‘adigan, ko‘pdan beri kutilgan yomg‘irday birov zarracha baraka toparmikin?

Shu payt uyning qorong‘i burchagidan bir narsa g‘ijirlab, go‘yo noaniq, mubham javob bergandek bo‘ldi, kampir tilini tishlab qoldi: mana, uning ajali kelyapti.

Mana endi, joni uzilay deb turgan paytda nazarida kampirga bundan oldin ham bu yorug‘ olamga bir kelib-ketganday tuyuldi. Qanaqa edi, nima edi, emaklarmidi, yurarmidi yoki ucharmidi, u buni eslolmasdi, lekin nimadir unga yerni birinchi marta ko‘rayotganing yo‘q deb aytib turardi. Mana, qushlar ham ikki marta tug‘iladi; avval tuxumda, keyin esa tuxumdan chiqadi, demak, shunday mo‘jiza bo‘lishi mumkin ekan, shunday desa xudoga ham shak keltirmas. Bir zamonlar kechasi osmonda momaqaldiroq dahshatli gumburlab, chaqmoq chaqib, sharillab yomg‘ir yog‘gandi, atrof vahimali qarsillardi, chaqmoq yomg‘ir chelaklab quyayotgan osmonni tilib, yalt-yult qilardi. Bu yorug‘ olamda o‘sha kungacha bundan-da qo‘rquinchliroq, bundan-da dahshatliroq hodisa bo‘lmagan bo‘lsa kerak: o‘sha momaqaldiroq uni o‘ldirgan bo‘lsa ham ajab emas, chunki kampir boshqa hech nimani, ungacha bo‘lgan ishlarni ham, undan keyin bo‘lgan hodisalarни ham eslolmasdi, faqat momaqaldiroq esida bor, ammo bu manzara ham qandaydir oldingi, boshqa bir xotira aks-sadosiday ko‘z oldiga birrov keldi-yu ketdi.

Kampir ohista cho‘qinib qo‘ydi: agar nojo‘ya gapirgan bo‘lsa, xudoning o‘zi kechirsin, u nogahon esiga tushib qolgan bu xotira bilan aslo gunohga botishni istamaydi, u qayoqdan paydo bo‘lganini, yodiga qaydan kelib qolganini kampirning o‘zi ham bilmaydi.

Shundan so‘ng kampir atrofiga so‘nggi vidolashuv nigohini tashlamay tezda ko‘zlarini yumdi. Uning yumilgan ko‘zlar oldidan chapdan o‘ngga qarab tutun halqalari buralib o‘ta boshladi, go‘yo kimdir shu zahotiyoy kimdir prichastiye<sup>1</sup> oldidan uning uchun tutantiriq tutatayotganday edi. U cho‘zilib, ajalning dastlabki qitiqlovchi nafasini zo‘r berib kutib, qimir etmay yotdi, bu nafasdan keyin vujudini qayg‘uli, ayni damda orombaxsh bir tuyg‘u qamrab oladi. Mana u yorug‘ dunyoga kelib, uning past-balanchi-yu yaxshi-yomonini ham ko‘rib bo‘ldi. Omin. Kampir aqli zaiflashib, ko‘llari uvushayotgani-

<sup>1</sup> Prichastiye – diniy marosim.

ni sezdi. Yoki unga shunday tuyuldimikin, o'zi shuni istadimikin? Mana qo'ng'iroqlar ham yer uzra sadolarini yangrataman deb, shay turishibdi.

Daqiqalar o'tib ketdi, yana o'tyapti – ammo hech nima ro'y bermasdi. Kampirning es-hushi avvalgidek joyida edi: o'ziniig kimligini, qayerdaligini, nimaga yotganligini bilardi. Ajal negadir shoshilmasdi, nimanidir kutardi.

Kampir diqqat bilan o'ziga o'zi qulqoq soldi. Barcha a'zolari avvalgi joylarida o'z xizmatini o'tayotganga o'xshardi.

Kampir nega hanuz joni uzilmayotganiga tushunolmay, men shu yerdaman, shu yerdaman, deya ohista, bo'g'iq ingradi. Balki ajal uni hali tayyor emas, deb o'ylab shoshilmayotgan bo'lishi ham mumkin-ku. Kampir ajalda ishonch hosil qilish uchun ayanchli, chorlovchi bir ovozda tun jimligini buzib, qo'rqma, kelaver, men senga intiqman, degandek yana bir marta ingrab qo'ydi.

Kampir allanechuk bo'lib ketdi, ko'ngli g'ash bo'ldi. Nima balo, kampir o'z o'limini tilayverib ajalning tinkasini shunchalik quritib yubordi-yu, endi u bu yerga kelishga holi qolmadimi? Axir u shuncha yildan beri o'limni ergashtirib yurdi, hatto ergashtirmadi, chopqillatib yurdi desa ham bo'ladi. Shunday bo'lgach uni butunlay sulaytirib qo'yish ham hech gap emas. Rostdan ham ajalning kampirga, kampirning esa ajalga yetishiga holi qolmagan bo'lsa-ya. Demak, endi u o'lmas ekan-da? Yo'q-yo'q, bunaqasi bo'lmaydi. Tug'ilmagan odamgina o'lmaydi. Ha, qolaversa, buning boshqa sababi borga o'xshaydi. O'lim o'z ishini biladi, qanday uddalash yo'lini topadi, shuning uchun ham bu olamda bor-da.

Kampir tashvish ichida qolib, hansirab nafas olardi. U hozirgina butun insoniy tashvishlardan qutuldim deb o'zini ishontirgan paytda, mana, yana hammasini qaytadan boshlashga to'g'ri kelmoqda.

Kampir fikridan qaytdi: avvalo tinchlanib, hovurdan tushish kerak. U o'limga hozirlik ko'rayotib, nimanidir xato qilganga o'xshaydi. O'lim undan chekinmadi, aksincha, o'limga o'zi xalaqit berdi, uning ishini o'z gardaniga oldi-yu, xalaqit berdi. Xo'sh, bu kimga ham yoqardi? Ajal uzoq – sakson yil davomida o'zining quvonchli daqiqasini kutgan, nima qaysi tartibda bo'lishini o'n marta lab mo'ljallab chiqqan – uning o'z rejalarini bor. Axir bu rejalarga aralashib bo'larkanmi? Mana oqibati.

Kampir uqlashga jazm etdi. Tun axir uqlash uchun yaratilganda. Zero, kampir ko'rmay, eshitmay yotganida ajal ham dadilroq bo'lib keladi, odamlar va bu yorug' olam bilan bog'lab turgan barcha rishtalarni uzadi, ana shundan keyingina kampir, endi es-hushingni yig'gin-u, omonatingni topshir deb uyg'otadi. Tun poyoniga yetib qoldi, ammo hali ham kech emas, ertalabgacha ulgursa bo'ladi.

Kampir odatdagidek uqlash uchun qimirlamay yotardi, axir u umrida ming martalab shu xilda uqlagan-da. U ko'zlarini ochmadi, ularni qiynamasdan o'z holiga qo'ydi. Kampir asta-sekin karavotda o'zini-o'zi tebrata boshladi. U bolani allalagani kabi ohista hirgoyi qila boshladi. Uning ko'zi birrov ilindi, nazarida uni yumshoq kulrang matoga o'rashayotgan mish, u mayin matoning yoqimli shildirashidan huzur qilib, unga borgan sari chuqurroq botarmish, ammo nimadir uni botgan joyidan qaytarib yubordi.

Uyqu kelmasdi. Kampir o'zicha taxmin qildi: shu paytga ke-lib uyqu go'yo, toshdek qotib qolgan-u endi uni qimirlatib ham bo'lmaydi. Endi na uqlay olasan-u na bedor o'tira olasan. Uyqu shunday bedavo narsaki, istaganingda darrov kela qolmaydi. Boshqa bir yo'l tutish kerak. Chamasi, yotishdan boshqa hech nimani ko'ngliga keltirmay, hech nima o'ylamay shunchaki yotaverish kerak shekilli, shunda ehtimol, bekorchilikdan uqlab qolar. Shunday bo'lsa koshkiydi. Mayli, shoshilmaslik kerak, o'zini shunday tutish kerakki, vaqt hali to'lib-toshib yotibdi, tun esa endigina boshlanyapti.

Kampir endi shunga hozirlik ko'ra boshladi: sekin-asta nafas olib vujudini o'z holiga qo'ydi, gupillab urayotgan yuragining tinchishini kutdi va qo'llarini ko'kragi ustida chalishti. U o'zi umid qilgandek shu zahoti yoqimli, shirin mudroq bosdi va uni go'yo arshi a'lo tomon boshladi, manzilga juda yaqin, bor-yo'g'i bir necha odim qolganida qishloqning qayeridadir bir xo'roz uyalmay-netimay sukunatni buzib qattiq qichqirib qoldi. Bu shunchalik kutilmagan va noo'rin qichqiriq ediki, kampir bo'g'iq ovozda ingrab yubordi-da beixtiyor ko'zlar charaqlab ochilib ketdi va shu zahotiyoy yana qayta ko'zlarini yundi, ammo endi befoyda ekanini tushundi. Hammasi rasvo bo'ldi. Najot topolmadidi. Garchi najot hozirgina shundoq yonida turgan bo'lsa ham endi u olislab ketgan edi. Birinchi xo'rozdan keyin ikkinchisi, uchinchisi, to'rtinchisi qichqirdi...

Hammasi behuda ketdi. Endi kampirning hech nimadan umidi qolmagan edi.

Kampir ko'zlarini olib yotib qilayotgan ishlaridan uyalib ketdi. U bundan battar sharmandalik bo'lmaydi degan xayolga bordi: o'zicha xayr-ma'zur qildi, rozi-rizolik tiladi, so'nggi xotiralar bilan o'ziga tasalli berdi, o'limini kutib ko'zlarini ham yumib yotdi, lekin mana, baribir qaytdi. Axir yana kim ham shunday qilishi mumkin? Yo'q. U qo'rqqani yo'q, u sira bundan qo'rqqan emas, o'ziga o'zi firib berib nima qiladi. Agar gap uning o'zida bo'lsa, u o'lib bo'lgan, axir uning gunohkor, qo'rroq jismi qanday, kimning umri hisobiga, kimning, nafas olishi hisobiga yashaydi-yu, qimirlab turadi, bu ma'lum emasdi.

Tun bo'zardi, charaqlagan yulduzlar xiralashdi, fayzi ketib ko'rimsiz bo'lib qoldi: tong ota boshlagani shulardan ko'rini turardi. Xo'rozlar ham qichqira-qichqira jimb qolishdi, tun shosha-pisha nishablikka og'a boshladi. Bunday paytda yulduzlar yanada baland-roq chiqishadi-da, yerga so'nik, horg'in nigoh tashlashadi. Bularning hammasi kampirning miyasiga beixtiyor kelib qoldi. Kampir parishon, nochor, butunlay karaxt bo'lib yotardi, endi bu olamdag'i barcha narsadan uning ko'ngli qolgan edi.

Kampir shu zaylda uzoq, to ertalabgacha yotdi. Tong otib, kampirning xonasiga g'ira-shira bo'lgandan keyin u ustidan adyolni olib tashladi-da, turib o'tirdi. U o'z oyoqlariga jirkanib qararkan, paypoqlarini kiyib shippagini ildi. Bu ishlarni qilishni kampir kecha qaytadan o'rganib olgandi. Ammo bugungi tong kechagiga o'xshamasdi. Kecha u otayotgan tongdan xursand bo'luvdi, o'sha kundan umidvor bo'luvdi. Tanchorani o'ylovdi. Ammo orzularidan birortasi ham ushalmadi. Hatto tun ham unga najot bermadi, uyqusiz qoldirdi – axir bu savil qolgur uyqu hammaga yetardi-ku. Kampirga kelganda yetmay qoldi. U sezib turibdi: hammaning me'dasiga tegib bo'ldi, endi hech kimga kerak emas – shunday bo'lgach, hech kim u bilan hisoblashmagandan keyin, u o'zi bilan o'zi hisoblashib nima qiladi.

Kampir karavot suyanchig'ini ushlab o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Oyoqlari qaltirab, bukilib ketdi, lekin u bunga e'tibor berib o'tirmadi: modomiki jon berishni istashmadimi, endi kampirning aytganini qilishga majbur, o'zini nochorlikka solish endi bas, baribir hech kim ishonmaydi. Kampir qo'llariga tayanib, oyoqlarini rostladi va jon-

jahdi bilan ularni qo'zg'alishga majbur etdi – qani yuringlar, modomiki hali jon asari bor ekan, sizlar ham boshqa oyoqlar singari yuringlar, sinishni esa xayolingizga ham keltirmang. Yu-ring-lar! Oyoqlaridagi har bir suyak qisirlab, zirqirab ketdi, lekin bu kampirni shashtidan qaytara olmadi. Xohlagancha qisirlayveringlar, ammo yuringlar. Sizlarning ra'yningizga qaraganim bas, endi menga qulog solinglar. Kampir taxta devorni ushlab, polda oyog'ini sudrab bosa boshladi. Chetdan qaragan kishiga kampir devorda emaklab ketyotganga o'xshab ko'rinaridi – u deyarli devorga yopishib, qo'llarini keng yozgancha paypaslanib borardi. Kampir ostonadan emaklab o'tdi – bo'lmasa o'tolmasdi. Pillapoya oldida yana bir pastak ostona bor edi, ammo kampir endi qaddini rostlamadi, shunday, emaklagancha xuddi itga o'xshab tashqariga chiqdi, istasang vovilla, istasang uvilla. Kampirning darmoni deyarli qolmagandi, shuning uchun u yuz mashaqqat bilan bir amallab yuqorigi pog'onaga o'tirib oldi.

Baland ko'tarilgan tong shafag'idan ko'k gumbazi tiniq, ravshan edi. Osmomonning, ayniqsa kampirning ko'ziga ko'rini turgan tomoni quyosh chiqmasdan oldin ko'm-ko'k tovlanib, tonggi g'ira-shira ham shu rangga singib ketgandi. Hali erta edi, ammo o'rmon allaqachon uyqudan uyg'ongandi, daraxtlar bir-biridan ajralib turar, hatto uchlari ham alohida-alohida, aniq-ravshan ko'zga tashlanardi. Ombor orqasidagi qo'ndoqdagi tovuqlar g'imirlab, qanotlarini og'ir qoqib pastga uchib tusha boshladi. Shosha-pisha silkinishib, darrov yer titkilashga tushishdi, tez-tez yurib o'zlarini isita boshlashdi. Chindan ham havo ancha salqin edi, daryo tomondan tungi nam havo esardi, polizlardagi ekinlar yaprog'ida shudringlar sovuq yaltirardi. Tong o'z qonuniyatiga binoan o'zgara bordi: hozirgina qimir etmay bezrayib turganday tuyulgan shafaq yorishib, kunduzga aylana boshladi, osmonda taramtaram, rang-barang nur paydo bo'lib jilva qildi – shundan keyin ko'p o'tmay kampirning ko'z oldida quyosh chiqdi va yerkarni yayratib, saxiyilik bilan iliq nurlari ila munavvar etdi.

Kampir tashqariga nima uchun chiqqanini o'zi ham bilmasdi. Balki u yursam yuragim ko'tarolmay jonim chiqib ketarmikin, shu bilan yurishmagan ishim yurishib ketarmikin deya umid qilgandir. Yo'q, bu yerda ham ishi baroridan kelmadи. Hech jin urmadi. U bir o'zi sovuq yeb qo'qqayib o'tirar va polizlarga, o'rmonga – atrofга loqaydlik bilan qarar, shu bois hech nimani ko'rmas, ilg'ammas

edi. U hech kimga kerak bo‘limgani uchun xuddi oftobga chiqarib qo‘yilgan shamga o‘xshardi. Ammo kampir quyosh chiqqaniga sevindi. Chunki yupqa ichki ko‘ylakda edi, a’zoyi badanidan sovuq o‘tib titrayotgani uchun hatto salgina iliq ham tanasiga xush yoqayotgandi. Shunday bo‘lsa ham bu kun unga ortiqcha, birovnikiday tuyulardi, u avvalboshdanoq shu kunning kelishini istamagandi, undan qo‘rqqandi! Modomiki kechasi ajali yetmagan ekan, demak, yana bir kun chidashi lozim edi. Bu dunyoda hech narsa bejiz bo‘lmaydi.

Shuning uchun u kutib o‘tiraverdi.

Dahlizda idish darangladi – Nadya chiqdi. U kampirni shu yerda ko‘raman deb sira kutmagandi, shu sabab qo‘rqib ketib, o‘zini orqaga tashladi.

– Ona! – kelini ham uni ona der edi. – Bu yerda nima qilib o‘tiribsan?

Kampir uning ovozini eshitib o‘girildi, so‘ng o‘tiribman-da, deganday bosh irg‘adi.

– Bu yoqqa qanday qilib chiqding?! Axir muzlab qolibsan-ku. Kel, o‘rningga eltid qo‘yay.

Kampir unamay, yo‘q deganday boshini keskin chayqadi.

– Axir qanday...

Nadya uy ichiga otildi, ammo o‘ziga ishonmay avval kampirning karavotiga qaradi – karavot chindan ham bo‘sh edi – shundan keyingina u ilgakdan fufaykani olib kampirga chiqarib berdi.

– Bu nima qilganing-a? – Nadya hamon es-hušhini yig‘ib ololmasdi. – Hamma uxlab yotibdi, hech kimning xabari yo‘q. Yo ularni uyg‘otaymi?

– Keragi yo‘q, – dedi kampir. – Sen borib sigiringni sog‘aver. Men shu yerda o‘tira turaman.

Nadya to hovliga tushib borgunicha ikki yoki uch marta ortiga o‘girilib qaynonasiga qaradi – o‘tiribdi!

Quyosh o‘rmondan uzilib kechagidek, tunov kungidek, o‘n yil va yigirma yil avvalgidek xiyol o‘ng tomondan musaffo, bepoyon osmonga ko‘tarildi. Quyosh hali ravshan, aniq-tiniq emasdi, ko‘zni qamashtirmasdi. Polizlar go‘yo shudringga cho‘milgandek edi, qa-yoqqa qarama, kishi havasini keltirib, yonib, yaltirab turardi. Qishloq uyg‘onib, tomlar ustida tutunlar suza boshladidi, ko‘chada bir mol

yerni gursillatib, daydib yurardi, uylarning zich eshiklari g‘ichirlab ochilib-yopilardi, tongga xos dastlabki ovozlar yangrardi.

Shu mahal, mehmonga hali hech kimning ko‘zi uchib turmagan paytda to‘satdan, xuddi yer tagidan chiqqanday kampirning qarshisida Mironixa paydo bo‘ldi. Odatiga ko‘ra to‘g‘riga emas, oyog‘i os-tiga qarab yuradigan Mironixa kampirga urilib zinadan yiqitib yubo-rishiga sal qoldi va taajjublanib cho‘nqaygancha kaftlarini bir-biriga qarsillatib urdi.

– Bu o‘zingmisan yo arvochingmi, kampirsho?

– Menman, – dedi zo‘rg‘a kampir. U hozir Mironixaning kelgani-dan ham xursand emasdi, ovozi so‘nik, zaif edi. Mironixa hol-ahvol so‘ragani uchun noiloj javob berdi, xolos!

– O‘rmalab chiqibsan-da?

– Chiqdim.

– Shu desang, kampirsho, bugun men bilan bir tog‘ga chiqib kel-maysanmi, a? Ikkovginamiz sira zerikmay borib kelardik-da.

– Yo‘g‘-ye. O‘zim zo‘rg‘a shu yergacha yetdim-u. Bir emakladim, bir sudraldim, ishqilib chiqib oldim.

– Men bo‘lsam borib Nadyadan bilay-chi, kampirshoim qalay yotganiykin deb oyog‘imni qo‘limga olgancha bu yoqqa keluvdim. Bu bo‘lsa karavotidan bu yoqqa yo‘rg‘alab qolibdi.

– O‘lmadim, – dedi kampir.

– Iltijo qildingmi?

– Qildim.

– Demak, vaqt emaskan-da.

– E, yana qanaqa vaqt kerak? – alamzadalik bilan dedi kampir. – Bolalarim shu yerda, ular meni uzoq kutib turisholmaydi. Ayni payti edi. Bo‘lmadi-da.

– Hammamiz ham, kampirsho, xudoning panohida yuribmiz, xudo nimani iroda etsa, shu bo‘ladi.

– Men endi xudoning panohida yurmoyotibman, emaklayapman. Shuning uchun tashqariga emaklab bo‘lsa ham chiqay, o‘zimni ajalga ro‘para qilay, xudo esidan chiqarib qo‘ydi shekilli meni, o‘lim ber-mayapti, deb o‘yladim. Qani endi ko‘rsa!

– Hay-hay, tavba qil.

Kampir bu noxush suhbatni davom ettirishni istamadi; Mironixa tunda kampirning yonida yo‘q edi-da, aytganing bilan baribir tushun-

maydi, kishi o‘lim yoqasida o‘zini qanday his etishini va u tavbatazarru qilib bo‘lgandan keyin ajal uni aldab ketgach, qay ahvolga tushishini unga tushuntirib bo‘larkanmi, axir. Shuning uchun kampir gapni boshqa mavzuga burdi:

- Bolalaringdan xat-xabar bormi?
- Iye, kechagina so‘ragan eding-ku buni.
- Kecha kecha edi. Bugun balki xat kelgandir, men qayoqdan bilay?

– Ha-ya, kechasi bilan mijja qoqmay bir quloch keladigan xat yozib yuborishibdi. Endi uni qanday o‘qirkanman deya boshim qotib o‘tiribman, – dedi Mironixa go‘yo o‘zini o‘zi kalaka qilganday, ammo uning gaplarida kesatiqdan ko‘ra noumidlik ko‘proq edi. – Jinni bo‘ldimi ular menga xat yuborib?

– Ilgarilari boshqacha edi, – dedi kampir, – kim qayerda tug‘ilsa, o‘sha yerda nonini topib yeb yuraverardi. Hozirgilar bir yerda turishmaydi, hali u yoqqa, hali bu yoqqa yugurgilashadi, xo‘sh, buning nima qizig‘i bor ekan?

- Sen bilan men, kampirsho, hech baloni tushunmaymiz.
- Ehtimol, tushunmasmiz. Ammo bu yorug‘ olamda oshini oshab, yoshini yashagan kampirlardan sen bilan men – ikkovimizgina qoldik. Boshqa hech kim yo‘q, bizdan keyingi kampirlar ham boshqacha bo‘lishadi – xat-savodli, aqli, bu olamdagি ishlarni tushunadigan. Endilikda zamon o‘zgaryapti, bu bizning zamona-miz emas.

- Ha, gaping to‘g‘ri, kampirsho.
- Bilganlarimni aytdim-da.

Ular jim bo‘lib qolishdi. Mironixa xo‘rsinib, o‘rnidan turdi:

– Sen bilan birga o‘tirish yaxshiku-ya, ammo bormasam bo‘lmaydi.

- Yana birpasgina o‘tir.
- Sigirim o‘sha ketganicha ketdi, qaytadi. Bir-ikkitasi tog‘ or-tida ikkita sigir yuribdi deyishyapti. O‘sha yoqqa borib kelmasam bo‘lmaydi.
- Tog‘ ortigacha yetib borolmaysan, oyimqiz.
- Yetolsam-yetolmasam baribir boraman. O‘rnimga kim ham borardi?
- Qoqilib-yiqilib o‘sha yerlarda qolib ketma, tag‘in.

– Qolsam qolarman. Qaysi go‘rda yotsam ham baribir emasmi? U yerda ham bir o‘zim, bu yerda ham bir o‘zim. Og‘zimga suv tomi-zadigan odamim bo‘lmaqandan keyin nima farqi bor.

– O‘zing ularga yozib yuborsang bo‘lardi.

– Nima deb yozaman? Nima, ular yetmish beshga kirganimni bilishmas ekanmi? Yo‘q, kampirsho, yozsang-yozmasang... Sen bilan mening yozug‘imiz bir xil. Ular esa, modomiki kelishmayaptimi, yozishmayaptimi, demak yaxshi yashayotganlari ma’lum. Agar turmushi yomon bo‘lsa, bu haqda allaqachon xabar qilishardi.

– Ha, xabar qilishardi.

– Gap ana shunda-da.

Mironixa toqatsizlanib, og‘irligini u oyog‘idan bu oyog‘iga tashlardi.

– Bo‘pti bo‘lmasa, kampirsho, men ketdim. Ortiqcha, bema’ni xayollarga bormay tinchgina o‘tir, qaytishim bilanoq yoningga kiramani. Yana laqillasharmiz.

– O‘zingga ehtiyyot bo‘l.

Kampir xayrlashayotib unga qo‘lini cho‘zdi, shunda Mironixa g‘alati bo‘lib ketdi, boshini beo‘xshov liqillatib kampirning qo‘lini yuzlariga bosdi. Kampirning ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. Kampir o‘rnidan turmoqchi bo‘lgandi, ammo Mironixa qo‘ymadi va tezda darvoza tomonga burilib ketdi. Mironixa o‘zicha yelib-yugur-yapman deb o‘ylasa kerakg-u, ammo aslida har qadam qo‘yanida tirishib, hammayog‘i qaqshardi, har odimini mashaqqat bilan bosa-yotgani shundoqqina ko‘rinib turardi.

Kampir ko‘z yosollarini artarkan, bir umr qadrdon bo‘lib qolgan yagona dugonasi Mironixa bilan rozi-rizolik tilashmagani uchun kechasi jon bermadim shekilli, deb o‘yladi, mana hozir ko‘ngli joyiga tushdi – ko‘p yillar davomidagi sodiq do‘stlikka raxna solinmay, g‘ubor qo‘nmay tugayotgani, nihoyasiga yetayotgani qalbiga taskin berdi.

Ular endi qaytib ko‘rishmasligini kampir ich-ichidan his qildi.

## 11

Yana ortiqcha, keraksiz bir kun yashashga to‘g‘ri keldi.

Kampirni xonaga qaytarib Nadya olib kirdi, olib kirdi emas, qo‘lida ko‘tarib kirdi desa ham bo‘ladi. Kampirning oyoqlari butun-

lay yaramay qolgandi. U yana o‘rniga yotib javdirab turgan ko‘zlar bilan ro‘parasiga g‘amgin boqardi va atrofda bo‘layotgan ishlarga ohista quloq solardi; nazarida endi bu olamdagи hech nimaga qarashga ham, gapirishga ham, nafas olishga ham haqi yo‘qdek tuyulardi – hammasi go‘yo birovlarnekidek, omonatdek tuyulardi. Ertalab, uydigilar o‘rinlaridan turgach, Nadya ularga kampirning o‘zi tashqariga chiqqanini aytib berdi. Ular hang-mang bo‘lishib, oh-voh qilishdi, onamiz kun sayin emas, soat sayin tuzalyapti deya suyunishib, hayratlanishdi, keyin bari sekin-asta tarqalishdi-yu, kampirning yana o‘zi qoldi. To‘g‘ri, kampirning oldiga goh Lyusya, goh Ilya, goh Nadya tez-tez kirib turardi-yu, ammo shu zahoti chiqib ketardi. Ilya qarsak chalib turishimiz uchun endi onamizning raqsga tushishini kutish kerak dedi, bu hazil hammaga yoqib tushdi, bu gapga hatto Lyusya ham jilmayib qo‘ydi. Varvara onam oyoqqa turdi degan gap bilan birga bu hazilni butun qishloqqa yoydi. Ilyaning esa kayfiyati ko‘tarilib, hatto boshigacha qizarib, yaltiray boshladi, ko‘zlar yonib, sho‘x chaqnardi. U biror ish qilsam, qandaydir foydali yumushga qo‘l ursam, deya tipirchilardi, ammo qiladigan ishning o‘zi bo‘lmagani uchun qayta-qayta onasining yoniga borib, hadeb bir gapni takrorlardi:

– Qalay, yotibsannmi, ona? Mayli, yotaver, yotaver, damingni ol. Agar raqs tushging kelib qolsa, bizni albatta chaqir. Bir ko‘raylik – ha. Bilamiz, ona, raqs tushging kelayotganni bilamiz, yo‘q dema.

Kampir esa ko‘zlarini mo‘llillatgancha jimgina yotardi.

Hammadan keyin uning oldiga Mixail kirdi; kampir yolg‘iz edi. U stol yonidagi o‘sha joyga, kecha janjal qilgan yeriga o‘tirdi va papiros tutatib, tortib-tortib chekdi. Uning yuzi odatdagiga nisbatan salqigan, qorayib ketgan, ko‘zlar shishgan edi. U chekarkan, og‘ir xo‘rsinib qo‘yar, nafasini rostlar, onasidan ko‘zini uzmay go‘yo nimadir kutar, nimadandir umidvor edi. Tutun kampirning dimog‘iga urilgach, qo‘llari bilan ko‘ksini changallab, bir azobda yo‘taldi, quruq, zo‘rma-zo‘raki yo‘tal uning tomog‘ini qirib ketayotganday bo‘ldi. Mixail shosha-pisha papirosini o‘chirib, tashqari chiqdi. Shu alpozda ular bir-birlariga bir og‘iz ham gapirmadi.

Yo‘tal bosilgandan keyin kampirning oldida Ninka paydo bo‘ldi, kampir darrov unga talpindi. U qo‘lini ko‘tarib, nevarasining yelkasini siladi va bundan o‘zining ko‘ngli iyib ketdi – go‘yo uning o‘zini silab-siypalashayotganday tuyulib, ko‘zlarini yumdi.

Ninka hech gapdan hech gap yo‘q to‘satdan shunday dedi:

– Seni Lyusya xolang quruq va‘daboz ekan.

– Nega endi? – kampir ko‘zlarini ochdi.

– Bo‘lmasa-chi. Menga konfet olib beraman deb va‘da qiluvdimi? Va‘da qiluvdi. Hamma eshitgan. Lekin olib bermadi. Shuning uchun va‘daboz-da.

– Unday bo‘lsa, ayt, olib bersin.

– Iye, men undan qo‘rqaman. O‘zing ayt.

– Uni nimasidan qo‘rqasan? Axir u it emaski qopib olsa.

– Qopib olmaydi, ammo baribir. U shundoq qaragandayoq qo‘rqib ketaman, unga ayt, menga qaramasin, shunda men ham qo‘rqlayman.

– Bema‘ni gaplarni aljirama.

– Kel, o‘zini chaqiray, unga o‘zing aytaqol, – dedi Ninka kampirni ko‘ndirishga urinib.

– Keragi yo‘q. Nima, yana konfetmi? Shundoq ham ko‘p yeysan. Kecha og‘zingdan konfet tushmadi, kun bo‘yi shimb yurding.

Nina xafa bo‘lib aftini burishtirdi-da, yulqinib kampirning qo‘lidan chiqdi.

– Sen ham undan qo‘rqasan, – dedi u kampirning jig‘iga tegmoqchi bo‘lib. – Agar qo‘rmaganingda, aytarding. Qo‘rqaqsan, ha, qo‘rqaq.

Kampir jilmaymoqchi bo‘ldi, ammo tabassum o‘rniga lablari ma’nosiz xiyol titradi, xolos.

Aftidan u sal mizg‘idi chog‘i, chunki Lyusya kelganini sezmay qoldi. Ko‘zini ochganida tepasida Lyusya turar va yuzidan bior o‘zgarish qidirishga urinardi. Onasi bilan ko‘zlarini to‘qnashgach so‘radi:

– Ona, ahvoling qalay?

– Ha, yotibman-da, – dedi kampir. U nima deb javob berishini bilmasdi, nazarida u, kishi o‘zini yaxshi yoki yomon sezadigan chegaradan allaqachon chiqib ketganday edi, qolaversa ilgari ham bu narsaga uncha e‘tibor bermasdi: ko‘proq sog‘liq va kasallik, horg‘inlik va tetiklik, bardamlik va zaiflikning farqiga borardi.

– Kechagidan tuzukmisan axir? – so‘roqda davom etdi Lyusya.

– Sen, Lyusya, Mixail bilan yarashib ol, – iltimos qildi kampir uning savoliga javob bermay. – Yarashib ol. Bekorga janjallahish-

ning keragi yo‘q. Bunga men aybdorman, unga tashlanib qoldim. U esa chidab turolmadi, alam qilib ketdi. Hozir o‘zi ich-etini yeb yuribdi.

– Tavba, unga alam qilibdi-yu, menga qilmabdi-da, – dedi Lyusya kinoya bilan, ensasi qotib. – Juda qiziq-a, og‘ziga kelganini qaytarmay gapirdi-yu, endi men borib undan uzr so‘rashim kerak emish. Nimalar deyapsan, ona? Keyin sendan iltimos, uning yonini olma, qolaversa, hozir bu haqda umuman gaplashgim kelmayapti.

Kampir gangib qoldi.

– Men Mixailni yonini olmayapman, – tushuntirmoqchi bo‘ldi u. – Men uni oqlamoqchi ham emasman, yo‘q. U boshqa odam, sen boshqa odam. Lekin endi nimayam qila olarding? Nima bo‘lgandayam baribir u seni ining. Men ham nima bo‘lgandayam, baribir senlarning onalaringman – sening ham, uning ham. Bunaqa tumtayib yurmasdan murosa qilinglar deyman-da. Yarash, Lyusya, menga rahming kelsin, sizlar yarashib olsanglar, mening ham ko‘nglim to‘q, xotirjam bo‘lardi. Hozir meni shundan boshqa tashvish-ilinjim qolmadi, so‘nggi umidim ham...

– Hadeb shuni gapiraverish joningga tegmadimi, ona? Mana, deyarli tuzalib qolding, el qatorisan, hatto yuryapsan-u nuqlu shuni gapirasan.

Yana Ninka kelib qoldi, lekin bemavrid keldi.

– Bor, o‘yna, o‘sha yoqlarda o‘ynab tur, – deya kampir uni o‘zidan nari surar ekan, jo‘nata boshladи. – Boraqol, keyinroq kelasan, men seni kutib yotaman.

– Sening Lyusya xolang g‘irt va’daboz-ku, – dedi Ninka tixirlik qilarkan boyagi gapini takrorlab va to‘rsillab Lyusyaga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi.

Kampirning boshqa chorasi qolmadi:

– Nega endi?

– Bo‘lmasa-chi. Menga konfet olib beraman deb va’da qiluvdi. Hamma eshitgan. O‘zi bo‘lsa olib bermadi, aldadi.

– Bu nima degan gap?! – qoshlari chimirildi Lyusyaning. – Nega sen men bilan bunday gaplashyapsan?

– Men sen bilan emas, buvim bilan gaplashyapman, sen esa eshitma!

– Qiziq, meni sensirashga senga kim ruxsat berdi? Nima, men seni dugonangmanmi? Sen kattalarni «siz»lab gapirish kerakligini bilmaysanmi hali? Buni senga hech kim o'rgatmaganmi?

– Kechirim so'ra, – deb shivirladi kampir Ninkaga.

– Xo'p, – dedi Ninka va yig'lamsirab burnini tortdi.

– Qani yig'lab ham ko'r-chi, – dedi Lyusya oldini olib. – Hech kim sening ko'z yoshlaringga ishonmaydi. Juda beadab qiz ekansan. Men beadablarni yomon ko'raman. Men bilan shu taxlit gapplash-ganlarni ham yoqtirmayman. Buni qara-ya, shunchalik yuzsiz bo'lib ketibdi-ya.

– Endi bunday qilmaydi, – dedi kampir ohista.

– Shoshma, sen qo'shilmay tur, ona. Sizlar buni shunaqa taltayti-rib yuborgansizlar-da! Xo'sh, nima uchun bunday qilyapti, qani, javob bersin. Hademay bu sizlarga boshqa nag'masini ham ko'rsatadi, mana ko'rasizlar. – Lyusya Ninkaga o'girildi. – Agar konfetsiz hech turolmaydigan bo'lsang, mayli, olib beraman, – dedi u, – ammo bu endi sovg'a bo'lmaydi, tamagirlik bo'ladi. Sen tamagirlik nima ekanligini bilasanmi?

Ninka buning nimaligini tushunmasa-da shosha-pisha bosh irg'adi: muhimi u niyatiga yetdi, axir kofet olinadigan bo'ldi-da.

Lyusya xonadan chiqishi bilan Ninka ham uning ortidan otilib chiqdi. U darvoza yonida xolasini poylab turmoqchiga o'xshaydi yoki Lyusyaga ergashib do'konga chopqillagandir. U yerda qulay fursat topib, odamlar oldida barmog'i bilan peshtaxtaga bigiz qiladi-yu:

– Lyusya xola, menga manavindan olib bering, mana shunaqasi menga juda yoqadi-da, – deydi.

Bu qizi tushmagur juda g'aroyib-da, na onasiga, na otasiga o'xshaydi, tegirmonga tushsa butun chiqadigan xilidan.

Kampir yana xayol surib, o'zi bilan o'zi bo'lib qoldi, u es-hushini yig'ishtirib olganida xonaning yarmi quyosh nuriga g'arq bo'lgan edi. U garchi dilida qani endi oftob nuri tezroq karavotga ham yeta qolsa deb turgan bo'lsa-da, negadir xavotir bilan uni kuzata boshladi. Nazarida shu orqali bugun, yashashga haqi bo'Imagan shu kun tiriklar bilishi mumkin bo'Imagan sinoatni bilib oladigandek edi, kampir biron shakl-shamoyilni ko'rish yoki nido eshitish umidida ko'zini yirib-yirtib quyoshning polda keng joyni yoritib, jimirlayotgan nu-

riga qarardi. Ammo hech qanday belgi yoki ishora bo‘lmadi, faqat oftob nuri derazada tik bo‘lib turgan yeridan o‘ng tomonga surilib, borgan sari karavotga yaqinlashib kelardi. Go‘yo uning jilva qilayotgan nurida arang tiyilib turgan quvnoq, qudratli bir kuch borday edi, shuning uchun birdan kampirning miyasiga quyosh ham meni xudi qordan yasalib, ustiga eski-tuski tashlab qo‘yilgan odamni eritib yuborgandek, eritib yuborishi mumkin-ku, degan fikr kelib qoldi. U oftobda isinadi, yayraydi, so‘ng esa erib, borgan sari kichrayaveradi, kichrayaveradi, to butunlay yo‘q bo‘lib ketmaguncha kichrayaveradi. Odamlar kelib qarashsaki, karavotda hech kim yo‘q. Ular kampir yana tashqariga chiqibdi-da, deb o‘ylashadi. Ha, kampir «odamlar» deb o‘yladi, u endi o‘zimniki yoki begonalar deya ajratib o‘tirmadi.

Nihoyat oftob nuri karavotga tushdi, kampir qo‘lini asta tutdi, a’zoyi badaniga ilqlik yugurdi. Nazarida a’zoyi badani bo‘shashib ketayotganday tuyuldi, bu holsizlik kishini elitadigan, yoqimli edi. Kampir faqat uqlab qolmasam bo‘lgani, bo‘layotgan ishlarning hammasini o‘zim bilib yotay derdi.

Shu yaqin atrofda Varvara kim bilandir gaplashayotgandi, shu payt nogahon kampirning esiga bir narsa tushib qoldi, u sal qolsa buni butunlay unutayozgandi.

Kampir Varvarani chaqirdi, ammo ovozi juda past, zo‘rg‘a chiq-qanidan uni o‘zidan boshqa hech kim eshitmadi. Kampir yana chaqirdi, bu safar qattiqroq tovush be rdi. Varvara eshitib, chopib keldi.

- Ha, onajon?
- O‘tir. – Kampir ko‘zi bilan karavotidan joy ko‘rsatdi. Varvara o‘tirdi.
- Nima gap, onajon?
- Shoshmay tur, – kampir aytadigan so‘zlarini o‘ylab oldi. – Men o‘laman...
- Unaqa dema, onajon.
- Men o‘laman, – takrorladi kampir, – sen esa meni o‘zing o‘rab-chirmaysan.
- Nima qilishim kerak?

– So‘nggi yo‘lga kuzatishga o‘zing bosh-qosh bo‘lasan. Inilaringni qo‘lidan kelmaydi. Hozirgilar na bola uxlatishni bilishadi, na risoladagidek o‘lik ko‘mishni – hech nimaning uddasidan chiqisholmaydi. Umidim yolg‘iz sendan. Nima deb yig‘lashni esa o‘zim

o'rgataman. Yig'lashni-ku o'zing boplab o'rniga qo'yasan, ammo aytinib yig'lash kerak.

Varvaraning yuzida qo'rquv paydo bo'lди.

– Gapimga qulq sol. Men onam o'lganda aytinib yig'laganman, sen ham shunday qil, uyalma. Sendan boshqasi bu ishni qilmaydi. – Kampir xo'rsinib, ko'zlarini yumdi va bir zamonlardagi, deyarli unutilgan, hozir foydalanilmaydigan so'zlarni yodiga solarkan, ingichka, cho'ziq ovozda boshladi: – «Jonim onam, mehribon onam...».

– Onajo-o-on! – Varvara go'yo bundan bo'yin tovlayotgandek boshini chayqab uvvos soldi.

– E, nega uvillaysan? – deya kampir uni to'xtatdi. – Yaxshilab qulq solib o'rganib ol. Hozir yig'lashning keragi yo'q. Men hali shu yerdaman. Ko'z yoshlaringni asra, ertaga kerak bo'ladi. Bo'lmasa hozir bitta-yarimta kelib qoladi-yu, gapimizning beliga tepadi. Qani, sekingina boshladik!

Kampir to Varvara sal o'zini bosib olguncha kutib turdi-da, davom etdi:

– «Jonim onam, mehribon onam...».

– «Jonim onam, mehribon onam», – Varvara yig'isini to'xtatolmay, kampirning ortidan takrorladi.

– «Qaylarga otlanding, qaylarga yetding?»

– «Qaylarga otlanding, qaylarga yetding».

Kampir karavotida turib o'tirdi va Varvarani yupatar ekan, uning yelkasidan quchdi. Endi kampirning ovozi keskin va dadil chiqa boshladi:

*Qaysi taraflarga safaring tushdi?  
Katta yo'l dan asta odimlabgina,  
Yashil emanzorni oralabgina,  
Qo'ng'iroq sadosin eshitayin deb,  
Ibodat navosin eshitayin deb,  
Muqaddas cherkovga qadaming tushdi.  
Muqaddas cherkovdan chiqarsan, so'ngra  
Borursan rutubat yerning qo'yniga,  
Avlod-ajdodlaring sari borursan.<sup>1</sup>*

<sup>1</sup> She'rlarni Muhammad Ali tarjima qilgan.

Kun borgan sari charaqlab, isib borar, hamma narsani yayratardi, havoda esa iliq kuz boshlaridagi singari qandaydir o'zgacha taxir-chuchmal hid bor edi. Osmon avvalgidek lojuvard, gumbazi esa ochko'k edi, faqat daryoning narigi tarafi, kechqurun quyosh botadigan yeri xiraroq bo'lib, go'yo harir parda tortilganga o'xshardi, uning yuqori chaprog'ida esa bir parcha oppoq bulut osilib turardi, bu bulut go'yo tomosha uchun ataylab ko'kka chiqarilganday shunday kichik, jozibali ediki, kishiga zavq bag'ishlardi.

Mixail anchadan beri ombor oldidagi supachada kaftini yuziga tirab zerikib o'tirar, ketma-ket papiros chekardi. Ilya kelib uning yoniga o'tirdi-da, so'radi:

– Bugun boshog'riq qilmadingmi?

Mixail boshini sarak-sarak qildi.

– Men qitday otib oldim. Sal qizishib olish uchun. Eshitdingmi, onamiz oyoqqa turib ketdi-ya?

– Eshitdim.

– Ana-mana deguncha raqsga ham tushib ketadi – ha. Hali ko'rasan. – So'ng sirli kulimsirab taklif qildi: – Balki, ozgina olarmiz-a? Shundoqqina yonimizda-ku, uzoqqa borib yurmaymiz.

– Yo'q, – dedi Mixail. – Yetadi. Kecha ko'p karomat ko'rsatdik, shunisi ham yetadi.

– Ha, o'zing ham kecha juda ko'p olvording-da. Hammamizga tashlanib qolding. Onam bilan ham urushding.

– Onam bilan urushganim yo'q.

– Onam sendan juda xafa bo'lди – ha. Ayniqsa, Tanchora uchun. Onam seni savalamoqchi ham edi. Ha, shunday. – U yana kuldi-da, to'satdan so'radi: – Menga qara, sen kelmagin deb Tanchoraga qachon telegraphma jo'natuvding? Kelganimdan beri sen bilan birgam, yoningdan jilganim yo'q. Qachon ulgura qolding?

Mixail papiros qoldig'ini chertib yubordi, tovuqlar papiros qoldig'iga yopirilishdi, keyin u akasining ko'zlariga qaradi.

– Men unga hech qanaqa telegraphma jo'natganim yo'q.

– Jo'natganim yo'q deysanmi?

– Ha.

– Jo'natdim deb aytding-ku, axir? Kechagi janjal shundan boshlandi-ku. Nima balo, esingdan chiqdimi?

– Nega esimdan chiqarkan? Esimda. Agar shunday demasam, bilasanmi, kutaverib ko‘zları to‘rt bo‘lgan onam qay ahvolga tushishi mumkin edi? Umidini uzish uchun yolg‘on gapirgan ma’qul edi.

– Ammo... Ammo unda Tanchora qani bo‘lmasa?

– Men qayoqdan bilay?

– Ana xolos! Bu yog‘i qiziq bo‘ldi-ku!

– Faqat sen ularga aytib qo‘yma, telegramma bergen deb o‘ylab yuraverishsin, – dedi shosha-pisha Mixail, chunki darvozadan Lyusya bular tomonga qarab kelayotgan edi. Mixail boshini quyi soldi: hozir boshlanadi. Kechagi va o‘tgan kungi gaplarni, bo‘lgan va bo‘lmanan ishlarni yuzingga soladi. Shu tobda uni uyaltirish befoyda, keyinroq u o‘ziga o‘zi dakki beradi, buni foydasi ko‘proq, ammo hozir opasing gaplari ko‘nglini behuzur qiladi – hye o‘rgildim, o‘shalardan! Shusiz ham boshini olib biron yoqlarga qochib ketay deb turibdi-ku.

– Ilya! – dedi Lyusya ular yoniga hali yetib kelmay. Uning ko‘rinishi jiddiy, tashvishli edi. Lyusya Mixailning yuragi po‘killab turgan gapni emas, butunlay boshqa narsani gapirdi. – Ilya, bugun paroxod bo‘lishini bilasanmi? Keyingisi uch kundan so‘ng kelarkan.

Ilya sarosimada o‘rnidan turdi.

– Xo‘sish, nima qilamiz unda?

– U yog‘ini o‘zing bilasan. Ammo men ketishim kerak, ortiq bu yerda qololmayman.

– Ha, ketish kerak, – Ilya bosh irg‘ab Mixailga qaradi. – Onam ham tuzalib qoldi, shekilli.

– Yana ozroq kutsanglar bo‘lardi, – dedi Mixail ikkilanib, jur‘atsizlik bilan. Ammo gapi javobsiz qoldi.

Ular uyga birgalashib kirishdi. Kampirning xonasiga o‘tishdi-yu, bir zum taraddudlanib qolishdi. Ularning kirganini hech kim payqamadi. Varvara engashib boshini onasining ko‘ksiga qo‘yib hiqillar, kampir esa ko‘zlarini yumib olib, o‘zicha qandaydir bir xazin kuyni ming‘irlab xirgoyi qilardi. Shu tobda kampirning yuzi oppoq oqarib, qandaydir ulug‘vor, salobatli ko‘rinardi. Ular diqqat bilan qulqoq solib, tinglay boshlashdi: bu so‘zlar erkalomchi, ayni paytda umidsizlik ohanglari bilan yo‘g‘rilgandi:

*Eman pollardan ham yurib bo‘lding sen,  
Jajji do ‘konlarda turib bo‘lding sen,*

*Oyna-darchalardan qarab bo‘lding sen,  
Sen, jonio onam, mehribon onam.*

– Bu yerda nimalar bo‘lyapti o‘zi? – zaharxandalik bilan so‘radi Lyusya baland ovozda. – Bu qanday tomosha?

Varvara bilan kampir baravar jim bo‘lib qolishdi. Varvara sakrab o‘rnidan turdi-da, onasini ko‘rsatdi:

– Mana, onajonim.

– Ko‘rib turibmiz, dadajonimiz emas, – deya xaxoladi Ilya.

– Men o‘laman, – kampir nimanidir tushuntirmoqchi bo‘lib ayanchli g‘o‘ldiradi.

– Ona, o‘lim to‘g‘risidagi gaplar jonimga tegib ketdi. Chin so‘zim. Nuqlu shu gap, nuqlu shu gap. Nima, sen bu mavzu bolarimga yoqadi deb o‘ylayapsanmi? Hamma narsaning ham chegarasi bor-da, axir. O‘lim seni es-hushingdan ayiribdi. O‘zingniyam shundan boshqa gaping qolmabdi. Hali ko‘p yashashing kerak, sen bo‘lsang bir balolarni o‘ylab topasan-a! Bunday emas-da, axir.

– Sen yuzga kirasan hali – ha, – deya gapni ilib ketdi Ilya.

Kampir devorga tikilgancha jim turardi.

– Deyarli otday bo‘lib ketganiningni o‘zing ham tushunib turibsangu, ona. Mazza qilib yashayvermaysanmi. Odamlarga o‘xshab umrugazonlik qilaver, o‘lmay turib o‘zingni go‘rga tiqib nima qilasan. Mana, tanangda joning bor, risoladagidek odamsan, hamisha shunday yuraver. – Lyusya biroz jim turdi-da, so‘ng muloyim ovozda dedi: – Ammo biz bugun ketishimiz kerak. Shunday bo‘lib qoldi, ona.

– Nimalar deyapsizlar o‘zi?! – qichqirib yubordi Varvara.

Kampir ishonqiramay, sarosimalik bilan bosh chayqadi.

– Shunday qilmasak bo‘lmaydi, ona, – dedi Lyusya o‘sha muloyimlik bilan, ammo qat’iy qilib, so‘ng esa jilmaydi, – bugun paroxod bor ekan. Keyingisi uch kundan keyin bo‘larkan. Uch kungacha kutilib turolmaymiz.

– Yo‘q, yo‘q, – deya ingradi kampir.

– Bugun onamning oldidan jilib bo‘lmaydi, sira bo‘lmaydi, – dedi Varvara hovliqib. – Xuddi o‘gayga o‘xshaysizlar-a. Hech kim sizlarni quvmayotgan bo‘lsa. Yo‘q, mumkin emas.

– Loaqlal yana bir kungina tursanglar bo‘lardi, – Varvaraning gapini quvvatladi Mixail.

— Axir biz, ona, ixtiyorimiz o‘zimizda emaski nimani xohlasak, shuni qilsak, — Lyusya ularga javob bermasdan onasiga qaradi. — Ishlikmiz, axir. O‘zimga qolsa-ku, jon-jon deb yana bir hafta ham turaverardim-a, ammo unda, qani endi o‘rningizni bo‘shatib qo‘ying, deyishlari mumkin. Axir biz ta’tilda emasmiz-ku. Tushungin, onajon. Innaykeyin bizdan xafa ham bo‘lma. Shunday qilmasak bo‘lmaydi.

Kampir goh Lyusyaga, goh Ilyaga qararkan, yig‘lamsirab faqat bir gapni takrorladi:

— Men o‘laman, o‘laman. Mana ko‘rasizlar. Shu bugun. Ozgina sabr qilinglar, yana ozgina. Menga boshqa hech nima kerak emas. Lyusya! Sen ham, Ilya! Birozgina kutinglar. Axir sizlarga o‘laman deyapman-ku, o‘laman.

— Sen, ona, yana o‘sha gapni gapiryapsan. Biz seni omon bo‘lsin desak, sen o‘limdan gapirasan. Sen o‘lmaysan, shuning uchun bu haqda boshqa gapirma, iltimos. Sen hali uzoq yashaysan. Sen bilan ko‘rishganidan juda xursand bo‘ldim, ammo endi ketish kerak. Yozda yana kelamiz. Albatta kelamiz. Va’da beramiz. Unda hozirigidek ikki-uch kunga emas, anchaga kelamiz.

— Yozga balo bormi? — gapga aralashdi Ilya. — Yozda emas, undan oldin diydor ko‘rishamiz. Onamiz otday bo‘lib oyoqqa turib ket-sa, bizlarnikiga mehmonga boradi. Borasan-a, ona. Sirkka tushamiz. Sirkning yonida yashayman, bir qadam. Masxarabozlari bor. Kulaverib ichaklaring uziladi.

— Bir kun oldin nima-yu, bir kun keyin nima, — tushuntirishga urindi Mixail. — Farqi yo‘q-ku.

Lyusya qizishib ketdi:

— Men sen bilan bu masalani muhokama qilmoqchi emasman, farqi bor-yo‘qligini sendan yaxshiroq bilsam kerak. Yoki sen hali ham onamni olib ketishlaring kerak, shuning uchun uni kutib turishlaring shart, deb o‘ylayapsanmi?

— Yo‘q, unaqa deb o‘ylaganim yo‘q.

— Ha, shunisigayam rahmat!

Lyusya bilan Ilya o‘ng‘aysizlangan bo‘lib, shosha-pisha yo‘l tadorigini ko‘ra boshlashdi. Kampir qaytib yig‘lamadi, u qotib qolingga o‘xshardi, yuzlari zahil, jon asari ko‘rinmas edi. Unga bir nimalar deyishdi, ammo kampir endi gapirmasdi. Faqat ko‘zları shuursizlik bilan atrofidagi yugur-yugurni kuzatardi.

Chopqillab Nadya keldi, xayrlashuv oldidan dasturxon tuza-moqchi bo‘lgandi, lekin uni to‘xtatib qolishdi. Hozir hech kimning ko‘ngliga ovqat sig‘masdi. Ilya Mixailga:

– Yo‘lga chiqish oldidan qittay olmaymizmi? – deb so‘radi. – Qitday-qitday – ha.

– Yo‘q, – unamadi Mixail. – Kerak emas. Yetar.

Varvara har qalay unutmagan ekan, Lyusaga qarab so‘z qotdi:

– Ko‘ylak nima bo‘ldi?

– Nima?

– Shu yerda tikkan ko‘ylagingni aytyapman. Beraman degan eding-ku.

Lyusya sumkaga joylab qo‘ygan ko‘ylagini oldi-da; ijirg‘anib uni Varvaraning qo‘liga itqitdi.

So‘nggi daqiqalarda Varvara ham to‘satdan:

– Men ham ketaman, – deb qoldi. – Hamma ketsa, men ham keta-man. Birga ketsak zerikmaymiz.

– Varvara! – eshitilar-eshitilmas ingradi kampir.

– Meni yo‘g‘imda bolalar uyg‘a o‘t qo‘yib yuborishmasin tag‘in, deb qo‘rqaqyapman, onajon. Uyni o‘zlariga qoldirib bo‘lmaydi-da. Xudo ko‘rsatmasin, bir baloni boshlashadi.

– Ketaver, – dedi Mixail qo‘l siltab. – Hammalaring ketavering-lar.

Ular xayrlasha boshlashdi. Lyusya onasining yuzidan cho‘lpillatib o‘pdi, Ilya qo‘lini qisib xayrlashdi, Varvara ko‘z yoshi qilib oldi.

– Ishqilib tuzalib ket, ona. O‘limni esa xayolingg‘a ham keltirma.

– Onamiz ajoyib-da, o‘zi.

– Men, onajon, yaqinda kelaman. Balki keyingi haftaga kelar-man.

Mixail ularni kuzatgani chiqdi. Kampir deraza ortida avvaliga qadam tovushlarini, so‘ng Ilya bir nimalar deb kulib yuborganini eshit-di, keyin hammayoq jimgit bo‘lib qoldi. Kampir ko‘zlarini yumdi.

Uni Ninka turtdi.

– Ma, ol buvi. – Ninka unga konfet uzatdi. Kampir uning qo‘lini qaytardi.

– Ular yaxshi emaskan, – dedi Ninka ketganlarga ishora qilib.

Kampirning lablari qimirlab jilmaygandek bo‘ldi – bu quvonch-danmi yoki alamdanmi, bilib bo‘lmashi.

Birozdan so‘ng Mixail qaytib kelib kampirning yoniga kirdi va karavotga, onasining yoniga cho‘kdi.

– Hechqisi yo‘q, ona, – dedi ·Mixail uzoq jimlikdan so‘ng va og‘ir xo‘rsinib qo‘ydi. – Hechqisi yo‘q. Bir kunimiz o‘tadi. Qanday yashagan bo‘lsak, shunday yashayveramiz. Sen mendan xafa bo‘lma, yaxshi farzand bo‘lolmadim, nima qilay borim shu-da. Endi o‘zgartirib bo‘lmasa. Yotaver, ona, hech nimani o‘ylama. Mendan jahling chiqmasin. Men ahmoqman, oh qanchalik ahmoqman-a! – yana xo‘rsinib o‘rnidan qo‘zg‘aldi u.

Kampir javob bermay eshitib yotardi va endi javob bera oladimiyo‘qmi, o‘zi ham bilmasdi. Uni qattiq uyqu tortib, ko‘zlarini yumilib ketayotgandi.

Kampir oqshomgacha, qorong‘i tushguncha ko‘zlarini yana bir necha marta ochdi, lekin birpasga, qayerda yotganini eslab qo‘yish uchungina ochdi.

Kechasi kampir jon berdi.

*Dilafruz Matyoqubova tarjimasi.*



# YONG'IN

*Qissa*

Qishloqqa o't ketdi, ketdi jonga o't...

(*Xalq qo'shiqlaridan*)

## 1

Ilgarilari ham Ivan Petrovich kuch-quvvatdan qolayotganligini sezar, lekin hech qachon bunday adoyi tamom bo'limgan edi. U mashinani garajga qo'ydi, kimsasiz qorovulkxonadan o'tib, ko'chaga chiqdi. Sog' ekansan, qanday nafas olayotganiningni ham bilmaysan, xuddi shunday yigirma yil mobaynida bor-yo'qligi sira bilinmagan, garajdan uyigacha bo'lgan yo'l, bugun umrida birinchi marta shu arzimagan yo'l unga achchiq ichakday tuganmas bo'lib tuyuldi, har qadamini ming mashaqqat bilan bosdi. Yo'q, oyoqlari endi unga bo'ysunmas, bu ahvolda uyg'a yetib borishi ham amri maholiday edi.

Yana bir hafta, oxirgi ish haftasi ham unga umrning o'ziday juda cheksiz bo'lib ko'rindi. Qolgan ana shu haftani qanday o'tkazishning azob-uqubatini hatto tasavvur qilish ham qiyin, undan keyin boshlanadigan tirikchilikni-ku asti qo'yavering, uni na chiamalab, na ko'z o'ngiga keltirib bo'ladi. Undan u yog'i allaqanday mubham edi va hech ko'ngilga sig'masdi – garchi peshona teri to'kib erishilgan esa-da, baribir keraksiz edi. Mana shu talx kabi achchiq damlarda o'sha hayot – hayotga o'xshamas, balki nazarida bamisol o'limning xuddi o'zginasi edi.

Nega bunday charchab qoldi? Holbuki, bugun zo'riqqani ham yo'q, hatto asabbuzarlik, baqiriq-chaqiriqlar ham bo'lindi. Faqat jar yoqasiga kelib qolganini sezdi, xolos, jar – vassalom. Vaholanki, kuni kechagina hali nimadandir umid qilsa bo'lardi, lekin bugun hammasi tugadi. Ertaga qanday qilib o'rnidan turadi, qanday qilib mashinani o't oldiradi, yo'lga tushadi – xudo biladi. Bir chekkasi ertangi kunning o'ziga ham ishonch yo'q, ishonchning yo'qligi ham alamzadalik bilan

tan olingandi; bosh-keti ko‘rinmas qorong‘i zulmat cho‘ksa-yu, so‘ng uzoq-uzoq davom etsa, shunda birovlar dam olsa, birovlar es-hushini yo‘qotsa, boshqa birovlar esa hushyor tortib o‘ziga kelsa... Ana undan u yog‘iga – yangi kunlar va sog‘ayish boshlansa. Qaniydi endi.

So‘limgina, sokin oqshom edi... Kunduz kuni havo iligancha, hamon ayoz tushgani yo‘q, tushadiganga ham o‘xshamaydi. Yo‘l qattiq bo‘lsa ham, qor yumshoq, oyoq botib ketar va qorda chuqur izlar qoldi; yo‘lni qiyalagancha erigan qor suvlari jildirardi. Mana shu baxmalday quyulgan moviy oqshom chog‘i, bahorgi shu eruvgarchilikda hamma narsa g‘arqi ob bo‘lganday, obi azim ichra bevosh-beboshdoq suzib yurganday, faqat qori oppoq va tozaroq saqlangan Angara daryosigina uzoqdan cho‘ng sohil kabi ko‘rinardi.

Ivan Petrovich nihoyat uyiga yetib keldi, yo‘l-yo‘lakay to‘xtab birov bilan hol-ahvol so‘rashdimi, yo‘qmi – eslolmadi, avvallari yuragida dam bir nima uzilib ketganday va dam nimadir portlaganday bo‘lar, hozir odatdagagi shu og‘riqni ham sezmadni, uy oldidagi yulungan, payxon qilingan bog‘chadan o‘tib, ichkariga kirdi-da, eshikni yopdi. Tomorqa tomondan, og‘ilxonadan bir oylik buzoqchani avrab erkalayotgan Alyonaning tovushi eshitilardi. Ivan Petrovich dahlizza turib loy etigini yechdi, o‘zini zo‘rlab bo‘lsa-da yuvindi, so‘ng birdan qirchini qiyilganday kiraverishdagi xonada rus pechkasining kattakon issiqliqni biqinidagi o‘ringa o‘zini tashladi. «Mana endi mening joyim shu», deb o‘yladi u, Alyona kelmayotganmikin deb, qulq solgancha va hali yana ovqatga turish ham kerakligidan azob chekkancha. Alyona to uni ovqatlantirmaguncha ko‘ngli tinchimaydi. Lekin odamning qimir etgisi kelmaydi! Ko‘ngil hech narsani tusa maydi. Xuddi go‘rga kirganday.

Alyona keldi, uning dumalab yotganini ko‘rib, mabodo, tobi qo‘chib-netib qolmadimikin deb, tipirchilab oldi. Yo‘q, soppa-sog‘ ekan. Charchabdi. Alyona nimalarnidir so‘ylagancha – lekin uning nima deb so‘ylayotganlari Ivan Petrovichning qulog‘iga kirmsadi – das-turxon tuzay boshladi. Ivan Petrovich yana birpas to‘xtab turishni so‘radi. U aftodahol, loqayd yotarkan, miyasida qayerdan, qanday o‘rnashib qolganligi noma‘lum «mart» va «marg» so‘zлari charx urar edi. Ular nimasi bilandir bir-biriga yaqin edi. Yo‘q, martni yengish va qanday bo‘lmasin, shu oxirgi haftadan o‘tib olish kerak. Shu yerda Ivan Petrovichning qulog‘iga baqirgan ovozlar chalindi:

– O‘t ketdi! Omborlarga o‘t ketdi!

Dili vayron, jigarso‘xta Ivan Petrovichga qichqiriqlar daf’atan ichidan chiqayotganday eshitildi. Hapriqib Alyona kirdi:

– Eshityapsanmi, Ivan?! Eshityapsanmi?! Voy o‘lmasam, sen hali och yotibsan-ku!

## 2

ORS<sup>1</sup> omborlari «G» harfi shaklida joylashgan, uning cho‘zinchoq bir tarafi Angara yoqalab – hozir buni suv bo‘ylab deb aytishadi – tushgan, qisqa bo‘lagi esa o‘ng tomondan Past ko‘chaga tutashar, qishloq tepasidan qaraganda bu bahaybat harf tik turganga emas, xuddi yotganga o‘xshab ko‘rinar edi. Imoratning qolgan ikkala ochiq tomoni, albatta, baland devor bilan o‘ralgan edi. Mana shu qo‘rg‘on-omborxonaga ko‘cha tarafdagи ikki yo‘ldan kirilar, mashinalar o‘tadigan, keng darvoza qurilgan, uning shundoq yonginasida esa imtiyoz egalari uchun eshik ochilgan edi. Darvozaning o‘ng tomonida, omborlarga yondosh joylashgan shinam va orasta do‘konning yarmi devordan bu tomonga chiqqan, uning ko‘k bo‘yoqlari ko‘zni quvontirar, katta derazalar o‘rnatilgan bu do‘konning bir tomonida sanoat mollari, ikkinchisida esa oziq-ovqatlar sotilar, unga bitta eshik orqali kirilar edi.

Omborning o‘ng va so‘l tomonlariga cho‘zilib ketgan past ko‘chada uylar zich joylashgandi: odamlar doim suvgan yaqinroq bo‘lishni istaydilar. Agar o‘t tushgani rost bo‘lsa, u har ikki tomondagi uylarga ham tutashib ketgani tayin, hatto tepe tomondagи uylarga ham o‘tgan bo‘lishi ehtimol. Ivan Petrovich uydan otilib chiqarkan, nima uchundir, avvalo, omborlarni qanday saqlab qolishni emas, uylarning taqdirini o‘yladi. Bunday paytda oldin odamning ko‘z o‘ngiga eng yomon narsalar keladi, undan keyin esa, odam mavjud ahvolga ko‘nika boshlagach, har qanaqa ofat-u kulfat bo‘lsin, vahimasi asta-sekin kamayaveradi.

Ostonadan turib, Ivan Petrovich omborxonalar tomonga qaradi. Lekin olov ko‘rinmadni. Biroq endi hammayoqdan kelayotgan baqirgan-chaqirgan ovozlar o‘sha yoqdan yanada vahimaliroq eshitilmoga edi. Ivan Petrovich yo‘lni qisqaroq olish uchun tomorqa oralab

<sup>1</sup> ORS – Otdel rabochego snabjeniya (Ishchi ta’minoti bo‘limi).

yugurdi va ochiq joyga chiqqach, o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi: o‘t ketgan edi. Bulashiq, taram-taram olov yallig‘i yon tomondan quyunday buralib ko‘tarilar, xuddi omborlardan ancha olisda, o‘ng tomondan chiqayotgandek edi. Bir zum Ivan Petrovichga orqa tomondagi tomorqa so‘kichaklari va hammom yonayotgandek bo‘lib tuyuldi, lekin xuddi shu zamon yolqin tik yuqoriga otilib chiqdi-da, barcha omborxona binolarini yoritdi. Yana qichqirgan ovozlar va yog‘ochning qarsillab ayrligani eshitildi. Ivan Petrovich hushiga keldi: nima bo‘lyapti o‘zi, quruq qo‘l bilan nima qiladi? U chopganicha orqasiga qayrildi, yo‘l yo‘lakay Alyonani chaqirdi, lekin xotini allaqachon juftakni rostlab qolgan edi. Ivan Petrovich o‘tinxonadan boltani oldi, keyin shoshapisha chetan atrofidan changakni qidirdi, uni qayerga qo‘yanligini eslolmadi, shunda xayoliga uyni berkitish kerak, degan fikr keldi. Shu payt uy devorlariga olov yolqinlari tushdi-da, Ivan Petrovich hamma narsani unutib, boyta kelgan yo‘lidan chopib ketdi.

Yugurib borarkan, olov yallig‘i ko‘chaga tomon jilganligini fahmladi. Demak, ish juda chatoqqa o‘xshaydi. Yangi qishloq qurilgandan beri bunchalar qo‘rquinchli yong‘in bo‘limgan edi.

Ivan Petrovich ombor devori yoqalab chopib o‘tdi-da, lang ochilib yotgan darvozadan nima bo‘layotgan ekan, deb asta nazar tashlab ichkari hovliga kirdi.

### 3

Omborlar ikki tomonga – oziq-ovqat saqlanadiganlari uzunasiga, sanoat mollari binolari esa qisqa tarafga cho‘zilib borardi. Har ikki ombor bir-biriga tutash edi. Aftidan, o‘t omborlar ikki yoqqa ajrab ketadigan burchakda yohud shu burchak yaqinida chiqqan bo‘lishi kerak. Uylar ham shunday qurilgan, o‘t ham shunday joydan chiqqan ediki, bir yonsa, oxirigacha yonmay iloji yo‘q edi. Imoratlar qurilayotganda, o‘t chiqishi ham mumkin-ku, deb avvaldan o‘ylab ko‘rilmagan – o‘zi shunday, rus kishisining aqli hamisha kech kiradi, u hamisha qulay yashash, qulay foydalanishni ko‘zlaydi-yu, o‘zini saqlash va yaxshiroq muhofaza qilishni xayoliga ham keltirmaydi. Mana shu qishloqni ham naridan-beri qurayotganlarida, umuman, bosh qotirib o‘tirishmagan, suvdan qutulgan o‘ting qayg‘usini qilar-midi? Lekin aynan o‘t chiqqan joyga kelsak, chamasi, allakim, yoki yana kim bilsin, balki yovuz bir tasodif o‘z kuchini ko‘rsatgan edi.

O't birdaniga ikki tomonga baravar tutashgan edi. Oziq-ovqat omboriga o't tom orqali o'tgan va birdan go'yo birov portlovchi dori sepib qo'yganday shiddat bilan qasir-qusur boshlanib ketgan. Omborning bu tomoni hali shifer bilan yopib ulgurilmagan, shifer esa kuzda keltirilgancha, devor tagiga terib qo'yilgan, hozir ham shu yerda yotar edi. Sanoat mollari ombori esa ikki yil ilgari shifer bilan yopilgan – rost-da, axir, qand-qurs solingan allaqanday yashiklar, bankalarни suv, nam bossa, hech bokisi yo'q, lekin yapon latta-puttalari yomg'ir tagida qolsa, ana bunga hech toqat qilib bo'lmaydi; shu latta-puttalarni deb, bu yerkirga hatto Irkutskning o'zidan kelib ketishadi, albatta, bu narsalar pul turadi va undan tashqari ham bir qimmatga ega bo'lsa kerak-da. Lekin bu tomonga o't tom orqali o'tmagan va bunga shifer emas, boshqa allanima to'sqinlik qilgan. Bu yerda o't eng chekka ombor ichida ayniqlsa, quturayotgan edi, nafsila mргa, yong'in shu yerdan chiq-qan bo'lishi mumkin edi.

Oziq-ovqatlar qatorining eng chekkasida, devor yonida yana bir usti shiferli omborxona bo'lib, bu yerda un va yormalar saqlanardi.

Ivan Petrovich nima qilishni bilmay o't selidan yorishgan hovlida tentirab, talmovsirab, yakkakift bo'lib borayotganda, faqat ikki yerdagina odamlar to'planisha boshlagan edilar: bir guruh odamlar o'ng tomonda o'rlayotgan olov yaqinidagi qarag'ay to'shamalardan mototsikllarni g'ildiratib tushirishar, to'rt-besh kishilik boshqa bir guruh esa narigi chekkada uzun qatorning o'rtasida tomni ochmoqda edilar – tepadan o'tning yo'lini to'sishmoqchi edi. Olov seli ularga ham ura boshlagan – erkaklar ayyuhannos solib baqirishar va eskirib qorayib ketgan mo'rt taxtalarni azot ayirishar, pastga uloqtirar edilar. Ivan Petrovich qo'lida boltasi borligini esladi – bolta bilan ularga ko'mak berishning ayni pallasi edi, u chopib borib, tepadan tinmay qarsillab otilib tushayotgan taxta, yog'och parchalariga chap bergancha o'zini u yoqdan bu yoqqa urib, tomta chiqish yo'lini qidirdi. Boshi butunlay ishlamay qo'ydi, aqliga hech narsa kelmasdi. Nihoyat, u kimdir so'l tomondagi devordan tomta qiyalab tashlangan taxtadan qadamlarini katta-katta qo'yib o'tib borayotganligini ko'rib qoldi-da, darhol shu tomonga qarab yugurdi, o'zini-o'zi so'kib-netib o'tirmadi, bunga imkon qayda, faqat bunchalar epsizlik qilayotgani uchun olov hovrida jizg'inak bo'la-bo'la o'zidan o'zi qattiq achchiqlandi. Axir,

qandoq erkakmisan erkak edi-ya – mana endi o'sha erkakdan quruq cho 'p-ustixon qolibdi.

Tomda hammani Afonya Bronnikov boshqarmoqda edi. Ivan Petrovich yugurib kelarkan, uning kimgadir pastga tushib, misrang va yo bo'lmasa taxtalarini ko'chirishga yaraydigan temir uskuna topib kelishni buyurayotganini eshitdi. Ivan Petrovich birdan yengil tortdi: Afonyaning borligi qanday yaxshi. Bu yerda yana bir ishondili kishi – traktorchi Semyon Kolsov ham bor edi, to'g'ri, u kelgindilardan, lekin Ivan Petrovich u bilan birga ishlab ko'rghan, biladi: ishondili odam.

Afonya Ivan Petrovichning qo'lida bolta borligini ko'rib, xursand bo'lib ketdi:

– Ana, aqli odam ham bor ekan-ku! Sadag'ang ketay, o't tushgan yerga ham, ikki qo'lini burniga tiqib keladimi kishi.

U Ivan Petrovichni tomoning hovli tomonidagi chekkasiga qo'ydi, Ivan Petrovich ham paysalga solmay, taxtalarini to'xtovsiz ko'chira boshladi. Afonyaning o'zi tomoning narigi, yog'och ot o'rnatilgan chekkasida g'o'la ustida turib olgancha qo'lidiagi to'qmoq bilan tomoning past tomoniga aylantirib urar, o'rtaqqa esa Semyon Kolsov qo'lida bolta bilan g'ayrat qilardi. U bu yerda ham, tomoning Angaraga qaragan tomonida ham baravar ishlar, odatda kamgap, bosiq bu odam hozir jazavaga tushib, o'ng-u so'lida duch kelgan taxta-yog'ochni ayirib, majaqlab tushirar, to'xtovsiz allanimalar deb vahshiyona qichqirar edi. Ivan Petrovich hozir ish bilan qancha band, qancha mashg'ul bo'lmasin, odam faqat yov ustiga tashlangandagina, inson qonini to'kishga majbur bo'lganda va yoxud mana shu tobdagiday buzishdan boshqa yo'l qolmagandagina quyushqondan chiqishi haqida o'yladi, odam, misol uchun, don sochganda va yo bo'lmasa, mol-hol uchun o't o'rganda, mana shunday hayvonlarcha o'kirishni hatto xayoliga ham keltirmaydi-ku, axir. Biz tag'in ibtidiy zamonlardan beri o'tgan asrlarni hisoblab yuramiz: asrlar-ku o'tdi-ketdi, ammo ibtidoiylik doim yurakka esh.

Ivan Petrovich madadga kelgungacha to'rt metrcha joy ochib qo'yilgan edi. Keyin birgalashib ancha jadal ishlashdi, olov yo'li to'sildi. Tom tagidan guvillab yetib kelgan olov taxtalari ko'chirib tashlangan bo'shliq ustidan chiqdi-da, lov etib yuqoriga ko'tarildi, alanga selining zo'ridan ular hammalari cho'kkalab o'tirib qoldilar.

Lekin alanga boshqa yo‘l topolmay orqaga qaytdi va boy a chala yongan quruq narsalarga jon-jaxdi bilan tashlandi. To‘sin taxtalar tutay ketdi, yona boshlaganlarini esa Afonya otilib borib, paxtaligi bilan o‘chirdi.

Ivan Petrovich yana bir karra amin bo‘ldi: bu Afonya deganimiz juda azamat yigit ekan, o‘zimizning suv bosmasdan oldingi – eski qishloqdan, hozir uni yigit deb atash qaddi-bastiga nomunosib, u allaqachon kap-katta kishi bo‘lib qolibdi.

Yana tez-tez orqalariga xavfsirab qaragancha, ishga tutindilar. Misrang qidirib ketgan yigit qaytishda misrang o‘rniga yangi gap tohib keldi: chala kuygan «Ural»ni olov ichidan olib chiqishibdi. Aravachalik «Ural» mototsikli, o‘rmon sanoati xo‘jaliklarida bu mototsiklni «Jiguli»dan ko‘ra ko‘proq qidirib, izlab yuradilar. Yigit ko‘z tanish odamlardan edi, hozir bundaylar ko‘p, ular har yoqlardan kelihsan, bu yerlarda ancha-muncha vaqtidan beri turishadi, biroq hali shu paytgacha ham ular haqiqiy tanishga aylanishmagan. U jahli chiqib shovqinlardi:

– Buni qarang, bor ekan-a, bor ekan bu «Ural» degani! Kimga olib qo‘yishganikin uni?! Nima uchun asrab, berkitib qo‘yishgan?! Men Kachaevdan yaqinginada so‘ragan edim. Yo‘q, devdi. Lekin bor ekan, shu yerda turgan ekan!

Afonya unga tanbeh berganday so‘radi:

– Sen lo‘m qidirdingmi yo boshqa narsami?

– Yo‘q, hech narsa yo‘q, – deb qichqirdi yigit. – Ko‘ringlar: xotin-xalaj chelak ko‘tarib kelibdi, suv tashiydigan mashinani esa topisholmayapti. Angaradan obkashlab suv tashishyapti. Jahannam bo‘lib yotibdi-ku, obkashda suv tashiydimi? Hamma qator turib, olovga qarab chuchkirganday bir gap. Olovning esa parvoyi palak.

Shundan keyin yigit hammadan oldin chopib borib o‘t o‘chirgichlardan foydalanmoqchi bo‘lganligini baqirib gapirib bera boshladi:

– Qoidasini keltirib yerga ursang, undan faqat pishillagan ovoz chiqadi. Pish deydi-yu, tamom. Na ko‘pik bor, na boshqa. Qurib qolganmi, dami chiqib ketganmi, bilib bo‘lmaydi.

Afonya paxtalik chopon bilan orqadan urayotgan o‘tni o‘chirib turishni unga topshirgan, shuning uchun uning ovozi yelkalari osha eshitilardi. Odamlar nafas rostlamay, bosh ko‘tarmay ishlasharkan,

uning hirqiragan, hakkalagan tovushidan etlari junjikib ketardi. Ivan Petrovichning nazarida tovush yirtilib, arillab tutun va quyun ichra jizg‘inak bo‘layotgan yonginasidagi odamdan emas, devorlarning naq o‘zidan chiqayotgandek edi. Keyin uzundan-uzoq jizg‘anak oqshom o‘tib, tun tushdi. Ivan Petrovich mana shu payt davomida nimalardir deb qichqirgan va gapirgan, nimalarnidir talab qilgan va so‘ragan tovushlarni eshitarkan, nazarida bu odamlar emas, devorlar, yer-u osmon va qirg‘oqlar odam tovushida qichqirayotgandek – odamlar anglasin deb shunday qilayotgandek edi.

Ivan Petrovich so‘nggi taxtani pastga urib tushrigach, boshini ko‘tarib, atrofga alang-jalang qaradi. Orqa tomonda alanga ko‘kka qarab o‘rlab borar, hovliga otash selini separ va yaqin atrofdagi qo‘shti uylarning tomlariga vahimali shu'lalar tashlab lapanglar, ko‘lkalanardi. Hovli yuzida odamlar ovoz chiqarmay jingirtob bo‘lib chopishar, sanoat mollari omborlari atrofida olov yaqinida, alanga yallig‘larida tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketgan, go‘yo shaffofga aylangan sharpalar o‘zini dam u yonga, dam bu yonga otar, qichqirar va go‘yo allaqanday muntazam bir raqsni tinimsiz ijro etardi. U yerda olov shunisi bilan dahshatli ediki, tom ostidan uzun tillarini vishillab chiqarar va odamlarni rostdan ham go‘yo o‘yinga tushishga – dam ortga qaytish, dam yana oldinga intilishga majbur qilardi: «Biz tariq sochamiz, sochamiz... Biz esa tariqn yanchamiz, yanchamiz».

Nihoyat, har tomondan boshliqlar ham chopib qolishdi. Hovlining o‘rtasida, bo‘lim boshlig‘ining oldida o‘rmon sanoat xo‘jaliginip bosh injeneri Kozelsov qo‘lini paxsa qilib, nuqul qishloq tomonni nuqib ko‘rsatardi. Boris Timofeevich uni tinglab tinglamas, kimgadir nimalarnidir ishora qilar, uning ishoratlarini faqat: yana, yana... degan ma’noda tushunish mumkin edi. Shunda birdan hovliga traktor kirib kelayotganini ko‘rib, darhol unga peshvoz otildi.

Odam ko‘p edi, butun qishloq ko‘chib chiqqan edi, lekin odamlarni birlashtiradigan, ularni oqil va ustivor, o‘tni o‘chirishga qodir bir kuchga aylantiradigan kimsa, chamasi, topilmas edi.

Qishloqning kulba va xonadonlari uzra yong‘in yallig‘lari vahimali bir tarzda shu'lalar sochib kezinarkan, uylar qo‘rqinch ichida titrab yerga qapishib ketardilar. Ivan Petrovich uzoqmi-uzoqmasmi deganday ko‘zi bilan qidirib o‘z kulbasining tomini topdi va shunda birdan dahlizda changak yotganligini esladi: ikki kun burun qor eri-

ganda uni o'zi o'sha yerga olib kirib qo'ygan edi. Hozir yonginda u juda asqotgan bo'lardi.

Ko'rimsiz, uvrin-to'da bu posyolka na shahar va na qishloqqa o'xshar, xudda bir yerdan boshqa yerga ko'chib keta turib, havo ochilishini kutib, to'xtab, so'ng shu ko'yi birato'la qolib ketilganday omonatgina qurilgan, kulbanamo qo'nalg'alardan iborat edi. U garchi to'xtagan bo'lsa ham, qachon yana qo'zg'alishga amr bo'lishini kutib yashardi. Shuning uchun saranjom-sarishtalikka e'tibor bermas, bola-chaqaning kelajagini ko'zlab, chora-tadbir qilmas, yozni yozlab, qishni qishlab olinsa, shuning o'zi yetadiganday edi. Lekin bu orada bola-chaqa o'sib voyaga yetar va o'z navbatida farzandlar ham bola-chaqa orttirishar, tiriklar manzilgohi yon-atrofida abadiyatga ko'chiladigan qarorgoh ham kengayib borar, bu qo'nilg'a esa, hamon o'sha-o'sha xuddi omonat bekatday turar, uning odamlari bugun yo erta-indin ko'chadiganday edi. Tunlari Ivan Petrovich elektrostantsiyaning ishlashiga, mashinaning kecha-yu kunduz tinmaydigan ovoziga quloq solib yotarkan, nazarida qishloq motorini o'chirmay doim tayyor holda yotganday bo'lardi.

Qishloq kengashida qishloq loyihasi osig'liq: to'g'ri ko'chalar, bolalar bog'chasi, maktab, pochta, o'rmon sanoati xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi idoralari, klub, do'konlar, garaj, suv inshooti minorasi, novvoyxonasi – turmush uchun nima zarur bo'lsa, hammasi bor, hammasi joyida. Ko'chalar haqiqatan ham, to'g'ri va keng edi; o'z vaqtida uylarni adl, bir qator qilib solishga qattiq rioya qillardilar. Lekin tartib-saranjomlik shuning o'zi bilan barham topdi; qishloq ko'chasiga sira o'xshamaydigan bu keng-mo'l yo'llar og'ir texnika tufayli aql bovar qilmas darajada o'zgarib ketdi, yoz oylari lesovozlar va traktorlar yog'in-sochinli kunlar ko'chaning loy tuprog'ini shunchalar iylab, balchig'ini chiqarib yuborar, so'ng balchiq qatlama qatlama bo'lib ko'cha chekkalariga uyular, keyin xuddi tosh cho'kmalar kabi qotib qolar, qari-qartanglar uchun o'tib bo'lmas to'siqli aylanar edi. Qishloq kengashi har yili har bir xonadondan yo'lka solish uchun bir so'mdan yig'ib olar, har yili yo'lka ham solinar, biroq bahor chiqar, o'tin-og'och olib kelishga to'g'ri kelar, ana shunda yo'lkalardan shox-shabba, yo'g'on, og'ir daraxt tanalarini

tashib, dumalatib o'tishar, keyin yo'lkadan ham nom-nishon qolmas edi. Yoz bo'yi yangi yo'lka qurish hech kimning esiga kelmasdi, qo'l ham tegmasdi, «yo'lka brigadasi» qish oldidan ish boshlardi, birovning qadami tekkan-tegmagan yap-yangi yog'och yo'lkalar fevral, mart oylarigacha uch-to'rt oy qor ostida yotar, so'ng bahor kelgach, yana traktorlarning tishli zanjirlari va butalmagan daraxt tanalari ostida ezilib, majaqlanib ketardi. Uch taxta-uch taxta qilib qurilgan mana shu yo'lkalarning qolgan-qutgan but joylarida ko'pincha katta-katta daraxtlarni bo'lishar, arralashar, yorishar ham edi. Hech narsa kor qilmasdi odamlarga: na buyruq, na gap-so'z.

Shunday yalang'och, ship-shiydam, so'qir va sovuq qishloq edi; uylar oldiga ham yurakni quvontiradigan biron dov-daraxt, hech bo'limganda oq qayin yoki chetan ekilmagandi. O'zlarining eski qishloqlarida derazasi oldida nihol o'smasa turolmaydigan odamlar bu yerga kelib, to'rttagina daraxt ekip ko'kartirishni xayollariqa ham keltirmasdilar. Ko'cha yaydoq bo'lgani uchun ham qor-u yomg'ir, shovqin-suron to'siq bilmay deraza oynalariga urilar edi. Ko'kalamzorlashtirish haqidagi ne-ne qarorlar ham kor qilmasdi. Balki haqiqatan, to'g'risi ham shudir: yil sayin qanchadan-qancha tayga o'rmonlarini kesib, o'ng-so'lga qaramay poyonsiz yerlarni ag'darib, shamollardan pana bo'lish uchun buta ekish kimning ko'ngliga sig'ardi? Kunimiz o'tsa...

O'zi bittagina so'z: lesiromxoz, ya'ni sanoat usulida yog'och tayyorlash. Umrguzaronlikdagi ne-ne tartibsizlik hamda bevoshliklarni ana shundan ham bilib olsa bo'ladi. O'rmon qulatish – don sochish emas, don sochar dehqon uchun o'sha-o'sha ish-u tashvishlar yozin-qishin to'xtamaydi, u qancha yashamasin, baribir ishi ozaymaydi. O'rmon kesilgandan so'ng esa, to yangisi o'sib-unguncha necha yillar vaqt kerak. Hozirgi texnika yordamida uni bir yil ichida kesib tashlanadi. Keyin-chi? Keyin ko'ch-ko'ronni ko'tarib jo'naysan. Hovli-joy, hammom-u og'ilxonani, ota-onang dafn etilgan qabriston-u umring o'tgan yillarni qoldirib, lesovoz-u traktorlarga minib, yangi o'rmon qaydasan deb, qidirib ketasan. Yangi joyda esa hammasini yana qaytadan boshlashing kerak. Ivan Petrovich Berezovka yonidan yozda sol ustidan, qishda muz ustidan yurib o'tarkan, har safar u tomonga, mixlab tashlangan, g'arib kulbalarga yuragi beixtiyor uvishib, xayoli parishon qarab qolardi: lespromxoz bor edi, ishi tugadi, ketdi – mana

endi qishloq tashlandiq, unda qimirlagan tirik jon yo‘q, faqat shaytonlagan daydi-sayyoqlar uylar ichida o‘t yoqishadi, eshiklardan tutun burqsiydi.

Ertami-kechmi, ularning boshida shu qismat bor. O‘sha bexosiyat kunni iloji boricha orqaga surib kelishardi, lekin qanchagacha ham surib bo‘lardi... O‘zlariga ajratilgan yerlardagi yog‘ochlarni ular yetti yil ilgariyoq kesib olishgandi. Angaraning narigi tomonidan yangi joy ajratishdi. Besh yil o‘tgach, u yerdagi yaroqli hamma daraxtlarni kesib olishdi. Shundan keyin qishloq qoladimi yo‘qmi, degan masala yana ko‘ndalang turib qoldi. Masalani rayonda, oblastda, boshqarmada ko‘rishdi, nihoyat, qishloq qoladigan bo‘ldi. Tag‘in o‘zlarining ilgarigi joylarini aylanib chiqishdi, biroq avval daraxtlarni, qarag‘ay va tilog‘ochlarni (bir vaqtlar o‘rmonlarni tozalaymiz deb, qayin va tog‘teraklarni zaharli moddalar sepib quritishgan edi) tanlab kesgan bo‘lsalar, endilikda o‘rmonni tamomila bir tekis qirqar edilar. Yana shunday texnika ham chiqdiki, u o‘tgan joyda aslo navnihol qolmasdi. Bitta samosval bitta katta daraxtni ortib ketish uchun atrofdagi barcha navnihollarni butunlay bosib, ezib, majaqlab tashlaydi.

Mana shu «bir tekis taralgan» ish ham uch-to‘rt yilga yetib beradi. Undan keyin-chi? Undan keyin, aytishlaricha, xuddi eski zamonalday uzoq-uzoqlarga borib ishlab kelishadi, brigadalar necha o‘nlab chaqirim joylarga haftalik ishga jo‘naydilar, ishlab bo‘lgach, dam olgani uyga qaytadilar. Korxona va oila hayotini ikki vaxtaga bo‘ladilar: bir hafta lespromxoznikisan, bir hafta – uyniki. Qat’iy jadval asosida. Hozirgiday birining ikkinchisiga sira dahli, ta’siri yo‘q.

Shunday bo‘lgay. Boshqa chora yo‘q, boshqa ish ham yo‘q! Bir mahallar xalq dalalar-u o‘tloqlar tufayli tirikchilik qilardi, elektrostantsiya qurilib, ularni suv bosdi, faqat o‘rmon qoldi.

Xullasi kalom, qishloq kengashidagi loyihada klub bor, klub esa, yigirma yildan beri eski qishloqlarning biridan ko‘chirib olib kelangan, jamoat hammomida joylashgan. Yangisini qurish kerak edi, lekin hatto oxirgi paytlargacha ham hech narsa ma’lum bo‘limgach, qanday qilib quradi. Loyihada – bolalar bog‘chasi ko‘rsatilgan, lekin u yaroqsiz: uni tuzatish kerakmi, yo‘qmi, ma’lum emas. Ma’lum bo‘lgandan keyin ham shoshilishayotgani yo‘q. Bularni birov so‘rab-surishtirib o‘tirmaydi.

Shunday ekan, qishloq qanday qilib chiroyli ko'rinsin – yana yong'in shafaqlarida?!

5

Ivan Petrovich pastga sakrab tushdi-da, hozirgina bo'lim boshlig'i turgan joyga chopib ketdi. Besh kun burun bo'lim boshlig'i uning ishdan bo'shash haqidagi arizasiga qo'l qo'ymagach, Boris Timofeevich bilan qattiq san-manga borib qolgan edilar. Ammo Ivan Petrovich bu yerda qo'lidan bir ish keladigan odam bo'lsa, u ham faqat shu bo'lim boshlig'i ekanligini bilardi. Na yarim yil ilgari qo'shni lespromxozdan xavfsizlik texnikasi injeneri lavozimidan ko'tarilgan bosh injener, na lespromxozi direktori (lekin u yo'q edi, kengashga ketibdi, bo'lganda ham nima qilib berardi va na uning o'rnbosarlari – bu bemaza ishda tozayam tirriq bo'lib ketgan, pensiyagacha qolgan kunlarini birma-bir sanab o'tkazayotgan ana shu serzarda keksa kishidan boshqa hech kim bu ishni eplolmasdi. U ko'p odamlar bilan chiqisholmagani kabi boshqalar ham uni jini suymasdi, u asablari qaynab chopib yurar, bosh-ketiga qaramay baqirib-chaqirishi ham, surishtirmay-netmay duch kelgan odamni maqtab osmonga olib chiqishi ham hech gap emasdi, lekin bularning bari go'yo tutundan yasalgan bir niqob bo'lib, Boris Timofeevichni yaxshi bilmaydigan g'o'r kishilarnigina chalg'itishi mumkin edi. Bilgan odam esa uning o'tkinchi koyishlari va baqirib-chaqirishlariga unchalar e'tibor berib o'tirmas, Boris Timofeevich Vodnikov – o'zimizning odam, u oq-u qorani yaxshi ajratib olgan, o'z zimmasidagi ishni ham imkonи boricha do'ndirib qo'yadi, deb ishonardi. Qishloq qurilgan ilk kunlardanoq Vodnikov bo'lim boshlig'i bo'ldi, bo'lmasa uning oliy ma'lumoti ham yo'q, mana shuning o'ziyoq usiz ish bitmasligini ko'rsatib turadi. Holbuki, lespromxozi boshliqlarining ko'z o'ngida markaziy bo'limni boshqarishning o'zi bo'lmaydi, zotan, bu boshliqlarning aralashmagan ishi yo'q, ko'ngliga siqqancha gapiradi va qiladi, oh, qanchalar oson emas bu ish!..

Boris Timofeevich kayfi taroq traktorchi va traktorni orqaga qaytarib, hovlining o'rtasiga, omborlardan tashib chiqilayotgan mol-lar to'planayotgan joyga qarab yurganligini Ivan Petrovich ko'rgan edi. Lekin bu yerda hozir u yo'q edi. Ivan Petrovich to'dalangan narsalarga baqrayib qarab qoldi: yong'inga kelgan odamlar sho-

sha-pisha itqitib yuborgandan kigiz etiklar har yerda sochilib yotar, o'quvchilarning portfellari va uyum-uyum qilib bog'langan maktab kiyim-kechaklari, yung ko'yaklar, sal nariroqda esa – ustmaust mingashtirib tashlangan «Yava»lar va chindan ham, aravachasi yonib ketgan «Ural» mototsikli. Bu «Ural» tufayli hali yigitlar ORS boshlig'ining toza adabini berishadi, rosa to'polon bo'ladi hali. Bu yong'indan keyin umuman ORS boshlig'ining holi nima kechadi? Ivan Petrovich o'zining bu qadar soddaligiga miyig'ida kulib qo'ydi, hech shubha yo'q: bu tegirmondan ham butun chiqadi. Hamma yerda bularning oshig'i olchi, ishlari besh.

– Ivan! Ivan! – birdan Alyonaning ovozi eshitildi. U allaqanday qutichalarni bir quchoq qilib ko'targancha yugurgilab keldi, lekin yuklarini tozaroq, quruqroq joy topib, ohista yerga qo'ydi. – Ivan, bu o'zi nima bo'lyapti, a?! – ovoziga qaraganda juda hayajonlangan, allaqanday havoyi va hovliqqan edi, g'ayritabiyy dumaloq bo'lib qolgan ko'zlar kosasidan chiqib ketay derdi. – Bunaqada hammasi yonib ketadi! Voy, u yerda nimalar yo'q! Ivan, axir, biz nega bunaqamiz??!

U javobni ham kutib o'tirmay, javobning unga keragi ham yo'q edi, orqasiga o'girildi-da, yoshi qaytib qolgan odamlarday ham sudralib, ham har qadamda jadallab, lapanglaganicha shoshib jo'nadi. Ivan Petrovich bir zum diqqat bilan uning orqasidan qarab turdi, lekin boshi shunchalar g'ovlab, xayoli chuvalanib, cholni ko'rsa buvam deydigan ahvolga yetgan ediki, sal bo'lmasa: «Kim ekan bu? Tanish xotinga o'xshaydimi!» deb yuborayozdi. Lekin darhol hushini yig'ib oldi, Alyonani ko'z o'ngiga keltirdi, o'zicha unga, xotin kishining bundoq etagi kuyganday bo'lib yurishi yaxshi emas, deb tanbeh berdi va shu zahoti uni esdan chiqardi.

U Boris Timofeevichni ko'rdi. Lekin avval uning qichqirayotgan ovozini eshitdi va uni tovushidan borib topdi, u muyulishdagi oziq-ovqat omborining oldida olov yallig'i yoritgan, g'alati serrayib turgan to'da ichida edi. Boshliqning dam-badam arillab turgan ovoziga o'rganib qolgan edilar, lekin uning baqiriq-chaqiriqlari telbanamo va shuning barobarida anglashilmas edi. Olov hammani qizitib yuborgan edi. Jig'ibiyron holda, lekin aniq-tiniq berilayotgan javoblarga qarab, Ivan Petrovich boshliq oldida turgan kishi omborchi Valya ekanligini bildi.

– Ochmayman! – derdi tap tortmay Valya. – O‘chiringlar. Lekin ochmayman.

– Yoni-i-ib ketadi-i! E, onasini..

– O‘chiringlar! Men, nima, yosh bolamanmi, ko‘zim ko‘rmi, Klavkaning hamma narsasini tashib ketishdiku! Hamma tashiyapti. U yerda mening yuz ming so‘mlik molim bor, hatto undan ham ko‘p! Keyin ularni qayerdan olaman?! Qayerdan?! Qayerdan?!

– Yoni-i-b ketadi-i! – bo‘kirardi boshliq.

– O‘chiringlar. Men ahmoq ochay-da, bitta qo‘ymay tashib ketishsinmi. O‘chiringlar.

U ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Ivan Petrovich boshliq oldiga yugurib bormoqchi edi, lekin boshliqning o‘zi u tomonga o‘girildi. Unga emas, sanoat mollari omborlaridan chiqqan mol uyumlariga qaradi, Ivan Petrovich shu uyumlar atrofida kuymalanib yurgandi. Boshliqning orqasida hozir bir buyruq bo‘ladi-ku deb, allaqancha sharpa qorayib turar, bular arxarovchilar<sup>1</sup> bo‘lib, qishloqda orgnabor<sup>2</sup> brigadasini shunday deb atar edilar. Rostdan ham, Boris Timofeevich mol uyumlariga besh odimcha qolganda orqasiga qaramasdan qichqirdi, baribir mening nima deganimni hamma eshitadi va tushunadi, deb o‘yladi.

– Buzinglar!

Arxarovchilar orqaga yugurib qolishdi: ularga bop ish topilgan edi.

– Kachaev qani? – Ivan Petrovich tomonga qarab baqirdi Vodnikov. – Menga desa to‘ng‘iz qo‘pmaydimi?! E, onasini! Bu omborlar uniki. Qayerda sakillab yuribdi o‘zi?!

Kachaev – ORSning boshlig‘i. Boris Timofeevich Kachaev ikki kun avval lespromxoz boshlig‘i bilan birga shaharga navbatdagi majlisga ketganligini boshqalardan ko‘ra yaxshiroq bilardi. Boris Timofeevichning o‘zi ham, bosh-uchini yo‘qotib, galdirab qolgandi, bo‘lmasa soyaga musht o‘qtalib, do‘q-po‘pisa qilarmidi. Dovdirab qolsang, Kachaev u yoqda tursin, o‘zingni ham topolmay qolasan; bunaqasi hali bo‘limgandi. Ivan Petrovich uning qorayib, burni so‘ppayib, yonoqlari ich-ichiga botgan so‘xta yuziga qarab

<sup>1</sup> Arxarovchilar – 1) rus politsiyachilarining laqabi; 2) ko‘chma ma’noda ashaddiy, taportmas, surbet.

<sup>2</sup> Orgnabor – tashkiliy sur’atda ishga yollanish (*tarj.*)

turib, bo‘lim boshlig‘ida nima ishi borligi, uni nimaga qidirib yurganligini unutdi-da, hozir hammadan ham zarurroq bo‘lgan so‘zni aytdi:

– Timofeich, sen Misha Xampo amakini darvozaga qo‘y. Qorovul ham tursin, o‘zining vazifasi. Ammo Xampo albatta tursin. U shu yerda. Men uni hozirgina anovi, o‘ng tomonda ko‘rdim.

Vodnikov Ivan Petrovich ko‘rsatgan tomonga otildi, o‘girilib ham qaramadi, hatto o‘z aqli bilan emas, birovning maslahati bilan ish qilayotganligini ham anglab yetmadi. Ivan Petrovich uning Xamponi qidirib topganligini, unga nima qilish kerakligini yo‘l-yo‘lakay tu-shuntirib, darvoza tomon olib ketganligini ko‘rib turdi. Misha Xampo amaki sochlari oppoq oqargan kattakon boshini baland ko‘targancha silkitib-silkitib qo‘ydi-da, egilib ta’zim qildi va shu zahoti olov atrofidagi odamlarga bir qur nazar tashlab chiqdi, alohida nazorat qilinishi kerak bo‘lgan odamlarni ko‘z ostiga oldi. Albatta, Misha amaki u yerda qattiq turadi, Xampoga ishonsa bo‘ladi. Omborchi Valya nima deyayotganini yaxshi biladi. Mana, hozir oziq-ovqat omborlarini ochishsin-chi...

Rostdan ham, sug‘urib-qayirib olinayotgan katta tamba-yu qulf-kalitlarning sharaqlagani eshitildi, boshiga kulfat tushgan, na mol-hollarining ichkarida yonib ketishidan va na ularni tashqariga olib chiqishlaridan bir naf ko‘rmayotgan, es-hushini butunlay yo‘qotib qo‘ygan Valya qon yig‘lardi. Bir eshikni, so‘ng yana birini ochishdi, uchinchisining tambasini sira jildirisholmadi va otning kallasidek keladigan kattakon qulfni bolta bilan urib tushirishdi. Arxarovchilar tez va chaqqon ishlashardi – go‘yo umr bo‘yi kunlari qulf buzish bilan o‘tganday edi. Ivan Petrovich chopib kelayotib, o‘ng tomondagi eng chekka ombar eshigi oldida ulardan biri, Sashka Devyatiy (Devyatiy laqab emas, otasining ismi sharifi, arxarovchilarning hamma narsasi telba-teskari bo‘lgani uchun ismi-shariflari ham shunga yarasha qalang‘i-qasang‘i edi) bilan to‘qnashdi, shunda o‘zida yo‘q xursand, dikonglagan, qizarib-bo‘g‘riqqan Sasha uning yelkasiga mug‘ambir qichiq bilan bir qoqdi, Ivan Petrovich qadamini sekinlatmay unga shart burilib qaradi, Sasha abjir bo‘ynini cho‘zib, uning naq basharasiga o‘ktam qichqirdi:

– Borma. Borma, grajdanim qonunchi, sen yonib ketsang, kim bizga qonun so‘qadi?!

Qamoq hayotini ko'rgan yoki qamoqda o'tirganlarga taassub qiladigan bu kishilar uni qamoq lahjasida grajdanin qonunchi deb chiqishardi. U bunga ko'nikib ketgandi. Zamon o'zi shunaqa bo'lib qoldimikin, har narsaga ko'nikishga to'g'ri kelyapti, kechagina hatto tasavvur qilolmaydigan narsalarimizga bugun odatlanyapmiz.

Aytaylik, zaminni boy berib, shunga ham ko'nikyapmiz. Hammasi o'z boshimizdan ham o'tyapti.

## 6

Ko'chib kelishganiga yigirma yil bo'lib qolibdi, hatto yigirma yildan cho'ngroq, aftidan, bu orada yerning o'zi ham ular ketgan tomonga qarab og'gan bo'lsa ajabmas, lekin Ivan Petrovich eski qishlog'ini eslamagan kun yo'q edi. Qishloq uch yuz yildan beri jon bag'ishlab kelgan yerlarni ko'mib yotgan suvlarga xoh-noxoh nazar tashlarkan, har gal qadrdon uy-joyi yodiga tushardi. Yo'l-yo'lakay eski qishloq tomonga xuddi salomlashganday bosh silkib o'tganda ko'z ochib ko'rgan vatanini xotirlar, kechagi hayoti bilan bugungi turmushini solishtirib ko'rар, u yerda qanday yashardig-u bu yerda qanaqa kun kechiryapmiz, deb tez-tez og'ir o'ylarga botar edi.

Uning familiyasi ham qishloqning nomiga uyqash. Eski qishloqqa tomirdosh edi – Yegorov. Yegorovkalik Yegorov. To'g'rirog'i, yegorovkadagi Yegorov. Esaki qishloqdan u faqat bir marta – urush payti uzoq muddat ketdi. Ikki yil jang qildi, keyin yana bir yil bo'ydoqchilik yo'sinida o'sha Germaniyaning o'zida, mudofaada turdi. Germaniyaga esa, u taqdir taqozosi bilan «T-34» tankida kirib borgandi. 46-yilning kuzida esa uyga qaytdi. Shuncha yil ayriliqdan so'ng jonajon yegorovkasini ko'rganda qanday ahvolga tushgani haligacha esida: voy-bo'y, xudoyim, qishlog'i qad ko'tarib turganga emas, yotganga, bukchayib yotganga o'xshaydi-ku! Shunchalar ko'rimsiz va sho'ridahol bo'lib ko'rindi qishloq uning ko'zlariga. Urushda nimalarni ko'rmadi – baxtsizlik ham, yo'qchilik ham, buzg'unchilik ham – barini ko'rdi, tevarak-atrofdagi hamma narsalar azob-uqubatlardan faryod chekib yotardi, yordam so'rab iltijo qilardi, qanchadan-qancha narsalar vayron, ag'dar-to'ntar qilib tashlangandi, ammo hatto eng qo'rqinchli vayronagarchiliklarda ham umid nishonalari ko'zga tashlanardi – vaqt bo'lsa, madad kelsa, yana tiklanaadi, yana jonlanadi, inson xarobotga toqat qilolmaydi. Qishloqda esa

hamma narsa eskicha, hech narsa o‘zgarmagan, go‘yo turgan joyida qotib qolgandi. Na kamaygan va na ko‘paygan, ko‘payishi hatto nizomda ham ko‘zda tutilmaganday. Keyinchalik shunday bo‘lib chiqdi ham: urushdan so‘ng o‘n besh yil o‘tdi, yegorovka qirq xonadon dan iborat edi, qirq xonadonligicha qoldi, eskisiga na bir hammom, na bir molxona qo‘shildi. Rost, qishloq suvga bostirilishini oldindan bilishar, yangi joy solish ko‘ngilga sig‘masdi, oyog‘ing qo‘lingda qayga uchsam, qayga qo‘nsam ekan, deb turasan – qo‘zigorin ko‘p tog‘larga ko‘chsammikin yo qiz-o‘g‘ilning ketidan qulaygina shaharga jo‘navorsammi, deysan. O‘sanda, armiyadan qaytgach, boshida tankchilar qalpog‘i, ko‘kragi to‘la nishon, ko‘pni ko‘rgan shovvoz serjant o‘yin-kulgilar tugagach, o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi. Tug‘ilgan joy tug‘ilgan joy-da, bu yerda har bir tosh sen tug‘ilmasdan burun seni his qilgan va kutgan, bu yerda har bir maysa-giyoh har baho r kelganda o‘tmish zamonlardan senga nechukdir ogohlilik va madadkorlik mujdasini beradi, bu yerdagi hamma narsa senga qondosh, seni suyaydi. Lekin bunday o‘ylab qarasang: hamon o‘sha-o‘sha, hamon o‘sha-o‘sha, hamon o‘sha-o‘sha... ilk kelgan choqlaring bundoq tasavvur qilsang, urushdan xuddi o‘z ajaling bilan o‘lish uchun qaytib kelgandaysan.

Lekin o‘y o‘ylab, ikkilanib, alahsib yurib ancha vaqt shu yerda qolib ketdi. U yegorovkani tanladi hisob. Ko‘p o‘tmay ocharchilik boshlandi, har holda mana shu yerda, Angara va tayga yaqinida jon saqlash osonroq edi; ko‘p o‘tmay u qo‘shni qishloqda Alyonani ko‘z ostiga oldi. Alyona uyalib, qimitinib, ohu ko‘zlarini katta-katta ochib qaradi, birinchi marta uning qo‘lidan ushlaganda shunchalar ham qo‘rqib ketdiki, shunchalar ham qo‘rqib ketdiki, shundan so‘ng yigit boshqa birovni qidirmay qo‘ya qoldi. Ko‘p o‘tmay kolxozi yangi mashina oldi, uni boshqa haydaydigan odam ham topilmadi, ko‘p o‘tmay onaizori og‘ir va uzoq og‘ridi, taqdirning o‘zi shu tariqa uning yo‘llariga uzala tushib yotdi. Shu-shu turmush-tutmush, bola-baqra, ish-yumush deganday hamma qatori yengilroq va osonroq yashashni ko‘zlab qolarkan, kishi.

Ivan Petrovich ko‘nikib ketdigma emas, begona yoqlardan ilash-tirgan va allaqanday noayon va’dalar tomon imlayveradigan, imlayveradigan shaytondan xuddi qutulganday bo‘lib, yengil tortdi. Biz yo‘q yerda baxt-omad bor. Hayotda balki eng kerakli narsa: har

kim o'ziga tekkan joyda to'g'ri yo'l tutsin, gumrohlik qilmasin, dam unga-dam bunga sakrab, hammasini o'lda-jo'lda qilib ketmasin.

U shunday deb hisoblardi. U.hozir ham shunga ishonadi, lekin qarigan chog'ida, o'z istak-tashvishlari, e'tiqodlariga zid o'laroq baribir ko'chish tadorigini ko'rishga to'g'ri kelgan bo'lsa, nima qilsin. «To'g'ri kelgan bo'lsa», deb bekorga aytilmayapti, axir, aslida ham o'zi shunday.

Ha, aytganday. U vaqtida shaytondan qutulgan bo'lsa-da, lekin shayton, har qalay, uydan bir o'zi chiqib ketmadi, ketidan ukasi Goshani ham ergashtirib ketdi... Goshka qurilishga o'zini urdi va katta-katta pul topib, ichkilikka ruju qo'ydi.

O'z vaqtida bizga yo'l ko'rsatadigan odam yo'qmidi?

Ivan Petrovich yegorovkada qoldi, tomir otdi, qanoat qildi, xudo urgan joy-ku, deb nola chekib yurmadi, yillar o'tishi bilan bu yerlarda ham obodonchilik shabadalari esa boshladi: elektr tortildi, yegorovka sohillariga tez-tez oq kemalar kelib to'xtaydigan bo'ldi, Angaraning yuqori tomonida, bu yerdan sakkiz chaqirim narida yegorovka uzra boy lespromxoz paydo bo'ldi, u yoshlarni tinmay o'ziga jalb qildi – shunda bu yerdagi hayot, boshqa joylardagi kabi bir butun sondan suratlri, mahrajli songa aylandi, endi mahrajda nima bor-u suratda nima bor – bilish mushkul, ana shunday, ana shunday qilib asta jo'nashib ham ketadigan edi, barchaga barobar zamon bo'lgandan keyin... Qishloq ko'milarmish, degan xabar shang'illab tarqalganda, oradan ko'p o'tmay ko'chish muddati ham yetib kelganda... ochig'ini aytaylik, har bir yuragi va xotirasi bor odam kabi Ivan Petrovichga ham yegorovkani tashlab ketish og'ir bo'ldi, rost, oson bo'lmadi, shu bilan birga, men hal qilmadim-ku, men uchun hal qilib berdilar-ku, degan yashirin bir mammuniyat bilan u yangi joyga uyini ko'chirib o'tdi: eski qishloq yaxshi edi, vaqt o'tishi bilan bu yer undan ham yaxshiroq bo'ladi. Aftidan, yegorovka o'z kuchi bilan sira oyoqqa turadigan emasdi.

Yegorovkaga o'xshagan yettita sho'ridahol qishloq ko'chib kelgan yangi joyda darhol lespromxoz hokim bo'lib oldi va uning nomini bu yerdagi bepoyon o'rmonlarga ko'ra, zamonaviyroq qilib aytadigan bo'lsak, xom ashyoga ko'ra – Sosnovka, deb atashdi.

Qulf-tambalarni buzish kerak ekan, ilgariroq buzish kerak edi. Ivan Petrovich o'ng tomondagi chekka oziq-ovqat omboriga otilib kirganda, hammasi guvillab yonmoqda edi. Teshik-teshik ship uzra olov dahshatli gulduros ko'tarmoqda edi, boshqa barcha tovushlar shu guldurosga birlashgandi; burchak tomondagi devor tepasida shipga qoqligan narsalar ko'chib tushdi, bo'shagan joydan olov sharsharasi quturib otila ketdi, burchakdagi devor boshdan-oyoq o't ichida qolgan, uning yaqiniga yo'lab bo'lmasdi, boshqa tomondagi devorlar ham vahimali tutab kelardi, ship hali buzilmagan yerlarda olov teshik-tuyuklardan otilib chiqar, chasir-chusir uchqunlar sachrar edi. Hamma narsa chidab bo'lmaydigan darajada qizib ketgan, birdan birvarakay alanga olib ketishi hech gap emas. Arosat olov ichidan kuygan ovqat isi kelardi. Go'sht isi anqirdi, yana allanechuk olovni ko'tarmaydigan yeguliklarning achchiq, dimoqni yoradigan hidi taralardi.

Ilgari Ivan Petrovich bu yerlarga kirmagandi, ko'nglida hamon ajablanish tuyg'usi o'limgan ekan, bu yerdagi mo'l-ko'lchilikni ko'rib lol qoldi. Polda qotgan chuchvaralar uyulib yotar, shu yerning o'zida, iflos dag'al kanop iplar bilan chambarak qilib bog'lab tashlangan yo'g'ondan-yo'g'on, ko'rinishi xunuk kolbasalar sochilgan, bu yerga yorib kirgan odamlar ularni oyoqosti qilib yuborishgandi; orqa tomondagi devorga tirkalgan so'kichak uzra og'ir-og'ir qubba sariyog'lar erib yotar, erigan sari o'ralgan qog'ozi burishib ichiga tortilib borar, xuddi shu yerda ustma-ust qo'yib chiqilgan yashiklarda qizil baliq ko'zga tashlanar edi. Og'och bochkalarda, karton idishlar-da, qog'oz qoplarda nimalardir bor edi. Demak, bor ekan-ku! Unda bularning bari qayerga ketardi? Nahot, o'rmon kesiladigan joylarda oshxona-o'choqlarga tashilgan? Bunday oshxona-o'choqlarda ovqat yemagan, u yerlarda nimalar bo'lishini bilmaydigan va bunaqa narsalarni faqat tushidagina ko'radigan boshqa odamlarga borib aytинг bu gaplarni! Shu fikr Ivan Petrovichni kuydirib, jazillatib o'tdi, o'zining soddaligidan kuladigan joyi keldi va u miyig'ida kulib qo'ydi: rayon markazidan dam u yoqqa, dam bu yoqqa keti tinmay qatnaydigan, xudoning bergen kuni ORSga kirib o'tadigan va Kachaevning idorasidan shishinib chiqadigan mashinalar-chi? Uchala lespromxoz uchun

bitta, markazlashgan, umumiy ombor bo‘lsin deb, bekorga jon kuy-diryaptilarmi axir, yana bu omborlar rayon markazida joylashmog‘i kerak! Ivan Petrovich boshini silkitib qo‘ydi yoki boshni shu yerda albatta silkip qo‘yish kerak, deb o‘yladi: mabodo, eng katta lesprom-xozdagi eng katta, ya’ni manavi omborlar yonib bitsa, markazlashtirish fikrini o‘tkazish juda ham oson bo‘lib qoladi.

Dunyoda qanchadan-qancha nobakorlar, agar-magarchilar bor! Qanday qilib biz ularga taslim bo‘lib qoldik, qanday qilib??!

O‘zini paxtalik choponi bilan to‘sib, issiqliqdan hakkalagancha, Ivan Petrovich shilimshiq-sirg‘anchiq, po‘sti po‘rsillab chiqqa boshlagan kolbasa boylamlarini eshikka irg‘ita boshladi. Hovlida kimdir ularni olib, qayergadir tashlab kelardi. Ivan Petrovich faqat chopib borayotgan va chopib kelayotgan kirza etiklarni ko‘rib qolardi, xolos. Yon-verida ham kishilar bor edi, lekin kimligini bilishga imkon yo‘q; o‘qtin-o‘qtin ular bir-birlariga to‘qnashib qolishar va darhol o‘zlarini sapchib chetga olishar – issiqla chidash tobora qiyinlashib borar, olov shift hamda devorlardan chap tomonga qarab tezlab yugurar, ko‘zlar yoshlanar, tomoqlar qaqrab ketgan, ular nafas olayotgan tutun ham xuddi yonayotganga o‘xshardi. Nimadir xuddi tovaga solganday qattiq vishillar, nimadir xuddi snaryad kabi gumburlab portlardi; to‘satdan yana bir to‘sin chayqala-chayqala gurillab yon-gancha pastga quladi. Endi orqaga qaytsalar ham bo‘lardi. Kolbasalarni, chamasi chiqarib tashlashdi, baliq solingen yashiklarni olib chiqishdi, biroq Ivan Petrovich orqa tomondagi yashiklar joylashgan so‘kichakka qarab, ko‘zi sariyog‘ga tushdi-da, o‘sha tomonga o‘zini urdi, kolbasani emas, yog‘ni asrash kerak edi, deb o‘yladi. U eriy boshlagan va cho‘kib qolgan sariyog‘ qubbalaridan birini azot ko‘tardi, shunda yog‘ qo‘llarini kuydirib, xuddi xamirday qorni us-tidan oqib oyog‘iga tushdi; u qubbani yerga qo‘ydi, uni ko‘kragiga bosgancha bukilib yana ko‘tardi – shu alpozda tashqariga olib chiqdi va kimningdir qo‘liga tutqizdi. Yog‘ni tutgan qo‘l yopqichda edi. Shunda Ivan Petrovich uydan yopqichlarni olmagani uchun achindi – qanchalar asqotgan bo‘lardi-ya hozir! U yana ichkariga yo‘naldi, paxtalik bilan o‘zini xuddi qalqon tutganday to‘sib, uning osha alang-jalang qilgancha yana yog‘ turgan joyga borishni ko‘zлади, lekin yarim yo‘lga yetganda, kimdir u bilan to‘qnashib ketdi, shunda Ivan Petrovichni olovdan to‘sibmi yoki o‘zi uni pana qilibmi, orqa-

ga qarab sudrab ketdi. Ivan Petrovich, ha endi bo'ldi, deb qarshilik ko'rsatmadi.

Tashqariga chiqishganda, Ivan Petrovich haligi kimsa Sashka Devyatiy ekanligini ko'rdi. Sashka tishini ko'rsatib irjaydi va tag'in o'sha so'zlarini takrorladi:

— Yonib ketasan, grajdanin qonunchi!.. Oh, yonib ketasan!..

Shunday deb, Ivan Petrovichni o'zidan nari itarib yubordi.

## 8

Aftidan, endi hech kim o't o'chirmas, hamma orqaga chekingan, faqat olib chiqishning iloji bo'lgan narsalarni saqlab qolishga urini-shardi. Darvoza oldida suv tashiydigan mashinaning motori ishlab turar, tashlab qo'yilgan shlangdan suv oqardi. Butun hovli yop-yorug' bo'lib ketgandi; Ivan Petrovich shlang tagida suv ko'llanib qolganiga darhol ko'zi tushdi, suvsiz boshqa bir zum ham toqat qilolmasligini sezib, o'zini shu joyga urdi. U yuziga suv olib sepdi, yuzi yanayam qattiqroq achishdi, hovuchida suv olib, ikki-uch qultum ichdi, shu bilan suv tugadi, bo'sh shlangning ichi quldiradi, pirqilladi va nihoyat, jim bo'ldi. U shlangni silkitib, tortib ko'rди, qo'lini suv keladimi deb tutdi – kelmadi.

Yo'q, sanoat mollari omborlarini saqlab bo'lmaydi: u yerda olov hammayoqni to'la-to'kis qamrab, o'rtagacha dahshatl suron ko'tarib o'rab kelyapti va hamon yo'lida davom etyapti. Tomning shiferi olovning zo'ridan qarsillab maydalanan, siniqlari atrofga uchar, bamisol qizigan tovaga solingan yong'oqqa o'xshar edi. Pastga olov palyon-palyon bo'lib otilardi. Olov yaqinida turish xatarli edi, katta kishilardan biri bolalarni nari haydar, bolalar uning silkigan qo'lidan qochishar, lekin yana xuddi o't ularni sehrlab qo'yganday, ko'zlarini katta-katta ochib, jinnilarcha olov sari tal-pinishar edi. Ivan Petrovich hovlida yugurib yurgan, narsa ko'tarib, narsa tashiyotgan odamlar ichidan Alyonani izladi – u hech yerda ko'rinmasdi. Olib chiqilgan narsalar tobora ko'payib, tog'day uyilib borardi. Xo'jalik omboriga ham yetib borishgan, chelak, turli idish-tovoqlar taraqlar, tunukalar gumburlardi. E, xudoyim, nima, shularni asrab qolish shartmi, shularni-ya... Yoki odamlar haqmin, choynak va tovasiz yashash qiyin, xolodilnik va televizorsiz esa mumkin.

Omborlar va do'kon o'rtasidagi devor qarsillab, lopillay boshlandi, uning beriroqdagi bir bo'lagi ichkari tomonga quladi, ko'cha tomon ochilib qoldi, u yerda suruvchi traktor orqaga tisarilib, devorga yana bir zarb berish uchun yurib kelardi. To'g'ri qilishibdi, deb qo'ydi ichida Ivan Petrovich, omborlarni saqlash qiyin, lekin do'konni saqlab qolsa bo'ladi, omborxonalardan do'kongacha ancha joy bor. Traktorning oldida bosh injener Kozelsov kuymalanib yurardi: devorni qulatish fikri undan chiqibdi-da, bo'lmasa o't devordan o'tib borishi mumkin edi.

Ha, sanoat mollari omborxonalarining sho'ri quridi, yapon kof-tochkalari va o'zimizning tovalarning sho'ri quridi – olib chiqilgan mollar bilan solishtirganda, o'sha jahannamda yana shunchasi qolar-midi?! Lekin oziq-ovqat omborxonalarini, o'ng tomondagisini hisobga olmaganda, hozir ham bemalol asrab qolish mumkin edi, mashina hamda ko'proq tartib-intizom bo'lsa, bas edi. Biroq butun lesprom-xozda yagona «o't o'chiruvchi»ni bundan ikki yil burunoq ehtiyoq qism sifatida tashib ketishgan, hisobda bor-u sonda yo'q edi...

Ivan Petrovich haliyam alang-jalang qilib, yana o't ichiga sho'ng'ishdan burun Alyonani qidirib topmoqchi bo'ldi, shunda bir dan Misha Xampo amaki uning yelkasidan tutdi.

– Xampo-o... Xampo-o! – deb ichidan ovozi bazo'r chiqqancha u sog'lom chap qo'li bilan hovli ichini ko'rsatardi. U yerda, hovlining chap chekkasida yong'in shafag'i biqini va yelkalarini yoritgan, bukilgan-turgan, xuddi benihoya bahaybat sharpaga o'xshaydigan bir odam engashib-turib, hadeb shishalarni granatadek devordan tashqariga uloqtirar edi. Ivan Petrovich shosha-pisha u tomonga yugurdi, lekin undan oldinroq qayerdandir o'ng tarafdan sakrab chiqqan Boris Timofeevich qichqirib o'sha odamga tashlandi, shu qadar siltab tortdiki, itqitib yuboray dedi. Yana tashlandi... Anov odam urmoqchi bo'ltib shisha ko'tardi. U ehtimol urardi ham, bunaqa paytda hamma narsa bo'lishi mumkin, lekin Ivan Petrovich yetib kelib, shishani ushlab qoldi. Bu uchiga chiqqan arxarovchilardan biri bo'lib, uni nima uchundir xotincha nom bilan Sonya deb chaqirishar, Ivan Petrovich u bilan bir yoqalashib ham ko'rgan edi. Sonya Ivan Petrovichning qo'lidan shishani yulqib oldi, uni bir chekkaga tashladi-da, bu toifa kimsalar ichida qabul qilingan chulchutcha lahjada ohanjama bilan po'pisa qildi:

– O‘h, yonishini ko‘r! O‘h, kuydiradi-i! Voy, biqinim!

U bepisand lapanglab, o‘t yonayotgan tomonga ketdi.

– Sen qayerda eding? – deb qichqirdi Ivan Petrovichga alamzada, nochor ohangda Boris Timofeevich. – Qayerda yuribsizlar o‘zi ham-malaringiz! Qayerga qarayapsizlar?!

– Hammomga borgan edim, – o‘ziga yarasha javob qildi Ivan Petrovich. – Sen ham borib kel, chayinib ol, bo‘lmasa, odamni yeb qo‘ysan!.. Jilla qursa, kimga tashlanayotganiningni bilsang bo‘lardi!..

Tog‘ uzra barkashday oy ko‘tarildi. O‘rmondan chiqib kelarkan, o‘ng tomonga og‘ib borardi, shunda xuddi ekrandagi kabi daraxtlar-ning baland, uchli qubbalari uning ichiga suzib kirib, sovuq bir alan-gada yona boshladi.

## 9

Endilikda, har qalay, hozirgi tarallabedod, yallo-yallo ha-yot qanday boshlanganini aniqlash mushkul. Lekin odamlar qan-day qilib bunchalar o‘zboshimcha va to‘g‘ri turmush tarzidan yuz o‘giradigan, unga o‘zlarini yot sezadigan bo‘lib qolishdi, axir, av-val bunaqa emasdi-ku, hatto yangi posyolkada ham bunday emasdi-ku. Bu hayotni mustahkam qilib turadigan odatlar va qonunlar ke-cha o‘ylab topilmagan edi-ku. Agar xotiradan ko‘tarilmagan bo‘lsa, urush davri va undan keyingi mashaqqatli yillarda shular bilan, shu qonunlar bilan, shu bus-butun yagona bir bag‘ir bilan omon-eson, sog‘-salomat chiqilmaganmidi, axir, o‘sha paytlar, hye yo‘q, be yo‘q, maydalashib o‘tirmay o‘nta boshoq uchun o‘n yilga hukm o‘qib yubormasmidilar? O‘shanda soliqlarni zo‘r-bazo‘r eplab olinmasmidi, «ishyoqmaslar»ning tomorqalari qirqilib, keyin shu qirqilgan yerkarni sho‘ra bosib yotmasmidi, to joning hiqildoqqa kelmaguncha sigiringga loyiq o‘t-o‘lan o‘rib olishga yo‘l qo‘ymay qiyashmasmidi? O‘shanda omon qolish uchun bir yoqadan bosh chiqarishga, epini qilishga to‘g‘ri kelmaganmidi? Axir, qishloqda ham odamlar bir xil emasdi, birovlar birovlarning ustidan chaqma-sa, talab qilingan xizmatni bajonidil o‘tamasa, qonunchilikka rioya qilmasa, hammayog‘i qichishib, turolmaydigan odamlar ham bor edi. Qichimay iloji yo‘q edi. Lekin o‘sha odam aniq bilardi: shun-dan so‘ng qishloqda kun ko‘rolmaydi, buning uchun yegorovka uni aslo kechirmaydi.

Mana endi Ivan Petrovich ham ko'chishi kerak – qanchalar hamma narsa o'zgarib ketdi! Hammasi ag'dar-to'ntar, kechagina barcha bir jon-bir tan bo'lib amal qiladigan urf-odat, yozilmagan umumiy qonunlar endiga kelib sarqitga, allaqanday yot bir narsaga va hatto sotqinlikka aylanib qolayozdi. Sosnovka uchun-ku hammasi baribir, agar Ivan Petrovich ko'chib ketsa va suv loyqatishni bas qilsa, bu yerda balki tinchroq, xotirjamroq kun kechirishar. Yoki aksincha, ha, albatta, aksincha: u esini yeb qo'ygan cholga o'xshab ish qilmaydi, ha, u suvning qanchalar toza bo'lishini bolalikdan beri biladi, lekin atrofda hamma narsa bulg'anib ketganini ko'rib turib, bu suv toza bo'lib qolishi kerak deb, qo'llarini paxsa qilib yurmaydi. Gap hamon suv ustida borayotgan ekan, u haqiqatan ham, tozaligida toza bo'lmay, uni toza-ku deb qarashni xohlaganlarida tozadir. Bunga ishonish uchun ko'zga qandaydir sehrli oynak taqib olinsa bas.

Yo'q, ko'chib o'tganlardan keyin ish darrov chappasiga ketmadi. Rost, yangi ishning ham ta'siri bo'ldi: o'rmon kesildi, tinmay, bearmon kesishdi, keyin – bu yerda biron narsa o'sadimi-yo'qmi – bu bilan hech kimning ishi-hushi bo'lindi. So'ng hozir o'rmon kesib ketilgan yerlarda nihol ekishni talab qilishadi, talablari ham, qiziq, talabga o'xshamaydi: halol umr kechirish uchun vaqt-bevaqt o'limni eslab turish kerak bo'lganday, ekish majburiyati bor-u, lekin rioya yo'q, buni o'ylab o'tirish majburiy emas, yashasang, bas, hayot esa o'rmon qulatishdan iborat, vassalom. Nihol ekish bo'yicha rejani bajarmasang – urishib qo'yishadi, o'rmon kesish rejasini bajarmay ko'rchi – teringni yetti marta shilib olishadi. Ana shundan boshlangan od़at yillar bo'yi o'zgarmay keladi. O'rmonni qayta tiklashdek o'ynichoq ish bilan o'rmon xo'jaligi shug'ullanishi kerak, uning esa o'n beshta raznaryadka<sup>1</sup> si va beshta ishchi qo'li bor. Shuning uchun bironta ham ishni oxiriga yetkazolmaydi, bunga kuchi yo'q.

Boshida Sosnovkada har bir qishloq alohida ko'cha bo'lib joylashdi, ilgari jamoat qanday yashagan bo'lsa, endi ham shunday yashamoqchi edilar. Butun kolxzoz bosh-qosh bo'lib, hashar qilib beva-bechora, qari-qartanglarning uy-tomorqalarini yig'ishtirib, tomarnovlarini tiklab qo'ydilar. O'sha tomorqalardan bir-birlarinikiga

<sup>1</sup> Raznaryadka – biror ishni bajarish, biror narsani berish yoki jo'natish uchun hujjat.

chopib o‘tib keladigan so‘qmoqlari bo‘lardi, vaqt-bevaqt ko‘chaga chiqib o‘tirmay shu so‘qmoqdan bordi-keldi qilishar, birpas gaplashib, choy ichishardi. Oqshom chog‘lari tevarak-atrofdan: «Darya-a! Marya-a! Samovar qaynadi! Natalya-a! Sen Krivolutskiyga bormaysanmi?» degan ovozlar kelib qolar, tog‘dan pastdagи ko‘chani shunday deb atashar, uni Krivolutskiy qishlog‘i ishg‘ol qilgandi.

Keyin bari ostin-ustun bo‘lib ketdi. O‘lim, to‘y, bordi-keldilar dan so‘ng bir qishloq boshqasi bilan tutashib ketadi, buning hech bir yomon tomoni yo‘q, turmush ekan, shunday bo‘lishi tabiiy, maramning buzilgani, izdan chiqqani shundaki, jo‘naganlar va olib ketilganlarning o‘rniga havoyi, na xo‘jalik qiladigan va na tomorqa tutadigan, faqat bitta – do‘konga boradigan yo‘lni biladigan, yeb-ichishdan boshqasi bilan ishi yo‘q, ishdan ishgacha bo‘lgan vaqtini amal-taqal qilib o‘tkazadigan odamlar joylasha boshladi. Avvaliga ishdan tashqari vaqtini, so‘ng ish vaqtini ham do‘kon va uning atrofida o‘tkazadigan va borgan sari buning mazasiga tushunib, tobora bunga o‘rganib, hirs-u xurujga beriladigan bo‘lishdi, so‘ng ularni to‘xtatib bo‘lmay qoldi. Ish albatta, buni yoqtirmaydi – turli ixtiloflar yuz beradi, keyin ilgari sira ko‘rilmagan boshqacha tariqatdagi jamoachalar dunyoga keladi. Albatta, erta-yu kech ichadiganlar topiladi, lekin muqaddas Rusda ular qayerda yo‘q deysiz, to‘dalashish, to‘dalarning esa o‘z atamani va kengashiga ega bo‘lishi, sharmhayosiz, hech narsadan tap tortmaydigan oshkora bir kuchga aylanishi, hukmronlik qilishi – bunaqasi, yo‘q, bo‘limgan edi. Bular shunday o‘zimizning zafarlarimiz. Yaqinda Yegorovkada o‘qituvchilik qilgan, maktab direktori Yuriy Andreyevich Soskovkaga birlashgan olti qishloqdan urushda qancha odam o‘lgan-u, qancha odam keyingi to‘rt yil ichida bu yerda ajalidan besh kun burun nobud bo‘lganini hisoblab chiqibdi. Ajali yetmay o‘lganlar deganimiz, bu – pichoqbozlik, mast-alast otishuvlar, suvgaga cho‘kkalar va sovuqda qotganlar, o‘rmon kesayotganda o‘z aybi bilanmi yo boshqalarning aybi bilanmi, bosilib-yanchilib jon bergenlar. Orada ko‘p farq yo‘q ekan. Ivan Petrovich bu gapni eshitib, oh urdi: ana sizga tinchlik zamoni! Axir, u mana shunday voqealarning hammasini bilardi, joni achishardi, tanish bir odam hayotdan ketganda doim nimadir o‘zgaradi va yorug‘ jahon xuddi xira tortganday bo‘ladi, garchi o‘lgan odam ming yomon bo‘lsin, u ketgach, sening ham qayeringdir huvillab qoladi. Ivan Pet-

rovich ro'y bergan har bir voqeadan xabardor edi, qattiq kuyinardi, lekin bu raqamlar yonma-yon qo'yilib solishtirilganda, unga had-dan tashqari yomon ta'sir qildi. Bir necha kungacha o'ziga kelolmay yurdi, buni tushunishga urinib ko'rdi, faqat hech narsani tushunib bo'lmasligini anglatdi, raqamlardagi bu qo'rqinchli o'xshashlikdan biror xulosa chiqaray dedi, lekin xulosasini ham tushunish g'oyat qi-yin edi. Yana bir gap: frontda halok bo'lgan askar insof va adolatga chaqirar, ularni qavm-qarindoshlar o'rtasida yashovchi o'z joni va xotirasi bilan birga qoldirar, ro'shnolik va sa'y-harakat uchun qoldirardi; biz o'zimizga o'zimiz hisob bermagan holda urushdan keyin yigirma yil halok bo'lganlarning mana shu merosi bilan kun ko'rdik, ularning birdan-bir vasiyatlarini ado etishga intildik, insonlik tabiatimizga ko'ra buni bajarmaslikning sira iloji yo'q edi. Ularning xotirasni, vasiyati muqaddas, oliv, bizdan ko'ra qudratli. Hayotini bekordanbekor, tentaklik va ko'r-ko'rona umidsizlik tufayli boy bergenlar esa o'zlaridan keyin ham ahmoqlik, pala-partishlik va umidsizlik qoldirib ketadilar. Ajal – qahri qattiq muallim, odam yaxshimi-yomonmi baribir, o'lgach savobiyam, gunohiyam besh barobar ko'payadi.

Birinchi yillar lespromxoz faqat shu bo'limdan iborat edi. Keyin ikkinchi, uchinchi, to'rtinchisini ochishdi, daryo yoqalab yuz cha-qirimdan ortiqroq masofaga cho'zilib ketgan xo'jalik paydo bo'ldi. Hozir bir yilda bir bo'limning o'zi yuz ming kubdan oshirib o'rmon kesadi. Rejalar haddan ziyod ko'tarilib ketdi, tobora qudratliroq, chapdastroq, chaqqonroq texnikani ishga solib yuborishdi, odamlarning kuchi bilan hech narsani eplab bo'lmay qoldi. Mavsumiy ishchilar, shabashchilar, pul ketidan chopganlar, vaqtini nimaga sarflashni bilmay, qayda bo'lsa ham kunim o'tsa bas, deydiganlar yopirilib kelishdi. Keyingi yillarda alohida bir odamlar toifasi paydo bo'ldi, ularni butunlay chiqitga chiqqan va butunlay yo'ldan ozgan, deb ay-tish qiyin; ular tinmay u joydan bu joyga ko'chib yurishadi, pulning ketidan ham quvishmaydi, qo'llariga pul tushsa, darhol shamolga so-vurishadi, lekin har qanday ishga befarq qarashadi, har qanday ishni mazhabchilarga o'xshab inkor etishadi va o'zlarini sargardonlikka mahkum qilishadi. Bunday odam o'zi ham yordam so'ramaydi, birovga ham yordam bermaydi, yashashni o'ziga g'oyatda oson qilib oladi. Na oila bor, na do'st-u yor, na mehr-oqibat, hayotni go'yo og'ir jarima va jazo deb biladi. Bunaqa odam haqida ilgari: boshiga qop

tushib po'la bo'lган, deyishardi, endilikda u o'zini topib, tanib oldi, yolg'izlikni bamisli qasam kabi qabul etdi. Ularning dillarida nima bor, bu dil kimga tegishli – qorong'i.

Ana shunday qilib, qishi bilan tog'dan tushirilgan og'ochni jo'natish, yana kuz oylari daraxt ag'darib, uni pastga tushirish kerak bo'lгanda, ular selday kelishadi, selday ketishadi, kelishadi ketishadi, to'xtab turishmaydi, gap qulayliklar yo'qligida ham emas, ular shunchaki nega to'xtash kerakligini anglamaydilar, zotan ular buni tushunishga qodir ham emas, mudom noayon, chidab bo'lmas bir vahima, bezovtalik ularni quvib yuradi. Ketayotganlarida – ko'zları achchiq va alamlı boqadi. Qayerga? Nimaga? Lekin jo'nab ketishadi, qolganlar esa ularning ajoyib-g'aroyib, entak-tentak qiliqlarini eslab yurishadi, bunaqa qiliqlarga ular juda usta bo'lib ketishgan, misol uchun, bir shovvoz tishida usti gazak to'la har qanday stolni ko'taradi, boshqasi aroqdan atala qilib, uni yuzini burishtirmay qoshiqlab ichadi, uchinchisi pochtada ishlaydigan qizchalarning yuraklariga vahima solib, shifrovkaga o'xshash telegrammalar berishni sevadi: «Uch kundan beri yomg'ir, nima qilaylik?» yoki «Noyabrdan keyin dekabr, adashtirma» yoki yana «Meni kutma, lekin qaytarman». Eski yegorovkadagilar o'zlarining uch yuz yillik ibtidoiy hayotlari davomida Sosnovkadagilar yigirma yil ichida ko'rishga ulgurgan ajoyib-g'aroyib ishlarning loaqal mingdan birini ham ko'rmagan, bilmagan.

Shu ketishda bularning oxiri ko'rindiganga o'xshamaydi. Darhaqiqat, bu eslash mumkin bo'lган narsalarning eng oddysi, eng durusti. Yana o'rmonchi Andrey Solodochning boshidan o'tganlarni ham eslash mumkim. Solodov o'ziga berilgan hokimiyatdan foydalanib, ikki yil burun lespromxoz daraxt kesib, beldan yuqori keladigan to'ngaklar qoldirgani uchun jarima solgan edi. Qalin qor tushgan kezlar tozalab o'tirmay, ishning osonini ko'zlab, daraxtlarni yerdan baland-baland qilib kesishgan, qoidani buzishgan edi. Andrey, umuman, gapga ko'nadigan kishi, ularni bu yo'ldan qaytarishga ancha urindi, do'q-po'pisa ham qildi, aloha toqati-toq bo'ldi: yaxshi gapni tushunmasangiz, ana sizga, dedi. Juma kuni kassir xotin oylikni olib kelgani borib, quruq qaytdi: bank jarima to'laysan deb lespromxoz pullarini bermay qo'ydi. Shanba kuni Andrey odatdagiday mo'rchanı isitdi. Yuvinib, uxlagni yotdi. Mo'rcha kechasi yonib ketdi. Xo'jayinning ehtiyojsizligi. Parishonxotirligi uchun shunday

bo‘lgandir ehtimol: mo‘rchaga olov yoqib, cho‘milgan, undan keyin to‘p otsa ham uyg‘onmaydigan bo‘lib tosh qotib uxlab qolgan. Dushanba kuni kassir yana pulga borgan va yana quruq sumkani ko‘tarib qaytgan. Chorshanbagacha kutinglar, ungacha pulni qayerdan olishni hal qilamiz, deyishgan. Chorshanbada jumaga qoldirishgan. Chorshanba kuni Andrey Solodovning‘ lesxoz bergen bitta oti yo‘qolgan. Bu atrofda shundan boshqa ishga yaroqli ot yo‘q edi, unda qishloqning yarmidan ko‘p tomorqalarini haydashar, o‘rmon xo‘jaligida ham toza asqotar edi, jonivor. Nahor chiqqach, ovloq jarlikdan uning irigan loshi topildi, yonginasida chiriy boshlagan arqoni yotardi.

Ivan Petrovich Andrey bilan gaplashdi, ikkovlari ham buni o‘z odamlarimiz qilgan degan fikrga keldilar. Hammasini faqat kelgindilardan ko‘rish kulgili edi. Yo‘q, bir joyda yashab, bir joyda ishlab, bordi-keldi qilib turgan o‘zimizning odamlar ham, eski gapdan qolmay qonun so‘qadigan, vijdon, diyonat haqida safsata sotadigan har bir kishiga chap ko‘z bilan qaraydigan bo‘lib qolishdi. Ivan Petrovich tilini tiyib yurishni bilmasdi, tilini tiyadigan bo‘lsa, o‘zini odam o‘rnida ko‘rmasdi, u majlislarda o‘rnidan shartta turib, o‘rmon kesilayotgan yerlarda, pastki omborlarda, garaj va do‘konlarda bo‘layotgan noma‘qulchiliklarni dangal aytardi. Shunda o‘zimizning odamlar Ivan Petrovichni yanib qo‘yishardi, unga o‘dag‘aylashardi. Ivan Petrovich hammaning ko‘z o‘ngida ro‘y berayotgan, hamma odatlanib borayotgan narsalar haqida gapirardi – o‘rmonda texnikani o‘rinsiz va rahmsiz suratda tilkalashayotgani va yoxud o‘z shaxsiy ehtiyoji yuzasidan uni bekordan-bekor dam sog‘, dam nosog‘ – mastalast holda o‘nlab chaqirim joyga haydab borishayotgani, kuppakunduzi yangi tilingan taxtalarni tashib ketishayotgani, lespromxoz yo‘llarida yuk hujjatlarida ko‘rsatilgan turli mol-ashyolar g‘oyib bo‘layotgani, ular o‘rnida savdo ishini yengillashtirib, faqat pul payida bo‘layotgani, texnika xavfsizligiga rioya qilmay, daryodagi mo‘rt muz ustiga traktorchilarni yog‘och tushirishga majbur qilishayotgani, yana... Ahvol shu darajaga borib yetdiki, Boris Timofeevich ishdan bo‘yin tovlayotgan brigadani insofga keltirish uchun oylik berilganining ertasiga hech kimga bildirmay, brezent sumkasiga ikki shisha aroq solib, o‘rmon kesuvchilarga olib borgan. Ular buni xuddi kasaba uyushma tomonidan tekinga beriladigan uch dumaloq choyday bemalol olaveradigan bo‘lib qolishgan.

Ivan Petrovich fig'oni chiqib o'yldi: dunyo birdan, bir zarb bilan ag'dar-to'ntar bo'lib ketmaydi, lekin mana, xuddi bizdagiday bo'ladi: mumkin emas edi, qabul qilinmagan edi, endi mumkin bo'lib qoldi, qabul qilindi, iloji yo'q edi – iloji topildi, sharmandalik deb hisoblanardi, endi bu nuqsonlar chaqqonlik va chapdastlik joyiga tusha boshladi. Bizni ne-ne zamonlardan beri omon asrab kelgan narsalarni qachongacha payhon qildirib qo'yamiz, axir? Qayerdan, qaysi zaxiralardan qachon madad va ko'mak yetib keladi bizga?

– Nima o'zi bu – ko'zmi yo peshonami? – deb bobillab qolar-di Boris Timofeevich, lekin uning tovushida na iddao, na javobtab-lab savol bo'lardi. – Nega sen hadeb shu narsalarga tirg'ilaverasan? Ko'ryapsan-ku, hayotimiz rejasiz emas...

Mana shunga kelganda, Ivan Petrovich portlab ketardi:

– Reja, deysanmi? Reja?! Bundan ko'ra rejasiz yashaganimiz ming marta yaxshiydi!.. Bizga butunlay boshqacha reja kerak – yog'och kubometrlarini emas, yuraklarini ham hisobga olsin! Qancha dillarni yo'qotdik, qanchasini boy berdik, jahannamga jo'natdik va endi bizga qanchasi qoldi, ana shular ham sanoqqa kirsin!.. Reja!.. Bir eslab ko'r, qanday edi... boringki, besh yil ilgari...

– Besh yil ilgari nima bo'pti? – Boris Timofeevich o'zini bilmaga-ganga olardi. – U paytda hozirgiday texnika – o'zi sidirg'a yiqarlar, jag'i yirik yog'och ortuvchilar yo'q edi. Birvarakay o'ttiz, qirq kub-lab yog'och ortadigan senikiga o'xshagan «KRAZ»lar qayoqdaydi?

– Yana yigirma besh! U vaqtlar sen reja to'lzin deb o'z yoning-dan toqqa aroq ko'tarib yurmasding. Sen ana shuni esla. Bizning rejani to'latish – unchalik qiyin ish emas, unga agronomlikning keragi yo'q.

– Qiyin emas, deysanmi? – kim-kim, ammo u reja ustida necha bor o'lib-tirilgan, butun umrini rejaga bag'ishlagan, reja deb, kechallari qo'rqib uyg'onib ketadigan, oyning oxirgi kunlaridan balo-qazoday qo'rqedigan, rejani birovning yetti uxbab tushiga kirmaydigan usulda qisqa vaqtda uni uddalashga aqli yetgan bir kishi: boshqalar bilmasa ham, bu ish qanchalik nozik va mushkulpisandligi, hiylagarlilik u yoqda tursin, undan ham ortiqroq narsalarni talab qilishi unga ayon. Bularning barini tushuntirib bo'lmasdi, shuning uchun u dili og'rib: – Boshingga tushsa bilasan, – derdi.

– Qo'y. Boshimga tushganlari ham yetarli.

Afonya Bronnikov esa, yegorovkalik kishi, o‘zi suruvchi traktorda ishlaydi, boshqacha fikrda edi.

– Nega hadeb qizishaverasan, Ivan Petrovich? – deya mardona, cho‘ng yuzida ta’naomuz tabassum bilan nasihat qilgan bo‘lardi u. – Kimga nimani isbotlab berasan? Endi gapimni eshit: men halol ishlayman, halol yashayman, o‘g‘irlilik qilmayman, mug‘ombirlikni bilmayman – yetadi shuning o‘zi. Kimning yuzida ko‘zi bo‘lsa, men qanday yashayapman, boshqalar qanday, ko‘rar. Kimning niyati qanday bo‘lsa, ishi ham shunday bo‘ladi. Qo‘limizdan kela-digani – to‘g‘ri yashash, tayoq bilan urib o‘z to‘damizga qo‘sib olishga harakat qilmasdan, hayotimiz bilan ibrat bo‘laylik. Tayoqning foydasi yo‘q.

– E, axir, ibrat ko‘rsatishga kechikdik, ha, kechikdik! Kech!

– Hech narsa kech emas.

Ammo Ivan Petrovich boshqacha odam edi: har qadamda bo‘layotgan ishlar ta’sirida uning ichida allaqanday bir prujina qisilgandan qisilib borar va shu qadar tarang bir holga kelar ediki, buyog‘iga ortiq toqat qilib bo‘lmassi. Shunda o‘ziga o‘zi bir emas bir necha marta endi jim yurishga ahd qilgan Ivan Petrovich, jim turish ham xatti-harakat va ta’sir etish usuli ekanligiga amin bo‘lgan Ivan Petrovich yana o‘rnidan dik turib ketar va ovozi bo‘g‘ilgan, ichiga tushgan holda qattiq kuyunib, jig‘ibiyroni chiqib, ayni choqda o‘zidan o‘zi achchiqlanib, gapira boshlar, ayni choqda gapi bekor ekanligini ham tushunib turar edi.

Sashka Devyatiyning atrofiga yig‘ilib olgan arxarovchilar hali bu yerlarga kelmasdan burun bo‘lgan voqeа: Ivan Petrovich ertalab garajga kelsa, uning «KRAZ»idagi tirkamaga ulanadigan tormoz shlanglari chopib tashlangan edi. Bu haqiqatchi bo‘lsang, mana senga kal, jazoing, deyilgani edi. Bir gal esa: «Sen, tepakal, ayiqqa o‘xshab ikkita so‘zni yodlab olgansan: yaxshi-yomon, yaxshi-yomon. Sal mundoq kallangni ishlatsang-chi», deyishgan edi.

Bundan chiqdiki, yaxshi ham yomon ekan. Shunaqa bo‘lib qolibdi endi, yaxshi bo‘lmasa ham – yaxshi ekan. Beixtiyor tiling galdirab, ikkitagina so‘zni aytolmay adashib ketasan.

Birinchi oziq-ovqat omboridagi o‘tning yo‘li butunlay to‘sildi. Ikkinci omborxonaga o‘tishdi. Yaxshiyamki, bu omborxona tomini o‘z vaqtida ko‘chirib tashlashgani, olov bu tomonga yo‘lay olmadi. O‘t o‘ng tomondagi eng chekka burchakning tepasida avj olib, shipga o‘zini urmoqda edi. Ivan Petrovich bu yerga boyaga kiranida, ichkari juda isib ketgan, hammayoq tutun, lekin har holda o‘t yetib kelmagani uchun chidasaga bo‘lar, imoratning hali to‘rt tomoni omon edi. Qiziq, bu yerda odam ancha gavjum edi, g‘ala-g‘ovur, xursandchilik, hammayoqni jarang-jurung ovozlar bosgan edi. Ivan Petrovich odamlar bir qator bo‘lib, tizilishganlarini daf’atan fahmlolmadi, qatorda bozori doim chaqqon aroqni yashiklab qo‘lma-qo‘l uzatishardi. Safga turganlar ichida shu yerlik odamlar ham, arxarovchilar ham bor edi. Ivan Petrovich birpas nima qilishini bilmay turdi, so‘ng qo‘lim bo‘sh chiqmasin deb, bir yashikni ko‘targancha tashqariga shoshildi, usiz ham bu narsaning bir qatrasini nobud qilmasliklariga ishonchi komil edi. Ochiq havoga chiqqanda, tepe tomondan unga olov seli urildi, qichqirgan tovushlar eshitildi, omborchi Valya o‘simlik yog‘ini olib chiqinglar deb, yalinib-yolvorar, yer tepinib talab qilardi. Valya o‘simlik yog‘ini kuzgacha berishmaydi, hamma tegishimizni oiganmiz, deb qichqirardi. Ivan Petrovich uning dod-voyini eshitib yana orqasiga qaytdi, shunda aqli shoshib, hozir qishmi yoki yoz ekanligini sira eslolmadi.

Tashqarida bir zumgina turdi, shu bir zum ichida esa o‘ng tomondagi burchakdan olov yopirilib chiqdi.

Alanga vishillab, qarsillab ichkariga o‘zini urar, qatorda turgan odamlarning g‘ala-g‘ovurlari tobora quvonch sadolari bilan to‘lib-toshib borar, shishalar shodumon jaranglar, lekin qorishim ovozlar ichra bir ovoz dam-badam takrorlanar, allanima ohanjama bilan qarsillar va quruq bilqillar edi. Qarsillash va bilqillash orasida yana chasir-chusir qilib ham qo‘yardi. Ivan Petrovich mana shu ovozlar kelayotgan, qizib ketgan devor tomon shitob qadam tashladi, xorijdan keltirilgan vinolar solingan yashiklar oldiga yetganda, ovoz qayerdan chiqayotganligini fahmladi: shishalarning tiqinlari otilmoqda edi. Lekin u chir-sillagan tovushlar qayerdan chiqayotganligini axtarib o‘tirmadi, ular atir solingan shishachalardan yoki shunga o‘xshash biror narsalardan

chiqayotgandir, deb o'yladi. So'nggi paytlarda troynoy odekolon oziq-ovqat mollari qatoriga o'tadigan bo'lib qoldi. Mujiklarga venger yoki bolgar vinosining asl ta'mi haddan tashqari nordon va chuchmal tuyu-lib, unga troynoy odekolon qo'shib ichishga o'rganishgan.

Ivan Petrovich o'simlik yog'ini shishalar orasidan qidirib yurib-di, u temir bochkalarda saqlanarkan. U biqinlari qappayib chiqib, ne-ne taraqa-turuqlarni ko'rgan juda katta bochkani qiynalib, qo'llari kuya-kuya ag'dardi-yu, lekin bir o'zi dumalatolmadi, zo'r berib, ozgina chayqatoldi, xolos. U shoshib qator oldiga bordi-da, duch kel-gan bir odamni bu yoqqa qarab sudradi. Sudragan odami u bilan boya tomni birga ko'chirishgan, «Ural» mototsikli topilgani haqidagi xabarni keltirgan yigit ekan. Yigitdan qaynoq aroq hidi gupillab urib turardi; u hech nimani tushunmay, lekin bo'yin ham tovlamay hakka-lagancha Ivan Petrovichga ergashdi. Ikkovlari itarib-itarib bochkani dumalatib olib chiqishdi.

— Yana bittasi qoldi! Ivan Petrovich, yana bittasi bor u yerda! — deb qichqirdi omborchi Valya va qo'li bilan ko'rsatdi. — Huv anavi yerda, huv anavi yerda!

Ivan Petrovich Valyani ushlab, eshikdan tashqariga itarib yu-bordi, hozir mol deb uning ko'ziga joniym ko'rinnmayotgani ayon. Ichkarida ro'y berayotgan narsalarni uning ko'rmagani ma'qul. Ivan Petrovich bochkani olib chiqishgan sheringini birpasda yo'qotib qo'ydi, u, albatta, hayallamay yana qatorga qo'shilib olgandi. Ivan Petrovich uni qidirib yurib qatorda yashiklargina emas, alanga shu'lalarida xuddi elektr fonardek yiltirayotgan, og'zi ochilgan shishalar ham qo'lma-qo'l o'tayotganligini ko'rди.

— Ha, ol! Ha, ol! — deb boshlardi qatordagilarning biri yashikni yonidagi qo'shniisiga qarab itqitarkan, shunda butun qator jo'r bo'lardi: — Ha, ol! Ha, ol!

— Ha, ol! Ha, ol! — boshni tashlagancha shishalarni ko'tari-shardi. — Ha, ol! Ha, ol!

Lekin olov ham o'z yo'li bilan zabitga olmoqda edi: u ichkari-ga yopirilib kirib, orqa devorning yarmini egalladi, shipga o'tib, uni tillari bilan bir maromda yalay boshladi. Nafas olish borgan sari qi-yinlashardi, buni nafas deb, havo deb bo'lmas, dimoqqa allaqanday jizg'anak bo'shliq apil-tapil tortilardi, xolos. Kimdir, ayolmi, erkak-mi, anglab bo'lmazı, varvarak va uryon ovoz bilan:

– Petka! Petka! Shu yerdamisan? Qayerdasan? – deya tashvishli chaqirardi.

– Petkangni gazak qilib yubordik! – deb javob berishdi qatordan, bu ovoz ham go‘yo kuygan, xirillagan, girillagan, tilingan edi va olov ichidan otilib chiqardi.

Yana Ivan Petrovich avvalgisidan ko‘ra tekisrok bochkani yerga qulatdi, silliqroq yumalasa kerak, deb bir o‘zi urina boshladi. Kimdir unga yordamlashdi. Tashqariga olib chiqishganda, omborchi Valya bochkani ko‘rib uvvos solib yig‘lashga tushdi: bochkaning tiqini qaydadir tushib qolgan edi. Ivan Petrovich boshi g‘uvillagancha dam ombordan buralib chiqqan yog‘ iziga, dam shu ikki-uch litr to‘kilgan yog‘dan boshqa narsasini yo‘qotmaganday bo‘lib o‘kirayotgan, fig‘oni ko‘kka tutashayotgan Valyaga qarardi.

Ivan Petrovichni yon tomondan kelib Afonya Bronnikov sudrab ketdi. U Ivan Petrovichni olov qo‘ynidan hovlining so‘l yog‘iga shitob bilan ergashtirib borarkan, yo‘l-yo‘lakay tushuntirdi:

– Kechikmay, unni tashib olish kerak, Ivan Petrovich. Bularning bari... – u yonayotgan tomonga qarab hafsalasi pir bo‘lib qo‘l siltadi.

– Unsiz qolsa, unda... Unsiz iloj yo‘q.

Xotinlar va bola-chaqa uchinchi omborxonadan quyultirilgan sut bankalari, juda ham mayda allaqanday bankachalar bilan to‘ldirilgan qutilar, metall lenta bilan yaxshilab tortib mahkamlangan sarishta karton qutilarni olib chiqishardi. Un uchinchi omborxona orqasida, devor chekkasidagi pastakkina uyda saqlanardi. Darvozadek kattakatta eshiklar lang ochiq edi.

Ivan Petrovich va Afonyaning soyalari tobora uzoqlasha-uzoqlasha, badravish qiyshaya-qing‘aya devorlardan oshib o‘tdilar-da, qishloq uzra balandlab ketdilar.

– Uyimizga o‘t tushdi-i! – yuqori ko‘chaning allaqayerlaridan ovoz chiqdi.

Ivan Petrovich yuragi taka-puka bo‘lib, ovoz kelgan tomonga qaray boshladi.

– Uyqudan turdi! – zaharxanda qildi Afonya. – Kulimiz ko‘kka sovurilay deyapti-yu, bu endi uyqudan ko‘zini ochyapti. Qani, og‘ayni, tezroq bizga qo‘snila qol, vaqt borida. Ertaga tamom, ertaga kayfing tarqamaydi.

Bevoshlik tevarak-atrofda bo'lsa bir boshqa-yu, o'z ichingda bo'lsa bir boshqa. Atrof-tumonotda bevoshlik hukm sursa, bunga is>tagancha aybdorlarni axtarib topsa bo'ladi, goho esa butunlay chet kuchlar ishga tushib ketib, nima desak ekan, rol o'ynashi mumkin. Qisqasi, o'sha tartib-intizom yoki bevoshlikning egalari ko'p, ularning kelishib olishlari qiyin, ular dunyo nizomini turlicha tushundilar, biri uchun aqlga tamomila to'g'ri keladigan narsa boshqasiga boshboshdoqlik bo'lib ko'rindi.

Gap faqat sening o'zinggagina taalluqli narsalar haqida ketadi-gan bo'lsa, albatta, sen o'zingga-o'zing hokimsan. Senga tegishli xo'jalikda sendan o'zga javobgar yo'q. Mabodo, senga bu narsa juda ko'p tashqi sabablar va hodisalarga bog'liq bo'lib tuyulsa-da, ushbu sabab-u hodisalar sening sirli hamda daxlsiz sarhadlaringga qo'shilib ketishdan oldin sening oliy hukmingga duch kelmay iloji yo'q.

O'z ichingda adashib yurishdan ham osonrog'i bormikan. Sez-gir odam buni biladi. U o'ziga hammadan burun ma'lum vazifalarni bajaradigan a'zolarni ko'rvuchchi vrach kabi qaramaydi, balki tabiat tomonidan mo'jiza kabi ato etilgan katta va tushunuksiz mushkulot-ning qodir va irodasiz hokimi mutlaqi kabi qaraydi, bu esa qandaydir boshqacha, alohida hukm yuritmoqlikni talab qiladi.

Nazaringda, vijdoning qayerda, iroda qayerda, istaklar qayerda tug'iladi-yu mavhumlik hamda taqiqlar qayerdan paydo bo'ladi – bularning hammasini biladigandeksan. Ularning joylashgan yerla-rini bilmaysan, lekin ular labbay deb javob bermog'i uchun qaysi yo'llardan xabarlar jo'natish lozimligini yaxshi tasavvur qilasan. Vijd-on o'z-o'zidan tilga kirmaydi. Chaqirig'ing bilan tilga kiradi; ehtimol, u mustaqil suratda so'rashga ham qodirdir, albatta, qodir, lekin u bunga ulgurmaydi: nazaringda unga undan ilgariroq murojaat qil-gandeksan. Nazdingda, senga ishonib topshirilgan sarhadlarda xuddi shunday bo'lishi kerakday: sen talab qilgandagina paydo bo'lmay, norozilik ohanglari chiqishga tayyor turganda va yoki rozilik alomat-lari susayganda, bularning oldini olib aralashmog'ing, sen birinchi bo'lib chiqmog'ing va oldinroq tilga kirmog'ing lozimday.

Sen va ular. Sen – hukmdorsan, o'z jismingga xuddi saltanat kabi uning barcha shahar-u uvalari, barcha nizom-u aloqalari, uning

barcha gunoh-u sha'n-shavkatlarini olib yurasan. Ular senga man-sub dunyoning sirli hayotini tashkil etadi. Bular ham yaxlit, bir butun, ham bo'lak-bo'lak. Tinchlik va omonlik hukm surganda, hayotda doim yuz berib turadigan anglashilmovchiliklar, aql tarozusida o'lchanganda – bir butun va ajralmasdir. Xuddi shunday, anglashilmovchilik – ong bilan anglanguncha. Aksincha, o'rtaga tafriqa tushsa, senga tegishli mulklar hukmingga bo'ysunmay qo'ysa, unda ana shu, ya'ni, bo'lak-bo'lakdir. Faqat shunda ularning sendan kuchliroq ekanligini his qilasan. Chunki ular sening xatti-harakatlaring va o'y-fikrlaringni tashkil etadi, sening harakatlaringga yo'nalish beradi va sening ovozingdan tovushlar yaratadi. Chunki nima qilganda ham, sen bir kunmas bir kun o'lasan, ular esa o'lim bilmaydi, ular senga noayon allaqanday qudrat hukmi bilan senda edi, sen esa bu qudratni qancha urinmagin yaxlit bir timsolga birlashtirolmading. Sen emas, shu qudrat ularning mutlaq hokimi edi, sen esa ularga muvaqqat go'sha, ularning borlig'inining, jamuljaming zaif qobig'i eding, ular shu yerdan turib dunyo bilan rizolik va bog'lanish topishni istagan edi. Sen ularning umidlarini oqlolmading, senga amr etilganlarini yekazib berolmading. Ya'nikim, demak, sen o'z-o'zing bo'lolgolding. Kim bo'lsang bo'lgandirsan, shuning uchun seni qaytarib berar ekanlar, sen bilan emas, sening noming bilan vidolashajaklar.

Bevoshlik – tevarak-atrofingda bo'lsa boshqa-yu, bevoshlik o'z ichingda bo'lsa – butunlay boshqa ekan. Ivan Petrovich o'zini dahshatli bir suratda xarob bo'lganday his qilardi. Go'yo yotlar qo'shini uning ustidan bostirib o'tganday, hamma narsani yanchib, bulg'ab, faqat achchiq dud, kechagina barqaror hayot kabi ko'ringan narsaning shaklsiz o'tkir parchalari-yu erib oqqan sinqlarini qoldirganday edi. U oldinlari ham o'zidan o'zi rozi bo'lib yashardi, deb bo'lmasdi, har qanday odam va hatto hayotidan haddan tashqari mamnun odamda ham doim nimadir izdan chiqib turadi, g'ingshibmi, talab qilibmi, jondan to'ydiradi. Izdan chiqib turish uning turmushida ham bo'lgan. Bu, nima desak ekan, yo'l-yo'lakay ta'mirni talab qiladi. Ivan Petrovich bu kasalning nimadan tuzalishini biladi – yo ish va yo yaxshilik. U sirqirab og'riyotgan yarasiga malham bo'lsin deb, yaxshilik qilmasdi, uning yaxshiligi o'z-o'zidan bo'lardi va og'riq azobi astasekin pasayardi. Og'riq vaqt-bevaqt go'yo his qilish va dard chekish

qobiliyatim yo‘qolib qolmayotganmikin deb, sinamoqchi bo‘lganday dam u yerida, dam bu yerida qo‘zg‘ab qolardi.

Mana endi nima bo‘ldi? Qanday qilib, uning shu qadar ehtiyyotkorlik bilan tarbiyalangan yuragi birdan g‘alayonga keldi va uning o‘ziga qarshi qahr bilan bosh ko‘tardi? U nimaga qo‘l urmasin – hech ko‘ngildagiday chiqmaydi, qayerga bormasin, nimaga urinmasin, allaqanday bir kuch uni to‘xtatadi va o‘ch-alam to‘la shu so‘zlarni qu-log‘iga shivirlaydi: o‘ylab topganing kelib-kelib shu bo‘ldimi? Ha-qiqatan ham, u shundan boshqasini o‘ylab topolmasdi va uning qo‘li hech ishga bormas, butun vujudini huvillagan bo‘shliq chirmab olgan edi.

O‘z-o‘zi bilan bunchalar chiqisholmaslik nimadan boshlanganligini u eslolmaydi. Axir, nimadandir albatta boshlanishi kerak edi-da, bir safar yuragi undan rozi bo‘lmadi, hatto qattiq qarshi chiqdi va uni tushunishni istamadi. Uning qanday yashayotgani yuragiga yoqmadi. Ammo hamma gap shundaki, u doim vijdonan yashashga harakat qildi. O‘zining xatti-harakatlarini adolat va umumning manfaati, foydasiga chog‘ladi. Axir dil va diyonat bir-biriga tug‘ishgan emasmi, axir diyonat dilga oziq bermaydimi va nahot ular o‘rtasida nizo, adovat bo‘lsa? Haqiqatni aytish kerak bo‘lganda, u aytdi: ish qilish kerak bo‘lganda, ishladi. Ha, u faqat haqiqatdan va ishdan og‘ishmasligini bildi. Ularning insonga hadya qilingan chegaralarda qolishi axir muhim narsa emasmi? Haqiqat – bu daryo, uning tagiga tosh to‘shalgan, sohillari aniq chizilgan qumloq va toshloq, uning suvi toza, oqar suv; uning qirg‘oqlarini suv yuvib ketmagan, balchiq va toyg‘anoq emas, unda chirigan, sassiq suyuqlik oqmaydi. Haqiqat tabiatning o‘zidan kelib chiqadi, uni ko‘pchilikning fikri, farmoni bilan to‘g‘rilab bo‘lmaydi. Xo‘s, shunday ekan, nega u, ortga qaytmas haqiqat bilan yashayotgan odam, nega uni xohlamaydigan yoki chala-yarim qabul qiladiganlar bilan jangga kiribgina qolmasdan, nega o‘z-o‘zi bilan ham sira chiqisholmayapti? Haqiqatni chala-yarim qilib yoki undan butunlay voz kechib (chala-yarimdan ko‘ra butunlay voz kechgan ma’qul) yashash yaramaydi, deb nega uning ishonchi komil-u, nohaqligi aniq bo‘lganlarga qarshi narigi boshda kim to‘g‘ri turganligiga nega ishonchi komil emas? Ular haq emaslar va shu bilan birga haqiqatni qonun kabi tutgan va ularga qarab sizlar haq emassizlar, deb aytayotgan uning o‘zi ham haq emas. Gap nimada?

Yoxud, vijdon va haqiqat bir-birlariga bog'lanib, bir-birlarini to'ldirib, ayni zamonda, balki, ular ham o'zlariga mustaqil emasdilar va boshqa muhimroq narsa qoshida tiz cho'karlar? Nimaning oldida? Dil qoshidami? Nima, bitim bo'lzin deb, o'tanib turgan dil u tomon-ga ham bo'lsa, mabodo – diyonat va adolatni bu tushunchalar sira ham mehmon bo'limgan joydan axtarayotgan bo'lsa, unda demak, haqiqat ham haqiqat emas va vijdon ham vijdon emas, faqat izlayot-gan va azob chekayotgan dilning o'zidir. Uning marhamati tufayli vijdon va haqiqat qing'ayib qolgan bo'lsa, uning o'zi endi nima qil-sin? Qayerdan madad olsin? Xo'p, mayli, dil yalang'och to'g'rilikni yoqtirmaydi, u axir, shunday qurilgan, u o'pirilgan yerlardan mar-varid donalarini qidirishni yaxshi ko'radi ham deylik, lekin axir, u o'sha yerkarni kovlash bilan ovora bo'lganda, o'z tomonida hech vaqo qolmaydi-ku. Xo'sh, o'z tomoni nima-yu o'zga tomon nima, kim ular o'rtasidan chegara o'tkazgan va nima sababdan odam doim shu chegaradan o'tgisi kelib turadi, bunda umumiy qismat nishonasi yo'qmikin? O'z tomoningdan o'zga tomonga o'tib ketish istagi ne?

Mana shunday, bosh-keti ko'rinxmaydigan, javob topilmaydigan, topilsa ham, xuddi qiya devorga borib urilganday sirg'anib ketadigan «qanday», «nima uchunlar» bilan to'qnashib, ular ortidan boshi berk, nayzadevorli, jonsiz-kimsasiz ko'chalarga kirib, Ivan Petrovich ortga chekinardi: hech narsani tushunib bo'lmasdi.

## 12

Oxirgi un omborida un va yormadan tashqari: qand ham saqlanardi. Un va yormalar ichida bekniki bejog'lik deganlariday qanding o'rni alohida edi. Un-u yormalar to'ldirilgan qoplar yerga to'g'ri kelgancha uyub tashlangan, ularni chang bosib yotar, qandga esa chap tomondan qat yasalib, tagiga brezent to'shalgandi. Ular-ning qoplari ham toza, choklari yaxshilab tikilgan, batartib taxlab qo'yilgan edi. Go'yo o'zimizning xizmatchilar emas, xorijdan cha-qirib kelingan kishilar taxlab tartibga solganga o'xshardi.

Oldindan og'ir ishga tutinib o'rgangan odam emasmi, Ivan Petrovich qand qoplariga qarab yurdi. Afonya Pronnikov uni to'xtatdi:

– Oldin, Ivan Petrovich, unni tashiylik. Bularning bari... – u boy a ombordagiday yana qo'lini siltadi.

Bu yer hali unchalik qizdirmasdi. Lekin shoshplmasa bo‘lmas, o‘tning kelishiga bir uyning yarmicha masofa qolgandi. To‘da de-sang to‘damas, taxlangan desang taxlangan emas, un solingen qop-lar odamning gavdasiga bir yarim baravar balandlikda tepe bo‘lib uyulib yotardi. Ikki kishilashib tashilsa, kelasi yong‘ingacha ham tugatib bo‘lmasdi. Ivan Petrovich ishdan tap tortib o‘tirmadi. Hozir cho‘t chandalab turadigan payt emas. Borib bir chekkada yotgan qop-ni nega bu yerda yotibdi, deb o‘ylanmasdan shartta yelkasiga oldi va shu zahoti bosh-oyoq unga ko‘mildi. Qop tirillab chokidan so‘kildi va ochiq joyidan un to‘kilib, og‘zi-burni-yu yelkalariga tiqildi. Afonya o‘zini tutolmay xaxoladi:

– Mana endi, Ivan Petrovich, o‘zingni Angaraga tashlasang, ke-yin seni olovga tutilsa, tap-tayyor pirog bo‘lasan.

Ivan Petrovich tupurgancha o‘zini qoqib, tozalarkan, g‘ashi kelganini yashirmadi. Lekin aytgan gapida, har qalay, jon bor edi:

– Bekorga xaxolayverguncha, bularni tashib ado qilishni o‘ylasang-chi. Kuchimiz yetmaydi. Qani, boshqa odamlar?!

– Boshliq yig‘moqchi edi...

– E, esida turibdimi boshliqning! Bosh qashigani qo‘li tegmayapti-yu, quloqqa gap kirarmidi?!

Afonya kim duch kelsa shuning yoqasidan tutib, bu yerga itqita-digan bir qiyofada jo‘nadi.

Ivan Petrovich yelkasida qop eshik oldida to‘xtadi. Qayerga qo‘yadi? Darvoza uzoq, u yoqqa olib borishdan hech qanday naf yo‘q. Nariroqda devor bor, u loyda, qorda hammayoqda sochilib yotgan narsalarni yot ko‘zlardan asrab turibdi. Lekin baribir devori qulatish kerak. Birdan Ivan Petrovichning esiga yarq etib bolta tushdi: bolta qani? Uydan olib chiqqan va boyta tom ko‘chirgan bolta qayda qoldi? Uni qayerga tashlab keldi? Ivan Petrovich o‘zini sal bo‘lmasa o‘t ichiga urayozdi, lekin u yog‘ idishni dumalatib chiq-qan oxirgi omborda bolta ishlatmaganini esladi, uni avvalroq biron yerda qoldirgan. Bolta yonib ketgan. Hozir devor qulatishga toza asqotadigan bolta yonib ketgan. Uydan buyum olib chiqib, bekor nobud qildi.

U yana Alyonani esladi, yuragini xavotir sirqiratib o‘tdi: bir ish-kal orttirmasinda ishqilib bu kallavaram. Negadir unga hozir xotini bilan o‘zi orasida juda uzoq masofa yotganday tuyuldi. Shundoq

yonida-yu, lekin yiroq. Aftidan, bu masofani o'lchaydigan qadamlar bilan u hali yurib ko'rmagan, unga bular notanish.

Ivan Petrovich bir chora o'ylab topishdan burun uni Afonya torrib olib chiqqan omborxonaga yana nazar soldi: u yerda endi eshikdan otolib kirib, otolib chiqishmasdi, u yerdan hozir alanga eshilib-buralib lovullagancha tashqariga o'zini urar, shu olov qo'ynidan oxirgi shisha idishlarni hovliga irg'itmoqda edilar. Voy, bularning botirligiyey, voy, bularning o'tdan-cho'g'dan qo'rmasligey, chidaganlarini qarang! Aql bovar qilmaydi! Eshik oldida esa quyon terisidan oq qalpoq kiygan birovi turib olib, ichkaridan chiqayotgan shisha idishlarni shunchalar chaqqonlik bilan chopqillab-sakrab tutib oladiki, bunaqasi hatto sirkchining qo'lidan kelishi amri mahol edi. U uchib chiqqan narsalarni tutib olardi-yu darhol orqasiga qaramay itqitardi. Sanoat mollari omborlarining qoq o'rtasidan osmonga balandlab alanga ko'tarildi va butun hovlini ko'zni qamashtiradigan darajada yoritib yubordi. Oq qalpoqli yigitning chapdastligidan hayratlanib hamma qotib qolgandi. Boris Timofeevich ham angrayib undan ko'zini uzmasdi. Ko'tarilgan alanga pastga tushdi, boshliq ham o'rnidan qo'zg'aldi, boshqalar ham yana yugurgilab qolishdi.

Alanga hovlidagi hamma narsalarni birdan yoritib yuborgan qisqa bir damda Ivan Petrovich devor yaqinidagi chiroq ustuniga tirab qo'yilgan to'qmoqni ko'rib qoldi; boyta Afonya tepada uni ishlatgan, hozir atay qilganday naq qo'l ostida turardi. Ivan Petrovich yugurib borib uni qo'lga oldi-da zarb bilan devornnng ustki va pastki qismiga ura boshladi. Devorning tagi bo'shab yorilib ketdi, quladi, ota-buvalari ham Angara mujiklaridan bo'lgan, bir qo'li yo'q Saveliyning tomorqasi va mo'rchasiga tutash yo'l ko'zga chalindi. Ivan Petrovich devorni tutib turgan oxirgi tutqichlarni urib tushirganda, yordamchilar ham yetib keldi. Bu kecha hech narsaga ajablanib bo'lmasdi, lekin Ivan Petrovich baribir o'zining hayron qolganini yashirolmadi. Kim deb o'ylaysiz, yordamga kelgan odam arxarovchilardan Sashka Devyatiy edi. Ular ikkovlashib devorning qulatilgan qismini ko'tarib, pastga, yo'lga surib tushirdilar. Atay qilsang ham bunday bo'lmaydi: un to'la qoplarni endi yerga tashlamay ana shuning ustiga tashib kel-tirsra bo'laveradi.

– Kel, yana bittasini olaylik, Ivan Petrovich, – ko'zlar yonib, sho'x amr etdi Sashka. Buni qarang, uning ismi sharifini ham bi-

lar ekan-a, boshqa vaqtida «grajdanim qonunchi» sira tilidan tushmaydi.

Ular devorning ikkinchi bo‘lagini ham ayirib, birinchi bo‘lakning yoniga joylashtirdilar. Boshlarini endi ishdan ko‘targan edilar hamki, qayilishdagi birinchi sanoat mollari ombori bir dunyo alanga-uchqun sachratib yerga cho‘kdi, og‘ir «uh»lagan, g‘iyqillagan ovozlar eshitildi. U yoqdan ovozlarni va yorug‘likni bosib, hamon charsillab olov uchqunlari porillab otilardi. Sashka o‘sha yoqqa yugurib ketdi. Ivan Petrovich Afonya boshlab kelayotgan odamlar yana orqalariga qarab chopib ketganlarini ko‘rdi. Shunda uning yuragi hovliqib, hapriqib ketdi: Alyonani qidirib topmasa bo‘lmaydi.

Alyona narsalar uyulib yotgan yerdan besh qadamcha berida ser-rayib turar, u hozirgina uyum ustiga nimanidir daranglatib tashlagan, shu daranglagan ovozning o‘zi ham uning qo‘li bo‘sh kelmaganligini ko‘rsatardi. Qulab tushgan ombordan atrof-tevarakka yoyilayotgan, tovonga dovr yopirilib yondirayotgan olov seli tufayli u qotib qolgandi, qayerdan chopib keldi, nima olib keldi, nimani yo‘qotdi, endi qayerga boradi – eslamas, bilmas edi. Atrofda hamma bir tomonga qaragan, hamma narsa qisirlar va alanga sochar, qichqirar va qo‘llarini silkir, lekin tovushlar ham allaqanday quruqshagan, qo‘llarning harakati ham egilgan, bukilgan, xuddi o‘rgatilgan o‘yinga tushilayotganday edi. Odamlar qator turib, qog‘ozxalta va tugunlarni qo‘lma-qo‘l uzatishar, hovli bo‘ylab dam to‘qnashib, dam bir-birlaridan uzoqlashib yugurgilashar, hayotlarini xavf ostiga qo‘yishib, olov bilan hazil-mazax qilishar, goh jam bo‘lib, goh yakka-yakka chuvvos solishar – ularning mana shu xatti-harakatlarida allaqanday soxtakorlik, allaqanday tentaknamolik, hirs junbushga kirganda, qon qizigandagina yuzaga chiqadigan allanimalar zuhur qilardi. Faqt olovgina chin edi, u yo‘lida nima duch kelsa, shuni qo‘ymay, changalidan chiqarmay yamlab bormoqda edi.

Olovning charsillab otlishi aloha to‘xtadi, qulagan ombor endi shu holicha yona boshladi. Omborning karrakday ayrilib ketgan burchak-burchaklaridan olov buralib, cho‘zilib, mash’ala bo‘lib chiqardi. Qo‘shni sanoat mollari omborxonasi baland, tojdar olov alangasi ostida xuddi o‘zini o‘tdan olib qochmoqchiday chayqalar va g‘ichirlar, lekin orqa tomondan devor vositasida narigi imoratga ulanib ketganidan go‘yo sira ham o‘zini olib qocholmasdi. Shunda

o'rinlimi, o'rinsizmi, Alyonaning esiga bir narsa tushdi. Hikoya qiliishlaricha, Ust-Ilim yaqinida, Angaraning quyi oqimida, suv tagida qolib ketgan o'rmonzor orollar yuzaga qalqib chiqib suzib yurgan, keyin ularni samolyotdan bombardimon qilishgan ekan. Beriroqdag'i oziq-ovqat omborida allaqanday lazzatli mahsulot yonmay, xuddi elektr tokiday allanechuk porlab turardi. Bironta ham omborni saqlab bo'lmasligi endi oydinlashgan edi.

Ivan Petrovich Alyonani ana shu holatda uchratdi. Atrofda hamma yugurib, baqirib-chaqirib yurarkan, xotinining qimir etmay serra'yib turgani uni qo'rqtib yubordi. Asta uning ro'parasidan chiqdi.

— Voy, Ivan, anavini qara! — deb tipirchilab qoldi xotini nima deyishini bilmasdan. Qaraydigan narsalar esa ko'p edi, — Anovini ko'r! — u o'ng tomonda olisroqda ustki kiyimini yechib tashlab, pirlodqday aylanib tanasiga shosha-pisha nimanidir o'rayotgan, yong'in shu'lasi tushib turgan sharpani ko'rsatdi. Bu arxarovchilardan allakim edi. Ivan Petrovich ularni g'imirlagan va yulqingan xatti-harakatlaridan darhol ajratib olardi.

— Nima bo'lyapti o'zi, a, Ivan?! Nima bo'lyapti?! Hamma tashib ketyapti. Klavka Strigunova cho'ntagini to'ldirib qutichalar oldi. Ularning ichiga dazmol solinmagandir axir, biron nima bo'lsa kerak, a!.. Ichlariga solishyapti, qo'yni-qo'njilariga tiqishyapti!... Shishalarchi, anavi shishalar!..

— Biron narsaga qo'l tekkiza ko'rma, — u ichida yig'ilib qolgan shu achchiq so'zlarni aytmaslikdan o'zini to'xtatib turolmadi.

Ha, bu yerda o'nta Misha Xampo bo'lsa ham, hech narsa qilolmaydi. Xampo kattaroq, ko'zga ko'rinarliroq biron narsani olib chiqib ketishmasin deb, qorovullik qilyapti, bularni esa...

— Og'zingga qarab gapir, Ivan! Senga nima bo'ldi?! — erining ha-zillashib aytganini ko'rib, xafa bo'lmasdan jirilladi Alyona. — Menga nima keragi bor? Sen bilan shuncha yashadik, biron marta tashib kel-dimmi? Ko'p tashidimmi?

Ming la'nat, menga desa tiqilib o'lmaydilarmi. U borib, boyagi arxarovchiga tanbeh berib o'tirmadi.

Ivan Petrovich o‘g‘li oldidan qaytgach, yana Sosnovka hayotining dilgir bo‘yinturug‘ini bo‘yniga ilarkan, shularni o‘ylab ovundi. Lekin endi u hayot hamma yerda·birday emasligini, kerak bo‘lsa, yordam so‘rab kimga murojaat qilishini bilardi. Shular bilan ovunib ishlar, musobaqa ilg‘orining bo‘yinturug‘ini tortar, vaholanki, mu-sobaqa deganning nom-nishoni yo‘q edi, faqat ishchimisan – ishchi, bormisan – bor, don sochish qo‘lingdan keladimi – keladi, kelmasa, bor o‘z ishingni qil – gap sot. U yana chidab turolmas, yana birovlar-ning ishiga aralashar, yana fig‘oni falakka o‘rlar, yuragi o‘rtanar edi: axir, hamma yerda ham bunday tarallabedod emas-ku!

Keyin tag‘in umidsizlik bag‘ridan bosh ko‘tarib chiqar, boshqa-larning ham ko‘nglini ko‘tarar, umidsizlikdan baland devor yasar, de-vor ortida esa... E, menga desa, bari alangai otashga aylanib, yonib ketmaydimi.

Hamon o‘sha-o‘sha.

Biroq keyingi yil ichi sira chidab bo‘lmay qoldi, ayniqsa, arxa-rovchilarning hozirgi brigadasi kelib, joylashib olgach. Ilgari bunday brigadalar ko‘p kelgan, son-sanog‘i yo‘q edi. Biroz yashab, g‘ala-g‘ovur qilib, shu yerlik aholiga o‘zlarining kimliklarini namoyish qilib, keyin yana omonsiz qismat yo‘llarini sinagani jo‘nab ketar edilar. Hozir qabristonda ham ular ichidan shu yerda panoh topganlarning o‘nlab mozorlari bor. Nurli-nursiz juda ko‘p odamlar kelib-ketgan bu yerkarga, lekin hozirgiga o‘xshaganlari sira bo‘lmagan. Ular birdan-bir kuch bo‘lib birlashgan holda o‘z qonunlari va o‘z oqsoqollari bilan kelishdi. Ularni tor-mor qilmoqqa urinishdi, lekin qo‘llaridan kel-madi. Angaraning narigi tomoniga o‘rmon kesishga olib borib tash-lashmoqchi edi – bo‘lmadi. Quyi omborda, posyolkaning shundoq biqinida yog‘och ishslash va tayyorlashda qolishdi, bu yerda chapdast odamlar zarur edi. Lekin ular ko‘proq boshqacha ishlarga chapdast. Shundan keyin boshlanib ketdi deng. Hammayoqni yog‘och bosdi, na borib bo‘ladi, na olib, katta yog‘ochlarga shox-shabba aralash-qu-ralash, ho‘l-quruq baravar yongan. Mashinani qo‘yib, yarim soatlab kutasan. Aloha bo‘lmaydi, o‘zing tushib yordamlashasan. O‘zingni sira tutib turolmaysan, baqirib-chaqirasan, urishasan, ularning esa andak joni koyisa-chi, qaytaga masxara qilib kulishadi, tishlashadi, keyin alamdan Boris Timofeevichga qichqirasan, u esa senga. Ishga xuddi katorgaga borganday borib kelasan.

Posyolkada ham ahvol shu. Klubda bilyard pullik, do‘konda hamma navbatda turadi – ular kelsa, tekin, navbatsiz, qani, chetga tur. Gapisang, darrov og‘zingga uradilar, keyin bir haftalab o‘zingga kelolmay yurasan. Kishilar o‘zlaridagi eng yaxshi emas, eng yomon narsalar asosida birlashib olgan-u, qandaydir ilgari hech ko‘rilmagan to‘daga duch kelib bosh-uchlarini yo‘qotib qo‘yishganday yashashar, arxarovchilardan nariroq yurishga urinishar edi. Posyolkada necha yuzlab aholi yashaydi, lekin bor yo‘g‘i o‘nta chiqar-chiqmas odam hammaning ustidan hukmini yurgizadi – Ivan Petrovich mana shuni sira tushunolmasdi. Shu haqda bosh qotirarkan, bundan ilgariroq har kim o‘z holicha bo‘lib ketganligi, arxarovchilar faqat qo‘llanmay yotgan narsalarnigina qo‘llariga olganliklarini anglardi. Umumning boshiga biron kulfat tushsa, arxarovchilar o‘zlarini inson kabi ko‘rsatadilar, butunlay izdan chiqib ketmagandirlar, axir, degan o‘y ham ko‘nglidan o‘tar, lekin dorilamon, tarallabedod zamonlar kelsa, sulaymonlar o‘lib, devlar kutulsa, ular buni xuddi mahluqlar kabi darrov sezib, undan-bundan bir zumda bosh qovushtirib kelaveradilar. Ularning Sosnovkada o‘rnashib olganlari beziz emas: o‘g‘li yashayotgan Sirnikida ular kun ko‘rolmasdilar. Bu yerda esa bir yil mobaynida faqat ikkitasigina jo‘nab ketdi. Kavkazliklarga o‘xshab ketadigan bittasi avval ularga yo‘lboshchilik qilib yurdi, lekin keyinchalik, uni o‘zları olib tashlashgan shekilli, hokimlik Sashka Devyatiyga o‘tdi; boshqa bittasi mast-alast to‘polonda mayib bo‘lib kasalxonaga tushganicha, u yerdan qaytib-chiqmadi. Yana biri, Somov degani, ular bilan orani uzib, eri daryoda cho‘kib o‘lgan Nadya Pochivalovanikiga ketdi.

Dekabr oyi edi, Ivan Petrovich ishni tugatib, quiyi ombordan posyolkaga mashinasini burib qaytayotgan edi. Yarim yo‘lda shu yerlik allakim bilan kelayotgan Sashka Devyatiy uni to‘xtatdi. Ivan Petrovich to‘xtadi. Sashka mashinaga chiqdi, sherigi esa, kabinada yana bo‘sh joy bo‘lsa ham, chiqmadi. Bu Sashka degani juda chiroyli yigit – bo‘yi baland, kelishgan, oq-sariqdan kelgan yuzi yiltirab turadi, lekin bu chiroyni xuddi ichdan bir nima kemirayotganday. Nimaligini darrov tushunish ham qiyin. Xuddi ich tomonidan qurib, burishib-tirishib kelayotganday, faqat usti yaltiroq qismining o‘zagina saqlanib qolganday.

Posyolkagacha jim keldilar. Lekin yotoqning oldida tushib qolar-kan, Sashka labini qiyshaytirib dedi:

— Sen shuni bilib qo'y, qonunchi, mehnat va kurash qahramoni... Sen bilan bizning ishimiz yo'q, sening ham biz bilan ishing bo'lmasin. Mabodo, bizga osiladigan bo'lsang, biz ham senga osila-miz.

Shundan ko'p o'tmay do'konda ichkilik tugab qoldi. Tugadi, vas-salom – na Angaraning u tomonida bor, na bu tomonida. Arxarov-chilariing toza tomoqlari taqillab, birodarlari Sonyani ryukzak bilan shaharga jo'natishdi. U bir hafta uchib, havo buzuq bo'lsa, aeroport-larda samolyot kutib yurganda, uning yo'qligini bildirmay, «o'sha yigit uchun» ishladilar. Vaholanki, ish qizg'in, hammaning tilidan reja tushmay turgan bir payt – har bir odam oltinga barobar. Sonya to'lib-toshib qaytgach, arxarovchilarning yarmi ko'rinnay qoldi. Ivan Petrovich direktorni chaqirib kelib, ko'rsatdi, nima bo'layotganini o'zingiz ko'ring, dedi. U brigadani quyi ombordan topdi. Keyin Boris Timofeevich brigadani yana joyiga qaytardi, kimdir baribir ish-lashi kerak edi, arxarovchilarning o'lda-jo'lda tashlab ketilgan joyla-rida ishlashni esa hech kim istamasdi, nima demang, bu arxarovchi-larning joyi edi-da.

Yanvar oyida, qor bo'ralab shamol bilan urib turgan kuni, ikki qa-dam narini ko'z ochib ko'rib bo'lmasdi. Ivan Petrovich quyi omborga keldi-da, mashinasini yog'och tushirishga qo'ydi. Yog'och tushiruvchi mashina kelib, yukni ildirib, qiyalatib tushirdi. Bir martada hammasi-ni olib qo'ya qolmay, qolganlarini yana ildirib, o'ziga torta boshladi. Ivan Petrovich vaqtini qo'ldan boy bermay tirkaklarni ko'tarishga tush-di. Tirkaklarning zalvori juda og'ir, ancha urinish kerak. Birinchisini yuqoriga ko'tarib, nafasini rostlash uchun andak taysallandi. Bir qa-dam tashlab, endi tirkak tagidan boshini olib chiqqanini biladi, tirkak-ning juda og'ir metall tayanchi birdan uzilib ketdi. Tayanch ichkariga qilib o'matilgach va mahkamlangach, orqaga qarab qaytishi sira mum-kin emasdi, orqaga qaytmasdi. Yog'och tushirilgan tomonda ikkita ar-xarovchi o'ralashib yurardi. Ivan Petrovich ularning oldida turdi-turdi-da, fikrga cho'mdi, lekin hech narsa demadi. Nima ham derdi? Falak-ning ishlarini o'ylagancha qaytib ketdi.

Bir necha kundan so'ng motor yaxshi ishlamay qoldi. Ivan Petrovich o't oldirgichni ko'rdi, karbyuratorni ko'rdi – kasal joyini

topolmadi. Toza ovora bo'ldi, so'ng oxiri topdi. Yonilg'i bakiga qum tashlab qo'yishgan ekan. Sherigi, Petya Razborov, armiyada xizmat qilib kelgan yigit, benzinni to'kib tashlayotganlarida o'yga tolib, dedi:

— Qum-ku mayli, darrov tuzatsa bo'ladi. Lekin mabodo, Ivan Petrovich, tuz tashlashsa bormi... uyimiz kuydi deyavering. Ana unda holimiz xarob.

Ivan Petrovich esa, qishloqning xudo bergen sodda odami emasmi, qumni ham, tuzni ham xayoliga keltirmabdi. Tuz sepishmadni, lekin bir yo'la ikkita g'ildirakni teshib ketishdi. Petya Razborov undan boshqa «KRAZ»ga o'tib qutuldi.

Yillik hisobot majlisida Ivan Petrovichga gilam olish uchun talon mukofot berishdi. U o'midan turib, ishning pachavasini chiqardi: tالondan voz kechdi, menga gilam kerakmas dedi. Unga na mukofot va na hurmat-e'tibor kerak, unga boshqa bir tomondan tirgovuch tirab to'xtatib qo'yilmaydigan ish, orqadan kelib, qoqib, chalib, yiqitmaydigan hayot kerak. U shuni aytdi. Agar rejani bajarsak, boshqa hamma narsalarni soz-u a'lo deb ko'rsatishga urinamiz. Qachongacha reja ichida ro'y berayotgan barcha bemazagarchiliklarni yana rejaning o'zi bilan oqlaymiz va xaspo'shlaymiz? Ivan Petrovich shularni asabiylashib, yig'lamoqdan beri bo'lib gapirdi. Uning arxarovchilaridan xafa joyi yo'q edi — ularniig nimasidan ham xafa bo'ladi? Ivan Petrovich o'z odamlaridan kuyardi, nega ular bunchalik beparvo, sabr-u toqatl bo'lib qolishdi, nega ular har bir o'zgarish — yaxshilikka deb chippa-chin ishonib yurishibdi? Ivan Petrovich qizishib so'zlarkan, yana kechalari o'y o'ylab, boshi oxiri devorga borib taqalladigan yerga keldi: axir, nahotki, buni yolg'iz uning o'zi ko'rayotgan na tushunayotgan bo'lsa, nahot, boshqa hech kim ko'rmayapti va anglamayapti? Agar bir o'zi bo'lsa, unda nega? Ko'rish va tushunishing nima keragi bor? Bu haqiqiy ko'rish va haqiqiy tushunishmin? Uning o'zi to'g'riman deb, qattiq turib olib, shu turib olgancha, qiyshayib ketmadimikin?

Uning uyi oldidagi bog'chasini shu yaqin kunlarda Ivan Petrovich ishdan bo'shash haqida ariza bergandan keyin, payhon qilib ketishdi. Balki bu o'zimizning odamlardan birontasining mastlikda qilib qo'ygan hunaridir. Agar surishtirsa, kim qilganligini bilish qiyin emas. Lekin so'rab-surishtirib o'tirgisi kelmasdi. Alyona ham

miq etmasdi, vaholanki, unga albatta yetkazgan bo‘lishlari kerak. Haqmi, nohaqmi, odamlardan yetgan ozor faqat o‘z-o‘zidan alamzadilikka, norozilikka aylanib ketgan edi. Buning chorasi bitta: faqat ko‘chib qutuladi.

## 14

Ivan Petrovich yaqin-yaqinlardan beri Alyonaga beixtiyor e‘tibor bilan qaraydigan bo‘ldi. Qaraydigina emas, hatto sharpasiga ham qulq soladi. Har bir erkakning ko‘z o‘ngida xotinining ikki qiyofasi tursa ehtimol: birinchisi qanday bo‘lsa, shunday, ikkinchisi, uni qanday holda ko‘rishni istagani. Bu qiyofalar dam qo‘silib, dam ayilib, boshqa-boshqa bo‘lib turadi, dam bir ovoz bo‘lib tilga kira-di, dam turli tilda so‘zlashadi. Bu qiyofalarning chehralarida xuddi bir-birlaridan farqlari bordek, o‘zaro ko‘pincha chiqisholmaydiganga o‘xshashadi. Erkak, ma’lum, uning qoshiga qachon qay biri kelishini xato qilmay topadi, lekin xotinining o‘zi ham qayerda, qachon, qanday bo‘lishini biladi, dilida inson va xotin tushunchasi uyg‘un bo‘lib ketolmaganligini sezadi. Albatta, xuddi shuni erkak haqida ham aytish mumkin, lekin hozir gap u haqda emas.

Mana endi Alyona, kim bilsin, qachonlardan beri u bilan bir jon bir tan bo‘lib ketgan. Ivan Petrovich Alyonani qachondan beri ikkiga ajratib qarashni bas qilganligini aniq eslolmaydi, bu uni ba’zan ajablantiradi. O‘ttiz yildan ortiqroq birga yashab, buni ki unga, uniki bunga o‘tib, bir-birlariga yanada qadriroq bo‘lib ketganlari ravshan, qoni-qonga, joni-jonga aylangani shu bo‘lsa kerak. Necha o‘n yillab bir yostiqqa bosh qo‘yganlarning hammasi ham shunday. Qismati bir xil. Biroq Alyonaning yana nimasidir, o‘zgachaligi ham bor edi. Uning ovozi boshqacha bo‘lib qoldi. Go‘yo u emas, u orqali barcha yer yuzi xotinlarining onasi so‘zlayotganday, jami ayollar bir ayolga aylanib gapirayotganday edi. Uning ovozi teran tortdi, shiraliroq bo‘lib qoldi, o‘rtacha pardalarini sira yo‘qotmadi, quruqshamadi. U hech shaqillamas, shang‘illamas, so‘zлari purma’no edi: ilgari u aytmoqchi bo‘lgan eng muhim gapini ifoda qilish uchun juda ko‘p so‘z sarflardi, endi bo‘lsa, kerakli so‘zni darrov, uzoq tayyorgarlik ko‘rmay topar, Ivan Petrovich hazillashib aytganday, artpodgotovka qilib o‘tirmay, mo‘ljalga aniq urardi.

Alyona asta-sekin yoshlik chog‘larida egallashga fursati yetmagan o‘rinni egalladi, buni shunday deb atash mumkin: ayol ko‘ngli to‘q. Alyona qanchaga kerak bo‘lsa, rosa shunchaga yetar edi, ko‘p ham emasdi, oz ham. Balki sal ko‘proqdir. Lekin ozgina yanglish bo‘lsa, uni tuzatish oson. Ivan Petrovich uydami yoki yo‘ldami, doimo yonida, jonida Alyonani his qilib turardi, qayda bo‘lmasin Alyonaning kechani kecha, kunduzni kunduz demay qiladigan xizmati davom etayotganday. Xafa bo‘lib qolganda Alyona uning fe‘lxo‘yini to‘g‘ri izga solib turar, unga sabr-toqat bag‘ishlar va doimo uyga chorlardi. Mashinasida uzoq reyslarga ketarkan, u ko‘p mahal g‘oyibona Alyona bilan gaplashar, u bilan maslahatlashar, uning nima deb javob berishini bilar va albatta, biron xulosa chiqarar edi. So‘lim va sarishta bu dunyo Alyona deb atalardi, u yillar o‘tib zarracha sovugani yo‘q, aksincha, o‘rtadagi mehr-oqibat, tushunish tobo-ra kuchayib bordi. Qulog‘ida doimo xotinining ovozi: «Shoshma, Vanya yoki Styona», deb yangrab turmaydigan erkak hayotda tez orada surilib qoladi, yashaganda ham, xuddi birovning kiyimini kiyganday bo‘lib yashaydi.

Nozikkina, pishiq-puxtagina, gavdasi qizlarning gavdasiga o‘xshaydigan bu xotin go‘yo yurmas, balki uchib-qo‘nardi. Hali hozirgacha shunday, bo‘lmasa, sharti ketib, parti qoladigan payt. Unga qarab turib, ba’zan Ivan Petrovichning yuragi qo‘rqinchli bir fikrdan orqasiga tortib ketardi: Alyonaga o‘xshagan tinib-tinchimas, g‘ayrati ichidan doim toshib turadigan odamlar asta sovumasdan, nolish-shikoyat qilmasdan, birdan, bir zumda uziladilar. Ivan Petrovich bu fikrni darhol miyasidan quvardi. Alyona bir vaqtlar hisobchilik ham qildi, normalovchi bo‘lib ham ishladi, og‘irchiliklar ham tortdi, yozni yoz, qishni qish demadi, keyin bir kun so‘rab-istaganday bo‘lib, kutubxonada ishlasammikin, dedi. Ivan Petrovich kulib yubordi: «Kutubxonada nima qilasan? Derazaga kapalakdek o‘zingni urasanmi?» dedi, u xotinining kitoblarga ko‘milib o‘tirishini sira tasavvur qilolmadi. Alyona-ku, ko‘milib o‘tirgani ham yo‘q. U hatto kartochkalar ni ham tik oyoqda turib, stol ustiga yoki deraza taxtasiga andak egilgancha to‘ldirardi. Tinmay uzoq-yaqinga, mahallalarga qatnar, hatto umrida qo‘liga kitob ushlab ko‘rmaganlarga ham kitoblar tashirdi. Eh-hye, Ivan Petrovich yirtig‘ini tuzatgan kitoblarni aytmaysizmi, son-sanog‘i yo‘q! Avval o‘qiganlarini, keyin boshqa hamma duch

kelganlarini tuzatib qo'yadigan bo'ldi. Alyona esa kitob keltirgani keltirgan edi.

Mana endi u ham o'zi sevgan ishni tashlashi kerak.

Hozir xotinini maqtash rasm emas, lekin Ivan Petrovich Alyona haqida faqat yaxshi gapdan boshqasini bilmasa, ko'ngliga zarracha g'ubor o'tirmagan bo'lsa, ne qilsin. Uning doimo ko'z o'ngida shu hol: ana, xotini kechga tomon ishdan bo'shab, sabrsiz, qushday uchib uyga kelyapti, tezroq erimdan xabar olay deb, ana, yo'l-yo'lakay hovliqqancha go'yo nimadandir o'zini gunohkor sezib, bir nimalarni gapirib kelmoqda – shularni eslagan zahoti yuragi orom og'ushiga cho'madi. Ana, er-xotin o'tirib choy ichishmoqda, er miq etmaydi, xotin er o'rniga ham, o'zi uchun ham gapiradi, er bilmaydi, qaysi so'z kimga tegishli, faqat o'zini dildan, to'yib-to'yib gapplashganday his qiladi.

Xotin – qandaydir o'zgacha narsa. Umumhayotga ijozat etilgan, lekin o'zgacha narsa. Ba'zi birovlar bir umr bir-biriga suykalishadi, lekin moslashib, birlashib ketisholmaydi. Ivan Petrovich uchun Alyona xotindan ko'ra ortiqroq edi. Mana shu mo'jazgina, joni ichiga sig'magan vujudda go'yo ayol uchun zarur jamiki narsalarning bari mujassam edi. Odatda, bir umr poyondoz bo'lib yoyiladigan, mavj bo'lib sochiladiganlarni qadrlamaydilar, go'yo xuddi suv va havoday, go'yo o'zi shunday bo'lishi kerakday qabul qiladilar va yana xudo biladi, yana allanimalarnidir kutadilar hamda talab qiladilar. Rus erkagi ayol kishi bilan bir tan-bir jon bo'lib yashashga o'rganmagan. Lekin Alyonaning xatti-harakatlarida sira ham zo'rakilik va o'zini go'yo qurban qilishga urinish yo'q edi, bularning bari uning tabiatida va yuragida edi, kimgadir parvona bo'lmasa, mehribonchilik qilmasa, u o'sha zahoti ildiz-pildizi bilan qurib qolardi. U o'zini shu qo'sha hayotga zarra-zarralab baxshida qilar, o'zini hech qachon ayamas, oxirida horib-tolib, kechga tomon yuzi ham, o'zi ham yanada kich-rayib, ertangi kun uchun yangidan kuch to'plash niyatida uxlugani yotarkan, shunchalar baxtiyor va ma'sum tabassum qillardiki, bularning bari chin ekanligiga kishi yuragida aslo shak-shubha qolmasdi.

Har bir erkak o'z xotinining qandayligini ifodalashga qodir qandaydir bir voqeani doim xotirasida saqlasa kerak. Bunga ancha zamonlar bo'lib ketdi, unda hali yegorovkada turar edilar, bir kuni Ivan Petrovich motorni ishlatib qo'yib, mashina tagida nimadir qilayot-

gan edi. «ZIS-150» mashinasi edi. U qayerdan moy oqayotganligini keyin topdi, lekin qidirib hech topolmayotgan edi, birdan motor yonib ketsa bo‘ladimi. Yerda chalqancha tushib yotgan Ivan Petrovich nima qilishini bilmay qotib qoldi. Tepasidan bir narsa duvillab sochilgandagina sapchib mashina ostidan chiqdi. Omborga kiraverishda burchakda, qutida qishga yig‘ib qo‘yilgan qum bor edi, Alyona uni dast ko‘tarib, olov ustiga otgan edi. Keyin qutini yana qumga to‘ldirganlarida, Ivan Petrovich uni bazo‘r yerdan uzdi. Alyona esa uni hatto qo‘zg‘atolmadidi.

– U men emas edim, – dedi xotini soddalik bilan. – Kimdir seni qutqaray deb, mening qo‘llarimni ushlab, kuchini bergen. Mening esimda yo‘q. Og‘irligi bilinmadidi.

Qanchadan-qancha shunday paytlar bo‘ldi, kimdir uning qo‘llari bilan ko‘tarib bo‘lmas narsalarni ko‘tardi.

Ivan Petrovich, bo‘ldi endi, bo‘sash haqida ariza berdim, degan kuni Alyona ham ko‘ndi:

– Bo‘pti unda, Ivan... rost, Borkani ham sog‘inib ketdik... – dedi.

U xotini tiliga chiqarmay, dilida saqlab qolgan so‘zlarni ham eshitishga o‘rgangan edi. Borkani sog‘inishdi, lekin shunday bo‘lishi kerakmidi, nahot shunday...

## 15

Ana, endi tashi, ho, tashi, Ivan Petrovich yelkasini tutib, tepe qatorlardan qopni tortib, yelkasiga qulayroq o‘rmashtirib olardi-da, eshikda quturib o‘ynayotgan olov ko‘lkalari sari :qadam tashlardi. Qorda iz solib, yo‘l tomonga tushardi. Qilib o‘rgangan ishi, hayoti mobaynida nimalarni tashimadi, agar o‘t tushganini aytmasa, yoshilik chog‘larini eslatib yuborgan bu jismoniy ish hatto unga yoqardi, u paytlar butun qishloq yig‘ilishib don tashishardi. Keyin qancha umri o‘rmonga bog‘landi, Ivan Petrovich qayerda bo‘lmasin, to‘g‘ri kelib qolsa, qo‘liga boshoqni olib barmoqlarida ezb‘ilardi-da, achiq alam va armon ortidan ter, tuproq va quyoshga chulg‘anib, ko‘z o‘ngida g‘allakorlik ishlari manzaralari paydo bo‘lishini kutar edi.

Un tashiyotgan odamlar avval o‘n kishi edi. Xo‘p g‘ayrat qildilar, ikki-uch kishi olib borib turdi, qolganlar chopqillab borib tashlab kelaverdi, sal payt ichida tepadagi qoplarning hammasini tashib qo‘yishdi. Ivan Petrovich endi qandni ham mo‘ljalga ola boshladidi:

ana-mana deb, uni ham tashib qo'yish mumkin, lekin bu qurib ketgurning o'zi shirin-u, ishi yelkangni ezib yuboradi-da. Boshini yerdan ko'tarmay, qop bilan yo'ldan boshqani ko'rmay ishlayotgan bo'lsa-da, Ivan Petrovich yuk tashuvchilar tobora siyraklashib bora-yotganligini sezdi. Ivan Petrovich qaddini rostladi: to'rt kishi qolib-di, xolos. U bilan Afonya, qo'rg'oni shu yaqin orada joylashgan bir qo'lli Saveliy va yana allaqanday yechinib olgan, turgan yerida chay-qalayotgan notanishroq yigit.

— Afonya! — qichqirdi Ivan Petrovich. — Nima bo'ldi tag'in? Qani bular?

— Anov yoqda ish qiziqroq, — javob berdi Afonya chopqillab o'tarkan. — Qiziqrog'i o'sha yoqda, bildingmi?

Ustingga. Ustingda. Ustingdan. Dukillab urayotgan yuragining hovuri andakkina bosiladigan qisqagina yo'l, keyin yana: hammasi ustingga, ustingda, ustingdan. Holbuki, endi yosh ham emassan. yelkangda yuk bo'lsa, tobora yerga qapishib borasan, oyoqlaring chalishib-chalishib ketadi, yuraging ham qinidan chiqib ketay deb, qaytib joyiga tushishni istamaydi. Hatto shu qo'tosday kuchli, yelkasiga boshida ikkitadan qop ortgan Afonya ham endi bitta qopni egilib-bukilib tashib keladi.

Boris Timofeevich kelib qoldi, u ham ishni o'z holiga qo'yib berib, qop tashimoqqa urindi. Lekin Afonya bilan Ivan Petrovich siz kuchanmay qo'ya qoling yaxshisi, bu yerga yigitlarni boshlab kelng, deb uni qaytarishdi. Vodnikov qaytib ketdi-da, bir qancha odamlarni boshlab keldi, ulardan biri, shirakayf arxarovchi, qoplarni tashib yurmay qo'lma-qo'l qilish uchun saf tuzmoqchi bo'lib ko'rди. Afonya ularni safiga qo'shib haydab yubordi, ular ham shuni kutib turganday bir zumda ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Kelganlardan ikki kishigina-Semyon Kolsov bilan garaj slesari Teplyakov birga qop tashigani qoldi.

O'ktam chehrasi ikki-uch bor yalt-yult etib Sashka Devyatiy ko'zga chalindi-yu so'ng u ham yo'qolib qoldi.

Qaysi biri ko'p — tashib chiqilganimi yoki omborda qolganimi — bilib bo'lmasdi.

Ivan Petrovich, Teplyakov yormalarni tashiy boshlaganini ko'rди. Juda soz, ehtimol ularni ham ulgurgancha saqlib qolish kerak... Iloji bo'lsa, hammasini tashib olsa, qaniydi, lekin qo'shni omborxonada-

gi yong‘in shoshirar, yormalar tirband qilib qo‘yilgan umumiy devor qisirlab, ancha qizib bormoqda edi. Teplyakovga madad bo‘lsin deb, Ivan Petrovich bir gal un, bir gal yorma tashishga qaror qildi. Ombor ichi xira tortib o‘lik tusga kirdi, hammayoqni un g‘ubori qopladi, eshikka tushayotgan alanga ko‘lkalari xira tortdi, endi faqat qandga tushib shu'lalanardi. Eshikdan chopib kirayotganlarida o‘ng tomonda va chiqayotganlarida chap tomonda borgan sari ko‘proq og‘ir hovur gupillab urardi.

Ivan Petrovich qoplar ostida hech narsani ko‘rmas va eshitmas edi. Yuragi o‘ynoqlab urar, ko‘krakni o‘pirib yuborayozgan ana shu guldurosda boshqa barcha tovushlar puchayib, juda zaif tuyulardi. Ko‘z o‘ngida hamma narsa ostin-ustun edi, odamning ichiga tushgan o‘t tashqaridagi o‘t bilan qo‘silib, po‘rtana kabi qaynar edi. Ivan Petrovichni shu ikki o‘t elitdi. U yelkasidagi qopni ag‘dardi-yu, o‘zi ham uning ortidan taxta ustiga quladi va hushini yo‘qotib qo‘ymaslik uchun g‘ira-shira ko‘rinayotgan imoratdan ko‘zlarini uzmay, qattiq tikilib yotaverdi. Bu imorat mo‘rcha bo‘lib chiqdi, mo‘rchadan kutilmaganda bir odam paydo bo‘ldi, bu, chamasi, mo‘rchaning egasi bir qo‘lli Saveliy edi, Saveliy qadamini eski oyoq izlariga qo‘ygancha, pastga, yo‘lga tushdi. Tevarak-atrof yong‘indan yorishgan, lekin Ivan Petrovichning ko‘zlariga hamma narsa g‘ira-shira chalinar, shuning uchun u mo‘rchadan rostdan ham birov chiqdimi yoki uning ko‘ziga shunday ko‘rindimi, aniq aytolmas edi.

Uning ko‘ziga yana shu narsa ko‘rindi: yoqasi ko‘tarilgan kalta po‘stinchalari kiygan bir kampir yo‘l bo‘yidan chechaklar terib borardi. Boradi-boradi-da, ko‘zlar bilan qidirib topadi, engashib shoshapisha yulib oladi-yu darrov xaltasiga soladi. Keyin boshqa uyumga o‘tadi. Kampir o‘girilganda, Ivan Petrovich uni tanidi va shu zahoti taniganiga pushaymon bo‘ldi, chunki chechaklar-u boychechaklar nima ekanligini birdan fahmlab qolgan edi. Umrida hech qachon bunday ishga qo‘l urmagan kampir hovlidan tashqariga uloqtirilgan shishalarni terib borardi – xotiringiz jam bo‘lsinki, bular bo‘sh shishalar emasdi. Ammo mana shu kechagacha bunday voqealarning o‘zi ham ro‘y bermagan edi-da, axir.

Angara tomondan burchakdan alanga ko‘tarildi, bu so‘nggi un omboridan chiqqan olov edi. Ivan Petrovich sakrab o‘rnidan turdi. Shuning uchun ham undan keyin hech kim qop olib chiqmagan ekan-

da: endi qoplarni olib chiqib eshikdan besh qadam nariga tashlashar, uzoqqa olib borgani vaqt qolmagan edi.

Olovning narigi boshida, sanoat mollari ombori tomonda alanga yaxlit bir tusga kirgan, notejis turgan odamlar safi o‘t zabtidan og‘ir chayqalar edi. Turli-tuman boshqa ovozlarni bosib Boris Timofeevichning keskin va shiddatli tovushi kelardi. U yerda odamlar olov do‘konga o‘tmasligi uchun saf tortishgan edi. Agar do‘kon omon qolsa, jindak g‘alabani qo‘lga kiritganlariga ishonadilar, yana ozgina bo‘lganda, to‘la g‘alaba qilardik, deydilar.

Hovlining o‘rtasida, omon qolgan narsalar uyumi tevaragida Misha Xampo amaki sog‘ qo‘lini silkitib sakramoqda edi. Uzoqdan qaragan odamga u tovuqdan qochgan jo‘jalarni orqasiga qaytarayotganga o‘xshardi.

Darvozani qo‘riqlab turishning hojati qolmagandi, hamma narsa to‘zib ketgandi.

Misha Xampo amaki yegorovka qishlog‘ining or-nomusini edi, u bolalikda qoqshol bo‘lib qolgan, o‘ng qo‘lini tasmaga ilib ko‘tarib yurar, u bilan narsalarni bazo‘r ushlar, buning ustiga shu qadar qiyinalib so‘ylardiki, begona odam uning nima deganini mutlaqo tushunmasdi. «Xampo-o! Xammo-o-o!» deya u akashak bo‘lib qolgan bo‘g‘zidan kerakli so‘zni chiqarguncha, anchagacha o‘kirib turar, keyin o‘sha so‘zni aytish tuyassar bo‘lsa, uni shu yaqin orada tayyor turgan «aha» so‘ziga shosha-pisha ulab yuborar va shunda uning chehrasiga baxtiyor bir tabassum yoyilib ketar edi. Misha Xampo amakini yaxshi bilgan odamlar unga darrov ko‘maklashib, kerakli so‘zni aytib yuborishar, shunda uning yirik qoramagi‘iz basharasini yorishib ketardi-da, faqat boshini silkib, ahalardi. «Xam-po-o!» deb boshlardi u, ostona hatlab ichkariga kirarkan, shunda uy egasi yoki beka hech qiyalmay javob qilardi: «Salom, salom, o‘taver. Do‘konga boruvdim, deysanmi? Odam ko‘p ekanmi? Ovqat ham qildingmi? Xo‘sh, agar shunday bo‘lsa, o‘tir, birga choy ichamiz».

Kishilar bir-birlarini tushunishlari uchun ko‘p so‘z kerakmas. Ko‘p so‘z – bir-birovni tushunmaslikka kerak.

Misha amaki yolg‘iz o‘zi yashardi. Urush payti bu yerlarga kelib qolgan bitta xotinga uylangan, uni ham o‘z qo‘li bilan ko‘mganiga ancha bo‘lgan edi. Ular bir qarindoshlarining bolasini tarbiyalab olishgan, u voyaga yetib, harbiy xizmatdan qaytgach, Shimolga ishga

jo'nagan, qo'li gul, o'z ishiga pishiq-puxta, yoshligidan hamma narsaga o'rgatilgan, u yerlarda katta pul ishlar, lekin bir tiyin jo'natmas edi. Misha amaki kirini o'zi yuvar, o'zi uy-joyga qarar, cho'chqa boqar va yetmishga kirgan bo'lishiga qaramasdan odamlarning o'tinlarini yorib berardi. U juda ham kuchli edi va birgina chap qo'li bilan ham istagancha ish qila olardi. Lekin hozir uning ilgarigi kuch-quvvati qolmagan va u endi ko'p vaqtlar g'o'лага ponani urib qo'yib, uzoq-uzoq Angaraga tikilib o'tirardi, daryo ochiqmi, muzlaganmi, endi unga baribir edi.

Goho u Angara haqida, aniqrog'i, suv tagida qolgan yegorovka haqida bir narsalar demoqchi bo'lar, qo'li bilan o'sha tomonni ko'rsatar, «xampo» so'zi bo'g'ziga tifilib kelar, lekin bu hollarda odamlar eski qishloqning nomidan boshqa biron so'zni aytishdan ojiz edi. Misha amaki shunda xafa bo'lib ketib qolardi.

Lekin, axir, zo'r berib bir muhim gapni aytishga urinardi.

Xampo onasining qornidan qorovul, qo'riqchi bo'lib tug'ilganday edi. Mayib-majruh bo'lgani uchungina u duch kelgan ishni bajarmasdi, yo'q, u o'z ishini bilib, maromiga yetkazib qilar edi. Uning zuvalasi shunday qorilgandi, o'zi o'qimagan, ongiga sig'dira olmagan yuzlab qonunlardan birini – birovning haqini yema, deganini juda qattiq ushlab oldi. Dunyoning barcha noma'qulchiliklari va no-qulayliklarini u, ehtimol, faqat shu birovning haqiga tegma, degan so'z bilan bog'lar edi. Misha amaki qorovullanadigan har qanday ishga jon-jon deb rozi bo'lardi: kolxoza Yegorovkaning no'xotini qo'rir, har yili xachirga minib dalalarni aylanar, kechalari g'alla xirmonlarida qolib ketar, kunduzi bo'sh vaqtlarida molxona va ot-xonalarni borib ko'zdan kechirar edi. U, ko'zi o'tkir qo'riqchi, hech qachon qo'riqchiligi uchun haq talab qilmas, men o'zim boshdan jamoat qorovuli bo'lib tug'ilganman, deb hisoblardi. Yangi joyga ko'chib kelishganda, uy, hovli-joylar qurilayotganda Xampo amaki naq komendantga aylandi-qoldi: u hamma narsani qo'riqlar, hamma ko'riqlanishi kerak bo'lgan narsalarga aralashardi. Odamlar ham shunga o'rganib ketishgan, hech kim Xampo amakiga bu sizning ishingiz emas, aralashmang, deb aytishni xayoliga ham keltirmasdi. Lekin dastlabki yillar o'g'rilik ham kamdan kam uchrardi. O'g'rilik bo'lib qolsa, Xampo amaki juda og'ir iztirobga tushardi. Uning na-zarida hayotda o'g'rilikdan ko'ra ham og'irroq, o'g'rilikdan ko'ra

ham talofatliroq narsa yo‘q edi. «Sizga nima bo‘ldi, Misha amaki, ko‘zingiz qayeqda edi?» deb ta’na qilib qolishardi ba’zan o‘zganing dardini anglamaydigan kishilar. Ular bundan so‘ng nima bo‘lishini bilishardi. Misha amaki g‘o‘ldirab, tili gapga kelmay qiynalib ketar, o‘zini oqlamoqqa urinar, so‘ng ho‘ng-ho‘ng yig‘lay boshlar edi. «Xampo-o! Xampo-o!» deya dili vayrona bo‘lib o‘kirar, yirik gav-dasi dag‘-dag‘ qaltirar, yuzini yosh seli yuvib tushar, o‘ng qo‘lini ko‘tarib, nimanidir ko‘rsatishga intilardi.

Vaqt-soati kelib, o‘g‘rilik odad tusiga kirdi. Misha amaki har bir o‘g‘rilikka mana shunday azob bilan qarasa, uzoqqa bormas edi. Unga ham ko‘nikishga to‘g‘ri keldi. Bir narsa yo‘qolibdi degan xabarni eshitsa, endi kaltak zarbi tushganday titrab ketmas, kasalmand va ojiz odam kabi kulbasiga qochib berkinmas, faqat butun bir umri ni o‘ziga qamrab oladiganday bir o‘y uning chehrasida yog‘och kabi qotib qolardi, shundan keyin yana bu chehrada gunohkorona bir tabassum paydo bo‘lguncha ancha vaqt o‘tardi.

Lekin hozir o‘g‘rining o‘zi ham qanchalar o‘zgarib ketdi, bu bir iblisgagina ayon. Dam esi kirib katta bo‘lib qolgan bolalar bayram kunlari yoshgina muallimlariga yoqish uchun birovlarining tovuqxonalariga tushib xo‘rozlarning kallalarini olishadi, dam o‘zi to‘q, usti but valakisalanglar kampirning o‘tin yordiraman, o‘tin yorganlarni ziyofat qilaman deb, bir amallab do‘kondan tashib yiqqan bor bud-shudini o‘marib ketishadi. Ilgarilari ham bo‘lardi... Lekin buna-qasi endi uchrayapti: haligi tovuqxonaga tushgan shumtakalarning biri uyida bayram dasturxoni yozilgan muallimaga tug‘ishgan uka bo‘lib chiqsa, bunga nima deysiz? Kampir bechoraning qaznog‘ini o‘margan azamat shumtakalar esa kampirning o‘tinini yorib, ziyofatini yemojni ko‘zlagan, lekin ziyofatni yeb, ishdan bo‘yin tovlagan-larning xuddi o‘zi bo‘lib chiqsa, buni nima deb tushuntirasiz? Ular o‘g‘rimas – ular xotinchalish zararkunanda.

## 16

Ivan Petrovich bu yerdan ko‘chishga qaror qilgach, insonga xotirjam yashamoq uchun nima kerak, deb tez-tez muttasil injiqlik bilan o‘ylay boshladи. Agar uning ishlab turgan ishi azobga aylanib ketmagan bo‘lsa, oilasi o‘ziga ohanraboday tortsa, unda, kechasi birdan uyg‘onib ketib, anchadan beri orziqib kutilgan tong qachon otarkin,

baxt yulduzi qachon balqarkin, deb uyqu o'chgancha kutib yotish uchun yana nima kerak ekan?

To'kinchilikdan gap ketsa... To'kinchilik, ha, u zarur, usiz odam go'shtdan ajralgan suyakday liqillab qoladi. Ammo to'kinchilik – bu o'zingga, o'z atrofingga va o'zingdan keyinga zaxiragina emas, jig'ildon degan baloni qondirish uchun bugun va erta talab qilinadigan narsalarning o'ziginamas, balki o'zingni ham ko'rsatish va bosh-qalarni ham dog'da qoldirish uchun asqotadigan narsa. Agarda ana shunday bo'lganda, hammasi qanchalar oddiy bo'lardi. Lekin issiq-qina og'ilxonadagi bo'rdoqi uni go'sht uchun boqishayotganini bilmasligi mumkin emas, chunki uning kichkina-kichkina va yog' bosgan ko'zları borki, shu ko'zlar bilan u go'shtga boqilmaydiganlarning ishi – ovqat yeish-u, hayot – ovqat yeydigan vaqtini kutishdangina iborat emasligini ko'rishga qodir. To'kinchilikni yaratadigan butun boshli vositalar bilan o'zini qurshab olgan odam shu to'kinchilik ichida o'ziga xos alohida, o'zidan to'qib chiqarilgan bir nimaga ega bo'lishi shart, ko'rganni yulib-yulqib changalga olishning o'zi bilangina ish bitmaydi, yana allaqanday sababiyatlari va nazorat qilib turadigan, to'kinchilikni o'z-o'ziga zid suratda qutisining to'la ekanligidan xijolatga tushishga majbur qiladigan bir nimalar ham kerak.

Mayli, to'kinchilikni qo'ya turaylik.

Qorin janobi oliylarining ehtiyoji uchungina ish qilinmaydi. Qanchadan-qancha ishlaymaydiganlar yoki yo'liga o'lda-jo'lda ishlaydiganlar qorinlarini qappaytirishda boshqalardan qolishmaydi, hozir buning yo'li oson.

Ish – sendan keyin qoladigan narsa. Sen yo'q bo'lsang, o'zing boshqalar uchun ishga aylanasan, u sening izingdan kelib hayot ke-chirayotganlarga yana uzoq-uzoq paytlar seni eslatib turadi. Shunday deb aytishadi. Aslida ham shunday, boz ustiga agar sening xizmating foydali daryoga borib qo'shilayotgan bo'lsa. Ikkita daryo – birining oqimi foydali va ikkinchisiniki foydasiz, ularning qay biri qudratli bo'lsa, umum hayoti ana o'shangan borib qo'shiladi. Lekin bu har qalay, umuman olganda, allaqanday juda katta, insondan yuqori turgan tushunchalarga ko'ra shunday, lekin ertaga tong qorong'usida o'ziga tegishli yog'och kubometrlarini olib kelish uchun yigirma-o'ttiz charqirim yo'l bosadigan odam bunda o'zini qanday his qilishi kerak? Albatta, tilning o'zi – kilometr, kubometr, yog'och so'zlarining o'zi

hissiyotlarning qandayligini belgilab, ularni pulga chaqishi tabiiy. Lekin bu shunday emas. Unchalarmas. «KRAZ»ga keragidan ortiq yuk olishga, ortiqcha qatnov qilishga uni pul majbur qilmaydi, yuzlab odamlarni birvarakay o‘z kuchog‘iga tortgan ishning o‘zi shuni taqozo etadi. Ish paytida u kilometrlar, kubometrlar, pulni eslab o‘tirmaydi, xayolan bular ustidan hatlab, hech qanday buxgalteriya bo‘lmagan, aksincha, faqat jo‘shqinlik, quvnoqliq va bayram to‘la yuksakliklarga ko‘tarilib ketadi. U yerda uning yo‘li doim o‘ng, shuning uchun yurish oson. Nimaga nisbatan o‘ng, u buni aytib berolmaydi, chamasi, dilga ko‘ra, uning azaliy mayliga ko‘ra o‘ng; o‘sha yerda u kimningdir jarangdor chaqirig‘iga nisbatan javobga aylanadi, dili tarang tortadi va ochiq, ozod havolay boshlaydi.

Ha, u xizmatchi, u o‘zining shundayligini biladi, ish chog‘lari u ko‘tarilib boradigan yuksaklikda hayot juda ustuvor va umidbaxsh bo‘lib ko‘rinadi.

Odam bolasining hayotda to‘rt tayanchi bor: uy va oila, ish, bayramlar va odmi kunlarda sen bilan birga bo‘ladigan odamlar, nihoyat, uying turgan zamin. To‘rttovi ham bir-biridan zarurroq. Birontasidan ishkal chiqsa, butun dunyo ko‘zlaringga tor bo‘lib ketadi. Faqat bolalarning nigohlariga dunyo oftob charaqlab turgan, yaxshiliklar bilan to‘lib-toshgan g‘aroyib bir hadya kabi ko‘rinadi. Balog‘atga yetib borgan sayin, tobora tikroq ko‘tarila beradigan quyosh uning parokanda va to‘zg‘in tomonlarini yoritaveradi. Sabiy chog‘larida Ivan Petrovichga bu chalalik va notugallik davom etishlikni talab qiladigan uzundan-uzun va og‘ir ish kabi tuyulardi, lekin so‘ng shu chala qurilgan holicha dunyoning eski asoslari qimirlab qolgani ma’lum bo‘ldi, odamlar esa hamon ustma-ust, yangidan-yangilarini yerdan ko‘tarmoqdalar, bular tagsinchlari bo‘shligi boisidan tinimsiz qimirlab turmoqda.

Odamlar, aftidan, hech qaysi zamonlarda asosiy ko‘pchilik bo‘lib yaxshilikka mayl qo‘ymagan va hamisha bir yaxshi mayl egasiga ikki g‘ayrimayl to‘g‘ri kelgan. Biroq ezgulik hamda yomonlik-yaxshilikning teskarisi, ularning yuzi bitta, faqat yomonlikniki o‘ngga emas, chapga qiyshaygan bo‘ladi, deb aytishmasdi, yomonlik xuddi ma’jusiylik kabi hali eng yaxshi ma’naviy dinga aylanib ulgurmagan kuch, u hali yaxshi rivojlanmagan hayvoniy xulqi tufayli yomonlik qiladi va yomonlik qilayotganligini anglamaydi, deb hisoblanardi.

Agarda ezgulik bilan yomonlik o'rtasiga chiziq tortilsa, bir qism odamlar shu chiziqni bosib o'tgan, boshqa bir qismi esa hali bosib o'tmagan bo'lib chiqardi, lekin hamma bir tomonga, ezgulik tomonga yo'l olgan. Har yangi nasl kelishi bilan chiziqni bosib o'tganlar soni ko'payaveradi.

Undan keyin nima ro'y berganligiga tushunish qiyin. Chiziqdan o'tib ezgulik nash'asiga yetishganlarni kim qo'rqtitib yubordi? Nega ular orqaga qaytdilar? Birdan va birvarakay bo'lmasa ham, lekin qaytdilar. Chiziqdan o'tish ikki tomonlama yo'lga aylandi, odamlar u yoqdan-bu yoqqa bemalol borib kela boshladilar, dam anov ulfatga qo'shildilar, dam manovga va shu asno o'rtadagi sarhadni bosib, yo'qotib yubordilar. Ezgulik va yomonlik aralashib ketdi. O'zining sof ko'rinishida ezgulik ojizlikka aylandi, yomonlik kuch bo'lib qoldi.

Hozir yaxshi va yomon odam degani nima? Hech narsa emas. Bobolar zamonidan qolgan yodgorlik kabi tilda eskirgan so'zlar; u zamonlar soddalik va samimiylig bilan odamni uning ma'naviy hislatlariga, birovning dardini o'z dardi kabi his qilishga qobiligi va yo-xud qobil emasligiga qarab baho berardilar. Hozirgi hayot sharoitida kim yomonlik qilmasa, kim so'ramay hech narsaga aralashmasa va hech narsaga xalal bermasa, ana shu yaxshi odam. Yaxshilik qilishga bo'lgan tabiiy mayl yaxshi odamning mezoni sanalmog'i kerak edi, hozir aksincha, ezgulik bilan yomonlik o'rtasida tanlangan qulay vaziyat, yurakning doim bir xil o'lchovda, bir tus haroratda urishi yaxshi odamni bildiradigan mezon bo'lib qoldi. «Señ menga tegma», men senga tegmay», degan aqida hammani o'z komiga tortdi.

Ilgari aqsizlik, bilimsizlik tufaili ro'y bergan narsalar endi ma'rifatli aql egasining jonajon ishiga aylandi. Asrlarcha nimadan qochilgan bo'lsa, yana shunga qaytib kelindi. Kelindigina emas, motorlarda jadal ishg'ol qilindi, piyoda nari qochib va lekin motorda yana tez qaytib kelib, xuddi mana shuni tag'in insoniyatning eng qulay g'alabasi deb jar solindi.

To'kinchilik haqida avval gapirgandik. To'kinchilik bor va hatto oz emas, lekin baribir insonda o'zining na bugungi kuniga va na ertagi kuniga ishonch bor, u misoli, doim qaltirab, bezgak tutayotgандай uvishib yashaydi, hech to'xtamay atrofga alang-jalang qilavera-di. Bundan chiqadiki, shu to'kinchilikning boriga yana nimadir yet-

maydi. O‘zimiz, balki, yetmasmikanmiz – bo‘lishimiz kerak bo‘lgan holda bo‘lolmadikmikin? Odam bolasi nima bo‘ldi-yu, aslida nima bo‘lishi kerak edi, ana shuning o‘rtasidagi farq, har bir qadam uchun hisob so‘raydi.

Hayotiy boshdan-oxir, uning hamma kenglik va burilishlari barobarida ko‘z o‘ngidan o‘tkazar, uzoq hamda og‘ir o‘ylarga tolarkan, Ivan Petrovich bir xulosaga keldi. Odam o‘zini hayotda yashagan-day sezishi uchun uyda bo‘lishi kerak. Mana, uyda. Hammasidan burun uyda, qo‘nalg‘ada emas, o‘z-o‘zingda, o‘z-o‘zingning shaxsisi ichki xo‘jalicingda, hamma narsa oldindan o‘lchab, xizmati hamda vazifasi aniq-ravshan belgilab qo‘yilgan joyda. Ana, undan keyin – kulbang, uying – o‘lan-to‘shagingda, bu yerdan turib dam ishga yo‘l olasan, dam qaytib sukutga cho‘masan – o‘zingga xon, o‘zingga bek-san. Uydasan, demak, tug‘ilgan yerdasan.

Hech qayda u o‘zini o‘z uyida turganday his qilolmasdi. Yer desa – suv bosmagan joylarda o‘rmonlari kesilib, huvillab qolgan, qarovsiz, tashlandiq yerlar. Buning ustiga to‘ntarilib tushgan, abjag‘i chiqqan arava kabi iching ham abgor, parokanda. U yerda ham farog‘at yo‘q, bu yerda ham, shunday ekan, qancha urinma, o‘rtasida ham farog‘at bo‘lmagay.

– Ko‘chib ketayotgan mishsan, shu gap to‘g‘rimi? – deb so‘radi Afonya ishdan keyin birga garajdan chiqayotganlarida. Ivan Petrovich ariza beribdi, degan gap-so‘z tarqab ulgurgan edi.

– Ketyapman.

– Qayoqqa ketyapsan, nega?

– Don ekaman. Yer haydab, urug‘ sochishadi, undan keyin o‘rib olishadi. Esingdami, yegorovkada qanday edi?

– Topish-tutish nima bo‘ladi?

– Ozroq bo‘lsa kerak. Lekin endi menga ko‘p narsa kerakmas.

Afonya buni so‘ramagandi, Ivan Petrovich ham kutilgan javobni bermadi. Ha, so‘roq-javob boshqacha bo‘lishi kerak edi... Nihoyat, Afonya dedi:

– Sen ketsang, men ketsam – kim qoladi?

– Kimdir qoladi.

– «Kimdir»ing kim Ivan Petrovich? – go‘yo ingrab yuborganday bo‘lib so‘radi Afonya. – Eh!.. Nahot, shunday tashlab ketaversak, a?! Qipyalang‘och qilamiz-da, tashlab ketamiz! Olinglar, men to‘ydim, deymiz.

– Charchadim, Afonya. Jonimdan to‘ydim. Ko‘rib turibsan-ku, qo‘limdan hech narsa kelmadi.

– Yegorovka nima bo‘ladi?

– Nima yegorovka?

Shunda Afonya: u biz-da, biz-da, deb aytsa kerak, deb o‘yladi. Agar biz bu yerdan ketsak, go‘yo hech qachon yegorovka yer yuzida bo‘limganday, biz shu yerda ekanmiz, yegorovka hech qachon unutilmaydi, deb gap ochsa kerak, devdi. Chunki uning o‘zi ham shunday deb o‘ylardi. Ammo Afonya:

– Sen yegorovka turgan joyni suvdan topolasanmi? – dedi.

– Bilmadim. Yaxshilab qarasam, topsam kerak.

– Men shu yoz ichi o‘sha joyga bir belgi o‘rnatmoqchi bo‘lib yuribman. Mana shu yerda yegorovka bo‘lgan edi, yaxshi joy edi, ona Rossiyaga xizmat qildi, degan ma’noda.

– Qanday qilib qo‘ysan? Kim senga ruxsat beradi?

– Kim menga ruxsat bermaydi? Bunaqa gap yo‘q, Ivan Petrovich. Ruxsat bermaydi, deb eshitmaganman. Hech bo‘lgan emas bunday gap. Yerda-ki mumkin ekan, nega suvda mumkin emas?

Ivan Petrovichning hushi o‘ziga keldi:

– Bu hammasi o‘yinchoq. Yosh bolamisan sen o‘yinchoq o‘ynab? Kimga kerak bu?

– Eh, Ivan Petrovich, – qandaydir yengil tortib, shu bilan birga alamli kuldi Afonya. – Munday ko‘zingni ochib qara: atrofingda qancha o‘yinchoqlar bor... Meniki balki, ortiqchalik qilmas?

U o‘z ko‘chasiga kelgach, burilib ketdi.

## 17

O‘zi shunday bo‘ladi: o‘t bu yerga o‘tmasdani burun faqat Afonya ikkovlari zo‘r berishgandi, olov bu yoqqa ham o‘tuvdiki, boshqa odamlar ham yugurishib kelishdi. Oppoq bug‘ quyuq mavjlanib chiqayotgan oxirgi omborda odamlar xuddi qozonda qaynayotganday qaynashardi, un, yorma, qand solingan qoplarni aralash-quralash itqitishardi. Hamma o‘zini o‘t, jahannam ichiga urmoqchi bo‘lardi. Buning yomon joyi yo‘q, axir, boshqa bir nima emas, unni olib chiqishyapti, lekin qutqaruvchilar orasida mast-alastlar ham gandiraklashardi. Ulardan biri tamomila es-hushini yo‘qotib qo‘ygan edi, Ivan Petrovich uni naq olov ichidan tortib chiqardi. Bu o‘sha Ivan Petrovich

bilan birga tom ko‘chirishgan, yog‘ dumalatib chiqishgan yigit edi. Uni o‘t ichidan tortib oldi-yu yo‘l tomonga tushirib yubordi, mast un ustiga qulab xurrak torta boshladi. Boshqa bir ustidagi paxtaligi tutab ketayotgan arxarovchini kimdir ichkaridan xuddi qanddek uloqtirdi, u tik turmoqchi bo‘lib, qoplar ichida ag‘anarkan, Ivan Petrovich uning oyog‘iga yap-yangi piyma etik kiyib olganini ko‘rdi.

Qoplarni olovdan qutqarish uchun shundoq eshik oldiga olib chiqib tashlashardi. Ombordan ikki qadam berida ularni qutqarib qolish amri mahol edi. Tom bosib tushsa, hammasi olov ichida qolib ketadi. Ivan Petrovich ularni devor tomonga olib o‘ta boshladi. U endi qoplarni yelkasiga ko‘tarib o‘tirmas, ich-ichiga kirib ketgan qorniga bosib ko‘tarar va noqulay bir ahvolda chopib borib pastga tashlar edi. U yerda kimdir qoplarni tutib olar va yo‘l ustiga chiqarardi. Qopni mahkam ushlab, taqimiga bosib olishiga qaraganda, bu bir qo‘lli Saveliy edi.

Bir qo‘lli Saveliy yoshiga nisbatan juda sog‘lom, o‘zini yaxshi saqlagan, chapdast kishi. Bugun uning qo‘li ishdan bo‘samas, shoshilmay, chapdastlik bilan ishlar, qopni bir ushlaganda ombirdek mahkam tutardi.

Kimdir mastona tovush bilan Ivan Petrovichni chaqirardi. Ovozi chiqyaptimi, demak, tirik, demak, o‘t ichida qolmagan, shuning uchun Ivan Petrovich o‘girilib qaramasdi. Vaqt ziq edi.

Birdan negadir bilgisi keldi – kechami, kunduzmi hozir? Shuni bilish istagi o‘zini yerga tappa tashlab orom olish, nafasini rostlashdan ham kuchli chiqdi. U kun chiqadigan tog‘ tomonga qaradi, nazarida u yoqda qorong‘ulik nam tortganday, tong esa yaqinlashayotganday edi. Uning ko‘zlarini tinib, qattiq munkib ketdi va sal bo‘lmasa yiqilib tushay dedi.

Tavba: dam butun atrofga sukunat cho‘kadi va Ivan Petrovich shu jumjilik ichra yolg‘iz qoladi, dam yana shang‘illab, g‘ala-g‘ovur ovozlar keladi va odamlar har tomonda g‘ujg‘on o‘ynaydi. Shunda har bir qichqiriq uning biron yerini yirtib, tilkalab ketayotganday bo‘ladi – go‘yo ovoz uni mo‘ljalga olganday va so‘ng nishonga tegib, shu yerning o‘zida qolganday, shunda u endi bus-butun yonyotgan omborlarni, devorlar qulab, lang ochilib yotgan sayhonlarni va hovlining‘ o‘rtasidagi tartibsiz yugur-yugurlarni qaramayoq bir nigoh bilan ilg‘ab olardi.

O't chiqqan tuyulishda olov pastlab, qo'r olib yonardi. U yerda misoli bosqon bor edi, olov o'sha yerdan ikki keng yelkaga ajralib, kamondek yoylanib chiqar, yoyning ikki uchida alanga oralab xuddi shayindek chekka-chekkadagi omborlar ko'zga chalinardi. Magazin yaqinidagi ombordagi narsalarni odamlar chala-yarim tashib ulgurishgan edi, u tomondan yana Kozelsovning ovozi kelmoqda edi. Odamlar sakrab chiqishar, sakrab tushishar, chiqishar va tushishar, alanga taftidan chivindek ochishar edi.

To'polon solayotgan olov guvillamas, chiyillamas, uvillamas, faqat qarsillar, dahshatli suratda qarsillar, go'yo yog'ochdan alanga qarsillab ajralayotgan va o'zini ko'kka urib, osmon bag'rini yorib tashlayotganday edi.

Hovlida hamma baqirib-chaqirar edi.

Omborchi Valya Vodnikovdan komissiya tuzishni, hozirning o'zida barcha qutqarib qoltingan narsalarni ro'yxatga olishni talab qilardi. Boris Timofeevich ovozi xirillagancha yo'talardi:

– Qanaqa komissiya? Esingni yedingmi? Shu tobda komissiya-mi? Qarasang-chi mundoq atrofingga! – derdi.

– Yo'q, sen o'zing qara! – derdi Valya qo'llarini paxsa qilib ko'rsatarkan. – Nima qoldi bu yerda, o'zing ko'r! Yashiklarni o'zim sanagan edim, – u aroq shishalari solingan yashiklarni qo'li bilan nuqidi. – Oltmisht sakkiz yashik edi sanaganda. Qani o'sha oltmisht sak-kiz yashik?!

– Menga desa, yo'qolib, yo'q bo'lib ketsin yashiklaring! Kim ularni olib chiqdi o'zi? Men aytganim yo'q, olib chiqinglar deb! Qo'yaver yonaversin.

– Yo'q, yo'qoladigan bo'lsa, sening odamlaring yo'qolsin! Bu yashiklarning hammasi mening bo'ynimda!

Shundan keyin uning gardanidagi yana boshqa narsalar ham esiga tushdi-da, ingichkagina bo'yinni sirtmoqdek siqa boshladi va Valya omborchi o'kirib yig'lashga tushdi. U qo'lini yuzidan olganda, yonida Vodnikov yo'q edi, o'rnida Misha Xampo amaki sho'rlik xotinni ovutishni istabmi, nimalardir demoqchi bo'lardi.

– Buni qara, Misha amaki, buni qara, – o'ninchি marotabami, ko'z yoshlarini duv-duv to'kib derdi u va nimalarnidir tashirdi, unga bu arosat besaranjomlikda Xampo amaki yordamlashmoqqa urinardi.

Un omborida suron solib, baqirib, so'kina boshladilar – baqirish-masa, so'kishishmasa hech narsa qilib bo'lmas edi. Qoplarni tash-qariga olib chiqishar ekan, odamlar havo olish uchun ko'proq turib qola boshladilar. Ivan Petrovich hamon boyagi alpozda qop tashirdi. Endi oyoq-ko'llari bormi, yo'qmi, butunlay his qilmay qo'ydi, bu ol-ho ol, sur-ho surda yuragi ham qinidan chiqquday bo'lib otilmas edi. Ko'tar, tut, ag'dar – u faqat shularni bilardi, u shu uch odmi harakatni to'xtovsiz suratda takrorlar, nafas olishi ham ularga moslashgandi.

U qo'lidagi qopni eltid tashlarkan, bu chuvalashib ketgan bosh-boshdoqlik aro qandaydir boshqacha bir qing'irlilik ro'y berayotganini sezdi. Rost, bu nobakorlikni u avval his qildi, so'ng qaradi. Tag'in allakimning sharpasi boshboshdoqlik ichidan tashqari chiqib borar, u mo'rcha tomonga yo'l olar, yelkasida qop ortmoqlagan edi. Ivan Petrovich yo'lga tushdi. Sharpa qaytib kelarkan, yo'lda birov turganligini ko'rib taraddudlandi va qadamini tezlashtirdi. Saveliy o'zini yo'qotib qo'yadiganlar toifasidan emasdi.

– Nima qilyapsan sen? – qarshiladi uni Ivan Petrovich. – Ochar-chilikda qoldingmi?

– Ha, ko'rdingmi?

– Ko'rdim.

– Baloni ham ko'rganing yo'q. Sen ariza bergansan. Endi sen o'sha yozgan joyingga qara. Xo'pmi?

Shunday deb, o'zining bitta-yu bitta zildek qo'lini Ivan Petrovichning yelkasiga tashladi.

Nega biron kori-holdan ogoh qilishmoqchi bo'lsa, odamlar yelkaga urisharkin?

Ulgurishdi. Oxirgi ombordan hamma narsani olib chiqib ulgurishdi, keyin kuygan, qichqirgan va quturgan holicha hammalari gurra tashqariga yopirilishdi. Har doim vazmin va bosiq Afonya Broninkov hozir qiyqirib o'kirar, uning hammayog'i un, qorakuya, bo'g'riqqan, xuddi ta'rifi iblisning o'zi edi. Ivan Petrovich go'yo bu yerda qo'lini beliga tirab, bekor turganday ularga ajablanib, aybdordek baqirardi. Bo'shagan omchorxonaning ichida nimadir gum-burlab ketdi, undan keyin guvillab, uvillab olov yuqoriga ko'tarildi va shu bilan butun oziq-ovqat omborlari qatori bitta sarbaland olov-alangaga aylandi.

Kimdir kuyib, bo'g'riqqan ovoz bilan qo'shiq aytib yubordi:

*Taslim bo 'lmas dush-man-ga qah-ra-mon «Va-ryag»,  
Rahm-shafqat ista-mas hech kim-sa bu-gun!*

Bu olov do'zax ichida ko'p hangomalarni ko'rishga ulgurgan Misha Xampo amaki ko'zlarini uqalab-uqalab qaradi: ikki odam koptok o'ynardi. Titilib ketgan, bo'sh bog'langan bir o'ram narsa birining oyog'idan ikkinchisiga oshib o'tar va charx ura-ura yiqitilgan devor tomonga surilib borardi. Misha Xampo amaki anavini ko'ringlar demoqchi bo'ldi, lekii atrofida hech kim yo'q edi. O'ram bu orada devordan nariga gupillab tushdi, undan bir nima osilib chiqib qoldi. Xampo boshqa o'ylab o'tirmay o'yinchilarga tashlandi. Ulardan biri o'ramni ko'tarib, devordan oshirib yubordi va o'zi ham orqasidan sakradi. Misha amaki uning orqasidan tashlandi. Anov yerdan tugunni olaman deb, engashganda, Misha amaki unga yetib oldi, zabardast qo'li bilan yoqasidan tutdi-da, xuddi yosh boladay yerdan ko'tardi, xuddi shu asno u tugunga chiroyli matolar yelpig'ichdek taxlanganligiga ko'zi tushdi. Uni yerdan olish uchun engashgan kishi esa Sonya edi.

Xampo bularning kimligi-yu nimaligini endi ko'rib ulgurgan ham ediki, yon tomondan qattiq zarb tushdi. U qo'lini cho'zib Sonyani bo'ynidan qisib o'ziga mahkam tortdi. Sonya cho'chqaday chinqirib, o'zini har tomonga tashlab, Misha amakining bo'ksasiga tepmoqchi bo'lardi. Yana Misha amakini og'ir bir narsa bilan ikki-uch urdilar. Misha amaki kim urayotganini ko'rish uchun boshini cho'zar, lekin sira bo'yni cho'zilmas, faqat ishdan chiqqan, unga bo'ysunmaydigan qo'li bilan o'zini to'sishga harakat qilar edi. Uni chunonam urishar, urgandan urishar, urgandan urishar edi...

Keyin ularni Ivan Petrovich xuddi shu alpozda ko'rди: ag'dar-to'ntar bo'lib qorishib ketgan qor ustida oriq, yetti bukilgan Sonya va uni tagiga bosib olgancha boshi qayrilib ketgan Misha Xampo amaki yotar edi. Ulardan besh qadam narida esa to'qmoq ko'zga tashlanardi.

## 18

Hamma narsaning oxiri bo'ladi. Bu qo'rqinchli tun ham o'tdi, tong otdi, kun yorishib, olov ham pasaydi, qolgan-qutgan narsalarni horg'in yamlay boshladи. Nampardoz va iliq tongning og'ir, ach-

chiq tutuni tarqamay, qishloqni burkab oldi. Qirg‘oqda ham, muz ustida ham tutayotgan, yonayotgan narsalarning parchalari qorayib ko‘zga chalinar, alchiq-chalchig‘i chiqib ketgan uvrinto‘da hovli ikki tomonidan tutab yotgan yong‘in kultepalari bilan o‘ralgancha haddan tashqari vahimali va xarob ko‘rinar edi. Yong‘indan omon qolgan ko‘m-ko‘k do‘koncha ham odamga tasalli bermas, aksincha, o‘zining shu ajralib qolgan ko‘rinishi bilan alam, og‘riq va isitma qo‘zg‘atardi.

Juda ham katta, yap-yangi brezent ostida ORSning omon qolgan mol-dunyosi yotardi. Shu paytgacha bir-biridan ajratilmagan Misha Xampo amaki va Sonyaning jasadlari ham shu brezent tagida edi. Brezentning u tomonida ham, bu tomonida ham soqchilar turishar, hech kimni yaqin yo‘latishmas va savollarga ham javob berishmasdi.

Militsioner va tergovchini kutishardi. Bir emas, ikki emas, uchto‘rt komissiya kelishini kutishardi, endi ularning keti uzilmaydi... O‘z boshliqlari va undan ham yuqori turadiganlarni kutishardi. Ish soati boshlanishi bilanoq barcha kerakli joylarga telegrammalar jo‘natilgan edi. Xech kim ishga chiqmagan. Garaj ham, ko‘chalar ham jimjit, quyi ombordan ham tiq etgan tovush eshitilmasdi. Faqat kutardilar.

Buyog‘i endi nima bo‘ladi – ana shuni kutardilar.

Ivan Petrovich yong‘indan qaytib kelib yotmadni. U uyga kelganda, pech yoqilgandi, Alyona bombardimon tagida qolsa ham, unga qarashni unutmasdi, apil-tapil dasturxon tuzab ham ulgurgandi. Dasturxon ustida Alyona alam bilan achchiq-achchiq yig‘ladi va o‘zini karavotga otdi.

Ivan Petrovich o‘tirib-o‘tirib tomog‘idan ovqat o‘tmadi, keyin boshqa kiyimlarini kiydi-da, derazaga qarab, qirg‘oq tomondan tutun tarqayotganligini ko‘rdi, tashqariga yurdi. Afonya uxbab qolmagan bo‘lsin-da, ishqilib, deya unikiga yo‘l oldi. Afonya ham uxlamagan ekan. Qizi uning manglayi va dahanida qon talashib qotib qolgan jahotlarni nima bilandir yuvar va dori surtardi. Qizi qo‘lini olganda, u kattakon temir krujkadan choy ho‘plardi.

Ivan Petrovich:

– Nima qildik endi, Afanasiy? Nima qilish kerakligini sen bila-sammi, yo‘qmi? – deb so‘radi.

– Yashab ko‘raylik, – yaralari bezovta qilibmi yohud dili notinch bo‘libmi, og‘ir so‘zlatdi Afonya. – Yorug‘ dunyoda yashash – og‘ir hunar ekan, Ivan Petrovich, lekin baribir... Baribir yashash kerak.

Keyin choy ho‘plarkan, o‘z navbatida so‘radi:

– Sen nima qarorga kelding?

– Ko‘raylik yashab, – o‘sha so‘zlarning o‘zini faqat o‘rnini almashtirib javob qildi Ivan Petrovich.

## 19

Tungi falokatdan yer ham azob chekkanday, qayg‘urganday xomush, qimtingan, sukutga cho‘mgancha so‘lg‘in yumshoq qorga belanib yotardi. U tog‘ tomondagi yaydoq dalalardan pastga enib kelar, siyrak qarag‘ayzor ortida esa muzga tutashib ketardi. Tog‘ yoqasi o‘rmon edi, undan narida dalalarga qarab ikki qoramtil sayhonlik qo‘shilgan, Ivan Petrovich qishloqdan borayotgan tarafda, oldinda o‘rmon qorayib ko‘rinar, lekin u yerda daraxtlar siyrak, yakkam-duk-kam, ulardan narida esa ko‘rfaz boshlanar edi. Birinchi sayhon etagi-da yo‘ldan sal ichkariroqda qabriston bor edi. Kuni kecha azob cheka-cheka bu yorug‘ dunyodan o‘tgan bechora, hatto o‘z nomini ham yo‘qotgan yegorovka farzandini shu yerga qo‘yadilar. Ular, tiriklar, kimni qayerga ko‘mishni biladilar, lekin yerning o‘zi, haq-u nohaqliklarni, gona-begonalarni ko‘tarib yuradigan yerning o‘zi hal qiladi, kimdan nima chiqishini o‘z hukmi bilan yechadi.

Atrof-tevarak xuddi nafas rostlaganday va yangi harakat uchun kuch yig‘ayotganday jimjit edi. Qishloqdan bu yerga tutun yetib kelmas, bo‘z yorug‘lik ichra uzoq-uzoqlar ham tiniq‘ ko‘rinardi. Baayni erib borayotgan dalalar kabi xira oqish tusga kirgan, og‘irlashib ketgan osmon Angara tomonlarga, kunbotar yoqqa olis enib borardi. U yoqlarda ham o‘rmon qorayib ko‘rinar, u yoqlarda ham siyrak edi.

Ilk haroratni sezib va unga tomon bo‘y cho‘zib sohilda qarag‘ay nihollari sokin sollanar, havoda achimsiq bo‘y taralar, oyoq ostidagi qorlar yumshoq, g‘o‘rt-g‘o‘rt qilgancha cho‘kar, olisda daryo yuzi ochilib borar edi. Ko‘klam bu yerlarni ham axtarib topib kelgan – yer uyg‘onmoqda edi. Endi uning chaqiriq, hisob qiladigan payti, nima omon qoldi-yu, nima omonatini topshirdi, odamlardan nima qo‘shildi-yu, nima qo‘shilmadi, barcha omon qolgan va omon saqlanganlarni bir joyga to‘plab ularga jon ato etib, yana yorug‘likka

olib chiqishga hozirlaydi. Quyosh iliydi-yu va yana xuddi har baho  
chog‘idagidek yer yuzidagi ko‘m-ko‘k bog‘ini ne-ne chechak-  
larga burkab, butun tirik jonne ahdashilgan mehnat-u zahmat sari  
yo‘llaydi. Shunda odam o‘sha ahdlar yo‘lini tutmayotganligini esla-  
maydi ham.

Hech bir yer besamar, nasl-u nasabsiz emas.

Ivan Petrovich posyolkadan uzoqlashgani sayin, nazarida, peshonasiga yozilgan yolg‘izlik sari bota-bota tobora o‘z-o‘zidan olisla-shib borardi. Yonida shu tobda odamlardan hech kim bo‘lmajanligi uchungina o‘zini yolg‘iz sezayotgani yo‘q edi, nazarida bittagina tor bilan qolgan, o‘zini huwillagan va bo‘m-bo‘sh his qilar, shuning uchun ham yolg‘izlik asorati sezilardi. Bu rozi-rizolikmidi va yoki horg‘inlik, andak mahliyolikmi va yoki boshlamoqning ibtidosi – kim bilsin! – biroq yengil, ozod va bir maromda qadam tashlar, go‘yo tasodifan u o‘z nafasini ham, qadamini ham topib olgan va go‘yo niho-yat haq yo‘lga tushgan edi. Mum isi anqir, lekin bu hidni odam emas, boshqa bir allanarsa, mum ruhi bilan jamuljam bo‘lib ketgan narsa tuyar edi; quruq og‘ochni qizilishton to‘qillatar, lekin bu qizilish-ton ovozi emas, nimadandir minnatdor va shoshqin jo‘r bo‘layotgan yurakning aks sadosi edi. U go‘yo o‘zini uzoq-uzoqlardan ko‘rib turardi: ko‘klam kelgan yerlardan o‘z uyini topishdan umidini uzgan, adashgan kichkina bir inson yurib bormoqda, u mana hozir o‘rmon ortiga o‘tadi-yu, shu bilan mutlaq ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi.

Uni kutib olayotibdimi, kuzatib qo‘yayotibdimi – bu noayon, zamin jimjit, bezabon.

Zamin jim.

Aylanayin, ey indamasim, axir, qachongacha so‘ylamay turasan?  
Axir, nahot, shu so‘ylamaganingmi?

*Ibrohim G‘afurov tarjimasi*



Adabiyotda vijdon sadosi degan ko'tarinki bir ibora bor. Bunday shoirona iboralar biron muayyan hodisa bilan bog'langanda, o'sha hodisaning mohiyatini ifodalaganda, ular birdan mavhum ko'tarinki tusini yo'qotib, xuddi moddiy narsaga aylanganday bo'ladi. So'z o'z haqqoniyati barobarida juda yuksak narsalar bilan to'qnashganda, to'g'rirog'i, duch kelganda, ular mana shunday favqulodda moddiylashadi.

Ilgari Valentin Rasputinning jahonga mashhur bo'lib ketgan va keyinchalik yuksak mukofotlarga sazovor bo'lgan asarlarini va ayniqsa, «Yasha va yod et» asarini o'qiganimda, ular ichidan allaqanday juda kuchli hayqiriq kelganday va shu hayqiriq hech tinmay odamning qulog'i ostida yangrab turganday bo'lgan edi. Xatomi, xato emasmi, o'ylardimki, mabodo, Betxovenning barcha daho simfoniyalarini bir ohangga jam qilib berishning iloji bo'lsa, ehtimol, o'sha ohang Rasputin asarlaridan chiqadigan shu hayqiriqqa o'xshagan bo'larmidi? Bu hayqiriq nimadan va nima ekanligini adibning 1985 yilda «Nash sovremennik» jurnalining 7-sonida bosilgan «Yong'in» qissasini o'qigach, bildim. Qandaydir shunday bo'lib qoldiki, bu asarni Yevtushenkoning «Fuku», Yesinning «Imitator», Voznesenskiyning «Ruh me'morlari» asarlari bilan bir vaqtida, oldinma-keyin o'qishga tuyassar bo'ldim. Bu asarlarning hammasidan yana o'sha tanish, lekin hali nomi topilmagan sado kelardi. Odam bir joyda o'tirolmasdi, odam bir joyda turolmasdi. Odam bezovta bo'lib yurak qopqalarini yorib tashlagisi kelardi. Men yana Mixail Bulgakovning «Usta va Margarita» romanini o'qiganimda ham shu ahvolga tushgan edim. Nima ekan bu? «Yong'in»ni o'qirkaman, bu sizga qanchalar odmi eshitilmasan, vijdon sadosi bu, deb o'yladim. O'sha tinmay chalinayotgan jom ovozi – jom ovozi emas, vijdon sadosi edi. Inson qadri uchun yig'lagan, inson qadri uchun qayg'urgan, inson qadri uchun o'zini o'tga-cho'qqa urgan, kurashgan, hayqirgan sado shu edi.

Rasputin xuddi Aytmatov kabi har bir mehnatkash, oddiy insonga misoli bir butun davlat kabi qaraydi. Inson deb atalgan davlatning barcha qudratli va zaif tomonlarini yashirmay, oshkora yozadi. Achchiq, haddan tashqari keskin, ammo rost so'zlarni yozishdan o'zini

tiymaydi. U vijdonyilikni inson davlatini davlat qilib, ustuvor etib turgan oliy ma'naviy hodisa kabi qaraydi.

Gorkiyning «Ona» romani tarix sahnasida paydo bo‘lganda, u inqilob, ishchilar ongini uyg‘otishga xizmat qilgan edi. «Yong‘in» ham shunday tarixiy parallelda turadi. U o‘z qudratli ovozi bilan davrimizning eng dolzarb masalasiga – inson ongi va ma’naviyatini qayta qurishga chin jangchi kabi o‘z hissasini qo‘sadi va qo‘shmoqda. Xech mubolag‘asiz aytish mumkinki, hozir shunday o‘nta asar juda oz vaqt ichida yuz yilning ishini qiladi. Men bu asarni qiyinchilik bilan tarjima qildim. Chunki qalam va usul bunday o‘ta qurch so‘zlarga, qurch fikrlashga o‘rganmagan edi. Ikki yil o‘tib, yana tarjimaga qaytdim. Ko‘zimga 1986-yil tarjimasidagi ancha ojizliklar endi baralla tashlandi. Ularni 1988-yilning seryomg‘ir bahorida tuzatishga o‘tirdim. Ivan Petrovichning dardli dunyosini men yana qayta boshdan kechirganday bo‘ldim. Qalam hozir yetolmagan o‘rinlarni xayol bilan qildim. Qolgani endi, sizga havola, komil kitobxon!

*Ibrohim G‘afurov  
1986–1988, aprel.*



## MARIYAGA PUL KERAK

*Qissa*

Yarim tunda Kuzma cho'chib uyg'ondi. Uy ichi yop-yorug'. Bu muyulishga yetgan yuk mashinasining old chirog'idan taralayotgan nur edi.

Yorug'lik to'lqinlanib xona shiftiga yoyildi, keyin devor bo'ylab pastga indi-da, o'ng tomonga o'tib so'ndi. Dam o'tmay mashina ovozi ham eshitilmay qoldi. Yana borliqqa sukunat, zulmat cho'kdi va yarim kechasi bu hol go'yo sirli bir hodisadan darak berayotgandek tuyular edi.

Kuzmaning uyqusi qochdi, deraza yonidagi kursiga kelib o'tirdi. Derazaga qaragancha tortib-tortib chekdi, go'yo o'zi ham kimadir ishora qilayotgandek. Deraza oynasida so'nggi kunlarda qattiq toliq-qan, salqigan yuzi bir zum aks etib turdi-yu g'oyib bo'ldi – o'mini yana cheksiz zulmat egalladi, sas-sadosiz zulmat. Yilt etgan shu'la ko'rinnmasdi. Kuzmani xayol eliti: ertalablarga borib qor yog'sa kerak, ha, yog'ishi aniq – Xudoning bir inoyatidek.

U o'rniga kelib yotdi. Bir vaqt ko'zi ilinibdi. Tush ko'ribdi: Kuzma o'sha – hali o'zini uyg'otib yuborgan mashinada ketayotgan emish. Uning chiroqlari o'chiq bo'lsa-da, qorong'ida bemalol yurarmish. Keyin birdan chiroqlar porlab yonibdi-yu mashina kelib to'xtagan joydag'i uyni yoritib yuboribdi. Kuzma mashinadan tushib, uyning derazasini chertibdi.

- Nima deysiz? – degan ovoz kelibdi ichkaridan.
- Mariyaga pul kerak bo'lib qoldi, – debdi Kuzma.

Pul olib chiqib berishibdi va mashina yana zulmat apo sho'ng'ib ketibdi. Bu mashinaning shunday bir qurilmasi bormishki, yo'lda kimdan pul olish mumkin bo'lsa, o'shaning uyiga yaqinlashganda u o'z-o'zidan ishlab ketib chiroqlari yonar emish. Kuzma boz deraza taqillatar, boz o'sha savol-javob takrorlanar emish:

– Nima deysiz?

– Mariyaga pul kerak bo‘lib qoldi.

Kuzma tag‘in uyg‘onib ketdi. .

Atrof qop-qorong‘i, tong otishiga hali ancha bor. Shunday bir zulmat, sukunat hukmronki, odamni beixtiyor xavotir bosadi, go‘yo noxush bir voqea sodir bo‘lib, quyosh ham o‘z vaqt-soatida chiqmaydi – olam yorishmaydi.

Kuzma xayol surib yotibdi, qani endi uyqu kelsa! Qayerlarda dir olisda banogoh reaktiv samolyot chiyillab o‘tadi-yu yana borliq jimjit bo‘lib qoladi. Ammo endi bu sukunat omonatdek, go‘yo mana hoziroq mudhish bir hodisa ro‘y beradigandek tuyuladi. Ko‘ngilda tushuniksiz xavotir uyg‘onadi va bu his odamni tark eta qolmaydi.

Kuzma hamon shaharga borsammi-yo‘qmi, deya ikkilanardi. Buni kecha ham, o‘tgan kun ham o‘ylagan, ammo aniq bir qarorga kelolmagan. Nazarida, o‘ylab olishiga hali vaqt bordek edi. Endi esa bosh qotirib o‘tirishga fursat qolmagan, agar ertalab yo‘lga chiqmasa, keyin kech bo‘lishi mumkin. Tezroq bir to‘xtamga kelishi kerak. Boradi – tamom-vassalom. Qishloqda pul so‘rash mumkin bo‘lgan odamning o‘zi qolmadi. Xullas, erta tongda tura solib avtobus bektiga chopadi. U ko‘zlarini yumdi – endi uxlasa bo‘lar. Uxlash kerak, uxpath... Ayni damda miyasida aylanaverib hol-joniga qo‘ymayotgan o‘y-xayollarni quvib, Kuzma qotib-qotib uxlamoqni xohlar edi. Ammo buning uddasidan chiqolmayapti. Xuddi gulxan yonida yotgan odamga o‘xshaydi: bir yonini bosib yotsa, boshqa tomonidan sovuq uradi. Kuzma uxbab-uxlayolmaydi, xayoli yana boyagi mashinaga ketadi. Hozir ko‘zlarini ochsa, uyqusi butunlay o‘chib ketishini biladi. Boshqa yoniga o‘girilib yotadi, hali tong yorishishini anchamuncha kutishga to‘g‘ri keladi, shekilli.

G‘ira-shira tong otdi. Kuzma derazadan qaradi: qordan darak yo‘q, ammo havoning avzoyi buzuq, hademay yog‘ib ketishi hech gap emas. Quyosh ham allanechuk xira, xuddi mashaqqat bilan bazo‘r nur taratayotgandek. Deraza tagidan bir it boshini solintirib o‘tib, muyulishdagi ko‘chaga kirib ketdi. Odam zoti ko‘rinmaydi. Shimol tomonidan ko‘tarilgan shamol kuch bilan kelib uy devoriga uriladi. Bu hol dam-badam takrorlanadi.

Kuzma oshxonaga kirib, o‘choqboshida kuymanayotgan Mariyaga:

- Ketyapman, yo‘lga ul-bul berasanmi? – dedi.
- Shahargami? – deya birdan hushyor tortdi Mariya.
- Shaharga.

Mariya qo‘lini peshbandiga artib, pech yonidagi kursiga o‘tirdi, yuziga urilayotgan olov taftidan ko‘zlar qisilib:

- Akangdan pul chiqmas-ov, – dedi.
- Andreyning uy manzili kerak menga, xati bor edi, qayerda edi-ya, esingda yo‘qmi? – deb so‘radi Kuzma uning gapiga e‘tibor qilmay.
- Mehmonxonadami, biron yerda yotgandir, agar yo‘qolib ketmagan bo‘lsa.

Bolalar hali u xlabelotgan edi. Kuzma xatjildni topgach, oshxonaga qaytib kirdi.

- Topdingmi?
- Topdim.
- Bermaydi u, – dedi Mariya yana.

Kuzma o‘tirib, indamaygina nonushta qila boshladi. Akasi pul beradimi, yo‘qmi, o‘zi ham bilmaydi – bunisi noma’lum. Oshxona juda issib ketdi. Kuzma oyog‘iga suykalayotgan mushukni tepib yubordi.

– Qaytib kelasanmi, ishqilib? – deb so‘radi Mariya birozdan so‘ng.

Kuzma oldidagi likopni nari surib qo‘ydi-da, yana xayolga toldi. Mushuk burchakda hurpaygancha tirnoqlarini «tozalab» o‘tirardi, keyin kelib yana Kuzmaning oyog‘iga yopishdi. Kuzma ketar oldidan nima deyishni bilmay, eshik tomon yurdi.

Dahlizda turib kiyinarkan, Mariyaning piqillayotganini eshitdi. Avtobus barvaqt ketadi – ulgurishi kerak. Mariya esa, mayli, yig‘layversin, ko‘ngli sal-pal yoziladi.

Shamol borgan sari avjiga chiqadi – tevarak-atrofni to‘zg‘itib guvullaydi.

Avtobusning old tomonidan urilayotgan shamol oyna tirqishlari dan ichkariga kirmoqda. Mashina burilgach, shamol yon tomondan esa boshladi. U yerdan ko‘tarilgan chang aralash xas-cho‘p, xazonni oynaga olib kelib urardi. Havo juda sovuq. Bu shamol qor-bo‘ron boshlab keladiganga o‘xshaydi, qish ham yaqin – oktabr oyining adog‘i bo‘lsa.

Kuzma eng oxirgi o'rindiqning deraza tomonidan joy olgan. Avtobusda odam kam, oldinroqda ham bo'sh joylar ko'p, ammo endi u turib boshqa yoqqa o'tib o'tirishga erinadi. Boshini yelkasi ichiga tortib, qovoqlarini uygancha derazadan tashqariga tikilib ketylir: oyna ortidan olis-olislar ko'zga tashlanadi, bir xil manzara – o'rmonlarda ham, dalalar, qishloqlarda ham shamol, to's-to'polon.

Avtobus ichi jimjit – aftidan, ob-havo odamlarga ham ta'sir etgan, ular qandaydir horg'in ko'rindi. Gaplashishsa ham so'zlariga tu-shunib bo'lmaydi – allaqanday uzuq-yuluq eshitiladi. Bunday vaqtida hatto xayol surish ham malol keladi. Hamma oldidagi o'rindiqning suyanchig'ini changallagancha mum tishlab o'tiribdi. Avtobus har silkinganda yo'lovchilar o'rindiqqa yanada mahkamroq o'nashib oladi, go'yoki shunday ketayotganining o'ziga shukur qilayotgandek.

Guvullayotgan tovush shamoldanmi yoki motor ovozimi, ajratib bo'lmasdi. Avtobus do'nglikka ko'tarilganda Kuzma buni aniqlashga urinib ko'rdi, ammo farqlay olmadi, yakkash bir xil guvullah eshitilar edi. Balandlikdan engach, qishloq boshlandi. Avtobus kolxoz idorasi yoniga kelib to'xtadi, bu yerdan birorta ham yo'lovchi chiqmadi. Kuzma atrofga alanglatdi – tirik jon yo'q, uzun bo'm-bo'sh ko'cha uzra faqat shamol uvullaydi, xolos.

Avtobus yana yo'lga tushdi. Haydovchi yigit yelkasi osha yo'lovchilarga bir qarab qo'yib, cho'ntagini kavlashtirdi. Kuzmaning ko'ngli yorishib ketdi: shu paytgacha tamaki chekish xayoliga ham kelmabdi-ya. Birozdan keyin avtobus ichi ko'kish tutunga to'ldi.

Navbatdagi qishloqqa yetgach, mashina oshxonada yonida to'xtadi.

– Biroz dam olvolaylik endi, – dedi haydovchi. – Nonushta qilmaganlar bo'lsa, yuringlar, hali yo'l uzoq.

Kuzmaning qorni och emas edi, oyog'ining chigilini yozish uchungina avtobusdan tushdi. Oshxona yonida xuddi o'zlarining qishlog'idagi kabi do'kon bor ekan. Kuzma zinadan chiqib eshikni ochdi, aynan Mariyaning do'koniga o'xhash: bir tomonda – oziq-ovqat, boshqa yoqda – sanoat mollari. Peshtaxta yonida turgan uch ayol bir nimalarni valaqlashyapti, sotuvchi xotin esa qo'llarini quvushtirib erinibgina ularning gapiga qulqutgan. U Mariyadan ancha yosh, hech bir tashvishi yo'q, shekilli, xotirjam ko'rindi.

Kuzma pechka yoniga borib, qo'llarini issiqqa tutdi. Haydovchi oshxonadan chiqsa, bu yerdan bemalol ko'rinar ekan. Shamol deraza

qanotlarini taraqlatib ochib-yopdi, ayollar o‘girilib Kuzmaga qaradi. U sotuvchi xotinning oldiga borib, bizning qishloqda ham mana shunday do‘kon bor, unda bir yarim yildan buyon mening Mariyam savdo qiladi degisi kelardi negadir. Ammo joyidan jilmadi. Shamol yana derazaga kelib urildi, ayollar yana o‘girilib Kuzmaga qaradi.

Shamol bugun ertalabdan boshlanganini Kuzma bilardi, negaki, kechasi uyg‘onganida atrof suv quygandek sokin edi. Lekin nazarida bu to‘s-to‘polon necha kunlardan buyon tinmayotgandek edi.

Besh kunlar avval qirq yoshlardagi yoki undan sal oshgan bir odam kelgan edi. Ko‘rinishidan na qishloqi deysiz, na shaharlik – egnida oqishplash, oyog‘ida kirza etik, boshida kepka. O‘sha kuni Mariya uyda emas edi. U odam taftishchi ekan, hisob-kitob qilgani kelibdi. Ertaga do‘kon ochilmasin, deb tayinlab ketdi.

Shunday qilib, ertasi kundan do‘konda hisob-kitob ishlari boshlandi. Kuzma tushlik chog‘i do‘konga kelsa – hammayoq ostin-ustin bo‘lib yotibdi. Bor shisha idishlar, qutilar va bog‘lamlar peshtaxta ustiga chiqarilgan, Mariya bilan taftishchi ularni qayta-qayta sanamoqda. Ombordan katta tarozini ham olib chiqishibdi, shakar, tuz, yorma mahsulotlari solingen qoplarni ham tortib ko‘rishayotir. Yog‘ o‘ralgan qog‘ozlardagi qoldiqlarni sidirishdi, shisha idishlarni u burchakdan bunisiga tashishdi, qutilar tagiga yopishgan konfetlarni ham ko‘chirib olishdi. Taftishchining qulog‘iga qalam qistirilgan, u shisha idish va qutilar uyumi orasida chaqqon harakat qilar, qarab-qaramay ovoz chiqarib ularni sanar, tez-tez cho‘t qoqar, qandaydir raqamlarni aytib, yozib qo‘yish uchun abjirlik bilan qalamini qo‘liga olar edi. Uning o‘z ishining ustasi ekani shundoqqina ko‘rinib turardi.

Birinchi kuni Mariya uyga juda kech – charchab, holdan toyib kirib keldi.

– Xo‘sh, ishlar qalay? – deya sekingina so‘radi Kuzma.

– Hozircha bir narsa deyish qiyin. Ertaga sanoat mollarini tekshiradi. Shundan keyin ma’lum bo‘ladi.

Uning ko‘ngliga hozir qil ham sig‘masdi, to‘polon qilayotgan bolalariga bir baqirdi-yu yotoqqa kirib o‘ringa cho‘zildi. Kuzma tashqariga chiqdi, kimdir cho‘chqa go‘shti qovuryapti chog‘i, ishtahani qitiqlovchi yoqimli hid atrofni tutib ketibdi. Hosil yig‘ibterib olingan, kartoshka kavlangan, endi hamma bayramni kutyapti, qishga hozirlilik ko‘ryapti. Xullas, ishlar qizg‘in palla ortda qolgan,

hozir ikki mavsum o'rtasi, ayni mehnatkashlar dam oladigan, u yoq-bu yog'ini ko'radigan, rejalar tuzadigan davr. Hozircha hech gap yo'g'-u, biron haftalarda o'yin-kulgiga ham gal keladi. Ana o'shanda odamlar eski-yu yangi, hamma bayramlarni nishonlaydi, bir-birinikiga mehmonga boradi, dasturxon atrofida o'tirib kechagi xafagarchiliklarni unutadi, urush voqealarini eslashadi, baqir-chاقир, kuy-qo'shiq avjiga chiqadi.

Kuzma qaytib uyg'a kirdi. Bolalarga bo'ldi, endi uxlangler, deb, o'zi ham o'rniqa yotdi. Mariya uxbab qolibdi, uning hatto nafas ola-yotgani ham sezilmasdi. Kuzmaning ham endi ko'zi ilingan ekan, bolalar xonasidan eshitilgan shovqindan uyg'onib ketdi. Turib ularni tinchlantirdi. Atrof yana suv quygandek tinchidi-qoldi: tashqarida kimgadir akillayotgan itlarning ham ovozi o'chdi.

Ertalab Kuzma uyg'onganida Mariya allaqachon do'konga ketgan ekan. Nonushta qilib, ikkinchi brigadaga bordi, kuni bilan shu yerda bo'ldi – rais unga sabzavot omborini ko'zdan kechirishni, ta'mir uchun nimalar kerakligini aniqlashni topshirgan edi. Ish bilan ovora bo'lib taftishni ham unutibdi, uyiga yaqinlashgandagina esiga tushdi. Katta o'g'li Vitka eshik tagida o'tirgan ekan, otasini ko'riboq ichkariga qarab chopdi. «Nima bo'ldi ekan?» degan xavotir Kuzmani ham shoshiltirib qo'ydi.

Uni kutishayotgan ekan. Mariyaning ko'zlarini yig'idan qizarib ketgan. Eshik yonidagi kursida o'tirgan taftishchi parishonlik bilan Kuzmaga qo'l uzatdi. To'rtala bola uzun-qisqa bo'lib pech yonida tizilishib turardi. Tushunarli. Kuzma bir og'iz ham gapirmay loyga botgan etigini yechdi. Shippagini kiyib chiqish uchun oyoqyalang ichkari xonaga o'tdi, topolmadi, chiqib eshik oldidan qidirdi – bu yerda ham yo'q.

– Shippagim qani? – deb so'radi bolalardan.

Mariya ortiq toqat qilolmadi, ho'nragancha yugurib ichkariga kirib ketdi. Kuzma uni befarqroq bir nigoh bilan kuzatib qolarkan, keyin birdan bolalariga o'shqirdi:

– Shippak topiladimi o'zi bugun?

Bolalar xuddi bog'lab qo'yilgandek bir-biriga qapishib xona burchaklari, karavot taglaridan shippak qidirib, xonama-xona pildirab yurar edi. Buni ko'rgan Kuzma battar kalovlanar, nima qilish, nima deyishga hayron edi.

Nihoyat, shippak topildi. Kuzma uni oyog'iga ilib, Mariyaning yoniga kirdi. U kaftlari bilan yuzini to'sib olib, hiqillab yotardi. Uni qo'lidan tortib o'ziga qaratdi:

- Qancha? – deb so'radi.
- Ming.
- Nima – yangi puldamni?

Mariya indamadi. Devor tomon o'girilib oldi, yuzini changallab yana ho'ngrashga tushdi. Uning silkinayotgan yelkalariga boqarkan, Kuzma bir muddat nima bo'layotganini – bu qanchalik kutilmagan, dahshatli hodisa ekanini angelayolmay turib qoldi. Birdan uyqudan uyg'ongandek, taftishchi esiga tushdi. Uning yoniga chiqdi, stolga taklif qildi. Taftishchi ham itoat bilan kelib o'tirdi. Kuzma tamakisini olib, shosha-pisha cheka boshladgi. Qanday bo'lmasin, o'zini qo'lga olishi kerak. U tamakini xuddi suv ichayotgandek yutoqib-yutoqib tortardi. Bolalar xonasidagi radio birdan shang'llab ketdi. Kuzma cho'chib tushdi:

- O'chir ovozini! – deb baqirdi.

Bolalar past-balанд bo'lib, safini buzmay o'sha xona tomon yurishdi, saldan keyin radio ovozi o'chdi. Kuzma boshini ko'targa-nida ular yana pechka yonida tizilishib, har qanday buyrug'ingizni bajarishga shaymiz degandek, unga javdirab turar edi. Birdan jahl o'mini rahm-shafqat egalladi. Kuzma ularga achinib ketdi. Axir, bolalarda nima ayb? U taftishchiga qaradi:

- Senga ochig'ini aytib qo'ya qolay – biz u yerdan ushoqdek ham narsa olganimiz yo'q. Atay bolalarimning oldida aytayapman, bor gap shu. Ko'rib turibsan, ro'zg'orimiz bir navi, ammo shunga qanoat qilamiz, ortig'i kerak emas bizga.

Taftishchi uning gaplarini jimgina o'tirib eshitdi.

- Ayt-chi menga, qanday qilib shuncha kamomad chiqadi, axir? Ming deysanmi?

- Ha, ming, – deya tasdiqladi taftishchi.
- Yangi puldamni?
- Eski pul qoptimi hozir?

- Axir, bunga aql bovar qilmaydi-ku, – dedi Kuzma o'ychan bir qiyofada. – Umrim bino bo'lib shuncha pulni qo'lim bilan ushlab ham ko'rmaganman. Imorat solayotganimizda kolxozdan yetti yuz rubl qarz olgan edik. Shu ham allambalo ko'ringan bizga – haligacha

uzolmaymiz. Endi bo'lsa ming rubl! To'g'ri, odam adashishi mumkin, o'ttiz, qirq, xo'p ana, deylik, yuz rublga ham, ammo qanday qilib ming bo'ladi? Menga qara, sen bu sohada eski odamsan, shekilli, nega bunday bo'ldi ekan-a, nima deysan?

– Bilmasam, – deya bosh chayqab qo'ydi taftishchi.

– Balki selpodagilar pand bergandir?

– Bilmadim. Bo'lishi mumkin. Xotiningning ma'lumoti ham halidayekan.

– E, ma'lumot qayda – xat-savodi bor, xolos! Bundaylar maoshini sanayolsa ham katta gap, davlatnikini hisob-kitob qilmoqqa yo'l bo'lsin! Men unga necha marta aytdim, bilmagan ishingga burningni suqma deb. Boshqa odam topilmagach – bir balo qilib ko'ndirishdi-da uni. Hammasi maromida ketayotgandek edi-ya...

– Mol olib kelgani doim o'zi borarmidi? – deb so'radi taftishchi.

– Yo'q. Tumanga ketayotgan birortasidan buyurtma bervorardi.

– Chatoq, chatoq. Bunday qilib bo'lmaydi.

– Ha, ana shu-da...

– Buning ustiga deng, bir yil mobaynida do'kon biron marta ham taftish qilinmagan.

Ikkalasi ham jim bo'lib qoldi. Yotoq bo'lmadan Mariyaning yig'isi eshitilardi. Qayerdandir qo'shiq, shovqin sasi bir keldi-yu, yana tinchidi-qoldi. Sukunatni Mariyaning hiqillashigina buzib turar, bu tovush go'yo butun dunyoni larzaga solayotgandek baralla eshitilar edi.

– Endi nima bo'ladi? – dedi Kuzma. Uning gap ohangidan buni taftishchidan so'rayaptimi yoki o'ziga o'zi aptyaptimi, bilib bo'lmasdi.

Taftishchi bolalarga qarab qo'ydi.

– Xonangizga kiringlar, tez! – dedi do'q urib Kuzma. Bolalar pildiragancha ichkari kirib ketishdi.

– Men ertaga ketaman, – deya gap boshladi taftishchi sekin Kuzma tomon surilib. – Yana ikkita do'konni tekshirishim kerak. Bu taxminan besh kunlik ish. Besh kundan keyin... – U chaynalib qoldi. – Xullas, shu vaqt ichida pulni to'lasangiz... Gapimni tushunyapsiz-a?

– Nimasini tushunmayman, – dedi Kuzma.

– Ko'rib turibman, bolalaringiz hali yosh ekan, – dedi taftishchi. – Harakatingizni qilmasangiz, xotiningiz qamalib ketadi-da...

Kuzma unga qarab asabiy, ayanchli jilmaydi.

– Aytib qo'yay, hech kim bilmisin. Aslida bunday qilishga haq-qim yo'q. O'zimni tahlikaga qo'yib qilyapman bu ishni.

– Bilib turibman, bilib turibman.

– Pul toping, ishni bosti-bosti qilishga urinib ko'ramiz.

– Ming rublni-da, – dedi Kuzma.

– Ha.

– Tushunarli, ming rubl, bir ming. Pulni topamiz. Mariya qamal-masligi kerak. Necha yildan buyon turmush qilib kelamiz – bolalari-miz bor, axir.

Taftishchi o'rnidan turdi.

– Rahmat senga, – dedi Kuzma va uning qo'lini siqib qo'ydi.

Taftishchi uydan chiqdi, ko'cha eshigi g'ichirladi, qadam tovush-lari uzoqlashdi.

Kuzma yolg'iz qoldi. Oshxonaga o'tdi, kechadan buyon yoqilmagan pechka yoniga kelib cho'kkaladi. Boshini quyi solib uzoq o'tirdi. U hech narsani o'yamas, bunga holi ham qolmagan edi. O'tiraverib boshi pastga egilib ketdi. Shu tariqa bir soatmi-ikki soatmi o'tdi – yarim kecha bo'ldi.

– Dada!

Kuzma sekin boshini ko'tardi. Qarshisida oyoqyalang, mayka-chan Vitka turardi.

– Nima deysan?

– Dada, bizga hech narsa qilmaydimi?

Kuzma bosh irg'adi. Vitka joyidan jilmadi, u otasi hammasi yax-shi bo'ladi, deb aytishini kutardi.

– Bo'lmasam-chi! – dedi Kuzma. – Dunyoni ost-ust qilsak-qila-mizki, onamizni bu holga tashlab qo'yamymiz. Axir, biz besh erkamiz – ko'p ish keladi qo'limizdan.

– Ukalarimga shunday deb aytsam bo'ladimi?

– Xuddi shunday deb ayt.

Vitka bu gapga chippa-chin ishonib, xonasiga qarab chopdi.

Ertalab Mariya o'rnidan turmadi. Kuzma katta o'g'illarini uyg'otdi, nonushtaga kechagi sutdan quyib berib, mактабга kuzatdi. Mariya shiftga tikilgancha qimirlamay yotardi. U hatto yechinmabdi ham, egnida kecha do'konga kiyib borgan ko'yagli. Yuzlari shishib ketgan. Ketishidan oldin Kuzma uning yoniga kelib:

– Tura qol endi, sal bo‘lsayam chalg‘iysan. Ko‘p siqilaverma, biror yo‘li topilar, odamlar ham qarab turmas, axir. Halitdan aza ochishning hojati yo‘q, o‘zingni qiynab, kuyinaverma, – dedi.

Kuzma bugun ishga chiqolmayman, deb aytish uchun idoraga bordi.

Rais xonasida yolg‘iz ekan. Kuzma bilan qo‘l berib ko‘rishdi, unga tikilib turib xo‘rsinib qo‘ydi.

– Ha, tinchlikmi? – dedi Kuzma hayron bo‘lib.

– Mariyaning boshiga tushgan savdodan xabarim bor. Butun qishloq biladi deyaver endi buni.

– Mayli, ertami-kechmi baribir hamma eshitardi, – dedi Kuzma qo‘l siltab.

– Xo‘sh, nima qilmoqchisan? – deb so‘radi rais.

– Bilmayman. Boshim qotib qoldi: qayerga boray, kimdan pul so‘ray?

– Bir ilojini qilish kerak.

– To‘g‘ri, ilojini topish kerak.

– Hozir senga qarz ham berolmayman, – dedi rais. – Oldimizda yillik hisobot turibdi. Keyin balki maslahatlashib, biror chorasi ni toparmiz. Beramiz – albatta! Hozircha shu hisobdan qarz ko‘tarib tur-chi, har holda kolxoz keyin beradi deb aystsang, ishonchliroq bo‘ladimi deyman-da.

– Rahmat senga.

– Rahmatingni qo‘y, Mariyaning ahvoli qalay?

– Qanday bo‘lardi?!

– Borib shu gaplarni aytib ovutgin uni.

– Ha, aytish kerak, aytaman. – Eshikka yetgandagina Kuzma nima uchun kelganini esladi: – Bugun ishga chiqolmayman, shuni aytgani kirgan edim o‘zi.

– Boraver. Bu ahvolda ishlab nimani qoyil qilarding endi! Gapini qarang!

Mariya hali ham turmagan ekan. Kuzma karavot chetiga kelib o‘tirib uni yelkasidan quchdi. Mariya hech narsani sezmagandek qimirlamay yotaverdi.

– Rais hisobot majlisidan keyin qarz beraman, dedi.

Mariya sal qimirlagandek bo‘ldi.

– Eshityapsanmi?

Shunda bu xotinga bir balo bo'ldi, o'midan sapchib turdi-yu, Kuzmaning bo'yniga osildi, uni to'shakka yiqitib:

– Kuzma! – dedi nafasi ichiga tiqilib. – Kuzma, jon Kuzma, meni qutqar, nima qilsang qil, qutqar!

Kuzma qimirlayolmay qoldi. Mariya uni butun gavdasi bilan bosib, bo'ynidan changallab olgan, yuzi yuziga tegib turar edi.

– Jonim! – deya hayajon bilan shivirlardi u. – Meni qutqar, meni ularning qo'liga berib qo'yma!

Kuzma bir amallab o'midan turib oldi.

– Ahmoq xotin, – dedi u xirillab. – Nima balo, aqdan ozganmisani?

– Kuzma! – dedi Mariya endi siniq ovozda.

– O'zingcha nima balolar deb aljirayapsan? Rais qarz bera-man deyapti, axir. Ko'rasan, hammasi iziga tushib ketadi hali. Sen bo'lsang, qayerdag'i gaplarni gapirasana-a!

– Kuzma!

– Nima deysan?

– Kuzma! – uning ovozi yanayam past chiqdi.

– Shu yerda – yoningdamani!

Kuzma etigini yechib, kelib Mariyaning yoniga yotdi. Uning a'zoyi badani titrar, yelkalar qalqib-qalqib tushardi. Kuzma uni qu-choqlab, katta kafti bilan yelkalarini siypalay boshladi. Mariya uning pinjiga tiqilib oldi. To uxlاب qolmagunicha Kuzma uning kiftini siy-pab yotdi. Mariya uxlagachgina o'midan turdi.

Kuzma o'ylab o'yiga yetolmasdi: sigirni, yem-xashakni sotsam bo'ladi-yu, lekin bolalar sutsiz qoladi-da. Ro'zg'orda boshqa sotish-ga arzigelik narsaning o'zi yo'q. Boshqa hech iloji qolmagandagi-na sigirni sotish mumkin. Yig'ib qo'ygan bir chaqasiyam yo'q, xul-las, qarz ko'tarishdan boshqa chora qolmadi. Ammo qanday qilib shuncha pulni birovdan qarz olish mumkin? Buni o'ylagani sayin Kuzmaning boshi qotar, ming rubl unga juda katta mablag' bo'lib tuyulardiki, nuqul eski pul bilan chalkashtirib yuborar, esiga kelgach esa a'zoyi badanini sovuq ter bosar edi. Million, milliard kabi katta pullar ham bo'lishini u biladi. Lekin ming rublning birgina odamga, to'g'rirog'i, o'ziga kerak ekanini hech hazm qila olmas, bu qanday-dir chalkashlik, tuzatib bo'lmas bir xatodek tuyulardi unga. U ancha vaqtgacha go'yo bir mo'jiza ro'y berishini kutayotgandek qimirla-

may o‘tiraverdi. Kimdir kelib bu hazil edi, bo‘layotgan savdolarning, kamomadning na senga, na Mariyaga daxli bor deb aytishini kutardi. Bu dunyoda g‘am-tashvish nimaligini bilmaydigan qanchadan qancha odam bor, axir!

Erta saharda boshlangan shamol haliyam tinmagan, yaxshiyamki haydovchi vokzalgacha borgani, yo‘qsa, bu havoda piyoda yurishning o‘zi bo‘ladimi? Vokzal binosining taxta-tunukalari ta-qirlar, ko‘cha bo‘ylab xas-cho‘p, qog‘oz parchalari uchmoqda edi. Odamlar u yoq-bu yoqqa shoshilar – ob-havo ta’siridanmi yoki ularning o‘zi bu to‘s-to‘polonga e‘tibor ham qilmay, kundalik tashvishlar bilan yelib-yugurib yuribdimi – bilib bo‘lmas edi. Poyezdlarning kelib-ketishini e’lon qilib turadigan diktorning ovozi ham uzuq-yuluq, tushunarsiz eshitilardi. Parovozlar, elektrovozлarning quloqni teshib yuborgudek chiyillagan ovozi xuddi hozirning o‘zida ro‘y beradigan bir fojiadan ogohlantirayotgandek tuyulardi. Poyezdi jo‘nashiga bir soatlar qolganda Kuzma chipta olgani navbatga turdi. Kassa hali ochilmagan bo‘lsa-da, odamlar tizilishib turib olgan. Ular oldinga o‘tgan har kimga shubha bilan qaraydi. Kassa darchasi tepasidagi yumaloq elektr soat mili chiqillab daqiqadan daqiqaga sakraganida, odamlarning asabi battar taranglashadi.

Nihoyat kassa ochildi. Navbat bir zichlashdi-yu, keyin go‘yo yana hamma joy-joyida qotdi-qoldi. Eng oldinda turgan ayol darchadan boshini tiqib olgan. Ikki, uch, to‘rt daqiqa o‘tdi hamki, navbat joyidan jilmadi.

– Nima balo, savdolashishyaptimi bular? – deya baqirdi orqadan kimdir.

Ayol darchadan boshini tortib orqasiga o‘girildi:

– Chipta yo‘q emish.

– Grajdanlar, umumiy va platskart vagonlarga chipta yo‘q! – dedi baland ovozda kassir ayol.

Olomon bir qalqidi-yu, ammo tarqab ketmadi.

– Qay yo‘l bilan bo‘lmasin, pul shilmoqchi bo‘ladi bular, – dedi qizil yuzli, qizil ro‘mol o‘ragan semiz xotin jahlini yashirolmay. – Hamma vagonlarni yumshoq o‘rindiqli qilib qo‘yishning nima keragi bor edi? Hatto samolyotda ham chipta narxi bir xil-ku.

– Samolyotda ucha qoling, bo‘lmasa, – dedi kassir bamaylixotir.

- Uchamiz ham! – dedi battar tutaqib qizil ro‘molli xotin. – Shunga o‘xhash yana bir-ikki nayrang ko‘rsatsangiz, poyezdingizga hech kim chiqmay qo‘yadi. Vijdon degani yo‘q ekan o‘zi sizlarda.
- Uchavering, bemalol – buning bizga issiqsovug‘i yo‘q!
- Juda bor-da, azizim, bo‘lganda qandoq, naq ishsiz qolib ketarsan.

Kuzma kassadan nari ketdi. Keyingi poyezdni oz emas, ko‘p emas naqd besh soat kutish kerak. Yumshoq vagonga chipta olsachi? Jin ursin barini! Hali kutgan poyezdida ham hammasi yumshoq o‘rindiqli vagon bo‘lsa, unda nima qiladi? Bekordan bekor kutib o‘tirmasin yana. Negadir shu tobda «Kallasi ketgan, sochiga qayg‘urmaydi», degan naql esiga keldi Kuzmaning. Besh rubl ketsa ketar – ob-havoni o‘zgartirish qo‘limdan kelmaydi, axir! Mingning oldida besh rubl nima degan gap o‘zi?

Kuzma kassa darchasiga keldi. Olomon tarqalgan, kassir ayol kitob o‘qib o‘tirardi.

- Shahargacha chipta kerak, – dedi Kuzma.
- Faqat yumshoq o‘rindiqli vagonga bor, – xuddi berilib o‘qiyotgan odamdek kitobdan ko‘z uzmay javob qaytardi u.
- Beraver, qanaqasi bo‘lsayam.

Ayol o‘qiyotgan joyini belgilab, qayerdandir, yon tomonidan chipta olib komposter tagiga qo‘ydi.

Endi Kuzma faqat poyezdining jo‘nash vaqtin e’lon qilinishini kutadi. Poyezd kelgach, hamma qulayliklari bo‘lgan yumshoq vagonga chiqib oladi-yu ketadi. Shaharga erta tongda yetadi. Aksinikiga boradi-da, yetmayotgan pulni undan oladi. Hoynahoy, akasi Kuzmaga omonat daftarchasidagi puldan olib beradi. Qishloqqa qaytar chog‘i ular o‘tirib bir shishani bo‘shatishadi, so‘ng Kuzma yo‘lga otlanadi – taftishchi kelgunicha ulgurishi kerakda, axir. Keyin qarabsizki, yana hayotlari o‘z iziga tushib ketadi. Shu tashvishlardan qutulgach, Mariya ham o‘ziga kelib qoladi. Keyin esa Kuzma oilasi, bolalari uchungina yashaydi. Ular ni kinoga olib tushadi, hech bo‘lmaganda – qishloq klubiga. Hali ularning yaxshi kunlari oldinda. Kechalari esa uxlagani yotgan choqda Kuzma Mariya bilan xuddi avvalgidek hazillashadi – u yer-bu yeriga shapatilaydi. U esa, aslida bu o‘ziga yoqsa ham, xuddi jahli chiqqandek Kuzmani urishgan bo‘ladi. Ularning baxt-

li hayot kechirishi uchun ko‘p narsa kerakmi aslida? Birdan Kuzmaning xayoli joyiga keldi. E-he, ancha-muncha pul kerak – ming rubl. Hozircha bir amallab yarmidan ko‘pini yig‘ib qo‘ydi. Uyma-uy yurib kimlarga bosh egmadi, yalinmadni, kolxoz qarz berishi bilan qaytaraman, deb qayta-qayta aytdi, va’da qildi, keyin esa o‘sha – baribir ham kerak bo‘lgan mablag‘ga yetmaydigan cho‘g‘dek qog‘ozlarni ming bir istihola bilan oldi. Qishloqda Kuzmaning o‘rnida boshqasi bo‘lganda ham eng oldin Yevgeniy Nikolayevichnikiga borar edi.

– Ha, Kuzma, kel, kiraver, – deya qarshi oldi uni Yevgeniy Nikolayevich. – Qani o‘tir. Menden xafamisan deyman – hech kel-maysan biznikiga.

– Sizdan nega xafa bo‘laman, Yevgeniy Nikolayevich?

– Qaydam. Bu haqda hammayam ochiq gapiravermaydi. O‘tir-sang-chi. Ahvollar qalay?

– Bir navi.

– Qo‘ysang-chi. Yangi uylarga ko‘chvolding, yana bir navi deganing nimasi?

– Yangi uyda yashayotganimizga ham bir yil bo‘ldi, nimasini maqtanay?

– Kim bilsin. Biznikiga hech kelmasang, gaplashmasak.

Yevgeniy Nikolayevich stol ustida ochiq yotgan kitobni yopmasdan javonga olib qo‘ydi. U Kuzmadan ancha yosh edi. Lekin qishloqda hamma, hatto chollar ham uni hurmat qilardi. Negaki, o‘n besh yildan buyon u direktor – oldin yetti, hozir esa sakkiz yillik maktabga. Yevgeniy Nikolayevich shu qishloqda tug‘ilib o‘sgan. Institutda o‘qib kelgan, ziyoli bo‘lsa-da, dehqonchilikni unutmag’an: o‘t ham o‘radi, duradgorlik ham qiladi. Kattagina ro‘zg‘ori bor, vaqt topsa, hamqishloqlari bilan ovga, baliq oviga chiqib turadi. Yevgeniy Nikolayevichning doim puli bo‘lishini bilgani uchun ham Kuzma, avvalo, unikiga kelgan edi. Ular er-xotin yolg‘iz yashaydi. Xotini ham o‘qituvchi, ikkalovi yaxshigina maosh oladi. Qishloq joyda pulni nimagayam sarflash mumkin – go‘sht, sut, meva-yu sabzavot ro‘zg‘oringdan chiqsa.

Yevgeniy Nikolayevich kitoblarini taxlayotganini ko‘rib Kuzma o‘rnidan qo‘zg‘aldi:

– Bevaqt keldim, shekilli?

– E yo‘q, qanaqasiga bevaqt bo‘lsin! – dedi uning gapini bo‘lib Yevgeniy Nikolayevich. – Vaqtimiz bemalol. Uyda ekanmiz – vaqt o‘zimizni, uni qanday o‘tkazish ham o‘z ishimiz-da, to‘g‘rimi?

– Shunday, shekilli.

– Shekilli emas, aynan shunday, desang-chi. Vaqt bemalol, choy ichsak ham bo‘ladi.

– Choy kerakmas, – dedi Kuzma. – Haligina ichgan edim.

– Mayli, o‘zing bilasan. Aytishadi-ku, qorni to‘q odamni mehmon qilish ham oson, deb. Shundaymi?

– Shunday, – joyidan bir qo‘zg‘alib oldi-da, Kuzma nihoyat, maqsadga o‘tdi: – Yevgeniy Nikolayevich, men bir ish bilan kelgan edim.

– Ish bilan deysanmi? – Yevgeniy Nikolayevich uning ro‘parasiga kelib o‘tirdi. – Xo‘s, nima ish ekan, gapir-chi. Qo‘ldan kelsa, yordam qilaylik. Temirni qizig‘ida bos, deyishadi-ku.

– Gapni nimadan boshlashga ham hayronman, – deya chaynaldi Kuzma.

– Ayt, tortinma.

– Shu desangiz, pul so‘rab keluvdim.

– Qancha kerak? – dedi esnab Yevgeniy Nikolayevich.

– Juda ko‘p kerak. Qancha berolsangiz ham mayli.

– Xo‘p, aytaver – o‘n, yigirma, o‘ttiz rublmi?

– Yo‘q, – dedi Kuzma bosh chayqab. – Menga ko‘p pul kerak.

Nimaga ekanini ham aytay sizga: Mariyaning do‘konidan katta kamomad chiqdi – eshitgandirsiz?

– Xabarim yo‘q.

– Tekshiruv kecha tugagan – juda katta kamomad chiqsa, deng.

Yevgeniy Nikolayevich barmoqlari bilan stolni chertib qo‘ydi.

– Yomon bo‘pti, – dedi u.

– Nima?

– Yomon bo‘pti, deyman. Nimaga shuncha kamomad chiqdi ekan-a?

– Kim bilsin.

Ikkalovi ham jim bo‘lib qolishdi. Qayerdandir soatning chiqillagan tovushi eshitilar, u qandaydir bo‘g‘iq chiqar edi. Kuzma u yoqbu yoqqa qaradi-yu, soatni topolmadi. Yevgeniy Nikolayevich yana stolni chertib qo‘ydi. Kuzma unga qarab peshonasi sal tirishganini ko‘rdi.

– Qamalib ketishi mumkin buning uchun, – dedi Yevgeniy Nikolayevich.

– Shu sababdan ham pul qidirib yuribman-da.

– Baribir ham qamashlari mumkin, kamomad chiqqan axir.

– Yo‘g‘-e, qamashmas. Axir Mariya pulni yeb qo‘ymagan, men bilaman-ku.

– Buni nega menga aptyapsan? – dedi ranjigandek Yevgeniy Nikolayevich. – Nima men qozimidi? Ularga aytasan bu gaplarni. Men ehtiyotkorroq bo‘l degan ma’noda gapiryapman senga: pulingni olib ham qamab qo‘yishmasin yana.

– Yo‘q, – dedi Kuzma jon holatda. Birdan o‘zi ham aynan shundan qo‘rqayotganini payqadi. Uning javobi Yevgeniy Nikolayevicha emas, ko‘proq o‘ziga taskin tarzida aytilgan edi. – Hozir bekordan bekorga qamab yuborishmaydi. Pulni o‘zimizga sarflamaganmiz-ku! Mariyaning savodi yo‘qligidan chiqdi, axir, bu kamomad.

– E, ular bunga qarab o‘tirarmidi, – deya qo‘l siltadi Yevgeniy Nikolayevich.

Birdan kolxoz beradigan qarz Kuzmaning esiga tushdi va hayajoni bosilmay turib, yalingannamo, ayanchli bir ohangda:

– Yevgeniy Nikolayevich, sizdan ikki-uch oygagina so‘rayapman. Hisobot majlisi o‘tishi bilan rais qarz puli beraman degan, – dedi-yu gap ohangidan o‘zi ijirg‘anib ketdi.

– Hozir bersa bo‘lmas ekanmi?

– Berolmaydi. Uy qurganimda olgan qarzdan hali qutulmaganman. Raisning o‘rnida boshqasi bo‘lsa umuman bermasdi.

Soatning chiqillagan ovozi endi baralla eshitila boshladи. Kuzma baribir uning qayerda ekanini bilolmadi. Soat parda ortida, tokcha yoki javonda turgan bo‘lsa kerak. Lekin ovoz qayerdandir tepadan kelardi. Kuzma shiftga qaradi, keyin ahmoqona bu harakati o‘ziga nash‘a qilib ketdi.

– Hali biror odamdan pul so‘radingmi o‘zi? – dedi Yevgeniy Nikolayevich.

– Yo‘q, eng oldin sizga keldim.

– U holda, berishga to‘g‘ri keladi! – dedi birdan zavqlanib Yevgeniy Nikolayevich. – Bermasam, sen, Yevgeniy Nikolayevich qizg‘andi, deysan. Ana keyin ko‘rasan odamlarning gapso‘zini.

– Mening orqadan gapirib yurish odatim yo‘q, Yevgeniy Nikolayevich.

– Bilmasam. Aynan sen demayapman, umuman aytyapman-da. Har xil odam bor. Ha aytgancha, pulni tumandagi omonat daftarcha-sida saqlayman, behudaga sarflab qo‘ymay deyman-da. Borib kelishga to‘g‘ri keladi endi. Hozir bunga imkonim yo‘q. – Uning peshonasi yana tirishib ketdi. – Borib kelarman. Yuz rublcha pulim bor – shu-ni olarman. Shunday vaqtda bir-birimizga yordam qilishimiz kerak, axir, to‘g‘rimi?

Kuzma birdan tanasidan quvvat ketgandek holsizlanib, nima de-yishni bilmay qoldi.

– Biz, odamlar shu bilan ham boshqa jonzotlardan farq qilamizda – yomon kunda bir-birimizga tirkak bo‘lamiz, – dedi Yevgeniy Nikolayevich. – Bilaman, qishloqda men haqimda har xil gap yuradi. Ammo hali hech kimdan yordamimni ayamaganman. Besh, o‘n rubl so‘rab ko‘p kelishadi oldimga. Oxirgi chaqam bo‘lsayam beraman. Keyin qaytarib berishlariniyam xohlayman, albatta, ishlab topgan pulim axir.

– Men qaytaraman, – dedi Kuzma.

– Seni aytayotganim yo‘q. Bilaman, sen qaytarasan. Umuman aytaman-da. Sen insofli odamsan. Ba’zi birovlarda vijdon deganidan asar ham yo‘q. Aytmasam ham o‘zing yaxshi bilasan. Har xil odam bor.

Yevgeniy Nikolayevich to‘xtamay gapirardi. Kuzmaning boshiga og‘riq kirdi, holdan toydi. Nihoyat, ko‘chaga chiqqanida peshingacha borliqni bosib turgan tuman tarqab, quyosh charaqlab ketgan ekan. Kech kuz havosi – tiniq, o‘zgaruvchan. Qishloq ortidagi o‘rmon juda yaqin ko‘rinadi, ammo endi zikh devordek tuyulmaydi, barglarini to‘kkан yalang‘och daraxtlar oqarib ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Ochiq havoga chiqib Kuzma ancha yengil tortdi. Yurgan sari kayfiyati ko‘tarila boshladi. Biroq yuragining tubidagi alamli og‘riq simillab unga tinchlik bermasdi. Kuzma bu darddan hali-veri qutulomasligini yaxshi bilardi.

Hartugul Mariya o‘rnidan turibdi. Komarixa kelgan ekan. Kuzma nima gapligini darrov fahmladi.

– Ha, yetib kepsan-da, – dedi u Komarixani haydab chiqargudek bir vajohat bilan. – Is olgan o‘laksaxo‘rga o‘xshab.

- Syening oldingga kelmadim, nega meni haydaysan, – deya shang‘illay ketdi Komarixa. – Mariyada ishim bor edi.
  - Bilaman, nima ishing borligini.
  - Ishim bo‘lgani uchun keldim, senga nima?!
  - Buni qarang-a!
- Lom-mim demay qotib o‘tirgan Mariya Kuzmaga o‘girilib:
- Sening Kuzma, biz bilan ishing bo‘lmasin. Yoqmasa – chiqib ket. Qo‘rqma Komarixa, qolgan yeridan aytaver, – dedi.
  - Nega qo‘rqarkanman? – dedi Komarixa yashirgan kartalarni stol ustiga chiqarib terar ekan, Kuzmaga ko‘z qirini tashlab. – O‘g‘rilik qilmayotgan bo‘lsam – nimadan qo‘rqaman. Har narsaga e’tibor qilaversa, asablari chidarmidi odamning.
  - Hozir kelajagingni bashorat qilib beradi bu! – dedi istehzo bilan Kuzma.
  - Kartada nima ko‘rinsa, shuni aytaman, yolg‘oni yo‘q buning.
  - Ha, go‘yo bor haqiqatni to‘kib solasan-da!
- Mariya unga qarab alam bilan:
- Chiqib ket, Kuzma! – dedi.
- Kuzma arang o‘zini bosdi, indamadi. Oshxonaga o‘tdi, u yerdan ham gap-so‘zlar bemalol eshitilib turardi. Komarixa qo‘llariga tuflab, Mariyaga kartalardan birini torttirdi va:
- Xudoga shukurki, qamoqxona chiqmadi, rost aftyapman. Mana kartaga qara – uzoq yo‘l, pulli ishlar ko‘rinyapti, xolos, – dedi.
  - Ha-ya, Moskvaga, mukofot-pukofot bergani chaqirishadi seni, – dedi Kuzma tili qichib.
  - Lekin oldingda katta qiyinchilik, tashvishlar ham turibdi, mana qara. O‘zi aslida, uch qayta ko‘rish kerak. – Aftidan, Komarixa kartalarni yig‘ib oldi. – Qani, tort-chi, bittasini. E-e to‘xta, endi boshqa birov tortsin. O‘g‘illaringdan birortasi uydadir?
  - Ular uyda emas
  - E, jin ursin!
  - Kel mayli, o‘zim torta qolay, – dedi Mariya.
  - Yo‘q, bo‘lmaydi, yanglish ketishi mumkin. Hoy, Kuzma! – dedi birdan Komarixa ovozi mayinlashib. – Bu yoqqa qarab yubor. Biz gunohkor bandalardan jahling chiqmasin. Seni o‘z e’tiqoding bor, bizning ham. Kartalardan eng tepadagisini olib ber-chi, bizga.

– Hye, tiling qursin seni! – Kuzma ularning oldiga kelib, yuzadagi kartani itarib qo‘ydi.

– Xullas, kuyovim ham ilgari ishonmasdi – axir partiya a’zosi edi-da. Qirq sakkizinchı yili ishi sudga oshirilganda uyimga yugurib keldi. Ibodat qiladigan bo‘lib qoldi.

U kartalarni rasmini yerga qaratib tera boshladi.

– Hayoti tinch-osuda ekanida ishonmaydi-da, odam. Boshiga og‘ir tashvish tushsa bormi – xudoniyam eslab qoladi darrov, – dedi Komarixa.

– Sayra, Komarixa, sayrayver, – dedi Kuzma loqaydlik bilan.

– Sayrayotganim yo‘q. Bor gapni aytyapman. Sen o‘zingcha folga ishonmayman, demoqchimisan? Shunday deb o‘ylaysan, xolos. Deylik, mabodo ertaga urnish boshlangudek bo‘lsa, sen tirik qolish-qolmasligingni bilishga qiziqmaysanmi?

– Kartalarni ochsang-chi, – deya uni shoshirdi Mariya.

Komarixa Kuzmani o‘z holiga qo‘yib, yana qandaydir pulli ishlar va qiyinchiliklar haqida gapira ketdi. Kuzma e‘tibor bilan eshitdi, bu safar ham qamoqxona haqida gap bo‘lmadi.

Komarixa ketgach, uyda er-xotin yolg‘iz qoldi. Mariya o‘sha-o‘sha – Kuzmaga orqasini o‘girib ko‘chaga qarab o‘tiribdi. Kuzma esa tamaki chekayotir. Mariya bir nuqtaga tikilgancha go‘yo qotib qolgan. Kuzma turib uning yelkasi osha o‘sha tomonga qaradi-yu, hech narsa ko‘rmadi. U Mariya bilan gaplashishga ham cho‘chirdi, biron nima desa, go‘yo tuzatib bo‘lmas xato qilib qo‘yadigandek. Jim o‘tiraverish ham noquay. Yana boshiga og‘riq kirdi, ikki chakkasi chidab bo‘lmas darajada lo‘qillay boshladi.

Mariya churq etmasdi. Kuzma uni zimdan kuzatardi. U atay kuzatmasa-da, bu o‘lik sukunatda har qanday tovush aniq eshitilar edi. Kuzma Mariyaning o‘zi biron nima deyishini kutardi.

Nihoyat Mariya qimirlagandek bo‘ldi, Kuzma sapchib tushdi.

– Kuzma, – dedi u oynadan tikilgan ko‘yi.

Kuzma Mariya o‘sha-o‘sha holatda o‘tirganini ko‘rib yerga qarab qoldi. Mariya birdaniga kulib yubordi. Kuzma haliyam yerga qarab o‘tirarkan, nahotki, kulayotgan Mariya bo‘lsa, deb o‘yladi.

Yana Mariyaning kulgani eshitildi, ammo ovoz endi uzoqlardan kelayotgandek edi. Kuzma boshini ko‘tardi – xonada yolg‘iz o‘zi.

Birdan uni vahima bosdi. U yoq-bu yoqqa alanglab yotoq bo‘lmaga o‘tdi, xotini yotgan ekan.

— Kel, — dedi Mariya unga qaramay.

Kuzma karavotga yaqinlashdi.

— Birozgina yonimda yot, Kuzma.

Kuzma ehtiyotkorlik bilan Mariyaning yoniga yonboshladi, uning butun tanasi titrar edi.

Oradan yarim soatlar o‘tib Mariya gap boshladи:

— Meni aqldan ozibdi, deb o‘ylayotgandirsan-a? Rostdan ham shunaqaga o‘xshaydi. Bir yig‘layman, bir kulaman. Kimdandir eshitgan edim, qamoqxonalarda ayollar bir-biri bilan... haligi, nimaydi, yomon ishlar qilar ekan-da. Qanday sharmandalik. Shu gaplarni eslab g‘alati bo‘lib ketdim. Hali u yerda emas, o‘z uyimdamanku, deb o‘yladim keyin.

U Kuzmaning pinjiga tiqilib, yig‘lab yubordi.

— Mana, yana yig‘layapman, — dedi hiqillab Mariya. — Jonim, ayt, meni ularga berib qo‘ymaysan-a, qo‘rqaman....

Poyezdnинг yurishi sekinlashib g‘ijirlagan ovoz chiqarib to‘xtadi. Tanasidan sovuq o‘tib ketsa ham Kuzma poyezdga darrov chiqib ol-madi. Atrofni kuzatib turdi. Poyezddan tushgan bir necha yo‘lovchi ul-bul narsa xarid qilgani perron bo‘ylab yugurib yuribdi – chetdan kuzatayotgan odamga ularni xuddi shamol uchirayotganga o‘xshaydi. Allaqqayerdan – bulutlar orasidan qovjiragan bargdek zaifgina quyosh shu’lasi paydo bo‘ldi. Bir muddat wagon uzra titragan shu’lani shamol yana tezda bulutlar ostiga yashirdi.

Odatda, Kuzma ko‘p ham safarga chiqavermaydi. Unda-bunda uzoq yo‘lga chiqqanida ham bora-borguncha behalovat bo‘ladi – xuddi hayotda bor narsasidan ayrilgan-u yangisini (topadimi-yo‘qmi, bilmay ham turib) izlab ketayotgan odamga o‘xshaydi. Bu safar shaharga borishi shart ekanini biladi, biladi-yu, ammo baribir o‘sha hadik uni tark etmaydi. Aksiga olib shamol ham tinmayapti. Albatta, shamolning Mariyaning boshiga tushgan savdolarga ham, Kuzmaning shaharga borishiga ham hech qanday aloqasi yo‘q. U o‘z holicha esaveradi, har doimgidek – avvallari, Mariya bilan Kuzma baxtli, tinch-osuda hayot kechirgan chog‘larda qanday esgan bo‘lsa, ana shunday. Ammo bular hammasi bejiz emas, degan o‘y ham Kuzmani tinch qo‘ymaydi. Ular bir-biriga bog‘liqdek tuyulaveradi, umumiy

vagonga chipta yo'qligi ham, aqling bo'lsa o'zing tushunib olasan, hech qayerga bormaysan, degan ogohlantirish emasmidi, axir?

Radiokarnaydan poyezd jo'nashiga ikki daqiqa qolgani e'lom qilindi. Kuzma shoshilib o'z vagoni tomon yura boshladi, poyezdga chiqish oldidan orqasiga o'girilib vokzalni ko'zdan kechirarkan, quruq qo'l bilan qaytmasmikanman, deya xayolidan o'tkazdi. Ajabo, poyezdga chiqqach u go'yo ibodat qilib taqdirini kimgadir ishonib topshirgan, endi o'zi hech narsa qilmasa ham bo'ladigandek xotirjam bo'lib qoldi. Vagon oynasidan tashqarini kuzatib ketdi, poyezd ortidan binolar bir-biriga ulanib qolaverdi. Tavba, ertalab uyda edi, hozir esa chiqib ketganiga ko'p zamonlar bo'lgandek. Uf tortdi. Tez orada pul bilan bog'liq bu g'alvalardan qutuladi – yaxshimi-yomonmi hammasi tugaydi. Ikki kundan keyin taftishchi kelgach, bu ma'lum bo'ladi. Ikki kun – unchalik katta muhlat emas. Kuzma juda qattiq charchaganini his qildi, yomon tomoni, bu – o'zi ko'nikkan jismoniy horg'inlik emas edi.

– Chiptangizni ko'rsatib yuborsangiz! – degan ovoz keldi orqadan.

Kuzma o'girilib qaradi – o'rta yoshlardagi ayol – vagon xizmatchisi turibdi. U chiptaning orqa-oldini o'girib obdon tekshirdi: go'yo Kuzma uni o'zi yasab yoki o'g'irlab olgandek bir chiptaga, bir uning o'ziga qaraydi. Aftidan, u chiptaga yo'lovchilarining rasmi ham yopishtirib qo'yilmasligidan qattiq afsuslanib ketdi; axir, rasmsiz hech nimani isbotlab bo'lmasa.

Ayol oyog'iga tikilaver-gach, beixtiyor. Kuzma ham poyabzaliga qaradi – 42-o'lchovli eski, chang bosgan kirza etigi top-toza, chiroyli gilam ustida xuddi gulzorni payhon etib yurgan traktorga o'xshab ko'rindi. Kuzma o'zini oqlamoqchi bo'lgandek aybdor bir ohangda:

– Boshqa vagonlarga chipta yo'q ekan-da, – dedi.

– Xursand bo'p ketdingizmi bundan, – dedi ayol zarda bilan xudi uni poyezddan tushirib yuborolmasligi alam qilgandek. Ortiq gaplashishni ham lozim topmay, orqamdan yur deya ishora qildi.

Ayol ensizgina ko'k eshikni taqillatdi, keyin sekin yon tomonga itarib ochdi. Ostonada turgan Kuzma bor bo'yi basticha: etigi, paxtali kalta to'ni, askarlikdan qolgan yo'l xaltasi bilan aniq ko'rinsin degandek, o'zini chetroqqa oldi. Haligina Kuzma gapirgandek aybdor ohangda:

– Kechirasizlar, mana bu yo‘lovchi... – dedi u. Keyin o‘zini oqlagandek qo‘sib qo‘ydi: – Qo‘lida chiptasi bor.

– Chiptasi bor ekanmi? – deya hayron bo‘lgandek bir ko‘zini qisib unga tikildi harbiy libos kiygan kishi; keyin Kuzma yaxshilab razm solib uning polkovnik ekanini bildi.

– Bo‘lishi mumkin emas! – dedi polkovnikning yonida o‘tirgan oq maykali qorindor odam quti o‘chib. – Bo‘lishi mumkin emas!

Ayol zo‘rma-zo‘raki iljaydi:

– Chiptasi bor ekan-da...

– Biror chiptasiz odamni qo‘ysangiz bo‘lmasmidi, a?! – dedi polkovnik norozi bosh chayqab. – Iltimos qilgan edik-ku sizdan.

Oq maykali kishi chidab turolmadi – xaxolab yubordi. Uning samimiy kulgusi xuddi o‘rtacha tezlikda yuradigan mototsikl ovozidek tarillab chiqardi. Polkovnik ham unga qo‘silib kula boshladи.

– Doim hazil qilasizlar-a, – dedi birdan yengil tortib ayol. U hamon eshik oldida turardi. – To‘g‘risi, uni boshqa qayergayam joylashtirardim, hamma joy band bo‘lsa. – Keta turib u ham hazillashgan bo‘ldi: – Ammo chiptasi bor uning...

– Kir, kiraver, – deya qo‘l to‘lg‘ab chaqirdi polkovnik Kuzmani. Kuzma ichkariga kirdi-yu, to‘xtab qoldi.

– Sening joying ana, – dedi polkovnik ikkinchi qavatni ko‘rsatib. – Xohlasang chiqib dampingni ol. Tortinma, begonalar yo‘q bu yerda.

– Tortinmayapman.

– Urushga borganmisan?

– Borgaman.

– Durust, u holda qo‘rqadigan narsaning o‘zi yo‘q.

– Boya anavi ayolning bo‘sh joyimiz yo‘q, degani bo‘Imagan gap, – dedi birdan pastki o‘rinda yotgan odam. – Yonimizda – to‘qqizinchida ham uch kishi ketyapti. Xo‘sh, nega u yerga kirmadi?

– Endi-i, – dedi uning gapini tasdiqlagandek oq maykali. – Ularning oldiga shunchaki kirib bo‘pti.

– Nima, bundan chiqdi bizga bemalol kiraverish mumkin ekan-da?

– U, Gennadiy Ivanovich, odam farqlashni, kimning nimaga loyiq ekanini juda yaxshi bilib qolgan, men sizga aytsam. Unga shaxsiy guvohnomani ko‘rsatishning ham hojati yo‘q. Sizga bir qaraboq,

bor-yo‘g‘i qandaydir radiostansiya rahbari ekaningizga fahmi yetgan, bor gap shu, – dedi oq maykali polkovnikka ko‘z qisib.

– Radiostansiya rahbari emas, viloyat radioeshittirishlar va televideniye qo‘mitasi raisiman, – deya uning gapini tuzatdi Gennadiy Ivanovich.

– Xo‘p deyaversangiz-chi, buning unga deyarli farqi yo‘q.

– Tushunmayapman... – dedi Gennadiy Ivanovich labini tishlab. Biroq nimaga tushunmaganini aytmadi. U tungi kiyimda bo‘lib, shalvarining pochasini paypog‘iga qistirib olgan edi. Past bo‘yli bu odamning ayollarnikiga o‘xshagan chiroyli yuzidagi katta-katta, ammo sovuq nigoh-la boquvchi ko‘zлari odamni birdan o‘ziga jalb etardi. Gennadiy Ivanovich uzun sochlari silliq qilib taralgan boshini mag‘rur tarzda sekin yon tomonga o‘girdi, keyin go‘yo uni to‘g‘rilayotgandek bir silkitib ham qo‘ydi.

Kuzma hanuz joyida qaqqayib turardi. Paxtaligini yechmoqchi bo‘ldi-yu, qarasa, o‘zi tomondagi ikkala ilgich ham band ekan, uni qimmatbaho jigarrang palto ustiga ilishga esa botinmad – kir qilib qo‘ysa-chi. Paxtaligi kir emasku-ya, lekin aytib bo‘ladimi – kiyib yurgan kiyimi-da har holda. Yo‘l xaltasini eshik oldiga bir amallab joylashtirdi.

Tepadagi o‘rindiqni tushirsa paxtaligiga ham joy topilardi. Ammo Kuzma uni qanday tushirishni bilmasdi. Shunday bo‘lsa-da, pastga tortib ko‘rdi, bundan bir ish chiqmadi. Orqasiga o‘girilganida esa Gennadiy Ivanovich unga masxaraomuz tikilib turganini ko‘rdi.

– Shoshma, shoshma – deb polkovnik joyidan turdi-da o‘rindiqni ushlab turgan lo‘kidonni surdi. – Mana bunday. Texnika bu, og‘ayni. Qarasam, kuchli erkaksan, nima desa bo‘ladi, vagonni ag‘darib yuborishing ham hech gapmas.

– Qishloqlikmisan? – so‘radi oq maykali Kuzmadan.

– Ha.

– O‘sha yerda ko‘rpa-to‘shak bor, – deb eshik oldidagi qishloq uylarida bo‘ladigan so‘riga o‘xhash tokchani ko‘rsatdi polkovnik. Kuzma o‘sha tokchaga paxtaligini tiqib qo‘ydi. O‘ringa yoyilgan opoq choyshab ustiga qo‘yib bo‘lmas buni har qalay. Ha mana, har tulul joy topildi. U sal bo‘lsa-da yengil tortdi, endi o‘zi ham bir amallab joylashib olsa, bas.

— Gennadiy Ivanovich, nima deb o'ylaysiz, men bu o'rtoqning qishloqlig ekanini qayerdan bildim? — dedi oq maykali.

— Turishidan.

— Yo'q, yuzidan. E'tibor qilgin-a: barcha qishloqliklarning yuzi qoraygan bo'ladi. Chunki ular doim ochiq havoda yurishadi-da.

— Men bo'lsam, turishidan bilgansan deb o'ylabman, — deb istehzo bilan takrorladi Gennadiy Ivanovich.

Polkovnik surilib joy bo'shatdi, Kuzma chekkaga omonatgina o'tirdi. Gennadiy Ivanovichning tikilib turganini sezib, qulayroq o'mashib oldi. U eshik yonida, oq maykali esa deraza tomonda, ularning o'rtasida polkovnik o'tirar edi. Ro'paradagi o'rinda Gennadiy Ivanovich tizzalarini bukib chalqancha yotibdi. Kuzma unga qaradiyu, darrov ko'zini olib qochdi. Chunki u Kuzmani e'tibor bilan kuzatmoqda edi. Keyin ham u o'ziga ko'z uzmay tikilayotgandek tuyulaverdi. Kiprik qoqmay qarab turolmaydi-ku axir, menga shunday tuyulyapti, shekilli, ko'zi o'zi g'alati ekan, deb o'yladi Kuzma. Bir umr katta lavozimda ishlagan bo'lsa kerak. Inson sifatida marhamatli, oljanob emasligi ko'rinish turibdi. Ovozi ham o'ktam emas, shuning uchun ham odamlarni ko'zi bilan qo'rqtib o'rgangan ekan-da, degan fikrga keldi Kuzma oxir-oqibat.

— Xo'sh, aziz do'stim, qishloqda ahvol qanday? Yig'imterimni tugatdingizmi? — deb so'radi oq maykali o'zi ko'p ham qo'llamaydigan so'zlarga unchalik tili kelishmay.

— Tugatdik, — dedi Kuzma.

— Hosil qanday bo'ldi?

— Bu yil yomon emas. Biz tomonlarda, odatda, hosil uncha yaxshi bo'lmaydi. Lekin bu yil o'rta hisobda o'n ikki sentnerdan g'alla oldik.

— Hosil bu yil o'zi hamma joyda yaxshi bo'ldi, — deya gapga qo'shildi polkovnik. — Shunday ekan, qishloqda to'qchilik, degin.

— Qishloq hech vaqt och qolmaydi, — dedi so'zlariga urg'u berib Gennadiy Ivanovich. — O'zida bo'lmasa, davlatdan qarz oladi, to'lash muddati kelganda esa yana qarz oladi. Qachonki, davlatning o'zi bu qarzlardan voz kechmaguncha shu tarzda davom etaveradi.

— Bu — u yerda hayot yaxshi ekanidan emas-da har holda, — dedi oynadan tashqariga tikilgan ko'yi e'tiroz bildirib oq maykali. — O'zingiz ham bilasiz.

– Hm-m, – dedi Gennadiy Ivanovich kinoya bilan. – Ayting-chi, har yili qishloqda yig‘im-terim boshlangan chog‘i zavodingiz qancha ishchi kuchini yo‘qotadi, xo‘sh?

– Nima ham qila olardik? Boshqa yo‘li bo‘lmasa. Yordam bermasak qiynalib qoladi ular.

– E-e, qo‘ysangiz-chi. Ha mayli, shunday ham deylik. Unda nega yil oxirida – sizda ish qaynagan mahal, qishloq odamlari bu vaqt g‘irt bekorchi bo‘ladi, ularni yordamga yuborishmaydi? Sizlar doim yordamchi yuborasiz-ku. Axir teng huquqlik asosida bir-birini qo‘llab turish kerak emasmi, xuddi yaxshi qo‘shnilar kabi?

– Zavodda ishslash uchun malaka kerak.

– Mutaxassis bo‘lmanalarga ham qancha ish topiladi-ku zavodingizda.

– Zavodni xuddi mendan yaxshi biladigandek gapirasiz-a, Gennadiy Ivanovich.

– To‘g‘ri, zavodni-ku sizchalik bilmasman, ammo menimcha, qishloqda ahvol u darajada yomon emas, – dedi Gennadiy Ivanovich. – Umuman olganda, gap bunda ham emas. Bir sil kasal odam menga qiziq gap aytib qolgan edi. O‘zim xohlasam allaqachon sog‘ayib ketardim, ammo bundan menga hech bir naf yo‘q, degan edi u. Tushunmadingizmi? Avvaliga men ham tushunmaganman, shunda uning o‘zi yaxshilab tushuntirib bergen. Xullas, u besh-olti oy lab butunlay davlat qaramog‘ida, ya’ni kasalxonada yotarkan. Yoki dam olish uyida, baliq ovlab, daraxtzor kezib hordiq olar ekan. Davlat esa bu vaqtida unga yuz foiz maoshini to‘layveradi. Bepu‘ davolaydi, eng sifatli, foydali yemak bilan boqadi, uy olishga ham navbatga birinchilardan qilib qo‘yadi. Xullas, u kasal odam sifatida hamma imtiyozlardan to‘liq foydalanadi. Dam olishdan qaytgach esa, u aqli hushi joyida bo‘laturib, ayniqsa, tuzala boshlaganini sezsa, chekadi, ichadi. Davlat beradigan imtiyozlardan quruq qolmayin, deydi-da. Bunga u obdan o‘rgangan, boshqacha yasholmaydi ham endi.

– Nima qipti shunga? – dedi oq maykali.

– Hech nima, – dedi Gennadiy Ivanovich unga iltifot qilganday jilmayib. – Ammo qishloqda ham uncha-muncha imtiyozli shart-sharoit bor ekanini inkor etmassiz. Deylik, mashinani ularga arzon-lashtirilgan narxda sotamiz-u, nonini qimmatga olamiz, to‘g‘rimi? Ular ham qishloqicha ustamonlig-u tejamkorlik bilan, o‘z muammo-

larini o'zi hal etsa, bundan foyda yo'qligini allaqachon tushunib yetgan. Yig'im-terim vaqt shahardan mashinalar, yordamchilar yuborilishini, kerak bo'lsa, davlat yana pul ham berishini ular juda yaxshi biladi.

«Ha, sendan boshqa hamma ahmoq ekan-da», deb o'yaldi Kuzma, lekin gap qo'shmadi.

– Non yemaydigan odamning o'zi yo'q axir, hammamiz yeymiz, – dedi oq maykali.

– Zavodingizdan chiqadigan mashinalar ham zavodning o'zida qolib ketmaydi-ku, – dedi Gennadiy Ivanovich. Oq maykali istar-istamas to'g'ri degandek bosh silkib qo'ysi. – To'g'ri aytdingiz, nonni hamma yeysi. Lekin har kim o'z ishi uchun mas'ul, javobgar! Buni qat'iy talab etish ham kerakmi – kerak. Bizdan talab qilinadi-ku. Ammo negadir qishloqqa kelganda, imtiyozlar berib qo'yanmiz, bizni laqillatishsayam indamaymiz, go'yo u boshqa davlatda joylashgandek. Ular bilan hatto savdolashib ham o'tiramiz.

– Bugun namuncha qishloqqa yopishib oldingiz? – dedi vazmin ohangda polkovnik. Uning gapidan iltifot bilan, ammo qatiy tarzda bu zerikarli bahsni bas qilaylik, degan ma'no anglashilardi.

– Hech ham-da. Qishloqqa, qishloq ahliga hech qanday adovatim yo'q. Ko'rib turganingizdek, uning qoloqligi sababini aniqlashga urinmoqdaman, xolos, – dedi darhol taslim bo'lishni istamay Gennadiy Ivanovich. – Nazarimda, ayb o'zimizda. Vaziyatni mana endi tushunayapmiz chog'i. Oxirgi vaqtda hatto ayrimlar qishloqqa yordamchi yubormaymiz, deb rad ham etdi. Ana o'shandagina ularning o'z kuchi bilan hamma ishni eplay olishi ma'lum bo'lib qoldi.

– Xudo haqi, Gennadiy Ivanovich, bizsiz ham hal qilinadi bu masala – bekorga bosh qotirgandan nima foyda? – dedi xushfe'llik bilan ko'z qisib polkovnik, ammo avvalgidek qatiy ohangda davom etdi. – Keling, yaxshisi, qo'limizdan keladigan ishni qilaylik. Xo'sh, preferans<sup>1</sup> o'ynasak-chi.

Oq maykali birdan jonlanib ketdi:

– To'g'ri aytasiz. Allaqachon boshlash kerak edi o'yinni, biz bo'lsak nima balolardan bahslashib o'tiribmiz. Yo'lovchimizmi biz yoki Vazirlar Mahkamasi a'zolarimi? – U Kuzmani ham chaqirdi:

<sup>1</sup> Preferans – karta o'yinining bir turi.

- Hoy, hurmatli o'rtoq, sen-chi, bu o'yinni bilasanmi?
  - Preferansnimi? – Kuzma bu qanday o'zin ekanini bilmas edi.
  - U «durak»<sup>1</sup>ni biladi, – deb Kuzmaning o'rniga javob berdi
- Gennadiy Ivanovich.
- «Durak»nimi, ha, bilaman, – deya soddalik bilan tasdiqladi Kuzma.

Birdan kulgi ko'tarildi – polkovnik ham, oq maykali ham yay-rab-yayrab xaxolar, Gennadiy Ivanovichning ham yuzi mammunlik-dan yorishib ketgan edi. Oq maykalining xuddi mototsikl motoridek gurullagan baland ovozi butun vagon bo'ylab taraldi. Polkovnik kul-gidan to'xtab Kuzmaning yelkasiga qoqib qo'ydi:

- «Durak» ham yaxshi o'zin, biroq biz hozir «preferans» o'ynamoqchimiz. «Durak»ni keyingi safar o'ynarmiz... Do'stingizni chaqirib kelasiz-da endi yana, – dedi u oq maykaliga qarab. U sakrab turib qo'lini harbiychasiga boshi uzra ko'tarib:

– Xo'p bo'ladi! – dedi.

Ularning shovqin-u baqir-chaqiridan Kuzmaning yuragi siqi-lib ketdi. Gennadiy Ivanovichgina joyida bamaylixotir yotardi. Oq maykali kamzulini kiyib, faqat qorin tugmasini taqdi-da may-navozchilik qilib burnini qashib qo'ydi va Gennadiy Ivanovichga qarab:

- Gennadiy Ivanovich, kecha sizga qancha qarz yozgan edik? – deb so'radi.

– Ko'p emas.

– Kam deysizmi, yetmaydimi?

- Yetishga-ku yetadi-ya, – dedi u soatiga qarab. – Ammo hozir u yer yopiq.

– Yo'lini qilsa bo'ladi.

Oq maykali quvnoq bir ohangni xirgoyi qilib chiqib ketdi, yo'lakdan uning ovozi eshitildi:

– Yaxshi qiz, iltimos, kupemizga bir kirib ketsangiz.

Bir daqqa o'tar-o'tmas eshikda provodnik ayol paydo bo'ldi va horg'in ko'zlarini polkovnikka tikdi. Polkovnik esa Gennadiy Ivanovichga imo qildi. Gennadiy Ivanovich iltimos emas, aksincha qat'iy ohangda:

<sup>1</sup> Durak – karta o'zinining bir turi.

– Bizdan ham bir xizmat bor, yaxshi qiz, chiptali yo'lovchingizga joy berdik. Endi siz ham bir iltifot ko'rsatasiz, – dedi ayolga pul uzatib. –Bitta konyak olib kelib bersangiz, malol kelmasa, albatta. O'zlarinikisiz, sizga berishadi.

– Mayli, – dedi odatdagidek rozi bo'lib ayol.

Kuzma nima qilishni bilmasdi – joyiga yotsinmi yoki yo'lakka chiqib ketsinmi? Bir qarorga kelolmay boshi qotdi. Yana yumshoq vagonga chipta olgani uchun o'zini o'zi koyishdan boshqa chorasi qolmadi.

Yo'lakka chiqay desa, etigini yechishi kerakmikan, haligi ayol ko'rib qolsa bormi, yana diydiyosini boshlaydi. O'zini xuddi boy xotindek tutishini-chi! Asli nasli surishtirilsa, Kuzmadan ortiq joyi yo'q, faqat amali demasa. Eh, odamni ne ko'ylarga solmaydi bu amal degani.

Kuzma etigini yechib, paytavasini yozayotganida yana Gennadiy Ivanovich o'zini kuzatayotganini sezdi. U noqulay ahvolga tushdi, uni jahlmi, tortinishmi – allaqanday bir his chulg'ab oldi. «Nima balo bu menga xira pashshadek yopishib oldi», deya xayolidan o'tkazdi. Kuzma polkovnikning yaltillagan xrom etigi yonginasida turgan etigini tezda o'rindiq tagiga itarib kirgizib yubordi va paypoqchan yo'lakka chiqdi. «Qani, endi ham bir nima deb ko'rsin-chi, o'sha xotin».

Kuzma oynadan tashqarini kuzatib turarkan, konyak olib kelgan provodnik xotinning ovozini eshitdi. Birdan g'ala-g'ovur kuchaydi – aftidan oq maykali «preferans»chini boshlab keldi. Ular xaxolar, allaqanday raqamlarni aytib baqirishar edi. Keyin birdan jim bo'lib qolishdi, hayal o'tmay Kuzmaga tanish bo'lgan qultillagan tovush eshitildi, so'ng kimdir bor ovozicha tomoq qirdi.

Tashqarida esa shamol battar avjiga chiqardi. Bahor toshqinida daryo suvi bor axlatni oqizib ketganidek, yerdagi xas-cho'p, chang-to'zonning hammasi havoga ko'tarilgan – osmon kulrang tusga kirgan edi. Yo'l yuzida joylashgan besh-olti uydangina iborat qishloqchalar orasi yelib ketayotgan poyezd tufayli juda yaqin tuyular, go'yo kuchli shamol ta'sirida katta bir qishloq har yoqqa sochilib ketgan, deb o'ylash mumkin edi. Shamolda simyog'ochlar ham qattiq chayqalar – u yoqdan bu yoqqa borib kelar, bu hatto vagondan ham yaqqol ko'zga tashlanar edi. Simlarning tarang-

lashib, guvullashi eshitilar va ana-mana deguncha go‘yo uzilib ketadigandek edi.

– Hoy, og‘ayni! – degan ovozni eshitib Kuzma ortiga o‘girildi. – Menga qara, mana shu do‘stimiz bilan joy almashishni taklif qilsak, nima deysan? – dedi oq maykali «preferans»chiga ishora qilib. – Uning joyi yonimizdag‘i vagonda. Bilasanmi, ancha til topishib qoldik, biz bilan birga ketsa degan edik.

– Ko‘chib o‘tsangiz ko‘rasiz, u yer sizga ko‘proq ma’qul bo‘ladi, – dedi «preferans»chi ham.

– Menga farqi yo‘q, – dedi loqaydlik bilan Kuzma.

Polkovnik unga sinovchan tikilib qoldi:

– Xohlamasang, bunga hojat yo‘q. Shu, bir ahmoqona fikr kelib qoldi-da miyamizga, yana biz ko‘proq o‘tirib qolsag-u sen dam olmoqchi bo‘lsang, xalaqit bermaylik degan edik-da, – dedi.

– Menga farqi yo‘q, – deya gapini takrorladi Kuzma.

– Mana bu boshqa gap, – xursand bo‘lib ketdi oq maykali. – Aytuvdim-ku sizlarga u yo‘q demaydi, deb. Endi faqat qizlar bilan kelishib olsak bas. Xohlagan paytingda bizga mehmonga kelaver, – dedi u Kuzmaga qarab. – Yonma-yonmiz – qo‘shni vagon. Mana hozirning o‘zida hal qilamiz bu ishni.

Kuzma tik turganicha paytavasini o‘rab etigini kiyди. Sakrab pax-taligining yengidan tutib uni tortib tushirdi. Yo‘l xaltasini qo‘liga oldi. Mana – u ketishga shay. Almashish bo‘lsa almashish-da, nima farqi bor. Shaharga yetib borsa bo‘ldi emasmi? Umumiy vagonga almashishganida-ku, undanam yaxshi bulardi. Kim biladi, balki u yerda yana kimdir buni ham taklif qilib qolar.

«Preferans»chi uni kutib turardi.

– Xayr, – dedi Kuzma orqasiga o‘girilib.

– Omon bo‘l, – dedi polkovnik.

Do‘kon yopildi, derazalari ham mixlab tambalandi. Do‘koning hisob-kitob qilish uchun yopilgani haqidagi e‘longina eshikdan olib tashlanmagan; uzoqdan bu qog‘ozni ko‘rgan odam atay kelib uni o‘qib ko‘rar edi. Bu bir parcha qog‘ozni allaqachon olib tashlash mumkin edi, albatta. Ammo odamlar Mariyaga zarar yetkazib qo‘yadigandek bundan cho‘chirdi: mayli-da, Kuzma pul topguncha, haliyam taftish davom etyapti, deb o‘ylay qolaylik. Zora, bu bilan Mariyaning taqdiri ham chalg‘itib turilsa.

Do'kon xuddi qarg'ish tekkanga o'xshardi – qancha odamning sho'ri qurimadi axir bu yerda ishlab! Ilya Innokentevich degan odam bo'lardi. U urushgacha o'n yildan ortiq do'konda ishlagan va xudoga shukur qilmoq kerakki, o'sha vaqtida hech qachon kamomad chiqmagan. Ilya Innokentevichga qanday savdo qilishni o'rgatishning hojati ham yo'q edi, negaki otasi o'zi do'kondor o'tgan. Keyinchalik o'sha do'kon unga qolgan. Xullas, bolaligidan savdo-sotiq bilan suyagi qotgan edi uning.

Ilya Innokentevich o'ldi-yu, do'konda ishlab birov baraka topmadi. Ayniqsa, urushdan keyin savdo qilgan Marusya ismli kelgindi ayol yomon kuygan edi. Uning «xoxol»cha shevasidan qishloqdagilar kulib yurardi. Marusya urushni o'z ko'zlari bilan ko'rghan, o'lim changalidan ikki bolasi bilan bir amallab omon chiqqan edi. Buning ustiga juda qashshoq yashardi. Shuning uchun ham odamlar uni ayar, yaxshi ko'rар edi. Marusya qishloqliklarga nisbatan ancha savodli bo'lsa ham ehtiyojkorlik qilmagan ekan. O'shanda do'kondan qancha kamomad chiqqani hozir birovning esidayam qolmagan. U besh yilga kesilib ketgan, bolalari esa yetimxonaga topshirilgan edi. Keyin ularning taqdiri qanday kechdi, nima bo'ldi, buni hech kim bilmaydi ham.

Do'konda bir qo'li yo'q Fyodor ishlagan vaqtida esa taftish qilinganda ortiqcha pul chiqqan edi. Boshqalardan ko'ra uning omadi chopganroq ekan, yo'lini qilib vaziyatdan chiqib ketdi. Taftishchilariga o'z pulimni ham do'konda saqlardim, deb aytdi. Avvaliga gapi-ga ishonmay uni tumanga olib ketishdi. So'zida qat'iy turib olgach qo'yib yuborildi-yu, do'konda ishlashiga izn berilmadi. Uning o'zi ham tilla berishsa-da, endi do'konga qaytmas edi. Shu-shu fursat keldi deguncha u bu haqda gapirib yuradi.

Mariyadan oldin do'konda Roza ismli yoshgina qiz savdo qilgan. Qandaydir sabab bilan u tumandagi do'kondan haydalib, shu yoqlarga kelib qolgan edi. Roza do'konni vaqt bilan emas, xohishiga qarab ochardi. Dam olish kunlari, bayramlarda tumanga ketganicha uch kunlab qorasini ko'rsatmas, keyin arzimagan mayda-chuyda ko'tarib kelib, molga borgandim derdi – qani endi birov uning o'yin-kulgi qilib yurganini isbotlab berolsa! Qishloq ahli uni yoqtirmasdi. Roza ham na qishloq, na do'konning o'zi uchun sariq chaqalik ahamiyati yo'qligini yashirmsadi. Necha marta qishloqdan ketmoqchi bo'ldi.

Sotuvchi yo‘qligi uchun uni ishdan bo‘shatishmadi. Aleksandrovsk qishlog‘idagi mexanika bilim yurtining yigitlari Rozaning oldiga tez-tez kelib turar, shunday kunlarda u o‘yin-kulgidan ortmay qolar edi. Rozaning kamomad sabab uch yilga kesilib ketishida o‘sha yigitlarning ham hissasi katta bo‘lganiga shubha yo‘q edi.

Rozadan keyin to‘rt oygacha do‘kon yopiq turdi – u yerda ishlashga hech kimning yuragi dov bermay qo‘ydi. Odamlar arzimagan gugurt yoki tuz uchun ham yigirma chaqirim uzoqdagi Aleksandrovsk qishlog‘iga borar, bu ham kamdek u yerdagi do‘kon goh ochiq bo‘lsa, goh yopiq turar edi. Nima ham deyish mumkin – qishloq ahli nihoyatda holdan toydi: o‘zlarining do‘koni ishlab turganida, boribkelishga o‘n daqiqa ketardi. Mana, endi bir-ikki kun ovora bo‘lib yugurishga to‘g‘ri keladi.

Qishloq kengashidan tuman ish ta’midotiga aynan shu masalada qo‘ng‘iroq qilishgan edi, ular sotuvchini o‘zingizdan toping, deyishdi. Odamlar esa bas, yetar – qamoqxonalarni to‘ldirganimiz, derdi. Do‘konda ishslashning oqibatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgandan keyin kim ham bila turib bo‘ynini sirtmoqqa tutib berardi? Buning ustiga arzimas maosh to‘lansa.

Xushhavo bahor kunlarining birida esa yaxshi xabardan go‘yo olam yorishib ketdi: uchinchi farzandiga homilador bo‘lgan Nadya Voronsova chaqaloq dunyoga kelgach do‘konda ishslashga roziman, deb qoldi. Oy-kuniga hali ikki oy bor edi. Buning ustiga, bola tug‘ilishi bilan uni darrov peshtaxtaga turg‘izib qo‘yib bo‘lmasa. Chaqaloq ham, jilla qursa, ikki oylik bo‘lishi kerak edi. Xullas, ana shu to‘rt oy mobaynida do‘konda ishlab turadigan odam topish lozim edi. Mo‘ljal qilingan odamlarni qishloq kengashiga bir-bir chaqirib ko‘ndirishga harakat qilishdi. Shular orasida Mariya ham bor edi.

Aksiga olib do‘konda ishslashga uning shart-sharoiti to‘g‘ri kelardi. Kenja o‘g‘li kasalmand, zaifroq bo‘lgani uchun yaxshi parvarishga muhtoj edi. Buning ustiga, Mariyaning o‘ziyam davolanib chiqqaniga ko‘p bo‘limgan, shifokorlar unga og‘ir ish qilishni taqiqlagan, iloji boricha o‘zingizni ehtiyyotlab-asrang, deb tayinlagan edi. Aytishga oson, ammo kolxozda yengil ishning o‘zi bor ekanmi? Bu haqda og‘iz ochishgayam xijolat bo‘lasan kishi. Xullas, Mariya o‘zini hech ayamadi, uyni ham, do‘konni ham eplashtirdi. Boshida ish silliq ketayotgandek bo‘lsa-da, Mariyaning ko‘nglida bolalarim hali yosh,

menga bir narsa bo‘lib qolsa-chi, ishqilib tinch-omonlikda ularni katta qilab olay, degan hadik ham yo‘q emas edi.

O‘sha vaqtlar ular do‘kon yonidagi eski uyida yashardi – qulaygina, bolalar ham ko‘z o‘ngida, sal bo‘sh qolsa tomorqada ishlashi mumkin edi. Bitta-yarimta ul-bul narsa xarid qilgani kelsa, chaqiradi – darrov yugurib boradi. Bundan qulayi bo‘larkanmi? Yana deng, oz bo‘lsa-da Kuzmaga ham ko‘maklashadi: yangi uy qurishga qarz olgandan keyin pulga uncha-muncha ehtiyojmand bo‘lib qolishgan edi o‘zi.

Shunday bo‘lsa-da, Mariyani qishloq kengashiga chaqirib ish haqida aytishgan zahotiyiq u rad javobini bergen edi:

– Ilgari bu do‘konda ishlagan ne-ne o‘qigan, savodli odamlar qamalib ketdi-yu, menga yo‘l bo‘lsin.

Ertasi kuni Kuzma uydaligidida qishloq kengashi raisining o‘zi ularnikiga keldi. Rais Mariyani qanday ko‘ndirishni bilardi. Shu bois u gapni avvalo, do‘kon ishlamayotgani qishloq ahliga qanchalik qimmatga tushayotganidan boshladi. Keyin Nadya Voronsova ishga chiqquncha kimdir odamlarning joniga ora kirib, do‘konda savdo qilib turishi kerakligini aytdi. Oxirida Mariyaning bu joyga eng munosib nomzod ekanini ham qo‘sib qo‘ydi.

Shunda Kuzma:

– O‘zing bilasan Mariya, – degan va gapni hazilga burgan edi: – Agar bir gap bo‘lsa, ana – sigirni sotamiz, shundog‘am har yoz o‘rib kelish jonga tegdi.

Kimdir bu ishni zimmasiga olishi lozim, Mariya tushunib turibdi. Shuning uchun ham u endi suhbat avvalidagi kabi bosh chayqamas, qo‘llarini tizzasiga qo‘ygancha indamay, g‘amgin bir qiyofada raisning gaplariga qulq solib o‘tirar edi. Endi bu ishni rad qilolmasligi haqida o‘ylar, ammo rozilik berishga ham cho‘chir, xullas, aniq bir qarorga kelolmay qiyinalar edi.

– Nima deyishgayam hayronman, – derdi Mariya nuqul.

Oxir-oqibat rais uni ko‘ndirdi. Bir haftalar o‘tib Mariya do‘konni ochdi. To‘rt oy – kelishilgan muddat yakuniga yetgach, Nadya Voronsova fikridan qaytib qolsa bo‘ladimi?! Bu gapni eshitib Mariyaning naq yuragi yorilayozdi. Darhol do‘konni yopib, hisob-kitob qilinsin, deb turib oldi. Peshonangdagini ko‘rasan deganlari bekor gap emas: hammasi joyida ekan – arzimagan uch-to‘rt rubl farq chiqdi, xolos.

Shundan keyingina Mariya xotirjam bo‘lib ishini davom ettira boshladi.

Xullas, shu tarzda u do‘kon sotuvchisi bo‘lib qolgandi.

Kolxozning og‘ir mehnati oldida savdo ishi nima degan gap? Albatta, biroz javobgarligi bor-u, ammo qiyin ish deb bo‘lmaydi buni. Ombordan og‘irroq yuk olib chiqishga Kuzmaning o‘zi qara-shar, umuman olganda, yordam so‘rasa hech bir erkak yo‘q demas edi. Mariya do‘konni ertalab soat sakkizda ochardi va o‘n ikkigacha savdo qilardi. Soat to‘rtgacha dam olishi, keyin yana sakkizgacha ishlashi lozim edi. Biroq Mariyaning bu tartibga riosa qilishi unchilik shart emasdi, o‘z vaqtida do‘konni ochar, xaridor yo‘qligida esa uyida bemalol ishini qilaverar edi. Bu paytda bolalarini eshik oldiga qorovullikka qo‘yib ketardi. Kimdir kelib qolsa ular chopib borib Mariyani chaqirardi. U biron martayam hech kimni uzoq kuttirib qo‘ymagan. Qishloq ayollarining ko‘pi vaqt-soatni bilmaydi, bilganlariyam tushlik chog‘i ekani esida turarmidi, qo‘li bo‘sashi bilan kelaveradi-da. Mariya uyda bo‘lsa kelib do‘konni ochadi. Bu unga hech ham malol kelmaydi. Axir o‘zi zo‘rg‘a yurgan kampirning oyog‘ini sudrab qishloqning u boshidan bu boshiga borib keliishi osonmi? Erkaklar esa buning aksi, kechqurunlari vaqt deganini o‘ylab ham o‘tirmay, soat to‘qqizmi-o‘nmi ichkilik so‘rab kelaveradi. Do‘kon allaqachon yopilgan, aroq ham yo‘q deb qancha gapirma, befoyda. Biri olib biri qo‘yib nuqul bir gapni qaytaraveradi: nima qizg‘anyapsanmi, bera qol endi. Bu hol ko‘p takrorlanavergani uchun Mariya aroqni uyiga ham olib kelib qo‘ydi: karavot tagida bir yashigi turar, yoz kunlari derazadan ham sotaverishar edi. Mariya uyda yo‘q bo‘lsa, erkaklar Kuzmani qidirib kelishardi, hatto bir marta uch shish-hacha aroqni Vitka ham sotgan.

Mariya qarzga ichkilik bermasdi. Erkaklarga qo‘yib bersang, juda o‘zidan ketadi, qarzni to‘lash esa xotinining bo‘yniga tushadi. Erkak kishiga nima – mast chog‘i puli yo‘q bo‘lib qoladi, ertasigachi, yana hammadan boy – kayf-safoning ketidan quvadi. Uyidagilar bir tiyinga zor o‘tirgani xayoligayam kelmaydi. Cho‘ntagingda hemiring bo‘lmasa – nima qilasan ichib? Bir paytlar Mariya Mixail Kravsovning xotini Darya bilan o‘zaro kelishib olib, unga hatto puli bo‘lsayam aroq bermay qo‘ygan edi. Negaki, erining aroqxo‘rligidan yig‘layverib ezilib ketgan Daryaga juda rahmi kelgandi. Mixail

ustingdan arz qilaman deb do‘q ursayam Mariya gapida turib olgandi o‘shanda. Shunda Mixail qishloq kengashi raisini boshlab kelib uning oldida do‘q ura ketgandi:

– Mana sen – Sovet hukumatisan, – dēya qo‘lini peshlab raisga yuzlangandi u, – xo‘sh, menga ayt-chi, odam o‘z puligayam xohlagan narsasini sotib ololmasa, bu nima degan gap? O‘zini kim deb o‘ylaydi bu xotin – allaqanday qonunlar chiqarib oladimi-yey? Bu huquqni kim beribdi unga? Qani, sen unga bir tushuntirib qo‘y-chi buni.

– Bir shisha bera qolsang-chi shunga, – degandi rais ham tezroq bu mashmashadan qutulish uchun.

Mariya ham bir boplamasammi seni deya shunday degandi:

– Ishonchnoma olib kelsin – bergenim bo‘lsin.

– Yana qanaqa ishonchnoma? – ko‘zлari chaqchaygandi Mixailning.

– Daryadan aroq olishingga ruxsat bergani haqida ishonchnoma yozdirib kelsang, mayli.

Rais qo‘l siltab chiqib ketgan, Mixail baqirib, shovqin-suron ko‘targancha qolavergandi. Eshikni taraqlatib yoparkan do‘koningga o‘t qo‘yaman, deb Mariyaga xo‘p dag‘dag‘a qilgan edi. Daryaning aytishicha, eri uyga borib ishonchnoma yozib berasan, deya musht o‘qtalib uni rosa quvlaganmish, arang qochib qutilbdi. O‘sha kuni kechqurun Mixailni yana mast holda ko‘rishgandi – oraga odam qo‘yib olgan bo‘lsa kerak-da. Bunday hollarda Mariyaning qo‘lidan hech ish kelmasdi.

Mariya ishlagan vaqtida do‘kondan odam arimasdi. Ayniqsa, ayollar hech narsa sotib olmasayam uning oldiga kelaverishardi. Ular peshtaxta oldida navbatda turgandek tizilishib olib, o‘z muammolarini muhokama etar yoki kimningdir g‘iybatini qilar edi. Kampirlar bo‘sh qutilarga o‘tirib olardi. Bo‘shagan uch-to‘rt yog‘och quagini Mariya o‘tirish uchun atay qoldirgan edi. Qish kunlari erkaklar ham ishga ketish oldidan chekkani do‘konga kirar va Mariya ularga pechkasini yoqtirib olar edi. Eski yangi yil bayramlarida agar do‘kon ochiqligini ko‘rib qolsa, to‘p-to‘p bo‘lib yurgan do‘st-ulfatlar bostirib kirar va shu yerda o‘yin-kulgi qilar edi. Mariya peshtaxta ustiga bir amallab chiqib olib, ularni tomosha qilib o‘tirardi. Ular Mariyani ham davraga tortar, keyin do‘konni yopishga majbur qilar, o‘zлari

bilan sudrab ketar edi. Mariya yo‘lda ulardan arang qutulib, qochib qolardi.

Qishloqda Mariyaga ishi tushmaydigan odam deyarli yo‘q edi. Mariya buni bilar va bu unga yoqardi. Negaki, qishloqda bunday odam kam – barmoq bilan sanasa bo‘lardi ularni: qishloq kengashi raisi, kolxoz raisi, shifokor, o‘qituvchilar va mutaxassislar. Ularning orasida Mariya ham bor. Agar agronom bir oyga qayergadir ketsa, buni hech kim sezmasligi mumkin. Ammo Mariya-chi, bir mar-ta tobi qochib uch kun do‘konni ocholmaganida – odamlar yugurib qolishgan, qachon ishga chiqasan, deb holi-joniga qo‘yishmagan edi. Ko‘philik endi u bilan yaqin bo‘lishga intilardi. Biroq Mariya hammaga birdek munosabatda bo‘lishga harakat qilardi. Mariyaning esida: yangi ish boshlagan kezлari do‘konga ko‘pdan beri sotilmagan yelim dasturxon kelib qoldi. Buni eshitgan xotinlar tanish-bilishchilik yuzasidan hech bo‘limganda bittadan dasturxon olib qo‘yishini iltimos qilib birin-ketin uning uyiga kelaverdi. Shunda Mariya hech kimning dilini og‘ritmaslik uchun hazil tariqasida, ammo qatiy ohangda ularga vaziyatni shunday tushuntirgan edi:

– Bu nimasi axir, dugonajonlar? Shaharda tanish-bilishchilik qilib narsa olinadi, bizda emas. Chunki u yerda sotuvchiga tanish ham, notanish ham odam bor. Men esa sizlarning hammangizni taniyman, aytganingizdek qilsam, boshqalarning ko‘ziga qanday qarayman, axir? Ertaga barvaqtroq kelsangiz – o‘zingiz shundog‘am olaverasiz.

Ertasi kun Kuzma tong saharlab hovliga chiqqanida do‘kon eshigi gavjum edi. Mariya tura solib ro‘zg‘or ishlariga ham qaramay (shuncha odam kutib turganda buning mavridi emas, axir) do‘konga chopgan edi. Do‘konning ochilish vaqtি, ya’ni soat sakkiz ham bo‘lmay yelim dasturxonni sotib bo‘lgandi.

Ish boshlaganining dastlabki kunlaridanoq Mariya qarz daf-tari ochgan edi. Oxir-oqibat bu daftar raqamlarga to‘lib ketdi, ba‘zilarining ustidan chiziq tortilib yangilari yozildi. Nima ham qila olardi? Bolalikdan birga o‘sган dugonasi, ikki bolani yolg‘iz katta qilayotgan Klava kelib, qizi Katkani maktab kiyimisiz dars-ga kirgizishmayotgani, olib berishga esa hozir imkonи yo‘q ekanini aytib tursa, qarzga bermay iloji ham yo‘q-da! Mariya qimmatroq narsalarni kamdan kam hollarda, asosan mayda-chuydani nasiyaga berardi. Kimningdir qarzi ko‘payib ketsa, oldin uni uzishni talab

– Durust, – dedi. – Kuzma de. Bu – bobomiz, – bir qo‘lini chap tomoniga uzatdi u. – Bunisi esa buvimiz, – ikkinchi qo‘lini o‘ng yoniga uzatdi. – Bu esa men. – Yigit qo‘llarini ko‘kragi ustida qovushtirib sharaqlab kulib yubordi.

– Qoyil-e! Qoyil senga! – dedi kampir boshini sarak-sarak qilib. – Ko‘rmagan, bilmagan odam oldida o‘zingni tutishingni qara. Siz bunga e‘tibor bermang, joylashavering, – dedi keyin Kuzmaga yuzlanib. – Restorandan ortmay qoldi bu o‘zi.

– Nima, men yomon gap aytdimmi? – dedi shang‘illab yigit. – Uni xafa qildimmi? Kuzma, o‘zing ayt, seni ranjittimmi?

– Hozircha hech qanday xafachilik yo‘q, – dedi Kuzma.

– Ana! Eshitdingizmi, buvijon, Kuzma mendan xafa emas. Eh buvijonim-ey, meni ayblayverarkansiz-da.

Yigit kampirga yaqinroq o‘tirdi, Kuzmaga ko‘z qisib qo‘yib, uni quchoqlab oldi.

– Qoch-e! – dedi kampir jahl bilan. – Tezroq manzilimizga yetib olsak edi. Rosa jonga tegib ketding, rostini aytsam.

– Nima? Nahotki joningizga tekkan bo‘lsam? Bir umr birga yashab, cholingiz joningizga tegmagan-u, bir marta quchoqlab men joningizga tegibman-da! Boboy! – dedi battar shang‘illab yigit. – Kampiringizni sizdan tortib olsam, nima qilasiz?

– Qo‘lingdan kelarmikan bu, – dedi salmoqlab chol.

Yigit jim bo‘lib qoldi. O‘ylangancha cholga tikilib turdi-da, keyin kampirga qarab horg‘in ovozda dona-dona qilib o‘qiy boshladi:

– «Chol-u kampir bo‘lgan ekan, sutli bo‘tqa yegan ekan...»

– E, masxaraboz!

– «Chol kampirdan jahli chiqib, qorniga musht solgan ekan.»

Yigit o‘z-o‘zidan zavqlanib ketdi:

– Boboy, yoshroq vaqtningizda kampiringizni hech urgamisiz?

– Umrim bino bo‘lib uni hatto chermaganman, – dedi chol g‘urur bilan.

– Hech hammi? Biron martayam-a?

– Biron martayam.

– Hozir mening cholimdek erkakni qidirib ham topib bo‘lmaydi, – dedi kampir.

– Ha, qayoqda deysiz!

Yigit chol bilan kampirning e'tiroz bildirishini kutgan edi, ammolar hech nima demadi. U hammaga birma-bir qarab chiqqach, gap yo'g'ida gap deb Kuzmaga yuzlandi:

- Shunday qilib, Kuzma, biz bilan ketasanmi?
- Ha, shunaqa.
- Yaxshi-da.

Yigit boshini egib oyog'i tagiga tikilib qoldi. Vagon bir tekisda chayqalib ketardi. U ko'zlarini yumdi. Ro'paradan kelayotgan poyezd g'izillab o'tib ketdi, yigit buni sezmadni ham.

Kuzma ikkinchi qavatga – joyiga chiqib oldi. Kampir yigitni turrib uyg'otdi:

- O'rningga yotsang-chi, bunday qiyinalib o'tirmay. Hech bo'lmasa mening joyimga cho'zila qol.
- Nima, o'zimning joyim yo'qmi?

U o'rnidan turib, bir amallab yuqoriga chiqdi, birozdan so'ng nimalardir deb g'o'ldiragani eshitildi.

Kuzma ko'zini yumib yotgani bilan uyqusи kelmasdi. Poyezd g'ildiraklarining taraqlashi goh uzoqlashsa, goh unga yaqinlashib kelar – shunda Kuzma cho'chib ko'zini ochar va poyezdning bir maromdagи taraqa-turuqiga quloq solib yotar edi. U oynaga qaradi – haliyam shamol tinmagan. Qulayroq o'rnashib yotdi, yana uxlashga urindi, nihoyat uni uyqu elidi.

Kuzma g'alati tush ko'ribdi: kolxozning umumiy majlisi bo'layotgan emish, unda Mariyaga kerak bo'lган pul masalasi muhokamaga qo'yilgan ekan. Hisobot majlislarida yig'iladiganchalik ko'p odam kelganmish. Buning ustiga, o'tirgani joy yetishmas, ko'pchilik o'zi bilan kursi olib kelgan emish. Yo'laklar ham gavjum, yana deng, keluvchilarining keti hech uzilmasmish.

– O'rtoq kolxozchilar! – debdi o'rnidan turib rais. – Endi eshikni yopsak ham bo'ladi. Biribir kelayotganlarning hammasi sig'maydi bu yerga.

Eshiklar yopilibdi.

– Avvalo majlisni boshqaradigan ishchi prezidiumni saylab olishimiz kerak, – debdi pais. – Idora quyidagi o'rtoqlar, ya'ni Mariya bilan Kuzmaning nomzodini taklif etadi. Ularning bolalarini voyaga yetmagani sababli prezidiumga qo'yolmaymiz. Marhamat, roziman deganlar qo'l ko'tarsin.

Taklif bir ovozdan tasdiqlanibdi. Mariya bilan Kuzma o'tirganlarning qarsagi ostida sahnaga chiqib, prezidium stolidan joy olibdi. Kuzma zaldagilarni kuzatib bi'tta ham tanish chehra ko'rmabdi. «Mariya, – deya pichirlabdi u cho'chibgina, – qara: bular bizning odamlar emas, begona-ku». – «Nima deyapsan? – debdi Mariya hayron bo'lib. – Senga nima bo'lди, Kuzma? Hammasi o'zimizning odamlar, axir». Shovqin-suron tingach, Kuzma e'tibor bilan qarasa, rostdan ham zalda o'tirganlarning hammasi qishloq doshchlari ekan.

– O'rtoq kolxozchilar! – deb gap boshlabdi rais. – Bizda Mariya-ga yordam qilaylik, degan taklif bor.

Yana gulduros qarsak eshitilibdi.

– Bu masalani biz o'zaro muhokama qildik, – deya gapida davom etibdi rais, – va shunday qarorga keldik: eng oldin shu yerda o'tirganlar sonini bilish kerak bo'ladi. Mariyaga qancha pul kerakligi va bu yerda nechta odam borligini aniq bilgan holda, har birimiz necha rubldan tashlashimiz lozimligini aniqlab olamiz. Boshqa biror taklifingiz bo'lsa, hozir aytинг.

– Shu ma'qul, boshqa taklif yo'q, – deb javob beribdi pastdagilar bir ovozdan.

– Unday bo'lsa, qator bo'yicha sanab chiqishingizni so'rayman. Ogohlantirib qo'yay, bir odamni ikki kishi o'rniga hisoblashga urin-ganlar zaldan chiqarib yuboriladi.

Sanoq davom etayotgan vaqtida Kuzma o'tirgan joyida xursandligidan Mariyani biqiniga bir turtib qo'yibdi. U sapchib tushibdi-yu kulib yuboribdi. «Uyatsiz, – debdi shivirlab Mariya. – Axir minarda o'tirbsan, bu nima qiliq? O'zingni tutib o'tirsang-chi». Kuzma jimb qolibdi.

– Ikki yuz yigirma beshta ekanmiz, – deb baqiribdi pastdan odamlar.

– Ming rublni ikki yuz yigirma besh odamga bo'lsak, — deya hisoblay boshlabdi rais minarda turib, – har birimizga to'rt rubl qirq tiyindan to'g'ri kelar ekan.

– E, arzimgan pul ekan-u, kerak bo'lsa og'aynimiz uchun besh rubldan beramiz, – debdi birdaniga bir necha odam.

Shunda minbardagi stol birdaniga qutiga aylanib qolibdi va har tomonдан cho'zilgan qo'llar unga pul tashlayveribdi. Besh daqiqqa o'tar-o'tmas quti pulga to'lib ketibdi. Mariya yig'lab yuboribdi,

uning no'xat donalaridek ko'zyoshlari chak-chak etib quti ichiga tomchilar emish.

– Hamma berdimi? – deb so'rabdi rais. – Demak, hisob komisiyasining ishga kirishishini so'raymiz.

Pastdan uch-to'rt kishi chiqib pulni sanay boshlabdi. Pulni besh, uch, bir rubldan alohida-alohida bog'lam qilib, xuddi banklardagidek ustiga miqdorini yozib qo'yishibdi. Keyin bog'lamlarni ustma-ust taxlab chiqishibdi.

– Jami – bir ming bir yuz yigirma besh rubl, – debdi ular nihoyat. Rais norozi bo'lib bosh chayqabdi.

– Bir yuz yigirma besh rubl ortiqcha ekan. Endi nima qilamiz?

– Hammasini olaverishsin, – deya maslahat beribdi odamlar yana.

– Yo'q, bo'lmaydi, – debdi rais. Unga bu gap ma'qul kelmabdi. – Bir yuz yigirma besh rubl ham oz pul emas, axir. Menda bir taklif bor: kelinglar, pulni musiqa xonasiga olib chiqamiz va har birimiz u yerga birma-bir kiramiz. Kimki pulga ehtiyojmandroq bo'lsa, bir yoki ikki rubldan qaytarib olishi mumkin. Iltimos, g'ala-g'ovur bo'lmasin, biz millioner emasmiz. Kimga kerak bo'lmasa – olmasin. Ammo kim olgan-u kim olmagani noma'lum bo'lib qolmasligi uchun u yerga hamma kirib-chiqishi shart. Boshqa takliflar bormi?

– Yo'q.

Pulni musiqa xonasiga olib o'tishibdi va odamlar navbat bilan u yerga kirib-chiqa boshlabdi. Komarixaning navbatni oxirida ekan. Kuzma u ko'zлari olazarak bo'lib eshikni yopganini ko'rib qolibdi. Bir vaqt ichkaridan Komarixaning baqirgani eshitilibdi.

Komarixa chopib chiqib, telbalarcha odamlarga qarabdi:

– Pul yo'q u yerda! Bir tiyin ham! Men bir rublgina olmoqchiydim, xolos, – debdi bor ovozicha shang'illab.

Zalda kulgi portlabdi. Odamlar qornini ushlab, ihrab, chiyilab kular, barmoqlarini bigiz qilib bir-biriga Komarixani ko'rsatar emish. U esa og'zini ochgancha zalning o'rtasida turib qolibdi, keyin o'ziyam kulib yuboribdi. Kuzma hayrat va qo'rquv bilan zalni kuzatibdi; hech baloga tushunmay Mariyaga qarasa, u ham qotib-qotib kulayotgan mish.

Kuzma uyg'onib ketib kampirning ovozini eshitdi:

– Seryoja, grelkani ber, issiq suv to'ldirib kelay.

Kampir grelkani ko'ksiga bosgancha chiqib ketdi. Vagon sukonat qo'ynida edi. Faqat poyezd g'ildiraklarining reislarga urilib taraqaturuq qilgani eshitilardi, xolos. Atay qulqut tutilmasa, bu ovozni ham ilg'ab bo'lmasdi. Oynadan xuddi shamoldan xira tortgandek kulrangsimon nur tushardi, sekingina chayqalib ketayotgan vagonda u ham orom topgandek g'ira-shira ko'zga tashlanardi. Yigit esa yirik mushtini iyagiga tiragancha uxlاب yotibdi.

Kampir grelkaning suvini chayqatib-chayqatib qaytib keldi. Uni cholning yopinchig'i tagiga tiqdi. Chol oyog'ini uzatib yana jim yotaverdi. Kuzmaga pastdag'i oynadan ular ko'rinib turardi.

- Bugun og'rimayaptimi? – deb so'radi kampir choldan.
- Yo'q, bugun ancha tuzukman.
- Unda yaxshi.

Chol bilan kampir sekin gaplashganidan, ovozlari eshitilibeshitilmasdi. Ammo o'zaro munosabatidan mehr, g'amxo'rlik aniq sezilib turardi. Ularning tovushi sukonatni buzmas, go'yo chol-u kampir unsiz ham bir-birini tushunayotgandek edi. Kuzmaning uyqusi qochdi, biroq o'rnidan turgisi kelmadi. Bunday vaqtida xayol sursa yoki nima bilandir mashg'ul bo'lsagina odam chalg'ishi mumkin. U ko'zini yumib yotaverdi. Pul bilan bog'liq boyagi tushning ta'biri nima bo'lsa ekan? Kuzma bu haqda o'ylashgayam qo'rqardi. Tushga nimalar kirmaydi deysiz? Undan ma'no qidirish ham kerak emasdir balki. Albat-ta, doim bir narsa haqda o'ylayversang, fikr-u xayoling faqat shu bilan band bo'lsa, tushingga ham kiradi-da. Baribir ko'ngli g'ash, notinch – bo'layotgan hodisalarining hammasi bir-biriga bog'liqdek: shamol, chipta mojarolari, buning ustiga tushi ham. Nahotki biror chora topilmasa? Hammasi behuda urinish bo'lsa?

– Seryoja, – yana kampirning ovozi eshitildi. Hech bo'lmasa ularning gapiga qulqut solib yotib, yomon xayollardan chalg'irman, deya Kuzmaning ko'ngli taskin topdi. – Seryoja, nima deb o'ylaysan, telegrammamiz yetib borgandir-a?

- Ha, allaqachon yetib borgan.
- Endi bizni kutishayotgandir...

Kampir mamnun, samimiy jilmaydi. Uning keng yuzi yanayam yoyilib, kattalashib ketgandek tuyuldi. Yuzi kulgidan biroz yorishib turdi-da, so'ng birdan yana jiddiy tortdi.

Kuzma Yevgeniy Nikolayevichnikiga borgan kunning o‘zidayoq bir bola undan xabar olib keldi:

– Yevgeniy Nikolayevich aytdiki, ertaga tuman markaziga borolmas ekan. Indinga borib, hammasini kelishilgandek hal etib kelarkan.

– Mayli, yaxshi, – dedi Kuzma.

O‘sha vaqt Kuzmaning uyida Gordey ota bor edi. U pechka yaqinida – polda oyoqlarini chalishadirib o‘tirardi. Bola ketgach:

– Ko‘p pul va’da qildimi u senga? – deb so‘radi.

– Yuz rubl.

– Obbo, ko‘proq bersayam bo‘lardi-ku, puli yo‘q emas, axir.

– Bori shu dedi.

– Ha, ishon, ishonaver unga! – deb ming‘irladi ota. – Puli yo‘q ekanmi? Yo‘g‘-e! O‘qigan-da kasofat, har baloni biladi! Lekin o‘lgudek pixini yorgan odam u – men senga aytib qo‘ya qolay. Biz eplolmaymiz bunaqa ishlarni, biror hiyla ishlatsak – darrov fosh bo‘lamiz-qolamiz. Yevgeniy Nikolayevichga o‘xshaganlar aldasa bormi, u emas xuddi o‘zing yolg‘on gapirgandek, uning oldida noqulay ahvolga tushasan. Shu qadar kallasi zo‘rki, e-he!

Kuzma indamadi.

Gordey otaning kelganiga bir yarim soatlardan oshib ketsa hamki, u o‘rnidan qo‘zg‘alay demasdi. Kuzma boradigan joyi, qiladigan bir talay ishi bo‘la turib, buning o‘rniga cholning safsatasini eshitib o‘tiribdi. Ota, meni ishdan qoldiryapsiz, deb aytish ham noqulay – xafa bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun ham Kuzma, chol vaysay-vaysay oxiri charchaydi va o‘zi ketar, deb indamay o‘tirardi.

Gordey ota yetmishlardan oshgan bo‘lsa-da, unchalik qari ko‘rinmasdi. To‘g‘ri, keyingi yillar negadir bir yoniga egilibroq yuradigan bo‘lib qoldi, xuddi o‘ttiz yildan buyon daryoda sudralib yurgan «Leytenant Shmidt» deb ataluvchi kemaga o‘xshab. Shu sababdan ham qishloq ahli unga «Leytenant Shmidt» deb laqab qo‘yib olgan. Juda eskiligidanmi yoki boshqa sababdanmi, xullas, urushdan keyin bu kemaning o‘ng borti yanayam qiyshayib o‘sha yoni bilan suvni surib yuradigan bo‘lib qolgan. Kema bir necha bor ta‘mirlandi ham, lekin uni asl holiga keltirib bo‘lmadi va u qirg‘oqdagi qishloq ahlining ko‘zi o‘rgangan holatida – o‘sha-o‘sha qiyshayganicha yana daryoda suzib yuribdi.

Bir yoniga egilib yurish Gordey otaga unchalik qiyin emasdi, aftidan, negaki, u avvalgidek tetik-bardam edi. Chol kechasi ustaxonada qorovullik qilar, kunduzi bekorchilikdan qishloqni aylanib yurardi. Agar u polga cho'kkalab olib, cho'ntagidan bamaylixotir qorayib ketgan eski trubkasini chiqarsa bormi, uzoq o'tirmoqchi ekaniga shubha qilmasa ham bo'lardi. Otaning shoshiladigan yeri yo'q. Qishloq chekkasidagi xaroba bir kulbada yolg'iz yashaydi, o'zining hayhotday hovlisini o'g'liga tashlab chiqib ketgan. O'g'lining janjali hech arimaydigan kattagina oilasida esa chol kampiri o'lgandan so'ng uzoq yashay olmadi va o'zining ta'biricha, «tovuq katagiga» ko'chib o'ta qoldi. Kulba rostdan ham tovuq katagidek edi: ota o'zi supirib-sidirishga odatlanmagan, uzoq qarindoshi bo'lgan Komarixa esa bir oyda yoki ikki oyda bir kelib sannay-sannay uyni tozalar, keraksiz narsalarni chiqarib tashlar edi. Ota buni sezmasdi ham.

Qulayroq joylashib olgan Gordey ota bir oyog'ini uzatib unga tirsagini qo'ydi va:

– Kasofat, aksiga olib menda ham pul yo'q, bo'lmasa, bunday qiynalib yurishingni tomosha qilib o'tirarmidim, – dedi.

– Qo'ysangiz-chi ota, – deb qo'l siltadi Kuzma. – Sizda pul nima qilsin – gapirishning ham hojati yo'q!

– Ha, yo'q-da. Bo'lganidami, bu yerda bosh qotirib o'tirmasdig sen bilan, o'zim berib qo'ya qolardim, ha.

– O'zim bir ilojini topaman, – dedi Kuzma cholning yordamiga muhtoj emasligini bildirib qo'yish uchun. – Bu ishga sizni aralashtirib nima qilaman?

Chol ranjidimi, indamay qoldi. Trubkasining kulini tizzasiga tushirib, puflab ichini tozaladi. Tamakini bosh barmog'ida hafsalab bilan ezg'ilab, yana trubkasini to'ldira boshladi. Chol ketishni xayoliga ham keltirmasdi. Tamakisini chekiboq ranjigani ham esidan chiqib:

– Demak, Yevgeniy Nikolayevichnikiga bordim, degin? – deya yana gap ochdi.

– Ha, bordim.

– Puli bo'la turib, qizg'anibdi-ya sendan. Yoki o'zimga deb men so'rab ko'rsammikan undan?

– Kerak emas, ota. Aytdim-ku, o'zim topaman deb. Bu sizning emas, mening tashvishim. Undan ko'ra uyingizga borib dam olsangiz bo'larmidi.

Bu gapdan cholning rostakamiga jahli chiqib ketdi:

– Kuzma, sen xuddi yosh bolaga o‘xshaysan. Nima, men o‘zim uchun kuyib-pishyapmanmi? Men bir umr pulsiz yashaganman – qol-ganiyam o‘tadi shusiz. Menga pulning keragi yo‘q. Tamaki o‘zimda bor, bir kesim non ham, pechkada cho‘g‘ bo‘lsa bas – trubkamni o‘t oldirib ketaveraman. Mendek bir cholga pul bormi, yo‘qmi baribir. Shu pul deganini bilsang...

– Xo‘p, ota, haqsiz, – dedi murosa ohangida Kuzma.

– Egnimdagি mana bu eski-tuskilarim umrimning oxirigacha yetadi. Mabodo ichgim kep qolsa, shunaqasini tayyorlaymanki, e-he, o‘tdek kuydiradi, spirtingdan aslo qolishmaydi. Umrim bino bo‘lib necha marta qo‘limda pul ushlaganman, bilasanmi? Barmoq bilan sa-nash mumkin. Bolaligimdan hamma ishni o‘zim qilib, mehnat orqa-sida kun ko‘rishga odatlanganman. Kerak bo‘lsa stol yasayman, kigiz etik bosaman. Ocharchilikda – o‘ttiz uchinchi yili sho‘r yerlardan osh tuzi ham yiqqanman. Hozir endi, hamma do‘kon-do‘kon deydigan bo‘lib qoldi. Ilgarilari yilda ikki marta borsa-borardi odamlar o‘sha do‘konga, bo‘lmasa yo‘q. Kerakli narsaning hammasi ro‘zg‘oridan chiqardi-da. O‘shandayam kunimiz o‘tgan – o‘lмаганмиз. Hozir-chi, puling bo‘lmasa bir qadam ham bosolmaysan, yo‘lingdan adashib qo-lasan. Odamlar qo‘l mehnati nimaligini unutib qo‘ydi – bo‘lmasam-chi, hamma narsa hozir-u nozir, pul bo‘lsa bas – do‘kondan sotib olish mumkin, axir. Yanayam, xudoga shukurki, hech bo‘lмаганда, qo‘li kalta oilalarining bolalari mehnat qilishga majbur. Ular pulga emas, o‘z kuchiga ishonadi. Nima degan gap axir bu? Boqimanda bo‘lib qoldi hamma – katta-yu kichik.

– Qizishib ketdingiz-da, ota.

– Bor gapni aytyapman. Ilgarilari qishloqda birov birovga pul evaziga yordamlasharmidi hech? Uy qurasanmi, pechkami – nomi bitta edi – hashar. Uy egasining qo‘lbola arag‘i bormi – qo‘yardi, bo‘lmasa – yo‘q, kelasi safar sen menga yordamga kelasan – shu bilan ora ochiq. Endi-chi, hammasiga pul to‘lashing kerak: tomorqa-da yer ag‘darsa – o‘n rubl, xashak olib kelib bersa – o‘n rubl, senga emas, teskari qarab aksa ursagina arzonroq – bir rubl. Odamlar pul deb ishlaydigan, pul deb yashaydigan bo‘lib qoldi. Faqat foydani ko‘zlaydi hamma – uyat emasmi axir?

– Bo‘ldi, ota, bas qila qoling endi, bu gaplarning oxiri yo‘q.

– Ha, men ichimda borini to‘kib soldim. Nima, qari odam ahmoq deb o‘ylaysanmi? Hamma narsaga aqlim yetadi – sendan ko‘proq ko‘ylak yirtganman, har holda, odamlarning ham har xilini ko‘rganman.

Otaning trubkasi allaqachon o‘chib qolgan edi. Birdan esiga tuшиб, labini chapillatib cheka boshladи, huzur qilgandek ko‘zlarini yumib oldi. Kuzma ota endi ketar, deb o‘yladi. Qosh qoraya boshlagan edi. Hovlidan och qolgan sigirning ketma-ket zo‘r berib ma‘ragani eshitildi. Sog‘iladigan vaqtি bo‘lgan, ammo Mariya tushdan keyin qayoqqadir ketganicha hali qaytmagan, jonivor behuda bo‘kirardi.

– Xo‘s, qishloqning yuqori qismidan boshlasak, – ko‘zini ochib yana gapga tushdi ota: – Kimdan pul so‘rasang bo‘ladi, deb haliyam bosh qotirib yotibman. U tomonda kimda pul bor o‘zi? Yevgeniy Nikolayevichga bording. O‘-ho‘, unga endi tega ko‘rma. O‘zi bir sassiqso‘z odam bo‘lsa. Agar birov yordam so‘ragudek bo‘lsa bormi – bir rubl chiqarguncha naqd o‘n dumalaydi yerga, go‘yo pulga qo‘sib jonini berayotgandek. Mana ko‘rasan, shu ziqnaligi oxir-oqibat boshiga yetadi uning.

– E, jin ursin uni, Yevgeniy Nikolayevich deyaverib toza jonga tegdingiz-ku, – jahli chiqib ketdi Kuzmaning.

Gordey ota go‘yo uni eshitmagandek vaysayverdi:

– Pyotr Larionov, e, unda pul nima qilsin, o‘zi sodda, omi bir odam. Puli bo‘lganidami – hammasini berardi u senga, ha. Hayot o‘zi shunaqa, Yevgeniy Nikolayevich bilan yonma-yon Petka Larionovday odamlar ham yashayveradi, o‘rtasidagi farq-chi – yer bilan osmoncha. Bir joyda tug‘ilgan, bir tilda gaplashadi, ammo bundoq o‘ylab qaralsa, bir-biriga g‘irt begona. – Vazmin qiyofada bosh chayqadi ota. – Agronomga bor, desam, yaqindagina davolanib qaytdi o‘zi, ehtimol, ancha-muncha chiqim qilgandir. So‘rasang ham bo‘lar – oz-moz qolgandir balki. Yaxshigina maosh olarkan. Aytishlaricha, oylikni unga davlat to‘larkan, kolxozdan ham ish kuni hisoblanarkan, shundaymi?

– Ha, shunday.

– Unday bo‘lsa boraver. Ko‘rasan, beradi, qo‘li ochiq odam u. Bermasa, qo‘shnisi Mishkanikiga kir. – Ota yo‘talгandek qisqa-qisqa «o‘-ho‘»lab qo‘ydi. – U senga bir dunyo pul bersa kerak-da o‘ziyam!

Uch yilga yetadigan aqchani oldindan ichib sovurgan desam, ishonafer. E-he, bunaqangi araqxo'rni dunyo ko'rmagan! Yana kimdan pul so'rash mumkin? – deya gapni cho'zgandan cho'zardi ota. – Bilmadim Kuzma, kimni aytishga ham hayronman. Umuman olganda, odamlar yomon yashamayotganga o'xshaydi, ammo topgan-tutgani yeb-ichishga sarf bo'ladi-da. Orttirib bir-ikki rubl yig'ib ham qo'yolmaysan. Hammada bola-chaqa, o'ziga yarasha yetishmovchilik bor. Hozir yanayam hosil yig'ib-terib olingan, boshingga bu tashvish aynan shunday vaqtda tushganigayam shukur qil. Bahor oylari bo'lganida nima qilarding, uyma-uy yurib kartoshka yig'armiding? Yiqqan taqdiringda ham kimga sotarding uni? Ana shunaqa. Yuz chaqirim atrofni aylanib chiq – hammaning ahvoli shu ekaniga amin bo'lasan.

Kuzmaning o'zi ham o'ylab xavotiraga tushgan narsa haqida gapirar edi chol: qishloqda kamdan kam odamda pul bor, ortiqchasi hech kimda yo'q deyarli. Mehnat kunlariga un beriladi. Unni kimga ham sotasan? Buning ustiga arzimagan pul bo'ladi. Ammo Kuzma otaning gapiga qo'shilib, ha, ish chatoq deyolmaydi, bunday deb o'ylashga haqqi yo'q uning.

– Topamiz, ota, topamiz, – dedi nihoyat Kuzma.

– Topamiz! – deb istehzo bilan uning gapini takrorladi ota. – Tuyaning dumi yerga tekkanda topamiz.

– Odamlarda pul bor.

– E, qayoqda?

– Har yili goh sigir, goh buqa boqib kolxozga topshiradigan Stepanidada pul yo'q dersiz balki? Hech bo'Imaganda, ming rubllar yashirgan puli bordir uning.

– Stepanidada, rostdan ham bordir.

– Borligi aniq. Mexanizatorlarda ham bo'lishi kerak – yig'imterim mahali ular tuzukkina ishlab olgan, buning ustiga mukofot puli berilgan.

– Qachon edi bu, axir.

– Odamlarda pul yo'q emas, ota. Nahotki, butun qishloqdan so'rab topolmasam? Nahotki, odamlar meni qo'llab yuborishmasa? Bekor gap, ota, albatta, yordam qilishadi.

– Men senga odamlar yordam berishmaydi, demayapman.

– Xo'p, mayli, – dedi Kuzma o'z gapidan o'zi yengil tortib. – Xullas, ota, bir ilojini qilamiz. Endi siz qorovulligingizga bora qo-

ling, men ham bir aylanib kelay. Qopchiq olvolaman-da, o'shangga solaveraman topganimni. Nima qipti? Biridan olaman-u ikkinchisining uyiga kirib boraveraman. Keyin sizni qorovul qilib qo'yaman – pulimni qo'riqlaysiz.

– E, vaysaqi, – dedi kulgidan ko'zları qisilib ota.

Nihoyat chol ketish taraddudiga tushdi: avval tizzalab, keyin qo'li bilan yerni ushlab o'rnidan turib oldi.

Egilib o'tirgan yonboshini uqalarkan Kuzmaga:

– Xabar olgani kelib turaman, – dedi.

– Bemalol kelavering, ota. Temirni qo'riqlagandan ko'ra pulga qarab turasiz. Birovga chekish uchun trubkangizniyam bermaysizku, axir. Menga xuddi sizdek odam kerak-da o'zi, – dedi Kuzma.

– O'-ho'-ho'-ho', – cholning kulgisi yo'talga ulanib ketdi.

Yoshi elliklarga yetgan odamning do'sti bormi-yo'qmi, bir narsa deyish qiyin. Yillar mobaynida necha bir toifa odam do'st bo'lindi deysiz Kuzmaga. Shu boismi yaxshi-yomonni ko'raverib hayotda xo'p toblandi, yaqin odamlariga nisbatan ham vazmin, xotirjam bir munosabat paydo bo'ldi unda. Ular boshqalardan ko'ra ko'proq uch-rashishmas, hatto o'zaro sirlari ham yo'q edi. Ammo biror muammo chiqib qolgudek bo'lsa, har biri go'yo o'ziga o'zi ishonmagandek ehtiyyotkorlik bilan, vaqt kelsa o'zini tushunadigan va yordam qiladigan yaqin odami borligini eslar edi.

Kechqurun Kuzma Vasiliyning uyiga bordi. Urushdan keyin ular polutorka yuk mashinasini sherik bo'lib haydagan edi. Butun kolxozda bittagina shu mashina bo'lib, ular ham yuk ortar, ham haydovchilik qilar edi. Kuzma keyinroq amerikancha «studebekker»ga o'tgan va bu mashina Vasiliyning o'ziga qolgan edi. Buni qarangki, Vasiliy mashinani ko'p yillar davomida – butunlay yaroqsiz bo'lib qolgunicha kolxozning yugur-yugur ishlariga haydab yurdi. Ayni shu vaqtida kolxoz ikkita yangi ZIS-150 mashinasini oldi va ularni Kuzma bilan Vasiliya berdi. Vasiliy bu mashinani ko'p haydolmadi ham. Negaki, o'shanda uning ko'zi og'rib yurgan edi va baxtg'a qarshi tekshiruv ham kelib qoldi. Tibbiy ko'rikdan o'tkazilgach, Vasiliya mashina haydashga ruxsat berilmadi. Shunday qilib, u so'nggi to'rt yildan buyon sabzavotchilik brigadasiga boshchilik qilmoqda edi.

Qishloqdagi hamma odamlar qatori ular ham deyarli har kuni ko'rishishar edi. Biroq yillar o'tishi bilan sekin-asta bir-biridan

uzoqlasha bordi. Uchrashib qolganda salom-alik qilishadi, u yoqbu yoqdan biroz gaplashishadi va xayrlashishadi. Ammo Kuzma Vasiliy o'zimniki-ku, deb o'ylardi va hech nima siqib chiqarolmagan bu ishonch uning qalbi tubida yashardi. Vasiliyni o'ylaganida xotirjam tortar va ich-ichida u ham men haqimda shunday fikrdadir, deya umid qilar edi. Kuzma do'st sifatida ishonadigan yana bir odam kolxoz raisi edi. Biroq boshliq bilan yaqin oshna bo'lib olishga intila-yotgandek tuyulmay, deya undan o'zini tortibroq yurardi.

Kuzmani ko'rib Vasiliyning na xursand bo'lgani va na hayron qolgani sezildi. Indamay qo'l cho'zdi, odatdagidek turish-turmushidan hol so'radi. Aftidan, kamomad haqida eshitgan-u nima deb gap boshlashni bilolmay qiyalyapti, vahima qilib tekin maslahat berishga ham usta emas u. Ikki oshno jim o'tirib chekishdi. Ular o'tirgan xonaga dam-badam Vasiliyning xotini kirib-chiqar, Kuzmaga qo'rquv va achinish bilan qarar, ammo biror tayinli gap eshitolmay, qaytib oshxonaga kirib ketar edi. Er-xotin Kuzmadan gap so'rashga botinmas, uning o'ziyam churq etmay o'tirar edi. Kuzma o'zini xuddi begona bir qishloqda kechasi adashib qolib bu uyda tunab qolishga ijozat so'rab kirgan odamdek his etar edi: uxlashga hali vaqt erta, buning ustiga, uy egalari bilan yaxshiroq tanishib ham ulgurman, shuning uchun gaplari qovushmay vaqtini arang o'tkazyotganga o'xshardi ular.

Kuzma uy egasi bilan xayrlashib, eshik tomon yurdi. Vasiliy kuzatib chiqdi. Ikki do'st darvoza oldida turib qoldi. Bu uchrashuv qandaydir bemavrid bo'lgani, endi uni tuzatishning iloji yo'q ekanini har ikkalasi ham his etar va bundan xijolat tortar edi.

– Vaqting bo'lganda kelib tur, Kuzma, – dedi Vasiliy.

– Kelarman, – dedi so'z bergen bo'lib Kuzma ham.

O'shanda birinchi marta Kuzmaning xayoliga akasi keldi. Qishloqdan pul topolmsa, hech qanday chorasi qolmasagina ilojsizlikdan shaharga – Alekseyning oldiga borishi mumkin. Eshitishicha, u o'ziga to'q yasharmish.

Kuzma akasining uyiga hech qachon bormagan. Ular oxirgi marta yetti yil avval, otasi o'lganda ko'rishishgan edi.

Kuz – ayni yig'im-terim avjiga chiqqan palla edi o'shanda. Telegramma yuborib Alekseyni chaqirdi. Qishloqda u ikki kungina qoldi, dafn marosimi o'tgach, darhol jo'nab ketdi. Aleksey otasining

«qirqi»ga kelaman degan, o'shanda barcha qarindosh-urug'ni cha-qirib unga atab shoshilmay, maromida bir marosim o'tkazamiz deb Kuzma ikkisi kelishib olgan edi. Ammo negadir u marosimga kelma-gan va ikki oylar o'tgach, xizmat safarida bo'lganim uchun borolma-dim, deb yozib yuborgan edi.

Aslida, Kuzma Alekseyni ko'p ham eslayvermasdi. Otasi yoki onasini o'ylaganidagina bu dunyoda yolg'iz emasligi, tug'ishgan akasi ham borligi o'z-o'zidan yodiga tushardi. Ular bir-biridan shu qadar uzoqlashib, begonalashib ketgan ediki, hatto ba'zan Kuzma Aleksey rostdan ham bormi o'zi, deb o'ylab qolar, negadir, u haqda o'ziga kimdir gapirib bergandek tuyular edi. Keyin yana ancha vaqt-gacha Aleksey umuman xayoliga ham kelmasdi. Ular go'yo bir qo-rindan talashib tushgan aka-uka emas, faqat ko'rishib qolganda yoki olis bolalikda – birga o'sgan chog'laridagina aka-uka bo'lgandek edi.

Uch yillar avvalmidi, Mariya shahar shifoxonasiga ko'rinishi kerak bo'lib qoldi. Shunda u ikki kun Alekseynikida tunagan, uyga qaytganida esa yaxshisi begona bir joyda tursam bo'larkan, degan edi. Aleksey bilan xotinining boy-badavlat turmushi to'g'risida Mariya hech bir hasadsiz, hayratsiz gapirib bergen: «Televizori ham, kir yuvish mashinasi ham bor. Biroq qayerga qarama, orqang-da kuzatib turgan bo'lishadi. Qadam bossang bas, biror nojo'ya harakat qilib qo'yasmikan, deya ortingda yurib izingni artishadi. Gap-so'zimiz ham uncha qovushavermadni, ularga biz bormizmiyo'qmizmi, baribir. Qaytib meni akangnikiga olib boraman, deb o'ylab ham o'tirma».

O'tgan yili Alekseyning tengdoshi Mixail Medvedov ham Kuz-madan uning uy manzilini so'rab olgan edi. Urushdan keyingi yillar ular FZUda birga o'qigan. Qishki mavsumda kolxozdan Mixail brigadirlar kursiga o'qishga yuboriladigan bo'ldi. U shu bahona Alekseyni ham ko'rib kelaman, deb o'laydi. Mixail qaytganidan so'ng ko'rishib qolganida Kuzma qiziqib:

– Xo'sh, akamnikiga bordingmi? – deb so'radi.

– Ha, bordim.

– Yaxshi yurgan ekanmi?

– Yuribdi, sog'-omon, fabrikada master bo'lib ishlarkan, – deya mujmalgina javob qaytardi Mixail.

Oradan ancha vaqt o'tib esa mastligida arz qilib qoldi:

– Tanishga-ku, tanidi meni, ammo do'st deyishga or qildi. Bir shisha ham qo'ymadi hatto.

Xayolidan shular kecharkan, akam qishloqdan butunlay begonalashib ketgan, shuning uchun uni bu yerga chaqirishdan foyda yo'q, degan xulosaga keldi Kuzma. Yaqinlari, tanishlari qanday yashayapti, ularni ko'rgisi kelmasa, bolaligi o'tgan joylarni aylanishni, ko'nglida eski xotiralar jonlanishini o'zi qo'msamasa, nima ham deysan? Shu sababdan hamqishloqlari bilan gaplashish, hech bo'limganda, bir vaqtlar uni qichitqi o't bilan xo'p savalagan Fyodor ota yoki o'zi o'tloqdan kuzatib keladigan qizlar taqdiri nima bo'lganini bilishning unga umuman qizig'i ham yo'q. Ich-ichidan Kuzma Alekseyning be-farqligidan xafa bo'lardi. Ammo buni tezda unutib ham yuborardi.

Endi akasining o'zi hamma narsani anglaydigan, farqlaydigan yoshda, axir. U asta-sekin qishlog'ini, demakki, bolaligini ham unutgan. Xuddi shunday qishloq ahli ham sekin-asta qachonlardir bu yerda Aleksey degan bola yashaganini unutib yuborgan.

Agar Kuzma yordam so'rab borsa – akasi yo'q demaydi, albat-ta. Nima qilganda ham tug'ishgan jigari – qoni bir. Alekseyning puli borligi aniq. Kuzma uni tezda qaytarishini, uzog'i bilan ikki oyarda, ya'ni kolxoz unga qarz berishi bilan pulni darhol pochtadan jo'natib yuborishini aytadi. Nega shu oldinroq xayoliga kelmadi ekan-a?

Kuzma uydaligida Mariyaga taskin berish maqsadida:

– Agar qishloqdan yetarlicha pul yig'olmasam, Alekseyga boramani, – degan edi.

– Bermaydi u, – dedi Mariya biroz sukutdan so'ng.

Shunda Kuzmaning akamdan pul olib turamañ degan ümidi ham bir zumda puchga chiqqan edi.

Kuzma hech qachon pulga qiziqmagan, bormi – yaxshi, yo'q bo'lsa ham na iloj der edi. Bunday munosabat, avvalo, pulga doim ehtiyoj bo'lganidan kelib chiqqan. To'g'ri, ular hech vaqt och qolib ketmagan, to'yib yeb-ichgan: hatto g'alla hosili yaxshi bo'limgan yillari ham Kuzma durustgina pul topar edi. Go'sht va sut esa tabbiyki, o'z ro'zg'oridan chiqardi. Pul esa... U mehnat kuniga bir yarim, ikki rubldan to'laydigan kolxozi ham borligini eshitgan va bu rost ekaniga ishonar edi. Ammo ular yashaydigan taygada dala yerlari ham xuddi kiyimga solingan yamoqdek har yer-har yerda bo'lib, kolxozdan hali hech kim mehnat kuniga ellik tiyindan ortiq

olmagan edi. So'nggi uch yil – uy qurish uchun qarz olganidan buyon esa qishki yillik hisobotda Kuzmaning qo'liga arzimagan choychaqa tegardi, xolos. Mariyaning do'konda ishlab topgani asosan bolalarga sarflanardi. Ayniqsa, oilada to'rt o'g'il bo'lsa bormi, ularga ust-bosh yetkazib berishning o'zi qiyin. Yanayam Mariya uchma-uch yetkazib bo'lsa-da, bolalarni birovdan kam qilmay toza-ozoda kiyintirar edi. Kattalarining egni-boshi yangi – uyalmay, bemalol maktabga yuborish mumkin, kichikinalari esa azaliy odatga ko'ra akalarining eskisi ni kiyaverar edi.

Kuzma turmushidan nolimaydi, uyida eng kerakli narsalar bor. Hech kim och yoki yalang'och qolayotgani yo'q. Kuzma birovga hasad ham qilmaydi. O'zidan yaxshiroq yashaydiganlarga u o'zidan bo'yi baland odamga qanday qarasa, xuddi shunday munosabatda bo'ladi. Ulardek bo'ychan emas ekan, bu oyoq uchida yurish kerak, degani emas-ku. Axir har kimning o'z yo'li, o'z yo'rig'i bor.

Kuzma odamlar qanday qilib xarajatlardan orttirib pul yig'ishini tushunmas va bu haqda bosh ham qotirmas edi. Pul u uchun yirtiq joylarni butlashga kerak bo'ladigan yamoqdek bir gap yoki ehtiyoj paydo bo'lganida – zaruriyat edi, xolos. U yog' yoki go'shtni g'amlab qo'yish haqida o'ylardi, busiz iloji yo'q. Ammo pul jamg'arish fikri unga g'alati, hazildek tuyular, bunga u doim e'tiborsizlik bilan qarardi. Kuzma boriga qanoat qilib o'rgangan edi.

Qishloq pochtasi binosida omonat kassasi ham joylashgan edi. U yerda ko'p yillardan beri bir rasm osig'liq turardi: unda qishloqliklarga aslo o'xshamaydigan, yuzlari qip-qizil yigit odamlarga qarab hech charchamay: «Aqchadonni qo'y, endi yaxshisi, omonat daftarchasi ochtir», der edi. Kuzma har gal pochtaga borganida bu rasmga atay tikilib qarardi. Rasmdagi yigit esa unga emas, boshqa yoqqa boqib turgandek tuyulardi. Kuzma maynavozchilik qilib u tikilayotgan tarafga o'tib, uning ko'ziga tik boqmoqchi bo'lar, yigit esa har safar nigohini olib qochar, qayergadir, boshqa yoqlarga qarar edi. Bundan mammun bo'lgan Kuzma yana yo'lida xotirjam ketaverardi.

Mana, endi esa kutilmaganda shuncha pulga ehtiyojmand bo'lib o'tiribdi. Kuzmani vahima bosdi: nima sababdan pul aynan uni tanladi ekan? Axir shu vaqtgacha u bilan bog'liq birorta muammosi bo'lmagan-ku. Balki aynan shu sababdan bu ko'rgiliklar boshiga tushgandir. Xohlidaydimi-yo'qmi, endi pul topish haqida shunchaki

xayol surib qo'ya qolmay, balki tinmay bosh qotirishga majbur. Birinchi bo'lib Yevgeniy Nikolayevichniiga borganining sababi ham unda doim pul bo'ladi, deb eshitar edi. Endi yana kimdan so'rash mumkin? Gordey ota aytmasdan turiboq xayolan butun qishloqni u boshidan bu boshigacha aylanib chiqib, uyiga hech vaqosiz qaytgan edi, axir. Qishloqda kimdir yaxshi yashasa, boshqa birov arang kun ko'rар, xullas, har kim o'z uyida o'z tashvishi bilan ovora, har kimning o'ziga yarasha ehtiyoji va uni qoplashni ko'zlagan mo'ljali borligi tayin edi.

Kuzma hatto xayolan ham odamlardan pul so'rashga botinmasdi. U shunday tasavvur qilardi: kimningdir uyiga kiradi-yu, ammo qarz so'ramoq u yoqda tursin, og'iz ham ocholmaydi. Uni ko'rishi bilanoq odamlar nima dardda yurganini darrov fahmlaydi. Ular ham indamaydi va bu sukut har qanday gapdan ko'ra aniqroq javob bo'ladi. Shunday ekan, u xayrlashadi-yu sekingina chiqib ketadi. Har bir uyning eshigini taqillatishdan hech bir ma'ni yo'q, demak, puli bor deb o'yaganlarinikigagina kiradi. Ammo hech kim pulini ochiq, ko'zga ko'rinish turadagan joyga qo'yib qo'ymaydi. Negadir u doim yashiriladi: suvaraklarga yemish qilib qandaydir tirqish-u kovaklarga, eski nimchalar cho'ntagiga, jomadon taglarigami-yeysiqib qo'yiladi. Pul yorug'likni yoqtirmaydi deyishadi. Agar uy egalarining surati kabi pul ham ko'rindigan joyda ochiq tursa edi, Kuzma bu uyga kirish kerakmi-yo'qmi o'zi bilar, qolaversa, hech kimdan ko'p pul so'ramas ham edi. Lekin pulini yashirib qo'ygan ham yoki umuman hemiri yo'q odamlar ham uni bir xil – faqat sukut bilan qarshi olardi. Sukutning ma'nosi nima? Yo'qchilikmi yoki ziqlalikmi yoxud uning tashvishini tushunishni istamaslikmi – busini Kuzmaga qorong'i.

Shunga qaramay Kuzma, aslida, hammasi boshqacha bo'lishiga umid qilardi. Kimdir indamas, yana boshqasi esa uning ahvolini tushunar va: «Ellik rublcha bor shekilli, yozda motor sotib olamiz, deb yiqqan edik. Mayli, senga beraylik, hozir sen pulga ko'proq ehtiyoj-mandsan» derdi. Darvoqe, shundan keyin uy egasi har qalay unga pul uzatadi – Kuzma yupqagina, issiqliqina pul dastasini qo'liga olib har qalay u ham cho'ntagiga soladi. Shu bilan ish tamom. Yana u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiraverishadi, biroq hech qaysisi qaytib puldan og'iz ochmaydi.

– Yo‘q, uyda gaplasholmaymiz. Kel, shu yerda biroz o‘tiraylik.

Ular eshik tagidagi xarrakka o‘tirib zulmatga tikilgancha miq etmay chekishdi. Bu – ko‘ngilni xira etuvchi emas, aksincha, o‘rinli bir sukut edi. Kuzmaning uyidan ketaverishda – o‘ng yonda gulxan yoqilgan, o‘sha yoqdan baqir-chaqir ovozlar kelar, klub tomonidan ham bir-bir qattiq kulgi eshitilar va yana hammayoq suv quygandek jimjit bo‘lib qolar edi. Hali erta bo‘lishiga qaramay, kun qisqargani uchun erta qosh qoraya boshlagan, odamlar hali bunga ko‘nikmagan bo‘lsa-da, hamma uy-uyiga kirib ketgan. Bora-bo ra shovqin-suron-u ovozlar ham kamaydi, endi ora-chora eshitilib qolardi.

Tamaki chekib bo‘lindi, deyarli bir vaqtida qoldig‘i oyoq ostiga tashlandi. Nihoyat, Kuzma bir qo‘zg‘alib gap boshladи:

– Odamzod mana shunday, falokat qaysi tomonidan kelishini bilmay yashayverarkan-da.

– Nimasini aytasan, – dedi Vasiliy.

– Kechagina bu tashvishlar yo‘q edi.

– Ertaga yana kimningdir boshiga tushadi bu tashvish. Balki boshqa bir qishloqda bo‘lar. Bir qarasang, aylanib yana biz tomonlarga keladi – mengami, boshqa birontasigami. Shunday vaqtida bir-birimizga suyanishimiz kerak-da.

– To‘g‘ri.

– Yevgeniy Nikolayevich beradi, bilaman, yana kim bor-a, pul so‘rasa bo‘ladigan?

– Hozircha xayolimga hech kim kelmayapti. Ertaga Stepanidaga borib ko‘rmoqchiman, ehtimol, nafi tegib qolar.

– Stepanidagami? – Vasiliy ishonqiramagandek bosh chayqab qo‘ydi, keyin: – Yur, cho‘zib o‘tirmay hozirning o‘zida boramiz. Ikkovlashib o‘rtaga olamiz uni. Brigadamda ishlaydi-ku, mening oldimda yo‘q deyishga uyalar balki.

– Ketdik. Vaqtini o‘tkazmaylik.

– Yevgeniy Nikolayevichga borganimni qayoqdan eshitding? – deb so‘radi yo‘lda ketayotganlarida Kuzma.

– Xotinim aytdi. Yevgeniy Nikolayevichning o‘zi ko‘ringanga gapirib yurgandir, hoynahoy. Maqtanmay bo‘ladimi – axir, savob ish qilmoqchi-ku!

– Men endi xuddi kosmonavtdek mashhurman, – dedi Kuzma. Uning hazili qandaydir mahzun chiqdi. – Qayerga bormay – otning qashqasidek ko‘zga tashlanaman qishloqda.

– Sen nima deb o‘yloving? Hovliga chiqsang ham endi u yoqbu yog‘ingga qara, ehtiyot bo‘l – rasmga tushirib yurishmasin yana. Hazil o‘z yo‘liga-ku, butun qishloq endi pulingni sanaydi – mana ko‘rasan.

– Hozir Stepanidaga nimaga borganimizni aytishga ham hojat qolmaydi. Ertalabdan meni kutayotgandir o‘ziyam.

– Yashirinishga tayin joy ham topib ulgurgandir.

Ular yo‘lma-yo‘l kulib ketishdi. Vasiliyning yonida Kuzma ancha yengil tortdi, endi g‘am-tashvish ham og‘ir toshdek ko‘ksini bosib turmay, butun tanasi bo‘ylab yoyilib ketgandek tuyulardi. Har holda bunga chidaso bo‘ladi. Biror ish chiqishiga umid kam bo‘lsa-da, Kuzma Stepanidanikidan Vasiliy bilan birga chiqadi, gaplashadi, ertaga nimalar qilishni ham o‘zaro maslahatlashib olishadi. Shu xayollar uni ovutar, mudom miyasida aylanayotgan o‘ydan sal bo‘lsa-da, chalg‘itar edi.

Stepanida ikkita oila bemalol yashasa bo‘ladigan katta hovlida marhum opasidan qolgan yodgor – jiyani Galka bilan turardi.

Galka hali o‘n yettiga to‘limgan bo‘lsa-da, durkun, Stepanida dan ikkita keladigan qiz edi. Xola-jiyan o‘rtasida totuvlik yo‘q, ikkisi doim it-mushuk bo‘lib yurardi. Uy torlik qilib qolsa, bu ikkovi hovliga chiqib shunday janjal ko‘tarardiki, bu butun qishloqqa eshitilar, hatto qo‘shnilarining kuchuklari dumini qisganicha, u yoq-bu yoqqa alanglab yo‘lning narigi betiga o‘tib ketar edi.

Kuzma bilan Vasiliy kirib kelganida Stepanida xursand bo‘lgandek taraddudlanib qoldi. Ammo yuzida bular nimaga kelgan ekan, degan xavotirli ifoda ham yo‘q emas edi. Birdan tabassumi o‘z-o‘zidan g‘oyib bo‘lib, yuzini butkul sarosima egalladi. Stepanida yuziga yolg‘ondakam kulgi yogurtirdi-yu, hadik bilan ularning og‘iz ochishini kuta boshladi. Erkaklar ust kiyimlarini yechib, kelib yonma-yon o‘tirdi. Ularning ovozini eshitgan Galka ham xonasidan chiqdi. Uning juda tor, kalta ko‘ylagidan yalang‘och, baquvvat tizzalari ko‘rinib turardi.

– Bir nimadan quruq qolgandek yugurib chiqdingmi?! – deya Galkaga dag‘dag‘a qila ketdi Stepanida. – Bir qaranglar-a, bu ten-

gi yo‘q sohibjamolga. Uzunroq ko‘ylak kiysa o‘larmidi, erkaklarga behayoligini namoyish etmay.

– Go‘yoki ular hech ko‘rmagan-da! – dedi erinchoqlik bilan to‘ng‘illab Galka. – He, behayo ko‘zlarining qursin seni!

– O‘zlariniki hayoli ekan-da?

– Yo‘qol-e ko‘zimdan.

Galka erkaklarga ko‘z qisib ichkariga kirib ketdi.

– Adoyi tamom qildi bu yashamagur meni, – deya shikoyat boshladi Stepanida. – Xudoyim hech bandaga ko‘rsatmasin bunday qizni. Xuddi qonimni ichadi-ya!

– Qoning bormidi o‘zi seni? – dedi shang‘illab ichkaridan Galka. – Tomiringdagi qon emas, kim bilsin nima balo ekan.

– Ana, eshityapsizmi? Bunga gap gapirib baraka topmaysan – o‘nta javobi tayyor turadi. O‘nta gapingga mingta javobi bor, ha. Sabrim yana qanchaga yetadi, bilmayman. Qarigan chog‘imda shu ko‘rgilik ham bormidi menga.

– Qiladigan ishingiz bo‘limgach – janjallashasizlar-da, – dedi Vasiliy. – Stepanida, bizga quyadigan hech narsang yo‘qmi, yaxshisi, shundan gapisang-chi.

Stepanida sarosimada ko‘zlarini qisilib:

– Juda mug‘ombirsan-da, Vasiliy! – dedi.

– Buning nimasi mug‘ombirlik ekan? To‘g‘risini shartta aytdim-qo‘ydim. Kuzma bilan yo‘lda kelayotib o‘zimizcha, bor umidimiz Stepanidadan, u oxirgisi bo‘lsayam quyadi deb o‘ylagandik.

– Eh, Vasiliy, yaxshi odamlarga jonio ni berishga tayyorfman. Bor bo‘lsa ayaymanmi? Shuning uchun ham olib qo‘yaman-da o‘zi. Yaxshi odamlar kelib qolsa-yu, qo‘yishga menda hech vaqo bo‘lmasa, uyat-ku, axir.

– Barakalla!

Stepanida etagini ko‘tarib yerto‘laga tushib ketdi va u yerdan surg‘uchlangan yashil shishani ko‘tarib chiqib, yerto‘laga yaqinroq joyda o‘tirgan Kuzmaga uzatdi. U ko‘zini qisib shishani yorug‘likka tutib ko‘rdi.

– Shu-shu, – dedi Stepanida.

– Mana shundan boshlash kerak edi-da, – dedi zavqlanib Vasiliy, – sen bo‘lsang Galka bilan adi-badi aytishib o‘tiribsang.

– E-e, gapirma o‘shani menga.

Stepanida shishani etagi bilan artib bo‘m-bo‘sh stol ustiga qo‘ydi va gazakka biron nima topib kelish uchun omborga ketdi.

– Darrov puldan gap ochma, – deya ogohlantirdi Vasiliy. – Kayfi oshishini kutamiz.

– O‘zing aytasan-da endi.

Ichkaridan chiqqan Galka, stoldagi shishani ko‘rib:

– O‘-ho‘, xolamni eritisizlar-da! Yomonsizlar! – dedi.

– Ilonsan sen, Galka! – dedi jahl bilan Vasiliy. – Senga birov gapirdimi o‘zi? Men bilan bu ohangda gaplashishga hali yoshlik qilasani, bilding?

– Buni qarang-a! Bo‘lmasa, qanday ohangda gaplashishni buyuradilar? Otam yoki onam bilan gaplashgandekmi?

– Sen bilan gaplashishdan ma’ni bormi o‘zi! Biron nimani tushunarmidинг?

– Unday bo‘lsa, gaplashma. Sen bilan valaqlashaman deb o‘lib turganim yo‘q. Meni xafa qilding! Nima maqsadda kelganingizni bilmaydi deb o‘ylaysanmi?

– Sekinroq-e! – dedi shivirlab Vasiliy.

– Ha, qo‘rqib ketdingmi? Xavotir olma, aytmayman. Lekin ha-deb jonimga tegaverma, tushundingmi? Yaxshi muomala qilsangiz, sizlarga yordamim tegishi mumkin, – dedi-da, Kuzmaga yuzlandi: – Mariya xolaga achinaman-da. – Keyin Vasiliyga o‘girilib: – Yoshing katta bo‘lgani uchun menga tanbeh berishim mumkin, deb o‘ylaysanmi? Borib xotiningga baqir, menga baqirishga haqqing yo‘q, – deb shang‘illadi.

– Tomoq yirtishga juda usta ekansan-ku, – dedi Vasiliy o‘zini bosib.

– Indamay eshitib turadiganlardan emasman har xolda.

– Bo‘ldi qilinglar endi, – deya ularni tinchlantirishga urindi Kuzma.

Stepanida kelib stol atrofida kuymalana boshladi. Erkaklarni das-turxonga taklif qilib, mehmon kelganda aytildigian gaparlarni ayta ketdi:

– Hech narsayam yo‘q edi – juda uyat bo‘ldi-da! Kelishingizni bilganimda edi, tayyorgarligimni ko‘rib qo‘yardim, shoshib qoldim. Uyat bo‘ldi-da, uyat...

– Stepanida, sen hech xijolat bo‘lma. Bu gazak bir haftalik mai-shatga ham yetib-ortadi axir, – deb qo‘ydi Vasiliy uni yupatish uchun.

– Ko'nglim uchun aptyapsan-da, Vasiliy.

Uchta qadahni to'ldirib, urishtirib, endi ichamiz deb turishganda, ayni vaqtini topgandek Galka o'rtaga suqildi:

– Menga qani?

Stepanida jahldan titrab ketdi, Galkaga xezlanib:

– Haliyam bo'lsa buni zararkunanda emas, deb ayting-chi menga!

Hammaning ham qo'lidan kelavermaydi bu! Oldin emas, keyin emas ayni vaqtida ishtaha bo'g'ishni biladi. Voy-dod-yey buning dastidan. Qaysi gunohim uchun xudoyim menga bunday kasofatni ravo ko'rdi ekan-a?

Galka ishshaygancha yana bir qadah olib kelib Stepanidaning oldiga qo'ydi. O'zi unikini qo'liga oldi.

– Tort-e, qo'lingni, hoy la'nati shayton. Kimga aptyapman, qo'y joyiga!

– Bunisiga quysang – qo'yaman.

– Mehmonlar oldida sen bilan pachakilashib o'tirmay, deyapmanda, bo'lmasami – tuqqan xolangga qanday muomala qilishni o'rgatib qo'yardim senga.

– Ha, yana nimalarni tusaydi ko'ngillari!

– Voy la'nati shayton! Voy la'nati-ye! – deya qarg'ana-qarg'ana xola qadahni to'ldirdi. Galka uni qo'liga olib Stepanidaning qadahidan yana ozroq quyib, keyin erkaklar bilan cho'qishtirgani uzatdi.

– Senga kattalar bilan ichishga hali erta emasmi? – dedi o'zini arang tutib o'tirgan Vasiliy.

Galka ko'z qisib, Vasiliyga ma'nodor qarab qo'ydi. Vasiliy gapi-da davom etdi:

– Hali ona suti og'zingdan ketmay turib ichaman deysan. Erta kuni sendan nima kutish mumkin o'zi?

– Shuni aystsang-chi, – deya ma'qullay ketdi Stepanida. – Tuqqan xolangni bir tiyinga olmas ekansan, hech bo'lmasa, aqlli odamlarning gapiga quloq sol.

Galka Vasiliyga qarab turib:

– Ma'ruzangni bas qilib bu yerdan daf bo'l, – dedi xotirjamgina. – Shundog'am aqlim joyida, tushundingmi?

– Bu qanday muomala bo'ldi yana? – dedi jahldan titrab Stepanida. – U kiming bo'ladi – tug'ishgan amakingmidiki, bunday ohangda gaplashasan! Nima balo, esingni yeb qo'yganmisan butunlay?

– O‘zi menga osilavermasin, aks holda, bir zumda fosh qilaman-qo‘yaman uni.

Kuzma Galkani tinch qo‘y degandek, stol tagidan tizzasi bilan Vasiliyni bir turtdi.

– Qayerdadir bir yaxshi yigit o‘ziga sirtmoq tayyor turganidan bexabar yuribdi-da, – dedi Vasiliy ham tilini tiyolmay. – Kimningdir chekiga tushadi bu «bebaho boylik» bir kun.

– Har holda sening chekingga emas.

– Xudo asrasin.

– Boyagi ko‘ylagimda ko‘rib og‘zingning suvi kelib ketdi-yu.

Kuzma gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo‘lib:

– Aroqni shishaga qaytarib quyib, sizlarning g‘idi-bidingizni eshitib o‘tira qolaylik bo‘lmasa, – dedi.

Qadahlar bo‘shatildi. Galka Kuzmaga ko‘z qisib Stepanidaga imo qildi. Kuzma sekingina bosh chayqab qo‘ydi. Galka qanday qilib xolasidan pul undirishlarini ko‘rishga shoshilardi. Voy zaharli ilon-ey! Yordam qilaman deydi-yu, zarrachayam aqli yo‘q, bola-da, bu manmanligi bilan ishni rasvo qilmasaydi hali.

– Nega bugun klubga bormading, Galka? – deb so‘radi dabdu-rustdan Kuzma.

Galka chimirilib:

– Nima, xalaqit beryapmanmi? Aytdim-ku, men siz tomondaman, anavi hadeb jonga tegavermasa bo‘lgani, – dedi Vasiliyni ko‘rsatib.

– Nima deyapti bu? – dedi birdan hushyor tortib Stepanida.

– Ha, gapirdim-qo‘ydimda, – dedi cho‘rt kesib Galka.

Kuzma qotib qoldi. Galka bilan gaplashishning o‘zi xavfli edi. U vaziyat taqozosiga ko‘ra tadbir bilan muomala qilish lozimligi-dan mutlaqo bexabar yoki xolasiga ortiqcha mulozamat ko‘rsatib o‘tirishning hojati yo‘q, uni xuddi tovuqdek o‘tirgan joyida tappa bo-sib patini yulish kerak, deb hisoblar edi. Kuzma qovog‘ini uyib unga jim bo‘l degandek ishora qildi. Galka teskari o‘girilib oldi.

– Xola, nega oxirigacha ichmayapsan? – dedi uning qadahiga razm solib qararkan Galka. – Nima, bizni ahmoq qilmoqchimisan?

– E yo‘q, bunaqasi ketmaydi, – dedi o‘rnidan turib Vasiliy. – Bu nimasi axir, bekajon? Qani, qani. Bir bo‘shatib qo‘ying-chi qadahni.

– Shu zormandani ichsam, tobim qochadi, – dedi bahona qilib Stepanida.

– Sen, Stepanida, juda ajoyib ekansan-ku, bu ishingdan shunga amin bo‘lyapman: aziz qo‘noqlarim, men ichmayman, sizlar ham menga qarab endi bas qilsanglar bo‘lardi. Shunday-da?

– Bu nima deganining, Vasiliy, meni xafa qilyapsan. Men shunaqamanmi? Nimasini ayayman? Ichinglar deb olib chiqdim-ku, axir.

– Sensiz, mezbonsiz tomoqdan o‘tarmidi?

– Xo‘p, mana, hozir, – deya Stepanida bir ko‘tarishda qadahni bo‘shatdi. – Sen, Vasiliy, dilimni og‘ritding. Endi yursam-tursam shu miyamdan chiqmaydi. Yaxshi odamlarning sadag‘asi ketsang arziyi.

– Ko‘ramiz hali, – dedi Galka gapga aralashib.

– Sen, yashshamagur ilonvachcha, nimaga shama qilyapsan yana?

Kuzma joni halak xola-jiyanni chalg‘itmoqchi bo‘lib:

– Kinoga bormoqchi bo‘lyapti-yu, chiptaga puli yo‘qdir. Hali yigit-pigit topmagandir-da, kinoga taklif qiladigan, – dedi.

– E, bu biyani kinomexaniklarning bari tekinga kirgizadi kino-ga. Butun qishloq erkaklari bunga oshiq-ku. Yaxshi odamni puli bo‘lsa ham klubga kirgizmasliklari mumkin, bu bo‘lsa, nima qiladi, qanday qiladi, hammasini barmog‘ida o‘ynatadi. Qarabsizki, pul-mulga xojat yo‘q! Sohibjamol Vasilisa-da bu! Men shuni deb kino-pinosiga qadam bosmayman, odamlarga qarashga yuzim yo‘q buning dastidan.

Galkanining jahldan burun kataklari kengaya boshlagan ham ediki, Kuzma uni to‘xtatish niyatida gap qo‘shdi:

– Kelinglar, yaxshisi, yana bittadan olaylik. Galka, sengayam quayymi?

– Quying! Xolamga qasdma-qasd ichaman – ziqlaligidan yorilib o‘lsin.

– Hah, maraz! O‘limimni kutyapti bu ko‘zi to‘rt bo‘lib. Men-chi, men to‘qqiz yoshidan ona o‘rnida boqibman bu yaramasni. Yedirdim, ichirdim, katta qildim, mana endi ko‘ringlar, yaxshilar. Uni deb nimalar qilmadim deysiz, ammo bir og‘iz shirin so‘zini eshitmadim shu vaqtgacha. Menga rahmati shu buning!

Stepanida yig‘lamsirab ko‘zyoshlarini artish uchun etagini qaytarayotganida Kuzma:

– E, qo‘ysanglar-chi shu gaplarni endi, qani, Stepanida, sen uchun ichamiz, yana yuz yil yashagin-u, aslo g‘am ko‘rma, – dedi.

— Yuz yil yashab nima qildim, Kuzma? To‘g‘risi, juda charchadim, endi o‘lsam ham armonim yo‘q. Ishga yaramay qoldim axir, odamlar ishonmaydi. Ko‘rinishimdangina sog‘man, aslida, ichim tamom bo‘lgan. Manavi hozir gapimga kulyapti, vaqt kelib buni tushunar. Ha, seni ham boshingga keladi, azizam, kulaverma ko‘p, — dedi Stepanida ovozi yana jiddiy ohang olib.

— Bu yil Stepanida, senga necha ish kuni yozilibdi? — deb so‘rab qoldi Vasiliy.

— Ikki yuz ellik kun.

— Yo‘g‘-e, shuncha ishlagansan-ku, axir.

— Tobim yo‘q-da, Vasiliy.

— Brigadiring sifatida mendan xafa emasmisan, degan ma’noda so‘rayapman buni?

— Quysang-chi, Vasiliy, sendan nega xafa bo‘lay! Boshqa kim ham menga shuncha maosh to‘lardi deysan? Senga rahmat.

— O‘rtacha hisobing yetarli, endi seni majlisga ham solib yurishmaydi.

— Ha, to‘g‘ri, bundan ko‘nglim to‘q, endi birov meni bezovta qilmaydi ham. Hammasi karam ektirganing sharofati bilan bo‘ldi. Seni duo qilib charchamayman bilsang, sen bo‘lsang, arzimagan bir shishani qizg‘anadi deb o‘ylaysan. Eh, Vasiliy, bu gap qayerdan miyangga kep qoldi o‘zi?

— Stepanida, biz nimaga kelganimizni bilasanmi? — deb so‘radi Vasiliy.

— Yo‘-o‘q. — Stepanida xavotir bilan Kuzmaga yalt etib qaradi. — Shunchaki, o‘tirib ketgani bo‘lsa kerak-da.

— Mug‘ombirlik qilishini-chi, buni, — dedi shartta Galka.

Vasiliy uni siltab tashladи:

— Jim bo‘l-e! Kunimiz senga qolgani yo‘q. — Keyin yana Stepanidaga yuzlandi: — To‘g‘ri, mehmonga keldik desa ham bo‘laveradi. Lekin senda boshqa ishimiz ham bor. Mariyaning do‘konidan juda katta kamomad chiqqan, eshitgandirsan?

— Eshitishga eshittdim, kimdir aytgan edi.

— Ularga yordam qilmasang bo‘lmaydi, Stepanida. Ish juda jiddiy: agar erta yoki indin shu pul olib borib berilmasa, Mariya qamalib ketishi mumkin. Pul bo‘lsa kerak-a, senda?

— Voy, menda pul qayerdan bo‘lsin?

– Qarz berib tura qol, Stepanida. Butun qishloq nomidan so‘-rayman. Shunday bo‘lib qoldi-da endi.

– Pulingni tez qaytaramiz, – dedi Kuzma ham gapga qo‘shilib. – Hisobot majlisidan keyin kolxozi menga qarz beradi. Uzoq cho‘zmayman.

– Ana, eshitdingmi, tez orada qaytaradi, – dedi Vasiliy. – Ular-ga ishonsang bo‘ladi, qanday odamligini o‘zing yaxshi bilasan. Ayamassan-a, Stepanida.

– Pulim bo‘lsa, nima, bermasmidim men?

Galka shang‘illadi:

– Puli bor, gapiga ishonmanglar! Bor-ku, axir, xola! Nega alda-yapsan?

– Ko‘zing bilan ko‘rganmisan? Yoki sanaganmisan bor bo‘lsa? – deb o‘rnidan turib ketdi Stepanida.

– Ko‘rmaganman ham, sanamaganman ham, ammo bor ekanini aniq bilaman. Agar puling bo‘limganida, allaqachon osilib o‘lgan bo‘larding yoki o‘g‘rilik qilarding. Sen quloqsan – yot unsur, hat-to undan battarsan, senga o‘xshaganlarni surgun qilib yuborsayam kam o‘zi!

– Bu gaplaring uchun javob berishingga to‘g‘ri keladi hali. Sudda javob berasan, shunday qoldirmayman buni! – deya javray ketdi tit-rab-qaqshab Stepanida.

– Juda qo‘rqib ketdim-da! Hali ko‘ramiz, kim kimga javob berishini. Sen quloqsan, quloq!

– Bas qilinglar-e! – deb baqirib yubordi Vasiliy. Xola-jiyan jim bo‘lib qoldi. Biroz tin olgach Vasiliy vazmin ohangda so‘z qotdi: – Haliyam bo‘lsa Stepanida, o‘ylab ko‘r, oz-moz yiqqanining bordir. U yoq-bu yog‘ingni qara. O‘zingdan qolar gap yo‘q, Mariyaning to‘rtta bolasi bor, axir.

– Bo‘ldi, yetar, Vasiliy, – dedi Kuzma.

Galka unga qarab yig‘lab yubordi.

– Mariya xolaga achinaman, – dedi u yig‘i aralash. Uning quyilib kelayotgan ko‘zyoshlari qizarib ketgan barkashdek yuzidan oqib bo‘yniga tushardi.

Stepanida ham engashib xuddi yig‘layotgandek etagi bilan ko‘zlarini ishqaladi, yig‘lamsiragan ovozda:

– Mariyani tug‘ishgan singlimdek ko‘raman. Undan oxirgi chaqamni ham ayamagan bo‘lardim. Axir menga qancha yaxshilik qilgan u, – dedi.

Yana hamma jim bo‘lib qoldi. Stepanida egilib, xuddi tugmani ishqalab-ishqalab yaltillatayotgandek ko‘zini etagi bilan qayta-qayta artar, engashgan chog‘i stol tagidan erkaklarni kuzatar edi. U hiqillab yig‘layaptimi yoki bir nimalar deb g‘o‘ldirayaptimi, tushunish qiyin edi.

– Bas qil-e, Galka, ho‘ngillashni, – dedi Vasiliy. – Mariyaga aza ochishga hali erta.

– Yolg‘on gapiryapti-ku u, axir, aldayapti! – deb shang‘illadi Galka battar. – Men bilaman hammasini. Ko‘rarga ko‘zim yo‘q uni.

– Shunaqami? Unda, tuyog‘ingni shiqillatib qol bu yerdan! – deya jiyanidan qolishmay baqirdi Stepanida. – Achinmayman, zar-rachayam. Menga desa, hoziroq jo‘na! Juda boshimga chiqib olding o‘zi.

– Keta qolaylik, Vasiliy, – dedi Kuzma.

– Ketdik.

Ular ust kiyimini egniga ilib eshikdan chiqdi. Stepanidaning kulbasida baqir-chaqir battar avjiga chiqqan, qishloqning har tomonidan esa itlar akillab go‘yo ularga javob qaytarar edi. Yo‘l-yo‘lakay Vasiliy Stepanidani brigadadan haydamasammi, deya tahdid qilib ketdi. Kuzmaga esa hech narsaning farqi qolmagan-dek edi. Hali Stepanidanikida o‘tirib pul haqida gaplashilganda Mariya bilan bolalarini o‘ylab Kuzmaning yuragini achishtirgan og‘riq o‘tib ketdi. Endi go‘yo kamomad ham ko‘chadagi itlarning hurishidek bezurar tuyulardi unga. Nima bo‘lsa bo‘lar. Kuzma ayni paytda nihoyatda charchagani va qattiq uyqusи kelayotganini his etmoqda edi, xolos. Boshqa hech narsaning ahamiyati yo‘q edi u uchun.

– Ertaga kirarman, – dedi Vasiliy uyi tomon burilayotib.

– Yaxshi.

Kuzma yolg‘iz qoldi. U qishloqning eng chekkasiga – yaxshi niyat bilan qurgan yangi uyiga qarab ketdi. Deyarli butun qishloq uyquda edi. Faqat itlargina tinmay galma-galdan akillab sukunatni buzardi. Odamlar uxlар ekan, g‘am-tashvishlarini ham ertagacha unutgan, hamma narsa joy-joyida to‘xtagan, harakatsiz edi.

Kuzma uyiga kela solib to'shakka cho'zildi. Hech narsani o'ylamay darrov qotib uxlab goldi.

Birinchi kun shu zaylda o'tdi.

To'xtovsiz olg'a intilayotgan poyezd chiroqlari ham shamolda titrayotgandek atrofga g'ira-shira yog'du taratib ketardi. Birdan yorug'lik yo'qolib, ortidan hali butunlay cho'kib ulgurmagan ola-qu-roq qorong'ilik ko'zga tashlanadi. So'ng yana olislardan bir shu'la ko'rinish, milt etadi-yu o'chadi. Birdaniga ikki yoki uchta chiroq paydo bo'lib, mo'jazgina uycha, sarjinlangan o'tin yoki ko'mirxonasi bo'lgan hovlining o'zinigina yoritadi. Bu manzara ham darhol ko'zdan g'oyib bo'lib o'rmini zulmat egallaydi. Yana yo'lingda chiroq paydo bo'larmikan, kulba chiqarmikan – kutib ketaverasan, negaki, shu bilan ham ovunasan.

Kuzma yotgan joyida oynadan tashqarini kuzatib ketardi. Xuddi devorga tikilgandek qorong'ilikka qarab qimirlamay yotaverish ham joniga tegdi. Boshqa nima qilish mumkin? Yaxshiyamki poyezd to'xtamay ketmoqda, shahar borgan sari yaqinlashmoqda. Xullas, yo'lingda paydo bo'ladigan chiroqlarni sanab ham xayolni chalg'itish mumkin – bu ham zerikkanda vaqt o'tkazishning bir yo'li.

Qo'shni polkada yotgan yigit yon tomoniga o'girildi, tishlarini g'ijirlatdi, pastda mudrab yotgan kampir ham ko'zlarini ochib soatga qaradi.

– Seryoja, – dedi u shivirlab. – Tura qol, Seryoja.  
– Uyg'oqman, – dedi chol bir qimirlab. – O'zim, shundoq yotib-man.

– Dori ichadigan vaqting bo'libdi.  
– Unday bo'lsa, qani, bera qol.  
– Qalay, og'rimayaptimi hozir?  
– Yo'q, og'rimayapti.

Kuzma chalqanchasiga o'girilib yotdi; mana, endi hadeb oynadan tikilavermay, chol-kampirning suhbatiga qulq solsa ham bo'ladi. Ularning ovozini eshitib yigitning ham uyqusи qochdi, shekilli, yana yoniga o'girildi, keyin darrov boshini ko'tardi, qovog'ini uyib oyoqlarini osiltirgancha o'trib oldi.

– O'-ho', – dedi yigit cholning stakan ko'targanini ko'rib. – Bizing boboy boshog'rig'i qilayotgan ekan-da, maza-ku!

– Sening fikr-u yoding faqat shunda, – dedi bosiqlik bilan kam-pir. – Seryoja dori ichdi, xudo biladi suvni sen nima deb o‘ylading?

– Ha nima, ilgarilari, ehtimol, boboy ham rosa otgandir.

– Yo‘q, Seryoja hech qachon yotvolib ichmagan. Ichishga-ku ichgan, ammo uni hech ham mast-alast ko‘rmaganman.

– Ha endi, qariganda hamma shunday deb aytadi-da. Men ham boboyning yoshiga yetsam, faqat kvas ichgandim, deb yuraman.

– Seryoja, o‘zing bir nima desang-chi, unga.

– Qo‘y-e, nima keragi bor, – dedi ensasi qotib chol.

– To‘g‘ri aytasan. Bular nimaniyam tushunardi.

Boshqa vaqt bo‘lganda bormi, yigit tabiiyki, ular bilan gap ta-lashardi. Hozir tortishadigan ahvolda emas. U inqillab, oh-voh qilib, ehtiyyotkorlik bilan pastga tushdi va:

– Boshim tars yorilib ketay deyapti! – deya tan olib qo‘ya qoldi.

– Yorilmay nima qilsin, azizim, axir shuncha qiynaganingdan keyin bu sho‘rlikni, – dedi kampir.

– Kimni qiynabman?

– Boshingni-da.

Yigit bazo‘r iljayib:

– Ajoyibsiz-da, buviginam, boshingni qiynading deysizmi? Xo-tinim qiynab yubording, deb egovlagani-egovlagan, siz bo‘lsangiz, boshimni gapisasiz-a, – dedi.

– Kimga o‘xshab qolding shu turishingda? Umuman odam siyog‘ing qolmabdi.

– Buning yo‘lini topsa bo‘ladi, buvijon. Kuzma hoynahoy ke-chasi boshog‘rig‘i qanday bo‘lishini bilsa kerak. Bunday azobga chi-damoqdan ko‘ra o‘lgan yaxshiroq. – Yigit egilib poyabzalini arang kiydi va kamzulining cho‘ntagiga qo‘l tiqdi. – Hozir unga «kuf-suf» qilamiz, qarabsizki, hech narsa ko‘rmagandek hammasi joy-joyiga tushadi. Keyin xotirjam yo‘lda davom etaverish mumkin. Boshimdan ko‘p bora o‘tgan bu savdo.

Yigit chiqib ketdi. Kampir uning ortidan chuqur xo‘rsingancha bosh chayqab qoldi. Kuzma oynadan cholning kampirini kuzatib tu-rib miyig‘ida kulib qo‘yanini ko‘rdi.

– Nega kulyapsan Seryoja?

– O‘zim, shundoq.

– Noto‘g‘ri gapiryapmanmi yoki noto‘g‘ri qilyapmanmi?

- Yo‘q, hammasi joyida. Xotirjam bo‘l.
- Biror gap bo‘lsa, ayt menga.
- Albatta, aytaman, bilasan-ku o‘zing ham.
- To‘g‘ri, sen aytasan.

Kuzmaga ularning suhbatini tinglab yotish maroqli, ammo bir tomondan bu qandaydir noqulay ham edi. Go‘yo u bilmagan holda er-u xotin o‘rtasidagi o‘zaro gap-so‘zga guvoh bo‘lib qolayotgandi. Kuzma ko‘zlarini yumib, o‘zini uxlaganga soldi-yu, oxir-oqibat bunga ham toqat qilib bo‘lmay qoldi. U yon tomoniga o‘girilib olis-olislarni kuzatib yotgisi keldi. Kuzma joyida xuddi yosh boladek tipirchilab, ko‘zlarini majburan yumib yotdi. Bir vaqt eshik ochildi. Kirgan yigit emas, provodnik ayol ekan.

- Choy ichasizlarmi?
- Seryoja, choy olib kelishdi, – dedi kampir.
- Ha, bering. Choy yaxshi-da.

Kuzma ham pastga tushdi.

- Men ham bir stakan ichsam, – dedi u.
- Albatta, ichish kerak, – dedi kampir. – O‘zim ham sizni uyg‘otsammi, deb turuvdim endi.

Kichik stol atrofida o‘tirib choy ichishdi, kampir Kuzmani o‘zi pishirgan pishiriq bilan siyladi. Yuqorida Kuzmaning yo‘l xaltsida cho‘chqa yog‘i bilan qaynatilgan tuxum bor edi. Ularni olib qo‘ysamikan yoki... Albatta olib o‘rtaga qo‘yish kerak. Ammo Kuzma bunga baribir jur’at qilolmadi. Ularga buning cho‘chqa yog‘i kerak ekanmi? Ziyoli odamlar bo‘lsa, axir. Xuddi kechagina turmush qurgan-u, bir-biriga hali to‘ymagandek muomala qilishimi-chi bularni. Kampirning o‘zi Kuzmaga gapirib berdi, oila qurishganiga ko‘p yillar bo‘libdi. Hozir Leningradda yashaydigan o‘g‘linikiga ketisha-yotgan ekan. Aslida u har yili yozda ota-onasini ko‘rgani o‘zi kelarkan. Bu yil esa xorijda xizmat safarida bo‘lgani sababli kelolmabdi. Kampir Kuzmaning ham qayerga ketayotganiga qiziqlidi. U yetti yildan buyon ko‘rmagan akamnikiga mehmonga boryapman dedi. Chol gapga aralashmas, ammo ularni diqqat bilan tinglayotgani ko‘rinib turardi. Kuzma ular bilan o‘tirib hech zerikmadi. Buning ustiga ular dan tortinmadi, aksincha, tezda chiqishib ketdi, ayniqsa, kampir bilan. Negaki, u ham asli qishloqdan bo‘lib, qishloqliklarni juda hurmat qilar ekan.

Kampir Kuzmaga odamlarning hammasi qishloqdan chiqqan, kimdir shaharga oldinroq kelib qolgan, kimdir keyin, buni birov biladi, birov bilgisi ham kelmaydi, deb aytdi. Kuzmaga bu gap ma'qul tushdi, nima derkan degandek cholga qaradi. U indamadi. Mehr-oqibat, kattalarni hurmat qilish, mehnatkashlik ham qishloqliklarga xos xususiyat ekani haqida gapirib, kampir choliga o'girildi:

- To'g'rimi, Seryoja? – dedi.
- Bo'lishi mumkin.

Shu vaqt yo'lakdan yigitning ovozi eshitildi. U ichkariga kirib eshikni yopgach ham xirgoyi qilaverdi:

*Dunyodagi ayollar bilan  
Qora dengizim mening  
Qora dengizim mening.*

– Buni qaranglar-a! Buni qaranglar! – dedi ta'na bilan bosh chay-qab kampir. – Bunday qo'shiqni qayerdan o'rgana qolding?

- Ha, nima, yomonmi?
- Nimasি yaxshi ekan?

– Qo'ysangiz-chi, buvijon! Nimaga tirg'alishni bilmay qoldingiz o'zi. So'kinish yo'q, tappa-tuzuk bir qo'shiq. Konsertda kuylasa ham bo'laveradi buni. – Yigit kelib Kuzmaning yoniga o'tirdi. Boshini xuddi idishni chayqatayotgandek silkitib-silkitib qo'ydi. – Deyarli o'ziga keldi, – dedi mamnun iljayib. – Sal-pal og'rib turibdi-yu, hechqisi yo'q, o'tib ketadi. Boya, buvijon, menga nima dedingiz? Boshingni qiyavording dedingizmi?

– To'g'risiyam shu-da. Ichkilikdan boshqasini bilmay qolding. Pulni ham ayamaysan hech.

- Pul – nima o'zi, qo'lning kiri-da, topiladigan matoh bo'lsa.
- Pulniyam behuda sovurmaslik kerak. O'z-o'zidan kelmaydi-ku, axir. Ozmuncha mehnat qilasanmi pul topaman deb. Kuch sarflaysan, sog'liging ketadi.

– E, menda ko'p. Pul meni yaxshi ko'radi, buvijon, ha. Pul degani ham xuddi aylodek gap: unga qanchalik kam e'tibor bersang, shunchalik senga intilaveradi. Bir tiyinning ustida titrab-qaqshaydiganlarning esa aksincha, puli bo'lmaydi.

– Qanaqasiga bo'lmas ekan, ular pulni bekorga sovurmasa, senga o'xshab ichkilikka sarflamasaga?

- Shunaqasiga-da. Pul ham ziqla odamni biladi – undan qochadi!

– Bunisini men bilmas ekanman.  
– Rost aytyapman. Bilsangiz, buvijon, pul ham odamni odamdan farqlar ekan. Deylik, xasis odam qiyinchilik bilan pul topsa, menga o‘xshagan soddalarga u osongina kelaveradi. Biz bir-birimizni yaxshi tushunamiz: men pulni ayab-asrab o‘tirmayman, u ham mendan o‘zini olib qochmaydi. Xullas, keladi – ketadi, ketadi – keladi. Agar men uni ishlatmay, yig‘a boshlasam bormi, pul ham mening o‘zgarib qolganimni darrov sezadi. Qarabsizki, ishim birdan chappa ketadi: yoki kasal bo‘laman, yoki traktorimni olib qo‘yishadi. Buni men ko‘p bora sinab ko‘rganman.

– Qiziq falsafa ekan-ku, – dedi chol salmoq bilan. – Sodda bo‘lsang, pul seniki de.

– Yo‘-o‘q, nega endi? Ishlash kerak, albatta, – dedi jiddiy tortib yigit. – Men mehnatdan qochmayman. Oyiga ikki yuz ellik, uch yuzdan olaman, qishki mavsumda esa yog‘och sudrab roppa-rosa to‘rt yuzlab topaman. Hammayam mendek ishlay olmaydi. Mehnat qilmasang pul qayoqda?

– Qayerda shuncha pul to‘lanarkan-a? – deb so‘radi Kuzma ham qiziqib.

– Bizda-da, o‘rmon sanoati xo‘jaligida. Mexanizatorlarga yaxshi haq to‘lanadi.

– Bundan nima foyda? – dedi kampir. – Baribir araqqa sarflaysan bor pulingni.

– Ha ichaman. Nima qipti? Kuni bilansov uqda ishlab charchayman, ichmay bo‘ladimi? Hayotning qizig‘i qoladimi unda? Dam ham olishim kerak-ku.

– Ehtimol, xotining har kuni kechqurun bir shisha qo‘ysa kerakda senga, a?

Yigit sharaqlab kuladi.

– Nima, ustidan kulyapsizmi, buvijon? Shunday xotin bo‘lsa bor-yo‘g‘imni bergen bo‘lardim-ku, axir.

– Xotining ham ichib yurishlarindan bezor ekan-da, demak?

– Ha-da, meni hech tushunmaydi. Endi farqi yo‘q buning. U bilan orani ochiq qildim.

– Orani ochiq qilding?

– Ha. Yaqindagina. Ajrashishimiz bilan men ketdim.

– Nega?

– Ahmoq xotin, meni tushunishni xohlamaydi. Sababi shu. Ko‘rpasiga qarab oyoq uzatsa-da, odam degani. E, qo‘ying shuni ga-pirmaylik! – dedi yigit birdan tetiklashib. – Nima, ayol qahatmi bu dunyoda?

– Ayollarning hech qaysisi, bilsang, azizim, ichadigan erkakni yoqtirmaydi. Hamma ham yaxshi yashasam deydi. Sen ichib kelgan vaqting o‘jarligingni ko‘rsatarsan, balki, janjal ham ko‘tararsan.

– Unaqamas, mutlaqo ziyonim yo‘q. Menga tegmasa bas, yotib uxlab qolaman. Kayfim borida ming‘ir-sing‘ir qilib qo‘limni qichitmasa bo‘lgani, chunki yoqtirmayman-da. Ertalab xohlaganicha ga-pirsin, ko‘taraman, mastligimda yaxshisi, churq etmagani ma’qul.

– Ayolni behurmat qilish ham qishloqdan chiqqan odat, – dedi chol kampirga qarab.

– Unday emas, Seryoja.

– Nima deyapsizlar? – dedi ularning gapiga tushunmay yigit.

– Seryoja ayollar qishloqdan ko‘ra shaharda ko‘proq hurmat-e‘tiborga ega deyapti.

– Ayollarni juda hurmat qilishning nima keragi bor ekan o‘zi? Keyin ko‘rasan, hurmat qilganing sayin haddini bilmay, boshingga chiqib oladi. Ularga ortiqcha erk bermay qattiq ushslash kerak. Sal ojizliging sezilsa – tamom deyaver. Senga aql o‘rgatishni boshlaydi. Joningdan to‘ydirmaguncha qo‘ymaydi.

– Senga hech bir ayol bunday qilolmasa kerag-ov, – dedi ishonqiramay kampir.

– Men – boshqa gap. Bo‘sang, yuvosh erkaklarni aytyapman, bunaqalar rosa kunini ko‘radi shunday xotin chekiga tushsa.

– Nima? Nimalar deb valdirayapsan sen? Qaranglar buning dal-lolligini! Ichgan bu-yu, baloga qolgan xotini, – dedi kampir, u bu gapni jahl bilan aytyaptimi, hayron qolibmi, bilib bo‘lmasdi. – Mana, endi tavbangga tayanib – yolg‘iz yashayverasan.

– Nega yolg‘iz bo‘larkan! Topvolaman boshqasini.

– Sendek araqxo‘rga kim ham tegardi?

– Buvijon! – dedi sezilar-sezilmas ta’na bilan yigit. – Bir hushtak chalsam kifoya... Bu yorug‘ olamda, buvijon, yolg‘iz ayol degani ti-qilib yotibdi. Ular ham to‘rt kunlik dunyoda odamdek yashasam deydi. Ayol zoti ojiz emasmi? Erkaksiz yasholmaydi u. Mana men, asli qishloqlikman, doim shaharga borganimda birortasini ilintiraman.

Aytishlaricha, ularga pul bersang bo'ldi ekan, aslida bu bo'l mag'ur gap. Balki inqilobgacha shunday bo'lgandir. Hozir ayollar ham ahmoq emas. Ular takallufni yoqtiradi, to'g'rimi? Surbetlik qilmay, ko'nglini topsang – olam guliston.

– Xotining sen bilan ajrashib juda to'g'ri qilibdi, – dedi kampir.

– Nega unday deyapsiz? – hayron bo'ldi yigit. – Boshqa ayollar ga borganimni aftyapsiz-da? E, bu arzimagan gap-ku. Qaysi erkak xotiniga xiyonat qilmaydi?!

– Hammani o'z qariching bilan o'Ichama.

– E, qo'ysangiz-chi, buvijon! Menga bir kitob berishgan edi, bir joyini o'qib ko'r deb. O'sha kitobda, kim yozgani ham esimda yo'q hozir, hayotga qiziqlishi yo'q, ahmoq odamlargina xotiniga xiyonat qilmaydi debdi yozuvchi. Nima? To'g'ri-da! Bitta xotin bilan bir umr yashab bo'larkanmi? Zerikib o'ladi-ku, odam.

– Seryoja, eshityapsanmi nimalar deyapti bu? – dedi kampir kulib.

– Eshityapman.

– Bir nima desang-chi bunga.

– Nima keragi bor?

– Yo'q, bu hamma shunaqa qiladi, deb o'ylayapti. Unday emasligini bilib qo'ysin bu ham.

– O'zi biladi, nima deb o'ylasa o'ylayversin.

– Kampiringiz nima to'g'risida gapiryapti, ayta qoling, otaxon. Nima, arzimaymizmi? – dedi yigit ham.

– «Kampiringiz nima to'g'risida gapiryapti, ayta qoling, otaxon?» – deya uni masxaralab taqlid qildi kampir. – Mana bobong, ko'z oldingda – tirik bir misol senga, umr bo'yi biron martayam menga xiyonat qilmagan. Sen bo'lsa hammani o'zingga o'xshatasan. Ko'zingni kattaroq ochib qara bobongga, umringda birorta vafodor erkakni ko'rmagan bo'lsang agar.

Yigit cholga ko'z qisib qo'yadi.

– Buvijon, men ham xotinimning oldida unga xiyonat qilganimni tan olarmidim, nima deb o'ylaysiz? – Shunday bo'lsa, nimalar ro'y berishini tasavvur qilib yigit xaxolab kuldi. – Rosa hangoma bo'lardi-da o'ziyam, u meni...

Kampir ham kulgancha unga tikilib qoldi. Keyin yuzidan tabassum arimay:

shilmay salmoq bilan gapirardi. – Mana endi Seryojaning yuragi xasta, meniki esa bardam hali, ammo shu kasallik ikkalamizning dardimiz, baravar olishib yotibmiz.

– Sizlar, nima edi anavi... baptistmisizlar nima balo? – dedi hang mang bo‘lib yigit.

– Qanaqa baptist? – deb kulib yubordi kampir. – Eshityapsanmi, Seryoja, bizni baptistgayam chiqarib qo‘yishdi.

Poyezd yelgandan yelib borar, shahar borgan sari yaqinlashmoqda edi.

Ikkinchı kuni erta tongdan, bolalar hali maktabga ketmay turiboq Gordey ota kirib keldi. Choli tushmagur odatdagidek pechka biqiniga – yerga cho‘kkalay qoldi. So‘ng trubkasini o‘t oldirib uni og‘zidan qo‘ymay jim o‘tiraverdi. Kuzma ham indamadi. Kallai saharlab nimaga keldi ekan – uyqusи qochganmi, nima balo? Maslahatlari kimga kerak uning, biror nafi bo‘lsa ekan? Kuzma uyqudan turgan chog‘lari Mariyaga xotin-xalaj oldida kamomad haqida gapirib hadeb oh-voh qilaverma degan edi, Mariyaning jahli chiqib:

– O‘rgat, o‘rgataver! Shunchalik aqli bo‘p ketdimki, qanday yashash kerakligini ming yil avvaldan bilaman endi. Hamma o‘rgatishga usta, – dedi.

Hozir nimagadir o‘sha suhbat Kuzmaning esiga tushib ketdi.

Bolalar maktabga jo‘nab, Mariya uy ishlari bilan band bo‘lgan mahal Kuzma:

– Ota, menda nima ishingiz bor edi? – deb so‘radi.

– A? – deya chol taraddudlanib, sekin o‘rnidan turdi. – Haligi... shuni ol... – deb Kuzmaga pul uzatdi. – Kecha o‘g‘limdan o‘n besh rubl tilab oluvdim, men nimayam qilardim buni...

– Kerak emas, ota.

– Kerak emas deganing nimasi? – dedi sarosimaga tushib chol. – Bo‘lmasa, nimaga olib keldim buni. Senga ekanini aytmadim unga, xavotir olma.

Cholning qo‘lida buklangan besh rubliklar go‘yo olmasa-chi, degan hadik bilan Kuzmaga tikilib turganday edi. Kuzma pulni oldi.

– Sen tashvish qilma, – dedi xursand bo‘lib chol. – Puling bo‘lgan vaqtida berarsan. Qaytarmasang ham mayli, mendek bir chol pulni nima qilardi? O‘zing o‘yla.

U ketishga taraddudlandi. Negadir bugun sira o‘ziga o‘xshamasdi.

- O'tirsangiz-chi, ota.
- Yo'q, endi boraqolay.
- Ota!
- Nima deysan?
- Boshqa bunday pul olib kelib yurmang menga, kerak emas.
- Nega endi?
- O'zim amallayman. Sizga qolsa, menga deb butun qishloqdan pul so'rab chiqasiz.
- Agar o'zing kerakmas desang, mayli.
- Kerakmas, ota, kerakmas.

Ota ketgach tunov kungi xabarchi bola – Yevgeniy Nikolayevichning qo'shnisi keldi.

- Yevgeniy Nikolayevich hozir tumanga ketyapti, kechqurun qaytar ekan, shuni aytib yubordi, – dedi bola.

Kuzma undan:

- Menga qara, u hovliga chiqsa ham bu haqda butun qishloqqa aytib chiqishni buyurmaydimi senga mabodo? – deb so'radi.

Bola kula-kula chopib ketdi.

Bir vaqt Vasiliy kelib qoldi, gapni cho'zib o'tirmay:

- Kiyin, yur men bilan, – dedi.
- Qayerga?
- Onamnikiga boramiz.

Kuzma Natalya xolani anchadan buyon ko'rмаган edi. Uning yotib qolganiga uch-to'rt yillar bo'lgandi. Bu kampirning biror ish qilmay, hech qayoqqa shoshilmay, boshqalar kabi o'limidan oldin to'shakka mixlanib, ko'rgani kelganlarga nursiz ko'zlarini tikib yotishini, u yonidan bu yoniga qiynalib bazo'r o'girilishini Kuzma tasavvur ham qilolmas edi. Uning o'rnida boshqa har qanday odam bo'lsa, hatto Kuzmaning o'zi uchun ham buni tabiiy hol deyish mumkindir. Ammo Natalya xolaning bunday yotishini aqlga sig'dirib bo'lmashdi. Kuzma esini tanibdiki, uning bir daqiqa bo'lsin, tin olib o'tirganini eslolmaydi. Xuddi murvati burab qo'yilgan temir odamdek tinib-tinchimas, kolxoz ishiga ham, ro'zg'or yumushlariga ham ulgurar, bir yilda olti yuz ish kunlab mehnat qilar, yolg'iz boshi bilan uch o'g'ilni (to'ng'ichi Vasiliy edi) oyoqqa qo'ygan edi. Uni mehnatkash deyishning o'zi kamlik qilardi, negaki, qishloqda mehnatdan qochmaydiganlar ko'p, ammo Natalya xolaga o'xshagani topilmas edi. U

odamlardek qadam bosib emas, uchib yurardi go‘yo. Hamqishloqlari u ko‘chadan yelib o‘tib qolgudek bo‘lsa havas qilib:

– Natalya xola, qayerga ketyapsiz? – deb so‘rashni yoqtirishardi.

U yo‘l-yo‘lakay shoshilib javob qaytarardi:

– Qayerga bo‘lsayam shoshish kerak-da.

Bu gap matalga aylangan va qishloq ahli tilida tez-tez takrorlanar, ammo Natalya xolaga mos tushganchalik hech kimga mos kelmas edi.

Odamlar Natalya xola pichan g‘aramlashga juda usta bo‘lgani haqida hali-hanuz gapirib yurishadi. Bu g‘aramlarga hech qanday ob-havo, yog‘in-sochin ta‘sir qilmas, to qishgacha chirimay, namlanmay, qanday bo‘lsa, shundayligicha turaverar edi. Buning ustiga deng, Natalya xola baliq ovlashda birorta erkakdan qolishmasdi. Kuz kun-lari u mash’ala bilan baliq oviga chiqib, qayig‘ida smola yoqqanida, erkaklar so‘kina-so‘kina eshkaklarini eshib undan uzoqlashar edi.

Xullas, u odamga o‘xshab qadam bosib yurishga odatlanolmay, oxir-oqibat karavoti oldigacha bazo‘r yugurib kelgan-u, yiqilgan bo‘lsa kerak. Mana, endi mehmonxona burchagidan to‘sib ajratil-gan katalakdek xonada tun-u kun to‘shakka mixlanib yotibdi – o‘zi o‘ziga o‘xshamay. Uni ko‘rgani kelgan kampirlar turmush qiyinchiliklaridan noliydi, dardini aytadi. Umr bo‘yi ular bilan dardlashishga besh daqiqa bo‘lsa-da vaqt topolmagan Natalya xola endi bu kampir-larning gap-so‘zini tinglab, ma’qullab yotadi.

Kuzma bilan Vasiliy kirganida kampir uxlayotgan ekan, ularni payqamadi ham. Derazalardan birini parda to‘sib turar, ikkinchisi-ning bir qanoti yopiqligi uchun ham xona ichi g‘ira-shira yorug‘ edi. Shuning uchunmi Kuzma Natalya xolani darrov ko‘rmadi.

– Ona! – deb chaqirdi Vasiliy.

U ko‘zlarini ochdi, ammo hayron bo‘lmadi, go‘yo ularni kutib yotgandek, tikilib qaradi:

– Vasiliy kepti. Bunisi – Kuzma-ku. Seni ko‘rmaganimga ham talay vaqt bo‘ldi, Kuzma, – dedi.

– Ha, ko‘p bo‘ldi, Natalya xola.

– Meni ko‘ray deb keldingmi? Betobman, ko‘rgulik holim ham qolmadi.

Kampir nihoyatda ozib-to‘zib ketgan, ovozi ham zaif chiqar, qiy-nalib gapirardi. Yuzi ham kichrayib qandaydir nursiz bo‘lib qolgan,

gapirganda yuzida hech bir harakat sezilmas, hatto lablari ham qimir-lamas va shu sababli ovoz undan emas, boshqa yoqdan kelayotgan-dek tuyular edi.

– Hali unchalik qari emasman. Yetmishga ham kirmadim. Bosh-qalar yuribdi har holda. Men bo‘lsa, mana yotib qoldim, – deya davom etdi kampir, endi uni uzoq tinglab o‘tirishga to‘g‘ri kelardi. Bunday vaqtida odam o‘ziga boshqa biron ermak topsam deydi.

– Qattiq og‘riyaptimi? – deb so‘radi Kuzma.

– Hech yerim og‘rimaydi-yu, o‘rnimdan turib yura olma-yapman-da. Tursam – oyoqlarim o‘zimga bo‘ysunmaydi, madorsizman.

– Og‘riq yo‘q ekan, jonimning huzuri deb yotavermaysizmi, Natalya xola. Yuguraverib charchagansiz, endi dam ham oling-da, bunday.

– Eh Kuzma, seni qara-yu! Turib yurganga nima yetsin! Mana, yozda o‘zim turib, ko‘chalarga chiqib yurardim.

– O‘shanda turgan ekansizmi, demak, hali ham yurib ketasiz, g‘am yemang.

– Yo‘-o‘q, endi turolmayman, sezib turibman buni. Borgan sari kuchdan qolyapman.

Vasiliy ularning gapini bo‘ldi:

– Ona, pulingiz bormi?

– Ozroq bor-u, lekin Vasiliy, senga bermayman. O‘zimda tursin.

– Bera qoling, ona. Menga emas, Kuzmaga, Mariyaga kerak. Kimdan so‘rashni ham bilmayapti u.

Natalya xola Kuzmaga qaradi, ko‘zlarini pirpirab ungā uzoq tikilib qoldi. Kuzma jim bo‘lib qoldi. Vasiliy xonadan chiqib, onasi bilan yashaydigan opasiga nimalardir dedi, keyin tezda qaytib kirdi.

– Bu pulni o‘limligimga yig‘ib qo‘ygan edim, – dedi Natalya xola nihoyat.

Kuzma hayron bo‘ldi:

– Nima, o‘lganga ham pul to‘lash kerak bo‘ladimi hozir? Axir hech qachon bunday bo‘limgan-ku.

– Yo‘-o‘q, – dedi Natalya xola ko‘zlarida zaif bir shu’la yiltirab.

– Bolalarimni qiynab qo‘ymay deyman. Shuning uchun dafn marosimim ham, ma‘rakalarim ham o‘z pulimga qilinsin deb pul yiqqaman.

— Xuddi biz sizga ma'raka qilmaydigandek gapirasiz-a, — deb to'ng'illadi Vasiliy.

— Qilasizlar, bilaman. Men o'z pulimga qilishingizni, ko'p odam kelishini, meni uzoqroq yod etishlarini xohlayman-da. Yomon odam emasdik chog'i. Hamma ishni o'zim qilib o'rganganman, axir. Shunga bunisini ham o'zim qilay devdim-da, bolam.

Tin olarkan u qimirlamay, jim bo'lib qoldi. Kuzma endi ketish kerak deb o'yladi va Vasiliya qaradi. Shu choq Natalya xola:

— Mariya ko'p yig'layaptimi? — deb so'radi.

— Ha, yig'layapti.

— Senga hozir pulni bersam-u... o'lib-netib qolsam. Nima bo'ladi?

— Yana shu gapmi, oyi, — dedi Vasiliy peshonasi tirishib.

— Bo'ynimga olib qo'ygan bo'lsam, — dedi aybdor odamdek Natalya xola. U o'lim to'g'risida gapirayotgan edi.

Kuzmaning eti jimirlab ketdi, hadik aralash Natalya xolaga tikildi.

O'lim doim, har daqiqada inson bilan yuzma-yuz turadi. Ammo Natalya xolaga kelganda, o'lim ham yuz o'girdimi, xuddi muqaddas zotga ro'para bo'lgandek, uni bu dunyo bilan u dunyoni chegaralab turuvchi bo'sag'ada qoldirib o'tib ketdimi, bir narsa deyish qiyin. Natalya xola uchun ortga yo'l yo'q, oldinga yurishga ham hali erta; shu sababdan u aro yo'lda har ikki tomonni kuzatib yotibdi. Balki Natalya xola umr bo'yi chopaverib o'limini-da chalg'itgan, endi u ham yetib kelolmayotganmikan, kim bilsin.

Natalya xola qo'li bilan bilinar-bilinmas ishora qilib karavot ostini ko'rsatdi.

— Vasiliy, ola qol, o'sha yerda edi.

Vasiliy karavot tagidan eski, titilib ketgan bir jomadon chiqardi. Ichidan kichkina, qizil lattaga tugilgan bo'g'chani topdi. Natalya xola bo'g'chani ochdi:

— Bu pulni necha yillardan beri yig'ayotgan edim. Senga zarur ekan, berib turish kerak. Men imkonim yetgancha sabr qilaman, ammo Kuzma, juda kechiktirib yuborma. Madorim qolmadidi hech.

— Yaxshisi, tezroq sog'ayib keting, Natalya xola, — dedi Kuzma nima deyishini bilmay.

Kampir indamadi.

– Agar paymonam to‘lib ketib qolsam, pulni Vasiliya qaytarasan. Faqat darhol, shu shart bilan beraman senga. O‘lsam, o‘z pulim o‘zimga yarasin, – dedi birozdan keyin.

– Beraman, Natalya xola.

– Dafn marosimimga kelarsan?

Kuzma nima deyishni bilmay tili aylanmay qoldi.

– Albatta kel, yeb-ichib, haqimga duo qil. Ko‘p odam bo‘ladi, sen ham kelgin.

Natalya xola tutib turgan pulga qo‘l uzatarkan Kuzma uni go‘yo narigi dunyodan olayotgandek bo‘ldi.

Kuzma Natalya xolaga Mariya yig‘layapti deb aytgan bo‘lsa-da, u endi yig‘lamay qo‘ygan edi. Hatto gapirmasdi ham. Biron narsa so‘ralsa, ikki-uch og‘iz so‘z aytar yoki o‘zini eshitmaganga solib, indamay qo‘ya qolar edi. Odatdagidek ro‘zg‘or ishlarini qilib yurardi-yu, ammo hech narsani ko‘rmayotgandek, anglamayotgandek edi. Go‘yo kimdir uni yetaklab yurib nima ish qilish kerakligini aytib turgandek. Keyin o‘zini karavotga tashlab qimirlamay yotaverardi. Bolalar kelib ovqat so‘rasa, u yana o‘rnidan turar va oyparastlardek uy ichida kuymalanib yuraverardi.

Bolalar ham qandaydir yuvosh tortib qolgan, baqirishmas, bo‘larbo‘lmasga yugurib to‘polon qilishmas edi. Ota-onasining har bir gapini kiprik qoqmay tinglar, endi nima bo‘lar ekan deb kutar, birbiridan qolmay doim birga yurar, nimadandir hadiksirar edi. Onasining oldiga kelib tizilishib turar, u esa bolalarini ko‘rmas edi go‘yo.

Uy katta, yangi bo‘lsa-da, unda odam zoti yashamaydigandek o‘lik sukunat hukmron edi.

Yaxshisi, Kuzma uyga kelmasa bo‘larkan. Natalya xola bergen pulni ko‘rsatib Mariyani xursand qilmoqchi edi. U pulga oddiy qog‘ozga qaragandek bir ko‘z tashladi-yu, nari ketdi. Kuzma uning nimadir deyishini kutgan edi, u gapirmadi. Mariyaga hech narsaning farqi qolmadi o‘zi. Buni Kuzma tushunib turibdi. To‘g‘ri, kecha – birinchi kun, qo‘rquv kuchli edi. Shu sababdan Mariya qattiq tashvishga tushib qolgan, nuqul yig‘lar, meni qutqar deya Kuzmaga yalinar edi. Bugun esa jonsiz haykalga aylandi-qoldi. Tikilib turadi-yu hech narsani ko‘rmaydi, gapingizni eshitadi-yu, biron nimaning farqiga bormaydi. Aftidan, bu ishlar butunlay bir yoqli bo‘limguncha: uni olib ketishmaguncha yoxud mana, hammasi yaxshilik bilan tugadi,

deyilmaguncha ahvol shunday davom etsa kerak. Shundan keyingina u yana avvalgidek yashay boshlaydi. Yana yig‘laydi, hayoti iziga tushishi bilan uning ko‘ngli ham asta-sekin yumshay boradi. Uni ham tushunish kerak.

Kuzma uyda o‘tirolmay ko‘chaga chiqib ketdi.

Havoning avzoyi buzuq, osmonni qora bulut qoplagan. Jimjitlik hukm surardi. Yon-atrof xuddi egasi tashlab ketilgandek kimsasiz, hu-vullab yotibdi. Go‘yo bu yerning sohibi ko‘chib ketgan-u, hali boshqa birorta odam ko‘chib kelmagandek. Havo ham shunga monand – na kuz, na qishligini bilib bo‘ladi. Rutubatli kuz havosi odamlarning joniga tekkan, qish bo‘lsa hali-beri keladiganga o‘xshamaydi. Bunga fursat yetmagani uchun osmonga ko‘tarilishga jur’at qilolmayotgandek uylar mo‘risidan bilinar-bilinmas tutun o‘rlaydi. Hatto itlar ham bekorchilikdan nima qilishni bilmayotgandek boshini solintirgancha qishloq bo‘ylab izg‘ib yuribdi. Bolalar tashqariga chiqmaydi, dera-zadangina qarab o‘tirishibdi. Ko‘chalar bo‘m-bo‘sh, qishloq etagida so‘ppayib qolgan o‘rmongina qorayib ko‘rinadi, xolos.

Odamlar nimanidir kutayotgandek. Bayramlarni, shu bahona ko‘ngil yozishni kutmoqda edi ular, albatta. Yangi ish va tashvishlar pallasi – qishni kutardi. Qish va bayramlarga yanada yaqinlashtiradigan ertangi kunni kutardi. Bugungi kundan hamma bezgan-u uning tezroq o‘tishini kutayotgandek go‘yo. Bu kun Kuzmagagina omad baxsh etdi, u o‘sha omadning bardavom bo‘lishini kutar va bunga umidvor ham edi.

Kuzma endi kimdan pul so‘rash mumkinligi haqida bosh qotirardi. O‘yay-o‘yay miyasiga tayinli fikr kelmadi, uyga borishga yuragi bezillab idoraga bosh suqdi.

Rais uni ko‘rib:

- Xo‘sh, ishlar qalay? – deb so‘radi.
- Yomon emasdek.
- Uncha-muncha yig‘ilib qolgandir?
- Hozircha uncha ko‘p emas.
- Qancha – ayta olasanmi?
- Agar bugun Yevgeniy Nikolayevich olib kelsa ikki yuz ellikka salgina yetmaydi.
- Bori shumi?
- Hozircha shu.

Rais stoli ustidagi qog'ozlarni tartibga solardi. Ko'rinishidan nimadandir noroziligi sezilib turar, qovog'i soliq, nuqul uh tortardi. Qo'lidagi papkani yopib bir chetga qo'ydi-da, boshqasini oldi, qog'ozdan ko'z uzmay so'radi:

- Qolganini qayerdan olasan? Biror mo'ljaling bormi?
- Surishtirib yuribman, mana, – dedi yelka qisib Kuzma.

Rais qog'ozlariga ko'milgancha uzoq jim qoldi. Kuzma unga xalal bermay deya ketishga chog'langan edi, rais:

- O'tir! – dedi buyruq ohangida.

Keyin esa Kuzmaning bor-yo'qligini ham unutib yuborgandek o'z ishini qilaverdi.

Kuzmaning xotirasida qirq yettinchi yilning sentabr oyi jonlandi: g'alla ayni yetilgan, yig'ib-terib olish kerak bo'lgan palla. Aksiga olib, kolxoz mashinalardan foydalanolmas, yonilg'i yo'q edi. Rais haftaning deyarli besh kunini tuman markazida o'tkazar, raykomdan mashina-traktor muassasasiga chopar, rost-yolg'on ishlatib, ilojini qilib yonilg'i undirar edi. Bu mashinalarning atigi ikki kun yurishiga yetardi. Ob-havo ham xuddi buyurtma qilingandek – osmonda bulutdan asar ham yo'q edi. Shundoq ham yaxshi hosil qilmagan bug'doy boshog'idan to'kila boshladi. Ayniqsa, urush davri va undan keyinги ocharchilik yillaridagi qiyinchiliklardan so'ng don to'kilishiga shunchaki qarab turib bo'lmasdi. Odamlar yana qo'liga o'roq oldi, otlarni qo'shdi, xullas, shu tarzda g'alla o'rila boshladi. Urush davrida nafaqat odam, hatto otlar ham uch barobar qirilib ketgan bo'lsa, bu ahvolda qancha g'alla o'rilar edi deysiz?

O'sha kuni naq iblisning o'zi bir barja<sup>1</sup>ni qirg'oqq'a haydar kelgan edi, hoynahoy. Beso'naqay xotindek xomsemiz shkiper<sup>2</sup> ishtonni pochalarini qayirib olib kuni bilan baliq ovladi. Kechqurun esa sohil bo'yida gulxan yoqib baliq sho'rva pishirdi. Yaxshi yonishi uchun u shisha idishdag'i yonilg'idan olovga sepib-sepib turardi. Rais o'sha yerga – gulxan yoniga bordi.

Ular tezda til topishishdi. Ertalab odamlar qirg'oqqa ikki bochka yonilg'ini tushirib olgach, kema jo'nab ketdi. O'sha kuniyoq traktor yordamida kombayn dalaga sudrab borildi. Kuzma esa mashina-

<sup>1</sup> Barja – yuk kemasi.

<sup>2</sup> Shkiper – savdo kemasi kapitani.

sida g'alla tashidi. Xullas, shkiperdan yonilg'i sotib olingenini butun qishloq bilar, buning oqibati nima bo'lishi esa yolg'iz raisgagina ayon edi.

Rais noyabrning boshlarida hibsga olindi – xuddi yig'im-terimni tugatsin deb kutib turishgan ekanmi. U bayramni uyd a o'tkazishga izn so'ragan edi – rad javobi berishdi. Qishloq ahliga ham bu bayram tativadi. Avvaliga raisning nega qamalganini bilolmay hamma hayron bo'lidi: axir yonilg'ini u o'g'irlab emas, sotib olgan bo'lsa, buning ustiga, o'ziga emas, kolxoz uchun. Negaki mashina-traktor muassasasida yonilg'i yo'q edi, g'alla esa kutib turmaydi. Xullas, aytishlaricha, yonilg'i davlatniki bo'lib, aslida, uni sotishga shkipering, sotib olishga raisning haqqi yo'q ekan. Buni birov tushunib, birov tushunmadi. Kolxoz majlis o'tkazib, raisni qo'llab-quvvatlash uchun yugurib-yelishi kerak bo'lgan uch vakil tayinladi. To'g'ri, ular qo'lidan kelganini qildi – necha bora tumanga, bir marta viloyatga ham bordi, hatto Moskvagacha yozishdi, ammo hech nimaga erisholmadi. Ehtimol, aksi bo'lib buning raisga ziyoni tekkandir, negaki, u o'n besh yilga kesilib ketdi. Mana bunisiga endi hayron qolmay iloj yo'q edi.

Rais ellik to'rtinchchi yili – amnostiya-afvdan so'ng ozodlikka chiqdi. Uni yana kolxozga rahbar etib tayinlamoqchi bo'lishgan edi – mumkin emas ekan, axir sudlangan, partiyadan o'chirilgan. Brigadir bo'lib yurdi. Besh yillar avval, qishloqliklar viloyatga yozib, uning qayta raislikka tiklanishini so'rashgachgina ruxsat berildi. Bu orada qancha rais almashdi, yarim qishloq kolxozdan chiqib ketdi. U eski lavozimiga xuddi mana shunday kech kuzda, yig'im-terimdan so'ng tayinlandi. Go'yo hech nima bo'limgandek – bu ikki kuz fasli o'rtasida o'n yildan ziyod vaqt o'tganini hisobga olmaganda, albatta.

Rais qog'ozdan bosh ko'tarib, eshikka qarab qichqirdi:

– Polina!

Hisobxonada ishlaydigan Polina yugurib kirdi.

– Polina, qara-chi, mutaxassislarimiz oyiga qancha olarkan, meni ham qo'shib hisoblaganda?

– Hammasi bo'libmi?

– Ha, hammasi bo'lib.

– Buni shunday ham bilaman: olti yuz qirq rubl.

Rais o‘ylanib turib, so‘radi:

– Hisobchi kelmadimi hali?

– Yo‘q, u kechga tomon keladi.

– Ha mayli, boraver. U yerdan birortasini aytib yubor, oldimga kirsin.

– Kimni aytay?

– Maosh oladiganlarning hammasini. Muhim ish bor ekan de, yo‘qsa, birining orqasidan biri cho‘zilib qachon kirishadi. Ularni ikki soat kutib o‘tirishga vaqtim yo‘q.

Keyin Kuzmaga qarab:

– Sen o‘tiraver, – dedi va yana qog‘ozlarini titkilay ketdi.

Mutaxassislar birin-ketin kira boshladи.

Birinchi bo‘lib yaqindagina davolanishdan qaytgan agronom kиrib keldi. Ayni yig‘im-terim avjiga chiqqan mahal uning oshqozonidagi yara qattiq bezovta qilib, mazasi qochgan, shundan keyin u sihatgohga jo‘nab ketgan edi.

U bu yerga ikki yillar avval qishloq xo‘jaligi boshqarmasi tomonidan yuborilgan. Uzoq kolxozga o‘z ixtiyori bilan kelgani sababli ham uni ko‘pchilik hurmat qilardi. To‘g‘ri, boshida uni xushlamaygina qarshi olishgan: rahbar lovozimda ishlagan bo‘lsa, doim kabinetda o‘tirgan, kim bilsin, u bilan qanday gaplashish kerak? Yoki agronom qiyofasida kelgan-u, aslida, avvallari har bir kolxozga yuboriladigan maxsus vakillardan emasmikan, degan gumanlar ham yo‘q emas edi. Keyinchalik agronomni kuzatib yurib bu xavotirlar ham unutilib ketdi: u o‘z ishini sidqidildan bajarar, yoz kunlari ertalabdan qora kechgacha daladan beri kelmas edi. Xullas, tez orada u qishloqning o‘z odamiga aylandi-qoldi.

Agronom salomlashib savol nazari bilan raisga tikildi. Rais javob o‘rniga:

– O‘tirib tur, ozroq kutaylik-chi, – dedi.

Bir vaqt shosha-pisha veterinar keldi. Qishloqda juda ko‘p yillardan buyon yashagani uchunmi, uning mutaxassis ekani uncha-muncha odamning esida ham yo‘q edi.

Uning ortidan zootexnik – ovozi do‘rillagan erkakshoda ayol kirdi. U vazmin, kamgap edi. Ammo bunday ovoz va kuch bilan uzoq vaqt indamay yurish mumkin emasdek va u, albatta, hozir bir balo sodir etishi tayindek kolxozda hamma undan hayiqardi.

Faqat mexanik kechikdi. Rais betoqatlanib eshikka qarab vaysay ketdi:

– Qachon aytigan vaqtida yetib kelgan u o‘zi! O‘n marta taklif qilish kerakmi, bilmadim.

Nihoyat, hali ko‘kragidan institut nishonini ham yechmagan yosh yigit – mexanik paydo bo‘ldi. Boshqalar allaqachon o‘rnashib bo‘lganida, u xuddi qattiq ishlab horigan odamdek og‘ir qadam bosib kelib divan chetiga joylashdi.

Mutaxassislar bir tomonda divanda, Kuzma esa yolg‘iz o‘zi ularning ro‘parasida o‘tirardi.

Aftidan, rais ham ular bilan hal etmoqchi bo‘lgan ishi oson emasligini endi anglab yetgan edi, gapni nimadan boshlashni bilolmay tarraddudlanib qoldi. Buni sezgandek mutaxassislar ham jim o‘tirardi.

Nihoyat rais gap boshladi:

– Xo‘sh, sizlarni bu yerga nima uchun to‘plaganimni aytay endi. Bilasiz, ertaga maosh oladigan kunimiz. Agar kechqurun hisobchi pul olib kelsa, siz ertaga uni olishingiz mumkin, albatta. Ammo bizda bir muammo chiqib qoldi. – Rais buning qanchalik muhim ekanini o‘tirganlar anglasin, deya bir muddat tin oldi, keyin yana bosiq ovozda, bir maromda gapida davom etdi: – Yozda, bahorda ham biz bir necha marta maoshingizni kechiktirib bergen edik. Oylikkacha amal-taql qilib yashagan, yo‘lini topgan edingiz o‘shanda. Aminmanki, biz yana shunday imkon topa olamiz, pulni esa Kuzmaga berib turaylik, demoqchiman. Uning boshiga tushgan savdodan hammangizingning xabaringiz bor. Uch kun ichida ming rubl topishi kerak. Bunday vaqtida biz yordam qilmasak, shuncha pulni u qayerdan ham oladi? Hisobot majlisidan keyin unga qarz puli bermoqchimiz-u, ammo buni kutishga vaqt qani bizda? Keyin kech bo‘ladi-da. Biz bir kunimizni ko‘rarmiz, hech balo qilmas. Ana kolxozhilar yashayapti-ku. Xullas, taklifim shu. Kelinglar, shu muammoni hal qilaylik. Ammo aytib qo‘yay, bunga hech kimni majbur qila olmaymiz.

Kuzmaning «dod» deb yuborishiga oz qoldi:

– Bu nimasi, nima degan odam bo‘ldim men endi? Hech bo‘lmasa, gap shu haqda bo‘lishini oldindan aytib, ogohlantirib qo‘ysang bo‘lmasmidi?

– Sendan hech kim fikr so‘ramayapti. So‘raganda – gapirasan, – dedi rais cho‘rt kesib. – Xo‘sh, o‘rtoq mutaxassislar, nima deysizlar?

Hech kim churq etmadi.

Kuzma ular tomon qarashga ham botina olmasdi. Nomusdan o'zini go'yo shishadek shaffof his etar, barcha ojiz va nozik tomonlari ko'rinish turgandek noqulay ahvolda qolgan edi. Ularning oldida hukm qilinishini kutayotgan jinoyatchidek o'tirar, rahm qilinishini xohlardimi yoki yo'qmi, ayni paytda bu haqda o'ylayolmas edi. U faqat uyalar – yoshi bir joyga borgan odamgina his eta oladigan achchiq va alamli sharmandalikdan qochgani joy topolmas edi. Hozir – keyin nima bo'lsa bo'lar, ayni choqda buning deyarli farqi yo'q – hatto qaniydi ular rozi bo'lmasa deb o'yldi. Ana shunda bular oldida tili qisiq bo'lib qolmaydi, o'zini qarzdor his etmaydi.

Shu vaqt kimdir:

– Berib turish kerak, albatta, – deb qoldi.

– Ha, berish kerak, – deya qat'iyat bilan takrorladi rais. – Aytyapman-ku, biz bir amallaymiz, uning esa boshqa chorasi yo'q. Bilaman, hammangiz ham maoshingizni nimalargadir mo'ljal qilib yurgansiz. Noyabrda bir yo'lini topib bankdan pulni oldinroq olishga harakat qilamiz. Gap shu. Xullas, ertaga faqat hujjatga imzo chekib ketishingizga to'g'ri keladi. Pulni Kuzmaga beramiz. Kimning e'tirozi bo'lsa hozir aytsin.

– Rozimiz, albatta! – deya hammaning nomidan javob qildi agronom.

Boshqa hech kimdan sado chiqmadi.

– Unday bo'lsa, Kuzma, ertalab kelib pulni olasan. Polina hammasi bo'lib olti yuz qirq rubl deb aytди. To'g'ri bu ham yetmaydi, ammo bori shu. Hisobchiga ham aytib qo'yaman.

– Men tushunmadim, biz maoshimizni to'lig'icha unga berishga majburmizmi? – deb qoldi bir payt yonida turganlarga qarab xavotir bilan veterinar.

– Sen hech nimaga majbur emassan, – dedi g'ashi kelganini yashirmay rais. – Har kimning ixtiyor o'zida. Bermayman desang ham xohishing – pulingni olaver. Nega boyta indamading? Biz oyligimizni to'lig'icha bermoqchimiz, sen o'zing bilasan. Gap shu.

– Men ham roziman, albatta roziman, – dedi shosha-pisha bosh silkib u.

– Yana bir o'ylab ko'r.

– Roziman, roziman.

– Menga hamma pulni berishingiz shart emas, – dedi Kuzma raisga qarab va o‘rnidan turdi. – Nima, men katta yo‘lda turgan qaroq-chimanmi? Ular ham yashashi kerak-ku, axir! Maoshining hammasini men olsam, ular nima qiladi? Xo‘p, shunday ham ekan, agar rozi bo‘lsangiz, kelinglar, men yarmini olay, yarmi o‘zingizga qolsin. – Endi u mutaxassislarga qarab gapirdi: – Shunday qilsak-chi? Yo‘qsa, bu nima degan gap, axir? Demak siz ishlab...

Rais uning gapini bo‘ldi:

– Biz bilan savdolashib o‘tirma. Bersa – ol, ursa – qoch, savdolashishning esa hech o‘rni emas.

– Nima, bundan chiqdi menda vijdon degani yo‘q ekan-da?

– Vijdon haqidagi safsatangni boshqalarga so‘qi! Vijdon deydi-ya bu. Nima, seningcha bizda vijdon yo‘qmi? Vijdon deb bosh qotirgandan ko‘ra, qolgan pulni qayerdan topaman, deb o‘ylasang bo‘larmidi. Vijdonning bori senga berilgan ekan, boshqalarga qolmabdi, ha. Pulni uyimga olib kelib berishadi, deb o‘ylaysanmi? Kutib o‘tiraver bo‘lmasa! Ana Stepanidadan insof bilan so‘ragan eding, xo‘sh, qancha berdi u senga? – Rais jahl bilan stoli ustidagi qog‘oz solingan papkalarni oldi-yu yana joyiga tashladi. – Ertaga kelib bor pulni olasan yoki Mariyaga qoqi non g‘amlayverishing mumkin. Bilging kelayotgan bo‘lsa, pul hammaga, menga ham zaruur, ammo senga beryapman, negaki, men bir ilojini qilaman, senchi, shuni olmasang uyim kuydi deyaver. Boshqalar ham amallaydi, g‘am yema. Agar juda vijdonli bo‘lsang, bilib qo‘y, bizda ham undan oz-moz bor.

– Axir men...

– Bas. Gap tamom! Ketmoqchi bo‘lganlarga javob.

Mexanik darrov ketdi. Zootexnik ham o‘rnidan turdi, raisdan sekingina ferma bilan bog‘liq nimalardir haqida so‘radi-da, eshik tomon yo‘naldi. Veterinar ham atrofga alanglab tez-tez yurib chiqib ketdi. Xonada uch kishi: rais, agronom va Kuzma qoldi.

Kuzma avvalgi joyiga, agronomning ro‘parasiga o‘tirdi.

Uchalovi ham jim qoldi.

Nihoyat, agronom ham joyidan qo‘zg‘aldi, qo‘l berib rais hamda Kuzma bilan xayrlashdi. Raisni ko‘rsatib Kuzmaga:

– U bizni majburlab ko‘ndirgani yo‘q. Sen xijolat bo‘lma. To‘g‘ri qildi. Hech tortinmay olaver pulni. O‘z pulim deb hisobla, – dedi.

U do'stona bosh irg'ab chiqib ketdi. Kuzmaning ham ketish tareddudiga tushganini ko'rib rais:

– Ketmay tur, – dedi.

So'ng stoli ustidagi papkalarni g'aladonga tashladi, seyfni qulflagan-qulflamaganini tekshirdi va kiyina boshladi.

Qosh qorayayotgan palla, ikki-uchta uy oynasidangina xira yog'du ko'zga tashlanar, atrof deyarli qop-qorong'i edi. Butun qishloq xuddi uzoqlardan kelib daryo bo'yiga joylashgan-u, dam olib yana allaqayer-larga yo'l oladigan lo'lilar to'dasidek horg'in mudrab yotardi.

Qishloq ahli ayni damda uxlayotgani yo'q. Hozir kun bilan tun almashadigan oraliq palla. Bu payt go'yo hech ish qilib bo'lmaydi, borliq butkul zulmatga burkangachgina uyquga yotguncha yana qandaydir yumushlarni qilish mumkin bo'ladi, hozir esa shunchaki kutmoq kerak; bu – ana shunday besamar o'tkaziladigan vaqt, deb o'ylaydi odam. Tabiiyki, o'zi qattiq charchagani uchungina unga shunday tuyuladi.

Yo'lma-yo'l miq etmay ketishdi, uyiga yetgandagina rais:

– Shoshilmayotgan bo'lsang, uyga kiraylik, – dedi.

Rais eshikni ochib, chiroqni yoqdi. Uyda hech kim yo'q edi. U ochilgan shishadan ikkita stakanga yarimlatib quydi, yog'log'ida suv olib keldi. Shishani ko'rsatib:

– Spirt, – dedi.

– Qayerdan topding buni?

– Anchadan beri turibdi. Bahorda konga borganimda bitta sotib olgandim. Ozroq qolgan edi shundan. Qani ko'tardik. Mariya uchun, o'ziga noravo joydan asrasin uni.

Kuzmaning ichi muzlab ketdi, u qadahni bir ko'tarishda bo'shatib, o'sha qo'zg'alay deb turgan og'riqni spirt bilan bosgandek bo'ldi. Orqasidan suv ichib, nafasini rostlab oldi. Deyarli dardsiz, vazmin ohangda:

– Mana endi iloji topildi deyaver. Bizni qutqarding! – dedi.

– Anavi yaramas Stepanidaga hali ko'rsatib qo'yaman. Yangi yil boshlansin, – dedi tahdid bilan rais.

– Balki rostdan ham puli yo'qdir.

– E, qo'ysang-chi! Mana, sentabrda, yaqindagina sigirini sotib oldik, qancha to'ladik unga! Nima, pul yeydimi bu xotin? Yotibdi-da, bir kavakda. Lattaga o'rab tiqib qo'ygan.

– Qo‘yaver, unga tegma. Shunaqa odam-da. O‘zi bermasa, urib olasanmi?

– Bir siquvgaga olay, ana shunda biladi. Puli shunchaki yotibdi, hech bir naf keltirmay. Yo‘q, bergisi kelmaydi. Undan ko‘ra yotaversin, deydi-da. Endi ahvolini ko‘r! O‘ziniki bo‘lsayam, borib biron narsa sotib ololmaydi bu pulga. Odamlar ko‘radi, yolg‘oni fosh bo‘ladi. Bir rubllab ishlatishiga to‘g‘ri keladi endi, boshqa nimayam qilardi. O‘ziga o‘zi jazo topdi. Buning ustiga, odamlar ishonchidan ham ayrildi. Undan ko‘ra shu pulni senga bersa bo‘lmasmidi. Yo‘q, xasisligi yo‘l qo‘ymaydi bunga.

– E, qurib ketmaydimi. Men o‘zi unga unchalik ham umid qilmagan edim. Shu, mutaxassislarining oldida noqulay bo‘ldi-da, ko‘nglim juda g‘ash. Axir shu maoshni qancha kutishgan. Endi bo‘lsa men ol-sam pulni. Mendan xafa bo‘lishayotgandir ehtimol. Ularni majbur qilding, tabiiyki, sendan ham norozi bo‘lishadi.

– Hechqisi yo‘q, bir amallahshadi. Deylik, ertaga sen agronomning oldiga pul so‘rab borsang, bunday o‘ylab qaralsa, hozir uning o‘ziyam pulga ehtiyojmand, balki u senga ozroq berib turar. Lekin buning unchalik foydasi tegmaydi senga, to‘g‘rimi? Veterinar-ku, umuman bermasdi. Negaki, yolg‘iz bo‘lganda yo‘q deyish oson. Ularni atay bir yerga to‘pladim. – Rais kulib qo‘ydi. – Bilaman-da, ko‘pchilikning oldida shunchaki rad etish qiyin, hech birimiz boshqalarga zaif tomonimiz oshkor bo‘lib qolishini istamaymiz, axir. Yolg‘iz bo‘lsang – ko‘proq o‘z manfaatingni o‘ylaysan, aldovingni birov bilmaydi, chunki guvoh-larsiz gaplashyapsan. E, bunaqasini ko‘p ko‘rganmiz.

– Ha, rostdan ham, – deb ma‘qulladi hayratlanib Kuzma.

– Ha, bu bor gap. Qamoqda o‘tirganimda telbasifat, g‘alati bir odam bor edi. U aynan shu haqda qalin daftarni to‘ldirib allambalolarni yozgan. O‘sha daftarda o‘ylab chiqarilgan, to‘qilgan voqealar ham ko‘p edi-yu, ammo shu haqdagisini aniq eslayman, buni men oldindan bilardim o‘zi, hayotda ko‘p sinaganman.

– Doim sendan bir gapni so‘ramoqchi bo‘lamon, – dedi Kuzma. – Qamalganingda, bizdan xafa bo‘lganmisan?

– Kimdan – sizdan?

– Mendan, deylik, boshqa hamqishloqlaringdan. O‘sha yonilg‘i-dan hammamiz foydalanganmiz-u, jabrini faqat sen tortding. O‘z foydangni ko‘zlab qilmagansan-ku bu ishni.

– Sizlardan nega xafa bo‘lishim kerak edi? Bu sizlarning aybi<sub>n</sub>-giz emas edi-ku.

– Aybimiz bor-yo‘qligi, bu – qaysi tomondan olib qarash<sub>ga</sub> bog‘liq.

– Qo‘ysang-chi, Kuzma, – dedi qo‘l siltab rais. – Bu haqda ga<sub>bi</sub>-rishdan endi nima foyda?

Shisha tagida qolganini ham quyib ichishdi. Rais xayol<sub>ga</sub> cho‘mib qoldi. U spirt ta’sirida qizarib ketgan, ayni choqda rahbar<sub>ga</sub> ham o‘xshamasdi: yuzi qandaydir go‘shtdor ko‘rinar, doimiy qat’iyatidan asar ham yo‘q, ko‘zlar g‘amgin boqar edi. Agar Kuzma uning qancha ichganini ko‘rmaganida mast deb o‘ylashi tayin edi.

– Sizlardan xafa bo‘lgan-bo‘lmaganimni so‘rading-a? – dedi bir vaqt rais tetik ovozda va Kuzmaga qaradi. – Albatta, bunga sizlarning hech qanday daxlingiz yo‘q. Ehtimol, avvaliga men uchun unchalik qayg‘urmayapsizlar, degan xayolga borgandirman. O‘z manfaatimni ko‘zlab emas, kolxozi uchun qildim-ku, buni hisobga olishadi, kolxozi kafolatnomasi yozib bersa, majburiy mehnatga qo‘yishar, deb o‘ylaganman. Axir menga shuning o‘ziyam katta jazo edi. Sudda qarasam, ish mening ziyonimga qarab ketyapti. Ana shunaqa, – dedi rais haligacha buni tushunolmagandek. – Xafa ham bo‘lganman, keyinchalik, lekin boshqa narsadan. Albatta, yonilg‘i bilan bog‘liq ishda mening aybim bor edi, buni inkor qilmayman. Lekin yaxshilab o‘ylab ko‘rilsa, aybdor yolg‘iz men emas edim-ku. Aslida, yomon niyatda ham olmaganman-ku o‘sha yonilg‘ini. Zarurat majbur etgan: g‘allam dalada to‘kilib yotgan bo‘lsa. Yonilg‘i vaqtida yetkazib berilgan ekanmi, nazorat yaxshi bo‘lmagan-da. Demak, yuqoridaqlardan ham kimdir aybdor bo‘lib chiqadi. Lekin kim ham aybni bo‘yniga olardi, yolg‘iz men hukm qilindim.

– Shuni aptyapman-da, men ham.

– Meni qayta raislikka tayinlamoqchi bo‘lishganida avvaliga rad etdim. Keyin o‘ylab qaradim, kimga o‘jarlik qilyapman o‘zi? Kolxzogami? Axir ko‘rgiliklarimga kolxozi sababchi emas-ku. Davlatgami? Shunisi yetmay turuvdi o‘zi... – Rais indamay qoldi, so‘ng kulib, ammo qat’iy ohangda: – Hayotimning yetti yili bekor ketdi, shunisi ga kuyaman, – dedi.

Uyda Kuzmani Yevgeniy Nikolayevich kutayotgan ekan.

– Kech qolib ketding, Kuzma. Bu yerda o‘tirib o‘yladim: agar tog‘ Muhammadning yoniga kelmasa, Muhammadning o‘zi uning yoniga boradi, deb.

– Ko‘p kutib qoldingizmi, Yevgeniy Nikolayevich?

– Kelganimga ancha bo‘ldi. Ammo uzil-kesil g‘alabani kutishga qaror qildim. Men va‘da qildimmi – bajaradigan odamman. Bugun omonat kassasiga borsam, ta‘mir qilinadi, shunga yopilyapti deb qolishdi. U yoqqa bordim, bu yoqqa bordim, gap shu – berolmaymiz, deyishdi. Oxiri boshqaruvchining uyigacha bordim. Yaxshiyamki, meni taniydi. Berishdi keyin. Omading bor ekan, Kuzma.

– Qarang-a, zap ish bo‘libdi-ku!

– Ha, shunday. Kelavermaganingdan keyin, balki bekorga shuncha joyga borib, behudaga shuncha yugurgandirman, o‘zi topgandir, deb o‘ylayotgan edim. Ammo ketmay kutib o‘tiraverdim. Axir va‘da qildim – endi oxiragacha gapimda turaman-da. Xafagarchilik bo‘lib yurmasin o‘rtada yana, dedim.

– Qanaqa xafagarchilik bo‘lishi mumkin, Yevgeniy Nikolayevich! Baraka toping!

– Demak, pul kerak-a?

– Bo‘lmasam-chi, Yevgeniy Nikolayevich.

– Unday bo‘lsa, ol. Mana, kam pul emas, sanab ol.

Kuzma Yevgeniy Nikolayevichning qo‘lidan bir bog‘lam pulni olib cho‘ntagiga soldi.

– Nimasini sanayman? To‘g‘ri-ku.

– Mayli, o‘zing bilasan. Men seni aldamayman. So‘z bergen edim – ustidan chiqdim. Yarimta quysasan-da endi.

– Gap bo‘lishi mumkin emas, Yevgeniy Nikolayevich.

– E, yo‘q, hazillashyapman. Bu shunchaki yo‘liga aytildigan gap. Keyinroq hammasi tugagach, ichishga ham gal keladi. Hozir mavridi emas. Bilaman, ayni paytda sariq chaqa ham senga muhim. Insof ham kerak-da. Bir-birimizga shunday xolis yordam qilmog‘imiz darkor, faqat foydani ko‘zlayvermay...

– Sizni tashvishga qo‘ydim-da, Yevgeniy Nikolayevich.

– Hechqisi yo‘q. Senga gina qilib aytmayapman. Qo‘limdan kelgанини qildim. O‘zimiznikisan. Boshqa safar sen menga yordam qilarsan. Odamlar orasida yashagandan keyin odam bo‘lib qolish kerak-da. Aks holda hurmating ham bo‘lmaydi. To‘g‘ri aytypmanmi?

- Ha, gapingiz to‘g‘ri.
- Ana, ko‘rding! – Yevgeniy Nikolayevich atrofga alangladi. – Nima, Mariyaning tobi yo‘qroqmi?

Kuzma Mariyaning qayerda ekanini bilmasdi, har ehtimolga qarshi:

- Ha shunaqaroq, – dedi.
- Qayeri og‘riyapti?
- Boshi.
- Ha, bu unchalik vahimali emas, o‘tib ketadi.

Ostonaga yetganda Yevgeniy Nikolayevich ovozini pastlatib so‘radi:

- Xo‘s, kolxoz qarz berarkanmi senga?
- Va‘da qilishdi.

– Durust. Qachon berishsa – o‘sanda qaytararsan. Shoshirmayman. Senga ishonaman, bilaman senda qolib ketmaydi. Xo‘p, endi men boray.

Mariya karavotda o‘tirgancha tizzasiga qirralari yeyilib ketgan eski albomni qo‘yib olib rasmlarni tomosha qilar edi. Kuzma uning yoniga keldi, Mariya o‘zining o‘ttiz yil avvalgi rasmiga tikilgancha xayolga tolgan edi: yo‘g‘on bir o‘rim sochi o‘sha zamonning urfiga ko‘ra yelkasidan oshirib tashlab qo‘yilgan, kulcha yuzlari do‘mboqqina – kelinmisan-kelin. Hali farzand ko‘rmagan, g‘amtashvish neligini bilmagan, yig‘lagan bo‘lsa ham arzimas bahona-sabab bolalarcha yig‘lagandir. O‘sha kezlar faqat ismi, shu qishloqda tug‘ilib-o‘sgani-yu keyin ham shu yerda yashayverishidan boshqa ni-mani ham bilardi u? Hech nimani: na urush, na bolalari, na do‘kon-u kamomad savdolarini bilardi. Dunyoda g‘am-g‘ussa chekkani odam kammi, men – ko‘zga ham tashlanavermaydigan qishloqi bir qizning boshiga bunday falokatlar tushmas, deya ko‘nglidan o‘tkazardi u. Hayotda ko‘z yosh, g‘am-alam, qiyinchiliklar ham bo‘lishi mumkin-ku, degan yomon xayollarni esa iloji boricha miyasidan quvib solardi. Endi bo‘lsa g‘am chekib, o‘ziga – o‘sha hech gapdan bexabar sodda qizga tikilib o‘tiribdi, unga havasi kelyapti. Mana, ko‘z ochib-yum-guncha u bilan bir umrga vidolashish vaqtি ham yetibdi. Oldin hech qachon bunday ahvolga tushmagan edi. Bugun mavridi kelgan ekan-mana o‘tirib shuni angladiki, rasmdagi qizdan asar ham qolmabdi, ha, hech nima – ismi-yu xotiralaridan bo‘lak. Boshqa hammasi xuddi

urushdagidek izsiz yo‘qolgan. Ertaga nima bo‘ladi, buni o‘ylashning o‘zi dahshat.

— Bugun ishim o‘ngidan keldi, bu yog‘iga arzimagan pul qoldi, — dedi Kuzma Mariyaga dalda berish maqsadida.

Mariya churq etmadi. Albomni tokchaga qo‘yib, yotoqdan chiqib ketdi. Kuzma uning ortidan chiqmadi. Karavotga o‘tirgach nihoyatda charchaganini his etdi. Uni uyqu bosardi.

Kimdir o‘ziga tikilib turgandek tuyuldi — boshini ko‘tarib qarasa Mariya ekan. U Kuzmaga mehmonxonadan go‘yo boyta nima degani ni eslamoqchi bo‘layotgandek qarab turar edi. Kuzma mehmonxona ga o‘tgan edi, Mariya oshxonaga chiqib ketdi. Kuzma Mariya oshxonadan ham o‘sha gapni hech eslayolmayotgandek o‘zini kuzatayotganini his qildi. Kuzma kutdi, ammo Mariya hech nima so‘ramadi.

U yechinib o‘ringa yotdi.

Ikkinci kun shu tariqa poyoniga yetdi.

Bir vaqtlar — yigitlik chog‘idayoq Kuzma shu narsani anglab yet gan: har bir kun shunchaki, hamma uchun bir xil kelmaydi, kimgadir u omad olib keladi — bu o‘sha baxtiyor odamning kuni bo‘ladi. Ay taylik, biror odamning hech omadi kulavermasa, bir-ikki oy lab har kuni bir xil kechaversa — demak bu boshqalarning kuni, uning kuni hali kelmagan, ammo yaqinlashib qolgan.

Ko‘zlarini uyqu elitar ekan, Kuzma shunga amin edi: bugun ayan menin kunim bo‘ldi! Ertalab bunday omadi kulishini hatto tush ham ko‘rmagan edi: avval Gordey ota o‘n besh rubl olib keldi, Natalya xola yuz rubldan ko‘proq pul berdi. Keyin rais mutaxassislar ni yig‘ib, masalani ko‘ndalang qo‘ydi, qarabsizki: bir dunyo pul! Ertalab idoraga kirib olish kerak, xolos. Mana, kechqurun uyga kelsa, Yevgeniy Nikolayevich kutayotgan ekan, va‘da qilgani — yuz rublni berib ketdi. Bugun kun allaqanday tumanli, yoqimsiz edi-yu, omad, baraka keltirganini qarang! Zap vaqtida keldi-da bu omadli kun, chunki Kuzmaning ko‘chaga chiqib dod deb yuborishdan boshqa chorasi qolmagan edi.

Kuzma bugungi kundan ham, odamlardan ham qo‘llovi, yaxshili gi uchun minnatdor, mamnun bo‘lib xotirjam uyquga ketdi. U shu qadar baxtiyor ediki, hatto o‘z kuni ortda qolganini ham unutib qotib uxlardi.

Yarim kechasi Kuzma yigitning ovozidan uyg‘onib ketdi.

– Kuzma! Hoy Kuzma! Uxlayapsanmi?

– Nima deysan?

– Chekishdan bormi? Shunday xumori tutyaptiki, o'lay d<sup>es</sup>man, o'zimniki qolmabdi.

Kuzma o'rnidan turib, devordagi sim to'r dan tamakisini pa<sup>pas</sup> lab topdi va yigitga irg'itdi. U esa:

– Baraka top. Tamom bo'l dim deb o'ylovdim, – dedi xu<sup>sand</sup> bo'lib.

Kuzmaning uyqusi qochdi. U ham yigitning orqasidan p<sup>as</sup> tushdi.

Shitirlagan ovozdan kampir ham uyg'onib ketdi, alanglab bo<sup>shini</sup> ko'tardi.

– Uxlang, uxlayvering buvi, bu – biz, – deya shivirladi yigit<sup>d</sup> q<sup>o-</sup>

Ular yo'lakka chiqishdi. Hech kim yo'q, mudroq, g'ira-shir<sup>t</sup> rong'ilik hukmron. Tungi zulmatni to'sib turgan oynadagi push<sup>t</sup> pardalar bilinar-bilinmas qimirlaydi, gilam ostidagi polning ha<sup>se</sup> kin-sekin tebranayotgani seziladi.

Vagon oynasi yonida ro'parama-ro'para turgancha chekis<sup>d</sup> yutoqib, huzur qilib, Kuzma esa odaticha, xotirjamlik bilan. yo'lak bo'y lab vagon oxirigacha taralib boradi-da, u yerda ay<sup>naga</sup> aylanib ko'zdan yo'qoladi.

Yigit xumori qongach sekin cheka boshladi va Kuz<sup>naga</sup> qarab:

– Seni uyg'otganimga jahling chiqmadimi? – dedi.

– Ko'zim ilinib-ilinmay yotgan edim o'zi.

– Nega?

– Kunduzi uxlab olganimgami, bilmadim. Manzilimga ham qoldim hisob.

– Shunaqa degin. Men mast bo'lsam doim shu ahvol – y<sup>y</sup> uxlolmayman.

Keyin kupe tomon ko'z qirini tashlab, o'zini atay be<sup>b</sup> ko'rsatib:

– Anavi chol bilan kampirni aytaman, ja ajoyib ekan-a. E qildingmi?

– Ha, ajoyib.

– Ular rostdan shunaqami yoki atay qilishyaptimi?

– Menimcha, o'zi shunaqa. Odamlar ham har xil bo'ladi-da

– Seryoja, Seryoja deb erkalashini-chi. Qo‘yib bersa, boshini ham silaydi-ya. Choli tushmagur ham indamaydi, go‘yo shunday bo‘lishi tabiiydek. O‘rnida men bo‘lsam, uyatdan o‘lardim – yana begonalar ko‘z o‘ngida-ya.

- Ular doim shunaqa chog‘i.
- Umuman xiyonat qilmaganman, deb boboy yolg‘on gapirdi.
- Kim biladi deysan? Balki rost aytgandir. Nazarimda aldama-yapti.

– Kampiri-ku, unga rostdan ham ishonadi. Ko‘rinib turibdi. Payqadingmi?

– Ha, ishonadi.

– Ayol ishonsa, o‘zi ham xiyonat qilmaydi. Urush tugaguncha kutibdi-ya, qara. O‘zi bo‘ladimi!

Yigit chekishdan to‘xtab, labini tishlagancha o‘ylanib qoldi.

– Buning uchun ko‘krak nishoni bersa arziydi. Ayollar uchun ana shunday maxsus bir nishon o‘ylab topilganida edi, – dedi biroz su-kutdan so‘ng.

Ularning ovozini eshitgan provodnik ayol xonasidan chiqib shu tomom kela boshladi. Ularning yoniga kelib, indamay qarab tura-verdi.

– Chekyapmiz, – dedi yigit unga.

– Chekishga boshqa joy topilmadimi?

– Darrov shang‘illashni boshla endi. Qanaqasizlar-a o‘zi sizlar! Ana, biz bilan bir kampir ketyapti, umri bino bo‘lib choliga biron marta ovoz ko‘tarib gapirmagan ekan, bilding, o‘shandan ibrat olsang bo‘lmaydimi? Sizlar-chi, arzimagan narsagayam akillaryverasizlar. Mana qanaqa bular! Nega avvallari ayollar boshqacha bo‘lgan ekan-a?

– Ha, haqorat qil, qilaver-chi...

– Kim seni haqorat qilyapti? Sen bilan nima ishim bor mening! Shunchaki, aytdim-qo‘ydim-da.

Rostdan ham u tahqirlaydigan emas, balki ko‘p qiynalgan odamning ranjigan, shikoyatomuz ohangida gapirar edi. Shundan so‘ng ayol ham nari ketdi. Yigit ikkinchi tamakini tutatib, o‘ychanlik bilan devorga suyanib qoldi. Shahargacha yana qancha qolganini so‘rashi kerakligini eslab qolgan Kuzma provodnik ayolning ortidan yugurdi. Yana uch soat yurilarkan. Endi yotishning ham hojati yo‘q. Kuzma shoshilmasdan yigitning yoniga qaytib keldi.

Yigit bir nuqtaga tikilgancha Kuzmaga:

- Umuman olganda, xotinim yomon emas edi. Turmushimiz bo‘lmadi-da, – dedi.
  - Balki o‘zing aybdordirsan.
  - Seng qanday tushuntirsam ekan-a, Kuzma? Aybim bor desam ham bo‘ladi, yo‘q desam ham. Ichardim, rost. Boshqasi bo‘lganda bunga allaqachon ko‘nikardi, yashab ketardik. Ichadigan faqat menmi? Xotinlar ko‘nikadi-ku, axir. Shunchaki nomiga javraydiyu, yana hech nima bo‘limgandek birga yashayverishadi. Ko‘rib yuribman-ku, axir. Buning esa birdan jini qo‘zib, gapidan qaytmasligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘ldi-yu ketdi-qoldi. Har kuni ichib kela-yotgan bo‘lsam, boshqa gap edi. Aroqxo‘r emasman-ku. Shu, kayfiyatga qarab, do‘srlar bilan bo‘p turadi-da ba’zan. Ko‘p pul topaman, hammasiga yetadi – aroqqa ham, oilamni boqishga ham. Men ham, hali shunaqami, dedim. – U biroz tin olib sekinroq gapira boshladisi: – Aslida, o‘zim ahmoqman. Ko‘rib-bilib, sinab uylanishim kerak edi. Boshqasi shu ahvolimda ham jon degan bo‘lardi, bunga-chi, to‘g‘ri kelmas ekanman, ko‘nglidagidek emasman-da.
    - Bolalaringiz bormi?
    - Qizimiz bor. To‘rt yashar.
    - Qaytib keladi, shoshma, hali ko‘rasan. Bolani otasiz katta qilish oson ekanmi?
      - Bilmayman, bir narsa deyolmayman. Oldin ham bir ketgan edi. Ketib qayergayam borardi, deb o‘ylagan edim o‘shanda. Qaytib kelishini, atay fe‘lini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘lganini bilganman. Mayli, xohlagan nayrangingni ko‘rsataver, deganman. •Qaytishini qayerdan bilganman, haligacha buni tushunolmayman, menimcha ko‘nglim sezgan edi. O‘zim esa parvoym falak, yuraverganman. Kelgan qaytib. Bu safar ko‘nglim sezmadi. Jiddiyligi ko‘rinib turidi. Bu o‘zidan ham ma’lum edi.
        - Borib gaplashmadingmi?
        - E, qayoqda. U ketishi bilan men ham ta’tilga chiqib, yo‘llanma oldim-u jo‘navordim. Sen qaysar bo‘lsang, meni ham ko‘rib qo‘y, sendan o‘tsam o‘tamanki, aslo qolishmayman, dedim.
        - Ha-a.

Vagon ichi tinch, hamma uyquda. Ular sekin gaplashar va bu suhbat hech kimga xalal bermas edi. Go‘yo bu yerga ular atay navbatchi

qilib qo‘yilgandek: hech bo‘lmasa shu ikkisi uqlamay, hayot haqida o‘ylab, suhbat qurmasa, hamma baravariga g‘aflatda qolishi mumkin degandek. Tungi sukunatni dam-badam elektrovozning chinqirgan ovozi buzib o‘tadi-yu, yana atrof suv quygandek tinchib qoladi. Keyin esa yana poyezd o‘tmasmikan deya qulog solishga to‘g‘ri keladi. Kechasi har qanday ovoz yoki harakat g‘ayrioddiy tuyuladi, odamni xavotirga soladi, qo‘rquv uyg‘otadi. Ertangi kun shu qadar uzoq tuyuladiki, beixtiyor yana tong otarmikan, deb o‘ylab qolasan. Tun va kun almashinishidek abadiy qonuniyat ham o‘zgarib hayot shu zulmat ichra mangu to‘xtab qolmasmikan, bunisiyam noma’lum, bilolmay qiyinalasan. Axir bu bo‘limgan gap, deb hech kim aniq ayta olmaydi-ku.

Yigit gapida davom etdi:

– Yana o‘ylanib qolaman: bola bilan yolg‘iz o‘ziga ham oson emas. Yurib-yurib, bir kun tushunib yetadi hammasini. Hali yosh, hayotda uncha-munchani ko‘rmagan. Janjallahshib qolganda ayollar ersiz ham kumin o‘tadi, deb o‘laydi. Ajrashgach... unday edi-bunday edi deydi, xullas, og‘ziga kelganini aytib qarg‘ab yuradi. Keyin-roq yaxshilab o‘ylab ko‘rgach ortga qaytmoqchi bo‘ladi: erkalanadi, ko‘nglingni ovlaydi. Inson inson bilan tirik-da. Yolg‘iz o‘zi nimayam qila olardi? Chidolmaydi, ko‘ramiz hali.

– Nega yolg‘iz bo‘larkan? – dedi Kuzma ham ataylab. – Birortasini topib olar-da.

– Topib ko‘rsin-chi, — dedi joyida depsinib yigit. – Ha, topib bo‘pti! Nima, men qarab turamanmi? Ikkisini ham sog‘ qo‘ymasman.

– Axir ajrashgan bo‘lsangiz...

– Unaqada ko‘zimdan yiroq ketsin. Ajrashgan bo‘lsang ham xotining boshqasi bilan yashasa, yoqarmidi? Tanangdan bir parcha go‘shtingni yulib olgandek gap bu ham. Qishlog‘imizda hech kim uning yoniga yaqinlasholmaydi. Meni hamma biladi. Bunga toqat qilolmasligim ham barchaga ma’lum.

Yigit tamaki qoldig‘ini axlat chelagiga tashlamoqchi bo‘lib oyog‘i bilan uning tepkisini bosgan edi – qopqoq taraqlab ochildi-yu yana yopilib qoldi.

– Jin ursin! – deya so‘kindi u.

Shovqinni eshitib, vagon kuzatuvchisi eshigini ochib bir qaradiyu, kirib ketdi. Kupeda ham kimdir bezovta bo‘lib bir o‘girilib oldi,

aftidan, uyg'oniб ketib yana uxlab qoldi. Poyezd esa bir maromda tebranib bormoqda edi.

Yigit tamaki qoldig'ini barmog'i bilan ezayotgan edi, gilamga to'kildi. Atrofga alangladi, keyin engashgancha gilamdag'i tamaki yuqini puflab tozaladi. Axlat chelakning qopqog'ini sekin ko'tarib qo'lidagini tashladi. Qovog'ini uyugancha yana jim bo'lib qoldi.

Yana o'sha sokinlik, osoyishtalik.

Shamol tindimi, yo'qmi – ko'rib ham, eshitib ham bo'lmasdi. Poyezd qayerga ketyapti, yer joyida turibdimi-yo'qmi, buni ham biliшning iloji yo'q. Uxlab yotganlarga maza-da. Ular uyg'onganida-tong yorishgan, ehtimol, quyosh ham chiqqan bo'ladi. Quyoshni ko'rgach odamning ko'ngli yorishib, qandaydir xotirjam tortadi.

Kuzma xayolga cho'mdi, mana, shahar ham yaqin qoldi. Qani edi, shunday ketaversa, ketaversa, oldinda o'zini nimalar kutayotgанини bilmasdan – qayoqda deysiz, ko'z ochib yumguncha manzilga yetib ham boradi, hammasi ma'lum ham bo'ladi.

Yigit birdan so'rab qoldi:

– E, qurib ketsin deb orqaga qaytsammikan? Ayol kishi uchun biror narsadan voz kechsang bormi, xursandligidan boshi osmonga yetadi. Qaytib borib tushuntirardim, bor gapni aytardim. Sen nima maslahat berasan, Kuzma?

– Bilmasam, – dedi Kuzma sekin. – Bu o'zing hal etadigan masala.

– To'g'riku-ya, bilaman, bu o'zimgagina taalluqli masala. – Yigit hayajonlanganidan yosh boladek burnini tortib-tortib qo'ydi. – Yana kim biladi deysan... – To o'ylab o'yiga yetguncha poyezd uni uzoq-uzoqlarga olib ketadi. Nihoyat, u bir qarorga keldi: – E-e, endi kech. Yo'lga chiqdimmi, tamom – ortga qaytish yo'q. Qaytib kelganimdan keyin bir gap bo'lar. Bo'lsa-bo'lar, bo'lmasa-bo'lmas – undan bosh-qasi yo'q ekanmi. – Yigit gapni hazilga burmoqchi bo'ldi: – Qaytsam pulni nima qilaman? Yana aroq ichishga to'g'ri keladi-da. Undan ko'ra sayohatga sarflay qolay.

Keyin u ochig'ini aytib qo'ya qoldi:

– Hammasi shu chol bilan kampirni deb-da. Ularni ko'rib allanechuk bo'lib, birdan ko'nglim yumshab ketdi. O'zi ko'ngilchan odamman. Shunaqa bo'lib tug'ilganmanmi-yey. Ba'zan kino ko'rayotganda ta'sirchanroq joyi chiqib qolsa ko'zlarimga yosh ke-

ladi. Shu sababdan do'stlarim bilan yonma-yon o'tirib kino ko'rishga ham yuragim zirillaydi. Uyat-da: ular kulib o'tirsa-yu, men yig'lab yubormay deb labimni tishlasam. Ko'nglim ayollarnikidek nozikmiyey, bir balo.

Poyezd birdan pishqirib to'xtay boshladı. Provodnik ayol qo'lida fonus bilan shoshilmay eshik oldiga bordi – demak, xavotirlanadigan hech gap yo'q, shunchaki to'xtagan ekan. Yigit pardani surib qorong'ilikka tikilib qoldi. Chiroqlarni ko'rib:

– Shu yerlarda ham odam yashaydi-ya, – dedi.

Shahargacha juda oz qolgandi.

Uchinchi kun.

Kuzma ko'ngli yorishib uyg'ondi, ishlar yomon ketmayapti har holda. Bolalarni maktabga o'zi uyg'otdi, ularning shosha-pisha kiyinshini tomosha qilib turib, o'zicha pul topilganini aytsammikan, xursand bo'lib qolishardi, deb o'yladi. Bolalar nonushtaga o'tirgach, odatdagidek, Mariya ularga sut, Kuzma bilan o'ziga choy quydi. Shunda Kuzma Vitkaga ko'z qisib uning stakaniga ishora qildi:

– Kel, almashaylik.

Vitka avvaliga hayron bo'ldi, keyin xursandligidan irg'ishlay ketdi:

– Mayli, mayli.

– Nima, sut yo'qmidi boshqa – bolanikiga yopishasan! Ichsang – quyib beraman-ku o'zingga, – dedi jahl bilan Mariya.

– Kerak emas.

Kuzma Mariyadan zarrachayam ranjimadi, aksinchcha, uning jahli chiqqanidan ko'nglida biroz xotirjamlik paydo bo'ldi. Jahli chiqayotgan ekanmi, demak, xursand ham bo'la oladi. Shunday ekan, tezda o'ziga kelib qolishiga umid qilish mumkin. Stol atrofida Vitka bilan til biriktirib olgandek ko'z urishtirib o'tirishdi. Xullas, shu tariqa ishlar joyiga tushayotganini Vitkaga bildirib qo'ymoqchi bo'ldi. U ham ozmi-ko'pmi buni tushundi. Maktabga ham sakrab-irg'ishlab ketdi.

Kuzma atrof butunlay yorishib ketishini kutib o'tirdi. Keyin shoshilmay, asta-sekin kiyina boshladı. Ketaturib Mariyaga:

– Borib pulni olib kelay, – dedi.

Mariya indamadi. Kuzmaga uning javob berishi emas, faqat bu gapni eshitib, ko'ngli oz bo'lsa-da taskin topishi muhim edi.

Havo bulutli edi, xuddi kechagi – Kuzma uchun omadli kelgan kundek. Hoynahoy bugun ham kechagidek barakali kun bo‘ladi shekilli. Hozircha ishlar yomon emas. Bosgan har qadamidan Kuzma ning tanasi yayrar, bu unga xush yoqar edi. Odatda o‘zi shunaqa, qachonki u piyoda yursa, yurgan sari dam oladi.

Kun qandaydir beqaror, xuddi qo‘l tegsa sinib ketadigan shishadek nozik, mo‘rt tuyulardi unga. Aslida ham shunday-ku, deb o‘yladi u, na kuz, na qishga o‘xshaydi, har daqiqada kuz o‘rnini qish egallashi mumkin. Ajablanarlisi, hali biron martayam qor yog‘madi. Endi esa yog‘ishi turgan gap.

Idoraga yaqinlashib qolganda Kuzmani orqadan mexanik yigit chaqirdi, yetib kelib u bilan qo‘l berib ko‘rishdi. Kuzma qandaydir noqulay sezdi o‘zini: nima bo‘lganda ham uning pulini olgani bor-yapti. Buning nimasiga xursand bo‘lsin? Odamning ko‘ziga qarashga ham uyaladi odam.

– Kuzma, uzr, albatta buni so‘rashim to‘g‘ri emas, bilaman, lekin boshqa ilojim ham yo‘q. Bayramga birga o‘qigan do‘stimni chaqirib qo‘ygan edim, endi bo‘lsa aroq olishga ham pul topolmayapman, – dedi Mexanik yigit.

– E, men senga beraman! – dedi xursand bo‘lib Kuzma. – Uzr so‘raganining nimasi, pul seniki bo‘lsa. O‘z puling uchun uzr so‘rashing yetmay turuvdi o‘zi!

– Ha, iloji bo‘lsa, yigirma rublcha bersang. Qarz olib turay desam, bu yerda deyarli hech kimni tanimayman.

– Beraman, albatta. Gap bo‘lishi mumkin emas!

Idoraga kirishgach, yigit mutaxassislar o‘tirgan xo‘naga ishora qilib:

– Shu yerda bo‘laman, – dedi.

Kuzma hisobchining xonasiga o‘tdi. Ostonada uni ko‘riboq hisobchi, go‘yo anchadan buyon kutayotgandek, stul suyanchig‘iga yastanib oldi. Shu tarzda Kuzmaning oldiga kelishini kuta boshladi. U ham boshqa hisobchilar kabi sinchkov va xasis edi. Birdan Kuzmaning miyasiga pul ololmasligim ham mumkin-ku, nega bu haqda sira o‘ylamadim degan xayol keldi; axir, bu ehtimoldan xoli emas-ku. Hisobchi pulni osonlikcha bermas, hammani uch-to‘rt martalab kelishga majbur qilardi. Kamdan-kam odamgina birinchi kirishida undan maoshini ola bilgan.

Kuzma o'ziga o'zi hayron qoldi, kechadan buyon, hatto bugun ertalabdan ham nima sababdan pul olaman deb bunchalik qattiq ishongan ekan-a?

Hisobchiga ro'para kelarkan yuragi siqildi, u yomon gap eshitishiga amin edi.

– Salom!

– Salom, – deya osmondan kelib Kuzmaning salomiga alik oldi hisobchi. – Keldingmi?

– Keldim.

– Pul olmoqchimisan?

– Agar bersang.

Kuzma hozir faqat unga – hisobchiga qanchalik bog'liq, qaram ekanini anglab turardi. Buni hisobchi ham yaxshi bilar va uni xavotirga solish uchun indamay o'tirardi.

– Ozgina noxushlik bo'lib qoldi, – dedi u birozdan so'ng. Go'yo vaqt ni cho'zib huzurlanayotgandek yana og'ziga talqon solib oldi. So'ng yana qovoq uyub: – Men, bizning pulimizni sen olishingni bilmagan edim. Shuning uchun maoshimni sarflab yubordim.

– Qanaqasiga?

– Pul qanday sarflanadi – shunaqasiga. Do'konga kirdim, senga hisob berishim mumkin: qishga – xotinimga tujurka<sup>1</sup>, o'zimga kigiz etik sotib oldim.

Kuzma nihoyat gap nimadaligini tushunib, bosh qimirlatdi.

– Qolganlarniki-chi? – deb so'radi.

Hisobchi darhol javob berishni o'ziga ep ko'rmay, Kuzmani kuzatib biroz jim o'tirdi. Keyin jahl bilan:

– Qolganlarniki Polinaning seyfida. Hujjatga hamma imzo chekmagan. Agar Polina mas'uliyatni zimmasiga olsa, berib yuboraver sin, – dedi.

Kuzma Polinaning stoli tomon yurarkan hisobchi orqasidan baqirdi:

– O'zing uchun bir qog'ozga kimdan qancha qarz ekaningni yozib ol. Pulni olgach, qaytarish ham kerak bo'ladi hali.

U Kuzmani darrov qo'yib yuborayotganiga, o'ylab qo'ygan gaplarini shunchalik tez aytib bo'lganiga achinayotgandek edi.

<sup>1</sup> Tujurka – kalta kamzul.

Polina pichirladi:

– Men pulni berib yuboraman, faqat sen darhol zootexnik bilan veterinarni topib ayt, kirib imzo chekib ketishsin.

– Xo‘p.

Polina qog‘oz pullarni chaqqon-chaqqon sanay boshladi. Ammo baribir bunga uzoq vaqt ketdi, negaki, hammasi bir va uch rublliklar edi. U yana bir qayta sanadi. Kuzma hech bir qiziqishsiz, xavotirsiz Polinaning qo‘lida pulning lip-lip o‘tishini kuzatib turardi. Qiz pulni unga uzatarkan yana pichirlab so‘radi:

– Yetib qoladimi endi?

– Yo‘q, endi yana ancha-muncha kerak bo‘ladi.

Kuzma pulni cho‘ntaklariga tiqdi. Qappaygan cho‘ntaklarini kafti bilan tekislagan bo‘ldi. Keyin birdan hozirning o‘zidayoq mexanik yigitga yigirma rubl berishi kerakligi esiga tushdi. Cho‘ntagining yuzarog‘idan uch rubllik bog‘lamni olib, yigirma emas, o‘ttiz rubl sanadi, negaki, uchtalikdan yigirma rubl berib bo‘lmaydi. Hisobchi o‘z joyida uni sovuqqonlik, ayni paytda qiziqish bilan kuzatib o‘tirardi. Kuzma ham o‘chakishgandek toki o‘zi o‘girilib olmaguncha unga tikilib turaverdi. Hisobchi o‘ch olmoqchi bo‘lib:

– Ichib qo‘yma yana, – dedi.

– Bor-e, – deya beparvo qo‘l siltadi Kuzma.

U mutaxassislar xonasiga kirdi va sekingina xuddi pora berayotgandek mexanikning qo‘liga o‘ttiz rublni qistirdi. U hatto o‘girilmay:

– Ha, mayli, – deb g‘o‘ldiradi.

Yo‘lakda Kuzmaga veterinarning xotini duch keldi. Ammo ayolning o‘ljani ta’qib qilayotgandek och va sovuq nigoh bilan tikilganini Kuzma payqamadi ham. U raisning oldiga kirmoqchi edi-yu, odam bor ekan, qaytib eshikni yopdi. Hozir unga nima ham derdi? Yaxshi, uyga keta qoladi.

Kun hali-hamon o‘sha-o‘sha, bulutli, havoning qovog‘i ochilmagan edi. U endi xuddi g‘ijimlangan, har yeridan yelimlangan eski shaffof qog‘ozga o‘xshar, bir shamol tursa uchib ketadigandek tuyulardi. Ammo hozir uni uchirib ketadigan shamoldan darak yo‘q edi. Nimalardir guvullab-uvullar – go‘yo o‘sha qog‘ozli kunning devorlari shitirlar edi. Uzoq-uzoqlar g‘ira-shira ko‘zga tashlanardi. Bugun ehtimol, hisobchining kuni bo‘lgandir, degan o‘y o‘tdi Kuzmaning

xayolidan, chunki havoning avzoyi uning tumshaygan basharasini eslatardi.

Cho'ntagidagi pul Kuzmaning bermalol yurishiga xalaqit berardi. U qadamini sekinlatdi – axir cho'ntagida shuncha pul bor, sochilib ketsa, nima bo'ladi? Ammo Kuzma xursand emas edi – nimadir bo'ldi, quvonchdan asar ham yo'q. U faqat hozir pul zarurligini biladi, xolos. Pul topganidan Kuzma hech bir qoniqish yoki yengilik tuymadi. Hozir u tezroq pulni biron joyga qo'yib, cho'ntagimni bo'shatsam edi deb o'ylardi.

Uyiga kira solib Kuzma urushdan keyin Avstraliyadan olib kelgan obakidan bo'shagan katta idishga pulni joylashtirdi. Uni javonga qo'ygachgina yengil tortdi. Hozir butun qishloqda shu idishda turganchalik ko'p pul hech kimda yo'q, deb o'yladi o'ziga o'zi taskin berib u. Qo'lidan kelganini qildi, ikki kun ichida endi qolgan pulni topishi kerak. Qanday qilib? Bunisini hali bilmaydi. Albatta ilojini qiladi, shu bilan hammasi tugashi mumkin emas, axir. Ming rubl kerak ekanmi, nima qilib bo'lmasin, topadi. Faqatgina hozir ham, bugun ham emas. Bugun u hech kimdan pul so'ray olmaydi, bunga holi qolmadi. Dam olmasa bo'lmaydi endi.

Dahlizdan qadam tovushi eshitildi. Kuzma menga shunday tuyulyapti, endi hech kim kelmas, deb o'yladi. Xonaga veterinarining ayoli kirib kelganida esa bu qayerdan paydo bo'lib qoldi degandek unga ajablanib tikildi. Shundagina zootexnik bilan veterinarni topib, ular hujjatga imzo chekishi kerakligini aytmagani esiga tushdi.

Veterinarning xotini ostonada titrayotgan labini tishlagancha yig'lab yuboray deb Kuzmaga qarab turardi. U xunukkina ayol edi. Negadir Kuzmaning doim unga rahmi kelardi. Veterinar xotini bilan yaxshi yashamasdi. Kuzma buni bilardi, oilasida tinchlik bo'lmanay ayol qiyofasini aynan unda ko'rish mumkin edi. Kuzma ongli ravishda emas, odatga ko'ra uni ichkariga taklif qildi:

– Kel, kiraver, nega eshik oldida turibsan?

Ayol joyidan qimirlamadi. Lablari yanada qattiqroq titrab:

– Biz endi qanday kun ko'ramiz, Kuzma? O'yladingmi hech? Nega bunday qilyapsan, axir? – dedi.

Kuzma avvaliga tushunmay angrayib qoldi, ayolning gapi yetib borgach esa nima deyishini bilolmay kalovlanib qoldi.

– Shu pulni biz bir oy kutgan edik. – Ayolning ovozi ham titrab chiqdi: – Ellik rubl qarzimiz bor ko‘chadan. Endi nima qilamiz?

Kuzma javondan pul solingan idishni olib keldi. Uni stol ustiga ag‘darib, oldin mutaxassislarining maoshi yozilgan qog‘ozni topdi, keyin adashib ketmaslik uchun hafsla bilan pulni sanay boshladи. Veterenarning xotini yaqinroq keldi. Kuzma unga pulini berayotib Mariyaga ko‘zi tushdi. U bir zum to‘xtab qarab turdi-da, oshxonaga o‘tib ketdi. Kuzma xuddi Mariyaning pulini o‘g‘irlayotgandek va o‘g‘rilik ustida qo‘lga tushgandek o‘zidan uyalib, nafratlanib ketdi.

Veterinarning xotini ketdi.

Kuzma qolgan pulni idishga joylab, uni yana javonga, avvalgidek ichkariga emas, yuzaroqqa qo‘ydi. Shuncha pul bor ekan, demak, yana kimdir so‘rab kelishi tayin. Kutaversin-chi. Pulga ehtiyojmand yana birortasi kelib qolar.

Kuzma kuta boshladи. Mariya bir necha bor u yoqdan bu yoqqa o‘tdi, erini kuzatdi, Kuzma esa qayrilib ham qaramadi.

U hamon kutardi.

Oradan bir soat o‘tdi, ikki soat o‘tdi, Kuzma betoqatlana boshla-di, nega hech kim kelmayapti? Dahlizda yana qadam tovushlari eshi-tildi. Kimdir keldi chog‘i, behuda kutmagan ekan har holda.

Eshik oldida bir qizcha turardi, agronomning qizi. Kuzmaning ko‘ngli g‘ash bo‘ldi, nega mutaxassislar o‘zi kelmay, xotini yoki bolalarini jo‘natyapti. Qizcha pulni yo‘qotib qo‘ysa-chi? Bunga kim aybdor bo‘ladi keyin?

– Salom, – dedi qizcha ko‘z ostidan jur’atsizlarcha qarab.

– Salom, salom, – deya Kuzma pul solingan idishni olib kelish uchun o‘rnidan turdi. Yaxshiyamki, uni ichkariga tiqib yubormay yuzaroqqa qo‘ygani.

– Kuzma amaki, – dedi qizaloq shosha-pisha. – Vitkangizga aytib qo‘ying, endi orqamdan yurmasin.

– Nima? – Kuzmaning javonga uzatilgan qo‘li muallaq qoldi.

– Vitkangizga aytинг, orqamdan yurmasin. Hamma bizni kelinkuyov deb kalaka qilyapti. Bolalar menga kun bermay qo‘ydi: «kelin bilan kuyov, kelin bilan kuyov» deb baqiraverib, jonimga tegib ketishdi.

Kuzma ishonqiramagandek kulib:

– Iye, shunday deyishadimi? – dedi.

– Ha. Nimaga orqamdan yuradi o‘zi? Ming marta aytdim, baribir orqamdan qolmaydi, gap ta’sir qilmaydi unga. Boshqa qizning ortidan yursin.

– He, yaramas bola! – dedi kulgiдан o‘zini to‘xtata olmay Kuzma. – Orqamdan qolmaydi degin?

– Shu-da. Mening aybim yo‘q, bolalar bekorga meni mazax qilishyapti.

– Hali kelsin uyga, bo‘ynini uzip olmasammi uni! Ana shunda biladi qizlarning ortidan yurish qanaqa bo‘lishini.

– Yo‘q, siz unga yurma deb aytинг, bo‘ldi. Sizning gapingizni ikki qilmasa kerak.

– Aytaman. Albatta aytaman.

– Men bora qolay, – dedi izn so‘ragandek qizcha.

– Bora qol, xavotir olma: endi u senga qarashga ham botinolmaydi. Mana ko‘rasan.

U minnatdorlik bildirgandek, boshini egib qo‘ydi-da, chopib ketdi. Kuzma uning ortidan kulganicha qarab qoldi, ammo o‘zini qizcha kelguncha bo‘lgan o‘sha sovuq, bema’ni hol yana chulg‘ab olayotganini his etdi. U idishga ko‘z qirini tashladi-yu yana joyiga o‘tirib qoldi. Pulni sanab qo‘yish kerak. Lekin qimirlashga holi yo‘q; pul juda kam qolgan bo‘lsa-chi? Unda holiga voy.

Axir kechagina shu pulga ham umid yo‘q edi-ku, deya o‘zini ovutmoqchi bo‘ldi. Hech nafi bo‘lmadi. Yaxshisi, endi nima qilishni o‘ylagani ma’qul. Yana kimga borib, kimdan pul so‘rash mumkin?

Keyin birdan hech narsa haqida o‘ylamay qo‘ydi, go‘yo miyasi bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoldi. Idishga tikilib o‘tiraverdi-o‘tiraverdi – o‘g‘ri ham, o‘g‘rilik ham bo‘lmaydigan joyga qo‘yilgan qorovulga o‘xshab. Keyin o‘rnidan turib chekdi.

Bolalar maktabdan kelganida esa Kuzma Vitkani nima uchun kutayotganini eslashga har qancha urinmasin, baribir eslay olmadi.

Bolalar oshxonada yolg‘iz ovqatlanishdi: Kuzma ham, Mariya ham ovqatga chiqmadi.

Uy ichi tinch, ammo bu yerda allaqanday behalovatlik hukmron edi. Hamma uyda bo‘lsa-da, uy qandaydir sokin va vahimali edi.

Kechga tomon mayda qadam tashlab, nafasi tiqilgancha Gordey ota kirib keldi. U Kuzmani chaqirdi, betoqat bo‘lib xonani aylanib

chiqdi va oxiri imlab uni eshik tomon boshladi. Dahlizga chiqqach, pichirlab:

– Kuzma, bilsang agar, pul-mul deb tashvish qilishingga hojat ham yo‘q aslida. Bir o‘ylab ko‘r! Pulsiz ham hal qilsa bo‘larkan bu muammoni, – dedi.

– Yana nimalarni o‘ylab topdingiz, ota? – dedi Kuzma peshonasi tirishib.

Gordey ota zavqlanganidan hi-hilab gapida davom etdi:

– Qanaqasiga o‘ylab topaman! Ota o‘ylab topmaydi, aniq bilgанинини гапиради. Hozir senga shunday bir gap aytamanki...

Kuzma indamay unga qulqoq sola boshladi.

– Xo‘s, gap bunday. Xullas, bu ishni bir tiyinsiz hal qilishing mumkin. Sariq chaqayam sarflamaysan. Mariyanggayam birov qo‘lini tekkizolmaydi. Qonunan ham to‘g‘ri bo‘ladi. – Ota yuzini Kuzmaning yuziga taqagudek olib kelib yana pichirladi: – Uni homilador qilsang bo‘lgani, shuning o‘zi kifoya. Qonunda yozib qo‘yilgan: homilador ayol qamalmaydi deb.

– Nimalar deyapsiz, ota? – dedi Kuzma nari surilib.

Ota hayajonlanganidan ovozi baralla chiqib ketdi:

– Ishonchli bir odamdan eshitdim, aldamaydi u. Xaqiqat bu. Mariyani homilador qil, nima qiyinmi shu, qani ayt-chi?

– E, boring-e ota, topgan gapingizni qarang. He, sizdek maslahatchidan o‘rgildim!

– Nega endi? – deya shoshib qoldi ota.

Kuzma shartta o‘girilib, ichkariga yurdi.

– Bo‘ladigan gapni aytsam-u, sen o‘zingni chetga olasan! – deya shang‘illadi ota. – Bilganiningni qil – menga baribir. Keyin mendan aytmagansiz, deb o‘pkalab yurma.

Kuzma obdan o‘ylab qarasa, rostdan ham Gordey otaning taklifida jon bor ekan, bu unchalik bema’ni gap ham emas. Qaniydi shunday bo‘lsa. Muammo hal bo‘lardi-qo‘yardi. To‘g‘ri, homilador ayollarga rahm qilinishi, ular hukm etilmashligi haqidagi gaplar Kuzmaning ham qulog‘iga chalingan edi. Nega bu esiga kelmagan ekan-a shu paytgacha. Ehtimol, bu gapning rost-yolg‘onligini aniq bilmagani uchundir. Olti og‘iz yeb-ichayotgan oilada yetinchisi ham och qolmas, to‘rt bolani boqayotgan ekanmi, demak, beshinchisini oyoqqa qo‘yishga ham qurbi yetadi. Faqat endi kechdir-ov. Oldinroq

bilganidami. Shunday bo‘lsa-da, Mariyaga bir luqma tashlab qo‘yish kerak. Yo‘q, yaxshisi, hech nima demaydi, negaki, Mariya pul to-polmayotgan ekan-da, deb o‘ylaydi, u holda hammasi tamom deyavering. Shusiz ham tirik murdadek yuribdi o‘zi. Kuzmaning esa ovi yursa ham dovi yurmayapti. Nima qilsin endi? Ertaga kimga borsin? Kimga ham yalinib borarding? Uylab qarasa pul so‘raydigan odamning o‘zi qolmabdi. Balki hammasiga tupurib, erta tongdan akasining oldiga jo‘nasami? Ammo unda pul bormikan o‘zi? Berarmikan?

Bu qanday ko‘rgilik bo‘ldi.

Uchinchi kun ham nihoyalandi. Poyoniga yetdi – go‘yo yer qa‘riga singib ketgandek, qani endi vaqtini cho‘zishning iloji bo‘lsa. Taftishchining kelishiga esa ikki, nari borsa uch kungina qoldi.

Kech kirar-kirmas Kuzma uxlab qolgan edi, yarim tunda uy ichini yoritgan mashina chirog‘idan uyg‘onib ketdi. Uyqusi qochdi. O‘rnidan turib deraza yoniga kelib o‘tirdi. Oyna ortida o‘lik zulmat hukmron. U butun tirik jonzotni mahv etgan, go‘yo undan hech kim qo‘chib qutulolmaydigandek edi. Ko‘nglida uyg‘onayotgan xavotirni bosish maqsadida Kuzma tortib-tortib chekdi va rostdan ham yengil tortdi. Kechasi xayol odamni har yoqqa olib ketaveradi – shu sababdan ham kechasi hamma uxlasa kerak-da.

Kuzma o‘rniga kelib yotdi. Keyin uxlab qolibdi. G‘aroyib bir tush ko‘ribdi: u o‘sha – o‘zini uyg‘otib yuborgan mashinada yurib Mariyaga deb pul yig‘ayotgan emish. Mashina xuddi bilgandek pul olish mumkin bo‘lgan uy oldida to‘xtar, Kuzma faqat deraza chertar va pulni olib chiqing, deb so‘rar emish, xolos. Olib chiqib berishgach esa mashina yana yo‘lida davom etaverarmish.

U yana uyg‘onib ketdi, hali yarim tun, zulmat biroz bo‘lsin, chekimagan. Yana miyasida turfa xayollar aylana boshladni, ayniqsa, bir ko‘ngilsiz o‘y hech tinchlik bermay qo‘ydi: bu yorug‘ olamda (hatto yorug‘ olam emas, zulmatda, go‘yo endi hech qachon tong yorishmaydigandek tuyulardi unga) yolg‘iz qolib ketsa-chi? Birdan samolyotning chiyillagan ovozi eshitildi. Xuddi u qulab parcha-parcha bo‘lib ketgandek borliqni zirillatib yubordi. Keyin atrof tinchidi-qoldi, yana sokinlik. Kuzma qandaydir tovushlar eshitilarmikan, deya quloq soldi. Uzoq kutdi, sas-sado yo‘q. Ammo u endi yolg‘iz emasligini bilardi. Shu bois yaxshi narsalar haqidagi o‘ylashi mumkin endi. Lekin yana og‘riq misol Mariya haqidagi, pul haqidagi o‘y-xayollar

yuragini zirqirata boshladi. Shunda birdan oxirgi najotdek akasi esiga tushdi. Kuzma bir qarorga keldi: erta bilan yo'lga chiqadi, shaharga – Alekseyning oldiga boradi.

Tong saharlab – tashqarida shamol kuch bilan devorlarga urila-yotgan bir mahalda Kuzma safarga shoshilardi. Shaharga ketyapman deganida, so'nggi uch-to'rt kun ichida tirik murdaga aylangan Mariya, akang pul bermaydi, deya ko'nglida bor gapni aytди. Kuzma uchun ortga yo'l yo'q edi. Aftidan, Mariya yolg'iz, himoya-siz qolishni o'ylab qo'rqib ketgani uchun ham akang pul bermaydi, deb qayta-qayta takrorlar, yig'lar edi. Biroq Kuzma uni yupatib o'tirmadi – yig'layversin, bu tirik murdadek sudralib yurganidan ko'ra ming marta yaxshiroq.

Avtobusga chiqqach, Kuzma oyna tomondagi o'rindiqqa joylasib olib, tashqarini kuzatib ketdi – shamol, to's-to'polon avjida. Bu tabiiy, shunday bo'lishi ham kerak-da, deb o'ylardi u. Axir Mariya bilan Kuzmaning boshiga shunday katta tashvish tushgani-da ob-havo sokin-osoyishta bo'lishi mumkinmi? Shamol kuchay-gandan kuchaya bordi, ahvol bundan battar bo'lmasmikan, degan o'y Kuzmaning ko'ngliga yana g'ulg'ula soldi. Kuni bilan to's-to'polonning to'xtashini kutdi. Kutgani bo'lmadi: ko'zini yumgan holda ham shamolning har yonga zarb bilan urilishini his etib turardi, shamol zarbidan go'yo yer ham azob chekib, ingrayotgandek tuyulardi unga.

Qosh qoraya boshlagachgina Kuzmaning ko'nglida sal-pal xo-tirjamlik paydo bo'ldi. Endi tashqarida ahvol qanday ekanı, oldinda o'zini nimalar kutayotganini u bilmas va bu haqda o'ylagisi ham kelmas edi. Hech nima qilmayotganidan, poyezd uni uzoq-uzoqlarga olib ketayotganidan ko'ngli to'q edi. U dam olardi, ammo sudlanuv-chi hukm qilinishidan oldin qanday ahvolda bo'lsa, o'zini shunday his etardi.

Qani endi poyezd hech yerda to'xtamay, uni uzoqlarga olib ket-sa. Ammo, mana, darrov shaharga ham yetkazib qo'ydi. Yana pul so'rashga majbur ekanini o'ylab Kuzmaning yuragi uvushdi. Negaki, hozir birovdan pul so'raydigan ahvolda emas edi. U shahardan hayi-qar, shu sababli bu yerga ko'p kelavermasdi. Poyezd to'xtayotganida u shamol haqida eslab, junjikib ketdi. Hammasiga shu sababchi, dedi o'ziga o'zi.

Kuzma poyezddan tushdi-yu, bir muddat angrayib turib qoldi: yer uzra paxmoq laylakqor yog‘ar, g‘ira-shira tong yog‘dusida atrof oqarib ko‘rinar edi.

Shamoldan nom-nishon yo‘q. Yog‘ayotgan qor bilan birga borliqni egallayotgan mayin, ajib bir sokinlik onda-sonda eshitilib turgan tovushlarni ham bosib ketmoqda edi.

Kuzma xuddi qorni toptab yuborishdan qo‘rqqandek, birovning oyoq iziga tushib oldi-da, qator-qator relslarni kesib o‘tib vokzal tomon ketdi. Hozir sodir bo‘lajak muqarrar savdo haqidagi achchiq, alamli o‘y unga tinchlik bermas edi. Axir, begonaning emas, tug‘ishgan akamning yoniga boryapman-ku, deya o‘ziga dalda berishga urinar, ammo akasi – najot har dam xayolidan olislab ketaverar edi. Hatto taskinga ham ojiz omonat so‘zlargina miyasida aylanardi. Shunda Kuzma qorni – oqlikni, uning aynan hozir yog‘ayotgani ham yaxshilik alomati ekanini o‘ylay boshladi. Qishloqda ham yog‘ayotgandir, Mariya ko‘zлari ilinjdan porlab, mo‘jizaga qaragandek qor yog‘ishini kuzatib o‘tirgandir. Ehtimol, u Kuzma allaqachon akasinikiga yetib borgan va aka-uka allaqachon o‘zaro kelishib olgan – ana shundan so‘nggina (bu ham yaxshilik alomati-da), Mariya behuda iztirob chekmasin uchun qor yog‘a boshlagan, deb o‘ylayotgandir. Ayni choqda u har narsa deb xayol qilishi mumkin.

Kuzma avtobus bekatiga qarab borarkan, qo‘lida manzil yozilgan xatjild, yo‘lma-yo‘l uchragan odamdan akasinikiga qanday borishni so‘rar edi. U aytilgan avtobusga chiqib oldi. Yakshanba edi, buning ustiga, erta tong bo‘lganidanmi, odam kam. Kuzma shaharga o‘z ixtiyori bilan emas, kimdir majburan olib kelgandek o‘zini nihoyatda yolg‘iz va adashib qolgan odam kabi sezardi. O‘zini oldinda kutayotgan voqealar oldida pul haqidagi gaplar birdan arzimasdek tuyulib ketdi unga. Odamlarga qaradi – ular oynadan tashqarini kuzatib ketmoqda, birov unga e‘tibor ham bermayapti. Kuzma yana o‘zini koyidi: pulni deb shaharga jo‘nash qayoqdan ham miyasiga keldi, nahotki qishloqdan topib bo‘lmasdi shu qurib ketgurni?

Kuzma avtobusdan tushib, qo‘lida manzil yozilgan qog‘oz bilan ko‘cha bo‘ylab ketdi. Kun yorishgan, qor haliyam gupullab yog‘ib yotibdi, Kuzmaning boshi, yelkalari oppoq, qor zarralari goho kiprigiga ham qo‘nib, yurishiga xalaqit berardi.

Nihoyat, u akasining uyini topdi, biroz tin olish maqsadida to‘xtab, qo‘lidagi ho‘l bo‘lib ketgan xatjildni cho‘ntagiga tiqdi. Kafti bilan yuzlarini artdi-da, so‘nggi qadamni bosib eshikka yaqinlashdi va sekingina uni taqillatdi. Mana, u yetib ham keldi, bu yog‘iga o‘zing Rabbim degil, Mariya!

Hozir eshik ochiladi.

*Shohsanam tarjimasi*





## FRANSUZ TILI SABOQLARI

*Hikoya*

*Qiziq, nima uchun xuddi ota-onamiz oldidagidek o'qituv-chilarimiz oldida ham o'zimizni doim aybdor his etamiz? Maktab davrida ro'y bergan voqealarni deb emas, yo'q, keyingi hayotimiz uchun ham...*

\* \* \*

Beshinchı sinfga men 1948-yili borganman. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsam: qishlog'imizda faqat boshlang'ich mакtab bor edi, o'qishni davom ettirish uchun esa uyimizdan ellik chaqirimcha nariga – tuman markaziga borish kerak. Men ketishimdan bir haftalar oldin onam tumanga borib bir tanishi bilan gaplashib keldi – o'sha ayolning uyida yashaydigan bo'ldim. Avgustning so'nggi kuni qishlog'imizda yagona polutorka mashinasining haydovchisi Vanya amaki Podkamennaya ko'chasidagi men yashashim lozim bo'lган uy oldida yuklarimni tushirdi va ko'rpa-to'shamig o'ralgan tugunni uyga olib kirishga qarashib yubordi. Xayrlashayotib yelkamga do'stona bir qoqib qo'ydi-yu jo'nab ketdi. Shunday qilib, o'n bir yoshimda mustaqil hayotga qadam qo'ydim.

Hali ocharchilik yillari, biz esa oilada uch farzand edik. Men onamning to'ng'ichi edim. Bahor oylari, ayniqsa, ilik uzildi mahali ochlikdan kartoshka murtagi, suli, javdar donini yutgan va bunga singlimni ham majbur qilgan vaqtlarim bo'lган. Biz go'yoki qornimizga urug' ekardik va shu bilan o'zimizni chalg'itardik, hadeb ob-u ovqat haqida o'ylayvermasdik-da. Keyin yoz bo'yi bamisoli shu ekkan urug'imizni Angaraning chuchuk suvi bilan obdon sug'orardik, ammo hosildan hadegan-da darak bo'lavermas yoki u juda sekin o'sayotganidanmi, biz buni payqamas edik. Shunga qaramay, men, bu urinishim chakki emas, bir kun kelib albatta odamlarga nafi tegadi, biz esa tajriba-

sizligimiz sababli nimanidir noto‘g‘ri qilgan bo‘lsak kerak, deb o‘ylar edim.

Qanday qilib onam meni tumanga (tuman markazini hamma qisqagina tuman deb qo‘ya qolardi) yuborishga qaror qilgan ekan, hech aqlimga sig‘maydi. Boshimizda otamiz yo‘q, turmushimiz juda abgor edi. Aftidan, onam obdan o‘ylab ko‘rgan-u bundan battari bo‘lmasligiga ko‘zi yetgan. Men yaxshi o‘qirdim, maktabga ham jon-jon deb borardim. Umuman olganda, qishloqda eng savodli bola hisoblanardim. Kampirlarga kelgan xatlarni o‘qib, javob yozib berardim, g‘aribgina kutubxonamizdagi bor kitobni allaqachon o‘qib chiqqan edim. Kechqurunlari bolalarga o‘qigan kitoblarimdagи har xil voqealarни o‘zimdan ham qo‘shib-chatib gapirib berardim. Ay-niwsa, obligatsiya masalasida qishloq ahli menga qattiq ishonardi. Urush yillari odamlarning qo‘lida ancha-muncha zayom yig‘ilib qolgan, yutuq jadvallari ham tez-tez e’lon qilinar, shunda hamma obligatsiyasini ko‘tarib mening oldimga kelar edi. Ularning aytishicha, mening qo‘lim omad keltirarmish. To‘g‘ri, yutuq ham chiqib turardi-yu, ko‘pincha bu arzimagan bir chaqa-chuqa edi. Ammo o‘sha yillari odamlar shunga ham xursand bo‘lardi, tag‘in deng, kutilmagan bu omadga go‘yo men sababchi edim. Beixtiyor bu xursandchilik men-ga ham yuqardi. Boshqa bolalardan meni arzanda qilib, hatto qornimni to‘ydirib ham turishardi. Bir gal Ilya otaga – asli ziqnaroq, xassis cholga to‘rt yuz rubl yutuq chiqib qoldi. Hayajon ustida u menga bir chelak kartoshka berib yuborsa deng – ayni ko‘klam chog‘i buni naqd ko‘zimizga surtgan edik.

Aynan shu – obligatsiya raqamlarining farqiga borganim uchun ham odamlar onamga: «O‘g‘ling zehn-farosatli bola, sen uni albatta o‘qitgin. Bilimli odam hech vaqt xor bo‘lmaydi», der edi.

Shu gaplar ham turtki bo‘ldimi, bilmadim, har qanday qiyinchilikka qaramay onam meni tumanga o‘qishga yuborish harakatiga tushib qoldi. Shu choqqacha qishlog‘imizdan birorta bola tumanda o‘qimagan, men birinchisi edim. Qolaversa, u yerda men bechoraginani qanday sinov-u mashaqqatlar kutayotganini hali tasavvur ham qilolmas edim.

Tumandagi maktabda ham yaxshi o‘qiy boshladim. Boshqa nima ham qilardim – o‘qigani keldim-ku bu yerga, shundan o‘zga tashvishim bo‘lmasa! Yana deng, u vaqtarda hali zimmamdagи vazifaga

hafsalasizlik bilan qarayolmasdim. Agar biror fandan tuzukroq tay-yorlanmagan bo'lsam, maktabga bo'ynimdan bog'langandek zo'rg'a borardim. Shuning uchun ham fransuz tilidan boshqa barcha fandan baholarim «a'lo» edi.

Fransuz tilini esa durust o'zlashtirolmasdim. Men so'zlarni va ularni qo'llashni yaxshi eslab qolar, tezda tarjima ham qilar, imlo qoidalariga doir murakkabliklarni-da osongina yengib o'tar edim-u, talaffuzga kelganda, sochimdan to tirnog'imgacha asl angaralik ekanim fosh bo'lib qolardi. Axir, biz tomonlarda umri bino bo'lib bি-ronta odam chet tilda gapirmoq tugul, hatto uning borligini bilgan bo'lsa, shuning o'zi ham katta gap sanalar edi-da. Men fransuz tilida o'zimizning qishloqcha bidillashga o'xshatib juda tez gapirar, bo'larbo'lmasga tovushlarning yarmini yutib yuborar, ikkinchi yarmini esa xirildoq ovozda qalashtirib tashlar edim. Buni ko'rib fransuz tili muallimamiz Lidiya Mixaylovna umidsizlikdan peshonasi tirishib, ko'zlarini yumib olardi. Albatta, bunday o'quvchiga u birinchi marta duch kelishi edi. O'qituvchim keyin undosh tovushlar birikuvi, burun tovushlari talaffuzini qayta-qayta tushuntirib berardi-da, takrор-lashimni so'rardi. Men esa battar dovdirar, tilim tanglayimga yopishib qolgandek miq etmay turaverar edim. Barcha urinishlar besamar edi. Hammasidan yomoni esa uyga kelganda bilinardi, maktabda-ku beixtiyor chalg'iysan – bolalar bir-birini itarib-turtadi, xohlaysanmiyo'qmi, ular bilan o'ynaysan, chopib-yugurasan, dars paytida – o'qiysan, yozasan, xullas, doim nima bilandir band bo'lasan. Yolg'iz qoldim deguncha, sog'inchdan jinni bo'lay derdim, uyimni, qishlog'imizni qo'msab ketardim. Ilgarilari bir kun ham uydan uzoqda yurmagan, tabiiyki, begonalar orasida yashashga hali tayyor emas edim. Kasal odamdan beshbattar qiyinalar, iztirob chekar edim. Fikr-u xayolim, yagona istagim ham shu edi – tezroq uyga ketsam! Sentabr oyining oxirlarida onam kelgan edi, meni ko'rib kapalagi uchib ketdi. Ozib cho'p bo'lib qolgan emishman. Onamning oldida o'zimni bazo'r tutib turdim, arz-hol qilmadim, yig'lamadim, ammo u keta-yotganida chidayolmadim – ho'ngillagancha mashina ortidan yugurdim. Mashinaning ustida tik turib ketayotgan onam, qol, meni ham, o'zingni ham sharmanda qilma, degandek qo'l siltadi, lekin qani endi o'zimni tiyolsam! Shunda bir qarorga keldi shekilli, onam mashinani to'xtatdi.

– Bo'pti, lash-lushingni yig'ishtir, – dedi buyruq ohangida men yetib borishim bilan. – O'qib bo'lding, ketamiz!

Darhol esimni yig'ib oldim – izimga qaytdim.

Men uyni sog'inganimdangina emas, qornim to'yib ovqat yemaganimdan ozib ketgan edim. Kuz kunlari Vanya amaki tuman yaqinidagi g'allaxonaga bug'doy tashib yurganida onam menga muntazam, chamasi, haftada bir marta ul-bul yegulik yuborib turardi. Ammo shu ham menga kam edi. Onam asosan non bilan kartoshka jo'natardi. Ahyon-ahyonda bankaga tvorog solib bervorardi. Buni u birovdan nimagadir almashtirib olgan, albatta, chunki, o'zimiz sigir boqmas edik. Kelgan kuni ko'zimga bir dunyo ko'ringan narsadan ikki kun o'tmay hech vaqo qolmasdi. Ittifoqo, onam yuborgan non sirli ravishda g'oyib bo'layotganini sezib qoldim. Atay kuzata boshladim ham: ha, bugun bor-u, ertasi o'z-o'zidan yo'q bo'lib qolardi. Kartoshka ham shu tarzda kamayib borardi. Kim o'g'irlayapti, uch bolasini zo'rg'a boqayotgan baqiroq Nadya xolamikan? Qizlaridan birortasimi yoki kenjası Fedkamikan – bilmayman, ularni poylash u yoqda tursin, bu haqda o'ylagim ham kelmasdi. Onam ukam va singlimning luqmasidan qiyib menga yuborsa-yu, buning huzurini boshqalar ko'rsa – shunisi menga alam qilardi. Qo'limdan nima ham kelardi, taqdirga tan berib yuraverdim, turgan gapki, onam buni eshitsa juda xafa bo'ladi.

Bu yerda hayot qishloqdagidan farq qilardi: qishloqda doim, ayniqsa, kuz kunlari albatta biror yegulik topiladi, deylik, bog'da meva cheva, tomorqada sabzavot bo'ladi, ularni yig'ib-terish, kavlab olish mumkin. Hech qursa, Angaraga borib baliq, o'rmonda esa qush ovlash mumkin. Bu yerda esa tevarak-atrofim go'yo bo'm-bo'sh edi: yetti yet odamlar, begona joy, begona tomorqalar. Bir daryochasi bor edi-yu, qachon qaramang, o'n qavat to'r tashlab qo'yilgan bo'lardi. Bor-yo'q balig'i tutib olingen bo'lsa kerak, hoynahoy. Yakshanba kunlarining birida ertadan kechgacha qarmoq tashlab o'tirib, atigi uch dona choy qoshiqdek keladigan tangabaliq tutibman. Bu bilan qorin to'ydirib bo'lmasa. Qaytib baliq ovlagani bormadim – vaqtmini behuda sarflab nima qildim! Kechqurunlari ko'pincha oshxonalar oldida, narx-navoni bilish uchun bozor oralab aylanib yurar, keyin esa so'lagim oqqancha ikki qo'limni burnimga tiqib uyga qaytar edim. Nadya xolaning oshxonasida doim chovgum qaynab turardi,

dog‘ suvdan ichib olib oshqozonni aldardim-u uxlagani yotardim. Ertalab yana och-nahor maktabga chopardim. Shu tariqa to yuk mashina kelib, Vanya amaki eshik taqillatadigan kungacha amal-taqlal qilib yetardim. Ochlikdan sillam qurigani, boz ustiga, har qancha tejab-tergamayin, oziq-ovqatim baribir ko‘pga yetmasligini bilganim uchun qornim yorilgudek to‘yib olardim-da, ikki-uch kundan keyin yana tishimning kirini so‘rib yuraverardim.

\* \* \*

Sentabrning oxirlarimidi, bir kuni Fedka menga:

– «Chikka» o‘ynagani yuraging dov beradimi, qo‘rqmaysanmi? – deb qoldi.

– Nima u, «chikka» deganing?

– Shunaqa bir o‘yin bor-da, pul tikiladi. Puling bo‘lsa, yur, o‘ynaymiz.

– Pulim yo‘q-da.

– Mendayam yo‘q. Mayli, yur, hech bo‘lmasa tomosha qilarmiz. Ko‘rasan, zo‘r o‘yin!

Fedka meni tomorqa ortiga boshladи. Ikkovlon tepalik yoqalab ketdик, qurigan, hidi dimoqni yorgudek urug‘lari osilib yotgan qichitqi o‘t bosgan changalzor do‘nglikdan oshgach, sakrab-sakrab eski axlattepalardan o‘tdik, shunda etakdagи tekis, yaydoq maydonchada g‘ala-g‘ovur qilib o‘ynayotgan bir to‘p bolaga ko‘zim tushdi. Biz ularning oldiga tushib bordik. Bolalar birdan hushyor tortdi. Bittasidan boshqa hammasi deyarli men tengi edi. Baland bo‘yli, baquvvat, old sochlari tikkaygan bu sariq bolaning barchaga so‘zi o‘tishi ayon ko‘rinib turardi. Esladim, u yettinchi sinfda o‘qirdi.

– Buni nimaga yetaklab kelding? – dedi u Fedkaga qarab norozi ohangda.

– Begona emas, Vadik, qarindoshimiz, – deya o‘zini oqlay ketdi Fedka. – Biznikida yashaydi.

– O‘ynaysanmi? –deb so‘radi Vadik mendan.

– Pulim yo‘q-da.

– Unday bo‘lsa, bizni bu yerda ko‘rganiningni birovga gullab yurma.

– E, shunisi yetmay turuvdi! – dedim xafa bo‘lib.

Bolalar menga ortiq e'tibor qilmay o'yinga berilib ketishdi. Bir chekkada o'tirib ularni kuzata boshladim. O'yinda hamma ishtirok etmasdi: goh olti, goh yetti bola o'ynardi, xolos. Qolganlar tomoshabin edi, ular asosan Vadikka tarafgir. Uning bu yerda to'pboshi ekanini boshdanoq sezgan edim.

O'yin unchalik murakkab emas ekan. Har bir o'yinchil o'n tiyindan tikadi, «g'azna»dan ikki metrlar naridagi yo'g'on chiziq bilan chegaralangan maydonchaga tanga pukka tarafi bilan tashlanadi, keyin boshqa yoqdan, ya'ni yarmi yerga ko'milgan va oyoqqa tirkak vazifasini o'tovchi xarsang oldida turib yumaloq tosh – «shayba» irg'itiladi. Uni iloji boricha chiziqqa yaqinroq joyga, ammo chiziqdan chiqib ketmasligini ko'zlab otmoq lozim. Ana shunda birinchi bo'lib «g'azna»ni buzish imkonini tug'iladi. Yana shu tosh bilan urib tanganing chicka tarafini o'girish kerak, agar eplay olsang – marra seniki, o'ynayverasan, yo'qsa – boshqa o'yinchiga navbatni berasan. Eng muhimmi, qo'lingdagisi toshni irg'itganda uning tanga to'pi ustiga tushishini mo'ljallash darkor, biror tanganing chikkasini o'gira olsang ham hech qanday gap-so'zsiz hamma pul seniki bo'ladi. O'yin esa qayta boshlanadi.

Vadik g'irrom ekan. U tirkak tosh yoniga hammadan so'ng, kim-kimdan keyin ekanini ko'rib olgachgina kelardi. Tabiiyki, u yutib chiqish uchun qayerga urish kerakligini ham bilvolgan bo'lardi. Vadikning g'irrom o'ynayotganini hamma bilib tursa-da, hech kim og'iz ochishga botinolmas edi. To'g'ri, u yomon o'ynamasdi. Tirkak yoniga kelganda tizzasini sal bukib olar, bir ko'zini qisib qo'lidagi toshni mo'ljalga to'g'rilar edi-da, so'ng shoshilmay qaddini rostlardi – «shayba» ham go'yo qo'lidan sirg'alib chiqib aynan ko'zlagan joyiga borib tushardi. U boshini keskin bir silkib, ko'ziga tushib turgan sochini orqaga tashlardi-yu beparvolik bilan chetga «chirt» et-kazib tupurib, go'yoki ish hal bo'ldi, degandek erinibgina, atay sol-lana-sollana bosib pul yotgan joyga borardi. Agar chaqa to'p bo'lib uyulib yotsa, qattiq urar, tangalar jaranglab ketar edi, sochilib yotgan bo'lsa, har yonga qapchib ketmay ohista chikkasi o'girilishi uchun «shayba»ni shunchaki tekkizib qo'ya qolardi. Boshqa hech kim bunday qilolmasdi. Bolalar o'ylab ham o'tirmay cho'ntagidan yana tanga chiqarar, puli yo'qlar esa sekingina tomoshabinlar qatoriga qo'shilar edi.

Pulim bo'lganida men ham o'ynay olardim, deb o'yadim. Qishloqda biz oshiq o'ynardik, bunda ham albatta ziyraklik talab etiladi. Qolaversa, men merganlikni oshiradigan har xil ermaklar o'ylab topishga ishqiboz edim. Deylik, bir to'p tosh yig'ib olardim-da, qaltisroq bir joyni mo'ljal qilib turib, toki to'liq natijaga erishmaguncha, ya'ni o'n-u o'n bo'limguncha otaverardim. Toshni tepadan, yelkam osha yoki pastdan mo'ljalga to'g'rilab olib irg'itaverar edim. Shuning uchun ham bu borada oz-moz mahoratim bor edi. Ammo hozir pul yo'q edi-da.

Pul bo'limgani uchun ham onam menga non jo'natar edi. Yo'qsa, nonni shu yerdan ham sotib olish mumkin-ku. Kolxozda pul nima qilsin! Shunday bo'lsa-da, onam ikki marta konvertga besh rubldan solib yuboribdi, sut olasan deb. Hozirgi pulda bu ellik tiyin degani. Uncha ko'p emas-u, baribir pul-da. Bozordan bunga bittasi bir rubl turadigan yarim litrlik besh banka sut olish mumkin edi. Kamqonligim sababli turib-turib birdan boshim aylana boshlar, bu hol tez-tez takrorlangani uchun ham doim sut ichib yurishim kerak edi.

Onam uchinchi marta beshtalik jo'natganida men unga sut olmadim. Pulni maydaladim-u axlattepaga yugurdim. Bu joy juda bilib tanlangan edi o'ziyam: qir-adirlar o'rtasidagi maydoncha atrofdan ko'zga tashlanmasdi. Agar bunday o'yin o'ynayotganimizni qishloqda biror odam ko'rib qolsa, bizni quvib solar, mirshab yoki maktab direktorini chaqiraman, deb qo'rqtigan bo'lar edi. Bu yerda esa bizga hech kim xalaqit bermaydi. Keyin, uzoq ham emas, o'n daqiqalik yo'l.

Birinchi martasiga to'qson tiyin, ikkinchisida esa oltmishtiyin tikdim. Albatta, pulimga achinardim, ammo o'ynaganim sayin qo'lim ancha kelishib borayotganini sezardim. U «shayba»ni to'g'ri yo'naltirish uchun keragicha kuch sarflashga moslashdi, ko'zim ham toshning qayerga tushib qayergacha dumalab borishini oldindan chamlashga o'rgandi. Kechqurunlari hech kim qolmaganda maydonchaga qaytib kelar, xarsang tagidan Vadik yashirib ketgan «shayba»ni olar va cho'ntagimdan chaqa chiqarib, to qorong'i tushguncha mashq qilar edim. Bora-bora o'n marta tosh otganda uch yoki to'rttasini aniq mo'ljalga tushiradigan bo'ldim.

Nihoyat, men ham o'yinda yutadigan kun keldi.

Kuz kunlari iliq, yog‘in-sochinsiz, oktabr oyi bo‘lishiga qaramay bitta ko‘ylakda yurish mumkin edi. Onda-sonda yomg‘ir yog‘ib qolardi. Bu ham daydi shamol qayerlardandir tasodifan olib kelgan yomg‘ir edi. Osmon yoz kunlaridagidek ko‘m-ko‘k, ammo u qadar cheksiz emas, go‘yo allaqanday torayib qolgandek tuyulardi. Quyosh ham erta botardi. Adirlar ustida ertalablari havo top-toza, musaffo bo‘lardi. Atrofda achchiq, boshni aylantiruvchi shuvoq hidi kezar, uzoq-uzoqlardan har xil tovushlar aniq eshitilar, uchib ketayotgan qushlarning chah-chahi qulqoni qomatga keltirar edi. Maydonchamizda o‘t-o‘lan sarg‘aygan bo‘lsa-da, hali butkul qurib bitmagan, o‘yinda ishtirok etmayotgan, to‘g‘rirog‘i, yutqazib qo‘ygan bolalar u yerda dumalashib o‘ynab yotar edi.

Har kuni maktabdan keyin to‘g‘ri shu yerga kelishga odatlanib qoldim. O‘yinchilar tez-tez o‘zgarib turar, eskilar o‘rnini yangilar egallar edi. Faqat Vadik birorta ham o‘yinni qoldirmasdi. Usiz o‘yin ham bo‘lmas edi-da o‘zi. Ptaxa degan xumkalla, sochi mashinka-da olingen kaltabaqay bir bola doim Vadikning ortidan soyadek er-gashib yurardi. Men shu vaqtgacha uni maktabda biron martayam ko‘rmagan edim, oldinlatib bo‘lsayam aytaveray, uchinchi chorakda u qo‘qqisdan bizning sinfda paydo bo‘lib qoldi. Beshinchi sinfda qo‘lib ketgan va bir nimalarni bahona qilib yanvarga qadar «ta’til»da yurgan ekan. O‘yinda ko‘pincha Ptaxa ham yutardi, Vadikchalik emas edi-yu, lekin har qalay ziyon ko‘rmasdi. Hoynahoy, Vadikning sherigi bo‘lgani uchundir. Vadik ham boshqalarga bildirmaygina Ptaxaga qarashib turardi.

Maydonchada goho bizning sinfdagi Tishkin.— hovliqma, ko‘zi o‘ynab turadigan, darslarda qo‘l ko‘tarib o‘tirishni yaxshi ko‘radigan bola ham paydo bo‘lib qolardi. U bir nimani bilsa-bilmasa qo‘l ko‘taraverar, o‘qituvchi doskaga chiqargudek bo‘lsa, mum tishlab qolar edi.

— Nega qo‘l ko‘tarding bo‘lmasa? — deb so‘rardi o‘qituvchi.

Shunda u kichkinagini ko‘zlarini pirpiratib:

— Hozirgina esimda edi, doskaga chiqquncha unutib qo‘ydim, — derdi.

Men Tishkin bilan unchalik yaqin emas edim. Tortinchoqligim, kamgapligim, qishloqilarga xos odamoviligidan va eng avvalo, boshqa narsaga o‘rin qoldirmaydigan sog‘inch hissi, ya’ni uyni nihoyat-

da qattiq qo‘msayotganim sabablimi, haligacha sinfdoshlarimning hech biri bilan tuzukroq chiqishib ketolmagan edim. Bolalarning ham men bilan ishi yo‘q edi. Doim yolg‘iz yurardim. Qishloqda, o‘z uyimda emasligim uchun yolg‘izmân-da, u yerda do‘stilarim ko‘p edi-ku, deya o‘zimga-o‘zim tasalli berardim. Lekin o‘lgudek ezilib yurganimdan yolg‘izligimni sezmas, buni hatto anglab ham yetmas edim.

Tishkin maydonchada meni go‘yo ko‘rmas yoki ko‘rmaganga olardi. U darrovgina yutqazib qo‘yar va g‘oyib bo‘lar, shu bilan an-chagacha bedarak ketar edi.

Mening esa o‘yinda omadim chopib qoldi. Doim qo‘lim baland keladigan, deyarli har kuni yutadigan bo‘ldim. Mening bu o‘yinda ham xos qoidalaram bor edi: birinchi bo‘lish uchun «shayba»ni maydon bo‘ylab aylantirmaslik lozim; o‘yinchi ko‘p bo‘lganda bu juda mushkul – chiziqqqa qancha yaqin kelinsa, uni bosib olish va oxirda qolib ketish xavfi shuncha ortadi. Toshni irg‘itganda «g‘azna» ustiga tushishini aniq mo‘ljal qilmoq kerak. Men shunday qilardim. Albatta, bu tavakkalchilik edi, ammo epchilligim qo‘l kelardi. Men o‘yinda ketma-ket uch-to‘rt marta yutqazishim mumkin edi. Biroq beshinchı martasida «g‘azna»ni albatta qo‘lga kiritardim, yutqazganimni uch barobar qilib qaytarib olardim. Keyin yana yutqazar va yana yutib olaverardim. Kamdan-kam hollardagina tosh bilan tangani urishim-ga to‘g‘ri kelardi. Ammo bu borada ham mening o‘z usulim bor edi: agar Vadik tanga o‘zi tomon yumalashini chamalab ursa, men aksincha, zarb bilan urardim – bu qo‘pol harakat edi, albatta. Lekin shunda tosh tanganing aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymasdi, tanga bir sapchirdi-yu orqasi bilan o‘girilib tushardi.

Shu tariqa choychaqali ham bo‘lib qoldim. Biroq kechgacha maydonchada yurib o‘yinga berilib ketishdan o‘zimni tiyardim. Har kuni bir rubldan yutib olsam shu menga kifoya edi. Bir rublni qo‘lga kiritishim bilan o‘yinni tashlab bozorga yugurardim, bir banka sut sotib olib, (mening bu pachoq, qiyshiq, siyqalanib ketgan chaqalarimni ko‘rib sutchi xolalar javray-javray sut quyib berardi) tushlik qilardim-u dars tayyorlagani o‘tirardim. Hamon qornim to‘yib ov-qat yemasdim, ammo sut ichib turibman-ku, degan o‘yning o‘ziyoq menga kuch berar, ochligim sal unitilardi. Hatto endi boshim aylani-shi ham kamaygandek tuyulardi.

Avvaliga Vadik mening g‘alabalarimga chandon e‘tibor bermagan edi. Chunki bundan u hech ziyon ko‘rmasdi, ya’ni uning cho‘ntagidan bir tiyin ham chiqmasdi. Ba’zan u «Hoy no‘noqlar, qanday urish kerakligini mana bundan o‘rganinglar», deb meni alqab ham qo‘yardi. Lekin ko‘p o‘tmay o‘yinni tez tark etayotganimni payqab qoldi va bir kuni meni to‘xtatib:

– Nima, pulni oliboq qochish ekan-da? Ja abjirsan-u! Ketzaysan, o‘ynaysan, – deb qoldi.

– Dars tayyorlashim kerak, Vadik, – deb bahona qildim.

– Dars qiladigan odam bu yerga kelmaydi.

Ptaxa ham yaldoqilik bilan gapga aralashdi:

– Pul tikilganda shunday qilish mumkin deb kim aytdi senga?

Agar bilsang, bu qilmishing uchun boplab ta‘ziringni berish kerak. Tushundingmi?

Shu-shu, Vadik sira o‘zidan oldin «shayba»ni menga bermaydigan, tirkak tosh oldiga ham hammadan keyin qo‘yadigan bo‘ldi. U mo‘ljalni yaxshi olardi, men esa «shayba» qo‘limga tushmayoq necha martalab cho‘ntak kavlashimga to‘g‘ri kelardi. Biroq imkon tug‘ildi deguncha undan yaxshiroq o‘ynardim, tosh ham go‘yo ohanrabodek to‘ppa-to‘g‘ri borib to‘p bo‘lib yotgan tanga ustiga tushardi. Merganligimga o‘zim ham qoyil qolardim. Buni sezdirmaslik, boshqalarning e‘tiborini tortmay o‘ynash lozimligiga fahmim yetmaganini qarang. Soddalik bilan har safar ayamay «g‘azna»ni mo‘ljalga olaveribman. O‘z ishining ustasi bo‘lgan, doim qo‘li baland keladigan odam hech qachon shafqat ko‘rmasligini men qaydan bilibman deysiz! Bunday vaqtida shafqat kutish ham, birorta himoyachi chiqib qolar, deb xomtama bo‘lish ham befoyda. Hamma seni mahmadona deb biladi, xolos, ayniqsa, orqangdan kelayotganlarning seni ko‘rarga ko‘zi yo‘q. O‘sha kuzda aynan shu narsa menga saboq bo‘ldi.

Men o‘sha gal ham mo‘ljalni aniq nishonga olgan edim. Chaqlarni yig‘ib olmoqchi bo‘lib yaqinlashganimda atrofga sochilib yotgan tangalardan birini Vadik oyog‘i bilan bosib turganini payqadim. Qolgan tangalar pukka tarafi bilan yotardi. Bunday hollarda odatda «g‘azna»ga deb baqirish kerak, negaki tanga o‘ng tarafi bilan tushmagan bo‘lsa, qaytadan urish uchun bir joyga to‘planadi. Men esa har doimgidek omadimga ishonib, jar solib o‘tirmadim.

– «G‘azna»ga emas! – deya e‘lon qildi Vadik.

Vadikning yoniga bordim-da, oyog‘i tagidagi tangani ko‘rmoqchi bo‘lib uni sal turtgan edim, u meni siltab tashladi. Darhol oyog‘i ostidagi tangani olib, menga chap tarafini ko‘rsatdi. Aslida uning chikka yotganini men ko‘rgan edim. Aks holda Vadik ham bunday nayrang qilmagan bo‘lardi.

– G‘irromlik qilma, – dedim. – O‘ng tarafi bilan yotgan edi, o‘zim ko‘rdim-ku.

U burnimning tagiga mushtumini tirab:

– Mana buni-chi, buni ham ko‘rganmisan? – dedi.

Indayolmay qolaverdim. So‘zimda turib olishdan ma’ni yo‘q edi: janjal chiqqudek bo‘lsa, hech kim, biror tirik jon, hatto shu atrofda o‘ralashib yurgan Tishkin ham yonimni olmasligi aniq.

Vadikning g‘azabnok qisilgan ko‘zlarini menga o‘qdek qada-lib turardi. Engashib, yaqinroq yotgan tangani sekingina urdim, u o‘nglangach, boshqasini urdim. «Baribir hammasi o‘zimga tegishli-ku», deb o‘ylardim. Mo‘ljallab turib toshni yana urmoqchi edim – ulgurolmadim, orqamdan kimdir tizzasi bilan qattiq tepib yubordi. O‘zimni o‘nglay olmay yerga boshim bilan tushdim. Gurra kulgi ko‘tarildi.

Orqamda bezbetlarcha tirjayib Ptaxa turardi. Men dovdiragancha:

– Bu nima qilganing?! – dedim.

– Men ekanmanmi, kim aytdi senga? – dedi u talmovsirab. – Nima, yo tush-push ko‘rdingmi?

– Qani, ber-chi bu yoqqa! – Vadik «shayba»ga qo‘l uzatdi, ammo men uni bermadim.

Alam qo‘rquvdan ustun kelgan edi, endi hech kimdan cho‘chimasdim. Nega? Nima uchun axir? Men ularga nima yomonlik qilibman?

– Ber deyapman! – deya do‘q urdi Vadik.

– Boya tangani o‘girib qo‘yding-ku! – deya qichqirdim men ham.

– O‘zim ko‘rdim, o‘zim.

– Qani, yana bir marta qaytar-chi, – dedi u yaqinroq kelib.

– Tangani o‘girib qo‘yding, – dedim men endi bosiq ovozda, hozir nima ro‘y berishini bilib turardim.

Birinchi bo‘lib yana orqadan Ptaxa tushirib qoldi, Vadikka borib urildim. U chamalab ham o‘tirmay epchillik bilan yuzimnga shunday

kalla urdiki, ag'anab tushdim, burnimdan tirqirab qon otildi. Bazo'r o'nimdan turgan edim, tag'in Ptaxa tashlanib qoldi. Haliyam bo'lsa qochib qutulish imkoni bor edi, ammo shu tobda buni o'ylamabman ham. Men o'zimni deyarli himoya qilolmay Vadik bilan Ptaxaning o'rtasida koptokdek borib-kelardim. Sharillab qon oqayotgan burnimni changallagancha, alam ustida battar ularning jig'iga tegib qaysarlik bilan bitta gapni takrorlardim:

– Tangani sen o'girding! O'girding! Sen o'girding!

Ular meni galma-galdan do'pposlardi. Bir payt kichkinaginiyu, ammo serjahl yana birovi oyoqlarimga tepib qolsa bo'ladi! Tepidan oyog'imning sog' joyi qolmadi, ko'karib, momataloq bo'lib ketdi-yov. Men jon-jahdim bilan yiqlmaslikka tirishardim. Shu ahvolda bularning oldida yana yiqlilib tushish o'lim bilan barobar edi. Oxir-oqibat baribir meni yerga yiqtibgina tinchishdi.

– Joning borida bu yerdan tuyog'ingni shiqillatib qol! – deb amr qildi Vadik. – Qani, tez bo'l!

Men o'nimdan turib, hiqillagancha, hech baloni sezmay qolgan burnimni torta-torta tepalik tomon sudralib keta boshladim.

– Churq etib birovga og'iz ochgudek bo'lsang, o'ldim deyaver! – deya qichqirib qoldi Vadik ortimdan.

Indamadim. Alamdan butun vujudim go'yo jonsiz edi, qo'l-oyoqlarim ham qotib qolgandek karaxt. Hatto labimni qimirlatishga ham majolim yo'q. Tepalikka chiqib olgachgina, chidab turolmay, xuddi aqdan ozgandek bor ovozda qichqirdim: . . .

– Tangani o'girib qo'yding! O'girdi-ing! – ovozim butun shaharchaga eshitildi-yov.

Ptaxa ortimdan yugurishga bir shaylandi-yu, negadir yana iziga qaytdi, chamasi, Vadik meni tinch qo'yish kerak degan qarorga kelib uni to'xtatdi, shekilli. Hiqillagancha maydonchani biroz kuzatib turdim, u yerda o'zin qizg'in edi. Keyin tepalikning boshqa tomonidan aylanib, qop-qora qichitqi o't bilan qoplangan soylikka tushdim-da, zarang chimzor ustiga o'zimni otdim. Alamimning zo'ridan ho'ngrab yubordim.

O'sha kuni bu yorug' olamda mendan baxtsizroq kimsa yo'q va bo'lishi mumkin ham emasdek edi.

Ertalab oynada aksimni ko'rib, rosti, kapalagim uchib ketdi: burun o'rnida beso'naqay, qo'pol bir shish, chap ko'zimning tagi ko'kargan, chakkamda esa shilinib, quyuq qon qotib qolgan chandiq ko'zga tashlanardi. Shu ahvolda maktabga qanday boraman endi – buni hatto tasavvur ham qilolmasdim. Ammo borish kerak, nima bo'lmasin, baribir darsni qoldirolmayman. Axir, aslan burundor odamlar ham bor-ku, shularning oldida meniki uncha vahimali emas. Agar ko'zga tashlanib turadigan joyda bo'limganida buni birov hatto burun o'rnida ham ko'rmasdi. Biroq shilingan, ko'kargan joylarni yashirishning iloji yo'q – mendan so'roqsiz shundoq ko'z-ko'z bo'lib turibdi-da, axir.

Ko'zimni kaftim bilan to'sgancha lip etib sinfxonaga kirdim, o'rninga o'tirdim-u boshimni egib oldim. Aksiga olgandek, birinchi dars fransuz tili edi. Sinf rahbari emasmi, Lidiya Mixaylovna boshqa o'qituvchilarga nisbatan bizga ko'proq e'tibor berar, undan hech nimani yashirib bo'lmas edi. Sinfxonaga kirib salomlashgach, o'tirishga izn berishdan avval, go'yo kamchiliklarimizni ro'y-rost ko'rmoqchidek, har birimizga sinchiklab qarab chiqish odati bor edi. Yuzimdag'i tamg'ani yashirishga har qancha urinmayin, u shu zahotiyoq ko'rdi, buni bolalarning hammasi men tomonga o'girilganidan bildim.

– Mana, – dedi Lidiya Mixaylovna jurnalni ocharkan, – bugun oramizda yaradorlar ham bor ekan.

Bolalar kulib yuborishdi. Lidiya Mixaylovna yana menga tiki-lib qaradi. Uning ko'zi g'ilayroq edi va go'yo menga emas, boshqa yoqqa boqib turgandek tuyulardi. Ammo bu vaqtga kelib biz uning qay tarafga qarayotganini durustgina farqlaydigan bo'lib qolgan edik.

– Xo'sh, nima bo'ldi? – deb so'radi u mendan.

– Yiqilib tushdim, – dedim to'ng'illab. Oldindan biror jo'yaliroq bahona ham to'qib qo'ymabman-a, qarang.

– Attang, juda o'sal tushibsan-ku. Kechami, bugun?

– Bugun. Yo'q, kecha kechasi, qorong'ida.

– He, yiqilgan mish! – deya shang'illab qoldi bir vaqt Tishkin xursandligidan entikib. – Yettinchi sinfdagi Vadikning ishi bu. Ular

pul tikib o‘ynaydi. Buningiz o‘sha Vadik bilan tortishib qoldi, keyin rosa ta’zirini yedi o‘ziyam. Yiqildim deydi-ya tag‘in!

Bunday chaqimchilikni aslo kutmagan edim, qotib qoldim. Jinni bo‘lganmi u yoki atay qildimi? Pul tikib o‘ynaydiganlarning maktabda darrov kovushini to‘g‘rilab qo‘yishlari hech gap emas, axir. Mana, senga o‘yin! Qo‘rqqanimdan miyamda hamma narsa aralash-qurash bo‘lib ketdi, kallam g‘uvullay boshladi: bo‘ldi, bari tamom. Hah, Tishkin-a! Bildik, qanday bola ekan bu Tishkin deganlari. Bopladi-ku. Oqqizmay-tomizmay hammasini aytdi-ko‘ydi-ya, kasofat!

– Sendan, Tishkin, men boshqa narsani so‘ramoqchi edim, – dedi Lidiya Mixaylovna bu gaplarga uncha hayron bo‘lmagandek, o‘sha-o‘sha vazmin ohangda. – O‘zing boshlab qolding, qani, endi doskaga marhamat, javob berishga tayyormisan? – U o‘zini yo‘qotib birdan shalvirab qolgan Tishkin doska yoniga chiqquncha kutib turdi-da, keyin menga qarab: – Sen darsdan keyin qolasan, – deb qo‘ydi.

Lidiya Mixaylovna meni direktor huzuriga olib kiradi deb juda qo‘rqan edim. Bu degani, u yerda kechajak mashmashadan tashqari, direktor ertaga mакtab lineykasida o‘rtaga chiqarib, nima uchun bunday yaramas ishga qo‘l urganingni aytib berishga majbur etadi. Direktorimiz Vasiliy Andreyevich biror bola ayb ish qilib qo‘ysa – u oyna sindirganmi, mushtlashganmi yoki hojatxonada chekkanmi, bundan qat‘i nazar, aynan shu savolni berardi: «Bunday yaramas ishga seni nima majbur etdi?» Vasiliy Andreyevich qo‘llarini ko‘kragida chalishtirgancha gavdasini g‘oz tutib, katta-katta qadamlar bilan tizilishib turgan o‘quvchilar oldida u yoqdan-bu yoqqa borib-kelarkan, egnidagi tugmalari qadalgan qappayma qora frenchi<sup>1</sup> uşdan oldinroq harakatlanayotgandek tuyulardi. «Javob ber, xo‘s, kutyapmiz. Qara, butun mакtab kutyapti, bizga aytadigan gaping bordir», deya qistovga olardi u. Gunohkor o‘zini oqlamoq uchun bir nima deb g‘o‘ldiray boshlasa, direktor uning gapini shartta bo‘lib qo‘yardi: «Sen savolga javob ber, ha, savolga. Qanday savol berildi?» – «Meni nima majbur qildimi?» – «Xuddi shunday: nima majbur etdi? Gapir, qulog‘imiz senda». Xullas, bu singari mashmashalar ko‘pincha yig‘i-sig‘i bilan tugar, shundagina direktorning ko‘ngli joyiga tushar va hamma sinf-sinfiga tarqalar edi. Yuqori sinf o‘quvchilariga kelganda vazi-

<sup>1</sup> French – harbiycha usulda tikilgan kurtka.

yat qiyinroq kechardi. Ular uncha-munchaga yig‘lamasdi-yu, ammo Vasiliy Andreyevichning savoliga ham javob bermay bezrayib turaverardi.

Bir gal hatto birinchi soat darsimiz o‘n daqiqacha kechikib boshlangan, chunki direktor to‘qqizinchi sinf o‘quvchisini uzundan-uzoq so‘roq qilib, tayinli bir gap ololmagach, oxiri uni xonasiga olib kirib ketgan edi.

Men endi nima deyman unga? Undan ko‘ra darrovgina pattamni qo‘limga tutqazganlari yaxshi. Bu haqda o‘ylarkanman, ana shunda uygaga ketsam ham bo‘ladi, degan fikr miyamda yarq etdi. Ammo shu zahotiyoy qoshimdan qaynoq suv quyilgandek bo‘ldi: yo‘g‘-e, uygabunday sharmanda bo‘lib borgandan ko‘ra... O‘qishni o‘zim tashlab ketsam-ku, boshqa gap edi. Shunda ham meni bo‘shang bola ekan-da, ko‘zlagan niyatiga erisholmabdi, deyishlari turgan gap. Maktabda esa, ana keyin ko‘rasiz ahvolni, hamma mendan o‘zini olib qochadigan bo‘ladi. Yo‘q, bunisi menga to‘g‘ri kelmaydi. Bu yerda-ku, xo‘p, chidarman, ko‘nikarman, biroq shu ahvolda uygaborishim aslo mumkin emas.

Darsdan keyin yo‘lakda yurak hovuchlab Lidiya Mixaylovnani kutdim. U o‘qituvchilar xonasidan chiqib, bosh silkib, sinfga kir, deya imo qildi. Lidiya Mixaylovna odatdagidek o‘z joyiga o‘tirdi. Men esa iloji boricha undan nariroq – uchinchi partaga o‘rnashmoqchi bo‘lib turgan edim, muallima naqd peshonasi – birinchi partani ko‘rsatdi, o‘tirishim bilan:

– Pulga o‘ynarkansan, shu rostmi? – dedi.

Uning ovozi baralla yangrab ketdi. Axir, bu haqda maktabda juda sekin, shivirlab gapirish kerak-ku. Meni battar vahima bosdi. Inkor qilishdan hech bir ma’ni yo‘q edi, negaki Tishkin ipidan-ignasigacha sotib bo‘lgan.

– Ha, rost, – dedim bo‘ynimni egib.

– Xo‘sh, qalay bo‘lyapti – yutyapsanmi yoki yutqazyapsanmi?

Nima deyishni bilmay chaynalib qoldim.

– Qani, bor gapni bir boshdan aytib ber-chi. Hoynahoy, ko‘proq yutqazsang kerak, a?

– Yu... yutaman.

– Tuzuk, har qalay yutarkansan-ku. Xo‘sh, pulni nima qilasan keyin?

Maktabga endi kelgan vaqtlarim anchagacha Lidiya Mixaylovna-ning ovoziga ko'nikolmay yurdim, uni eshitdim deguncha dovdirab qolardim. Bizda – qishloqda nafasni ich-ichiga tortib gapiriladi, shuning uchun ham ovoz baralla chiqadi. Lidiya Mixaylovnaning tovushi esa qandaydir mayin, buning ustiga, juda bo'g'iqlik-ey, astoydil qulq tutmasangiz eshitish ham mahol. Ammo bu hol uning darmon-sizligi yoki nozikligidan deb bo'lmasdi. Negaki, u ba'zida g'oyat berilib gapirar, o'shanda ovozi ham jaranglab chiqar edi. Menga u go'yo ovozini baralla qo'yib yubormay, atayin ayayotgandek tuyulardi. Men bor kuchimni fransuz tilini o'rghanishga sarflamoqqa ham tayyor edim; albatta, begona bir tilga moslashguncha ovozim qafas-dagi qushning tovushidek zaiflashib, goho bo'g'ilib ham qolardi. Keyin yana avvalgi holiga qaytishini, tiklanishini kutishga to'g'ri kelardi. Ayni pallada Lidiya Mixaylovna menga savol bergan bo'lsada, o'zi boshqa muhim bir narsa haqida o'ylab o'tirganga o'xshardi. Shunday bo'lsa ham uning savoliga javob berishdan bo'yin tovash-ning hech iloji yo'q edi.

– Xo'sh, gapirsang-chi, yutib olgan pulingni nima qila-san? Konfet olib yeysanmi? Yoki kitobmi? Yo biror nima sotib olish uchun yig'yapsanmi? Ehtimol, ancha-muncha yig'ib ham qo'ygandirsan?

- Yo'q, ko'p emas, atigi bir rublgina yutaman.
- Keyin o'ynamaysanmi?
- Yo'q.
- Bir rublgina-ya? Nega bir rubl? Uni nima qilasan?
- Sut olaman.
- Sut?!

Aqlli, ozoda-orasta, har tomonlama to'kis, kiyim-boshi ham o'ziga yarashgan, latofat bobida barkamol (men buni sal-pal his qillardim) Lidiya Mixaylovna ro'paramda o'tiribdi. Undan taralayotgan xushbo'y atir isini uning nafasi deb tuyardim, qolaversa, u qandaydir arifmetika yoki tarix o'qituvchisi emas, sirli-sehrli fransuz tili mual-limasi edi. Axir, fransuz tilining o'zi allaqanday ertaknamo til, uning bo'lakcha bir tarovati borki, buni hamma ham mendek his etaverma-sa kerak. Ko'zlariga qarashga jur'at qilolmaganiddek, muallimani aldashga ham botinolmasdim. Umuman olganda, yolg'on gapirib nima qildim?

Lidiya Mixaylovna jimgina o'tirib, meni boshdan-oyoq kuzatardi va men uning sinchkov nigohi qarshisida barcha ko'rgiliklarim, bema'niliklarim yanada bo'rtib, fosh bo'lib turganini butun borlig'im bilan sezardim. Ahvolim tomoshaga arzigulik edi: Lidiya Mixaylovnaning ro'parasida nimjon, yovvoyisifat, aft-angori dabdala bir bola tirishibgina o'tiribdi. Ota-onha bag'rida emas, qarovsiz bir notavon ekanay ko'rinish turibdi – pala-partish kiyangan, egnida yuvilaverganidan yelkalari osilib tushgan, gavdasiga loyiqlik ko'rinsa-da, yengi tirsagiga kelib qolgan eski kamzul, otasining galifesidan kich-raytirib tikilgan kirchil och yashil tusli, kechagi mushtlashuvdan qoni zi qolgan, dog'-dug' chalvor, ustiga-ustak, pochasi choriqqa tiqib qo'yilgan. Lidiya Mixaylovna poyabzalimga achinib qarashini avvaldan sezib yurardim. Butun sinf bo'yicha birgina men shunaqa choriq kiyardim. Keyingi yil kuzda bu oyoq kiyimda mактабга bormayman, deb oyoq tirab turib olganimdan so'nggina onam bor-yo'q boyligimiz hisoblangan tikuv mashinasini sotib, menga kirza etik olib berdi.

– Baribir ham pul tikib o'ynash yaxshi emas, – dedi o'ychanlik bilan Lidiya Mixaylovna. – Boshqa bir yo'lini topsang bo'lardi-ku, to'g'rimi?

Ishning bu tarzda oson ko'chganiga ishonib-ishonmay, o'ylab ham o'tirmay va'da berib yubordim:

– Topsa bo'ladi.

Rosti, bu gapni yurak-yurakdan aytgan edim. Ammo doim ham bergen va'damizning ustidan chiqolmaymiz-ku, shunday ekan, qo'limizdan nima ham kelardi!

To'g'risini aytishim kerakki, o'sha kunlar juda qiyin ahvolda edim. Kuz yog'in-sochinsiz kelgani uchun kolxozimiz g'alla topshirish rejasini erta bajargan va Vanya amaki endi kelmay qo'ygan edi. Uyda onam meni o'ylab o'zini qo'yarga joy topolmay o'tirganini bilardim, ammo bundan menga biror naf bo'lsa ekan. Vanya amaki oxirgi marta kelganida tashlab ketgan bir xalta kartoshka shunchalik tez tugab qoldiki, nima balo, mol yeb qo'ydimi, deysiz. Yaxshiyamki, kallam ishlab, vaqtida hovlidagi tashlandiq omborga ozroq yashirib qo'yganim, mana, hozir kunimga shu yarab turibdi. Maktabdan qaytgach, xuddi o'g'ri mushukdek omborga lip etib kiraman-u uch-to'rtta kartoshkani cho'ntagimga tiqib, ko'cha adog'idagi tepalikka qarab chopaman. U yerda hech kimning ko'zi tushmaydigan xilvatroq biror

– Nega bunga yopishib olding, Ptaxa? – dedi Vadik ko‘zlarini qisinqirab menga boqarkan. – O‘ynagani kelibdi, bildingmi? Balki bu sen-u mendan o‘n rubldan yutib olmoqchi bo‘lib kelgandir...

– Koshki o‘n rublingiz bo‘lsa sizning! – dedim men ham tap tortmay.

– Voy-voy, kerak bo‘lsa, pulimiz undan ham ko‘p – sen hatto tushingda ham ko‘rmagansan! Ko‘p vaysamagin-da, Ptaxaning jahli qo‘zg‘amay boringni tika qol. Bilasan, u juda qiziqqon.

– Bir tushiraymi, Vadik?

– Qo‘y, mayli, o‘ynay qolsin. – Vadik bolalarga ko‘z qisib qo‘ydi.

– O‘yinni qiyib qo‘yadi-ku, biz buning tirmog‘igayam arzimaymiz, shundaymi?

Men ham endi ancha-munchasini bilib qolgan emasmanmi, Vadikning bu himmati sababini anglab turardim. Aftidan, bir xil, zeri-karli o‘yin joniga tekkan, shu bois ham asablarini qitiqlash va chinakam lazzat tuyish uchungina u meni safga qo‘shmoqchi edi. Lekin Vadikning izzat-nafsga tegishim bilanoq yana ko‘radiganimni ko‘raman. U nimaga tirg‘alishni biladi, boz ustiga, yonidagi Ptaxa ham uni gjij-gijlab turadi.

Men iloji boricha ehtiyotkorlik bilan o‘ynashga, «g‘azna»ga ko‘z olaytirmaslikka qaror qildim. Boshqa bolalar kabi bexosdan tanga to‘piga tegib ketmay deb «shayba»ni sekin aylantirardim. Tangalarni ham astagina bir-bir urib chiqardim. Orqamdan Ptaxa kelib qolmas-mikan, deya alanglab jonio halak edi. O‘yinga qayta qo‘shilgan dast-labki kunlarim men bir rubl yutishga atay harakat qilmadim. Menga yigirma-o‘ttiz tiyin ham kifoya edi, bir bo‘lak nonga yetsa bo‘lgani, shunisiga ham shukurlar qilar, shunisiga ham jon der edim.

Ammo ertami-kechmi ro‘y berishidan qo‘rqib yurganim, baribir, ro‘y berdi. O‘yinga qo‘shilganimning to‘rtinchı kuni bir rubl yutib olgach, ketaman deb turganimda yana do‘pposlab qolishsa bo‘ladimi! To‘g‘ri, bu gal osonroq qutuldim, biroq asorati qoldi: labim shishib, osilib ketdi. Maktabda uni tishlab yurishga to‘g‘ri kelardi. Lekin yashirishga har qancha urinmayin, Lidiya Mixaylovna razm soli-boq sezdi. U meni atay doskaga chiqarib, fransuz tilida matn o‘qitdi. Labim o‘n karra sog‘ bo‘lganida ham uni o‘xshatib o‘qiy olmasligim ayon-ku. Shunday ekan, matnni qanday o‘qiganimni aytmoqqa hojat bormikan?

– Bo‘ldi bas, yetar! – dedi kapalagi uchgan Lidiya Mixaylovna xuddi ins-jinsni quvgandek menga qo‘l siltab. – Bu nima degan gap, axir? Sen bilan alohida shug‘ullanmasam bo‘lmaydi, shekilli...

\* \* \*

Shu tariqa men uchun mushkul, azobli kunlar boshlandi. Lidiya Mixaylovna bilan yolg‘iz qolib, talaffuziga til kelishmaydigan, faqat jazo uchunginami o‘ylab topilgan so‘zlarni uning ortidan takrorlaydigan fursatni ertalabdan hadik-la kutadigan bo‘ldim. Uchta unlini bittagina cho‘ziq tovushga birlashtirishning nima keragi bor o‘zi? Masalan, «beaucoup» (ko‘p) so‘zidagi «o» harfini talaffuz qilguncha kishining joni hiqildog‘iga keladi. E, bu odamni tahqirlash emasmi? Tovushni burun orqali allambalo qilib chiyillabmi-ey talaffuz etish shartmikan? Axir, burun insonga boshqa narsa uchun kerak-ku! Har narsaning ham chek-chegarasi bor-da! Men terlab, bo‘g‘riqib ketardim, Lidiya Mixaylovna esa hech ayamay, tin ham bermay sho‘rlik tilimni qavartirgani qavartirgan. Nega endi faqat meni? Maktabda fransuz tilini menchalik ham bilmaydigan bolalar qancha! Biroq ular bemalol, yallo qilib yuribdi. Men esa xuddi qarg‘ish tekkandek, boshqalar uchun ham bir o‘zim azob tortib o‘tiribman.

Bunisi hali holva ekan. Bir kuni Lidiya Mixaylovna ikkinchi smena darslari boshlanguncha vaqtimiz juda kam, shuning uchun endi kechqurunlari uyimga kelasan, deb qolsa bo‘ladimi! U maktab yonidagi o‘qituvchilarga ajratilgan uyda yashar edi. Bu uyning qolgan kattaroq qismida maktab direktorining o‘zi turardi. Lidiya Mixaylovnaning uyiga bo‘ynimdan birov sudragandek zo‘rg‘a borardim. Shundog‘am bo‘lar-bo‘lmas narsaga o‘zini yo‘qotib qo‘yadigan, tortinchoq bola emasmanmi, avvalbosha o‘qituvchimning toza-ozoda uyiga qadam bosganimda go‘yo jonim tanamni tark etar, nafas olishga ham qo‘rqardim. Menga yechin, xonaga kir, deb birma-bir aytib turish kerak edi. U meni hatto o‘zi o‘tqizib qo‘yishi va gapni ham ichimdan sug‘urib olishi darkor. Bu urinishlarning ham fransuz tilini puxtaraoq o‘rganishimga hech nafi bo‘lmadi. Ammo shunisi ajablanarlik, o‘qituvchimning uyida biz maktabdagidan (go‘yoki u yerda ikkinchi smena xalaqit berardi) ko‘ra kamroq dars qilardik. Yana deng, Lidiya Mixaylovna uyida kuymalanib yurarkan, meni har xil savolga tutar yoki o‘zi haqida gapirib berar edi. Aytishicha, mak-

tabda u ham menga o'xshab fransuz tilini yaxshi o'zlashtirolmagan, keyin qasdma-qasdig aynan shu fanni tanlab, o'zining hech kimdan kam emasligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lgan. Albatta, bu gaplarni Lidiya Mixaylovna men uchungina o'ylab topgan edi, bunga aqlim yetib turardi.

Xona burchagiga biqingancha uning so'zlarini tinglarkanman, qachon meni qo'yib yuborarkan, deya toqatim toq bo'lib kutardim. Xonada kitob juda ko'p edi, deraza tagidagi tumbochkada o'sha vaqt-larda g'oyat noyob sanalgan, men uchun esa naqd mo'jizaning o'zi-kattakon, bejirim radiopriyomnik turardi. Lidiya Mixaylovna unga plastinka qo'yar va biyron bir kishi fransuz tili sabog'ini boshlar, xohlaymanmi-yo'qmi, buni tinglamoqqa majbur edim. O'qituvchim odmigina xonaki ko'ylakda, oyog'ida yumshoq kigiz poyabzal, xonada u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi. U menga yaqinlashgu-dek bo'lsa, bir sapchib tushardim-u yana serryayib qolardim. Lidiya Mixaylovnaning uyida o'tirganimga hali ham ishonolmas, bu yerda-gi hamma narsa men uchun kutilmagan va hayratomuz tuyular edi. Hatto uyning o'zgacha bir ifori bor ediki, umrim bino bo'lib bunday hidni tuymagan edim. Men bu hayotni bamisol chetdan kuzatar va o'zimdan, nochor-u abgor ahvolimdan uyalib tor kamzulimga battar o'ralib olar edim.

Menimcha, o'sha kezlar Lidiya Mixaylovna yigirma besh yoshlari atrofida edi. Uning xushro'y va shu boismi suratdek jonsizroq tuyuladigan chehrasini, g'ilayini bilintirmaslik uchun salgina qisilib turadigan ko'zlarini, kamdan kam hollardagini paydo bo'ladigan nim tabassumini, kalta kesilgan qop-qora sochlarni yaxshi eslayman. Ammo shunga qaramay, uning yuzida (men keyinchalik ko'p bor kuzatgan) o'qituvchilik kasbiga xos, hatto ularning tabiatan mayin va ko'ngilchanlarida ham ko'zga tashlanadigan sovuq bir qat'iyatdan asar ham yo'q edi. Lidiya Mixaylovnaning qiyofasida allanechuk xavotir, mug'ombirona bir hayrat ham bor ediki, go'yo o'ziga o'zi «qiziq, men bu yerga qanday kelib qoldim, nima qilib yuribman o'zi» deyayotgandek tuyulardi. Endigi taxminimcha, o'sha vaqtida u bir marta erga tegib chiqqan edi. Ovozidan, yengil, lekin qat'iyat bilan erkin qadam tashlashlari, umuman, o'zini tutishidan uning ancha tajribali ekani sezilib turardi. Bundan tashqari, men doim fransuz yoki ispan tilini o'rganadigan qizlar o'z tengdoshlari, deylik, rus yoki ne-

mis tilini o'rganadiganlariga nisbatan ancha ilgari voyaga yetadi, deb o'ylardim.

Mashg'ulotni tugatganimizdan keyin Lidiya Mixaylovna meni ovqatlanishga taklif qilganida qanchalik o'zimni yo'qotib, dovdirab qolganimni hozir eslasam, uyalib ketaman. Ochlikdan qornim tatalab ketayotgan bo'lsa-da, bunday vaqtida ishtaham g'ippa bo'g'ilardi-qolardi. Lidiya Mixaylovna bilan bir dasturxonda o'tirish? Yo'q, aslo! Undan ko'ra ertagacha fransuz tilini boshdan oyoq yodlab chiqqanim yaxshi, qaytib shu uyga kelmasam bo'lgani. Mabodo u bilan ovqatlangan taqdirimda ham non bo'lagi tomog'imga tiqilib qolardi, bu aniq. Shu vaqtgacha men Lidiya Mixaylovna ham bizga o'xshab oddiy taomlardan tanovul qiladi deb o'yamas ekanman. Menga u boshqalarga o'xshamaydigan, shu qadar hayratomuz odam bo'lib tuyulardiki, uning ovqat yeishini tasavvur ham qilolmasdim.

Men sapchib turib, qornim to'q, yemayman, deya g'o'ldiragancha ko'cha eshik tomon tisarildim. Lidiya Mixaylovna ajablanib, ranjigandek tikilib qoldi, ammo hozir meni zo'rlik bilan ham to'xtatib bo'lmasdi. Orqa-oldimga qaramay yugurib chiqib ketdim. Bu hol bir necha bor takrorlangandan so'ng hafsalasi pir bo'lgan Lidiya Mixaylovna ortiq meni dasturxonga taklif qilmay qo'ydi. Nihoyat, erkin nafas ola boshladim.

Bir kuni pastki qavatdag'i yechinish xonasida bir kishi menga nimadir qoldirib ketganini aytishdi. Albatta, kolxozimiz haydovchisi Vanya amaki-da, boshqa kim ham bo'lardi! Üyda hech kim yo'q, eshiklar qulf, mening mакtabdan qaytishimni kutishga vaqtি bo'limgani uchun hoynahoy shu yerga tashlab ketgandir.

Dars tugaguncha zo'rg'a chidab o'tirdim-u, keyin pastga qarab chopdim. Maktab farroshi Vera xola burchakda turgan, odatda pochta orqali jo'natiladigan salmoqligina oq faner qutiga ishora qildi. Hayron bo'ldim: nega qutiga solingan, onam yegulikni oddiy xaltachada yuborar edi-ku? Balki bu menga emasdir? Ammo quiting ustiga mening ismi sharifim va o'qiydigan sinfim yozilgan ekan. Chamasi, birovga adashib ketmasin, deya buni Vanya amaki shu yerda o'tirib yozgan. Nega endi onam qo'qqisdan oziq-ovqatni bunaqa qutida yuboradigan bo'lib qoldi ekan? Qarang-a, madaniyatli bo'lib ketibmiz-da!

Ichida nimasi borligini bilmay turib uni uyg'a olib ketishga sabrim yetarmidi? Kartoshka emasligini aniq sezib turibman. Nonmi desam – quti kichkinalik qiladi, buning ustiga nonni qutiga solishga balo bormi? Qolaversa, onam yaqindagina yuborgan edi, hali yeb tugatganimcha yo'q. U holda bu nima ekan? Shu yerning o'zida, matabdayoq zina ostiga tushib – u yerda bolta borligini oldindan bilar-dim – qutini ochdim. Bu yer qorong'i edi, chiqib atrofga o'g'rinchalangladim-u qo'limdag'i qutini yaqinroq tokchaga olib bordim.

Ochdim-u angrayib qoldim – oq qog'ozga o'ralgan makaron. Qoyil-e! Bir tekis terilgan sariq makaron yorug'da ko'zimga yarq etib tashlandi, hozir bundan ortiq boylik yo'q edi menga. Ha, endi tushundim nima uchun onam buni qutida yuborganini: maydalanib, sinib ketmasin, beshikast yetib borsin degan-da. Sekingina bir donasini sug'urib oldim, ichiga puflab ko'rdim va og'zimdan so'lagim kelib shartta qisirlatib chaynay boshladim. Keyin ikkinchi, uchin-chisini chaynar ekanman, qutini qayerga yashirishni o'ylardim. Axir, makaronni bekamning tashlandiq omboridagi ochofat kalamushlarga yem qilib qo'yolmayman-da. Nima, onam oxirgi pulini sarflab ular uchun sotib olibdimi buni? Yo'q, makaronni har joyga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bu qandaydir oddiy kartoshka emas, axir!

Birdaniga tomog'imga nimadir tiqilib qoldi. Makaron... Rostdan ham onam qayerdan oldi ekan buni? Qishlog'imizda makaron degani umuman bo'limgan, bo'lganida ham bunaqa narsani u yerda sotib olib bo'psiz! U holda buni qanday tushunish kerak? Shosha-pisha, qiziqish bilan va shuning barobarida nimagadir umid ham qilib makaron o'ralgan qog'ozni ko'tarib qaradim, tagidan bir necha chaqmoq yirik-yirik oqqand va ikki bo'lak gemotogen chiqsa deng! Bundan ma'lum bo'ladiki, qutini onam yubormagan. Unda kim ekan-a? Qopqoqni qayta ko'zdan kechirdim: o'zimning ismi sharifim, sinfim yozilgan, demak, menga atalgan. Ammo g'alati-da, juda ham g'alati.

Men qutini qayta mixlab deraza tokchasida qoldirdim-da, o'zim ikkinchi qavatga chiqdim. O'qituvchilar xonasini qarasam, Lidiya Mixaylovna ketib qolgan ekan. Hechqisi yo'q, topamiz, qa-yerda yashashini bilamiz-ku, borganmiz uyiga. Ha, demak shunday: dasturxonga o'tirishga unamadingmi – uyingda bemalol yeysan debsiz-da! Lekin bunaqasi ketmaydi. Boshqa hech kimdan gumonim ham yo'q-da. Onam emasligi kundai ravshan: chunki u bu tansiq

narsalar qayerdan, qanday kelganini albatta yozib quti ichiga solib yuborgan bo'lardi.

Men qo'limda quti bilan yonlab eshikdan kirib borganimda, Lidiya Mixaylovna o'zini hech gapdan xabari yo'qdek tutdi. Ro'parasida polda turgan qutiga qarab, hayron bo'lgandek:

– Bu nima? Nimalarni ko'tarib yuribsan? Nega bu yerga olib kelding? – deb so'radi.

– Bu sizning ishingiz, – dedim ovozim titrab, bo'g'ilib.

– Nima qipman men? Nimalar deyapsan o'zi?

– Maktabga buni siz yuborgansiz. Bilaman, siz qilgansiz bu ishni.

Lidiya Mixaylovnaning qizarib ketganini, xijolat tortayotganini sezdim. O'shanda bir martagina qo'rqlmay uning ko'ziga tik qaragan bo'lsam kerak. U o'qituvchimmi yoki xolavachchammi, shu tobda buning sariq chaqalik ahamiyati yo'q edi menga. Hozir u emas, men savol berardim, yana deng fransuz tilida emas, hech qanday artikl-partiklsiz rus tilida. Qani, bir javob bersin-chi.

– Nega mendan ko'ryapsan buni?

– Negaki, bizning qishloqda makaron-pakaron yo'q. Ge-matogenni-ku gapirmsa ham bo'ladi.

– Rostdanmi? Hecham bo'lmaydimi?! – U shunchalik tong qoldiki, beixtiyor o'zini fosh etib qo'ydi.

– Hecham bo'lmaydi. Bilib qilish kerak edi bu ishni.

Lidiya Mixaylovna birdan kulib yubordi. Meni quchmoqchi bo'lgan edi, o'zimni chetga tortdim.

– Ha, to'g'ri aytasan, bilish kerak ekan. Shunisini o'ylamabman-a, qara-ya... – U xayol surib qoldi. – Ammo buni men qaydan bilay, shaharlik bo'lsam, axir! Xo'sh, bizda bunaqa narsalar yo'q, deysanmi? Qani unda ayt-chi, sizlarda nimalar bo'ladi o'zi?

– No'xat bo'ladi. Sholg'om.

– No'xat... sholg'om... Bizda, Kubanda esa asosan olma. Eh-he, hozir ayni g'arq pishgan payti! Men o'zi Kubanga ketmoqchi edim, nima bo'lib bu yoqlarga kelib qolganman-da. – Lidiya Mixaylovna uh tortib qo'ydi. – Ko'p jahling chiqavermasin endi. Bilsang, seni ranjitish niyatim yo'q edi, sirayam. Shu savil makaronni deb chuv tushishim tushimga kiribdimi? Mayli, endi o'ylab ish qilaman. Buni esa olaqolgin...

– Olmayman, – dedim qo'rslik bilan.

– Nega bunday o‘jarsan-a? Och-nahor yurganingni bilaman-ku. Men yolg‘izman, pulim bor, yetarli. Xohlagan narsamni sotib olaveraman, keyin – yolg‘iz o‘zimga axir... Yana bilsang, chimxo‘rman, semirib ketishdan qo‘rqaman-da.

– Men hecham och yurganim yo‘q.

– Kel, men bilan tortishma, hammasini bilaman. Bekang bilan gaplashgan edim. Makaronni eltib qaynatsang, totligina bir nima pi-shirib yesang, buning nimasi yomon, xo‘sh? Umrimda bir martagina senga g‘amxo‘rlik qilsam qilibman-da. So‘z beraman, qaytib senga hech narsa yubormayman. Buni esa ol, iltimos. Yaxshi o‘qish uchun to‘yib ovqatlanishing kerak. Maktabda balogayam aqli yetmaydigan va ehtimol, shundayligicha o‘tib ketadigan takasaltanglar qancha, axir! Sen esa iqtidorli bolasan, o‘qishni tashlamasliging kerak.

Uning ovozidan butun vujudim bo‘shashib ketayotganini sezdim – u meni bu narsalarni olishga ko‘ndirishidan qo‘rqardim. Lidiya Mixaylovna haq gapni aytayotganini anglab tursam-da, uni baribir hazm qilgim kelmayotgani uchun ham fig‘onim oshardi. Bosh chay-qay-chayqay bir balolarni g‘o‘ldiragancha yugurib xonadan chiqib ketdim.

\* \* \*

Shu gaplardan keyin ham biz mashg‘ulotlarimizni to‘xtatmadik, men hamon Lidiya Mixaylovnanikiga qatnardim. Aftidan, menga til o‘rgatishga u endi astoydil kirishgan edi. Fransuz tili bo‘lsa – fransuz tili-da, dedi shekilli. Natijasi ham tezda ko‘rinib qoldi: bora-bora fransuzcha so‘zlarni xiyla durust talaffuz qila boshladim, endi ular og‘ir toshdek oyog‘imdan pastga tortmas, aksincha, jaranglab qayer-largadir qanot qoqib uchardi go‘yo.

– Yaxshi, – deya meni ruhlantirib qo‘yardi Lidiya Mixaylovna.  
– Bu chorak beshga tortmaydi-yu, ammo keyingisida albatta besh bo‘ladi.

Anavi quti haqida qaytib gap bo‘lmadi. Biroq men har ehtimolga qarshi sergak edim: Lidiya Mixaylovna yana bir nimalarni o‘ylab topmaydi deb bo‘larmidi? O‘zimdan misol: agar biror ishning hech uddasidan chiqavermasam, bor e‘tiborimni o‘shanga qarataman, shunchaki befarq tashlab qo‘yolmayman. Lidiya Mixaylovna meni mudom allaqanday umidvorlik bilan kuzatib turgandek tuyular, ayni

chog'da odamoviligidan kulayotganga ham o'xshar edi – bundan battar jahlim chiqardi. Ammo, taajjubki, bu hol o'zimni dadilroq tutishimga yordam berardi. Men endi bu yerda qadam bosishga ham iymanib turadigan avvalgi yuvosh, notavon bola emas edim. Astasekin Lidiya Mixaylovnaga, uning uyiga ham ko'nika boshladim. Al-batta, hanuz sal-pal tortinar, burchakka biqinib o'tirar, chorig'imni stul tagiga berkitishga urinar edim. Lekin endi o'zimni xiyla erkinroq tutar, ruhiy tushkunligim ham bosilgan, hatto Lidiya Mixaylovnaga savollar berar va u bilan bahslashardim ham.

U meni dasturxonqa o'tqazishga yana bir bor urinib ko'rdi – foydasi bo'lmadi. Men hech bo'yin bermas, o'jarlikda o'ntasidan o'tar edim.

Biz endi uydagi mashg'ulotlarni to'xtatsak ham bo'lardi. Asosiyisi, men fransuzchani o'zlashtirdim, tilim ham ancha-muncha kelishib qoldi. Maktabdagagi mashg'ulotlar orqali bilimimni mukammallash-tirib boraverishim mumkin, oldinda hali necha yil bor! Hammasini birdaniga boshdan-oxir o'rganib olsam, keyin nima ish qilaman? Ammo buni Lidiya Mixaylovnaga aytishga jur'atim yetmasdi. U biz hali shug'ullanishimiz kerak deb hisoblar, shunga ko'ra fransuz tili ni o'rganishdek mashaqqatli yumushni yana-tag'in davom ettirishga majbur edim. Darvoqe, shuyam mashaqqat ekanmi? Menda o'zim ham sezmag'an, kutmag'an holda tilga nisbatan havas uyg'ongan edi. Bo'sh qoldim deguncha, hech kimning qistovisiz ham lug'at titkilar, darslikdagi hali o'tilmagan matnlarga ko'z yogurtirib o'tirar edim. Jazo men uchun endi huzur-halovatga aylandi, desam ham bo'lardi. Ammo o'r-o'jarligim haliyam qolmagan edi: erisholmagan bo'lsam – albatta erishaman, aminmanki, shu tilni mukammal egallyaman. Nima, mening zuvalam boshqa loydan qorilgan ekanmi? Agar Lidiya Mixaylovnani kiga borishga to'g'ri kelmaganda-ku... O'zim, ha, o'zim ham...

Bir kuni – makaron voqeasidan ikki haftalar o'tib Lidiya Mixaylovnan mendan:

- Xo'sh, endi pulga o'ynamayapsanmi? Yoki haliyam biror xilvatda yig'ilib olib o'ynab turasizlarmi? – deya so'rab qoldi kulib.
- Hozir o'ynab bo'larkanmi?! – dedim taajjub aralash deraza tarafga – oppoq qorga ishora qilib.
- O'zi qanaqa o'yin edi u? Qanaqa o'ynaladi, a?

– Nega so‘rayapsiz? – dedim hushyor tortib.  
– Qiziq-da. Bir vaqtlar bolaligimizda biz ham shunga o‘xhash  
bir o‘yin o‘ynar edik. O‘sha emasmikan, shuni bilmoqchiman. Ayt,  
aytib beraqla.

Gapirib berdim, ammo Vadik, Ptاخа haqida, keyin o‘zimning  
o‘yinda ishlataligida mayda hiylalarim to‘g‘risida og‘iz ochmadim,  
albatta.

– Yo‘q, biz «pristenok» o‘ynardik, – dedi Lidiya Mixaylovna  
bosh chayqab. – Shunday o‘yinni bilasanmi?

– Bilmayman.

– Mana, qara. – U chaqqon o‘rnidan turdi-da, sumkasidan bir  
nechta tanga oldi. Keyin devor tagidagi stulni nari surdi. – Yaqinroq  
kel, qara, men tangani devorga otaman, – deya qo‘lidagini sekin  
irg‘itdi, tanga jaranglab aylanib polga tushdi. – Endi esa sen urasan,  
– dedi Lidiya Mixaylovna ikkinchi tangani qo‘limga tutqazib. – Ammo  
shunisiga e‘tibor qilginki, tangang iloji boricha menikiga yaqin joyga  
tushsin. Orasini bir qo‘llab o‘lchash ham, ularni olish ham mumkin  
bo‘lsin. O‘yinning yana bir nomi: o‘lchov-o‘lchov. Yetkaza olsang –  
yutganing. Qani, ot-chi endi.

Otdim, tanga qirrasi bilan polga tushib burchakka yumalab ketdi.

– O‘-ho‘-o‘! – dedi Lidiya Mixaylovna qo‘l silkib. – Uzoqqa  
tushdi. Qani, sen boshla-chi. Yodingda bo‘lsin, mening tangam se-  
nikiga tegsa, hatto qirrasi tegib ketsa ham – men ikki karra yutgan  
bo‘laman. Tushunyapsanmi?

– Nimasini tushunmay?

– O‘ynaymizmi?

Men quloqlarimga ishonolmasdim:

– Nima, siz bilan o‘ynaymanmi?

– Nima qipti?

– Siz – o‘qituvchisiz-ku!

– Iya, nima bo‘pti? Nima, o‘qituvchi boshqacha odammi? Bil-  
sang, o‘qituvchi bo‘lish, o‘qitish, faqat o‘qitaverish ba’zan jon-  
ga ham tegib ketadi. Bunday qilish mumkin, unday qilish mumkin  
emas, deb hammavaqt o‘zingni tiyib turishing kerak... – Lidiya  
Mixaylovna ko‘zlarini g‘alati qisib o‘ychanlik bilan derazaga ti-  
kildi. – Gohida o‘qituvchi ekaningni bir pasgina unutish ham foy-

dali. Aks holda, odam isi yoqmay qoladi, boshqalar ham sen bilan o'tirganda zerikadi. Ehtimol, o'qituvchi uchun eng muhim o'zini doim jiddiy tutish emas, kimadir nimanidir o'rgata olishini anglashdir. – U bir qo'zg'alib oldi-yu, negadir birdan xursand bo'lib ketdi. – Bolaligimda o't-olov qiz edim, ota-onam mening dastimdan ko'p azob tortgan. Hozir ham goh-gohida sakrab-irg'ishlagim, allaqayoqlarga yugurgim, har qanday qolip-u tartib-qoidalarni itqitib tashlab, xohlagan ishimni qilib yurgim keladi. Mana shu yerda sakragan, hakkalagan vaqlarim ham ko'p bo'lgan. Agar bilsang, odam uzoq yashab emas, bolaligi bilan kayrlashgan kundan qariy boshlarkan. Men jon-jon deb har kuni sakragan bo'lardim, ammo devorning u yog'ida Vasiliy Andreyevich yashaydi-da. U juda jiddiy odam. Bizning bu yerda o'yin o'ynayotganimizni u bilmasligi kerak, tushunding?

– Biz o'ynayotganimiz yo'q-ku. Siz faqat o'yin qoidasini ko'rsatib berdingiz, xolos.

– Biz shunchaki, yolg'onidakamiga o'ynaymiz. Lekin baribir buni Vasiliy Andreyevichga sotib qo'yamsan, xo'pmi?

Yo tavba, dunyoning ishlarini qarang! Kechagina pul tikib o'ynaganim uchun Lidiya Mixaylovna meni direktorning oldiga olib kiradi deb yuragim yorilgudek bo'lmanamidi? Endi esa u mendan sotib qo'yma, deb iltimos qilib o'tiribdi. Bu yog'i qandoq bo'ldi? Bilmayman, nimadan ekan, atrofga alang-jalang qarab, ko'zlarim pirpiragancha dovdirab turardim.

– Xo'sh, o'ynab ko'ramizmi? Yoqmasa – o'ynamaymiz.

– Mayli, – deya ikkilanibroq rozi bo'ldim men.

– Sen boshla.

Tangalarni qo'lga oldik. Lidiya Mixaylovna bir vaqtlar rostdan ham bu o'yinni o'ynagan ekan – ko'rinish turardi. Men esa tangani devorga qay yo'sinda – qirrasi bilanmi yoki yuzalabmi, qanday bandlikda, qattiqroqmi va qachon otganim ma'qul, deya endi-endi chandalab ko'rayotgan edim. Otgan tangalarim o'z-o'zidan chetga uchib ketardi. Agar hisoblab ko'rilsa, men dastlabki daqiqalardayoq ancha-muncha pul yutqazdim hisob – bu o'yinda hech qanaqa hiyla-nayrang ishlatib bo'lmasdi-da. Hammasidan burun men Lidiya Mixaylovna bilan o'ynayotganimdan qattiq xijolat chekar, qiyalar va shu sababdan o'yinga ham tuzuk kirishib ketolmas edim. Bunaqa-

si axir yetti uxbab tushimga kirmagan, xayolimning ko‘chasidan ham o‘tmagan edi-da. Men hadeganda fikrimni bir yerga jamlayolmadim – osonmi?! Ammo o‘zimga kelib o‘yinga jiddiy kirishganimda Lidiya Mixaylovna shartta to‘xtatib:

– E, bunday o‘ynagandan ma’ni yo‘q, – deb qoldi qaddini rostlab va ko‘zini to‘sib tushgan sochini silkib orqaga tashlar ekan.

– O‘ynagandan keyin rostakamiga o‘ynash kerak. Bizniki nima – xuddi uch yashar bolaning ermagiga o‘xshaydi.

– U holda pul tikish kerak bo‘ladi, – dedim men botinib-botinmay.

– Bo‘lmasam-chi! Qo‘limizdagil pul bo‘lmay nima? Pul tikiladigan o‘yinni o‘rtaga boshqa narsa qo‘yib o‘ynab bo‘lmasa! Shunisi bir vaqtning o‘zida ham chatoq, ham yaxshi. Biz eng kam pulga kelishib o‘ynasak ham bo‘laveradi, qiziqish uyg‘onadi-da har holda.

Men churq etmadim, nima qilish, nima deyishga lol edim.

– Nahotki qo‘rqayotgan bo‘lsang? – dedi Lidiya Mixaylovna meni gij-gijlagandek.

– Hecham-da! Men hech narsadan qo‘rqlayman.

Cho‘ntagimda chaqalarim bor edi. Qo‘limdagini Lidiya Mixaylovnaga qaytarib berib, o‘zimnikini oldim. Nima ham derdik, mayli, Lidiya Mixaylovna, siz xohlagandek rostakamiga bo‘la qolsin. Menga nima, men boshlamadim-ku, axir. Avvaliga Vadik ham meni nazarga ilmagan edi, keyin o‘ziga kelib musht ko‘tarib qoldi-ku. O‘sha o‘yinni o‘rganib olgan edimmi, demak, bunisini ham eplarman. Bu fransuz tili emas, tezgina o‘zlashtirib olsam kerak.

Faqat bir shartni qabul qilishimga to‘g‘ri keldi – Lidiya Mixaylovnaning panjası uzun, shuning uchun ham tangalar orasidagi masofani u bosh va o‘rta barmog‘ida, men esa odatdagidek bosh barmog‘im va jimjilog‘im bilan o‘lchaydigan bo‘ldik. Bu adolatli qaror edi va men darrov rozi bo‘ldim.

O‘yinni qaytadan boshladik. Xonadan dahlizga chiqib oldik – u yer keng-mo‘lgina, yog‘och devori bir tekis, tanga otgani o‘ng‘ay. Biz tangani otgach tizzalab olar, polda emaklab yurar, bir-birimizga turtinar, barmoqlab masofani o‘lchagandan keyin yana qaddimizni rostlar edik. Oxirida Lidiya Mixaylovna hisobni aytardi. O‘yin choc‘i u rosa shovqin solar, chapak chalar, xullas, o‘zini o‘qituvchi

emas, oddiy qizaloqdek tutar ediki, bir-ikki marta mening ham zav-qim qo'zib baqirvorgim keldi. Asosan Lidiya Mixaylovna yutardi, men esa ko'proq yutqazardim. Ana-mana deguncha sakson tiyin boy berib qo'yibman. Bir amallab bu qarzni o'ttizga tushirgan edim, Lidiya Mixaylovna tangasini uzoqdan mo'ljallab turib otdi-yu hisob yana ellikka chiqdi. Men xavotirga tushib qoldim. Hisob-kitobni o'zin tugagach qilamiz, deb boshdan kelishib olgan edik. Agar ahvol shu tarzda davom etadigan bo'lsa, cho'ntagimda bori ham yetmasligi aniq. Bir rubldan salgiňa ko'proq pulim bor o'zi. Demak, shundan oshirmaslik kerak, aks holda sharmanda bo'laman!

Bir vaqt qarasam, Lidiya Mixaylovna yutishga uncha harakat ham qilmayapti. Tangalar orasidagi masofani u panjalarini oxiriga-chä yozmay, barmog'ini bukibroq o'lchardi. Go'yoki uning barmog'i yetolmagan tangaga meniki hech chiranihsiz bermalol yetsa deng. Jahlim chiqib ketdi, sapchib o'rnimdan turdim-da:

– Yo'q, bunaqa bo'lsa o'ynamayman, – dedim. – Nega menga yutqazib beryapsiz? Haqiqiy o'zin emas bu, g'irromlik!

– Rostdan ham, unga qo'lim yetmadi, – deya o'zini oqlay boshla-di Lidiya Mixaylovna. – Panjalarim yog'ochdek qotib qolganmi-yey, hech ochilmaydi.

– Ochiladi!

– Xo'p, mayli, harakat qilib ko'raman.

Matematikada qandayligini bilmayman-u, hayotda eng ma'quli zid tomonni yoqlab turib isbot qilish ekan. Ertasi kuni Lidiya Mixaylovna barmog'i tangaga yetishi uchun bildirmaygina unfi beriroq surib qo'yayotganini ko'rib angrayib qoldim. Menga bir qarab olib, bu nayrangini yaqqol ko'rib turganimni go'yo sezmayotgandek va yana hech narsa bo'limgandek tangani surib qo'yaverdi.

– Nima qilyapsiz? – dedim achchiqlanib.

– Menmi? Nima qipman?

– Nega tangani surib qo'ydingiz?

– Hecham-da, o'zi shu yerda yotgan edi, – deya qandaydir bepisandlik bilan, anavi Vadik-u Ptaxadan aslo qolishmaydigan bezbетона bir tarzda inkor qildi Lidiya Mixaylovna.

Obbo! Yana o'qituvchi emish-a! Tangani surib qo'yanini o'z ko'zim bilan ko'rdim-ku. Tag'in tegmadim, deya meni ishontirmoq-

chi bo'ladi-ya. Buning ustiga, ustimdan kulgani-chi! Nima, ko'zi ko'r deb o'ylayaptimi meni? Yoki yosh bola fahmlayaptimi? Fransuz tilini o'rgatarmishlar bu kishim! Kechagina atayin yutqazishga urin-ganini unutib, yana hiyla ishlatmasmikan bu, degan xavotirda uning xatti-harakatlarini sergaklik bilan kuzatmoqqa tushdim. Buni qarang, kimsan Lidiya Mixaylovna odamni laqillatib o'tirsa-ya!

O'sha kun biz o'n-o'n besh daqiqagina dars qildik, xolos. Keyingi kunlari mashg'ulotlarimiz bundan ham qisqardi. Endi biz tamo-mila boshqa narsaga berilib ketgan edik. Lidiya Mixaylovna menga ozroq matn o'qitar, ba'zi kamchiliklarimni aytib, yana bir takrorlatib ko'rар edi-da, so'ng cho'zib o'tirmay o'yinga o'tib qo'yaqlardik. Ikki marta oz-ozdan yutqazganidan keyin men ham yuta boshladim. Bu o'yinni ham juda tez o'rganib, miridan-sirigacha – qayerga, qanday urishni, tangani o'lchovga solmaslik uchun nima qilish dar-korligini puxta bilib olgan edim.

Yana pulli bo'lib qoldim. Yana bozordan sut sotib ola boshladim. Endi maxsus idishchadagi yaxlatilgan sutdan olardim. Yuza-sidagi qaymoqni avaylabgina sidirib, eriy boshlagan bo'lagini apil-tapil og'zimga solardim. Mazasidan butun tanam yayrab ketardi, ko'zlarimni yumib olardim. Keyin idishini to'ncarib, pichoq bilan ura-ura qolganini ham ko'chirardim-da, eriguncha kutib, qora non-ning ustidan ichib yuborardim.

Har qalay, bir amallab kunim o'tib turardi. Yaqin kelajakda, ya'ni urush asoratlari bitgach, baxtli hayotga erishuvimiz va'da qilingan edi.

Albatta, Lidiya Mixaylovnaning qo'lidan pul olayotib juda xijolat bo'lardim. Lekin buni halol yutib oldim-ku, degan o'y hamisha menga taskin berardi. Keling, o'ynaylik, deb men taklif qilmayman-ku, tashabbus doim Lidiya Mixaylovnaning o'zidan chiqadi. Men esa rad etishga jur'at qilolmayman. Nazarimda, o'yindan u rosa maza qilardi: meni tortqilar, kular, xullas, juda yayrar edi.

Eh, buning oqibati nima bo'lishini bilganimizda-ku...

...Ro'parama-ro'para tizzalab olgancha hisob ustida talashayot-gan edik. Sal oldin ham nimagadir tortishib olgan edik o'zi.

– Tushunsang-chi, hoy xomkalla, – deya qo'llarini paxsa qilib Lidiya Mixaylovna menga gap uqtirmoqchi bo'lardi. – Seni aldab

nima qilaman? Hisobni men chiqaraman axir, sen emas, har holda, sendan yaxshiroq bilsam kerak buni. Men ketma-ket uch marta yut-qazdim, undan oldin «chikka» bo‘lgan edi.

- Unisini qo‘yib turing.
- Nega qo‘yar ekanman?

Bir-birimizga gal bermay baqir-chaqir qilib yotganimizda hayratangiz, ammo qat’iy, jarangdor ovoz eshitildi:

- Lidiya Mixaylovna!

Qotib qoldik – eshik oldida Vasiliy Andreyevich turardi.

- Lidiya Mixaylovna, nima gap? Bu yerda nima bo‘lyapti o‘zi?

Lidiya Mixaylovna sekingina o‘rnidan turdi. Yuzlari bo‘g‘riqib, to‘zg‘ib ketgan sochini tekislagan bo‘ldi:

– Vasiliy Andreyevich, kirishdan oldin eshikni taqillatsangiz bo‘lardi...

– Taqillatdim. Hech kim javob bermadi-da. Xo‘s, ayting-chi, nima bo‘lyapti bu yerda? Direktor sifatida bilishga haqqim bordir.

– «Pristenok» o‘ynayotgan edik, – dedi Lidiya Mixaylovna xotir-jamgina.

– Pulga o‘ynayapsizmi? Shu bilan-a?! – dedi menga ishora qilib Vasiliy Andreyevich. Qo‘rqanimdan biron yerga berkinib olarman deya emaklagancha to‘sinq orqasiga o‘tib ketdim. – Demak, o‘quvchingiz bilan o‘ynayapsiz? Shunaqami?

- Ha, shunaqa.

– Bilasizmi... – xuddi havo yetishmayotgandek direktor bo‘g‘ilib qoldi. – To‘g‘risi, hozir sizga nima deyishga ham hayronman. Bu – jinoyat! Yo‘ldan ozish. Yosh bolani axloqsizlikka boshlash deydilar buni. Yana, yana... Yigirma yildan beri maktabda ishlab hali bunaqasiga duch kelmagan edim...

U taajjubdan qo‘llarini boshi uzra ko‘tardi.

\* \* \*

Uch kundan so‘ng Lidiya Mixaylovna jo‘nab ketdi. Ketishidan bir kun oldin, maktabdan qaytishimni kutib turgan ekan, meni uyga-cha kuzatib keldi.

– Yurtimga – Kubanga ketyapman, – dedi u xayrlashayotib. – Tinch-xotirjam o‘qiyvergin, anavi bema’ni voqeа uchun hech kim

senga g‘iq etolmaydi. Hammasiga men aybdorman. Sen esa faqat o‘qishni o‘yla. – U sochimni bir to‘zg‘itib qo‘ydi-da, ketdi.

Shu-shu, qaytib uni ko‘rmadim.

Qish kunlari edi, ta’tildan so‘ng maktabga mening nomimga pochtadan bir quti keldi. Men yana zina ostidan boltani olib uni ochdim-u, bir tekisda zich qilib terilgan makaronni ko‘rdim. Tagidan esa paxtaga o‘rog‘liq uch dona qizil olma chiqdi.

Men olmani rasmdagina ko‘rgan edim, lekin hozir qo‘limda ushlab turgan narsa olma ekanini darrov bildim.

*Shohsanam tarjimasi.*



---

## MUNDARIJA

Omon bo‘lsang, unutma. <i>D. Matyoqubova tarjimasi</i> .....	3
So‘nggi muhlat. <i>D. Matyoqubova tarjimasi</i> .....	236
Yong‘in. <i>I. G‘afurov tarjimasi</i> .....	419
Jom sadosi. <i>I. G‘afurov</i> .....	487
Mariyaga pul kerak. <i>Shohsanam tarjimasi</i> .....	489
Fransuz tili saboqlari. <i>Shohsanam tarjimasi</i> .....	598

*Adabiy-badiiy nashr*

**Valentin RASPUTIN**

**OMON BO'LSANG, UNUTMA**

*Hikoya va qissalar*

Rus tilidan *Ibrohim G'afurov, Dilafruz Matyoqubova,  
Shohsanam tarjimalari*

Nashr uchun mas'ul  
*Azimboy Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi  
*Jamshid Matyoqubov*

Muharrir *Jamshid Matyoqubov*  
Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*  
Texnik muharrir *Lina Xijova*  
Kichik muharrir *Matluba Salimova*  
Musahhihlar: *Muqaddas Hafizova, Gulnoza Habibova*  
*Kompyuterda tayyorlovchi Gulmira Qulnazarova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.  
Boshishga 2021-yil 9-sentabrda ruxsat etildi.  
Bichimi  $60 \times 90^{1/16}$ . Ofset qog'ozisi. «New Roman» garniturasida  
offset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 39,50.  
Nashr tabog'i 39,32. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-352.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20  
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.  
e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)



42 395,90 сүн.





V.G. Rasputin

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7333-7-4

9 789943 733374